15.*Javob ber, qoshingda cho‘kmakdaman tiz,*

16.*Javob ber, makringdan meni qil ogoh.*

“PENCERENİ…” (26)

1. Pencereni kaplar akşam zulmeti,

2. Işıklarını karartıp batar ay da.

3. Niçin beni sadece şu karanlık vakti

4. Kucaklayıp seversin, nazik meleğim?

5. Semavî gözlerin saçıp kıvılcım,

6. Niçin bakar sadece o an?

7. Ah, aslında bu gözler yabancıdır benim için

8. Gündüz meşalesi parladığında.

9. Üzerimden gece gibi dökülür saç,

10. Kara gece, yanar ateş yüzlerde.

11. Niçin başkalarına ışık saçmış güneş

12. Bizim aramızda olur perde?

13. Niçin ikimizi bırakıp yalnız,
14.Kâinatın dibinde güneş çeker ah?
15. Cevap ver, huzurunda çökmekteyim diz,
16. Cevap ver, hilenden beni et haberdar, (1963)

“O‘YLARDIMKI…” (27)

1. *O‘ylardimki, nomingni sening*
2. *Takror etmas endi tillarim.*
3. *Ko‘p bo‘lmishki, qo‘msab vaslingni*
4. *Yo‘llaringda oqmas unlarim,*
5. *Men beparvo yayrab arshimda*
6. *Sen uchun ham yurardim shodon.*
7. *Nechun paydo bo‘lding qarshimda,*
8. *Yana kabob bo‘lsinmi bu jon.*
9. *Yana qo‘shiq aytaymi ingrab,*
10.*Yana anduh bo‘lsinmi ishim?!*
11.*Istamayman, g‘amimni tinglab,*
12.*Do‘stlarimning ma’yus bo‘lishin...*
13.*Xayr endi, xayr dilrabo,*
14.*Mayli kuylay nomingni aytib,*
15.*Katta yo‘lga chiqqanman, ammo,*
16.*Ul so‘qmoqqa bormasman qaytib,*
17.*Xayr endi, xayr, dilrabo.*

“DÜŞÜNÜRDÜM Kİ…” (27)

1. Düşünürdüm ki, ismini senin
2. Tekrar etmez şimdi dillerim.
3. Çoktandır, özleyip visalini,
4. Yollarında duyulmaz seslerim,
5. Ben pervasız keyiflenip arşımda
6. Senin için de yürürdüm şâdân,
7. Niçin peyda oldun karşımda,
8. Yine kebap olsun mu bu can.
9. Yine koşuk söyleyeyim mi inleyip,

10. Yine sıkıntı mı olsun işim?!

11.İstemem, gamını dinleyip,

12. Dostlarımın meyus olmasını…

13. Hoşça kal şimdi, hoşça kal dil-rüba,

14. Tamam türkü söyleyeyim adını anıp,

15.Büyük yola çıkmışım, ama,

16.O sokağa gitmem geri dönüp,

17. Hoşça kal şimdi, hoşça kal dil-rüba. (1963)

QALAM (28)

1. *Erkalangiz qalamni olib,*

2. *O‘pib qo‘ying uni muloyim.*

3. *Sho‘rlik o‘zi yalang‘och qolib,*

4. *Kiyintirar egasin doim.*

KALEM (28)

1. Sevin kalemi alıp,

2. Öpün onu mülayim.

3. Talihsiz kendisi çırılçıplak kalıp,

4. Giyindirir sahibini daima. (1963)

“JAJJI GO‘DAK, SEN TUG‘ILDING…” (29)

1. *Jajji go‘dak, sen tug‘ilding, sen uchun*

2. *Kim belanchak yasab turar shu damda.*

3. *Kimdir senga uchqur tulpor egarlar,*

4. *Kimdir senga hassa yo‘nar shu damda.*

“MİNİK BEBEK SEN DOĞDUN…” (29)

1. Minik bebek, sen doğdun, senin için

2. Kim beşik yapar şu demde?

3. Kim sana çevik küheylan eyerliyor,

4. Kim sana asa yapar şu demde? (1963)

“BAXT KUTMASMAN…” (30)

1. *Baxt kutmasman o‘zgadan zinhor,*

2. *Birovga baxt berolmasman ham,*

3. *Sen baxtimsan, demagil, dildor,*

4. *Baxt berolmas odamga odam.*

5. *Ko‘ryapsanmi, gavjum butoqdan*

6. *Chirt uzilib tushdi bir yaproq,*

7. *Barglar yig‘lasa-da firoqdan,*

8. *Qutqarolmas do‘stini biroq.*

“MUTLULUK BEKLEMEM…” (30)

1. Mutluluk beklemem başkasından zinhar,

2. Kimseye mutluluk veremem ben de,

3. Sen saadetimsin, deme, dilber,

4. Mutluluk veremez insana insan.

5. Görüyor musun, gür budaktan

6. Pıt diye düştü bir yaprak.

7. Yapraklar ağlasa bile firaktan

8. Kurtaramaz dostunu fakat. (1963)

PUSHKIN (31)

1. *Shovullaydi, zangor daraxtzor tunda,*

2. *Yaproqlar uchida oy nuri zarhal.*

3. *Osmon va bog‘larning tutash safida*

4. *Ko‘rinar tanish haykal.*

5. *Ajib bir o‘xshashlik, o, buyuk shoir...*

6. *U - sen, she’riyatning dilrabo qaddi,*

7. *Mangu yashillikning tug‘ma ulfati -*

8. *U - sen!*

9. *Tegrangda davrasin qurmishdir ilhom,*

10.*Ajib bir makon bu: - Shoir va Ilhom!*

11.*Ajib bir makon bu, tingla, ey geniy,*

12.*Tabiatning mangu yosh qo‘shiqchisi*

13.*Senmasmiding axir, bezagan uni...*

14.*Tilsiz tabiatning til uquvchisi!*

15.*Senmasmiding axir, dardli o‘ylarin*

16.*So‘qqabosh chinor-la baham ko‘rgan jon*

17.*Va so‘lim Trigorskoe bog‘larin o‘pgan*

18.*Ozodlikka chanqoq, kuychi qahramon!*

19.*Kuzni sevarding-ku, ajib tafovut:*

20.*Tegrangda shivirlar ma’suma bahor.*

21.*Yaproqlar o‘zligin etibdi unut,*

22.*Sakrashar, shovullar, kuylaydi bedor.*

23.*Kuzni sevarding-ku, holbuki, bahor...*

24.*Kuzni sevarding-ku, derding-ku o‘zing:*

25. *“Nedir topar undan o‘jar xayollar.”*

26.*Yo‘q, yo‘q, dardli shoir, porloq yulduzni*

27.*Ayt-chi, kim g‘amli deb ayta olarkan,*

28.*Boqguvchi ko‘zda g‘am bo‘lmasa agar!*

29.*Sil bo‘lgan go‘zalga o‘xsharmidi kuz,*

30.*Qalbingda bahordan g‘am bo‘lmasa gar,*

31.*O, buyuk shoir!..*

32.*So‘yla-chi, sen kimga berganding ozor,*

33.*Sen uchun bahorni qora etdilar.*

34.*Xor-zorlarga achinmoqqa chaqirgan*

35.*Ezgu yuragingni pora etdilar.*

36.*So‘yla-chi, sen kimga berganding ozor...*

37.*Toju taxt qusuri, qonu adovat,*

38.*G‘iybatu kin, g‘araz bijg‘ib sasigan -*

39.*Zamonga abadiy la’natlar bo‘lsin!*

40.*Ezgulik kuychisin o‘qqa tutgan u*

41.*Olifta Dantesning qiyofasida!..*

42.*Sen qulading, shoir o‘zga yo‘l yo‘qdi,*

43.*Qaddingni tiklashga istab bir zamon:*

44. *“Bosh ustimda qushlar, sayrasin, do‘stim,*

45.*Mangulik chiroyda yashnab bearmon...”*

46.*Bahorni vasiyat etding ul zamon...*

47.*Qonun kabi puchdir o‘limning kuchi*

48.*O‘zidan yuksakroq odamlar uchun.*

49.*Qahqaha ur, shoir, tirik nafasing!*

50.*O‘lganlar ustidan qah-qah ur, bu kun.*

51.*O‘chgandir zulmatning zaqqumli sasi*

52.*Va ul jallod zamon bitgan abadiy.*

53.*Qahqaha ur, shoir!..*

54.*Shovullaydi tinsiz daraxtzor tunda,*

55.*Planetariyning zangor gumbazi zarhal.*

56.*Shovulla, daraxtzor, oy yolqinida*

57.*Tovlangan haykal -*

58.*Bukj odam edi, bahodir qalbli,*

59.*Qo‘shiqching edi u, ey tirik olam!*

60.*Shovqin sol, shovqinlar sol, majnun daraxtim,*

61.*Shovullayver tinsiz, daraxtzorginam!*

62.*Bir vaqtlar u qo‘shiq kuylardi senga,*

63.*Endi-chi, navbati - tinglaydi sensan...*

PUŞKİN (31)

1. Hışırdar, yeşil ağaçlık gecede,

2. Yaprakların ucunda ay ışığı altın gibi.

3. Asuman ve bağların birleştiği safta

4. Görünür tanıdık bir heykel.

5. Muhteşem bir benzerlik, aaa, büyük şair…

6. O; sensin şiirin güzel endamı,

7. Ebedî yeşilliğin doğuştan dostu,

8. Sensin o!

9. Etrafında halkasını kurmuştur ilham,

10.Güzel bir mekândır bu: - Şair ve İlham!

11. Hoş bir mekân burası, dinle, ey deha,

12. Tabiatın sonsuz, genç koşukçusu

13. Sen değil miydin, aslında süsleyen onu…

14. Dilsiz tabiatın dilini okuyan!

15. Sen değil miydin, aslında dertli düşüncelerini
16. Yalnız çınarla paylaşan can
17. Ve güzel Trigorskoye bağlarını öpen
18. Azatlığa susamış, besteci kahraman!
19.Güzü severdin ya, güzel bir farklılık:
20.Çevrende fısıldar masum bahar.
21. Kendilerini unutmuş yapraklar,
22. Savrulurlar, hışırdarlar, şarkı söylerler bidar.
23.Güzü severdin hani, hâlbuki bahar…
24.Güzü severdin ya, söylerdin ki kendin:
25."Bir şeyler bulur ondan inatçı hayaller."
26. Yok, yok, dertli şair, parlak yıldızı
27.Söylesene, kim gamlı diye söyleyebilir,
28. Bakan gözde gam olmazsa eğer!
29. Verem olmuş güzele benzer miydi güz,
30. Kalbinde bahardan gam olmazsa eğer,
31. Aaa, büyük şair!..
32.Söylesene sen kime ızdırap vermiştin,
33. Senin için baharı kara ettiler.
34. Muhtaçlara acımaya çağırmış
35.İyi yüreğini parçaladılar.
36.Söylesene, sen kime ettin eziyet…
37. Taç ve taht kusuru, kan ve adavet,
38.Gıybet ve kinin irinleştiği,
39. Zamana ebedî lanetler olsun!
40.Güzelliğin bestecisine kurşun yağdırmış o
41.Züppe Dantes'in kılığında!..
42. Sen devrildin, şair, başka yol yoktu,
43. Doğrulmak isteyip bir ara:
44."Başımın üstünde kuşlar ötsün, dostum,
45. Ebedî güzellikte yaşayıp ukdesiz
46. Baharı vasiyet ettin o zaman…
47. Kanun gibi boştur ölümün gücü
48. Kendisinden daha büyük adamlar için,
49. Kahkaha at, şair, canlı nefesin!
50.Ölenlerin arkasından kahkaha at, bugün.

51. Dinmiştir zulmetin zakkumlu sesi
52. Ve o cellat zaman bitmiştir ebedî
53. Kahkaha at, şair!..
54.Hışırdar, ağaçlık durmadan geceleyin,
55. Planetaryumun mavi kümbeti, yaldızlı.
56.Hışırda, ağaçlık, ay ışığında
57. Parlayan heykel;
58.Büyük adamdı cesur kalpli,
59. Koşukçundu senin o, ey yaşayan âlem!
60. Velvele sal, velveleler sal, mecnun ağacım,
61.Hışırdayıver durmadan, küçük ormancığım!
62. Bir zamanlar o koşuk söylerdi sana,
63. Artık şimdiyse, sıra sende dinlemede… (1963)

ONAMGA XAT (32)

1. *Qaytgim keldi, onam, yoningga,*
2. *Yuragimda ismsiz dardlar.*
3. *Sovuq xonam, soat chiq-chiqi,*
4. *Tashqarida xazonrez bog‘lar,*
5. *Yomg‘irning jim xonish qilishi...*
6. *Barisi ham nechundir bu dam*
7. *Tushirmoqda seni yodimga...*
8. *Qaytgim keldi, onam, yoningga.*
9. *Yuragimni ochib gapirsam,*
10.*Kam-kam bo‘lar menda bunday hol.*
11.*Shodmon yursam, mening yodimga*
12.*Sen tushmaysan rostdan, onajon.*
13.*Nogahoniy bunday holda-chi,*
14.*Shunday ko‘rgim keladi seni.*
15.*Aytsam senga bor gaplarimni,*
16.*Orzularim, hasratlarimni*
17.*Yig‘lab, kulib aytgim kelar, ha,*
18.*Odamlarning qadru qimmatin*
19.*Anglamaymiz birga bo‘lganda.*
20.*Ammo nogoh uzoqqa tushsak,*

21.*Yo tanholik hasratin cheksak,*

22.*Ba’zan shundoq,*

23.*Odam zotining*

24.*Tirnog‘iga zor bo‘lamiz, ha!*

25.*Tushunmayman bul haqiqatni,*

26.*Sen-ku, axir onasan, ona...*

27.*Onam, ranjimagil xatimdan,*

28.*Men rostini yozdim, shod damim*

29.*Sen tushmaysan aslo esimga.*

30.*Ammo hayot o‘zi, bilaman,*

31.*Solar seni yodimga bot-bot.*

32.*Ya’ni, boshimizni doim ham*

33.*Ona bo‘lib silamas hayot.*

ANAMA MEKTUP (32)

1. Dönesim geldi, anam, yanına.

2. Yüreğimde bilinmeyen dertler,

3. Soğuk odam, saatin tık tıkı,

4. Dışarıda yaprak dökümünde bahçeler,

5. Yağmurun sessizce şarkı söylemesi…

6. Hepsi de nedendir bu dem

7. Düşürüyor seni yâdıma…

8. Dönesim geldi, anam, yanına.

9. Yüreğimi açıp konuşsam,

10. Az az olur bende böylesi hâl.

11. Memnun olduğumda, benim yâdıma

12. Sen düşmezsin gerçekten, anacan.

13. Alışılmadık bu hâlde,

14.Böyle göresim gelir seni.

15.Söylesem sana tüm sözlerimi,

16. Arzularımı, hasretlerimi

17.Ağlayıp, gülüp söyleyesim gelir, evet,

18.İnsanların kadr u kıymetini

19. Anlamayız birlikte olduğumuzda.

20. Ama ansızın uzağa düşsek,

21. Yahut tek başımıza hasretini çeksek,
22. Bazen böyle,
23.İnsanoğluna
24.İhtiyaç duyarız, evet!
25. Anlayamıyorum bu gerçeği,
26. Ya sen, anasın ya, ana…
27. Annem, üzülme mektubuma,
28. Ben doğrusunu yazdım, mutlu anımda
29. Sen gelmezsin asla aklıma.
30. Ama hayatın kendisi, bilirim,
31. Hatırlatır seni sık sık.
32. Yani, başımızı her zaman da
33. Ana gibi okşamaz hayat. (1963)

SEN BAHORNI SOG‘INMADINGMI (33)

1. *Uyg‘onguvchi bog‘larni kezdim,*
2. *Topay dedim qirdan izingni.*
3. *Yonog‘ingdan rang olgan dedim -*
4. *Lolazorga burdim yuzimni,*
5. *Uchratmadim ammo o‘zingni,*
6. *Sen bahorni sog‘inmadingmi?*

7. *Uzoqlarda zalvorli tog‘lar*
8. *Xayolimni keldilar bosib.*
9. *Kechdi qancha intizor chog‘lar,*
10.*Vasling menga bo‘lmadi nasib,*
11.*Sensiz men ham, bahor ham g‘arib,*
12.*Sen bahorni sog‘inmadingmi?*

13.*O‘ngirlarda sakraydi ohu,*
14.*Na’matakda sa’va mittijon.*
15.*Qorliklardan sipqarilgan suv,*
16.*Daralarda uradi javlon.*

17.*Nigohimdan faqat sen pinhon,*

18.*Sen bahorni sog‘inmadingmi?*

19.*Mana, bugun navro‘zi olam,*

20.*Do‘stlarimga gullar tutarman.*

21.*Qaylardasan, sevgili erkam...*

22.*Qo‘limda gul, seni kutarman,*

23.*Umrim bo‘yi chorlab o‘tarman,*

24.*Sen bahorni sog‘inmadingmi?*

SEN BAHARI ÖZLEMEDİN Mİ? (33)

1. Uyanmakta olan bahçeleri gezdim,

2. Bulayım dedim kırda izini,

3. Yanağından renk almış dedim -

4. Lalezara çevirdim yüzümü,

5. Rastlamadım ama kendisine,

6. Sen baharı özlemedin mi?

7. Uzaklarda ihtişamlı dağlar

8. Hayalime geldiler basıp.

9. Geçti birçok intizar çağlar,

10. Vaslın bana olmadı nasip,

11. Sensiz ben de, bahar da garip,

12. Sen baharı özlemedin mi?

13. Yamaçlarda seker ahu,

14. Kuşburnunda minicik saka

15. Kara kaplı yerlerden çıkan su,

16. Vadilerin dolanır etrafında.

17. Bir tek sen benden uzaktasın,

18. Sen baharı özlemeden mi?

19.İşte bugün Nevruz-ı âlem,
20. Dostlarıma güller uzatırım.
21. Nerelerdesin sevgilim, canım…
22. Ellerimde gül, seni beklerim,
23.Ömrüm boyunca çağıracağım seni,
24. Sen baharı özlemedin mi? (1963)

"MEN QUVONAR BO'LSAM…" (34)

1. *Men quvonar bo'lsam - sen sabab,*
2. *O'yga tolar bo'lsam - sen sabab.*
3. *Men o'lishni istamasman, yo'q,*
4. *Nogoh o'lar bo'lsam - sen sabab.*

"BEN SEVİNİRSEM…" (34)

1. Ben sevinirsem, sebebi sen,
2. Düşünceye dalarsam; sebebi sen.
3. Ben ölümü istemem, hayır,
4. Aniden ölürsem, sebebi sen. (1963)

BULOQ (35)

1. *Qutlug' bir saharda ko'z ochdi buloq,*
2. *Yo'l soldi daryolar sari adashib.*
3. *Unga rahm etmoqchi odamlar shu choq*
4. *Tog'u toshlar aro yaqin yo'l ochib.*
5. *Odamlar, tegmangiz, mayli toshsin u,*
6. *Mayliga, tog'ni ham ko'rsin yo'lida.*
7. *Qo'ying, o'z yo'lini o'zi topsin u,*
8. *Zavqlanolsin u ham kurash so'ngida.*

BULAK (35)

1. Kutlu bir seherde göz açtı bulak,
2. Yol aldı deryalara doğru şaşırıp.

3. Ona merhamet edecek insanlar şu an
4. Dağ ve taşlar arasında yakın bir yol açıp.
5. İnsanlar, dokunmayın, neyse taşsın o,
6. Olsun, dağı da görsün yolunda.
7. Bırakın, kendi yolunu kendisi bulsun o,
8. Zevklensin o da mücadele sonunda. (1963)

GIYOH (36)

1. *Ulug‘vor bir qudrat bilan*
2. *Chayqaladi cho‘ng dengiz.*
3. *Qancha og‘ir xarsang toshlar*
4. *Tubda unga cho‘kkan tiz.*
5. *Ammo mo‘’jaz, nozik giyoh*
6. *O‘sha tubsiz o‘lkada.*
7. *Ko‘kka o‘sar, ha, dengizni*
8. *Ko‘targancha yelkada!*

BİTKİ (36)

1. Uluvarî bir kudretle
2. Çalkalandı koca deniz.
3. Epey ağır kaya gibi taşlar
4. Dibinde ona çökmüş diz.
5. Ama minicik, nazik bir bitki
6. O dipsiz ülkede.
7. Göğe yükselir, denizi
8. Kaldırınca omzunda! (1963)

“JO‘NAR BO‘LDIM…” (37)

1. *Jo‘nar bo‘ldim men bundan diltang,*
2. *Yo‘llarimga qarab qolding sen,*
3. *Sochginangni tarab qolding sen,*
4. *O, bilaman, badjahl otang,*
5. *Ostonangga yo‘latmas meni,*

6. *Ishonmaydi sen sevgan yorga.*
7. *Uzoqlarga jo‘natmas seni,*
8. *Ketar bo‘lsak ikkimiz birga.*
9. *Bilaguzuk taqibdi otang*
10.*Qo‘lginangni bog‘lab bir yo‘la.*
11.*Bilaguzuk, banding uzilsin,*
12.*Yor qo‘lini qisgandan ko‘ra.*
13.*Sen dedingki: “Bo‘lsaydim yulduz,*
14.*Osmonlardan boqsam-da sizga,*
15.*Tushishga yo‘l topardim, esiz,*
16.*Otam oq yo‘l bersaydi bizga...”*
17.*To‘xta, yetar, bir kun otangning*
18.*Huzuriga qaytib kelarmiz.*
19.*Kechir, - dermiz, yetmasa, agar,*
20.*Uchta bo‘lib uzr so‘rarmiz,*
21.*Bizni hech kim ayb etmas, do‘stim,*
22.*G‘amgin bo‘lmas bizdan xotira.*
23.*Sevgisidan baxt topganlarning*
24.*Bo‘lganmi hech nomlari qora?..*

“GİDER OLDUM…” (37)

1. Gider oldum ben buradan kederli,
2. Yollarıma bakıp kaldın sen,
3. Saçlarını tarayıp kaldın sen,
4. Aaa, biliyorum, öfkeli baban,
5. Eşiğine yaklaştırmaz beni,
6. İnanmaz seni seven yâre,
7. Uzaklara göndermez seni,
8. Gidersek ikimiz birlikte.
9. Bilezik takmış baban
10. Ellerini bağlayıp bir yola.
11. Bilezik, kulpun kopsaydı,
12.Yârin kolunu sıkacağına.
13. Sen dedin ki: “Olsaydım yıldız,
14. Asumanlardan baksam da size,

15.İnmeye yol bulurdum, yazık,
16. Babam rıza gösterseydi bize…”
17. Dur, yeter, bir gün babanın
18. Huzuruna dönüp geliriz.
19.“Bağışla!” deriz, affetmezse, eğer,
20.Üç kişi olup özür dileriz.
21. Bizi hiç kimse ayıplamaz, dostum,
22. Gamlı olmaz bizden hatıra.
23. Sevgisinden talihli olanların
24. Olmuş mu hiç isimleri kara?.. (1963)

KURSDOSHLARIMGA (38)

1. *Taqdir to‘plarmikan sizlarni yana,*
2. *Ko‘zimdan sachragan tomchi yoshlarim...*
3. *Judolik kutmoqda bizni ham, mana,*
4. *Tengqur jo‘ralarim, ey kursdoshlarim.*
5. *Kim qayga shoshilar... Ne kutar bizni?*
6. *Va qayta to‘planish bo‘larmi? Qachon?!*
7. *Yashnagan bazmlar qoldi-ku bari,*
8. *Qoldi totuv besh yil o‘tmishda bu on.*
9. *Qanday eslanarkan bu yillar, do‘stlar,*
10.*Yoki unut bo‘lar kimga ehtimol...*
11.*Baribir davramiz tarqalar endi,*
12.*Har yon sochilarmiz tariqlar misol.*
13.*Har yon sochilarmiz, ammo shu zayli*
14.*Anglarmiz do‘stlikning qadrini ilk bor.*
15.*Do‘stlarim, do‘stlarim, qayda bo‘lmaylik*
16.*Muqaddas do‘stlikka tushmasin g‘ubor.*
17.*Bizni tutashtirgan nozik hislarning*
18.*Barchasi har qayda saqlansin omon.*
19.*Do‘stlarim, do‘stlarim, qayda bo‘lmaylik*
20.*Pok bo‘lsin qalbimiz, pok bo‘lsin vijdon.*
21.*O‘rgatmoq emas-ku o‘zgaga aql,*
22.*Tilak tillar bu dam do‘stlarga do‘stlar;*
23.*Do‘stlarim, ne uchun dunyoga keldik,*

24.*O, agar niyatlar unut bo‘lsa, gar -*

25.*Bugungi aqlga sal g‘ubor tushsa,*

26.*Ortiq mag‘rur etsa shon-shuhrat kimni,*

27.*Kimning orzu etgan kuni kelganda*

28.*Hasad chulg‘ar bo‘lsa o‘zga bir kimni..,*

29.*Kimdan onalari rozi bo‘lmasa,*

30.*Gar rozi bo‘lmasa kimdanki Vatan,*

31.*Qayta uchrashmaylik u holda rosti,*

32.*Mayliga, kelmasin unday badbaxt dam.*

33.*Do‘stlarim, do‘stlarim, keling jipsroq,*

34.*Gurkirasin do‘stlik nomi-la qasam...*

35.*Bor bo‘lsin yaxshilik, sof yurak, aql,*

36.*Bizga ilm bergan Dorilfunun ham!*

SINIF ARKADAŞLARIMA (38)

1. Kader bir araya getirir mi sizleri yine,

2. Gözümden akan damla damla yaşlarım…

3. Ayrılık beklemekte bizi de, işte

4. Akran dostlarım, ey sınıf arkadaşlarım.

5. Kim nereye acele eder? Ne bekler bizi?

6. Ve yine toplanmak mümkün mü? Ne zaman?

7. Güzel eğlencelerin hepsi kaldı ya,

8. Kaldı güzel geçen beş yıl geçmişte şu an.

9. Nasıl hatırlanırmış bu yıllar, dostlar,

10. Yahut unutulur bir ihtimal…

11. Nedense halkamız dağılır şimdi,

12. Her yana saçılırız darılar misali.

13. Her yana saçılırız, ama bu hâli

14. Anlarız dostluğun kıymetini ilk kez.

15. Dostlarım, dostlarım, nerede olsak bile

16. Mukaddes dostluğa konmasın toz.

17. Bizi birleştiren nazik hislerin

18. Hepsi her yerde saklansın aman.

19. Dostlarım, dostlarım, nerede olsak bile

20. Pak olsun kalbimiz, pak olsun vicdan.

21.Öğretmek değil ya başkasına akıl,
22. Dilek diler o an dostlara dostlar;
23. Dostlarım, niçin dünyaya geldik,
24. Aaa, niyetler unutulsa, eğer;
25. Bugünki aklına azıcık toz kondursa,
26. Fazla mağrur etse şan şöhret kimisini,
27. Kimisinin arzu ettiği gün geldiğinde
28. Haset ederse başka bir kimseyi..,
29. Kiminden anaları razı olmazsa,
30.Eğer razı olmazsa kiminden ki Vatan,
31. Yine buluşmayalım o hâlde doğrusu,
32.Bırakın, gelmesin böyle bedbaht an.
33. Dostlarım, dostlarım, gelin daha yakına,
34. Filizlensin dostluk adına yapılan yemin…
35. Var olsun iyilik, saf gönül, akıl,
36. Bize ilim veren Darülfünun da! (1963 yılı, Haziran)

SHUNDAY YASHAR ODATDA ODAM (39)

1. *Yo‘q kerakmas, qo‘ying, kerakmas,*
2. *Menga orom istamang, do‘stlar.*
3. *Xilvat soz deb qistamang, do‘stlar,*
4. *Ko‘ying, bunday orom kerakmas.*
5. *Nogahonda xayolga botsam,*
6. *Yo uxlasam, uyg‘oting darrov,*
7. *Nomim tutib, so‘z qoting darrov.*
8. *Behudaga bir yoqqa borsam,*
9. *Qo‘llarimdan ushlab o‘shal dam*
10.*Kurashlarning safiga qo‘shing,*
11.*Qur, yarat deng,*
12.*Hayqir deng, jo‘sh deng,*
13.*Shunday yashar odatda odam.*

ÂDETA BÖYLE YAŞAR İNSAN (39)

1. Hayır, gerekmez, bırakın, gerekmez,

2. Bana huzur dilemeyin, dostlar.
3. Yalnızlık iyi diye üstelemeyin, dostlar,
4. Bırakın, böyle huzur gerekmez.
5. Ansızın hayale dalarsam,
6. Yahut uyursam, uyandırın hemen,
7. İsmimi çağırıp, söz açın hemen.
8. Beyhude bir tarafa gidersem,
9. Ellerimden tutup o an
10.Mücadelelerin safına katın,
11.İnşa et, yarat deyin,
12. Haykır deyin, coş deyin,
13.Âdeta böyle yaşar insan. (1964)

MILTIRAYDI MITTI YULDUZ (40)

1. *Ko‘k gumabazin bir chetida*
2. *Bo‘shliqlarga urib bosh,*
3. *Miltiraydi mitti yulduz,*
4. *Tanholikdan to‘kib yosh.*
5. *Atrofida na bir yulduz*
6. *Na bulut bor, na tuman.*
7. *Yulduzlarga termulib u*
8. *Titrab turar shamsimon.*
9. *Eh, bechora, yashash nechun,*
10.*Porlamasang, kulmasang.*
11.*O‘z to‘dangdan nega uchding,*
12.*Qaytish yo‘lin bilmasang?!*

IŞILDARDI KÜÇÜK YILDIZ (40)

1. Gök kubbenin bir kenarında
2. Boşluklara vurup baş,
3. Işıldardı küçük yıldız,
4. Tenhada döküp yaş,
5. Etrafında ne bir yıldız
6. Ne bulut var, ne de sis.

7. Yıldızlara bakarak o
8. Titreyip durur mum gibi.
9. Eh, biçare, yaşamak niçin,
10. Parlamazsan, gülmezsen.
11. Kendi kümenden niye uçtun,
12.Dönüş yolunu bilmezsen?! (1964)

BURGUT (41)

1. *Yosh burgut uchmoqda ko‘kda shiddatkor*
2. *Kumush bulutlarning to‘zg‘itib parin.*
3. *Uchmoqda, qalbida mag‘rur ishonch bor,*
4. *Qaqshagan qoyalar, cho‘qqilar sari*
5. *Uchmoqda! Qayerga? Cho‘qqiga! Nechun?*
6. *Burgutning shiddatin uyg‘otgan nima?*
7. *Bo‘ronli dargohda ne kutar uni,*
8. *Qudratli qanotin qo‘zg‘atgan nima?*
9. *O‘ynoqi shamollar ila basma-bas*
10.*Ana, qo‘ndi burgut eng yuksak joyga!*
11.*Cho‘qqi uzra turdi-yu birpas*
12.*Yana bo‘ron misol qo‘zg‘aldi. Qayga?*
13.*Axir, ne bo‘lardi bersang, tabiat,*
14.*Shu buyuk shiddatga yarasha maqsad!*

KARTAL (41)

1. Genç kartal uçmakta gökte şiddetli
2. Gümüş bulutların dağıtarak saçaklarını.
3. Uçmakta, kalbinde mağrur bir inanç var,
4. Sarsılan kayalara, zirvelere doğru,
5. Uçmakta! Nereye? Zirveye! Niçin?
6. Kartalın şiddetini arttıran ne?
7. Boranlı dergâhta ne bekler onu,
8. Kudretli kanadını kaldıran ne?
9. Oynak rüzgârlarla yarışırcasına
10.İşte, kondu kartal en yüksek yere!

11. Tepenin üstünde durdu biraz

12. Yine boran misali ilerledi. Nereye?

13. Sonunda, ne olurdu versen, tabiat,

14. Bu büyük şiddete yaraşa maksat! (1964)

MEN NECHUN SEVAMAN O‘ZBEKISTONNI? (42)

1. *Men nechun sevaman O‘zbekistonni*

2. *Tuprog‘in ko‘zimga aylab to‘tiyo.*

3. *Nechun Vatan deya yeru osmonni,*

4. *Muqaddas atayman, atayman tanho.*

5. *Aslida dunyoda tanho nima bor,*

6. *Paxta o‘smaydimi o‘zga elda yo?*

7. *Yoki quyoshimi sevgimga sabab?*

8. *Axir quyoshli-ku butun Osiyo.*

9. *Men nechun sevaman O‘zbekistonni?*

10.*Bog‘larin jannat deb ko‘z-ko‘z etaman,*

11.*Nechun ardoqlarkan tuprog‘ini men*

12.*O‘paman: “Tuprog‘ing bebaho, Vatan...”*

13.*Aslida tuproqni odil tabiat*

14.*Taqsim aylagan-ku yer yuziga teng.*

15.*Nechun bu tuproq deb yig‘ladi Furqat,*

16.*O, Qashg‘ar tuprog‘i, qashshoqmiding sen?!*

17.*Xo‘sh, nechun sevasan O‘zbekistonni,*

18.*Sababini aytgin desalar menga,*

19.*Shoirona go‘zal so‘zlardan oldin*

20.*Men ta’zim qilaman ona xalqimga:*

21.*Xalqim, tarix hukmi seni agarda*

22.*Mangu muzliklarga eltgan bo‘lsaydi,*

23.*Qorliklarni makon etgan bo‘lsayding,*

24.*Mehrim bermasmidim o‘sha muzlarga?*

25.*Vatanlar,*

26.*Vatanlar,*

27.*Mayli, gullasin,*

28.*Bog‘ unsin mangulik muzda ham, ammo*

29.*Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun*

30.*Sevgan farzand bo‘lsa kechirma aslo!*

BEN NİÇİN SEVERİM ÖZBEKİSTAN'I? (42)

1. Ben niçin severim Özbekistan'ı
2. Toprağını gözüme sürerim şifa diye.
3. Niçin Vatan diye toprağı ve asumanı,
4. Mukaddes derim, derim yalnız.
5. Aslında dünyada eşsiz ne var,
6. Pamuk yetişmez mi başka memlekette yahut?
7. Yahut güneşi mi sevgime sebep?
8. Güneşli ya bütün Asya.
9. Ben niçin severim Özbekistan'ı?
10. Bahçelerini cennet diye överim,
11. Niçin özenle bakarken toprağını ben
12.Öperim: "Toprağın eşsizdir, Vatan…"
13. Aslında toprağı adil tabiat
14. Taksim etmiş ya yeryüzüne denk.
15. Niçin bu toprak diye ağladı Furqat[88],
16. Aaa, Kaşgar toprağı fakir miydin sen?!
17. Peki, niçin seversin Özbekistan'ı,
18. Sebebini söyle deseler bana,
19.Şairane güzel sözlerden önce
20. Ben tazim ederim ana halkıma:
21. Halkım, tarih hükmü seni eğer
22. Sonsuz buzullara götüren olsaydı,
23. Karlı bölgeleri mesken tutmuş olsaydın,
24.Şefkat göstermez miydim o buzlara?
25. Vatanlar,
26. Vatanlar,
27. Peki, çiçeklensin,
28. Her taraf yeşersin ebedî buzda da, ama
29. Yurdum seni sadece zenginliklerin için
30. Seven evlat olsa affetme asla! (1964)

[88] Furkat Özbek şairidir. Gurbette yaşadığı için "ayrılık" anlamındaki bu mahlası seçmiştir.

ALBOMGA (43)

O‘z qalbini dafn etdi shunda.

Bayron.

1. *Yuzlab shoir yotgan qabriston aro*
2. *Ko‘mmoqdaman men ham qalbimni.*
3. *Yuzlab mozor ichra adashmay aslo*
4. *Topa olgin mening qabrimni.*
5. *Mana, gulga cho‘mib yotibdi Bayron,*
6. *Faxrlanib lordligi uchun.*
7. *Sen meni unutib qo‘ymagin ammo*
8. *Gunohim - havaskor, mo‘rtligim uchun...*
9. *Reyn bo‘ylaridan Geyne ham shunda,*
10. *Go‘zal Loreleya tinglar sirini.*
11. *Bir qo‘li inqilob nog‘orasida,*
12. *Amaliya tomon cho‘zgan birini.*
13. *Yuzlab shoir yotar bunda, bari ham*
14. *Janglar maydonida jangdan so‘zlagan.*
15. *Nechun senga kelganda, albom,*
16. *Har kim o‘z dardini aytib bo‘zlagan?!*
17. *Buyuk jangchilar ham varag‘ing ochib,*
18. *Alamlar sharhidan o‘tmadi aslo.*
19. *Albom, albom, janglar da’vatiga sen*
20. *Nahot berolmasding bir aksi sado?!*
21. *Yuzlab shoir yotgan shu albom ichra*
22. *Men ham qalbim uchun qabr qazaman.*
23. *Hali iz tushmagan oppoq varaqqa*
24. *Men ham o‘z dardimni yozaman.*
25. *Ammo kecha ko‘rgan tushimni emas,*
26. *Hur Vatan so‘zini yozaman, o‘rtoq!*
27. *Zotan, yurt hurligi o‘zi men uchun*
28. *Barcha shaxsiy ishdan ko‘ra shaxsiyroq!*
29. *Kim menga aftini bujmaytdi shu zum,*

30.*Kim menga panadan e’lon qildi jang?!*
31.*Gar shu asrda ham hur Vatan ishin*
32.*O‘z ishimdir, deya qabul etmasang.*
33.*Tan olmasang agar millionlar dardin,*
34.*Uni albomingga yozmasang agar,*
35.*Mayliga, ko‘zlaring ko‘r bo‘la qolsin,*
36.*Mayli, quloqlaring bo‘lib qolsin kar.*
37.*Ko‘zlaringni ochgin, qara dunyoga,*
38.*Do‘stim, haqiqatni his et bir zamon.*
39.*Sen uchun, men uchun jangda mardona*
40.*Million-million odam to‘kkan edi qon.*
41.*Tarix bizlar uchun jangga kirganda*
42.*Nima kerak yashash o‘rgimchak misol.*
43.*Ozodlik, yo‘lingga g‘ov bo‘lganlarga*
44.*Nayzaday sanchil-u, tezroq bo‘la qol...*
45.*Hurriyat shundayin ezgu so‘zdirkim,*
46.*Uning zamirida eng oliy qismat...*
47.*Unda men axtargan eng porloq Inson,*
48.*Unda men istagan sinmas haqiqat!*
49.*Hur Vatan so‘zini yozdim albomga,*
50.*Sen unga boqmagin bir ermaksimon.*
51.*Qalbim buyurmasa, biror so‘zni ham*
52.*Yozmasman hech qayda, hech vaqt, hech qachon!*

ALBÜME (43)

Kendi kalbini defnetti burada.

Byron

1. Yüzlerce şairin yattığı kabristana
2. Gömmekteyim ben de kalbimi.
3. Yüzlerce mezar içinde yanılmadan asla
4. Kolayca bul benim kabrimi.
5. İşte, güllere dalıp yatmış Byron,
6. Gurur duyup asilzadeliği için.

7. Sen beni unutma sakın

8. Günahım; acemiliğim, zayıflığım için…

9. Ren kıyılarından olan Heine'nin de böylece,

10.Güzel Lorelei[89] dinler sırrını.

11. Bir eli inkılabın kudümünde,

12. Amaliya'ya[90] doğru uzatmış birisini.

13.Yüzlerce şair yatar burada, hepsi de

14. Savaşlar meydanında savaştan söz etmiş.

15. Niçin sana geldiğinde, albüm,

16. Herkes kendi derdini anlatıp ağlamış?!

17.Büyük savaşçılar da varağını açıp,

18. Elemler şerhinden geçmedi asla.

19. Albüm, albüm, savaşlar davetine sen

20. Veremez miydin bir aks-i seda?!

21.Yüzlerce şairin yattığı bu albüm içinde

22. Ben de kalbim için kabir kazarım.

23.Hâlâ iz düşmeyen bembeyaz varağa

24. Ben de kendi derdimi yazarım.

25. Ama gece gördüğüm düşümü değil,

26.Hür Vatan sözünü yazarım, arkadaş!

27. Zaten, vatan hürriyetinin kendisi benim için

28.Bütün şahsi işlerden daha şahsi!

29. Kim bana yüzünü buruşturdu o an,

30. Kim bana sığınaktan ilan etti savaş?!

31.Eğer bu asırda da hür Vatan işini

32. Kendi işimdir, diye kabul etmezsen.

33.İtiraf etmezsen eğer milyonların derdini,

34. Onu albümüne yazmazsan eğer,

35. Peki, gözlerin kör olsun,

36. Peki, kulakların olsun sağır.

37.Gözlerini aç, kara dünyaya,

38. Dostum, hakikati hisset bir zaman.

39. Senin için, benim için savaşta merdane

40. Milyonlarca insan dökmüştü kan.

---

[89] Alman mitolojisinde deniz kızı için kullanılan bir isimdir.

[90] Azerbaycanlı tiyatro ve film sanatçısı, yönetmendir. Aynı zamanda müzik profesörüdür.

41. Tarih bizim için savaşa girdiğinde
42. Ne gerek yaşama örümcek[91] misali.
43. Azatlık, yoluna mâni olanlara
44.Süngü gibi saplan ve daha hızlı ol…
45.Hürriyet öyle güzel sözdür ki,
46. Onun özünde en ali kısmet…
47. Ondadır aradığım en parlak İnsan,
48. Ondadır istediğim yenilmez hakikat!
49.Hür Vatan sözünü yazdım albüme,
50. Sen ona bakma bir eğlence gibi.
51.Gönlüm emretmeyinceye dek bir sözü de
52. Yazmam hiçbir yerde, hiçbir vakit, hiçbir zaman! (1964)

"MUNOJOT"NI TINGLAB..." (44)

1. *Qani, ayt, maqsading nimadir sening,*
2. *Nega tilkalaysan bag'rimni, ohang,*
3. *Nechun kerak bo'ldi senga ko'z yoshim,*
4. *Nechun kerak, rubob, senga shuncha g'am.*
5. *Eshilib, to'lg'anib ingranadi kuy,*
6. *Qaylardan tug'ilmish bu ohu faryod.*
7. *Kim u yig'layotgan? Navoiymikin*
8. *Va yo may kuychisi Xayyommikin, dod!*
9. *Yetar, ey cholg'uvchi, bas qil sozingni,*
10.*Bas, yetar, ko'ksimga urmagil xanjar.*
11.*Nahotki dunyoda shuncha g'am bordir!*
12.*Agar shu munojot rost bo'lsa agar,*
13.*Agar aldamasa shu sovuq simlar,*
14.*Gar shul eshitganim bo'lmasa ro'yo,*
15.*Sen beshik emassan, dorsan, tabiat,*
16.*Sen ona emassan, jallodsan, dunyo!..*
17.*Eshilib, to'lg'anib ingranadi kuy,*
18.*Asrlar g'amini so'ylar munojot.*
19.*Kuyi shunday bo'lsa, g'amning o'ziga*

[91] Örümceğin sembol olarak yaptığı ağlar insanların esaretini simgelemektedir.

20.*Qanday chiday olgan ekan odamzod!*

“MÜNACAT”I DİNLEYİP… (44)

1. Haydi, anlat, maksadın nedir senin,
2. Niye parçalarsın bağrımı, ahenk,
3. Ne için gerekti sana gözyaşım,
4. Niçin gerek, rübab, sana bunca gam.
5. Saçılır, titrer, inler ezgi,
6. Nelerden doğmuştur bu ah u feryat.
7. Ağlayan kimdir? Nevaî mi acaba
8. Yahut mey şarkıcısı Hayyam mı, eyvah!
9. Yeter, ey çalgıcı, bırak sazını,
10. Dur, yeter, göğsüme vurma hançer.
11.Dünyada bu kadar gam var mıdır?
12.Eğer bu münacat doğruysa eğer,
13.Eğer aldatmazsa bu soğuk teller,
14.Eğer bu işittiğim olmazsa rüya,
15. Sen beşik değilsin, dar ağacısın, tabiat,
16. Sen ana değilsin, cellatsın, dünya!..
17. Saçılır, titrer, inler ezgi,
18. Asırların gamını söyler “Münacat”.
19. Ezgisi böyleyse, gamın kendisine
20. Nasıl dayanmıştır ki insanoğlu! (1964)

“BOLA EDIM…” (45)

1. *Bola edim,*
2. *Mening ozroq*
3. *Bo‘lar edi vahima “dardim.”*
4. *Guldirasa nogoh momaqaldiroq*
5. *Onamning bag‘riga yashirinardim.*
6. *Bovliq eshar edim bir kun pichanda,*
7. *Hamla qilib qoldi chinqiroq ilon.*
8. *Serkesak shudgorga qochdim o‘shanda,*
9. *Onamning bag‘riga shoshganimsimon,*

10.*O‘sha yillar edi, qishloq ko‘chasida*

11.*Quvlagandi meni bir it quturib.*

12.*O‘shanda osilib chinor shoxchasiga*

13.*Quturgan itdan ham qoldim qutulib.*

14.*Mayli, deyman bugun bo‘ron tursa ham,*

15.*Mayli, dahshatlarga to‘lsa ham dunyo.*

16.*Balki fazolarning qo‘ynida bir dam*

17.*Bekina olurman ulardan, ammo*

18.*Gar gunoh orttirsang o‘zingga og‘ir,*

19.*Vijdon azobida qovrilsang bot-bot.*

20.*Hayhot! Kimga borib dod deysan, axir,*

21.*Qayga bekinasan o‘zingdan, hayhot!*

“ÇOCUKTUM…” (45)

1. Çocuktum,

2. Benim biraz

3. Vardı vehim “derdim.”

4. Gürlediğinde aniden şimşek

5. Annemin bağrına gizlenirdim.

6. İplik eğirirdim bir gün kuru otta,

7. Saldırdı çıngıraklı yılan.

8. Kesekle dolu tarlaya kaçtım o zaman,

9. Anamın kucağına sığındığım gibi,

10.İşte o yıllardı, köyün sokaklarında

11. Kovalamıştı beni bir it kudurmuş gibi.

12.O anda asılıp çınarın küçük dalına

13. Kuduran itten de kurtuldum kolayca.

14. Olsun, derim bugün fırtına kopsa da,

15. Olsun, dehşetlerle dolsa da dünya.

16. Belki fezaların koynunda bir an

17. Gizlenebilirim onlardan, ama

18.Eğer günahını çoğaltırsan kendine ağır,

19. Vicdan azabında kavrulursan tekrar.

20. Heyhat! Kime gidip eyvah dersin, sonunda,

21. Nereye saklanırsın kendinden, heyhat! (1964)

ASRIMIZ ODAMI (46)

1. *Mening ko‘z o‘ngimda jonlanar tarix,*

2. *G‘amlardan to‘qilgan shu ko‘hna olam.*

3. *Asrlar birma-bir o‘tar va axir*

4. *Yuksalar qarshimda eng baxtli odam.*

5. *Yuksalar-u, shu dam chopar, urinar,*

6. *Talpinar qaygadir bilmasdan tinim.*

7. *Baxtining yonida g‘ami ko‘rinar,*

8. *G‘ami ko‘rinadi baxtida uning.*

9. *Bilagida garchand yetarli kuchi,*

10. *Boylik ergashsa-da garchand ortidan,*

11. *Uning chehrasida tashvish bor, nechun?*

12. *Nechun u ayrilmish halovatidan?*

13. *Goh bemor boshida jarroh bo‘lib u*

14. *“Taqdiri azal”ga ko‘rsatsa kuchin.*

15. *Goho bir dovyurak sayyoh bo‘lib u*

16. *Sovuq Arktikaga uradi to‘shin.*

17. *Dam og‘ir xayolga bo‘lur zanjirbamd,*

18. *Dam qo‘shiq to‘qiydi u yona-yona.*

19. *Intilar yulduzlar tumaniga dam,*

20. *Dam oyning yonida bo‘lar parvona.*

21. *U nima istaydi? Shonu shavkatmi?*

22. *Yulduzlardan baland, kuchdan purziyo.*

23. *U nima istaydi? Tengsiz qudratmi,*

24. *Oyog‘i ostida yotsinmi dunyo?!*

25. *U nima istaydi? Balki istagi*

26. *Uning tegrasida aylansin olam?*

27. *O, do‘stim, savolning yo‘qdir keragi,*

28. *U istaydi buning hammasini ham!*

29. *Odamlar o‘tdilar bir vaqt, bir zamon,*

30. *O‘tdilar eng oddiy baxtdan ham yiroq.*

31. *Yagona orzusi edi parcha non,*

32. *Eng buyuk armoni - ozod yashamoq!*

33. *Odamlar o‘tdilar bir vaqt, bir zamon,*

34.*Ha, yashab o‘tdilar, endi-chi, mana:*

35.*O‘zi bandi bo‘lgan olam ustidan*

36.*Hokim bo‘lmoqni u istar yagona!*

ASRIMIZIN İNSANI (46)

1. Benim gözlerimin önünde canlanır tarih,

2. Gamlarla örülü bu köhne âlem.

3. Asırlar ardı sıra geçer, sonunda

4. Yükselir karşımda en bahtlı insan.

5. Yükselir ve koşar, uğraşır,

6. Çabalar bir yerlere durmak bilmeden.

7. Bahtının yanında gamı görünür,

8. Gamı görünür bahtında onun.

9. Gerçi bileğinde yeteri kadar gücü,

10. Gerçi zenginlik izlese bile ardından,

11. Onun çehresinde kaygı var, niçin?

12. Niçin o ayrılmış huzurundan?

13.Gâh hasta başında cerrah olup o

14.“Takdir-i ezel”e gösterse gücünü.

15.Gâh bir cesur seyyah olup o

16. Soğuk Arktika’ya gerer göğsünü.

17. Bazen pençesine düşer ağır bir hayalin,

18. Bazen koşuk üretir o yana yana.

19. Atılır yıldızların dumanına bazen,

20. Bazen ayın yanında olur pervane.

21.O ne ister? Şan ve şöhret mi,

22.Yıldızlardan daha yüksek, güneşten daha parlak.

23.O ne ister? Eşsiz kudret mi,

24. Ayağının altında yatsın mı dünya?!

25.O ne ister? Belki isteği

26. Onun çevresinde dönsün âlem?

27. Aaa, dostum, sualin yoktur gereği,

28.O ister bunun hepsini de!

29.İnsanlar yaşadılar bir vakit, bir zaman,

30. Yaşadılar en basit bahttan da uzak,

31. Yegâne arzusuydu parça ekmeği,
32. En büyük ukdesi; hür yaşamak!
33.İnsanlar yaşadılar bir vakit, bir zaman,
34. Evet, yaşayıp gittiler, şimdi, işte:
35. Kendisinin tutsak olduğu âleme
36.Hâkim olmayı ister o yegâne! (1964)

BULUT (47)

1. *Tiniq ko‘l bag‘ridan parcha oq bulut*
2. *Suzib chiqdi bir vaqt moviy osmonga.*
3. *Shamol qanotida yo‘l oldi xushnud*
4. *Oshyonidan uzoq-uzoq tomonga...*
5. *Qaylarga shoshardi?! Bilmas edi u*
6. *Oshib o‘tdi cho‘llar, tog‘lardan yiroq*
7. *Va bir kun kezishlar jonga tegdi-yu,*
8. *Qaytmoq bo‘ldi shunda ortiga, biroq,*
9. *Biroq... yo‘l bermadi shamollar haydab,*
10.*Yig‘lab bitdi bulut, sel bo‘ldi ko‘z yosh.*
11.*So‘ng irmoq bo‘ldi-yu, bilmaydi, qayda...*
12.*Makonin axtarib olib ketdi bosh.*

BULUT (47)

1. Berrak gölün bağrından bir parça ak bulut
2. Süzülerek çıktı bir vakit mavi gökyüzüne.
3. Rüzgârın kanadında yol aldı hoşnut
4. Aşiyanından uzak uzak yerlere…
5. Bir yerlere acele ederdi?! Bilmezdi o
6. Aşıp geçti çölleri, dağları uzun uzun
7. Ve bir gün usandı gezmelerden,
8. Dönmek istedi o an ardına, fakat,
9. Fakat… yol vermedi rüzgârlar savurup,
10.Ağlayıp tükendi bulut, sel oldu gözyaşı.
11. Sonra ırmak oldu ve bilmez, nerede…
12. Mekânını arayarak alıp gitti başını. (1964)

O‘ZBEKISTONDA KUZ (48)

1. *Yurgil, dalalarga ketaylik, do‘stim,*

2. *Diqqinafas uyda yetmoq paytimas.*

3. *Oltin O‘zbekiston tuprog‘i bu kun*

4. *Bir pari faslning og‘ushida mast.*

5. *Shabnam shovullaydi bog‘lar qo‘ynida,*

6. *Salqin tuman ichra bo‘zarar tonglar.*

7. *Quyoshning erinchoq yog‘dularida*

8. *Nafis yaltiraydi bargi xazonlar.*

9. *Har yonda to‘kinlik...*

10.*Kuzdan nishona...*

11.*Har yonda go‘zallik yoymish daftarin.*

12.*Sonsiz egatlarga sochilmish, ana.*

13.*Mening shodliklarim, ezgu dardlarim, -*

14.*Mening ona xalqim...*

15.*Ey qadim, halol,*

16.*Rizqi ona yerga sepilgan xalqim,*

17.*Ushoq chigitni ham etmay deb uvol,*

18.*Million egatlarga egilgan xalqim!*

19.*Bir nafas boshingni ko‘targin-u, boq*

20.*Yer yuzida ajib viqor va nufuz.*

21.*Sening o‘zing kabi o‘ychan va quvnoq*

22.*Xushfe’l bo‘lib kelmish tuprog‘ingga kuz.*

23.*Ulug‘ Alisherning soch oqin ko‘rib,*

24.*Og‘ir xayollarga cho‘mgan bu fasl,*

25.*Qayrag‘och yonida g‘amgin o‘tirib,*

26.*Chollarga hassalar yo‘ngan bu fasl,*

27.*Azaliy ko‘rkini qiladi ko‘z-ko‘z...*

28.*Nahotki shuncha tez aylanar dunyo?!*

29.*Baxtli keksalikni yodga solar kuz.*

30.*Sokin xilvatlarga chorlaydi, ammo,*

31.*Do‘stginam, paytimas, aylab sayribog‘,*

32.*Xilvatda o‘y surish yarashmas bugun.*

33.*Zahmatkash o‘zbekning hosili qandoq?!*

34.*Kuzning falsafasi shudir biz uchun.*

35.*Ulug‘ mehnat kezar shan dalalarda,*

36.*Har yonda hokim bir tashvishli ilhom.*

37.*Quyosh bota boshlar ... gavjum qirlarga*

38.*Qoraya-qoraya to‘shalar oqshom.*

39.*Eh, kuzgi oqshomlar...*

40.*Dilimda mening*

41.*Teran tuyg‘ularim qo‘zg‘alar jo‘shib.*

42.*Qo‘zg‘alar-u, shu dam qalbimdan sekin*

43.*To‘kila boshlaydi oydin bir qo‘shiq.*

ÖZBEKİSTAN’DA GÜZ (48)

1. Yürü, tarlalara gidelim, dostum,

2. Boğucu evde yatmanın zamanı değil.

3. Altın Özbekistan toprağı bugün

4. Bir peri mevsimin kucağında mest.

5. Şebnem gürler bahçelerin bağrında,

6. Serin sisin içinde bozarır tanlar.

7. Güneşin tembel ışıklarında

8. Nefis ışıldar yaprağı hazanlar.

9. Her yanda bereketlilik…

10.Güzden nişane…

11. Her yanda güzellik yaymış defterini.

12. Sayısız çizgilere saçılmış, işte,

13. Benim mutluluklarım, güzel dertlerim,

14. Benim ana halkım…

15. Ey kadim, helal,

16.Rızkı ana toprağa serpilen halkım,

17. Ufak tefek diyerek işlemeden günah,

18. Milyonlarca çizgilere eğilen halkım,

19. Bir an başını kaldır, bak,

20. Yeryüzünde harikulade vakar ve huzur.

21. Senin kendin gibi düşünceli ve keyifli

22.İyi huyluca gelmiş toprağına güz.

23. Ulu Ali Şîr’in saçlarının akını görüp,

24. Derin hayallere çökmüş bu mevsim,
25. Karaağacın yanında gamlı oturup,
26.İhtiyarlara asalar yontmuş bu mevsim,
27. Kadim güzelliğini yapar göz göz…
28. Bu kadar hızlı döner dünya?!
29. Bahtlı ihtiyarlığı hatıra getirir güz.
30. Sakin yalnızlıklara davet eder, ama,
31. Can dostum, zamanı değil, edip seyrân-gâh,
32.İnzivada düşünüp durmak yaraşmaz bugün.
33. Emektar Özbek'in mahsulü nasıl?!
34.Güzün felsefesi budur bizim için.
35. Ulu iş gezer şen tarlalarda,
36. Her yanda hâkim bir kaygılı ilham.
37.Güneş batmaya başlar… Kalabalık kırlara
38. Karara karara çöker akşam.
39. Eh, güzki akşamlar…
40.Gönlümde benim
41. Derin duygularım harekete geçer coşup.
42. Harekete geçer, o an kalbimden yavaşça
43.Dökülmeye başlar aydınlık bir koşuk. (1964)

"YO'LIM BOSHLAR…" (49)

1. *Yo'lim boshlar,*
2. *Ketarman bir kun*
3. *Sendan yiroq, o'zga tomonga.*
4. *Uy yonidan o'tarkan, sekin*
5. *Ko'z tashlarsan bo'm-bo'sh makonga.*
6. *Balki u kun kursida yakka*
7. *Turgan bo'lar o'zga bir odam.*
8. *Balki u ham yotib to'shakka,*
9. *Xayol surar ehtimol u dam.*
10.*Balki uni o'xshatib menga,*
11.*Chaqirarsan nomimni aytib.*
12.*Ishonmassan balki ko'zingga,*
13.*Balki so'ngra boqmassan qaytib.*

14.*Yerilmagan yaraday sevgi*

15.*Unda bizni qiynamas to‘lib.*

16.*Ko‘chalarda, yor emas, endi*

17.*To‘qnashamiz begona bo‘lib;*

18.*Nahot bizdan qolmas hatto mung,*

19.*Nahot bo‘lmas biror xotirot?*

20.*Ishonmayman, muhabbatdan so‘ng*

21.*Begonalik boshlansa nahot?!*

“YOLUM BAŞLAR…” (49)

1. Yolum başlar,

2. Giderim bir gün

3. Senden uzak, başka tarafa.

4. Evin yanından geçerken, yavaşça

5. Göz atarsın bomboş mekâna.

6. Belki o gün kürsüde yalnız

7. Durur başka bir insan.

8. Belki o da yatıp döşekte,

9. Hayal kurar bir ihtimal o an.

10. Belki onu benzetip bana,

11.Çağırırsın ismimi söyleyip.

12.İnanmazsan belki gözüne,

13. Belki sonra bakmazsın dönüp.

14.Açılmayan yara gibi sevgi

15. Orada bizi rahatsız etmez dolup.

16. Sokaklarda, yâr değil, şimdi

17.Çarpışırız yabancı olup;

18. Bizden kalmaz mı hatta keder,

19. Olmaz mı bir hatırat?

20.İnanmam, muhabbetten sonra

21. Yabancılık başlarsa ne çare?! (1964)

“SEN PUSHKINNING SEVGAN MALAGI…” (50)

1. *Sen Pushkinning sevgan malagi,*

2. *Sen Gyote orzu etgan qiz.*

3. *Sen Bayronning o‘tli yuragi,*

4. *Sen Geyneni yondirgan yulduz.*

5. *Alisherning Gulisisan sen,*

6. *Sen Lutfiyning so‘lim g‘azali.*

7. *Bulbulisan Hofiz gulshanin*

8. *Va Xayyomning shirin asali,*

9. *Toleimda nozlanib turgan*

10.*Ey sen, mening erka go‘zalim!*

“SEN PUŞKİN’İN SEVDİĞİ MELEĞİ…” (50)

1. Sen Puşkin’in sevdiği meleği,

2. Sen Geothe’nin arzu ettiği kız.

3. Sen Byron’un ateşli yüreği,

4. Sen Heine’yi dağlayan yıldız.

5. Ali Şîr’in Gülü’sün sen,

6. Sen Lütfî’nin hoş gazeli.

7. Bülbülüsün Hafız gülşenin

8. Ve Hayyam’ın enfes balı,

9. Talihimde nazlanıp duran

10. Ey sen, benim nazlı güzelim! (1964)

“YULDUZLAR O‘TIGA…” (51)

1. *Yulduzlar o‘tiga bardosh berurman,*

2. *Fazolar taftiga qilurman toqat.*

3. *Yoningga sog‘-omon qaytab kelurman,*

4. *Otash nigohingda yongali faqat.*

5. *To‘lqinlar qutursin mayli, beomon,*

6. *Mening qismatimni ko‘molmagay u.*

7. *Baribir yoningga qaytaman omon,*

8. *Moviy ko‘zlaringga cho‘mgali mangu.*

“YILDIZLARIN ATEŞİNE…” (51)

1. Yıldızların ateşine katlanırım,
2. Fezaların tahtına atarım tokat.
3. Yanına sağ salim dönüp gelirim,
4. Ateşli bakışında yanmalı yalnız.
5. Dalgalar kudursun neyse, amansız,
6. Benim kısmetimi gizleyemeyecek o.
7. Çabucak yanına dönerim sağ salim,
8. Mavi gözlerine dalmalı sonsuz. (1964)

“U QO‘SHIQ KUYLADI…” (52)

1. *U qo‘shiq kuyladi yor sha’niga mast,*
2. *Sho‘xchan she’rlar aytdi sevgi nomidan.*
3. *Hammani kuldirdi, qiz esa faqat*
4. *Beparvo jilmayib o‘tdi yonidan.*

5. *U qo‘shiq kuyladi yor sha’niga mast,*
6. *Yig‘lab, faryod chekdi sevgi nomidan.*
7. *Hammani yig‘latdi, qiz esa faqat*
8. *Beparvo jilmayib o‘tdi yonidan.*

9. *U qo‘shiq kuyladi yor sha’niga mast,*
10.*Na kuldi, na qatra to‘kdi yoshini.*
11.*U kuyladi mag‘rur, qiz bo‘lsa shu vaqt*
12.*Huzuriga keldi egib boshini.*

“O KOŞUK SÖYLEDİ…” (52)

1. O koşuk söyledi yâr şanına mest,
2. Neşeli şiirler söyledi sevgi adına.
3. Herkesi güldürdü kız ise sadece
4. Pervasız gülümseyip geçti yanından.

5. O koşuk söyledi yâr şanına mest,
6. Ağlayıp, feryat etti sevgi adına.
7. Herkesi ağlattı kız ise sadece
8. Pervasız gülümseyip geçti yanından.

9. O koşuk söyledi yâr şanına mest,
10. Ne güldü, ne döktü katre yaşını.
11.O türkü söyledi mağrur, kız ise o vakit
12. Huzuruna geldi eğip başını. (1964)

"UNI KO'RSAM…" (53)

("Soya" daramatik dostonidan)

1. *Uni ko'rsam, qora quyun qoplar dilimni,*
2. *Shunda kimdir yigit nomim masxara etar.*
3. *Alam bilan men qolganday tishlab tilimni*
4. *Feruza yot,*
5. *Feruza yot?!*
6. *Dahshat naqadar!*
7. *Ko'z oldimda turibsan-ku, Feruzam, shu zum*
8. *Qaysi bir kuch ololarkan seni qo'limdan!*
9. *Toki tanda jonim borkim, ochiqdir ko'zim,*
10.*Qaysi bir kuch ajratolar tole gulimdan.*
11.*O, agar sen-chi?*
12.*Mamnun bo'lib boqsang-chi sen o'shal taqdirga?!*
13.*Unda, nahot, teng etsang-a er nomimni qora bir yerga?!*
14.*Nega gavhar bo'lmading sen va yo chaqmoq tosh,*
15.*Qo'llarimga tugib yursam kecha-yu kunduz.*
16.*Nega sevgim aylamagan seni bir gultoj?!*
17.*Boshginamga qo'yib yursam kechayu kunduz.*
18.*Nega bir tosh bo'lmagansan, seni avaylab,*
19.*Til ostimga solib yursam jonimga joylab,*
20.*Nega bir tosh bo'lmagansan?!*

“ONU GÖRSEM…” (53)

(“Gölge” adlı dramatik destandan)

1. Onu görsem, fırtınalar kopar içimde,
2. Burada biri delikanlı adımı maskara eder.
3. Elemle ben kalır gibi dişleyip dilimi
4. Firuze yat,
5. Firuze yat!
6. Dehşet ne kadar!
7. Gözümün önünde durmuşsun, Firuze’m, o an
8. Hangi güç alabilirmiş seni gönlümden!
9. Ta tende canım var ki, açıktır gözüm,
10. Hangi güç seni ayırabilir talih gülümden.
11. Aaa, ya sen?
12. Memnun olsan sen o takdire?!
13. Orada, münasip görsen mi er ismimi kara bir yere?!
14. Niye cevher olmadın sen yahut çakmak taşı,
15. Kollarıma sarsam gece ve gündüz.
16. Neden sevgim etmemiş seni taç?!
17. Başıma koyup gezsem gece ve gündüz.
18. Niye bir taş olmamışsın, seni sakınıp,
19. Dil altıma koysam canıma yerleştirip,
20. Niye bir taş olmamışsın?! (1964)

KUZ MANZARASI (54)

1. *Kechki kuzak kirmoqda, nina sochar izg‘irin,*
2. *Dehqon ham tashlab ketdi qadrdon dala-qirin.*

3. *Huvillab qoldi, mana, gavjum bog‘lar, bog‘chalar,*
4. *Yashil ellarga tomon uchib ketdi qushchalar.*

5. *Ketdi qirdan turna ham, bo‘shab qoldi tabiat,*

6. *O‘lik mezonlar kezar sovuq dalada faqat.*

7. *Qahrabo ko‘z yosh to‘kib turar faqat daraxtlar,*

8. *Ne qilsin, uchay desa, ularda yo‘q qanotlar...*

GÜZ MANZARASI (54)

1. Geç güz girmekte, iğne saçar şiddetli rüzgâr,

2. Çiftçi de bırakıp gitti kıymetli bağ bahçe.

3. Hışırdadı, işte, işlek bağlar, bahçeler,

4. Yeşil diyarlara doğru uçup gitti kuşcağızlar.

5. Gitti yayladan turna da, boşaldı tabiat,

6. Ölü mezonlar[92] gezer soğuk kırlarda yalnız.

7. Kehribar gözyaşlarını döker ancak ağaçlar,

8. Ne yapsın, uçayım dese, onlarda yok kanatlar… (1964)

“GOHO YER MEHRINI O‘YLARKAN…” (55)

1. *Goho yer mehrini o‘ylarkan,*

2. *Esga tushar dorning siyog‘i;*

3. *Ajab hikmat, odam o‘larkan*

4. *Uzilganda... yerdan oyog‘i.*

“BAZEN TOPRAĞIN ŞEFKATİNİ DÜŞÜNÜRKEN…” (55)

1. Bazen toprağın şefkatini düşünürken,

2. Akla gelir dar ağacının görüntüsü;

3. Şaşılacak hikmet, insan ölürken

[92] Sonbaharda bazı bitkilerden uçan polenlerdir.

4. Kesildiğinde… Yerden ayağı. (1964)

“QUY, DO‘STIM, TILLARANG SHAROBDAN MENGA…” (56)

1. *Quy, do‘stim, tillarang sharobdan menga,*
2. *Quygin, shonli ulfat ko‘rsatsin kuchin*
3. *Ichay, otaginam dehqon haqqiga,*
4. *Javdar xirmonining sog‘ligi uchun!*
5. *Ortiq hech bir nima menga kerakmas,*
6. *Boshimda nur sochib tursa bas oftob.*
7. *O‘sha zahmatkashim omon bo‘lsa bas,*
8. *Quyilib tursa bas g‘azal va sharob!*

“BIRAK, DOSTUM, ALTIN RENKLİ ŞARAPTAN BANA…” (56)

1. Doldur, dostum, altın renkli şaraptan bana,
2. Doldur, şanlı arkadaş göstersin gücünü.
3. İçeyim, babacığım çiftçi hakkına,
4. Çavdar harmanının sağlığı için!
5. Artık hiçbir şey bana gerekmez,
6. Başımda ışık saçsa yeter afitap.
7. İşte o emektarım sağ olsa yeter,
8. Dökülse yeter gazel ve şarap. (1964)

“BULUT TOSHDI…” (57)

(MANZARA)

1. *Bulut toshdi,*
2. *Vodiy osmonini*
3. *Qoplab oldi xira ko‘lanka.*
4. *Yel ovora,*
5. *Namxush xazonni*
6. *Uchirolmay bog‘dan yo‘lakka.*
7. *Novdalari birdan qotganday*

8. *Ko‘rinadi sukutda tolzor.*

9. *Go‘yo nimanidir kutganday*

10.*Bulutlar ham yuvosh, beozor...*

“BULUT KAPLADI…” (57)

(MANZARA)

1. Bulut kapladı,

2. Vadiyi asumanı

3. Kapladı belirsiz gölge.

4. Rüzgâr avare,

5. Nemli hazanı

6. Uçuramadan bahçeden patikaya.

7. Filizleri birden katmış gibi

8. Görünür sessizlikte söğütlük.

9. Sanki bir şeyi beklemiş gibi

10. Bulutlar da yavaş, sakin… (1964)

“NEGA MENI SEVMADING…” (58)

1. *- Nega meni sevmading?*

2. *- Ko‘zginang yulduz uchun.*

3. *- Nega meni demading?*

4. *- Ko‘shginang qunduz uchun.*

5. *Yulduzi yo‘qqa boqay,*

6. *Yulduzim talosh bo‘lur.*

7. *Qunduzi yo‘qqa boqay,*

8. *Qunduzim talosh bo‘lur...*

9. *……..*

10.*……..*

“NİYE BENİ SEVMEDİN…” (58)

1. - Niye beni sevmedin?

2. - Gözcüğün yıldız için.

3. - Niye bana söylemedin?

4. - Kaşçığın gündüz için.

5. Yıldızı olmayana bakayım,

6. Yıldızım telaş eder.

7. Gündüzü olmayana bakayım,

8. Gündüzüm telaş eder…

9. ……

10.…… (1964)

YUZMA-YUZ (59)

I

1. *Kelingiz, do‘stlarim, keling, bir nafas*

2. *So‘zlashib olaylik ochiq, yuzma-yuz.*

3. *U yiroq istiqbol mavzumizdir, bas,*

4. *Demakkim, istiqbol borasida so‘z.*

5. *Kelingiz, do‘stlarim, keling, bir nafas*

6. *Shu ko‘hna daftarni ochaylik yana.*

7. *Erish tuyulmasin tashbihlarim, bas,*

8. *Hozir dabdurustdan deymanki: ana, -*

9. *Mamontlar to‘dasi chiqdi o‘rmondan,*

10.*Shimol ko‘chkiniday vahshiy va sarmast*

11.*Va lekin vahshiyroq to‘da har yondan*

12.*Bostirib keldilar guras va guras.*

13.*Yana to‘qnash keldi inson va hayvon,*

14.*Yana hayot uchun jang ketdi uzoq.*

15.*Yana g‘olib keldi vahshiy olomon,*

16.*Yana sho‘rlik mamont yengildi, biroq*

17.*O‘sha kun buzildi azaliy udum,*

18.*Uni inson o‘zi buzib tashladi.*

19.*Kunduzgi oshkora o‘g‘rilarday u*

20.*O‘ljasin uy-uyga torta boshladi.*

21.*Bizning boshimizni bog‘lagan zulmat,*

22.*Notiqlar tutaqib so‘kkan zulm, qon,*

23.*Dunyodagi neki yomonlik, kulfat,*

24.*Barchasi boshlangan edi o‘sha on...*

25.*Yo‘q, havas qilmayman maymunga hecham,*

26.*Ishtonsiz ajdodni qo‘msamoq nega?*

27.*Ammo o‘ljasini talashgan odam*

28.*Yo‘ldan adashganday ko‘rinar menga.*

29.*Men bir tajribasiz, g‘o‘r yigit, nechun*

30.*Adashding deyapman dunyoga, hayhot.*

31.*Abdulla, xanjarni o‘zingga urgin,*

32.*Sen o‘zing adashmay o‘sdingmi, nahot?!*

33.*Ha, yoshlikda men ham bir oz adashdim,*

34.*Qotil bo‘lganim yo‘q, ammo har qalay...*

35.*Dunyo ham bir vaqtlar mamont talashib,*

36.*Adashib ketgandi yo‘lidan menday.*

37.*U sho‘rlik ilk bora o‘rmonga qochdi,*

38.*Quldorning kaltagi qonatdi burnin,*

39.*Spartak bo‘lib so‘ng haqqin talashdi,*

40.*Zevs siymosida axtardi o‘rnin.*

41.*Mangu ekzotika - Rimni u qurdi,*

42.*Biroq tiyolmadi ko‘zda yoshini:*

43.*Yuragiga Sezar nayzasin urdi,*

44.*Chingizxon cho‘qmori yordi boshini.*

45.*Asrlar shundayin tentib o‘tdilar,*

46.*Yer uzra hukmron g‘am bo‘ldi faqat!*

47.*Kimlarki yaxshilik donin ekdilar -*

48.*Yomon deb nom oldi o‘zi oqibat!*

49.*Nahotki dunyoda haqsizlik mangu,*

50.*Nahotki odamzod qilingandir oq?!*

51.*Nahot o‘sha Freyd haq bo‘lsa, yohu,*

52.*Nahot qotil bo‘lsa o‘sib chaqaloq?!*

53.*Odamlar bir zamon eng buyuk ma’ni -*

54.*Yoshlik sofligiga qo‘yganlar sarhad.*

55.*Yoshlik sofligiga kim qaytmas, qani,*

56.*Adashgan yo‘lidan kim qaytsa, shu mard!*

57.*Yer yuzida kechgan zulmatu vahshat*

58.*Chekinar-ku oxir chirib va qarib.*

59.*Faqat U istiqbol - ul ezgu niyat*

60.*Insonga sofligin berar qaytarib.*

61.*...O‘jar muxoliflar, sal pastga tushing,*

62.*Og‘irroq bo‘ling sal, siz ham, jo‘ralar.*

63.*Ey, nozik o‘quvchim, uchmasin hushing,*

64.*Buyuk maqsad sari yetsa misralar.*

65.*Faryod solmang tag‘in, qizil gap, deya,*

66.*Elga farzand inson elning gapin der.*

67.*Sizga bir juft savol aylayin hadya:*

68.*Mavzuda nima ayb, g‘aliz bo‘lsa she’r?*

69.*Oson qutulamiz mavzudan ba’zan,*

70.*Xaspo‘shlab o‘tamiz, urra-urralab.*

71.*So‘ngra dod solamiz: - Falonu piston,*

72.*Quloqqa yoqmaydi deymiz - o‘sha gap.*

73.*Holbuki, o‘zimiz axtargan baxtlar,*

74.*Bo‘g‘zimizda turgan har ezgu armon -*

75.*Barchasi bir so‘zda jamlandi, agar*

76.*Yoqmasa topingiz boshqa biror nom!*

77.*Ha, men istiqbolni kuylayman, balli,*

78.*Unda xalq yo‘liga tutashar yo‘lim.*

79.*Biroq urralarni sevmayman hali,*

80.*Urra demoqlikka qisiqdir tilim!*

81.*Ba’zi odamlarni ko‘rsatib hali*

82.*Qiyindir sof inson, deya atamoq.*

83.*Garchi inson zoti bo‘lolmas pari,*

84.*Biroq hali bordir shaytonga o‘rtoq.*

85.*Qora bulut yog‘may ketsa-da magar,*

86.*Tiniq ko‘zgularga to‘shab o‘tar nam.*

87.*Hali osmonlarda bulutlar uchrar,*

88.*Hali nayzalar bor, ba’zan menga ham*

89.*Shundayin tikanlar sanchilar goho...*

90.*Shunda hamdard bo‘lar shirin mehnatim.*

91.*Do‘stlar davrasidan ketaman hatto,*

92.*Olis yulduzlarga ko‘char xilqatim.*

93.*...Yulduzlar, yulduzlar, siz mening uchun*

94.*Soflik va ma’sumlik bo‘lib yondingiz.*

95.*Borim shudir, deya jovdirab sekin*

96.*Oq ko‘ngil farzandim bo‘lib qoldingiz.*

97.*Yo‘q! Yo‘q! Men sizlarga termulib bedor*

98.*Falak safarini o‘ylaganim yo‘q.*

99.*Yulduzlar, men sizga boqqanda xumor,*

100. *Qalbimda yer ishqi bo‘ladi to‘liq.*

101. *Yulduzlar, bilmaysiz mening xalqimni,*

102. *Bundayin zahmatkash yer yuzida kam.*

103. *Yelda tinim bordir, unda yo‘q tinim,*

104. *Shunday ishparastdir u munisginam.*

105. *Men uni o‘ylayman tun-kechalarda,*

106. *Ona xalqim, deyman, mehrim oqar jim.*

107. *Ko‘zimga ba’zida ko‘rinsa janda*

108. *Ko‘nglim to‘lib ketar, ingrayman, xalqim...*

109. *Xalqim, moziy o‘tdi, tole ko‘rmading,*

110. *Pishirding o‘zingga benasib taom.*

111. *Kiygizding birovga, o‘zing kiymading,*

112. *Yulduzni kashf etib nom olding - avom!*

113. *O‘tganga achinmoq odatim yo‘qdir,*

114. *Behuda motamlar tekkandir jonga*

115. *Va lekin tosh otmay ilojim yo‘qdir*

116. *Furqatni badarg‘a etgan zamonga.*

117. *Meni kechiringiz, oddiy odamlar,*

118. *Sizni esga solar har mash’um taqdir.*

119. *Orangizda o‘tdi qancha furqatlar,*

120. *Bezgakka chalindi qancha Alisher!*

121. *Yer yuzida kezgan zulmatu vahshat*

122. *Chekinar-ku axir, pok bo‘lar dunyo!*

123. *Faqat U istiqbol - ul ezgu niyat*

124. *Xalqimga baxtini aylar hadya.*

I I

125. *Mezonlar uchmoqda, havo billurdan...*

126. *Yana hislarimga kel, deb yolbordim.*

127. *Xazonlar to‘kildi, men ham qalbimdan*

128. *Badbin o‘ylarimni quvlab yubordim.*

129. *Ajoyib fasl bu: o‘ychan, barkamol -*

130. *Qizday ma’yusgina turadi kuylab.*

131. *Men kuzni sevaman, kezarkan xushhol*

132. *Oltin O‘zbekiston tuprog‘i bo‘ylab.*

133. *Bo‘g‘zimga hislarim tiqilar yana,*

134. *Tanho tentirayman, bilmayman, nechun.*

135. *Kuylagim keladi, tunlar jimgina,*

136. *Gulgun shafaqlarning sog‘ligi uchun.*

137. *Kumushrang yo‘llarda ot surib yursam,*

138. *Shimirsam shabnamdan, kuylasam sarmast.*

139. *So‘ngsiz vodiylarga termulib tursam,*

140. *Beparvo ohuda qo‘zg‘azam havas.*

141. *Ammo kechalar men kezsam-da bedor,*

142. *Ohular qo‘ynimga kirsa-da qizdek,*

143. *Mening nigohimni tortadi takror,*

144. *Million egatlarga sochilgan o‘zbek.*

145. *Garchand paxtazorga boqaman men ham*

146. *Va lekin dilimda tashvish bor mening.*

147. *Mayliga, sho‘x qo‘shiq yangrasin tilda,*

148. *Rangpar singilginam, o‘ylayman seni.*

149. *Kuzgi rayhondayin ma’yus o‘sding sen,*

150. *Tabiat bermadi bilagingga kuch.*

151. *O‘zingday odamga qalliq tushding sen,*

152. *Na sog‘liq, na yordan yalchimading hech.*

153. *Men seni o‘ylasam, singlim - rangparim,*

154. *Goho to‘lg‘onaman so‘zsiz, hasratda.*

155. *Sen unda ter to‘ksang, singlim, jigarim,*

156. *Men nechun yuraman axir ishratda?!*

157. *Yo‘q, rangpar bo‘lmasin hech kim ham, yo‘q, yo‘q!*

158. *Singillar polvonday yursinlar bardam.*

159. *Va lekin tabiat bermaydi huquq*

160. *Polvon deb ularni unutmoqqa ham...*

161. *Sening qatoringda ona xalq bordir:*

162. *Sen kabi mehnatkash, sen kabi suyuk.*

163. *Uning tashvishini unutmoq ordir,*

164. *Uni unutganlar - to‘nkadir, kuyuk.*

165. *Singilga - xalqimga boqsam doimo*

166. *Ulug‘ kelajakni ayladim orzu.*

167. *Dedim: Istiqboldan baxt topar dunyo.*

168. *Dedilar: go‘dagim, to‘g‘ri yo‘ling shu.*

169. *Qo‘limdan tutdi-yu, shu ulug‘ imon,*

170. *Mening ham ko‘nglimda jo‘shdi tilagim,*

171. *Ammo ba’zilarga duch kelsam bir on*

172. *Achchiq iztirobga to‘lar yuragim.*

173. *Rost-da, birovlarni etadi shaydo,*

174. *O‘z aybi turganda o‘zga bir chiroy.*

175. *Kulgu arimasin lablardan, ammo -*

176. *Taqdir erkalatdi bizni har qalay...*

177. *Sokin kechalarda kelar yodimga*

178. *Qanchalab juvonmarg yigit qismati.*

179. *Deyman, qani yonsa avlod qonida*

180. *O‘sha otalarning buyuk shiddati.*

181. *Xudbin tengdoshimga qarayman g‘amgin,*

182. *Ko‘lmak davra ko‘rsam ezilar ko‘nglim.*

183. *Xalqim, kelajaging o‘shalarmikin,*

184. *Xalqim, shundaylarga qolmasin kuning.*

185. *Men o‘zim nimaman? Aslida, balkim*

186. *Eng no‘noq odamdan no‘noqman, faqat,*

187. *Faqat bir narsani yashirmas qalbim:*

188. *Mening yuragimda bordir Muhabbat!*

189. *Seni, ona xalqim, sevaman jondan,*

190. *Sening tashvishingni tashvishim deyman.*

191. *Nima qilolardim? Foydam kam garchand,*

192. *Biroq men o‘zimcha g‘amingni yeyman.*

193. *Dildan quvonaman, qirlarda poda -*

194. *Yag‘rini yaltirab yurganin ko‘rsam.*

195. *Dildan quvonaman, toshloq yerlarda*

196. *Bug‘doyzor shovillab turganin ko‘rsam.*

197. *Suyunib ketaman maktab boladay,*

198. *Sonsiz mo‘rilarda ko‘rarkan tutun.*

199. *Ana, tanish uyda dog‘ bo‘lmokda moy,*

200. *Shivirlayman: - Singlim, nasibang butun!*

201. *Kuylab zamondoshning qaddu kamolin*

202. *Erkinning sho‘x sozi taratsa jarang,*

203. *Deyman, U istiqbol - ul munis tole*

204. *Xalqimga sho‘x qo‘shiq bermoqda, qarang.*

205. *To‘yu to‘yxonani ko‘rsam, hamma vaqt*

206. *Ulug‘ zamonaga aytdim shukrona.*

207. *Ammo inson umri to‘y emas har vaqt,*

208. *Olddadir hali eng go‘zal zamona.*

209. *Istayman, qora rang qolmasa jinday,*

210. *Istayman, botmasa shu rangin quyosh.*

211. *Akaning singilga achinganiday*

212. *Inson inson uchun to‘ka olsa yosh.*

213. *Ona xalq baxti deb har vaqt, har qachon,*

214. *Istayman, bir safda tursa odamlar.*

215. *Sokin kechalarda qalbni nogahon*

216. *Qurshab olganida shunday ohanglar -*

217. *Sizga talpinaman, odamlar, yana,*

218. *O‘tmish muhabbatga talpinganday jon.*

219. *Ammo ba’zi mahal qolaman yakka*

220. *Sevgisi rad bo‘lgan yosh Vertersimon.*

221. *Yo‘qol, ey behuda mag‘rurlik hissi,*

222. *Yo‘qol, ey behuda samoviy damlar.*

223. *O‘zimni sizlardan ajratsam, so‘zsiz*

224. *Tavajjuh etmangiz deyman, odamlar!*

225. *Do‘stlarim, men sizga talpingan damda*

226. *Qalbimda bo‘ladi yolg‘iz bir ra’yim:*

227. *Xiyonat bo‘lmasa deyman hech kimda,*

228. *Do‘stlarning imoni but bo‘lsa doim.*

229. *Deydilar: dunyoni kurash aylar bir,*

230. *Inson jang-jadalda bo‘lar juftu toq.*

231. *Axir qon oqishi shartmikan, axir,*

232. *Bu kurash qaysi bir jangdan osonroq?!*

233. *Deymizki, olamni bug‘doyzor bossin,*

234. *Yer yuzida faqat yangrasin kulgi.*

235. *Axir, bug‘doyzorning o‘zi unmaskim,*

236. *Dildan kula bilish oson emas-ku.*

237. *Ha, buyuk jang bu ham, qoshida xomush -*

238. *Ne o‘jar odamlar bosh egmoqda jim.*

239. *Shu metin saflarni kim buzolur, xo‘sh,*

240. *Shu ezgu kurashdan chetda turar kim?!*

241. *Qani, hey do‘stlarim, tinglangiz so‘zim,*

242. *Bir so‘zkim, oddiydir, haqiqatsimon.*

243. *Deymanki: Istiqbol - tarixning o‘zi, -*

244. *Kelmoqda kimga do‘st, kimga beomon.*

245. *Hayqiryapman hozir... Ba’zida lekin*

246. *Zaif shamollarga bo‘ysunar sozim.*

247. *Yuragim, yuragim, mittisan-ku, sen,*

248. *Hayqirish aslida sengami lozim.*

249. *Bilaman, ortimdan kimdir o‘qrayib,*

250. *Qarab o‘tiribdi xuddi shu zamon.*

251. *Qani, hey, bu yo‘ldan bo‘lmasin toyish,*

252. *Qani, hey, Istiqbol, yangra beomon!*

253. *Mayliga sozimni sevmas davralar,*

254. *Oshiqlar satrimdan chekmaslar faryod.*

255. *Mening xayolimni hozir yetaklar*

256. *Faqat Istiqbolni eslatgan hayot.*

257. *Ana, yo‘l chetida borar qurilish,*

258. *G‘isht teruvchi yigit dorbozday yurar.*

259. *Otga qamchi urar kerosinfurush,*

260. *Bir kampir engashib ko‘cha supurar.*

261. *Ana u tanish joy - anhor qirg‘og‘i,*

262. *Pivoga ko‘p xumor talaba do‘stim,*

263. *Men sening ismingni bilmayman, soqiy,*

264. *Buyur men uchun ham mayli bir juftin.*

265. *Ularga boqaman, qalbimda o‘qtin*

266. *Bir xushnud hissiyot ko‘tarar yelkan.*

267. *O‘zgalarning g‘ami yig‘latsa, nechun,*

268. *Nechun iqbollari quvnatmas ekan?!*

269. *Axir insof bilan o‘ylasang-ku, rost,*

270. *O‘shalardir bugun sohibi zamon.*

271. *Hech kimning hech kimdan tili qisiqmas,*

272. *Chegaradir faqat insof va vijdon.*

YÜZ YÜZE (59)

I

1. Geliniz, dostlarım, gelin, bir an

2. Konuşalım açıkça, yüz yüze.

3. O uzak istikbal mevzumuzdur, yeter,

4. Demek ki, istikbal konusunda söz.

5. Geliniz, dostlarım, gelin, bir an

6. Bu köhne defteri açalım yine.

7. Tuhaf duyulmasın teşbihlerim, yeter,

8. Şimdi ansızın diyorum ki: işte,

9. Mamutlar sürüsü çıktı ormandan,

10. Kuzey çığı gibi vahşi ve sarhoş

11. Velakin daha vahşi sürü her yandan

12. Bastırıp geldiler yığın yığın.

13. Yine çarpıştı insan ve hayvan,

14. Yine hayat için savaştı uzun.

15. Yine galip geldi sürü,

16. Yine zavallı mamut yenildi, fakat

17.O gün bozuldu ezelî âdet,

18. Onu insan kendisi bozdu.

19.Gündüzki aşikâr hırsızlar gibi o

20. Ganimetini ev ev almaya başladı.

21. Bizim başımızı bağlayan zulmet,

22. Hatiplerin hiddetlendiği zulüm, kan,

23.Dünyada ne varsa kötülük, külfet,

24. Hepsi başlamıştı o an…

25. Hayır, heves etmem maymuna hiç,

26.Şalvarsız ecdadı özlemek niye?

27. Ama ganimetini tartışan insan

28. Yolunu şaşırmış gibi görünür bana.

29. Ben bir tecrübesiz, acemi delikanlı, niçin

30.Şaşırdın derim dünyaya, heyhat.

31. Abdulla, hançeri kendine vur,
32. Sen kendin şaşmadan olgunlaştın mı, garip?!
33. Evet, gençlikte ben de biraz yoldan çıktım,
34. Katil olmadım, ama her nasılsa…
35.Dünyada bir zamanlar mamut dalaşıp,
36.Şaşırıp çıkmıştı yolundan benim gibi.
37.O zavallı ilk kez ormana kaçtı,
38. Kulların sopası kanattı burnunu,
39. Spartak olup son hakkını dalaştı,
40. Zevs simasında aradı yerini.
41. Bengü egzotik Rim'i o kurdu,
42. Fakat tutamadı gözündeki yaşını:
43.Yüreğine Sezar süngüsünü vurdu,
44. Cengizhan'ın tokmağı yardı başını.
45. Asırlarca böyle boş boş gezip geçtiler,
46. Yeryüzünde hükümran gam oldu sadece!
47. Kimler ki iyilik tohumunu ektiler
48.Kötü diye nam saldı kendisi akıbet!
49.Dünyada haksızlık sonsuz mu,
50.İnsanoğlu edilmiş midir ak?!
51. Freud haklı mı, yahu,
52. Katil mi olacak büyüyüp bebek?!
53.İnsanlar bir zamanlar en büyük mâniyi
54. Gençliğin saflığına koymuşlar sınır.
55. Gençliğin saflığına kim dönmez, hani,
56.Çıktığı yoldan kim dönse, o mert!
57. Yeryüzünde geçen zulmet ve vahşet
58.Çekilir çürüyüp ve yaşlanıp.
59. Sadece o istikbal, o iyi niyet
60.İnsana saflığını verir döndürüp.
61.…İnatçı muhalifler, biraz aşağıya inin,
62. Daha ağır olun biraz, siz de dostlar.
63. Ey, nazik öğrencim, uçmasın idrakin,
64.Büyük maksada doğru ulaşsa mısralar.
65. Feryat etmeyin yine, kızıl söz, diye,
66. Memlekete evlat insan memleketin sözünü der.

67. Size bir çift soru edeyim hediye:
68. Mevzuda ne kusur, belirsiz olsa şiir?
69. Kolay kurtuluruz mevzudan bazen,
70. Maskeleyip geçeriz, hurra hurra diye.
71. Sonra feryat ederiz: - falan fistan,
72. Kulağa hoş gelmezdi deriz, şu söz.
73.Hâlbuki kendimizin aradığı bahtlar,
74.İçimizde kalan her iyi ukde
75. Hepsi bir sözde toplandı, eğer
76. Hoşa gitmezse bulunuz başka bir isim!
77. Evet, ben istikbali terennüm ederim, güzel,
78. Onda halk yoluna bitişir yolum.
79. Fakat hurraları sevmiyorum hâlâ,
80. Hurra demeye varmaz dilim!
81. Bazı insanları gösterip hâlâ
82. Zordur saf insan, diye adlandırmak.
83. Gerçi insanın özü olamaz peri
84. Fakat hâlâ vardır şeytana ortak.
85. Kara bulut yağmadan gitse meğer,
86. Berrak aynalara salıp geçer de.
87.Hâlâ asumanlarda bulutlar rastlar,
88.Hâlâ süngüler var, bazen bana da
89.Böyle dikenler saplar bazen…
90.Böyle hemdert olur şirin emeğim.
91. Dostlar devresinden giderim hatta,
92. Uzak yıldızlara göçer hilkatim.
93.…Yıldızlar, yıldızlar, siz benim için
94. Saflık ve masumluk olup ışık saçtınız.
95. Varım budur, diye ümitle bakıp yavaşça
96. Ak gönüllü çocuğum oldunuz.
97. Hayır! Hayır! Ben sizlere bakıp uykusuz
98. Feleğin seferine yaklaşmadım.
99.Yıldızlar, ben size baktığımda arzu,
100. Kalbim toprak aşkıyla olur dopdolu.
101. Yıldızlar, bilmezsiniz benim halkımı,
102. Böyle çalışkan yeryüzünde az.

103. Rüzgâr soluk alır, onda yok durmak,
104. Böyle işkoliktir o can dostum.
105. Ben onu düşünürüm geceleri,
106. Ana halkım, derim, şefkat gösteririm.
107. Gözüme bazen görünse eski bir giysi
108. Gönlüm dolar, inlerim, halkım…
109. Halkım, mazi geçti, talih görmedin,
110. Pişirdin kendine nasipsiz yemek.
111. Giydirdin birisini, kendin giymedin,
112. Yıldızı keşfedip nam saldın, avam!
113. Geçmişe acımak âdetim yoktur,
114. Beyhude matemler değmiştir cana
115. Velakin taş atmadan çarem yoktur
116. Firkati sürgüne gönderen zamana.
117. Beni affediniz, sıradan insanlar,
118. Sizi hatıra getirir her meşum kader.
119. Aranızda geçti ne kadar firkatler,
120. Sıtmaya tutuldu nasıl Alişer!
121. Yeryüzünde gezen zulmet ve vahşet
122. Çekilir sonra, temiz olur dünya!
123. Sadece o istikbal, o iyi niyet
124. Halkıma bahtını eder hediye.

II

125. Mezonlar uçmakta, hava billur…
126. Yine hislerime gel, diye yalvardım.
127. Hazanlar döküldü, ben de kalbimden
128. Karamsar düşüncelerimi kovdum.
129. Hoş bir fasıl bu: düşünceli, olgun
130. Kız gibi meyus durur terennüm edip.
131. Ben güzü severim, gezerken hoşnut
132. Altın Özbekistan toprağı üzerinde.
133. Boğazıma hislerim dizilir yine,
134. Tenhada başıboş gezerim, bilmem, niçin?
135. Şarkı söyleyesim geldi, geceler sessizce,
136. Kızıl şafakların sağlığı için.
137. Gümüş renkli yollarda at sürsem,

138. Yutsam şebnemden, şarkı söylesem sarhoş.
139. Sonsuz vadilere baksam,
140. Pervasız ahuda uyandırsam heves.
141. Ama geceler ben gezsem uykusuz,
142. Ahular koynuma girse kız gibi,
143. Benim dikkatimi çeker tekrar,
144. Milyonlarca çizgilere saçılmış Özbek.
145. Gerçi pamuk tarlasına bakarım ben de
146. Velakin gönlümde kaygı var benim.
147. Olsun, neşeli koşuk çınlasın dilde,
148. Solgun kız kardeşçiğim, düşünürüm seni.
149. Güzki reyhan gibi meyus büyüdün sen,
150. Tabiat vermedi bileğine güç.
151. Kendin gibi insanla nişanlandın sen,
152. Ne sağlığa, ne yâra erişmedin hiç.
153. Ben seni düşünürsem kız kardeşim, solgunum,
154. Bazen titrerim sözsüz, hasrette.
155. Sen orada ter döksen, kız kardeşim, ciğerim,
156. Ben neden giderim son işrete?!
157. Hayır, solgun olmasın hiç kimse de, hayır, hayır!
158. Kız kardeşler pehlivan gibi yürüsünler dinç.
159. Velakin tabiat vermez hak
160. Pehlivan diye onları unutmaya da…
161. Senin safında ana halk vardır:
162. Senin gibi çalışkan, senin gibi gönüllü.
163. Onun kaygısını unutmak ardır,
164. Onu unutanlar, budaladır, kederli.
165. Kız kardeşine, halkıma baksam daima
166. Ulu geleceği ettim arzu.
167. Dedim: İstikbalden baht bulur dünya.
168. Dediler: Evladım, doğru yolun bu.
169. Kolumdan tuttu, bu ulu iman,
170. Benim de gönlümde coştu dileğim,
171. Ama bazılarıyla karşılaşsam bir an
172. Acı ızdırapla dolar yüreğim.
173. Doğru, birileri eder şeyda,

174. Kendi ayıbı olduğunda başka bir güzeldir.
175. Gülücükler eksilmesin dudaklardan, ama
176. Kader şımarttı bizi her nasılsa…
177. Sakin gecelerde gelir hatırıma
178. Nice civanmert delikanlının kısmeti.
179. Derim, hani yansa evladının kanında
180. İşte atalarının büyük şiddeti.
181. Bencil akranıma bakarım gamlı,
182. Girdap görsem ezilir gönlüm.
183. Halkım, geleceğin işte onlar mı,
184. Halkım, böylelerine kalmasın günün.
185. Ben kendim neyim? Aslında, belki
186. En beceriksiz insandan beceriksizim, ancak,
187. Sadece bir şeyi gizlemez kalbim:
188. Benim yüreğimde vardır Muhabbet!
189. Seni, ana halkım, severim candan,
190. Senin kaygını kaygım kabul ederim
191. Ne yapabilirdim? Faydam az gerçi,
192. Fakat ben kendimce gamlanmam.
193. Gönülden sevinirim, kırlarda sürünün,
194. Sağrılarının parladığını görsem.
195. Gönülden sevinirim, taşlı topraklarda
196. Buğday tarlasının hışırdadığını görsem.
197. Sevinirim mektep çocuğu gibi,
198. Sonsuz bacalarda görürken duman.
199. İşte, tanıdık evde leke olmakta yağ,
200. Fısıldarım: -Kız kardeşim, nasibin tam!
201. Türkü söyleyip akranın boyu posuyla
202. Özgürlüğün neşeli sazı çalsa şıkırtı,
203. Derim, o istikbal, o dost talih
204. Halkıma neşeli koşuk söylemekte, bakın.
205. Düğünü derneği görsem, her zaman,
206. Ulu zamana ettim teşekkür.
207. Ama insan ömri toy değil her vakit,
208. İleridedir daha en güzel zaman,
209. İsterim, kara renk kalmasa cin gibi,

210. İsterim, batmazsa bu renkli güneş.
211. Abinin kız kardeşine acıdığı gibi
212. İnsan insan için dökebilse yaş.
213. Ana halk bahtı diye her vakit, her an,
214. İsterim, bir safta dursa insanlar.
215. Sakin gecelerde kalbi ansızın
216. Kuşattığında böyle ahenkler
217. Size gönlüm akar, insanlar, yine,
218. Geçmiş muhabbete gönlüm akmış gibi can.
219. Ama bazen kalırım yalnız
220. Sevgisi reddedilen genç Werter gibi.
221. Kaybol, ey beyhude mağrurluk hissi,
222. Kaybol, ey beyhude semavi anlar.
223. Kendimi sizlerden ayırsam, sessiz
224. Teveccüh etmeyiniz derim, insanlar!
225. Dostlarım, benim size gönlümün aktığı anda
226. Kalbimde olur sadece bir meylim:
227. Hıyanet olmasa derim hiç kimsede,
228. Dostların imanı tam olsa daima.
229. Derler: dünyayı mücadele eder bir,
230. İnsan savaşta olur çift ve tek.
231. Kan dökülmesi şart mıymış, artık,
232. Bu çarpışma hangi savaştan daha kolay?!
233. Deriz ki, âlemi buğday tarlası bassın,
234. Yeryüzünde sadece çınlasın kahkaha.
235. Artık, buğday tarlasının kendisi büyümez ki,
236. Gönülden gülebilmek kolay değil ki.
237. Evet, büyük savaş bu da, karşında suskun
238. Ne inatçı insanlar baş eğmekte sessiz.
239. Bu metin safları kim bozabilir, peki,
240. Bu iyi mücadelede dışta kalır kim?!
241. Hani, hey dostlarım, dinleyiniz sözümü,
242. Bir söz ki, basittir, hakikat gibi.
243. Derim ki: İstikbal, tarihin kendisi,
244. Gelmekte kime dost, kime insafsız.
245. Haykırırım şimdi… Bazen ama

246. Zayıf rüzgârlara itaat eder sazım.
247. Yüreğim, yüreğim, miniciksin, sen,
248. Haykırmak aslında sana mı lazım.
249. Bilirim, ardımdan kimi gazapla,
250. Bakmıştı tıpkı o zaman.
251. Hani, hey, bu yoldan olmasın dönmek,
252. Hani, hey, İstikbal, çınla insafsız!
253. Neyse sazımı sevmez meclisler,
254. Âşıklar satırımdan etmezler feryat.
255. Benim hayalime şimdi öncülük eder
256. Yalnız İstikbali hatırlatan hayat.
257. İşte, yol kenarında sürer inşaat,
258. Tuğla ören delikanlı ip cambazı gibi yürür.
259. Ata kamçı vurur yağcı,
260. Bir ihtiyar kadın eğilip sokağı süpürür.
261. İşte o tanıdık yer, çay kenarı,
262. Biraya çok düşkün talebe dostum,
263. Ben senin ismini bilmem, saki,
264. Buyur benim için de olsun bir daha.
265. Onlara bakarım, kalbimde bazen
266. Bir hoşnut hissiyat açar yelken.
267. Başkalarının gamı ağlatsa, niçin,
268. Niçin ikballeri sevindirmezmiş?!
269. Artık insafla düşünsen ya, doğru,
270. İşte onlardır bugün sahib-i zaman.
271. Hiç kimsenin kimseden dili tutulmaz,
272. Sınırdır sadece insaf ve vicdan.

“QANI, HEY, DO‘STLARIM…” (60)

1. *Qani, hey, do‘stlarim, tashlang bir qadam*
2. *Shu ezgu Istiqbol himoyasiga.*
3. *Men sizni kutaman, ushbu she’rim ham*
4. *O‘shanda yetadi nihoyasiga!*

“NERDE, HEY, DOSTLARIM…” (60)

1. Nerde, hey, dostlarım, atın bir adım
2. Bu iyi İstikbal himayesine.
3. Ben sizi beklerim, bu şiirim de
4. Öyle ulaşır nihayete! (1964)

“KEL, YORUG‘ ET…” (61)

1. *Kel, yorug‘ et, sensiz bu xona*
2. *Zulmat to‘la qorong‘i qafas.*
3. *Sensiz dunyo o‘zi e... nima*
4. *Huvillagan vayrona-ku, bas,*
5. *Kel, yorug‘ et, sensiz bu xona.*

6. *Qizig‘i yo‘q menga yashashning*
7. *Bu xilvatda do‘stu yoronsiz.*
8. *Yorgudayin qalbimni g‘ashlik.*
9. *Yoril, yurak, do‘stu yoronsiz*
10.Kimga qizig‘i bor yashashning...

11.Eshigimdan o‘tgan yo‘lovchi
12.Ketma, ketma, kirgil uyimga...
13.Hamdam bo‘lgil fikrim-o‘yimga
14.Kelgil, mayli, dushman bo‘lsang-da...
15.O, tanholik qursin, kel, odam,
16.Mayli, kim bo‘lsang...

“GEL, AYDINLAT…” (61)

1. Gel, aydınlat, sensiz bu oda
2. Zulmetle dolu karanlık kafes.
3. Sensiz dünyanın kendisi e… ne
4. Boşalan virane ya, yeter,
5. Gel, aydınlat, sensiz bu oda.

6. Bir manası yok bana yaşamanın
7. Bu yalnızlıkta dost ve yârensiz.
8. Parçalayacak gibi kalbimi huzursuzluk.
9. Parçalan, yürek, dost ve yârensiz
10. Kime manası var yaşamanın…

11. Kapımdan geçen yolcu
12. Gitme, gitme, gir evime…
13. Ahbap ol fikrime düşünceme
14. Gel, olsun, düşman olsan da…
15. Aaa, yalnızlık kurusun, gel, insan,
16. Ol, kim olursan… (1964)

AYRILIQ QO‘SHIG‘I (62)

1. *Aslo ayriliqni kuylamas edim,*
2. *Umrim o‘tsa derdim xushnud, baxtiyor.*
3. *Faqat visolingni kuylasam derdim,*
4. *Ne qilib qo‘yding sen, bevafo dildor.*
5. *Ne qilib qo‘yding sen?! Alvido demak*
6. *Nahot, shuncha oson sevgan ko‘ngilga?!*
7. *Xayr deyman men ham va lek noiloj,*
8. *Sening xotirangni saqlab manguga.*
9. *Xayr, - deyman mungli... ammo bilaman:*
10.*Qalbimdan shirin kuy kuylarman yana.*
11.*Do‘stlarim sevgisin shan davralarda,*
12.*Sho‘xchan visollarin kuylarman yana.*
13.*Shunda, ey xotirot, zahar tilingni,*
14.*Shirin damlarimga ko‘shmagin faqat.*
15.*Bemahal uyg‘onib, yo‘qolgan ishqim,*
16.*Shodumon qalbimni bukmagin faqat.*
17.*Zahar qo‘shma faqat qo‘shiqlarimga,*
18.*Men shirin qo‘shiqlar aytmoq istayman.*
19.*Kulgu ila men ham sho‘x davralardan,*

20.*Totli xayol ila qaytmoq istayman...*

AYRILIK ŞARKISI (62)

1. Asla ayrılığı terennüm etmezdim,
2. Ömrüm geçse derdim hoşnut, bahtiyar.
3. Sadece visalini terennüm etsem derdim,
4. Ne yaptın sen, vefasız sevgili.
5. Ne yaptın sen?! Elveda demek
6. Bu kadar kolay mı seven gönüle?!
7. Hoşça kal derim ben de velakin çaresiz,
8. Senin hatıranı saklayıp sonsuza.
9. Hoşça kal, derim efkârlı… Ama bilirim:
10. Kalbimden şirin şarkı söylerim yine.
11. Dostlarım sevgisini şen meclislerde,
12.Şakacı visallerini terennüm ederim yine,
13.Böyle, ey hatırat, zehir dilini,
14. Tatlı anlarıma katma sadece.
15. Zamansız uyanıp, kaybolan aşkım,
16.Şaduman kalbimi bükme sadece.
17. Zehir katma sadece koşuklarıma,
18. Ben tatlı koşuklar söylemek isterim.
19. Kahkahayla ben de şen meclislerden,
20. Tatlı hayalle dönmek isterim… (1964)

QASAM DARA (63)

1. *Qasam dara guvillaydi mast,*
2. *Guvillaydi tubi yo‘q makon.*
3. *Ko‘kdan unga ko‘rinar faqat*
4. *Mitti yulduz va parcha osmon.*
5. *Atrofidan qoq qoya toshlar*
6. *Jur’at bilan termuladi lol.*
7. *Bir ko‘ray deb zina tarashlab*
8. *Qoyalarga tirmashar hilol.*
9. *Bunda na qush, na bir jonivor*

10.*Va na shamol ko‘rsatar qora.*

11.*Afsonalar so‘ylaydi takror*

12.*Mening chanqoq dilimga dara:*

13.*Ana, ovchi, ohu quvadi,*

14.*Uchadilar toshlar aro tik.*

15.*Qochqin ohu toqqa qo‘nadi,*

16.*So‘ng daraga sakraydi sho‘rlik!*

17.*Qasam dara - daralar sheri*

18.*O‘lja kutib uvlarkan pastda,*

19.*Hayt, - deydi-yu (o, sen, ov mehri)*

20.*Tashlanadi ovchi ham pastga.*

21.*Botirini saqlaydi omon*

22.*Tasodifga to‘la bu dunyo.*

23.*Ovchi ovin aylar saranjom,*

24.*Ovuliga chog‘lanar, ammo,*

25.*Ammo birdan qotadi karaxt...*

26.*Asir etmish uni bu makon.*

27.*Atrofida toshlar-u, faqat*

28.*Tepasida yulduz va osmon.*

29.*Alvonlarin yoyib ufqqa*

30.*Chiqqunicha zar kokil quyosh,*

31.*Sho‘rlik ovchi intilar ko‘kka,*

32.*So‘ng ilojsiz to‘kar yum-yum yosh.*

33.*Botirini axtarib shu zum*

34.*Kelar yori, ovuldoshlari.*

35.*Ayting, ota, ne qilmoq lozim?! -*

36.*Keksa cholga yuzlanar bari.*

37.*Bolalarim, ov mehri uni*

38.*Tushiribdi daraga oson,*

39.*Ayol mehri, yor mehri, ko‘ring,*

40.*Olib chiqar jardan begumon.*

41.*Shunda,*

42.*Yovqur bir yigit dadil*

43.*Bajo aylar cholning shiorin:*

44.*Dara uzra ko‘tarib adl*

45.*Quchoqlaydi ovchining yorin.*

46.*Faryod solar ovchi xotini,*

47.*Yigit esa quchar yaxshiroq.*

48.*Ovchi, hayhot, quturar yonib,*

49.*Qafasdagi sherdan vahshiyroq.*

50.*Go‘yo cho‘kar daraning mahri,*

51.*Go‘yo toshlar ketar oradan:*

52.*Hayt, - deydi-yu (o, sen, yor mehri!)*

53.*Ovchi chiqib ketar daradan.*

54.*Qasam dara guvillaydi mast,*

55.*Guvillaydi tubi yo‘q makon.*

56.*Ko‘kka boqib u ko‘ru karaxt*

57.*Afsonalar so‘ylaydi hamon.*

58.*Qasam dara, kezdim mahringda*

59.*Kiprikdagi yoshday omonat.*

60.*Qasam dara, sening bag‘ringga*

61.*Qasam ichgan tusharmish faqat.*

62.*Hayrat bilan senga boqurman,*

63.*Hali qasam ichmaganim rost.*

64.*Na ovchiman va na botirman,*

65.*Kezib yurgan oshiqman, xolos.*

66.*Payti kelsa, sevgim, sen uchun*

67.*Yor oldida ichurman qasam.*

68.*Fazolarni aylanib butun*

69.*Dengizlarga qo‘yarman qadam.*

70.*Amr etsa gar o‘sha dilbarim*

71.*Tashlanaman daraga shu zum.*

72.*Bir iltimos faqat, do‘stlarim,*

73.*Qaytishida chiqaman o‘zim!*

KASEM DERESİ (63)

1. Kasem deresi uğuldar sarhoş,

2. Uğuldar dibi olmayan mekân.

3. Gökten ona görünür sadece

4. Minicik yıldız ve bir parça asuman.

5. Etrafından kuru kaya taşları

6. Cüretle uzun uzun bakar lal.
7. Bir göreyim diye merdiven traşlayıp
8. Kayalara tırmanır hilal.
9. Burada ne kuş, ne bir canavar
10. Ve ne rüzgâr gösterir kara.
11. Efsaneler anlatır tekrar
12. Benim susamış gönlüme dere:
13.O işte, avcı, ahu kovalar,
14.Uçarlar taşların arasında dimdik.
15. Kaçkın ahu dağa çıkar,
16. Sonra dereye atlar zavallı!
17. Kasem deresi, dereler aslanı
18. Kurban bekleyip kükrerken aşağıda
19. Hayt, der (aaa, sen, av şefkati)
20. Atıldı avcı da aşağıya.
21. Bahadırını saklar sağ salim
22. Tesadüfle dolu bu dünya.
23. Avcı avını eder serencam,
24.Köyüne hazırlar, ama,
25. Ama, birden kesilir kaskatı…
26. Esir etmiş onu bu mekân.
27. Etrafında taşlar, fakat
28. Tepesinde yıldız ve asuman.
29.Kızıllığını yayıp ufka
30.Çıkıncaya dek altın kâküllü güneş,
31. Zavallı avcı atılır göğe,
32. Sonra çaresiz döker acı acı yaş.
33. Bahadırını arayıp o an
34. Gelir yâri, köylüleri.
35.Söyleyin, baba, ne yapmak lazım?!
36.İhtiyar adam yüzünü çevirir büsbütün.
37.Çocuklarım, av şefkati onu
38.İndirmişti dereye kolayca,
39. Kadın şefkati, yâr şefkati, bakın,
40. Alıp çıkar çukurdan şüphesiz.
41. Burada,

42. Cesur bir delikanlı korkusuz
43. Memnuniyetle yapar ihtiyarın şiarını:
44. Derenin üstünde kaybolmuş adalet
45. Kucaklar avcının yârini.
46. Feryat eder avcının hanımı,
47. Delikanlı ise kucaklar daha da.
48. Avcı, heyhat, kudurur yanıp,
49. Kafesteki aslandan daha vahşi.
50. Sanki batar derenin şefkati,
51. Sanki taşlar gider aradan:
52. Hayt, der (aaa, sen, yâr şefkati!)
53. Avcı çıkıp gider dereden.
54. Kasem deresi uğuldar sarhoş,
55.Uğuldar dibi olmayan mekân.
56.Göğe bakıp o kör ve sersem…
57. Efsaneler anlatır hâlâ.
58. Ant deresi, gezdim şefkatinde
59. Kirpikteki yaş gibi emanet.
60. Kasem deresi, senin bağrına
61. Ant içen düşermiş sadece.
62. Hayretle sana bakarım,
63.Hâlâ ant içmediğim doğru.
64. Ne avcıyım ve ne bahadırım,
65. Gezip dolaşan âşığım, sadece.
66. Zamanı gelse, sevgim, senin için
67.Yârin önünde içerim ant.
68. Fezaları dolaşıp bugün
69. Denizlere bırakırım adım.
70. Emretse eğer o dilberim
71. Atılırım dereye o an.
72. Bir rica sadece, dostlarım,
73.Dönüşünde çıkarım kendim! (1964)

"QANI, NAY BER MENGA, DO'STGINAM…" (64)

1. *Qani, nay ber menga, do'stginam,*

2. *Bergil, mayli, rubob bo‘lsa ham.*

3. *Ber, bir nafas bo‘shatib olay*

4. *To‘lib ketgan yuragimni man.*

5. *Qalamimning kuchi yetmadi*

6. *Hislarimni butkul to‘kmoqqa.*

7. *Do‘stim, tingla, yaproqchalarning*

8. *Shivirlashi eshitilmoqda...*

9. *Go‘zal, sokin oqshom cho‘kmoqda,*

10. *Tebranadi yelda chiroqlar,*

11. *Daraxtzor ham sokin sollanar...*

12. *Qanday ma’sum, erka bu choqlar...*

13. *Qanday shirin damlar... mening ham*

14. *Yuragimda bir his toshmoqda,*

15. *Yuragim ham daraxtzor kabi*

16. *Nimanidir olqishlamoqda.*

17. *Ko‘zlarimga bu yorug‘ olam*

18. *Ko‘rinmoqda biram suyumli.*

19. *Qani, nay ber menga, do‘stginam,*

20. *To‘kay to‘lib ketgan ko‘nglimni.*

“HAYDİ, NEY VER BANA, CAN DOSTUM…” (64)

1. Haydi, ney ver bana, can dostum,

2. Ver, tamam, rübap olsa da.

3. Ver, bir nefes boşaltayım

4. Dolan yüreğimi ben.

5. Kalemimin gücü yetmedi

6. Hislerimi tamamen dökmeye.

7. Dostum, dinle, küçük yapraklarının

8. Hışırdayışı işitilmekte…

9. Güzel, sakin akşam çökmekte,

10. Sallanır rüzgârda kandiller.

11. Koru da sakin sallanır…

12. Ne kadar masum, şımarık bu anlar…

13. Ne kadar tatlı anlar… Benim de

14. Yüreğimde bir his taşmakta,

15.Yüreğim de koru gibi
16. Neyidir alkışlamakta.
17.Gözlerime bu aydınlık âlem
18.Görünmekte öylesine sevimli.
19. Hani, ney ver bana, can dostum,
20.Dökeyim dolup taşan gönlümü. (1964)

“UCHQUR XAYOL SOHIBI YIGIT…” (65)

Umid bilan suqilgan tayoq

Bir kun berar mevayu yaproq.

Gyote

1. *Uchqur xayol sohibi yigit*
2. *Yashar edi xilvat qishloqda.*
3. *Uni bir kun yetaklab umid:*
4. *“Xayr, - dedi ona dargohga. -*
5. *Olim bo‘lib qaytay, qishlog‘im...*
6. *Kechir, qolib ketsam agarda.”*
7. *Uni yosh va bo‘ronli qalbi*
8. *Olib ketdi olis shaharga.*

9. *Odamlar-chi, ba’zi odamlar*
10.Qishloq aro tarqatdilar gap:
11. *“Hoy, falonchi, eshitdingmi, a,*
12.Huv falonchi daydi bo‘lmish zab,
13.Tagi past-da, qurt bor boshida,
14.Tortdi falon qarindoshiga...”

15.Yillar o‘tdi... Barg yozdi axir
16.Umid bilan suqilgan tayoq.
17.Sharaf senga, sabot va akl,
18.Sharaf senga, mehnat va idrok!

19.*Olim bo‘lib qaytdi u, balli,*

20.*Cho‘llariga suv chiqargali...*

21.*Odamlar-chi, endi, odamlar*

22.*Bir-biridan so‘rar suyunchi:*

23.*“Hoy, birodar, eshitdingmi, a,*

24.*Olim bo‘lmish o‘sha falonchi.*

25.*Yoshlikda ham oqil edi, ha,*

26.*Tortgan edi bizga, ha, bizga...”*

“DERİN HAYAL SAHİBİ DELİKANLI…” (65)

Ümitle bastırılan değnek

Bir gün verir meyve ve yaprak

Goethe

1. Derin hayal sahibi delikanlı

2. Yaşardı yalnız köyde.

3. Onu bir gün alıp götüren ümit:

4. “Hoşça kal” dedi ana dergâha.

5. Âlim olarak döneyim, köyüm…

6. Affet, kalırsam eğer.”

7. Onu genç ve fırtınalı kalbi

8. Alıp gitti uzak şehre.

9. İnsanlar, bazı insanlar

10.Köyün içinde taşıdılar laf:

11.“Hay, falanca, duydun mu, a,

12. Hu falanca derbeder olmuş tam,

13. Niyeti bozuk, kurt var başında,

14.Çekti falan karındaşına…”

15.Yıllar geçti… Yaprak açtı artık

16.Ümitle sokulan değnek.
17.Şeref sana, sebat ve akıl,
18.Şeref sana, emek ve idrak!
19.Âlim olup döndü o, aferin.
20.Çöllerine su çıkarmaya…

21.İnsanlar, şimdi, insanlar
22. Birbirinden sorar müjde:
23."Hey, birader, duydun mu, a,
24.Âlim olmuş o falanca.
25. Gençlikte de akıllıydı, evet,
26.Çekmişti bize, evet, bize…" (1964)

GEOLOG HABIB ABDULLAYEV QABRI YONIDA (66)

1. *Ayt, nelar izlading yerning ostidan,*
2. *Kukunni ko'zingga aylab to'tiyo.*
3. *Temir panjaralar qabring pastida,*
4. *Sening izlaganing o'shamidi yo?!*
5. *Nima axtarganding yerning ostidan,*
6. *Toshlar mehvariga yozganmiding bayt.*
7. *Qabring tepasida marmar obida,*
8. *Sening axtarganing o'shamidi, ayt!*
9. *Nechun sen jimjitsan, ey ulug' inson,*
10.*Javob yo sen uchun bir jabrmidi.*
11.*Nima axtarganding, ey nuri jahon,*
12.*Yoki axtarganing shu qabrmidi?!*

JEOLOG HABİB ABDULLAYEV'İN KABRİNİN YANINDA (66)

1. Anlat, neler aradın yerin altından,
2. Tozu gözüne sürüp ilaç diye.
3. Demir pencereler kabrin altında,
4. Senin aradığın o muydu ya?!
5. Ne aradın yerin altından,

6. Taşların mihverine yazmış mıydın beyit.
7. Kabrin tepesinde mermer abide,
8. Senin aradığın o muydu, söyle!
9. Niçin sen suskunsun, ey ulu insan,
10. Cevap yahut senin için bir zulüm müydü?
11. Ne aramıştın, ey nuri cihan,
12. Yahut aradığın bu kabir miydi?! (1964)

ISTAKLARIM (67)

1. *Yangi yil ham kelayotir,*
2. *Do‘stlarim, bugun*
3. *Yangi-yangi baxt tilaymiz bir-birimizga.*
4. *Yangi zafar, yangi omad, yangi bayt uchun*
5. *Yangi-yangi ahd tilaymiz bir-birimizga.*
6. *Hamma narsa yangi-yangi bo‘lsin, mayliga,*
7. *Qutlug‘ bo‘lsin go‘daklarning yangi qadami.*
8. *O‘sha yangi qadam bilan o‘ssin, mayliga,*
9. *Shu umidbaxsh asrimizning yangi odami.*
10.*Hamma narsa yangi bo‘lsin, do‘stlarim, faqat*
11.*Chehramizdan arimasin hayotning rangi,*
12.*Hamma narsa yangi bo‘lsin, do‘stlarim, faqat*
13.*G‘am bo‘lmasin, eski g‘amlar bo‘lmasin yangi!*

İSTEKLERİM (67)

1. Yeni yıl da geliyor,
2. Dostlarım, bugün
3. Yeni yeni baht dileriz birbirimize.
4. Yeni zafer, yeni şans, yeni beyit için
5. Yeni yeni yeminler ederiz birbirimize.
6. Her şey yeni yeni olsun, peki,
7. Kutlu olsun bebeklerin yeni adımı.
8. O yeni adımla büyüsün, neyse,
9. Bu ümitvar asrımızın yeni insanı.
10. Her şey yeni olsun, dostlarım, sadece

11.Çehremizden gitmesin hayatın rengi.

12. Her şey yeni olsun, dostlarım, sadece

13. Gam olmasın, eski gamlar olmasın yeni! (1964)

“UYG‘ON, QUYOSH O‘YNAR…” (68)

1. *Uyg‘on, quyosh o‘ynar yuzingda,*

2. *Bugungi tong shunchalar go‘zal.*

3. *Lovullaydi shafaqlar yal-yal,*

4. *Nechun xayol qotmish ko‘zingda.*

5. *Kiprigingda yosh olmos-olmos,*

6. *Nechun cho‘mding uyquga qayta?*

7. *Oltin yoshligimni ko‘rdim men,*

8. *Qayda?*

9. *Tushimda...*

“UYAN, GÜNEŞ OYNAR…” (68)

1. Uyan, güneş oynar yüzünde,

2. Bugünkü tan bu kadar güzel.

3. Kızarır şafaklar al al,

4. Niçin hayallere daldırmış gözlerini.

5. Kirpiğinde yaş elmas elmas,

6. Niçin daldın uykuya yine?

7. Altın gençliğimi gördüm ben,

8. Nerede?

9. Düşümde… (1965)

ONA TILIMGA (69)

1. *Ming yillarkim, bulbul kalomi*

2. *O‘zgarmaydi, yaxlit hamisha.*

3. *Ammo sho‘rlik to‘tining holi*

4. *O‘zgalarga taqlid hamisha.*

5. *Ona tilim, sen borsan, shaksiz*

6. *Bulbul kuyin she'rga solaman.*

7. *Sen yo'qolgan kuning, shubhasiz,*

8. *Men ham to'ti bo'lib qolaman...*

ANA DİLİME (69)

1. Binlerce yıl, bülbül kelamı

2. Değişmez, büsbütün daima.

3. Ama zavallı tutinin hâli

4. Başkalarına taklit daima.

5. Ana dilim, sen varsan, şüphesiz

6. Bülbülün nağmesini şiire koyarım.

7. Senin kaybolan nağmen, şüphesiz,

8. Ben de tuti olurum… (1965)

DORBOZ (70)

1. *Bulutlarga yondosh,*

2. *Osmon ostida*

3. *Kiprikdagi yoshday turibdi dorboz.*

4. *Qilichning damiday arqon ustida*

5. *Ko'zlarini yumib yuribdi dorboz.*

6. *Odamlar, odamlar, uni olqishlang,*

7. *Qarang, u naqadar epchil va o'ktam.*

8. *Biz-chi, eh... ba'zi bir ko'zi ochiqlar*

9. *Eplab yurolmaymiz katta yo'lda ham.*

CAMBAZ (70)

1. Bulutlara yandaş,

2. Asumanın altında

3. Kirpikteki yaş gibi durmuş cambaz.

4. Kılıcın sivri ucu gibi ipin üstünde

5. Gözlerini yumup yürümüştü cambaz.
6. İnsanlar, insanlar, onu alkışlayın,
7. Bakın, o ne kadar çevik ve sağlam.
8. Ya biz, eh… Bazı gözü açıklar
9. Becerip yürüyemeyiz büyük yolda da. (1965)

TILLA BALIQCHA (71)

1. *Tuxumdan chiqdi-yu, keltirib uni*
2. *Shu loyqa hovuzga tomon otdilar.*
3. *Tashlandiq ushoq yeb o‘tadi kuni,*
4. *Xoru xas, xazonlar ustin yopdilar.*
5. *Dunyoda ko‘rgani shu tor hovuzcha*
6. *Va gavjum tollarning achchiq xazoni.*
7. *Menga alam qilar, tilla baliqcha*
8. *Bir ko‘lmak hovuz deb bilar dunyoni!*

ALTIN BALIKÇIK (71)

1. Tohumdan çıktı, getirip onu
2. Bu bulanık havuza doğru bıraktılar.
3. Atılan kırıntıları yiyerek geçer günü,
4. Zavallı ve kuru hazanların üstünü örttüler.
5. Dünyada gördüğü bu dar, küçük havuz
6. Ve gür söğütlerin acı hazanı.
7. Bana elem verir, altın balıkçık
8. Bir gölet havuz diye bilir dünyayı! (1965)

HAYVONOT BOG‘IDA (72)

1. *Ba’zan ko‘p ajibdir dunyoning ishi,*
2. *Kim ham bu savdoni o‘ylab ko‘ribdi:*
3. *Hayvonot bog‘ida bir telba kishi*
4. *Maymunni masxara qilib turibdi.*

HAYVANAT BAHÇESİNDE (72)

1. Bazen çok acayiptir dünyanın işi,
2. Birisi de bu sevdayı düşünmüş:
3. Hayvanat bahçesinde bir deli
4. Maymunu maskara etmiş. (1965)

BULBUL (73)

Rahmatjonga

1. *Sen - bulbulsan, bulbullarni mast qila qol, bulbulim,*
2. *Mening uchun sayrashingni bas qila qol, bulbulim.*

3. *Shomu sahar tinim bilmay sharh aylading dilingni,*
4. *Qani, ayt-chi, bulbulginam, kim tushundi tilingni?*

5. *Birov seni nola dedi, birov dedi oh-fig'on,*
6. *Bulbul tilin bulbul bilar, men bilmasman, bulbuljon.*

7. *Anglarmi deb behudaga roz so'ylama, qushim, hay,*
8. *Sen - bulbulsan, bulbulginam, seni bulbul tushungay.*

BÜLBÜL (73)

Rahmetcan'a

1. Sen; bülbülsün, bülbülleri mest et, bülbülüm,
2. Benim için ötüşün yeter, bülbülüm.

3. Akşam ve sabah şerh ettin gönlünü, durmak bilmeden
4. Haydi, söyle, bülbülcüğüm, kim anladı dilinden?

5. Biri sana nale dedi, birisi dedi ah, figan,

6. Bülbülün dilini bülbül anlar, ben anlamam, bülbülcan.

7. Anlar mı diye beyhudeye sır söyleme, kuşum, hey,

8. Sen bülbülsün, bülbülcüğüm, seni bülbül anlasın. (1965)

TEMIR ODAM (74)

1. *Bir haykal turibdi,*

2. *U - Robot emish,*

3. *Temirdan yasalgan, odam timsoli.*

4. *Ilmda eng so‘nggi kashfiyot emish,*

5. *Aqlli zot emish, qusurdan xoli.*

6. *Shaxmat ham o‘ynarmish,*

7. *Yer ham qazarmish.*

8. *Rosmana yuvarmish yuzu qo‘lini.*

9. *Hadisu hisobdan adashmas emish,*

10.*Hattoki sanarmish Somon yo‘lini.*

11.*Yonida xaloyiq hayratda turar:*

12.*Qarangiz, naqadar aqlli, mumtoz!*

13.*Xullaski, olamda kashfiyot derlar,*

14.*Kashfiyot emas bu, kechiring, ustoz.*

15.*Tilsimni bilmayman, ammo anchayin*

16.*Odatim tark etib, ko‘krak keraman!*

17.*Men sizg‘a temirning xuddi shundayin*

18.*Ajib bir nusxasin topib beraman.*

19.*U ham ishlay bilar, uning qoshida*

20.*Sizning temiringiz ojiz bir buyum.*

21.*U ham sanay bilar, uning boshida*

22.*Aljabr usuli uyum va uyum.*

23.*Balki u donodir beqiyos, yakka,*

24.*Balki yo‘q uning-chun biror muammo;*

25.*Balki u hech qanday temir-tersakka*

26.*A’lo vujudini egmaydi, ammo,*

27.*Ustoz, qalbi yo‘qdir uning ham, hayhot,*

28.*Na nafrat, na ishqni tanlaydi u ham.*

29.*Uning ham ko‘zida chaqnamas hayot,*

30.*Munis boqishlarni anglamas u ham.*

31.*U ham to‘lg‘anolmas,*

32. *ingramas,*

33. *kulmas,*

34.*Yig‘lagan go‘dakni yupatolmas ul.*

35.*U ham yulduzlarning hidini bilmas,*

36.*Bag‘rini tirnamas so‘layotgan gul.*

37.*Kimsaning mehridan, balki, o, balki*

38.*Sizning temiringiz bo‘lar minnatdor.*

39.*Aziz do‘st, mehrni bilmas bu hali,*

40.*Do‘st kutib yo‘llarga chiqmas intizor.*

41.*Dunyo-yu odamlar taqdiri zarra*

42.*Tashvishga solmagay, yo‘q zo‘ru zori.*

43.*Tashvishga soladi na qo‘shiq va na*

44.*Mening yuragimda nimalar bori.*

45.*Bu-chi, yig‘lay olmas, aylangan toshga!*

46.*Kimdir u?*

47. *Kimdir u? Balki u menman?!*

48.*Balki u sizdirsiz?*

49. *Balki u boshqa...*

50.*Hayotning poyonsiz ummoni ichra*

51.*Bor shunday g‘ariblar - temirlar hissiz.*

52.*Va lekin o‘zlarin temirmas sira,*

53.*Muhtaram inson, deb atarlar, esiz...*

54.*Shundaylar bo‘lmasa, azaldan tuproq*

55.*Yashnardi tag‘in ham go‘zalu mumtoz.*

56.*Temir odam yasab yurguncha, ko‘proq*

57. *“Jonli temir”larni o‘ylangiz, ustoz.*

DEMİR İNSAN (74)

1. Bir heykel durmuş,

2. O, robotmuş,

3. Demirden yapılmış, insan timsali.
4. İlimde en sonuncu keşfiyetmiş,
5. Akıllı zat imiş, kusurdan hâli.
6. Satranç da oynarmış,
7. Toprak da kazarmış.
8. Özenle yıkarmış yüzünü, elini.
9. Hadis ve hesaptan şaşmaz imiş,
10. Hatta sayarmış Samanyolunu
11. Yanında halk hayrete düşer:
12. Bakınız, ne kadar akıllı, seçkin!
13. Velhasıl, âlemde keşfiyet derler,
14. Keşfiyet değil bu, üstat, affedin.
15. Tılsımı bilmem, ama önemsiz
16. Huyumu bırakıp, göğüs gererim!
17. Ben size demirin tıpkı bunun gibi
18. Farklı bir nüshasını bulup veririm,
19. O da çalışabilir, onun yanında
20. Sizin demiriniz âciz bir eşya.
21. O da sayabilir, onun başında
22. Cebir usulü öbek öbek.
23. Belki bilgedir eşsiz, tek,
24. Belki yok onun için bir muamma;
25. Belki o hiçbir demire, hurdaya
26. Âlâ vücudunu eğmez, ama,
27. Usta, kalbi yoktur onun da, heyhat,
28. Ne nefret, ne aşkı seçer o da.
29. Onun da gözünde ışıldamaz hayat,
30. Munis bakışlarını anlamaz o da.
31. O da sallayamaz,
32. inlemez,
33. gülmez,
34. Ağlayan bebeği avutamaz o.
35. O da yıldızların kokusunu bilmez,
36. Bağrını delmez solan gül.
37. Kimsenin şefkatinden, belki, aaa, belki
38. Sizin demiriniz olur minnettar.

39. Aziz dost, şefkat bilmez bu hâlâ,
40. Dost bekleyip yollara çıkmaz muntazır.
41.Dünya ve insanlar takdir-i zerre
42. Kaygıya düşmeyecek, hayır kudret ve sitemi.
43. Kaygıya düşer ne koşuk ve ne
44. Benim yüreğimde neler var.
45. Bu, ağlayamaz, dolanan taşa!
46. Kimdir o?
47. Kimdir o? Belki o misafir?
48. Belki o sizsinizdir?
49. Belki o başka…
50. Hayatın sonsuz ummanı içinde
51. Var böyle garipler, demirler hissiz.
52. Velakin kendilerine demir değil asla,
53. Saygıdeğer insan, derler maalesef…
54.Böyleleri olmasa, ezelden toprak
55.Güzelleşirdi daha da zarif ve mümtaz
56. Demirden insan yapıncaya dek, daha çok
57."Canlı demir"leri düşününüz, üstat. (1965)

UYQU (75)

1. *Odamlar uxlaydi o‘n yil, o‘n besh yil,*
2. *Sezmasdan, sevmasdan, hissiz va mudroq.*
3. *Ba’zida, ochiq gap, o‘rtansa ko‘ngil*
4. *Uxlagim keladi mening ham uzoq.*
5. *Mayliga, do‘stlarim unutsin sekin,*
6. *Umid ham uzsinlar alvido ayta.*
7. *Mayliga, olis yil uxlayin, lekin*
8. *Eng qutlug‘ saharda ko‘z ochsam qayta.*
9. *Balki yer yuzida qolmas edi g‘am,*
10.Bundan ham yorug‘roq bo‘lardi dunyo.
11.Faqat tabassumda yashnardi olam,
12.Serjild kitoblarda yozganday go‘yo.
13.Yomon tush ko‘rmasdik saharlab qalqib,
14.Bosh egib qaytmasdik uyimizga kech.

15.*Dunyoda yovuzlar qolmasdi balki,*

16.*Razillar, pastkashlar bo‘lmas edi hech.*

17.*Balki tinchlanardi notinch asrimiz -*

18.*Ko‘ksidan qon silqqan yarador ohu.*

19.*Uning dardlarini etyapsizmi his,*

20.*Qanday asr o‘zi, birodarlar, bu?!*

21.*Urushu falokat, nizoyu ta’qib*

22.*Tinmaydi, tinmaydi, tinmaydi sira.*

23.*Qani, kim shodlanar asrga boqib?*

24.*Qani, kim ataydi uni bokira?!*

25.*Asrim, o‘sha olis oy qorasini*

26.*Sanab bo‘lguningcha bir zum tolmading.*

27.*Biroq odamzodning dil yarasini*

28.*Sanab yetolmading, yo‘q, yetolmading.*

29.*Asrim, samolarda yoqolding chiroq,*

30.*Yulduz qilib otding fazoga o‘zni.*

31.*Qo‘zg‘ata olmading o‘rnidan biroq*

32.*Askar yelkasida turgan yulduzni.*

33.*Asrim, izga solding ummonlar kuchin,*

34.*Yaratmak istading so‘nmas bir chiroy,*

35.*Biroq gulzoringni toptamoq uchun*

36.*Qaydadir razilga berib qo‘yding joy.*

37.*Mitti farzand bo‘lib, bir dilband bo‘lib,*

38.*Asrim, seni baxtda ko‘rmoq istayman.*

39.*Va lekin ba’zida uyquga cho‘mib*

40.*Sendan ko‘zlarimni yummoq istayman.*

41.*Ammo bormi imkon bunday uyquga,*

42.*Kurashga yaralgan jafokash inson.*

43.*Har qanday kurash ham hayotdir unga,*

44.*Har qanday uyqu ham - o‘lim har qachon!*

UYKU (75)

1. İnsanlar uyur on yıl, on beş yıl[93],

[93] Letarji uykusu göz önünde bulundurulur.

2. Sezmeden, sevmeden, hissiz ve uykulu.
3. Bazen, açıkçası, yansa gönül
4. Uyuyasım gelir benim de uzun.
5. Peki, dostlarım unutsun yavaşça,
6. Ümit de kessinler elveda diye.
7. Peki, uzun yıllar uyuyayım, ama
8. En kutlu seherde gözlerimi açsam yine.
9. Belki yeryüzünde kalmazdı gam,
10. Bundan da daha aydınlık olurdu dünya.
11. Yalnız tebessümde gizlenirdi âlem,
12. Ciltli kitaplarda yazdığı gibi sanki.
13. Kötü düş görmezdik sabahlayarak kalkıp,
14. Baş eğip dönmezdik evimize geç.
15. Dünyada insafsızlar kalmazdı belki,
16. Reziller, alçaklar olmazdı hiç.
17. Belki sakinleşirdi huzursuz asrımız
18. Göğsünden kan fışkıran yaralı ahu.
19. Onun dertlerini eder misiniz his,
20. Nasıl bir asır kendisi, biraderler, bu?!
21. Savaş ve felaket, çatışma ve takip
22. Durmaz, durmaz, durmaz asla.
23. Hani, kim sevinir asra bakıp?
24. Hani, kim adlandırır onu tertemiz?!
25. Asrım, o yüce ayın karaltısını
26. Saymaktan bir an yorulmadın.
27. Fakat insanoğlunun gönül yarasını
28. Sayamadın, yok, ulaşamadın.
29. Asrım, semalarda yaktın çırağ,
30. Yıldız gibi attın semaya kendini.
31. Oynatamadın yerinden fakat
32. Askerin omzunda duran yıldızı.
33. Asrım, işaret ettin ummanların gücünü,
34. Yaratmak istedin bitmez bir güzellik,
35. Fakat gülzârını çiğnemek için
36. Nerededir rezile verdiğin yer?
37. Minicik çocuk olup, bir âşık olup,

38. Asrım, seni bahtta görmek isterim.
39. Velakin bazen uykuya dalıp
40. Sana gözlerimi yummak isterim.
41. Ama var mı imkân böyle uykuya,
42. Savaşa hazırlanan cefakâr insan.
43. Her mücadele de hayattır ona,
44. Her uyku da ölüm her zaman! (1965)

OTELLO (76)

Abror Hidoyatov xotirasiga bag‘ishlayman

1. *Chig‘atoy ko‘chasin so‘l tomonida -*
2. *O‘tsangiz muqaddas xilxona taraf,*
3. *Sanoqsiz qabrlar g‘aladonida*
4. *Yotibdi Otello - u buyuk arab.*
5. *Men ba’zan shu yo‘ldan uyga qaytaman*
6. *Sayr etib hovliqma soyning qoshini.*
7. *Otello sha’niga salom aytaman,*
8. *Ziyorat qilaman mozorboshini.*
9. *Arabiy kulonkir - G‘arbning xo‘jasi,*
10.*Mayliga, gapimga qilma e’tiroz.*
11.*Men-ku bir o‘zbekning sarkash jo‘jasi,*
12.*Uyqashga o‘xshaydi ismimiz bir oz.*
13.*Bir zamon Ollodan sening volidang*
14.*Tilanib olibdi, men-chi, sadaqa.*
15.*Savdomiz bir ekan, nomlar hamohang*
16.*Va lekin o‘xshamas qalblar, shunaqa...*
17.*Men orzu qilardim senday sevishni -*
18.*Qo‘limda xanjaru qonimda olov.*
19.*Uddalay bilmadim lekin bu ishni,*
20.*“Telbaday sevardi” deyolmas birov.*
21.*Istardim sendagi rashkni ham, illo,*
22.*Bulbulga dard qayda gul yo‘qsa agar.*
23.*Ham buning ustiga, bilsang, Otello,*

24.*Qizlarning qo‘lida u qonli xanjar.*

25.*Sendagi nafratni xohlardim asti,*

26.*Razillar ko‘ziga boqolsam xunxor.*

27.*Chunki haligacha, Otello, rosti,*

28.*Yagoni o‘qitib qo‘yguvchilar bor.*

29.*Ortiqcha nafrat ham kerakmas, ammo*

30.*Laqab ham taqmasman kimsa otiga,*

31.*Chunki bu asrda, aziz Otello,*

32.*Hurmat ko‘p buyukdir inson zotiga...*

33.*Ba’zan ko‘z o‘ngimga tizilib kelar*

34.*Sevgiga gadolar ayqash va uyqash.*

35.*Gado deb atama sen bizni derlar,*

36.*Deydilar, dunyoda Otello yakkash.*

37.*Shunda sen kelasan ko‘zingni yeshlab:*

38.*Qayda ishq, qayda rashk, qaydadir ular?!*

39.*Shu sho‘rlik zaminni ketmangiz tashlab,*

40.*Muqaddas tuyg‘ular, oliy tuyg‘ular.*

41.*Bizning ruhimizga hokimdir ba’zan*

42.*Qanoat atalmish ojiz bir sezgi.*

43.*Otello, Otello, sening ishqingdan*

44.*Hayratga tushishning o‘zi bir sevgi...*

45.*Yo‘q, taqlid qilmasman senga rosmana,*

46.*Har kimning hayotda bor o‘zga o‘rni.*

47.*Rolingni o‘ynasa, rashk qilib, mana,*

48.*Qabrga tiqibsan buyuk aktyorni.*

OTELLO (76)

Ebrar Hidayetov’un anısına ithaf ederim.

1. Çağatay[94] Sokağı’nın sol tarafında

2. Geçerseniz mukaddes mezara doğru,

3. Sayısız kabirler hanesinde

4. Yatmış Otello, o büyük Arap.

[94] Şimdiki Farabi Sokağı şiir yazıldığı zamanda böyle adlandırılmıştır.

5. Ben bazen bu yoldan eve dönerim

6. Seyredip aceleci derenin dinginliğini.

7. Otello'nun şanına selam söylerim,

8. Ziyaret ederim mezarının başında.

9. Arabî kulonkir[95], Batı'nın hocası,

10. Olsun, sözüme etme itiraz.

11. Ben bir Özbek'in inatçı evladı,

12. Benzer gibidir ismimiz biraz.

13. Bir zamanlar Allah'tan senin validen

14. Dilemiş, benim için, sadaka.

15. Sevdamız birmiş, isimler uyumlu

16. Velakin benzemez kalpler, böyle…

17. Ben arzu ederdim senin gibi sevmeyi

18. Elimde hançer ve kanımda alev.

19. Başaramadım lakin bu işi,

20."Deli gibi severdi" diyemez biri.

21.İsterdim sendeki kıskançlığı da, illa ki,

22.Bülbüle dert nerede gül yoksa eğer.

23. Hem bunun üstüne, bilsen, Otello,

24.Kızların elinde o kanlı hançer.

25. Sendeki nefreti isterdim tamamen,

26. Rezillerin gözlerine bakabilsem hunharca.

27.Çünkü şimdiye kadar, Otello, doğrusu,

28. Yegâne okutanlar var.

29. Artık nefret de gerekmez, ama

30. Lakap da takmam kimsenin adına,

31.Çünkü bu asırda, Aziz Otello,

32.Hürmet çok büyüktür insanın zatına…

33. Bazen gözümün önüne dizilip gelir

34. Sevgiye dilenciler uyumsuz ve ahenksiz.

35. Dilenci diye adlandırma sen bizi derler,

36. Derler, dünyada Otello hep.

37. Burada sen gelirsin gözlerinde yaşlarla:

38. Nerede aşk, nerede kıskançlık, nerededir onlar?!

---

[95] Gulhanî'nin yazdığı "Darbü'l-Mesel" adlı masallardan oluşan kitabında anlatılan Melikşah'ın pehlivanı Kulonkir'dir.

39. Bu biçare yeri gitmeyiniz bırakıp,
40. Mukaddes duygular, uzak duygular.
41. Bizim ruhumuza hâkimdir bazen
42. Kanaat denilmış âciz bir sezgi.
43. Otello, Otello, senin aşkından
44. Hayrete düşmenin kendisi bir sevgi…
45. Yok, taklit etmem seni sıradan,
46. Herkesin hayatta var başka yeri.
47. Rolünü oynasa, kıskançlık yapıp, işte,
48. Kabre koymuşsun büyük aktörü. (1965)

AYOL (77)

1. *Yigitlar maktubin bitganda qondan,*
2. *Kelinlar firoqdan chekkanda yohu,*
3. *Uning ham panohi qaytmadi jangdan,*
4. *O‘n to‘qqiz yoshida beva qoldi u.*

5. *Sevgidan yetimu umrdan yarim,*
6. *Qurigan ko‘ksida yolg‘iz belanchak.*
7. *Abadiy firoqni, hayhot, do‘stlarim,*
8. *Abadiy visol deb bildi kelinchak.*

9. *Qaqragan lablarda olovli nafas,*
10.*Kechalar kechmishin ayladi ko‘mir.*
11.*Parishon sochlari yor ko‘ksi emas,*
12.*Muzdayin bolishda qoldi bir umr.*

13.*Yillar ham o‘tdilar, hamon u yolg‘iz,*
14.*Mung‘ayib termular botguvchi kunga.*
15.*Ey nomard tabiat, bormi senda his,*
16.*Qaytadan baxt bersang bo‘lmasmi unga?!*

17.*Nahot ishq qismati buncha berahm,*
18.*Bunchalar buyuksan vafo shevasi.*
19.*Sengadir hurmatim, senga sharafim,*
20.*Qahramon jangchining sodiq bevasi.*

21.*Siz-chi ey, sadoqat satridan nolib,*
22.*Nadomat komida qolganlar, ayting.*
23.*O‘zini ming bitta bozordan olib,*
24.*Ming bitta bozorga solganlar, ayting.*

25.*Shu cho‘lpon ko‘zlarning buyuk hurmati,*
26.*Shu aqiq lablarning rost so‘zi deya,*
27.*So‘ylang-chi, vafoning nadir qimmati,*
28.*Siz ham kutganmisiz biror soniya?!*

29.*Ba’zida tirnoqlar bezagi uchun*
30.*Sahardan shomgacha qilursiz toqat.*
31.*Biroq yoringizni kutgali nechun*
32.*Topilmas tirnoqcha sabru qanoat.*

33.*Nazokat paytimas, yaqinroq keling,*
34.*Buyuk zot qoshida aylangiz salom.*
35.*Shu sodiq bevaga sajdalar qiling,*
36.*Shu sodiq bevaga aylang ehtirom.*

37.*Hatto zeb-ziynatni yulqib ziyoda,*
38.*Haykal ham qo‘yingiz bamisli xayol.*
39.*Shundaylar bo‘lmasa agar dunyoda,*
40.*Bu qadar muhtaram bo‘lmasdi ayol.*

KADIN (77)

1. Yiğitler mektubunu yazdığında kandan,

2. Gelinler ayrılıktan çektiğinde yahu,
3. Onun da eşi dönmedi savaştan,
4. On dokuz yaşında dul kaldı o.

5. Sevgiden yetim, ömürden yarım,
6. Kuruyan göğsünde sadece salıncak.
7. Ebedî ayrılığı, heyhat, dostlarım,
8. Ebedî visal diye bildi gelincik.

9. Kuruyan dudaklarda alevli nefes,
10. Geceler geçmişini etti kömür.
11. Perişan saçları yâr göğsü değil,
12. Buz gibi yastıkta kaldı bir ömür

13.Yıllar da geçtiler, hâlâ o yalnız,
14.Hüzünlenip bakar batan güneşe
15. Ey namert tabiat, var mı sende his,
16. Yeniden baht versen olmaz mı ona?!

17.Aşk kısmeti bu kadar insafsız mı,
18. Bu kadar büyüksün vefa duygusu.
19. Sanadır hürmetim, sanadır şerefim,
20. Kahraman savaşçının sadık dulu.

21. Ya siz ey, sadakat çizgisinden yakınıp,
22. Nedamet gayesinde kalanlar, söyleyin.
23. Kendisini binbir pazardan alıp,
24. Binbir pazara salanlar, söyleyin.

25. Bu çulpan gözlerinin büyük hürmeti,
26. Bu akik dudaklarının doğru sözü diye,
27.Söyleyin, vefanın nadir kıymeti,

28. Siz de beklemiş misiniz bir saniye?!

29. Bazen tırnakların süsü için
30. Sabahtan akşama dek kılarsınız takat.
31. Fakat yârinizi bekleyeli niçin
32. Bulunmaz küçük tırnağa sabır ve kanaat.

33. Nezaket zamanı değil, daha yakına gelin,
34.Büyük zatın önünde verdiniz selam.
35. Bu sadık dula secdeler edin,
36. Bu sadık dula ettiniz hürmet.

37. Hatta süs ve ziyneti koparıp ziyade,
38. Heykel de dikiniz hayal gibi.
39.Böyleleri olmasa eğer dünyada,
40. Bu kadar muhterem olmazdı kadın. (1965)

ETGALI (78)

1. *To‘lg‘anib gul ochilar bog‘larni gulzor etgali,*
2. *Bog‘ sari dildor chiqar oshiqlarin zor etgali.*

3. *Bog‘ sari chiqmas edi, chiqdi bu kun u qasd ila:*
4. *Yo‘lida mushtoqlarin yo yo‘g‘u yo bor etgali.*

5. *Nogahoniy sahni bog‘dan hayqirib chiqdi Hofiz,*
6. *Ul dedi, yoydi pari kokillarin dor etgali.*

7. *Yolborib gullar dedi: - Kirma bu boqqa, ey yigit,*
8. *Bunga kirganlar kirurlar sochini qor etgali.*

9. *Ne ajab, maydon topilsa men uchun ham deb edim,*

10.*O‘zga bir dildor bilan aruzda bozor etgali.*

YAPMAK İÇİN (78)

1. Salınıp gül açılır, bahçeleri gülzâr yapmaya,

2. Bahçeye doğru sevgili çıkar âşıklarını figan etmeye.

3. Bahçeye doğru çıkmazdı, çıktı bugün o istekle:

4. Yolunda müştakları ya yok ya da var etmeye.

5. Aniden sahn-ı bahçeden haykırıp çıktı Hafız,

6. O dedi, yaydı peri kâküllerini halat yapmaya.

7. Yalvarıp güller dedi: - Girme bu bahçeye, ey yiğit,

8. Buraya girenler girerler saçını kar etmeye.

9. Ne ilginç, meydan bulunsa benim için de demiştim,

10. Başka bir dildârla aruzda pazar etmeye. (1965)

TUN (79)

1. *Tashqarida yomg‘ir shivirlaydi jim,*

2. *Ko‘ringay na chiroq va na bir ziyo.*

3. *Go‘yo derazamni chertar allakim,*

4. *Bosib kela boshlar qandaydir ro‘yo.*

5. *O‘zimni to‘shakka otaman shu on,*

6. *O‘ranib olaman vahima ichra.*

7. *Qorong‘i yo‘lakda shitirlar xazon,*

8. *Kimdir derazamdan ketmaydi sira.*

9. *Chiroqni yoqaman betoqat borib,*

10.*Go‘yo vahimalar bo‘ladi abas.*

11.*Yomg‘ir yaltiraydi nurda oqarib,*

12.*Tasalli chulg‘aydi dilni bir nafas.*

13.*Lipillab so‘nadi chiroq ham oxir,*

14.*Qaydadir shovullab egiladi tol,*

15.*Kimdir tashqarida entikar og‘ir,*

16.*Birdan derazamni qoplaydi xayol,*

17.*Kimsan, ey, tunlari meni poylagan,*

18.*Makriga boylagan yovuz darbadar.*

19.*Kimsan, ey, ruhimni mag‘lub aylagan,*

20.*Mag‘rur yuragimga tashlagan nazar.*

21.*Yolvora boshlayman kimgadir yonib,*

22.*Bir zum irodamni etaman bekor.*

23.*Bir zum o‘zligimdan qolaman tonib,*

24.*Bir zum ojizlikka bo‘laman iqror.*

25.*Gunohkor bandaday titrab-qaltirab*

26.*Kimdandir so‘rayman so‘nggi himoya.*

27.*Shamol ham uvillar nimadir tilab,*

28.*Birdan kela boshlar u mash’um soya.*

29.*To‘lg‘onib ketadi nogoh yuragim,*

30.*Nimani istaysan, so‘yla, ey daydi!*

31.*Sekin g‘udurlaydi shunda allakim:*

32.*- Nahotki menga hech rahming kelmaydi.*

33.*Yomg‘ir ham savalar meni beomon,*

34.*Shamol ham holimdan kulgani-kulgan.*

35.*Boshpana ber menga, men - vahimaman,*

36.*Botirlar qalbidan quvg‘indi bo‘lgan.*

GECE (79)

1. Dışarıda yağmur şarıldar sessiz,

2. Görünsün ne lamba ve ne bir ışık.

3. Sanki pencereme fiske vurur birisi,

4. Basıp gelmeye başlar bir çeşit rüya

5. Kendimi döşeğe atarım o an,

6. Sarılabilirim endişe içinde.

7. Karanlık avlulu yollarda hışırdar hazan,

8. Biri penceremden gitmez asla.

9. Çırağı yakarım takatsiz gidip,
10. Sanki evhamlar olur abes.
11. Yağmur ışıldar ışıkta ağarıp,
12. Teselli sarar gönlü bir nefes.
13. Yanıp söner kandil de artık,
14. Bir yerde gürleyip eğilir söğüt,
15. Biri dışarıda iç çeker ağır,
16. Birden penceremi kapla hayal.
17. Kimsin, ey, geceleri beni bekleyen,
18. Hilesine saran insafsız derbeder.
19. Kimsin, ey, ruhumu mağlup eden,
20. Mağrur yüreğime etmiş nazar.
21. Yalvarmaya başlarım kime yanıp,
22. Bir an irademi ederim boş.
23. Bir an kendimle kalırım reddedip,
24. Bir an acizliğe ederim itiraf.
25.Günahkâr köle gibi titreyip
26. Kimden sorayım son himaye.
27.Rüzgâr da uğuldar ne isteyip,
28. Birden gelmeye başlar o meşum gölge.
29. Titrer birdenbire yüreğim,
30. Neyi istersin, söyle, ey serseri!
31. Yavaşça mırıladanır burada birisi:
32.- Bana hiç etmez misin merhamet?
33. Yağmur da amansız kamçılar beni,
34.Rüzgâr da hâlime kahkahayla gülüp gülüp.
35.Sığınak ver bana, ben, evhamlıyım,
36. Bahadırların kalbinden kovulmuş olan. (1965)

HAYOT ISHQI (80)

Hazil

1. *So‘lim choyxonada davra qurishib,*
2. *Tengi-to‘shi bilan yayrashar chollar.*

3. *Egilab -bukilib, baxtim bormi, deb*
4. *Gugurt qutisini tashlashar chollar.*
5. *Holbuki, ortdadir endi bu dunyo...*
6. *Manglayda borini ko‘rgan bu chollar.*
7. *Yana qanday baxtni kutar, ajabo,*
8. *Har biri to‘qsonga kirgan bu chollar.*

HAYAT AŞKI (80)

Gülmece

1. Güzel çayhanede meclis kurulup,
2. Akranlarıyla keyiflenir ihtiyarlar.
3. Eğilip bükülüp, bahtım var mı, diye
4. Kibrit kutusunu atarlar ihtiyarlar.
5. Hâlbuki geridedir şimdi bu dünya…
6. Alın yazısında olanı görmüş bu ihtiyarlar.
7. Yine nasıl bir bahtı bekler, acaba,
8. Her biri doksana girmiş bu ihtiyarlar. (1965)

“O‘TINAMAN…” (81)

1. *O‘tinaman,*
2. *Yiroqlardan men*
3. *Huzuringga sog‘inib yelsam,*
4. *Toleimga kulib chiqqin sen,*
5. *Kuvonchingni yashirma hech ham.*

6. *Uzoqlarga otlansam yana,*
7. *Safar to‘nin kiysam erta-kech,*
8. *O‘tinaman, erkam, o‘shanda*
9. *Darig‘ tutma ko‘z yoshingni hech!*

“YALVARIRIM…” (81)

1. Yalvarırım,
2. Uzaklardan ben
3. Huzuruna özleyip essem,
4. Talihime gülen sen,
5. Sevincini gizleme hiç de.

6. Uzaklara hazırlansam yine,
7. Sefer kaftanını giysem gece gündüz,
8. Yalvarırım, sevgilim, o anda
9. Esirgeme gözyaşını hiç! (1965)

ARMON (82)

Usmon Nosirga

1. *Jajji bola tinmasdan sira*
2. *Akasiga yolvorar yonib;*
3. *- Jon akajon, ko‘rsat birgina,*
4. *Jon akajon, bir ko‘ray qonib.*
5. *Akasining qo‘ymas qo‘lidan,*
6. *O‘rtanadi yoshgina joni.*
7. *Nimanidir olib qo‘ynidan*
8. *Ko‘rsatadi so‘ng akajoni.*
9. *Go‘dak yana o‘tmayin fursat,*
10.*Akasiga tikadi ko‘zin:*
11.*- Jon akajon, yana bir ko‘rsat,*
12.*Ko‘zim bilan ko‘rayin o‘zim.*
13.*Tinchitmaydi uni bir nafas,*
14.*Osiladi “jon” deb bo‘yniga.*
15.*Akajoni ko‘rsatib birpas,*
16.*Yashiradi so‘ng bor qo‘yniga.*
17.*Nimaydi u? Ma’sum tuyg‘uning*
18.*Oromiga sololgan g‘avg‘o?*

19.*Ne bo‘lsa ham bolakay uning*

20.*Diydoriga to‘ymadi aslo.*

21.*Nimaydi u? Balki bir bezak -*

22.*Armon qilib yurgan nechalar.*

23.*Ne bo‘lsa ham o‘shani go‘dak*

24.*Tushlarida ko‘rdi kechalar.*

25.*Nimaydi u? Balki bir tugun,*

26.*Yo oddiy tosh, yoki oddiy gul.*

27.*Ne bo‘lsa ham yosh inson uchun*

28.*O‘sha damda noyob edi ul.*

UKDE (82)

Osman Nasır’a

1. Küçük çocuk durmadan hiç
2. Ağabeyine yalvarır telaşlanıp:
3. - Can ağabeyciğim, göster biricik,
4. Can ağabeyciğim, bir göreyim kanıp.
5. Ağabeyinin bırakmaz elinden,
6. Acı çeker gencecik canı.
7. Neyi alıp koynundan
8. Gösterir sonra ağabeyciği.
9. Çocuk yine geçmeden vakit,
10.Ağabeyine diker gözlerini:
11.- Can ağabeyciğim, yine bir göster,
12.Gözlerimle göreyim kendim.
13. Sakinleştirmez onu bir an,
14. Asılır “can” diye boynuna.
15.Ağabeyciği gösterip bir an,
16. Gizler sonra bütün koynuna.
17. Neydi o? Masum duygunun
18. Huzuruna çıkarabilmiş kavga?
19. Ne de olsa küçük çocuk onun
20.Görmeye doyamadı asla.

21. Neydi o? Belki bir süs
22. Ukde kalan niceleri.
23. Ne de olsa o çocuk
24.Düşlerinde gördü geceleri.
25. Neydi o? Belki bir bohça,
26. Veya sıradan bir taş, yahut basit bir gül.
27. Ne de olsa genç insan için
28.İşte o anda nadirdi o. (1965)

“OILADA TUG‘ILSA GO‘DAK…” (83)

1. *Oilada tug‘ilsa go‘dak*
2. *Unga suyub qo‘yarlar ism.*
3. *Gar bog‘lansa ikkita yurak,*
4. *Do‘stlik deyish bo‘lgandir rasm.*
5. *Volidalar go‘dagi uchun*
6. *Beshik olib, tortadilar osh.*
7. *Xuddi shunday, do‘stlar ham u kun*
8. *Bir-biridan aylaydi maosh.*
9. *Inson yashar, payti ham kelar*
10.To‘xtab qolar umr - yugurik.
11.Lekin, do‘stlar, ayting, ne bo‘lar
12.Do‘st-do‘stidan ayrilsa tirik?
13.Tobut o‘tar so‘nggi ko‘prikni,
14.Qaro yerga uni qo‘yarlar.
15.Do‘stlar, ayting, so‘ngan do‘stlikni
16.Qayga olib borib ko‘marlar?
17.Marhumlarga ochishib aza
18.Liboslarni ko‘kka bo‘yarlar.
19.Do‘stlar, ayting, do‘stlik so‘nganda
20.Qanday yig‘lab, qanday kiyarlar?
21.Azalilar ko‘rsa yomon tush,
22.Mozor uzra sukut etarlar.
23.Tirik turib qayta kelsang duch,
24.Unda, axir, qayga ketarlar?
25.Hayhot, ilk bor ingradi ko‘nglim,

26.*Bir bargdayin titradim, toldim.*

27.*Men do‘stimdan ayrildim bugun,*

28.*Tirik turib, ayrilib qoldim.*

29.*Yozarmidim yig‘loqi baytni,*

30.*Chekarmidim men axir nola,*

31.*Do‘stlar, agar boshlanmasaydi*

32.*Ikki qalbdan buyuk oila.*

33.*Yozarmidim yig‘loqi baytni,*

34.*Titrarmidim ko‘zda yosh bilan,*

35.*Do‘stlar, agar boshlanmasaydi*

36.*Tog‘ qulashi ikki tosh bilan.*

37.*Do‘stlar, ayting, dil yonmaganda,*

38.*Chekarmidim shunchalar oh-zor.*

39.*Agar, agar... Hech bo‘lmaganda*

40.*Topilsaydi ko‘mgali mozor.*

“AİLEDE DOĞARSA BEBEK…” (83)

1. Ailede doğarsa bebek

2. Onu sevip koyarlar isim.

3. Eğer bağlansa iki yürek,

4. Dostluk demek olmuştur âdet.

5. Valideler bebeği için

6. Beşik alıp, karıştırırlar aş.

7. Tıpkı böyle, dostlar da o gün

8. Birbirinden sağlar kazanç

9. İnsan yaşar, vakti de gelir

10. Durup kalır ömür, hızlı.

11. Lakin, dostlar, söyleyin, ne olur

12. Dost dostundan ayrılsa yaşarken?

13. Tabut geçer sonuncu köprüyü,

14. Kara toprağa onu koyarlar.

15. Dostlar, söyleyin, biten dostluğu

16. Nereye götürüp gömerler?

17. Merhumlara tutup matem

18. Elbiseleri maviye boyarlar.

19. Dostlar, söyleyin, dostluk bittiğinde
20. Nasıl ağlayıp, nasıl giyerler?
21. Yaslılar görse kötü düş,
22. Mezar üstünde sükût ederler.
23. Dirilip yine gelsen yüz yüze,
24.O an, artık, nereye giderler?
25. Heyhat, ilk kez inledi gönlüm,
26. Bir yaprak gibi titredim, bitkinleştim.
27. Ben dostumdan ayrıldım bugün,
28. Hayatta kalıp, ayrıldım.
29. Yazar mıydım çok ağlayıp beyti,
30.Çeker miydim ben artık nale,
31. Dostlar eğer başlamasaydı
32.İki kalpten büyük aile.
33. Yazar mıydım çok ağlayıp beyti,
34. Titrer miydim gözlerimde yaşla,
35. Dostlar eğer başlamasaydı
36. Dağın yıkılması iki taşla.
37. Dostlar, söyleyin, gönül yanmadığında,
38.Çeker miydim bunca âh u zâr.
39.Eğer, eğer… Hiç olmazsa
40. Bulunsaydı gömülü mezar. (1965)

ULG‘AYISH (84)

(Hazil)

1. *Bebosh edim bir vaqtlar men ham,*
2. *Bo‘shamasdi o‘yindan qo‘lim.*
3. *Ko‘p nasihat qilardi otam:*
4. *Bir ozgina og‘ir bo‘l, o‘g‘lim.*
5. *Katta bo‘lib qolding har qalay,*
6. *Tutib olgin o‘zingni endi.*
7. *Yillar o‘tdi, sanqidim talay,*
8. *Tutib oldim o‘zimni endi.*

9. *Endi sho‘xlik qayoqda deysiz,*

10.*Yurishlarim sipo va o‘ychan.*

11.*Suronlarga boqaman farqsiz,*

12.*Bir mahallar chopardim sho‘xchan.*

13.*Ming o‘ylayman so‘zlar so‘zimni,*

14.*Oqibatni ko‘rar ko‘zlarim.*

15.*Avaylayman doim o‘zimni,*

16.*Yosh emasman axir, do‘stlarim.*

17.*Kerak bo‘lib qolar bir kuni,*

18.*Hech kimsani yomon demasman.*

19.*Qo‘rqoq demang, do‘stlarim, meni,*

20.*Endi axir go‘dak emasman...*

21.*Endi dilda hokimdir toqat,*

22.*Hurmatni ham o‘rgandim, mana:*

23.*Men onamni sen derdim bir vaqt,*

24.*Endi bo‘lsa Siz deyman, ona...*

25.*Yetaklamas endi tuyg‘ular,*

26.*Turmushimda qat’iy qoida.*

27.*Bir vaqt meni bola derdilar,*

28.*Endi bo‘lsa hurmat joyida.*

29.*Ishlar shundoq yurishsa, qarang,*

30.*Arbob bo‘lib qolgum erta-kech.*

31.*Tutib oldim o‘zimni arang,*

32.*Endi qo‘yib yubormasman hech.*

BÜYÜMEK (84)

(Gülmece)

1. Yaramazdım bir zamanlar ben de,

2. Bırakmazdı oyunu elim.

3. Çok nasihat ederdi babam:

4. Birazcık ağırbaşlı ol, oğlum.

5. Büyüdün her nasılsa,

6. Tut kendini şimdi.

7. Yıllar geçti, gezdim çok
8. Tuttum kendimi şimdi.
9. Şimdi haylazlık nerede dersiniz,
10.Yürümelerim mütevazı ve düşünceli.
11.Gürültülere bakarım farksız,
12. Bir zamanlar koşardım afacan.
13. Bin düşünür bir söylerim sözümü,
14. Akıbeti görür gözlerim.
15. Korurum daima kendimi,
16. Genç değilim artık, dostlarım.
17. Gerekir yine bir gün,
18. Hiç kimseye kötü demem.
19. Korkak demeyin, dostlarım, bana,
20.Şimdi artık çocuk değilim…
21.Şimdi gönle hâkimdir sabır,
22.Hürmeti de öğrendim, işte:
23. Sana anam derdim bir zamanlar,
24.Şimdiyse Siz derim, ana…
25.Sürüklemez şimdi duygular,
26. Hayatımda kesin kural.
27. Bir zamanlar bana çocuk derlerdi,
28.Şimdi ise hürmet edilmekte.
29.İşler böyle yürüse, bakın,
30. Erbap olacağım gece gündüz.
31. Tuttum kendimi güç bela,
32.Şimdi bırakamam hiç. (1965)

MUHABBAT (85)

1. *Hayot mendan ayamadi ne'matlarini,*
2. *Ne istasam berdi doim, hech bir tonmayman.*
3. *Faqatgina bir g'am o'rtar yuraklarimni,*
4. *Men muhabbat taqdirimdan maqtanolmayman.*
5. *Bolalikdan o'tib men ham, bo'y yetib sekin,*
6. *Goho pinhon, goho asov daryoday toshib,*
7. *Bir yosh yigit sevganchalik sevdimu, lekin*

8. *Boshqalarday tole menga bo‘lmadi nasib.*

9. *Ko‘ngil shisham bir so‘z bilan qolganda darz yeb,*

10.*Qalamimdan ilk martaba to‘kildi g‘amlar.*

11.*Sen bo‘lmasang dunyo o‘zi menga nadir, deb*

12.*Ichdim hatto talay-talay she’riy qasamlar.*

13.*O‘tar ekan hamma narsa, yo‘q ekan turg‘un,*

14.*Hatto sevgi nelargadir bo‘larkan taslim.*

15.*Bugun hayot nimaligi, sevgi yo‘rig‘i -*

16.*Bari ma’lum, hammasiga yetadi aqlim.*

17.*Yuragimda sevgi izi topilmas aslo,*

18.*Na bir afsus, na bir alam chiqqaydir undan.*

19.*Shoir satrin takrorlayman sekin, beparvo:*

20. *“Qaytmas endi, umid qilma ketgan to‘lqindan...”*

21.*Sokingina bo‘lib qolgan yuragim shundoq,*

22.*O‘tirmayman u kunlarni so‘kib, qoralab.*

23.*Endi menga bari birdir, deymanu shu choq*

24.*O‘zga otash axtaraman hayot oralab.*

25.*Yolg‘iz turib yulduzlarga boqaman gohi,*

26.*Yo o‘zimcha tush ko‘rishning sirin o‘ylayman.*

27.*Kayfiyatim ko‘targanda, tushsa nigohim,*

28.*To‘g‘ri kelgan har narsani she’r deb kuylayman.*

29.*Ba’zan uzoq qishloqdagi keksa onamga*

30.*Yuboraman ma’nisi yo‘q, pala-partish xat.*

31.*Hamma narsa goho ermak tuyular menga,*

32.*Hamma narsa goho oson ko‘rinar faqat.*

33.*Ba’zan esa o‘z-o‘zidan ketaman to‘lib,*

34.*Titrayman ham ohanglarni tinglab jimgina,*

35.*O‘rtoqlarim o‘rab olar yupatmoq bo‘lib:*

36.*- Aytgin, axir, nima senga yetishmas, nima?!*

37.*Yo‘q, yo‘q, hayot ayamadi ne’matin mendan,*

38.*To‘rt mucham sog‘, do‘stlarim bor havas qilgulik.*

39.*Noligayman na kelajak, na o‘tmishimdan,*

40.*Irodam bor - kelsa agar biror ko‘rgulik.*

41.*Faqatgina bir kuch bordir, faqat ugina*

42.*Zor yig‘latar, qilolmayman men unga toqat.*

43.*Hayotimda chaqnamaysan faqat sengina,*

44.*Toleimda sen bo‘lmading, baxtli muhabbat.*

45.*Kimga shoshay, kimni qo‘msab, kimga sig‘inay,*

46.*Farishtam, deb oq yuvibu oq taray kimni?*

47.*Kimni Laylim, Shirinim deb, baxtim deb atay,*

48.*Hayotim, deb cho‘qqilarga ko‘taray kimni?!*

49.*Yo‘q, yo‘q, o‘tgan muhabbatni qo‘msamayman hech,*

50.*Nima kerak kulni titish, bo‘lmasa uchqun!*

51.*Nahot qayta sevolmasam! Nahot endi kech!*

52.*Nahot endi ko‘ngil uzsam sevgidan butun?!*

53.*O, qalbimga sen ham oshno bo‘lsayding, sevgim,*

54.*Ayriliqmas, visol kuylab qolsaydim g‘amda.*

55.*Har qandayin ayanchni ham ulug‘lar edim,*

56.*Men o‘zimni baxtli derdim har qanday damda.*

57.*Yig‘lasam-da kular edim mag‘rur va oson,*

58.*Sevgim bilan zarb berardim har qanday g‘amga.*

59.*Yana qayta sevarmanmi? O, gar sevolsam,*

60.*Mayli, hayot, bor-yo‘g‘ingni tashla yelkamga.*

61.*Romeoday o‘limga ham tayyorman u kez,*

62.*Qotillik ham qilay, mayli, Otello monand.*

63.*Faqat sen kel, yuragimda armon bo‘lgan his,*

64.*Sensiz hayot puch bir narsa, ermak, omonat...*

MUHABBET (85)

1. Hayat benden esirgemedi nimetlerini,

2. Ne istesem verdi daima, hiç inkâr etmem.

3. Sadece bir gam örter yüreğimi,

4. Ben muhabbet talihimle övünemem.

5. Çocukluktan geçip ben de, boy atıp yavaşça,

6. Bazen gizli, bazen asi derya gibi taşıp,

7. Genç bir delikanlıyım sevmesine sevdim, lakin

8. Başkaları gibi talih bana olmadı nasip.

9. Gönül şişem bir sözle kaldığında kırık,

10. Kalemimden ilk kez döküldü gamlar.

11. Sen olmasan dünyanın kendisi bana nedir, diye

12. Ettim hatta çok çok manzum yeminler.

13. Geçermiş her şey, değilmiş kalıcı,
14. Hatta sevgi nelere olurmuş teslim.
15. Bugün hayatın ne olduğu, sevgi yolu,
16. Hepsi malum, her şeye yeter aklım.
17.Yüreğimde sevgi izi bulunmaz asla,
18. Ne bir tasa, ne bir elem çıksın ondan.
19.Şairin satırını tekrarlarım yavaşça, kaygısız:
20."Dönmez şimdi, ümit etme giden dalgadan…"
21. Sakinleşmiş yüreğim böyle,
22. Oturmam o günleri lanetleyip, karalayıp.
23.Şimdi bana hepsi birdir, derim o an
24. Kendime ateş ararım hayatın içinde.
25. Sadece durup yıldızlara bakarım bazen,
26. Yahut kendimce düş görmenin sırrını düşünürüm.
27. Keyfim arttığında, düşse bakışlarım,
28. Doğru gelen her şeyi şiir diye terennüm ederim.
29. Bazen uzak köydeki ihtiyar anama
30.Gönderirim manasız, yarım yamalak mektup.
31. Her şey bazen eğlence gibi gelir bana,
32. Her şey bazen kolay görünür sadece.
33. Bazen ise kendi kendime dolarım,
34. Titrerim de nağmeleri dinleyip sessizce,
35. Dostlarım sarar etrafımı teselli edip:
36.- Söyle, artık, ne sana yetmez, ne?!
37. Yok, yok, hayat esirgemedi nimetini benden,
38.Dört azam sağ, dostlarım var heves edilecek.
39. Yakınırım ne gelecek, ne geçmişimden,
40.İradem var, gelirse eğer bir görülecek.
41. Sadece bir güç vardır, sadece o
42.Hıçkıra hıçkıra ağlatır, edemem ben ona takat.
43. Hayatımda parlamazsın sadece sen,
44. Talihimde sen olmadın, bahtlı muhabbet.
45. Kime şaşayım, kimi özleyip, kime sığınayım,
46. Meleğim, diye temiz yıkayıp ve temiz tarayıp kimi?
47. Kimi Leyla'm, Şirin'im, bahtım diye çağırayım,
48. Hayatım, diye göklere çıkarayım kimi?!

49. Yok, yok, geçmiş muhabbeti özlemem hiç,
50. Ne gerek külü karıştırmaya, olmazsa kıvılcım!
51. Yine sevemezsem! Şimdi geç mi?
52.Şimdi gönülden çıkarsam mı sevgiyi bütün?!
53. Aaa, kalbime sen de dost olsaydın, sevgim,
54. Ayrılık değil, visal terennüm edip kalsaydım gamda,
55. Her nasılsa üzüntüyü de yüceltirdim,
56. Ben kendime bahtlı derdim her demde.
57.Ağlasam da gülerdim mağrur ve kolay,
58. Sevgimle vururdum her gama,
59. Yine tekrar sever miyim? Aaa, eğer sevebilirsem,
60. Neyse, hayat, varını yoğunu bırak omzuma.
61. Romeo gibi ölüme de hazırım o an,
62. Katil de olurum, neyse, Otello gibi.
63. Sadece sen gel, yüreğimde ukde kalan his,
64. Sensiz hayat boş bir şey, eğlence, emanet… (1965)

"KO'PDAN KUTGAN EDIM…" (86)

1. *Ko'pdan kutgan edim orziqib, mana,*
2. *Bulutlar tarqaldi to'kishib ko'z yosh.*
3. *Xayolim osmonday yorishdi yana,*
4. *Yorug' kunlarimday porladi quyosh.*
5. *Shoshqin daryolarning zangordir labi,*
6. *Shamollar o'ynaydi yiroq-yiroqda.*
7. *Yurgil, sayr etaylik, yurgil, malagim,*
8. *Dunyo tashvishlari qolsin uzoqda.*
9. *Ko'ryapsanmi, qanday yasharmish olam,*
10.*Beparvo go'dakday jilmayadi jim.*
11.*Go'dagim, bu chiroy qaytmaydi hecham,*
12.*Qaytmagani kabi mening yoshligim.*
13.*Bugun bosh ustingda yashnagan yaproq*
14.*Shovullab to'kilar erta poyingga.*
15.*Bu uchqur yo'lovchi solmaydi quloq*
16.*Sening iltimosing, sening ra'yingga.*
17.*Xazonli avgustning biror oqshomi*

18.*Uni ko‘rarsanmi tushingda takror?!*

19.*Mayliga, o‘zgadir kuzning ilhomi,*

20.*Bugun-chi ko‘z tashla: atrofda bahor!*

21.*Qani, qo‘lginangni bergil jimgina,*

22.*Shu ma’sum yo‘lchiga qo‘yaylik ixlos.*

23.*Shoirlar aldaydi bizni, jonginam,*

24.*Bahor doim emas, uch oydir, xolos...*

“ÇOKTANDIR BEKLEMİŞTİM…” (86)

1. Çoktandır beklemiştim hayalini kurup, işte,

2. Bulutlar dağıldı döküp gözyaşı.

3. Hayalim asuman gibi yarıldı yine,

4. Aydınlık günlerim gibi parladı güneş.

5. Şaşkın deryaların mavidir dudağı,

6. Rüzgârlar oynar uzaklarda.

7. Yürü, seyredelim, yürü, meleğim,

8. Dünyanın tasaları kalsın uzakta.

9. Görüyor musun, ne kadar yeşermiş âlem,

10. Pervasız çocuk gibi kımıldamaz sessiz.

11. Evladım, bu güzel dönmez hiç,

12.Dönmediği gibi benim gençliğim.

13. Bugün başımın üstünde yeşeren yaprak

14.Hışırdayıp dökülür yarın ayağına.

15. Bu hızlı yolcu vermez kulak

16. Senin ricana, senin isteğine.

17. Hazanlı ağustosun bir akşamı

18. Onu görür müsün düşünde tekrar?!

19. Neyse, başkadır güzün ilhamı,

20. Bugün göz at: etrafındaki bahar!

21. Haydi, gönülcüğünü ver sessizce,

22. Bu masum yolcuya verelim ihlas.

23.Şairler aldatır bizi, cancağızım,

24. Bahar her an değil, üç aydır, yalnız… (1965)

CHOL VA "KOMMUNIZM" QISSASI (87)

1. *Shaharning serhasham ko'chasi bo'ylab*
2. *Qaygadir munkillab ketar edi chol.*
3. *Keksalikda, axir, miyang bo'sh turmas,*
4. *Har qadamda chulg'ar yangi bir xayol.*
5. *Cholning tasavvuri mana bir zumda*
6. *Qurib qo'ydi go'zal kommunizmni:*
7. *"Mana shirin kulcha senga va menga,*
8. *Bu esa - emizak, yupat qizingni,*
9. *Kim nima istaydi, qani, marhamat,*
10. *Umum dasturxonda barchasi tayyor.*
11. *Mana, mehmon kutar chol - yigit yoshda,*
12. *Yonida kelinchak - kampiri ham bor..."*
13. *Va boshqa hokazo xayollar shundoq*
14. *Cholni o'z qa'riga tortdi-yu ketdi.*
15. *Shunday qilib, cholimiz Kommuna qurdi,*
16. *Yoshardi va unda mehmon ham kutdi.*
17. *Ammo padarla'nat nosning xumori*
18. *Parchalab yubordi xayolni birdan.*
19. *G'o'ldirab qoldi chol: "Hoy, ota go'ri,*
20. *Chekilmasang balo bormidi shu dam,*
21. *Shunday bir xayolga zavol bo'lding-a",*
22. *G'azabga to'lgan chol so'kishning barin,*
23. *Sakson yildan buyon asraganlarin*
24. *Rosa qalashtirib qo'ydi bir zumda.*
25. *Alam qilmaydimi, bir otim nos deb*
26. *Qaytib kelsang axir kommunizmdan!*
27. *Bo'lingan xayol ham ko'chgan g'isht misol*
28. *Qayta tushmas ekan o'z qolipiga.*
29. *Qancha o'y surmasin, yetolmadi chol*
30. *Xayol kalavasin qochgan ipiga.*
31. *"Kommunani endi qurib edim-a,*
32. *Rostdan ayb o'tdimi mening o'zimdan?"*
33. *Xayol-ku qaytmadi, cholning ham ammo*
34. *Qaytgisi kelmadi kommunizmdan.*

35.*Belini yigitday tutdi-yu, cholning*

36.*Xira ko‘zlarida porladi zafar:*

37.*“Otimni boshqatdan qo‘yganim bo‘lsin*

38.*O‘sha Kommunani qurmasam agar!”*

39.*Do‘konlarga kirib xarid qildi chol*

40.*Bir talay kulcha-yu hamda emizak.*

41.*So‘ngra kimlargadir uzatdi: “Ma, ol,*

42.*Non senga, bu esa qizingga ermak.”*

43.*Bundan naryog‘ini, aziz o‘quvchim,*

44.*Men ham ko‘rganim yo‘q, eshitdim faqat;*

45.*Tunov kuni cholimiz beribdi elga,*

46.*Umum dasturxondan umum ziyofat!*

İHTİYAR VE “KOMÜNİZM” KISSASI (87)

1. Şehrin göz alıcı sokağının kenarında

2. Bir yerde kamburlaşıp giderdi ihtiyar.

3. Yaşlılıkta, artık, aklın boş durmaz,

4. Her adımda sarar yeni bir hayal.

5. İhtiyarın tasavvuru işte bir anda

6. Kurdu güzel komünizmi:

7. “İşte tatlı çörek sana ve bana,

8. Buysa; emzik, avut kızını,

9. Kim ne ister, hani, merhamet,

10. Umumî sofrada hepsi hazır.

11.İşte misafir bekler ihtiyar, genç yiğit de,

12. Yanında gelin, yaşlısı da var…”

13. Vesaire diğer hayaller böyle

14.İhtiyarı kendi yanına çekti ve gitti.

15.Böyle yapıp, ihtiyarımız Komün’ü kurdu,

16. Gençleşti ve orada misafir de bekledi.

17. Ama pederinin lanetlediği enfiye arzusu

18. Suya düştü hayali birden.

19.Mırıldandı ihtiyar: “Hey, baba mezarı,

20.İçmezsen bela var mıydı o an,

21.Böyle bir hayale daldın.”

22. Gazapla dolan ihtiyar sövmenin hepsini,
23. Seksen yıldan bu yana koruduklarını
24. Bir hayli üst üste yığdı bir anda.
25. Elem vermez mi, bir tutam enfiye diye
26.Dönüp gelsen artık komünizmden!
27.Yıkılan hayal de göçen tuğla misali
28. Tekrar düşmezmiş kendi kalıbına.
29. Nasıl düşünmesin, yetişemedi ihtiyar
30. Hayal yumağı kaçmış ipine.
31."Komün'ü şimdi kurmuştum,
32. Gerçekten günah gitti mi benim kendimden?"
33. Hayal ya dönmedi, ihtiyarın da ama
34.Dönesi gelmedi komünizmden.
35. Belini delikanlı gibi tuttu, ihtiyarın
36. Bulanık gözlerinde parladı zafer:
37."Adımın üstüne yemin olsun
38. Komün'ü görmezsem eğer!"
39.Dükkânlara girip satın aldı ihtiyar
40. Birkaç çörek hem de emzik.
41. Sonra birilerine uzattı: "İşte, al,
42. Ekmek sana, buysa kızına teselli."
43. Bundan başkasını, aziz okurum,
44. Benim de gördüğüm yok, duydum sadece;
45.Önceki gün ihtiyarımız vermiş halka,
46. Umumî sofradan umumî ziyafet! (1965)

"XAYR ENDI..." (88)

1. *- Xayr endi...*
2. *Qalbimda bir vido qoldi,*
3. *Xayr endi, sen ketding, begunoh ohu.*
4. *Bugun sen qaydasan? Qaylarda qolding?!*
5. *Bugun bosh ustingda kimning panohi?!*
6. *Seni kech topgandim, erta yo'qotdim,*
7. *Qarg'agin, loyiqman sening qahringga.*
8. *O'zgalar qalbida qadr uyg'otdim,*

9. *Biroq yetolmadim o‘zim qadringga.*

10.*O, inson qismati, bunchalar chigal,*

11.*Bunchalar xilma-xil foje va aza.*

12.*Qismatim, o‘zimman gunohkor bu gal,*

13.*Nahot, gunohkorga qo‘shiqdir jazo?!*

14.*- Xayr endi...*

15.*Qalbimda bir vido qoldi,*

16.*Xayr endi, sen ketding, begunoh ohu.*

17.*Bugun sen qaydasan? Qaylarda qolding?!*

18.*Sen bugun kimlarning mas’um hamrohi?!*

19.*Qaysi bir odamning baxtiga yorsan,*

20.*Ochildimi senga tole darchasi?!*

21.*Bugun sen kimlarning mehriga zorsan*

22.*Mening yuragimning majruh parchasi.*

“HOŞÇA KALIN ŞİMDİ…” (88)

1. - Hoşça kalın şimdi…

2. Kalbimde bir veda kaldı,

3. Hoşça kalın şimdi, sen gittin, günahsız ahu.

4. Bugün sen neredesin? Nerelerde kaldın?!

5. Bugün baş üstünde kimin koruması?!

6. Seni geç bulmuştum, erken kaybettim,

7. Lanet edin, layığım senin kahrına.

8. Başkalarının kalbinde değer kazandım,

9. Fakat erişemedim kendim kadrine.

10. Aaa, insan kısmeti, bu kadar karışık,

11. Bu kadar türlü türlü facia ve matem.

12.Kısmetim, kendimim günahkâr bu kez,

13.Günahkâra koşuk mudur ceza?!

14.- Hoşça kalın şimdi…

15. Kalbimde bir veda kaldı,

16. Hoşça kalın şimdi, sen gittin, günahsız ahu.

17. Bugün sen neredesin? Nerelerde kaldın?

18. Sen bugün kimlerin masum yoldaşı?!

19. Hangi bir insanın bahtına yârsın,

20.Açıldı mı sana talih kapısı?!

21. Bugün sen kimlerin şefkatine muhtaçsın

22. Benim yüreğimin yaralı parçası. (1965)

QONLI KO‘YLAK (89)

1. *Ber, onajon, ber otamning*

2. *Ko‘ylagini qo‘limga.*

3. *Bergil, mayli, chiqsin yana*

4. *U muqaddas yo‘liga.*

5. *Ber, ko‘ylakni bayroq etib*

6. *Qadam qo‘yay quyoshga.*

7. *Tongda balqib, qoni bilan*

8. *Ko‘rinsin qari-yoshga.*

9. *Mayli, bir zum tirik olam*

10.*Bo‘lib qolsin hayronlar.*

11.*Qonli ko‘ylak porlamoqda,*

12.*Boqingiz, ey insonlar.*

13.*“Boqing, urush dahshatidan*

14.*Ogoh bo‘ling, yaxshilar.*

15.*Bo‘lmasin-chun ko‘ylaklar qon*

16.*Sergak bo‘ling, yaxshilar.”*

17.*Qonli ko‘ylak koinotni*

18.*Chorlab tursin shundayin.*

19.*Ber, onajon, jang guvohin*

20.*Men quyoshga qadayin.*

21.*Bizning uzoq avlodlar ham*

22.*Kelganida dunyoga,*

23.*Ko‘rgay, mangu tinchlik uchun*

24.*Nelar kechgan dunyoda!*

KANLI GÖMLEK (89)

1. Ver, anacığım, ver babamın

2. Gömleğini elime.

3. Ver, olsun, çıksın yine

4. O mukaddes yoluna.
5. Ver, gömleği bayrak yapıp
6. Adım attı güneşe.
7. Tanda parlayıp, kanıyla
8. Görünsün yaşlıya gence.
9. Olsun, bir an canlı âlem
10.Düşsün hayrete.
11. Kanlı gömlek parlamakta,
12. Bakınız, ey insanlar.
13."Bakın, savaşın dehşetinden
14. Dikkatli olun, iyiler.
15. Olmasın gömlekler kan
16. Uyanık olun, iyiler."
17. Kanlı gömlek kâinatı
18. Davet etsin böyle.
19. Ver, anacığım, savaşın tanığını
20. Ben güneşe takayım.
21. Bizden sonra evlatlar da
22. Geldiğinde dünyaya,
23.Görsün, ebedî dinçlik için
24. Neler geçmiş dünyada! (1965)

XO'ROZQAND (90)

1. *Jajji o'g'ilchasin yetaklab olib,*
2. *Ota shoshar edi qaygadir tongda.*
3. *Kimdir qarshisidan chiqdi jar solib;*
4. *- Xo'rozqand sotaman, qolma armonda.*

5. *Dada etagiga yopishdi go'dak:*
6. *- Xo'rozqand olib ber, dada, dadajon...*
7. *Mayli, Umrigayam beraman qittak,*
8. *Qandfurush tirjaydi: - Obbering, arzon.*

9. *Ota cho‘ntagiga qo‘l cho‘zdi sekin,*

10.*So‘ngra boshqasiga, so‘ng boshqasiga.*

11.*Hammasin birma-bir titdi-yu, lekin*

12.*O‘g‘liga engashdi: - Yur, boshqasiga...*

13.*Dada etagini qo‘ymasdi bola,*

14.*Mitti ko‘zlariga tizilgan marjon.*

15.*Eng so‘nggi umidi chiqardi nola:*

16.*- O‘g‘lingiz bo‘lardim, dadajon...*

17.*Dadajoni esa turardi birdak,*

18.*Xuddi nimanidir yo‘qotgansimon.*

19.*... Qaydan bilsin bola, qaydan bilsin go‘dak,*

20.*Ba’zan otalar ham bo‘lar parishon.*

HOROZ ŞEKERİ (90)

1. Minik oğulcuğuna öncülük edip,

2. Baba koşardı bir yere tanda.

3. Biri karşısından çıktı haber verip:

4. - Horoz şekeri satarım, kalma ukdede.

5. Babasının eteğine yapıştı çocuk:

6. - Horoz şekeri al, baba, babacığım…

7. Olsun, Ömür Gayem alırım azıcık,

8. Şekerci gülümser : - Alıverin, ucuz.

9. Baba çantasına el uzattı yavaşça,

10. Sonra başkasına, sonra başkasına.

11. Hepsini bir bir karıştırdı, lakin

12.Oğluna eğildi: - Yürü, başkasına…

13. Babasının eteğini bırakmadı çocuk,

14. Minicik gözlerine dizilmiş mercan.

15. En son ümidi çıkardı inleyerek:

16.- Oğlunuz olurdum, babacığım…

17. Babacığı ise dururdu aynen,

18.Tıpkı bir şeyi kaybetmiş gibi.

19.… Ne bilsin çocuk, ne bilsin yavrucak,

20. Bazen babalar da olur perişan. (1965)

GAZETA SOTUVCHI (91)

1. *Odamlar qaynaydi gavjum ko‘chada,*

2. *Har kim yuguradi qaygadir doim.*

3. *Faqat chorrahada - taxta uychada*

4. *Gazeta sotuvchi o‘tirar qoim.*

5. *- Qani, xo‘sh birodar, nima gap yana?*

6. *Yana qovoq soliq, tushib ketgan lab?*

7. *Gazetani imlab to‘ng‘illar: - Mana,*

8. *Kubaning ustida yana har xil gap.*

9. *Dunyoning turishi chap yonbosh bugun,*

10.*BMT V’etnamga qilibdi firib.*

11.*Xuddi o‘z uyini suv bosganday, so‘ng -*

12.*Hindiston selidan ketar gapirib.*

13.*Deylik, kunlar o‘tib kelganida gal,*

14.*Uvda uchratasiz ochiq chehrani;*

15.*Vrach emasmisiz?*

16.*- Nimaydi?*

17.*- Oshnam,*

18.*Maoshing oshibdi, qo‘lni ber, qani...*

19.*Shu rangin olamga taxta uychadan*

20.*Tunu kun termular kutganday diydor.*

21.*Odamlar beparvo o‘tar ko‘chadan,*

22.*U-chi, o‘shalarni o‘ylaydi bedor.*

GAZETE SATICISI (91)

1. İnsanlar kaynar kalabalık sokakta,
2. Herkes koşar bir yere daima.
3. Sadece kavşakta, tahta kulübede
4. Gazete satıcısı oturur dik.
5. - Buyrun, peki birader, ne var ne yok yine?
6. Yine kaşlar çatılıp, inmiş dudak?
7. Gazeteyi ima edip homurdanır: - İşte,
8. Küba'nın üstünde yine her çeşit söz.
9. Dünyanın duruşu sola yatık bugün,
10.BMT Vietnam'a yapmış hile.
11.Tıpkı kendi evini su basmış gibi, sonra
12. Hindistan selinden eder söz.
13. Diyelim, günler geçip geldiğinde sıra,
14.O zaman karşılaştırırsınız açık çehreyi:
15. Doktor değil misiniz?
16.- Nedir?
17.- Arkadaşım,
18. Maaşın artmış, elini ver, haydi…
19. Bu rengin âleme tahta kulübeden
20. Gece gündüz bakar beklemiş gibi didar.
21.İnsanlar pervasız geçer sokaktan,
22. Ya o, onları düşünür uykusuz. (1965)

XUSH KELIBSAN, YANGI YIL (92)

1. *Yana kelding hadyaga to'lib,*
2. *Kutmoqdaydik seni intizor.*
3. *Qadamingdan minnatdor bo'lib*
4. *Zarra-zarra to'kiladi qor.*
5. *Xafamasmiz bobo yildan ham,*
6. *Quvontirdi u bizni qancha:*
7. *Konfetini ko'rishdik baham*
8. *Va qo'shiqlar o'rgandik ancha.*
9. *Nihol o'sdi, qurildi qasr,*

10.*Fazolarga qildik safarlar.*
11.*O‘sha yili tug‘ildi axir*
12.*Bizning qancha o‘rinbosarlar.*
13.*Seni aslo unutmagay dil,*
14.*Xayr endi, xayr, yil bobo.*
15.*Simobdayin tipirlar ko‘ngil,*
16.*Yangi yilga endi marhabo,*
17.*Endi uni qutlab ziyoda*
18.*Manziliga jadal eltamiz.*
19.*Kirmoq uchun kechki kinoga*
20.*O‘n oltiga tezroq yetamiz.*
21.*Yo‘l olamiz maktabga qator*
22.*Bu yil endi birinchi karra.*
23.*Maktab yo‘li, do‘stlar, fazokor*
24.*Parvozidan kam emas zarra.*
25.*Bog‘chalarga emaklab oz-oz*
26.*Yana kelar yangi qismimiz.*
27.*Ulg‘ayadi yoshimiz bir oz,*
28.*O‘zgarmaydi ammo ismimiz.*

HOŞ GELDİN, YENİ YIL (92)

1. Yine geldin hediyelerle dolup,
2. Beklemekteydik seni hasretle.
3. Adımından minnettar olup
4. Zerre zerre dökülür kar.
5. Üzgün değiliz dede yıla da,
6. Sevindirdi o bizi epey:
7. Şekerlemeleri bölüştük
8. Ve koşuk öğrendik birkaç.
9. Fidanlar büyüdü, kuruldu kale,
10. Uzaylara yaptık seferler.
11.İşte o yıl doğdu artık
12. Bizim nice yardımcılar.
13. Seni asla unutmasın gönül,
14. Hoşça kal şimdi, hoşça kal, yıl dede.

15.Cıva gibi akar gönül,
16. Yeni yıla şimdi merhaba,
17.Şimdi onu bekleyip ziyada
18. Menzile hızla taşırız.
19. Girmek için akşam sinemaya
20. On altıya daha tez ulaşırız.
21. Gideriz mektebe sırayla
22. Bu yıl şimdi ilk defa.
23. Mektep yolu, dostlar, kozmonot
24.Uçuşunda az değil zerre.
25. Bahçelere emekleyip az az
26. Yine gelir yeni kısmımız.
27.İlerler yaşımız biraz,
28. Değişmez fakat ismimiz. (1965)

AVLODLARGA MAKTUB (93)

1. *Yo‘q, yashay bilmasman asrimdan nari,*
2. *Da’vo ham qilmasman mangulik izga.*
3. *Balki bir kimsaning unut daftari*
4. *Nogahon yetkazar bu she’rni sizga.*
5. *U zamon mensiz ham bilursiz ayon*
6. *Bizning asrimizning buyuk ofatin.*
7. *Balki tush ko‘rganday qolursiz hayron,*
8. *Eshitib Toshkentning sabru toqatin.*
9. *Kitobdan sanani izlab u nafas*
10.*Balki yuragingiz entikib urar.*
11.*Lekin qarshingizda fojia emas,*
12.*Xushnud odamlarning surati turar.*
13.*Tagida - sarg‘aygan satrlar aro*
14.*Kimningdir so‘zlari jaranglar mag‘rur:*
15.*“Bunday jasoratni ko‘rmagan dunyo,*
16.*Chunki u sovetlar Toshkenti erur.”*
17.*Shu zamon ko‘zingiz oldida birdan*
18.*Pompeya tarixi qolur bir chaqa.*
19.*Dersiz, yo Toshkentda hech gap bo‘lmagan,*

20.*Yo esa bobolar sirli, shunaqa.*

21.*Bizning ruhimizni olis yulduzday*

22.*Xayol osmonida ilg‘arsiz arang.*

23.*Zilzila tuyular mavhum bir so‘zday,*

24.*O‘ylarsiz, bobolar qo‘rqmapti, qarang.*

25.*Do‘stlar, buyuk edi chindan fojia,*

26.*Asablar tuproqqa cho‘kkan edi tiz.*

27.*Va lekin o‘ylamang sirlisiz deya,*

28.*Bizlar sirli emas, oddiy edik biz.*

29.*Bu cheksiz olamning ichu toshida*

30.*Nima bor? Ilg‘armi odamzod ko‘zi?*

31.*Kim ko‘krak kerardi dunyo qoshida,*

32.*Uni yaratmagan bo‘lsa gar o‘zi.*

33.*Odamzod xayoli yetmagan falak*

34.*Gar inson boshida aylantirsa tosh,*

35.*Iloj yo‘q insonga bardoshdan bo‘lak,*

36.*Jasorat atalmas ilojsiz bardosh.*

37.*Do‘stlarim, hayratda qolmangiz faqat,*

38.*Sirlilik bizlarning she’rlarga mosdir,*

39.*Dunyo qarshisida ojiz jasorat*

40.*Inson bolasiga hamisha xosdir.*

41.*Botirni tan olmas so‘qir fojia,*

42.*Charchash ham mardlikka keltirmagay shak.*

43.*Bobolar mehnatda horgandir deya,*

44.*Aziz nabiralar, o‘ylarsiz beshak.*

45.*Serjild kitoblarni varaqlab yana*

46.*Rahmdil qalbingiz entikib urar.*

47.*Lekin qarshingizda tag‘in mardona*

48.*Pahlavon kimsaning surati turar.*

49.*Tagida - sarg‘aygan satrlar aro*

50.*Bizning uslubimiz jaranglar mag‘rur:*

51. *“Bunday mehnatkashni ko‘rmagan dunyo,*

52.*Chunki u sovetlar farzandi erur.”*

53.*Shu zamon ko‘zingiz oldida birdan*

54.*Kichik chumolicha qolgusi Farhod.*

55.*Oddiy jussangizga ko‘z tashlab zimdan,*

56.*Aziz nabiralar, solursiz faryod.*

57.*O‘ylarsiz, Alpomish davridan buyon*

58.*Pahlavon o‘tmagan bular singari.*

59.*O‘ylarsiz, muncha tez qaribdi inson.*

60.*Nahot biz shularning nabiralari.*

61.*Yo‘q, polvon emasdik bizlar ham aslo,*

62.*Jussamiz oddiy deb chekmasdik anduh.*

63.*Bir kun aytibdirki Navoiy bobo:*

64.*“Doim o‘zga bo‘lur suvrat ila ruh.”*

65.*Do‘stlarim, hayratda qolmangiz faqat,*

66.*Devqarash bizlarning suratga mosdir.*

67.*Dunyo yaralgandan buyon shu mehnat*

68.*Inson bolasiga hamisha xosdir.*

69.*Sizga falokatdan berganda xabar*

70.*Do‘stlik borasida yozurlar albat.*

71.*Yozurlar: “...biz bo‘ldik tengsiz birodar,*

72.*Bu xislat bizlarga xos erur faqat”,*

73.*Shu zamon ko‘zingiz oldida behol*

74.*Rum, Romul nomusdan solib qolur dod.*

75.*O‘ylarsiz, bundayin do‘stlikni alhol*

76.*Ko‘rmagan ekan-da qadim odamzod.*

77.*Do‘stlik-ku insonning azaliy kasbi,*

78.*Dunyoday qadimdir oddiy bir salom.*

79.*Agar do‘stlikni ham bilmasa asli*

80.*Kimga kerak axir, inson degan nom!*

81.*Do‘stlarim, hayratda qolmangiz faqat,*

82.*Pahlavon asrga lof urish mosdir.*

83.*Inson bolasiga mehr ila shafqat*

84.*Hammaga xos edi, bizga ham xosdir.*

85.*Do‘stlar, buyuk edi chindan fojia,*

86.*Chindan og‘ir edi mash’um asorat.*

87.*Lekin o‘ylamangiz badbinsiz deya,*

88.*Bizda ham bor edi mehnat, jasorat.*

89.*Biz ham izmimizni bergandik butun*

90.*Do‘stlikning muqaddas qoidasiga.*

91.*Chin dildan rahmatlar ayturmiz bugun*

92.*Saxovatli ellar oilasiga.*

93.*Ammo qolmay deyman she’r gunohiga,*

94.*To vijdon qoshida cho‘kmagayman tiz.*

95.*Do‘stlar, jasoratni gohi-gohida*

96.*Bir oz ko‘pirtirib yozar edik biz.*

97.*Ba’zan o‘zimizga mehrimiz jo‘shib,*

98.*Bir chetda qolardi zaminu zamon.*

99.*O‘zi ham bilmagan xislatin o‘qib*

100. *Uyalib yurardi sho‘rlik qahramon.*

101. *Yetar, mayda-chuyda gina endi bas,*

102. *Ko‘kda yuribdi-ku quyosh muzaffar.*

103. *Avlodlar, siz meni tinglang bir nafas,*

104. *Sizga bir sehrdan berurman xabar.*

105. *Yuz yilda qaytibdi bunday falokat,*

106. *Yuz yil-ku, tarixda - qoshning orasi.*

107. *Aziz nabiralar, unutmang faqat,*

108. *Har bir fojianing bordir chorasi.*

109. *Tuproq qo‘zg‘almasdan o‘rnidan battar,*

110. *Solmasidan avval dahshat, qatag‘on, -*

111. *Yer osti tinch tursin desangiz agar,*

112. *Sizlar yer ustida so‘ylamang yolg‘on!*

EVLATLARA MEKTUP (93)

1. Hayır, yaşayamam asrımdan uzak,

2. Şikâyet de etmem ebedîlik yoluna.

3. Belki bir kimsenin unuttuğu defteri

4. Ansızın ulaştırır bu şiiri size.

5. O zaman bensiz de bilirsiniz bariz

6. Bizim asrımızın büyük afetini.

7. Belki düş görmüş gibi kalırsınız hayrette,

8. İşitip Taşkent’in sabır ve takatini.

9. Kitaptan yılını arayıp o an

10. Belki nefesi kesilir.

11. Lakin karşınızda facia değil,

12. Hoşnut insanların resmi durur.

13. Altında sararan satırlar arasında
14. Kimin sözleri yankılanır mağrur:
15.“Böyle cesareti görmemiş dünya,
16.Çünkü o Sovyetler Taşkent’idir.”
17.O zaman gözünüzün önünde birden
18. Pompeii tarihi kalır küçük bir yara.
19. Dersiniz, ya Taşkent’te hiç konuşulmamış,
20. Yahut dedeler sırlı, böyle.
21. Bizim ruhumuzu uzak yıldız gibi
22. Hayalin asumanında öncüsüz güç bela.
23. Zelzele duyulur muallak bir söz gibi,
24.Düşünürsünüz, dedeler korkmuş, bakın.
25. Dostlar, büyüktü gerçekten facia,
26.Öfkeler toprağa çökmüştü diz.
27. Velakin düşünmeyin sırlısınız diye,
28. Bizler sırlı değil, sıradandık biz.
29. Bu sonsuz âlemin içi ve dışında
30. Ne var? Öncü mü insanlığın gözü?
31. Kim göğüs gererdi dünyanın karşısında,
32. Onu yaratmamışsa eğer kendisi.
33.İnsanlığın hayali ulaşmamış feleğe
34.Eğer insanın başında döndürse taş,
35.Çare yok insana sabırdan başka,
36. Cesaret denmez çaresiz sabır.
37. Dostlarım, hayrette kalmayınız sadece,
38. Gizlilik bizlerin şiirlerine uygundur,
39.Dünya karşısında âciz cesaret
40.İnsan evladına daima hasdır.
41. Yiğidi tanımaz kör facia,
42. Yorulmak da mertliğe getirmesin şüphe.
43. Dedeler çalışmaktan yorgundur diye,
44. Aziz torunlar, düşünürsünüz şüphesiz.
45. Ciltli kitapları gözden geçirip yine
46. Merhametli kalbiniz iç çeker.
47. Ama karşınızda yine merdane
48. Pehlivan kimsenin sureti durur.

49. Altında sararan satırlar arasında
50. Bizim üslubumuz yankılanır mağrur:
51.Böyle emektarı görmemiş dünya,
52.Çünkü o Sovyetler çocuğudur."
53.O zaman gözünüzün önünde birden
54.Küçük karınca kalmalı Ferhad.
55.Küçük cüssenize göz atıp gizlice,
56. Aziz torunlar, koparırsınız feryat.
57.Düşünürsünüz, Alpamış devrinden bu yana
58. Pehlivan geçmemiş bunlar gibi.
59.Düşünürsünüz, bu kadar çabuk yaşlanmış insan.
60. Biz bunların torunları mıyız?
61. Hayır, pehlivan değildik bizler de asla,
62.Cüssemiz küçük diye çekmezdik üzüntü.
63. Bir gün söylemiştir ki Nevâî Dede:
64."Daima başka olur suretle ruh."
65. Dostlarım, hayrette kalmayınız sadece,
66. Dev bakış bizlerin suretine uygundur.
67.Dünya yaratıldığından beri bu emek
68.İnsan evladına daima hastır.
69. Size felaketten verdiğinde haber
70. Dostluk konusunda yazarlar elbet.
71. Yazarlar: "…biz olduk eşsiz birader,
72. Bu haslet bizlere hastır sadece",
73.O zaman gözünüzün önünde hâlsiz
74. Rum, Romulus[96] namustan eder şikâyet.
75.Düşünürsünüz, böyle dostluğu şimdi
76.Görmemiş imiş kadim insanlık.
77. Dostluk insanın ezelî mesleği,
78.Dünya gibi kadimdir basit bir selam.
79.Eğer dostluğu da bilmese asıl
80. Kime gerek artık, insan diye nam!
81. Dostlarım, hayrette kalmayınız sadece,
82. Pehlivan asra laf atmak uygundur.

[96] Kadim Roma'nın ilk çarıdır.

83.İnsan evladına merhamet ile şefkat
84. Hepsine hastı, bize de hastır.
85. Dostlar, büyüktü gerçekten facia,
86. Gerçekten ağırdı meşum esaret.
87. Ama düşünmeyiniz karamsarsınız diye,
88. Bizde de vardı emek, cesaret.
89. Biz de ismimizi vermiştik bütün
90. Dostluğun mukaddes kaidesine.
91. Gerçek gönülden teşekkürler ederiz bugün
92. Eli açık halkların ailesine.
93. Ama kalmadan derim şiir günahına,
94. Ta vicdan önünde çökmeyeceğim hemen.
95. Dostlar, cesareti zaman zaman
96. Biraz abartıp yazardık biz.
97. Bazen kendimize şefkatimiz coşup,
98. Bir kenarda kalırdı zemin ve zaman.
99. Kendisi de bilmediği hasletini okuyup
100. Utanırdı zavallı kahraman.
101. Yeter, ufak tefek kin şimdi yeter,
102. Gökte yürümüş güneş muzaffer.
103. Evlatlar, siz beni dinleyin bir an,
104. Size bir sihirden veririm haber.
105. Yüz yılda dönülmüş böyle felaket,
106. Yüz yıl, tarihte kaşın arası.
107. Aziz torunlar, unutmayın sadece,
108. Her bir facianın vardır çaresi.
109. Toprak uyandırmadan yerinden beter,
110. Vermesinden evvel dehşet, yasak,
111. Yerin altı dinç dursun derseniz eğer,
112. Sizler yerin üstünde söylemeyin yalan! (1966)

"XAT YOZMADIM…" (94)

1. *Xat yozmadim,*
2. *Xabar qilmadim,*
3. *Borolmadim, solib galga gal.*

4. *Qanday ekan onam, bilmadim,*

5. *Yo‘llarimga turgandir mahtal.*

6. *Xat yozarmi o‘g‘lim, deb, zora*

7. *U-ku meni turibdi kutib.*

8. *Men-chi, noshud, bo‘lib ovora*

9. *Avlodlarga yozaman maktub.*

“MEKTUP YAZMADIM…” (94)

1. Mektup yazmadım,

2. Haber vermedim,

3. Gidemedim, koyup sıraya sıra.

4. Nasılmış anam, bilmedim,

5. Yollarıma durmuştur muntazır.

6. Mektup yazar mı oğlum, diye, belki

7. O durmuş beni bekleyip.

8. Ben, işe yaramaz, olup avare

9. Evlatlara yazarım mektup. (1966)

ONAM VAFOTIGA (95)

1. *Makonda lomakonsan, endi qaydan izlagaydurman,*

2. *Fig‘onim kimga aytib, kimga sendan so‘zlagaydurman.*

3. *Birovlar motamida ohu faryod aylagan erdim,*

4. *Sening-chun, ey, g‘aribim, ich-ichimdan bo‘zlagaydurman.*

ANAMIN VEFATINA (95)

1. Evde evsizsin, şimdi nasıl arayacağım,

2. Figanımı kime anlatıp, kime senden bahsedeceğim.

3. Birilerinin mateminde ah u feryat etmiştim,

4. Senin için, ey, garibim, içimden hıçkırarak ağlayacağım. (1966)

KETGANLAR YODI BU (96)

1. *Tush ko‘rdim,*

2. *Tushimda bir dengiz emish,*

3. *To‘lqinlar sapchirmish moviy osmonga.*

4. *Manzil yiroq emish,*

5. *Ufq so‘ngsiz emish,*

6. *Bir kema borarmish o‘sha tomonga.*

7. *Uning sahnasida jami do‘st-yoron,*

8. *Umrlik do‘stlarni ko‘rgan emishman.*

9. *Jannat xayoliday davrada shodon*

10.*Men ham qah-qah urib turgan emishman.*

11.*Kema bir sohilga yetgani mahal*

12.*Meni yo‘l azobi qo‘ymish toldirib.*

13.*Kema jo‘nab ketmish yo‘lida jadal,*

14.*Kema jo‘nab ketmish meni qoldirib.*

15.*Men uning ortidan yugurdim giryon,*

16.*Nogoh ayriliqdan ko‘zlarim yoshlab.*

17.*Nega sen qorong‘u yoqlarga tomon*

18.*Mening do‘stlarimni ketding deb boshlab.*

19.*Tanho yotar edim bo‘m-bo‘sh qirg‘oqda,*

20.*Teppamda yulduzlar chekar edi oh.*

21.*Kema ko‘zdan g‘oyib bo‘lgani chog‘da*

22.*Achchiq yig‘ladimu uyg‘ondim nogoh.*

23.*Bu bir tush-ku, axir, shunchaki ro‘yo,*

24.*Tasalli berardim dilga shu zamon.*

25.*Bu bir tush-ku, axir, boshqa-ku dunyo,*

26.*Lekin tush derdimu yig‘lardim hamon.*

27.*Alam qilmas menga kemadan qolmoq,*

28.*Uyqu-ku, so‘ngiga borib yetgandi.*

29.*Men-ku, bir manzilga tushgandim, biroq*

30.*Kema do‘stlarimni olib ketgandi...*

GİDENLERİN YÂDI BU (96)

1. Düş gördüm,

2. Düşümde bir deniz imiş,

3. Dalgalar sıçrarmış mavi asumana.

4. Menzil uzakmış,

5. Ufuk sonsuzmuş,
6. Bir gemi gidermiş o tarafa.
7. Onun sahnesinde hepsi dost yâren,
8. Ömürlük dostları görmüşmüşüm.
9. Cennet hayali gibi mecliste şâdân
10. Ben de kah kah vurmuş imişim.
11. Gemi bir sahile vardığı zaman
12. Beni yol azabı doldurmuş.
13. Gemi yola çıktığı güzergâhında süratle,
14. Gemi yola çıkmış beni bırakıp.
15. Ben onun ardından koştum giryân,
16. Ansızın ayrılıktan gözlerim yaşlı.
17. Niçin sen karanlık taraflara doğru
18. Benim dostlarıma gittin diye başlayıp.
19. Yalnız yatardım bomboş sahilde,
20. Tepemde yıldızlar çekerdi ah.
21. Gemi gözden kaybolduğu anda
22. Acı acı ağladım ve uyandım ansızın.
23. Bu bir düş, artık, bir tür rüya,
24. Teselli ederdim gönlü o zaman.
25. Bu bir düş, artık, başka ya dünya,
26. Ama düş derdim ve ağlardım hemen.
27. Elem vermez bana gemiden kalmak,
28. Ya uyku, sonuna ermişti.
29. Ya ben bir menzile inmiştim, fakat
30. Gemi dostlarımı alıp gitmişti… (1966)

ONAJON (97)

Onam Turdi Erdona Karvon qizi xotirasiga

I

1. *Necha kunki yo‘q oromim*
2. *Kelolmayman hushimga.*
3. *Onajonim kechalari*

4. *Kirib chiqar tushimga.*

5. *Qo‘llarida oq yelpug‘ich*

6. *Oy nurida yaltirar.*

7. *Onajonim imlab meni*

8. *Qoshlariga chaqirar.*

9. *Keltirarlar goho beshik*

10.*Ko‘zlarida hayajon.*

11.*Yotar payting bo‘ldi-ku der,*

12.*Kela qol, der, bolajon.*

13.*Qaylargadir yuguraman,*

14.*Fig‘onimdan chiqar dud.*

15.*Yig‘lama, deb qo‘llarimga*

16.*Tutqazarlar so‘ng tobut.*

17.*Tongda ruhsiz ko‘z ochaman,*

18.*Qovurilar tanda jon.*

19.*Onajonim, bunday qilma,*

20.*Bunday qilma, onajon.*

21.*Axir o‘zing der eding-ku,*

22.*Silab o‘ksuk boshimni:*

23.*- Endi senga bersin umr,*

24.*Senga bersin yoshimni.*

25.*Afsus, o‘zing erta ketding,*

26.*Erta ketding olamdan.*

27.*Ukalarim bag‘rim ezar,*

28.*Ajradik deb onamdan.*

29.*Bevaqt xazon bo‘lmay har kim*

30.*Yashab o‘tsin dunyoda.*

31.*Onajonim, har kim oshin*

32.*Oshab o‘tsin dunyoda.*

33.*Garchi fano har kimsaga*

34.*Azaliy bir qismatdir.*

35.*Lekin, ona, tiriklik ham*

36.*Bilsang, yarim hikmatdir.*

37.*Tushlarimda, mayli, boshim*

38.*Silab turgin, onajon.*

39.*Qolganlarga endi umr*

40.*Tilab turgin, onajon.*

II

41.*U kun chetda oh chekardim*

42.*G‘ussalarning dastidan.*

43.*Sen otamga pul beribsan*

44.*Yostig‘ingning ostidan.*

45.*Aytibsanki, onasizlik*

46.*Kelmasin hech o‘yiga.*

47.*Sarf qilingiz, menga emas,*

48.*Abdullaning to‘yiga.*

49.*O, o‘g‘lingga sen shafqatni*

50.*Bilarding-ku, onajon.*

51.*Bundan ko‘ra bag‘rim o‘ysang*

52.*Bo‘lardi-ku, onajon.*

53.*Zarragina rahm etgali*

54.*Sabring menga yo‘qmidi?*

55.*Onajonim, bundan o‘zga*

56.*Jabring menga yo‘qmidi?*

57.*Yo‘qmidi hech o‘zga gaping, -*

58.*Nola qilib so‘ylasang.*

59.*Nahot, axir so‘nggi dam ham*

60.*Farzandingni o‘ylasang.*

61.*Axir orzu qochib ketmas,*

62.*Bitkazar-ku tiriklar.*

63.*Onajonim, bir kunini*

64.*O‘tkazar-ku tiriklar.*

65.*Unutilar g‘ussalar ham,*

66.*Orzular ham cho‘zar bo‘y.*

67.*Onajonim, balki bir kun*

68.*Aytganingday bo‘lar to‘y.*

69.*Balki sening qabring uzra*

70.*Ko‘karganda gul, chechak,*

71.*Ostonamga qadam qo‘yar,*

72.*Sen istagan kelinchak.*

73.*Kimdir uning yo‘llariga*

74.*Balki gul ham sochadi.*

75.*Balki munis opajonim*

76.*Kel, deb, quchoq ochadi.*

77.*Balki do‘stlar davrasida*

78.*Kamim bo‘lmas hech qachon.*

79.*Lekin seni o‘sha damda*

80.*Qaydan topay, onajon.*

III

81.*Esimdadir, titrar edim -*

82.*G‘amgin, bolish pastida.*

83.*Kitobimni ko‘rdim nogoh*

84.*Boshginangning ostida.*

85.*Toshday qotdim o‘shal oni*

86.*Bor toqatdan ayrilib.*

87.*- Shoir o‘g‘lim, - deding menga*

88.*Sekingina qayrilib.*

89.*Onajonim, so‘ng bor menga*

90.*Nafas qilding u zamon.*

91.*Shoir bo‘lgin, deya balki*

92.*Havas qilding u zamon.*

93.*Onajonim, balki men ham*

94.*Bir kun shavqqa to‘larman.*

95.*Balki men ham aytganingday*

96.*Bir kun shoir bo‘larman.*

97.*Kuylay desam hurmatingni*

98.*Ushbu kunda tilim lol.*

99.*Balki faqat shu sababli*

100. *Shoir bo‘lsam ehtimol.*

101. *Balki sarson-arosatda*

102. *Qolib ketmas bu tanim,*

103. *Kamolimni ko‘rar balkim,*

104. *Yurtim, ona Vatanim.*

105. *Payti kelib to‘lar bir kun*

106. *Paymona ham beomon.*

107. *Kuzatarlar meni ham so‘ng*

108. *Senga tomon, sen tomon.*

109. *Balki u kun boshim uzra*

110. *Do‘stlar bosh ham egadir.*

111. *O‘sha damgi iqbolim ham,*

112. *Onajonim, sengadir.*

113. *Dilda neki jur’atim bor,*

114. *Dilda neki hayajon,*

115. *Bari, bari senga bo‘lsin,*

116. *Senga bo‘lsin, onajon.*

117. *Senga bo‘lsin bor hayotim,*

118. *Nomim, shonim bir yo‘la.*

119. *Xotirangga ushbu she’rni*

120. *Yozdi o‘g‘ling Abdulla.*

ANACIĞIM (97)

Anam Turdi Erdane Kervan kızının anısına

I

1. Nice gün ki yok huzurum

2. Gelemez aklım başıma.

3. Anacığım geceleri

4. Girip durur düşüme.

5. Ellerinde ak yelpaze

6. Ay ışığında parlar.

7. Anacığım ima edip beni

8. Kaşlarıyla çağırır.

9. Getirirler bazen beşik

10.Gözlerinde heyecan.

11. Yatma vakti geldi der,

12. Geliver, der, çocuğum.

13. Bir yerlere koşarım,

14. Figanımdan çıkar acı.

15.Ağlama, diye ellerime

16. Tuttururlar son tabut.

17. Tanda ruhsuz göz açarım,

18. Kavrulur tende can.

19. Anacığım, böyle yapma,
20.Böyle yapma, anacığım
21. Artık kendin derdin ya,
22. Okşayıp kederli başımı:
23.- Şimdi sana versin ömür,
24. Sana versin yaşımı.
25. Yazık, kendin sabah gittin.
26. Sabah gittin âlemden.
27. Kardeşlerim bağrımı deler,
28. Ayrıldık diye anamdan.
29. Vakitsiz hazan olmadan herkes
30. Yaşayıp gitsin dünyada.
31. Anacığım, herkes aşını
32. Yiyip gitsin dünyada.
33. Gerçi fena herkese
34. Ezelî bir kısmettir.
35. Ama ana, hayat da
36. Bilsen, yarım hikmettir.
37.Düşlerimde, olsun, başımı
38. Okşayıp dur, anacığım.
39. Kalanlara şimdi ömür
40. Dileyip dur, anacığım.

II

41.O gün kenarda ah çekerdim
42.Sıkıntıların yüzünden.
43. Sen babama para vermişsin
44. Yastığının altından.
45. Demişsin ki anasızlık
46. Gelmesin hiç fikrine.
47. Sarf ediniz, bana değil,
48. Abdulla'nın düğününe.
49. Aaa, oğluna sen şefkati
50.Gösterirdin ya, anacığım.
51. Buna göre bağrımı söksen
52. Olurdu, anacığım.
53. Zerre kadar merhamet etmeye

54. Sabrın bana yok muydu?
55. Anacığım, bundan başka
56. Zulmün bana yok muydu?
57. Yok muydu hiç başka sözün,
58. Nale çekip söylesen.
59. Artık son an da mı
60.Çocuğunu düşünsen.
61. Artık arzu kaçıp gitmez,
62.Büyütür ya canlılar.
63. Anacığım, bir gününü
64. Geçirir canlılar.
65. Unutulur sıkıntılar da,
66. Arzular da atar boy.
67. Anacığım, belki bir gün
68. Dediğin gibi olur düğün.
69. Belki senin kabrin üzerinde
70. Yeşerdiğinde gül, çiçek,
71.Eşiğime adım atar,
72. Senin istediğin gelincik.
73. Biri onun yollarına
74. Belki gül de saçar.
75. Belki dost ablacığım
76. Gel, diye, kucak açar.
77. Belki dostlar meclisinde
78. Eksiğim olmaz hiçbir zaman.
79. Ama seni o anda
80. Nereden bulayım, anacığım?

III

81. Aklımdadır, titrerdim
82. Gamlı, minderin altında.
83. Kitabımı gördüm ansızın
84. Başçığının altında.
85. Taş gibi katılaştım o an
86.Bütün takatten ayrılıp.
87.- Şair oğlum, dedin bana
88. Yavaşça eğilip.

89. Anacığım, son defa bana.
90. Nefes oldun o zaman.
91.Şair olsun, diye belki
92. Heves ettin o zaman.
93. Anacığım, belki ben de
94. Bir gün şevkle dolarım.
95. Belki ben de söylediğin gibi
96. Bir gün şair olurum.
97.Şarkı söyleyeyim desem hürmetini
98. Bugünde dilim lal.
99. Belki sadece bu sebepten
100. Şair olsam ihtimal.
101. Belki avare arasatta
102. Kalmaz bu tenim,
103. Erişkinliğimi görür belki,
104. Yurdum, Ana Vatan'ım.
105. Zamanı gelir bir gün
106. Kadeh de amansız.
107. Gözetirler beni de sonra
108. Sana doğru, sana doğru.
109. Belki o gün başımın üstünde
110. Dostlar baş da eğer.
111. O anki ikbalim de,
112. Anacığım, sanadır.
113. Gönülde ne cüretim var,
114. Gönülde ne heyecan,
115. Bütün, hepsi sana olsun,
116. Sana olsun, anacığım.
117. Sana olsun tüm hayatım,
118. Namım, şanım bir yola.
119. Hatırana bu şiiri
120. Yazdı oğlun Abdulla. (1966)

NAY (98)

1. *Yashnardi u adirda durkun,*

2. *Epkinlarga ochgancha quchoq.*
3. *Keldilaru odamlar bir kun*
4. *Tanasiga sanchdilar pichoq.*

5. *Ayirdilar avval ko‘zidan,*
6. *So‘ng bag‘rini oldilar o‘yib:*
7. *Yetmaganday bu ham bo‘g‘zidan*
8. *Pufladilar lablarin qo‘yib.*

9. *Ko‘rmagandi bunchalar xo‘rlik*
10. *Hatto ayoz tilganda yuzin.*
11. *Alamiga chidolmay sho‘rlik,*
12. *Nola tortib yubordi uzun.*

13. *Odamlar-chi, to‘plandi shu on*
14. *Faryodiga qilolmay toqat.*
15. *Bir qamishni yig‘latib chunon,*
16. *So‘ng o‘zlari qildilar rohat.*

NEY (98)

1. Yeşerirdi o kırlarda büyük,
2. Esintilere açıncaya kadar kucak.
3. Geldiler insanlar bir gün
4. Gövdesine sapladılar bıçak.

5. Ayırdılar önce gözünden,
6. Sonra bağrını aldılar oyup:
7. Yetmemiş gibi bu da boğazından
8. Üflediler dudaklarını uzatıp.

9. Görmemişti bu kadar aşağılanma
10. Hatta ayaz kestiğinde yüzünü.

11. Elemine dayanamadan zavallı,

12. Acıyla inledi uzun uzun.

13.İnsanlar, toplandı o an

14. Feryadına edemeyip takat.

15. Bir kamışı toplatıp gayet,

16. Sonra kendileri ettiler rahat. (1966)

SHOIRLAR HAYOTI (99)

(Hazil)

1. *Shoirlar surati turibdi qator,*

2. *Mana bu - Lermontov, mana bu - Furqat.*

3. *Dunyoga sig‘magan buyuklar nochor*

4. *Bugun ramkalardan boqishar faqat.*

5. *Nima ham qilardi bir jonsiz bo‘yoq,*

6. *Parchalab tashlardi tirik bo‘lganda.*

7. *Shoirlar hayoti hamisha shundoq,*

8. *Ramkaga tushadi faqat... o‘lganda.*

ŞAİRLERİN HAYATI (99)

(Gülmece)

1. Şairlerin resmi tutmuş saf,

2. İşte bu, Lermontov, işte bu, Furkat.

3. Dünyaya sığmayan büyükler güçsüz

4. Bugün çerçevelerden bakışır sadece.

5. Ne de yapardı cansız bir büyük,

6. Parçalayıp atardı canlı olduğunda.

7. Şairlerin hayatı daima böyle,

8. Çerçevede kalır sadece… öldüğünde. (1966)

JANNAT (100)

(Hazil)

1. *Ertak degani bu - bolaga ermak,*
2. *Ertak degani bu - shirin aqida.*
3. *Men bir kun ukamga so‘yladim ertak*
4. *Afsonaviy jannat haqida.*
5. *Kavsardan gapirdim unga avvalo,*
6. *So‘ngra maqtab ketdim shiru sharbatni.*
7. *Dam o‘tmay u yig‘i boshladi rosa,*
8. *Topib bergin, dedi, o‘sha jannatni.*
9. *Nima ham der edim, o‘ylasam bundoq,*
10. *Tushibman men o‘zim qo‘ygan tuzoqqa.*
11. *U desam bu dedi, bu desam undoq,*
12. *Xullas, qand-qurs berib boshladim boqqa.*
13. *Jannat deb ko‘rsatdim boqchani andak,*
14. *Mayli, bolaga bu o‘yin bo‘ladi.*
15. *Lekin kattalarga so‘ylamang ertak,*
16. *Ulardan qutulish qiyin bo‘ladi.*

CENNET (100)

(Gülmece)

1. Masalın anlattığı bu, çocuğa eğlence,
2. Masalın anlattığı bu, tatlı akide.
3. Ben bir gün kardeşime anlattım masal
4. Efsanevi gerçek hakkında.
5. Kevserden bahsettim ona
6. Sonra mektebe gittim şir u şerbeti.
7. Zaman geçmeden o ağlamaya başladı çok,
8. Bulup verin, dedi, o cenneti.
9. Ne de derdim, düşünsem böyle,
10. Düşmüşüm ben kendim kurduğun tuzağa.

11.O desem bu dedi, bu desem öyle,
12. Velhasıl, tatlıya bağlayıp götürdüm bağa.
13. Cennet diye gösterdim bahçeyi öyle,
14. Neyse, çocuğa bu oyun olur.
15. Ama büyüklere anlatmayın masal,
16. Onlardan kurtulmak zor olur. (1966)

"CHUVALADI O'YLARIM SENSIZ…" (101)

1. *Chuvaladi o'ylarim sensiz,*
2. *Xayolimga taroq urgayman.*
3. *Mening qo'lim yetmagan yulduz,*
4. *Tushlarimda seni ko'rgayman.*

5. *Balanddasan tog'lar qoridan*
6. *Chaqirasan meni ilgari.*
7. *Yolboraman arvoh ortidan*
8. *Intiluvchi Hamlet singari.*

9. *Mahshargacha, mayliga, ketay,*
10.*Ketay, mayli, bo'lib ovora.*
11.*Seni so'rab qo'ymasa netay*
12.*Yerda qolgan sevgi bechora.*

"KARIŞTI DÜŞÜNCELERİM SENSİZ…" (101)

1. Karıştı düşüncelerim sensiz,
2. Hayalime tarak vuracağım.
3. Benim elimin yetişmediği yıldız,
4. Düşlerimde seni göreceğim.

5. Yüksektesin dağların karından
6. Çağırırsın beni ileri.
7. Yalvarırım ervah ardından

8. Meyilli Hamlet gibi.

9. Mahşere kadar, peki, gideyim,
10. Gideyim, neyse, olup avare.
11. Seni sormazsa ne çare
12. Toprakta kalan sevgi biçare. (1966)

“YOMG‘IRLI KUN EDI…” (102)

1. *Yomg‘irli kun edi,*
2. *Atrof jim, sokit,*
3. *Ma’yus ko‘zlaringga boqardim sarmast.*
4. *Sekin shivirlading: - Boqmagil, yigit,*
5. *Sevging menga yangilik emas...*

6. *Yomg‘ir ham tinmadi o‘sha kuni hech,*
7. *U ham quvolmadi ko‘zdan xobingni.*
8. *Sovuq, rutubatli xonamga shu kech*
9. *Olib qaytdim iztirobingni.*

10.*Tunda ham jimgina yosh to‘kdi osmon,*
11.*U mening holimga yig‘lar edi, bas!*
12.*Bas, do‘stim, meni deb chekmagil fig‘on,*
13.*Sening ko‘z yoshing ham yangilik emas.*

“YAĞMURLU BİR GÜNDÜ…” (102)

1. Yağmurlu bir gündü,
2. Etraf sessiz, suskun,
3. Meyus gözlerine bakardım sarhoş.
4. Yavaşça fısıldadın: - Bakma, delikanlı,
5. Sevgin bana iyilik değil…

6. Yağmur da dinmedi o gün hiç,
7. O da kovamadı gözden uykuyu.
8. Soğuk, rutubetli odama bu gece
9. Alıp döndüm ızdırabını.

10. Geceleyin de sessizce yaş döktü asuman,
11.O benim hâlime ağlardı, yeter!
12. Yeter, dostum, bana diye çekme figan,
13. Senin gözyaşın da iyilik değil. (1966)

"OSMON UFQLARGA..." (103)

1. *Osmon ufqlarga separ kul rangin*
2. *Bulutlar chopadi, horg'in beega.*
3. *Havo nega muncha ma'yus,*
4. *Havo nega muncha g'amgin:*
5. *Oh, men sendan ajraldim nega!..*

"ASUMAN UFUKLARA…" (103)

1. Asuman ufuklara serper kül rengini
2. Bulutlar koşar, yorgun başına buyruk.
3. Hava niye bu kadar meyus,
4. Hava niye bu kadar gamlı:
5. Ah, ben senden ayrıldım niye!.. (1966)

SAROB (104)

1. *Olti oykim, she'r yozmayman, yuragim zada,*
2. *Olti oykim o'zgalarga tilayman omad.*
3. *Olti oykim, do'stlarim ham pana-panada*
4. *Iste'dodim so'nganidan qilar karomat.*
5. *Nimanidir axtaraman - she'rdan ham ulug',*
6. *Nimanidir axtaraman - nondan azizroq.*
7. *Dunyo o'zi bepoyon-ku, ranglarga to'lug',*

8. *Biroq mening ko‘zlarimdan ranglar ham yiroq.*

9. *Injiq ruhim may istaydi gohi-gohida,*

10.*Faqat uning og‘ushida topaman orom.*

11.*Xayollarim sarxush bo‘lib kezgan chog‘imda*

12.*U bearmon kunlarimga qaytaman tamom.*

13.*Ko‘z oldimda kiprikdayin tizilar yillar,*

14.*Har biriga marjon bo‘lar achchiq unlarim.*

15.*Xira tuman orasida cho‘g‘day miltillar,*

16.*Jayron quvib jayron yanglig‘ o‘tgan kunlarim.*

17.*O‘shanda ham bo‘lar edi osmonu adir,*

18.*O‘shanda ham kezar edik shundoq yalang bosh.*

19.*Bilmas edik kitob nima, shahar nimadir...*

20.*Enagamiz tunda oyu, kunduzi quyosh,*

21.*Quyundayin charx urardik doim to‘zonda,*

22.*Chang neligin bilmas edik o‘sha mahali.*

23.*Onamizni o‘ylar edik inson deganda,*

24.*Ammo ona tanholigin bilmasdik hali.*

25.*Balolardan asrar edi o‘zi tabiat,*

26.*Boshimizga sochar edi beminnat ziyo,*

27.*To‘nkarilgan osmon osti - shu sirli xilqat*

28.*Bizning uchun ham kulba-yu ham buyuk dunyo.*

29.*Kunlarimiz jilg‘alarday o‘tdilar oqib,*

30.*Maktab bordik - og‘ir bo‘lib qoldik daf’atan.*

31.*Devordagi arslon yolli kartaga boqib,*

32.*Sekingina shivirlashdik: mana shu Vatan!*

33.*Vatan! Mening bor qismatim shu bir so‘zda hal,*

34.*Balki men ham baxsh eturman unga jon-tanni.*

35.*Lekin do‘stlar, rostin aytsam, men o‘sha mahal, -*

36.*Jondan ortiq sevar edim ona-Vatanni.*

37.*Do‘stlik bilan bir butundir, derdilar dunyo,*

38.*Men ham mangu do‘stlik uchun ichardim qasam.*

39.*Tayyor edim Rahimovday bo‘lgali fido,*

40.*O‘ylar edim, do‘stlar uchun jangga yarasam.*

41.*Ko‘z oldimda shu qadarli pok edi olam,*

42.*Go‘yo nurdan yaralgandi inson degan zot.*

43.*Ha, onamni o‘ylar edim inson degan dam,*

44.*Yo‘q, maymundan tarqamagan derdim odamzod.*

45.*Bu dunyoda alam bo‘lmas, bo‘lmas deb firoq*

46.*Dasta-dasta kitoblardan o‘qirdik ta’lim.*

47.*Ravon yo‘llar qarshingizda turibdi mushtoq,*

48.*Derdi bizga harf o‘rgatgan yosh bir muallim.*

49.*Olis janub tortganiday qushcha yuragin,*

50.*Yiroqlarga yetakladi meni bir suron.*

51.*O, Abdulla, ko‘zlaringni ochib qaragin,*

52.*Kim aytadi bu dunyoda yo‘qdir deb bo‘ron.*

53.*Yillar ona quchog‘idan oldi-ku yulib,*

54.*Savdolarga urdi meni murg‘ak yoshimdan.*

55.*Bir mahallar quyundayin yurardim yelib,*

56.*Endi bo‘lsa u aylanar mening boshimdan.*

57.*She’r izlayman bu kun Toshkent ko‘chalarida,*

58.*Sekingina zirqiraydi beorom qalbim.*

59.*Men umrimning bu suronli kechalarida*

60.*Na bir taskin topa oldim, na she’r topoldim.*

61.*Yuragimga bir mahallar kirgan tuyg‘ular*

62.*Endi sendan ketgaymiz deb so‘raydi javob.*

63.*Meni bir zum hol-jonimga qo‘ymaydi ular,*

64.*Qo‘ymaydilar, va’dalaring chiqdi deb sarob.*

65.*Ko‘z oldimda sobit turar faqat shu Vatan,*

66.*Kulbasi ham kenglik qadar chulg‘aydi meni.*

67.*Tuyg‘ularim faqatgina unga berar tan,*

68.*Yurtim, men ham umrim qadar sevgayman seni.*

69.*Men ham sening quyoshingda o‘sib-ulg‘aydim,*

70.*Qarzdorman, tuprog‘ingda qoldirdim izlar,*

71.*Ammo ayting, qayda qoldi u yoshlik paytim,*

72.*Qayda qoldi men ishongan u o‘zga hislar.*

73.*Ta’na qilmay axir sevgim mukofotini*

74.*Inson uchun ming otashda kuyar edim men.*

75.*O, qanchalar sevar odim inson zotini,*

76.*Qanday buyuk muhabbat-la sevar edim men.*

77.*Bugun to‘nib, atrofimga qarayman sekin,*

78.*O‘t berolmas qalbga endi u yoshlik damlar.*

79.*Men insonni bir insonday sevardim, lekin*

80.*Nechun ko‘pdir haligacha razil odamlar.*

81.*Qaylardadir hamon kezar zulmat timsoli,*

82.*Qaylardadir hamon tinmay oqmoqda-ku qon.*

83.*Ko‘zlarimga goh ko‘rinar telba misoli*

84.*Men bir vaqtlar sajda qilgan hazrati inson.*

85.*Qaylardadir fisqu fasod, hasad, xusumat,*

86.*Insoniyat farzandlarin tortmoqda dorga.*

87.*Gar bor bo‘lsang javob ber, ey ilohiy qudrat,*

88.*Nahot go‘dak ishonchini yozibsan qorga?!*

89.*Olti oykim, ruhim shunday uchmish tanadan,*

90.*Olti oykim, meni xayol ezar beomon,*

91.*Olti oykim allakimlar pana-panadan*

92.*Tosh otadi darvozasiz qalbimga tomon.*

93.*Shovqin to‘la ko‘chalarda kezaman tanho,*

94.*Yana she’rim yuva boshlar dildan g‘amimni,*

95.*Xayollarning girdobida qolganda ammo*

96.*Alam bilan xotirlayman muallimimni.*

97.*Xazon to‘la bog‘chalarga boraman, tag‘in,*

98.*Yana o‘zni xayol ila she’rga tashlayman.*

99.*To‘nib qolgan yuragimga berib bir taskin*

100. *Yana quvnoq qo‘shiqlarni kuylay boshlayman.*

101. *Ne tong, axir farzandmiz-ku shu zamonaga,*

102. *Axir ona siynasidan farzand tonolmas,*

103. *Qo‘l ko‘tarib bo‘larmidi axir onaga,*

104. *Zotan, unga qo‘l ko‘targan - farzand sanalmas.*

SERAP (104)

1. Altı aydır, şiir yazmıyorum, yüreğim usanmış,

2. Altı aydır başkalarına dilerim şans.

3. Altı aydır, dostlarım da sığınak

4. İstidadım köreldiğinden gösterir keramet.

5. Neyi ararım, şiirden de ulu,

6. Neyi ararım ekmekten daha aziz.

7. Dünyanın kendisi sonsuz, renklerle dolu,

8. Fakat benim gözlerimden renkler de uzak.

9. Kaprisli ruhum şarap ister zaman zaman,
10. Sadece onun kucağında bulurum huzur.
11. Hayallerim sarhoş olup gezdiği anda
12.O ukdesiz günlerime dönerim tamam.
13.Gözümün önünde kirpik gibi dizilir yıllar,
14. Her birine mercan olur acı seslerim.
15. Bulanık duman arasında kor gibi ışıldar,
16. Ceylan kovalayıp ahu gibi geçen günlerim.
17.O zaman da olurdu asuman ve kırlar,
18.O zaman da gezerdik böyle saftık.
19. Bilmezdik kitap ne, şehir nedir…
20. Dadımız geceleyin ay, gündüz güneş,
21. Hortum gibi çark çevirirdik daima tozda,
22. Tozun ne olduğunu bilmezdik o zaman.
23. Anamızı düşünürdük insan denilince,
24. Ama ananın eşsizliğini bilmezdik henüz.
25.Çocuklardan korurdu kendisi tabiat,
26. Başımıza saçardı minnetsiz ışık.
27. Devrilen asumanın altı, bu sırlı hilkat
28. Bizim için de kulübe de büyük dünya.
29.Günlerimiz çaylar gibi geçti akıp,
30. Mektebe gittik, zorlandık birden.
31. Duvardaki aslan yeleli resme bakıp,
32. Yavaşça fısıldaştık: İşte bu Vatan!
33. Vatan! Benim bütün kısmetim bu bir sözde hal,
34. Belki ben de bahşederim ona canı bedeni.
35. Ama dostlar, doğrusunu söylersem, ben o zaman,
36. Canımdan fazla severdim Ana Vatan'ı.
37. Dostlukla bir bütündür, derdiler dünya,
38. Ben de ebedî dostluk için içerdim ant.
39. Hazırdım Rahimov gibi olalı feda,
40.Düşünürdüm, dostlar için savaşa girebilsem.
41.Gözümün önünde bu kadar temizdi âlem,
42. Sanki ışıktan yaratılmıştı insan denen zat.
43. Evet, anamı düşünürdüm insan dendiği an,
44. Yok, maymundan türememiş derdim insanoğlu.

45. Bu dünyada elem olmaz, olmaz diye ayrılık
46. Deste deste kitaplardan alırdık talim.
47.Pürüzsüz yollar karşınızda durmuş muntazır,
48. Derdi bize harf öğreten genç bir muallim.
49. Uzak güneyin çektiği gibi kuşcağız yüreğini,
50. Uzaklara götürür beni bir uğultu.
51. Aaa, Abdulla gözlerini açıp bak,
52. Kim der bu dünyada yoktur diye boran.
53.Yıllar ana kucağından aldı koparıp,
54. Sevdalara vurdu beni küçük yaşımdan.
55. Bir zamanlar hortum gibi giderdim esip,
56.Şimdi ise o dolaşır benim başımda.
57.Şiir ararım bugün Taşkent sokaklarında,
58. Yavaşça sızlar huzursuz kalbim.
59. Ben ömrümün bu uğultulu sokaklarında
60. Ne bir teskin bulabildim, ne şiir bulabildim.
61.Yüreğime bir zamanlar giren duygular
62.Şimdi senden gideceğiz diye ister cevap.
63. Beni bir an kendi hâlime bırakmaz onlar,
64.Bırakmazlar, sözlerin çıktı diye serap.
65.Gözümün önünde sabit durur sadece bu Vatan,
66. Kulübesi de genişlik kadar sarardı beni.
67. Duygularım yalnız ona eder takdir,
68. Yurdum, ben de ömrüm kadar seveceğim seni.
69. Ben de senin güneşinde büyüyüp gelişirdim,
70. Borçluyum, toprağında bıraktım izler,
71. Ama söyleyin, nerede kaldı o gençlik çağım,
72. Nerede kaldı inandığım o başka hisler?
73. Sitem etmeden artık sevgimin mükâfatını
74.İnsan için bin ateşte yanardım ben.
75. Aaa, ne kadar severdim insan zatını,
76. Ne kadar büyük muhabbetle severdim ben.
77. Bugün bakıp, etrafıma göz atarım yavaşça,
78. Ateş veremez kalbe şimdi o gençlik zamanları.
79. Ben insanı bir insan gibi severdim, ama
80. Niçin çoktur hâlâ rezil insanlar.

81. Bir yerlerde hâlâ gezer zulmet timsali,
82. Bir yerlerde hâlâ durmadan akmakta ya kan.
83.Gözlerime bazen görünür divane misali
84. Ben bir zamanlar secde eden hazreti insan.
85. Bir yerlerde fısk u fesat, haset, husumet,
86.İnsaniyet evlatlarını çekmekte dara.
87.Eğer var isen cevap ver, ey ilahi kudret,
88.Çocuk inancını yazmış mısın kara?!
89. Altı aydır ruhum böyle uçmuş bedenden,
90. Altı aydır beni hayal ezer amansız,
91. Altı aydır birileri sığınaktan
92. Taş atar kapısız kalbime doğru.
93.Gürültülü sokaklarda gezerim yalnız,
94. Yine şiirim yıkamaya başlar gönüldeki gamımı,
95. Hayallerin girdabında kaldığında ama
96. Elemle hatırlarım öğretmenimi.
97. Hazanla dolu bahçelere giderim, yine,
98. Tekrar kendimi hayal ile şiire bırakırım.
99. Bakakalan yüreğime verip bir teskin
100. Yine neşeli koşukları söylemeye başlarım.
101. Tan vaktinin, artık çocuğuyuz bu zamanın,
102. Artık ana bağrındaki çocuk inkâr edemez,
103. El kaldırabilir miydi artık anaya,
104. Zaten, ona el kaldıran, evlat sayılmaz. (1966)

TABIAT (105)

1. *Uzoqlarda qoldi tug‘ilgan uyim,*
2. *Ajib bolaligim qoldi uzoqda.*
3. *Qoldi hommopishga ko‘milgan o‘yim.*
4. *Qoldi singillarim bari yiroqda.*
5. *Endi men eslayman ko‘zlarimda nam,*
6. *O‘sha yillarimning otash sehrini.*
7. *Qo‘msab talpinaman gohi-gohi dam*
8. *Munis singillarim ma’yus mehrini,*
9. *Shunday paytda o‘zing aylagil shafqat,*

10.*Singil bo‘la qolgil, menga, tabiat.*

11.*Aqlim tanidimu qoshimda shu kun,*
12.*Jasur akalarim safini ko‘rdim.*
13.*Ularning bari ham botir va durkun,*
14.*Men ular safiga she’r bilan kirdim.*
15.*Endi men eslayman ko‘zlarimda nam,*
16.*O‘sha davralarning otash sehrini.*
17.*Qo‘msab talpinaman gohi-gohi dam,*
18.*Jasur akalarim ajib mehrini.*
19.*Shunday paytda o‘zing aylagil shafqat,*
20.*Aka bo‘la qolgil menga, tabiat.*

21.*O‘tgan kunlarimga boqib muntazir,*
22.*Sog‘inchdan yonadi yongan bu jonim.*
23.*Afsuski, yonimda emassiz hozir,*
24.*Donishmand ustozim - siz, otajonim.*
25.*Endi men eslayman, ko‘zlarimda nam.*
26.*Hikmatli so‘zlarning otash sehrini.*
27.*Qo‘msab talpinaman gohi-gohi dam,*
28.*Donishmand otamning shafqat, mehrini.*
29.*Shunday paytda o‘zing aylagil shafqat,*
30.*Ota bo‘la qolgil menga, tabiat.*

31.*Men aziz onamni tuproqqa qo‘ydim,*
32.*Hali tingan emas ko‘zdagi yoshim.*
33.*Olis kechalari hijronda kuydim.*
34.*Endi qay siynaga qo‘yaman boshim.*
35.*Endi men eslayman ko‘zlarimda nam,*
36.*Ona degan so‘zning qaytmas sehrini.*
37.*Qo‘msab talpinaman har zum, har qadam*
38.*Onam og‘ushini, onam mehrini.*
39.*Shunday payt ham o‘zing aylagil shafqat,*
40.*Ona bo‘la qolgil menga, tabiat.*

TABİAT (105)

1. Uzaklarda kaldı doğduğum evim,
2. Mükemmel çocukluğum kaldı uzakta.
3. Kaldı hommapişe[97] gömülen fikrim.
4. Kaldı kız kardeşlerim hepsi uzakta.
5. Şimdi ben hatırlarım gözlerimde nem,
6. O yıllarımın ateşli sihrini.
7. Özleyip çırpınırım zaman zaman
8. Munis kız kardeşlerimin meyus şefkatini,
9. Böyle anda kendin göster şefkat,
10.Kız kardeş ol, bana, tabiat.

11. Aklım tanıdım ve karşımda bu gün,
12. Cesur abilerimin safını gördüm.
13. Onların hepsi de bahadır ve iri,
14. Ben onların safına şiirle girdim.
15.Şimdi ben hatırlarım gözlerimde nem,
16.O meclislerin ateşli sihrini.
17.Özleyip çırpınırım zaman zaman,
18. Cesur abilerimin mükemmel şefkatini.
19.Böyle anda kendin göster şefkat,
20. Abi oluver bana, tabiat.

21. Geçen günlerime bakıp muntazır,
22. Hasretten yanar yanan bu canım.
23. Ne yazık ki, yanımda değilsiniz şimdi,
24. Bilge üstadım, siz, babacığım.
25.Şimdi ben hatırlarım, gözlerimde nem.
26. Hikmetli sözlerin ateşli sihrini.
27.Özleyip çırpınırım bazı bazı zaman
28. Danişment babamın şefkatini, sevgisini.

[97] Xommapish: Çocukların topraktan bir kubbe yapıp üzerine su serptiği, üst ve yanlarında delik açıp içinde ateş yaktığı bir oyundur.

29.Böyle anda kendin göster şefkat,
30. Baba oluver bana, tabiat.

31. Ben aziz anamı toprağa gömdüm,
32. Henüz dinmiş imiş gözdeki yaşım.
33. Uzun geceleri hicranda bıraktım.
34.Şimdi hangi kız kardeşime koyarım başımı.
35.Şimdi ben hatırlarım gözlerimde nem,
36. Ana denen sözün bitmeyen sihrini.
37.Özleyip çırpınırım her an her adım,
38. Anamın kucağını, anamın sevgisini.
39.Böyle zaman da kendin göster şefkat
40. Ana oluver bana, tabiat. (1966)

ALVIDO, USTOZ (106)

(G‘afur G‘ulom xotirasiga)

1. *Zo‘r karvon yo‘lida yetim bo‘tadek*
2. *Intizor ko‘zlarda halqa-halqa yosh...”*
3. *Sarbonim, qo‘lingdan ketdimikan erk,*
4. *Sarbonim, ne uchun ko‘tarmaysan bosh.*

5. *So‘qir, yovuz o‘lim, ming dod dastingdan,*
6. *Zulmatday kirdingmi she’r maydoniga.*
7. *Ajal, sen nayzangni sanchdingmi chindan*
8. *O‘zbek she’riyatin pahlavoniga.*

9. *Olis fazolarga ketgan ham qaytar,*
10.*Botguvchi quyosh ham chiqar bilmay had.*
11.*Nahot ona xalqim alvido aytar*
12.*Bugun G‘afur G‘ulom boshida abad?*

13.*Ilk bora jigarim silqidi balkim,*

14.*Lol qotgan tilimga kelmadi kalom.*

15.*Yig‘la, onajonim, ey ona xalqim,*

16.*Bugun yo‘q qoshingda farzandi G‘ulom.*

17.*Dardli musiqalar, ingrangiz bir-bir,*

18.*O‘zing ham yig‘la, ey, dilda qotgan g‘am.*

19.*Yorug‘ bu olamda bormikan, axir*

20.*Shoir vafotidan ortiqroq motam!*

21.*Zor yig‘lab navosiz qolmagay dunyo,*

22.*O‘zi chora topmay yig‘lagay alam.*

23.*Shogirdlar qo‘lidan tushmagay aslo*

24.*Sening qo‘llaringdan tushgan shu qalam.*

ELVEDA, ÜSTAT (106)

(Gafur Gulam’ın anısına)

1. “Mükemmel kervan yolunda yetim köşek gibi

2. Hasret gözlerde damla damla yaş…”

3. Sarbanım, elinden gitti mi özgürlük,

4. Sarbanım, niçin kaldırmazsın baş?

5. Kör, amansız ölüm, bin feryadın elinden,

6. Karanlık gibi girdin mi şiir meydanına?

7. Ecel, sen süngünü sapladın mı gerçekten

8. Özbek şiirinin pehlivanına?

9. Uzak fezalara giden de döner,

10. Batan güneş de çıkar bilmeden had.

11. Ana halkım elveda der mi

12. Bugün Gafur Gulam’ın başında ebed?

13.İlk kez ciğerim sızladı belki,
14. Lal olan dilime gelmedi kelam.
15.Ağla, anacığım, ey ana halkım,
16. Bugün yok karşında evladın Gulam.

17. Dertli müzikler, inleyiniz bir bir,
18. Kendin de ağla, ey, gönle yerleşen gam.
19. Aydınlık bu âlemde var mı, artık
20.Şairin vefatından daha fazla matem!

21.Hıçkırarak ağlayıp nalesiz kalmayacak dünya,
22. Kendisi çare bulmadan ağlayacak elem.
23.Öğrencilerin elinden düşmeyecek asla
24. Senin ellerinden düşen bu kalem. (1966)

BAHOR SHAMOLI (107)

1. *Bahor kelayotir,*
2. *Toza, musaffo.*
3. *Moviy kengliklarda o‘ynaydi shamol.*
4. *Daralar qo‘ynida zangor bir havo,*
5. *Tumanli shahr ichra yotmoqlik malol.*

6. *Qoyalar ko‘ksida shodmon, beqayg‘u,*
7. *Oniy umri bilan sollanar chechak.*
8. *Bahor bu - eng toza shabbodadir bu,*
9. *Bahor bu - eng toza shamoldir demak.*

10.*Kengliklar bag‘riga uraman o‘zni,*
11.*Ko‘zimga ko‘ringay dilbar diyorim.*
12.*Go‘dak nafasidek yupatar yuzni*
13.*Qish bo‘yi intizor kutgan bahorim.*

14.*Bahor-ku o‘tadi shamoldek shitob,*

15.*Mayli, o‘tajak u va o‘tar bo‘lsin.*

16.*Azizim, umringda havo bo‘lsin sof,*

17.*Umring shamollari muattar bo‘lsin.*

BAHAR RÜZGÂRI (107)

1. Bahar gelir,

2. Temiz, saf.

3. Mavi enginlerde hareket eder rüzgâr.

4. Derelerin bağrında mavi bir hava,

5. Sisli şehir içinde yatan melal.

6. Kayaların göğsünde mutlu, kaygısız,

7. Anlık ömrüyle sallanır çiçek.

8. Bahar bu, en temiz esintidir bu,

9. Bahar bu, en temiz rüzgârdır demek.

10. Enginlerin bağrına vururum kendisini,

11.Gözüme görünsün dilber diyarım.

12. Bebek nefesi gibi kapatır yüzünü

13.Kış boyu intizar bekleyen baharım.

14. Bahar geçer rüzgâr gibi hızlı,

15. Tamam, ötecek o ve ötüyor olsun.

16. Azizim, ömründe hava olsun saf,

17.Ömrün rüzgârları rayihalı olsun. (1966)

YURAK VA AQL (108)

(Erkin Vohidovga hazil)

1. *Aql deydi: - Ichma ichimlik,*

2. *Zakuskasi bo‘lmasa aslo.*

3. *Yurak deydi: - Faqat ichaylik,*

4. *Ichmaslikdan bormi hech ma’no.*

5. *Aqlingga hech quloq solma deb*

6. *O‘rgatgandi shoir, na chora.*

7. *Yuragining gapiga kirib*

8. *“Yazva” bo‘lib qoldi bechora.*

YÜREK VE AKIL (108)

(Erkin Vahidov’a latife)

1. Akıl der: - İçme içki,

2. Abur cuburu olmasa asla.

3. Yürek der: - Sadece içelim,

4. İçmemek için var mı hiç sebep?

5. Aklına hiç kulak asma diye

6. Öğretmişti şair, ne çare.

7. Yüreğinin lafına kanıp

8. “Ülser” olup kaldı biçare. (1966)

BAHOR (109)

1. *Yana bahor keldi. Yana olamda*

2. *Ajib bir go‘zallik, ajib bir bayot.*

3. *Men seni qutlayman shu ulug‘ damda,*

4. *Ulug‘ yelkadoshim, muzaffar hayot!*

5. *Tashbih axtarmangiz ushbu g‘azaldan,*

6. *Nakd joyda nasiya ne kerak asli.*

7. *Ayon bir xislating bordir azaldan,*

8. *Seni atamishlar uyg‘onish fasli!*

9. *Yellar ham uyg‘ondi ishqalab kaftin,*

10.*Oftob ham yuksaldi - tik kelar quyosh.*

11.*Tog‘lar ham yuk tashlab ko‘tardi kiftin,*

12.*Bezavol maysa ham silkitadi bosh.*

13.*Tarnovlar bo‘g‘zida lola ham ko‘rkam,*

14.*Terak uchlarida izg‘ir mavjudot.*

15.*Hattoki tuyg‘usiz, chirik xazon ham*

16.*Yashil po‘panakdan bog‘labdi qanot.*

17.*Hovliqma jilg‘alar chopar beega,*

18.*Qushlar qiy-chuviga to‘lmish dala, bog‘.*

19.*Sening visolingdan quvonmay nega,*

20.*Bahor, sog‘intirding axir ko‘p uzoq!*

21.*Yaldo kechasiday rutubatli qish*

22.*Soldi ruhimizga og‘ir bir surur.*

23.*Sen kelding, uyg‘ondi yana sho‘x olqish,*

24.*Yig‘lagan ko‘zlarga tushgan kabi nur.*

25.*Ha, mangu zavollik bo‘lmas olamda*

26.*To suyin socharkan abri naysonlar.*

27.*Men sizni eslayman ammo shu damda,*

28.*Manguga ko‘z yumgan aziz insonlar.*

29.*Azaliy hukmini o‘qidi hayot, -*

30.*Necha bor samo ham ko‘mdi quyoshin.*

31.*Iqboli sajdagoh bo‘lganlar, hayhot,*

32.*O‘zlari tuproqqa qo‘ydilar boshin.*

33.*O‘n oykim, so‘nmishdir u tanish na’ra.*

34.*Hamon firog‘ida fig‘on chekar Shosh.*

35.*Bahor kelayotir, bosh ko‘tar, qara,*

36.*O, surur kuychisi, dongdor zamondosh.*

37.*Hamsuhbat bo‘lmadim (kim edim zotan),*

38.*Tavob ham qilmadim gulshan makoning.*

39.*Lekin she’r bahosi muxlisgadir tan,*

40.*Qanday cheksiz edi ruhiy poyoning!*

41.*Bugun-chi, ne kezar o‘tli qoningda!*

42.*Evoh, unda na she’r, na may, na safo.*

43.*Bu qanday muloqot? Ne hol? Yoningda*

44.*Joy olmish o‘zga bir suyukli daho.*

45.*Baqiyos edi u she’r lochini!*

46.*Xayoli bamisli Ko‘ragoniydek.*

47.*Gar tarix evrilsa, shuhrat tojini*

48.*Unga kiygizardi Sulton Ulug‘bek.*

49.*Balxdan horib qaytgan Alisher misol*

50.*Endi to‘lg‘izgandi cho‘kkan dovotin.*

51.*Ketdi bir pok siymo, teran bir xayol,*

52.*Qoldirib dunyoda hech o‘chmas otin.*

53.*Baqo-yu bebaqo ayon buyuklik*

54.*O‘tdi so‘nggi damda bosh egib quyi.*

55.*Faqat bilganidan qolmas tiriklik,*

56.*Mana, gulga cho‘mmish Chig‘atoy bo‘yi.*

57.*Bu sokin elda ham ivirsir bahor,*

58.*O‘chgan xotiralar chirog‘in yoqib.*

59.*Qarayman, qabrlar yastanmish qator,*

60.*Ma’sum binafshadan sirg‘alar taqib.*

61.*Kimningdir ko‘ksiga engashgancha gul*

62.*Marmar sag‘anadan o‘qib turar bayt.*

63.*Bahor, qatra yoshim aylagil qabul,*

64.*Onam boshiga ham bordingmikan, ayt?!*

65.*Uning oromgohi bundan olis joy,*

66.*Olisda yotibdi mening panohim.*

67.*Bugun ketganiga to‘libdi besh oy,*

68.*Besh oykim, ko‘ksimda yonadi ohim.*

69.*Faryod chekkanim yo‘q el ichra taqir,*

70.*O‘ch ham olmadim men o‘z qalamimdan.*

71.*Onajon, onajon, kechirgil axir,*

72.*Shodlanmasin dedim birov g‘amimdan.*

73.*Dunyodan ketmasin hech kim bemahal,*

74.*Hech kimni bosmasin nogahon o‘kinch.*

75.*Ammo o‘z boshiga kelmaguncha gal,*

76.*Onajon, tosh qalblar turarmidi tinch.*

77.*Kuylarman xotirang balki vaqt yetib,*

78.*Bir umr o‘rtanur lekin tanda jon.*

79.*Suronlar yo‘limda turibdi kutib,*

80.*O‘zing qo‘lla endi meni, onajon.*

81.*Bugun atrofingda bahordir balki,*

82.*Balki shabnam ichra g‘arqdir hazin tosh.*

83.*Maysalar tengrangda qatordir balki,*

84.*Lekin sen yotasan ko‘tarolmay bosh...*

85.*Bunchalar qattolsan, o sirli olam,*

86.*Bunchalar bedilsan, bepoyon xilqat.*

87.*Sening hikmatingning so‘ngi-ku odam,*

88.*Nahotki shunga ham qilmaysan shafqat.*

89.*Maysa ham uyg‘onar qayta qish o‘tib,*

90.*Zarracha bo‘lsa ham bir himmat unga.*

91.*Nahotki eng ulug‘ farzanding ketib,*

92.*Boshin ko‘tarolmay yotsa manguga.*

93.*Onamni so‘rayman sendan erta-kech,*

94.*Qaytar deb so‘rayman chok etib yaqo.*

95.*Lekin mening dardli savolimga hech*

96.*Javob berolmassan, o, soqov daho!*

97.*Javob olabildi hech kim ham zotan:*

98.*Na sulton, na gado, na shoh, na faqir.*

99.*Kim qancha quvmasin sening ortingdan*

100. *Bir uyum tuproqni ko‘rsatding axir.*

101. *Hayot talvasasi tinmagay, ammo*

102. *Mangu boqiy qolur Inson va Xayol.*

103. *Meros atalmagay barchaga fano,*

104. *Qismat atalmagay har kimga zavol.*

105. *Faqat o‘tmish bilan yashamas inson,*

106. *Garchand bo‘lolmaydi undan hech ozod...*

107. *Kechagi g‘amini o‘ylasa obdon*

108. *Bukchayib qolardi bugun odamzod.*

109. *Ketgan azizlarni xotirlab goho,*

110. *Mayliga, chekaylik bir zumgina oh.*

111. *Hayot tantanasi boshlanmish, ammo,*

112. *Do‘stlar, nur vasliga tashlaylik nigoh.*

113. *Shu buyuk oftobning mukofotini*

114. *E’zozlab qo‘yaylik aytib shukrona.*

115. *Dildan o‘chiraylik g‘amning otini,*

116. *Bahor ham baxt kabi axir yagona.*

117. *Bu kun she’ri chiqqan shoirday dunyo*

118. *Jilmayib qo‘yadi barchaga masrur.*

119. *Temurbek gumbazin qo‘ynini go‘yo,*

120. *Yoritgani kabi bir lahzalik nur.*

121. *Dilbar kelinchakning ko‘ksida g‘ulu,*

122. *Zardolu shoxiga tashlar ko‘z qirin.*

123. *Barg aro shu’lalar kaftlarmikan u...*

124. *Bahor tetapoya go‘dakday shirin.*

125. *Yuksak arg‘uvonning uchida hilol*

126. *Paxmoq bulutlarni etadi nimta.*

127. *Qaydadir shoira kuylaydi behol:*

128. *- Ko‘nglim ham bu kecha oyday yarimta...*

129. *Uvada kamzulda billur tugmaday*

130. *Bulutlar ortidan boqadi yulduz.*

131. *Qaydadir yurtini eslab ingrar nay,*

132. *Qaydadir qo‘zigul yoradi ildiz.*

133. *Qaydadir gulshandan axtarib visol*

134. *Yel kezar - tog‘larning go‘zal arvohi.*

135. *Shoirning dilrabo baytlari misol*

136. *Oh tortib tizilar turnalar gohi.*

137. *Qizg‘aldoq bargidek uchar dildan g‘am,*

138. *Toshqinlar kiradi qalbimga manim.*

139. *Bahoring muborak bo‘lsin ushbu dam,*

140. *Mening O‘zbekiston - dilbar Vatanim.*

141. *Faqat sen qalbimga cho‘ktirmay malol*

142. *Charchagan ruhimga ilhom solursan.*

143. *Bahor ham, umr ham o‘tar ehtimol,*

144. *Faqat sen dunyoda mangu qolursan.*

BAHAR (109)

1. Yine bahar geldi. Yine âlemde

2. Mükemmel bir güzellik bayatî[98]

3. Ben seni beklerim bu ulu zamanda,

[98] Dugah makamının ses dizilerinden biridir.

4. Yüce arkadaşım, muzaffer hayat!
5. Teşbih aramayınız bu gazelde,
6. Nakit yerde kredi ne gerek aslında.
7. Aşikâr bir hasletin vardır ezelden,
8. Seni adamışlar uyanış faslında!
9. Rüzgârlar da uyandı ovup ayanı,
10.Güneş de yükseldi, dik gelir.
11. Dağlar da yük atıp kaldırdı omzunu,
12. Sonsuz yeşillik de sallar baş.
13. Olukların boğazında lale de güzel,
14. Kavakların içinde gezer mevcudat.
15. Hatta duygusuz, çürük hazan da
16. Yeşil küften germiş bir kanat.
17. Aceleci dereler koşar sahipsiz,
18. Kuşların gürültüsüyle dolmuş tarla, bahçe.
19. Senin visaline sevinirim niye,
20. Bahar, özlettin artık çok uzun!
21. Yelda sokağı gibi rutubetli kış
22. Saldı ruhumuza ağır bir sürur.
23. Sen geldin, uyandı yine keyifli alkış,
24.Ağlayan gözlere düşmüş gibi ışık.
25. Evet, ebedî çöküş olmaz âlemde
26. Ta suyunu saçarken şiddetli bahar yağmurları.
27. Ben sizi hatırlarım ama o anda,
28. Ebediyete göz yummuş aziz insanlar.
29. Ezelî hükmünü okudu hayat,
30. Kaç defa semada gömdü güneşini.
31. Arzusu secdegâh olanlar, heyhat,
32. Kendileri toprağa koydular başını.
33. On ay ki, sönmüştür o tanıdık nara[99].
34.Hâlâ ayrılığında feryat eder Şaş.
35. Bahar geliyor, başını kaldır, bak,
36. Aaa, sürur şairi, meşhurdur çağdaş.
37. Muhatap olmadım (kim idim zaten),

[99] Gafur Gulam göz önünde bulundurulmuştur.

38. Tavaf da etmedim gülşen mekânını.

39. Ama şiirin kıymeti dinleyicisine ait,

40. Nasıl sonsuzdu ruhi sonun!

41. Bugün, ne gezer ateşli kanında!

42. Eyvah, onda ne şiir, ne mey, ne sefa.

43. Bu nasıl bir mülakat? Ne hal? Yanında

44. Yer almış kendine bir sevgili deha[100].

45.Kıyaslanamazdı o şiir şahini!

46. Hayali tıpkı Koragonî[101] gibi.

47.Eğer tarih evrilse, şöhret tacını

48. Ona takardı Sultan Uluğbek.

49. Belh'ten yorgun dönmüş Ali Şîr misali

50.Şimdi doldurmuştu azalan hokkasını.

51. Gitti bir pak sima, derin bir hayal,

52.Bırakıp dünyada hiç unutulmaz adını.

53. Kalıcılık ve geçicilik ayan bir büyüklük

54. Geçti son anda baş eğip aşağı.

55. Sadece bildiğinden kalmaz hayat,

56.İşte, güle çökmüş Çağatay boyu.

57. Bu sakin memlekette de koşuşturur bahar,

58. Unutulan hatıraların lambasını yakıp.

59. Bakarım, kabirler uzanmış sıra sıra,

60. Masum menekşeden halkalar takıp.

61. Birinin göğsüne eğilinceye kadar gül

62. Mermer türbeden okur beyit.

63. Bahar, damla yaşımı eylesin kabul,

64. Anamın başına da gittin mi, söyle?!

65. Onun dinlenme yeri bundan yüce,

66. Uzakta yatmış benim sığınağım.

67. Gideli dolmuş bugün beş ay,

68. Beş ay ki gönlüm yanar hasretle.

69. Feryat ettiğim yok halk içinde tamamen,

---

[100] Maksut Şeyhzade göz önünde bulundurulmuştur.

[101]"Zici Cedidi Koragonî" "Zici sultanı" Mirza Uluğbek tarafından 1437 yılında yayınlanmış astronomik bir tablodur (https://uz.wikipedia.org/wiki/Ziji_jadidi_Ko%CA%BBragoniy, Erişim Tarihi: 01.06.2022).

70.Öç de almadım ben kendi kalemimden.
71. Anacığım, anacığım, affet artık,
72. Sevinmesin dedim biri gamımdan.
73.Dünyadan gitmesin hiç kimse zamansız,
74. Hiç kimseyi sarmasın ansızın pişmanlık.
75. Ama kendi başıma gelmeyinceye kadar,
76. Anacığım, taş kalpler durur muydu rahat.
77.Şarkı söylerim hatıran belki zaman geçip,
78. Bir ömür acı çeker ama bedende can.
79. Hengâmeler durmuş yolumda bekleyip,
80. Kendin kolla şimdi beni, anacığım.
81. Bugün etrafında bahardır belki,
82. Belki şebnem içinde batıktır hazin taş.
83. Yeşillikler etrafında sıradır belki,
84. Ama sen yatarsın kaldıramadan baş…
85. Bu kadar katilsin, aaa sırlı âlem
86. Bu kadar üzgünsün, sonsuz hilkat.
87. Sen hikmetini son insana,
88. Buna da mı göstermezsin şefkat?
89. Yeşillik de uyanır yine kış geçip,
90. Zerrece olsa da bir himmet ona.
91. En ulu evladın da mı dünyadan göçüp,
92. Başını kaldıramadan yatarsa ebediyete?
93. Anamı sorarım senden gece gündüz,
94.Döner mi diye sorarım parçalayıp yaka.
95. Ama benim dertli soruma hiç
96. Cevap veremezsin, aaa, dilsiz deha!
97. Cevap alabildi mi hiç kimse de zaten:
98. Ne sultan, ne dilenci, ne şah, ne fakir.
99. Kim ne kadar kovalamasın seni ardından
100. Bir avuç toprağı gösterdin nihayet.
101. Hayatın telaşesi bitmeyecek, ama
102. Ebedî baki kalır İnsan ve Hayal.
103. Miras denmesin hepsine fena,
104. Kısmet denmesin herkese zeval.
105. Yalnız geçmişle yaşamaz insan,

106. Gerçi olamazdı ondan hiç azat…
107. Dünkü gamını düşünse iyice
108. Kambur oluverirdi bugün insanoğlu.
109. Giden azizleri hatırlayıp bazen,
110. Olsun, çekelim bir an ah.
111. Hayatın tantanası başlamış, ama,
112. Dostlar, ışık visaline atalım bakış.
113. Bu büyük güneşin mükâfatına
114. Saygı gösterelim söyleyip şükrane.
115. Gönülden silelim gamın adını,
116. Bahar da zaman gibi nihayet yegâne.
117. Bugün şiiri çıkan şair gibi dünya
118. İlerlemezdi hepsine mesrur.
119. Timurbek kümbetin bağrını sanki,
120. Aydınlattığı gibi bir anlık ışık.
121. Sevgili gelinciğin göğsünde gülü,
122. Zerdali dalına atar göz eğri.
123. Yaprağın arasında şuleler avuçlar mıymış o…
124. Bahar tay tay yürüyen bebek gibi tatlı.
125. Yüksek erguvanın ucunda hilal
126. Dağınık bulutları böler ikiye.
127. Bir yerde şairi terennüm eder hâlsiz:
128. - Gönlüm de bu gece ay gibi yarım…
129. Eski cekette billur düğme gibi
130. Bulutların ardından bakar yıldız.
131. Bir yerde yurdunu hatırlayıp inler ney,
132. Bir yerde kalanşo yarar kök.
133. Bir yerde gülşenden arayıp visal
134. Yel gezer, dağların güzel ervahı.
135. Şairin sevgili beyitleri misali
136. Ah çekip dizilir turnalar bazen.
137. Gelincik yaprağı gibi uçar gönülden gam,
138. Seller basar kalbimi benim.
139. Baharın mübarek olsun o an,
140. Benim Özbekistan, sevgili Vatanım.
141. Yalnız sen kalbime çöktürmeden melal

142. Yorulan ruhuma ilham verirsin.

143. Bahar da, ömür de geçer ihtimal,

144. Sadece sen dünyada ebedî kalırsın. (1967)

SENGA (110)

Vatanim deb seni uyg‘ondim!

Hamid Olimjon.

1. *Mening ham bor do‘stu qarog‘im,*

2. *Sha’nlariga she’rlar kuyladim.*

3. *Lekin tanho quvongan chog‘im,*

4. *Sirdoshim deb seni o‘yladim.*

5. *Bedard emas umr ham aslo,*

6. *Hasratlardan goho so‘yladim.*

7. *Shubha ichra qolganda tanho,*

8. *G‘amdoshim deb seni o‘yladim.*

9. *Qucholmasman men seni hargiz,*

10.*Sen osmonsan, men-chi, zarra tan.*

11.*Qiblagohim, yupanchim yolg‘iz,*

12.*Sen barhayot onamsan, Vatan...*

SANA (110)

Vatanım deyip sana uyandım!

Hamid Âlimcan.

1. Benim de var dostum ve göz bebeğim,

2. Şanlarına şiirler terennüm ettim.

3. Ama yalnız sevindiğim zaman,

4. Sırdaşım diye seni düşündüm.

5. Dertsiz değil ömür de asla,
6. Hasretleri bazen söyledim.
7. Şüphe içinde kaldığında yalnız,
8. Dert ortağım diye seni düşündüm.

9. Kucaklayamadan ben seni asla,
10. Sen asumansın, ben, zerre beden.
11.Kıblem, tesellim yalnız,
12. Sen canlı anamsın, Vatan… (1967)

SOZIM (111)

1. *Men shoirman,*
2. *Istasangiz shu,*
3. *O‘zimniki erur shu sozim,*
4. *Birovlardan olmadim tuyg‘u,*
5. *O‘zgaga ham bermam ovozim.*
6. *Men kuyladim - goh dilda kadar,*
7. *Goh sevinib she’r to‘qiyman men.*
8. *Tinglamasa o‘zgalar agar,*
9. *O‘z-o‘zimga she’r o‘qiyman men.*
10.*Men kuyladim ushbu olamda*
11.*Inson bo‘lib tug‘ilganimni.*
12.*Men kuyladim ba’zan alamda*
13.*Yig‘lab-yig‘lab bo‘g‘ilganimni.*
14.*Men kuyladim bu olam aro*
15.*Sobit turgan xalqimni faqat,*
16.*Men kuyladim o‘tmishning qaro*
17.*Zulmatida yo‘qligin shafqat.*
18.*Kerak bo‘lsa, amr etsa yurak,*
19.*Keltirurman umrimga imon.*
20.*Mening uchun na ta’zim kerak,*
21.*Na halvoytar kabi shuhrat-shon.*
22.*Shaydo bo‘lib yurganda birdan*

23.*Xayolimga tashlamang kamand.*

24.*Mijg‘ov va past, g‘iybat gaplardan*

25.*Jajji she’rim qo‘yurman baland.*

26.*Xayol kabi keng erur olam,*

27.*Mayda gapni ko‘tarmagay she’r.*

28.*Kerak bo‘lsa mening uchun ham*

29.*Javob berar bobom Alisher.*

SAZIM (111)

1. Ben şairim,

2. İsterseniz bu,

3. Benimkidir bu sazım,

4. Birilerinden almadım duygu,

5. Başkasına da vermem sesim.

6. Ben terennüm ettim, bazen gönülde keder,

7. Bazen sevinip şiir okurum ben.

8. Dinlemezse başkaları eğer,

9. Kendi kendime şiir okurum ben.

10. Ben terennüm ettim bu âlemde

11.İnsan olarak doğduğumu.

12. Ben terennüm ettim bazen âlemde

13.Ağlayıp ağlayıp boğulduğumu.

14. Ben terennüm ettim bu âlemin içinde

15. Sabit duran halkımı yalnız,

16. Ben terennüm ettim geçmişin karasını

17. Zulmetinde yokluğunu şefkatin.

18. Gerekse, emretse yürek,

19. Getiririm ömrüme iman.

20. Benim için ne saygı gerek,

21. Ne halvaytar[102] gibi şöhret şan.

22.Âşık olduğunda birden

23. Hayalime atma kement.

24.Dırdırcı, alçak sözlerden, gıybetlerden

[102] Islak helva; kızarmış yağa un eklenip hafif rengi dönene kadar kızartılıp, üzerine eritilmiş şekerli su dökülerek yapılan bir tatlıdır.

25. Minik şiirimi koyarım yükseğe.
26. Hayal gibi geniştir âlem.
27.Küçük sözü kaldırmayacak şiir.
28. Gerekse benim için de
29. Cevap verir dedem Ali Şîr. (1967)

ONA (112)

1. *Ko‘kda yulduz uchsa nogahon*
2. *Bitdi derlar qaysi bir taqdir.*
3. *Bunday g‘amni ko‘tarmak oson,*
4. *Bu ehtimol bizlar haqdadir.*
5. *Ba’zi tunlar ko‘kka tikib ko‘z*
6. *Eslab deyman onamni shu on:*
7. *Ona ketsa, yulduz-ku, yulduz,*
8. *Qulab tushsa arziydi osmon.*

ANA (112)

1. Gökte yıldız uçsa ansızın
2. Bitti derler hangi bir takdir.
3. Böyle gamı kaldırmak kolay,
4. Bu ihtimal bizlerin hakkındadır.
5. Bazı geceler göğe dikip göz
6. Hatırlarım anamı o an:
7. Ana gitse, ya yıldız, yıldız,
8. Düşse yakışır asumana. (1967)

“O‘ZIMNI…” (113)

1. *O‘zimni moziyning bag‘riga urdim,*
2. *Va shu on shukrona aytib qaytdim men,*
3. *Kimdir ko‘rmay ketgan baxtni men ko‘rdim,*
4. *Kimdir aytmay ketgan so‘zni aytdim men.*

5. *Meni kutayotir ajib kelajak,*

6. *U mening iqbolim, mening baxtimdir.*

7. *Men ko‘rmagan baxtni kimdir ko‘rajak,*

8. *Men aytmagan so‘zni aytajak kimdir.*

“KENDİMİ…” (113)

1. Kendimi mazinin bağrına vurdum,

2. Ve o an şükrane deyip döndüm ben,

3. Kimse görmeden giden bahtı ben gördüm,

4. Kimse görmeden giden sözü söyledim ben.

5. Beni bekler harikulade gelecek,

6. O benim ikbalim, benim bahtımdır.

7. Benim görmediğim bahtı birisi görecek,

8. Benim söylemediğim sözü söyleyecek birisi. (1967)

MEN SENI KUYLAMOQ ISTAYMAN (114)

Oq she’r

1. *Men seni kuylamoq istayman,*

2. *Sening yuzlaringni kuylamoq istayman,*

3. *Sening ko‘zlaringni kuylamoq istayman.*

4. *Yuzlarkim, malagi afsonada yo‘q,*

5. *Ko‘zlarkim, jannati rizvonada yo‘q.*

6. *Men seni kuylamoq istayman,*

7. *Ammo shunday kuylasamki,*

8. *Yirtilib ketsa ovoz pardalarim...*

9. *Men sendan bo‘salar olmoq istayman:*

10.*Ammo shunday bo‘salarkim -*

11.*Tirqirab qon oqsa lablarimizdan,*

12.*Zotan, odamlar sevgisini ham*

13.*Alami, nafrati, quvonchi kabi*

14.*Hayqirib, hayqirib ochib tashlasin.*

15.*Istaymanki, na'ra tortsin chaqaloqlar ham,*

16.*O'liklar ham tinch yotmasin qabrlarida.*

17.*Men hamma narsani buyukligicha ko'rmoq istayman*

18.*XX asr odamlarida.*

19.*Zotan, bu asr*

20.*Har qanday cheklanish, har qanday qullikni*

21.*Itqitib tashlamoqda o'z yelkasidan...*

22.*Bu asrning talabi oddiy va sodda;*

23.*Yuraging buyurgan har qanday gapni,*

24.*Tilaging buyurgan har qanday gapni*

25.*Hech kimdan tortinmay o'rtaga tashla,*

26.*Bo'g'zingda qolmasin ovozing aslo!*

27.*Men shu asrning bir mitti farzandiman,*

28.*Men uning butun qo'polligini,*

29.*Butun nozikligini,*

30.*Butun sovuqligini,*

31.*Butun haroratini*

32.*Sening shu g'unchadek nozik lablaringga*

33.*Jo qilmoq istayman, sevgilim...*

BEN SENİ OKUMAK İSTERİM (114)

Ak Şiir

1. Ben seni okumak isterim,

2. Senin yüzünü okumak isterim,

3. Senin gözlerini okumak isterim.

4. Yüzler ki, efsane meleğinde yok,

5. Gözler ki, Rıdvan'da yok.

6. Ben seni okumak isterim,

7. Ama öyle şarkı söylesem ki,

8. Yırtılıp gitse ses tellerim…

9. Ben senden buseler almak isterim:

10. Ama öyle buseler ki

11.Fışkırıp kan aksa dudaklarımızdan,
12. Zaten insanlar sevgisini de
13. Elemi, nefreti, kıvancı gibi
14. Haykıra, haykıra açıp atsın.
15.İsterim ki feryat etsin bebekler de,
16.Ölüler de huzurlu yatmasın kabirlerinde.
17. Ben her şeyi büyüklüğünce örmek isterim
18. Yirminci asır insanlarında.
19. Zaten bu asır
20. Her yetinmek, her köleliği
21.Fırlatıp atmakta kendi omzundan…
22. Bu asrın talebi basit ve saf:
23.Yüreğin buyurduğu her sözü,
24. Dileğin buyurduğu her sözü
25. Hiç kimseden çekinmeden ortaya at,
26. Boğazında kalmasın sesin asla!
27. Ben bu asrın küçücük bir çocuğuyum,
28. Ben onun bütün haşinliğini,
29.Bütün nazikliğini,
30.Bütün soğukluğunu,
31.Bütün hararetini
32. Senin bu gonca gibi nazik dudaklarına
33. Kondurmak isterim, sevgilim… (1967)

ARMANISTON (115)

1. *Vatanim quyoshga ko‘ksini ochib,*
2. *Osiyo qo‘ynida yashnagan bo‘ston.*
3. *Men bu kun daryolar, tog‘lardan oshib,*
4. *Quchog‘ingga keldim, go‘zal Hayaston.*
5. *Bir yoningda turar oqsoch Ararat -*
6. *Tog‘lar tasbihining gavhar donasi.*
7. *Nima ham der edim, go‘zalsan faqat,*
8. *Ey, sen arman yurtin g‘amgin onasi.*
9. *Bir yoningda esa Sevanday bahr,*
10.*Misoli bulutlar ichida qamar.*

11.*Arman hasratlari bari bundadir,*

12.*Bundadir Majnunning do‘sti Ohtamar.*

13.*Bunda Sosun o‘g‘li kezib yuribdi.*

14.*Otdan tushgan emas hamon fidoyi.*

15.*Ming yillik g‘amlardan so‘ylab turibdi*

16.*Garni xarobasi, Zvartnos joyi.*

17.*Go‘zal Armaniston, ey qadim diyor,*

18.*Ey, Odam Atoning o‘gay bolasi.*

19.*Qancha ko‘p darbadar farzandlaring bor,*

20.*Barining ko‘ksida o‘kinch, nolasi.*

21.*Uch bo‘ston bulbuli Sayat Navo bu,*

22.*Qo‘lida sozi-yu, qalbida alam.*

23.*Tumanyan yurtim deb chekkanda qayg‘u,*

24.*Arman qismatiga yig‘ladi olam.*

25.*Charens ta’nalardan hayiqmay taqir,*

26.*She’riyat ko‘kida ko‘tardi yalov.*

27.*Hayhot, bu zotni ham yondirdi oxir,*

28.*O‘zi muqaddas deb sig‘ingan olov.*

29.*Go‘zal Armaniston, meni afv et,*

30.*Da’vom yo‘q shuhrating ovozasiga.*

31.*Sen bilan turibman bu kun betma-bet*

32.*Bosh urib Yerevan darvozasiga.*

33.*Buyuk fojiangning guvohi erur*

34.*Jahon puchmog‘ida har yetti taraf.*

35.*Yo‘l usti senga ham qo‘ngandi Temur,*

36.*Seni mutab yotdi necha yil arab.*

37.*Afsona oshig‘i buyuk Iskandar*

38.*Saroylaring buzdi ermakka faqat.*

39.*Dunyoga to‘zg‘iding bamisoli par,*

40.*Na Saljuq, na Chingiz qilishdi shafqat.*

41.*Toziga chap berib qochgan har tulki*

42.*Arman tuprog‘ini bo‘yadi qonga.*

43.*Bosqinchi so‘zining ma’nosi shulki,*

44.*Nonga to‘yganda ham to‘ymas makonga.*

45.*Tarix deb atalgan qismat bu, axir,*

46.*Qoshida yuztuban hattoki xudo.*

47.*Kimni u kamsitib, etmagan tahqir,*

48.*Kimni u yurtidan qilmagan judo.*

49.*Mening ham vatanim janglar guvohi,*

50.*Mening ham tuprog‘im toptalgandi xor.*

51.*Mening ham ruhimda ajdodlar ohi,*

52.*Mening ham qonimda qilich zangi bor,*

53.*Minorlar emas bu - falakka qasam,*

54.*Qasoskor bobolar ketmishlar sanchib.*

55.*Men tortgan g‘amni ham bir-bir sanasam,*

56.*O‘lik fir’avnlar ketarlar sapchib.*

57.*Yaxshiyam necha bir zamonlar o‘tib,*

58.*Ko‘rdik vatanimiz ozod, muzaffar,*

59.*Go‘yo ta’na toshin sanog‘i bitib,*

60.*Tarix sopqonidan tushgan kabi zar.*

61.*Yaxshiyam zamonlar dasturxonida*

62.*Barobar turibmiz ta’mi bir tuzdek,*

63.*Yaxshiyam quyosh bor tole tongida,*

64.*Arman may shishasi uzra yulduzdek.*

65.*Go‘zal Armaniston, ey qadim diyor,*

66.*Ezgu ehtiromim qabul et jondan.*

67.*Sen qancha bo‘lmagin suluv va dildor,*

68.*Yurt izlab kelmadim O‘zbekistondan.*

69.*Men bir kezib yurgan kuychi shoirman,*

70.*Ne tong, Hayastonga kelibman bu kun.*

71.*Baxtni kuylamoqqa ancha mohirman,*

72.*G‘amni kuylamoqqa tillarim tugun.*

73.*Tashna bu ruhimga she’r bo‘lib kirdi.*

74.*Moviy daralarda asrlik tuman.*

75.*She’r meni chamanlar sayriga burdi,*

76.*Sargashta etgan ham o‘sha “yosuman.”*

77.*Xayr, Armaniston, ey, go‘zal diyor,*

78.*Xayr, Nairining tonggi salomi.*

79.*Xayr, Sevan ko‘li, pok va bug‘ubor,*

80.*Xayr, mangu o‘lmas arman kalomi.*

81.*Ezgu tilaklarim sen uchun bo‘lsin,*

82.*O‘tmishing qadarli boqiy bo‘l, bor bo‘l.*

83.*Yiroq farzandlaring bag‘ringga to‘lsin,*

84.*Bariga ona bo‘l, singil bo‘l, yor bo‘l.*

85.*Doim mag‘rur tursin Garnida Keg‘art,*

86.*Ohu to‘dalari kezsin mardona.*

87.*Menday horg‘in yo‘lchi kelganda faqat*

88.*O‘zingni begona tutmagin, ona.*

ERMENİSTAN (115)

1. Vatanım güneşe göğsünü açıp,

2. Asya'nın bağrında yeşermiş bostan.

3. Ben bugün deryalardan, dağlardan aşıp,

4. Kucağına geldim, güzel Ermenistan.

5. Bir yanında durur ak saçlı Ağrı Dağı

6. Dağlar tespihinin cevher tanesi.

7. Ne de derdim, güzelsin yalnız,

8. Ey, sen Ermeni yurdunun gamlı anası.

9. Bir yanında ise Sevan gibi göl,

10. Misali bulutlar içinde kamer.

11. Ermeni hasretleri hepsi bundadır,

12. Buradadır Mecnun'un dostu Ahtamar[103].

13. Burada Sosun oğlu gezip dolaşmış.

14. Attan düşmüş değil hâlâ fedai.

15. Bin yıllık gamlardan söyleyip durmuş.

16. Garni harabesi, Zvartnots[104] yeri.

17.Güzel Ermenistan, ey kadim diyar,

18. Ey, Âdem Baba'nın üvey evladı.

19. Ne kadar çok derbeder çocukların var[105],

20. Hepsinin göğsünde pişmanlık nalesi.

21.Üç bostan bülbülü Sayat Navo[106] bu,

22. Elinde sazı, kalbinde âlem.

23. Tumanyan[107] yurdum diye çektiğinde kaygı,

[103] Ahtamar; Mecnun karakterinin âşık olduğu Leyla gibi bilinen sevgilidir.
[104] Garni ve Zvartnots; eski ibadethanelerin harabeleridir.
[105] Ermeni halkının büyük bir kısmı tarihî koşullardan dolayı bütün dünyaya dağılıp gitmiştir.
[106] Ermeni şair ve âşıktır.
[107] Hovhannes Tumanyan Ermeni şair ve romancıdır.

24. Ermeni kısmetine ağladı âlem.
25.Çarents[108] sitemlerden korkmadan tamamen,
26.Şiirler göğünde kaldırdı bayrak.
27. Heyhat, bu zatı da yaktı artık,
28. Kendisinin mukaddes diye sığındığı ateş.
29.Güzel Ermenistan, beni affet,
30.Şikâyetim yok şöhretin sesine.
31. Seninle ayağa kalkmışım bugün sayfa sayfa
32. Baş eğip Erivan kapısına.
33.Büyük facianın şahididir
34. Cihan sınırında her yedi taraf.
35. Yol üstü sana da uğramıştı Timur,
36. Seni böldü nice yıl Arap.
37. Efsane âşığı büyük İskender
38. Saraylarını bozdu eğlence için yalnız.
39.Dünyaya dağıldın tüy gibi,
40. Ne Selçuk, ne Cengiz göstermişti şefkat.
41. Tazıdan kurtulup kaçan her tilki
42. Ermeni toprağını boyadı kana.
43. Baskıncı sözünün manası şu ki,
44. Ekmeğe doyduğunda da doymaz mekâna.
45. Tarih diye adlandırılan kısmet bu, artık,
46. Huzurunda yüzüm yere eğik hatta Hüda.
47. Birini o küçümseyip, etmemiş tahkir,
48. Birini o yurdundan kılmamış cüda.
49. Benim de vatanım savaşların şahidi,
50. Benim de toprağım görülmüştü hor.
51. Benim de ruhumda ecdatlar ahı,
52. Benim de kanımda kılıç pası var,
53. Minareler değil bu feleğe yemin,
54.Öç alan dedeler gitmişler karşı koyup.
55. Ben çektiğim gamı da bir bir saysam,
56.Ölü firavunlar giderler atılıp.
57.İyi ki nice zamanlar geçip,

[108] Yeğişe Çarents Ermeni şair ve yazardır.

58.Gördük vatanımız azat, muzaffer,

59. Sanki sitem taşının sayısı bitip,

60. Tarih sapanından düşmüş gibi altın.

61.İyi ki zamanlar sofrasında.

62. Beraber durmuşuz tadı bir tuz gibi,

63.İyi ki güneş var talih sabahında,

64. Ermeni mey şişesi üstünde yıldız gibi.

65.Güzel Ermenistan, ey kadim diyar,

66.İyi hürmetimi kabul et candan.

67. Sen kadar olmasın güzel ve yâr,

68. Yurt arayıp gelmedim Özbekistan'dan.

69. Ben gezen bir okuyucu şairim,

70. Tan vaktinde, Ermenistan'a gelmişim bugün.

71. Talihi okumaya çok mahirim,

72. Gamı okumaya dillerim düğüm.

73. Susamış bu ruhuma şiir olup girdi.

74. Mavi derelerde asırlık duman.

75.Şiir beni gülistanlar gezisine çevirdi,

76. Avare eden de o "yasemin."

77. Hoşça kalın, Ermenistan, ey, güzel diyar,

78. Hoşça kalın, Nairi'nin[109] tandaki selamı.

79. Hoşça kalın, Sevan Gölü, pak ve tozsuz,

80. Hoşça kalın, bengü ölmez Ermeni kelamı.

81.İyi dileklerim senin için olsun,

82. Geçmişin kederli baki ol, var ol,

83. Uzak evlatların bağrına dolsun,

84. Hepsine ana ol, kız kardeş ol, yâr ol.

85. Daima mağrur dursun Garnida Kegart[110],

86. Ahu sürüleri gezsin merdane.

87. Benim gibi yorgun yolcu geldiğinde yalnız

88. Kendini yabancı tutmasın, ana. (1967)

---

[109] M. Ö. 14.-10. yüzyılları arasında "Ermeni Yaylaları" olarak adlandırılan bölgede yaşayan Ermeni kabilelerini tanımlamak için kullanılan bir addır. (https://tr.wikipedia.org/wiki/Nairi, Erişim Tarihi: 01.06.2022).

[110] Kegart, Ermenice kaplan denilmektedit. Garni'de böyle bir heykel de vardır.

NECHUN TIM QORADIR ARMAN KO‘ZLARI (116)

1. *Nechun tim qoradir arman ko‘zlari,*
2. *Hassos tabiatning sehrimikan bu?*
3. *Yo go‘zal bo‘lsinlar arman qizlari -*
4. *Degan onalarning mehrimikan bu?*
5. *Yo‘q, bu mehr emas, sehr ham aslo,*
6. *Bu ko‘zlar o‘z-o‘zin aylab qo‘yar fosh.*
7. *Yig‘idan bo‘larmish ko‘zlar tim qora...*
8. *Hech kim armanchalik to‘kmagan ko‘zyosh.*

NİÇİN ZİFİRİ KARANLIKTIR ERMENİ GÖZLERİ (116)

1. Niçin zifiri karanlıktır Ermeni gözleri,
2. Hassas tabiatın sihri miymiş bu?
3. Yahut güzel olsunlar Ermeni kızları
4. Diyen anaların şefkati miymiş bu?
5. Hayır, bu şefkat değil, sihir de asla,
6. Bu gözler kendi kendini eder faş.
7. Ağlamaktan olurmuş gözler zifiri karanlık…
8. Hiç kimse Ermeni gibi dökmemiş gözyaşı. (1967)

“ALVIDO, DEB…” (117)

1. *Alvido, deb qo‘llarimga boylading bir tola soch,*
2. *Oshiq ahli ichra kimni saylading, bir tola soch?*
3. *Qoldi umrim domi ishqda, soch kabi holim zabun,*
4. *Toleimni tola-tola aylading, bir tola soch.*

“ELVEDA, DEYİP…” (117)

1. Elveda, deyip ellerime sardın bir tel saç,
2. Âşık ehli içinde kimi seçtin, bir tel saç?
3. Kaldı ömrümün esareti aşkta, saç gibi hâlim zayıf,
4. Talihimi tel tel ettin, bir tel saç, (1967)

SEVAN KO‘LI (118)

1. *Sevan ko‘li, senga aytar ikki og‘iz gapim bor,*
2. *Ushbu so‘zim senga g‘amdosh bir yurakning matlabi.*
3. *Armaniston osmoniday sof ekansan, beg‘ubor,*
4. *Ruxsoringda gard yo‘q ekan arman tuprog‘i kabi.*
5. *Mayli, sening og‘ushingda Zangu oqmasin aslo,*
6. *Mayli, moviy suvlar bilan qayta lim-lim to‘lmagin.*
7. *Sevan ko‘li, ruxsoringga g‘ubor qo‘nmasin ammo,*
8. *Qurib qolsang quriginu lekin nopok bo‘lmagin.*

SEVAN GÖLÜ (118)

1. Sevan Gölü, sana söyleyecek iki çift lafım var,
2. Bu sözüm sana kederli bir yüreğin gayesi.
3. Ermenistan asumanı gibi temizmişsin, tozsuz,
4. Görünüşünde toz yokmuş Ermeni toprağı gibi.
5. Olsun, senin bağrında Zangu[111] akmasın asla,
6. Neyse, mavi sularla yine tamamen dolmasın
7. Sevan Gölü, suretine toz konmasın ama,
8. Kurursan kuru ama pis olma. (1967)

YEREVAN KO‘CHASIDA (119)

Salminaxonimga

1. *Men Yerevan ko‘chasida ozar qizin uchratdim,*
2. *Umrim bo‘yi ilk martaba duch keldim men ro‘yoga.*
3. *Yo‘q, majusiy emas erdim, lekin suratday qotdim,*
4. *Birodarlar, bunday go‘zal kelmagay hech dunyoga.*
5. *Bekor bo‘ldi iqtidorim, bekor bo‘ldi yuragim,*
6. *Bekor bo‘ldi she’riyatim ul go‘zalning qoshida.*
7. *Bekor bo‘ldi sayohatim, bekor bo‘ldi yurmagim,*
8. *Bekor bo‘ldi Yerevan ham tuyg‘ular taloshida.*

[111] Bir nehir adıdır.

9. *Yosh umrimni tarozuga solib asta qarayman,*

10.*Yoshlik va she’r bu dunyoning azal-abad timsoli.*

11.*Men-ku, she’rni to‘qimoqqa sal-palgina yarayman,*

12.*Lekin sensiz yig‘lab o‘tgum Samad Vurg‘un misoli.*

13.*Ozar qizi, nega menga zarra qiyo boqmading?*

14.*Boshim uzra turar edi O‘zbekiston suvrati.*

15.*Ozar qizi, nega menga gullaringdan taqmading?*

16.*Fuzuliyning dahosiga hurmatimning hurmati.*

17.*Taqdir degan podsho bo‘lsa oshiqlarning holi tang,*

18.*Qayonlarga olib ketar meni ham bu yo‘llarim.*

19.*Tilaklarim bajo bo‘lur va lekin sen bo‘lmasang,*

20.*Bamisoli Iskandarday ochiq ketar qo‘llarim.*

YEREVAN KO‘CHASIDA (119)

Selmine Hanım’a

1. Ben Erivan Sokağı’nda Azerbaycanlı bir kızla karşılaştım,

2. Ömrüm boyunca ilk kez rastladım ben rüyaya.

3. Yok, mecusi değildim, ama resim gibi dondum,

4. Biraderler, böyle güzel gelmeyecek hiç dünyaya.

5. Beyhude oldu kuvvetim, boş kaldı yüreğim,

6. Beyhude oldu şiirlerim o güzelin huzurunda.

7. Beyhude oldu seyahatim, boş kaldı yüreğim,

8. Beyhude oldu Erivan’da duyguların telaşında.

9. Genç ömrümü teraziye koyup yavaşça bakarım,

10. Gençlik ve şiir bu dünyanın başı ve sonu timsali.

11. Ben ki, şiiri dokumaya birazcık yararım,

12. Ama sensiz ağlamam Samet Vurgun misali.

13. Azer kızı, niye bana zerre dönüp bakmadın?

14. Başımın üstünde dururdu Özbekistan’ın sureti.

15. Azerbaycanlı kız, niye bana güllerinden takmadın?

16. Fuzûlî’nin dehasına hürmetimin hürmeti.

17. Kader denen padişah olsa âşıkların hâli zor,

18. Bir yerlere alıp gider beni de bu yollarım.

19. Dileklerim seve seve olur ve ama sen olmasan,
20. Sanki İskender gibi açık gider gözlerim. (1967)

NUTQ (120)

(G‘afur G‘ulom vafotining bir yilligiga)

1. *G‘afur G‘ulom o‘lganiga bir yil to‘libdi,*
2. *Naryog‘ini o‘ylaganda seskanar odam.*
3. *G‘afur G‘ulom uchun bir yil nima bo‘libdi,*
4. *Bu - mangulik yo‘lidagi birinchi qadam.*
5. *Biz uchun-chi, bir yil demak “shunchaki plan”,*
6. *Bola-chaqa, o‘tin-ko‘mir, uy-joy tashvishi.*
7. *Goho unga marsiya deb yozgan she’r bilan*
8. *Mangulikka qolarman deb o‘ylaydi kishi.*
9. *Lekin faqat oyoq bilan chiqmaslar toqqa,*
10.*Arqon kerak, cho‘kich kerak, kerak ulov-ot.*
11.*Bu asrdan mangulikka yorliq olmoqqa*
12.*Yetmas ekan faqatgina she’riy iste’dod.*
13.*G‘afur G‘ulom - buyuk shoir, faylasuf, hakam,*
14.*G‘afur G‘ulom - adib, notiq va sohib surur.*
15.*Eh-he, buning barchasini sanamoqqa ham*
16.*Kerak bo‘lar lofi bilan yana bir umr.*
17.*Asqad aka lutf etganday, u misli ko‘zgu,*
18.*Bizning uchun xalq timsoli, o‘zbek timsoli.*
19.*Kamalakdek necha rangli daryolarni u*
20.*Jamlay olgan bir o‘zida dengiz misoli.*
21.*Bu dunyoda ko‘pdir balki har xil muammo,*
22.*Mumkin uning ba’zisini ko‘ra bilmaslik.*
23.*Nima desa deyaversin odamlar, ammo*
24.*Mumkinmas hech ulug‘ zotga havas qilmaslik.*
25.*Mangulikka ketayotir shoir shoshgancha,*
26.*Moviy ko‘kka sha’n quyoshi o‘rlamoqda, bas,*
27.*G‘afur G‘ulom tiriklikni istasa qancha,*
28.*Biz ham unga o‘shanchalik qilgaymiz havas.*

NUTUK (120)

(Gafur Gulam'ın vefatının bir yıllığına)

1. Gafur Gulam öleli bir yıl dolmuş,
2. Öbür tarafı düşündüğünde ürperir insan.
3. Gafur Gulam için bir yıl ne olmuş,
4. Bu ebediyet yolundaki ilk adım.
5. Ya bizim için bir yıl demek "öylesine plan",
6. Çoluk çocuk, odun kömür, ev bark tasası.
7. Bazen ona mersiye diye yazdığı şiirle
8. Ebedîliğe kalırım diye düşünür insan.
9. Ama sadece ayakla çıkmazlar dağa,
10. Halat gerek, çekiç gerek, gerek binek atı.
11. Bu asırdan sonsuzluğa belge almaya
12. Yetmezmiş yalnız istidadı.
13. Gafur Gulam, büyük şair, filozof, hâkim,
14. Gafur Gulam, edip, hatip ve sahib-i sürur.
15. Eh, bunun hepsini saymaya da
16. Gerek olur lafıyla yine bir ömür.
17. Askad Abi lütuf etmiş gibi, o sanki ayna,
18. Bizim için halk timsali, Özbek timsali.
19.Gökkuşağı gibi nice renkli deryaları o
20. Toplayıp alan kendisinde bir deniz misali.
21. Bu dünyada çoktur belki her çeşit muamma,
22.Mümkün onun bazısını görememek.
23. Ne derse deyiversin insanlar, ama
24.Mümkün değil hiç ulu zata heves etmemek.
25. Ebedîliğe gider şair acele edinceye dek,
26. Mavi göğe şan güneşi örmekte, yeter,
27. Gafur Gulam yaşamayı isterse ne kadar,
28. Biz de ona o kadar çok ederiz heves. (1967)

QUSHCHAGA (121)

Bir tanishim sa'va qush asrab, sal

o'tmay qo'yib yuborgan ekan. Sho'rlik

qaytib kelibdi. O'zi don

topib yeyolmagan bo'lsa kerak.

1. *Ey qushim, ko'kka qarab ko'zdan yoshingni to'kma ko'p,*
2. *Bunchalar anduhi g'am ichra qafasni so'kma ko'p.*

3. *Noshukurlik qilma muncha, sohibingga ayt sharaf,*
4. *Ul senga don-dun berib ahvolingga turgay qarab.*

5. *Yog'sa yomg'ir ko'chalarda qolmagaysan zor-zor,*
6. *Yig'lama, qushcham, sening kulbang-ku bor, kulbang-ku bor.*

7. *Qayga ham borgay eding berganlarida erk senga,*
8. *Shahr axir g'ij-g'ij erur, oshyonlari ham berk senga.*

9. *Bosh olib qish kunlari qayga ketarding, jonginam,*
10. *Oh bechora, bilmagaysan sen janub yo'llarini ham.*

11. *Benavo har bir go'dak ko'rgach seni toshlar otur,*
12. *Pistadek qalbingga, vah, toshlar qadar g'amlar botur.*

13. *Qol o'shal maskanda sen, erk deb dilingni tilma ko'p.*
14. *Sen axir qushsan ojiz, insonga taqlid qilma ko'p.*

15. *Biz qafasni sevmagaymiz, bizga na uydir hojat,*
16. *Davrimizni yayrashib biz kuylasak yetgay faqat.*

KUŞCAĞIZA (121)

Bir tanıdığım Saka kuşunu besleyip, çok

geçmeden bırakıp göndermiş. Biçare

dönüp gelmiş. Kendisi tahıl

bulup yememiş olsa gerek.

1. Ey kuşum, göğe bakıp gözden yaşını dökme çok,
2. Bunca gam keder içinde kafesi azarlama çok.

3. Nankörlük etme bu kadar, sahibine ver şeref,
4. O sana tahıl verip ahvaline bakıp duracak.

5. Yağmur yağsa sokaklarda kalmayacaksın hıçkıra hıçkıra,
6. Ağlama, kuşcağızım, senin kulüben var, kulüben var.

7. Nereye de gidecektin verdiklerinde özgürlük sana,
8. Şehir artık çok gelir, aşiyanları da kapalı sana.

9. Başını alıp kış günler, nereye giderdin, canım,
10. Ah biçare, bilmeyeceksin sen güney yollarını da?

11. Zavallı her bir bebek görünce seni taşlar atar,
12.Çekirdek gibi kalbine, vah, taşlar kadar gamlar batar.

13. Kal o meskende sen, özgürlük diye yüreğini dağlama çok,
14. Sen nihayette kuşsun âciz, insanı taklit etme çok.

15. Biz kafesi sevmeyeceğiz, bize ne evdir hacet,

16. Devrimizi sevinip biz terennüm etsek yetecek yalnız. (1967)

“QO‘YGIL, U KUNLARNI ESLATMA MENGA…” (122)

1. *Qo‘ygil, u kunlarni eslatma menga,*
2. *Qalbimni yoqmasin bu xazon fasling.*
3. *Endi begonaman, jonginam, senga,*
4. *Endi begonadir menga ham vasling.*
5. *Gohida sevinib, gohi g‘amdadir*
6. *Ishq uzra yozardim men erkin qanot.*
7. *Bilmayman qaysi kun, qaysi damdadir,*
8. *Mening qismatimga chang soldi sayyod.*
9. *Uning qo‘lidadir bu kun imkonim,*
10.*Bu kun hamrohimdir go‘zal iztirob.*
11.*Qo‘ygil, u kunlarni eslatma, jonim,*
12.*Qo‘ygil, yuragimga sen berma azob,*
13.*O‘zgalar yuzimga boqsa ham hayron,*
14.*Faqat sen tomosha qilma holimni.*
15.*Faqat sen she’rimni sevma hech qachon,*
16.*Faqat sen himoya qilma nomimni,*
17.*Darig‘ tut ishvayu nazokatlaring,*
18.*Faqat sen yuzimga boqmagil kulib.*
19.*Hayhot, endi barcha iltifotlaring*
20.*Menga tuyuladi masxara bo‘lib.*

“BIRAK, O GÜNLERİ HATIRLATMA BANA…” (122)

1. Bırak, o günleri hatırlatma bana,
2. Kalbimi yakmasın bu hazan faslın.
3. Şimdi yabancıyım, canım, sana,
4. Şimdi yabancıdır bana da vaslın.
5. Bazen sevinip, bazen gamdadır
6. Aşk üstüne açardım ben hürce kanat.
7. Bilmem hangi gün, hangi andadır,
8. Benim kısmetimi yakaladı avcı.
9. Onun elindedir bugün imkânım,

10. Bugün yoldaşımdır güzel ızdırap.
11.Bırak, o günleri hatırlatma bana,
12.Bırak, yüreğime sen verme azap.
13. Başkaları yüzüme baksa da hayran,
14. Sadece sen seyretme hâlimi.
15. Sadece sen sevme şiirimi hiçbir zaman,
16. Sadece sen himaye etme namımı.
17. Esirge işve ve nezaketlerini,
18. Sadece sen yüzüme bakma gülüp.
19. Heyhat, şimdi bütün iltifatların
20. Bana duyulur alay olarak. (1967)

GO‘ZALLIK (123)

1. *Kuzning rutubatli oqshomi edi,*
2. *Bog‘lar sokingina chekar edi oh.*
3. *Ruhimda bir xazon ayyomi edi*
4. *Ajib go‘zallikka duch keldim nogoh.*
5. *Misli xayol edi u malak siymo,*
6. *Chiroy olamining tengsiz sayqali.*
7. *Ko‘zlarim oldida turardi go‘yo*
8. *Navoiy g‘azalin tirik haykali*
9. *Bir zum ko‘zlarimdan yo‘qoldi uyqu*
10.*Bir zum bahor kabi yorishdi olam.*
11.*Bir zum xayolimdan chekindi qayg‘u*
12.*Bir zum yuragimdan ketdi g‘am-alam*
13.*Bir zum go‘zallikning huzurida jim*
14.*Samoviy hislarga bo‘lib qoldim band.*
15.*O, dono tabiat, o buyuk hakim,*
16.*Hikmat ko‘rmadim hech men senga monand*
17.*O‘zing yuraklarga cho‘ktirib kadar,*
18.*Xalos ham qilursan rahm etgan damda.*
19.*Shunday go‘zallarni yaratmasang gar*
20.*Qolib ketarmidik bir umr g‘amda.*

GÜZELLİK (123)

1. Güzün rutubetli akşamıydı,
2. Bahçeler sessizce çekerdi ah.
3. Ruhumda bir hazan günüydü,
4. Acayip bir güzelliğe rastladım ansızın.
5. Misl-i hayaldi o melek sima,
6. Güzellik âleminin eşsiz cilası.
7. Gözlerimin önünde durur sanki
8. Nevâî gazelinin canlı heykeli.
9. Bir an gözlerimden kaçtı uyku,
10. Bir an bahar gibi canlandı âlem.
11. Bir an hayalimden çekildi kaygı,
12. Bir an yüreğimden gitti gam elem.
13. Bir an güzelliğinin huzurunda sessiz
14. Semavî hislere oldum bent.
15. Aaa, bilge tabiat, aaa büyük hâkim,
16. Hikmet görmedim hiç ben sana benzer.
17. Kendin yüreklere çöktürüp keder,
18.Özgür de bırakırsın merhamet ettiğin anda.
19.Böyle güzelleri yaratmasan eğer,
20. Kalır mıydık bir ömür gamda. (1967)

"OH URIB HAR YONDA IZG'IYDI SHAMOL…" (124)

1. *Oh urib har yonda izg'iydi shamol,*
2. *Zamon makon bermay uni qistaydi.*
3. *Orzusi faqat shul: u ham tog' misol*
4. *Dili orom olib yotmoq istaydi.*

5. *Arosatda ingrar tog'lar ham, ammo*
6. *Qo'histon bag'rida topolmas iloj.*
7. *Armon qilar u ham, shamolday go'yo*
8. *Moviy kengliklarda yozsam der quloch.*

“AH ÇEKİP HER YANDA DOLAŞIR RÜZGÂR…” (124)

1. Ah çekip her yanda dolaşır rüzgâr,
2. Zaman mekân vermeden onu sıkıştırır.
3. Arzusu sadece şu: o da dağ misali
4. Gönlü huzura erip yatmak ister.

5. Arasat’ta inler dağlar da, ama
6. Kahistan bağrında bulamaz çare.
7. Ukde kalır o da, rüzgâr gibi sanki
8. Mavi genişliklerde atsam der kulaç. (1967)

“BAHOR KUNLARIDA…” (125)

1. *Bahor kunlarida kuzning havosi,*
2. *Tanimni junjitar oqshomgi shamol.*
3. *Nega muncha g‘amgin nayning navosi,*
4. *Nega qalbim to‘la o‘kinch va malol?*
5. *Barglar orasiga tinmasdan sira*
6. *Oshno yulduzlardan to‘kiladi nur.*
7. *Bilmayman, qiynaydi qaysi xotira,*
8. *Titroq yulduz kabi muzlagan shuur.*
9. *Mag‘lub bahodirning nayzasi misol*
10. *Ma’yus egiladi terak uchlari,*
11. *Barglar soyasida o‘ynaydi behol*
12. *Uyqudagi qizning bedor tushlari.*
13. *Atrofimda yotar g‘arib bir viqor,*
14. *Bilmam, nega o‘chdi qalbim safosi.*
15. *Nima ham qilardim, na ilojim bor,*
16. *Bahor kunlarida kuzning havosi.*

“BAHAR GÜNLERİNDE…” (125)

1. Bahar günlerinde güzün havası,
2. Bedenimi ürpertir akşamki rüzgâr.
3. Niye bu kadar gamlı neyin nevası,

4. Niye kalbim dolu pişmanlık ve endişeyle?
5. Yaprakların arasına durmadan asla
6. Ahbap yıldızlardan dökülür ışık.
7. Bilmem, üzer hangi hatıra,
8. Titrek yıldız gibi donmuş şuur.
9. Mağlup bahadırın süngüsü misali
10. Meyus eğilir kavak uçları,
11. Yaprakların gölgesinde oynar hâlsiz
12. Uykudaki kızın uyanık düşleri.
13. Etrafımda yatar garip bir vakar,
14. Bilmem, niye yok oldu kalbimin sefası.
15. Ne de ederdim, ne çarem var,
16. Bahar günlerinde güzün havası? (1967)

KUZ MANZARALARI (126)

1. *Yana dalalarga boshlaydi havas,*
2. *Bog‘larda xazonlar yonadi lov-lov.*
3. *Do‘stlarim, bu kuzning barglari emas,*
4. *Mening yuragimdan to‘kilgan olov.*

5. *Shoxlarda mezonlar yaltirar xira,*
6. *Poyida shivirlar mening kuylarim.*
7. *Do‘stlarim, bular ham mezonmas sira,*
8. *Bu mening chuvalgan, so‘ngsiz o‘ylarim.*

9. *Quyosh ham falakda bamisli ro‘yo,*
10.*U endi yondirmas, yaltirar faqat.*
11.*Do‘stlar, u ham endi quyoshmas aslo,*
12.*U olis yoshlikda qolgan muhabbat.*

GÜZ MANZARALARI (126)

1. Yine tarlalara başlar heves,

2. Bahçelerde hazanlar tutuşur alev alev.
3. Dostlarım, bu güzün yaprakları değil,
4. Benim yüreğimden dökülen alev.

5. Dallarda mezonlar[112] parlar belirsiz,
6. Sapında fısıldar benim şarkılarım.
7. Dostlarım, bunlar da mezon değil asla,
8. Bu benim açılan, sonsuz düşüncelerim.

9. Güneş de felekte sanki rüya,
10.O şimdi yakmaz, parlar sadece.
11. Dostlar, o da şimdi güneş değil asla,
12.O uzak gençlikte kalan muhabbet. (1967)

SEVGI O‘LIMI (127)

1. *Yomg‘ir tinmay yog‘di kun bo‘yi,*
2. *Yomg‘irli kun kabi ezildi dardim.*
3. *Yaydoq ko‘chalarda jim yurgan ko‘yi*
4. *Sening izlaringni axtardim.*
5. *Ufqlarda esa achchiq bir tuman*
6. *Mening ko‘zlarimga quyardi zahar.*
7. *Uvishgan qalbimni sokinlik bilan*
8. *Ezar edi bo‘m-bo‘sh bu shahar.*
9. *Endi sen tutmassan aslo qo‘limni,*
10.*O‘tgan sevgim uchun ochmassan aza.*
11.*Oh, qanday o‘lim bu sevgi o‘limi,*
12.*Unga na qabr bor va na janoza.*

SEVGİ ÖLÜMÜ (127)

1. Yağmur durmadan yağdı gün boyu,
2. Yağmurlu gün gibi ezildi derdim.

[112] Uzayan yaz, sıcak güzdür.

3. Çıplak sokaklarda sessiz yürüyen sevdayı
4. Senin izlerini aradım.
5. Ufuklarda ise acı bir sis
6. Benim gözlerime bıraktı zehir.
7. Sızlayan yüreğimi sakinlikle
8. Ezerdi bomboş bu şehir.
9. Şimdi sen tutmazsan asla elimi,
10. Biten sevgim için tutmazsın matem.
11. Ah, nasıl bir ölüm bu sevgi ölümü,
12. Ona ne kabir var ve ne cenaze. (1967)

AHU (128)

1. *Makoning bo‘libdi tog‘lar orasi,*
2. *Sensan go‘zallikning asli, sarasi.*
3. *Ma’yus yuragingda ishqning yarasi,*
4. *Sen ham oshiqmisan yoki, ohujon.*

5. *Daralar qo‘ynida neni istarsan,*
6. *Nechun doim g‘amgin, doim mustarsan.*
7. *Latif shijoating qayga qistarsan,*
8. *Sen ham oshiqmisan yoki, ohujon.*

9. *Yo‘q, sen axtarmassan tog‘lardan makon,*
10.*Va ma go‘zalliging uchun shuhrat-shon.*
11.*Sayyod jabri senga bermaydi imkon,*
12.*Sen ham oshiqmisan yoki, ohujon.*

13.*Qo‘y, jonim, ko‘elaring to‘lmasin yoshga,*
14.*Tongda oyog‘ing qo‘y baland bir toshga.*
15.*Seni quyosh o‘zi ko‘targ‘ay boshga,*
16.*Sen ham oshiqmisan yoki ohujon.*

AHU (128)

1. Mekânın olmuş dağlar arası,
2. Sensin güzelliğin aslı, güzidesi.
3. Meyus yüreğinde aşkın yarası,
4. Sen de âşık mısın yahut ahucuğum?

5. Derelerin bağrında neyi istersin,
6. Niçin daima gamlı, daima hüzünlüsün.
7. Latif şecaatini nereye sıkıştırırsın
8. Sen de âşık mısın yahut ahucuğum?

9. Hayır, sen aramazsın dağlardan mekân,
10. Ve ne güzelliğin için şöhret şan.
11. Avcı zulmü sana vermez imkân,
12. Sen de âşık mısın yahut ahucuğum?

13.Bırak, canım, gözlerin dolmasın yaşla,
14.Şafakta ayağını bırak yüksek bir taşa.
15. Seni güneş kendisi yüceltecek başa,
16. Sen de âşık mısın yahut ahucuğum? (1967)

PAHLAVON MAHMUD QABRI QOSHIDA (129)

1. *Madorsiz qo‘limga qalam olganda*
2. *Yo uzoq yo‘llarda horib-tolganda,*
3. *Bir nomard qoshida ojiz qolganda*
4. *Pahlavon Mahmuddan so‘radim madad.*

5. *Yulduzlar misoli kulganda ruhim,*
6. *Bo‘ronli hislarga to‘lganda ruhim,*
7. *Ba’zan she’r ustida so‘lganda ruhim,*
8. *Pahlavon Mahmuddan so‘radim madad.*

9. *Kuyladim, fazoga naqlim yetmadi,*

10.*O‘yladim, dunyoga aqlim yetmadi.*

11.*Qay ishga qo‘l urdim, shaxdim yetmadi,*

12.*Pahlavon Mahmuddan so‘radim madad.*

13.*Men uchun xilxona bo‘lganda olam,*

14.*Gumbazlar ostidan chiqdi bir alam:*

15.*- Hayotsan, bunchalar faryod aylama,*

16.*Men o‘zim madadga zorman-ku, bolam.*

PEHLİVAN MAHMUT'UN KABRİ ÖNÜNDE (129)

1. Güçsüz elime kalem aldığımda

2. Yahut uzun yollarda yorgun düştüğümde,

3. Bir namert önünde aciz kaldığımda

4. Pehlivan Mahmut'tan istedim medet.

5. Yıldızlar misali güldüğünde ruhum,

6. Fırtınalı hislerle dolduğunda ruhum,

7. Bazen şiir üstünde öldüğünde ruhum,

8. Pehlivan Mahmut'tan istedim medet.

9. Okudum, fezaya izanım yetmedi

10.Düşündüm, dünyaya aklım yetmedi.

11. Hangi işe el attım, gücüm yetmedi,

12. Pehlivan Mahmut'tan istedim medet.

13. Benim için hazire olduğunda âlem,

14.Kümbetlerin altından çıktı bir elem.

15.- Hayatsın, bu kadar feryat etme,

16. Ben kendim medete muhtacım, evladım. (1967)

ABDULLA QAHHOR (130)

1. *Yo‘llar ortimizda qolar edilar,*

2. *Sahrolar qolardi cheksiz, betakror.*

3. *Nega ular cheksiz, desam dedilar:*

4. *Bu yerdan o‘tgandi Abdulla Qahhor.*

5. *Yo‘llar ortimizda qolar edilar,*

6. *Cho‘qqilar qolardi yuksak va qator.*

7. *Nega ular yuksak, desam dedilar:*

8. *Bu yerdan ham o‘tdi Abdulla Qahhor.*

ABDULLA KAHHAR (130)

1. Yollar ardımızda kalırdılar,

2. Sahralar kalırdı sonsuz, eşsiz.

3. Niye onlar sonsuz, dersem dediler:

4. Buradan geçmişti Abdulla Kahhar.

5. Yollar ardımızda kalırdılar,

6. Tepeler kalırdı yüksek ve sıralı.

7. Niye onlar yüksek, desem dediler:

8. Buradan da geçti Abdulla Kahhar. (1967)

“OTALAR…” (131)

1. *Otalar boladan ranjisa ozroq,*

2. *Gohida shundayin so‘zni deydilar:*

3. *- Bolam, keksalarni qadrla ko‘proq,*

4. *Bog‘lab qo‘ygan emas bizni, deydilar.*

5. *Keksa dilingizga tushmasin titroq,*

6. *Otalar, chayqalib turibdi olam.*

7. *Siz ham bolalarni qadrlang ko‘proq,*

8. *Bog‘lab qo‘ygan emas bolalarni ham.*

“BABALAR…” (131)

1. Babalar çocuktan incinse daha az,
2. Bazen şöyle söz derler:
3. - Çocuğum, ihtiyarlara değer ver daha çok,
4. Bağlamış değil bizi, derler
5. Yaşlı gönlünüze düşmesin ürperti,
6. Babalar, çalkalanıp durmuş âlem.
7. Siz de çocuklara değer verin daha çok,
8. Bağlamış değil çocukları da. (1967)

“UMR O‘TIB BORAR…” (132)

1. *Umr o‘tib borar misoli ertak,*
2. *Ertaning ketidan kelib qolar shom.*
3. *Faqat g‘aflat ichra yotmagin, yurak,*
4. *Qaytib kelmas sira bu yoshlik ayyom.*

5. *Payt kelar, va’daning qimmati qolmas,*
6. *Muhlat bermas u dam to‘lgan paymona.*
7. *O‘tgan bir oningni qaytara olgay*
8. *Na ko‘zyosh, na afsus va na bahona...*

“ÖMÜR GEÇİP GİDER…” (132)

1. Ömür geçip gider misali masal,
2. Sabahından ardından gelir akşam.
3. Yalnız gaflet içinde yatma, yürek,
4. Dönüp gelmez asla bu gençlik günleri.

5. Vakit gelir, vedanın kıymeti kalmaz,
6. Mühlet vermez o an dolan kadeh.
7. Geçen bir anını döndüremeyecek
8. Ne gözyaşı, ne yazık, ne bahane… (1967)

“DUNYO BIR GULZORDIR…” (133)

1. *Dunyo bir gulzordir keng va betimsol,*
2. *Yulduzlar g‘unchadir uning uchida.*
3. *Qo‘g‘irchoq ichida qo‘g‘irchoq misol*
4. *Gullar o‘stiramiz xona ichida.*

5. *Dunyo bir boladir sho‘x va betimsol,*
6. *Uning axtargani shodlik va kulgu.*
7. *Qo‘g‘irchoq ichida qo‘g‘irchoq misol*
8. *Unga ermak bo‘lib qolmasak bo‘ldi.*

“DÜNYA BİR GÜLZÂRDIR…” (133)

1. Dünya bir gülzârdır geniş ve emsalsiz,
2. Yıldızlar goncadır onun ucunda.
3. Kukla içinde kukla misali
4. Güller büyütürüz oda içinde.

5. Dünya bir çocuktur keyifli ve eşsiz,
6. Onun aradığı sevinç ve gülüş.
7. Kukla içinde kukla misali
8. Ona eğlence olup kalmasaydık. (1967)

SHOIR (134)

1. *Parvo qilma, do‘stim, ezilma sira,*
2. *G‘amgin qo‘shiqlarni kuylasa shoir.*
3. *Misralari garchand ma’yus va xira,*
4. *Lekin barchasi ham qalbiga doir.*
5. *Buyuk zamonaning otashin zarbi*
6. *Uning qalamiga yot emas aslo.*
7. *Agar kerak bo‘lsa Sharqni va G‘arbni*
8. *Yolg‘iz bir she’riga eta olar jo.*
9. *Lekin u yuragin qasddan yoqmagay,*

10.*Qalbiga olamdan oqar ohanglar.*

11.*Ayting, hilol buncha ma'yus boqmagay,*

12.*Ayting, muncha suluv bo'lmagay tonglar.*

13.*Ayting, Bobotog'ning silsilasida*

14.*Sakrab kezmasinlar munis ohular.*

15.*Ular aks etadi she'r misrasida,*

16.*Ajib o'ychan qilib qo'yadi ular.*

17.*Parvo qilma, do'stim, ezilma sira,*

18.*G'amgin qo'shiqlarni kuylasa shoir.*

19.*Misralari garchand ma'yus va xira,*

20.*Barchasi ham shaydo qalbiga doir.*

ŞAİR (134)

1. Aldırış etme, dostum, ezilme asla,

2. Gamlı koşukları terennüm etse şair.

3. Mısraları gerçi meyus ve belirsiz,

4. Ama hepsi de kalbine dair.

5. Büyük zamanın ateşinin darbesi

6. Onun kalemine yabancı değil asla.

7. Eğer gerek olsa Doğu'yu ve Batı'yı

8. Sadece bir şiire koyabilir.

9. Ama o yüreğini kasten yakmayacak,

10. Kalbine âlemden akar ahenkler.

11.Söyleyin, hilal bu kadar meyus bakmayacak,

12.Söyleyin, bu kadar güzel olmayacak şafaklar.

13.Söyleyin, Babadağ'ın silsilesinde

14. Hoplayıp gezmesinler dost ahular.

15. Onlar akseder şiir mısrasında,

16. Acayip düşünceli eder onlar.

17. Aldırış etme, dostum, ezilme asla,

18. Gamlı koşukları söylese şair.

19.Mısraları gerçi meyus ve belirsiz,

20. Hepsi de âşık kalbine dair. (1967)

SOVG‘A (135)

(Buxoro gazining Moskvaga yetib

borishi munosabati bilan)

1. *Qani qo‘lingni ber, ey qardosh diyor,*
2. *O‘zbek yigitining qaynoq kafti bu.*
3. *Bu kungi sovg‘aning o‘zga nomi bor,*
4. *Zahmatkash yurtimning yurak tafti bu.*
5. *Baxtini bus-butun topgunicha to, -*
6. *Ne-ne balolarni ko‘rgan o‘zbekman.*
7. *Mehmon joy so‘rasa, ayamay hatto, -*
8. *Unga jonini ham bergan o‘zbekman.*
9. *Dilbar Farg‘onadan sohibkor xalqim*
10.*Har yili uzatar tonnalab meva,*
11.*Bundayin bisotni ko‘rmagan balkim,*
12.*Makkaga qatnagan millionlab teva.*
13.*Tomdi yaylovida ma’sum qo‘zichoq*
14.*Do‘stlar deb ko‘z ochmay berar jonini,*
15.*Hisoblab chiqishga son yetmas bu choq*
16.*Muruntovdan ketgan oltin konini.*
17.*Bizning paxtaga-ku, barcha muntazir,*
18.*Yer yuzi o‘rtada ko‘rmoqda baham...*
19.*Qanday bayon qilay fikrimni axir,*
20.*Mana, olib keldik o‘timizni ham.*
21.*Gaz degan, do‘stlarim, nima bo‘libdi,*
22.*Azaldan jonimiz sizga sadaqa.*
23.*Jahon-ku rost gapni ko‘rib turibdi,*
24.*Bizlar shundoq edik, bizlar shunaqa.*
25.*Bizlar baxsh etamiz do‘stlarga olov,*
26.*Mana, Osiyoning quyoshi sizga.*
27.*Yoz payti saraton qizdirsa lov-lov, -*
28.*Sizdan ham shabboda kelgusi bizga.*
29.*Va lekin shamolday sargardon yurib,*
30.*Baxtimni axtarib kezmasligim chin.*

31.*Men bu kun Moskva yonida turib*
32.*Seni ulug‘layman, ey ona xalqim,*
33.*Bir ne’mat bo‘lsin deb qalbda qonni ham*
34.*Anor donasiga joylagan jonsan.*
35.*Agar qo‘yib bersa, keng jahonni ham*
36.*Zarga o‘raguvchi O‘zbekistonsan.*
37.*Nurli istiqbolda barchaning ko‘zi,*
38.*Oldinda kelajak turar alomat.*
39.*Mayliga, yashnasin butun yer yuzi,*
40.*Do‘stlarning jonlari bo‘lsin salomat.*
41.*Buyuk salaflarning silsilasida*
42.*Axir Rossiyaning farzandi bisyor.*
43.*Lermontovning o‘tli bir misrasiga*
44.*Mayli, O‘zbekiston otashi nisor.*
45.*Bu otash toblaydi do‘stlikni faqat,*
46.*Bu otash orttirar iqbolning kuchin.*
47.*Bu otash taftida hurmat va himmat*
48.*Tabarruk zotlarning dahosi uchun...*

ARMAĞAN (135)

(Buhara gazının Moskova’ya

gidişi münasebetiyle)

1. Haydi elini ver, ey kardeş diyar,
2. Özbek gencinin kızgın ayası bu.
3. Bugünkü armağanın başka adı var,
4. Emektar yurdumun yürek ısısı bu.
5. Bahtını büsbütün buluncaya kadar,
6. Ne belaları görmüş Özbek’im.
7. Misafir yer sorsa, sakınmadan hatta,
8. Ona canını da veren Özbek’im.
9. Sevgili Fergana’dan usta halkım
10. Her yıl verir tonlarca meyva,
11.Böyle zenginliği görmemiş belki,

12.Mısıra katılan milyonlarca deve.
13. Tamdi yaylasında masum kuzucuk
14. Dostlar diye göz kırpmadan verir canını
15. Hesaplamaya sayı yetmez o an
16. Muruntov'dan giden altın kanını.
17. Bizim pamuğa, hepsi muntazır,
18. Yeryüzünün ortasında paylaşmakta…
19. Nasıl beyan edeyim fikrimi ahirinde,
20.İşte, alıp geldik odumuzu da.
21. Gaz demiş, dostlarım, ne olmuş,
22. Ezelden canımız size sadaka.
23. Cihan ki doğru sözü duymuş,
24. Bizler böyleydik, bizler şöyle.
25. Bizler bahşederiz dostlara alev,
26.İşte Asya'nın güneşi size.
27. Kuru yazda kızdırsa alev alev,
28. Sizden de esinti gelecek bize.
29. Velakin rüzgâr gibi şaşkın yürüyüp,
30. Bahtımı arayıp gezmediğim doğru.
31. Ben bugün Moskova'nın yanında durup
32. Seni yüceltirim, ey ana halkım.
33. Bir nimet olsun diyerek kalpteki kana da
34. Nar tanesine de yerleşmiş cansın.
35.Eğer bıraksa, geniş cihanı da
36. Zenginlikle bezeyen Özbekistansın.
37. Nurlu istikbalde hepsinin gözü,
38.Önünde geleceğin durur alameti.
39. Peki, yeşersin bütün yeryüzü,
40. Dostların canları olsun selamet.
41.Büyük seleflerin silsilesinde
42. Artık Rusya'nın çocuğu çok.
43. Lermontov'un alevli bir mısrasına
44. Olsun, Özbekistan ateşi kurban.
45. Bu ateş ısıtır dostluğu sadece,
46. Bu ateş arttırır ikbalin gücünü.
47. Bu ateş ısısında hürmet ve himmet

48.Mübarek zatların dehası için… (1967)

YOZAJAKMAN (136)

1. *Do‘stlar, demangiz, men she’ru doston yozajakman,*
2. *Men she’ru doston ichra bir afg‘on yozajakman.*
3. *Hayrona boqur bu manim ahvolima har kim,*
4. *Men ersam o‘zgalar ahvoliga hayron, yozajakman.*
5. *Shoir diliga qilma havas, but esa bag‘ring,*
6. *Shoir yuragin doimo vayron yozajakman.*
7. *Soldi dilima qancha alam ul sho‘xu badxo‘,*
8. *Bilmamki, axir qay biri qurbon, yozajakman.*
9. *Osmon elining turfa-tuman yulduzi ko‘pdir,*
10.Xo‘bdir barisi, ravshani - cho‘lpon yozajakman.
11.Sen she’rga qo‘ling cho‘zmagil, ey johili nokas,
12.Bo‘lsang-da “xudo” nomingni shayton yozajakman.
13.Boshingga agar qo‘nsa shu kun sharpai iqbol,
14.Poyingga, elim, bosh urib qur’on yozajakman.
15.Quldir demangiz garchi nomi Abdulla erurman,
16.Rasul ham emas, yo‘q hali unvon, yozajakman.

YAZACAĞIM (136)

1. Dostlar, demeyiniz, ben şiir ve destan yazacağım,
2. Ben şiir ve destan içinde bir figan yazacağım.
3. Şaşkın bakar benim bu hâlime herkes,
4. Bense başkalarının durumuna şaşkın, yazacağım.
5. Şair gönlüne etme heves, taş ise bağrın,
6. Şair yüreğini daima viran yazacağım.
7. Saldı gönlüme nice elem o yaramaz ve kötü,
8. Bilmem ki, artık hangi biri kurban ya, yazacağım.
9. Asuman diyarının harikulade, on binlerce yıldızı vardır,
10.Güzeldir hepsi, Çolpan’ın yalınlığını yazacağım.
11. Sen şiire elini uzatma, cahil ve alçak,
12. Ansan da “Hüda” adını şeytan yazacağım.
13.Eğer başına konsa bugün hayal-i ikbal,

14. Ayağına, halkım, baş eğip Kur'an yazacağım.

15. Kuldur demeyiniz gerçi adı Abdulla'mışım

16. Resul de değilim, yok hâlâ unvan, yazacağım. (1967)

MINORAI KALON TEPASIDAGI LAYLAK (137)

1. *Tashlab ketdi bu shaharni beklar, amirlar,*

2. *Tashlab ketdi bu shaharni islom shavkati.*

3. *Tashlab ketdi bu shaharni shayxlar, kabirlar,*

4. *Tashlab ketdi mahmadona Mang'it davlati.*

5. *Bulbullar ham ketdi bundan ko'zini yoshlab,*

6. *Tovuslar ham qaylargadir asta yo'qoldi.*

7. *Faqat bir kush bu shaharni ketmadi tashlab,*

8. *Faqat laylak Buxoroda manguga qoldi.*

9. *Men bu holga hayron bo'lib boqdim har safar,*

10.*Bir she'r izlab Buxoroni kezarkan uzoq.*

11.*Ajab, qushning oyoqlari g'o'zaga o'xshar,*

12.*Qanotlari esa uning paxtadek oppoq.*

KALAN MİNARESİNİN[113] TEPESİNDEKİ LEYLEK (137)

1. Bırakıp gitti bu şehri bekler, emirler,

2. Bırakıp gitti bu şehri İslam şevketi.

3. Bırakıp gitti bu şehri şeyhler, büyükler,

4. Bırakıp gitti bilgiç Mangıt Devleti.

5. Bülbüller de gitti buradan gözlerini yaşlayıp,

6. Sesler de bir yerlerde yavaşça kayboldu.

7. Sadece bir kuş bu şehri gitmedi bırakıp,

8. Yalnız leylek Buhara'da ebedîliğe kaldı.

[113] Karahanlı hükümdarı Muhammed Arslan Han tarafından 1121 yılında Buhara'da yaptırılmış Kalan Camisi'nin minaresidir.

9. Ben bu hâle şaşırıp baktım her sefer,
10. Bir şiir arayıp Buhara'yı gezermiş uzun.
11. Garip, kuşun ayakları pamuğa benzer,
12. Kanatları ise onun pamuk gibi bembeyaz. (1968)

ALISHER (138)

1. *Jahonki muqaddas neni ko'ribdi, -*
2. *Bariga onasan, ey qodir hayot.*
3. *Besh yuz yil naridan boqib turibdi,*
4. *Nurli bu yuzlarga nuroniy bir zot.*

5. *Shu buyuk o'g'lingni ardoqlab dildan, -*
6. *Xalqim, ta'zim etsang arzigay tamom.*
7. *Uning nomi bilan birga bitilgan*
8. *Dunyo daftariga o'zbek degan nom.*

9. *Boyqaro irg'ishlab istak otida*
10.*Jahonga boqqanda misli bola sher, -*
11.*Hirot darvozasin bir qanotida*
12.*She'riy lashkarini tizgan Alisher.*

13.*Dunyoda biror nom qoldirmoq uchun*
14.*Yurt buzish shart emas, degan gap-ku, rost.*
15.*Kimdir pesh qilganda nayzaning kuchin,*
16.*Alisher qalamni ko'rsatgan, xolos.*

17.*Tun bilan tong erur tashbihda udum,*
18.*Misoli zahru may, hajru shakar lab.*
19.*Kimnidir quyoshday eslasa mardum,*
20.*Kimnidir zulmatday yurarlar qarg'ab.*

21.*Nido tingla, bu kun, yurting tarafdan,*

22.*Ey, yiroq Hirotda maskan topgan er!*

23.*Ogoh bo‘l, Alisher, sen ushbu gapdan:*

24.*Har ikki nabirang biri - Alisher.*

25.*Baytingga bir bora qovushgan har lab,*

26.*Takrorlab ketgusi mahshargacha to.*

27.*Qaratib turibsan bu yon, ne ajab,*

28.*Milliard martabali jahonni hatto.*

29.*Birovlar nazdida johil Osiyo*

30.*Faqat zavol ko‘rib, ko‘rmagan kamol.*

31.*Muso iltijosi yetdi-yu go‘yo,*

32.*Haq Tur tog‘i uzra ko‘rgazdi jamol -*

33.*Jahon mehrobida paydo Alisher...*

34.*Shodmon qasida ayt sen ham, ey quyosh!*

35.*Besh yuz yil unga ham nima gap axir,*

36.*Mingga qadam qo‘ydi yigirma besh yosh.*

ALİ ŞÎR (138)

1. Cihan ki mukaddes neyi görmüş,

2. Herkese anasın, ey kadir hayat.

3. Beş yüz yıl öteden bakıp durmuş,

4. Nurlu bu yüzlere nurani bir zat.

5. Şu büyük oğluna iyi bakıp gönülden,

6. Halkım, tazim etsen değecek tamam.

7. Onun adıyla birlikte yazılmış

8. Dünya defterine Özbek denen nam.

9. Baykara atlayıp istek atında

10. Cihana baktığında sanki çocuk şir,
11. Herat kapısının bir kanadında
12.Şiirsel ordularını dizen Ali Şîr.

13.Dünyaya bir isim bırakmak için
14. Yurt bozmak şart değil, denen söz ki, doğru.
15. Kim övündüğünde süngünün gücüyle,
16. Ali Şîr kalemi göstermiş, sadece.

17. Geceyle şafaktır teşbihte âdet,
18. Misali zehru mey, hicru şeker leb.
19. Kimi güneş gibi hatırlasa göz bebeği,
20. Kimi zulmet gibi yürür lanet edip.

21. Nida dinle, bugün, yurt yönünden,
22. Ey, uzak Herat'ta mesken bulan er!
23. Dikkat et, Ali Şîr, sen bu söze:
24. Her iki torunun biri Ali Şîr.

25. Beytine bir kez kavuşan her leb,
26. Tekrarlayıp gidecek mahşere dek.
27.Gösterip dursan, bu yanı, ne garip,
28. Milyarlarca mertebeli cihanı hatta.

29. Birileri nezdinde cahil Asya
30. Sadece zeval görüp, görmemiş kemal
31. Musa'nın ilticası yetti sanki,
32. Hak Tur Dağı üstünde gösterdi cemal

33. Cihan mihrabında peyda Ali Şîr
34. Sevinçli kaside söyle sen az, ey güneş!
35. Beş yüz yıl ona da ne söz ahir,

36. Bin adım attı yirmi beş yaş. (1968)

ALISHERNING ONASI (139)

(Bolalarga)

1. *Bilmam, qanday ayol bo‘lgan*
2. *Alisherning onasi.*
3. *Balki uning aqliga ham*
4. *Lol bo‘lgan zamonasi.*
5. *Balki uning ko‘zlarida*
6. *Bo‘lgan og‘ir bir xayol.*
7. *Balki g‘amgin bir zotdir u,*
8. *Balki sho‘xchan bir ayol.*
9. *Balki buyuk farzandiga*
10.*Terib kelgan chechaklar.*
11.*Balki tunlar unga bedor*
12.*Aytib bergan ertaklar.*
13.*Mayliga, u kim bo‘lmasin,*
14.*Yolg‘iz bir so‘z ma’nosi:*
15.*Alisherning onasi u,*
16.*Navoiyning onasi.*

ALİŞİR’İN ANASI (139)

(Çocuklara)

1. Bilmem, nasıl kadınmış
2. Ali Şîr’in anası.
3. Belki onun aklına da
4. Lal olmuş zamanesi.
5. Belki onun gözlerinde
6. Olmuş ağır bir hayal.
7. Belki gamlı bir zattır o,

8. Belki şakacı bir kadın.

9. Belki büyük evladına

10. Toplayıp getirmiş çiçekler.

11. Belki geceler ona bidar

12.Söylediği masallar.

13. Peki, o kim olmasın,

14. Tek bir söz manası:

15. Ali Şîr'in anası o,

16. Nevâî'nin anası. (1968)

GORKIY (140)

1. *Adib, taqdiringga ta'zim qil bu kun,*

2. *Bu kun ehtirom qil tole qoshida.*

3. *Qaro kechmishingga razm qil bu kun,*

4. *Ne kunlar o'tmagan Rusning boshidan.*

5. *Qo'sh kalla burgutli ulkan Rossiya*

6. *Ardoqlay bilmagan hatto o'z ishqin.*

7. *Sharafsiz yurtining sharafi deya,*

8. *Sharafsiz qo'llarda jon berdi Pushkin.*

9. *Buyuk Lermontovning otash chog'lari*

10.*Kulday sovurildi badbo'y so'zlardan.*

11.*Bu zotni hattoki Kavkaz tog'lari*

12.*Yashira bilmadi yovuz ko'zlardan.*

13.*Yosh qalbim zamonlar dardiga to'lug',*

14.*Tarixni o'ylayman men gohi onlar.*

15.*Bu yurt g'amlari ham naqadar ulug',*

16.*Bu yurt shavkati ham ne bir o'g'lonlar...*

17.*She'r ham yozmas edim men unga balkim,*

18.*Poylab ham turmovdim tavallud kunni.*

19.*Taajjub qilaman taqdirigakim,*

20.*Jafo-yu g'am bo'lmish dorilfununi.*

21.*Davr o'qi dilini yuz pora qilmish,*

22.*Zirapchadan zada jahoniy bir zot.*

23.*Achchiq kechmishiga ishora qilmish,*

24.*O'ziga tanlagan chog'da timsol-ot.*

25.*Yaxshiyam tubanda qolib u taqdir,*

26.*Topdi ustoz degan qutlug‘ nomni u.*

27.*Oqibat zamonda ko‘roldi oxir*

28.*Pushkin ko‘rolmagan ehtiromni u.*

29.*Adib, taqdiringga ta’zim qil bu kun,*

30.*Bu kun ehtirom qil tole qoshida.*

31.*Qora kechmishingga razm qil bu kun,*

32.*Ne kunlar o‘tmagan sening boshingdan.*

GORKİ (140)

1. Edip, kaderine tazim et bugün,

2. Bugün ihtiram et talih önünde.

3. Kara geçmişine dikkatle bak bugün,

4. Ne günler geçmemiş Rus’un başından.

5. Çift başlı kartallı büyük Rusya

6. İyi bakamamış hatta kendi aşkına.

7. Şerefsiz yurdun şerefi diye,

8. Şerefsiz ellerde can verdi Puşkin.

9. Büyük Lermantov’un ateşli çağları

10.Kül gibi savruldu kokuşmuş sözlerden.

11. Bu zatı hatta Kafkas Dağları

12. Gizleyemedi kötü gözlerden.

13. Genç kalbim zamanın derdiyle dolu,

14. Tarihi düşünürüm ben bazı anlar.

15. Bu yurt gamları da ne kadar ulu,

16. Bu yurt şevketi de bir oğlanlar…

17.Şiir de yazmazdım ben ona belki,

18. Bekleyip de durmazdım doğum gününü.

19. Taaccüp ederim kaderine ki,

20. Cefa ve gam olmuş Darülfününu.

21. Devri oku gönlünü yüz parça etmiş,

22. Dikenden usanmış evrensel bir zat.

23. Acı geçmişe işaret etmiş,

24. Kendine seçtiği anda timsal ad.

25.İyi ki alçakta kalıp o kader,

26. Buldu üstat denen kutlu adı o.

27. Akıbeti zamanda görebildi nihayet

28. Puşkin görememiş ihtiramı o.

29. Edip, kaderine tazim et bugün,

30. Bugün ihtiram et talih önünde.

31. Kara geçmişine dikkatle bak bugün,

32. Ne günler geçmemiş Rus'un başından. (1968)

JUMBOQ (141)

1. *Idrokim boricha yashadim faqat,*

2. *Fahm etdim dunyoni baimkon, qat-qat.*

3. *Yolg'iz bir jumboqqa aqlim yetmadi:*

4. *Qaydan tug'iladi, bilmadim, hasad.*

MUAMMA (141)

1. İdrakim olduğu kadar yaşadım ancak,

2. Fehmettim dünyayı imkânsız, kat kat.

3. Yalnız bir muammaya aklım yetmedi:

4. Nasıl doğar, anlamadım, haset. (1968)

XATOLAR (142)

1. *Vaterlooda xato qildi Napoleon -*

2. *Jahongirning qaytdi shu kun omadi.*

3. *Mana o'tsa hamki necha bir zamon,*

4. *U haqda gapirmagan odam qolmadi.*

5. *Bobom payg'ambarlar qasosi uchun*

6. *Goho osiylarning oldi boshini.*

7. *Uni qarg'adilar xatosn uchun,*

8. *Hamon otmoqsalar ta'na toshini.*

9. *...Xato qilgan bo'lsam kechirgin, bolam,*

10.*Yuz yil davomida cho‘zaverma, bas.*

11.*Ko‘rib turibsan-ku, men oddiy odam,*

12.*Napoleon emasman, Temur ham emas!*

HATALAR (142)

1. Waterloo’da hata etti Napolyon

2. Cihangirin döndü o an talihi.

3. İşte geçse suçlu nice bir zaman,

4. O konuda konuşmayan insan kalmadı.

5. Dedem peygamberler kıssası için

6. Bazen asilerin aldı başını.

7. Onu lanet ettiler hatası için,

8. Hâlâ atmaktalar sitem taşını.

9. …Hata etmişsem affedin, evladım,

10.Yüz yıl devamında uzatıverme, yeter.

11.Görmüşsün ya, ben sıradan insan,

12. Napolyon da değilim, Timur da değilim! (1968)

BIRINCHI MUHABBATIM (143)

1. *Kecha oqshom falakda oy bo‘zarib botganda,*

2. *Zuhra yulduz miltirab, xira xanda otganda,*

3. *Ruhimda bir ma’yuslik, sokinlik uyg‘otganda,*

4. *Men seni esga oldim, birinchi muhabbatim.*

5. *Eslab xayolga toldim, birinchi muhabbatim.*

6. *O‘tdi yoshlik zavq bilan, gohi to‘polon bilan,*

7. *Gohida yaxshi bilan, gohida yomon bilan,*

8. *Ayri ham tushdim ba’zan qalb bilan, imon bilan,*

9. *Lekin seni yo‘qotdim, birinchi muhabbatim,*

10.*Mangu g‘aflatda qotdim, birinchi muhabbatim.*

11.*Dunyo degan shundayin anglab bo‘lmas sir ekan,*
12.*Goh keng ekan, gohida tuynuksiz qasr ekan.*
13.*Lekin inson hamisha bir hisga asir ekan...*
14.*Nechun bilmovdim avval, birinchi muhabbatim,*
15.*Parvo qilmovdim avval, birinchi muhabbatim.*

16.*Holbuki orzulardan judo ham bo‘lganim yo‘q,*
17.*Yulduzday kulganim yo‘q, oy kabi to‘lganim yo‘q.*
18.*Erta xazon gul kabi sarg‘ayib so‘lganim yo‘q,*
19.*Seni eslab yig‘layman, birinchi muhabbatim,*
20.*Eslab bag‘rim tig‘layman, birinchi muhabbatim.*

21.*Yo‘lin yo‘qotsa odam - muhabbatga suyangay,*
22.*G‘ussaga botsa odam - muhabbatga suyangay.*
23.*Chorasiz qotsa odam - muhabbatga suyangay,*
24.*Men kimga suyangayman, birinchi muhabbatim.*
25.*Faqat eslab yongayman, birinchi muhabbatim.*

26.*Nido bergil, qaydasan, sharpangga quloq tutdim,*
27.*Sirli tushlar ko‘rib men bor dunyoni unutdim.*
28.*Tongda turib nomingga ushbu she’rimni bitdim,*
29.*Dildagi ohim mening, birinchi muhabbatim,*
30.*Yolg‘iz Ollohim mening, birinchi muhabbatim.*

İLK AŞKIM (143)

1. Dün akşam felekte ay bozarıp battığına,
2. Zühre yıldız ışıldayıp, belirsiz gülümsediğinde,
3. Ruhumda bir meyusluk, sakinlik uyandığında,
4. Ben seni hatırladım, ilk aşkım.
5. Hatırlayıp hayale daldım, ilk aşkım.

6. Geçti gençlik zevkiyle, bazen macerayla,
7. Gâh iyiyle, gâh kötüyle,
8. Ayrı da düştüm bazen kalple, bazen imanla,
9. Ama seni kaybetmedim, ilk aşkım,
10. Sonsuz gaflete düştüm, ilk aşkım.

11.Dünya denilen böyle anlaşılmaz sırmış,
12.Gâh genişmiş, gâh bacasız kaleymiş.
13. Lakin insan daima bir hisse esirmiş…
14. Niçin bilmezdim evvelden, ilk aşkım,
15. Aldırış etmezdim evvelden, ilk aşkım.

16.Hâlbuki arzulardan ayrıldığım da yok,
17.Yıldız gibi güldüğüm yok, ay gibi dolduğum yok,
18. Erken hazan gülü gibi sararıp solduğum yok,
19. Seni hatırlayıp ağlarım, ilk aşkım,
20. Hatırlayıp bağrımı parçalarım, ilk aşkım.

21. Yolunu kaybetse insan, aşka dayanacak,
22.Sıkıntıya düşse insan, aşka dayanacak,
23.Çaresiz kalsa insan, aşka dayanacak,
24. Ben kime dayanacağım, ilk aşkım.
25. Yalnız hatırlayıp yanacağım, ilk aşkım.

26. Ses ver, neredesin, mırıltına kulak verdim,
27.Sırlı düşler görüp ben tüm dünyayı unuttum.
28.Şafakta kalkıp adına bu şiirimi yazdım,
29.Gönüldeki ahım benim, ilk aşkım,
30. Yalnız Allah'ım benim, ilk aşkım.

"BUL AJAB…" (144)

1. *Bul ajab, xor kimsadin imdod so'raydi xorlar,*

2. *Siz bemor ko‘ksiga bosh urmangiz, ey bemorlar!*

3. *Gar falak burjida shams uyquga solsa o‘zni,*
4. *Yetdi navbat bizga deb chaqnar emish sayyorlar.*

5. *Sajdaga boshing urib faryod chekma, ey rafiq,*
6. *Endi sen topgaymiding, topmabdi-ku ag‘yorlar.*

7. *Fozilu donish eli qo‘l yuvsa bu dunyoga gar,*
8. *Vo ajab, oqqan suvin no‘sh etar shayx xunxorlar.*

9. *Nafs ila dunyoga dil bergan fosiqlar, siz bukun*
10. *Yassaviy xok-poyidan aylab oling tummorlar.*

11. *Kim berar dunyoga zar, abgor o‘lib qolgay o‘zi,*
12. *Kimki dorni buzsa gar, anga qurilgay dorlar.*

13. *Kimsalar, badbin deya boqmang bu kun Abdullaga,*
14. *Tinglasa gohi yurib moziy elidin zorlar.*

“BU İLGİNÇ…” (144)

1. Bu ilginç, aşağı kimseden medet umar aşağılıklar,
2. Siz hasta gönüle baş eğmeyiniz, ey hastalar.

3. Eğer felek burcunda güneş uykuya bıraksa kendini,
4. Geldi nöbet bize deyip çiğnermiş seyyarlar.

5. Secdeye başını koyup feryat etme, ey dost,
6. Şimdi sen bulacak mıydın, bulmamış ya eller,

7. Fâzıl-ı dâniş halkı inanmazsa bu dünyaya eğer,
8. Garip, akan suyu içer şeyh hunharlar.

9. Nefis ile dünyaya gönül veren fasıklar, siz bugün
10. Yesevi hâk-i pâyından eyleyin muskalar.

11. Kim verir dünyaya altın, çaresiz ölecek kendisi,
12. Kim ki darı bozsa eğer, ona kurulacak darağaçları.

13. Kimseler, karamsar diye bakmayın bugün Abdulla'a,
14. Dinlese bazen yürüyüp mazi halkından figanlar. (1968)

"SEVGIDAN…" (145)

1. *Sevgidan so'ylarding u kun entikib,*
2. *So'ylarding visolning yaqin kelishin.*
3. *Men bo'lsam ko'zimni qaygadir tikib,*
4. *O'ylardim dunyoning savdoli ishin.*

5. *Bugun-chi, bir o'zim, yuribman tanho,*
6. *Sevgi ham, visol ham bo'ldilar abas.*
7. *Barchasi manguga tark etdi, ammo*
8. *Faqat o'sha o'ylar tark etgan emas.*

"SEVGİDEN…" (145)

1. Sevgiden söylerdin o gün iç çekip,
2. Söylerdin visalin yakın gelişi.
3. Ben olsam gözümü bir yere dikip,
4. Düşünürdüm dünyanın sevdalı işini.

5. Bugün, bir başıma, yürümüşüm yalnız,
6. Sevgi de, visal de oldular abes.
7. Hepsi sonsuzluğa terk etti ama
8. Sadece o düşünür terk etmiş değil. (1968)

SAMOLYOTDA YOZILGAN SHE'R (146)

1. *Charx urar erdim fazoda, yulduzim yo'ldosh edi,*
2. *Yulduzimga termulib yulduz ko'zimda yosh edi.*

3. *Der edim: - Jon yulduzim, vaslingga bir yetkaz mani,*
4. *Der edi: - Ko'k sevmagay senday gunohkor bandani.*

5. *Charx urar erdim fazoda, yulduzim yo'ldosh edi,*
6. *Yulduzimga termulib yulduz ko'zimda yosh edi.*

7. *Der edim: - Tush, yulduzim, yo'qsa zaminga, sen o'zing.*
8. *Der edi: - Xush ko'rmagay tashvishli yerni yulduzing.*

UÇAKTA YAZILAN ŞİİR (146)

1. Çark çeviririrdim fezada, yıldızım yoldaştı,
2. Yıldızıma bakıp yıldız gözümde yaştı.

3. Derdim: - Can yıldızım, visaline bir ulaştır beni,
4. Derdi: - Gök sevmeyecek senin gibi günahkâr köleyi.

5. Çark çeviririrdim fezada, yıldızım yoldaştı,
6. Yıldızıma bakıp yıldız gözümde yaştı.

7. Derdim: - Düş, yıldızım, yoksa zemine, sen kendin.
8. Derdi: - Hoş görmeyecek kaygılı yeri yıldızın. (1968)

BU KUN (147)

1. *Vahki, ishq sahrosida qoldim beishq tanho bu kun,*

2. *Chiqma, Qays, ohim bilan yonmoqda bu sahro bu kun.*

3. *Chehrai zarrin sira ko‘rmakka hojat qolmadi,*

4. *Shams narvoni uza ag‘yor erur paydo bu kun.*

5. *Sharhi dil etmay turib rad etdi yorim, bo‘ylakim*

6. *Qismat omin aytdi, aytmay zarra bismillo bu kun.*

7. *Nun labing uzra sokin qoldi hiloldek holatim,*

8. *Harf o‘yin aylay desam, o‘zga erur imlo bu kun.*

9. *Bag‘ri qonlar birla yorning zarra dardi yo‘q, ne tong,*

10.*Iblis ila ko‘kda ham mashg‘ul erur ollo bu kum.*

11.*Charxi kajraftorning shevasi doim shul ekan,*

12.*Vasl uyida g‘ayr eli aylab yurar yallo bu kun.*

13.*Yor visoli toleingda bo‘lsa, Abdullo, agar*

14.*Senga parvo qilsalar ham qilmagin parvo bu kun.*

BUGÜN (147)

1. Vah ki, aşk sahrasında kaldım aşksız yalnız bugün,

2. Çıkma, Kays, ahımla yanmakta bu sahra bugün.

3. Altın çehreni görmeğe hiç hacet kalmadı,

4. Şems merdiveni üzerinde eller aşikârdır bugün.

5. Şerh-i gönül etmeyip reddetti yârim, böyle ki
6. Kısmet âmin dedi, söylemeden zerre bismillah bugün.

7. Nun lebin üzerinde sakin kaldı hilal gibi hâletim,
8. Harf oyunu yapayım desem, başka imladır bugün.

9. Bağrı yanıklarla yârin zerre derdi yok, şafakta,
10.İblisle gökte de meşgul olur Allah bugün.

11.Çarkı değişenin ağzı daima buymuş,
12. Visal evinde yabancı halk eyler neşe bugün.

13.Yâr visali talihindeyse, Abdulla, eğer
14. Sana ilgi gösterseler de etme aldırış bugün. (1968)

BAHOR KUNLARIDA (148)

(Hazil)

1. *Bahor chog‘i edi,*
2. *Shod edik juda.*
3. *Bog‘da dildor bilan ayladik visol,*
4. *Jilmayib yurardik huda-behuda,*
5. *Xuddi kitoblarda yozilgan misol.*

6. *Birdan gumbirladi momaqaldiroq,*
7. *Havoning avzoyi buzildi, ne hol?*
8. *Yomg‘ir ham sharillab quydi-ku shu choq,*
9. *Xuddi kitoblarda yozilgan misol.*

10.*Bir zum yomg‘ir ichra qoldik ikkimiz,*
11.*U mening ko‘ksimga bosh qo‘ydi behol.*
12.*Cho‘mdik allaqanday hislarga ham biz,*
13.*Xuddi kitoblarda yozilgan misol.*

14.*Yo‘q, endi kitobga o‘xshamadi hech,*
15.*Qurg‘ur yomg‘ir bizdan ketibdi kulib.*
16.*Ikkov ikki yonga tarqaldik shu kech,*
17.*Mening belim og‘rib, u tumov bo‘lib...*

BAHAR GÜNLERİNDE (148)

(Gülmece)

1. Bahar zamanıydı,
2. Mutluyduk çok.
3. Bahçede sevgiliyle eyledik visal,
4. Gülümseyerek yürürdük beyhude,
5. Tıpkı kitaplarda yazılan misal.

6. Birden gürledi gök gürültüsü,
7. Havanın durumu kötüleşti, ne hâl?
8. Yağmur da şarıldadı ki o an,
9. Tıpkı kitaplarda yazılan misal.

10. Bir an yağmur altında kaldık ikimiz,
11.O benim göğsüme baş koydu hâlsiz.
12. Daldık bazı hislerede biz,
13.Tıpkı kitaplarda yazılan misal.

14. Hayır, şimdi kitaba benzemedi hiç,
15. Biten yağmur bizden gitmişti gülüp.
16.İkimiz de iki yana uzandık o gece,

17. Benim belim ağrımış, o nezle olmuş… (1968)

KETMOQDAMAN (149)

1. *Yaxshi qol, ey, dilbarim, dilda kadar, ketmoqdaman,*

2. *Ishq aro endi holim zeru zabar, ketmoqdaman.*

3. *Na ishonchu na quvonchu na ko‘ngildan gapni och,*

4. *Barchasidan ushbu kun yo‘qdir samar, ketmoqdaman.*

5. *Men quyosh yuzlimga deb, tun-kechalar berdim yurak,*

6. *Oqibat otganda tong qondir jigar, ketmoqdaman.*

7. *Necha kunlar o‘tdi, lekin so‘rmading holimni bir,*

8. *Oxirida hol so‘rab kelsang magar, ketmoqdaman.*

9. *Kelganimda dedilarki, bu yigit koni zarar,*

10.*Ketmagimdan, oxir ayt, bormi zarar, ketmoqdaman.*

11.*Bilmadim, hech bormikin asli dardimga shifo,*

12.*Xasta bu Abdulladan olgin xabar, ketmoqdaman.*

GİTMEKTEYİM (149)

1. Hoşça kal, ey, dilberim, gönülde keder, gitmekteyim,

2. Aşk içinde şimdi hâlim perişan, gitmekteyim.

3. Ne inanç ne kıvanç ne gönülden sözü aç,

4. Hiçbirinden bugün yoktur bir netice, gitmekteyim.

5. Ben güneş yüzlüme diye, gece gündüz verdim gönül,

6. Akıbet attığında tan kandır ciğer, gelmekteyim.

7. Nice günler geçti, sormadın hâlimi bir,
8. Sonunda hâl sorup gelsen meğer, gitmekteyim.

9. Geldiğimde dedikleri, bu yiğit kanı zarar,
10. Gitmememden, söyle ya, var mı zarar, gitmekteyim.

11. Bilmedim, hiç var mı ki aslı derdime şifa,
12. Hasta bu Abdulla'dan al haber, gitmekteyim. (1968)

ILG'OR ISHCHI VA CHAQQON MUXBIR QISSASI (150)

1. *Ishchi tongda turib olib*
2. *Qurilishga boradi.*
3. *G'isht teradi, tosh yo'nadi,*
4. *Shag'alini qoradi.*

5. *Qo'l ishda-yu, ammo o'zga*
6. *Xayol kezar boshida,*
7. *Bog'chadagi qizchasining*
8. *Lentasi yo'q sochida.*

9. *Telpagini yo'qotibdi,*
10.*O'yinqaroq kenjasi.*
11.*Yangisini obber, - deydi,*
12.*Yig'lab chiqdi kechasi.*

13.*Biroviga papka kerak,*
14.*O'ylab hamma-hammasin,*
15.*Ishchi shu kun ikki hissa*
16.*Bajaradi normasin.*

17.*Kun yarmidan og‘may turib*
18.*Muxbir kelib qoladi,*
19.*Ilg‘or, - deya uni, darrov*
20.*Suratini oladi.*

21.*Ertasiga gazetada*
22.*Xabar chiqar bir quloch:*
23.*“U yangi yil sharafiga*
24.*Mehnat qildi...” Na iloj!*

25.*Gazetani o‘qib ishchi*
26.*Kulibgina qo‘yadi,*
27.*Ilg‘orligin sababini*
28.*Yangi yilga yo‘yadi.*

29.*Kunlar bir-bir o‘tib borar*
30.*Qamchilashib otini.*
31.*Vaqti yetib bir kun uning*
32.*Tug‘ib qolar xotini.*

33.*Kim ham axir toleidan*
34.*Quvonmaydi bu chog‘da.*
35.*O‘g‘il ko‘rdik, deb qo‘yadi,*
36.*Og‘zi uning qulog‘da.*

37.*O‘lmay bir kun katta bo‘lsa*
38.*Odam bo‘lar chaqaloq.*
39.*Ammo hozir boqish kerak,*
40.*Och qolmasin baqaloq.*

41.*Axir jinday chiqim kerak,*

42.*O‘ylab hamma-hammasin,*
43.*Ishchi shu kun uch baravar*
44.*Bajaradi normasin.*

45.*Ertasiga gazetada*
46.*Xabar chiqar bir quloch:*
47.*“Baliqchilar kuniga u*
48.*Mehnat qildi...” Na iloj!*

49.*Gazetani o‘qib ishchi*
50.*Kulibgina qo‘yadi.*
51.*Ilg‘orligin sababini*
52.*Baliqchiga yo‘yadi.*

53.*Kunlar yana o‘tib borar*
54.*Bir-birini quvlashib,*
55.*Hozirchalik yomon emas*
56.*Yashaydilar quvnashib.*

57.*Ammo odam hayotida*
58.*Bordir kunning qorasi,*
59.*Ajal yetib bir kun uning*
60.*Qazo qilar onasi.*

61.*Marhum degan o‘zi borib*
62.*Kirmaydi-ku qabrga.*
63.*Chiqim kerak ko‘mishga-yu,*
64.*Mayda-chuyda tadbirga.*

65.*Onasining o‘lishini*
66.*Qaydan bilmish u g‘arib,*
67.*Yo‘qsa avval ozroq narsa*

68.*Qo‘ymasmidi jamg‘arib.*

69.*Qabr ustiga lavha kerak...*
70.*O‘ylab hamma-hammasin,*
71.*Ishchi endi to‘rt baravar*
72.*Bajaradi normasin.*

73.*Kun yarmidan og‘may turib,*
74.*Muxbir kelib qoladi.*
75.*Peshqadamni qaqqaytirib*
76.*Suratini oladi.*

77.*Ertasiga gazetada*
78.*Xabar chiqar bir quloch:*
79.*“May bayrami sharafiga*
80.*Mehnat qildi...” Na iloj!*

81.*Gazetani endi ishchi*
82.*Bir burchakka otadi.*
83.*Bu maqtovga nima deysiz?*
84.*O‘ylab boshi qotadi.*

85.*Uyda bundoq ta’ziya-yu,*
86.*Bu yokda bu masxara.*
87.*Nahot odam ahvolini*
88.*So‘ramasa tasqara.*

89.*Endi ish ham qolib ketib*
90.*So‘ka boshlar g‘urbatni:*
91.*“Bilamiz-ku biz ham axir*
92.*Bayramlarga hurmatni.*

93.*Shu zamonning og‘ushida*
94.*Yetdik biz ham voyaga.*
95.*Qalblarimiz limmo-limdir*
96.*Qancha-qancha g‘oyaga.*

97.*Mayli, bahor bayramidek*
98.*Yashnataylik olamni,*
99.*Lekin, uka, yoshlik qilib*
100. *Ranjitding-ku odamni.”*

101. *O‘ylab hamma-hammasini*
102. *Xullas tinchi yo‘qolar,*
103. *Xumparni bir boplay, - deya*
104. *Gazetaga yo‘l olar.*

105. *Keyin bilsa muxbirning ham*
106. *Bor ekan o‘z nolasi,*
107. *Chiqim uchun yozgan ekan, -*
108. *Tuqqan ekan xolasi.*

ÖNCÜ İŞÇİ VE UYANIK GAZETECİ KISSASI (150)

1. İşçi şafakta kalkıp
2. İnşaata gider.
3. Tuğla örer, taş oyar,
4. Keyfine bakar.

5. El işte, ama başka
6. Hayal gezer başında,
7. Bahçedeki küçük kızın
8. Kurdelesi yok saçında.

9. Kalpağını kaybetmiş,

10. Oyunbaz çocuğu.
11. Yenisini ver, dedi,
12.Ağlayarak çıktı gece.

13. Birisine çanta gerek,
14.Düşünüp bütün hepsini,
15.İşçi o gün iki hisse
16. Bulur bir yolunu.

17.Gün ortası geçmeden
18. Gazeteci gelir,
19.Öncü, diye onu, hemen
20. Resmini alır.

21. Ertesi güne gazetede
22. Haber çıkar bir kulaç:
23."O yeni yıl şerefine
24. Emek verdi…" Çaresiz!

25. Gazeteyi okuyup işçi
26.Gülerek bırakır,
27.Öncülüğün sebebini
28. Yeni yıla yorar.

29.Günler bir bir geçip gider
30. Kamçılayıp atını.
31. Vakti yetip bir gün onun
32. Doğum yapar hanımı.

33. Birisi de talihinden ya
34. Sevinmez o anda.
35.Oğul gördük, der,

36.Ağzı onun kulağında.

37.Ölmeden bir gün büyüse
38. Adam olur bebek.
39. Ama şimdi bakmak gerek,
40.Aç kalmasın şişko.

41. Biraz masraf gerek nihayet,
42.Düşünüp bütün hepsini,
43.İşçi o gün üçü beraber
44. Bulur bir yolunu.

45. Ertesi gün gazetede
46. Haber çıkar bir kulaç:
47."Balıkçılar gününe o
48. Emek verdi…" Çaresiz!

49. Gazeteyi okuyup işçi
50.Gülerek bıraktı.
51.Öncülüğün sebebini
52. Balıkçıya yordu.

53.Günler yine geçip gider
54. Birbirini kovalayıp,
55.Şimdiye kadar kötü değil
56. Yaşarlar sevinip.

57. Ama insan hayatında
58. Vardır günün karası,
59. Ecel gelip bir gün onun
60. Vefat eder anası.

61. Merhum diye kendi gidip
62. Girmez ya kabre.
63. Masraf gerek gömmeye,
64. Ufak tefek merasime.

65. Anasının ölümünü
66. Nasıl bilmiş o garip,
67. Yoksa evvel daha az şey
68. Koymaz mıydı biriktirip.

69. Kabir üstüne levha gerek…
70.Düşünüp bütün her şeyi,
71.İşçi şimdi dördü beraber
72. Bulur bir yolunu.

73.Gün ortası geçmeden kalkıp,
74. Gazeteci gelir.
75.Öncüyü şaşırtıp
76.Şeklini alır.

77. Ertesi gün gazetede
78. Haber çıkar bir kulaç:
79.“Mey bayramı şerefine
80. Emek verdi…” Çaresiz!

81. Gazeteyi şimdi işçi
82. Bir köşeye atar.
83. Bu övgüye ne dersiniz?
84.Düşünüp başı kaskatılaşır.

85. Evde böyle taziye,
86. Bu tarafta bu alay.

87.İnsan durumunu mu
88. Sormasa akraba.

89.Şimdi iş de kalmış
90.Sövmeye başlar gurbete:
91. Biliriz biz de nihayet
92. Bayramlara hürmeti.

93. Bu zamanın kucağında
94. Olgunlaştık biz de.
95. Kalplerimiz dolu dolu
96. Sonsuz gayeye.

97. Peki, bahar bayramı gibi
98.Güzelleştirelim âlemi,
99. Ama kardeş, gençlik edip
100. Gücendirdin insanı.”

101. Düşünüp bütün her şeyi
102. Velhasıl huzuru kaybolur,
103. Aylağa bir ders vereyim, diye
104. Gazeteye yol alır.

105. Sonra bilse gazetecinin de
106. Varmış kendi nalesi,
107. Masraf için yazmış imiş,
108. Doğum yapmış teyzesi. (1968)

HAQIQAT YO‘LLARI (151)

1. *Poyoni yo‘q tarixning kechmishini o‘ylayman,*
2. *Yosh idrokim zamonlar qarshisida qolur lol.*
3. *Va shu ulkan dunyoning kemtigidan bo‘ylayman,*

4. *Unda birov qurada, birov buzar bemalol.*

5. *Ba’zan yomon ot qolur yaxshi odamdan hatto,*

6. *Qay bir yovuz kimsani yaxshi derlar erta kun.*

7. *Nahot, deyman, dunyoda sobit narsa yo‘q aslo,*

8. *Nahotki yetuklikning timsoli yo‘q bus-butun?*

9. *Deydilar, har zamonning bordir o‘z tarozusi,*

10.*Oh, naqadar rost erur ushbu buyuk haqiqat.*

11.*Mangulik saltanatning qancha-qancha ko‘zgusi*

12.*Oftob oldida shamday miltirab qoldi faqat.*

13.*Sulton esa ham garchand o‘z davrida Ulug‘bek*

14.*Oddiy bir qulboboday qilichga egdi bo‘yin,*

15.*U-ku qayta tirildi hech nima ko‘rmagandek,*

16.*Lekin dunyoning ishi bamisoli ot o‘yin.*

17.*Manguga qolay deya shuhrat quli Iskandar*

18.*Yuksak toqqa o‘zining suratini solibdi,*

19.*Xo‘jasida bo‘lsa ham qancha-qancha siymu zar,*

20.*Qarangki, juldur kiygan Ezop mangu qolibdi.*

21.*Ha, sadaqa kam erur mangulik xaltasida,*

22.*Payhon bo‘lar saroylar, qancha yuksak qabrlar.*

23.*Goh oddiy tasodifning oddiy bir hamlasida*

24.*Kapalak qanotiday uchib ketar qasrlar.*

25.*Balki zamonlar o‘tib, davrlar shamolida*

26.*Sovurilar qancha zot, yana qancha buyuklik.*

27.*O‘ylayman, mangulikning oynai jamolida*

28.*Kim qolarkan sevgiday abadiy va suyuklik...*

29.*Kim muqim turar ekan sonsiz avlodlar osha,*

30.*Kimning ishi doimo atalar ekan savob?*

31.*Kim falakni quyoshday mangu qilgay tomosha,*

32.*Qay bir xilqatni inson beminnat aylar tavob?*

33.*Haqsizlikdan mazlumning ichga sig‘masa dardi,*

34.*Agar zulmat ichida ko‘rinmay qolsa hayot,*

35.*Qayga u sajda qilib, qayga dilin yorardi,*

36.*Qay suyanchiq qoshida aylar edi dod-faryod.*

37.*Shu mo‘’jaz hayotimda ko‘rdim qancha sevinch, g‘am,*

38.*Goho tik boqolmadim razolatning ko‘ziga.*

39.*Ushbu yorug‘ dunyoda topsam ham, topmasam ham,*

40.*Baribir talpinardim haqiqatning o‘ziga.*

HAKİKAT YOLLARI (151)

1. Sonu olmayan tarihin geçmişini düşünürüm,
2. Genç idrakim zamanlar karşısında kalır lal.
3. Ve şu büyük dünyanın eksikliğini ölçerim,
4. Onda biri kurar, biri bozar rahatça.
5. Bazen kötü ad kalır iyi insandan hatta,
6. Ne kötü bir kimseye iyi derler yarın bir gün.
7. Der miyim, dünyada çakılı bir şey yok asla,
8. Ne gariptir ki olgunluğunun timsali yok büsbütün?
9. Derler, her zamanın vardır kendi terazisi,
10. Ah, ne kadar doğrudur bu büyük hakikat.
11. Sonsuzluk saltanatının ebedî aynası
12.Güneşin önünde mum gibi ışıldadı sadece.
13. Sultan ise de gerçi kendi devrinde Uluğbek
14.Sıradan bir Kulbaba gibi kılıca eğdi boynunu,
15.O ki tekrar dirildi hiçbir şey görmemiş gibi,
16. Ama dünyanın işi sanki at oyunu.
17. Ebedîliğe kalayım diye şöhret kölesi İskender
18.Yüksek dağa kendisinin resmini bırakmış,
19. Hocasında olsa da ebedî altın çehresi,
20. Bakın ki, eski püskü giyen Ezop baki kalmış.
21. Evet, sadaka azdır sonsuzluk çantasında,
22. Zarar görür saraylar, bazı yüksek kabirler.
23. Bazen basit bir tesadüfün kolay bir hamlesinde
24. Kelebek kanadı gibi uçup gider kaleler.
25. Belki zamanlar geçip, devirlerin rüzgârında
26. Savrulur nice zat, yine nasıl büyüklük.
27.Düşünürüm, sonsuzluk cemalinin aynasında
28. Kim kalırmış sevgi gibi gözde ve ebedî…
29. Kim yerleşik durumuş sayısız evlatlar karşısında,
30. Kimin işi daima adlandırılırmış sevap?
31. Kim feleği güneş gibi baki eder seyir,
32. Hangi bir hilkati insan minnetsiz eyler tavaf?

33. Haksızlıktan mazlumun içine sığmazsa derdi,
34.Eğer zulmet içinde görünmeden kalsa hayat,
35. Neye o secde edip, neye gönlünü açardı,
36. Hangi dayanak huzurunda ederdi feryat.
37. Bu mucizevi hayatımda gördüm nice sevinç, gam,
38. Bazen dik bakamazdım rezaletin gözüne.
39. Bu aydınlık dünyada bulsam da, bulmasam da,
40. Aynıyla hevesli olurdum hakikatin özüne. (1969-1970)

YURTIM SHAMOLI (152)

1. *Yo‘llarda yeldirim misoli yeldim,*
2. *Yellar vodiysiga boshladi havas.*
3. *Yelvagay Hisorning bag‘riga keldim,*
4. *Sen esding - taraldi siym tanda atlas,*
5. *Sen esding - ochildi yorning jamoli,*
6. *O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.*

7. *Men-ku bu dunyoda bir zori visol,*
8. *Karbalo dashtida Majnun sifatman.*
9. *Shamollar ichida men ham bir shamol,*
10.*Chechaklar atridan men ham sarmastman.*
11.*Lekin sen ruhimning mangu xayoli,*
12.*O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.*

13.*Qancha shamollarga yuzimni burdim,*
14.*Ulardan esdilar turfa xil nafas.*
15.*Ularda goh qayg‘u, goh shodlik ko‘rdim,*
16.*To‘xtamay o‘tdilar bari ham bir birpas.*
17.*Faqat qayg‘ulardan sen o‘zing xoli,*
18.*O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.*

19.*Shamollar esgandqr ushbu dunyoda,*
20.*Shamollar goh quyun, gohida dovul.*

21.*Ular goh oshkora, goho ro‘yoda*
22.*Qancha bo‘stonlarni sovurgan butkul,*
23.*Lekin sen bo‘lmagin bog‘lar zavoli,*
24.*O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.*

25.*Esgin, ey, bog‘larning jamoli kulsin,*
26.*Moviy nafas bilan to‘lsin etaklar.*
27.*Uchqur qo‘shiqlarga bu olam to‘lsin,*
28.*Sha’ningga shoirlar aytsin ertaklar.*
29.*Esgin, Vatanimning taralsin boli,*
30.*O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.*

31.*Meni chorlayotir oliy bir jamol,*
32.*Bilmasman, oh, unga qachon yeturman.*
33.*Bu gulshan vodiyda men ham bir shamol,*
34.*Shamol kabi keldim, shundoq keturman.*
35.*Lekin Abdullaning boqiy kamoli,*
36.*O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.*

YURDUMUN RÜZGÂRI (152)

1. Yollarda yıldırım misali yeldim,
2. Yeller vadisinde başladı heves.
3. Kabadayı gibi Hisar’ın bağrına geldim,
4. Sen estin, yayıldı bedende atlas görüntüsü,
5. Sen estin, açıldı yârin cemali,
6. Aaa, yurdumun rüzgârı, yurdumun rüzgârı.

7. Ben ki bu dünyada bir nale-i visal,
8. Kerbela çölünde Mecnun sıfatıyım.
9. Rüzgârların içinde ben de bir rüzgâr,
10.Çiçeklerin kokusundan ben de sermestim.
11. Ama sen ruhumun sonsuz hayali,
12. Aaa, yurdumun rüzgârı, yurdumun rüzgârı.

13. Nice rüzgârlara yüzümü çevirdim,
14. Onlardan estiler ilginç tür nefes.
15. Onlarda gâh kaygı, gâh sevinç gördüm,
16. Durmadan geçtiler hepsi de bir an.
17. Yalnız kaygılardan senin kendin yoksun,
18. Aaa, yurdumun rüzgârı, yurdumun rüzgârı.

19.Rüzgârlar esmiştir bu dünyada,
20.Rüzgârlar bazen fırtına, bazen de kasırga.
21. Onlar gâh aşikâr, gâh rüyada
22. Nice bostanları savurmuş tamamen,
23. Ama sen olma bahçeler zevali,
24. Aaa, yurdumun rüzgârı, yurdumun rüzgârı.

25. Es, ey, bahçelerin cemali gülsün,
26. Mavi nefesle dolsun etekler.
27.Hızlı koşuklarla bu âlem dolsun,
28.Şanına şairler söylesin masallar.
29. Es, Vatan'ımın yayılsın balı,
30. Aaa, yurdumun rüzgârı, yurdumun rüzgârı.

31. Beni davet eder yüce bir cemal,
32. Bilmem, ah, ona ne zaman yetişirim.
33. Bu gülşen vadide ben de bir rüzgâr,
34.Rüzgâr gibi geldim, öyle giderim.
35. Ama Abdulla'nın baki kemali,
36. Aaa, yurdumun rüzgârı, yurdumun rüzgârı. (1969)

SARATON (153)

1. *Saraton chog'i bu - zarra shamol yo'q,*
2. *Tutlar kavagida mudrar g'urraklar.*

3. *Nogahon falakka urgan kabi do‘q,*

4. *So‘zsiz qotib turar bo‘ychan teraklar.*

5. *Osmon lol-lov yonar oftob qo‘ridan,*

6. *Ufqda sarobdan otashin baldoq.*

7. *Chinqirib yuborar kunning zo‘ridan*

8. *Qaygadir berkinib olgan chirildoq.*

9. *Birdan tinib qolar shu betinch dunyo,*

10.*Hatto sharsharakning o‘chganday sasi.*

11.*Borliq suv tagiga cho‘kkanday go‘yo*

12.*Qanchalik termulma - chiqmas nafasi.*

13.*Go‘dak uhicha ham shamol topilmas,*

14.*Butaning tagida bo‘zto‘rg‘ay hayron.*

15.*Dehqon tol tagiga cho‘zildi birpas,*

16.*Tindi shoxchadagi qushcha ham biyron.*

17.*Mening dehqon bobom, andak orom ol,*

18.*Quyosh buroviga olgan palla bu.*

19.*Saraton o‘zi ham mudraydi behol,*

20.*Ohangsiz yalla bu, so‘zsiz alla bu!*

21.*Hali tong g‘unchasi ochmasidan lab,*

22.*Nahor farog‘atin o‘ylamay taqir,*

23.*Kimsasiz dalaga ko‘zni uqalab,*

24.*Chiqib kelganingni ko‘rdim-ku axir.*

25.*Ko‘rdim-ku manglaying ter bilan qotib,*

26.*Berahm otashga berganingni tob.*

27.*Ko‘rdim-ku tepangda o‘zin yo‘qotib,*

28.*Hayratdan lol qotib qolganin oftob.*

29.*Azmu shijoating men axir ko‘rdim,*
30.*Ko‘rdim ko‘zlaringda charchoq bir kulgu.*
31.*Mayli, orom olgin, ey bobo yurtim,*
32.*Saraton junbushga kelgan payt-ku bu.*

33.*Butun olam go‘yo ulkan doshqozon,*
34.*Qaydadir - ko‘rinmas uning naryog‘i.*
35.*Bu qaynoq qozonni kuzatmoq oson,*
36.*Ichiga tushmoqlik osonmas chog‘i.*

37.*Cho‘ntaqdan to‘kilgan tangalar misol*
38.*Shu’lalar o‘ynaydi supa uchida.*
39.*Birovdan xijolat bo‘lgan kabi tol*
40.*Yer chizib turadi - dami ichida.*

41.*Oftob qayta boshlar, ko‘lanka maydon,*
42.*Yana bosh ko‘tarar nomozshomgullar.*
43.*Sekin moviylashar qizargan osmon,*
44.*Oqarib ko‘rinar kumushrang yo‘llar.*

45.*Yana yelkanini ko‘tarar shamol,*
46.*Yana chug‘urchuqlar uyg‘onar bog‘da.*
47.*Bobo yonidagi boladay xushhol,*
48.*To‘rg‘aylar charx urar so‘ngsiz samoda.*

49.*Yana yela boshlar oqshom nafasi,*
50.*She’r oni, ishq oni, mehnat oni bu.*
51.*Bu quyosh o‘lkasin otashin sasi,*
52.*O‘zbek diyorining saratoni bu.*

KURU YAZ (153)

1. Kuru yaz bu, zerre rüzgâr yok,
2. Dutların oyuğunda uyuklar kumrular.
3. Ansızın feleğe vurmuş gibi güm,
4. Sözsüz katılaşıp durur uzun boylu kavaklar.

5. Asuman alev alev yanar güneşin altından,
6. Ufukta seraptan ateşin bal gibi.
7. Feryat eder güneşin azametinden
8. Bir yere saklanmış çekirge.

9. Birden durup kalır bu huzursuz dünya,
10. Hatta çağlayanın kesilmiş gibi sesi.
11. Varlık suyu dibine çökmüş gibi sanki
12. Çok bakma, çıkmaz nefesi.

13. Bebeğin oh çekmesi gibi de rüzgâr bulunmaz,
14. Çalının dibinde turgay şaşkın.
15. Çiftçi söğüt dibine uzandı bir an,
16. Durdu küçük daldaki kuşcağız da bir an.

17. Benim çiftçi dedem, azıcık huzur al,
18. Güneşin kıskacına aldığı vakit bu.
19. Kuru yaz kendisi de pinekler hâlsiz,
20. Ahenksiz şarkı bu, sözsüz ninni bu!

21. Henüz şafak goncası açmadan dudak,
22. Şafak vakti huzurunu düşünmeden hiç,
23. Issız tarlaya gözlerini ovup,
24. Çıkıp geldiğini gördüm artık.

25. Gördüm ki alın teriyle katılaşıp,

26. Amansız ateşe verdiğini ısı.
27.Gördüm ki tepende kendin kaybolup,
28. Hayretten lal olup kaldığını afitap.

29. Azim u şecaatini ben artık gördüm,
30.Gördüm gözlerinde yorgun bir gülüş.
31. Olsun, rahat ol, ey dede yurdum,
32. Kuru yaz cümbüşe geldiği zaman ki bu.

33.Bütün âlem sanki büyük kazan,
34. Bir yerdedir, görünmez onun öbür tarafı.
35. Bu kaynayan kazanı gözetlemek kolay,
36.İçine inmek kolay değil anlaşılan.

37.Çantadan dökülen tengeler[114] misali
38.Şuleler oynar bankın ucunda.
39. Birisinden mahcup olmuş gibi söğüt
40. Toprak çizip durur, dili tutulmuş.

41.Güneş yine başlar, gölge meydan,
42. Yine baş kaldırır başaklar.
43. Yavaşça mavileşir kızaran asuman,
44.Ağarıp görünür gümüş renkli yollar.

45. Yine yelkenini kaldırır rüzgâr,
46. Yine sığırcıklar uyanır bahçede.
47. Dede yanındaki çocuk gibi hoşnut,
48. Tarla kuşları çark çevirir sonsuz semada.

49. Yine esmeye başlar akşam nefesi,
50.Şiir anı, aşk anı, çalışma anı bu.

[114] Özbekistan'ın para birimidir.

51. Bu güneş ülkesinin ateşinin sesi,
52.Özbek diyarının kuru yazı bu. (1969)

XOTIROT (154)

1. *Uydan ketganimga o‘n yil bo‘libdi,*
2. *O‘n yil qishlog‘imdan yuribman uzoq.*
3. *Men yurgan yo‘llarda o‘tlar unibdi,*
4. *Ko‘milib bo‘libdi men kezgan so‘qmoq.*

5. *Yoshlik chog‘im edi, sho‘xligim tutib*
6. *Ismim o‘ygan edim bitta terakka.*
7. *U ham jarohatday ketibdi bitib,*
8. *U ham yuksalibdi mensiz yuksakka.*

9. *Buzilib bo‘libdi allaqaysi dam*
10.*Hovli ortidagi omonat ko‘prik.*
11.*Bu yerda men bilgan odamlarning ham*
12.*Ba’zisi endi yo‘q, ba’zisi tirik.*

13.*Hayratga tushmasman bu holdan sira,*
14.*Dunyo bu - quvg‘indi ohuday yelar.*
15.*Dunyo bu - eng oddiy hukmiga ko‘ra*
16.*Kimdir tug‘iladi va kimdir o‘lar.*

17.*Lekin qalbni bosdi nogoh bir sukut,*
18.*Nogoh bir hayajon ezdi dilimni.*
19.*Umrim yo‘llarini bosmaganmi o‘t?*
20.*Xazon ko‘mmaganmi hayot yo‘limni?*

21.*Ko‘ksidan nomimni beshafqat, battar,*
22.*O‘chirgani kabi oqbadan terak,-*
23.*Bag‘riga ismimni yozgan bo‘lsa gar,*

24.*O‘chirmadimikan birorta yurak?*

25.*Yoshligim behuda o‘tmadimikin?*
26.*Go‘zal tuyg‘ularim bormikin tirik?*
27.*Nogahon buzilib ketmadimikin*
28.*Birorta yurakka men solgan ko‘prik?*

29.*Yillar umrimizga qilarmi shafqat?*
30.*Biror ish bormikan aylagali yod?*
31.*Qayta tiklash mumkin barchasin, faqat*
32.*Qayta tiklanmagay o‘chsa xotirot!..*

HATIRAT (154)

1. Evden gideli on yıl olmuş,
2. On yıl köyümden yürümüşüm uzak.
3. Yürüdüğüm yollarda otlar büyümüş,
4. Gizlenmiş gezdiğim patika.

5. Gençlik çağımdı, yaramazlık yapıp
6. İsmimi kazımıştım bir kavağa.
7. O da yara gibi gitmiş büyüyüp,
8. O da yükselmiş bensiz yükseğe.

9. Bozulmuş bir an
10. Avlu ardındaki emanet köprü.
11. Bu yerde bildiğim insanlarında
12. Bazısı şimdi yok, bazısı diri.

13. Hayrete düşmem bu hâlden asla,
14.Dünya bu, sürgündü ahu gibi eser.
15.Dünya bu, en basit hükmüne göre
16. Kimi doğar ve kimi ölür.

17. Ama kalbi kapladı ansızın bir sükut,
18. Aniden bir heyecan ezdi gönlümü.
19.Ömrümün yollarını basmamış mı ateş?
20. Hazan gizlememiş mi hayat yolumu?

21.Göğsünden adımı şefkatsiz, beter,
22. Yok ettiği gibi uzun kavak,
23. Bağrına ismimi yazmışsa eğer,
24. Silmemiş miydi bir yürek?

25. Gençliğim nafile geçmedi mi ki?
26.Güzel duygularım var mı ki canlı?
27. Ansızın bozulmamış mıydı ki
28. Bir yüreğe yaptığım köprü?

29.Yıllar ömrümüze eder mi şefkat?
30. Bir iş var mı ki edeli yâd?
31. Yine kurmak mümkün hepsini, ancak
32. Tekrar olmayacak yitse hatırat!.. (1969)

ONA SAYYORA (155)

1. *Qarshimda yer sharin surati turar,*
2. *Salmog‘i Quvaning anoricha bor.*
3. *Tim qora osmonda porlab ko‘rinar,*
4. *Shu jajji sayyora ko‘rkam, ulug‘vor.*
5. *Unga boqamanu ushlayman yoqa,*
6. *Nahot shu ko‘rganim rost bo‘lsa, nahot?*
7. *Nahotki yerimiz shu kichik soqqa?*
8. *Nahotki biz shunga jo bo‘lsak, hayhot!..*
9. *Ummonlar ko‘rinar qatra yosh misol,*
10. *Chigit uvog‘icha kelmas tog‘lar ham.*

11.*Qit’alar, dengizlar aftoda bir hol,*

12.*Bari bir nuqtaga bo‘lib olmish jam.*

13.*Nabilar, rasullar, dohiylar unda,*

14.*Qabrlar, qasrlar turgandir qator,*

15.*Balki huv ko‘ringan moviy to‘lqinda*

16.*Suv ichgan go‘dakning nafasi ham bor.*

17.*Quloqqa chalinar otlar dupuri,*

18.*Sor burgut o‘zini o‘ljaga urar.*

19.*Sharqda cho‘pon yoqqan gulxanning nuri*

20.*Shimol sayyohiga ko‘rinib turar.*

21.*Ana, Himoloyning bag‘rida bir qiz,*

22.*Yelkada ko‘zasi - borar buloqqa.*

23.*Sohilda uchrashdi ikki qalb yolg‘iz,*

24.*Shivir-shivirlari kelar quloqqa.*

25.*O, ona sayyora, kurrai qutlug‘,*

26.*Samodan suvrating ilk bora ko‘rdim,*

27.*Havoyi bir xayol sehri emas, yo‘q,*

28.*Farzand mehri bilan men boqib turdim.*

29.*Kun kecha emasmi, xislating sanab,*

30.*She’r yozib yurardim senga parvona.*

31.*Bu kun suvratingga so‘zsiz bosdim lab,*

32.*Shu senmi, yolg‘izim, shu senmi, ona...*

33.*Falakda bir o‘zing turibsan hayron,*

34.*Nahot sen bo‘lmasang bunchalar tanho,*

35.*Siynangga yopishgan farzanding - inson*

36.*Beva bag‘ridagi yetimday go‘yo...*

37.*Qayga ketmoqdasan bunchalar shoshib?*

38.*Orom istaysanmi ko‘kda ovora?*

39.*Balki farzandingni ko‘ksingga bosib*

40.*Yig‘lab ketmoqdasan, ona sayyora...*

41.*Farzandlaring bordir sonsiz-sanoqsiz.*

42.*Vo ajab, qadringni gohida bilmas.*

43.*Ular-ku qoshingda changday salmoqsiz,*

44.*Lekin bag‘ringga ham siqqisi kelmas.*

45.*Osmon torliq qilgan gala chumchuqdek*

46.*Makon talashadi goho betartib.*

47.*Sen-chi, mehvaringda aylanasan tek,*

48.*Yaxshiyu yomonni yelkangda ortib.*

49.*Sening yuragingda laxta-laxta qon,*

50.*Siynang nimalardan bo‘lmagan pora.*

51.*Qayg‘u-hasratlaring barchasi ayon,*

52.*O, buncha dardkashsan, ona sayyora.*

53.*Sen hozir suratsan ko‘zim o‘ngida,*

54.*Eshita bilmassan so‘zimni balkim.*

55.*Bir zumlik bezovta o‘ylar so‘ngida*

56.*Yana ruxsoringga tikilaman jim.*

57.*Bir yonda lojuvard Bahri Muhit bor,*

58.*Bir yonda za’faron Sahroi Kabir.*

59.*Bir yonda oq sochli tog‘lar purviqor*

60.*Sening toleingga o‘qiydi takbir.*

61.*Ellar to‘zg‘ib yotar gul yaprog‘idek,*

62.*Bir yon shohu gado, bir yon do‘st, g‘anim.*

63.*Bir yonda xayoliy Eram bog‘idek*

64.*Buyuk va betimsol mening Vatanim.*

65.*U mening ko‘zimga hilolday mahvash,*

66.*Oftob kelar faqat uning qoshiga.*

67.*O, ona sayyora, bag‘ringni poklash*

68.*Mening vatanimning tushgan boshiga.*

69.*Uning quchog‘ida g‘amdan yo‘q nishon,*

70.*U yerda tentimas iblis xayoli.*

71.*U yerda do‘stlikni ulug‘lab inson,*

72.*Takallum qiladi qumri misoli.*

73.*Yillar o‘tar, balki o‘tar ko‘p zamon,*

74.*Yer yuzi chulg‘anar baxtga, chamanga.*

75.*Agar dardlaringga bo‘lolsa darmon,*

76.*Ruhim fido bo‘lsin shunday vatanga.*

77.*Men ham bir o‘g‘lingman, ona sayyora,*

78.*Bag‘ring men uchun ham xoki pok bo‘lsin.*

79.*Toleing toabad bo‘lmasin qora,*

80.*Manglaying oq bo‘lsin, yarqiroq bo‘lsin.*

ANA SEYYARE (155)

1. Karşımda yer kürenin resmi durur,
2. Ağırlığı Kuva'nın[115] narı kadar var.
3. Zifiri karanlık asumanda parlayıp görünür,
4. Şu küçük seyyare görkemli, muhteşem.
5. Ona bakarım ve tutarım yaka,
6. Olsun, şu gördüğüm gerçekse, olsun?
7. Dünyamız şu küçük küre mi?
8. Ne gariptir ki biz ona sığsak, heyhat!..
9. Ummanlar görünür damla yaş misali,
10. Pamuk tohumu kırıntısı kadar gelmez dağlar da.
11. Kıtalar, denizler etrafında bir hâl,
12. Hepsi bir noktada gelip toplanmış.
13. Nebiler, Resuller, dahiler onda,
14. Kabirler, kaleler olmuştur sıra.
15. Belki boş görünen mavi dalgada
16. Su içen bebeğin nefesi de var.
17. Kulağa çalınır otların sesi,
18. Şahin kartal kendini ganimete vurur.
19. Doğuda çobanın yaktığı ateşin ışığı
20. Kuzey seyyahına görünüp durur.
21. İşte, Himalaya'nın bağrında bir kız,
22. Omzunda testisi, gider bulağa.
23. Sahilde karşılaştı iki kalp yalnız,
24. Fısıltıları gelir kulağa.
25. Aaa, ana seyyare, kutlu küre,
26. Semadan suretini ilk defa gördüm,
27. Havai bir hayal sihri değil, yok,
28. Çocuk şefkatiyle ben bakıp durdum.
29. Gece gündüz değil mi, hasletini sayıp,
30. Şiir yazıp yürürdüm sana pervane.
31. Bugün suretine sözsüz kapadım dudak,
32. Şu sen mi, yalnızım, şu sen mi, ana…
33. Felekte bir kendin durmuşsun şaşkın,

[115] Fergana'nın narlarıyla meşhur ilçesidir.

34. Ne gariptir ki sen olmasan bu kadar tenha,
35. Sinene yapışan çocuğun, insan
36. Dul bağrındaki yetim gibi sanki…
37. Nereye gitmektesin bu kadar şaşırıp?
38. Huzur isteyecek misin gökte avare?
39. Belki çocuğunu göğsüne basıp
40.Ağlayıp gitmektesin, ana seyyare…
41.Çocukların vardır sayısız sonsuz.
42. Garip, kadrini bazen bilmez.
43. Onlar ki huzurunda toz gibi önemsiz,
44. Ama bağrına da basası gelmez.
45. Asumanı dar eden serçe sürüsü gibi
46. Mekân tartışır bazen tertipsiz.
47. Sen ki, ekseninde dönersin sessiz,
48.İyi ve kötüyü omzuna yükleyip.
49. Senin yüreğinde pıhtı pıhtı kan,
50. Sinen nelerden olmamış pare.
51. Kaygı, hasretlerin hepsi ayan,
52. Aaa, bu kadar çilekeşsin, ana seyyare.
53. Sen şimdi suretsin gözümün önünde,
54.İşitemezsin sözümü belki.
55. Bir anlık huzursuz düşünceler sonunda
56. Yine çehreni süzerim sessiz.
57. Bir yanda lacivert Bahr-i Muhit var,
58. Bir yanda safran Sahra-i Büyük.
59. Bir yanda ak saçlı dağlar mağrur
60. Senin talihine getirir tekbir.
61. Halklar saçılır gül yaprağı gibi,
62. Bir yan şah u geda, bir yan dost, düşman.
63. Bir yanda hayali İrem Bağı gibi
64.Büyük ve timsalsiz benim Vatan'ım.
65.O benim gözüme hilal gibi ay yüzlü,
66.Güneş gelir sadece onun huzuruna.
67. Aaa, ana seyyare, bağrını temizlemek
68. Benim vatanımın düşmüş başına.
69. Onun kucağında gamdan yok eser,

70.O toprakta gezmez İblis hayali.
71.O toprakta dostluğu yüceltip insan,
72. Muhabbet eder kumru misali.
73.Yıllar geçer, belki geçer çok zaman,
74. Yeryüzü örtülür bahta, gülzâra.
75.Eğer dertlerine olabilse derman,
76. Ruhum feda olsun öyle vatana.
77. Ben de bir oğlunum, ana seyyare,
78. Bağrın benim için de pak toprak olsun.
79. Talihin ebediyen olmasın kara,
80. Alnın açık olsun, parlak olsun. (1969)

"BU JOYLARGA NEGA KELDIM MEN…" (156)

1. *Bu joylarga nega keldim men,*
2. *Qiziqmasam unut chiroyga.*
3. *Nechun kelib boshim egdim men*
4. *Hasratlarim ko'milgan joyga.*

5. *Axtaraman titrab damo-dam*
6. *U alamli kunimdan nishon.*
7. *Nahot ortda qolgan g'amin ham*
8. *Unutgisi kelmaydi inson.*

"BU YERLERE NİYE GELDİM BEN…" (156)

1. Bu yerlere niye geldim ben,
2. İlgilenmezsem unut güzelliği.
3. Niçin gelip başımı eğdim ben
4. Hasretlerimin gömüldüğü yere.

5. Ararım titreyip an be an
6. O elemi günümden nişan.
7. Olsun geride kalan gamını da

8. Unutası gelmez insan. (1969)

“OTASHGA SIG‘INDI BIR ZAMON XALQIM…” (157)

1. *Otashga sig‘indi bir zamon xalqim,*
2. *Arzini yo‘lladi o‘tli samoga.*
3. *Shoirlar tarixni etdilar talqin*
4. *Bosh egib o‘tparast o‘sha dahoga.*
5. *Xalqim bid’atlardan bugun ko‘p yiroq,*
6. *Men ham shoirlikdan yiroqman balkim,*
7. *Lekin mehnatingni kuylayman bu choq,*
8. *Seni ulug‘layman, paxtakor xalqim!*

“ATEŞE SIĞINDI BİR ZAMAN HALKIM…” (157)

1. Ateşe sığındı bir zaman halkım,
2. Arzını yolladı alevli semaya,
3. Şairler tarihi ettiler telkin
4. Baş eğip ateşperest o dehaya.
5. Halkım bidatlardan bugün çok uzak,
6. Ben de şairlikten uzağım belki,
7. Ama emeğini överim bu çağda,
8. Seni yüceltirim, pamukçu halkım! (1969)

QANOT (158)

1. *Insonda qanot yo‘q,*
2. *Achinmang bunga,*
3. *Zotan unga yurak - sabot berilgan.*
4. *Qushda-chi, sabot yo‘q, shuning-chun unga*
5. *Qochib qolmoq uchun qanot berilgan.*

KANAT (158)

1. İnsanda kanat yok,
2. Acımayın buna,

3. Zaten ona yürek, sebat verilmiş.
4. Kuşta, sebat yok, onun için ona
5. Kaçmak için kanat verilmiş. (1969)

"YONDIMU VA LEKIN HIJRON TUNIDA…" (159)

1. *Yondimu va lekin hijron tunida*
2. *Senga ahvolimni etmadim bayon.*
3. *Sokin kechalari ko'zim o'ngida*
4. *Munis qarashlaring bo'ldi namoyon.*

5. *Na sen nazar qilding holimga bir bor,*
6. *Na men ayta bildim senga biror so'z.*
7. *Shunday o'tib borar umrimiz bekor...*
8. *Oramizda sarson bir juft qora ko'z.*

"YANDIM VELAKİN HİCRAN GECESİNDE…" (159)

1. Yandım velakin hicran gecesinde
2. Sana ahvalimi etmedim beyan.
3. Sakin geceleri gözümün önünde
4. Munis bakışların oldu nümayan.

5. Ne sen baktın hâlime bir kez,
6. Ne ben söyleyebildim sana bir söz.
7. Böyle geçip gider ömrümüz boş…
8. Aramızda avare bir çift kara göz. (1969)

ILK SEVGI (160)

1. *Oddiy mashinani ko'rsa bolalar*
2. *Hayratga tushishni kanda qilmaydi.*
3. *Olis-olislarda ulkan kemalar*
4. *Uchib yurganini ular bilmaydi.*

5. *Biz-chi, dunyo ishin bilamiz andak,*

6. *Oila quramiz, bola ko‘ramiz.*

7. *Lekin mashinaga boqqanday go‘dak,*

8. *Hamon ilk sevgini eslab yuramiz.*

İLK SEVGİ (160)

1. Sıradan bir arabayı görse çocuklar

2. Şaşkınlığa düşmeyi bırakmaz.

3. Çok uzaklarda büyük gemiler

4. Fırlayıp gittiğini onlar bilmez.

5. Biz ki, dünya işini biliriz biraz,

6. Aile kurarız, çocuk görürüz.

7. Ama arabaya bakmış gibi çocuk,

8. Hâlâ ilk sevgiyi hatırlayıp yürürüz. (1969)

“OH, O‘TGAN U KUNLAR QAYTMAGAY ZINHOR…” (161)

1. *Oh, o‘tgan u kunlar qaytmagay zinhor,*

2. *O‘chgan muhabbatning yonmog‘i dushvor.*

3. *Nigohing qadama qarog‘imga sen,*

4. *Unda to‘kilmagan ko‘z yoshlarim bor.*

“AH, GEÇEN O GÜNLER DÖNMEYECEK ZİNHAR…” (161)

1. Ah, geçen o günler dönmeyecek zinhar,

2. Sönen muhabbetin yanması zor.

3. Nigahını doğrultma gözbebeklerime sen,

4. Orada dökülmeyen gözyaşlarım var.

BIZNIKILAR (162)

1. *Chapay askarlari keldilar bosib,*

2. *Bosib keldi oqlar ustiga.*

3. *Tomoshabin yigit yuragi toshib,*

4. *- Biznikilar, - dedi do‘stiga.*

5. *Rahimov fashistlarning ko‘zicha*

6. *“Missershmit”larning ko‘zini o‘ydi.*

7. *Kimdir mamnuniyat bilan o‘zicha,*

8. *- Biznikilar, - deb qo‘ydi.*

9. *Yiroq o‘lkalarda kezardi sayyoh,*

10.*Kezardi yurtiga ko‘zini tikib.*

11.*Yurtimiz nomini eshitib nogoh,*

12.*- Biznikilar, - dedi entikib.*

13.*Hech kim mangu emas ushbu olamda,*

14.*Agar bir kun tanim ko‘msalar,*

15.*Koshkiydi kimlardir turib tepamda,*

16.*- U bizniki edi, desalar...*

BİZİMKİLER (162)

1. Çapayev’in askerleri geldilar basıp,

2. Basıp geldi akların üstüne.

3. Seyreden yiğidin yüreği taşıp,

4. - Bizimkiler, - dedi dostuna.

5. Rahimov faşistlerin gözleri gibi

6. “Misserschmitt”lerin gözlerini oydu.

7. Biri memnuniyetle kendince,

8. - Bizimkiler, deyiverdi.

9. Uzak ülkelerde gezerdi seyyah,

10. Gezerdi yurduna gözlerini dikip.

11. Yurdumuzun namını işitip nâgâh,

12.- Bizimkiler, - dedi iç çekip.

13. Hiç kimse ebedî değil bu âlemde,

14.Eğer bir gün bedenimi gömseler,

15. Keşke birileri durup başımda,

16.- O bizimkiydi, deseler...

RUHIM (163)

1. *Vujud deganlari asli nimadir?*

2. *Dayr dengizida yurgan kemadir.*

3. *Bir kun bir qoyaga urilgay kema,*

4. *Ruhim, sen vujudning g‘amini yema.*

5. *Yuksak fazolarda aylagil parvoz,*

6. *Senda na ohang bor va na bor ovoz.*

7. *Senga na bo‘ronlar kor qila olur,*

8. *Seni na yo‘qotib, bor qila olur.*

9. *Sen misli kamalak - yuksak va so‘lmas,*

10.*Kamalakni esa parchalab bo‘lmas.*

RUHUM (163)

1. Vücut dediklerinin aslı nedir?

2. Deyr denizinde giden gemidir.

3. Bir gün bir kayaya çarpacak gemi,

4. Ruhum, sen vücudun gamını yeme.

5. Yüksek fezalarda eyle pervaz,
6. Sende ne ahenk var ve ne var avaz.

7. Seni ne fırtınalar etkileyebilir,
8. Seni ne kaybedip, var edebilir.

9. Sen gökkuşağı gibi, yüksek ve solmaz,
10.Gökkuşağı ise parçalayıp bölmez. (1969)

CHEKSIZLIK (164)

1. *Deydilar, fazoning chegarasi yo‘q,*
2. *Milliard yulduzlarning so‘ngi ham fazo.*
3. *U shu qadar cheksiz, shu qadar buyuk,*
4. *Xayolga sig‘dirib bo‘lmaydi hatto.*

5. *Ba’zan fazolarga boqaman uzoq,*
6. *Ruhimga shu tuyg‘u sig‘mas gupirib.*
7. *Cheksizlik yurakni qisganda, shu choq,*
8. *Torgina uyimga ketaman kirib.*

SONSUZLUK (164)

1. Derler, fezanın sınırı yok,
2. Milyarlarca yıldızların sonu da feza.
3. O bu kadar sonsuz, bu kadar büyük,
4. Hayale sığdıramaz hatta.

5. Bazen göklere bakarım uzun,
6. Ruhuma bu duygu sığmaz coşup.
7. Sonsuzluk yüreği sıktığında, o an,
8. Küçücük evime giderim girip. (1969)

O‘ZBEKISTON (165)

1. *Yurtim, senga she’r bitdim bu kun,*
2. *Qiyosingni topmadim aslo.*
3. *Shoirlar bor, o‘z yurtin butun*
4. *Olam aro atagan tanho.*
5. *Ular she’ri uchdi ko‘p yiroq,*
6. *Qanotida kumush diyori,*
7. *Bir o‘lka bor dunyoda, biroq*
8. *Bitilmagan dostondir bori:*
9. *Faqat ojiz qalamim manim,*
10. *O‘zbekiston, Vatanim manim.*

11. *Yurmasman hech behishtni izlab,*
12. *Topolmasam chekmasman alam.*
13. *O‘tirmasman ertaklar so‘zlab,*
14. *Musallo deb yo‘nmasman qalam.*
15. *Ko‘klamingdan olib sururni,*
16. *Dovrug‘ soldi ustoz Olimjon,*
17. *G‘afur G‘ulom tuygan g‘ururni*
18. *Qilmoq mumkin dunyoga doston.*
19. *Olis tarix qadamim manim,*
20. *O‘zbekiston, Vatanim manim.*

21. *Kechmishing bor chindan ham uzoq,*
22. *Ilg‘ay olmas barchasin ko‘zim.*
23. *Maqtamasman moziyni biroq,*
24. *O‘tmishingni o‘ylayman bir zum.*
25. *Zabtga olib keng Osiyoni,*
26. *Bir zot chiqdi mag‘rur, davongir,*
27. *Ikki asr yarim dunyoni*
28. *Zir qaqshatdi Buyuk jahongir.*
29. *Aytgum, bu kun, u manim, manim.*
30. *O‘zbekiston, Vatanim manim.*

31.*Bobolardan so‘z ketsa zinhor,*
32.*Bir kalom bor gap avvalida.*
33.*Osmon ilmi tug‘ilgan ilk bor*
34.*Ko‘ragoniy jadvallarida.*
35.*Qotil qo‘li qilich soldi mast,*
36.*Quyosh bo‘lib uchdi tilla bosh.*
37.*Do‘stlar, ko‘kda yulduzlar emas,*
38.*U, Ulug‘bek ko‘zidagi yosh.*
39.*Yerda qolgan, o, tanim manim,*
40.*O‘zbekiston, Vatanim manim.*

41.*Ko‘z oldimdan kechar asrlar,*
42.*Ko‘z-ko‘z etib nuqsu chiroyin.*
43.*Sarson o‘tgan necha nasllar,*
44.*Topolmasdan tug‘ilgan joyin.*
45.*Amerika - sehrli diyor,*
46.*Uxlar edi Kolumb ham hali,*
47.*Dengiz ortin yoritdi ilk bor,*
48.*Beruniyning aql mash’ali.*
49.*Kolumbda bor alamim manim,*
50.*O‘zbekiston, Vatanim manim.*

51.*Ko‘p jahongir ko‘rgan bu dunyo,*
52.*Hammasiga guvoh - yer osti.*
53.*Lekin, do‘stlar, she’r ahli aro*
54.*Jahongiri kam bo‘lar, rosti.*
55.*Besh asrkim, nazmiy saroyni*
56.*Titratadi zanjirband bir she’r.*
57.*Temur tig‘i yetmagan joyni*
58.*Qalam bilan oldi Alisher.*
59.*Dunyo bo‘ldi chamanim manim,*
60.*O‘zbekiston, Vatanim manim.*

61.*Bobolardan so‘zladim, ammo*
62.*Bir zot borkim, baridan suyuk:*
63.*Buyuklarga baxsh etgan daho,*
64.*Ona xalqim, o‘zingsan buyuk.*
65.*Sen o‘zingsan, eng so‘nggi nonin*
66.*O‘zi yemay o‘g‘liga tutgan.*
67.*Sen o‘zingsan, farzandlar shonin*
68.*Asrlardan opichlab o‘tgan.*
69.*Ona xalqim, jon-tanim manim,*
70.*O‘zbekiston, Vatanim manim.*

71.*Bosh ustingdan o‘tdi ko‘p zamon,*
72.*O‘tdi Budda, o‘tdi Zardushti.*
73.*Har uchragan nokasu nodon,*
74.*Ona xalqim, yoqangdan tutdi.*
75.*Seni Chingiz g‘azabga to‘lib*
76.*Yo‘qotmoqchi bo‘ldi dunyodan.*
77.*Jaloliddin samani bo‘lib*
78.*Sakrab o‘tding Amudaryodan.*
79.*Sensan o‘shal samanim manim,*
80.*O‘zbekiston, Vatanim manim.*

81.*Toleingda bor ekan yashash,*
82.*Goh qon ichding, gohida sharob.*
83.*Etmoq bo‘lib yurtim xomtalash,*
84.*Bosh ustingga keldi inqilob.*
85.*Chora istab jang maydonidan*
86.*Samolarga uchdi unlaring,*
87.*Shahidlarning qirmiz qonidan*
88.*Alvon bo‘ldi qora tunlaring.*
89.*Qonga to‘lgan kafanim manim,*
90.*O‘zbekiston, Vatanim manim.*

91.*Lekin oftob poymol o‘lmas,*

92.*Kavaklarda qolmas oy nuri,*
93.*Odil hakam - Haq bor, beg‘araz,*
94.*Mazlumlarning buyuk g‘amxo‘ri.*
95.*Qilich serpab tole tongida*
96.*O‘zligingni tanib qolding sen.*
97.*O‘g‘lonlarning qatra qonida*
98.*O‘zbekiston nomin olding sen.*
99.*Nomi qutlug‘ gulshanim manim,*
100. *O‘zbekiston, Vatanim manim.*

101. *Tinch turarmi bu ko‘hna olam,*
102. *Tinch turarmi dog‘uli zamon.*
103. *Oromingni buzdi sening ham*
104. *Fashist degan vahshiy olomon.*
105. *Qonim oqdi Dansigda manim,*
106. *Sobir Rahim yiqilgan chog‘da.*
107. *Lekin, yurtim, kezolmas g‘anim.*
108. *O‘zbekiston atalgan bog‘da.*
109. *Sensan nomus va sha’nim manim,*
110. *O‘zbekiston, Vatanim manim.*

111. *Kech kuz edi, men seni ko‘rdim,*
112. *Derazamdan boqardi birov.*
113. *U sen eding, o, dehqon yurtim,*
114. *Turar eding yalangto‘sh, yayov.*
115. *Tashqarida izillar yomg‘ir,*
116. *Kir, bobojon, yayragil bir oz.*
117. *Deding: - Paxtam, qoldi-ku axir,*
118. *Yig‘ishtiray kelmasdan ayoz.*
119. *Ketding, umri mahzanim manim,*
120. *O‘zbekiston, Vatanim manim.*

121. *Sen ketarsan balki yiroqqa,*
122. *Farg‘onada balki, balqarsan.*

123. *Balki chiqib oqargan toqqa,*
124. *Cho‘pon bo‘lib gulxan yoqarsan.*
125. *Balki ustoz Oybekdek to‘lib*
126. *Yozajaksan yangi bir doston.*
127. *Balki Habib Abdulla bo‘lib,*
128. *Sahrolarda ochajaksan kon.*
129. *Tuprog‘i zar, ma’danim manim,*
130. *O‘zbekiston, Vatanim manim.*

131. *Mayli, yurtim, kezsang ham dunyo,*
132. *Fazolarga qo‘ysang ham qadam,*
133. *O‘zligingni unutma aslo,*
134. *Unutma hech, onajon o‘lkam.*
135. *Bir o‘g‘lingdek men ham bu zamon*
136. *Kechmishingni qildim tomosha.*
137. *Iqbolingni ko‘roldim ayon*
138. *Istiqlolning ufqlari osha.*
139. *Iqboli hur, sho‘x-shanim manim.*
140. *O‘zbekiston, Vatanim manim.*

141. *Zavol ko‘rma hech qachon, o‘lkam,*
142. *Zavol bilmas shu yoshing bilan.*
143. *Muzaffar bo‘l, g‘olib bo‘l, o‘ktam,*
144. *Do‘stu yoring, qardoshing bilan.*
145. *Asrlarning silsilasida*
146. *Boqiy turgay koshonang sening.*
147. *Ulug‘ bashar oilasida*
148. *Mangu yorug‘ peshonang sening.*
149. *Mangu yorug‘ maskanim manim,*
150. *O‘zbekiston, Vatanim manim.*

ÖZBEKİSTAN (165)

1. Yurdum sana şiir yazdım bugün,

2. Benzerini bulmadım asla.
3. Şairler var, kendi yurdunu bütün,
4. Âlem içinde demiş tenha.
5. Onların şiiri uçtu çok uzağa,
6. Kanadında gümüş diyarı,
7. Bir ülke var dünyada, fakat,
8. Yazılmayan destandır hepsi:
9. Yalnız âciz kalemim benim,
10.Özbekistan, Vatan'ım benim.

11.Yürümem hiç cenneti arayıp,
12. Bulamazsam çekmem elem.
13. Oturmam masallar söyleyip,
14. Musalla deyip yontmam kalem.
15.İlkbaharından alıp sevinci,
16. Nam saldı üstat Âlimcan,
17. Gafur Gulam duyduğu gururu
18. Yapmak mümkün dünyaya destan.
19. Uzun tarih adımım benim,
20.Özbekistan, Vatan'ım benim.

21. Geçmişin var gerçekten de uzun,
22. Algılamaz hepsini gözüm.
23.Övmem maziyi fakat,
24. Geçmişini düşünmem bir an.
25. Zapt edip geniş Asya'yı,
26. Bir zat çıktı mağrur, şifakâr,
27.İki asır dünyanın yarısını
28. Titretti Büyük Cihangir.
29.Söyleyeceğim, bugün, o benim, benim.
30.Özbekistan, Vatan'ım benim.

31. Dedelerden söz gitse zinhar,
32. Bir kelam var söz evvelinde.

33.Gök ilmi doğmuş ilk defa
34. Koragonî cetvellerinde.
35. Katil eli kılıç koydu mest,
36.Güneş olup uçtu altın baş.
37. Dostlar, gökte yıldızlar değil,
38.O, Uluğbek gözündeki yaş.
39. Yerde kalan, heyhat, bedenim benim,
40.Özbekistan, Vatan'ım benim.

41.Gözümün önünden geçer asırlar,
42.Övüp güzelliğinin eksikliğini.
43. Avare geçmiş nice nesiller,
44. Bulamadan doğduğu yerini.
45. Amerika, sihirli diyar,
46. Uyurdu Kolomb[116] da hâlâ,
47. Deniz aşırısını keşfetti ilk defa,
48.Bîrûnî'nin akıl meşalesi.
49. Kolumb'da var elemim benim,
50.Özbekistan, Vatan'ım benim.

51.Çok cihangir görmüş bu dünya,
52. Hepsine şahit, yer altı.
53. Ama, dostlar, şiir ehli arasında
54. Cihangiri az olur, doğrusu.
55. Beş asır ki, şiirsel sarayı
56. Titretir zincirli bir şiir.
57. Timur'un kılıcının yetmediği yeri
58. Kalemle aldı Ali Şîr.
59.Dünya oldu gülzârım benim,
60.Özbekistan, Vatan'ım benim.

61. Dedelerden söyledim, ama

[116] Kristof Kolomb.

62. Bir zat var ki, hepsinden sevgili:
63.Büyüklere bahşetmiş deha,
64. Ana halkım, kendinsin büyük.
65. Sen kendinsin, en sonki ekmeğini
66. Kendisi yemeden oğluna uzatmış.
67. Sen kendinsin, evlatlar şanını
68. Asırlardan sırtında taşımış.
69. Ana halkım, canım, gönlüm benim,
70.Özbekistan, Vatan'ım benim.

71. Baş üstünden geçti çok zaman,
72. Geçti Buda, geçti Zerdüşt'ü.
73. Her karşılaştığı alçak ve cahil,
74. Ana halkım, yakasından tuttu.
75. Seni Cengiz gazapla dolup
76. Yok edecek oldu dünyadan.
77. Celaleddin samanı olup
78. Atlayıp geçti Amuderya'dan.
79. Sensin o samanım benim,
80.Özbekistan, Vatan'ım benim.

81. Talihinde varmış yaşamak,
82.Gâh kan içtin, gâh şarap.
83. Edip yurdumu talan,
84. Baş üstüne geldi inkılap.
85.Çare isteyip savaş meydanından
86. Semalara uçtu ünlerin,
87.Şehitlerin al kanından
88.Kırmızı oldu kara gecelerin.
89. Kanla dolan kefenim benim,
90.Özbekistan, Vatan'ım benim.

91. Ama güneş ezilip ölmez,
92. Kovuklarda kalmaz ay ışığı,

93. Adil hakim, Hak var, garezsiz,
94. Mazlumların büyük şefkatlisi.
95.Kılıç vurup talih şafağında
96. Benliğini tanıdın sen.
97.Oğlanların damla kanında
98.Özbekistan adını aldın sen.
99. Namı kutlu gülşenim benim,
100. Özbekistan, Vatan'ım benim.

101. Sakin durur mu bu köhne âlem,
102. Sakin durur mu sinsi zaman.
103. Huzurunu bozdu senin de
104. Faşist denen vahşi sürü.
105. Kanım aktı Dantsig'da benim,
106. Sabir Rahim'in yıkıldığı anda.
107. Ama, yurdum, gezemez düşman.
108. Özbekistan denen bağda.
109. Sensin namus ve şanım benim,
110. Özbekistan, Vatan'ım benim.

111. Güz sonuydu, ben seni gördüm,
112. Penceremden bakardı biri.
113. O sendin, aaa, ziraatçı yurdum,
114. Dururdun cesur, yaya.
115. Dışarıda şakırdar yağmur,
116. Gir, babacığım, keyif al biraz.
117. Dedin: - Pamuğum, kaldı ki artık,
118. Toparlayayım gelmeden ayaz.
119. Gittin, ömür hazinem benim,
120. Özbekistan, Vatan'ım benim.

121. Sen gidersin belki uzağa,
122. Fergana'da belki, parlarsın.
123. Belki çıkıp ağaran dağa,

124. Çoban olup ateş yakarsın.
125. Belki üstat Aybek gibi dolup
126. Yazacaksın yeni bir destan.
127. Belki Habib Abdulla olup,
128. Sahralarda bulacaksın pınar.
129. Toprağı altın, madenim benim,
130. Özbekistan, Vatan'ım benim.

131. Olsun, yurdum, gezsen de dünya,
132. Fezalara atsan da adım,
133. Benliğini unutma asla,
134. Unutma hiç, anacığım ülkem.
135. Bir oğlun gibi ben de bu zaman
136. Geçmişini kıldım temaşa.
137. İkbalini görebildim ayan
138. İstiklalin ufukları üstünden.
139. İkbali hür, şen şakrağım benim.
140. Özbekistan, Vatan'ım benim.

141. Zeval görme hiçbir zaman, ülkem,
142. Zeval bilmez bu yaşınla.
143. Muzaffer ol, galip ol, alicenap,
144. Dost, yârin ve kardeşinle.
145. Asırların silsilesinde
146. Baki kalacak sarayın senin.
147. Ulu beşer ailesinde
148. Ebedî parlak alnın senin.
149. Ebedî aydınlık meskenim benim,
150. Özbekistan, Vatan'ım benim. (1964-70)

QARSHI QO‘SHIG‘I (166)

(Otamga bag‘ishlayman)

1. *Men bu cho‘llar qo‘ynida tug‘ilib topdim kamol,*
2. *Ko‘hna sardobalarda ko‘milib qoldi dardim.*
3. *Lekin nar asrlondan sut talab qilgan misol,*
4. *Olis shahar, tog‘lardan ilhomimni axtardim.*

5. *Goho topdim men uni, gohida qoldim nochor,*
6. *Og‘ir o‘ylar ham surdim Sirdaryo bo‘ylarida.*
7. *She’rlar bitdim gohida o‘jar va majnunshior,*
8. *Sargashta bulbullarning beusul kuylarida.*

9. *Do‘stlar orttirdim bunda turfa xil, turfa odat,*
10.*Goho birisin topsam, birisini yo‘qotdim.*
11.*Mehmon bo‘ldi bu yerda qalbimga ilk muhabbat,*
12.*Olis kechalar uning g‘ussasini ham tortdim.*

13.*Mana bu kun, ey yurtim, g‘oz turibman qarshingda,*
14.*Ot aylanib joyini topar, deganlar doim.*
15.*Sen haqingda she’r bitish sharafi bor boshimda,*
16.*Ey sen, sahroyi xalqim, ey sen, tug‘ilgan joyim.*

17.*Kim aytadi qo‘yningda ilhom bor deb doimo,*
18.*Xususan saratonning yonib turgan pallasi?*
19.*Bir nafas taklifingga tashrif etsa mabodo,*
20.*Har qanday shoirning ham pir bo‘lar hafsalasi.*

21.*Bu yerlarning bori shu: qip-qizil sahro bari,*
22.*Faqat sarob jimirlab chorlar sirli bazmga.*
23.*Uncha ham suluv emas sahroning jonzodlari,*
24.*Nasrga yarashmasa, yarashmaydi nazmga.*

25.*Lekin uning bahori, o, sen, cho‘llar bahori,*
26.*Sog‘intirgan onamning diydori senday, shirin.*
27.*Erta kun qovjirashdan bo‘lsa ham dilda zori,*
28.*Lola labi xandonu tubda dog‘i yashirin.*

29.*Oyoqlangan qo‘ziday dovdirar yelda maysa,*
30.*Ko‘m-ko‘k moviy osmonda kezib yurar oq bulut.*
31.*To‘rt taraf qisib kelib, nogahon jala quysa,*
32.*Olamga anqib ketar ming xil ko‘kat, ming xil o‘t.*

33.*Lekin oftob zabtidan qochib boradi bahor,*
34.*Noshud sayyod dastidan qalbi qon ohu kabi.*
35.*Xayr endi, bahorim, ko‘rishguncha to diydor,*
36.*Mahshar kelmay yumildi bahorning qaqroq labi.*

37.*Shundayin shitob bilan o‘tdi-yu ketdi ko‘klam,*
38.*Za’faron adirlarda tentirar endi quyun.*
39.*Bamisoli shaddod qiz bir bora aylab karam,*
40.*So‘ngra labin cho‘chchaytib qilgani kabi o‘yin.*

41.*Qaynoq bir to‘zon ichra gurkirar endi osmon,*
42.*Bosh ustingda o‘t purkar samoning ajdahosi.*
43.*Asta-sekin kun qaytar, bosilar qaynoq to‘zon,*
44.*Yelar oqshom nafasi - salqin tun ibtidosi.*

45.*Har nedan go‘zalroqdir balki cho‘l kechalari,*
46.*Ufqlar kaftdek ravon, ko‘k sochgan bor bisotin.*
47.*Termulsang ko‘ringaydir jannatning go‘shalari,*
48.*Yulduzlar chug‘urlashib so‘ylashar tafsilotin.*

49.*Sizni jondan sevaman, o, yulduzli kechalar,*

50.*Qo‘yningizda nihondir sirli va dilbar xayol.*
51.*Sizni suronli kunlar qo‘msaganman nechalar,*
52.*Siz bilan tanholikda so‘zlashsam, deb bemalol.*

53.*Lekin shaddod hayotning yulduzda bormi ishi,*
54.*Insonlar bor - yulduzdan yulduzlar qadar yiroq.*
55.*Insonlar bor - o‘zidan bo‘lak yo‘qdir tashvishi,*
56.*“Savdoyi” - deb ataydi shoirni ular ko‘proq.*

57.*Gina qilish endi bas, gapni har yoqqa bursang,*
58.*Xilma-xil kuduratlar chiqa berar qatma-qat.*
59.*Xullas, gul va yulduzni bir chetga qo‘yib tursang,*
60.*Bu yerlarning bori shu - qip-qizil sahro faqat.*

61.*Yo‘l yursang har joylarda rabotlar vayronasi,*
62.*Iskandar, Qutaybadan qolgan sonsiz dahmalar.*
63.*Bu yerlarda ilk bora yangragan Temur sasi,*
64.*Chingiziylar boshiga solib qo‘rquv, vahmalar.*

65.*O, ulardan ne qoldi? Turfa rivoyat faqat...*
66.*Birovi qurganini boshqasi qildi vayron.*
67.*Vaqting bemalol bo‘lib, so‘ylay bersang hikoyat,*
68.*Hattoki Firdavsiy ham boqardi senga hayron.*

69.*Va lekin shu fursatda qalbimda hasrat bilan,*
70.*O‘zbegim diyorining kechmishini o‘ylayman.*
71.*Men bu kun do‘stlarimga afsus-nadomat bilan,*
72.*Yerga cho‘p qadamagan amirlardan so‘ylayman.*

73.*Mening qadim elimdan uyquchi Said Olim*
74.*Cho‘l oshib Hisor tomon chiqqani mahal yo‘lga,*
75.*Jilovdori bo‘lmasa yugan tortmagan zolim,*

76.*Qaysi hafsala bilan suv chiqarsin bu cho‘lga?*

77.*Shu boisdan sahroning qalbida bir go‘r yotar,*
78.*U mening bobom qabri, qizimning bobojoni.*
79.*Har o‘tganda ruhimga tuganmas qayg‘u botar,*
80.*Qultum suv hasratida uzilgan yigit joni.*

81.*U bir zamon quduqning tubida qolgan ekan,*
82.*Suv ko‘zin ochay desa - bosib qolibdi tuproq.*
83.*Shum ajal boyaqishning payidan chalgan ekan,*
84.*To‘g‘rirog‘i, muhtojlik dastini qirqqan ko‘proq.*

85.*Men bu kun sahar chog‘i, zarrin quyoshga boqib,*
86.*Shu sho‘rlik ajdodimning nomini she’rga soldim.*
87.*Maskanin yoritmoqqa qalbimda shu’la yoqib,*
88.*Lavhi yodin bitmoqqa tunlardan siyoh oldim.*

89.*Men uning nabirasi, qo‘limda qalam bilan,*
90.*Qalbimda alam bilan poyiga qo‘ydim qadam.*
91.*Uning-ku ishi yo‘qdir bu tirik olam bilan,*
92.*Lekin orzusi bor-ku, niyat topmas-ku barham.*

93.*Ha, quduqlar tubida ko‘milib ketmas armon,*
94.*Har qanday zavolning ham bordir so‘ngi, hududi.*
95.*Qabrlar tepasida yongan o‘t ham begumon*
96.*Birorta o‘ksik qalbning chaqnayotgan umidi.*

97.*Bu joylar obod bo‘lar albatta erta-*indin,
98.*Go‘riston gulistondir, Muqimiy aytgan misol.*
99.*Lekin o‘tgan bobolar bu ishni bilarmikin,*
100. *Bilarmikin, tegrasin qurshab turganin iqbol?*

101. *Biz ham bir kun o‘tarmiz bu dunyoi qadimdan,*
102. *Bizning ham qalbimizda ketgusi balki armon.*
103. *Balki kimdir bizni ham xotirlab qo‘ysa zimdan,*
104. *Parchalab qabr toshin kelurmiz o‘sha zamon.*

105. *Mana bu kun bobolar arvohi chappor urar,*
106. *Mening azamat yurtim - o‘zbekning sahrosida.*
107. *Hazrati Xizr emas, Jayhunning sasi yurar,*
108. *Saksovul bosib yotgan cho‘llarning ma’vosida.*

109. *Men-ku she’r yozmasam ham sahrolarga suv chiqib,*
110. *Shu buyuk mamlakatim obod bo‘lishi tayin.*
111. *Lekin ona xalqimning o‘tmishiga ko‘z tikib*
112. *Kelajagi haqida o‘y surgum kelar mayin.*

113. *Ilojin topsa agar, ketmonning dastasin ham*
114. *Yerga qadab termulib, ko‘kartirguvchi bu xalq.*
115. *Jazm etsa ko‘kka bo‘yar jahon xaritasin ham,*
116. *Bugun cho‘lga chiqibdi, niyati topsin barhaq.*

117. *Bugun u Jayhun suvin kelmoqchi cho‘lga boshlab,*
118. *Jayhun bu - o‘z xalqimning o‘z armoni, dunyosi.*
119. *Yarashmas bu daryoga o‘tirsang qarmoq tashlab,*
120. *Jayhun bu - kuchga to‘lgan Vatanimning daryosi.*

121. *Men uning bo‘ylarida o‘ylarga toldim uzoq,*
122. *Qirg‘ovul xonish qilgan to‘qaylarga burdim yuz.*
123. *Bir tomon Turkman eli, bir tomon Qoraqalpoq,*
124. *Yo nasib, deb Jayhunga cho‘kka tushib tikkan ko‘z.*

125. *Daryo-chi, shamshir kabi yaltirab yotar daryo,*
126. *Tushovidan bo‘shalgan ot kabi chopar sarson.*

127. *O, sen darbadar daryo, o, sen serxatar daryo,*
128. *Bunchalar vazminsanu bunchalar quv, o‘jarsan!*

129. *Sen qayga hovliqasan erta-kech bilmay tinim,*
130. *Sen qayga hovliqasan, bekanoru ko‘r, basir?*
131. *Azizim, bu dunyoda yo‘l yursang yo‘qdir qo‘nim,*
132. *Azizim, o‘jarlikni yoqtirmas bizning asr.*

133. *Men sening visolingni ko‘rgali keldim atay,*
134. *Mavjlaringga qo‘shilib jo‘sha bilmadim biroq.*
135. *Sen bilan suhbat qurish qo‘limdan kelmas, netay,*
136. *Sen buyuk bir nahrsan, men bo‘lsam oddiy irmoq.*

137. *Ha, dayr dengizida yakka inson - zarra qum,*
138. *Zamonlar soatidan o‘tar u qator-qator,*
139. *Lekin sen borsan, Amu, dengizday teran ruhim,*
140. *Lekin sen borsan, xalqim, ko‘kragim Pomircha bor.*

141. *Pomirday yuksaklikdan tegramga boqsam agar, -*
142. *Ko‘zimga ko‘ringaydir Vatanim, ona xalqim.*
143. *Uning-ku quchog‘ida cho‘llardan qolmas asar,*
144. *Abadiy muzliklar ham gul ochib ketar balkim.*

145. *Chunki shukuhin berdi xalqimga buyuk shuur,*
146. *Buyuklikdan buyuklik tug‘ilib kelgan doim.*
147. *Sen ham shu buyuk elda yashnay ber doim mag‘rur,*
148. *Ey, sen, azamat xalqim, ey, sen, tug‘ilgan joyim!*

KARŞI KOŞUĞU (166)

(Babama ithaf ederim)

1. Ben bu çöllerin bağrında doğup buldum kemal,
2. Köhne sardabalarda[117] gömülüp kaldı derdim.
3. Ama erkek aslandan süt talep etmiş misal,
4. Uzak şehir, dağlardan ilhamımı aradım.

5. Gâh buldum onu, gâh kaldım naçar,
6. Ağır düşünceler de sürdüm Sirderya boylarında.
7. Şiirler yazdım bazen inatçı ve Mecnunvari,
8. Sergeşte bülbüllerin usulsüz nağmelerinde.

9. Dostlar biriktirdim böyle güzel türde, güzel âdette,
10. Bazen birisini bulsam, birisini kaybettim.
11. Misafir oldu bu yerde kalbime ilk muhabbet,
12. Uzun geceler onun sıkıntısını da çektim.

13.İşte bugün, ey yurdum, güçlenmişim karşında,
14. At dolaşıp yerini bulur, diyenler daima.
15. Senin hakkında şiir yazma şerefi var başımda,
16. Ey sen, sahra-i halkım, ey sen, doğduğum yerim.

17. Kim der koynunda ilham var diye daima,
18. Bilhassa kuru yazın yanıp duran anı?
19. Bir an teklifine teşrif etse eğer,
20. Her şairin de pir olur hafsalası.

21. Bu yerlerin tümü şu: kıpkızıl sahra hepsi,
22. Sadece serap dalgalanıp çağırır sırlı şölene.

[117] Su toplama ve depolama havuzudur.

23.O kadar da güzel değil sahranın canlıları,
24. Nesre yakışmazsa, yakışmaz nazma.

25. Ama onun baharı, aaa, sen, çöller baharı,
26.Özlediğim anamın yüzü senin gibi şirin.
27. Ertesi gün kavrulmaktan olsa da gönülde efganı,
28. Lale dudağı gülüşü altında kederi saklı.

29. Ayaklardan kuzu gibi yalpalayıp rüzgârda çim,
30. Masmavi asumanda gezip gider ak bulut.
31.Dört taraf sıkıştırarak gelip, ansızın sağanak yağsa,
32.Âleme kokusu yayılır bin çeşit zerzevat, bin çeşit ot.

33. Ama güneş zaptından kaçıp gider bahar,
34. Maharetsiz avcı yüzünden kalbi kan ahu gibi.
35. Hoşça kal şimdi, baharım, görüşünceye dek,
36. Mahşer gelmeden baharın kuruyan dudağı.

37.Böyle hızla geçti gitti ilkbahar,
38. Safran kırlarda başıboş gezer fırtına.
39. Sanki inatçı kız bir kez eder merhamet,
40. Sonra dudağını büküp yaptığı gibi oyun.

41.Kızgın bir toz içinde keskin kokar şimdi asuman,
42. Baş üstünde ateş püskürür semanın ejderhası.
43. Yavaşça güneş döner, kaplar kızgın bir toz,
44. Eser akşam vakti, serin gece iptidası.

45. Her nedense daha güzeldir belki çöl geceleri,
46. Ufuklar hurma ağacı gibi yayvan, gök saçmış tüm servetini.
47. Dikkatle bakarsan görünecektir cennetin köşeleri,
48.Yıldızlar büyüyüp söyleşir detaylarını.

49. Sizi candan severim, ey, yıldızlı geceler,
50. Bağrınızda saklıdır sırlı ve sevgili hayal.
51. Sizi heyecanlı günler hasret çekerim niceler,
52. Sizinle yalnızlıkta konuşsam, diye rahatça.

53. Ama zalim hayatın yıldızda var mı işi,
54.İnsanlar var, yıldızdan yıldızlar kadar uzak.
55.İnsanlar var, kendisinden başka yoktur tasası,
56."Kara sevdalı" diye adlandırır şairi onlar daha çok.

57. Sitem etmek şimdi yeter, sözü her tarafa çeksen,
58.Türlü türlü kudretler çıkıverir kat kat.
59. Velhasıl, gül ve yıldızı bir kenara koysan,
60. Bu yerlerin varlığı bu, kıpkızıl sahra sadece.

61. Yol yürüsen her yerde kaleler viranesi,
62.İskender, Kuteybe'den kalan sayısız dharmalar.
63. Bu yerlerde ilk defa çınlayan Timur sesi,
64. Cengiz ordusunun başına salıp korku, endişeler.

65. Peki, onlardan ne kaldı? Güzel rivayet sadece…
66. Birisinin kurduğunu başkası etti viran.
67. Vaktin uygun olup, anlatıversen hikâye,
68. Hatta Firdevsî de bakardı sana şaşkın.

69. Velakin bu zamanda kalbimde hasretle,
70.Özbek'imin diyarının geçmişini düşünürüm.
71. Ben bugün dostlarıma esef, nedametle,
72. Toprağa fidan bile dikmeyen emirleri söylerim.

73. Benim kadim halkımdan uykucu Said Âlim

74.Çöl aşıp Hisar'a doğru çıktığı vakit yola,
75. Seyis olmazsa dizgin çekmeyen zalim,
76. Hangi hevesle su çıkarsın bu çöle?

77. Bundan dolayı sahranın kalbinde bir mezar yatar,
78.O benim dedemin kabri, kızımın dedeciği.
79. Her geçtiğimde ruhuma tükenmez kaygı batar,
80. Yudum su hasretinde vermiş yiğit canı.

81.O bir zaman kuyunun dibinde kalmış imiş,
82.Pınar gözünü açayım deyince, yığılıp kalmış toprak.
83. Hilekâr ecel adamcağızın ömründen çalmış imiş,
84. Doğrusu, muhtaçlık elini kesmiş daha çok.

85. Ben bugün seher vakti, altın güneşe bakıp,
86.Şu talihsiz ecdadımın namını şiire saldım.
87. Meskenin aydınlatmakta kalbimde ışık yakıp,
88. Hafızanın hatırasını yazmaya gecelerden siyah aldım.

89. Ben onun torunu, elimde kalemimle,
90. Kalbimde elemle payına attım adım.
91. Onun ki işi yoktur bu canlı âlemle,
92. Onun arzusu var ki, niyet bulmaz son.

93. Evet, kuyular dibinde gömülüp gitmiş ukde,
94. Her zevalin de vardır sonu, hududu.
95. Kabirlerin tepesinde yanan ateş de şüphesiz
96. Bir gamlı kalbin çiğnenen umudu.

97. Bu yerler abat olur elbette yarın bir gün,
98. Kabristan gülistandır, Mukîmî'nin dediği misal.
99. Ama geçmiş dedeler bu işi bilir mi ki,

100. Bilir mi ki, etrafını kuşattığın ikbal?

101. Biz de geçeriz bir gün bu dünyayı kadimden,
102. Bizim de kalbimizde gidecek belki ukde.
103. Belki biri bizi de hatırlasa gizlice,
104. Parçalayıp kabir taşını geliriz o zaman.

105. İşte bugün dedelerin ruhunun hepsi çarpar,
106. Benim yiğit yurdum, Özbekistan sahrasında.
107. Hazreti Hızır değil, Ceyhun'un sesi gider,
108. Saksaul biten ihtiyarların sığınağında.

109. Ben ki şiir yazmasam da sahralara su çıkıp,
110. Bu büyük memleketim abat olması malum.
111. Ama ana halkımın geçmişine göz dikip
112. Geleceği hakkında akıl yürütesim gelir hoş.

113. Çaresini bulsa eğer, çapanın sapını da
114. Toprağa saplayarak bakıp yeşertici bu halk.
115. Karar verse kesin maviye boyar dünya haritasını da,
116. Bütün çöle çıkmış, niyeti olsun gerçek.

117. Bütün o Ceyhun suyu gelecek çöle başlayıp,
118. Ceyhun bu, kendi halkımın kendi ukdesi, dünyası.
119. Yakışmaz bu deryaya otursan olta atıp,
120. Ceyhun bu, güçle dolan Vatan'ımın deryası.

121. Ben onun boylarında düşüncelere daldım uzun,
122. Sülün şakıyan çalılıklara çevirdim yüz.
123. Bir taraf Türkmen halkı, bir taraf Karakalpak,
124. Yahut nasip, diye Ceyhun'a diz çöküp dikmiş göz.

125. Derya, kılıç gibi parlar derya,
126. Yularından kurtulan at gibi koşar avare.
127. Ey, sen derbeder derya, ey, sen tehlikeli derya,
128. Bu kadar vakursun ve bu kadar kurnaz, hırçınsın

129. Sen nereye koşuşursun gece gündüz bilmeden durmak,
130. Sen nereye koşuşursun, kıyısız ve kör?
131. Azizim, bu dünyada yol yürüsen yoktur durak,
132. Azizim, baş kaldırıyı sevmez bizim asır.

133. Ben senin visalini göreli geldim bile bile,
134. Dalgalarına katılıp coşamadım fakat.
135. Seninle sohbet etmek elimden gelmez, ne çare,
136. Sen büyük bir nehirsin, bense sıradan bir ırmak.

137. Evet, derya denizinde tek insan, zerre kum,
138. Zamanlar saatinden geçer o sıra sıra,
139. Ama sen varsın, Amu, deniz gibi ruhum,
140. Ama sen varsın, halkım, Pamir gibi yüreğim var.

141. Pamir gibi yükseklikten etrafıma baksam eğer,
142. Gözüme görünecektir Vatan'ım, ana halkım.
143. Onun kucağında çöllerden kalmaz eser,
144. Ebedî buzullar da çiçek açar belki.

145. Çünkü yüceliğin verdi halkıma büyük şuur,
146. Büyüklükten büyüklük doğmuş daima.
147. Sen de bu büyük halkta yaşayıver daima mağrur,
148. Ey, sen, yiğit halkım, ey, sen, doğduğum yer! (1970)

KENGLIK NUQTASI (167)

1. *Hisor tog'larining naq etagida*

2. *Makon bor xushhavo, sarbaland, yuksak.*

3. *Ajib bir osmon bu, osmon tagida.*

4. *Yulduzlar qo‘l cho‘zsang shundoq yetgudek.*

5. *Ona tabiatning xush san’ati bu,*

6. *Inson va yulduzlar saltanati bu.*

7. *Bu yerdan o‘tibdi yerning belbog‘i,*

8. *Beqasam to‘n demak bu rangin diyor.*

9. *Falakda yulduzlar chaqnagan chog‘i*

10.*Nishondor o‘zbekning surati tayyor.*

11.*Ulug‘bek nomida zo‘r koshona bu,*

12.*Dunyoda beshdan bir rasadxona bu.*

13.*Bu yerga termulib parishon dunyo*

14.*To‘g‘rilab oladi qo‘lda soatin.*

15.*Ne ajab, payt kelib aytolsak hatto*

16.*Jumlai jahonning xush saodatin.*

17.*Shundoq qutlug‘ joy bu, qutlug‘ makon bu,*

18.*Ne qutlug‘, jonajon O‘zbekiston bu.*

19.*Atrofda vodiylar tovlanar hal-hal,*

20.*Ming yillik chinorlar ko‘kka boqqan tek.*

21.*Bu yerda, vo ajab, yuz yillar avval*

22.*Dunyoga kelibdi sulton Ulug‘bek.*

23.*Ajib tasodif yo shahri Humoy bu,*

24.*Hoynahoy, dahosi tuganmas joy bu.*

25.*Oqshom tushmasidan bunda besabr,*

26.*O‘nlab ko‘z termular osmon-falakka.*

27.*Bu Zuhal, mana bu Dubbi Akbardir,*

28.*Zuhraoy piqirlar bir chetda yakka.*

29.*Yulduzlar vasli bu, vasli jahon bu,*

30.*Oshiq munajjimga ayshi nishon bu.*

31.*Tong otib chiqar-ku ishboshi oftob,*
32.*Qoshida bosh egib qolma tag‘in jim.*
33.*Zamon shiddatini qilolmay hisob*
34.*Yer chizib turibdi yosh bu munajjim.*
35.*Azizim, g‘am chekma, vahmu gumon bu,*
36.*Oxir tizginingga kelgay zamon bu.*

37.*Har zumda dunyoning burchaklariga*
38.*Xabarlar jo‘naydi qator va qator.*
39.*Xohlasang, uchaver Marsdan nariga,*
40.*Xohlasang, falakning u burchiga bor.*
41.*Qo‘lingda tap-tayyor haddi hisob bu,*
42.*Haddi hisob bergan shahri Kitob bu.*

43.*Qutlug‘ joy ko‘p erur ushbu dunyoda,*
44.*Yulduzni ko‘zlagan lochin ham talay.*
45.*Har nechuk, shu soat, shu soniyada,*
46.*Ona yurt, men seni sozimga solay.*
47.*Na maqtov, na olqish, na puch zanah bu,*
48.*Ona yurt qalbimga solgan farah bu.*

49.*Kezdim bu yerlarda tanho shodumon,*
50.*Yulduzlarga yaqin, ko‘zlardan yiroq.*
51.*Qalqib turgan bilan teppamda osmon*
52.*Anglab yetarmidim ma’nosin biroq.*
53.*Har nechuk, bilganim, yulduzfishon bu,*
54.*Uyg‘oq Vatanimdan bitta nishon bu.*

55.*Bor bo‘l, tafakkurga yor bo‘lgan diyor,*
56.*Bor bo‘l, yulduzli tun, oqshomlar mayin.*
57.*Bitta munajjiming misoli bedor,*
58.*Ona yurt, men senga maftun o‘tayin.*

59.*Balki shoirlik ham yaxshi otdir bu,*

60.*Ulug‘bek yurtidan xotirotdir bu.*

GENİŞLİK NOKTASI (167)

1. Hisar dağlarının tam eteğinde

2. Mekân var hoş havalı, uzun, yüksek.

3. İlginç bir asuman bu, asumanın dibinde.

4. Yıldızlar el uzatsan şöyle, yetişecek gibi.

5. Ana tabiatın hoş sanatı bu,

6. İnsan ve yıldızlar saltanatı bu.

7. Bu topraktan geçmiş toprağın kuşağı,

8. Bekasam[118] kaftan demek bu rengin diyarı.

9. Felekte yıldızlar çiğnediği an

10. Madalyalı Özbek'in resmi hazır.

11. Uluğbek isminde mükemmel saray bu,

12.Dünyada beş rasathaneden biri bu.

13. Bu yere gözünü dikip perişan dünya

14. Doğrulup alır el saatini.

15. Ne garip, zaman gelip anlatabilsek hatta

16.Cümle cihanın hoş saadetini.

17.Böyle kutlu bir yer bu, kutlu mekân bu,

18. Ne kutlu, aziz Özbekistan bu.

19. Etrafında vadiler ışıldar yaldız yaldız,

20. Bin yıllık çınarların göğe baktığı gibi.

21. Bu yerde, garip, yüzyıllar evvel

22.Dünyaya gelmiş sultan Uluğbek.

23.İlginç tesadüf yahut şehri Humay[119] bu,

24. Belki dehası tükenmez yer bu.

[118] Bir kumaş türüdür.

[119] Firdevsi'nin "Şehname" adlı eserinde geçen adaleti sağlayan kahramanlardandır.

25. Akşam çökmeden böyle sabırsız,
26. Onlarca kız diker gözünü göğe, feleğe.
27. Bu Zühal, işte bu Dübb-ü Ekberdir,
28.Zühre ay kıkırdayıp bir köşede yalnız.
29.Yıldızlar vaslı bu, vaslı cihan bu,
30.Âşık müneccime zevki sefa bu.

31.Şafak söküp çıkar işbaşı afitap,
32.Önünde baş eğip kalma yine sessiz.
33. Zaman şiddetini edemeden hesap
34. Utanıp yere bakakalmış, bu, genç müneccim.
35. Azizim, gem çekme, vehim ve şüphe bu,
36. Ahir dizginine gelecek zaman bu.

37. Her anda dünyanın uçlarına
38. Haberler gider sıra sıra.
39.İstersen, uçuver Mars'tan öteye,
40.İstersen, feleğin o köşesine git.
41. Elinde hazır hadd-i hesap bu,
42. Hadd-i hesap veren şehr-i Kitap bu.

43. Kutlu yer çoktur bu dünyada,
44.Yıldızı gözleyen şahin de çok.
45. Her ne olursa, bu saat, bu saniyede,
46. Ana yurt, ben senden ilham alayım,
47. Ne övgü, ne alkış, ne boş söz bu,
48. Ana yurt kalbime saldığı ferah bu.

49. Gezdim bu yerlerde yalnız şaduman,
50.Yıldızlara yakın, gözlerden uzak.
51. Kalkmasıyla tepemde asuman,
52. Anlar mıydım manasını fakat.

53. Her ne olursa, bildiğim, yıldız-fişan bu,
54. Uyanık Vatan'ımdan bir nişan bu.

55. Var ol, tefekküre yâr olan diyar,
56. Var ol, yıldızlı gece, akşamlar yumuşak.
57. Bir müneccim misali uyanık,
58. Ana yurt, ben sana meftun yapayım.
59. Belki şairlik de iyi addır bu,
60. Uluğbek yurdundan hatırattır bu. (1970)

"DO'RMON BOG'LARIGA…" (168)

1. *Do'rmon bog'lariga tinch oqshom cho'kdi,*
2. *Chinor barglariga indi kuylarim.*
3. *Shaharda zerikib, bog' tomon chiqdi*
4. *Eski tanishlarim - oshno o'ylarim.*

5. *Bu joylar bahavo, go'zal va lobar,*
6. *Oftob ham ko'z uzmas yona va yona.*
7. *Yuksak arg'uvonlar, og'ochlar serbar,*
8. *Bu she'r koshonasi, bu ijodxona...*

"DORMAN BAĞLARINA…" (168)

1. Dorman bağlarına sakin bir akşam çöktü,
2. Çınar yapraklarına indi şarkılarım.
3. Şehirden sıkılıp, bağa doğru çıktı
4. Eski tanıdıklarım, aşina düşüncelerim.

5. Bu yerler havadar, güzel ve cazip,
6. Güneş de gözünü ayırmaz yine.
7. Yüksek erguvanlar, ağaçlar geniş,
8. Bu şiir binası, bu icathane… (1970)

ILTIJO (169)

1. *Yuzlaringni mayliga yashir,*
2. *Kerak emas, nozlar, imolar.*
3. *Go‘zallikning qoshida axir*
4. *Cho‘kka tushgan hatto xudolar.*

5. *Kimga foyda behuda junun*
6. *Va dunyoga g‘avg‘o solishdan.*
7. *Ayriliqsan qo‘rqmasman bu kun,*
8. *Men qo‘rqaman sevib qolishdan.*

İLTİCA (169)

1. Yüzlerini büsbütün saklar,
2. Gerekmez, nazlar, imalar.
3. Güzelliğinin önünde artık
4. Diz çökmüş hatta tanrılar.

5. Kime fayda beyhude deli
6. Ve dünyaya kavga çıkarmaktan.
7. Ayrılıktan korkmam bugün,
8. Ben korkarım sevip kalmaktan. (1970)

HAMID OLIMJON XOTIRASIGA (170)

1. *O‘rik gullaganmish kechagi tunda,*
2. *Bahor mujdasi bu, yayragin, ey jon.*
3. *Yillar o‘tar ekan, bugungi kunda*
4. *Oltmishga kiribsiz, ustoz Olimjon.*

5. *Bir yonda Hulkar bu, bir yon Omon bu,*
6. *Bir yon shoiramiz - mashhuri olam.*
7. *Sizning tegrangizda ahli zamon bu,*
8. *Sizning tegrangizda do‘stlar bo‘lmish jam.*

9. *Barhayot Oybek bu - qutlaydi mamnun,*
10.*Qutlar G‘afur G‘ulom - dongdor zamondosh.*
11.*Sizni qutlayotir do‘st-yorlar bukun,*
12.*Kutlar O‘zbekiston - mag‘rur egib bosh.*

13.*Yetimtov bag‘ridan chiqqan navqiron,*
14.*Siz bu - she’rimizning eng jarang sasi.*
15.*Sizning satringizda qurmish oshyon*
16.*Uchirma qush kabi she’r ilohasi.*

17.*Oltmishga kiribsiz, yodingiz ammo*
18.*Shabnamday ma’sumu ko‘klam kabi yosh.*
19.*Axir qancha qadim bo‘lmasin dunyo*
20.*Bag‘rida nur borki, qarimas quyosh.*

21.*Hayot bo‘lsaydingiz turardingiz shod*
22.*Ulkan shu davraning eng o‘rtasida.*
23.*Tiriklik sha’nini ulug‘lab kushod*
24.*Doston insho etab, bitib qasida.*

25.*Hayot bo‘lsaydingiz, har salqin sahar*
26.*Oshno buloqlarga qo‘yardingiz lab.*
27.*Yurardingiz elda aziz, mo‘’tabar,*
28.*Sonsiz shogirdlarning manglayin silab.*

29.*Yaxshiyam boqiydir dilbar she’riyat,*
30.*Samandar misoli o‘lim bilmas jon.*
31.*Minnatdor yurt sizni qutlaydi faqat,*
32.*Qutlug‘ bu ayyomda, ustoz Olimjon.*

33.*Yurt bu kun karvonlar boshida nordir,*

34.*Yurt bu kun Sharq ichra tengsiz bir diyor.*

35.*Yurt bu kun ohuday xo‘p ishvakordir,*

36.*Sir kabi sermavjdir, Pomirday poydor.*

37.*Tole yulduzining qutlug‘ ziyosi*

38.*Saodat burjida balqqay, zamon bu.*

39.*Qadim bir diyor bu - yo‘qdir qiyosi,*

40.*Ajib bir bo‘ston bu - O‘zbekiston bu.*

41.*Ustoz, sozga solay boqiy hayotni,*

42.*Boqiy she’r qoshida bosh egay bir on.*

43.*Shodlik va baxtini kuylagan zotni*

44.*Shodlik bilan eslar odatda zamon.*

HAMİD ÂLİMCAN’IN ANISINA (170)

1. Kayısı çiçeklenmiş dün gece,

2. Bahar müjdesi bu, keyiflen, ey can.

3. Yıllar geçermiş, bugünkü günde

4. Altmışa girmişsiniz, üstat Âlimcan.

5. Bir yanda Hulkar bu, bir yanda Aman bu,

6. Bir yanda şairemiz, meşhur-i âlem.

7. Sizin etrafınızda ehli zaman bu,

8. Sizin etrafınızda dostlar olmuş cem.

9. Canlı Aybek bu, kutlar memnun,

10. Kutlar Gafur Gulam, meşhur çağdaş.

11. Sizi kutlar eş dost bugün,

12. Kutlar Özbekistan, mağrur eğip baş.

13. Yetimtov bağrından çıkan yiğit,

14. Siz bu şiirimizin en şangırtı sesi.

15. Sizin satrınızda kurmuş aşiyan
16. Yavru kuş gibi şiir tanrıçası.

17. Altmışa girmişsiniz, yâdınız ama
18.Şebnem gibi masum ve ilkbahar gibi genç.
19. Artık nice kadim olmasın dünya
20. Bağrında nur var ki yaşlanmaz güneş.

21. Hayat olsaydınız kalırdınız şad
22.Büyük bu grubun en ortasında.
23. Dirilik şanını yüceltip fazlasıyla
24. Destan inşa edip, yazıp kaside.

25. Hayat olsaydınız, her serin seher
26.Aşina pınarlara koyardınız leb.
27.Yürürdünüz memlekette aziz, muteber,
28. Sayısız şakirtlerin alnını silip.

29.İyi ki bakiler dilber şiirler,
30. Semender misali ölüm bilmez can.
31. Minnettar yurt sizi kutlar sadece,
32. Kutlu bu günlerde, üstat Âlimcan.

33. Yurt bugün kervanlar başında devedir,
34. Yurt bugün Doğu içinde eşsiz bir diyar.
35. Yurt bugün ahu gibi pek işvelidir,
36.Sır gibi daldır, Pamir gibi sağlam.

37. Talih yıldızının kutlu ziyası
38. Saadet burcunda parlayacağı zaman bu.
39. Kadim bir diyar bu, yoktur kıyası,
40. Muhteşem bir bostan bu, Özbekistan bu.

41.Üstat, ilham alayım baki hayatından,
42. Baki şiir huzurunda baş eğeyim bir an.
43. Neşe ve bahtını öven zatı
44. Sevinçle hatırlar genellikle zaman. (1970)

QIRG‘IZ DIYORI (171)

Chingiz Aytmatovga

1. *Azamat Manas yurti, To‘qtag‘ulning vatani,*
2. *Alpomish va Navoiy yurtidan senga salom.*
3. *Yuksak tog‘lar o‘lkasi, moviy ko‘llar maskani -*
4. *Qirg‘izlar diyoriga o‘zbeklardan ehtirom.*
5. *Mangu oppoq qor bilan yaltiraydi Olatov,*
6. *Bamisoli qirg‘izning boshidagi oq qalpoq.*
7. *Yam-yashil yaylovlarda son-sanoqsiz oq o‘tov*
8. *Qirg‘iz xalqin qalbiday beg‘uboru toza, pok.*
9. *Ey, qadim Osiyoning abadiy yosh o‘lkasi,*
10.*Yalangto‘sh va mehnatkash o‘zbek bilan inisan.*
11.*Qirg‘izlarda jengaydir o‘zbeklarning bekasi,*
12.*Shonu sharaf osmonin chaqnagan chaqinisan.*
13.*Butun dunyo biladi ijodkor Chingiz nomin,*
14.*Azamat xalq, shuhrating bundan ham bo‘lsin ziyod.*
15.*Ne ajabki, barhayot G‘afur G‘ulom kalomin*
16.*Qirg‘izlar ham unutmay, aylab turgan bo‘lsa yod.*
17.*Chorvadorsan, botirsan - qo‘lda qo‘bizing bilan,*
18.*Paxtakorsan, ishchisan, daryoni buruvchisan.*
19.*Rosa termilib boqsang shu qiyiq ko‘zing bilan*
20.*Kuppa-kunduz kunda ham yulduzni ko‘rguvchisan.*
21.*Shu bepoyon dunyoning bag‘rida teng farzandmiz,*
22.*Zavq olurmiz barobar o‘lanu kuylaridan.*
23.*Azal-abad hamdammiz, azal-abad dilbandmiz,*
24.*Salom keltirdik senga Sirdaryo bo‘ylaridan.*
25.*Ketmasin boshimizdan aslo baxt belanchagi,*

26.*Yangrasin do‘stlik kuyi, yangrasin she’r, tarona.*

27.*Bor bo‘l, ey Qirg‘iziston - quyoshning kelinchagi,*

28.*Do‘stini topgan inson do‘stni desin yagona.*

KIRGIZ DİYARI (171)

Cengiz Aytmatov’a

1. Büyük Manas yurdu, Toktagül’ün vatanı,

2. Alpamış ve Nevayi yurdundan sana selam.

3. Yüksek dağlar ülkesi, mavi göller meskeni,

4. Kırgızlar diyarına Özbeklerden ihtiram.

5. Sonsuz tertemiz karla ışıldar Aladağ,

6. Sanki Kırgız’ın başındaki ak kalpak.

7. Yemyeşil yaylalarda sayısız sonsuz ak otağ

8. Kırgız halkının kalbindeki tozsuz temiz, pak.

9. Ey, Kadim Asya’nın ebedî genç ülkesi,

10. Cesur ve çalışkan Özbek’le kardeşsin.

11.Kırgızlarda yengedir Özbeklerin hanımı,

12.Şan ve şeref asumanını çiğneyen çiğnesin.

13.Bütün dünya bilir sanatkâr Cengiz’in namını,

14. Cesur halk, şöhretin bundan da olsun aşkın.

15. Ne garip ki, canlı Gafur Gulam kalemini

16.Kırgızlar da unutmadan, yâd etse.

17.Çiftçisin, bahadırsın, elde kopuzunla,

18. Pamukçusun, işçisin, deryayı çevirensin.

19. Doğru dikip gözünü baksan bu baygın gözünle

20.Güpegündüzde de yıldızı görücüsün.

21. Bu sonsuz dünyanın bağrında eşit evladız,

22. Zevk alırız beraber toy ve ezgilerinden.

23. Ezel, ebet dostuz, ezel ebet dilbendiz,

24. Selam getirdik sana Sirderya boylarından.

25. Gitmesin başımızdan asla baht beşiği,

26.Çınlasın dostluk nağmesi, çınlasın şiir, melodi.

27. Var ol, Ey Kırgızistan, güneşin gelinciği,

28. Dostunu bulan insan dostuna desin yegâne. (1970)

“KUZAK SHAMOLLARI…” (172)

1. *Kuzak shamollari esdilar yana,*
2. *Sokin yuragimda tuyg‘ular qo‘zg‘ab.*
3. *Kelgil, parivashim, kelgil jimgana,*
4. *Kelgil samolardan mezonga o‘xshab.*
5. *Oqshom tumanida kezaylik xushhol,*
6. *To‘ngan yulduzlarga boqaylik to‘yib,*
7. *Shivalagan yomg‘ir, daydigan shamol,*
8. *Mayli, izimizni ketsinlar yuvib.*
9. *Bog‘larda xazonlar shovillar quyuq,*
10.*Ular soyalardir, jonginam, faqat.*
11.*Ular bilmaydilar, bilolmaslar, yo‘q,*
12.*Naqadar buyukdir bizning muhabbat.*
13.*Poyonsiz olamga boqaylik so‘zsiz,*
14.*Na hasrat, na so‘zning bordir keragi.*
15.*Bizning tegramizda yonayotgan kuz*
16.*Qaysi bir oshiqning so‘ngan yuragi...*

“GÜZ RÜZGÂRLARI…” (172)

1. Güz rüzgârları estiler yine,
2. Sakin yüreğimde duygular oluşturup.
3. Gel, peri güzelim, gel sessizce,
4. Gel semalardan mezona benzeyip.
5. Akşam dumanında gezelim hoşnut,
6. Gözünü diken yıldızlara bakalım doyup,
7. Çiseleyen yağmur, başıboş gezen rüzgâr,
8. Peki, izimizi gitsinler yıkayıp.
9. Bahçelerde hazanlar hışırdar epey,
10. Onlar gölgelerdir, cancağızım, sadece.
11. Onlar, bilmezler, bilemezler, hayır,
12. Ne kadar büyüktür bizdeki muhabbet.
13. Sonsuz âleme bakalım, sözsüz,

14. Ne hasret, ne sözün vardır gereği.
15. Bizim etrafımızda yanan güz
16. Hangi âşığın sönen bir yüreği… (1970)

QUTLOV (173)

1. *Yillar o‘tayotir poyama-poya,*
2. *Yillar - umidlarga otashin charog‘.*
3. *Zamon-ku fazoda bilmas nihoya,*
4. *O‘tgan fursatlar ham qaytmagay biroq.*

5. *Umrdan yil o‘tsa, yashirmoq nechun,*
6. *Yurak simob yanglig‘ titragay har gal.*
7. *Ustoz lutf etganday, har fursat uchun*
8. *Kudratli qo‘l bilan qo‘yaylik haykal.*

9. *Kechgan har oningga nazar solsang gar,*
10.*Shoirning shoh satri ravodir balkim,*
11.*Oltin uydi axir fazolar qadar,*
12.*Mening bobo yurtim, azamat xalqim.*

13.*Hali oftob ishga shimarmasdan yeng,*
14.*Hali Zuhro ko‘kdan boqqanda yakkash,*
15.*Tumanli dalalar qo‘ynida kezding,*
16.*Mening singilginam, munis, jafokash.*

17.*Sening mehnatingdan tuproq ochib zar,*
18.*Vatanim beqiyos bo‘ston bo‘lg‘usi.*
19.*Sening shavkatingni yozaversa gar,*
20. *“Shohnoma” yanglig‘ bir doston bo‘lg‘usi.*

21.*Madhu sanolardan xijolat kabi,*
22.*Qizlarning yonog‘i yonadi gulgun.*

23.*Bu ko‘hna olamning har to‘rt tarafi,*

24.*Ne ajab, qutlasa sizlarni bugun.*

25.*Bunchalik shon-shuhrat uchramas tayin,*

26.*“Ming bir kecha”larning afsonasida.*

27.*Yurtim, seni yana qutlab qo‘yayin,*

28.*Qutlug‘ Yangi yilning ostonasida.*

29.*Mangulik vodiysi uzra bilmay had,*

30.*Yillar-ku yugurik yel kabi o‘tgay.*

31.*Xalqim, yuksalaver oftobday baland,*

32.*Qutlug‘ zamon senga yelkasin tutgay.*

33.*Sening shavkatingni ulug‘lab yursin,*

34.*Buyuk anjumanlar, oltin satrlar.*

35.*Tegrangda lol qotib, bosh egib tursin,*

36.*O‘tgan va o‘tajak yillar, asrlar.*

KUTLAMA (173)

1. Yıllar geçer anlamsız,

2. Yıllar, umutlara ateşini ışıltılı.

3. Zaman ki fezada bilmez son,

4. Geçen zamanlar da dönmeyecek ama.

5. Ömürden yıl geçse, gizlemek niçin,

6. Yürek cıva gibi titreyecek her defa.

7. Üstat lütfettiği gibi, her vakit için

8. Kudretli el ile koyalım heykel.

9. Geçen her anına göz atsan eğer,

10.Şairin şah satırı revadır belki,

11. Altın evdi son fezalar kadar,

12. Benim dede yurdum, cesur halkım.

13. Henüz güneş işe sıvamadan yenini,
14. Henüz Zühre gökte baktığında baştan başa,
15. Sisli kırların bağrında gezdin,
16. Benim kız kardeşçiğim, dost, çilekeş.

17. Senin emeğinden toprak açıp altın,
18. Vatanım sonsuz bostan olacak.
19. Senin şefkatini yazıverse eğer,
20."Şehname" gibi bir destan olacak.

21. Medh u senalardan hacalet gibi,
22.Kızların yanağı kızarır kıpkırmızı.
23. Bu köhne âlemin dört bir tarafı,
24. Ne garip, kutlasa sizleri bugün.

25. Bunca şan şöhret rastlamaz malum,
26."Bin bir gece"lerin efsanesinde.
27. Yurdum, seni yine kutlarım,
28. Kutlu yeni yılın eşiğinde.

29. Sonsuzluk vadisi üstünde bilmeden had,
30.Yıllar ki hızlı yel gibi geçecek.
31. Halkım, yükseliver güneş gibi yukarı,
32. Kutlu zaman seni omzundan tutacak.

33. Senin şefkatini yüceltip yürüsün,
34.Büyük encümenler, altın satırlar.
35. Etrafında lal olup, baş eğip dursun,
36. Geçmiş ve gelecek yıllar, asırlar. (1970)

O‘RMON (174)

1. *Yalang‘och, sarg‘aygan, kimsasiz o‘rmon,*
2. *Boshingda charx urar kuzgi dovullar.*
3. *Sening yaproqlaring esa bearmon*
4. *Bahor qo‘shig‘ini aytib shovullar.*

5. *Archazor ortidan sayrar bo‘g‘iq qush,*
6. *Ufqlar so‘ngida qora bir ro‘yo.*
7. *Uzoq-uzoqlarda g‘amgin va behush*
8. *Cho‘zilib yotibdi ulkan bir daryo.*

9. *O‘rmon qo‘ynidadir sehr ila jodu,*
10.*Bundadir xayolning sokin onlari.*
11.*Naqadar suluvsan, naqadar inju,*
12.*Ey, sen, shimol yurtin cho‘ng o‘rmonlari.*

13.*Sening quchog‘ingda oqshomlar mayin -*
14.*Tuydim tuyg‘ularning soz nash’asini,*
15.*Za’faron zulfingga taqib ketayin*
16.*Olis cho‘llarimning binafshasini.*

ORMAN (174)

1. Çıplak, sararmış, kimsesiz orman,
2. Başında çark çevirir güzki fırtınalar.
3. Senin yaprakların ise ukdesiz
4. Bahar şarkısını söyleyip hışırdar.

5. Çam ormanı ardından öter boğuk kuş,
6. Ufuklar sonunda kara bir rüya.
7. Çok uzaklarda gamlı ve baygın
8. Uzanıp yatmış büyük bir derya.

9. Orman bağrındadır sihir ile cadı,
10.Böyledir hayalin sakin anları.
11. Ne kadar güzelsin, ne kadar inci,
12. Ey, sen, kuzey yurdunun büyük ormanları.

13. Senin kucağında akşamlar yumuşak,
14. Duydum duyguların ilham neşesini,
15. Safran zülfüne takıp gideyim
16. Uzak çöllerimin menekşesi. (1970)

DORILFUNUNGA (175)

Ukam Doniyor Begimqulovga

1. *Neki qalbimizga cho‘g‘ bo‘lib tushgan*
2. *Sening otashingda toblangan bari.*
3. *G‘ishtin binolaring taftida pishgan*
4. *Muhabbat atalmish sevgi gavhari.*
5. *O‘ylar surar edik tegrangda uzoq*
6. *Toliba Layli-yu, talaba Majnun.*
7. *Muhabbat darsidan bergansan saboq,*
8. *Vafo darsxonasi, ey dorilfunun.*
9. *Sening quchog‘ingda topdik do‘stu yor,*
10.*Do‘stlik nimaligin anglab ololdik.*
11.*Hazil-mutoyiba bo‘lsa ham bisyor*
12.*Va lekin do‘stlikka sodiq qololdik.*
13.*Bu kun har qaylarda yursak ham yiroq*
14.*Do‘stlarni eslaymiz - dilda hayajon.*
15.*Otashin do‘stlikdan bergansan saboq,*
16.*Ey, sen dorilfunun - munis onajon.*

DARÜLFÜNUNA (175)

Kardeşim Daniyar Begimkulov'a

1. Ne varsa kalbimize kor olup düşmüş
2. Senin ateşinde ısınmış hepsi.
3. Tuğladan binaların hararetinde pişmiş
4. Muhabbet denen sevgi cevheri.
5. Düşünürdük etrafında uzun uzun
6. Talibe Leyla ve talebe Mecnun.
7. Muhabbet faslından vermişsin ders,
8. Vefa dershanesi, ey darülfünun.
9. Senin kucağında bulduk dost ve yâr,
10. Dostluğun ne olduğunu anlayabildik.
11. Şakalaşmalar olsa da bir hayli
12. Velakin dostluğa sadık kalabildik.
13. Bugün her nelerde yüksek de uzak
14. Dostları hatırlarız, gönülde heyecan.
15. Ateşin dostluğundan vermişsin ders,
16. Ey, sen darülfünun, dost anacan. (1970)

SHOIR (176)

1. *Demangiz, dunyoning tashvishi qolib,*
2. *O'zini har yonga uradi shoir.*
3. *Tog'day og'ir yukni kiftida olib,*
4. *Qushday yengil bo'lib yuradi shoir.*

ŞAİR (176)

1. Demeyiniz, dünyanın tasası kalıp,
2. Kendini her yana vurur şair.
3. Dağ gibi ağır yükü omzundan alıp,
4. Kuş gibi hafif olarak yürür şair. (1970)

SERGEY YESENINGA (177)

1. *Sen ajib shoirsan, poksan, bokira,*
2. *Dillarga jo erur har bir deganing.*
3. *Ammo menga yoqmas, yoqmaydi sira*
4. *Sening itlar bilan oshno ekaning.*

5. *Do‘st ila dushmanning bormay farqiga*
6. *Og‘iz solmoq itga odatdir azal.*
7. *Sendek ajib shoir, tushunmam, nega,*
8. *Itga bag‘ishlabsan eng dilbar g‘azal.*

9. *Toqatim yo‘q mening ko‘ppak zotiga,*
10.*Hanuz xotiramda u solgan yaro.*
11.*Inson og‘u qo‘shgach gul hayotingga*
12.*Sen itlar qoshiga qochganmiding yo?*

13.*Hoynahoy gapim shu: Sen bitgan ash’or*
14.*Yillardan baribir oshib o‘tardi,*
15.*Itlarga mehringni etguncha izhor,*
16.*Odamlarni sevsang - shu ham yetardi.*

SERGEY YESENİN’E (177)

1. Sen muhteşem şairsin, paksın, iffetli,
2. Gönüllere nakşeder her bir dediğin.
3. Ama bana hoş gelmez, gelmez asla
4. Senin itlerle aşina olduğun.

5. Dost ile düşmanın varmadan farkına
6. Ağız aramak ite âdettir ezel.
7. Sen gibi muhteşem şair, düşünmem, niye,
8. İte ithaf etmişsin en dilber gazel.

9. Takatim yok benim köpek zatına,
10. Henüz hatırımda o bıraktığın yara.
11.İnsan zehri katılınca gül hayatına
12. Sen itler karşısında kaçmış mıydın ya?

13. Belki sözüm şu: Senin yazdığın şiirler
14.Yıllardan farksız aşıp geçerdi,
15.İtlere şefkatini edinceye dek izhar,
16.İnsanları sevsen, bu da yeterdi. (1970)

MO‘MIN MIRZO (178)

1. *Hazrat Navoiyning nazari tushgan,*
2. *Yuragida balki she’r qoni jo‘shgan,*
3. *G‘unchadek qalbida ohi uvishgan*
4. *Mo‘min Mirzo, ukam, seni o‘ldirdilar.*

5. *Qo‘lingga solmishlar tilladan zanjir,*
6. *Shahzoda yigitga hurmat bu, axir!*
7. *Bu nechuk qabohat, bu nechuk tahqir,*
8. *Mo‘min Mirzo, ukam, seni o‘ldirdilar.*

9. *Go‘ringda o‘t yongur amirlar xudbin,*
10.*Bilganlar na nomus, na vijdon, na din,*
11.*Mayparast bobong ham bukibdi qaddin,*
12.*Mo‘min Mirzo, ukam, seni o‘ldirdilar.*

13.*Senga saltanatning qanday daxli bor,*
14.*Sen-ku ma’sum go‘dak, pokiza dildor,*
15.*Olim bo‘larmiding, balki san’atkor,*
16.*Mo‘min Mirzo, ukam, seni o‘ldirdilar.*

17.*Ukam, yovuzlarning topganlari shu,*

18.*O‘z o‘g‘lin it bo‘lib qopganlari shu,*
19.*O‘z qalbin kafanlab yopganlari shu,*
20.*Mo‘min Mirzo, ukam, seni o‘ldirdilar.*

21.*Topganlari zahar, to‘kkanlari qon,*
22.*Qanday zamon ekan, do‘stlar, u zamon.*
23.*Bolam deb, oh chekar Badiuzzamon,*
24.*Mo‘min Mirzo, ukam, seni o‘ldirdilar.*

25.*Sen-ku yo‘qsan, ammo qotillar yashar,*
26.*Hamon go‘daklarga qilich qayrashar.*
27.*Qachon pok bo‘larkan bulardan bashar,*
28.*Mo‘min Mirzo, ukam, seni o‘ldirdilar.*

29.*Besh yuz yil berida esladim birpas,*
30.*Lekin bu behuda motaming emas,*
31.*Qalbimni o‘rtada allaqanday sas...*
32.*Mo‘min Mirzo, ukam, seni o‘ldirdilar.*

MÜMİN MİRZA (178)

1. Hazreti Nevayi dikkatle bakmış,
2. Yüreğinde belki şiir kanı coşmuş,
3. Gonca gibi kalbinde ah çekmiş
4. Mümin Mirza, kardeşim, seni öldürdüler.

5. Eline koymuşlar altından zincir,
6. Şehzade yiğide hürmet bu, ya!
7. Bu nasıl kabahat, bu nasıl tahkir,
8. Mümin Mirza, kardeşim, seni öldürdüler.

9. Mezarında ateş yanar emirler hodbin,
10. Bilmişler ne namus, ne vicdan, ne din,

11. Ayyaş deden de eğmişti boyunu,
12.Mümin Mirza, kardeşim, seni öldürdüler.

13. Sana saltanatın ne kadar ilgisi var,
14. Sen ki masum bebek, pakize yâr,
15.Âlim olur muydun, belki sanatkâr,
16.Mümin Mirza, kardeşim, seni öldürdüler.

17. Kardeşim, kötülerin buldukları şu,
18.Öz oğlun it olup ısırdıkları şu,
19. Kendi kalbin kefenleyip kapadıkları şu,
20.Mümin Mirza, kardeşim, seni öldürdüler.

21. Buldukları zehir, döktükleri kan,
22. Nasıl zamanmış, dostlar, o zaman.
23. Evladım deyip, ah çeker, Bediüzzaman,
24.Mümin Mirza, kardeşim, seni öldürdüler.

25. Sen ki yoksun, ama katiller yaşar,
26. Daima bebeklere kılıç biler.
27. Ne zaman pak olurmuş bunlardan beşer,
28.Mümin Mirza, kardeşim, seni öldürdüler.

29. Beş yüz yıl beride hatırladım bir an,
30. Ama bu ateist matemin değil,
31. Kalbimin ortasında bir ses…
32.Mümin Mirza, kardeşim, seni öldürdüler. (1971)

NOMA'LUM ODAM (179)

1. *U na shoir edi va na mashhur zot,*
2. *Lekin dunyo bilan bir edi dardi.*
3. *U ham boshqalarday kechirib hayot,*

4. *Shoshib ishga borib sekin qaytardi.*

5. *Anglardi dunyoni u ham xo‘p teran,*

6. *Ma’yus boqar edi botguvchi kunga.*

7. *Ba’zida yurag‘i yongani bilan*

8. *Parvo qilmas edi hech qachon bunga.*

9. *U qabr ustida so‘zlamadi nutq,*

10.*Tabrik ham aytmadi to‘ylarda xandon,*

11.*O‘lim bu - nishonga borib tekkan o‘q,*

12.*Tug‘ilish - shiddat-la tortilgan kamon.*

13.*Shon-shuhrat talashgan turfa xil g‘arib,*

14.*Sho‘rlik kimsalarga kulib boqardi.*

15.*Yurmasdi har qayda ilinj axtarib,*

16.*Qalbida bir dunyo guvlab oqardi.*

17.*Birovning u bilan bo‘lmadi ishi,*

18.*U ham duch kelganga ochmadi yurak.*

19.*Nasab, ikir-chikir, mol-mulk tashvishi*

20.*Uni etolmadi zarra jonsarak.*

21.*Loqaydni do‘pposla, desa ehtimol*

22.*Unga yopishardi nokasning bari.*

23.*Uning ko‘zlarida yonardi behol*

24.*Yiroq yulduzlarning sirli nurlari.*

25.*Olamning bu mayda g‘alvasi nechun?*

26.*Bari o‘tadigan, bari nokerak.*

27.*Tariqday zaminning ustida beun*

28.*Yashab o‘tdi shundoq buyuk bir yurak.*

29.*Qaydan kelgandi u? Bilmadi kimsa,*

30.*Qabrga ham jimjit kirib ketdi u.*

31.*Menimcha, dunyoning ustidan rosa*

32.*Miriqib qahqaha urib ketdi u.*

MEÇHUL İNSAN (179)

1. O ne şairdi ve ne meşhur zat,

2. Ama dünyayla birdi derdi.

3. O da başkaları gibi geçirip hayat,

4. Koşarak işe gidip sakin dönerdi.

5. Anlardı dünyayı o da pek derin,
6. Meyus bakardı batan güne.
7. Bazen de yüreğinin yanmasıyla
8. Aldırış etmezdi hiçbir zaman buna.
9. O kabrin üstünde atmadı nutuk,
10. Tebrik de etmedi toylarda gülüp,
11.Ölüm bu, nişana varıp değen ok,
12. Doğmak, şiddetle çekilen keman.
13.Şan şöhret tartışan ilginç cins garip,
14.Çaresiz kimselere gülüp bakardı.
15.Yürümezdi her yerde umut arayıp,
16. Kalbinde bir dünya gürleyip akardı.
17. Birisinin onunla olmadı işi,
18.O da rastladığında açmadı yürek.
19. Asıl, ıvır zıvır, mal mülk tasası
20. Onu edemedi zerre rahatsız.
21. Lakayıdı eleştir, dese ihtimal
22. Ona yapışırdı alçakların hepsi.
23. Onun gözlerinde yanardı hâlsiz
24. Uzak yıldızların sırlı ışıkları.
25.Âlemin bu küçük kavgası niçin?
26. Hepsi aşırı, hepsi gereksiz.
27. Darı gibi zeminin üstünde faydasız
28. Yaşayıp gitti böyle büyük bir yürek.
29. Nasıl gelmişti o? Anlamadı kimse,
30. Kabre de sessiz girip gitti o.
31. Bana göre, dünyanın üstünden hayli
32. Doyup kahkaha atıp gitti o. (1971)

NEKRASOV HASRATI (180)

(Shoirni o‘qib)

1. *Pushkin she’ri hali yangrardi mag‘rur,*
2. *Lermontov charaqlar nazm osmonida.*

3. *Shoir bo‘lish qiyin,*

4. *Shoir bo‘lish og‘ir*

5. *Shunday buyuklarning Kahkashonida.*

6. *Shoir xayollarga beriladi, bas,*

7. *Yeryomushka yig‘lar sahar chog‘ida.*

8. *Faqat shoir bo‘lish...*

9. *Bu hali yetmas -*

10.*To kishan bor ekan yurt oyog‘ida.*

11.*Nechun kulfatlarga to‘la bu hayot,*

12.*Nechun mujik holin bo‘lmaydi kuylab.*

13.*So‘ngsiz hasratlarga ko‘milgan bu zot*

14.*Kezadi kimsasiz Peterburg bo‘ylab.*

15.*Nekrasov hasrati, o, rus hasrati,*

16.*Poyoning bormikan, hadding bormikan?*

17.*Sensan - bu ayovsiz Sibir dahshati*

18.*Va mujik qalbiga sanchilgan tikan.*

19.*Shoir qalamida hasratlar qat-qat,*

20.*Shoirni chulg‘aydi o‘ylar daf’atan.*

21.*Yashab qolarmikan she’rim oqibat?*

22.*Ozod bo‘larmikan notavon Vatan?*

23.*Pushkin she’ri hali yangrardi mag‘rur,*

24.*Lermontov charaqlar nazm osmonida.*

25.*Shoir bo‘lish qiyin,*

26.*Shoir bo‘lish og‘ir*

27.*Bunday buyuklarning Kahkashonida.*

NEKRASOV HASRETİ (180)

(Şairi anlayıp)

1. Puşkin şiiri hâlâ çınlardı mağrur,
2. Lermontov ışık saçar nazım asumanında.
3. Şair olmak zor,
4. Şair olmak ağır
5. Böyle büyüklerin Kehkeşanı'nda.

6. Şair hayallere kapılır, kâfi,
7. Yeryomuşka[120] ağlar seher vaktinde.
8. Sırf şair olmak…
9. Bu henüz yetmez,
10. Ta ki kelepçe varmış yurt ayağında.

11. Niçin külfetlerle dolu bu hayat,
12. Niçin mujik[121] hâlini etmez terennüm.
13. Sonsuz hasretlere gömülen bu zat
14. Gezer kimsesiz Petersburg'da.

15. Nekrasov hasreti, heyhat, Rus hasreti,
16. Sonun var mıymış, haddin var mıymış?
17. Sensin, bu amansız Sibirya dehşeti
18. Ve mujik kalbine saplanmış diken.

19. Şair kaleminde hasretler kat kat,
20. Şairi sarar düşüceler aniden.
21. Yaşar mıymış şiirim akıbet?
22. Azat olur muymuş âciz Vatan?

[120] Nekrasov'un koşuğudur.
[121] Rus köylüsü.

23. Puşkin şiiri hâlâ çınlardı mağrur,
24. Lermontov ışık saçar nazım asumanında.
25.Şair olmak zor,
26.Şair olmak ağır
27.Böyle büyüklerin Kehkeşanı'nda. (1971)

"KELDIM…" (181)

1. *Keldim qoshingizga chopib, entikib,*
2. *Maysaga burkangan tog' etaklari.*
3. *Uch oy yo'lingizda yotdim ko'z tikib,*
4. *Ey, bahor bekasi - may chechaklari.*
5. *Garchand yuragimga gul ruxsoridan*
6. *Xazon yaproqlari endi yaqinroq.*
7. *Har nechuk qish faslin tund diydoridan*
8. *Jajji kapalakning vasli shirinroq.*
9. *Qaldiroq gumburlar yuksak tog'larda.*
10.*Chiltor qillariday taralar yomg'ir.*
11.*Shamol shovillaydi qadim bog'larda»*
12.*Buyuk ko'hna dunyo ko'pchiydi og'ir.*
13.*Men uning qo'ynida kezdim saboday,*
14.*Qorlardan lolarang olovlar yoqdim.*
15.*Bir zum shahanshohlik tekkan gadoday,*
16.*Umr o'tar, dedimu dunyoga boqdim.*
17.*Quchoq och, dilbarim, shu gul nahorga,*
18.*Tumanli tuyg'ular bosmasin og'ir.*
19.*Iltifot qilmasak jajji bahorga,*
20.*Nuroniy kuz bizni siylamas, axir.*

"GELDİM…" (181)

1. Geldim huzurunuza koşup, nefesim kesilip,
2. Yeşile bürünmüş dağ etekleri.
3. Üç ay yolunuzda yattım göz dikip,
4. Ey, bahar sahibi, mayıs çiçekleri.
5. Gerçi yüreğime gül yüzünden

6. Hazan yaprakları şimdi daha yakın.
7. Her nedense kış faslı soğuk çehrenden
8. Minik kelebeğin visali daha şirin.
9. Titrek gümbürder yüksek dağlarda.
10.Çiltar[122] kılları gibi yayılır yağmur.
11.Rüzgâr uğuldar kadim bahçelerde,
12.Büyük köhne dünya kabarır ağır.
13. Ben onun bağrında gezdim sabah meltemi gibi,
14. Karlardan lale renkli alevler yaktım.
15. Bir an padişahlığa ulaşmış köle gibi,
16.Ömür geçer, dedim ve dünyaya baktım.
17. Kucak aç, dilberim, bu gül şafağa,
18. Sisli duygular basmasın ağır.
19.İltifat etmesek minik bahara,
20. Nurani güz bizi ağırlamaz, artık. (1971)

MAKTUB (182)

1. *G‘azallar to‘qirdim senga bir zamon,*
2. *Qo‘shiqlar aytardim tunlar boshingda.*
3. *Na chora, ushbu kun o‘zga bir inson,*
4. *O‘zga bir muhabbat turar qoshingda.*
5. *Eshitdim, xazonli bog‘larda tanho*
6. *O‘tkazar emishsan sokin paytlarni.*
7. *Sarg‘aygan daftaring varaqlab goho*
8. *Takrorlar emishsan mahzun baytlarni.*
9. *Men ham tonglar ba’zan yo‘lga qarayman*
10.*Munavvar quyoshga ko‘ksimni ochib.*
11.*Sening xayolingdan madad so‘rayman,*
12.*Sening xayolingga boraman qochib.*
13.*Lekin qutulmoq yo‘q hijron dastidan,*
14.*Faqat qalbimizda bardosh va sabot.*
15.*Dunyoda jamiki hislar ustidan*
16.*Qahqaha uradi qadim bu hayot.*

[122] Çok dar eski bir ihtiyar eşyasıdır.

17.*Nadomat nimaga va afsus nechun?*

18.*Olamda neki bor o‘char beshafqat.*

19.*Bizning vazifamiz ko‘nikmoq beun,*

20.*Bizning vazifamiz unutmoq faqat.*

21.*Yillar o‘tib ketar takror va takror,*

22.*Yoshlik ham o‘tadi benishon, besas.*

23.*Lekin o‘sha choq ham xo‘rsinib, bir bor*

24.*Sevgandim, nabiram, deya olsak bas...*

MEKTUP (182)

1. Gazeller yazardım sana bir zaman,

2. Koşuklar söylerdim geceler başında.

3. Ne çare, bugün başka bir insan,

4. Başka bir muhabbet durur karşında.

5. Duydum, hazanlı bahçelerde tenha

6. Geçirmişsin sakin zamanlarını.

7. Sararan defterin sayfalarını çevirip bazen

8. Tekrarlarmışsın mahzun beyitlerini.

9. Ben de şafakta bazen yola bakarım

10.Münevver güneşe göğsümü açıp.

11. Senin hayalinden medet umarım,

12. Senin hayaline giderim kaçıp.

13. Ama kurtulmak yok hicran elinden,

14. Yalnız kalbimizde sabır ve sebat.

15.Dünyada bütün hisler üstünden

16. Kahkaha atar kadim bu hayat.

17. Pişmanlık niye ve üzüntü niçin?

18.Âlemde ne var ki yok olur şefkatsiz.

19. Bizim vazifemiz alışmak çaresiz,

20. Bizim vazifemiz unutmak sadece.

21.Yıllar geçip gider tekrar tekrar,

22. Gençlik de kaybolur, sessiz.

23. Ama o an da iç çekip bir kez

24. Sevmiştim, torunum, diyebilsek yeter… (1971)

CHORLASH (183)

1. *Do‘sti g‘arib, kel, qo‘lingni tut,*
2. *Yuragingda yoqay alanga.*
3. *Kel, bir zumga dunyoni unut,*
4. *Ko‘tarayin seni balandga.*
5. *Pastda qolsin nobakor xilqat,*
6. *Pastda qolsin tanbal bulutlar.*
7. *Yuragingda chaqnasin faqat*
8. *Yorug‘ xayol, samoviy o‘tlar.*
9. *Yuksaklarda charx urib aylan,*
10.*Ruhing mangu tursin yorishib,*
11.*O‘lganda ham vujuding bilan*
12.*Ketmagaysan yerga qorishib.*

ÇAĞIRMAK (183)

1. Garip dost, gel, elimi tut,
2. Yüreğinde yakayım ateş.
3. Gel, bir anlık dünyayı unut,
4. Kaldırayım seni yükseğe.
5. Aşağıda kalsın alçak hilkat,
6. Aşağıda kalsın tembel bulutlar.
7. Yüreğinde parlasın sadece
8. Aydınlık hayal, semavi ateşler.
9. Yükseklerde çark çevirip gez,
10. Ruhun ebedî dursun aydınlanıp,
11.Öldüğünde de vücudunla
12. Gitmeyeceksin toprağa karışıp. (1971)

“BULBUL O‘GAY ERUR ZOG‘LAR ORASIDA…” (184)

1. *Bulbul o‘gay erur zog‘lar orasida,*
2. *Yugurik suv o‘gay tog‘lar orasida.*
3. *Muhabbat dardidan bemor qalblarmiz,*

4. *O‘gay bo‘lsak ne tong, sog‘lar orasida.*

“BÜLBÜL ÜVEYDİR KARGALAR ARASINDA…” (184)

1. Bülbül üveydir kargalar arasında,
2. Akarsu üvey dağlar arasında.
3. Muhabbet derdinden hasta gönüllerimiz,
4. Üvey olsak şafakta, sağlar arasında. (1971)

YOLG‘IZLIK (185)

1. *Ko‘kda oy kezadi besaru somon,*
2. *Yiroq zamin uzra tashlab horg‘in iz.*
3. *Mana, o‘tsa hamki necha ming zamon,*
4. *Ko‘kda oy tanhodir, ko‘kda oy yolg‘iz.*
5. *Odamlar mohtobga yayrab qarashar,*
6. *Yolg‘izlik negadir oyga yarashar.*

7. *Ko‘kda quyosh kezar, u munis ona,*
8. *Milliard yulduzlarning shamsi tal’ati.*
9. *Yulduzlar bo‘lsa ham garchi parvona,*
10. *Yolg‘izlik bo‘libdi lekin qismati.*
11. *Har nechuk oftobning yo‘rig‘i boshqa,*
12. *Yolg‘izlik yarashar ona quyoshga.*

13. *Bobolar gohida o‘kinchda qolib,*
14. *Shohlarning nomiga noma bitganlar.*
15. *Insonlik sharafin xotirga olib,*
16. *Tangrining yodini zikr etganlar.*
17. *Deganlar boqishib sirli samoga:*
18.- *Yolg‘izlik yarashar faqat xudoga.*

19. *Men na oy, na quyosh, na yer, na samo,*
20. *Shu’laga intizor giyohday o‘sdim.*

21.*Yolg‘izlik hasratin tortmaylik aslo,*

22.*Bor bo‘lsang, yodga ol meni ham, do‘stim.*

23.*Yolg‘izlik hasratin ko‘rsatma, taqdir,*

24.*Yolg‘izlik insonga o‘lim-ku, axir...*

YALNIZLIK (185)

1. Gökte ay gezer bî-ser ü sâmân,

2. Uzun zemin üstünde bırakmış yorgun iz,

3. İşte, geçse de nice bin zaman,

4. Gökte ay tektir, gökte ay yalnız.

5. İnsanlar mehtaba keyif alıp bakışır,

6. Yalnızlık nedense aya yakışır.

7. Gökte güneş gezer, o dost ana,

8. Milyarlarca yıldızın çehresi, güneşi.

9. Yıldızlar olsa da gerçi pervane,

10. Yalnızlık olmuş ama kısmeti.

11. Her nedense güneşin parlaklığı başka,

12. Yalnızlık yakışır ana güneşe.

13. Dedeler bazen üzüntüde kalıp,

14. Padişahların adına ad yazmışlar.

15.İnsanlık şerefini hatıra getirip,

16. Tanrı’nın yâdını zikretmişler.

17. Demişler bakışıp sırlı semaya:

18.- Yalnızlık yakışır sadece Hüda’ya.

19. Ben ne ay, ne güneş, ne toprak, ne sema,

20.Işığa hasret bitki gibi büyüdüm.

21. Yalnızlık hasretini çekmeyelim asla,

22. Var olsan, yâda al beni de, dostum.

23. Yalnızlık hasretini gösterme, kader,

24. Yalnızlık insana ölümdür ahir… (1971)

SUV (186)

(Hazil)

1. *Juda ajoyibdir inson udumi,*
2. *U suvni juda ham, juda ham suyar,*
3. *Deylik, biror joyda nihol ko‘rdimi,*
4. *Albatta, tagiga suv quyar.*
5. *Chanqab kelganda-ku, biror tashna lab*
6. *Albatta suv ichar, miriqar, to‘yar.*
7. *Ortib qolganin ham hatto avaylab*
8. *Egnidan yo boshidan quyar.*
9. *Suv omborlarin-ku, aytib o‘tirmay,*
10.*Inson bunday ishni joyiga qo‘yar.*
11.*Uchragan puchmoqni kovlab erinmay,*
12.*Albatta, u yerga suv quyar.*
13.*Xo‘sh, undan keyin-chi,*
14.*Xo‘sh, undan keyin,*
15.*Inson suvdan yana qanday zavq tuyar?*
16.*Bekor qolganida, ba’zida sekin*
17.*Bir-birin tagiga suv quyar.*

SU (186)

(Gülmece)

1. Çok gariptir insan âdeti,
2. O suyu çok da, çok da sever.
3. Diyelim, bir yerde fidan gördü mü,
4. Elbette, dibine su döker.
5. Susadığında, bir susuz dudak
6. Elbette su içer, kanar, doyar.
7. Artıp kalanı da hatta koruyup
8. Omzundan yahut başından döker.

9. Su depolarını dahi, söylemeden,
10.İnsan böyle işi yerine getirir.
11. Rastladığı köşeyi kazıp erinmeden,
12. Elbette, o toprağa su çıkarır.
13. Hoş, ondan sonra var ya,
14.İşte, ondan sonra,
15.İnsan sudan yine ne kadar keyif alır?
16. Boş kaldığında, bazen yavaşça
17. Birbirinin dibine su bırakır. (1971)

"NOGOH ENTIKDI-YU, EGILDI KAMON…" (187)

1. *Nogoh entikdi-yu, egildi kamon,*
2. *O'q uchdi belgisiz yoqlarga tomon,*
3. *Keksa otasining qaddin dol etib,*
4. *Ketib borar edi farzand shu zamon.*

"ANSIZIN İÇ ÇEKTİ, EĞİLDİ KEMAN…" (187)

1. Ansızın iç çekti, eğildi keman,
2. Ok fırladı belirsiz yerlere doğru.
3. Yaşlı babasının boyunu eğip,
4. Gitmişti çocuk o zaman.(1971)

HANGOMA (188)

1. *Qor yog'ardi bo'ralab,*
2. *Qolishmasdi dovuldan.*
3. *To'yga aytib ketishdi*
4. *Shundoq qo'shni ovuldan.*

5. *Yo'lga chiqdi ikki chol,*
6. *To'yga borish qarz beshak.*
7. *Birovi otga mindi,*
8. *Birovi mindi eshak.*

9. *Qor-chi, hamon yog‘ardi,*
10.*Yog‘ar edi gupillab.*
11.*Yo‘lni eshak boshladi,*
12.*Ot ergashdi lo‘killab.*

13.*Gapga tushdi ikki chol,*
14.*Suhbat u yoq-bu yoqdan.*
15.*O‘tgan-ketgan, baland-past,*
16.*Goh kalla, goh tuyoqdan.*

17.*Suhbat degan soz narsa,*
18.*Qolmasang bas surgashib.*
19.*Yo‘rg‘alar eshak hamon,*
20.*Ot boradi ergashib.*

21.*Asta-sekin kun qaytar,*
22.*Ufqlarda o‘chgan rang.*
23.*Qor oralab qaydadir*
24.*Bir yulduz chaqnar arang.*

25.*Chollar-chi, hamon yo‘lda,*
26.*Suhbat o‘sha-o‘shaydi.*
27.*Biri dedi: - Oqsoqol,*
28.*Kun botganga o‘xshaydi.*

29.*Yo‘g‘-e, usta, - der biri, -*
30.*Ko‘zdan qolibsiz butkul.*
31.*To‘rt chaqirim ovulga*
32.*Nahot yursak bir kun yo‘l.*

33.*Ammo bu gap rost edi,*

34.*Yulduzlar chaqnar bot-bot,*

35.*Oldinda eshak borar,*

36.*Orqada lo‘killar ot.*

37.*Ovuldan-chi, darak yo‘q,*

38.*Oppoq edi qir-qiya,*

39.*“Adashib ketdikmikan,*

40.*Kuppa-kunduz kuni-ya?*

41.*Gap bosdimi yo g‘aflat,*

42.*Tavba, bu qandoq o‘yin?”*

43.*Qor tindi-yu, chollarning*

44.*Ichiga kirdi quyun.*

45.- *Qora qishda to‘y qilmay,*

46.*Battar bo‘lgur nokas, gov.*

47.*Bachchag‘arning aslida,*

48.*Fe’li sovuq edi-yov.*

49.*Qaydadir cho‘zib-cho‘zib*

50.*Uvlab qoldi-ku qashqir,*

51.*Kim ham, ayting, bundoq choq*

52.*Tashvishga tushmas axir?*

53.*Xususan, keksayganda*

54.*Xafa bo‘lib ketasan.*

55.*Aytaylik, o‘sha qashqir*

56.*G‘ajib ketsa netasan?*

57.*Qora sovuq tish qayrab*

58.*Qovurg‘ani ezardi.*

59.*Keng sayhonda ikki chol*

60.*Yo‘l axtarib kezardi.*

61.*Yo‘l qayoqda, to‘rt taraf*
62.*Qalin, oppoq qor edi.*
63.*Eng battari - sovuqda*
64.*Jon saqlash dushvor edi.*

65.*Qaytay desa iziga,*
66.*Belgi ham yo‘q, iz ham yo‘q.*
67.*Qaltiraydi ikki chol,*
68.*Taskin ham yo‘q, so‘z ham yo‘q.*

69.- *Ne bo‘lsa ham topshirdik*
70.*Yaratganning o‘ziga!*
71.*Tavakkal deb, ot boshin*
72.*Qayirdilar iziga.*

73.*Peshonada borini*
74.*Ko‘rar inson degan zot.*
75.*Yo‘l soldilar qaygadir,*
76.*Ot boshin qo‘yib ozod.*

77.- *Bir kor-hol bo‘lmay endi,*
78.*Uyni topib borsak bas, -*
79.*Surgaladi ot horg‘in,*
80.*Orqada eshak besas.*

81.*To tonggacha ikki chol*
82.*Yurdi, turdi, surindi.*
83.*Uzoqlarda bir mahal*
84.*Qora narsa ko‘rindi.*

85.*Bo‘g‘oti bor, haytovur,*
86.*O‘xshab turar qishloqqa.*
87.*“Xudoga ming shukr”, deb*
88.*Yurdilar o‘sha yoqqa.*

89.*Tuman ichra dov-daraxt,*
90.*Turar edi yaltirab.*
91.*Tongga yaqin qishloqqa*
92.*Kirishdilar qaltirab.*

93.*Tugagandi bardosh ham,*
94.*Tugagandi bor sabot.*
95.*Yetmay bir darvozaga*
96.*To‘xtab qoldi sho‘rlik ot.*

97.- *Joy so‘raylik, naryog‘i*
98.*Bir gap bo‘lar, oqsoqol.*
99.*Qamchin bilan taqa-tuq,*
100. *Darvozani qoqdi chol.*

101. *Izg‘irin-chi, izg‘irin,*
102. *Yeru ko‘kda horg‘in tus.*
103. *Bir kampir chiqdi shu tob,*
104. *Qo‘lida xira fonus.*

105. *So‘z boshladi chol titrab,*
106. *Halqumiga kelib jon:*
107. *- Bir kechaga bizlarga*
108. *Joy bersangiz, yangajon.*

109. *Qora quyun charx urib*
110. *Ko‘z oldini tutardi.*

111. *Kampir kelib yaqinroq*
112. *Fonusini ko‘tardi.*

113. *- Hoy, senmi bu, yer yutkur,*
114. *Imoningdan kechdingmi?*
115. *Aljiraysan yo to‘yda*
116. *Aroq-paroq ichdingmi?*

117. *Alqissa shu; ot yo‘lni*
118. *Uy tomon burgan ekan.*
119. *Chol-chi, o‘z kampiridan*
120. *Joy so‘rab turgan ekan.*

HENGÂME (188)

1. Kar yağardı sağanak,
2. Aşağı kalmazdı fırtınadan.
3. Toya deyip gitmişti
4. Böyle komşu köyden.

5. Yola çıktı iki ihtiyar,
6. Toya gitmek borç şüphesiz.
7. Biri ata bindi,
8. Biri bindi eşeğe.

9. Kar, sürekli yağdırdı,
10. Yağardı sağanak.
11. Yolu eşek başladı,
12. At izledi büyük adımlarla.

13. Söze başladı iki ihtiyar,
14. Sohbet oradan buradan.
15. Geçmiş gitmiş, yukarı aşağı,

16.Gâh baş, gâh toynak.

17. Sohbet denen iyi şey,
18. Gitmesen yeter sürüklenip.
19. Rahvan koşturur eşek daima,
20. At gider takip edip,

21. Yavaşça gün döner,
22. Ufuklarda yok olur renk.
23. Kar atıştırmaktadır.
24. Bir yıldız parlar zar zor.

25. Yaşlılar, daima yolda,
26. Sohbet havadan sudan.
27. Biri dedi: - Aksakal,
28.Güneş batmışa benzer.

29. Yok ya, usta, der biri.
30.Çok yaklaşmışız tam olarak.
31.Dört çakırım[123] köye
32.Yürüsek mi bir günlük yol?

33. Ama bu söz doğruydu,
34.Yıldızlar parlar hızlı hızlı,
35.Önünde eşek gider,
36. Arkada büyük adımlarla gider at.

37.Köyden, eser yok,
38. Tertemizdi tepe bayır,
39."Yolu şaşırdık mı ki,
40.Güpegündüz mü?

[123] Bir çakırım: 1,06 kilometre mesafeye denk bir uzunluk ölçüsüdür.

41.Söze daldık mı yahut gaflete,
42.Tövbe, bu nasıl oyun?”
43. Kar dindi de ihtiyarların
44.İçine girdi kasırga.

45.- Kara kışta toy yapmadan,
46. Beter olur alçak, çok.
47. Hiddetlilerin aslında,
48. Mizacı soğuktu düşmanın.

49. Bir yerde uzanarak
50. Uluyup kaldı ya kurt,
51. Kim hem, söyleyin, böyle anda
52. Endişeye düşmez artık?

53. Bilhassa, yaşlandığında
54.Üzgün olup gidersin.
55. Diyelim ki, o kurt
56. Isırsa ne yapacaksın?

57. Kara soğuk diş bileyip
58. Kavurduğunu ezerdi.
59. Geniş kayranda iki ihtiyar
60. Yol arayıp gezerdi.

61. Yol bir yerde dört taraf
62. Yoğun, bembeyaz kardı.
63. En beteri, soğukta
64. Canı korumak zordu.

65.Döneyim dese izine,

66.İşaret de yok, iz de yok.
67. Titrer iki ihtiyar,
68. Teskin de yok, söz de yok.

69.- Ne olursa olsun devrettik
70. Yaradan'ın kendisine!
71. Tevekkül deyip, at başını
72.Çevirdiler izine.

73. Alnında yazanı
74.Görür insan diyen zat.
75. Yol aldılar bir yere,
76. At başını edip azat.

77.- Bir iş olmadan şimdi,
78. Evi bulsak yeter,
79.Çekti at yorgun,
80. Arkada eşek sessizdi.

81.Şafak sökene kadar iki ihtiyar
82.Yürüdü, durdu, süründü.
83. Uzaklarda bir an
84. Kara nesne göründü.

85. Damı var, her nasılsa,
86. Benzeyip durur köye.
87."Hüda'ya bin şükür", deyip
88.Yürüdüler o tarafa

89. Sis içinde ağaçlar,
90. Dururdu parlayıp.
91.Şafağa yakın köye

92. Girdiler zangırdayıp.

93.Tükenmişti sabır da,
94. Bitmişti tüm sebat.
95. Yetişmeden bir kapıya
96. Durup kaldı zavallı at.

97.- Yer soralım, sonra
98.Çaresi bulunur, aksakal.
99. Kamçısıyla tık tıkı,
100. Kapıyı çaldı ihtiyar.

101. Şiddetli soğuk ya, şiddetli soğuk,
102. Yer ve gökte yorgun hâl.
103. Bir ihtiyar kadın çıktı o an,
104. Elinde sönmüş kandil.

105. Söz başladı ihtiyar titreyip,
106. Boğazına gelip can.
107. - Bir geceye bizlere
108. Yer verseniz, yengeciğim.

109. Kara kasırga çark çevirip
110. Göz önünü tutardı.
111. Yaşlı kadın gelip daha yakın
112. Kandili kaldırdı.

113. - Hay, sen misin bu,
114. Aklını mı yitirdin?
115. Saçmalarsın yahut toyda
116. Votka mı, bira mı içtin?

117. Özetle şu: at yolunu

118. Eve doğru çevirip durur imiş.

119. İhtiyar da, kendi karısına

120. Yer sorup durur imiş. (1971)

MUALLIM (189)

1. *Muallim haqida so‘zim ushbudir:*

2. *Muallim kamolot ichra ko‘zgudir.*

3. *O‘qidim Gerodot, tarixni ko‘p bor,*

4. *Forobiy, Danteni takror va takror.*

5. *Barini o‘qidim, lol qoldi aqlim,*

6. *Bariga ustozsan o‘zing, muallim.*

7. *Alisher qalbiga solgan sehr-fayz*

8. *Sensan, ey muallim, ustoz Abul-Lays.*

9. *Qutlug‘ xonadonda qutlug‘ kalom bu,*

10.*Hamid Olimjon bu, G‘afur G‘ulom bu.*

11.*Buyuk Temur sendan topgandir ta’lim,*

12.*Sen shundoq, aziz zot, aziz muallim.*

13.*Rost aytsam, o‘zingsan eng avval daho,*

14.*Sen hayot ganjida durri bebaho.*

15.*Ulug‘ ayyomingda she’riy kalom bu,*

16.*Shogirdlar nomidan qutlug‘ salom bu.*

MUALLİM (189)

1. Muallim hakkında sözüm budur:

2. Muallim kâmillik içinde aynadır.

3. Okudum Herodot, tarihini çok defa,

4. Fârâbî’yi, Dante’yi tekrar tekrar.

5. Hepsini okudum, tutuldu aklım,

6. Hepsine üstatsın kendin, muallim.

7. Ali Şîr’in kalbine koyduğu sihir feyz

8. Sensin, ey muallim, üstat Ebu’l Leys.

9. Kutlu hanedanda kutlu kalem bu,

10. Hamid Âlimcan bu, Gafur Gulam bu.

11.Büyük Timur senden almıştır eğitim,
12. Sen böyle aziz zat, aziz muallim.
13. Doğrusunu dersem, kendinsin en evvel deha,
14. Sen hayat hazinesinde değerli inci.
15. Ulu günlerinde şiirsel kelam bu,
16.Şakirtler adına kutlu selam bu. (1972)

"BOLALIK YILLARIM…" (190)

1. *Bolalik yillarim eslayman oz-oz*
2. *Bosiq uyqu ichra yotganda olam.*
3. *Tonglar qulog'imga kelardi ovoz:*
4. *"G'aflatda yotmagil, erkatoy bolam."*
5. *U jajji bahorning sho'x sasi edi,*
6. *U munis onamning nafasi edi.*

7. *Yillar o'tdi, bir oz ulg'aydik, bu kun,*
8. *Vatan xizmatiga bir qadar dastyor.*
9. *Olam tashvishidan yurakda to'lqin,*
10.*Vatan qudratidan qalbda g'urur bor.*
11.*Endi sen chorlasang, toki tanda jon,*
12.*Labbay deyajakman, Vatan, onajon.*

"ÇOCUKLUK YILLARIM…" (190)

1. Çocukluk yıllarımı hatırlarım az az
2. Derin uykuda yattığında âlem.
3. Şafaklarda kulağıma gelirdi avaz:
4. "Gaflette uyuma, nazlı evladım."
5. O minik baharın şen sesiydi,
6. O dost anamın nefesiydi.

7. Yıllar geçti, biraz büyüdük, bugün,
8. Vatan hizmetine biraz yardımcı.

9. Dünya kaygısından yürekte galeyan,
10. Vatan kudretinden kalpte gurur var.
11.Şimdi sen çağırsan, ta bedende can,
12. Emret diyeceğim, Vatan, anacan. (1972)

SAODAT (191)

Paxtakor qiz Saodatga

1. *Toki g‘olib ekan muzaffar o‘lka*
2. *Sha’ningga she’r aytmoq shoirga odat.*
3. *Bu gulshan vodiyda o‘zingsan beka,*
4. *Ey, mening paxtaxor singlim Saodat.*

5. *Sirdaryo bo‘yida mezon yaltirab,*
6. *Ajib xayol bilan band bo‘lmish ko‘ngil.*
7. *Va lekin bu safar men senga qarab.*
8. *Yo‘ndim qalamimni, mehnatkash singil.*

9. *O‘zbekning ming yillik odati erur*
10.*Ona deb, singil deb chekmaklik malol.*
11.*Qalbimni ne uchun bosmasin g‘urur,*
12.*Qarshimda sen tursang yetuk, barkamol.*

13.*Shoyon mehnatingning nishonasi bu -*
14.*Qora qoshlaringga qo‘ngan chang, g‘ubor.*
15.*Suvori ekansan - zahmating ezgu,*
16.*Zamona Barchini - mehnatkash, dildor.*

17.*Yurting g‘olib esa - toleing balqsin,*
18.*Xipcha qomatingda lolarang tasma.*
19.*Aytgil Muborakka - oshga o‘t yoqsin,*
20.*Aytgil Sofiyaga, keltirsin o‘sma.*

21.*Shaddod Asibayu dildor Anzirat,*
22.*Aytgil, childirmasin aylasin tayyor.*
23.*Yulduzlar bazmida oy ham bir ziynat,*
24.*Davrada Farhoding tursin baxtiyor.*

25.*Zafar ayyomida chehralar gulgun,*
26.*Tushsin davrangizga ko'k yulduzlari.*
27.*Tahsin, tashakkurim sizgadir bu kun,*
28.*Ey, ona yurtimning ona qizlari.*

SAADET (191)

Pamukçu kız Saadet'e

1. Ta galipmiş muzaffer ülke
2. Şanına şiir söylemek şaire âdet.
3. Bu gülşen vadide kendinsin eş,
4. Ey, benim pamukçu kardeşim Saadet.

5. Sirderya boyunda mezon parlayıp,
6. Muhteşem hayalle bağlanmış gönül.
7. Velakin bu sefer ben sana bakıp.
8. Yonttum kalemimi, emekçi kardeşim.

9. Özbek'in bin yıllık âdetidir
10. Ana diye, kardeş diye duymak melal.
11. Kalbimi niçin kaplamasın gurur,
12. Karşımda sen dursan kâmil, berkemal.

13. Değerli emeğinin nişanesi bu,
14. Kara kaşlarına çektiğin toz.

15.Süvariymişsin, zahmetin iyi,
16. Zamane Barçın'ı, emekçi, sevgili.

17. Yurdun galip ise, talihin parlak,
18.İnce endamında lale renkli bant.
19.Söyle Mübarek'e, yemeğe ateş yaksın,
20.Söyle Safiye'ye, getirsin ösme[124].

21.İnatçı Asiba ve sevgili Anzirat,
22.Söyle, çıldırmasın yapsın hazırlık.
23.Yıldızlar şöleninde ay da bir ziynet,
24.Eğlencede Ferhat'ın olsun bahtiyar.

25. Zafer günlerinde yüzler kırmızı,
26.Düşsün grubunuza gök yıldızları.
27. Tahsin teşekkürüm sizedir bugün,
28. Ey, ana yurdumun ana kızları. (1972)

QO'SHIQ (192)

1. *Qo'shiq uchar edi ko'kda bearmon,*
2. *Uchardi yangratib osmon, ufqni.*
3. *Badkirdor odamlar bir kun beomon*
4. *Yarador qildilar qo'shiqni.*
5. *Majruh turna misol qulab tushdi u,*
6. *Shodlik qulab tushdi arshi a'lodan.*
7. *Mana, ming yillarkim qo'shiq serqayg'u,*
8. *Hamon hasrat chekar o'sha balodan.*
9. *Shikasta yurak bu chekmasin ozor,*
10.*Jahon shoirlari turar qoshida.*
11.*Chollar duo qilsa, onalar bedor*
12.*Alla aytib chiqar uning boshida.*

[124] Özbekistan'da yetişen *ösme* adlı bitkinin kaşa ve göze sürmek için kullanılan sıvısıdır.

13.*Hammaning armoni - sog‘aysin qo‘shiq,*

14.*Zarrin qanotidan chevrilsin osmon.*

15.*Shodlik bilan to‘lsin to‘rtgala ufq,*

16.*Kulgi bilan balqsin bu qadim jahon.*

17.*Bedor termulaman qo‘shiqqa men ham,*

18.*Mayli, hasratida rangim sarg‘aysin.*

19.*Balki ko‘rolmasmiz biz uni xurram,*

20.*Bolalar baxtiga qo‘shiq sog‘aysin...*

KOŞUK (192)

1. Koşuk uçardı gökte ukdesiz,

2. Uçardı çınlatıp asumanı, ufku.

3. Alçak insanlar bir gün amansız

4. Yaralı yaptılar koşuğu.

5. Yaralı turna misali düştü o,

6. Neşe kayboldu arş-ı âlâdan.

7. İşte, binlerce yıldır ki koşuk kaygılı,

8. Daima hasret çeker o çocuktan.

9. Kırık kalp bu çekmesin azar,

10. Cihan şairleri durur önünde.

11.İhtiyarlar dua etse, analar bidar

12. Ninni söyler onun başında.

13. Hepsinin ukdesi, iyileşsin koşuk,

14. Altın kanadıyla çevrilsin asuman.

15. Neşeyle dolsun dört yanı ufkun,

16.Gülüşle aydınlansın bu kadim cihan.

17. Bidar bakarım koşuğa ben de,

18. Olsun, hasretinde rengim sararsın.

19. Belki göremeyiz biz onu memnun,

20.Çocukların bahtına koşuk iyileşsin… (1972)

QOZOG‘ISTON (193)

O‘ljasga

1. *Tiniq chashmalar bor haddan ziyoda,*
2. *Moviydir Balxashning suvi ham biroq,*
3. *Biroq, qozoq xalqin qalbi dunyoda*
4. *Barcha chashmalardan ko‘ra tiniqroq.*
5. *Nur bilan chulg‘onib yotibdi shoyon*
6. *Buyuk Olatovning ko‘rkam kelbati.*
7. *Olatov ko‘rkamdir, lekin bu zamon*
8. *Undan ham ko‘rkamroq qozoq savlati.*
9. *Qozoq sahrosi - bu beadad sahro,*
10.*Xayolday bepoyon, cheksiz va yiroq.*
11.*Chindan ham buyukdir bu sahro, ammo*
12.*Qozoq bag‘ri esa undan ham kengroq.*
13.*Shundoq ajib yurtsan, jon Qozog‘iston,*
14.*Qardoshim, qurdoshim, bovurim azal!*
15.*Buyuk Sharq qo‘ynida baxti nurafshon*
16.*O‘zbek diyoridan salomim bu gal!*
17.*Birdir elimizning otash kalomi,*
18.*Birdir tegramizda sahrolar yaydoq.*
19.*Birdir elimizning nasabi, nomi,*
20.*Birdir ko‘kimizni yoritgan chaqmoq!*
21.*Abay hikmatiyu Navoiy sozi*
22.*Ko‘rkam xonadonim muattar etgan.*
23.*Buyuk yaratganga bo‘lsin tavoze,*
24.*Udir baxtimizni barobar bitgan.*
25.*Diydor boshlab keldi, qani, uzat qo‘l!*
26.*O‘ljasim, jo‘ldosim, do‘stim, qarog‘im!*
27.*Ta’zim, ehtiromim aylagil qabul,*
28.*Ey ulkan qozog‘im, ulkan qozog‘im...*

KAZAKİSTAN (193)

Olcas'a

1. Berrak çeşmeler var haddinden fazla,
2. Mavidir Balkaş'ın suyu da fakat,
3. Fakat Kazak halkının kalbi dünyada
4. Bütün çeşmelere göre daha berrak.
5. Nurla kaplanmıştı şayan
6. Büyük Aladağ'ın görkemli heybeti.
7. Aladağ görkemlidir, ama bu zaman
8. Ondan da daha görkemli Kazak akını.
9. Kazak sahrası, bu engin sahra,
10. Hayal gibi sonsuz, sınırsız ve uzak.
11. Gerçekten de büyüktür bu sahra, ama
12. Kazak bağrı ise ondan da daha geniş.
13.Böyle muhteşem yurtsun, Can Kazakistan,
14. Kardeşim, akranım, kardeşim ezel!
15.Büyük Doğu bağrında baht-ı nurefşan
16.Özbek diyarından selamım bu kez!
17. Birdir halkımızın ateş kalemi,
18. Birdir etrafımızda sahralar çorak.
19. Birdir halkımızın nesebi, namı,
20. Birdir göğümüzü aydınlatan şimşek!
21. Abay hikmeti ve Nevâî şiiri
22.Görkemli hanedanımı muattar eden.
23.Büyük Yaradan'a olsun tazim,
24. Odur bahtımızı birlikte yazan.
25.Görüşüp geldi, haydi, uzat el!
26. Olcas'ım, yoldaşım, dostum, göz bebeğim!
27. Tazim, ihtiramımı eyle kabul,
28. Ey büyük Kazak'ım, büyük Kazak'ım… (1972)

QOZOG'ISTON OHUSI (194)

1. *Ko'kchatovda ko'k kamzulli bir ohu ko'rdim,*

2. *Taajjubki, oyog‘ida qizil etikcha.*

3. *Ko‘z uzolmay uzoq mahal termulib turdim,*

4. *So‘ng izidan ketaberdim boshim egikcha.*

5. *Sho‘x, chiroyli so‘qmoqlarda qadam-baqadam,*

6. *O‘q yetmasga qadar chiqdim izidan borib.*

7. *Ohu emas, afsonaga duch keldim shu dam,*

8. *Vo darig‘o, qaytib tushdim charchab va horib.*

9. *Oynako‘lga borib qoldim aylab men shitob,*

10.*Ko‘k kamzulli u ohuni izlab sarsari.*

11.*Oynako‘lning tubida ham ko‘rindi shu tob*

12.*Ohu emas, O‘ljas she’rin toza mavjlari.*

13.*Sayyohlikning o‘jar qalbi tutib qo‘limdan*

14.*Ketaverdim, ketaverdim sarson-sargardon.*

15.*Moviy ko‘llar, cho‘ng o‘rmonlar chiqdi yo‘limdan,*

16.*Oh, bunchalar keng ekansan, jon Qozog‘iston.*

17.*Izlayverib, horib bo‘lgach, oqibat bir tun*

18.*Ko‘k tepaga chiqib olib o‘y surdim uzoq.*

19.*Olmaota charx urardi tegramda butun,*

20.*So‘zlasang-chi, bu qandoq hol, muhtaram qozoq?*

21.*U men ko‘rgan ohu qani, qayda u jayron,*

22.*Qaysi joyni makon etgan u nozik nihol?*

23.*Dedilarki, qozoq elin kezaber hayron,*

24.*Har qayda ham u bir karra ko‘rgazgay jamol.*

25.*U Abayning armonidir - nozlanib turgan,*

26.*U Olatov suluvining maqomi erur,*

27.*Kechagina nortuyani quvalab yurgan*

28.*Qozoqlarning karashmali ilhomi erur.*

KAZAKİSTAN AHUSU (194)

1. Gökçedağ’da gök ceketli bir ahu gördüm,

2. Hayret ki, ayağında kırmızı küçük çizme.

3. Gözünü ayıramadan uzun zaman baktım,

4. Sonra izinden gidiverdim rehberim küçük çizme.

5. Neşeli, güzel patikalarda adım adım,

6. Bir kurşun atımı kadar çıktım izinden gidip.

7. Ahu değil, efsaneye rastladım o an,
8. Eyvah, dönüp indim yorulup ve bitip.
9. Aynagöl'e varıp kaldım, ettim ben şitab,
10.Gök ceketli o ahuyu izleyip serseri.
11. Aynagöl'ün dibinde de göründü o an
12. Ahu değil, Olcas şiirinin temiz dalgaları.
13. Seyyahlığın inatçı kalbi tutup elimden
14. Gidiverdim, gidiverdim avare hayran.
15. Mavi göller, büyük ormanlar çıktı yoluma,
16. Ah, bu kadar genişmişsin, can Kazakistan.
17.İzleyiverip, yoruluncaya kadar, akıbet bir gece
18.Gök tepeye çıkıp düşündüm uzun uzun.
19. Almatı çark çevirirdi etrafımda bütün,
20. Konuşsan, bu nasıl hâl, muhterem Kazak?
21.O benim gördüğüm ahu hani, nerede o ceylan,
22. Hangi yeri mekân etmiş o nazik fidan?
23. Dediler ki, Kazak diyarını geziver hayran,
24. Her yerde de o bir kez göstersin cemal.
25.O Abay'ın ukdesidir, nazlanıp duran,
26. Aladağ güzelinin makamıdır,
27. Gece deveyi kovalayıp durmuş,
28. Kazakların nazlı ilhamıdır. (1972)

SOG'INCH (195)

1. *Parchagina bulut,*
2. *Cheksiz osmon,*
3. *Adir ortidagi yolg'iz oyoq yo'l.*
4. *Barcha tashvishlarni unutib, shodon,*
5. *Qaytgim kelayotir qoshingga butkul.*

6. *Qismat mayin ichdim - achchiq va taxir,*
7. *Tuydim ehtirosning samoviy kuchin.*
8. *Dunyoda odamzod yashamas, axir,*
9. *Faqat irodasin sinamoq uchun.*

10.*Parchagina bulut,*

11.*Cheksiz osmon,*

12.*Adir ortidagi yolg‘iz oyoq yo‘l.*

13.*Barcha tashvishlarni unutib, shodon,*

14.*Qayta olsam edi qoshingga butkul.*

HASRET (195)

1. Parça bulut,

2. Sonsuz asuman,

3. Kırların ardındaki tek ayak yolu.

4. Bütün kaygılarını unutup, şâdân,

5. Dönüp gelir karşına büsbütün.

6. Kısmet şarabını içtin, acı ve buruk,

7. Duydum ihtirasın semavi gücünü.

8. Dünyada insanlık yaşamaz, artık,

9. Sadece iradesini sınamak için.

10. Parça bulut,

11. Sonsuz asuman,

12.Kırların ardındaki tek ayak yolu.

13.Bütün kaygılarını unutup, şâdân,

14.Dönebilseydim karşına büsbütün. (1972)

YAXMALAK (196)

Qizim Shoiraga

1. *Yaxmalak otasan, shodon qiyqirib,*

2. *Ovozing jaranglar billuriy bog‘da.*

3. *Qizim, bolalikning fasliga kirib,*

4. *Ilk bora yaxmalak otding shu chog‘da.*

5. *Ilk bor hayotingda qor saylidir bu,*
6. *Izingdan shu'ladek yugurar ko'zim.*
7. *Qo'rqma, polaponim, chekmagil qayg'u,*
8. *Yiqilsang turg'izib qo'yaman o'zim.*
9. *Oppoq qor qo'ynida nuroniy olam,*
10. *Quchog'i buvingning bag'ridek yumshoq.*
11. *Yayrab qol, shu munis og'ushda, erkam,*
12. *Yorug' dunyo senga quchoq ochgan choq.*
13. *Yayrab qol, mayli, shu kumush maydonda,*
14. *Yayrab qol choyshabin yiqquncha falak.*
15. *Chunki ona qizim, yorug' jahonda*
16. *Ravon yo'l bitta shu: bu ham yaxmalak.*
17. *Hali ulg'ayarsan, unib o'sarsan,*
18. *Gaplarim ma'nosin anglarsan hali.*
19. *Olis yaxmalakni eslab qo'yarsan*
20. *Yo'llar mashaqqatin tortgan mahali.*
21. *Hozir-chi, kezaver, mayli, beparvo,*
22. *Murg'ak yuragingda g'ussa tutmagin.*
23. *Baxting butun bo'lsin, qizginam, ammo,*
24. *Dunyodan yaxmalak otib o'tmagin.*

BUZ SAÇAĞI (196)

Kızım Şaire'ye

1. Buz saçağı atarsın, şâdân bağırıp,
2. Sesin çınlar billurî bağda.
3. Kızım, çocukluk faslına girip,
4. İlk defa buz saçağı attın o anda.
5. İlk defa hayatında kar bayramıdır bu,
6. İzinden ışık gibi koşar gözüm.
7. Korkma, civcivim, taşıma kaygı,
8. Düşersen tutup kaldırırım kendim,
9. Bembeyaz kar kucağında nurani âlem,
10. Kucağı ninenin bağrı gibi yumuşak.

11.Hürce eğlen, bu munis kucakta, kıymetlim,
12. Aydınlık dünya sana kucak açtığında.
13. Neşelen, bu dost meydanda,
14. Neşelen, çarşafını yıkıncaya dek felek.
15.Çünkü ana kızım, aydınlık cihanda
16. Doğru tek yol şu: bu da buz saçağı.
17. Daha büyürsün, gelişirsin,
18.Sözlerimin manasını anlarsın henüz.
19. Uzun buz saçağını hatırlarsın
20. Yolların meşakkatini çektiği zaman.
21.Şimdi, geziver, neyse, pervasız,
22. Narin yüreğinde gam tutma.
23. Bahtın açık olsun, kızcağızım, lakin,
24.Dünyadan buz saçağı atıp geçme. (1972)

"NIMAIKI YOZMA…" (197)

1. *Nimaiki yozma kasalxonada -*
2. *U so'nggi ishingdek tuyulaverar.*
3. *G'alati tuyg'ular kezar dunyoda,*
4. *Hammasi miyangga quyulaverar.*
5. *Goho vahimalar bag'ringni tilib,*
6. *Rosa cho'chitadi, yurishmas ishing.*
7. *Lekin nogahonda eshik ochilib*
8. *Kirib kelar do'st yo tanishing,*
9. *Yana olam yorug', yurakda g'ulu -*
10.*Xonang sehrli bir nurga to'ladi.*
11.*Juda oddiy gapdir bir qarashda bu,*
12.*Lekin qo'shiq qilib aytsa bo'ladi.*

"HER ŞEYİ YAZMA…" (197)

1. Her şeyi yazma hastanede,
2. O son işin gibi duyuluverir.
3. Garip duygular gezer dünyada,
4. Hepsi beynine sokuluverir.

5. Bazen endişeler bağrını dilip,
6. Hayli korkutur, yürümez işin.
7. Ama ansızın kapı açılıp
8. Girer dost yahut tanıdığın.
9. Yine âlem aydınlık, yürekte tasa,
10. Odan sihirli bir nurla dolar.
11.Çok basit sözdür ilk bakışta bu,
12. Lakin koşuk besteleyip söylese olur. (1972)

NASIHAT (198)

(Hazil)

1. *Nasihat tinglaymiz umrda qancha,*
2. *Hatto ba'zisini tortolmaydi ot.*
3. *Do'stlar, nasihatning o'rni bo'lakcha,*
4. *O'git berar, axir, shu bilan hayot.*
5. *Men ham o'z-o'zimga anchadan buyon*
6. *Nasihat beryapman qat'iy, beshafqat.*
7. *Chunki, bir nasihat tinglagan zamon*
8. *Esdan chiqib ketar o'zga nasihat.*

NASİHAT (198)

(Gülmece)

1. Nasihat dinleriz ömürde kaç kez,
2. Hatta bazısını çekemez at.
3. Dostlar, nasihatin yeri ayrı,
4. Öğüt verir, artık, bununla hayat.
5. Ben de kendi kendime çoktan beri
6. Nasihat veririm kati, acımasız.
7. Çünkü bir nasihat dinlediğin zaman
8. Hatırdan çıkıp gider başka nasihat. (1972)

GENETIKA (199)

1. *Men ham yashayapman o‘z zamonimda,*
2. *Davrimdan qayga ham tushardim yiroq.*
3. *Va lekin bilmadim, mening qonimda*
4. *Qaysi bir bobomning xislati ko‘proq.*

5. *Barchaga barobar meros bu bashar,*
6. *Otadan qosh-ko‘zni olgan o‘g‘ildek.*
7. *Bilmadim, qonimda qay ajdod yashar,*
8. *Balki Bobo Kayfiy, balki Ulug‘bek.*

9. *Tunlar qulog‘imga chalinar elas,*
10.*Tulporlar kishnashi, otlar gurrosi.*
11.*Balki Muqanna bu - tinib-tinchimas,*
12.*Balki Panipatda Bobur urhosi.*

13.*Balki tanglayimni ko‘tarib ketgan,*
14.*Darbadar bir oshiq va yo sarbador.*
15.*Balki biror bobom shahanshoh o‘tgan,*
16.*Balki vujudimda darvish qoni bor.*

17.*Men yaxshi anglayman, moziy ne demak,*
18.*Tarixda har kimning bor o‘z zamoni.*
19.*Lekin tanimizda kezar-ku beshak*
20.*Olis bobolarning ming yillik qoni.*

21.*Nechog‘li sabot bor yovqur Shiroqda,*
22.*Eryigitov to‘pga ko‘ksin bosar jim.*
23.*Rahimov g‘animga tashlangan chog‘da*
24.*Alpomish shiddatin payqamagan kim?!*

25.*Ohu bolasi bu - ohuday boqqan,*
26.*Shervachchada esa sherning shiddati.*
27.*Avlodlar qonida ming yillab oqqan*
28.*Buyuk bobolarning turfa xislati.*

29.*Neki ezgulik bor jahonda poydor*
30.*Joylab ola bildik barchasin qonga.*
31.*Asrlar so‘ngida tole kelib yor,*
32.*Farzand bo‘la bildik o‘tli zamonga.*

33.*Singdi ruhimizga, mangu barhayot*
34.*Alisher she’riyu Pushkin bayoti.*
35.*Singdi ruhimizga g‘olib hissiyot -*
36.*Jasur bobolarning tengsiz saboti.*

37.*Singdi qonimizga shu otash dunyo,*
38.*Singdi qonimizga muhabbat, g‘azab.*
39.*Yiroq avlodlarga bizlardan ammo*
40.*Qay bir xislatimiz qolarkan, ajab?*

41.*Nima qolar ekan? Qay ezgu tilak,*
42.*Qay his, yuraklarda topolgan kamol?*
43.*Yiroq avlodlarga bizlardan beshak*
44.*Qolar kurashlarda toblangan xayol.*

45.*Shu yovqur asrda yashadik ro‘y-rost,*
46.*Ranju balolardan hayiqmay taqir.*
47.*Yiroq avlodlarga bizlardan meros,*
48.*Buyuk bardoshimiz qolgusi axir.*

49.*Yashadik shu rangin dunyoda mas’ul,*
50.*To ellar ko‘z yoshi bo‘lmasin chashma.*

51.*O‘zni bag‘ishladik kurashga butkul,*
52.*Demakki, yashadik oromga tashna.*

53.*Tashna yashadik biz mehrga mutloq,*
54.*Ishqqa, muhabbatga tashna o‘tdik biz.*
55.*Goh esa quyoshdek porloq va yiroq*
56.*Haqqa, haqiqatga tashna o‘tdik biz.*

57.*Tashna yashadik biz nurga, ziyoga,*
58.*Qayon ketmoqdasan, ey uchqur zamon?!*
59.*Oqibat bel bog‘lab keldi dunyoga*
60.*Bizning asrimizda vallamat inson.*

61.*To‘fon, qasirg‘alar kechar-ku hali,*
62.*Kechadi avlodlar qator, galma-gal.*
63.*Balki oro topib bashar sayqali,*
64.*Tug‘ilar eng oliy inson, mukammal.*

65.*U o‘zin tanigay shunda daf’atan,*
66.*To‘fon, qasirg‘alar bosiriq bir tush!*
67.*Shu buyuk sayyora - yagona Vatan.*
68.*Inson o‘z baxtidan o‘zi ham sarxush.*

69.*Munis nigohini qadab quyoshga*
70.*Turar u nurday pok, ishqday bezavol.*
71.*Kechmish kamolotin ko‘tarib boshga.*
72.*Yiroq asrlarga ko‘z tikib xushhol.*

73.*Turar u go‘dakday beg‘ubor kulib,*
74.*Balki kulgusi ham bizdan meros bu.*
75.*Rishtai jonida bir zarra bo‘lib*
76.*Bizning ham qonimiz gupurgay, rost bu...*

77.*Bobolar dunyodan o‘tdilar shundoq,*

78.*Biz ham yetuklikka bo‘lmadik timsol.*

79.*Lekin sen bo‘larsan bokira mutloq,*

80.*Lekin sen yasharsan farishta misol.*

81.*Kahkashon sayrida hur quyosh bilan*

82.*Kezarsan to abad shodumon, xurram.*

83.*Labda tabassumu ko‘zda yosh bilan*

84.*Senga talpinaman, buyuk nabiram...*

GENETİK BİLİMİ (199)

1. Ben de yaşarım kendi zamanımda,

2. Devrimden nereye de düşerdim uzak?

3. Velakin anlamadım, benim kanımda

4. Hangi dedemin hasleti daha çok.

5. Hepsiyle beraber miras bu beşer,

6. Babadan kaşını, gözünü alan oğul gibi.

7. Anlamadım, kanımda hangi ecdat yaşar,

8. Belki Dede Keyfî, belki Uluğbek.

9. Geceler kulağıma çalınır belli belirsiz,

10. Tulparların[125] kişnemesi, atların dıgıdığı.

11. Belki Mukanna bu, durmak bilmez,

12. Belki Panipat’ta Babür hurrası.

13. Belki damağını gırç ettirmiş,

14. Derbeder bir âşık yahut sarbadar.

15. Belki bir dedem padişah geçmiş,

16. Belki vücudumda bir derviş kanı var.

[125] Tulpar: Safkan, hızlı ve güçlü at.

17. Ben iyi anlarım, mazi ne demek,
18. Tarihte herkesin var az zamanı.
19. Ama vücudumuzda gezer şüphesiz
20.Büyük dedelerimizin bin yıllık kanı.

21. Ne kadar sebat var cesur Şirak'ta[126],
22. Eryigitov topuna göğsünü basar sessiz.
23. Rahimov düşmana atıldığı anda
24. Alpamış şiddetini anlamayan kim?

25. Ahu yavrusu bu, ahu gibi bakmış,
26.Güçlü ise şiirin şiddeti.
27. Evlatlar kanında bin yıllarca akmış
28.Büyük dedelerin ilginç hasleti.

29. Ne iyilik var cihanda sarsılmaz
30. Yerleşip alabildik hepsini kana.
31. Asırlar sonunda talih gelip yâr,
32.Çocuk olabildik ateşli zamana.

33.Sığdı ruhumuza, ebedî hayat
34. Ali Şîr şiiri ve Puşkin bayati[127].
35.Sığdı ruhumuza galip hissiyat,
36. Cesur dedelerimizin eşsiz sebatı.

37.Sığdı kanımıza bu ateş dünya,
38.Sığdı kanımıza muhabbet, gazap.
39. Uzak evlatlara bizlerden ama
40. Hangi bir hasletimiz kalırmış, ilginç?

[126] Eski mitolojik kahramandır.
[127] Dugah makamının ses dizilerinden biri.

41. Ne kalırmış? Hangi iyi dilek,
42. Hangi his, yüreklerde bulabilmiş kemal?
43. Uzak evlatlara bizlerden şüphesiz
44. Kalır savaşlarda güçlenmiş hayal.

45. Bu cesur asırda yaşadık açıkça,
46. Acı ve belalardan korkmadan asla.
47. Uzak evlatlara bizlerden miras,
48.Büyük sabrımız kalacak artık.

49. Yaşadık bu renkli dünyada mesul,
50. Halklara dek gözyaşı olmasın çeşme.
51.Özünü bağışladık savaşa daima,
52. Demek ki yaşadık huzura hasret.

53. Hasret yaşadık biz şefkate mutlak,
54.Aşka, muhabbete hasret kaldık biz.
55. Bazense güneş gibi parlak ve uzak
56. Hakka, hakikate hasret kaldık biz.

57. Hasret yaşadık biz nura, ışığa,
58. Nereye gitmektesin, ey hızlı zaman?!
59. Akıbet işe koyuldu dünyada
60. Bizim asrımızda velinimet insan.

61. Tufan kasırgalar geçer hâlâ,
62. Geçer evlatlar saf, arka arkaya.
63. Belki güzelleştirir beşer cilası,
64. Doğar en yüce insan, mükemmel.

65.O kendisini tanısın böyle ansızın,

66. Tufan, kasırgalar devamlı bir düş!
67. Bu büyük seyyare, yegâne Vatan.
68.İnsan kendi bahtından kendi de sarhoş.

69. Dost bakışını dikip güneşe
70. Durur o nur gibi pak, aşk gibi suçsuz.
71. Geçmiş kâmilliğini kaldırıp başa.
72. Uzak asırlara gözünü dikip hoşnut.

73. Durur o bebek gibi tertemiz gülüp,
74. Belki de gülüşü de bizden miras bu.
75. Canın bağında bir zerre olup
76. Bizim de kanımız kaynayacak, gerçek bu…

77. Dedeler dünyadan geçtiler böyle,
78. Biz de kâmilliğe olmadık timsal.
79. Ama sen olursun bakir mutlak,
80. Ama sen yaşarsın melek misali.

81. Kehkeşan seyrinde hür güneşle
82. Gezersin ebediyen mutlu mesut.
83. Dudakta tebessüm ve gözde yaşla
84. Sana çırpınırım, büyük torunum… (1973)

DENGIZGA (200)

1. *Yo‘lim boshladi to, kezdim dala-tog‘,*
2. *Kezdim ne yurtlarni - chiroyi tengsiz.*
3. *Nasib etgan ekan sen bilan bu chog‘,*
4. *Ilk bora ro‘baro‘ keldim, ey dengiz.*
5. *Sahroyi o‘zbekman, toleim kulib,*
6. *Muqimman, o‘z yurtim bilan hayotman,*
7. *Va lekin, dunyoda shamolday yelib,*

8. *Dengizday keng qalbni axtargan zotman.*

9. *Qalbim ochay deyman senga ushbu choq,*

10.*Lekin tinglarmiding, bahri beomon.*

11.*Menman bu - qoshingda zarra bir ushoq,*

12.*Sen - ko‘kka sha’shaa tashlagan ummon.*

13.*Neni anglar eding, sen-ku bir xilqat,*

14.*Milliard tuyg‘ulardan qotgan sharora.*

15.*Senga dil ochmoq ham fol ko‘rmoq faqat,*

16.*Inson o‘z qalbini anglasa zora.*

17.*U sohir hislardan kechdi beomon,*

18.*Afsungar tuyg‘ular bo‘lganlar g‘oyib.*

19.*Beshafqat tafakkur asri bu zamon,*

20.*G‘arib deymi uni va yo g‘aroyib.*

21.*Uning poyidadir zamin - ziroat,*

22.*Uning poyidadir hattoki samo.*

23.*Qayda she’r? Qayda sir? Qayda sinoat?*

24.*Qayda Majnun uchun dashti Karbalo?*

25.*Dengiz, tanib olgin uni bir karra,*

26.*Hazrati insondir - o‘zi qo‘ygan ot.*

27.*Dengiz, she’r emassan endi sen zarra,*

28.*Sen - po‘lat zanjirlar zabtidagi zot.*

29.*Ha, buyuk shoirlar qadami o‘chgan,*

30.*Hech kim mavjlaringdan o‘qimas tuyg‘u.*

31.*Xitobmas to‘lqinlar bag‘riga tushgan,*

32.*Qaysi bir baliqchi tashlagan to‘r-ku.*

33.*Farzandman shu buyuk asrimga beshak,*

34.*Men ham uning uchun dilni o‘rtarman.*

35.*Oh, lekin ko‘ksimda yongan shu yurak*

36.*Bir kun tosh qotmasa deya qo‘rqarman.*

37.*Olis ufqlarda yongan bu mayoq,*

38.*Afsus, men uchun ham xayolmas aslo,*

39.*Bo‘ronlar qalbimga solmagay titroq,*

40.*Yo‘qdir men uchun ham sehr ila ro‘yo.*

41.*To‘plar gumburlashi, vahshat sadosi,*

42.*Qutqularga to‘lgan ushbu kun zamon.*

43.*Tashlandiq ushoqning bo‘lib gadosi*

44.*To‘p-to‘p chag‘alaylar oh chekar nolon.*

45.*Yulduzlar yonadi, oftob charaqlar,*

46.*Kukunga aylanar vujud ham, ammo*

47.*Yaralgan ekanki Inson bir vaqtlar,*

48.*Nahot tuyg‘udan u bo‘lgay mosuvo?!*

49.*Sarson, sohillarda tentirab yana*

50.*O‘yga botarmikan beruh oshiqlar?*

51.*Dengizlar ufqiga boqib mardona*

52.*Kuylarmikan hech kim o‘tli qo‘shiqlar?*

53.*Moviy dalalarda o‘zni unutib,*

54.*Shabnam ichra kezsa malla rang toychoq,*

55.*Fazogir Mirrixning mehridan kechib*

56.*Boqarmikan unga entikib, mushtoq?*

57.*Ulug‘ ilohasin - tilsiz jamolin*

58.*Unutib qo‘ymasmi bir kun odamzod?*

59.*Buyuk nasibasin - tengsiz xayolin*

60.*Shu buyuk tafakkur etmasmi barbod.*

61.*Ilhoming dilimda, xayr, ey dengiz,*

62.*Garchand visolingdan aslo qonmasman.*

63.*Lekin yoshligim ham o‘tar-ku esiz,*

64.*Bir vaqt yonganimday balki yonmasman.*

65.*Balki sayr etgali mavjlaring bo‘ylab,*

66.*Tag‘in qaytajakman, ey oshno ummon.*

67.*Sen-chi, kuylayvergin hamisha guvlab,*

68.*Insonlar qalbiga solib g‘alayon.*

DENİZE (200)

1. Yolum başladı ta gezdim tarla, dağ,

2. Gezdim ne yurtları, güzelliği eşsiz.

3. Nasip etmiş imiş seninle bu zaman,

4. İlk defa karşına geldim, ey deniz.

5. Sahra-i Özbek’im, talihim gülüp,

6. Yerlisiyim, kendi yurdumla hayatım,

7. Velakin, dünyada rüzgâr gibi esip,

8. Deniz gibi geniş kalbini arayan zatım.

9. Kalbimi açayım derim sana şu an,
10. Lakin dinler miydin, insafsız deniz.
11. Misafir bu, karşında zerre bir kırıntı,
12. Sen göğe şaşaa saçan umman.
13. Neyi anlardın, sen ki bir hilkat,
14. Milyarlarca duygulardan süzülmüş kıvılcım.
15. Sana gönül açmak da fal bakmak sadece.
16.İnsan kendi kalbini anlasa keşke.
17.O büyülü hislerden geçti amansız,
18. Sihirli duygular olmuşlar kayıp.
19. Acımasız düşünce asrı bu zaman,
20. Yoksul der mi onu yahut garip.
21. Onun ihtiyarındadır zemin, ziraat,
22. Onun ihtiyarındadır hatta sema.
23. Nerede şiir? Nerede sır? Nerede olay?
24. Nerede Mecnun için deşt-i Kerbela?
25. Deniz, tanı onu bir kere,
26. Hazreti insandır, kendi koyduğu ad.
27. Deniz, şiir değilsin şimdi sen zerre,
28. Sen, çelik zincirler zaptındaki zat.
29. Evet, büyük şairlerin adımı unutulmuş,
30. Hiç kimse dalgalara anlatmaz duygu.
31. Hitap değil dalgalar bağrına düşen,
32. Hangi balıkçı atmış ki bir ağ.
33.Çocuğum bu büyük asrıma şüphesiz,
34. Ben de onun için gönlümü kaparım.
35. Ah, lakin göğsümde yanan bu yürek
36. Bir gün taş kesilmese diye korkarım.
37. Uzak ufuklarda yanan bu deniz feneri,
38. Esef, benim için de hayal değil asla,
39. Boranlar kalbime salmayacak titreme,
40. Yoktur benim için de sihrle rüya.
41. Topların gümbürdeyişi, vahşet sedası,
42. Fitnecilerle dolmuş bugünkü zaman.
43.Bırakıldık kırıntının olup dilencisi
44. Grup grup martılar ah çeker nalan.

45.Yıldızlar parlar, güneş ışık saçar,
46. Toza dönüşür vücut da ama
47. Yaratılmış imiş ki İnsan bir zamanlar,
48. Duygudan mı o olacak mâsivâ?!
49. Avare, sahillerde boş boş gezip yine
50.Düşünceye dalar mıymış ruhsuz âşıklar?
51. Denizler ufkuna bakıp merdane
52.Söyler miymiş hiç kimse ateşli koşuklar?
53. Havai kırlarda kendini unutup,
54.Şebnem içinde gezse sarı renkli taycık,
55. Fezadaki Mars'ın şefkatinden geçip
56. Bakar mıymış ona iç çekip muntazır?
57. Ulu ilahesin, dilsiz cemalin
58. Unutmaz mı bir gün insanoğlu?
59.Büyük rızıksın, eşsiz hayalin
60. Bu büyük düşünce etmez mi berbat.
61.İlhamın gönlümde, güle güle, ey deniz,
62. Gerçi visaline asla kanmam.
63. Ama gençliğim de geçer ki yazık,
64. Bir vakit yandığım gibi belki yanmam.
65. Belki seyredeli dalgaların boyunca,
66. Yine döneceğim, ey aşina umman.
67. Sen ki şarkı söyleyiver daima uğuldayıp,
68.İnsanların kalbine salıp galeyan. (1973)

ALLOMA (201)

1. *Biror joyda topilsa nogoh gavhar donasi,*
2. *Cho'ntagi teshik har kim da'vo qilgan hamisha.*
3. *Men ham orzu etardim, yaxshi nom bahonasi*
4. *Meni ham yodga olsa g'ayri el, shuhratpesha.*

5. *Qancha buyuk zotlarga makon bo'lgan Xorazm,*
6. *O'tgan, ketgan tarixing barchaga kunday ayon.*
7. *Sira ajab emasdir Mashhad ham aylab bazm,*

8. *Bir Qiyot farzandiga ta’zimda bo‘lsa jahon.*

9. *Qaytdi buyuk alloma o‘z yurtin quchog‘iga,*
10.*U bois qalbim yana g‘urur bilan to‘libdi.*
11.*Vo ajab, shunday bir zot o‘z qadrin topmog‘iga*
12.*Uncha-munchamas, rosa ming yil kerak bo‘libdi.*

13.*Holini bilmaganga ro‘baro‘ kelsang agar,*
14.*Qalbingdagi arslonning mo‘yloviga cho‘zgay qo‘l.*
15.*Men-ku oddiy insonman, lekin shunday dam battar*
16.*O‘n ming yillik g‘ururim qo‘zg‘alib ketgay butkul.*

17.*Xalqim, tengsiz farzandlar bergansanu dunyoga,*
18.*Zar qog‘ozga ishqiboz murg‘day ustin yopgansan.*
19.*So‘ng yuz yillab faromush ko‘zing tikib samoga,*
20.*Dafinai ganjingni eslatishsa topgansan.*

21.*Beruniy bobomiz shu, ismi ham Abu Rayhon,*
22.*Ba forsi guftaam gar az zamoni pur Sino.*
23.*Bu zotni yetishtirgan qadim Sharq, ko‘hna jahon,*
24.*Kumush soqol, tilla bosh, asl qomusiy daho.*

25.*Sharafai zamondan boqadi u bepisand,*
26.*Buyuk sharq tafakkurin benazir xazinasi.*
27.*Mustabid Mahmud emas xayolini etgan band,*
28.*Bilgisiz ellar shavqi, yulduzlar nashidasi.*

29.*Shunchalik bo‘lar axir alloma deganlari,*
30.*Agar-chi, qismat chigal, noshukur ul zamona.*
31.*Javohir iste’dodning mevasi buning bari:*
32. *“Osor ul-boqiya”yu “Hindiston” u “Saydona.”*

33.*Ushoqqina odamman, jussam otamdan hadya,*

34.*Lekin mayda hislarni yoqtirmas aslo jinim.*

35.*O, buyuk Sharq, buyuk Sharq, sening shavkating deya*

36.*Ne buyuk farzandlaring zahmat chekkan betinim.*

37.*Qayda ular? Qaysi bir puchmoqlarda benishon...*

38.*Afsuski, o‘z qadrini bilmas doim odamzod.*

39.*Bu kun Abu Rayhonga ta’zimda ekan jahon,*

40.*Bu - buyuk bobomizga zamonadan bir imdod.*

41.*Dovotim qurimadi, mudom faxriya bitay,*

42.*Eng ulug‘ ajdodlardan xayolimga yog‘sin nur.*

43.*Shunday zotlarni bergan xalqimga ta’zim etay*

44.*G‘ururimga g‘ururdosh kim bo‘lsa - ming tashakkur.*

ÂLİMLER (201)

1. Bir yerde bulunsa nâgâh cevher tanesi,

2. Cebi delik herkes deva kılar imiş daima.

3. Ben de arzu ederdim, iyi ad bahanesi

4. Beni de yâda alsa gayrı halk, şöhret işi.

5. Ne kadar büyük zatlara mekân olmuş Harezm,

6. Geçip giden tarihin hepsine gün gibi ayan.

7. Asla garip değildir Meşhed de eyleyip bezm,

8. Bir Kiyot çocuğuna tazimde olsa cihan.

9. Döndü büyük âlim kendi yurdunun kucağına,

10.O sebeple kalbim yine gururla dolmuş.

11. Tuhaf, böyle bir zat kendi kadrini bulmasına

12. Az çok, tam bin yıl gerek olmuş.

13.Hâlini bilmediğine karşısına gelirsen eğer,

14. Kalbindeki aslanın bıyığına uzatsın el.
15. Ben ki sıradan insanım, ama şu an beter
16. On bin yıllık gururum ortaya çıksın şüphesiz.

17. Halkım, eşsiz çocuklar vermişsin dünyaya,
18. Altın kâğıda hayran tavuk gibi üstünü örtmüşsün.
19. Sonra yüz yıllarca unutulmuş gözünü dikip semaya,
20. Zenginliğin hazinesini anımsatmaksa bulmuşsun.

21.Bîrûnî dedemiz bu, ismi de Ebu Reyhan,
22. Farslı dedim eğer zamanından pir Sina.
23. Bu zatı yetiştiren kadim Doğu, köhne cihan,
24.Gümüş sakal, altın baş, asıl kamusî deha.

25. Zamanın süsünden bakar o koşulsuz,
26.Büyük doğu tefekkürünün eşsiz hazinesi.
27. Despot Mahmut değil hayalini eden bent,
28. Bilgisiz halklar şevki, yıldızlar nişanesi.

29. Bu kadar olur artık âlim dedikleri,
30.Eğer, kısmet karışık, nankör o dönem.
31. Cevahir istidadını meyvesi bunun hepsi:
32.“Asarü’l Bâkıye” ve “Hindistan” ve “Seydane.”

33. Minicik insanım, cüssem babamdan hediye,
34. Ama küçük hislerim gitmez asla hoşuma.
35. Aaa, büyük Doğu, büyük Doğu, senin şevketin diye
36. Ne büyük evlatların zahmet çekmiş durmadan.

37. Nerede onlar? Hangi köşede bir işaretsiz…
38. Maalesef, kendi kadrini bilmez daima insanoğlu.
39. Bugün Ebu Reyhan’a tazimde iken cihan,

40. Bu büyük dedemize devirden bir imdat.

41. Hokkam kurumadı, daima fahriye yazayım,
42. En ulu ecdatlardan hayalime yağsın nur.
43.Böyle zatları veren halkıma tazim edeyim,
44. Gururuma ortak kim olsa, bin teşekkür. (1973)

QASOSKOR HAQIDA BALLADA (202)

("Qoraqum " fil'mi uchun yozilgan)

1. *Sahro otashida qovrilar gullar,*
2. *Charx urar boshida mahzun bulbullar,*
3. *Gulshanga qahringiz sochmang, ey, cho'llar,*
4. *Sizning o'zingizni yondirar qasos.*
5. *Qon yig'lar yarali ohu bolasi,*
6. *Falakka chirmashar g'amgin volasi.*
7. *Haqqa yetganida uning nolasi,*
8. *Sayyodni qoniga qondirar qasos.*
9. *Shamshirga qo'ling cho'z, titrama, ey, jon,*
10.*Raqiblar ustiga ot sol beomon.*
11.*Nomusu or uchun jangga kir, o'g'lon,*
12.*Tog'larni o'zidan tondirar qasos.*
13.*Qo'lida g'amgin soz - kuylaydi baxshi,*
14.*Hasratga to'lmasin bu ellar dashti.*
15.*Adolat yo'lida kimki adashdi,*
16.*Soylarni qon bilan to'ldirar qasos.*
17.*Qismati xoru zor o'tdi bobolar,*
18.*Ajal shamshirini tutdi bobolar.*
19.*Bir-birin qonini to'kdi bobolar,*
20.*Muhabbat gullarin so'ldirar qasos.*
21.*Bu mungli qissaga shuldir intiho,*
22.*Qasos deb olamni bosmasin balo.*
23.*Bo'lsa gar dunyoda adolat, vafo,*

24.*Xayru saxovatga yo‘l berar qasos.*

KAZASKER HAKKINDA BALAT (202)

(“Karakum” filmi için yazılmış)

1. Sahra ateşinde kavrulur güller,
2. Çark çevirir başında mahzun bülbüller,
3. Gülşene kahrınızı saçmayın, ey, ihtiyarlar,
4. Sizin kendinizi yakar intikam.
5. Kan ağlar yaralı ahu yavrusu,
6. Feleğe sarılır gamlı viyolası.
7. Hakk’a ulaştığında onun nalesi,
8. Avcının kanına girer intikam.
9. Kılıca elini uzat, titreme, ey, can,
10. Rakiplerin üstüne ateş sal amansız.
11. Namus ve ar için savaşa gir, oğlan,
12. Dağları kendisinden reddettirir intikam.
13. Elinde gamlı saz, şarkı söyler bahşı,
14. Hasretle dolmasın bu halklar çölü.
15. Adalet yolunda kim ki şaşırdı,
16. Dereleri kanla doldurur intikam.
17. Kaderi fakirlikle geçti atalar,
18. Ecel kılıcını tuttu atalar.
19. Birbirinin kanını döktü atalar,
20. Muhabbet güllerini soldurur intikam.
21. Bu mahzun kıssaya budur intiha,
22.İntikam deyip âlemi basmasın bela.
23. Olsa eğer dünyada adalet, vefa,
24. Hayır ve cömertliğe yol verir intikam (1973)

TURMUSH TASHVISHLARI (203)

(Hazil)

1. *Turmush tashvishlari,*
2. *Turmush tashvishlari,*
3. *Biz sendan balandroq tura olsaydik,*
4. *Biz sendan balaqdroq yura olsaydik,*
5. *Balki o‘ng‘ayardi dunyo ishlari,*
6. *Turmush tashvishlari,*
7. *Turmush tashvishlari.*

8. *Xotin ish buyurar,*
9. *Bola yig‘laydi,*
10.*Bog‘cha deb qaygadir yugurmoq darkor.*
11.*Balki shu tashvishlar bo‘lmasa edi,*
12.*Shoir bo‘larmidim ancha ulug‘vor.*
13.*Turmush tashvishlari,*
14.*Turmush tashvishlari.*

15.*Qassob og‘aynim bor -*
16.*Qaroqchi - “pirat.”*
17.*Suyakni qo‘shmasa ko‘ngli to‘lmaydi.*
18.*Axir, qofiyani yeb bo‘lmas “brat.”*
19.*Nahot sen bo‘lmasang turmush bo‘lmaydi,*
20.*Turmush tashvishlari,*
21.*Turmush tashvishlari.*

22.*Ulug‘ rejalar bor menda ham axir,*
23.*Xususan, bir ishni bitkazmoq darkor.*
24.*Unda qahramonim yovqur fazogir.*
25.*Koshkiydi, sen shuni bilsang, nobakor*
26.*Turmush tashvishlari,*
27.*Turmush tashvishlari.*

28.*Shirindir shu hayot,*

29.*Xoli firoqdan.*

30.*Mayli, bitmasin hech uning ishlari,*

31.*Havolab ketsak goh*

32.*Tortsin oyoqdan,*

33.*Turmush tashvishlari,*

34.*Turmush tashvishlari.*

HAYAT TELAŞELERİ (203)

(Gülmece)

1. Hayat telaşeleri,

2. Hayat telaşeleri,

3. Biz senden daha güçlü durabilseydik,

4. Biz senden daha güçlü yürüyebilseydik,

5. Belki kolaylaşırdı dünya işleri,

6. Hayat telaşeleri,

7. Hayat telaşeleri.

8. Kadın iş buyurur,

9. Çocuk ağlar,

10. Bahçe diye bir yere koşmak lazım.

11. Belki bu telaşeler olmasaydı,

12.Şair olur muydum nice ulu.

13. Hayat telaşeleri,

14. Hayat telaşeleri.

15. Kasap ahbabım var,

16. Baskıncı “pirat.”

17. Kemiği katmasa gölü razı olmaz.

18. Artık, kafiyeyi bitirmek olmaz “brat.”

19. Sen olmasan hayat olmaz mı,
20. Hayat telaşeleri,
21. Hayat telaşeleri.

22.Büyük planlar var bende de nihayet,
23. Bilhassa, bir işi bitirmek lazım.
24.O hâlde kahramanım cesur uzaylı.
25. Keşke, sen bunu bilseydin, rezil
26. Hayat telaşeleri,
27. Hayat telaşeleri.

28.Şirindir bu hayat,
29. Boş firaktan.
30. Neyse, bitmesin hiç onun işleri,
31. Havalanıp gitsek bazen
32.Çeksin ayaktan,
33. Hayat telaşeleri,
34. Hayat telaşeleri. (1973)

MUZAFFAR O‘LKA (204)

Ozod V’etnamga

1. *Necha yil bu zamin o‘t ichra qoldi,*
2. *Necha yil burqsidi bu yurt samosi.*
3. *Necha yil dillarni larzaga soldi*
4. *Mo‘’jaz bu o‘lkaning faryod sadosi.*

5. *Garchi tug‘ilmadim u yerda, lekin*
6. *Uning iqbolidan dil uyim obod:*
7. *Chunki, g‘olib keldi olamda tag‘in*
8. *Qirg‘in urushlardan horgan odamzod.*

MUZAFFER ÜLKE (204)

Azat Vietnam'a

1. Nice yıl bu zemin ateş içinde kaldı,
2. Nice yıl genişledi bu yurt seması.
3. Nice yıl gönülleri titretti
4. Şaşırtıcı bu ülkenin feryat sedası.

5. Gerçi doğmadım orada, lakin
6. Onun ikbalinden gönül evim abat:
7. Çünkü galip geldi âlemde yine
8. Kırım savaşlarından yorgun insanoğlu. (1973)

TANISHLAR (205)

(Hazil)

1. *Shoirlarning azal tanishlari ko'p,*
2. *Ular o'tgandan so'ng yana ko'payar.*
3. *Har xil shaharlarda yashashar to'p-to'p,*
4. *Ba'zan gap yig'ishar, bazan gap yoyar.*

5. *Balki birga ichgan bir piyola choy,*
6. *Hamsuhbat bo'lgandir zamona talab.*
7. *Gar shunday bo'ldimi, ahvolingga voy,*
8. *Tiriklay ustingga tashlar gap qalab.*

9. *Boshga tushganda-chi, nogahon savdo,*
10. *Ularning birovin qani, topib ko'r.*
11. *Shoir, bundaylarga qilmagin parvo,*
12. *Tanishsiz qolsang ham shoir bo'lib yur.*

TANIDIKLAR (205)

(Gülmece)

1. Şairlerin eskiden tanıdıkları çok,
2. Onlar geçtikten sonra yine çoğalır.
3. Her bir şehirde yaşarlar yığın yığın,
4. Bazen söz toplarlar, bazen söz yayar.

5. Belki birlikte içtikleri bir fincan çay,
6. Muhatap olmuştur zamane talip.
7. Eğer böyle oldu mu, hâline vah,
8. Canlı üstüne atar söz biriktirip.

9. Başa düştüğünde ansızın iş,
10. Onların birini haydi, bulup gör.
11. Şair, böylelere etme perva,
12. Tanıdıksız kalsan da şair ol. (1973)

NIYAT (206)

1. *Umrim kitobidan bir varaq o‘tdi,*
2. *Bir sahfa shodligu bir sahfa zahmat.*
3. *Kimdir do‘stim deya qo‘lini tutdi,*
4. *Kimningdir dastida sangi malomat.*

5. *Hayot degani shu, qalbning tubida*
6. *Qolg‘usi shodlik ham, qayg‘u ham qator.*
7. *Va lekin umrimni avval-so‘ngida*
8. *Vatansiz tasavvur etmog‘im dushvor.*

9. *Sokinu ulug‘vor bong urar soat,*
10. *O‘ylarim charog‘in yana yoqurman.*

11.*Yangi yil daricha qoqqan bu fursat*
12.*O‘lkam kamoliga xushnud boqurman.*

13.*Bormi undan bo‘lak menta hech shodlik,*
14.*Bormi undan o‘zga tole va a’mol?*
15.*Orzum ne, ne baxtga bo‘loldim molik?*
16.*Undan ayri baxtni etdimmi xayol?*

17.*Dunyo bepoyondir, turfadir Inson,*
18.*Yulduzlar misoli beadad qismat.*
19.*Lekin baxtga oshyon bo‘lsin bu jahon,*
20.*Insonga osoyish yor bo‘lsin faqat.*

21.*Soatning intiho bongi ham tindi,*
22.*Qoldi yana bir yil orqada ko‘rkam.*
23.*Qani, qo‘llaringni uzatgil endi,*
24.*Sevikli diyorim, navqiron o‘lkam!*

NİYET (206)

1. Ömrümün kitabından bir sayfa geçti,
2. Bir sayfa neşe ve bir sayfa zahmet.
3. Kim dostum diye elini tuttu,
4. Kimin elinde malumat taşı.

5. Hayat dediği şu, kalbinin dibinde
6. Kalacak mutluluk da kaygı da sıra sıra.
7. Velakin ömrümü öncesi, sonunda
8. Vatansız tasavvur etmem zor.

9. Sakin ve ulu çan çalar saat,
10.Düşüncelerimin ışığını yine yakarım.
11. Yeni yıl pencere çaldığı bu vakit

12.Ülkemin kemaline hoşnut bakarım.

13. Var mı ondan başka bana hiç mutluluk,
14. Var mı ondan başka talih ve uğraş?
15. Arzum ne, ne bahta olabildim malik?
16. Ondan ayrı bahtı ettim mi hayal?

17.Dünya sonsuzdur, ilginçtir İnsan,
18.Yıldızlar misali sayısız kısmet.
19. Lakin bahta aşiyan olsun bu cihan,
20.İnsana huzur yâr olsun sadece.

21. Saatin son çanı da durdu,
22. Kaldı yine bir yıl arkada görkemli.
23. Haydi, ellerini uzat şimdi,
24. Sevgili diyarım, yiğit ülkem! (1973)

UMR (207)

(Xorijdagi she'r)

1. *Qalbimda goh g'urur, gohida farah,*
2. *Shu uchqur dunyoni turfa ko'ribman.*
3. *Yurtma-yurt, elma-el, farsah-bafarsah*
4. *Umrim dovonlarin o'lchab yuribman.*

5. *Umr-ku o'tadi gulduros solib,*
6. *Uning qaytganini kim ham ko'ribdi?*
7. *Vo ajab, qay bir zot, o'z umri qolib,*
8. *Mening qadamimni o'lchab yuribdi...*

ÖMÜR (207)

(Müstakil şiir)

1. Kalbimde bazen gurur, bazen sevinç,
2. Bu hızlı dünyayı başka görmüşüm.
3. Yurt yurt, il il, fersah fersah
4. Ömrüm yollarını ölçüp yürümüşüm.

5. Ömür ki geçer gürültü yayıp,
6. Onun geri döndüğünü de kim görmüş?
7. Gerçekten, hangi bir zat, kendi ömrü kalıp,
8. Benim adımımı ölçüp yürümüş… (1973)

MEN ANGLAB YETGAN FALSAFA (208)

1. *Bozorga o‘xshaydi asli bu dunyo,*
2. *Bozorga o‘xshaydi bunda ham ma’ni.*
3. *Ikkisi ichra ham ko‘rmadim aslo,*
4. *Molim yomon degan biror kimsani.*

BENİM ANLADIĞIM FELSEFE (208)

1. Pazara benzer asıl bu dünya,
2. Pazara benzer bunda da mana.
3. İkisi içinde de görmedim asla,
4. Malum kötü denen bir kimseyi. (1973)

ONAMNI ESLAB (209)

1. *Shamol uvillaydi,*
2. *Qor, bo‘ron toshib,*
3. *Tepalik to‘shiga o‘zni uradi.*
4. *U yerda tuproqqa bag‘rini bosib*
5. *Tanho bir sag‘ana ma’yus turadi.*

6. *Qoshiga chiqay deb bo‘zlab yo‘l yurdim,*

7. *Ko‘kragimni tildi izg‘irin, tikan.*

8. *...Netay, onajonim, qancha odam ko‘rdim,*

9. *Sendan yaqin kishim yo‘q ekan...*

ANAMI HATIRLAYIP (209)

1. Rüzgâr uğuldar,

2. Kar, fırtına artıp,

3. Tepeliğin bağrına kendini vurur.

4. O yerde toprağa bağrını basıp

5. Yalnız bir türbe meyus durur.

6. Önüne çıkayım diye sızlanıp yol yürüdüm,

7. Göğsümü yardı soğuk, diken.

8. …Ne yapayım, anacığım, kaç insan gördüm,

9. Senden yakın kimsem yok imiş… (1973)

OYBEK NOMLI XO‘JALIKDA (210)

1. *Ikki daryo tutashmish bunda,*

2. *Biri Chirchiq va birisi Sir.*

3. *Shu’la o‘ynab kumush to‘lqinda,*

4. *Xayolingni aylagay asir.*

5. *Ikki daryo tutashmish ajab,*

6. *Biri nazm, biri nasri pok.*

7. *Biri zamin - tabarruk matlab,*

8. *Birida bor shu’lai aflok.*

9. *Termulaman bu xush chiroyga,*

10.*Xo‘p zukkosiz, odamlar, mudom.*

11.*Ikki daryo tutashgan joyga*

12.*Oybek deya qo‘yibsizlar nom.*

AYBEK ADLI HOCAZADE (210)

1. İki derya bağlanmış böyle,

2. Biri Çirçik ve birisi Sir.

3. Şule oynayıp gümüş dalgada,
4. Hayalini eylesin esir.
5. İki derya tutuşmuş garip,
6. Biri nazım, biri nesr-i pak.
7. Biri zemin, aziz gaye,
8. Birinde var şule-i eflak.
9. Gözümü dikerim bu hoş güzelliğe,
10. Pek akılsız, insanlar, her zaman.
11.İki deryanın bağlandığı yere
12. Aybek diye koymuşsunuz ad. (1973)

BAHOR NASHIDASI (211)

1. *Yashillandi oppoq tog‘lar purviqor,*
2. *Adirlarda chopar guvlab bo‘z anhor.*
3. *Bosh ko‘tardi nimdosh maysa, gul-chechak,*
4. *Suluvlarning sochlarida tol bargak.*
5. *Atir hidi anqir iliq havoda,*
6. *Bahor kezar cho‘l, adirda, sahroda.*
7. *Tongdan to shom chaman ichra sarsari,*
8. *Guldan gulga qo‘nib uchar bolari.*
9. *Moviy ko‘kda qushlar qoqar sho‘x qanot,*
10.*Bosh ko‘tardi jami jonzod, mavjudot.*
11.*Qo‘hna tuproq g‘uncha kabi ochib lab,*
12.*Olayotir navbahorni qarshilab.*
13.*Bahor avval kirib kelgay yurakka,*
14.*Chulg‘ar dilni turfa orzu tilakka.*
15.*Gar insonga yordir tole, saodat,*
16.*Bahor bergay tengsiz shodlik, farog‘at.*
17.*Oshiq magar ishqda esa baxtiyor,*
18.*Muhabbatdir bahordagi ilk shior.*
19.*Bahordir bu - sirli olam san’ati,*
20.*Tabiatning jajji, rangdor suvrati.*
21.*Bahordir bu - suluvlarning ol yuzi,*
22.*Bahordir bu - go‘daklarning ilk so‘zi.*
23.*Olqish bo‘lsin qadami sho‘x ko‘klamga,*

24. *“Xush kelibsan, deymiz, bahor, o‘lkamga!”*

25. *Yurtim azal bahor ila dilkashdir,*

26. *Ona tuproq navbahorga peshkashdir.*

27. *Jarang solsin go‘daklarning kulgusi,*

28. *Bor bo‘l ko‘klam, bor bo‘l o‘lkam, kelgusi!*

BAHAR ŞARKISI (211)

1. Yeşillendi bembeyaz dağlar mağrur,

2. Yamaçlarda koşar uğuldayıp boz nehir.

3. Baş kaldırdı solmuş yeşillik, gül, çiçek,

4. Güzellerin saçlarında söğüt, kuru kayısı.

5. Hoş kokar ılık havada,

6. Bahar gezer bozkırda, yamaçta, sahrada.

7. Şafaktan ta akşam çayırda serseri,

8. Çiçekten çiçeğe konup bal arısı.

9. Mavi gökte kuşlar çırpar neşeli kanat,

10. Baş kaldırır bütün mahlukat, mevcudat.

11. Köhne toprak gonca gibi açıp dudak,

12. Alır nevbaharı karşılayıp.

13. Bahar evvel girip gelsin yüreğe,

14. Kaplar gönlünü garip arzu dilekle.

15. Eğer insana yâr ise talih, saadet,

16. Bahar versin eşsiz mutluluk, huzur.

17. Âşık meğer aşkta ise bahtiyar,

18. Muhabbettir bahardaki ilk şiar.

19. Bahardır, bu sırlı âlem sanatı,

20. Tabiatın minik, renkli sureti.

21. Bahardır bu, güzellerin al yüzü,

22. Bahardır bu, bebeklerin ilk sözü.

23. Alkış olsun adımı şen ilkbahara,

24. “Hoş gelmişsin, deriz, bahar, ülkeme!”

25. Yurdum ezelden baharla samimidir,

26. Ana toprak nevbahara hediyedir.

27. Çınlasın bebeklerin gülüşü,

28. Var ol ilkbahar, var ol ülkem, gelişi! (1973)

GLOBUS (212)

(Bolalar uchun)

1. *Globusni bobolar*
2. *Kurrai arz, debdilar.*
3. *Yashagan sayyorangni*
4. *Bilmoqlik farz, debdilar.*
5. *Stolimning ustida*
6. *Globus turar har choq,*
7. *Ukam Abdurayimning*
8. *Boshi kabi yumaloq.*
9. *Uzun-uzun daryolar*
10.*Yotishibdi uzalib,*
11.*Singlim Ozoda chizgan*
12.*Chiziq kabi chuvalib.*
13.*Shahar yoki qishloqdir*
14.*Manov kichik nuqtalar,*
15.*Chinor barglari kabi*
16.*Parcha-parcha qit'alar.*
17.*Yashil matoga o'xshash*
18.*Manov joylar dengizdir.*
19.*Sizga aytsam, aslida*
20.*Dengiz ulkan, tengsizdir.*
21.*Bir gapni bildim, ammo*
22.*Aytmasa ham dadamlar,*
23.*Yerda yashar juda ko'p,*
24.*Turli-tuman odamlar,*
25.*Mana bu joy Afrika,*
26.*Aniqrog'i Zanjibar.*
27.*Zanjibarda badani*
28.*Qora tusli zanji bor.*
29.*Lyuksemburgdir manov joy,*
30.*Kongo esa bundadir,*

31.*Bu-chi, hammaga tanish*

32.*Qahramon yurt - Kubadir.*

33.*O‘zimcha fikr qildim*

34.*Tajribasiz kallamda:*

35.*Eh-he, qancha el-elat*

36.*Yashar ekan olamda.*

37.*Televizorda ko‘rganman*

38.*Necha-necha martalar.*

39.*Kichik kichikka o‘xshar,*

40.*Kattalarga kattalar.*

41.*Boqsam, u ham erkatoy,*

42.*Boshqalarga o‘xshaydi,*

43.*Hayronman, u bolani,*

44.*Odammas, deb kim aytdi?*

45.*Qaysi kun quvnoq mongol*

46.*Issiq tortdi ko‘zimga,*

47.*Bundoq o‘ylab qarasam,*

48.*O‘xshar ekan o‘zimga.*

49.*Shunday ekan, odamni*

50.*Xillamoq nechun kerak?*

51.*Menimcha, hammada ham*

52.*Bir kallayu, bir yurak.*

53.*O‘ylamang, bu gaplarni*

54.*Allaqaydan to‘qidim.*

55.*Hammasini mana shu*

56.*Globusdan o‘qidim.*

YERKÜRE (212)

(Çocuklar için)

1. Yerküreye atalar

2. Küre-i arz, demişler.

3. Yaşadığı gezegeni

4. Bilmek farz, demişler.

5. Masamın üstünde
6. Yerküre durur her an,
7. Kardeşim Abdureyim'in
8. Başı gibi yuvarlak.
9. Uzun uzun deryalar
10. Yatmış uzanıp,
11. Kardeşim Azade çizmiş
12.Çizik gibi yazıp.
13.Şehir yahut köydür
14.İşte şu küçük noktalar,
15.Çınar yaprakları gibi
16. Parça parça kıtalar
17. Yeşil kumaşa benzer
18.İşte şu yerler denizdir.
19. Size söylesem, aslında
20. Deniz engin, eşsizdir.
21. Bir sözü anladım, ama
22.Söylemese de babamlar,
23. Toprakta yaşar çok fazla,
24.Türlü türlü insanlar,
25.İşte bu yer Afrika,
26. Daha doğrusu Zanzibar.
27. Zanzibarda teni
28. Kara renkli zenci var.
29.Lüksemburg'dur işte şu yer,
30. Kongo ise böyledir,
31. Bu, hepsine tanıdık
32. Kahraman yurt Kübadır.
33. Kendimce kanaat getirdim
34. Tecrübesiz kafamda:
35. Eh, nice halk ulus
36. Yaşar imiş âlemde.
37. Televizyonda görmüşüm
38. Pek çok kez.
39.Küçük küçüğe benzer.
40.Büyüklere büyükler.

41. Baksam, o da şımarık,
42. Başkalarına benzer,
43.Şaşkınım, o çocuğa,
44.İnsan değil diye kim söyler?
45. Hangi gün neşeli Moğol
46.Sıcak geldi gözüme,
47.Böyle düşünüp baksam,
48. Benzermiş kendime.
49.Böyle imiş, insanı
50.Bölmek, niçin gerek?
51. Benim gibi herkeste de
52. Bir kafa ve bir yürek.
53.Düşünmeyin, bu sözleri
54. Bir şey uydurdum.
55. Hepsini de işte bu
56. Yerküreden okudum. (1974)

YOSHLIK (213)

1. *Elliginchi yillarning tonglari yodimdadir,*
2. *Erigan novvot kabi subhidam shirin uyqu.*
3. *Faqatgina ezgulik, ishonch bisotimdadir,*
4. *Xayollarim beg‘ubor, yag‘ir bo‘lmagan tuyg‘u.*

5. *U mahallar cho‘llarda armondan bo‘lak ne bor,*
6. *Bechora chorvadorga qaydadir rangin jahon.*
7. *Bir qalamkash ustozim aytgani kabi nochor -*
8. *Sahroyi yigitlarda qaydan bo‘lsin hayajon...*

9. *Lekin inoq edim men aslim - tabiat bilan,*
10.*Bepoyon xilqat bilan tunlar bo‘yi suhbatdosh.*
11.*Ko‘chat ham o‘tkazardim ko‘p yaxshi niyat bilan,*
12.*Bilsam-da jaziraga bera bilmasin bardosh.*

13.*Nazarimda u chog‘lar butun olam pok, toza,*
14.*Kamalak orzu esa, oftobdir ko‘z qarog‘im.*
15.*Esimdadir, o‘zda yo‘q quvongan edim rosa,*
16.*“Alifbo”ni qo‘ltiqlab, maktabga borgan chog‘im.*

17.*Do‘ppimni yerga olib, endi o‘ylab qarasam,*
18.*Yoshlik degani asli poklik ekan, beg‘ubor.*
19.*Doimo xayol ezgu, doimo ezgu qasam,*
20.*O‘rtada burda nonu qanoat topgan qaror.*

21.*Undan bu yog‘i esa demak ochilgan g‘uncha,*
22.*Turfa shamollar bilan dolg‘alangan bir hayot.*
23.*Tashvishsiz umrning ham qizig‘i yo‘qdir uncha,*
24.*Xayollar tingan bilan tinmagay hech girdibod.*

25.*Oh, ajib gulshanda ham bo‘lmasa deysan tikan,*
26.*Odam-ku bu - odamzod, betimsol, buyuk, kabir.*
27.*Lekin odam ichra ham olasi uchrar ekan,*
28.*Hayrat bilan boqmoqdan o‘zga chorang yo‘q taqir.*

29.*Orzuyu armonimni she’riy yo‘lda qaytadan*
30.*So‘zlab turibman balki yoshlik bahona bo‘lib.*
31.*Muqaddas zamin haqqi yoqa tutib aytaman,*
32.*Qaniydi kuylayversang hamisha baxtni to‘lib.*

33.*Shu mo‘’jaz hayotimda ko‘rdim qancha lo‘ttiboz,*
34.*Ko‘rdim goho she’rfurush, goho sur, mansabfurush.*
35.*Zarra bir maqtov desang tomdan tashlanar shovvoz,*
36.*Lekin ishdan gap ochsang bera bilmaydi turish.*

37.*Yaxshi ham bundaylarning dasti qisqa zamonda,*
38.*Yo‘q esa ko‘rsatmasin bularning amalini.*

39.*O‘z haykalin qo‘yardi uchragan har maydonda,*
40.*Ag‘darib tashlab hatto Navoiy haykalini.*

41.*Gang chaqqanday garangsib, noxush bir tuyg‘u bilan,*
42.*Turgan edim, lol, hayron katta yo‘l yoqasida.*
43.*O‘tib qoldi bir guruh otashin qutqu bilan,*
44.*Yiroq kelajak uchun aytganicha qasida.*

45.*Yetmishinchi yillarda qari bir o‘smir bo‘lib,*
46.*Qo‘ltiqda “Dante” bilan uning ortidan chopdim.*
47.*Qitmir yo‘ldoshlarimning fe’lidan rosa to‘yib,*
48.*Ukam qatorilaridan samimiyatni topdim.*

49.*Oddiy she’rki, pok bo‘lsa qadri oshar jahonda,*
50.*Betimsol avlod uchun bo‘larmikin topib so‘z.*
51.*Ey mening yoshlik do‘stim, yasha deyman omonda,*
52.*Qo‘ldoshimsan qalbi sof, yo‘ldoshimsan yorug‘ yuz.*

53.*Odamzod - odamga xos neki bo‘lsa dunyoda,*
54.*Sening ham qalbing aro joy topgani aniq gap.*
55.*Xislating mo‘l va lekin hammasidan ziyoda,*
56.*Sen pokiza yoshliksan, beg‘uboru toza qalb.*

GENÇLİK (213)

1. Ellinci yılların şafakları yâdımdadır,
2. Eriyen şeker gibi sabahleyin şirin uyku.
3. Yalnız iyilik, inanç zenginliğimdir,
4. Hayallerim tertemiz, yaralanmamış duygu.

5. O zamanlar ihtiyarlarda ukdeden başka ne var,
6. Zavallı çiftçiye neredeydir renkli cihan?
7. Bir şair üstadımın dediği gibi çaresiz

8. Bozkırdaki yiğitlerde nasıl olsun heyecan?

9. Ama samimiydim ben aslım tabiatla,
10. Sonsuz hilkatle geceler boyu sohbettaş.
11. Fidan da diktim çok iyi niyetle,
12. Bilsem de çok sıcağa veremesin sabır.

13. Nazarımda o zamanlar bütün âlem saf, temiz,
14.Gökkuşağı arzu ise, güneştir göz bebeğim.
15. Hatırımdadır, özde olmadığına sevinmiştim tam,
16."Alfabe"yi koltuk altında tutup, mektebe gittiğim an.

17.Döppimi yere bırakıp, şimdi düşünsem,
18. Gençlik dedikleri aslı saflıkmış, billur.
19. Daima hayal iyi, daima iyi yemin,
20. Ortada parça ekmek ve kanaat etmiş karar.

21. Ondan bu yağı ise demek açılmış gonca,
22. Garip rüzgârlarla dalgalanan bir hayat.
23. Kaygısız ömrünün de ilginçliği yoktur o kadar,
24. Hayallerin bitmesiyle bitmesin hiç fırtına.

25. Ah, garip gülşende de olmasa dersin diken,
26.İnsan ki bu, insanoğlu, timsalsiz, büyük, yüce.
27. Ama insan içinde de alası olur imiş,
28. Hayretle bakmaktan başka çaren yok zinhar.

29. Arzu ve ukdemi şiirsel yolda yeniden
30. Konuşup durmuşum belki gençlik bahane olup.
31. Mukaddes zemin hakkı yaka tutup söylerim,
32. Haydi övüversen daima bahtını dolup.

33. Bu mucizevi hayatımda kaç düzenbaz,
34.Gördüm gâh şair, gâh küstah, gâh makam sahibi.
35. Zerre bir övgü desen damdan atılır kurnaz.
36. Ama işten söz açsan edemez sabır.

37.İyi de böylelerinin eli kısa zamanda,
38. Yoksa göstermesin bunların emelini.
39. Kendi heykelini dikerdi rastladığı her meydanda,
40. Devirerek atıp hatta Nevâî heykelini.

41. Sersemlemiş şaşırıp, nahoş bir duyguyla,
42. Durmuş idim, lal, şaşkın büyük yol yakasında.
43. Geçti bir grup ateşin körüklemesiyle,
44. Uzak gelecek için söylediği gibi kaside.

45. Yetmişinci yıllarda ihtiyar bir delikanlı olup,
46. Koltukta "Dante" ile onun ardından koştum.
47. Sinsi yoldaşlarımın huyundan hayli bıkıp,
48. Kardeşim saflarından samimiyeti buldum.

49.Sıradan şiir ki saf olsa kadri aşar cihanda,
50. Timsalsiz evlat için olur mu ki bulup söz.
51. Ey benim gençlik dostum, yaşa derim sıhhatli,
52. Yardımcımsın kalbi saf, yoldaşımsın parlak yüz.

53.İnsanoğlu, insana has ne olsa dünyada,
54. Senin de kalbinin içinde yer bulduğu doğru söz.
55. Hasletin bol velakin hepsinden ziyade,
56. Sen saf gençliksin, pak ve temiz kalp. (1974)

HAMZA MONOLOGI (214)

1. *Meni o'ldirdilar Shohimardonda,*

2. *Yurtimning qonini tekin so‘rganlar.*

3. *Meni o‘ldirdilar ota makonda,*

4. *O‘zimning tilimda so‘ylab yurganlar.*

5. *Ular kimlar edi? To‘rvadan bo‘lak*

6. *Ilinji bo‘lmagan gadoy xurofot.*

7. *Ular kimlar edi? Vatanni lak-lak*

8. *Aqchaga sotmoqchi bo‘lgan musovot.*

9. *Fahmini yeb bo‘lgan qay bir nogiron*

10.*Demish-ki, ko‘r bo‘lsin butkul bu dunyo.*

11.*Yangi yo‘lga kirsa kattakon jahon,*

12.*Men uni tanisam aybimmidi yo?*

13.*Urush qilay desang olloh na hojat,*

14.*Topilar jahonda bahona bisyor.*

15.*Sarmoyang ushbu kun bo‘lganda g‘orat,*

16.*Shoirga toshingni otdingmi, g‘addor!*

17.*Qaradim dunyoning ichu toshiga,*

18.*Sultonlar xohishi sultonday qolmoq,*

19.*Yo‘q esa shartmidi yurtning boshiga*

20.*Behuda qironni keltirib solmoq.*

21.*Buyuk Alisherni yurgan unutmay -*

22.*Elning shoni qani? Qani zakosi?*

23.*Vallohi a’zamdan nariga o‘tmay*

24.*Qancha yigitlarning so‘ndi dahosi.*

25.*Ulug‘bek samoga intilganda tik,*

26.*Elning shuuriga chulg‘ab bir ro‘yo -*

27.*Ho‘kizning shoxida xira pashshadek*

28.*Ming‘irlagan sen-ku, xurofiy dunyo.*

29.*Burning qani desa qulog‘in tutgan,*

30.*Xonni xoqon degan bechora to‘ra,*

31.*Kattakon dunyoni ayon eshitgan*

32.*Elni boshlarmidi oldinga sira.*

33.*Faylasuf emasman, askardirman chin,*

34.*Shoirman - g‘azalxon ahli turganda.*

35.*Yiroq ufqlarni o‘ylardim lekin*

36.*O‘zimcha she’rimni kuylab yurganda.*

37.*Ey battol g‘animim, anglab ol ro‘y-rost,*

38.*Senga ayon etsam dilda niyatni,*

39.*Umrimni yashadim kurashchiga xos,*

40.*Kurash bilan topdim abadiyatni.*

HAMZA MONOLOGU (214)

1. Beni öldürdüler Şahımerdan'da,

2. Yurdumun kanını bedava emmişler.

3. Beni öldürdüler ata mekânda,

4. Ana dilimde konuşanlar.

5. Onlar kimlerdi? Torbadan bir parça

6. Umudu olmamış muhtaç hurafe.

7. Onlar kimler idi? Vatanı yüz binlerce

8. Akçeye satacak olmuş müsavat.

9. Fehimini yiyen hangi bir sakat

10. Demiş ki, kör olsun büsbütün bu dünya.

11. Yeni yola girse heybetli cihan,

12. Ben onu tanısam suçum muydu ya?

13. Savaşayım desen Allah ne hacet,

14. Bulunur cihanda bahane bolca.

15. Sermayen bugün ettiğinde iflas,

16.Şaire taşını attın mı gaddar!

17. Baktım dünyanın iç ve dışına,

18. Sultanların isteği sultan gibi kalmak,

19. Yoksa şart mıydı yurdunun başına

20. Beyhude kıyımı getirip salmak.

21.Büyük Ali Şîr'i yürümüş unutmadan

22. Halkının şanı hani? Hani zekâsı?

23. Vallahi büyükten öteye gitmeden

24. Nice yiğitlerin söndü dehası.

25. Uluğbek semaya çabaladığında dosdoğru,

26. Halkın şuurunu kuşatıp bir rüya

27.Öküzün boynuzunda küçük sinek gibi

28. Homurdanan sen ki, hurafî dünya.

29. Burnun hani dese kulağını tutmuş

30. Hana kağan demiş zavallı asilzade,

31. Heybetli dünyayı net işitmiş
32. Halkı başlar mıydı ileriye asla.
33. Filozof değilim, askerim doğru,
34.Şairim, gazelhan ehli durduğunda.
35. Uzak ufukları düşünürdüm ama
36. Kendimce şiirimi okuyup yürüdüğümde.
37. Ey gaddar düşmanım, anla açıkça,
38. Sana ayan etsem gönülde niyetini,
39.Ömrümü yaşadım savaşçıya has,
40. Savaşla buldum ebediyetini. (1974)

IRODA (215)

1. *Oshga yetganida yigitning dasti,*
2. *Toshlarga tegmasin boshi hech qachon.*
3. *Sen inson tayanchi, sen bashar baxti,*
4. *Ey buyuk iroda, to‘zim bilmas jon.*

5. *Farzandin qabrida ona jigarxun,*
6. *Uning faryodidan dunyo g‘amxona.*
7. *Bu g‘amdan tog‘lar ham lol qotmish butun*
8. *Va lekin oyoqda tik turdi ona.*

9. *Qirq yil zahmat chekdi qay bir zakiy zot*
10.*Bir kun etmoq uchun fikrin ifoda.*
11.*Uning butkul umri ketardi barbod*
12.*Agar sen bo‘lmasang, sobit iroda.*

13.*Sen borsan - toptalib ketmas zakovat,*
14.*Sen borsan - odamzot yetgay sharafga,*
15.*Yo‘q esa qalbida tog‘day matonat*
16.*Yashashdan ne ma’no edi Mashrabga.*

17.*Achchiq ko‘z yosh bo‘lib oqdi u ba’zan*
18.*Muhabbat o‘tiga duch kelgani on.*
19.*Lekin iroda bu - yondi qaytadan,*
20.*O‘tli qo‘shiqlarga aylandi hijron.*

21.*Ne bir buyuk zotlar bosh egdi nochor*
22.*Tomug‘dan yo‘l topmay nurli hayotga.*
23.*Lekin iroda bu, yengoldi takror*
24.*Tayanch bo‘lganida Boburday zotga.*

25.*Nelarni ko‘rmagan insonning boshi,*
26.*Necha bor qovrilib, tirilgan jahon.*
27.*Bariga yetarkan sabru bardoshi,*
28.*Demak, irodadan yaralgan inson.*

İRADE (215)

1. Yemeğe ulaştığında yiğidin eli,
2. Taşlara değmesin başı hiçbir zaman.
3. Sen insan dayanağı, sen beşer bahtı,
4. Ey büyük irade, sabır bilmez can.

5. Çocuğun kabrinde ana mazlum,
6. Onun feryadından dünya gamhane.
7. Bu gamdan dağlar da lal olmuş bugün
8. Velakin ayakta dik durdu ana.

9. Kırk yıl zahmet çekti hangi bir zeki zat
10. Bir gün etmek için fikrini ifade.
11. Onun bütün ömrü geçerdi berbat
12.Eğer sen olmasan, sabit irade.

13. Sen varsın ezip gitmez zeyrek,

14. Sen varsın insanoğlu erişecek şerefe,
15. Yoksa kalbinde dağ gibi metanet
16. Yaşamaktan ne mana idi Meşrep'e.

17. Acı gözyaşı olup aktı o bazen
18. Muhabbet ateşine rastladığı an.
19. Ama irade bu, yandı yeniden,
20. Ateşli koşuklara dönüştü hicran.

21. Ne bir büyük zatlar baş eğdi güçsüz
22. Cehennemden yol bulmadan nurlu hayata.
23. Ama irade bu, yenildi tekrar
24. Destek olduğunda Babür gibi zata.

25. Neleri görmemiş insanın başı,
26. Kaç kez kavrulup, dirilmiş cihan.
27. Hepsine yeterken sabır ve direnci,
28. Demek, iradeden yaratılmış insan. (1974)

MUALLIMLARGA (216)

1. *Nechog' baxtiyorman, ta'zimda shu tob*
2. *Sizning sha'ningizga bitmoqdaman bayt.*
3. *Ne odam bo'lardim, qo'limda kitob*
4. *Biror harf tanimay tursaydim loqayd.*
5. *Siz-ku "Alifbo"dan "Qomus"gacha to*
6. *Bari-barisini tanitgan ustoz.*
7. *Ilk bor Siz ko'rsatgan duraxshon Zuhro*
8. *Bukun she'rim ichra tashbihdir mumtoz.*
9. *Siz mo''jaz yurakda yoqolgan yog'du*
10.*Oqibat quyoshdek socha olur nur.*
11.*Buyuklar haqqiga qasamyod gap bu;*
12.*Sizdan boshlanadi asli Tafakkur.*
13.*Olamda ko'p erur muborak onlar,*

14.*Tabarruk zotlar ham garchand ko‘p erur.*

15.*Sizgadir ilk rahmat, aziz insonlar,*

16.*Munis muallimlar, Sizga tashakkur.*

MUALLİMLERE (216)

1. Ne kadar bahtiyarım, tazimde şu an

2. Sizin şanınıza yazmaktayım beyit.

3. Ne adam olurdum, elimde kitap

4. Bir harf tanımadan dursaydım lakayıt.

5. Siz ki “Elifba”dan “Kamus”a kadar ta

6. Bütün hepsini tanıtmış üstat.

7. İlk kez Siz’in gösterdiğiniz inci serpen Zühre

8. Bugün şiirimin içinde teşbihtir mümtaz.

9. Siz harikulade yürekte yakılmış yağdı

10. Akıbet güneş gibi saçabilir ışık.

11.Büyükler hakkında büyük yemin sözü bu:

12. Sizden başlanır aslı Tefekkür.

13.Âlemde çoktur mübarek anlar,

14.Mübarek zatlar da gerçi çoktur.

15. Sizedir ilk rahmet, aziz insanlar,

16. Dost muallimler, Siz’e teşekkür. (1974)

CHO‘LI BOBONING NABIRALARIGA DEGANI (217)

1. *Yillar, oylar o‘tsa, Vatan topsa sayqal,*

2. *Bog‘larda ochilsa so‘lmas lolalar.*

3. *Shu joylar cho‘l edi desak bir mahal,*

4. *Ishonarmikansiz, bolalar.*

5. *Moviy ko‘llar uzra suzsa chag‘alay,*

6. *Adirlarda kezsa oqquv galalar,*

7. *Shu joyda hayot yo‘q edi desak, har qalay,*

8. *Ishonarmikansiz, bolalar.*

9. *Bu joylarda o‘tgan hasratli ajdod,*

10.*Tomchi suvga zoru ko‘z yosh jolalar.*

11.*Ularning hasratin shoir etsa yod,*

12.*Ishonarmikansiz, bolalar.*

13.*Men-ku ishonaman, sahrolar gullab,*

14.*Sizning qiy-chuv bilan to‘lgay dalalar.*

15.*O‘shanda, fidoyi otalarni eslab,*

16.*Ta’zim qilarmisiz, bolalar.*

ÇÖL DEDESİNİN TORUNLARINA DEDİĞİ (217)

1. Yıllar, aylar geçse, Vatan olsa güzellik,

2. Bahçelerde açılsa solmaz laleler.

3. Bu yerler çöldü desek bir zaman,

4. İnanır mıymışsınız, çocuklar.

5. Mavi göller üzerinde süzülse martı,

6. Kırlarda gezse kuğu sürüleri,

7. Bu yerde hayat yoktu desek, her nasılsa,

8. İnanır mıymışsınız, çocuklar.

9. Bu yerlerden geçen hasretli ecdat,

10. Damla suya sitem ve gözyaşları.

11. Onların hasretini şair etse yâd,

12.İnanır mıymışsınız, çocuklar.

13. Ben ki inanırım, sahralar çiçeklenip,

14. Sizin gürültüyle dolsun tarlalar.

15. Orada, fedai atalarını hatırlayıp,

16. Tazim eder misiniz, çocuklar. (1974)

SALOMNOMA (218)

1. *Bahor chog‘i chuldiragan irmoqlardan,*
2. *So‘qmoqlardan va zangori o‘tloqlardan,*
3. *Adirlarda kechgan shodon, xush chog‘lardan,*
4. *Salom bo‘lsin saxovatli yil boshiga,*
5. *Salom bo‘lsin yashil ko‘klam naqqoshiga.*

6. *Saratonning quyoshidan bo‘lsin salom,*
7. *Qor so‘ragan tog‘-toshidan bo‘lsin salom,*
8. *Tanti dehqon bardoshidan bo‘lsin salom,*
9. *Salom bo‘lsin oylarning eng ezgusiga,*
10.*Salom bo‘lsin uning oppoq injusiga.*

11.*Yaqin qo‘shni - salom degan kuz chog‘i bu,*
12.*Noz-ne’matga to‘lib turgan quchog‘i bu,*
13.*To‘y chog‘i bu, rejalarning yuz chog‘i bu,*
14.*Salom bo‘lsin to‘yni birga to‘ylashganga,*
15.*Salom bo‘lsin bir devordan bo‘ylashganga.*

16.*Odamlar bor - bir umrlik tolega yor*
17.*Va istaydi do‘stlariga tole bisyor.*
18.*Ezgu yilda ezgu o‘ylar topsin qaror,*
19.*Salom bo‘lsin xush saodat ayyomiga,*
20.*Salom bo‘lsin zafarning ilk payomiga.*

21.*Salomlarning barchasidan shuldir ma’no:*
22.*Bo‘y taratsin olam bo‘ylab yashil ma’vo,*
23.*Gurkurasin, kuchga to‘lgan yurt doimo,*
24.*Salom bo‘lsin o‘n ikki oy sarvariga,*
25.*Salom bo‘lsin yilning to‘ng‘ich Yanvariga!*

SELAMNAME (218)

1. Bahar zamanı şırıldayan ırmaklardan,
2. Yollardan ve yeşil otlaklardan,
3. Kırlarda geçen şâdân, hoş zamanlardan,
4. Selam olsun sahavetli yılbaşına,
5. Selam olsun yeşil ilkbahar nakkaşına.

6. Kuru yazın güneşinden olsun selam,
7. Kar arayan dağ taşından olsun selam,
8. Cömert çiftçi sabrından olsun selam,
9. Selam olsun ayların en iyisine,
10. Selam olsun onun bembeyaz incisine.

11. Yakın komşu, selam dediği güz zamanı bu,
12. Yiyecek içecekle dolup duran kucağı bu,
13. Toy çağı bu, planların yüz çağı bu
14. Selam olsun toyuna birlikte misafir oluşuna,
15. Selam olsun bir duvardan boy ölçüşüne.

16. İnsanlar var, bir ömürlük talihe yâr
17. Ve ister dostlarına talih bir hayli.
18. İyi yılda iyi düşünceler bulsun karar,
19. Selam olsun hoş saadet günlerine,
20. Selam olsun zaferin ilk müjdesine.

21. Selamların hepsinden şudur mana:
22. Boy atsın âlem boyunca yeşil mesken,
23. Filizlensin, güçle dolsun yurt daima,
24. Selam olsun on iki ay önderine,
25. Selam olsun yılın ilk Ocak'ına! (1974)

HAVAS (219)

1. *Bahor osmonida chaqnasa chaqin*
2. *Ko‘ksingdan otilar olovli nafas.*
3. *Ey, sen, javon shoir, o‘spirin oqin,*
4. *O‘tli yuragingga qilurman havas.*

5. *Ko‘kda yulduz emas, u sirli qo‘shiq,*
6. *Intizor yigitning chashmiga singgan.*
7. *Muhabbat dardiga mubtalo oshiq*
8. *Senga havas bilan boqurman chindan.*

9. *Belanchak boshida o‘ynar parcha nur,*
10.*Jajji chaqaloqqa bor dunyo abas.*
11.*Shu parcha shu’lada ko‘rding ne sehr?!*
12.*Go‘dagim, men senga qilurman havas.*

13.*Lochin yurakdir bu - yashinday shahdi,*
14.*G‘addor qoyalarga urguvchi qanot.*
15.*Senga havas bilan boqurman, rosti,*
16.*O‘limga tik ko‘ksin tuta olgan zot.*

17.*Baxtlidir, qay qalbda yoniq nur, ziyo,*
18.*Baxtlidir, qay qalbda yoniq hayajon.*
19.*Shu sabab dastida bo‘lsa ham dunyo,*
20.*O‘tli yoshligini qo‘msaydi inson.*

HEVES (219)

1. Bahar asumanında çaksa şimşek
2. Göğsünden atılır alevli nefes.
3. Ey, sen, civan şair, genç akın,
4. Ateşli yüreğine ederim heves.

5. Gökte yıldız değil, o sırlı koşuk,
6. Bekleyen yiğidin pınarına sinmiş.
7. Muhabbet derdine müptela âşık
8. Sana hevesle bakarım gerçekten.

9. Beşik başında oynar parça nur,
10. Minik bebeğe tüm dünya abes.
11.Şu parça şulede gördün ne sihir?!
12. Evladım, ben sana ederim heves.

13.Şahin yürektir bu, yıldırım gibi şahtı,
14. Gaddar kayalara vuran kanat.
15. Sana hevesle bakarım, doğrusu,
16.Ölüme dik göğsünü tutabilmiş zat.

17. Bahtlıdır, hangi kalpte yanık nur, ziya,
18. Bahtlıdır, hangi kalpte yanık heyecan.
19. Bu sebep elinde olsa da dünya,
20. Ateşli gençliğini özler insan. (1974)

"G'ANIM BO'LOLMASMIZ…" (220)

1. *G'anim bo'lolmasmiz ikkimiz sira,*
2. *Do'st ham bo'lolmasmiz balki hech qachon.*
3. *Balki emasdirsan sen ham bokira,*
4. *Balki emasdirman men ham poqdomon.*

5. *Ikkimiz uchun ham yolg'iz shu oftob,*
6. *Ikkimiz uchun ham yagona zamin.*
7. *Men ham sening uchun bitmadim kitob,*
8. *Sen ham shuhratimni etmassan ta'min.*

9. *Kimga nima kerak? Nechun soxta shon?*

10.*Nechun mangulikdan behuda talab?*

11.*Axir ikkimiz ham so‘ng manzil tomon*

12.*Ketmasmiz dunyoning yukin orqalab.*

“DÜŞMAN OLAMAYIZ…” (220)

1. Düşman olamayız ikimiz asla,

2. Dost da olamayız belki hiçbir zaman.

3. Belki değilsindir sen de iffetli,

4. Belki değilimdir ben de saf.

5. İkimiz için de sadece bu afitap,

6. İkimiz için de yegâne zemin.

7. Ben de senin için yazmadım kitap,

8. Sen de şöhretimi etmezsin temin.

9. Kime ne gerek? Niçin sahte şan?

10. Niçin sonsuzluktan beyhude talep?

11. Artık ikimiz de sonra menzil tarafı

12. Gitmeyiz dünyanın yükünü sırtlayıp. (1974)

RAYHON (221)

1. *Fursat-fursat insonga ko‘ringanda tor jahon,*

2. *Yaxshilar diydorini qo‘msaydi doim ko‘ngil.*

3. *Bobolarim yurtida tutqazding dasta rayhon,*

4. *Boshim ko‘klarga yetdi, Shamsiqamar, jon singil.*

5. *Xonanishin kunlardan bezib kelgandim asli,*

6. *Cheksiz cho‘llar gardini aylasam devdim tavof.*

7. *Ruh menda tiyra fasli, ayni jazira fasli,*

8. *Jannatmakon go‘shangdan gul tutqazding bosavob.*

9. *Bu joylarda kezgandim tentirab yillar burun,*

10.*Sahro uzra tashnahol to‘rg‘ay kabi charx urib.*

11.*Kuylagandim goh to‘lib bobolar orzularin,*

12.*Goh mayin istiqbolning o‘ylariga edim g‘arq.*

13.*Sahroda sarbonlarning oqargan so‘ngaklari,*

14.*Jahannamiy dasht uzra yaltirab turgan sarob...*

15.*Abadiy orzulardan so‘ylardi buning bari,*

16.*Jahoniy dillarga ham solguday zarb, iztirob.*

17.*Men-ku bu yurt o‘g‘liman, jon ipim unga payvast,*

18.*Iqboli iqbolimdir, armoni bo‘lsa - armon.*

19.*Ota yurt vayron esa, farzandga jahon abas,*

20.*Nechundir menga u choq tanho shuhrat, yolg‘iz shon?*

21.*Shul sabab, arqonga ham qil quvvat, degan misol,*

22.*Qadimiy Jayhun sari keldim aylab shitoblar.*

23.*Gohida yiroqlarda sog‘insam, qo‘msab visol,*

24.*Yo‘lladim qasam to‘la turli she’riy kitoblar.*

25.*Qalbida turfa niyat qaynagan zotlar aro*

26.*Sog‘inmas kim ham axir kattakon dunyo yuzin.*

27.*Ko‘kka boqsam, o‘yimni chulg‘aydi cheksiz samo,*

28.*Yerga boqsam, dilkash deb tingladim Jayhun so‘zin.*

29.*Mana bu kun u turar qarshimda viqor to‘kib,*

30.*Yo‘q, yo‘q, u - daryo emas, u - armon, u - bir hayot.*

31.*Kechib ne-ne asrlar, qanchalar zamon o‘tib,*

32.*Shu qondosh parcha yer ham topar bo‘lmishdir najot.*

33.*Bugun ota yurtimga kelmishdir ulug‘ Jayhun,*

34.*Hayratdadir bo‘zto‘rg‘ay: “Axir bu nechuk sayxon.”*

35.*Sahroda qaror topmish hattoki dilbar junun;*

36.*Bo‘y sochib turar, mana, bir dasta sadarayhon.*

37.*Singlim, shu rayhoningda bir armonim parchasi,*

38.*Umrimning bir g‘ussasi barham topdi muqarrar.*

39.*Undadir hali cheksiz chamanzorlarning sasi,*

40.*Nazar sol kengliklarga, jon singlim, Shamsiqamar.*

41.*Qo‘llaringda jon topmish ming yillik orzu, hali*

42.*Zangori ufqlarga uzangan chaman bo‘lg‘ay.*

43.*Inson buyukligidan nishona ushbu, hali*

44.*Ona zamin uzra sen yaratgan gulshan bo‘lg‘ay.*

45.*Dunyoda tariq kabi bedanabop gap ham mo‘l,*

46.*Dunyoda tashvish ham mo‘l qisgudek yuraklarni.*

47.*Lekin bu kun olamda baxtiyor o‘shal ko‘ngil -*

48.*Sig‘dirolsa o‘ziga eng oliy tilaklarni.*

49.*Zaminu zamon yashnab, o‘chganda tamom sahro,*

50.*Peshkash bo‘lurman men ham tuganmas mehrim bilan.*

51.*Turfa rang chaman aro, Siz tuzgan gulshan aro*

52.*Yetib kelurman men ham rayhondek she’rim bilan.*

REYHAN (221)

1. Zaman zaman insana göründüğünde dar cihan,

2. İyilerin yüzünü özler daima gönül.

3. Dedelerim yurdunda tuttun deste reyhan,

4. Başım göklere erdi, Şemsikamer, can kardeşim.

5. Evcimen günlerden bezip gelmiştim asıl,

6. Sonsuz çöller tozunu eylesem çok güçlüydüm tavaf.

7. Ruh bende karanlık mevsim, aynı çok sıcak mevsim,

8. Cennetmekân köşenden gül tuttun sevap.

9. Bu yerlerde gezmiştim boş boş yıllar önce,

10. Sahra üzerinde susuz hâlde tarla kuşu gibi çark çevirip.

11.Övmüştüm gâh dolup dedeler arzularla,

12.Gâh hoş istikbalinin düşüncelerine idim gark.

13. Sahrada sarbanlarının ağarmış kemikleri,

14. Cehennemî çöl üzerinde parlayıp duran serap…

15. Ebedî arzulardan söylerdi bunun hepsi,

16.Dünyevi gönüllere de salacak gibi darp, ızdırap.

17. Ben ki bu yurt oğluyum, can ipim ona bağlı,

18.İkbali ikbalimdir, ukdesi ise ukdem.

19. Ata yurt viran ise çocuğa cihan abes,

20. Niçindir bana o an yalnız şöhret, yalnız şan?

21. Bu sebep, ipe de kıl kuvvet, dendiği misal,

22. Kadimî Ceyhun’a doğru geldim hızla.

23. Bazen uzaklarda özlesem, hasret çeksem visal,

24. Yolladım yemin dolu türlü şiirsel kitaplar.

25. Kalbinde tuhaf niyet kaynayan zatlar arasında

26.Özlemez kimse de artık heybetli dünya yüzünü.

27.Göğe baksam düşüncemi sarar sonsuz sema,

28. Yere baksam, mest edici deyip dinledim Ceyhun sözünü.

29.İşte bugün o durur karşımda onurunu kırıp,
30. Hayır, hayır, o derya değil, o ukde, o bir hayat.
31. Yitip pek çok asır, bir hayli zaman geçip,
32. Bu kandaş parça yer de bulur olmuştur çare.
33. Bugün ata yurduma gelmiştir Ulu Ceyhun,
34. Hayrettedir boz tarla kuşu: "Artık bu nasıl meydan."
35. Sahrada karar kılmış hatta gönül alan deli:
36. Boy atıp durur, işte, bir deste meşereyhan.
37. Kardeşim, bu reyhanında ukdemin bir parçası,
38.Ömrümün bir sıkıntısı son buldu kaçınılmaz.
39. Ondadır hâlâ sonsuz çiçek bahçelerinin sesi,
40. Nazar et enginliklere, can kardeşim, Şemsikamer.
41. Kollarında can bulmuş bin yıllık arzu, hâlâ
42. Mavi ufuklara uzanan çayır olsun.
43. Insanın büyüklüğünden nişane işte bu, hâlâ
44. Ana zemin üstünde yarattığın gülşen olsun.
45.Dünyada darı gibi sürü söz de bol,
46.Dünyada kaygı da bol sıkıştıracak yüreklerini.
47. Ama bugün âlemde bahtiyar şu gönül
48.Sığdırabilse kendisine en yüce dileklerini.
49. Zemin-i zaman güzelleşip, kaybolduğunda son sahra,
50. Hediye olurum ben de tükenmez şefkatimle.
51.İlginç renk çayır içinde, Siz'in kurduğunuz gülşen içinde
52. Yetişip gelirim ben de reyhan gibi şiirimle. (1975)

"HADDIM BORMI SIZGA…" (222)

1. *Haddim bormi sizga bir so'z demakka,*
2. *Hatto uzr aytmoqqa sig'armi haddim?*
3. *Sizning husningizga boqqali yakka,*
4. *Qancha savdolarni boshdan o'tkardim.*
5. *Sizga ikki olam boricha nisor,*
6. *Siz ikki olamdan balandsiz mutlaq.*
7. *Sizga faqatgina termulmoq darkor,*
8. *Sizga faqatgina lozim sig'inmoq.*

“HADDİM VAR MI SİZE…” (222)

1. Haddim var mı size bir söz demeğe,
2. Hatta özür dilemeğe sığar mı haddim?
3. Sizin güzelliğinize bakmalı yalnız,
4. Nice sevdaları baştan geçirdim.
5. Size iki âlem var gücüyle kurban,
6. Siz iki âlemden büyüksünüz mutlak.
7. Size sadece dikkatle bakmak gerek,
8. Size sadece lazım gelir sığınmak. (1975)

“SEN BORSAN…” (223)

1. *Sen borsan - men uchun bu hayot go‘zal,*
2. *Sen borsan - men uchun dilbar koinot.*
3. *Sensiz qolar edim zulmatda tugal,*
4. *Sensiz qolar edim butkul bemurod.*

5. *Sening visolingda umrim yashirin,*
6. *Chechaksan, men uchun aslo so‘lmassan.*
7. *Shu qadar dilbarsan, shu qadar shirin,*
8. *Afsus, shundayliging o‘zing bilmassan.*

“SEN VARSIN…” (223)

1. Sen varsın, benim için bu hayat güzel,
2. Sen varsın, benim için sevgili kâinat.
3. Sensiz kalır idim zulmette tam,
4. Sensiz kalır idim büsbütün muratsız.

5. Senin visalinde ömrüm saklı,
6. Çiçeksin, benim için asla solmazsın.
7. Bu kadar çekicisin, bu kadar şirin,
8. Esef ki, böyle olduğunu kendin bilmezsin. (1975)

“SAHRO SO‘QMOG‘IDA BOSHIN EGIB JIM…” (224)

1. *Sahro so‘qmog‘ida boshin egib jim*

2. *Bir kimsa ketmoqda, bilmasman u kim.*

3. *Agar u sen bo‘lsang, qoshingga boray,*

4. *Agar u men bo‘lsam, tezroq kel, do‘stim.*

“SAHRA YOLUNDA BAŞINI EĞİP SESSİZ…” (224)

1. Sahra yolunda başını eğip sessiz

2. Bir kimse gitmekte, bilmezsin o kim.

3. Eğer o sen isen, huzuruna varayım,

4. Eğer o ben isem, çabucak gel, dostum. (1975)

GENERAL (225)

1. *Muzaffar zotlarga motam nojoiz,*

2. *Ularning haqqidir faqat iftixor.*

3. *Biz mag‘rur bosh egsak o‘shalar bois,*

4. *Ularga loyiqdir eng oliy ash’or.*

5. *Jasur najotkorlar saf - qatorida,*

6. *O‘zbek yigitining nomi ham kushod.*

7. *Tinchlik ayyomining bu nahorida,*

8. *Sobir og‘amizni etmoqdamiz yod.*

9. *Vatan degan chog‘da oddiy oshyon,*

10.*O‘lan to‘shagini anglaganlar mo‘l.*

11.*Madad so‘raganda chorasiz jahon,*

12.*Siz Toshkent bag‘ridan uzatgansiz qo‘l.*

13.*Qaysi bir mamlakat, qaysi sarhadda*

14.*Najotkor do‘stlarni zor kutgan tuproq.*

15.*Murg‘ak xayolimda shundoq holatda*
16.*Tasavvur etoldim men Sizni ko‘proq.*

17.*Bani odam uchun najot axtarib,*
18.*Jon bergan shahidlar ruhiga qasam.*
19.*Odamzod yalovday yurgay ko‘tarib,*
20.*O‘zbekning shu qatra, toza qonin ham.*

21.*Bilmadim u soat, u so‘nggi fursat,*
22.*Nelar kechgan ekan Sizning xayoldan.*
23.*Balki, Ona-Diyor ko‘kida qat-qat,*
24.*Varraklar ko‘rgansiz o‘zg‘ir shamoldan.*

25.*Balki, so‘nggi dam ham umidga to‘liq,*
26.*Yorug‘ bu kunlarni etgansiz xayol.*
27.*Mening beshigimga otilgan ul o‘q,*
28.*Sizning umringizni uzgan ehtimol.*

29.*Buyuk Ajdod bermish bus-butun g‘urur*
30.*Va qiyiq ko‘zlarda meros jasorat.*
31.*Jasur saflar aro ot surib mag‘rur,*
32.*Eng g‘addor yovlarni etgansiz g‘orat.*

33.*Sizdek farzandlarga sharafdir pesha,*
34.*Sizga mangulikning xush taronasi.*
35.*Sizdek o‘g‘lonlarni yodlar hamisha,*
36.*Munis O‘zbekiston - mardlar onasi.*

GENERAL (225)

1. Muzaffer zatlara matem caiz değil,
2. Onların hakkıdır sadece iftihar.
3. Biz mağrur baş eğsek onlar sebep,

4. Onlara layıktır en yüce şiirler.

5. Cesur kurtarıcılar saf dizisinde,
6. Özbek yiğidinin namı da tam.
7. Huzur günlerinin bu şafağında,
8. Sabir ağabeyimizi etmekteyiz yâd.

9. Vatan dediği zamanda basit aşiyan,
10. Ot döşeğini anlamışlar bol.
11. Medet istediğinde çaresiz cihan,
12. Siz Taşkent bağrından uzatmışsınız el.

13. Hangi bir memleket, hangi sınırda
14. Kurtarıcı dostları sitemle beklemiş toprak.
15.İnce hayalimde böyle hâlde
16. Tasavvur edebildim ben Siz'i daha çok.

17.İnsanoğlu için çare arayıp,
18. Can veren şehitler ruhuna yemin.
19.İnsanlık bayrak gibi yürüsün kaldırıp,
20.Özbek'in bu damla, saf kanını da.

21. Anlamadım o saat, o son vakit,
22. Neler geçmiş imiş Siz'in hayalden.
23. Belki, Ana Diyar göğünde kat kat,
24.Uçurtmalar görmüşsünüz öncü rüzgârdan.

25. Belki, son an da ümitle dolu,
26. Parlak bugünleri etmişsiniz hayal.
27. Benim beşiğime atılan o ok,
28. Siz'in ömrünüzü kesmiş ihtimal.

29.Büyük Ecdat vermiş büsbütün gurur
30. Ve çekik gözlerde miras cesaret.
31. Cesur saflar arasında at sürüp mağrur,
32. En gaddar düşmanları etmişsiniz viran.

33. Sizin gibi çocuklara şereftir hüner,
34. Size sonsuzluğun hoş nağmesi.
35. Sizin gibi oğlanları yâd eder daima,
36. Dost Özbekistan, mertler anası. (1975)

AVLODLAR HIKOYASI (226)

1. *Yarim tun.*
2. *Ovuldan yo‘lchi o‘tmoqda,*
3. *Tulpor tuyog‘idan chaqnaydi toshloq.*
4. *Nogoh ot dupuri kirib quloqqa*
5. *Cho‘chib uyg‘onadi keksa chol mudroq.*
6. *- Keksalik qursin-da...*
7. *Uf tortar uzun,*
8. *Xotirada Boysun,*
9. *Chaqnagan o‘qlar...*
10.*Chol to sahargacha yummaydi ko‘zin,*
11.*Nabirasi esa dong qotib uxlar.*

EVLATLARIN HİKÂYESİ (226)

1. Gece yarısı.
2. Köyden yolcu geçmekte,
3. Küheylan toynağından parlar kayalık..
4. Ansızın atın ayak sesleri gelip kulağa
5. Korkup uyanır uyuklayan yaşlı adam.
6. - Yaşlılığın gözü kör olsun ha…
7. Of çeker uzunca,
8. Hatırada Boysun,
9. Işıldayan oklar…

10.İhtiyar ta sehere kadar yummaz gözünü,

11. Torunu ise deliksiz bir uyku çeker. (1975)

SHUKRONA (227)

1. *Shukrona ayt avval parcha non uchun,*

2. *So‘ng qultum suv uchun shukrona takror.*

3. *Chunki bu olamda, yashirmoq nechun,*

4. *Senga shularni ham ko‘p ko‘rganlar bor.*

5. *Buyuklar baxtiga havas qil, ammo,*

6. *Insonliging uchun shukr aytgil zinhor.*

7. *Chunki bu olamda sen uchun hatto*

8. *Oddiy insonlikni ko‘p ko‘rganlar bor.*

ŞÜKRAN (227)

1. Şükür et önce bir parça ekmek için,

2. Sonra yudum su için şükür tekrar.

3. Çünkü bu âlemde, saklamak niçin,

4. Sana bunları da çok görenler var.

5. Büyükler bahtına heves et, ama,

6. İnsanlığın için şükür et zinhar.

7. Çünkü bu âlemde senin için hatta

8. Basit insanlığını çok görenler var. (1975)

KAKLIGIM (228)

1. *Tog‘lar elchisi deb xush ko‘rdim seni,*

2. *Qush ichra eng ajib qush ko‘rdim seni,*

3. *Inja diydoringni tush ko‘rdim seni,*

4. *Manzili tog‘ bilan daryo kakligim.*

5. *Olis Bobotog‘dan bir tong mahali,*

6. *Kelding do‘stim bilan meni ko‘rgali.*

7. *Ziyorat goh inson, goh qushning gali,*

8. *Xush kelding, dedim, oh, zebo kakligim.*

9. *Kaftimdan behadik donlar terarding,*
10.*Tegramda tovlanib yayrab yurarding.*
11.*Munchoq ko‘zlaringni tikib turarding*
12.*Cho‘msam xayollarga goho, kakligim.*

13.*Bilmadim ne bo‘ldi - ketding bedarak,*
14.*Do‘rmon bog‘larini kezdim jonsarak.*
15.*Qushdan do‘st topgandim, ko‘p ko‘rdi falak,*
16.*Endi qaylardasan, oshno kakligim.*

KEKLİĞİM (228)

1. Dağlar elçisi deyip hoş gördüm seni,
2. Kuşlar içinde en muhteşem kuş gördüm seni,
3. İnce yüzünü düşte gördüm seni,
4. Menzili dağ ile derya kekliğim.

5. Uzak Babadağ’dan bir şafak zamanı,
6. Geldin dostumla beni göreli.
7. Ziyaret gâh insan, gâh kuş sürüleri,
8. Hoş geldin, dedim, ah, güzel kekliğim.

9. Avucumdan korkusuz tahıllar toplardın,
10. Etrafımda parlayıp keyif alarak uçardın.
11. Boncuk gözlerini dikip dururdun
12. Dalsam hayallere bazen, kekliğim.

13. Anlamadım ne oldu, gittin izsiz,
14. Dorman bağlarını gezdim şaşkın.
15. Kuştan dost bulmuştum, çok gördü felek,
16.Şimdi nerelerdesin, aşina kekliğim. (1975)

“INONGIL SEN…” (229)

1. *Inongil sen mening muhabbatimga,*

2. *Mening muhabbatim buyukdan buyuk.*

3. *Bovar et va lekin ushbu gapimga:*

4. *Dilimda nafrat ham buyukdan buyuk.*

“İNAN SEN…” (229)

1. İnan sen benim muhabbetime,

2. Benim muhabbetim çok büyük.

3. İtimat et velakin bu sözüme:

4. Gönlümde nefret de çok büyük. (1975)

IKKI SONIYA (230)

1. *Uyda tinchi bo‘lsin yigitning avval,*

2. *So‘ngra butun bo‘lsin do‘stning imoni.*

3. *Inson yuragini tilkalar azal,*

4. *Shu ikki narsaning buyuk armoni.*

5. *Biridan boshlanar shu yorug‘ olam,*

6. *Dunyoga qo‘yilgay ostonadan ot.*

7. *Uydan boshi egik chiqdimi odam,*

8. *O‘sha kun tor unga butkul koinot.*

9. *Yigitning bir umri do‘st bilan butun,*

10.*Do‘st bilan shirindir zaqqum hayoti.*

11.*Do‘stdan pand yegan chog‘ ne bor uning-chun!*

12.*Bad unga hattoki bor inson zoti.*

13.*Buyuk shiddat bilan jo‘sharkan hayot,*

14.*Shu ikki narsaga biz goh beparvo,*

15.*Shu ikki soniya hamdam bo‘lgan zot,*

16.*Mening nazarimda, eng aziz siymo.*

İKİ SANİYE (230)

1. Evde huzuru olsun yiğidin evvel,
2. Sonra bütün olsun dostun imanı.
3. İnsan yüreğini parçalar ezel,
4. Bu iki şeyin büyük ukdesi.
5. Birinden başlar bu aydınlık âlem,
6. Dünyaya dökülsün eşikten at.
7. Evden başı eğik çıktı mı insan,
8. O gün dar ona bütün kâinat.
9. Yiğidin bir ömrü dostla bütün,
10. Dostla şirindir zıkkım hayatı.
11. Dosttan nasihat duyduğunda ne var onun için!
12. Kötü ona hatta bütün insan zatı.
13. Büyük şiddetle coşarken hayat,
14. Bu iki şeye biz bazen pervasız,
15. Bu iki saniye dost olan zat,
16. Benim nazarımda, en aziz sima. (1975)

"TINGLA, BU ABADIY SADO BO'LADI…" (231)

1. *Tingla, bu abadiy sado bo'ladi,*
2. *Gadoning dushmani gado bo'ladi,*
3. *Ikkovi bir-birin yegunicha to*
4. *O'rtada bu dunyo ado bo'ladi.*

"DİNLE, BU EBEDÎ SEDA OLUR…" (231)

1. Dinle, bu ebedî seda olur,
2. Kölenin düşmanı köle olur.
3. İkisi birbirini yiyinceye kadar ta
4. Ortada bu dünya biter. (1975)

TARBIYA (232)

Kengga keng dunyo,

Torga top dunyo.

Xalq maqoli

BIRINCHI MASHG‘ULOT (232)

1. *Jindakkina fe’lingizni*

2. *Kengroq qiling, domlajon.*

3. *Shunda sizga ko‘ringaydir*

4. *Ko‘p g‘alati bir jahon.*

5. *Do‘ppingizni olib avval*

6. *Qarang u yon-bu yonga,*

7. *Duch kelgaysiz eng avvalo*

8. *Hayot degan ummonga.*

9. *Unda sizdan bo‘lak yana*

10. *Yashaydi ko‘p odamlar,*

11.*Yelkasida va yo shodlik,*

12. *Va yo tashvish, yo g‘amlar.*

13.*Dunyoi xos deb atalgan*

14. *Bir makon bu, har qalay,*

15.*G‘am-tashvishlar qatorida*

16. *Shodlik ham bor bir talay.*

17.*Bilmam nechun sizning nigoh*

18. *Bir nuqtada qotmishdir,*

19.*Cheksiz go‘zal dunyo sizdan*

20. *Yuz o‘girib yotmishdir.*

21.*Keng bo‘lsangiz u choq sizga*

22. *Ochilgaydir ko‘p sirlar,*

23.*Ko‘ringaydir ko‘hna moziy*

24. *Va kelajak asrlar.*

25.*Himmat nuri ko‘zingizni*

26. *Yoritolsa biror on,*

27.*Ruhingizga himmatlar ham*

28. *Yog‘ilgaydir begumon.*

29.*Xo‘ja Hofiz devonida*

30. *Bulbul sayrar siz uchun,*

31.*Oh, naqadar go‘zal erur,*

32. *Bu tiriklik, bu ochun,*

33.*Musiqa bor bu dunyoda,*

34. *She’riyat bor, safo bor,*

35.*Xuddi go‘dak kulgusidek*

36. *Muhabbat bor, beg‘ubor.*

37.*Moviy ko‘kka boqib tinglang*

38. *Turfa qushlar volasin,*

39.*Subhidamda oshiqlarning*

40. *Chekkan cheksiz nolasin.*

41.*Endi aziz kallangizni*

42. *Burib bu yon bir qarang,*

43.*Tovlanadi tegrangizda*

44. *Yaproqchalar tilla rang.*

45.*Siz ularning holiga ham*

46. *Boqing xolis niyatdan,*

47.*Yaproq umri bitsa hamki,*

48. *So‘zlar abadiyatdan.*

49.*Qarang, nechog‘ go‘zal erur*

50. *Qir-adirlar zangori,*

51.*Shunday paytda dilni o‘rtar*

52. *Mangu yashash xumori.*

53.*Jildiragan ariqchaga*

54. *Bir zum qarab turgaysiz,*

55.*Ishonaman, siz unda tog‘*

56. *Qorliklarni ko‘rgaysiz.*

57.*Ochilgaydir qarshingizda*

58. *Yuksak yurtlar jamoli,*

59.*Cho‘qqilarga tirmashgaysiz*

60. *Tog‘ serkasi misoli.*

61.*Oqshom cho‘kar va qo‘zg‘alar*

62. *To‘rt tarafdan shamollar,*

63.*Og‘ushiga olgay sizni*

64. *Ko‘p ajoyib xayollar.*

65.*Yulduzlarga termulgaysiz,*

66. *Uchgaysiz ham samoga,*

67.*Ko‘z tashlarsiz kengliklarga,*

68. *Ufqlarga, dunyoga.*

69.*Qalbingizda na adovat,*

70. *Na hasad bor, na kadar,*

71.*Ruhingizda ulug‘vorlik*

72. *His qilgaysiz bir qadar.*

73.*Endi yerni fahm etgaysiz,*

74. *U nok kabi yo‘q bandi,*

75.*Domla, mo‘’jaz shu nok uzra*

76. *Yashar odam farzandi.*

77.*Odam esa sizga qavmdir,*

78. *Zamondoshdir, o‘lkadosh,*

79.*Biror yirtqich daf qilganda*

80. *Yoningizda yelkadosh.*

81.*Aniq sharif shajarangiz*

82. *Qarshingizga kelsin sal,*

83.*Siz ham odam farzandisiz,*

84. *Unutmangiz hech mahal.*

85.*Ruhingizni chulg‘amasa*

86. *Nogahoniy bir balo,*

87.*Miyangizning tarxi endi*

88. *Ochilgay inshoollo.*

TERBİYE (232)

Genişe geniş dünya,

Dara dar dünya.

Halk atasözü

BİRİNCİ MEŞGULAT (232)

1. Birazcık moralinizi

2. Yüksek tutun, hocacığım.

3. Böyle size görünecektir
4. Çok muhteşem bir dünya.
5. Döppinizi alıp evvel
6. Bakın o yana bu yana,
7. Karşılaşacaksınız en evvela
8. Hayat denen ummana.
9. Onda sizden parça yine
10. Yaşar çok insanlar,
11. Omzunda ya mutluluk,
12. Ya kaygı, ya gamlar.
13.Dünyaya has diye adlandırılmış
14. Bir mekân bu, her nasılsa.
15. Tasalar kaygılar sırasında
16. Mutluluk da var birçok.
17. Bilmem niçin sizin bakışınız
18. Bir noktada donmuştur,
19. Sonsuz güzel dünya sizden
20. Yüz çevirip durmuştur.
21. Rahat olsanız o an size
22. Açılacaktır çok sırlar,
23.Görünecektir köhne mazi
24. Ve gelecek asırlar.
25. Himmet nuru gözünüzü
26. Aydınlatabilse bir an,
27. Ruhunuza himmetler de
28. Yağacaktır şüphesiz.
29. Hoca Hafız divanında
30. Bülbül öter sizin için,
31. Ah, ne kadar güzeldir,
32. Bu hayat, bu dünya,
33.Müzik var bu dünyada,
34. Şiirler var, sefa var,
35.Tıpkı bebek gülüşü gibi
36. Muhabbet var, tertemiz.
37. Mavi göğe bakıp dinleyin
38. İlginç kuşların meftununu,

39. Sabahleyin âşıklarının

40. Çektiği sonsuz nalesini.

41.Şimdi aziz başınızı

42. Çevirip bu yana bir bakın,

43.Işıldar etrafınızda

44. Küçük yapraklar altın renkli.

45. Siz onların hâline de

46. Bakın halis niyetle,

47. Yaprak ömrü bitse hem de,

48. Söyler ebediyetten.

49. Bakın, ne kadar güzeldir

50. Kırlar, yamaçlar yeşil,

51.Böyle anda gönlü örter

52. Ebedî yaşama isteği.

53.Süzülen küçük arka

54. Bir an bakıp duracaksınız,

55.İnanırım, siz onda dağ

56. Buzulları göreceksiniz.

57.Açılacaktır karşınızda

58. Yüksek yurtlar cemali,

59. Zirvelere tırmanacaksınız

60. Dağ erkeci misali.

61. Akşam çöker ve ortaya çıkar

62. Dört taraftan rüzgârlar,

63. Kucağına alacak sizi

64. Çok hoş hayaller.

65.Yıldızlara gözünüzü dikeceksiniz,

66. Uçacaksınız da semaya,

67.Göz atarsınız genişliklere,

68. Ufuklara, dünyaya.

69. Kalbinizde ne husumet,

70. Ne haset var, ne keder,

71. Ruhunuzda ululuk

72. Hissedeceksiniz bir keder.

73.Şimdi toprağı anlasanız,

74. O armut gibi değil esir,

75. Hoca, mucizevi bu armut üzerinde

76. Yaşar insan evladı.

77.İnsan ise size kavimdir,

78. Çağdaştır, ülküdaş,

79. Bir yırtıcıyı def ettiğinde

80. Yanınızda arkadaş.

81. Gerçek mübarek şecereniz

82. Karşınıza gelsin biraz,

83. Siz de insan evladısınız,

84. Unutmayınız hiçbir zaman.

85. Ruhunuzu sarmasa

86. Ani bir bela,

87. Akli melekeleriniz şimdi

88. Açılacak inşallah.

IKKINCHI MASHG‘ULOT (233)

1. *Ba’daz, mavjud ahvolingiz*

2. *Tavsif etib atayin*

3. *Boshqalarga ibrat uchun*

4. *Mayli aytib o‘tayin.*

5. *Tirik jonsiz, tongmi-peshin*

6. *O‘rningizdan turasiz,*

7. *Odamsiz-ku, balki avval*

8. *Tush ta’birlab ko‘rasiz.*

9. *O‘ngingizda tunov kechgan*

10. *Turli badbin o‘y-xayol*

11.*Tushingizda do‘zax bo‘lib*

12. *Aks etgandir, ehtimol.*

13.*Qiyin sizga, qandoq qilib*

14. *Bu holatdan qochasiz.*

15.*Zahringizni eng avvalo*

16. *Bolalarga sochasiz.*

17.*Qurbon bo‘lar balki ilk bor*

18. *Sho‘rpeshona bir chivin,*

19.*Tutib olib ezg‘ilaysiz,*

20. *Topolsangiz gar evin.*

21.*Bolalar-chi, oh, bolalar,*

22. *Tarbiyasiz, quv, suyuq,*

23.*Shox bilan dum bitsa agar*

24. *Shaytondan hech farqi yo‘q.*

25.*Xotin-chi, u xotin emas,*

26. *Dam so‘zlab, dam to‘xtaydi,*

27.*Supurgini minib chopgan*

28. *Alvastiga o‘xshaydi.*

29.*Qovoq uyib, ijirg‘anib*

30. *Endi ishga jo‘naysiz,*

31.*Na biror gap chiqar sizdan*

32. *Va na gapga unaysiz.*

33.*Kuchukchangiz duch keladi,*

34. *Bir tepasiz, “vang” deydi,*

35.*“Vang” degani, kim biladi,*

36. *Balki “fe’ling tang” deydi,*

37.*Ostonadan boshlanadi*

38. *Ana endi keng hayot,*

39.*Siz-chi, ishga yo‘l olasiz*

40. *G‘oyat-g‘oyat ehtiyot.*

41.*Musofirdek ko‘cha-ko‘yda*

42. *Jovdiraysiz alanglab,*

43.*Bamisoli o‘g‘ri mushuk*

44. *To‘rt tomonga jalanglab:*

45.*Ana, Toshmat o‘tib ketdi,*

46. *Payqamadi muttaham!*

47.*Payqasa ham so‘rashmadi,*

48. *Demak, dushman o‘sha ham!*

49.*Choyxonada uch-to‘rtta chol*

50. *Chaq-chaq suhbat qiladi,*

51.*Suhbat qayda, aynaganlar,*

52. *Sizni g‘iybat qiladi.*

53.*Joy bermadi tramvayda*

54. *Allaqanday bir bashang,*

55.*Kasofatning kasri urib*

56. *Yana tag‘in siz tajang.*

57.*Ishxonangiz qarshi olar*

58. *Peshtoqlari yaltirab,*

59.*Gul tuvakda chechaklar ham*

60. *Nozikkina qaltirab.*

61.*Siz-chi, dilgir, mahkamaga*

62. *Uvvos tortib kirasiz,*

63.*O‘zingizni o‘rgimchakdek*

64. *Bir burchakka urasiz,*

65.*Varaqlaysiz gazetani*

66. *Duch kelasiz olovga:*

67.*Mukofotni berishibdi*

68. *Padarla’nat anovga.*

69.*Axir qandoq bedodlik bu,*

70. *Miyangizga urar qon,*

71.*Qolmayotir bu dunyoda*

72. *Hayo, insof, din, vijdon!*

73.*Boshlanadi yana qayta*

74. *Ig‘vo, fitna, ur-surlar,*

75.*Odam emas bu yurganlar,*

76. *Xudo haqqi unsurlar.*

77.*Qo‘lingizdan kelsa agar*

78. *To‘kib timsoh yoshini,*

79.*Aylantirib tashlaysiz ham*

80. *Hatto do‘stlar boshini.*

81.*Tashqarida esa hayot*

82. *Ummon kabi toshadi,*

83.*Qit’alardan qit’alarga*

84. *Cho‘ng bulutlar oshadi.*

85.*Qaylardadir hal bo‘ladi*

86. *Butkul ellar taqdiri,*

87.*Yuz yillarga arzigay goh*

88. *Soniyalar har biri.*

89.*Buyuk tarix charxpalagi*

90. *G‘uvlar betinch har qachon,*

91.*Koinotga sachrab ketar*

92. *Uchqunlari, al’amon.*

93.*Bizga nasib bo‘lmish yashash*

94. *Shundoq ulug‘ dunyoda,*

95.*Buyuk inson qadamidan*

96. *Gursillar yer ziyoda.*

97.*Endi gapni ochiq aytsam,*

98. *Ko‘rsichqonga o‘xshaysiz,*

99.*Baroq moshni ko‘rmaguncha*

100. *Hech bir gapni uqmaysiz.*

101. *Holbuki, el himmat, mehri*

102. *Peshkash erur sizga ham.*

103. *Dil ochsangiz, jam’i odam*

104. *Dilkash erur sizga ham,*

105. *Holbuki, el zahmat chekar*

106. *Siz uchun ham kun-bakun*

107. *Siz-chi, faqat o‘ylagaysiz*

108. *O‘zingizni, xo‘sh nechun?*

109. *Ne bir zotlar umrin tikib,*

110. *Kezadi ko‘k bag‘rini,*

111. *Siz bo‘lsangiz ko‘rmagaysiz*

112. *Burningizdan narini.*

113. *Tushunaman, umr qisqa*

114. *Haq dasti ham qisqaroq.*

115. *Ammo nechun shu umrda*

116. *Buncha badbin yashamoq?*

117. *Bir qarashda zakiy zotsiz,*

118. *Bir qarashda donosiz,*

119. *Ammo, bilmam, qay jin urmish,*

120. *Yasholmaysiz ig‘vosiz!*

121. *Odam o‘g‘li, zavol ko‘rma,*

122. *Bo‘lma odam zavoli,*

123. *Tushuntirdim hamma gapni*

124. *Ko‘rga hassa misoli.*

125. *Endigi so‘z... xullas, fe’lni*

126. *Kengroq qiling, domlajon,*

127. *Sizning ko‘rgan bu kun esa*

128. *Kun emasdir hech qachon.*

İKİNCİ MEŞGULAT (233)

1. Sonra, mevcut durumunuz

2. Tanımlayıp adlandırayım

3. Başkalarına ibret için

4. Tamam deyip geçeyim.

5. Canlı cansız, sabah akşam

6. Yerinizden kalkarsınız,

7. İnsansınız ki, belki önce

8. Rüya tabir edersiniz.

9. Önünüzde geçen gün

10. Türlü bedbin düşünce, hayal

11.Düşünüzde cehennem olup

12. Aksetmiştir, ihtimal.

13.Ağır size, ye yapıp

14. Bu durumdan kurtulursunuz.

15. Zehrinizi en evvela

16. Çocuklara saçarsınız.

17. Kurban olur belki ilk kez

18. Talihsiz alın yazısı bir sivrisinek,

19. Tutup ezersiniz,

20. Yolunu bulabilirseniz eğer.

21.Çocuklar, ah, çocuklar,

22. Terbiyesiz, sinsi, ahlaksız,

23. Boynuzla kuyruk yapsa eğer

24. Şeytandan hiç farkı yok.

25. Kadın, o kadın değil,

26. Bir konuşup, bir oturur,

27.Süpürgesine binip atlayan

28. Alkarısına benzer.

29. Kabak toplayıp, bıkıp

30. Şimdi işe koyulursunuz,

31. Ne bir söz çıkar sizden

32. Ve ne sözü onaylarsınız.

33.Küçük köpeğiniz rastlar,

34. Bir tepersiniz, “hav” der,

35.“Hav” demesinden kim anlar,

36. Belki “ huyun kötü” der.

37.Eşikten başlar

38. İşte şimdi geniş hayat,

39. Siz, işe yol alırsınız

40. Çok çok ihtiyat.

41. Misafir gibi sokakta yolda

42. Sağa sola bakınırsınız,

43. Sanki hırsız kedi

44. Dört tarafa bakakalırsınız:

45.İşte, Taşmet geçip gitti,

46. Fark etmedi dolandırıcı!

47. Fark etse de sormadı,

48. Demek, düşman o da!

49.Çayhanede üç dört ihtiyar

50. Keyifle sohbet eder,

51. Sohbeti bozduklarında,

52. Size gıybet eder.

53. Yer vermedi tramvayda

54. Birçok züppe,

55.Uğursuzun zararı dokunup

56. Üstüne üstlük siz asabi.

57.İş yeriniz karşıda kalır

58. Kapıları parlayıp,

59.Gül saksıda çiçekler de

60. Nazikçe sallanıp.

61. Siz, mahzun, mahkemeye

62. Hıçkırarak ağlayıp girersiniz,

63. Kendinizi örümcek gibi

64. Bir köşeye atarsınız,

65. Sayfalarını çevirirsiniz gazetenin

66. Karşılaşırsınız ateşle:

67.Mükâfatını vermişti

68. Baba laneti ona.

69. Artık nasıl haksızlık bu,

70. Beyninize sıçrar kan,

71. Kalmaz bu dünyada

72. Hayâ, insaf, din, vicdan!

73. Başlar yine tekrar

74. İftira, fitne, kavgalar,

75.İnsan değil bu yürüyenler,

76. Hüda hakkı unsurlar.

77. Elinizden gelse eğer

78. Döküp timsah gözyaşını,

79.Döndürüp atarsınız da

80. Hatta dostlar başını.

81.Dışarıda ise hayat

82. Umman gibi taşar,

83.Kıtalardan kıtalara

84. Büyük bulutlar aşar.

85. Bir yerlerde çözülür

86. Bütün halklar takdiri,

87.Yüzyıllara değsin bazen

88. Saniyelerin her biri.

89.Büyük tarihin çemberi (halkası)

90. Uğuldar endişeli her zaman,

91.Kâinatta saçıp gider

92. Kıvılcımları, yığın yığın.

93. Bize nasip olmuş yaşamak

94. Böyle ulu dünyada,

95.Büyük insan adımından

96. Gümbürder yer ziyade.

97.Şimdi sözü açık söylesem,

98. Köstebeğe benzersiniz,

99.Tüylü börülceyi görmeyinceye kadar

100. Hiçbir sözü anlamazsınız.

101. Hâlbuki halk himmet, şefkati

102. Hediyedir size de.

103. Gönül açsanız, cem-i insan

104. Büyüleyicidir size de.

105. Hâlbuki, halk zahmet çeker
106. Sizin için de günbegün
107. Siz sadece düşüneceksiniz
108. Kendinizi, hoş niçin?
109. Ne bir zat ömrünü verip,
110. Gezer gök bağrını,
111. Siz olsanız görmeyeceksiniz
112. Burnunuzdan ötesini.
113. Anlarım, ömür kısa
114. Hak eli de daha kısa.
115. Ama niçin bu ömürde
116. Bu kadar kötü yaşamak?
117. Bir bakışta zeki zatsınız,
118. Bir bakışta bilgesiniz,
119. Ama bilmem, hangi cin çarpmış,
120. Yaşayamazsınız fesatsız!
121. İnsanoğlu, zeval görme,
122. Olma insan zevali,
123. Anlattım tüm sözleri
124. Köre baston misali.
125. Şimdiki söz, velhasıl, moralinizi
126. Yüksek tutun, hocacığım,
127. Sizin gördüğünüz bugün ise
128. Gün değildir hiçbir zaman. (1975)

“OSHIQNI TASVIRLAY DEGANDIM BIRROV…” (234)

1. *Oshiqni tasvirlay degandim birrov,*
2. *Behuda ishni qo‘y dedilar darrov,*
3. *Uyquda so‘zlagan kimsadek oshiq,*
4. *Na o‘zi tushungay, na uni birov.*

“ÂŞIĞI TASVİR EDEYİM DEMİŞTİM BİRİNE…” (234)

1. Âşığı tasvir edeyim demiştim birine,
2. Boş işi bırak dediler hemen,

3. Uykuda konuşan kimse gibi âşık,

4. Ne kendisini anlayacak, ne onu biri. (1975)

“DUNYODA…” (235)

1. *Dunyoda har ishning bordir o‘z gali,*

2. *Olis xotiralar hamroh ishimga.*

3. *Shoirlik yodimdan chiqqan mahali*

4. *Cho‘ponlik yillarim tushar esimga.*

5. *Qo‘ylar suruvini haydayman borho,*

6. *Sibizg‘a chalaman ba’zida beg‘am.*

7. *Suruvim ichida ko‘raman goho*

8. *Meni cho‘pon degan kimsalarni ham.*

“DÜNYADA…” (235)

1. Dünyada her işin vardır kendi sırası,

2. Uzak hatıralar yoldaş işime.

3. Şairlik yâdımdan çıktığı zaman

4. Çobanlık yıllarım düşer hatırıma.

5. Koyunların sürüsünü güderim deh deh,

6. Sıbızgı çalarım bazen gamsız.

7. Sürümün içinde görürüm bazen

8. Bana çoban diyen kimseleri de. (1975)

“SEN MENING…” (236)

1. *Sen mening ismimsan, nomimsan tugal,*

2. *Sen buyuk bobomning asl makoni.*

3. *Dedim va degayman hamisha dangal,*

4. *Samarqand degani o‘zbek degani.*

5. *Qayta tug‘ilmoqlik nasib etsa gar,*

6. *Samarqand bo‘lardi joyim muqarrar.*

“SEN BENİM…” (236)

1. Sen benim ismimsin, namımsın son,
2. Sen büyük dedemin asıl mekânı.
3. Dedim ve diyeceğim daima açıkça,
4. Semerkant dediği Özbek dediği.
5. Yine doğmak nasip olsa eğer,
6. Semerkant olurdu yerim mükerrer. (1975)

QISH KECHASI (237)

1. *Taqillaydi eshik nogahon,*
2. *Kimsan? - deyman, tugab sabotim.*
3. *- Ochgil, - deydi. - Men senga mehmon,*
4. *Bilmoq bo‘lsang - Tashvishdir otim.*

5. *Taqillaydi eshik nogahon,*
6. *Kimsan? - deyman tugab sabotim.*
7. *- Ochgil, - deydi. Bu - men, qadrdon,*
8. *Bilmoq bo‘lsang - Bardoshdir otim.*

9. *Tashqarida shamol uvillar,*
10. *Tuni bo‘yi yummayman ko‘zim.*
11. *Tuni bo‘yi bahs qilar ular,*
12. *Tun esa-chi, juda ham uzun.*

KIŞ GECESİ (237)

1. Çalar kapı ansızın,
2. Kimsin? Derim, bitip sabrım.
3. - Aç, der. Ben sana misafirim,
4. Bilmek istersen, kaygıdır adım.

5. Çalar kapı ansızın,
6. Kimsin? Derim, bitip sabrım.
7. - Aç, der. Bu ben, can dost,
8. Bilmek istersen, Sabırdır adım.

9. Dışarıda rüzgâr uğuldar,
10. Gece boyu yummam gözümü.
11. Gece boyu bahseder onlar,
12. Gece ise, çok da uzun. (1976)

SENING OVOZING (238)

1. *Yomg‘ir yog‘ayotir ko‘kdan, otajon,*
2. *Jilg‘alar ko‘chada daryoday toshar.*
3. *Jajji opalarim esa bu zamon,*
4. *Jilg‘alar bo‘yida jilg‘aday shoshar.*

5. *Menga sizning ko‘z yosh yomg‘irday abad,*
6. *Maskanimga singay ohang singari.*
7. *Mening qulog‘imga yetgaydir faqat,*
8. *Sizning qalbingizning sog‘inch unlari.*

SENİN SESİN (238)

1. Yağmur yağar gökten, babacığım,
2. Dereler sokakta derya gibi taşar.
3. Küçük ablalarım ise bu zaman,
4. Dereler boyunda dere gibi koşar.

5. Bana sizin gözyaşı yağmur gibi sonsuz,
6. Meskenime sinsin ahenk gibi.
7. Benim kulağıma gelecektir sadece,
8. Sizin kalbinizin hasret sesleri. (1976)

TAFAKKUR MONOLOGI (239)

I

1. *Bilmasman, qaydadir menga ibtido,*

2. *Bilmasman, qaydadir menga intiho.*

3. *Asrlar qa'ridan o'taman sokin,*

4. *Menga bari birdir - kim qul, kim hokim.*

5. *Sizning qutqu bilan zarra ishim yo'q,*

6. *Shundoq salobatli karvonman ulug'.*

7. *Mening qo'ng'irog'im eshitolgan zot,*

8. *O'zin baxtli desa arzir umrbod.*

II

9. *Meni atadilar xudo deb avval,*

10. *Payg'ambar dedilar va daho tugal.*

11. *Buyukman baridan ming-minglab karra,*

12. *Xudo ham, daho ham mendan bir zarra.*

13. *Men asli hosila erurman garchand,*

14. *Lekin bugun ota - kechagi farzand.*

15. *Tegramda charx ursin, mayli, zamon, vaqt,*

16. *Men-chi, o'z-o'zimga mas'ulman faqat.*

17. *Qarshimda gerdayar tog'lar ham bekor,*

18. *Ular mening uchun shunchaki sangzor.*

19. *Bahri Muhit nima? Nima u dengiz?*

20.*Chayqalgan suvlardir, rangsiz va nursiz.*

21.*Oftob, sayyoralar charaqlab yotar,*
22.*Men uchun oddiy hol: borliq muxtasar.*

23.*Hayrat nimaligin bilmasman aslo,*
24.*Hatto cheksizlik ham idrokimga jo.*

III

25.*Ha, menga hech erur koinot, jahon,*
26.*Lekin meni qiynar faqat bir armon.*

27.*Meni qachonlardir yaratgan zotdan,*
28.*Qarzdorman, ya'nikim, odamizoddan.*

29.*U goh buyuk erur, goh zabun, barbod,*
30.*Sira tushunmadim men uni, hayhot.*

31.*Faqat idrokimga zanjirdir shu g'am,*
32.*Seni eplolmadim, juvonmarg odam.*

TEFEKKÜR MONOLOGU (239)

I

1. Bilmem, nerededir bana iptida,
2. Bilmem, nerededir bana intiha?

3. Asırların ka'rından geçerim sakin,
4. Bana hepsi birdir, kim kul, kim hâkim.

5. Sizin kışkırtmanızla zerre işim yok,
6. Böyle azametli kervanım büyük.

7. Benim zilimi işitebilen zat,

8. Kendine bahtlı dese değer ömür boyu.

II

9. Bana dediler Tanrı diye önce,

10. Peygamber dediler ve deha sonra.

11. Büyüğüm hepsinden binlerce kere,

12. Tanrı da, deha da benden bir zerre.

13. Ben aslında hasıla idim gerçi,

14. Ama bugün baba, dünkü çocuk.

15. Etrafımda çark çevirsin, tamam, zaman, vakit,

16. Ben, kendi kendime Müslüman'ım sadece.

17. Karşımda kibirlenir dağlar da boş,

18. Onlar benim için öylesine taşlık.

19. Bahri Muhit ne? Ne o deniz?

20. Dalgalanan sulardır, renksiz ve nursuz.

21. Güneş, gezegenler ışıldar,

22. Benim için sıradan hâl: varlık muhtasar.

23. Hayret ne olduğunu bilmem asla,

24. Hatta sonsuzluk da idrakime sığar.

III

25. Evet, bana hiçtir kâinat, cihan,

26. Ama beni rahatsız eder sadece bir ukde.

27. Beni bir zamanlar yaratan zata,
28. Borçluyum, demek ki, âdemî zata.

29.O gâh büyüktür, gâh perişan, berbat,
30. Asla anlamadım ben onu, heyhat.

31. Sadece idrakime zincirdir bu gam,
32. Seninle başa çıkamadım civanmert adam. (1976)

BIR TANISHIM HAQIDA BALLADA (240)

1. *Eslayman, bolalik chog‘imda bir kun*
2. *Bezori tosh otdi menga besabab.*
3. *Yig‘ladim bir chetda bag‘rim bo‘lib xun,*
4. *Atrofga ko‘z tikdim nochor, mo‘ltirab.*
5. *Albatta, biror-bir madad istardim,*
6. *Axir, tushunarli bundaqa holat.*
7. *(Bola bo‘lgansiz-ku, sizlar ham qadim,*
8. *Demakki, eslasam tortmam hijolat.)*
9. *Xullas, kimdir kelib yo‘l kanorida*
10.*Sayoq raqibimni ushladi mahkam:*
11.- *Quturib qoldingmi kuching borida,*
12.*Boshingga tushganda bilarsan, bo‘tam...*
13.*Ancha mulzam qilib jo‘natdi uni,*
14.*So‘ng keldi men tomon jilmayib, yovvosh:*
15.- *Sen ham tortaverma hadeb burunni,*
16.*Kerak bo‘lar, uka, hali ko‘p ko‘z yosh...*
17.*Hushyor tortib qoldim shunda, albatta,*
18.*Hatto dadillashib qolgandim biroz.*
19.*Uning-chi, ko‘zlari porlardi katta,*
20.*Mard va mayin edi undagi ovoz.*
21.*Dedim: - Xizrmisiz, bobom aytgandek,*
22.*Madad berasizmi shunday chog‘larda?*
23.*U ma’yus jilmayib, qosh chimirdi tek:*

24.- *Bolasan, xayoling ko‘p uzoqlarda.*

25.*Mayli, Xizrmanmi yo Xizr emas,*

26.*Har nechuk turibman qoshingda ayon.*

27.*Biror nojo‘ya ish ro‘y berdimi, bas,*

28.*Kimdir ajrim qilsa - o‘sha men, o‘g‘lon.*

29.*Bolaga, albatta hikmat bir chaqa,*

30.*Chillak o‘yin kabi aniq tasavvur.*

31.*U ismin aytdi-yu, ketdi bir yoqqa,*

32.*Men ham hayyo-hayt deb ketdim haytovur,*

33.*Kim ko‘p bu dunyoda, har xil bola ko‘p,*

34.*Birimiz besarroq, birimiz yovvosh.*

35.*Men ham qanchasiga ozor berdim xo‘b,*

36.*Qanchasin dastidan to‘kdim ham so‘ng yosh.*

37.*Biroq, yillar o‘tib, ulg‘aygan sayin*

38.*O‘yga kelar ekan boshqacha raplar.*

39.*O‘yga solar ekan, tayin-notayin,*

40.*Har xil narsadagi har xil taraflar.*

41.*Qurshay boshlar ekan miyangni rov-rov,*

42.*Nega? Nechun? - degan savollar o‘jar,*

43.*Deylik, falonchining o‘g‘li-ku, merov,*

44.*Nega imtihondan qatnashmay o‘tar?*

45.*Bunaqa gaplarni taftish qilishni*

46.*O‘rgatmagan edi agarchi otam.*

47.*Lekin ko‘ra berib shul kabi ishni*

48.*Lol qota boshladim endi chinakam.*

49.*Butkul hodisotning sababin ammo*

50.*Anglab yetmoqlikka o‘tmasdi tishim.*

51.*Shunday mahallarda ko‘zimga go‘yo,*

52.*Ko‘rinib ketardi o‘sha tanishim.*

53.*Bir kun guzarda deng, To‘xta lapashang*

54.*Suv to‘la ko‘zasin chil-chil sindirdi.*

55.*Uyga kelgach esa, aybdor deb qarang,*

56.*U o‘gay akasin tutib urdirdi.*

57.*Tavba demoqqa-ku, yosh edim hali,*

58.*Bovujud, qayga ham yetardi arzim.*

59.*O‘sha tanishimga o‘sha mahali*

60.*Hatto xat yozmoqqa etgandim jazm.*
61.*Qayga jo‘natardim maktubni, ammo*
62.*Qaylarda yuribdi g‘aroyib ul zot.*
63.*Olis kechalari u bilan tanho*
64.*Suhbat qurar bo‘ldim xayolan bot-bot.*
65.*Vasvasa deysizmi, ro‘yo deysizmi,*
66.*Dono fikringizga havola bu hol.*
67.*Bir kun zabtga olib tasavvur izmi,*
68.*Tushda ko‘rdim uni aniq va yaqqol.*
69.*Arzim bayon etdim birato‘lasi,*
70.*Nega kelmaysiz deb tutdim so‘roqqa.*
71.*To‘xta lapashangning o‘gay akasi*
72.*Ketib qolganini aytdim, uzoqqa.*
73.*U ma’yus jilmaydi; - Bilaman barin,*
74.*Axir, yumushim ko‘p olamda, ukam.*
75.*Birini eplasam, eplolmam birin,*
76.*Qanday ulgurayin, yolg‘izman men ham...*
77.*Shunday deb tanishim ko‘zdan yo‘qoldi,*
78.*Ya’ni, to‘g‘rirog‘i, buzildi uyqum.*
79.*Uning shahdi ammo yodimda qoldi,*
80.*Mardona edi u hamda kamsuqum.*
81.*Yillar o‘tib ketdi, ozmi-ko‘p, mana,*
82.*Olam ishlaridan bo‘ldim xabardor.*
83.*Bilaman, Xizr kim va bid’at nima,*
84.*Bilaman, yoshlik ham ketdi betakror.*
85.*Bari o‘tib ketdi bir tush misoli,*
86.*Eslayman goh mahzun, gohida quvnoq.*
87.*Faqat o‘sha siymo, uning xayoli*
88.*Mening shuurimga o‘rnashdi mutloq.*
89.*Dunyo ishlariga bo‘lib yuzma-yuz,*
90.*Goho kelolmasam o‘zim-o‘zimga,*
91.*Uning diydorini qo‘msayman hanuz,*
92.*Ko‘rinsaydi deyman bir zum ko‘zimga.*
93.*Balki ko‘rishmoqqa endi fursat yo‘q,*
94.*Balki kuta berib o‘zim ham toldim*
95.*Va lekin dunyoda u zotning aniq*

96.*Ishi ko‘pligiga ishonib qoldim.*

97.*Mehribon ustozlar nazarida goh*

98.*Uning nigohini payqab qolaman.*

99.*Kimdir hushyor bo‘l, deb, aylasa ogoh,*

100. *O‘sha uchrashuvni yodga olaman.*

101. *Nabi ham, rasul ham emas edi u,*

102. *Lekin u men uchun beqiyos, porloq.*

103. *Balki kelmagayman endi ro‘baro‘,*

104. *Lekin u yo‘limni yoritgan charoq!*

105. *Uning yodi bilan umrim sarafroz,*

106. *Usiz hayot menga mashaqqat edi.*

107. *Eslayman, qomati dol edi bir oz,*

108. *Nomi esa uning Haqiqat edi.*

BİR TANIDIĞIM HAKKINDA BALAT (240)

1. Hatırlarım, çocukluk çağımda bir gün

2. Serseri taş attı bana sebepsiz.

3. Ağladım bir kenarda bağrım olup kan,

4. Etrafa gözümü diktim güçsüz, üzgün bakıp.

5. Elbette, herhangi bir yardım isterdim,

6. Artık, anlaşılır böyle bir hâl.

7. (Çocuk olsanız ki, sizler de kadim,

8. Demek ki, hatırlasam duymam utanç.)

9. Velhasıl, kim gelip yol kenarında

10. Serseri rakibimi tutar sıkı:

11.- Kudurup kaldın mı gücün varken,

12. Başına düştüğünde anlarsın, köşeğim…

13.Çok utanıp gönderdi onu,

14. Sonra geldi bana doğru gülümseyip, sakince:

15.- Sen de çekiverme durmadan burnunu,

16. Gerek olur, kardeşim, hâlâ çok gözyaşı…

17. Dikkatli çekip kaldım böyle, elbette,

18. Hatta cesaretlenmiştim biraz.

19. Onun gözleri parlardı irice,

20. Mert ve yumuşaktı ondaki ses.

21. Dedim: - Hızır mısınız, dedemin söylediği gibi,
22. Yardım eder misiniz böyle anlarda?
23.O meyus gülümseyip, kaşını çattı sakin:
24.- Çocuksun hayalin çok uzaklarda.
25. Neyse, Hızır'ım yahut değilim,
26. Her nasıl durmuşsun karşında ayan.
27. Bir yanlış iş oldu mu, yeter,
28. Kim anlaşma yapsa o benim, yiğit.
29.Çocuğa, elbette hikmet bir yara,
30.Çillek[128] oyunu gibi net tasavvur.
31.O ismini söyledi, gitti bir tarafa,
32. Ben de yavaş yavaş diyerek gittim ne de olsa,
33. Kim çok bu dünyada, her tür çocuk çok,
34. Birimiz huzursuz, birimiz sakin.
35. Ben de kaçını azarladım iyi,
36. Kaçının elinden döktüm de son yaş.
37. Fakat, yıllar geçip, büyüyünce
38.Düşünceye gelirmiş başka sözler.
39.Düşünceye sevk edermiş, belli belirsiz,
40. Her tür eşyadaki her tür taraflar.
41. Kuşatmaya başlarmış beynini vır vır,
42. Niye? Niçin? demiş sorular inatçı,
43. Diyelim, falancanın oğlu, ahmak,
44. Niye imtihana girmeden geçer?
45.Böyle sözlere dikkat etmeyi
46.Öğretmemişti sana babam.
47. Ama görüverip bu gibi işi
48. Lal kalmaya başlamıştım şimdi asıl
49.Tüm olayların sebebini ama
50. Anlamaya kesmezdi aklım.
51.Böyle anlarda gözüme sanki,
52.Görünürdü o tanıdığım.
53. Bir gün yolda denk, Dur acemi
54. Su dolu testisini çil çil kırdı.

[128] Anadolu'daki çelik çomak oyunun mukabilidir.

55. Eve gelince ise, suçlu olarak görün,
56.O üvey abisini tutup vurdu.
57.Tövbe etmek için genç idim henüz,
58. Buna karşın, nereye ulaşırdı şikâyetim?
59.O tanıdığıma o vakitte
60. Hatta mektup yazmaya vermiştim karar
61. Bir yere gönderirdim mektubu, ama
62. Bir yerlerde yürümüş garip o zat.
63. Uzun geceleri onunla yalnız
64. Sohbet eder oldum hayalen tez tez.
65. Vesvese der misiniz, rüya der misiniz,
66. Bilge fikrinize havale bu hâl.
67. Bir gün zabta alıp tasavvur idaresini,
68.Düşte gördüm onu net ve apaçık.
69. Arzımı beyan ettim aynı zamanda,
70. Niye gelmezsiniz deyip tuttum sorguya.
71. Dur aceminin üvey abisi
72. Gittiğini anlattım, uzunca.
73.O meyus gülümserdi: - Anlarım hepsini,
74. Artık, işim çok âlemde, kardeşim.
75. Biriyle başa çıksam, başa çıkamam biriyle,
76. Nasıl yetişirim, yalnızım ben de…
77.Böyle deyip tanıdığım gözden kayboldu,
78. Yani, daha doğrusu, açıldı uykum.
79. Onun balı ama yâdımda kaldı,
80. Merdane idi o hem de mütevazı.
81.Yıllar geçip gitti, az çok, işte
82.Âlem işlerinden oldum haberdar.
83. Bilirim, Hızır kim ve bidat ne,
84. Bilirim, gençlik de gitti tekrarsız.
85. Hepsi geçip gitti bir düş misali,
86. Hatırlarım gâh mahzun, gâh neşeli.
87. Sadece o sima, onun hayali
88. Benim şuuruma yer etti mutlak.
89.Dünya işleriyle olup yüz yüze,
90. Bazen gelemesem kendi kendime,

91. Onun yüzünü özlerim henüz,
92.Görünseydi derim bir an gözüme.
93. Belki görüşmeye şimdi zaman yok,
94. Belki bekleyiverip kendim de doldum
95. Velakin dünyada o zatın açık
96.İşi çokluğuna inanıp kaldım.
97.Şefkatli üstatlar nazarında bazen
98. Onun bakışını hissedip kalırım.
99. Kim uyanık ol, deyip, anlasa etse haberdar,
100. O karşılaşmayı yâdıma getiririm.
101. Nebi de, Resul de değildi o,
102. Ama o benim için sonsuz, ışık saçan.
103. Belki gelmeyeceğim şimdi karşısına,
104. Ama o yolumu aydınlatan ışık!
105. Onun yâdıyla ömrüm şad,
106. Akılsız hayat bana meşakkatti.
107. Hatırlarım, cüssesi dikti biraz,
108. Namı ise onun Hakikat'tı. (1976)

MALOMAT TOSHLARI (241)

1. *Hushyor boq, to foniy umr kechadi,*
2. *Tegrangda turfa xil toshlar uchadi.*
3. *Biri qora hasad yo g'araz toshi,*
4. *Biri yovuz tuhmat yo maraz toshi.*
5. *Mayliga qay biri kelmasin, qachon,*
6. *Ulardan muddao hamisha ayon.*
7. *Ular sabr kosang to'ldirmoq bo'lar,*
8. *Ular umring gulin so'ldirmoq bo'lar.*
9. *Boshimdan o'tganin etsam gar bayon,*
10.*Hushyor boq ularga hamisha, o'g'lon.*
11.*Va lekin dunyoda o'zga tosh ham bor,*
12.*U senga yetkazmas behuda ozor.*
13.*U aslo ko'ksinga o'q kabi botmas.*
14.*Taning zirqiratib, burning qonatmas.*
15.*Umring yo'llariga bo'lmagay u band,*

16.*Yo ko‘ngil shishasin etmagay parkand.*
17.*Sen tomon nolakor, qay on yetar u,*
18.*G‘aflat farishtasin bedor etar u.*
19.*Idrokning mavjiga tekkani zamon,*
20.*U mudroq ruhingga solgay g‘alayon.*
21.*U vijdon tamali, diyonat toshi,*
22.*Malomat toshi bu, malomat toshi!*
23.*U balki aliksiz qolgan bir salom,*
24.*U balki avjida bo‘lingan kalom.*
25.*U balki do‘stingga ochib dil, yurak,*
26.*To‘yida aytilmay qolgan bir tilak.*
27.*Farzandi duch kelgay balki alomat,*
28.*Jajji qo‘llarida sangi malomat.*
29.*Qabr tepasidan tosh haykal boqur,*
30.*Olis xotiralar gulxanin yoqur.*
31.*Sen unga so‘nggi dam egganmiding bosh,*
32.*Oh, nechog‘ shafqatsiz tosh erur bu tosh.*
33.*Insonning to fazlu falokati bor,*
34.*Uning bir-biriga malomati bor.*
35.*Tashrifga ko‘z tikkan bemorlardan to*
36.*Shohlar diligacha malomatdir jo.*
37.*Baxtsiz kimsalarning ko‘zdagi yoshi,*
38.*Asli, yaratganga malomat toshi.*
39.*Janglardan qaytmagan farzandi uchun*
40.*Onalar dilida malomat tugun.*
41.*Qadim odamzodga necha ming zamon*
42.*Malomat toshlari hamroh har qachon.*
43.*Asriy koshonaga to ofat kelur,*
44.*Nolakor moziydan malomat kelur.*
45.*Ming yillab samoga boqdi odamzod,*
46.*Falakdan tiladi madad va imdod.*
47.*Va lekin topgani falokat bo‘ldi,*
48.*Shul sabab har so‘zi malomat bo‘ldi.*
49.*Chorasiz Mashrabning qiyomati bu,*
50.*Insonning xudoga malomati bu!*
51.*“Men odam edim-ku, inson farzandi!”*

52.*Bu - yetim G‘afurning malomat bandi.*

53.*Hanuz sarhadlardan g‘amgin sas kelur,*

54.*Malomat toshlari basma-bas kelur.*

55.*Odamni mahv etur farzandi odam,*

56.*Odam erur ammo tomoshabin ham.*

57.*Yetim go‘daklarning ko‘zdagi yoshi,*

58.*Bu - jumla jahonga malomat toshi.*

59.*Gar buyuk zamonga farzand erurmiz,*

60.*Adolat birla gar payvand erurmiz.*

61.*Odam qadri magar buyukdan buyuk,*

62.*Lekin qay dillarda malomat tuguk.*

63.*Ne deb so‘zlagankin, boqib biz sari,*

64.*Betimsol Oybekning horg‘in ko‘zlari?!*

65.*Sarg‘aygan sahfalar aro boqib tek,*

66.*Qodiriy qabrini so‘rar Otabek.*

67.*Yiroq sohillarda taralib ohi,*

68.*Kezar Alendining qonli arvohi.*

69.*Ha, qonu ter bilan yo‘g‘rilib kam-kam,*

70.*Shundoq barpo bo‘ldi davron muhtasham.*

71.*Har lahza moziyga garchand ketajak,*

72.*Lekin oldda bizni kutar kelajak.*

73.*Gar qolur bizdan ham ezgulik, karam,*

74.*Lekin degaylarmi bizni mukarram?!*

75.*Mudroq vijdon uchun, soxta shon uchun,*

76.*Behuda to‘kilgan qancha qon uchun,*

77.*Zaminning tuzalmas jarohati deb,*

78.*Moviy dunyolarning halovati deb,*

79.*Bir kun egilmasmi odamzod boshi,*

80.*Bizga ham yog‘masmi malomat toshi?*

81.*O, buyuk mavjudot, hazrati inson,*

82.*Sening asling gahi g‘aflati inson.*

83.*Gahi sen barkamol bo‘lib ko‘rinding,*

84.*Gahi bechorahol bo‘lib ko‘rinding.*

85.*Yulduzin boshingdan sochsa ham samo,*

86.*Goho o‘z qadringni bilmading, ammo.*

87.*Ezgulik yo‘lida har bitta qadam*

88.*Rahmat muhri erur senga, ey odam!*

89.*Olam uzra bukun ko‘tarmishsan qad,*

90.*Unutma, buyuksan, buyuksan behad.*

91.*To kezar boshingda himmat quyoshi,*

92.*Senga yog‘masa bas, malomat toshi!..*

SİTEM TAŞLARI (241)

1. Dikkatli bak, ta fâni ömür geçer,

2. Etrafında garip türde taşlar atılır,

3. Biri kara haset veya garez taşı,

4. Biri kötü iftira yahut maraz taşı.

5. Peki hangi biri gelmesin, ne zaman,

6. Onlardan istek daima ayan.

7. Onlar sabır kâseni doldurmak olur,

8. Onlar ömrünün gülünü soldurmak olur.

9. Başımdan geçeni etsem eğer beyan,

10. Dikkatli bak onlara daima, oğlan.

11. Velakin dünyada başka taş da var,

12.O sana ulaşmaz beyhude azar.

13.O asla göğsüne ok gibi batmaz.

14. Bedenini acıtıp, burnunu kanatmaz.

15.Ömrün yollarına olmasın o esir,

16. Yahut gönül şişesi parçalanmasın kırılıp.

17. Sana doğru nalekâr, hangi an yeter o,

18. Gaflet meleğini uyanık eder o.

19.İdrakin dalgasına değdiği zaman,

20.O uyuklayan ruhuna salsın galeyan.

21.O vicdan temeli, doğruluk taşı,

22. Sitem taşı bu, sitem taşı!

23.O belki cevapsız kalan bir selam,

24.O belki zirvesinde olunan bir kelam.

25.O belki dostuna açıp gönül, yürek,

26. Toyunda söylenmeden kalmış bir dilek.

27.Çocuğa rastlayacak belki alamet,

28. Minik ellerinde taş-ı sitem.

29. Kabir tepesinden taş heykel bakar,
30. Uzak hatıralar ateşini yakar.
31. Sen ona son kez eğmiş miydin baş,
32. Ah, ne kadar şefkatsiz taştır bu taş.
33.İnsanın ta fazilet ve felaketi var,
34. Onun birbirine sitemi var.
35. Ziyarete göz diken hastalardan ta
36.Şahlar gönlüne dek sitemdir sığan.
37. Bahtsız kimselerin gözdeki yaşı,
38. Aslı, yaratana sitem taşı.
39. Savaşlardan dönmeyen çocuğu için
40. Analar gönlünde sitem düğüm.
41. Kadim insanoğluna niçin bin zaman
42. Sitem taşları yoldaş her zaman.
43. Asırlar boyu süren saraya ta afet gelir,
44. Nalekâr maziden sitem gelir.
45. Binlerce yıl semaya baktı insanoğlu,
46. Felekten diler medet ve imdat.
47. Velakin bulduğu felaket oldu,
48. Bu sebepten her sözü taş oldu.
49.Çaresiz Meşrep'in kıyameti bu,
50.İnsanın tanrıya sitemi bu!
51."Ben insandım, insan evladı!"
52. Bu, yetim Gafur'un sitem bendi.
53. Henüz serhatlardan gamlı ses gelir.
54. Melamet taşları tekrar tekrar *gelir*.
55.İnsanı mahveder çocuğu adam,
56.İnsandır ama izleyen de.
57. Yetim bebeklerin gözdeki yaşı,
58. Bu, cümle cihana sitem taşı.
59.Eğer büyük cihana çocuğuzdur,
60. Adalet ile meğer birleşmişiz.
61.İnsan kadri meğer çok büyük,
62. Ama hangi gönüllerde sitem düğüm.
63. Ne diye konuşmuş ki, bakıp bize doğru,
64. Timsalsiz Aybek'in yorgun gözleri?!

65. Sararan sayfalar arasına bakıp sessiz,
66. Kudretli kabrini sorar Atabek.
67. Uzak sahillerde yayılıp ahı,
68. Gezer Al'endin'in kanlı ervahı.
69. Evet, kan ve terle yoğrulup az az,
70.Böyle perva oldu devran muhteşem.
71. Her an maziye gerçi gidecek,
72. Ama önde bizi bekler gelecek.
73.Eğer kalır bizden de iyilik, kerem,
74. Ama diyecekler mi bize mükerrem?!
75. Uyuklayan vicdan için, sahte şan için,
76. Beyhude dökülen nice kan için,
77. Zeminin düzelmez hasarı diye,
78. Mavi dünyaların huzuru diye,
79. Bir gün eğilmez mi insanoğlu başı,
80. Bize de yağmaz mı sitem taşı?
81. Ey, büyük mevcudat, hazreti insan,
82. Senin aslın bazen gaflet-i insan.
83.Gâh sen berkemal olarak göründün,
84.Gâh çaresiz olarak göründün.
85.Yıldızını başından saçsa da sema,
86. Bazen kendi kadrini bilmedin, ama.
87.İyilik yolunda her bir adım
88. Rahmet mührüdür sana, ey insan!
89.Âlem üzerinde bugün atmışsın boy,
90. Unutma, büyüksün, büyüksün çok.
91. Ta gezer başında himmet güneşi,
92. Sana yağmasa yeter, sitem taşı!.. (1976)

XOTIRA (242)

1. *Bilmadim, sen qanday yo'lchi qush eding,*
2. *Bir zum qo'nib o'tding oshiyonimga.*
3. *Bilmadim, sen qanday sirli tush eding,*
4. *Ko'z ochsam, hasratlar solding jonimga.*
5. *Menga-ku, ariqda oqqan suvni ham,*

6. *Goho minnat bilan uzatdi dunyo.*

7. *Netay polaponim, bu ziqna olam,*

8. *Senga o‘shani ham ko‘rmabdi ravo.*

9. *Yashamoq sening ham haqqing edi-ku,*

10.*Ajal qo‘ng‘irog‘in ne uchun chalding.*

11.*Sen onang dilida tirik bir qayg‘u,*

12.*Otang yuragida chaqinday qolding.*

13.*Kelish-ketishingdan ne edi matlab,*

14.*Ne uchun boshimga solding buncha g‘am.*

15.*Anor donasidek qatoring o‘rtab,*

16.*Bag‘rimdan sitilib ketding-ku, bolam...*

HATIRA (242)

1. Anlamadım sen nasıl yolcu kuş idin,

2. Bir an konup geçtin aşiyanıma.

3. Anlamadım, sen nasıl sırlı düş idin,

4. Göz açsam, hasretler saldın canıma.

5. Bana arıkta akan suyu da,

6. Bazen minnetle uzattı dünya.

7. Çaresiz civcivim, bu cimri âlem,

8. Sana onu da görmemiş reva,

9. Yaşamak senin de hakkındı,

10. Ecel çanını niçin çaldın?

11. Sen ananın gönlünde canlı bir kaygı,

12. Babanın yüreğinde ateş gibi kaldın.

13. Geliş gidişinden ne idi amaç,

14. Niçin başıma saldın bunca gam?

15. Nar tanesi gibi sıranı yakıp,

16. Bağrımdan kopup gittin, evladım… (1976)

OMAD HAQIDA (243)

1. *Omad degan narsa dunyoda bor gap*

2. *Bu yerda har qanday xurofot bekor.*

3. *Hozir sen she’rimni turibsan tinglab,*

4. *Demak, sen - hayotsan, omad senga yor.*

5. *Boshqacha qismat ham mavjud-ku, axir,*
6. *Baloyi qazodan asrasin zinhor,*
7. *Men senga she'r o'qib turibman hozir,*
8. *Demak, men - hayotman, omad menga yor.*

9. *Qolgan o'rtadagi gaplarni endi*
10.*Nima deb atasang senda ixtiyor,*
11.*Falaqda hattoki quyosh bekindi,*
12.*Bizlar barhayotmiz, omad bizga yor!*

TALİH HAKKINDA (243)

1. Talih denen şeye dünyada var söz,
2. Bu toprakta her nasılsa hurafe boş.
3. Şimdi sen şiirimi durmuşsun dinleyip,
4. Demek, sen hayatsın, talih sana yâr.

5. Başka kısmet de mevcut, artık,
6. Bela ve kazadan korusun zinhar,
7. Ben sana şiir okuyup durmuşum hazır,
8. Demek, ben hayatım, talih bana yâr.

9. Kalan ortadaki sözleri şimdi
10. Ne diye adlandıracaksın sende ihtiyar.
11. Felekte hatta güneş gizlendi,
12. Bizler canlıyız, talih bize yâr! (1976)

SURAT VA SIYRAT (244)

1. *Mayli, suvratimga boqqilu quvon,*
2. *Lekin siyratimga tashlama nazar.*

3. *Bir yoqdan tuganmas baxt berdi jahon,*

4. *Bir yoqdan tuganmas o‘kinch va kadar.*

5. *Charog‘on umrimni yoritgan quyosh,*

6. *Torgina kulbamga boqmadi goho.*

7. *Zamindek aylangan savdoli bu bosh*

8. *Qoldi qismat ichra zamindek tanho.*

9. *Oh, nechog‘ ranglarga to‘liq bu jahon,*

10.*Oh, nechog‘ shirin shu tiriklik, kadar.*

11.*Mayli, suvratimga boqqilu quvon,*

12.*Faqat siyratimga tashlama nazar.*

SURET VE SİRET (244)

1. Peki, suretime bak memnun,

2. Ama siretime etme nazar.

3. Bir yandan tükenmez baht verdi cihan,

4. Bir yandan tükenmez pişmanlık ve keder.

5. Parlak ömrümü aydınlatan güneş,

6. Daracık kulübeme bakmadı bazen.

7. Zemin gibi dönen sevdalı bu baş

8. Kaldı kısmet içinde zemin gibi yalnız.

9. Ah, ne kadar renklerle dolu bu cihan,

10. Ah, ne kadar şirin bu hayat, keder.

11. Peki, suretime bak memnun,

12. Sadece siretime etme nazar. (1976)

TAQLIDCHI SHOIRGA (245)

1. *Taqlid qila bergin yetsa bardoshing,*

2. *Modomiki senda bor ekan havas.*

3. *Faqat bir qora kun ko‘tarib boshing,*

4. *Asl nusxaman deb dod solmasang bas.*

TAKLİTÇİ ŞAİRE (245)

1. Taklit ediver yeterse sabrın,

2. Mademki sende varmış heves.

3. Sadece bir kara gün kaldırıp başın,

4. Asıl nüshayım deyip feryat etmezsen yeter. (1976)

BAHOR SENIKIDIR (246)

Qizim Yulduzga

1. *Bahor senikidir,*

2. *Yugur entikib,*

3. *Yugur adirlarning lolazoriga.*

4. *Men esa quvonay ko‘zimni tikib,*

5. *Tog‘larning hayotbaxsh, toza qoriga.*

6. *Bahor senikidir,*

7. *Tolma yelishdan.*

8. *Yugur, sochlaringga bargaklar taqib.*

9. *Men esa quvonay qahraton qishdan*

10.*Omon chiqa olgan ildizga boqib.*

BAHAR SENİNKİDİR (246)

Kızım Yıldız’a

1. Bahar seninkidir,

2. Koş nefesin kesilip,

3. Koş kırların lalezarına.

4. Ben ise sevineyim gözümü dikip,

5. Dağların hayat bahşeden, temiz karına.

6. Bahar seninkidir,
7. Yorulma esmekten.
8. Koş, saçlarına kuru kayısılar takıp.
9. Ben ise sevineyim zemheri kıştan
10. Sağ çıkabilen yıldıza bakıp. (1976)

SURUR (247)

1. *Qish chog‘in beg‘ubor tongidir ushbu,*
2. *To‘rt taraf qor ichra - tomosha ko‘zgu.*
3. *Hali ko‘zlaringda novvotrang uyqu,*
4. *Har nechuk, nahoring muborak bo‘lsin!*
5. *Ne baxtki, sen bilan egizak surur,*
6. *Mayli bahordir u, mayli qish erur.*
7. *Osoyish zamonda qalbingda g‘urur,*
8. *Vataning, diyoring muborak bo‘lsin!*
9. *Sendan nelar kutar bu olam-jahon,*
10.*Bir yonda zaminu bir yon qahkashon.*
11.*Eh-he, saflaring ham necha ming, milyon,*
12.*Shu cheksiz qatoring muborak bo‘lsin.*
13.*Hali tong quyoshi tog‘u toshdadir,*
14.*Ne yorug‘ o‘ylar ham mudroq boshdadir.*
15.*Sen olti, bobong-chi oltmish yoshdadir,*
16.*Qo‘shaloq bahoring muborak bo‘lsin.*

SÜRUR (247)

1. Kış mevsiminin tertemiz şafağıdır bu,
2. Dört taraf kar içinde, gösteri aynası.
3. Hâlâ gözlerinde kaya şekeri renkli uyku,
4. Her nasılsa, şafağın mübarek olsun!
5. Ne baht ki, seninle ikiz sürur,
6. Peki bahardır o, peki kıştır.
7. Dingin zamanda kalbinde gurur,
8. Vatanın, diyarın mübarek olsun!
9. Senden neler bekler bu âlem, cihan,

10. Bir yanda zemin ve bir yanda kehkeşan.
11. Eh, saflarında nice bin, milyon,
12. Bu sonsuz sıran mübarek olsun.
13.Hâlâ şafak güneşi dağ ve taştadır,
14. Ne parlak fikirler de rehavet baştadır.
15. Sen altı, deden altmış yaştadır,
16.Çifte baharın mübarek olsun. (1977)

MOMO OFTOB (248)

Eng kichik zarradan Yupitergacha

O‘zing murabbiysan.

G‘afur G‘ulom

1. *Ey, sen momo quyosh, ey bibi oftob,*
2. *Yolg‘iz sen charog‘san, yorsan boshimda.*
3. *Zardushtiy misoli yukinib shu tob,*
4. *O‘tinib tururman yigit yoshimda.*
5. *So‘nggi dam chorasiz Muqanna sifat,*
6. *Dil so‘zim o‘zingga aytay sarosar.*
7. *Oftobim shu kelar yilda ham faqat,*
8. *Shodliklar taratgin elga barobar.*
9. *Zulmat go‘shalarni tundan et forig‘,*
10.*Baxt tomsin shulangning zar qanotidan.*
11.*Oftobim, himmating tutmagil darig‘,*
12.*Dunyoda hech bitta inson zotidan.*
13.*Oydin derazadan kirib bor avval,*
14.*Umidvor bemorning xonasi tomon.*
15.*Baxsh etgin unga ham umri mukammal,*
16.*U ham bahorlarga yetolsin omon.*
17.*Tonggi shu’lang kabi tarat tabassum,*
18.*Ma’sum go‘daklarning dudoqlariga.*
19.*Qatra yosh tommasin aslo, biror zum,*
20.*Munis onalarning yonoqlariga.*

21.*Balki sahar chog‘i ko‘z ochib o‘qtin,*
22.*Keksa chol sen tomon boqqay intizor.*
23.*Balki u tilagay umridan bir kun,*
24.*Oftobim, unga ham rahm etgil zinhor.*
25.*Oftobim, garchi bu koinot aro*
26.*Mo‘l senga aytgulik orzu ham tilak,*
27.*Mangu bir armonga bovar et ammo,*
28.*Hanuz ko‘p dunyoda muz qotgan yurak.*
29.*Oftobim, mayliga, bir tong, biror zum*
30.*Taftingga chulg‘ama dala-tuzlarni,*
31.*O‘sha zotlarga ham qilgil tarahhum -*
32.*Erit dillardagi qotgan muzlarni.*
33.*O, qancha yurakni etmishdir asir,*
34.*Hasad deb atalgan qora bir balo.*
35.*Oftobim, shular ham kun ko‘rsin axir,*
36.*Zulmat qalblariga yubor nur-ziyo.*
37.*Sening-ku, dargohing behad, bepoyon,*
38.*Mana bu G‘arb bo‘lsa, mana bu Mashriq.*
39.*Poyingda bu jahon misli bir oshyon,*
40.*Inson bamisoli sochilgan tariq.*
41.*Ustoz lutf etgandek, olamda ne bor -*
42.*Bariga murabbiy sensan doimo.*
43.*Oftobim, shu munis zaminni zinhor -*
44.*Mehru shafqatingdan etma mosuvo.*
45.*Do‘stlar safida shod tarona aytib,*
46.*Men ham dildan senga qilurman xitob,*
47.*Har o‘tgan zum uchun shukrona aytib,*
48.*Senga talpinurman, ey momo oftob!*

AFİTAP NİNE (248)

En küçük zerreden Jüpiter’e kadar

Kendin muallimsin.

Gafur Gulam

1. Ey, sen güneş nene, ey afitap hanım,
2. Sadece sen ışıksın, yârsın başımda.
3. Zerdüşt misali iltica edip şu an,
4. Yalvarıp dururum genç yaşımda.
5. Son an çaresiz Mukanna sıfat,
6. Gönül sözümü kendine söyleyeyim seraser.
7. Afitabım bu gelecek yılda da sadece,
8. Şadlıklar saç halka beraber.
9. Zulmet yerlerini geceden et farig,
10. Baht damlasın ışığının altın kanadından.
11. Afitabım, himmetin tutma etme himaye,
12.Dünyada hiçbir insan zatından.
13.Açık pencereden gir evvel,
14.Ümitvar hastanın odasına doğru.
15. Bahşet ona da ömrü mükemmel,
16.O da baharlara erişsin esenlikle.
17.Şafaktaki ışığın gibi saç tebessüm,
18. Masum bebeklerin dudaklarına.
19. Damla yaş damlamasın asla, bir an,
20. Dost anaların yanaklarına.
21. Belki seher vakti göz açıp tekrar,
22.İhtiyar adam sana doğru bakayım intizar.
23. Belki o dilesin ömründen bir gün,
24. Afitabım, ona da merhamet et zinhar.
25. Afitabım, gerçi bu kâinat içinde
26.Çok sana söylemek arzu ve dilek,
27. Ebedî bir ukdeye itimat et ama,
28. Henüz çok dünyada buz gibi katılaşmış yürek.
29. Afitabım, olsun, bir şafak, bir an
30.Sıcağına sarma kır ve çölleri,
31.O zatlara da et merhamet
32. Erit gönüllerdeki katılaşan buzları.
33. Aaa, nice yüreği etmiştir esir,
34. Haset diye adlandırılan kara bir bela.
35. Afitabım, bunlar da gün görsün artık,
36. Zulmet kalplerine gönder nur ziya.

37. Senin, dergâhın sınırsız, sonsuz,
38.İşte bu Garp ise, işte bu Maşrik.
39. Payında bu cihan benzeri bir aşiyan,
40.İnsan tıpkı saçılmış darı.
41.Üstadın lütuf ettiği gibi, âlemde ne var,
42. Hepsine muallim sensin daima.
43. Afitabım, bu dost zemini zinhar,
44. Rahmet ve şefkatinden etme mâsivâ.
45. Dostlar safında mutlu nağme söyleyip,
46. Ben de gönülden sana ederim hitap,
47. Her geçen an için şükrane söyleyip,
48. Sana elimi uzatırım, ey afitap nine! (1977)

NISBIYLIK (249)

1. *Juda yaxshi! - deymiz mana bu narsa,*
2. *Go‘yo hukm kabi yangrar so‘zimiz.*
3. *O‘ylab ko‘rganmizmi hech biror marta,*
4. *Kimmiz o‘zimiz?*
5. *Juda yomon! - deymiz mana bu narsa,*
6. *Go‘yo hukm kabi yangrar so‘zimiz.*
7. *O‘ylab ko‘rganmizmi hech biror marta,*
8. *Xo‘sh, kim o‘zimiz?*
9. *Kimgadir yoqamiz biz o‘zimiz ham,*
10.*Kimgadir yoqmaymiz biz ham o‘zimiz.*
11.*Shunaqa charxpalak ekan bu olam,*
12.*Demak, nisbiy erur har bir so‘zimiz.*

GÖRECELİLİK (249)

1. Çok iyi! deriz işte bu şey,
2. Sanki hüküm gibi çınlar sözümüz.
3. Düşünüp gördüğümüzü hiçbir kez,
4. Kimiz kendimiz?
5. Çok kötü! deriz işte bu şey,
6. Sanki hüküm gibi çınlar sözümüz.

7. Düşünüp gördüğümüzü hiçbir kez,

8. Evet, kimiz kendimiz?

9. Kiminden hoşlanırız biz kendimiz de,

10. Kiminden hoşlanırız biz de kendimiz.

11.Böyle çembermiş bu âlem,

12. Demek, nisbidir her bir sözümüz. (1977)

MISH-MISH (250)

1. *Uning mish-mishidan ranjimang aslo,*

2. *Nima bo‘lsa asli naslida bo‘lgan.*

3. *Ona qornidanoq o‘zi ham hatto,*

4. *Asli mish-mish bilan dunyoga kelgan.*

DEDİKODU (250)

1. Onun dedikodularından incinmeyin asla,

2. Neyse aslı neslinde olmuş.

3. Anne karnından kendisi de hatta,

4. Aslı dedikoduyla dünyaya gelmiş. (1977)

G‘AZAL (251)

1. *Bu ishq sirrin kitob etding, kitobing ichra men borman,*

2. *O‘qurman deb xitob etding, xitobing ichra men borman.*

3. *Yarashgaydir, ajab, senga ajab nozu tamannolar,*

4. *Keturman, deb shitob etding, shitobing ichra men borman.*

5. *Yuzing hajri bilan oqqan labolab chashm selobin -*

6. *Ichurman, deb sharob etding, sharobing ichra men borman.*

7. *Umid uzgil, deding oshiq, muhabbat rishtasin uzgum,*

8. *Uzurman, deb azob etding, azobing ichra men borman.*

9. *Qayon qoldi o‘shal so‘zkim muhabbat ko‘shkini, ey yor,*

10.*Tuzurman, deb sarob etding, sarobing ichra men borman.*

11.*Dilimda qolgan ushbu har na manzil kulbai ishqni -*

12.*Buzurman, deb xarob etding, xarobing ichra men borman.*

13.*Muhabbat gulshani ichra olib Abdullaning qalbin,*

14.*Chalurman, deb rubob etding, rubobing ichra men borman.*

GAZEL (251)

1. Bu aşk sırrını kitap ettin, kitabın içinde ben varım,

2. Okurum diye hitap ettin, hitabın içinde ben varım.

3. Yakışacaktır, güzel, sana hoş naz ve cilveler,

4. Giderim, diye acele ettin, acelen içinde ben varım.

5. Yüzün hicriyle akan dolup taşmış pınar selini

6. İçerim, diye şarap ettin, şarabın içinde ben varım.

7. Ümit kes, dedin âşık, muhabbet bağını kesenim,

8. Keserim, diye azap ettin, azabın içinde ben varım.

9. Nerede kaldı o söz ki muhabbet köşkünü, ey yâr,

10. Kurarım, diye serap ettin, serabın içinde ben varım.

11.Gönlümde kalan bu her ne menzil kulübe-i aşkını,

12. Bozarım, diye harap ettin, harabın içinde ben varım.

13. Muhabbet gülşeni içine alıp Abdulla'nın kalbini,

14.Çalarım, diye rubab ettin, rubabın içinde ben varım (1977)

QOR (252)

1. *Bul ajoyib kun erurkim,*

2. *Yaltirar har yonda qor.*

3. *Ko'kda oftob, yerda yulduz,*

4. *Garchi yo'q osmonda qor.*

5. *Bul g'aroyib she'r nedur deb*

6. *Parpirar Yulduz qizim.*

7. *Men degayman, boq, azizim,*

8. *Xadra-yu Do'rmonda qor.*

9. *Yettiga to'lmish, to'kilmish*

10.*Katta qizning tishlari.*

11.*Oq sadafmi ushbu yonda*

12.*Dur kabi dandonda qor.*

13.*Suhbat aylab turgan erdim*

14.*Men Zarif qizcham bilan,*

15.*Kimdir aytdi: ko'p yo'talmang*

16.*Ikkingiz, balkonda qor.*

17.*Ushbu qorkim erga-indin*

18.*Suv bo'lar, bo'ston bo'lar.*

19.*Sochda ko'rdim to'rtta tola*

20.*Bul asl bo'stonda qor.*

KAR (252)

1. Bu hoş bir gündür ki,

2. Parlar her yanda kar.
3. Gökte güneş, yerde yıldız,
4. Gerçi yok asumanda kar.

5. Bu garip şiir nedir diye
6. Parlar Yıldız kızım.
7. Ben diyeceğim, bak, azizim,
8. Harda ve Dormon'da kar.

9. Yediyi doldurmuş, dökülmüş
10.Büyük kızın dişleri.
11. Ak sedefim bu yanda
12.İnci gibi dişte kar.

13. Sohbet edip durmuştum
14. Ben Zarif küçük kızımla,
15. Kim dedi: çok öksürmeyin
16.İkiniz, balkonda kar.

17. Bu korkum yarın bir gün
18. Su olur, bostan olur.
19. Saçta gördüm dört kurdele
20. Bu asıl bostanda kar. (1977)

TARJIMAI HOL (253)

1. *Do'stlar uchrashadi: - Salom! - Yaxshi qol!*
2. *Aslida mana shu tarjimai hol.*
3. *G'animlar duch kelar - jang bo'lar puxta,*
4. *Tarjimai holga qo'yilar nuqta.*

TERCÜME-İ HÂL (253)

1. Dostlar karşılaşır: - Selam! - İyi kal!
2. Aslında işte bu tercüme-i hâl.
3. Düşmanlar karşılaşır, savaş olur sağlam,
4. Tercüme-i hâle koyulur nokta. (1977)

"TUMAN TUSHAYOTIR…" (254)

Asqad Muxtorga

1. *Tuman tushayotir qirlarga sokin,*
2. *Do'rmon bog'larida billur qahraton.*
3. *Majnuntol uvatda horg'in olar tin,*
4. *Oppoq sochlarini yoygan parishon.*
5. *Nogoh uyqu ichra qarsillar eman,*
6. *Atrofda sukutning horg'in nafasi.*
7. *Balki dalalarga cho'kkan bu tuman,*
8. *Yiroq yulduzlarning sirli sharpasi.*

"SİS DÜŞER…" (254)

Askad Muhtar'a

1. Sis düşer kırlara yavaşça,
2. Dorman bağlarında billur zemheri.
3. Salkım söğüt yolda yorgun alır nefes,
4. Bembeyaz saçlarını yaymış perişan.
5. Ansızın uyku içinde hışırdar meşe,
6. Etrafta sükûtun yorgun nefesi.
7. Belki kırlara çöken bu sis,
8. Uzak yıldızların sırlı gölgesi. (1977)

YILLAR ARMONI (255)

1. *Kimgadir yaxshi gal aytdik, birodar,*
2. *Kimdir bir umrga ranjib ham ketdi.*
3. *Kun kecha yosh derdik o‘zni bir qadar,*
4. *Bugun-chi, balog‘at payti ham yetdi.*

5. *Inson o‘z umrini o‘ylasa ko‘p vaqt*
6. *Qiynaydi o‘zidan o‘tgan qusurlar.*
7. *Kimgadir aytilmay qolgan bir rahmat,*
8. *Kimdandir so‘rolmay qolgan uzrlar.*

9. *Mukammal ko‘rmoqchi bo‘ldik dunyoni,*
10.*Yetuk bo‘lolmadik o‘zimiz biroq,*
11.*O, yillar armoni, yillar armoni,*
12.*Armon ko‘rmadim men sendan buyukroq.*

13.*Insonga tobemas zamon, inchunun,*
14.*Inson yuragida alamlar qat-qat.*
15.*Faqat bir taskin bor, barchasi uchun*
16.*Afsus cheka bilsang - shu ham bir davlat.*

YILLAR UKDESİ (255)

1. Kime iyi söz söyledik birader,
2. Kim bir ömre gücenip de gitti.
3. Gündüz gece genç derdik kendisi bir kadar,
4. Bugün, olgunluk vakti de erişti.

5. İnsan kendi ömrünü düşünse çoğu zaman
6. Azap çeker kendisinden geçen hatalar.
7. Kimine söylenmeden kalmış bir teşekkür,
8. Kiminden dilenmeden kalmış özürler.

9. Mükemmel görecek olduk dünyayı,
10. Olgun olamadık kendimiz ancak.
11. Heyhat, yıllar ukdesi, yıllar ukdesi,
12. Ukde görmedim ben senden daha büyük.

13.İnsana tabi değil zaman, böyle,
14.İnsan yüreğinde elemler kat kat.
15. Sadece bir teskin var, hepsi için
16. Esef çekebilsen, bu da bir devlet. (1977)

"KOINOT GULTOJI INSONDIR AZAL…" (256)

1. *Koinot gultoji insondir azal,*
2. *Undadir eng oliy tafakkur, amal.*
3. *Hatto u tubanlik ichra ham tanho,*
4. *Yo falak, ijoding buncha mukammal.*

"KÂİNAT KOROLLASI İNSANDIR EZEL…" (256)

1. Kâinat korollası insandır ezel,
2. Ondadır en yüce tefekkür, emel.
3. Hatta o alçaklık içinde de yalnız,
4. Yahut felek, sanatın bu kadar mükemmel. (1977)

YANVAR (257)

1. *Yana dalalarning shovqini tindi,*
2. *Yana raqqosadek tindi momiq qor.*
3. *Yanvar oqshomlari, ayvonda endi*
4. *Xayol surmaklikni etding ixtiyor.*

5. *Bu - oyna ko'l emas, qish - bu, zamharir*
6. *Ko'ngil tublarida sirli xayollar.*
7. *Borliq ham misoli o'ychan musavvir*
8. *Naqsh etmish derazang uzra savollar.*

9. *Zangori bahorni yotar tush ko‘rib,*
10.*Qaydadir - ummonlar tubida quyosh.*
11.*Momo qish oq jujun to‘qir o‘ltirib,*
12.*Kelinchak zaminga yagona sirdosh.*

13.*Oppoq ro‘moliga o‘rab kurtagin*
14.*Uxlaydi qish bo‘yi bu zangor chiroy.*
15.*Faqat, orom ol, deb so‘ylab ertagin*
16.*Kezadi dalalar tepasida oy...*

OCAK (257)

1. Yine kırların gürültüsü kesildi,
2. Yine rakkase gibi durdu pamuk kar.
3. Ocak akşamları, eyvanda şimdi
4. Hayal kurmayı ettim arzu.

5. Bu cam göl değil kış, bu, zemheri
6. Gönül derinlerinde sırlı hayaller.
7. Varlık da dalgın ressam misali
8. Nakşetmiş pencerenin üzerine sorular.

9. Yeşil baharı yatar düş görüp,
10. Bir yerdedir, ummanlar dibinde güneş.
11. Nine kış ak ipek dokur öldürüp,
12. Gelincik zemine yegâne sırdaş.

13. Bembeyaz başörtüsü sarıp goncasını
14. Uyur kış boyu bu yeşil güzel.
15. Sadece, huzur al, diye söyleyip masalını
16. Gezer kırlar tepesinde ay… (1978)

IKAR (258)

(Talabalarga)

1. *Fazoga ilk bora qanot qoqqanni*
2. *Ikar deb atamish xayolan inson.*
3. *O‘zini beayov o‘tda yoqqanni*
4. *Unutmay yuradi abadiy jahon.*

5. *Ikar bitta emas, yo‘q, bitta emas,*
6. *Sanog‘i yulduzlar misoli katta.*
7. *Kimki ilk savobga iz ochdimi, bas.*
8. *Shu yilning Ikari bo‘lgay, albatta.*

9. *Yarog‘im yo‘q deya ilk bora qo‘lin*
10.*Salomga cho‘zgan ham Ikar atalgay.*
11.*Tark etib g‘ordagi asriy manzilin*
12.*Ilk chayla tuzgan ham Ikar atalgay.*

13.*Ikardir Prometey nomini olib,*
14.*O‘t izlab xudolar qoshiga borgan.*
15.*Ikardir ilk sevgi domida qolib*
16. *“Yallama yorim”ni kuylab yuborgan.*

17.*Odamzod boshidan o‘tib ne kunlar,*
18.*Ikarsiz qolmagan lekin hech qachon.*
19.*Birovin jigarin cho‘qib quzg‘unlar,*
20.*Birovi o‘tlarda yongan beomon.*

21.*Gullar maydonida anqiydi hanuz*
22.*Jasur Brunoning jizg‘anak dudi.*
23.*Yovqur Spartakka buraymi yo yuz,*
24.*Yo rab, Ikar zotin bormi hududi.*

25.*Nurga, ro‘shnolikka baxsh etib o‘zni*
26.*Ne zotlar o‘tmadi qadimdan qadim.*
27.*Ne ajab, hattoki Gulsara qizni*
28.*Ikar deb atashga aylasam jazm.*

29.*Jasorat timsoli Ikardir abad,*
30.*Jismi gar o‘tlarda ketgandir yonib.*
31.*Muzaffar fazogir ucharkan baland*
32.*Zamona Ikari deymiz quvonib.*

33.*Ey, mening davronim, o‘zing bosabot*
34.*Ko‘kda ham ko‘kraging kerib turibsan.*
35.*Har qadam, har zumda bitta kashfiyot,*
36.*Besanoq Ikarlar berib turibsan.*

37.*Inson dahosiga bormi had-hudud,*
38.*Soat chiq-chiqidek tik olmas dunyo.*
39.*Odamzod g‘or ichra qolardi mahdud,*
40.*O‘sha - bir Ikari bo‘lmasa, ammo.*

41.*Zaminu zamonda o‘zingsan g‘olib,*
42.*Ey, mening dilovar, olovqalb ukam,*
43.*Sen o‘zing ustozsan, sen o‘zing tolib,*
44.*Sen o‘zing armonim, umidlarim ham.*

45.*Sen borsan - bu davron dasturxonida*
46.*Oftob ham bamisli qo‘rdan chiqqan non.*
47.*Sen borsan - nur porlar yurt osmonida,*
48.*Sen borsan - sobitdir bu qadim jahon.*

49.*Zamon qo‘llaringdan tutmishdir bu kun,*

50.*O‘lmas bobolarning ruhi bo‘lsin yor.*
51.*Arslon juftgarchisi kabi va lekin*
52.*Obro‘ yuqi bilan yashama zinhor.*

53.*Haqqing bor, dilingda ajdod g‘ururi,*
54.*Ustozlar qoshida, mayli, eggin bosh.*
55.*Unutma va lekin, ular har biri*
56.*Ikar bo‘la olgan - asriga yo‘ldosh.*

57.*Faxru g‘ururingga kelmasin malol,*
58.*Oqmagan daryoning nomidir taqir...*
59.*Sinmas qanot bilan - buyuklar misol*
60.*Ikar bo‘la olgin o‘zing ham axir!*

İKAR (258)

(Talebelere)

1. Fezaya ilk kez kanat çırpanı
2. İkar diye adlandırmış hayalen insan.
3. Kendisini acımasız ateşte yakanı
4. Unutmadan yürür ebedî cihan.

5. İkar bir tane değil, bir tane değil,
6. Sayısı yıldızlar misali çok.
7. Kim ki ilk sevaba yol açtıysa, yeter.
8. Bu yılın İkar’ı olsun, elbette.

9. Silahım yok diye ilk kez elini
10. Selama uzatana da İkar densin.
11. Terk edip mağaradaki ananevi menzilini
12.İlk kulübe yapana da İkar densin.

13.İkar’dır Prometey adını alıp,
14. Ateş arayıp tanrılar huzuruna gitmiş.
15.İkar’dır ilk sevgi evinde kalıp
16.“Yallama Yârim”i terennüm etmiş.

17.İnsanoğlu başından geçip nice günler,
18.İkarsız kalmamış lakin hiçbir zaman.
19. Birisinin ciğerini gagalayıp kuzgunlar,
20. Birisi ateşlerde yanmış amansız.

21.Güller meydanında kokar henüz
22. Cesur Bruno’nın cızırdayan zurna sesi.
23. Mert Spartak’a çevireyim mi veya yüz,
24. Yahut Rab, İkar zatının var mı hududu.

25. Nura, iyiliğe bahşedip kendisi
26. Ne zatlar geçmedi kadimden kadim.
27. Ne garip, hatta Gülsare kızını
28.İkar diye adlandırmaya versem karar.

29. Cesaret timsali İkar’dır ebed,
30. Cismi eğer ateşlerde gitmiştir yanıp.
31. Muzaffer fezada uçarken yüksek
32. Zamane İkar’ı deriz sevinip.

33. Ey, benim devranım, kendin sebatkâr
34.Gökte de göğsünü gerip durmuşsun.
35. Her adım, her anda bir keşif,
36. Sonsuz İkarlar verip durmuşsun.

37.İnsan dehasına var mı had hudut,

38. Saat tık tıkı gibi duramaz dünya.
39.İnsanoğlu mağara içinde kalırdı mahdut,
40.O, bir İkar'ı olmasa, ama.

41. Zemin u zamanda kendinsin galip,
42. Ey, benim yürekli, aşırı yürekli kardeşim,
43. Sen kendin üstatsın, sen kendin talip,
44. Sen kendin ukdem, ümitlerim de.

45. Sen varsın, bu devran sofrasında
46.Güneş de sanki közden çıkan ekmek.
47. Sen varsın, ışık parlar yurt asumanında,
48. Sen varsın, sabittir bu kadim cihan.

49. Zaman ellerinden tutmuştur bugün,
50.Ölümsüz dedelerin ruhu olsun yâr.
51. Aslan juftgarçisi[129] gibi velakin
52.İtibar yüküyle yaşama zinhar.

53. Hakkın var, gönlünde ecdat gururu,
54.Üstatlar önünde, olsun, eğ baş.
55. Unutma velakin, onlar her biri
56.İkar olabilmiş asrına yoldaş.

57.İftihar-ı gururuna gelmesin melal,
58. Akmayan deryanın namıdır büsbütün…
59.Kırılmaz kanatla büyükler misal
60.İkar olabil kendin de ahir! (1978)

[129] Juftgarchi: Aslanların yiyecek bulmalarına aracılık eden hayvandır.

IZHOR (259)

1. *Qancha diyorlarda sayr etib yurdim,*
2. *Qancha manzillarda tuzdim oshyon.*
3. *Va buyuk hikmatga axir yuz burdim,*
4. *Siylangan joyida azizdir inson.*

5. *Yurtim senda ekan nasibam tugal,*
6. *Sen o‘zing maskanim, sen o‘zing shonim.*
7. *Sen onam, sen singlim, yorimsan, azal,*
8. *Ey, jonim, jahonim - O‘zbekistonim.*

9. *Ista, qismatimga o‘zing ber barham,*
10.*Ista, yaxshi kunda nomim qilgil yod.*
11.*Mensiz ham mukammal ekan bu olam,*
12.*Mensiz ham baxtga yor ekan odamzod.*

13.*Yurtim, faqat sening qo‘lingdan tutib,*
14.*Bolangday ergashib keta olsam, bas.*
15.*Sen piri komilsan, men senga muhib,*
16.*Seni tanimagan meni ham bilmas.*

İZHAR (259)

1. Nice diyarlarda seyredip yürüdüm,
2. Nice menzillerde kurdum aşiyan.
3. Ve büyük hikmete artık yüz verdim,
4. İyi davranılan yerde azizdir insan.

5. Yurdum sende imiş nasibim tam,
6. Sen kendin meskenim, sen kendin şanım.
7. Sen anam, sen kız kardeşim, yârimsin, ezel,
8. Ey, canım, cihanım, Özbekistan’ım.

9. İste, kısmetimde kendin ver son,
10.İste, iyi günde namımı et yâd.
11. Bensiz de mükemmel imiş bu âlem,
12. Bensiz de bahta yâr imiş insanoğlu.

13. Yurdum, sadece senin elinden tutup,
14. Evladın gibi izleyip gidebilsem, yeter.
15. Sen pir-i kâmilsin, ben sana tutkun,
16. Seni tanımayan beni de bilmez. (1978)

TALABA JURNALISTGA (260)

1. *G‘unchaga gul bo‘lib ochilmoq uchun*
2. *Maktab yaratmabdi qodiri g‘affor.*
3. *Senda-chi, gazet bor ham dorilfunun,*
4. *Agar ochilmasang - o‘zingsan aybdor.*

TALEBE GAZETECİYE (260)

1. Goncaya gül olup açılmak için
2. Mektep yaratmamış kadir-i gaffar.
3. Ya sende, gazete var da darülfünun,
4. Eğer açılmazsan, kendinsin suçlu. (1978)

UMR O‘RTASI (261)

1. *Esgan bu ilk bahor shamolimi yo*
2. *Qaydadir adashgan kech kuzning sasi.*
3. *Rangi ham, tusi ham noayon dunyo,*
4. *Qirqmi yo ellik bu, umr o‘rtasi.*

5. *Xipchinin chuh-chuhlab, etagi bog‘liq*
6. *Bolakay shovqini kelar u yoqdan.*
7. *O‘ngirin qoqqancha ko‘k soqol otliq*
8. *Chiqib kelayotir hozir bu yoqdan.*

9. *Sokin muyulishda kokilin o‘ynab*
10.*Yor kutgan dilbarga tushdimi ko‘zing.*
11.*O‘taber falakning charxini o‘ylab,*
12.*U, sening ehtimol, qizing - yulduzing.*

13.*Ko‘rgan bir tushingga topmading ta’bir,*
14.*Yam-yashil tog‘ emish, teppasi-chi, qor.*
15.*Qay kun qabr uzra ham do‘sting uchun bir,*
16.*Va o‘zing uchun ham yig‘lading bir bor.*

17.*Ajib sukut ichra miltirar olam,*
18.*Oftob ham qizdirar, tik kelib bu choq.*
19.*Samoda kamolning avjimi, qaydam,*
20.*Yo zavol pallasin alami ko‘proq.*

21.*Qayga shoshayotir umri ravoning,*
22.*Ne topding va nedan bo‘lding mosuvo?*
23.*Bir zum gupursa ham vujudda qoning,*
24.*Bir zum barchasidan sukunat ravo.*

25.*O‘tmishu kelajak bir zum yonma-yon,*
26.*Gohi past, goh baland bo‘lib suringay.*
27.*Yetti og‘ayni ham ko‘kda nogahon*
28.*Savol alomati bo‘lib ko‘ringay.*

29.*Qaraysan, yiroqda bir yo‘lchi tanho,*
30.*Na ortga burilar, na chiqar sasi.*
31.*Boshda toj, dilda o‘t va qo‘lda aso,*
32.*O‘sha ketayotgan umring o‘rtasi.*

ÖMÜR ORTASI (261)

1. Esen bu ilkbahar rüzgârı mı yahut
2. Bir yerde kaybolan geç güzün sesi mi?
3. Rengi de, şekli de belirsiz dünya,
4. Kırk mı yoksa elli mi bu, ömür ortası?

5. Çubuğu çuf çuflayıp, eteği bağlı
6. Küçük çocuk gürültüsü gelir o yandan.
7. Oyuğuna vurduğunda mavi sakal atlı
8. Çıkıp gelir şimdi bu yandan.

9. Sakin köşe başında örgüsüyle oynayıp
10. Yâr bekleyen dilbere düştü mü gözün.
11. Geçiver feleğin çarkını düşünüp,
12. O, senin ihtimal, kızın yıldızın.

13. Gördüğün bir düşüne bulmadın tabir,
14. Yemyeşil dağ imiş, tepesi kar.
15. Hangi gün kabir üstünde de dostun için bir,
16. Ve kendin için de ağladın bir kez.

17. Garip sükût içinde ışıldar âlem,
18. Güneş de ısıtır, dik gelip o an.
19. Semada kemalin zirvesi mi, anlamadım,
20. Yahut zeval evresinin elemi daha çok.

21. Neye telaşlanır ömr-ü revanın,
22. Ne buldun ve neden oldun mâsivâ?
23. Bir an köpürse de vücutta kanın,
24. Bir an hepsinden sükûnet reva.

25. Geçmiş ve gelecek bir an yan yana,

26.Gâh aşağı, gâh yukarı olup sürünsün.
27. Yedi ahbap da gökte ansızın
28. Soru alameti olup görünsün.

29. Bakarsın, uzakta bir yolcu tenha,
30. Ne arkaya döner, ne çıkar sesi.
31. Başta taç, gönülde ateş ve elde asa,
32.O giden ömrünün ortası. (1978)

XAYRIXOH (262)

1. *Hamdam axtaradi har qanday odam,*
2. *Do‘stim deb ataydi topsa begumon.*
3. *Do‘st izlab behuda kezguncha olam,*
4. *Oyog‘ing ostiga boqsang-chi, inson!*
5. *Munis ko‘zlarini tikib, mo‘ltirab,*
6. *Bolakay yuzingdan uzmaydi nigoh.*
7. *Unda ne murod bor? Unda ne talab?*
8. *U senga some’dir, senga xayrixoh.*
9. *Izingdan termulib qoldi keksa chol,*
10.*Ko‘zda tavajjuhi, duosi tilda*
11.*U senga tiladi baraka, iqbol,*
12.*Yana bir xayrixoh topibsan elda.*
13.*Sen g‘anim atagan qay bitta inson*
14.*Sen uchun qaydadir chekdi tanho oh.*
15.*O‘sha hasrat haqqi keltirgum imon,*
16.*U senga xayrixoh, chindan xayrixoh.*
17.*Xayrixoh odamlar, beta’ma hamdam,*
18.*Olam bir butundir shu inoqlikdan.*
19.*Axir muhabbat ham, axir do‘stlik ham*
20.*Boshlangan emasmi xayrixohlikdan?*
21.*Ular bor - ruhingga g‘am kelmas g‘olib,*
22.*Mayli, gado bo‘lgil, mayli, bo‘lgil shoh.*
23.*Gar do‘st yiqitsa ham oyog‘ing chalib,*
24.*Boshingni silaydi o‘sha xayrixoh.*

HAYIRHAH (262)

1. Arkadaş arar her nasılsa adam,
2. Dostum diye adlandırır şüphesiz.
3. Dost arayıp beyhude gezinceye dek âlem,
4. Ayağını atıp baksan, insan!
5. Dost gözlerini dikip, ümitle bakıp,
6. Küçük çocuk yüzünden ayırmaz nigâh.
7. Onda ne murat var? Onda ne talep?
8. O sana dinleyicidir, o sana hayırhah.
9. İzine gözünü dikip kaldı yaşlı adam,
10.Gözde teveccühü, duası dilde
11.O sana diler bolluk, ikbal,
12. Yine bir hayırhah bulmuşsun memlekette.
13. Senin düşman dediğin hangi insan
14. Senin için bir yerde çekti yalnız ah.
15.O hasret hakkı getireyim iman,
16.O sana hayırhah, gerçekten hayırhah.
17. Hayırhah insanlar, tamahsız dost,
18.Âlem bir bütündür bu iyi ilişkiden.
19. Artık muhabbet de, artık dostluk da
20. Başlamış değil mi hayırhahlıktan?
21. Onlar var, ruhuna gam gelmez galip,
22.İster, fakir ol, ister, ol şah.
23.Eğer dost yıksa da ayağını çelip,
24. Başını okşar o hayırhah. (1978)

HOLAT (263)

1. *Bir nafas quyoshni o‘z holiga qo‘y,*
2. *Otashin dilingga etmagin qiyos.*
3. *Bir nafas quyoshday ko‘rsatsin u ro‘y,*
4. *Bir nafas quyoshday porlasin quyosh.*

5. *Bir zum dengizga ham boqqil betuyg‘u,*
6. *Dema, o‘ylarimday u teran, tengsiz.*
7. *Bir zum baliqlarga vatan bo‘lsin u,*
8. *Bir zum dengiz bo‘lib guvlasin dengiz.*

9. *Shamolning bo‘yniga osilma bir dam,*
10.*Yelmasin mayli u xayoling misol.*
11.*Bir zum o‘z holicha yayrasin u ham,*
12.*Bir zum shamol bo‘lib tentisin shamol.*

13.*Bir zum sen zaminni qo‘ygil bequtqu,*
14.*U axir ko‘p tuydi tuyg‘ular ta’min.*
15.*Bir zum maysalarga ona bo‘lsin u,*
16.*Bir zum zamin bo‘lib yashasin zamin.*

17.*Bir zum o‘z holimga qo‘y sen ham, bolam,*
18.*Ayon-ku menga ham Inson matlabi.*
19.*Bir zum odam kabi yashayin men ham,*
20.*Men ham yashay bir zum bir odam kabi.*

HÂLET (263)

1. Bir an güneşi kendi hâline bırak,
2. Ateşin gönlüne etmesin kıyas.
3. Bir an güneş gibi göstersin o yüz,
4. Bir an güneş gibi parlasın güneş

5. Bir an denize de bak duygusuz,
6. Deme, fikirlerim gibi o derin, eşsiz.
7. Bir an balıklara vatan olsun o,
8. Bir an deniz olup uğuldasın deniz.

9. Rüzgârın boynuna asıla bir an,

10. Esmesin peki o hayalin misal.
11. Bir an kendi hâlince keyiflensin o da,
12. Bir an rüzgâr olup dolaşsın rüzgâr.

13. Bir an sen zemini bırak fitnesiz,
14.O artık çok anladı duygular temin.
15. Bir an yeşilliklere ana olsun o,
16. Bir an zemin olup yaşasın zemin.

17. Bir an kendi hâlime bırak sen de, evladım,
18.Açık bana da İnsan gayesi.
19. Bir an insan gibi yaşayayım ben de,
20. Ben de yaşayayım bir an bir insan gibi. (1978)

VISOL (264)

Qora dengiz she'ri

1. *Sira ko'z o'ngimdan ketmas ushbu hol:*
2. *Qoya teppasida yonardi yalov.*
3. *Harir libosini yechdi-yu, darhol*
4. *Dengizga tashlandi bir parcha olov!*

5. *Bu ne qismat erur? Bu ne falokat?*
6. *Bundayin visolga bormi hech chora?*
7. *Bilmay ne qilarin, to'lg'anib faqat,*
8. *Uh tortib yubordi dengiz bechora...*

VİSAL (264)

Karadeniz şiiri

1. Asla gözümden gitmez bu hâl:

2. Kaya tepesinde yanardı bayrak.
3. İpek giysisini çözdü, derhâl
4. Denize atıldı bir parça alev!

5. Bu ne kısmettir? Bu ne felaket?
6. Böyle visale var mı hiç çare?
7. Bilmeden ne ederim, dalgalanıp sadece,
8. Oh çekip gönderdi deniz biçare… (1978)

DIYOR (265)

1. *Ko‘pdir bu dunyoda ellar, elatlar,*
2. *Qadim va noqadim xalqlar, millatlar.*
3. *Har biri o‘z tili, o‘z eli bilan,*
4. *El ichra har biri o‘z fe’li bilan,*
5. *Rang-barang suratli odamlar yashar,*
6. *Ishlashar, kuylashar hamda kurashar.*
7. *Balki kimdir kimni uchratmas minba’d,*
8. *Ayricha namoyon shodlik va kulfat.*
9. *To‘ylar davom etar, bola tug‘ilar,*
10. *Cho‘qqi zabt etilar, kitob o‘qilar.*
11. *Chorrahalar tizgin, bozorlar g‘ujg‘on,*
12. *Ulfatlar, majlislar, yig‘in, olomon...*
13. *Har biri go‘yoki o‘z siri bilan,*
14. *Aloqasi yo‘qday bir-biri bilan,*
15. *Mana shu turfa xil ellar barini,*
16. *Ulfatni, yig‘inni, yoshni, qarini*
17. *Birlashtirib turar bir nom daf’atan,*
18. *U ona diyordir, jonajon Vatan!*
19. *Ko‘pdir bu dunyoda kentlar, ovullar,*
20. *Ko‘chalar, shaharlar, bekatlar, yo‘llar.*
21. *Ko‘mir sepilganday tuproqlar ko‘rdim,*
22. *Ne-ne vodiylaru qumloqlar ko‘rdim.*
23. *Uzoq qutb yoqda muzlar qarsillar,*
24. *Janub tog‘larida gulxan charsillar.*

25.*O‘zicha har biri o‘zga ma’vodir,*

26.*O‘zicha har biri ajib dunyodir.*

27.*Har biri go‘yoki o‘z siri bilan,*

28.*Aloqasi yo‘qday bir-biri bilan.*

29.*Ammo shu turfa xil, rangdor tuproqni,*

30.*Kentlar va ovullar, shahru qishloqni*

31.*Tutashtirab turar bir nom daf’atan,*

32.*U ona diyordir, jonajon Vatan!*

DİYAR (265)

1. Çoktur bu dünyada, uluslar, ülkeler,

2. Kadim ve nakadim halklar, milletler.

3. Her biri kendi dili, kendi halkıyla,

4. Halk içinde her biri kendi tabiatıyla,

5. Rengârenk suretli insanlar yaşar,

6. Çalışır, över hem de savaşır.

7. Belki kimdir kimi rastlamaz bundan sonra,

8. Ayrıca aşikâr mutluluk ve külfet.

9. Toylar devam eder, çocuk doğar,

10. Zirveler zapt edilir, kitap okunur.

11. Kavşaklar dizgin, pazarlar kalabalık,

12. Ahbaplar, meclisler, toplantı, mahşer…

13. Her biri güya kendi sırrıyla,

14. Alakası yok gibi birbiriyle,

15.İşte bu garip tür halklar tümünü,

16. Ahbabı, toplantıyı, genci, yaşlısı

17. Birleştirip durur bir ad ansızın,

18.O ana diyardır, aziz Vatan!

19.Çoktur bu dünyada kentler, köyler,

20. Sokaklar, şehirler, duraklar, yollar.

21.Kömür serpilmiş gibi topraklar gördüm,

22. Pek çok vadiler ve kumsallar gördüm.

23. Uzak kutup bölgesinde buzlar çıtırdar,

24.Güney dağlarında ateş çatırdar.

25. Kendince her biri başka meyvedir,

26. Kendince her biri garip dünyadır.
27. Her biri güya kendi sırrıyla,
28. Alakası yok gibi birbiriyle.
29. Ama şu tuhaf tür, renkli toprağı,
30. Kentler ve köyler, şehir ve kasabayı
31. Tutuşturup durur bir ad ansızın,
32.O ana diyardır, aziz Vatan! (1978)

“OQ QOG‘OZ…” (266)

(Hazil)

1. *Oq qog‘oz, yuzingga sirim aytaman,*
2. *Meni bu safar ham tinglagil, do‘stim.*
3. *Kecha bitta o‘zim sayr etib chaman,*
4. *Bir go‘zal dilbarning domiga tushdim.*

5. *Oq qog‘oz, oq qog‘oz, sening yuzingda*
6. *Qancha go‘zallarning tasvirlari bor.*
7. *Ammo ming yil o‘tib, kelib o‘zingga*
8. *Bunday go‘zal yuzin ko‘rmabsan zinhor.*

9. *Turardim qoshida behis, bezabon,*
10.*Andisha bosardi yelkamdan og‘ir.*
11.*Netay, she’r bag‘ishlab qizga o‘sha on,*
12.*Bayt aytdim o‘zimni tutolmay oxir.*

13.*U meni tingladi misli nilufar,*
14.*Aqiq lablarida ter shabnam edi.*
15.*Lekin qayrildi-yu, shoir bo‘lsang gar,*
16.*She’ringni qog‘ozga borib ayt, dedi.*

17.*Oq qog‘oz, yuzingga sirim aytaman,*

18.*Meni bu safar ham tinglagil, do‘stim.*
19.*Kecha bitta o‘zim sayr etib chaman,*
20.*Bir dilbar go‘zalning domiga tushdim...*

“AK KÂĞIT…” (266)

(Gülmece)

1. Ak kâğıt, yüzüne sırrımı söylerim,
2. Beni bu sefer de dinle, dostum.
3. Gece bir tane kendim seyredip miskin,
4. Bir güzel dilberin damına düştüm.

5. Ak kâğıt, ak kâğıt, senin yüzünde
6. Nice güzellerin tasvirleri var.
7. Ama bin yıl geçip, gelip kendine
8. Böyle güzel yüzünü görmemişsin zinhar.

9. Dururdum önünde hissiz, dilsiz,
10. Endişe basardı omzumdan ağır.
11. Ne edeyim, şiir ithaf edip kıza o an,
12. Beyit okudum kendimi tutamadan artık.

13.O beni dinledi misal-i nilüfer,
14. Akik dudaklarında ter şebnem idi.
15. Ama kıvrıldı, şair isen eğer,
16.Şiirini kâğıda gidip söyle, dedi.

17. Ak kâğıt, yüzüne sırrımı anlatırım,
18. Beni bu sefer de dinle, dostum.
19. Gece bir tane kendim seyredip miskin,
20. Bir güzel dilberin damına düştüm. (1979)

KAVKAZ (267)

Kavkazni sevaman.

Lermontov

1. *Yashil Narzananing o‘tloqlarida*
2. *O‘ynaydi shamol va toychoq basma-bas.*
3. *Abadiy sukut bor osmon qa’rida,*
4. *Abadiy sukunat qa’rida Kavkaz.*
5. *Zamin arzandasi, e, kibor ma’vo,*
6. *Ayanch qismatlarga guvoh saltanat.*
7. *Bir yelkangda Demon - u yovuz daho,*
8. *Bir yelkangda shoyon insoni hazrat.*
9. *Kavkaz, kimlarga sen iqbol dargohi*
10.*Kavkaz, kimlarga sen qatag‘on diyor.*
11.*Senda nasoronu islom ilohi*
12.*Senda bari, bari bo‘lmish barqaror.*
13.*Yovuz kimsalardan qochib, uloqib,*
14.*Kimlar axtarmagan bag‘ringdan makon.*
15.*Moviy osmoningga hasratda boqib,*
16.*Lermontov poyingda bergan edi jon.*
17.*“Kavkazni sevaman, sevaman Kavkaz”,*
18.*Bu - ne daholarning ezgu nidosi.*
19.*Bu joyga keltirgay quvg‘in yo havas.*
20.*Bu joyda har zotning bor o‘z xudosi.*
21.*Odam zuryodiga ne bo‘lsa joiz -*
22.*Men ham yuragimga oshno bilganman.*
23.*Kavkaz, quchog‘ingga na biron bois,*
24.*Uvoq tuyg‘ulardan qochib kelganman.*
25.*Qor kabi pokiza, tog‘dek sarbaland*
26.*O‘tyurak insonlar diydori armon.*
27.*Inson dasti ko‘kka yetsa ham garchand,*
28.*G‘arib tuyg‘ularga tutqun u hamon.*
29.*Hamon qaylardadir hasad, xusumat*

30.*Eng oliy hislarni toptagay mutloq.*
31.*Yuksaklik istasang toqqa chiq faqat,*
32.*Teranlik istasang dengizlarga boq.*
33.*Kavkaz, sayyoh so‘zim ma’zur tut bir dam,*
34.*Kavkaz, hasratlarga yo‘q menda ruju.*
35.*Dunyoda himmat ham, dilozorlik ham*
36.*Inson farzandiga hamrohdir mangu.*
37.*Na hayot, na o‘lim, na baxt, na kulfat*
38.*Meni ham hayratga solgay bu zamon.*
39.*Yuksak cho‘qqilaring qo‘ynida faqat*
40.*Xasta yuragimga topsaydim darmon.*
41.*Kavkaz, sharq ufqida ey, tengsiz diyor,*
42.*Ey, buyuk she’riyat dorilbaqosi.*
43.*O‘zbek tuprog‘idan kelibman bu bor,*
44.*Sengadir oshufta qalbim safosi.*
45.*Eng oliy hislarga kim bo‘lsa gado,*
46.*Ko‘targil, o, Kavkaz, cho‘qqilar tomon.*
47.*G‘arib tuyg‘ularning bandasin ammo*
48.*Bo‘ronlaring bilan g‘arq et beomon!*

KAFKAS (267)

Kafkas’ı severim.

Lermontov

1. Yeşil Narzana’nın otlaklarında
2. Eder rüzgâr ve taycık münakaşa.
3. Ebedî sükût var asumanın ka’rında,
4. Ebedî sükûnet ka’rında Kafkas.
5. Zemin değerlisi, e, kibar meyve,
6. Acıklı kısmetlere şahit saltanat.
7. Bir yelkende Demon, o kötü deha,
8. Bir yelkende şayan, insan-ı hazret.
9. Kafkas, kimlere sen ikbal dergâhı
10. Kafkas, kimlere sen yasak diyar.

11. Sende Hıristiyan ve İslam ilahı.
12. Sende hepsi, hepsi olmuş sürekli.
13.Kötü kimselerden kaçıp, uzaklaşıp,
14. Kimler aramamış bağrından mekân.
15. Mavi asumanına hasretle bakıp,
16. Lermontov ayağında vermişti can.
17."Kafkas'ı severim, severim Kafkas",
18. Bu, ne dehaların iyi nidası.
19. Bu yere getirsin sürgün yahut heves.
20. Bu yerde her zatın var kendi tanrısı.
21.İnsan nesline ne olsa caiz
22. Ben de yüreğime aşiyan bilmişim.
23. Kafkas, kucağına ne bir bahis,
24. Ufak duygulardan kaçıp gelmişim.
25. Kar gibi temiz, dağ gibi yüksek
26. Ateş yürekli insanlar didar-ı ukde.
27.İnsan eli göğe yetse de gerçi,
28. Garip duygulara tutkun o daima.
29. Daima bir yerlerde haset, husumet
30. En yüce hisleri çiğnesin mutlak.
31.Yükseklik istesen dağa çık sadece,
32. Derinlik istesen denizlere bak.
33. Kafkas, seyyah sözüm mazur gör bir an,
34. Kafkas, hasretlere yok bende merak.
35.Dünyada himmet de, gönül inciten de
36.İnsan evladına dosttur sonsuz.
37. Ne hayat, ne ölüm, ne baht, ne külfet
38. Beni de hayrete düşüren bu zaman.
39.Yüksek tepelerin bağrında sadece
40. Hasta yüreğime bulsaydım derman.
41. Kafkas, şark ufkunda ey, eşsiz diyar,
42. Ey, büyük şiirler dârül-bekâsı.
43.Özbek toprağından gelmişim bu kez,
44. Sanadır meftun kalbimin sefası.
45. En yüce hislere kim olsa düşkün,
46.Yücelt, aaa, Kafkas, tepelere doğru.

47. Garip duyguların esirini ama

48. Boranlarınla gark et amansız! (1979)

***ONAJONIM, SHE'RIYAT* (268)**

1. *Hamdam bo'lding men bilan*

2. *Har qandayin kunlarda,*

3. *Yulduz bo'lding charog'on*

4. *Eng qorong'i tunlarda,*

5. *Suhbat qurdik goh shodon,*

6. *Goho hazin unlarda,*

7. *Eng oliy baxtim mening,*

8. *Onajonim, she'riyat.*

9. *Topgan toj-taxtim mening,*

10. *Jonajonim, she'riyat.*

11.*Sen bilan baqamti to*

12. *Bu olamda yurdim men,*

13.*Turfa xil insonlarni*

14. *Ham tanidim, ko'rdim men.*

15.*Do'stlar bilan goh shodon*

16. *Davronimni surdim men,*

17.*Eng oliy baxtim mening,*

18. *Onajonim, she'riyat.*

19.*Topgan toj-taxtim mening,*

20. *Jonajonim, she'riyat.*

21.*Esingdami, azizam,*

22. *O'tdi qancha dovonlar,*

23.*O'tdi qancha to'fonlar,*

24. *O'tdi qancha yobonlar,*

25.*Yaxshilikdan so'z ochdik*

26. *Goh duch kelsa yomonlar,*

27.*Eng oliy baxtim mening,*

28. *Onajonim, she’riyat.*

29.*Topgan toj-taxtim mening,*

30. *Jonajonim, she’riyat.*

31.*Hamdam bo‘lib sen bilan*

32. *“Xamsa”dan saboq oldim,*

33.*Yiroq-yiroq yulduzlar*

34. *Sehrini dilga soldim,*

35.*Mehmon emas, qasringda*

36. *Balki bir umr qoldim,*

37.*Eng oliy baxtim mening,*

38. *Onajonim, she’riyat.*

39.*Topgan toj-taxtim mening,*

40. *Jonajonim, she’riyat.*

41.*Har qismatga har kimning*

42. *Davroni sabab bo‘lgay,*

43.*She’r un cheksa shoirning*

44. *Armoni sabab bo‘lgay,*

45.*Men faxr etsam umrimning*

46. *Har oni sabab bo‘lgay,*

47.*Eng oliy baxtim mening,*

48. *Onajonim, she’riyat.*

49.*Topgan toj-taxtim mening,*

50. *Jonajonim, she’riyat.*

51.*Garchi mushkul ko‘p bo‘ldi*

52. *Mo‘’jaz mening muhitda,*

53.*Zuhur etdim barchasin*

54. *Hasratli bir sukutda,*

55.*Haq yo‘lin topdim lekin*

56. *Sen bilan yongan o‘tda,*

57.*Eng oliy baxtim mening,*

58. *Onajonim, she’riyat.*

59.*Topgan toj-taxtim mening,*

60. *Jonajonim, she’riyat.*

61.*Angladimki, olamda*

62. *Yurt tanho, Vatan tanho,*

63.*Band etgan xayolimni*

64. *Tengsiz shul chaman tanho,*

65.*Nokaslar emas, yo‘q, yo‘q,*

66. *Yolg‘iz sen baland, tanho,*

67.*Eng oliy baxtim mening,*

68. *Onajonim, she’riyat.*

69.*Topgan toj-taxtim mening,*

70. *Jonajonim, she’riyat.*

71.*Umid yorkim, yetgaymiz*

72. *Sen bilan yiroqlarga,*

73.*Maqsudim yoqib turgan*

74. *U nurli chiroqlarga,*

75.*Duch kelmasak bas endi*

76. *Turfa xil firoqlarga,*

77.*Eng oliy baxtim mening,*

78. *Onajonim, she’riyat.*

79.*Topgan toj-taxtim mening,*

80. *Jonajonim, she’riyat.*

81.*Haq senga murod o‘lsin,*

82. *Shavkating na zar, tillo,*

83.*Haq deganning umri ham*

84. *Haq kabi uzun, illo,*

85.*Boshin eggay hamisha*

86. *Ostonangda Abdullo,*

87.*Eng oliy baxtim mening,*

88. *Onajonim, she’riyat.*

89.*Topgan toj-taxtim mening,*

90. *Jonajonim, she'riyat.*

ANACIĞIM, ŞİİRLER (268)

1. Dost oldun benimle,
2. Her nice günlerde,
3. Yıldız oldun ışıltılı
4. En karanlık gecelerde,
5. Sohbet ettik gâh şâdân,
6. Gâh hazin seslerde,
7. En yüce bahtım benim,
8. Anacığım, şiirler.
9. Bulduğum tâc u tahtım benim,
10. Canım, şiirler.

11. Seninle yüz yüze ta
12. Bu âlemde yürüdüm ben,
13. Garip tür insanları
14. Hem tanıdım, gördüm ben.
15. Dostlarla bazen şâdân
16. Sefamı sürdüm ben,
17. En yüce bahtım benim,
18. Anacığım, şiirler.
19. Bulduğum tâc u tahtım benim,
20. Canım, şiirler.

21. Hatırında mı, azizem,
22. Geçti nice geçitler,
23. Geçti nice tufanlar,
24. Geçti nice tarlalar,
25.İyilikten söz açtık
26. Gâh rastlasa kötüler,
27. En yüce bahtım benim,
28. Anacığım, şiirler.

29. Bulduğum tâc u tahtım benim,

30. Canım, şiirler.

31. Dost olup seninle

32. “Hamse”den ders aldım.

33. Uzak uzak yıldızlar

34. Sihrini gönlüme kazıdım,

35. Misafir değil, kasrında

36. Belki bir ömür kaldım,

37. En yüce bahtım benim,

38. Anacığım, şiirler.

39. Bulduğum tâc u tahtım benim,

40. Canım, şiirler.

41. Her kısmete herkesin

42. Devranı sebep olsun,

43.Şiir söze dökülse şairin

44. Ukdesi sebep olsun,

45. Ben gurur duysam ömrümün

46. Her anı sebep olsun,

47. En yüce bahtım benim,

48. Anacığım, şiirler.

49. Bulduğum tâc u tahtım benim,

50. Canım, şiirler.

51. Gerçi müşkül çok oldu

52. Muhteşem benim muhitte,

53. Zuhur ettim hepsini

54. Hasretli bir sükûtta,

55. Hak yolunu buldum ama

56. Seninle yanan ateşte,

57. En yüce bahtım benim,

58. Anacığım, şiirler.

59. Bulduğum tâc u tahtım benim,

60. Canım, şiirler.

61. Anladım ki, âlemde
62. Yurt tek, Vatan tek,
63. Meşgul eden hayalimi
64. Eşsiz o çayır tek,
65. Alçaklar değil, hayır, hayır,
66. Sadece sen yüce, tek,
67. En yüce bahtım benim,
68. Anacığım, şiirler.
69. Bulduğum tâc u tahtım benim,
70. Canım, şiirler.

71.Ümit yâr ki, erişeceğiz
72. Seninle uzaklara,
73. Maksudumu yakıp duran
74. O ışıklı lambalara,
75. Rastlamasak yeter şimdi
76. Garip tür firaklara,
77. En yüce bahtım benim,
78. Anacığım, şiirler.
79. Bulduğum tâc u tahtım benim,
80. Canım, şiirler.

81. Hak sana murat olsun,
82. Şefkatin ne para, altın,
83. Hak dediğinin ömrü de
84. Hak gibi uzun, illa,
85. Başını eğsin daima
86. Eşiğinde Abdulla,
87. En yüce bahtım benim,
88. Anacığım, şiirler.

89. Bulduğum tâc u tahtım benim,
90. Canım, şiirler. (1979)

KARVON (269)

(Ustoz Mirtemir xotirasiga)

1. *Sizga tashlanmadi, oh, ne-ne zotlar,*
2. *Ular har mo‘minga tashlanar edi.*
3. *Tashlanmasa dili g‘ashlanar edi,*
4. *Ular puchak jonlar, ahli bedodlar.*

5. *Jindekkina nozik fe’lingiz bilan*
6. *Sokin bir qo‘ng‘iroq chalib o‘tdingiz.*
7. *Yorug‘lik kunlarni bedor kutdingiz,*
8. *Dardlashdingiz faqat elingiz bilan.*

9. *Nechog‘lik xokisor edingiz, ustoz,*
10.*Yalangto‘sh, mehnatkash, qalam dehqoni.*
11.*Qadim Turkistonning tanti o‘g‘loni,*
12.*Pokiza edingiz misli oq qog‘oz.*

13.*Ne-ne o‘lkalarning ne daholari*
14.*Siz bois o‘zbekcha so‘ylagan edi.*
15.*Sizning lafzingizda kuylagan edi,*
16.*Qoshg‘ariydan qolgan til sadolari.*

17.*She’ringiz uchquru o‘zingiz karvon,*
18.*Manzilga shoshilmay kelar edingiz.*
19.*Oh, ustoz, holbuki bilar edingiz -*
20.*Yugurik davrondir asli bu davron.*

21.*Sizning armoningiz yashar qarog‘da,*
22.*Balki u bo‘ylagay asrlarni ham.*
23.*Vo darig‘, mana shu satrlarni ham*
24.*Yozsam bo‘lmasmidi siz tirik chog‘da.*

KERVAN (269)

(Üstat Mirtemir'in anısına)

1. Size atılmadı, ah, nice nice zatlar,
2. Onlar her mümine atılır idi.
3. Atılmasa gönlü sıkılır idi,
4. Onlar boş canlar, ehl-i haksızlar.

5. Birazcık nazik huyunuzla
6. Sessizce bir zil çalıp geçtiniz.
7. Aydınlık günleri uykusuz beklediniz,
8. Dertleştiniz sadece halkınızla.

9. Ne kadar mütevazı idiniz, üstat,
10. Cesur, çalışkan, kalem çiftçisi.
11. Kadim Türkistan'ın nazik oğlanı,
12. Temiz idiniz misali ak kâğıt.

13. Nice nice ülkelerin ne dehaları
14. Siz neden Özbekçe söylemiş idi.
15. Sizin lafınızda övmüş idi,
16. Kaşgarîden kalmış dil sesleri.

17.Şiiriniz hızlı kendiniz kervan,
18. Menzile acele etmeden gelir idiniz.
19. Ah, üstat, hâlbuki bilir idiniz
20.Hızlı devrandır asıl bu devran.

21. Sizin ukdeniz yaşar göz bebeğinizde,
22. Belki o boylamış asırları da.
23. Yazık, işte bu satırları da
24. Yazsam olmaz mıydı siz yaşadığınızda. (1979)

YOSH RASSOMLARGA (270)

(Javlon Umarbekovga)

1. *Bamisli Boysunda boychechak gullab,*
2. *Toshkent tomlarida yondi qizg‘aldoq.*
3. *Yo tovus patlarin yoyganday xillab,*
4. *Namoyon bo‘ldingiz ayni kutgan choq.*

5. *Davrada o‘rningiz, o‘ting, marhabo,*
6. *Yurtimning g‘aroyib o‘g‘lonlari Siz.*
7. *Qayda yurgandingiz o‘ychan va shaydo,*
8. *O‘zbek san’atining imkonlari Siz.*

9. *Hozircha nomingiz bilmaydi jahon,*
10.*Hozircha kelinni chizmoqdan siz shod.*
11.*Bilmaysiz, yelkangiz osha shodumon,*
12.*Kuzatib turganin Muzahhib, Behzod.*

13.*Sizga mushtoq hali turfa ohanglar,*
14.*Ustoz Chingiz Ahmar bor bu bo‘stonda.*
15.*Bilmaysiz, siz chetdan axtargan ranglar*
16.*Ko‘milib yotganin Chag‘aniyonda.*

17.*Sizni kutib turar hali ko‘p ma’ni*
18.*Dehqonning kiprigi uzra qo‘ngan chang.*

19.*Sizni kutib turar oppoq paxtaning*
20.*Bag‘rida yashirin qancha sirli rang.*

21.*Buguncha asliga o‘xshasa surat,*
22.*Zarrin ramkalarga quvnab solgaysiz.*
23.*Yuz rangda tovlanib kelganda shuhrat,*
24.*Suvratin chizolmay shoshib qolgaysiz.*

25.*Uzun sochingizga bir kun oq tushar*
26.*Sezmay ham qolarsiz umr o‘tganin,*
27.*Chizgan rasmingizga o‘g‘lingiz besar*
28.*Notanish bo‘yoqni chaplab ketganin.*

29.*Mayli yursangiz ham darvishday kezib,*
30.*Bo‘yab chiqsangiz ham mayli jahonni,*
31.*Faqat bir o‘tinch bor, bergaysiz chizib,*
32.*Onamiz suvrati - O‘zbekistonni.*

GENÇ RESSAMLARA (270)

(Javlon Umarbekov’a)

1. Sanki Boysun’da kardelen filizlenip,
2. Taşkent damlarında parladı gelincik.
3. Yahut tavus tüylerini yaymış gibi ayırıp,
4. Aşikâr oldunuz aynı beklediği an.

5. Grupta yeriniz, geçiniz, merhaba,
6. Yurdumun garip oğlanları Siz.
7. Bir yerde yürüdünüz düşünceli ve şeyda,
8. Özbek sanatının imkânları Siz.

9. Şimdi adınızı bilmez cihan,
10.Şimdi gelini çizmekten siz şad.
11. Bilmezsiniz, omzunuz üstünde şaduman,
12.Gözetip durduğunu Muzahhib, Behzad.

13. Size müştak hâlinizi ilginç ahenkler,
14.Üstat Cengiz Ahmar var bu bostanda.
15. Bilmezsiniz, siz kenardan arayan renkler
16.Gömülüp yattığını Çaganiyan'da.

17. Sizi bekleyen durur hâlâ çok mâni
18.Çiftçinin kirpiği üstüne konan toz.
19. Sizi bekleyip durur tertemiz pamuğun
20. Bağrında saklı nice sırlı renk.

21. Bugünlük aslına benzese her suret,
22. Yaldızlı çerçevelere sevineceksiniz.
23.Yüz renkte parlayıp geldiğinde şöhret,
24. Suretini çizemeden şaşıp kalacaksınız.

25. Uzun saçınıza bir gün ak düşer
26. Sezmeden de kalırsınız ömür geçtiğini,
27.Çizdiği resminize oğlunuz huzursuz
28. Yabancı büyüğü ezip gittiğini.

29. Olsun yüreğiniz de derviş gibi gezip,
30. Boyasanız da olsun cihanı,
31. Sadece bir rica var, vereceksiniz çizip,
32. Anamızın sureti, Özbekistan'ı. (1979)

BAHOR XOSIYATI (271)

1. *Qarangki, bahorning vazifasi yo'q,*

2. *Biror mahkamadan maosh olmas u.*

3. *Unga kor qilgaydir na araz, na do‘q,*

4. *Safarga chiqdimi, kelmay qolmas u.*

5. *Yuksak qasrlarni burkar chechakka,*

6. *Gado kulbasini bezar sarosar!*

7. *Ezgulik bobida faqat u yakka,*

8. *Faqat u barchaga teng va barobar.*

9. *Ko‘ngil darichasin ochib qo‘ying lang,*

10. *G‘ussali dilda ham kuladi bahor,*

11. *Umidvor insonlar, uni olqishlang,*

12. *Faqat xosiyatli bo‘ladi bahor.*

BAHAR HASİYETİ (271)

1. Bakın ki, baharın vazifesi yok,

2. Bir mahkemeden maaş almaz o.

3. Onu etkileyecektir ne küslük, ne tehdit,

4. Sefere çıktı mı, gelmeden kalmaz o.

5. Yüksek kaleleri çevirir çiçeğe,

6. Fakir kulübesini bezer seraser!

7. İyilik faslında sadece o tek,

8. Sadece o hepsine denk ve beraber.

9. Gönül penceresini açık bırakın,

10. Sıkıntılı gönülde de güler bahar,

11. Ümitvar insanlar, onu alkışlayın,

12. Sadece hasiyetli olur bahar. (1979)

INSON QALBI (272)

1. *Inson qalbi bilan hazillashmang siz.*
2. *Unda millat yashar, unda til yashar.*
3. *Unda ajdod faxri yashaydi so‘zsiz,*
4. *Unda istiqomat qiladi bashar.*

5. *Inson qalbi bilan hazillashmang Siz,*
6. *Unda ona yashar, yashaydi Vatan.*
7. *Uni jo‘n narsa deb o‘ylamang hargiz,*
8. *Hayhot! Qo‘zg‘almasin bu Qalb daf’atan!..*

İNSAN KALBİ (272)

1. İnsan kalbiyle şakalaşmayın siz.
2. Onda millet yaşar, onda dil yaşar.
3. Onda ecdat gururu yaşar sözsüz,
4. Onda istikamet kılar beşer.

5. İnsan kalbiyle şakalaşmayın siz.
6. Onda ana yaşar, yaşar Vatan.
7. Onu basit şey diye düşünmeyin hiç,
8. Heyhat! Coşmasın bu Kalp ansızın!.. (1979)

SHOIR VA ILHOM (273)

1. *Ayni tong chog‘ida ko‘z ochdi Ilhom,*
2. *Boqdi atrofiga sollanib, kushod.*
3. *Porladi chashmida Ilhomiy payg‘om,*
4. *Ilhom kayfiyati edi butkul shod.*

5. *Ado etmoq uchun ezgu xizmatin*
6. *Ilhom qalbi so‘ngsiz shavq bilan to‘ldi.*
7. *O‘sha ajib hamda xush kayfiyatin*
8. *Tanish shoiriga yetkazmoq bo‘ldi.*

9. *Shu’laga chulg‘adi qanotin avval,*
10.*Yulduzlardan osdi bo‘yniga marjon.*
11.*Tugib yuragiga hislarin tugal*
12.*Ilhom zamin sari yo‘l oldi shodmon.*

13.*Umidvor edi u, zaminda bir kun*
14.*Bunyod bo‘lajakdir ajib bir ijod.*
15.*Satrida yulduzlar sochajak uchqun,*
16.*O‘qigan har bir dil farovon, obod.*

17.*Ilhom paydo bo‘ldi tanish ko‘chada,*
18.*O‘shandoq bezangan - qanotlari zar.*
19.*Ammo bu gal uni xilvat go‘shada*
20.*Kutib turar edi osiy Ig‘vogar.*

21.*Zarra ochirmasdan Ilhom ko‘zini*
22.*Ig‘vogar nenidir gapirib soldi.*
23.*Shoir o‘girgan deb sendan yuzini*
24.*Marjonlarin bir-bir yulqilab oldi.*

25.*Tortib oldi hatto ziraklarin ham,*
26.*Ilhomning boshiga soldi qiyomat.*
27.*Ilhom nari ketdi ma’yus, boshi ham,*
28.*Bu qanday ko‘rgilik? Bu ne malomat?!*

29.*Ilhom shoir tomon yo‘l oldi nochor,*
30.*Dilida ming shubha, boshida ming o‘y.*
31.*Ammo darvozaning tagida bu bor*
32.*Kutib turar edi uni Hasadgo‘y.*

33.*Cho‘ltoq hassasini o‘qtalib Hasad*

34.*Ilhomning boshiga tushirdi chunon:*
35.- *Kim qo‘yibdi senga parvozni, nomard,*
36.*Bizlar yer yuzida yursak sargardon.*

37.*Shundoq deb Ilhomning nozik va mayin*
38.*Qanotlarin Hasad yulib tashladi.*
39.*Bu ham yetmagandek, shafqat qilmayin,*
40.*Ilhomning yuziga loylar chapladi.*

41.*Hayhot! Ne qilarin bilmayin Ilhom*
42.*Ilk bor ko‘z yosh to‘kdi shu tong, aslida.*
43.*Beqanot, belibos, diydirab tamom*
44.*Turardi qandaydir maxluq shaklida.*

45.*Ilhom darvozani chor-nochor qoqdi,*
46.*Bilolmasdi sho‘rlik hanuz aybini.*
47.*Shoir darvozani ochdi-yu yopdi:*
48.*Tanimayman, dedi, senday daydini.*

ŞAİR VE İLHAM (273)

1. Aynı şafak vaktinde göz açtı İlham,
2. Baktı etrafına sallanıp, büsbütün.
3. Parladı gözünde İlhamî müjde,
4. İlham keyfiyeti idi tamamen şad.

5. Eda etmek için iyi hizmetini
6. İlham kalbi sonsuz şevkle doldu.
7. O garip hem de hoş keyfiyetini
8. Tanıdık şairine eriştirmek oldu.

9. Işığına sardı kanadını evvel,
10.Yıldızlardan astı boynuna mercan.

11. Bağlayıp yüreğine hislerini dolu
12.İlham zeminine doğru yol aldı memnun.

13.Ümitvar idi o, zeminde bir gün
14. Meydana gelecektir ilginç bir sanat.
15. Satırında yıldızlar saçacak kıvılcım,
16. Okuyan her bir gönül refah, abat.

17.İlham peyda oldu tanıdık sokakta,
18.Öyle bezenmiş, kanatları altın.
19. Ama bu kez onu yalnız mekânda
20. Bekleyip durur idi asi Fesatçı.

21. Zerre açmadan İlham gözünü
22. Fesatçı neyi konuşup saldı.
23.Şair çevirmiş diye senden yüzünü
24. Mercanlarını bir bir koparıp aldı.

25.Çekip aldı hatta küpelerini de,
26.İlhamın başına kopardı kıyamet.
27.İlham öteye gitti meyus, başı da,
28. Bu nasıl yazgı? Bu ne sitem?!

29.İlham şaire doğru yol aldı güçsüz,
30.Gönlünde bin şüphe, başında bin düşünce.
31. Ama kapının dibinde bu kez
32. Bekleyip durur idi onu Hasetçi.

33.Kısa asasıyla tehdit edip Haset
34.İlhamın başına indirdi böyle:
35.- Kimi bırakmış sana uçmayı, namert,
36. Bizler yeryüzünde yürüsek şaşkın.

37.Böyle deyip İlhamın nazik ve ince
38. Kanatlarını Haset yolup attı.
39. Bu da yetmemiş gibi, şefkat etmeyen,
40.İlhamın yüzüne çamurlar bulaştırdı.

41. Heyhat! Ne edeceğini bilmeyen İlham
42.İlk kez gözyaşı döktü bu şafakta, aslında.
43. Kanatsız, kıyafetsiz, üşüyüp büsbütün
44. Dururdu nasıl mahluk şeklinde.

45.İlham kapısını çaresiz vurdu,
46. Bilemezdi biçare henüz ayıbını.
47.Şair kapısını açtığı gibi örttü:
48. Tanımıyorum, dedi, senin gibi serserisini. (1979)

OILA (274)

1. *Kattasi ketgandi baliq oviga,*
2. *Cho‘milib-netmasin, ishqilib.*
3. *Turli tasavvurlar olar doviga,*
4. *Kampirning nafasi kelar tiqilib.*
5. *- Hoy, siz ham bolani o‘ylang-da bundoq...-*
6. *Kampir erk bergancha puch xayoliga,*
7. *Kapgirni qaygadir ilib o‘sha choq*
8. *Tanbeh bera boshlar choliga.*
9. *Chol-chi, ko‘zoynagin artgancha bot-bot*
10.*Kitob varaqlaydi: Bedilmi, Mashrab...*
11.*- Moshinda ketuvdi kenjasi shaddod,*
12.*Yursin-da, ishqilib, ko‘ziga qarab...*
13.*Kun ham erta botdi, bilmadim, kuzmi,*
14.*Bittasi kechkida o‘qiydi.*
15.*- Sen ham o‘ylagin-da anavi qizni? -*
16.*Chol ham kampirini nuqiydi.*

17.*Hech qayda hech gap yo‘q, shundoq ikkovlon*

18.*Bir-birin besabab koyir, turtkilar.*

19.*Lekin ikkisi ham biladi pinhon:*

20.*Bolalarni o‘ylaydi ular.*

21.*So‘ngra bir mahalda uzun-qisqa bo‘lib*

22.*Bolalar ham kelar galma-gal.*

23.*Dasturxon atrofi boradi to‘lib,*

24.*Xayriyat, hammasi jam, tugal.*

25.*Kampir: - Shukr, - deydi qimtinib labi,*

26.*Chol ham jilmayadi:*

27.*Tushunar...*

28.*Dunyoda hech bir gap bo‘lmagan kabi*

29.*Bolalar ovqatni tushirar.*

AİLE (274)

1. Büyüğü gitmişti balık avına,

2. Yüzüp ne yapmasın, yine de.

3. Türlü tasavvurlar alır cesaretine,

4. Yaşlı kadın kalır nefes nefese

5. - Hay, siz de çocuğu düşünün böyle…

6. Yaşlı kadın kurtulana dek boş hayalden,

7. Kevgiri bir yere asıp o an

8. Tembih etmeye başlar yaşlı adama.

9. Yaşlı adam, gözlüğünü temizleyene dek tez tez

10. Kitap sayfalarını inceler: Mahzun mu, Huy…

11.- Arabada giderdi kardeşi inatçı,

12.Yürüsün, yine de, gözüne bakıp…

13.Güneş de erken battı, anlamadım, güz mü,

14. Bir tanesi akşamleyin okur.

15.- Sen de düşün bu kızını?

16. Yaşlı adam da yaşlı kadına söyler.

17. Hiçbir yerde hiç söz yok, böyle iki kişi olarak

18. Birbirine sebepsiz tembihler, haykırışlar.

19. Ama ikisi de bilir gizli:

20.Çocukları düşünür onlar.

21. Sonra bir anda uzun kısa olarak
22.Çocuklar da gelir sırayla.
23. Sofra etrafı gider dolup,
24.Şükür ki, hepsi de, tamam.
25. Yaşlı kadın: - Şükür, der sıkıp dudağı,
26. Yaşlı adam da gülümserdi:
27. Anlar…
28.Dünyada hiçbir çaresi bulunmamış gibi
29.Çocuklar yemeğe başlar. (1979)

SAMOVIY MEHMON, BESH DONISHMAND VA FARROSH KAMPIR QISSASI (275)

1. *Xabar keldi Fan shahriga*
2. *Olis Jungli tomondan.*
3. *O‘tgan kecha allanarsa*
4. *Yonib tushmish osmondan.*

5. *Yulduz desa yulduz emas,*
6. *Yo yo‘ldoshmi bir daydi.*
7. *Har holda u shov-shuv solgan*
8. *Tarelkaga o‘xshaydi.*

9. *Bu xabardan ilm ahli*
10.*Bir zum o‘yga toldilar.*
11.*Yana biror mish-mishdir deb*
12.*Shubhaga ham bordilar.*

13.*Charxlab turish kerak ammo*
14.*Tuyg‘u bilan aqlni...*
15.*Har ehtimol jo‘natdilar*
16.*Jungliga besh vakilni.*

17.*Beshovi ham tengsiz olam,*

18.*Besh qit’adan bo‘lmish jam.*
19.*Dunyodagi barcha ilm*
20.*Shul beshovda mujassam.*

21.*Dunyodagi tillarni-ku*
22.*Besh barmoqday bilishar.*
23.*Kerak bo‘lsa qushlar bilan*
24.*Xandon suhbat qilishar.*

25.*Xullas, beshov yig‘ilishib*
26.*Jungli tomon yeldilar.*
27.*Hatto farrosh kampirni ham*
28.*Birga olib keldilar.*

29.*Darhaqiqat, Jungli notinch,*
30.*Ne daraxtlar shalpaygan.*
31.*O‘rtalikda allanarsa*
32.*Yotar edi, yalpaygan.*

33.*Oynaklarni tutib beshov*
34.*U yog‘idan o‘tdilar.*
35.*Bu qanaqa gap bo‘ldi deb*
36.*Bu yog‘idan o‘tdilar.*

37.*Va nihoyat sirli uyni*
38.*Urib ochib olishdi.*
39.*Ichkariga qarab birdan*
40.*Angrayishib qolishdi.*

41.*Yotar edi o‘rindiqda*
42.*Allaqanday bir maxluq.*
43.*Bir ko‘zi bor...manglayida,*

44.*Ikkinchisi mutlaq yo‘q.*

45.*Lab-dahani odamga ham*
46.*O‘xshab-o‘xshab ketardi.*
47.*Qo‘l-oyog‘i uzun-uzun,*
48.*Sap-sariqdir rang zardi...*

49.*Besh donishmand o‘zni endi*
50.*Yo‘qotishdi tamoman:*
51.*Hazilakam gapmi axir*
52.*Mehmon tushmish samodan!*

53.*Mana buni aytsa bo‘lar*
54.*Eng oliy, zo‘r muammo!*
55.*O‘rab oldi uni beshov,*
56.*Miq etmasdi u ammo.*

57.*Ko‘rsatishdi unga dastlab*
58.*Cheksiz olam tarhini.*
59.*Somon yo‘li, alfa, beta*
60.*Burjlarining farqini.*

61.*Mehmon esa qimir etmay*
62.*Yotardi jim, sulayib.*
63.*Manglayida bitta ko‘zi*
64.*Boqar edi do‘layib.*

65.*Ko‘rsatdilar unga yana*
66.*Yozuv, shakl, formula.*
67.*Moziyni ham ko‘rsatishdi*
68.*Kino qilib bir yo‘la.*

69.*Dunyodagi tillarni-ku*
70.*Lug‘at qilib uyishdi.*
71.*Shu jumladan o‘zbekcha ham*
72.*Bir-ikki so‘z deyishdi.*

73.*Mehmon hanuz qimir etmay*
74.*Yotardi jim, sulayib.*
75.*Manglayida bitta ko‘zi*
76.*Boqar edi do‘layib.*

77.*Karmikan, deb qulog‘iga*
78.*Baqirib ham ko‘rdilar.*
79.*Soqovmi, deb imo bilan*
80.*Chaqirib ham ko‘rdilar.*

81.*Tahdid bilan hatto bir oz*
82.*Siquvga ham olishdi.*
83.*Oxir charchab, o‘zlari ham*
84.*Sulayishib qolishdi.*

85.*Ish chiqmadi, demak bizni*
86.*Tushunmadi u taraf!*
87.*O‘sha payt, deng farrosh kampir*
88.*Kirib keldi tentirab.*

89.*Farroshda u, uni-buni*
90.*Yig‘ishtirmoq unga tan.*
91.*O‘rindiqda yotgan zotni*
92.*Ko‘rdi kampir daf’atan!*

93.- *Voy bechora bolaginam,*
94.*Dard zabtiga opti-ku!*

95.*Holdan toyib, boshqa ko‘zi*
96.*Yumilib ham qopti-ku!*

97.*Rangini ko‘r, somon deysan,*
98.*Suvdanmikan yo o‘tdan! -*
99.*Shundoq deya farrosh kampir*
100. *Bo‘la ketdi girgitton.*

101. *Azbaroyi mehr bilan*
102. *Boshginasin siladi.*
103. *Tikandayin tikka o‘sgan*
104. *Sochginasin siladi.*

105. *Kampir bilmas, kim bu maxluq,*
106. *Yo bilsa ham unutdi.*
107. *Icha qolgin, jon bolam, deb*
108. *Hatto unga suv tutdi.*

109. *O‘shanda deng, haligining*
110. *Qon chopdi-ya yuziga.*
111. *Duvva-duvva yosh ham keldi*
112. *Bittagina ko‘ziga.*

113. *Jon kirganday bo‘ldi birdan*
114. *Oyoq-qo‘li qimirlab.*
115. *Jilmayganday bo‘ldi hatto*
116. *Gapirganday shivirlab.*

117. *Aylantirib bitta ko‘zin*
118. *Boqdi u yoq-bu yoqqa.*
119. *Bir mahal deng, dabdurustdan*
120. *Mehmon turdi oyoqqa.*

121. *Olimlarning ushbu holdan*
122. *Chimirildi qoshlari.*
123. *Bu qanaqa sir bo‘ldi, deb*
124. *Tamom qotdi boshlari.*

125. *Kor qilmadi shuncha ilm,*
126. *Etdi qancha sargardon.*
127. *Farroshlarning yulduzidan*
128. *Tushdimikan yo mehmon.*

129. *Ne bo‘lsa ham murod hosil,*
130. *Fan shahriga yelishdi.*
131. *Farrosh kampir sirin esa*
132. *Sal keyinroq bilishdi.*

133. *Olimlarning xizmatlari*
134. *Yo‘q, bekorga ketmapti.*
135. *Shuncha ishni qilishibdi.*
136. *Faqat Mehr yetmapti.*

SEMAVİ MİSAFİR, BEŞ BİLGE VE HİZMETKÂR YAŞLI KADIN KISSASI (275)

1. Haber geldi İlim şehrine
2. Uzak Orman tarafından.
3. Geçen gece bir şey
4. Parlayıp düşmüş asumandan.

5. Yıldız dese yıldız değil,
6. Yahut yoldaş mı bir serseri.
7. Herhâlde o gürültü salan
8. Tabağa benzer.

9. Bu haberden ilim ehli
10. Bir an düşünceyle doldular.
11. Yine bir dedikodudur deyip
12.Şüpheye de düştüler.

13. Atılmak gerek ama
14. Duyguyla aklını…
15. Her ihtimal gönderdiler
16. Ormana beş vekilini.

17. Beşi de eşsiz âlem,
18. Beş kıtadan olmuş cem.
19.Dünyadaki bütün ilim
20.Şu beşinde mücessem.

21.Dünyadaki dilleri
22. Beş parmak gibi bilirler.
23. Gerek olsa kuşlarla
24. Handan sohbet ederler.

25. Velhasıl, beşi toplanıp
26. Ormana doğru gittiler.
27. Hatta hizmetkâr kadını da
28. Birlikte alıp geldiler.

29. Sahiden, Orman korkunç,
30. Ne ağaçlar çökmüş.
31. Ortalıkta bir şey
32. Yatardı, dağılmış.

33. Aynalarından tutup beşi
34.O tarafından geçtiler.

35. Bu nasıl söz oldu diye
36. Bu tarafından geçtiler.

37. Ve nihayet sırlı evi
38. Vurup açtılar.
39.İçeriye bakıp birden
40.Şaşıp kaldılar.

41. Yatardı oturacakta
42. Yabancı bir mahluk.
43. Bir gözü var… alnında,
44.İkincisi mutlak yok.

45.Ağız ve dudağı insana da
46. Benzer benzerdi.
47. Eli ayağı uzun uzun,
48. Sapsarı rengi altındı…

49. Beş bilge kendisini şimdi
50. Kaybettiler tamamen:
51. Saçma söz mü artık
52. Misafir düşmüş semadan!

53.İşte bunu söylese olur
54. En yüce, büyük muamma!
55. Kuşatıp aldı onu beşi,
56.Kıpırdamazdı o ama.

57.Gösterdiler ona evvela
58. Sonsuz âlem tarihini.
59. Samanyolu, alfa, beta
60. Burçlarının farkını.

61. Misafir ise hareket etmeden
62. Yatardı sessiz, bitkinleşip.
63. Alnında bir tane gözü
64. Bakardı dik dik.

65.Gösterdiler ona yine
66. Yazı, şekil, formül.
67. Maziyi de gösterdiler
68. Filmleştirip bir kere.

69.Dünyadaki dilleri
70.Sözlük yapıp topladılar.
71. Hepsinden Özbekçe de
72. Bir iki söz dediler.

73. Misafir henüz hareket etmeden
74. Yatardı sessiz, bitkinleşip.
75. Alnında bir tane gözü
76. Bakardı dik dik.

77. Sağır mıymış, diye kulağına
78. Bağırıp da yokladılar.
79. Dilsiz mi, diye imayla
80.Çağırıp da gördüler.

81. Tehditle hatta biraz.
82.Sıkıp da çektiler.
83. Artık yorulup, kendileri de
84. Bitkinleşip kaldılar.

85.İş çıkmadı, demek bizi

86.Düşünmedi o taraf!
87.O an, aynı hizmetkâr yaşlı kadın
88.Dönüp geldi dolaşıp.

89. Hizmetkârda o, onu bunu
90. Temizlemek onun işi.
91. Oturacakta yatan zatı
92.Gördü yaşlı kadın aniden!

93.- Vay biçare çocuğum,
94. Dert zapt etti!
95.Hâlden düşmüş, diğer gözü
96. Yumulup da kapandı!

97. Rengini gör, saman dersin,
98. Sudan mıymış yahut ateşten?
99.Böyle deyip yaşlı kadın
100. Olmaya gitti kurban.

101. Hatırına şefkatle
102. Başçığını okşadı.
103. Diken gibi dik büyüyen
104. Saççığını okşadı.

105. Yaşlı kadın bilmez, kim bu mahluk,
106. Yahut bilse de unuttu.
107. İç, can evladım, diye,
108. Hatta ona su tuttu.

109. Böyle denk, mezkûrun
110. Kan bastı yüzüne.
111. Birdenbire yaş da geldi

112. Bir tanecik gözüne.

113. Can girmiş gibi oldu birden
114. Ayak eli kımıldayıp.
115. Gülümseyecek gibi oldu hatta
116. Konuşacak gibi fısıldayıp.

117. Döndürüp bir tane gözünü
118. Baktı o yana bu yana.
119. Bir an denk, aniden
120. Misafir kalktı ayağa.

121. Âlimlerin bu hâlden
122. Çatıldı kaşları.
123. Bu nasıl sır oldu, diye
124. Büsbütün dondu başları.

125. Kâr etmedi bunca ilim,
126. Etti ne kadar şaşkın.
127. Hizmetkârların yıldızından
128. İnmiş miydi ya misafir.

129. Ne olsa da murat hasıl,
130. İlim şehrine gittiler.
131. Hizmetkâr yaşlı kadın sırrını ise
132. Biraz daha sonra anladılar.

133. Âlimlerin hizmetleri
134. Hayır, boşa gitmemiş.
135. Bunca işi yapmışlar.
136. Sadece Şefkat erişmemiş. (1979)

“HIMMATLI GAPLARGA…” (276)

1. *Himmatli gaplarga quloq solmoq darkor.*
2. *Quloq solmoq darkor xalqning so‘ziga,*
3. *Lekin odamlarning bir odati bor,*
4. *Maqol to‘qiydilar moslab o‘ziga.*
5. *Masalan, it - vafo, demishlar, hayhot,*
6. *It egalari buni to‘qiganlar zab.*
7. *Birovlar itidan bo‘lgil ehtiyot,*
8. *O‘zingniki bo‘lsa boshqa gap...*

“HİKMETLİ SÖZLERE…” (276)

1. Hikmetli sözlere kulak vermek gerek.
2. Kulak vermek gerek halkının sözüne,
3. Ama insanların bir âdeti var,
4. Atasözü oluşturdular uyarlayıp kendisine.
5. Mesela, it: vefa, demişler, heyhat,
6. İt sahipleri bunu oluşturmuşlar tam.
7. Birileri ol ihtiyatlı,
8. Kendininki olsa başka söz… (1979)

“HO‘KIZNING BO‘YNIGA TAQSANG TAQINCHOQ…” (277)

1. *Ho‘kizning bo‘yniga taqsang taqinchoq,*
2. *Tomosha ahliga bo‘lgay ovunchoq.*
3. *Sen odam shaklida yurgan bir govsan,*
4. *Xayf senga na nishon, oddiy bir munchoq.*

“ÖKÜZÜN BOYNUNA TAKSAN TAKI…” (277)

1. Öküzün boynuna taksan takı,
2. Seyir ehline olsun teselli.
3. Sen insan şeklinde yürüyen bir öküzsün,
4. Tehlike sana ne nişan, basit bir gerdanlık. (1979)

“DONISHMAND DEDIKI…” (278)

1. *Donishmand dediki, osonni kutma,*

2. *Imkondan ortiq bir imkonni kutma.*

3. *Daryodan daryoni talab aylagil*

4. *Va lekin hech qachon ummonni kutma.*

“BİLGE DEDİ Kİ…” (278)

1. Bilge dedi ki, kolayı bekleme,

2. İmkândan fazla bir imkânı bekleme.

3. Deryadan deryayı talep eyle

4. Velakin hiçbir zaman ummanı bekleme. (1980)

AYON BO‘LGAY (279)

1. *Agar yoring xirom etsa,*

2. *Sabolardan ayon bo‘lgay,*

3. *Takallumi chaman bergan*

4. *Sadolardan ayon bo‘lgay,*

5. *Agar yoring quyosh bo‘lsa,*

6. *Anga aslo boqib bo‘lmas,*

7. *Kamolingmi, zavoling yo -*

8. *Samolardan ayon bo‘lgay.*

9. *Agar yoring husn shohi -*

10. *O‘tar bo‘lsa shaharlardan*

11.*Guzarlarda qolib ketgan*

12. *Gadolardan ayon bo‘lgay.*

13.*Agar yoring jafokordir,*

14. *Jafokor, deb, otin aytma,*

15.*Uning asli o‘zing chekkan*

16. *Jafolardan ayon bo‘lgay.*

17.*Agar yoring sadoqat deb*

18. *Senga ko‘ngil qo‘yar bo‘lsa,*

19.*Kuyib ag‘yorlaring, baxti, -*

20. *Qarolardan ayon bo‘lgay.*

21.*Agar yoring muhabbatni*

22. *Nihon saqlar, gumon etma,*

23.*U bir ganjdir, biroq haddi*

24. *Adolardan ayon bo‘lgay,*

25.*Agar yoring bo‘lib Shirin,*

26. *Agar o‘zni desang Farhod,*

27.*Qiyosing chin va yo lofdir,*

28. *Vafolardan ayon bo‘lgay.*

29.*Agar oshiqsan, Abdulla,*

30. *Qanoat qil sabr birla,*

31.*Nadur holing - senga boqqan*

32. *Balolardan ayon bo‘lgay.*

AYAN OLSUN (279)

1. Eğer yârin endamlı yürüse,

2. Şafak rüzgârları ayan olsun,

3. Sohbeti çiçek bahçesi veren

4. Seslerden ayan olsun,

5. Eğer yârin güneş olsa,

6. Ona asla bakmak olmaz,

7. Kemalin mi, zevalin yahut

8. Semalardan ayan olsun.

9. Eğer yârin güzellik şahı

10. Geçerse şehirlerden

11.Güzellerde kalıp gitmiş

12. Düşkünlerden ayan olsun,

13.Eğer yârin cefakârdır,

14. Cefakâr, diye, adını söylemese,

15. Onun aslı kendin çektiğin

16. Cefalardan ayan olsun.

17.Eğer yârin sadakat diye

18. Sana gönül koyarsa,

19. Yanıp rakiplerin, bahtı,

20. Karalardan ayan olsun.

21.Eğer yârin muhabbeti

22. Gizler, şüphe etme,

23.O bir hazinedir, fakat haddi

24. Edalardan ayan olsun.

25.Eğer yârin olup Şirin,

26. Eğer kendi desen Ferhat,

27.Kıyasın gerçek yahut laftır,

28. Vefalardan ayan olsun.

29.Eğer âşıksın, Abdulla,

30. Kanaat kıl sabırla,

31. Nedir hâlin sana bakan

32. Çocuklardan ayan olsun. (1979)

BAXMALLIK GILAM TO‘QUVCHI QIZLARGA (280)

1. *Baxmal bag‘ridagi mo‘’jaz dastgohda*

2. *Baxmal gilam to‘qir uch nafar singil.*

3. *Uchchovlon bekachdir bu gul dargohda,*

4. *Nomlari Mukarram, Buoysha, Oygul.*

5. *Necha rang va necha anvoyi bo‘yoq*

6. *Ajib bir san’atga aylanar bunda.*

7. *Qizlar qalbidagi mehru ishtiyoq*

8. *Rang-barang ip bo‘lib boshlanar bunda.*

9. *Qizlar o‘tinch qildi: - Bo‘lsa gar imkon*

10.*Shoirlar nomimiz she’rga qo‘shsalar.*

11.*Qizlar, yo‘lingizda peshkashdir jahon,*

12.*Iltifot bo‘lurmi she’rga bunchalar.*

13.*Sizning bu yaratgan mo‘’jiza san’at*

14.*Yuz yil to‘zim bilmay turmoqligi rost.*

15.*Yashasa shoirning she’ri shul muddat,*

16.*Do‘ppisin ko‘klarga otardi paqqos.*

17.*Fursat qarshisida boqiy nima bor?*

18.*She’rmi u, qasrmi, gilammi, palak?!*

19.*Sizning qoshingizda mening bu ash’or*

20.*Bamisli gulzorga qo‘ngan kapalak.*

21.*Arzigay nomingiz yoysak olamga,*

22.*Shul erur mening ham umrlik dardim.*

23.*Va lekin aslida, sizning gilamga*

24.*Bitgulik bayt yozsam baxtli bo‘lardim.*

KADİFELİ KİLİM DOKUYAN KIZLARA (280)

1. Kadife bağrındaki muhteşem tezgâhta

2. Kadife kilim dokur üç kız kardeş.

3. Üçü birlikte hanımdır bu gül dergâhta,

4. İsimleri Mükerrem, Buayşe, Aygül.

5. Nice renk ve nice envai çeşit büyük

6. İlginç bir sanata dönüşür burada.

7. Kızlar kalbindeki şefkat-i iştiyak

8. Rengârenk ip olup başlar burada.

9. Kızlar rica etti: - Olsa eğer imkân

10.Şairler adımızı şiire katsalar.

11.Kızlar, yolunuzda hediyedir cihan,

12.İltifat olur mu şiire bu kadar.

13. Sizin bu yarattığınız mucize sanat

14.Yüzyıl külfet bilmeden durduğu gerçek.

15. Yaşasa şairin şiiri şu müddet,

16.Döppisini göklere atardı büsbütün.

17. Zaman karşısında baki ne var?

18.Şiir mi o, kale mi, kilim mi, kök?!

19. Sizin huzurunuzda benim bu şiirler

20. Sanki gülzâra konan kelebek.

21. Değecek adınız yaysak âleme.

22. Budur benim de ömürlük derdim.

23. Velakin aslında, sizin kilime

24. Yazmalık beyit yazsam bahtlı olurdum. (1979)

PAXTAKOR ABDURAYIM AKA BILAN BAXT HAQIDA SUHBAT (281)

1. *Baxt nima? Hayotmi va yokim xayol?*

2. *U nedur? Mulkmi yo umr bezavol?*

3. *Yo u sira o‘chmas muhabbatmikan?*

4. *U yo mehnatmikan? Yo san’atmikan?*

5. *Ishdan horib qaytding, dilgir hoynahoy,*

6. *Rafiqang uzatdi bir piyola choy.*

7. *Unut bo‘ldi shunda charchog‘ing, zoring,*

8. *Ko‘ngildan bir nafas ketdi g‘uboring.*

9. *Balki baxt o‘shadir? Sezmagandirsan,*

10.*Uni o‘zing bilmay izlagandirsan?*

11.*Sizning kasbingiz shu, paxtazor ichra*

12.*Ertadan to oqshom tinmaysiz sira.*

13.*Yillar changidir bu sochingizda oq,*

14.*Mehnatdan, yumushdan qolmabsiz biroq,*

15.*Qaraysiz - bir yonda o‘g‘lingiz o‘ktam,*

16.*Bir yonda qizingiz - safdadir u ham.*

17.*Zamon tinch, orzular dilda alomat.*

18.*Lekin eng muhimi - borsiz salomat.*

19.*Balki baxt degani mana shu holdir,*

20.*Balki shu muhtasham tole, iqboldir.*

21.*Baxt nima? Hayotmi va yokim xayol?*

22.*U nedur? Mulkmi yo umr bezavol?*

23.*Mening nazarimda bularning bari,*

24.*Baxt degan daraxtning shoxobchalari.*

25.*Baxtga o‘sha choy ham daxldor erur,*

26.*Aql ham, chiroy ham daxldor erur,*

27.*Hayotning g‘alvali guldurosidan,*

28.*Quvonchi, tashvishi, xush sadosidan*

29.*Yiroqqa tushmasak baxtdir mana shu,*

30.*Qandaydir muallaq manzil emas u.*

31.*Baxt tengdir shoiru bastakorga ham,*

32.*Abdurayim degan paxtakorga ham.*

PAMUKÇU ABDURAYİM ABİYLE BAHT HAKKINDA SOHBET (281)

1. Baht ne? Hayat mı ve güzel hayal?

2. O nedir? Mülk mü veya ömür sonsuz?

3. Yahut o asla bitmez muhabbet miymiş?

4. O ya da emek miymiş? Yahut sanat mıymış?

5. İşten yorulup döndün, üzgün belki,

6. Refikan uzattı bir kâse çay.
7. Unutuldu böyle yorgunluğun, sitemin,
8. Gönülden bir an gitti gamın.
9. Belki baht odur? Sezmemişsindir,
10. Onu kendin bilmeden aramışsındır.
11. Sizin mesleğiniz bu, pamuk tarlası içinde
12. Sabahtan ta akşama durmazsınız asla.
13.Yılların tozudur bu saçınızda ak,
14. Emekten, işten kalmamışsınız fakat,
15. Bakarsınız bir yanda oğlunuz etkili,
16. Bir yanda kızınız, saftadır o da.
17. Zaman sessiz, arzular gönülde alamet.
18. Ama en önemlisi, varsınız selamet.
19. Belki baht dediği işte bu hâldir,
20. Belki bu muhteşem talih, ikbaldir.
21. Baht ne? Hayat mı ve tatlı hayal?
22.O nedir? Mülk mü yahut ömür sonsuz?
23. Benim nazarımda bunların hepsi,
24. Baht denen ağacın dalları.
25. Bahta o çay da dâhildir,
26. Akıl da, güzellik de dâhildir,
27. Hayatın kavgalı gürültüsünden,
28. Sevincin, tasanın, hoş sedasından
29. Uzağa düşmesek bahttır işte bu,
30. Ne olduğu muallak menzil değil o.
31. Baht müsavidir şair ve bestekâra da,
32. Abdureyim denen pamukçuya da (1979)

BOBO VA NABIRA (282)

1. *Imillab boradi yo‘lda mo‘ysafid,*
2. *O‘tgan asrlarning xayoli boshda.*
3. *Yonida tipirlar nabirasi xit,*
4. *Qo‘yvorsa yetguday shahdi quyoshga!*

5. *Chol-chi, tutmish uning qo‘lidan mahkam,*

6. *Nabira ko‘zida andisha-yu zor.*

7. *Ota, nabirangni ozod qo‘y bir dam,*

8. *U hali uzoqqa ketmog‘i darkor.*

9. *U hali nomingni ko‘ksiga joylab,*

10.*Samolar qo‘ynida urgusidir barq.*

11.*Uni qadamingga tashlama boylab,*

12.*Qo‘yvor nabirangni, otajonim, Sharq...*

DEDE VE TORUN (282)

1. Sallanıp gider yolda ihtiyar,

2. Geçmiş asırların hayali başta.

3. Yanında çırpınır torunu bıkkın,

4. Bıraksa erişecek gibi bala güneşe!

5. İhtiyar, tutmuş onun elinden sıkı,

6. Torun gözünde endişe ve sitemle.

7. Baba, torununu serbest bırak bir an,

8. O henüz uzağa gitmesi lazım.

9. O henüz adını göğsüne koyup,

10. Semalar bağrında saçacaktır ışık.

11. Onun adımını engelleme bağlayıp,

12.Bırakıver torununu, babacığım, Şark… (1979)

“BUNCHALAR KAMOLOT, AYT-CHI, KIMDA BOR…” (283)

1. *Bunchalar kamolot, ayt-chi, kimda bor,*

2. *Kimda bor bunchalik latofat, husn.*

3. *Shu chiroy, shu ishva, shu noz, shu viqor,*

4. *Baxtiyor juftingga muborak bo‘lsin.*

5. *Sevganing qalbida, bilmam, qay niyat,*

6. *Demasman, sha'ningga she'rlar bitsin deb.*

7. *Seni yaratgandir asli tabiat*

8. *Bir shoir hajringda kuyib o'tsin deb...*

"BUNCA KEMALAT, SÖYLE, KİMDE VAR…" (283)

1. Bunca kemalat, söyle, kimde var,

2. Kimde var, bunca letafet, hüsün.

3. Bu güzellik, bu işve, bu naz, bu vakar,

4. Bahtiyar çiftine mübarek olsun.

5. Sevdiğinin kalbinde, bilmem, hangi niyet,

6. Demem, şanına şiirler yazsın diye.

7. Seni yaratmıştır aslı tabiat

8. Bir şair hicranında yansın diye… (1979)

BIR USTOZ O'GITI (284)

(Hazil)

1. *Topgan-tutganingni xalqqa ber, qo'zim,*

2. *O'shanda hech qachon topmaysan to'zim.*

3. *Lekin bir mantiqni unutma aslo:*

4. *Ya'ni, mansubdirman xalqqa men o'zim.*

BİR ÜSTAT ÖĞÜDÜ (284)

(Gülmece)

1. Kazancını halka ver, gözüm,

2. Böyle hiçbir zaman bulmazsın külfet.

3. Ama bir mantığı unutma asla:

4. Yani, mensubuyumdur halkın ben kendim. (1979)

“OQAR DARYOGA HAM…” (285)

1. *Oqar daryoga ham kimdir band bergan,*
2. *Hayot kimga zahar, kimga qand bergan.*
3. *Ey g‘ofil, sarkash deb meni kamsitma,*
4. *G‘anim senga emas, menga pand bergan.*

“AKAR DERYAYA DA…” (285)

1. Akar deryaya da kim esir vermiş,
2. Hayat kime zehir, kime şeker vermiş.
3. Ey gafil, asi diye beni küçümseme,
4. Düşman seni değil, beni aldatmış. (1979)

“HAR QALAY…” (286)

1. *Har qalay qo‘limda sharbat to‘la jom,*
2. *Gar mahzun bo‘lsa ham qalbimda ilhom.*
3. *Endi bir samimiy do‘st ham topsaydim,*
4. *Baxtli sanar edim o‘zni batamom.*

“HER NASILSA…” (286)

1. Her nasılsa elimde şerbet dolu bir bardak,
2. Eğer mahzunsa da kalbimde ilham.
3. Şimdi bir samimi dost da bulsaydım,
4. Bahtlı sanır idim kendimi büsbütün. (1979)

ISTAK (287)

1. *Orzum shul, o‘chmasin yongan chirog‘ing,*
2. *Yulduzday nur sochsin chashming-qarog‘ing.*
3. *Magar chinor bo‘lsang, chinorday yasha,*
4. *Bevaqt uzilmasin biror yaprog‘ing.*

İSTEK (287)

1. Arzum şu, sönmesin yanan lamban,
2. Yıldız gibi ışık saçsın gözün, gözbebeğin.
3. Meğer çınarsan, çınar gibi yaşa,
4. Vakitsiz kesilmesin bir yaprağın. (1979)

ZIYO (288)

1. *Ne zotlar o‘tdilar hasratga to‘lib,*
2. *Kunlari zimiston, tuni sim-siyo.*
3. *Fazoga termulib, Ulug‘bek bo‘lib,*
4. *Yiroq dunyolardan axtardi ziyo.*
5. *Shohlar yuragida balqirmidi nur,*
6. *Rasullar mehridan porlarmi dunyo?*
7. *Tubsiz zulumotda band bo‘lgan shuur*
8. *Bir-birin qalbidan axtardi ziyo.*
9. *Olamni paypaslab misli nogiron*
10.*Topganlari bo‘ldi jaholat, riyo.*
11.*Valiy nazdida ham benurdir jahon,*
12.*Magar o‘z qalbida bo‘lmasa ziyo.*
13.*Qanday zamonlarga guvohmiz, ustoz,*
14.*Yerga tushgan kabi xurshid ham go‘yo.*
15.*Ko‘k emas, ushbu kun zamin sarafroz,*
16.*Falakka zamindan taralar ziyo.*
17.*Abas, yo‘qliklarga ketdi jaholat,*
18.*Asrimiz ufqida u misli ro‘yo.*
19.*Bu qanday sir erur, qanday sinoat,*
20.*Odam odam uchun taratgay ziyo?*
21.*Shuurga nur sochib, mash’al ko‘targan*
22.*Sizdek ustozlarga olam mahliyo.*
23.*Deyman xush ayyomda Sizni qutlarkan:*
24.*Qalbingizda sira so‘nmasin ziyo!*

ZİYA (288)

1. Ne zatlar geçtiler hasretle dolup,
2. Günleri karanlık, gecesi simsiyah.
3. Fezaya gözünü dikip, Uluğbek olup,
4. Uzak dünyalardan aradı ziya.
5. Şahlar yüreğinde ışırdı nur,
6. Resuller şefkatinden parlar mı dünya?
7. Dipsiz zulmette esir olan şuur
8. Birbirinin kalbinden arardı ziya.
9. Âlemi yayan benzeri sakat
10. Buldukları oldu cehalet, riya.
11. Veli nezdinde de nursuzdur cihan,
12. Meğer kendi kalbinde olmasa ziya.
13. Nice zamanlara şahidiz, üstat,
14. Yere düşmüş gibi güneş de sanki.
15.Gök değil, bugün zemin serefraz,
16. Feleğe zeminden yayılır ziya.
17. Abes, yokluklara gitti cehalet,
18. Asrımız ufkunda o benzeri rüya.
19. Bu nasıl sırdır, nasıl tuhaf iş,
20.İnsan insan için dağıtsın ziya.
21.Şuura ışık saçıp, meşale kaldıran
22. Sizin gibi üstatlara âlem büyülenmiş.
23. Derim hoş günde Sizi kutlarken:
24. Kalbinizde asla sönmesin ziya! (1980)

OZARBAYJON (289)

1. *Xayol oti bilan kezgil har yonni,*
2. *Topmassan bundayin xushbaxt bir onni.*

3. *Muhr etdi dillarga tarix inchunin,*
4. *Qadim qondoshlikni - oliy ehsonni.*

5. *E’zozlab turibdi ko‘tarib boshga,*

6. *Bu kun ozar eli O‘zbekistonni.*

7. *So‘ylasin ming yillik mo‘ysafid tarix,*

8. *Bu do‘stlik bilganmi shubha, gumonni?*

9. *O‘zbekman, anglamay qayoqqa bordim,*

10.*Shu inja ozariy tilni, zabonni.*

11.*Do‘stlik bu - muhabbat yanglig‘ farahkim,*

12.*Bilgay u na hadni va na dovonni.*

13.*Asli Muqannaga qiyos etgulik*

14.*Bobakning qalbidan toshgan tug‘yonni.*

15.*Nizomiy bolidan halvo pishurmish*

16.*Navoiy zabt etib turkiy jahonni.*

17.*Bir lahza qo‘lidan qo‘yganmi o‘zbek,*

18.*O‘zing ayt, Fuzuliy bitgan devonni.*

19.*Azizim, dilimda asrab yuribman*

20.*Nasimiy qoldirgan sobit imonni.*

21.*Vurg‘unning she’ri deb jon cheksa o‘zbek,*

22.*Ozar ham ayarmi G‘afurdan jonni.*

23.*Sen bilan kechmishning janggohlarida*

24.*Birga taniganmiz yaxshi-yomonni.*

25.*Tarix-ku, muhtasham yodgordir oliy,*
26.*So‘ylayin shu kunni, ayni shu onni.*

27.*Qondoshlik tug‘ini ko‘tarib kushod*
28.*Tavob etmoqdamiz gulgun makonni.*

29.*Xazar kosa bo‘lsin, ya’ni jomi Jam,*
30.*Sipqargil, sharafla davru davronni.*

31.*Men senday mezbonni topmog‘im gumon,*
32.*Sen ham topolmassan menday mehmonni.*

33.*Mavjud bo‘lmasaydi olamda agar,*
34.*O‘ylab topar edim Ozarbayjonni.*

AZERBAYCAN (289)

1. Hayal atıyla gez her yanı,
2. Bulmazsın böyle hoş sohbet bir anı.

3. Mühür etti gönüllere tarih böyle,
4. Kadim kandaşlığı, ali ihsanı.

5. Hürmet etmişti kaldırıp başa,
6. Bugün Azer halkı Özbekistan’ı.

7. Söylesin bin yıllık ihtiyar tarih,
8. Bu dostluk bilmiş mi şüphe, kuşkuyu?

9. Özbek’im, anlarım nereye gittim,
10. Bu ince Azer dili, lisanını.

11. Dostluk bu, muhabbet gibi eğlence ki,
12. Bilsin o ne haddi ve ne geçidi.

13. Aslı Mukanna'ya kıyas edicilik
14. Babek'in kalbinden taşan duyguyu.

15. Nizamî balından helva pişirmiş
16. Nevâî zapt edip Türkî cihanı.

17. Bir an elinden bırakmış mı Özbek,
18. Kendin anlat, Fuzûlî yazmış divanı.

19. Azizim, gönlümde saklamışım
20. Nesîmî kaldırmış sabit imanı.

21. Vurgun'un şiiri diye canı çekse Özbek,
22. Azer de esirger mi Gafur'dan canı.

23. Seninle geçmişin savaş meydanlarında
24. Birlikte tanımışız iyiyi, kötüyü.

25. Tarih ki, muhteşem yadigâr ali,
26.Söyleyeyim bugünü, aynı bu anı.

27. Kandaşlık sancağını kaldırıp tam
28. Tavaf etmekteyiz güzel mekânı.

29. Sakınma kâse olsun, yani kadehi Hepsi,
30. Bir dikişte iç, şerefle devri devranı.

31. Ben senin gibi ev sahibi olmam şüphe,
32. Sen de bulamazsın ben gibi misafiri.

33. Mevcut olmasaydı âlemde eğer,
34.Düşünüp bulur idim Azerbaycan'ı (1980)

INSON MANZARASI (290)

1. *Ba'zan o'ylab deyman, ne bo'lardi gar*
2. *Qudratin ko'rgazsa tabiat xassos.*
3. *Va inson suvratin uning muqarrar*
4. *Fe'lu atvoriga aylab qo'ysa mos.*

5. *Bunyod bo'lar edi ajib bir holat,*
6. *Ne-ne insonlarning abas or sharmi.*
7. *Namoyon bo'lardi avval xushomad,*
8. *Emaklab yurardi bu qavmning bari.*

9. *Beshak yashirardi turfa qilmishin*
10.*Izdihom ichida badkor munofiq.*
11.*Tanib bo'lmas edi lekin yurishin,*
12.*Ya'ni o'z fe'liga mos va muvofiq.*

13.*Qanchalar rang-barang inson hayoti,*
14.*Bari ochiq-oydin shundoq turardi.*
15.*Oyog'i osmonda ig'vogar zoti*
16.*Ayri tili bilan izg'ib yurardi.*

17.*Ha, magar chevrilsa olam shu taxlit,*
18.*Imon keltirardim bir holga beshak:*
19.*Oyog'in zaminga qadagan sobit,*

20.*Komil Inson zoti ne chog‘lik yuksak.*

21.*Faqat u mavjudki, olam fayziyob,*
22.*Faqat insonlikka uning haqqi bor.*
23.*Ustivor insonlar, siz nechog‘ noyob,*
24.*Sizni uchratgan qalb nechog‘ baxtiyor...*

İNSAN MANZARASI (290)

1. Bazen düşünüp derim, ne olurdu eğer
2. Kudretini gösterse tabiat hassas.
3. Ve insan suretini onun mükerrer
4. Kişiliğine etse uygun.

5. Yaratılırdı ilginç bir hâlet,
6. Nice insanların abes ar namusu.
7. Ayan olurdu evvel iltifat,
8. Emekleyip yürürdü bu kavmin hepsi.

9. Şüphesiz gizlerdi garip ettiğini
10.İzdiham içinde alçak münafık.
11. Tanımazdı ama yürümesini,
12. Yani kendi karakterine uygun ve muvafık.

13. Nice rengârenk insan hayatı,
14. Hepsi açık aydınlık öyle dururdu.
15. Ayağı asumanda fesatçı zatı
16. Ayrı diliyle başıboş yürürdü.

17. Evet, meğer çevrilse âlem bu biçim,
18.İman getirirdim bir hâle şüphesiz:
19. Ayağını zemine basan sabit,
20.Kâmil İnsan zatı ne kadar yüksek.

21. Yalnız o mevcut ki, âlem feyizli,
22. Yalnız insanlığa onun hakkı var.
23.Üstün insanlar, siz ne kadar değerli,
24. Sizinle karşılaşan kalp ne kadar bahtiyar… (1980)

QO‘RIQXONA (291)

1. *Asraymiz o‘simlik xillarin tayin,*
2. *Asraymiz hayvonlar kamyob zotini.*
3. *Hatto atroflarin o‘rab atayin*
4. *Qo‘riqxona deymiz so‘ngra otini.*

5. *Sayoq ovchilarga u yon yo‘l bo‘lsin,*
6. *Jarima solamiz, qamaymiz hatto.*
7. *To u jonzodlarni tinchiga qo‘ysin,*
8. *Qirilib bitmasin tirik dunyo to.*

9. *Munis mavjudotga mehru shafqat bu,*
10.*Bu inson qalbida balqqan hamiyat.*
11.*To yashar qaydadir bu yanglig‘ tuyg‘u,*
12.*Har nechuk qirilib ketmas tabiat.*

13.*Olamda ko‘p narsa kamyob bir qadar,*
14.*Ne-ne tuyg‘ular ham kamyobdir, alhol.*
15.*Men derdim sof qalbni uchratgan safar,*
16.*Darhol o‘rab oling atrofin, darhol.*

17.*Insof yo‘qolmasin, o‘rang mustahkam,*
18.*To uni yuzsizlik etmasin xarob.*
19.*Ezgulikni asrang, olamda u ham*
20.*Tojdor turna kabi bo‘lmasin kamyob.*

21.*Oqibatni asrang, oqibat go‘yo*
22.*Ayiqday qaydadir topmasin zavol.*
23.*Hayoni asrangiz, kuymasin hayo*
24.*Otashga duch kelgan polapon misol.*

25.*Imonni asrangiz, u doim tanho,*
26.*Undadir mujassam inson matlabi.*
27.*Avlodlar axtarib yurmasinlar to,*
28.*Uni allaqanday Qor odam kabi.*

29.*Vijdonni asrangiz har nedan ortiq,*
30.*Yagona zaminni asragansimon.*
31.*Bobolardan qolgan noyob bu tortiq*
32.*Toki avlodlarga yetolsin omon.*

33.*Ezgu, latif hislar bo‘lmasin tahqir,*
34.*Bulbulni boyqushga topshirmang zinhor.*
35.*Xudbin va dilozor kimsaning, axir,*
36.*Og‘zi qon yirtqichdan qanday farqi bor?!*

37.*To‘qayga o‘t ketsa yongay bus-butun,*
38.*Adolat borliqqa yolg‘iz onadir.*
39.*Dunyo ham, insonlar qalbi ham bugun*
40.*Yovuzlikdan zada Qo‘riqxonadir.*

DOĞA KORUMA MERKEZİ (291)

1. Koruruz bitki türlerini belli,
2. Koruruz hayvanlar nadide zatını.
3. Hatta etraflarını sarıp bilerek
4. Koruma merkezi deriz sonra adını.

5. Serseri avcılara o yan yol olsun,

6. Ceza veririz, tutuklarız hatta.
7. Ta o yaratıkları kedere versin,
8. Kırılıp bitmesin canlı dünya ta.

9. Dost mevcudata sevgi ve şefkat bu,
10. Bu insan kalbinde coşan hamiyet.
11. Ta yaşar bir yerde bu gibi duygu,
12. Her nasıl kırılıp gitmez tabiat.

13.Âlemde çok şey nadide bir kadar,
14.Türlü türlü duygular da nadidedir, şimdi.
15. Ben derdim saf kalbini karşılaştığı sefer,
16. Derhâl sarıp alın etrafını, derhâl.

17.İnsan yok olmasın, sarın müstahkem,
18. Ta onu yüzsüzlük etmesin harap.
19.İyiliği koruyun, âlemde o da
20. Taçlı turna gibi olmasın nadide.

21. Akıbeti koruyun, akıbet sanki
22. Ayı gibi bir yerde bulmasın zeval.
23. Hayâyı koruyunuz, yanmasın hayâ
24. Ateşe rastlayan civciv misali.

25.İmanı koruyunuz, o daima yalnız,
26. Ondadır mücessem insan emeli.
27. Evlatlar arayıp yürümesinler ta,
28. Ona yabancı Kar insan gibi.

29. Vicdanı koruyunuz her neyden fazla,
30. Yegâne zemini korumuşa benzer.
31. Dedelerden kalan değerli bu hediye

32. Ta evlatlara yetebilsin sağ salim.

33.İyi, latif hisler olmasın tahkir,
34.Bülbülü baykuşa vermeyin zinhar.
35. Bencil ve dilazar kimsenin, artık,
36.Ağzı kan yırtıcıdan ne kadar farkı var?!

37.Çalılığa ateş değse yansın büsbütün,
38. Adalet âleme yalnız anadır.
39.Dünya da, insanlar kalbi de bugün
40.Kötülükten bezmiş koruma merkezidir. (1980)

UCHINCHI ODAM (292)

1. *Insonlar bir-birin yursa ardoqlab*
2. *O‘rtada vosita asli ziyoda.*
3. *Har ikki odamni turguvchi bog‘lab*
4. *Uchinchi Odam bor lekin dunyoda.*

5. *Uchinchi Odam bu - o‘zi bir xilqat,*
6. *O‘shadir dunyoga ilk qo‘ygan qadam.*
7. *Ikkovlan o‘ljani keltirgan fursat*
8. *O‘choqqa o‘t yoqqan uchinchi Odam.*

9. *Payg‘ambar shaklida u sohib qutqu*
10.*Bandaga xudoni dalolat etgan.*
11.*Ne o‘jar shohlardan elchi bo‘lib u*
12.*Goho bosh keltirgan, goh boshi ketgan.*

13.*Muhabbat bobida u-ku bir mahram,*
14.*Uningsiz visol ham yo‘qdir aslida.*
15.*Shoirning yor uchun bitgan satrin ham*
16.*Yod olgan o‘shadir - she’rxon shaklida.*

17.*Uning bir unvoni hakamdir azal,*
18.*Shunchalar muhtaram uchinchi bu zot.*
19.*Toki bu olamda mehr notugal,*
20.*Men faqat o‘shandan qo‘rqaman, hayhot!*

21.*Axir u emasmi do‘stni g‘animu*
22.*G‘animni do‘st qilib qo‘yguvchi odam.*
23.*Magar u beshafqat boshlasa g‘ulu*
24.*Dunyoga g‘avg‘olar solgay chinakam.*

25.*Ro‘yoni rost desa, mittini kabir,*
26.*Janubni Sharq desa aylab imolar.*
27.*Kufrli dunyoda oz emas, axir,*
28.*O‘shaning izmidan yurgan siymolar.*

29.*Uchinchi bu odam tirikdir toki*
30.*Dunyoning chayqalib turmog‘i ayon.*
31.*Serg‘alva asrda bu zot hattoki*
32.*Saltanat shaklida bo‘lar namoyon.*

33.*Olamda, aslida, bordir do‘st va yov!*
34.*Orzum shul: pokiza ko‘rsam vijdonni.*
35.*Kimsaning nomidan kimsaga birov*
36.*Sotib yubormasa, deyman imonni.*

37.*Qo‘llarim ko‘ksimda, betinch, betoqat,*
38.*Ta’zimlar qilurman senga ushbu dam.*
39.*U - menmi, u - senmi, kim bo‘lma, faqat*
40.*Senga insof bersin, uchinchi odam!*

ÜÇÜNCÜ İNSAN (292)

1. İnsanlar birbirine gösterse saygı
2. Ortada vasıta aslı ziyade.
3. Her iki insanı bağlayıcı
4. Üçüncü İnsan var lakin dünyada.

5. Üçüncü İnsan bu, özü bir hilkat,
6. Odur dünyada ilk atmış adım.
7. İkisine de ganimeti getirmiş zaman
8. Ocağa ateş yakan üçüncü İnsan.

9. Peygamber şeklinde o sahip bekleyici
10.Köleye Hüda'yı delalet etmiş.
11. Ne inatçı şahlardan elçi olmuş o
12.Gâh baş getirmiş, gâh başı gitmiş.

13. Muhabbet babında o bir merhem,
14. Onsuz visal de yoktur aslında.
15.Şairin yâr için yazdığı satırın da
16.Yâd eden odur, şiir okuma şeklinde.

17. Onun bir unvanı hakemdir ezel,
18. Bu kadar muhterem üçüncü bu zat.
19. Ta bu âlemde şefkat sonsuz,
20. Ben sadece ondan korkarım, heyhat!

21. Artık o değil mi dostu düşmanı
22.Düşmanı dost edici insan.
23. Meğer o şefkatsiz başlasa hırgür
24.Dünyaya kavgalar salsın asıl.

25.Yüzüne doğru dese, büyüğü küçüğü,

26.Güneyi Doğu dese edip imalar.
27.Küfürlü dünyada az değil, artık,
28. Onun emrinden yürüyen simalar.

29.Üçüncü bu insan canlıdır ta
30.Dünyanın sallanıp durması ayan.
31.Sıkıntılı asırda bu zat hatta
32. Saltanat şeklinde olur aşikâr.

33.Âlemde, aslında, vardır dost ve düşman!
34. Arzum şu: temiz görsem vicdanı.
35. Kimsenin adından kimseye birisi
36. Satmasa, derim imanı.

37. Ellerim göğsümde, endişeli, sabırsız,
38. Tazimler ederim sana şu an.
39.O, ben mi, o, sen mi, biri olma, sadece
40. Sana insaf versin, üçüncü insan! (1980)

ILTIMOS (293)

1. *Senga balki ayon, balki noayon*
2. *Bir hayot hadisin aylayin bayon.*
3. *Mayli, suvlar kechgin, mayli, o‘tda yon,*
4. *Hargiz iltimosga kuning qolmasin.*

5. *Sargardon, yo‘llarda qolsang hamki och,*
6. *Sabru qanoatni qilgil boshga toj,*
7. *Notanti yo‘ldoshga bo‘lma hech muhtoj,*
8. *Hargiz iltimosga kuning qolmasin.*

9. *Ta’nadir dunyoda yomondan yomon,*
10.*Non berib rangingni etgaydir somon.*

11.*Aqling butun bo‘lsa, to‘rt muchang omon,*
12.*Hargaz iltimosga kuning qolmasin.*

13.*Bo‘ri emas deysan odam odamga,*
14.*Ko‘zing kattaroq och, boqqil olamga,*
15.*Birov otamga der, birov onamga,*
16.*Hargiz iltimosga kuning qolmasin.*

17.*Saxovat ahliga garchi yuz burdim,*
18.*Gohi dam hayratda lol qotib turdim,*
19.*Norning it oldida cho‘kkanin ko‘rdim,*
20.*Hargiz iltimosga kuning qolmasin.*

21.*Oh, do‘stim, demagil qaydan bu tuyg‘u,*
22.*She’rim sen uchun ham bo‘lolsin ko‘zgu.*
23.*Mening bir jaydari falsafamdir shu:*
24.*Hargiz iltimosga kuning qolmasin.*

RİCA (293)

1. Sana belki ayan, belki pinhan
2. Bir hayat sözünü etsin beyan.
3. Peki, sular geç, peki, ateş yan,
4. Asla ricaya günün kalmasın.

5. Serseri, yollarda kalsan da aç,
6. Sabrı, kanaati et başa taç,
7. Cimri yoldaşa olma hiç muhtaç,
8. Asla ricaya günün kalmasın.

9. Minnettir dünyada kötüden kötü,
10. Ekmek verip rengini eder saman.
11. Aklın bütün olsa, dört uzvun sağlam,

12. Asla ricaya günün kalmasın.

13. Kurt değil dersin insan insana,
14.Gözünü daha büyük aç, bak âleme,
15. Biri babama der, biri anama,
16. Asla ricaya günün kalmasın.

17. Sahavet ehline gerçi yüz çevirdim,
18. Bazen hayrette lal olup durdum,
19. Devenin it önünde çöktüğünü gördüm,
20. Asla ricaya günün kalmasın.

21. Ah, dostum, deme nasıl bu duygu,
22.Şiirim senin için de olabilsin ayna.
23. Benim bir sıradan felsefemdir şu:
24. Asla ricaya günün kalmasın. (1980)

TULKI FALSAFASI (294)

1. *- Ustoz, - dedi bir kun tulki tulkiga,*
2. *Nechun biz nishonmiz doim kulkiga?*

3. *O‘rmonda bo‘ri ham, hatto janob sher,*
4. *Bir-birin turtishib: - Tulkisan-a, der!*

5. *Boshqalar ustidan kulmaslar nechun,*
6. *Bu hol qorong‘udir biz yoshlar uchun.*

7. *- Uka, - dedi shunda tulkiga tulki,*
8. *Bunday hodisotning sababi shulki,*

9. *Kasbini eplolmay qolsa aksari,*
10.*Tulkilik qiladi hayvonlar bari.*

11.*Ko‘pincha ilojsiz qolgan fursatda*
12.*Tulkilik qiladi sher ham, albatta!*

13.*Lekin bizning ishni eplolmas ular,*
14.*Shu sabab o‘rmonda masxara bo‘lar.*

15.*Sen-chi, bunday holdan aslo o‘kinma,*
16.*Boshqalar singari chetga bekinma.*

17.*Tulkisan, bunday chog‘ tulkilik qilgin,*
18.*Tulki deb kulsalar, qo‘shilib kulgin...*

TİLKİ FELSEFESİ (294)

1. - Üstat, dedi bir gün tilki tilkiye,
2. Niçin biz hedefiz daima gülmeye?

3. Ormanda kurt da, hatta efendi aslan,
4. Birbirini dürtüp: - Tilkisin, der!

5. Başkaları alay etmezler niçin,
6. Bu hâl karanlıktır biz gençler için.

7. - Kardeşim, dedi böyle tilkiye tilki,
8. Böyle hadisatın sebebi şu ki,

9. Mesleğini beceremeden kalsa ekseri,
10. Tilkilik eder hayvanlar hepsi.

11.Çoğunlukla çaresiz kaldığı anda
12. Tilkilik eder aslan da, elbette!

13. Ama bizim işi beceremez onlar,
14. Bu sebepten ormanda alay olur.

15. Sen, böyle hâlden asla üzülme,
16. Başkaları gibi kenara gizlenme.

17. Tilkisin, böyle küçük tilkilik et,
18. Tilki deyip gülseler, katılıp gül… (1980)

DO‘STLARIMGA AYTGANIM (295)

1. *Dunyoda ko‘p narsa unutiladi;*
2. *Qashshoqlik, martaba, quvonch, qayg‘ular.*
3. *Unutilib borar muhabbat dardi,*
4. *Unutilar yillar, yo‘llar, tuyg‘ular.*

5. *Qirq yillik adovat unutilar sekin,*
6. *Unutilar hatto yurakdagi darz.*
7. *Yaxshilarning mehri unutilmas lekin,*
8. *Unutilmas ular oldidagi qarz.*

DOSTLARIMA SÖYLEDİĞİM (295)

1. Dünyada çok şey unutulur:
2. Yoksulluk, rütbe, sevinç, kaygılar.
3. Unutulup gider muhabbet derdi,
4. Unutulur yıllar, yıllar, duygular.

5. Kırk yıllık husumet unutulur yavaşça,
6. Unutulur hatta yürekteki kırık.
7. İyilerin şefkati unutulmaz ama,
8. Unutulmaz onlar önündeki borç. (1980)

DUNYONI QIZG‘ANMA (296)

1. *Dunyoni qizg‘anma mendan, azizim,*
2. *Men sening ko‘changdan o‘tmasman zinhor.*
3. *Mening bu olamda o‘z aytar so‘zim*
4. *Va o‘zim sig‘inar mozorlarim bor.*

5. *Dunyoni qizg‘anma mendan, azizim,*
6. *Sen ichgan buloqsan ichmasman aslo.*
7. *Sen yurgan tog‘larda qolmagay izim,*
8. *Sen kechgan daryodan kechmasman aslo.*

9. *Dunyoni qizg‘anma mendan, azizim,*
10.*Qalbingni yoqmasin shubha va so‘roq,*
11.*Men o‘zga manzilga tikkanman ko‘zim,*
12.*U sening kulbangdan juda ham yiroq.*

DÜNYAYI KISKANMA (296)

1. Dünyayı kıskanma benden, azizim,
2. Ben senin sokağından geçmem zinhar.
3. Benim bu âlemde kendi söyler sözüm
4. Ve kendimin sığındığı mezarlarım var.

5. Dünyayı kıskanma benden, azizim,
6. Senin içtiğin çeşmeden içmem asla.
7. Senin yürüdüğün dağlarda kalmasın izim,
8. Senin geçtiğin deryadan geçmem asla.

9. Dünyayı kıskanma benden, azizim,
10. Kalbini yakmasın şüphe ve soru,
11. Ben başka menzile dikmişim gözüm,
12.O senin kulübenden çok da uzak. (1980)

SHARQ HIKOYASI (297)

1. *Aniq yili esimda yo‘q,*
2. *Allaqaysi zamonda,*
3. *Bir qishloqda ota-o‘g‘il*
4. *Yashar ekan omonda.*

5. *Ular g‘oyat totuv ekan,*
6. *O‘rtada mol-joni bir.*
7. *Ming qilsa ham ota-o‘g‘il,*
8. *Ming qilsa ham qoni bir.*

9. *Bir kuni deng, shu ikkovlon*
10.*Qaygadir yo‘l olishdi.*
11.*Minay desa ot-ulov yo‘q,*
12.*O‘ylanishib qolishdi.*

13.*Qurib ketsin yo‘qchilik ham*
14.*Kim nelarga zor edi.*
15.*Ikkovining o‘rtasida*
16.*Bitta eshak bor edi.*

17.*Garchi u ham bir oz yag‘ir,*
18.*Garchi andak bedarmon.*
19.*Shu eshakni minsakmi, deb,*
20.*O‘ylab qoldi ikkovlon.*

21.*Ota dedi; - O‘g‘lim bundan*

22.*Na sen, na men tingaymiz.*
23.*O‘g‘il dedi: - Ota, buni*
24.*Galma-galdan mingaymiz.*

25.*Ota doim ota axir,*
26.*Ya’ni mudom izzatda,*
27.*Eshakka u mindi dastlab,*
28.*O‘g‘il yayov, albatta.*

29.*Bir qishloqdan o‘tardilar*
30.*Ikkov sekin tiqirlab,*
31.*Ortlaridan to‘rt-besh odam*
32.*Kulib qoldi piqirlab.*

33.- *Ahmoq ekan manavi chol,*
34.*Ahmoq haddan ziyoda.*
35.*O‘zi ulov minib olgan,*
36.*O‘g‘li esa piyoda.*

37.*G‘alati bir hisni tuyib*
38.*Shartta pastga tushdi chol.*
39.- *Kela qolgin, o‘g‘lim, - dedi, -*
40.*Eshakka sen minaqol.*

41.*Endi o‘g‘il to‘qimdayu*
42.*Ota yayov ketardi.*
43.*Endi ular boshqa qishloq*
44.*Ko‘chasidan o‘tardi.*

45.*Borardilar so‘zsiz, sekin,*
46.*Asta-asta tiqirlab.*
47.*Ortlaridan to‘rt-besh odam*

48.*Yana kuldi piqirlab.*

49.- *Ahmoq ekan manov bola,*
50.*Ahmoq haddan ziyoda.*
51.*O‘zi ulov minib olgan,*
52.*Otasi-chi, piyoda.*

53.*Yosh emasmi, birdan uning*
54.*Oriyati qo‘zg‘oldi.*
55.*Shartta pastga tushdi u ham,*
56.*U ham yayov yo‘l oldi.*

57.*Yurib-yurib ikkalasi*
58.*Necha adir, qir oshdi.*
59.- *Bore,* - *deya so‘ng eshakka*
60.*Ikkovi ham mingashdi.*

61.*Ammo tag‘in bir manzildan*
62.*O‘tar bo‘ldi ikkovlon.*
63.*Ne kulfatki, bu joyda ham*
64.*Tinch qo‘ymadi olomon.*

65.- *Ahmoq ekan bular rosa,*
66.*Insofi yo‘q lavanglar,*
67.*Ikki odam bir eshakni*
68.*Minib opti, qaranglar.*

69.*Malomatdan ota-o‘g‘il*
70.*Tamom horib toldilar.*
71.*G‘azab bilan bir*-*biriga*
72.*Termulishib qoldilar.*

73.- *Aytmabmidim, - dedi ota, -*

74.*Gap uqmading, tirrancha.*

75.*Elu yurtning o‘rtasida*

76.*Bo‘ldik rosa bo‘lgancha.*

77.*Qo‘l siltashdi bir-biriga,*

78.*Qoldi foyda-ziyon ham.*

79.*Ota u yon ketib qoldi,*

80.*Bu yon ketdi o‘g‘lon ham.*

81.*Qondoshlikning million yillik*

82.*Rishtalari uzildi.*

83.*O‘rtaga bir eshak tushib*

84.*Oralari buzildi.*

ŞARK HİKÂYESİ (297)

1. Malum yılı hatırımda yok,

2. Bazı zamanlarda,

3. Bir köyde yaşarmış baba oğul

4. Yaşarmış selamette.

5. Onlar gayet samimiymiş,

6. Ortada mal, canı bir.

7. Bin kılsa da baba oğul,

8. Bin kılsa da kanı bir.

9. Bir günü denk, bu ikisi de

10. Bir yere yol aldılar.

11. Bineyim dese at, binek yok,

12.Düşünüp kaldılar.

13.Gözü kör olsun fakirliğin de

14. Kim nelere sitemliydi.
15.İkisinin de ortasında
16. Bir tane eşek vardı.

17. Gerçi o da azıcık pis,
18. Gerçi biraz güçsüz.
19. Bu eşeğe binsek mi, diye,
20.Düşünüp kaldı ikisi de.

21. Baba dedi: - Oğlum bundan
22. Ne sen, ne ben duracağız.
23.Oğul dedi: - Baba, bunu
24.Sırayla bineceğiz.

25. Baba her an baba işte,
26. Yani daima hürmette,
27.Eşeğe o bindi ilk önce,
28.Oğul yayan elbette.

29. Bir köyden geçerlerdi,
30.İkisi yavaşça tıkırdayıp,
31. Arkalarından dört beş insan
32.Gülüp kaldı kıkırdayıp.

33.- Ahmak imiş bu ihtiyar,
34. Ahmak haddinden fazla.
35. Kendisi bineğe binmiş,
36.Oğlu ise yayan.

37. Garip bir his duyup
38. Derhâl aşağıya indi ihtiyar.
39.- Gel, oğlum, dedi,

40.Eşeğe sen bin.

41.Şimdi oğul koşumda ve
42. Baba yayan giderdi.
43.Şimdi onlar başka köy
44. Sokağından geçerdi.

45. Giderlerdi sessiz, yavaşça,
46. Yavaş yavaş tıkırdayıp.
47. Arkalarından dört, beş insan
48. Yine güldü kıkırdayıp.

49.- Ahmak imiş bu çocuk,
50. Ahmak haddinden fazla.
51. Kendisi bineğe binmiş,
52. Babası, yayan.

53. Genç değil mi, birden onun
54. Gururuna dokundu.
55. Derhâl aşağıya indi o da,
56.O da yayan yol aldı.

57.Yürüye yürüye ikisi
58. Nice kır, tepe aştı.
59.- Gidelim, diye sonra eşeğe
60.İkisi de bindiler.

61. Ama yine bir menzilden
62. Geçer oldu ikisi de.
63. Ne külfet ki, bu yerde de
64. Huzur vermedi kalabalık.

65.- Ahmak imiş bunlar tam,
66.İnsafı yok iradesizler,
67.İki adam bir eşeğe
68. Binmiş, bakınız.

69. Melametten baba oğul
70. Tamamen yorulup doldular.
71. Gazapla birbirine
72.Gözünü dikip kaldılar.

73.- Söylememiş miydim, dedi baba,
74.Söz anlamadın, haylaz.
75. Halkın yurdun ortasında
76. Olduk tam oluncaya kadar.

77. El salladılar birbirlerine,
78. Kaldı fayda, ziyan da.
79. Baba o yana gidip kaldı,
80. Bu yana gitti oğlan da.

81. Kandaşlığın milyonlarca yıllık
82. Bağları koparıldı.
83. Ortaya bir eşek düşüp
84. Araları bozuldu. (1980)

ISHONCH (298)

1. *Tabiat, ishonchdan ayirma sira,*
2. *Ayirma, o‘chmasin dildan shukuhing.*
3. *Benishon yo‘qolib ketgandan ko‘ra*
4. *Yaxshi-ku tentirab yursa gar ruhing.*

5. *Timqora osmonga oy chiqsa dilbar,*

6. *Zaminga to‘kilsa nuri sarsari.*
7. *Bulutlar ortidan boqolsang agar,*
8. *Abadiy yo‘qlikdan afzal-ku bari.*

9. *Sen yurgan bog‘larni baxtga to‘ldirib,*
10.*Sayr etsa shomlarda do‘st ila yoron.*
11.*Ularni o‘rgulsang shabboda bo‘lib,*
12.*Axir bu tolening nimasi yomon.*

13.*Bir kun farzandingning o‘ksik dilida*
14.*Uyg‘onsa g‘amlarni yenggan muhabbat.*
15.*Kapalak misoli uchib yo‘lida,*
16.*Sen uni qutlasang, axir, bu ne baxt.*

17.*G‘amgin va beiqbol yoring oh urib*
18.*Bolishga bosh qo‘yar, ko‘z yoshi taxir.*
19.*Sen uning tushiga bildirmay kirib,*
20.*Tasallo berolsang, saodat axir.*

21.*Sen-ki, xor vujudni bir kun, tabiat,*
22.*Yulqib olarkansan dilbar hayotdan,*
23.*Meni shu ishonchdan ayirma faqat,*
24.*Ayirma sen meni shul bir bisotdan.*

İNANÇ (298)

1. Tabiat, inançtan ayırma asla,
2. Ayırma, bitmesin gönülden şefkatin.
3. İzsiz yok olup gittiğine göre
4. İyi başıboş yürüse eğer ruhun.

5. Zifiri karanlık asumana ay çıksa dilber,
6. Zemine dökülse ışığı serseri.

7. Bulutlar ardından bakabilsen eğer,
8. Ebedî yokluktan efdal hepsi.

9. Senin yürüdüğün bağları bahtla doldurup,
10. Seyretse akşamlarda dost ile yâren.
11. Onları çok sevsen esinti olup
12. Artık bu talihin nesi kötü.

13. Bir gün çocuğunun yaslı gönlünde
14. Uyansa gamları yenmiş muhabbet.
15. Kelebek misali uçup yolunda,
16. Sen onu kutlasan, artık, bu ne baht.

17. Gamlı ve bahtsız yârin ah çekip
18. Yastığa baş koyar, gözyaşı buruk.
19. Sen onun düşüne bildirmeden girip,
20. Teselli verebilsen, saadet artık.

21. Sen, hor vücudunu bir gün, tabiat,
22.Çekip alırmışsın dilber hayattan,
23. Beni bu inançtan ayırma sadece,
24. Ayırma sen beni bu bir varlıktan. (1980)

SEN QAYDAN BILASAN (299)

1. *Sen qaydan bilasan,*
2. *Balki yulduzlar*
3. *Menga sirlarini*
4. *So‘ylayotgandir.*
5. *Sen qaydan bilasan,*
6. *Balki bu ko‘zlar*
7. *Unsiz bir qo‘shiqni*
8. *Kuylayotgandir.*

9. *Sen qaydan bilasan,*

10.*Balki keng olam*

11.*Shu mo‘’jaz qalbimga*

12.*Bo‘ylayotgandir.*

13.*Sen qaydan bilasan,*

14.*Balki meni ham*

15.*Kimdir qaydadir jim*

16.*O‘ylayotgandir...*

SEN NEREDEN BİLİRSİN? (299)

1. Sen nereden bilirsin,

2. Belki yıldızlar

3. Bana sırlarını

4. Söylüyordur.

5. Sen nereden bilirsin,

6. Belki bu gözler

7. Sessiz bir koşuğu

8. Söylüyordur.

9. Sen nereden bilirsin,

10. Belki geniş âlem

11. Bu küçücük kalbimi

12.Gözetliyordur.

13. Sen nereden bilirsin,

14. Belki beni de

15. Kim bir yerde sessiz

16.Düşünüyordur… (1980)

“UMR QISQA EDI…” (300)

1. *Umr qisqa edi,*

2. *Qisqartirdik yana.*

3. *Ozgina baxtni ham bo‘lib tashladik.*

4. *Kulfat oqibatda qildi tantana,*

5. *Shundagina ko‘zni yoshladik.*

6. *Jahldor tabiat endi yuz o‘girdi.*

7. *Boqmadi, chopsak ham yig‘lab ortidan.*

8. *Tirik ot o‘rniga yog‘och otni berdi,*

9. *Uyni esa berdi yerning ostidan.*

“ÖMÜR KISA İDİ…” (300)

1. Ömür kısa idi,

2. Kısalttırdık yine.

3. Azıcık bahtı da bölüp attık.

4. Külfet akıbette kıldı tantana,

5. Şuncacık gözü yaşladık.

6. Öfkeli tabiat şimdi yüz çevirdi.

7. Bakmadı, koşsak da ağlayıp ardından.

8. Canlı at yerine ağaç atı verdi,

9. Evi ise verdi yerin altından. (1980)

“DEYDILAR…” (301)

1. *Deydilar, it hurar*

2. *- O‘tadi karvon,*

3. *Ranju balolardan*

4. *Yonmasin joning,*

5. *Lekin alam qilar,*

6. *Bir umr giryon*

7. *Itlar orasidan*

8. *O‘tsa karvoning.*

“DERLER…” (301)

1. Derler, it ürür

2. Geçer kervan,

3. Acı ve belalardan

4. Yanmasın canın,

5. Ama elem kılar,

6. Bir ömür gözü yaşlı

7. İtler arasından

8. Geçse kervanın. (1980)

OLOMONGA (302)

1. *Mashrab osilganda qayoqda eding?*

2. *Cho‘lpon otilganda qayoqda eding?*

3. *Surishtirganmiding Qodiriyni yo*

4. *Qalqon bo‘lganmiding kelganda balo?*

5. *Hukmlar o‘qilur sening nomingdan,*

6. *Tarixlar to‘qilur sening nomingdan.*

7. *Nimasan? Qandayin sehrli kuchsan?*

8. *Nechun tomoshaga bunchalar o‘chsan?*

9. *Qarshingda hasratli o‘yga tolaman,*

10.*Qachon xalq bo‘lasan, ey sen, olomon?!*

KALABALIĞA (302)

1. Meşreb asıldığında nerede idin?

2. Çolpan atıldığında nerede idin?

3. Soruşturmuş muydun Kadirî’yi yahut

4. Kalkan olmuş muydun geldiğinde bela?

5. Hükümler okunur senin adından,

6. Tarihler yazılır senin adından.

7. Nesin? Nasıl sihirli güçsün?

8. Niçin eğlenceye niceler yok olsun?

9. Karşında hasretli düşünceye dalarım,
10. Ne zaman halk olursun, ey sen, kalabalık?! (1980)

DAVRA QO‘SHIG‘I (303)

1. *Bosh ko‘targan har bir jondor garchi kas emas,*
2. *Nazar solgin, poyingdagi u bir xas emas.*
3. *Laylo bo‘lsang u ham Majnun, aslo past emas,*
4. *Sen uchundir bor hayotim, shuhratim, shonim,*
5. *Qo‘llaringni bergil menga, shirinzabonim.*

6. *Do‘stlaring ham bu davrada, yayrasang, netgay.*
7. *Umrdir bu, chorlasang ham to‘xtamay o‘tgay,*
8. *Shoir senga pok muhabbat jomini tutgay,*
9. *Sen uchundir bor hayotim, shuhratim, shonim,*
10.*Qo‘llaringni bergil menga, shirinzabonim.*

11.*Muhabbatim lol qotgan ul tog‘laring aytsin*
12.*Tongda ohim takror etgan bog‘laring aytsin,*
13.*Mensiz o‘tgan har bir lahza chog‘laring aytsin*
14.*Sen uchundir bor hayotim, shuhratim, shonim,*
15.*Qo‘llaringni bergil menga, shirinzabonim.*

16.*Kelarmidim qoshingga gar bo‘lsa ixtiyor,*
17.*Jon rishtasi bog‘lanmishdir poyingga ey, yor*
18.*Shodu xurram bu davrada yayra ey, dildor.*
19.*Sen uchundir bor hayotim, shuhratim, shonim,*
20.*Qo‘llaringni bergil menga, shirinzabonim.*

MECLİS KOŞUĞU (303)

1. Başkaldırmış her bir yaratık gerçi insan değil,
2. Dikkat etsin, ayağındaki o bir hasır değil.
3. Leyla olsan o da Mecnun, asla aşağı değil,
4. Senin içindir tüm hayatım, şöhretim, şanım,
5. Ellerindekini ver bana, tatlı dillim.

6. Dostların da bu grupta, keyif alsan, ne etsin,
7. Ömürdür bu, çağırsan da durmadan geçsin,
8. Şair sana saf muhabbet kadehini tutsun,
9. Senin içindir tüm hayatım, şöhretim, şanım,
10. Ellerindekini ver bana, tatlı dillim.

11. Muhabbetimin lal olduğu o dağların söylesin,
12. Şafakta ahımın tekrar ettiği o bağların söylesin,
13. Bensiz geçen bir an zamanların söylesin.
14. Senin içindir tüm hayatım, şöhretim, şanım,
15. Ellerindekini ver bana, tatlı dillim.

16. Gelir miydim önüne eğer olsa ihtiyar,
17. Can bağı bağlanmıştır ayağına ey, yâr,
18. Mutlu mesut bu grupta keyif al ey, sevgili.
19. Senin içindir tüm hayatım, şöhretim, şanım,
20. Ellerindekini ver bana, tatlı dillim. (1980)

TANLANGAN ASARLAR (IKINCHI JILD)

O‘ZBEK PAXTASI (1)

1. *Dunyoda qutlovlar bor*
2. *Biri biridan go‘zal,*
3. *Dunyoda tabriklar bor*
4. *Biri biridan ezgu.*

5. *Va lekin bu olamda,*

6. *Topilmas hech bir mahal*

7. *Ona-yurt qutlovidan*

8. *Balandroq biror tuyg‘u.*

9. *Shu mo‘jaz hayotimni*

10. *El-yurtga bog‘labman to,*

11.*Bir ketmonchi o‘g‘liday*

12. *Unga eshman, tirikman.*

13.*Kahrabo tizimchaning*

14. *Donasi kabi go‘yo*

15.*Mustahkam shu qatorning*

16. *Taqdiriga sherikman.*

17.*Tong bilan jahon bo‘ylab*

18. *Bir xabar qoqdi qanot,*

19.*O‘zbek yana o‘z so‘zin*

20. *Ustuvor do‘ndiripti.*

21.*Betimsol taloto‘pda*

22. *Muzaffaru bosabot,*

23.*O‘zbek yana do‘ppisin*

24. *Qiyalab qo‘ndiripti.*

25.*Million yillik so‘z erur*

26. *Paxta bizning lug‘atda,*

27.*Jo‘yaklarda boshlangan*

28. *Onalar to‘lg‘oq dardi.*

29.*Mabodo o‘simlikka*

30. *Zabon bitsa, albatta,*

31.*Paxta navi eng avval*

32. *O‘zbekcha gapirardi.*

33.*Odati nurin sochar*

34. *Olamga har kun quyosh,*

35.*Bag‘rida ne sirlar bor,*

36. *Sig‘maydi tasavvurga!*

37.*Shu bir chanoq paxta ham*

38. *Zohirdan ma’sum, yuvosh*

39.*Va lekin zahmatlari*

40. *Sig‘mas ongga, shuurga.*

41.*Dunyoda insonlar bor,*

42. *Mayda bir armon sabab,*

43.*Bir-birin yoqavayron,*

44. *Tuproqqa qorishadi...*

45.*Olamning egnin butlash -*

46. *O‘zbekka shudir matlab,*

47.*Shu armon, deb cho‘ng xalqim*

48. *Bir umr olishadi.*

49.*Bizning uygan xirmonga*

50. *Chambar qilsang chechakdan,*

51.*Yulduzlar shabnam misol*

52. *Bo‘ladi unga inju.*

53.*Bolasi uyda qolgan*

54. *Mushtipar kelinchakdan*

55.*Xizrsifat cholgacha -*

56. *Barchaning mehnati bu!*

57.*Xalqim, sensan ellarga*

58. *To‘kin dasturxon tuzgan,*

59.*Ne’mating o‘zingga ham*

60. *Barqaror bo‘lsin, deyman.*

61.*Uygan bu xirmoning ham*

62. *Quyoshga qo‘lin cho‘zgan*

63.*Muhtasham haykalingga*

64. *Poydevor bo‘lsin, deyman!*

ÖZBEK PAMUĞU (1)

1. Dünyada kutlamalar var,
2. Biri birinden güzel,
3. Dünyada tebrikler var
4. Biri birinden iyi.
5. Velakin bu âlemde
6. Bulunmaz hiçbir zaman
7. Anayurt kutlamasından
8. Daha yüksek bir duygu.

9. Şu acayip hayatımı
10. El yurda bağlamışım ta,
11. Bir çapacı oğlu gibi
12. Ona eşim, diriyim.
13. Kehribar tanesi
14. Dizilen ip gibi sanki
15.Müstahkem bu zincirinin
16. Takdirine ortağım.

17. Tanla cihan boyunca
18. Bir haber kaktı kanat,
19.Özbek yine kendi sözünü
20. Sağlam söylemiş.
21. Emsalsiz kargaşada
22. Muzaffer ve sebatli,
23.Özbek yine doppisini
24. Eğik koymuştu.

25. Milyon yıllık sözdür

26. Pamuk bizim lügatte,

27. Arıklarda başlamış

28. Anaların meşakkat derdi,

29.Eğer bitkiye

30. Zeban hasıl olsa, elbette,

31. Pamuk nevi en evvel

32. Özbekçe konuşurdu.

33.Âdeti ışığını saçar

34. Âleme her gün güneş,

35. Bağrında ne sırlar var,

36. Sığmaz tasavvura!

37.Şu bir koza pamuk da

38. Zahirden masum, sessiz

39. Velakin zahmetleri

40. Sığmaz akla, şuura.

41.Dünyada insanlar var,

42. Küçücük bir ukde sebep,

43. Birbirinden yakası ayrı,

44. Toprağa karışır…

45.Âlemin omzunu doldurmak,

46. Özbek'e budur gaye,

47. Bu ukde, diye büyük halkım

48. Bir ömür mücadele eder.

49. Bizim topladığımız harmana

50. Çember yapsan çiçekten,

51.Yıldızlar şebnem misali

52. Olur ona inci.

53.Çocuğu evde kalmış

54. Maharetsiz gelinden

55.Hızır vasıflı ihtiyara dek,

56. Hepsinin şefkati bu!

57. Halkım, sensin ellere

58. Bereketli sofra kuran,

59. Nimetin kendisine de

60. Kararlı olsun, derim.

61. Topladığı bu harmanın da

62. Güneşe elini uzatan

63. Muhteşem heykeline

64. Temel olsun, derim! (1981)

UY (2)

1. *Ijroqo‘m uy bermish,*

2. *Ko‘zlaringda yosh...*

3. *Shunchalar ko‘pmida dilingda darding.*

4. *Yetar, ta’zim bilan egaverma bosh,*

5. *Yetar, yuragimni ezib yubording.*

6. *Seniki atalar shu yer, shu zamin,*

7. *Yo uni nazarga ilmaganmiding?*

8. *Senga ham taqdirning xatlab berganin*

9. *Shuncha yil o‘tibdi, bilmaganmiding.*

10.*Ijroqo‘m uy bermish,*

11.*Bag‘oyat savob,*

12.*Lekin ko‘rmay seni mute shaklida.*

13.*Haqiqatning tagin izlasang shu tob*

14.*Mutlaq senikidir uylar aslida.*

EV (2)

1. İcra kurumu ev vermiş,

2. Gözlerinde yaş…

3. Bu kadar çok mu da gönlünde derdin?

4. Yeter, tazimle eğiverme baş,

5. Yeter, yüreğimi ezdin.

6. Seninki adlanır şu yer, şu zemin,

7. Pekâlâ onu dikkate almamış mıydın?

8. Sana da kaderin listeleyip verdiğini

9. Bunca yıl geçmiş, anlamamış mıydın?

10.İcra kurumu ev vermiş,

11.Çok sevap,

12. Lakin görmeden seni itaatkâr hâlde.

13. Hakikatin özünü arasan o an

14. Mutlak senindir evler aslında. (1981)

"BAXTIYOR HAR DILGA…" (3)

1. *Baxtiyor har dilga oshno topilgay,*

2. *G'ussali yurakka lekin yo'q hamdam.*

3. *Do'stlar eshigi ham taq-taq yopilgay*

4. *G'ussali qalb u yon gar qo'ysa qadam.*

5. *Horg'in bir yo'lchingman, darvozangni och,*

6. *Boshlab keldi dema kulfat, qayg'uni.*

7. *Nogoh ko'zlarimda ko'rsang qatra yosh*

8. *Sog'inch yoshlari deb qabul et uni.*

"BAHTİYAR HER GÖNLE…" (3)

1. Bahtiyar her gönle aşina bulacak,

2. Gamlı yüreğe lakin yok hemdem.

3. Dostlar kapısı da tak tak kapanacak

4. Sıkıntılı kalp o yana eğer atsa adım.

5. Yorgun bir yolcunum, kapını aç,

6. Başladı deme külfet, kaygıyı.

7. Nâgâh gözlerimde görsen katre yaş

8. Hasret yaşları diye kabul et onu. (1981)

BOLALAR SHOIRLARIGA HAZIL (4)

1. *- Soat bo‘ldi to‘rt yarim, -*

2. *Dedi Dilbarga Karim.*

3. *Buni eshitdi G‘ulom,*

4. *Salim bilan Dilorom,*

5. *Shoira-yu, Gulnoza,*

6. *Xadicha bilan Roza.*

7. *Alisher-u Baxtiyor,*

8. *Xurshid, Vitya, Ixtiyor,*

9. *Azim, Moyli, Dadashvoy,*

10.*Shukur, Ahmad, Adashvoy,*

11.*Mavluda-yu, Ilhomjon,*

12.*G‘ayrat, Sa’di, In’omjon,*

13.*Toshpo‘lat, Yulduz, Zohir,*

14.*Zarifa, Mahkam, Omon,*

15.*Miraziz, Safar, Rahmon,*

16.*Shavkat, Yo‘ldosh, Uzoqboy,*

17.*Bolta, Tesha, Tuzoqboy,*

18.*Eshmirza, Eldor, Jur’at,*

19.*Muqimiy bilan Furqat...*

20.*- Endi soat besh yarim, -*

21.*Dedi Dilbarga Karim.*

ÇOCUK ŞAİRLERİNE ŞAKA (4)

1. - Saat oldu dört buçuk,

2. Dedi Dilber’e Kerim.

3. Bunu duydu Gulam,

4. Selim’le Dilaram,

5. Şaire ve Gülnaze,

6. Hatice’yle Roza.

7. Ali Şîr ve Bahtiyar,

8. Hurşid, Vitya, İhtiyar,

9. Azim, Mayli, Dadaşvay,
10.Şükür, Ahmet, Adaşvay,
11. Mevlüde ve İlhamcan,
12. Gayret, Sadî, İnamcan,
13. Taşpolat, Yıldız, Zahir,
14. Zarife, Mahkam, Aman,
15. Miraziz, Sefer, Rahman,
16.Şevket, Yoldaş, Uzakbay,
17. Bolta, Teşa, Tuzakbay,
18.Eşmirza, Eldar, Cüret,
19. Mukimî'yle Furkat…
20.Şimdi saat beş buçuk,
21. Dedi Dilber'e Kerim. (1981)

YOZG'UVCHILIKKA ARIZA (5)

(Bir g'alamis tilidan)

1. *Meni nazariga ilmaydi birov,*
2. *Sizga shu gaplarni aytayin tikka.*
3. *Kecha bir davrada o'ynadim garov,*
4. *Meni qabul qiling, yozg'uvchilikka.*

5. *Har xil soyuzlar bor.*
6. *Masalan, kino,*
7. *Demangiz men o'zni unga uraman.*
8. *Sabil texnikasi qiyinmish, ammo*
9. *Tomosha qilishni yaxshi ko'raman.*

10.*Rassom bo'lishlikka toqatim hech yo'q,*
11.*Chunki zaril bunda g'alat iste'dod.*
12.*Masalan, xo'tikka o'xshasin xo'tik,*
13.*Sharmanda qiladi bundaqa ijod.*

14.*Bastakorlarda ham bor emish soyuz,*
15.*Bu ham to‘g‘ri kelmas, rostini aytsam.*
16.*Vijdonim yo‘l bermas, chidamaydi yuz, -*
17.*Qo‘shiq aytmaganman umrimda hech ham.*

18.*Shoirlik-chi, tegsin xudo urganga,*
19.*Sotib olayinmi tekin kulguni.*
20.*Dab-durust jumlalar qator turganda,*
21.*Teskari aytmoqlik shartmikan uni.*

22.*Yozg‘uvchilik esa, oh, bu g‘aroyib,*
23.*Mening talantimga shu soha nuqta.*
24.*Pastu balandlarga turfa, ajoyib*
25.*Maktublar bitganman g‘oyaviy puxta.*

26.*Xullas, o‘rtoq rais, aylangiz imdod,*
27.*Men sizga haq gapni aytaman tikka.*
28.*Ko‘pirib yotibdi menda iste’dod,*
29.*Meni qabul qiling yozg‘uvchilikka.*

YAZARLIĞA DİLEKÇE (5)

(Bir düzenbazın dilinden)

1. Beni dikkate almaz biri,
2. Size bu sözleri söyleyeyim dümdüz.
3. Akşam bir mecliste oynadım bahis,
4. Beni kabul edin, yazarlığa.

5. Her tür kuruluşlar var.
6. Mesela, sinema,

7. Demeyiniz ben kendimi ona bırakırım.
8. Talihsiz tekniği giyinmiş, ama
9. Seyretmeyi severim.

10. Ressam olmaya takatim hiç yok,
11.Çünkü gerekir bunda yanlış istidat.
12. Mesela, sıpaya benzesin sıpa,
13. Rezil eder böyle sanat.

14. Bestekârlarda da varmış birlik,
15. Bu da doğru gelmez, gerçeğini söylersem.
16. Vicdanım yol vermez, dayanamaz yüz,
17. Koşuk söylememişim ömrümde hiç de.

18.Şairlik, değsin Hüda'nın verdiğine,
19. Satın alayım mı bedava gülüşü.
20. Birden cümleler sıralandığında,
21. Ters söylemek şart mıymış onu.

22. Yazarlık ise, ah, bu garip,
23. Benim yeteneğime bu saha nokta.
24.Aşağı ve yükseklere garip, acayip
25. Mektuplar yazmışım gayevi sağlam.

26.Hülasa, dost reis, eyleyiniz imdat,
27. Ben size hak sözü söylerim dümdüz.
28. Artış bende istidat,
29. Beni kabul edin yazarlığa. (1981)

ZO‘R ARMON (6)

(Bir noshudning deganlari)

1. *Hamma har narsaga erur ishqiboz,*
2. *Kimdir marka yig‘ar, kimdir it boqar.*
3. *Kimlarga qish yaxshi, kimlargadir yoz,*
4. *Menga esa faqat qarsaklar yoqar.*

5. *Osonmi, dunyoda yashadim qancha!*
6. *Qochib, pusib yurdim zamonlar o‘tib.*
7. *Mana, savlatim bor, yoshim ham ancha,*
8. *Va lekin o‘rtandim qarsakni kutib.*

9. *Ajabo, xalq buncha bo‘lmasa o‘jar,*
10.*Bunchalar xasis u oddiy qarsakka.*
11.*Nechun boshqalarni shon-shuhrat quchar,*
12.*Bu holdan fig‘onim chiqar falakka.*

13.*Ey, siz, studentlar, insof bormi hech,*
14.*Bunchalar shakkoksiz, bunchalar nodon?!*
15.*Siz qarsak chalyapsiz kimga erta-kech,*
16.*Men-chi, qolaverdim bir chetda nolon.*

17.*Garchand, ba’zi joyda topdim e’tibor,*
18.*Ko‘ksimda nelardir taratur ziyo.*
19.*Dashnom eshitdim-u umrimda ko‘p bor,*
20.*Qarsak tinglamadim nechundir aslo.*

21.*Dunyoning ishlari chindan notugal,*
22.*Siz uning xatosin bir bor tuzating,*
23.*Do‘stlar, o‘lgan chog‘im, rahm eting bir gal,*
24.*Meni qarsak chalib go‘rga uzating.*

BÜYÜK UKDE (6)

(Bir işe yaramazın dedikleri)

1. Herkes bir şeye düşkünmüş,
2. Kimi pul toplar, kimi it bakar.
3. Kimine kış iyi, kimine yaz,
4. Benimse yalnız alkışlar hoşuma gider.

5. Kolay mı, dünyada yaşadım nice!
6. Kaçıp, saklanıp yürüdüm zamanlar geçip
7. İşte, azametim var, yaşım da hayli,
8. Velakin yandım alkışı bekleyip.

9. Acaba halk bu kadar olmasa inatçı,
10. Bunca hasis o basit alkışa,
11. Niçin başkaları şan şöhret kucaklar,
12. Bu hâlden figanım çıkar feleğe.

13. Ey, siz, öğrenciler, insaf var mı hiç,
14. Bunca bî-şek, bunca nadan?!
15. Siz alkışlarsınız kimi gece gündüz,
16. Ben kalıverdim bir köşede nalan.

17. Gerçi bazı yerde buldum itibar,
18.Göğsümde neler saçar ziya.
19. Azar işittim ömrümde çok var,
20. Alkış dinlemedim neden asla.

21.Dünyanın işleri gerçekten sonsuz,
22. Siz onun hatasını bir kez düzeltin,

23. Dostlar, öldüğüm an, merhamet edin bir kez,
24. Beni alkışlayıp mezara gömün. (1981)

“MUALLAQ GAPLARNI…” (7)

1. *Muallaq gaplarni so‘ylama menga,*
2. *Endi men yer uzra topganman qo‘nim.*
3. *Inson deb falakka hayqirmoq nega,*
4. *Inson yoningda-ku, u mening qo‘shnim.*

5. *Iqbol deb behuda chekasan yohu,*
6. *Ohing bu - folbinning daraklaridir.*
7. *Asrim, asrim deysan, asring nima u!*
8. *U - to‘zg‘oq kalendar’ varaqlaridir.*

9. *Bog‘ingda bir nihol gullabdi bu kech,*
10.*Erta qiyg‘os bo‘lar olma noparmon.*
11.*Ilk bahor zahrini o‘yladingmi hech,*
12.*Zaminda ne armon, senda ne armon.*

13.*Bir vaqtlar ilhomning o‘tli tig‘ida,*
14.*Falakni ko‘zlardi mening ham sozim.*
15.*Lekin ikki daryo oralig‘ida,*
16.*Qolib ketdi mening o‘sha ovozim.*

“MUALLAK SÖZLERİ…” (7)

1. Muallak sözleri söyleme bana,
2. Şimdi ben yer üstünde yerleşmişim mukim.
3. İnsan diye feleğe haykırmak niye,
4. İnsan yanında, o benim komşum.

5. İkbal diye beyhude çekersin yahu,

6. Ahın bu, falcının malumatlarıdır.
7. Asrım, asrım dersin, asrın ne o!
8. O, toz takvim varaklarıdır.

9. Bağında bir nihâl filizlenmiş bu gece,
10. Yarın aynı olur elma şüphesiz.
11. İlkbahar zehrini düşündün mü hiç,
12. Zeminde ne ukde, sende ne ukde.

13. Bir zamanlar ilhamın ateşli silahında,
14. Feleği gözlerdi benim de sazım.
15. Lakin iki derya aralığında,
16. Kaldı benim o avazım. (1981)

"DUNYODA DIYONAT…" (8)

1. *Dunyoda diyonat hali mavjuddir,*
2. *Hali mard yigitlar yashab yuribdi.*
3. *Onalar oq suti hamon oq sutdir,*
4. *Quyosh ham falakda porlab turibdi.*
5. *Hali qay dillarda yashar tangri ham,*
6. *Hali afsonalar o'lib ketmagan.*
7. *Hali sof tuyg'ular topmagan barham,*
8. *Inson orzusiga hali yetmagan.*

"DÜNYADA VİCDAN…" (8)

1. Dünyada vicdan hâlâ mevcuttur,
2. Hâlâ mert delikanlılar yaşamaktadır.
3. Anaların ak sütü daima ak süttür,
4. Güneş de felekte parlamaktadır.
5. Hâlâ hangi gönüllerde yaşar Tanrı da,
6. Hâlâ efsaneler ölmemiş.
7. Hâlâ saf duygular yitip gitmemiş,

8. İnsan arzusuna hâlâ erişmemiş. (1981)

SHOIR UMRI (9)

1. *Daraxtni hamisha o‘raydi shamol,*

2. *Shoirni tashvishlar chulg‘ar hamisha.*

3. *Sen shoir umrini dema bezavol*

4. *Uning ham har oni tashvishga pesha.*

5. *Qara-ya, o‘tibdi qirq yil muttasil,*

6. *Yashabman yulduzlar ostida karaxt.*

7. *Oh, shoir umriga havas qilmagil,*

8. *U quyun ichida ungan bir daraxt.*

ŞAİR ÖMRÜ (9)

1. Ağacı daima çevreler rüzgâr,

2. Şairi kaygılar sarar daima.

3. Sen şair ömrüne deme zevalsiz

4. Onun da her anı kaygıyla meşgul.

5. Bak, geçmiş kırk yıl muttasıl,

6. Yaşamışım yıldızlar altında hissiz.

7. Ah, şair ömrüne heves etme,

8. O kasırga içinde büyümüş bir ağaç. (1981)

“YERDAN O‘ZGA JOYDA…” (10)

1. *Yerdan o‘zga joyda hayot yo‘q emish,*

2. *Yo‘q emish samoda biror-bir jonzot.*

3. *Olimlar shundayin qarorga kelmish,*

4. *Sira ajablanmang bu holdan, ustod.*

5. *Ular xo‘p tinchibdi, tolei kulib,*

6. *Asli yo‘q narsani axtarmoq bekor.*

7. *Men esa to hanuz umidga to‘lib*

8. *Izlayman zaminda do‘sti vafodor.*

“YERYÜZÜNDEN BAŞKA YERDE…” (10)

1. Yeryüzünden başka yerde hayat yokmuş,

2. Yokmuş semada herhangi bir canlı.

3. Âlimler böyle karara varmış,

4. Asla şaşırmayın bu hâle, üstat.

5. Onlar tamam rahatmış, talihi gülmüş,

6. Aslı olmayan şeyi aramak boş.

7. Ben ise henüz ümitle dolana dek

8. Aramam zeminde dost ve vefalı. (1981)

QAYRAG‘OCH (11)

1. *Assalom, azizim, qayrag‘och og‘a,*

2. *Balki men jiyanman, sen menga tog‘a.*

3. *Farqimiz bittadir: sening tiling yo‘q,*

4. *Yurarga oyog‘ing, ketar yo‘ling yo‘q.*

5. *Lekin baxtlidursan, soya solursan,*

6. *Bahra olganlardan duo olursan.*

7. *Tog‘ajon, mening-chi, ahvolim mushkul,*

8. *Mendan panoh topgan qarg‘aydi nuqul.*

9. *Bitta iltimos bor: o‘rin almashsak,*

10. *Men ham daraxt kabi yashasam andak.*

11.*Sen-chi, bu dunyoga Inson bo‘lib boq,*

12.*Mayli, bir kun meni o‘tin qilib yoq.*

GÜRGEN (11)

1. Es-selam, azizim, gürgen ağa,

2. Belki ben yeğenim, sen bana dayı.

3. Farkımız birdir: Senin dilin yok,

4. Yürüyen ayağın, giden yolun yok.

5. Lakin bahtlısındır, gölge olursun,

6. Faydalananlardan dua alırsın.

7. Dayıcığım, benim ahvalim müşkül,

8. Benden himaye bulan lanet eder hep.

9. Bir rica var: Yer değişsek,

10. Ben de ağaç gibi yaşasam öyle.

11. Sen, bu dünyada İnsan ol,

12. Kabul, bir gün beni odun yapıp yak. (1981)

QIRQ YOSH (12)

1. *Qirq yosh ham keldiyu qo‘limdan tutdi,*

2. *Borman na ertakda, na afsonada.*

3. *Qirq yilning naq yarmi yo‘llarda o‘tdi,*

4. *Yarmi esa o‘tdi bemorxonada.*

5. *Shu mo‘’jaz uyimda yonsin deb chiroq,*

6. *Ne aziz zotlarga yondoshdim gohi.*

7. *Birin aka dedim, birini o‘rtoq,*

8. *Ba’zan nom chiqardim: davron maddohi!*

9. *Kim alam chekmabdi umrida bir bor -*

10. *U meni anglamas, anglamas aslo!*

11. *Kim haqqa tashnadir, kim mehrga zor,*

12. *Men unga umrimni etgumdir fido.*

13. *Ming bora roziman ona yurtimdan,*

14. *Ko‘rdi u erkalik chog‘larimni ham.*

15. *Kimdir tosh otsa ham goho ortimdan,*

16. *Qoshimda bosh egdi kelib so‘nggi dam.*

17. *Qirq yillik umrimning eng avj pallasi*

18. *Kelajak kunlarga munglig‘ qarayman.*

19. *Ukajon, navbating yetdi chamasi,*

20. *Endi men saflarga qanday yarayman?!*

21. *Bir vaqtlar jo‘r bo‘lib o‘tli yoshlikka*

22. *Yurardim hech so‘nmas tilagim bilan.*

23. *Bugun-chi, dardlashib turibman yakka*

24. *Shu majruh, shu xasta yuragim bilan.*

25. *Afrosiyob kabi vayrondir dilim,*

26. *Cho‘ng larza yuz berdi unda nogahon.*

27. *Oh, faqat ko‘milib ketmasin yo‘lim,*

28. *Faqat o‘tib tursin ko‘chamdan zamon!*

KIRK YAŞ (12)

1. Kırk yaş da geldi ve elimden tuttu,

2. Varım ne masalda, ne efsanede.

3. Kırk yılın tam yarısı yollarda geçti,

4. Yarısı ise geçti hastanede.

5. Şu küçücük evimde yansın diye lamba,

6. Pek aziz kimselere yaklaştım bazen.

7. Birine abi dedim, birine ahbap,

8. Bazen nam saldım: devran meddahı!

9. Kim elem çekmemiş ömründe bir kez,

10. O beni anlamaz, anlamaz asla!

11. Kim hakka aşinadır, kim şefkate muhtaç,

12. Ben ona ömrümü edeceğimdir feda.
13. Bin vara razıyım ana yurdumdan,
14.Gördü o şımarıklık çağlarımı da.
15. Kim taş atsa da bazen ardımdan,
16.Önümde baş eğdi gelip son an.
17.Kırk yıllık ömrümün en zirve devresi
18. Gelecek günlere sıkıntılı bakarım.
19. Kardeşçiğim, sıran geldi sanki,
20.Şimdi ben saflara nasıl yararım?!
21. Bir zamanlar uyup ateşli gençliğe
22.Yürürdüm hiç bitmez dileğimle.
23. Bugün, dertleşip durmuşum tek
24. Shu yaralı, şu hasta yüreğimle.
25. Efrasiyab gibi haraptır gönlüm,
26.Büyük titreme oldu onda nagehan.
27. Ah, yalnız gömülüp gitmesin yolum,
28. Yalnız geçsin sokağımdan zaman! (Moskova, 1981)

XAYRLASHUV (13)

1. *Xayr, ey, bearmon kezgan qirlarim,*
2. *Xayr, ey, yiroqqa qochgan so‘qmoqlar.*
3. *Xayr, ey, maskanim - tuqqan yerlarim,*
4. *Xayr, ey, sahrolar, xayr, ey, tog‘lar.*
5. *Endi sizni qayta qucha bilmasman.*
6. *Inja diydoringiz endi o‘zgadir.*
7. *Shamollar, siz bilan ucha bilmasman,*
8. *Chechaklar, endi siz menga beqadr.*
9. *Oshno kengliklarga tashlab jim nazar,*
10.*Tirqirab keladi ko‘zlarimga yosh.*
11.*Shamollar holimdan olganday xabar,*
12.*Bir lahza teppamda tinganday quyosh,*
13.*Ulardan nogahon tinglayman xitob:*
14.*- Shoirim, sen qayga qaytmoq bo‘libsan?*
15.*Kim seni badarg‘a qilmish, ber javob,*
16.*Sen nechun alvido aytmoq bo‘libsan?*

17.*Oltin bolaliging o‘tgan tuproqda*
18.*Nahot topilmasa senga bir madad?*
19.*Nahot onang ruhi qolmish yiroqda,*
20.*Nahot bobolaring qo‘llamas minba’d?*
21.*Go‘zal bu dunyoga kelib ketmoqlik*
22.*Nahotki shuncha jo‘n, shunchalar oson?!*
23.*Yulduzlar shivirlar, dillari dog‘lik:*
24.*- Yo o‘zga sir bormi? Aytgil, qadrdon!*
25.*Yo‘q, deyman va lekin sim-sim yig‘layman,*
26.*Qirq ko‘zgu keladi qarshimga bot-bot,*
27.*Dilbar kunlarimni bir-bir ilg‘ayman,*
28.*Misli oinaga boqqanday Farhod.*
29.*Endi qaytib kelmas u damlar sira,*
30.*Shul sabab dilda g‘am, ko‘zlarimda yosh,*
31.*Qoldi qaylardadir yoshlik - bokira*
32.*Quduq tublariga cho‘kkanday quyosh.*
33.*Men ko‘rar endigi bu go‘zal olam,*
34.*Sirli u damlarning mavhum soyasi.*
35.*Shul sabab qalbimni o‘rtaydi alam,*
36.*Shul sabab g‘amimning yo‘q nihoyasi.*
37.*Hayajon bu - o‘lim, kulfatdir - qo‘shiq,*
38.*Qilt etgan shamoldan titramas yurak.*
39.*Unga endi na dard, na quvonch, na ishq,*
40.*Balkim to‘ng‘ib qolgan bir orom kerak.*
41.*Bir hovuch kul emish otash qismati,*
42.*Men ham yona-yona tindim nogahon.*
43.*Endi tillarimda vido hasrati,*
44.*Endi ko‘zlarimga tiyradir jahon.*
45.*Olam tin oladi, tinurman men ham,*
46.*Endi u sirlarin so‘ylamas ortiq.*
47.*Faqat derazamda bir qushcha beg‘am*
48.*Menga qo‘shiqlarin etadi tortiq.*
49.*Hayot deb atalgan xush tilak bilan*
50.*Kechalar behudud o‘yga tolurman.*
51.*Tosh qotgan, nogiron shu yurak bilan*
52.*Mo‘ysafid quyoshni qarshi olurman.*

VEDA (13)

1. Elveda, ey, ukdesiz gezmiş kırlarım,
2. Elveda, ey, uzağa kaçmış yollar.
3. Elveda, ey, meskenim, verimli topraklarım,
4. Elveda, ey, sahralar, elveda, ey, dağlar.
5. Şimdi sizi yine kucaklayamam.
6. Nazik didarınız şimdi farklıdır.
7. Rüzgârlar, sizinle uçamam,
8. Çiçekler, şimdi siz bana kıymetsiz.
9. Aşina düzlüklere atıp sessiz bakış,
10. Dolup akar gözlerimden yaş.
11.Rüzgârlar hâlimden almış gibi haber,
12. Bir lahza tepemde durmuş gibi güneş,
13. Onlardan nagehan dinlerim hitabe:
14.- Şairim, sen nereye dönmüşsün?
15. Kim seni sürmüş, ver cevap,
16. Sen niçin elveda demişsin?
17. Altın çocukluğunun geçtiği toprakta,
18. Bulunmasa mı sana bir medet?
19. Ananın ruhu kalmış mı uzakta,
20. Dedelerin kollamaz mı asla?
21.Güzel bu dünyaya gelip gitmek
22. Bu kadar basit mi, bu kadar kolay mı?
23.Yıldızlar fısıldar, gönülleri dertli:
24.- Yahut başka sır var mı? Söyle, sevgili!
25. Yok, demem velakin boncuk boncuk ağlarım,
26.Kırk ayna gelir karşıma çabuk çabuk,
27. Dilber günlerimi bir bir hissederim,
28. Sanki aynaya bakmış gibi Ferhat.
29.Şimdi dönüp gelmez o anlar asla,
30.Şu sebep gönülde gam, gözlerimde yaş,
31. Kaldı bir yerlerde gençlik, saf
32. Kuyu diplerine düşmüş gibi güneş.
33. Ben görürüm şimdiki bu güzel âlem,

34.Sırlı o demlerin mücerret sâyesi.
35.Şu sebepten kalbimi yaktı elem,
36.Şu sebepten gamımın yok nihayesi.
37. Heyecan bu, ölüm; külfettir, koşuk,
38.Kımıldayan rüzgârdan titremez yürek.
39. Ona şimdi ne dert, ne sevinç, ne aşk,
40. Belki donup kalmış bir huzur gerekir.
41. Bir avuç külmüş ateşin kısmeti,
42. Ben de yana yana söndüm nagehan.
43.Şimdi dillerimde veda hasreti,
44.Şimdi gözlerimde karadır cihan.
45.Âlem nefes alır, dinerim ben de,
46.Şimdi o sırlarını söylemez artık.
47. Yalnız penceremde bir kuşcağız gamsız
48. Bana koşukların eder hediye.
49. Hayat diye söylenen hoş dilekle
50. Geceler sonsuz düşünceye dalarım.
51. Taş gibi katılaşmış, aciz şu yürekle
52.İhtiyar güneşi karşılarım. (Moskova, 1981)

MENI OLIB KETING (14)

1. *Tinch edi hamma yoq, tinch edi har yon,*
2. *Titradi go‘yoki yer bilan osmon.*
3. *Boshimga xastalik tushdi nogahon,*
4. *Meni olib keting o‘z diyorimga.*
5. *Issiq jon, deydilar, jon bo‘lsa bo‘lar,*
6. *Payt kelsa chechak ham sarg‘ayar, so‘lar.*
7. *Kim bilgay paymonang qay yerda to‘lar,*
8. *Meni olib keting o‘z diyorimga.*
9. *Ginam bor bu yurtning na havosidan,*
10.*Mehribon doktorning na davosidan.*
11.*Qaytarmang xastani muddaosidan,*
12.*Meni olib keting o‘z diyorimga.*
13.*Sha’nimga g‘ayurlar bir so‘z demasin,*
14.*Har kim o‘zi tortar umr kemasin.*

15.*Hech kimni mushtoqlik dardi yemasin,*

16.*Meni olib keting o‘z diyorimga.*

17.*Talpingan diyorim, u - O‘zbekiston!*

18.*Sehrini aytishga bormi hech imkon!*

19.*Yo‘q, o‘zga yurtlarda berolmasman jon,*

20.*Meni olib keting o‘z diyorimga.*

BENİ ALIP GÖTÜRÜN (14)

1. Sessizdi her taraf, sessizdi her yan,

2. Titredi sanki yerle asuman.

3. Başıma hastalık düştü nagehan,

4. Beni alıp götürün öz diyarıma.

5. Sıcak gönül, derler, gönül olursa olur,

6. Vakti gelirse çiçek de sararır, solar.

7. Kim bilecek kadehin nerede dolar,

8. Beni alıp götürün öz diyarıma.

9. Şikâyetim var bu yurdun ne havasına,

10.Şefkatli doktorun ne devasına.

11. Geri çevirmeyin hastanın arzusunu,

12. Beni alıp götürün öz diyarıma.

13.Şanıma fesatlar bir söz demesin,

14. Herkes kendisi çeker ömür gemisini.

15. Hiç kimseyi müştaklık derdi yemesin,

16. Beni alıp götürün öz diyarıma.

17. Uzanmış diyarım, o Özbekistan!

18. Sihrini söylemeye var mı hiç imkân!

19. Yok, başka yurtlara verememem can,

20. Beni alıp götürün öz diyarıma. (Moskova, 1981)

RANGLAR (15)

Irinaga

1. *Qachondir Shimolning oppoq qoridan,*

2. *Seni yaratgandi zukko tabiat.*

3. *Ko‘zingga rang berdi osmon qa’ridan,*

4. *Shul sabab moviydir bu ko‘zlar behad.*

5. *Sunbul sochlaringni yaratgan chog‘da*

6. *Za’faron shafaqqa bo‘yab oldi u.*

7. *Boqib lablaringga, o‘zi ham dog‘da,*

8. *Qontalash bir rangni bera qoldi u.*

9. *Rosa pardoz qildi tabiat to‘lib,*

10. *To oydin ranglari tortguncha xira.*

11. *Barcha rang ustidan qo‘riqchi qilib*

12. *Qora Otelloni yaratdi so‘ngra.*

RENKLER (15)

İrina’ya

1. Ne zaman Kuzey’in tertemiz karından,

2. Seni yaratmıştı akıllı tabiat.

3. Gözüne renk verdi asuman ka’rından,

4. Şu sebepten mavidir bu gözler engin.

5. Sümbül saçlarını yarattığı anda

6. Safran şafağa boyadı o.

7. Bakıp dudaklarına, kendisi de kederde,

8. Morumsu bir rengi verdi o,

9. Hayli süsledi tabiat dolup,

10. Ta aydınlık renkleri çekince mat.

11. Tüm rengin üstüne koruma yapıp

12. Kara Otello’yu yarattı sonra. (Moskova, 1981)

“REJAMI…” (16)

1. *Rejami? Oldindan gapirish qiyin,*

2. *Hayot ham, ijod ham nozikdir qildek.*

3. *Ta’na toshlarini otmay turasiz,*

4. *Hakim bilan bir oz hamkorlik qildik.*

“PLAN MI…” (16)

1. Plan mı? Önceden konuşmak güç,
2. Hayat da, sanat da naziktir kıl gibi.
3. Sitem taşlarını atmadan durursunuz,
4. Filozofla biraz iş birliği yaptık. (1981)

TALPINAMIZ MANZILLAR SARI (17)

1. *Olis dengizdanmi yo yiroq tog‘dan,*
2. *Bulutlar keldilar bilmam qay yoqdan,*
3. *U bahor, yoz bo‘yi so‘l ila sog‘dan,*
4. *Paxtakor xalqimga daf qila qoldi.*

5. *Ha, yashar tabiat gulduros solib,*
6. *Daryoga suv sochar tashna yer qolib,*
7. *Garchi paxtakor el hamisha g‘olib,*
8. *Lekin ushbu safar tinchi yo‘qoldi.*

9. *- Oyning u yarmida yomg‘ir, qor yog‘ar, -*
10.*Qimtinib Toyloqov beradi xabar,*
11.*Muxbir-chi, uqdirar: - bizniki zafar,*
12.*Dovda Bobodehqon haqqini oldi!..*

13.*Paxta deb, ha, qachon tortmadik tashvish,*
14.*O‘sha-o‘sha yoz bu, o‘sha-o‘sha qish,*
15.*Bobolardan meros - bitmagan bu ish,*
16.*O‘zbekning qay mahal bilagi toldi.*

17.*Yana zahmat chekar elda yosh-qari,*
18.*Yana talpinamiz manzillar sari,*
19.*Donolar dunyoni demish ko‘pkari,*
20.*Boqing, O‘zbekiston dadil ot soldi!*

UZANIRIZ MENZİLLERE DOĞRU (17)

1. Uzak denizden mi yahut uzak dağdan,
2. Bulutlar geldi bilmem hangi taraftan,
3. O bahar, yaz boyu sol ile sağdan,
4. Pamukçu halkımı defetti.

5. Evet, yaşar tabiat gürültü salıp,
6. Deryaya su saçar susuz yer kalıp,
7. Gerçi pamukçu halk daima galip,
8. Lakin bu sefer huzuru kayboldu.

9. - Ayın o yarısında yağmur, kar yağar,
10.Kımıldayıp Toylokov verir haber,
11. Muhabir, anlatır: - Bizimki zafer,
12. Davada Dedeçiftçi hakkını aldı!..

13. Pamuk diye, evet, nice çekmedik kaygı,
14.O günden beri yaz bu, o günden beri kış,
15. Dedelerden miras, bitmeyen bu iş,
16.Özbek'in ne zaman bileği doldu.

17. Yine zahmet çeker halkta genç yaşlı,
18. Yine uzanırız menzillere doğru,
19. Bilgeler dünyaya demiş ulak[130],
20. Bakın, Özbekistan hemen cesur at saldı! (1981)

BIZNING SHE'R (18)

1. *Bizni pisand qilganlarga ming bora qulluq...*
2. *Paxtakorlar va ishchilar pisand qildilar.*

[130] Ulak oyunu.

3. *Ziyolilar, yumushchilar pisand qildilar,*

4. *Studentlar, to‘quvchilar pisand qildilar,*

5. *Maktabdagi o‘quvchilar pisand qildilar,*

6. *Bizni pisand qilganlarga ming bora qulluq.*

7. *Lekin bizni ancha zotlar pisand qilmadi,*

8. *Yayov edik, saman otlar pisand qilmadi,*

9. *Shoh surgandik, biroq motlar pisand qilmadi.*

10. *Taajjubmas, she’rga yotlar pisand qilmadi,*

11. *Bizni pisand qilganlarga ming bora qulluq.*

12. *Shoirni hech taniganmi hissiz dimog‘dor,*

13. *Muqimiyning avlodimiz kamtar va nochor.*

14. *Lekin shoir so‘zi bilan hamisha poydor,*

15. *Aminxo‘ja bu borada guvohdir zinhor,*

16. *Bizni pisand qilganlarga ming bora qulluq.*

17. *Shoir zoti yuragiga bo‘libdir mahkum,*

18. *Ijro bo‘lmas, u bo‘lsa-chi, o‘qiydi hukm.*

19. *Asrlardan qolib kelgan oqibat shulkim,*

20. *Quloq solmas unga ba’zan oshno ijroqo‘m,*

21. *Bizni pisand qilganlarga ming bora qulluq.*

22. *Men kichkina uvoqdirman, dunyo tomidan*

23. *So‘zlagayman o‘tgan-ketgan shoir nomidan.*

24. *Har kim ichgay sho‘r qismatning achchiq jomidan*

25. *Lekin degum bu davronning xush ayyomidan,*

26. *Bizni pisand qilganlarga ming bora qulluq.*

BİZİM ŞİİR (18)

1. Bize değer verenlere bin kez teşekkür…

2. Pamukçular ve işçiler değer verdiler.

3. Aydınlar, emekçiler değer verdiler,
4. Öğrenciler, dokumacılar değer verdiler,
5. Mektepteki öğretmenler değer verdiler,
6. Bize değer verenlere bin kez teşekkür…

7. Lakin bize pek çok zat değer vermedi,
8. Yayaydık, boz renkli atlar değer vermedi,
9. Şah sürmüştük, fakat matlar değer vermedi.
10. Taaccüp değil, şiire yabancılar değer vermedi,
11. Bize değer verenlere bin kez teşekkür…

12.Şairi hiç tanıyan mı hissiz kibirli,
13. Mukimî'nin evladıyız mütevazı ve naçar.
14. Lakin şair sözüyle daima payidar,
15. Eminhoca bu kez de şahittir zinhar,
16. Bize değer verenlere bin kez teşekkür…

17.Şair zatı yüreğine olmuştur mahkûm,
18.İcra olmaz, o olsa, okur hüküm.
19. Asırlardan kalmış akıbet şu ki,
20. Kulak vermez ona bazen aşina sanatçı,
21. Bize değer verenlere bin kez teşekkür…

22. Ben küçücük zerreyim, dünya damlasına,
23. Konuşacağım geçmiş gitmiş şair namına.
24. Herkes içecek bahtsızlık kısmetinin acı kadehinden
25. Lakin diyeceğim bu devranın hoş eyyamından,
26. Bize değer verenlere bin kez teşekkür… (1982)

HAYRONLIK (19)

1. *Chindan g'alat erur dunyo ishlari,*
2. *Miyang g'ovlab ketar o'ylagan sari,*

3. *Diyonat, xiyonat aralash bari,*

4. *Boqib bu savdoga, hayron o‘tdik biz.*

5. *Ko‘rdik inson fe’lin o‘ru qirini,*

6. *Baham ko‘risharlar avval sirini.*

7. *So‘ngra nimta qilar biri birini,*

8. *Boqib bu savdoga, hayron o‘tdik biz.*

9. *Goho sendan aziz ostingda oting,*

10. *Goh bir g‘alamisga bog‘liq hayoting,*

11. *Yaxshiyam qatorda bordir bayoting,*

12. *Boqib bu savdoga, hayron o‘tdik biz.*

13. *Sen deysan, dilim pok, rashkdan yiroqman,*

14. *Sen unding‘, men esa hanuz tuproqman.*

15. *Yo‘q, do‘stim, men sendan bechoraroqman,*

16. *Boqib bu savdoga, hayron o‘tdik biz.*

17. *Ne qilay, yomonga o‘qiymi la’nat,*

18. *Yo shodon qo‘shiqlar aytaymi faqat.*

19. *Birovda mehr mo‘l, birovda nafrat,*

20. *Boqib bu savdoga, hayron o‘tdik biz.*

21. *Har qalay baxtlimiz - tirikmiz magar,*

22. *Qolgan gaplar esa o‘tarda ketar.*

23. *Bamisli karnayga ishqi tushgan kar,*

24. *Boqib bu savdoga, hayron o‘tdik biz.*

ŞAŞKINLIK (19)

1. Gerçekten yanlıştır dünya işleri,

2. Beynin uzayıp gider düşünmeye doğru,

3. Vicdan, ihanet karışmış hepsi,

4. Bakıp bu sıkıntıya, şaşkın geçtik biz.

5. Gördük insan mizacını, inatçı ve katranını,
6. Paylaşırlar evvel sırrını.
7. Sonra öldürür birbirini,
8. Bakıp bu sıkıntıya, şaşkın geçtik biz.

9. Gâh senden aziz altında atın,
10.Gâh bir düzenbaza bağlı hayatın,
11.İyi ki pek çok vardır haykırışın,
12. Bakıp bu sıkıntıya, şaşkın geçtik biz.

13. Sen dersin, gönlüm pak, hasetlikten uzağım,
14. Sen undun, ben ise henüz toprağım.
15. Yok, dostum, ben senden daha biçareyim,
16. Bakıp bu sıkıntıya, şaşkın geçtik biz.

17. Ne yapayım, kötüye okuyayım mı lanet,
18. Yahut şâdân koşuklar söyleyeyim mi yalnız.
19. Birinde şefkat çok, birinde nefret,
20. Bakıp bu sıkıntıya, şaşkın geçtik biz.

21. Ne de olsa bahtlıyız, canlıyız meğer,
22. Kalan sözler ise geçer de gider.
23. Sanki karnaya aşık olan sağır,
24. Bakıp bu sıkıntıya, şaşkın geçtik biz. (1982)

"SENGA BU DUNYONING GULI…" (20)

1. *Senga bu dunyoning guli, ne'mati,*
2. *Senga, ey qay bir dam yaralgan san'at.*
3. *Senga oshufta bu dilning rag'bati,*
4. *Senga ohista bu arzi muhabbat.*

5. *Yillar o‘tib ketmish, qayoqda eding,*

6. *Qaysi gulshanlarda yasharding, armon.*

7. *Xazonli bu boqqa nechun ham kirding,*

8. *Nechun xasta dilga solding g‘alayon.*

9. *Sobit esam-da, gar topolmasman ep,*

10.*Qarshimda osmonni past qila qolding.*

11.*Sen o‘tgan dunyoga qaydan yo‘l topib,*

12.*Kechmish bir insonga qasd qila qolding.*

“SANA BU DÜNYANIN GÜLÜ…” (20)

1. Sana bu dünyanın gülü, nimeti,

2. Sana, ey hangi bir dem yaratılmış sanat.

3. Sana âşık bu gönlün rağbeti,

4. Sana aheste bu arz-ı muhabbet.

5. Yıllar geçip gitmiş, neredeydin,

6. Hangi gülşenlerde yaşardın, ukde?

7. Hazanlı bu bağa niçin de girdin,

8. Niçin hasta gönle saldın galeyan.

9. Sabit isem, eğer bulamam hüner,

10. Karşımda asumanı alt etmeye kaldın.

11. Sen geçen dünyaya bir yerden yol bulup,

12. Geçmiş bir insana kast etmeye kaldın. (1982)

O‘ZBEGIM TOJIK BILAN (21)

1. *Do‘stu qardoshdir azaldan*

2. *O‘zbegim tojik bilan,*

3. *Ikkisi bir bayt g‘azaldan*

4. *O‘zbegim tojik bilan.*

5. *Qay yo‘sin aylay qiyos men*

6. *Bul shirin do‘stlik so‘zin,*

7. *Totlidir boldan, asaldan,*

8. *O‘zbegim tojik bilan.*

9. *Baxtga yor doim Navoiy toki*

10. *Jomiy bor ekan,*

11.*Biz ular qo‘ygan tamaldan,*

12. *O‘zbegim tojik bilan.*

13.*Fahm etib boqsang agarda,*

14. *Biz qo‘sha sayyoramiz,*

15.*Bu Ali so‘zlar Zuhaldan,*

16. *O‘zbegim tojik bilan.*

17.*Bir egatning boshi senu*

18. *Bir egatning boshi men*

19.*Yer ekib tinmas hamaldan,*

20. *O‘zbegim tojik bilan.*

21.*Bul qadrdon ikki do‘stga*

22. *Xohishimdir, to abad*

23.*Topsa bir ma’no masaldan,*

24. *O‘zbegim tojik bilan.*

ÖZBEĞİM TACİK’LE (21)

1. Dost ve kardeştir ezelden

2. Özbek’im Tacik’le.

3. İkisi bir beyit gazelden

4. Özbek’im Tacik’le.

5. Hangi hâli edeyim kıyas ben

6. Bu şirin dostluk sözü,

7. Tatlıdır baldan, şekerden,

8. Özbek’im Tacik’le.

9. Bahta yâr daim Nevâî ta ki

10. Câmî varmış,

11. Biz onların attığı temelden,

12. Özbek’im Tacik’le.

13. Fehmedip bakarsan eğer,

14. Biz bir çift seyyareyiz,

15. Bu Ali konuşur Zühal'den,

16. Özbek'im Tacik'le.

17. Bir arığın başı sen ve

18. Bir arığın başı ben

19. Toprak ekip durmaz hamelde[131],

20. Özbek'im Tacik'le.

21. Bu kıymetli iki dosta

22. Arzumdur, sonsuza dek

23. Bulsa bir mana atasözünden,

24. Özbek'im Tacik'le. (1982)

SAVOB (22)

1. *Avji saratonda hansirab, yonib,*

2. *Qovrilib olovli yo'llar taftida,*

3. *Muzdayin buloqsan suv ichgach qonib,*

4. *Hordiq olganmisan chinor tagida?*

5. *Ruhingda safoyu taningda mador,*

6. *Umidbaxsh qo'shiqlar kuylaganmisan?*

7. *O'sha payt, o'sha on hech qursa bir bor*

8. *Chinorni kim ekkan - o'ylaganmisan?*

9. *Ro'baro' kelding sen toshqin daryoga,*

10.*Qolding sohil uzra chorasiz, giryon,*

11.*Lekin yo'liqqanday ajib ro'yoga,*

12.*Qarshingda bir ko'prik bo'ldi namoyon.*

13.*Bamisli uzala tushgan xor vujud,*

14.*Ko'targay u turfa insonlar korin.*

15.*O'tding sen daryodan salomat va but,*

[131] 22 mart ve 21 nisan arasındaki günleri kapsayan zaman için kullanılan Arapça bir kelimedir. Burcu'l-hamel (koç burcu) olarak adlandırılır.

16.*Lekin o‘yladingmi ko‘prik me’morin?*

17.*O‘rmonlar bag‘rida sayr etgan sayyoh,*
18.*Changalzor qo‘ynida sargardon ovchi,*
19.*Mo‘’jaz boshpanani ko‘rdingmi nogoh,*
20.*Uni qoldirmishdir qay bir yo‘lovchi.*

21.*Qoldirmish u senga qaro kun uchun,*
22.*Bir chimdim tuz bilan bir juft chaqmoq tosh.*
23.*O‘ylab ko‘rganmisan, bu himmat nechun,*
24.*O‘ylab ko‘rganmisan, kimdir u g‘amdosh?*

25.*Ha, inson umrining kechmishi ajab,*
26.*Goh to‘ng‘ar, goho u yashnar qulf urib...*
27.*O, balki qaysi bir fidoyi sabab,*
28.*Yuribsan sen hayot nash’asin surib.*

29.*Ayt, axir o‘zing ham to borsan sobit,*
30.*Kimsaga nasiba uzatganmisan?*
31.*Ko‘changdan lapanglab o‘tganda tobut,*
32.*Sen uni to‘rt qadam kuzatganmisan?*

33.*Chorasiz bir inson uchragan damda,*
34.*Unsiz so‘rog‘iga qildingmi javob?*
35.*Ayt-chi, bilarmisan, yorug‘ olamda*
36.*Bularning barchasi atalgay savob.*

37.*Yo‘q, yo‘q, o‘zga erur bid’at va karam,*
38.*Himmatu saxovat tiriklarga xos.*
39.*Bobolar beta’ma qurgan dunyo ham*
40.*Asli savob uchun qolgan bir meros.*

41.*Kimdir tuzar uni, kimdir buzadi,*
42.*Kimdir borini ham qiladi barbod.*
43.*Kimdir ta’ma bilan dunyo kezadi,*
44.*Kimdir o‘ksuk dilni etadi obod.*

45.*Savob deb ingraydi dunyomiz behol,*
46.*Zordir u najotbaxsh hislar sehriga.*
47.*Janglarda toliqqan majruh zot misol,*
48.*Suyanib yashar u inson mehriga.*

49.*To hayot ekanmiz savobga zormiz,*
50.*Yilt etgan shu’ladan dillar fayziyob.*
51.*Goh g‘amgin, goh esa umidga yormiz,*
52.*Yo‘qolmasa deymiz dunyodan savob.*

53.*Axir uning bilan gullagay ochun,*
54.*Axir uning bilan umrlar shoyon.*
55.*Faqat savob borki, jahon bus-butun,*
56.*Faqat savob borki, azizdir Inson!*

SEVAP (22)

1. Tam kuru yazda nefesi kesilip, yanıp,
2. Kavrulup alevli yolların hararetinde,
3. Buz gibi bulaktan su içince kanıp,
4. Dinlenmiş misin çınar dibinde?

5. Ruhunda sefa ve bedeninde kuvvet,
6. Ümit bahşeden koşuklar söylemiş misin?
7. O zaman, o an hiç değilse yapsa bir kez
8. Çınarı kim ekmiş, düşünmüş müsün?

9. Karşı geldin sen taşkın deryaya,

10. Kaldın sahil üstünde çaresiz, giryân,
11. Lakin rastlamış gibi acayip rüyaya,
12. Karşında bir köprü oldu nümâyân,

13. Sanki boylu boyunca yatıp hor vücut,
14.Yükseltecek o garip insanların kârını.
15. Geçtin sen deryadan selamet ve tam,
16. Lakin düşündün mü köprü mimarını?

17. Ormanların bağrında seyretmiş seyyah,
18. Ormanın koynunda sergerdân avcı,
19.Küçücük barınağı gördün mü ansızın,
20. Onu kaldırmıştır hangi bir yolcu?

21. Kaldırmıştır o sana kara gün için,
22. Bir çimdik tuzla bir çift çakmak taş.
23.Düşünüp görmüş müsün, bu himmet niçin,
24.Düşünüp görmüş müsün, kimdir o hemdert?

25. Evet, insan ömrünün geçmişi garip,
26.Gâh donar, gâh o büyür gelişip…
27. Aaa, belki hangi bir fedai sebebiyle,
28.Yürümüşsün sen hayat neşesini sürüp.

29.Söyle, artık kendin bile ta zenginsin sabit,
30. Kimseye pay uzatmış mısın?
31. Sokağından sallanıp geçtiğinde tabut,
32. Sen onu dört adım götürmüş müsün?

33.Çaresiz bir insan rastladığı anda,
34. Sessizce soruya verdin mi cevap?
35.Söyle, bilir misin, aydınlık âlemde

36. Bunların tümüne denilecek sevap?

37. Yok, yok, başkadır bidat ve kerem,
38. Himmet ve sahavet canlılara has.
39. Dedelerin tamahsız kurduğu dünya bile
40. Asıl sevap için kalmış bir miras.

41. Kimi düzer onu, kimi bozar,
42. Kimi varını da eder berbat.
43. Kimi tamahla dünya gezer,
44. Kimi hazin gönlünü eder abat.

45. Sevap diye sızlanır dünyamız hâlsiz,
46. Muhtaçtır o necat bahşeden hislerin sihrine.
47. Savaşlarda yorulan gazi zat misali,
48. Dayanıp yaşar o insan şefkatine.

49. Ta hayat olmuşuz sevaba muhtacız,
50. Parlayan şuleden gönüller feyz-yâb.
51.Gâh gamlı, gâh ise ümide yârız,
52. Kaybolmasa deriz dünyadan sevap.

53. Artık onunla çiçeklensin acun,
54. Artık onunla ömürler şayan.
55. Yalnız sevap var ki, cihan büsbütün,
56. Yalnız sevap var ki, azizdir İnsan!

ARSLON CHORLAGANDI...(23)

Erkin Vohidovga

1. *Biz ham yuksaklarga tikkandik ko‘zni,*

2. *Bizda ham bor edi matonat, bardosh.*

3. *Arslon chorlagandi qoshiga bizni,*

4. *Lekin qumursqalar bo‘ldi safardosh.*

5. *Jami tiriklikka tanish shu xatar,*

6. *Qumursqa yaralgan yoppa talarga.*

7. *Do‘stim, alam qilar, arslon bexabar,*

8. *Yem bo‘lib ketsak shu qumursqalarga.*

ASLAN ÇAĞIRMIŞTI… (23)

Erkin Vahidov’a

1. Biz de yükseklere dikmiştik gözü,

2. Bizde vardı metanet, sabır.

3. Aslan çağırmıştı karşısına bizi,

4. Lakin karıncalar oldu yoldaş.

5. Tüm varlığa tanıdık bu tehlike,

6. Karınca yaratılmış tamamen yağmalamaya.

7. Dostum, elem verir, aslan habersiz,

8. Yem olup gitsek şu karıncalara. (1982)

“SEN UZOQ YASHAYSAN…” (24)

1. *Sen uzoq yashaysan,*

2. *Hammadan ziyod.*

3. *Hali toychoqlaring o‘ynab yuribdi.*

4. *Meni-chi, shum ajal eshikda, hayhot,*

5. *Egarlangan otday kutib turibdi.*

6. *Sen balki baxtlisan,*

7. *Umringda ko‘klam,*

8. *Tunlar rang oladi hali sochingdan.*

9. *Men-chi, nazaringda yovqur bo‘lsam ham*

10.*Bir kunda to‘rt fasl kechar boshimdan.*

11.*Yuz yil yashab o‘tar dunyodan birov,*

12.*Fursat manglayiga sololmas izlar.*

13.*Yo‘q, yo‘q, yillar emas umrga egov,*

14.*Uni yemiradi beomon hislar...*

“SEN UZUN YAŞARSIN…” (24)

1. Sen uzun yaşarsın,

2. Herkesten ziyade.

3. Demin taycıklar oynayıp yürümüş.

4. Beni, kötü ecel kapıda, heyhat,

5. Eyerlenen at gibi bekleyip durmuş.

6. Sen belki bahtlısın,

7. Ömründe ilkbahar,

8. Geceler renk alır hâlâ saçından.

9. Ben, nazarında cesur olsam da

10. Bir günde dört mevsim geçer başımdan.

11.Yüz yıl yaşayıp gider dünyadan biri,

12. Zaman alnına bırakamaz izler.

13. Yok, yok, yıllar değil ömre törpü,

14. Onu kemirir amansız hisler… (1982)

“YIROQ YEVROPADA…” (25)

1. *Yiroq Yevropada, Oxrit bahrida,*

2. *Jahon shoirlari jam bo‘lgan oqshom,*

3. *Kimdir she’r o‘qidi boshoq haqida,*

4. *Rizqini tanidi hamma shu ayyom.*

5. *Falastinlik shoir arz etdi dodin,*

6. *Men ham insonman deb, bo‘lay deb otlik.*

7. *So‘ng daryo qa’riga otdi kitobin,*

8. *Uning bir talabi edi ozodlik.*

9. *Ha, nonu tuz bilan tirikdir inson,*

10.*Erkinlik, istiqlol mening ham jonim.*

11.*Xayriyat, ust-boshing butundir, jahon,*

12.*Paxtangni o‘yladim, O‘zbekistonim.*

“UZAK AVRUPA’DA…” (25)

1. Uzak Avrupa’da, Ohri bağrında,

2. Cihan şairleri toplanmış akşam,

3. Kimi şiir okur başak hakkında,

4. Rızkını tanır herkes şu eyyam.

5. Filistinli şair arz etti şikâyetini,

6. Ben de insanım deyip, olayım diye adlı.

7. Sonra derya dibine attı kitabını,

8. Onun bir talebiydi azatlık.

9. Evet, ekmek ve tuzla canlıdır insan,

10.Özgürlük, istiklal benim de canım.

11.Şükür ki, üstün başın tamdır, cihan,

12. Pamuğunu düşündüm, Özbekistan’ım. (Makedonya, 1982)

TOSHKENT SHA’NIGA (26)

1. *Goho oddiy maskanday tuyuladi, ochiq gap,*

2. *Har kuni yashayverib ko‘nikib qolgan uying.*

3. *Toshkentim, ajib kentsan,*

4. *muhtasham qo‘rg‘onsan zab,*

5. *Ming-minglab chaqirimdan ko‘rinib turar bo‘ying.*

6. *Necha-necha ellarda duch keldim turfa zotga,*

7. *“Toshkan” desang yugurar yuzlariga tabassum.*

8. *Toshkent so‘zi uyqashdir tinchlik bilan hayotga,*

9. *Toshkent desa anglanur mehr bilan tarahhum.*

10.*Shunday payt goh o‘ylayman: buning boisi nedur,*

11.*Nechun shoir tilidan tushmaydigan nazmsan!*

12.*Axir, bunda har bir g‘isht tarixdan mujda erur,*

13.*Beruniy ta’rif etgan ko‘hna shahri azimsan.*

14.*G‘afur G‘ulom so‘zini har lahzada yod etib,*

15.*Toshkentning kamolidan mening ham ko‘kda boshim.*

16.*Nega uning dovrug‘i olamni ketmas tutib,*

17.*Bu yerda ijod etsa dovrug‘li zamondoshim.*

18.*Toshkentdir kamon yasab degrezlarga bo‘lgan joy,*

19.*Bugun o‘zbek yurtining eng katta korxonasi.*

20.*O‘n to‘rt go‘dak haykalin ko‘rgandirsiz hoynahoy,*

21.*O‘sha turfa millatning Toshkent bo‘lgan onasi.*

22.*Jahon voqeotida sening ta’rifing shoyon,*

23.*Necha zotlar mehringdan ilhomu zavq olmishdir.*

24.*Men ham kamtar fuqarong,*

25.*madh eturman bu zamon,*

26.*Mening ham qatra qonim*

27.*tuprog‘ingda qolmishdir.*

28.*Hamisha ustuvor bo‘l, barqaror bo‘l hamisha,*

29.*Ey, ko‘hna Sharqimizning*

30.*hech so‘nmas mash’alasi.*

31.*Noming kabi mustahkam, poydor bo‘l hamisha,*

32.*Do‘stlik, baxt, muruvvatning*

33.*mangu boqiy qal’asi.*

TAŞKENT ŞANINA (26)

1. Bazen sıradan bir mesken gibi görünür, açık söz,

2. Her gün yaşayıverip alıştığın evin.

3. Taşkent’im, acayip kentsin,

4. muhteşem kalesin acayip,

5. Binlerce çakırımdan[132] görünüp durur boyun.
6. Birçok memlekette rastladım ilginç zata,
7. "Toşkan" desen belirir yüzlerinde tebessüm.
8. Taşkent sözü benzerdir huzurla hayata,
9. Taşkent dese anlaşılır şefkatle merhamet.
10.Böyle vakitte bazen düşünürüm: bunun sebebi nedir,
11. Niçin şairin dilinden düşmeyen nazımsın?
12. Artık, işte burada her bir tuğla, tarihten müjdedir,
13.Bîrûnî'nin tarif ettiği köhne şehr-i azimsin.
14. Gafur Gulam sözünü her lahzada yâd edip,
15. Taşkent'in kemalinden benim de gökte başım.
16. Niye onun şöhreti âlemi sarmaz tutup,
17. Burada yaratsa meşhur çağdaşım.
18. Taşkent'tir yay yapıp kirişçilere olan yer,
19. Bugün Özbek yurdunun en büyük işletmesi.
20. On dört bebek heykelini görmüşsünüzdür belki,
21.O ilginç milletin Taşkent olmuş anası.
22. Cihan vukuatında senin tarifin şayan,
23. Nice zatlar şefkatinden ilham ve zevk almıştır.
24. Ben de mütevazı vatandaşın,
25.methederim bu zaman,
26. Benim de katre kanım
27.toprağında kalmıştır.
28. Daima metanetli ol, kararlı ol daima,
29. Ey, köhne Şark'ımızın
30.hiç sönmeyen meşalesi.
31. Namın gibi müstahkem, payidar ol daima,
32. Dostluk, baht, mürüvvetin
33. Sonsuz baki kalesi. (1982)

QONUNIYAT (27)

1. *Oqshom baroq mushuk labini yalab*
2. *Uyquga ketadi sichqonni o'ylab.*

[132] 1,06'ya denk uzunluk ölçüsüdür.

3. *Sassiz qanot qoqar boyqush tunlari,*

4. *Es-hushida faqat qushning inlari.*

5. *Tulki to‘qaylarda izg‘iydi giryon*

6. *Xayolida uning tovuq yo quyon.*

7. *Burgut yuksaklarda qanot qoqadi,*

8. *U ham o‘lja izlab tuban boqadi.*

9. *Bu-ku, tabiatda qonundir azal,*

10.*Foydasiz bu yerda axtarsang masal.*

11.*Lekin olamda bor o‘zga bir holat*

12.*Uni sharh etolmas hech kimsa, hech vaqt.*

13.*Oh, faqat odamzod - farzandi bashar.*

14.*Bir-birin mahv etish qasdida yashar.*

KANUNİYET (27)

1. Akşam çok tüylü kedi dudağını yalayıp

2. Uykuya dalar fareyi düşünüp.

3. Sessiz kanat çırpar baykuş geceleri,

4. Aklında, hatırında yalnız kuşun yuvaları.

5. Tilki çalılıklarda gezinir giryân

6. Hayalinde onun tavuk yahut tavşan.

7. Kartal yükseklerde kanat çırpar,

8. O da yem arayıp aşağı bakar.

9. Bu, tabiatta kanundur ezel,

10. Faydasız bu yerde ararsan mesel.

11. Lakin âlemde var başka bir hâlet

12. Onu şerh edemez hiç kimse, hiçbir an.

13. Ah, yalnız insanoğlu evladı beşer.

14. Birbirini mahvetmek kastında yaşar. (1982)

NIYAT (28)

1. *Magar kelganda ham qiyomat qoyim,*

2. *Yor bo‘lsin yigitga niyati doim.*

3. *Tabarruk keksaning gapin eshitdim,*

4. *Boshing toshdan bo‘lsin, derdi, iloyim.*

5. *Dilovar dardida tortdim uzangi,*

6. *Men kim deb ado-yu, kimdir adoyim.*

7. *Gohida safardosh bo‘ldim g‘animga,*

8. *Sodiq do‘st topolmay qaytganda royim.*

9. *Boshimga chiqdi goh poyim to‘zoni,*

10. *Ulug‘lar qoshida goh bo‘ldi joyim.*

11. *Qismat qahr bilan yo‘lim poyladi,*

12. *Agarchi, baxt menga boqdi muloyim.*

NİYET (28)

1. Meğer geldiğinde de kıyamet kaim,

2. Yâr olsun yiğide niyeti daim.

3. Mübarek ihtiyarın sözünü işittim,

4. Başın taştan olsun, derdi, ilahım.

5. Dilaver derdinde çektim üzengi,

6. Ben kim deyip eda, kimdir edam.

7. Bazen yoldaş oldum düşmana,

8. Sadık dost bulamadığında arzum.

9. Başıma çıktı gâh payımın tozu,

10. Ulular yanında gâh oldu yerim.

11.Kısmet kahırla yolumu gözledi,

12.Eğer baht bana baktı mülayim. (1982)

“ZAMIN AYLANADI, CHIQADI QUYOSH…” (29)

1. *Zamin aylanadi, chiqadi quyosh*

2. *Xargiz kibr bilan ko‘tarmagin bosh.*

3. *Oyoq ostingdagi xarsangni tepma,*

4. *Balki haykal bo‘lar senga o‘sha tosh.*

“ZEMİN SEYREDER, ÇIKAR GÜNEŞ…” (29)

1. Zemin seyreder, çıkar güneş

2. Asla kibirle kaldırmayın baş.

3. Ayağının altındaki taşı tepme,

4. Belki heykel olur sana o taş. (1982)

“SIZGA TILAKLARIM BIR JAHON BO‘LSIN…” (30)

1. *Sizga tilaklarim bir jahon bo‘lsin,*

2. *Boshingiz oftobli osmon bo‘lsin.*

3. *Kunduzning g‘aroyib chog‘idir oqshom,*

4. *Saodat birla u nurafshon bo‘lsin.*

“SİZE DİLEKLERİM BİR CİHAN OLSUN…” (30)

1. Size dileklerim bir cihan olsun,

2. Başınız güneşli asuman olsun.

3. Gündüzün garip çağıdır akşam,

4. Saadetle o nurefşân olsun. (1982)

EPIGRAMMA (31)

1. *Sen o‘lsang nimangni ko‘mamiz ekan,*

2. *Shuni o‘ylab qoldik bilonihoya...*

3. *Sen axir jismi ko‘lankadirsan,*

4. *Sen axir birovdan tushgan bir soya.*

EPİGRAM (31)

1. Sen ölsen neyi gömermişiz,

2. Bunu düşündük çok fazlasıyla…

3. Sen artık cismi olmayan gölgesindir,

4. Sen artık birisinden düşen bir saye. (1982)

SIZDAN NIMA KETDI? (32)

1. *Garchi, yashamadim beiqbol, nigun,*

2. *Garchi, davralarim nurlik, otashlik,*

3. *Nega, mening dilim, titraysan nechun,*

4. *Nechun yuragimni tirnaysan, g‘ashlik.*

5. *Ne bu, erta ketgan yoshligimmi bu,*

6. *Yoki do‘stlarimdan orttirgan hasrat?*

7. *Ne bu, qandayin his, qandayin tuyg‘u,*

8. *Qanday nomsiz mehr, ismsiz nafrat?*

9. *Qirq yil ham o‘tibdi misli bir damdek,*

10.*Qolgani ne kechar - menga noayon.*

11.*Vayrona tagida majruh odamdek*

12.*Tirmashib yashayman hayotga tomon.*

13.*Sizdan nima ketdi, ey do‘sti aziz,*

14.*Sog‘inmang menga har bir zum yomonlik.*

15.*Mendan nima ketdi, sizga ham cheksiz*

16.*Saodat tilayin, tilay omonlik.*

SİZDEN NE GİTTİ? (32)

1. Gerçi, yaşamadım ikbalsiz, nigûn,
2. Gerçi, meclislerim ışıklı, ateşli,
3. Niye, benim gönlüm, titrersin niçin,
4. Niçin yüreğimi tırmalarsın, huzursuzluk.

5. Ne bu, erken giden gençliğim mi bu,
6. Yahut dostlarımın arttırdığı hasret?
7. Ne bu, nasıl his, nasıl duygu,
8. Nasıl adsız şefkat, isimsiz nefret?

9. Kırk yıl da geçmiş sanki bir an gibi,
10. Kalan ne geçer, bana meçhul.
11. Virane dibinde yaralı insan gibi
12. Tutunup yaşarım hayata doğru.

13. Sizden ne gitti, ey dost-u aziz,
14.Özlemeyin beni her bir an yamanlık.
15. Benden ne gitti, size de sonsuz
16. Saadet dileyeyim, dileyeyim sağlık. (1983)

BAHOR TILAKLARI (33)

1. *Nechun ko‘klam madhi tushmas g‘azaldan,*
2. *Shoirlar bahorni kuylar azaldan?*

3. *Oshiqlar zangori kenglikka boqib,*
4. *Qo‘shiqlar aytadi bag‘rini yoqib.*

5. *Tabarruk chollarning chakkasida gul,*
6. *Momolar o‘yida bahordir nuqul.*

7. *Bir lahza yasharar qarri qo‘rg‘onlar,*
8. *Ajib dilbar bo‘lib qolar insonlar.*

9. *Ha, bahor misrasi menda ham talay,*
10.*Bu holning boisi bordir harqalay.*

11.*Azizim, g‘unchaga nazar sol bir on,*
12.*Bag‘rida hozircha turfa hol pinhon.*

13.*Ranglar yashar unda balki pushti, oq,*
14.*Ajab, tikoni ham hozircha yumshoq.*

15.*Tong chog‘i shabboda ko‘taradi bosh,*
16.*Oh, nechog‘ latifu nechog‘lik yovvosh.*

17.*Asli qahratonning nabirasi u,*
18.*Nash’u namolari hozircha ezgu.*

19.*Inson fe’li qiziq, yashagay hurkib,*
20.*Shervachchani silab, sherdan-chi, qo‘rqib.*

21.*Bahor norasida go‘dakday shirin,*
22.*Qo‘ynida ezgulik armon yashirin.*

23.*Nashtar bo‘lmasidan g‘unchaning xori*
24.*Shirin tuyuladi uning diydori.*

25.*Bo‘ronga aylanmay shabboda - go‘dak*
26.*Ozurda dillarni yayratar beshak.*

27.*Odam bolasiga doim umid yor,*

28.*Shul sabab bahorga tilagi bisyor:*

29.*Olamga qabohat zahrin sochmasa,*

30.*Mas'um yuraklarda yara ochmasa.*

31.*Qoplamasa basdur yeru samoni*

32.*Mudhish qirg'inlarning qora to'zoni.*

BAHAR DİLEKLERİ (33)

1. Niçin ilkbahar methi düşmez gazelden,

2. Şairler baharı över ezelden?

3. Âşıklar yeşil düzlüğe bakıp,

4. Koşuklar söyler bağrını yakıp.

5. Mübarek ihtiyarların şakağında gül,

6. Ninelerin fikrinde bahardır hep.

7. Bir lahza güzelleşir ka'r-ı kaleler,

8. Acayip dilber olur insanlar.

9. Evet, bahar mısrası bende de çok,

10. Bu hâlin sebebi vardır muhtemelen.

11. Azizim, goncaya bak bir an,

12. Bağrında biraz garip bir hâl pinhan.

13. Renkler yaşar işte orada belki pembe, ak,

14. Acayip, dikeni de biraz yumuşak.

15.Şafak vakti esintide kaldırır baş,
16. Ah, ne kadar latif ve ne kadar sakin.

17. Aslında zemherinin torunu o,
18. Neşv ü nemaları bir vakte kadar iyi.

19.İnsan tabiatı garip, yaşayacak ürkerek,
20. Yavru aslanı okşayıp, aslandan, korkarak.

21. Bahar büyümemiş çocuk gibi şirin,
22. Koynunda iyilik, ukde gizli.

23. Neşter bölmesinden goncanın horu
24.Şirin duyulur onun didarı.

25. Borana dönüşmeden esinti, çocuk
26.İncinen gönülleri keyiflendirir bî-şekk.

27.İnsan evladına daima ümit yâr,
28.O nedenle bahara dileği bisyâr:

29.Âleme kabahat zehrini saçmasa,
30. Masum yüreklerde yara açmasa.

31. Kaplamasa kâfidir yeri ve semayı
32.Müthiş kırımların kara tozu. (1983)

“YASHASANG…” (34)

1. *Yashasang dunyoda yorug‘ yuz bilan,*
2. *Hurmat ko‘rguzsang va bo‘lsa izzating!*
3. *Ketsang, eslasalar shirin so‘z bilan,*
4. *Yaxshi noming qolsa, qolsa xizmating.*

5. *G‘anim nafratingga kelolmasa bas,*
6. *Kulsang, sidqidildan yayrab kulolsang.*
7. *Dilda g‘ashlik bo‘lmay yashasang, xullas,*
8. *Baxtli odamlarday baxtli bo‘lolsang.*

“YAŞARSAN…” (34)

1. Yaşarsan dünyada aydın yüzle,
2. Hürmet gösterirsen ve olsa izzetin!
3. Gitsen, hatırlasalar şirin sözle,
4. İyi namın kalsa, kalsa hizmetin.

5. Düşman nefretine gelemese yeter,
6. Gülsen, içten keyif alıp gülebilsen.
7. Gönülde kaygı olmadan yaşasan, hülasa,
8. Bahtlı insanlar gibi bahtlı olabilsen. (1983)

BOBUR (35)

1. *Men-ku, oddiy odam,*
2. *Shundoq bo‘lsa ham*
3. *Shukr, bas, degancha g‘animlarim bor.*
4. *Shart emas ularga ta’rif chinakam,*
5. *Biri jununsifat, birovi hushyor.*

6. *Biroviga yoqmas jindek jur’atim,*
7. *Biroviga yoqmas men yurgan yo‘lak.*
8. *Nogoh biror joyda chiqsa suvratim*

9. *Biri uxlay olmay qiynalsa kerak.*

10.*Biz shunday o‘tamiz,*
11.*Ya’ni kun ko‘rib...*
12.*Maydagina kuchsiz, maydagina zo‘r.*
13.*Hayotning mana shu burjidan turib,*
14.*Men Sizni o‘yladim, hazrati Bobur.*

15.*Siz - zobit, dastini cho‘zgan dunyoga,*
16.*Siz - shoir, mangu bir alanga yoqqan.*
17.*Nainki bandalar, Sizning siymoga*
18.*Ne-ne saltanatlar kek bilan boqqan.*

19.*Bahodirlik ichra yor Sizga Humoy,*
20.*Siz ulug‘ zotlarning izin bosgan er.*
21.*Nazmiy sajdagohda Sizga, hoynahoy,*
22.*Imomlikka o‘tgay faqat Alisher.*

23.*Ha, yolg‘iz she’r qoldi, boshqasi, abas,*
24.*Yetti iqlim aro doston naqlingiz.*
25.*Ne baxt, parchin bo‘lib toj degan qafas,*
26.*Bizga yetib keldi olmos aqlingiz.*

27.*Ayting, ne topdingiz Siz kezib dunyo,*
28.*Hanuz boqisharlar sho‘rishga to‘lib.*
29.*Shoirsiz, yaxshisi, qolingiz, Mirzo,*
30.*Mushfiq yurtingizda bir shoir bo‘lib.*

BABÜR (35)

1. Ben, sıradan bir insan,
2. Öyle olsa da
3. Şükür, yeter, diyen düşmanlarım var.

4. Şart değil onlara tarif asıl,
5. Biri cinli, biri uyanık.

6. Birinin hoşuna gitmez azıcık cüretim,
7. Birinin hoşuna gitmez yürüdüğüm yol.
8. Ansızın bir yerde çıksa suretim
9. Biri uyuyamadan ızdırap çekse gerek.

10. Biz şöyle geçeriz,
11. Yani gün görüp…
12.Küçücük güçsüz, küçücük ızdıraplı.
13. Hayatın işte şu burcundan kalkıp,
14. Ben Sizi düşündüm, Hazreti Babür.

15. Siz, asker, elini uzatmış dünyaya,
16. Siz, şair sonsuz bir ateş yakmış.
17. Sahi mi bendeler, Sizin simanıza
18. Ne saltanatlar hasetle bakmış.

19. Bahadırlık boyunca yâr Size Humoy,
20. Siz ulu zatların izine basmış er.
21.Şairane secdegâhta Size, belki,
22.İmamlığa geçecek yalnız Ali Şîr.

23. Evet, yalnız şiir kaldı, başkası, abes,
24. Yedi iklim arasında destan nakliniz.
25. Ne büyük lütuf, mıhlanıp taç denen kafes,
26. Bize yetip geldi elmas aklınız.

27.Söyleyin, ne buldunuz Siz gezip dünyayı,
28. Henüz bakışırlar azapla dolup.
29.Şairsiz, doğrusu, kalınız, Mirza,

30.Müşfik yurdunuzda bir şair olup. (1983)

BIR SIRKI... (36)

1. *Dedingki, mumkinmas senga hayajon,*
2. *Kulfatdan yiroq yur, may ham shart emas.*
3. *Magar yer yuzini bossa ham to‘fon*
4. *Sening to‘pig‘ingga chiqmasa, shu bas!*

5. *Ha, do‘stim, hayajon endi muvaqqat,*
6. *Shodligu g‘amni ham totganman bir oz.*
7. *To‘fon bosganda ham yer yuzin, faqat*
8. *Qutulib qolardi o‘rdak yoki g‘oz.*

9. *Lekin ogoh etay seni bir sirdan,*
10.*Balki, tanish senga bu holning foli.*
11.*Ayt-chi, qay ahvolga tusharding, birdan*
12.*Yelkangda o‘rmalab qolsa chumoli.*

13.*O, kibor tuyg‘ular, ezgulik, vijdon...*
14.*Bular hayotdagi mavjud bir ishdir.*
15.*O‘zingni osmonda sanama, Inson,*
16.*Seni yengadigan... mayda tashvishdir.*

BİR SIR Kİ… (36)

1. Dedin ki, mümkün değil sana heyecan,
2. Külfetten uzak yürü, mey de şart değil.
3. Meğer yeryüzünü bassa da tufan
4. Senin topuğuna çıkmasa, o yeter!

5. Evet, dostum, heyecan şimdi muvakkat,
6. Sevinci ve gamı da tatmışım biraz.

7. Tufan bastığında da yeryüzünü, yalnız
8. Kurtulurdu ördek yahut kaz.

9. Lakin agah edecek seni bir sırdan,
10. Belki, tanıdık sana bu hâlin falı.
11.Söyle, hangi ahvale düşerdin, birden
12. Omzunda yürüse karınca.

13. Aaa, kibar duygular, iyilik, vicdan…
14. Bunlar hayattaki mevcut bir iştir.
15. Kendini asumanda sayma, İnsan,
16. Seni yenecek… Küçük kaygıdır. (1983)

DO‘STIM MURODHAMROYEV XOTIRASIGA (37)

1. *Men ko‘rib turibman,*
2. *Yer-osmon parchin,*
3. *Farzanding fig‘oni ko‘klarga o‘rlar.*
4. *Bir yonda o‘zbeklar egibdi boshin,*
5. *Bir yonda bolam deb yig‘lar uyg‘urlar.*
6. *Nima qilib qo‘yding,*
7. *O, do‘stim Murod,*
8. *Nahot o‘limda ham sen bo‘lding pesha,*
9. *U ahdu paymonlar bo‘ldi-ku barbod,*
10.*Yakka ov qilarkan ajal hamisha.*
11.*Minglab yil o‘tsa ham osmon qa’rida*
12.*To‘qnashmas falakning ikki to‘zoni.*
13.*Ne baxtkim, o‘zbekning munis bag‘rida*
14.*Menga do‘st bo‘lganding, uyg‘ur o‘g‘loni.*
15.*Nega yaxshilarga notanti hayot,*
16.*Nega g‘anim qolib, do‘st ketar nega?*
17.*Zukko olim eding, o‘zing ayt, Murod,*
18.*Tabiat ishiga bormikin ega?*
19.*Netay, janozangga kechikdim o‘zim,*

20.*Nogoh bu zarbadan qoldim dovdirab.*

21.*Kimga xitob aylay, Murod, azizim,*

22.*Boqurman qabringga endi jovdirab.*

DOSTUM MURAT HEMRAYEV ANISINA (37)

1. Seni görmüşüm,

2. Yer asuman perçin,

3. Evladın figanı göklere yükselir.

4. Bir yanda Özbekler eğmiş başını,

5. Bir yanda evladım diye ağlar Uygurlar.

6. Ne yaptın,

7. Ey, dostum Murat,

8. Ölümde de mi sen oldun usta,

9. O ahit ve antlar oldu berbat,

10. Yalnız av yaparmış ecel daima.

11. Binlerce yıl geçse de asuman altında

12. Karşılaşmaz feleğin iki tozu.

13. Ne baht ki Özbek'in munis bağrında

14. Bana dost olmuştun, Uygur oğlanı.

15. Niye iyilere nezaketsiz hayat,

16. Niye düşman kalıp, dost gider niye?

17. Zeki âlimdin, kendin söyle, Murat,

18. Tabiat işine var mıymış sahip?

19.Çaresiz, cenazene geciktim kendim,

20. Birden bu darbede kaldım şaşırıp.

21. Kime hitap edeyim, Murat, azizim,

22. Bakarım kabrine şimdi gözümü dikip. (1983)

QUYOSH SHAHRI (38)

1. *Eng teran chashmadek tinib, sizilib,*

2. *Asrlar qa'ridan keladi xabar:*

3. *Ikki ming yil burun chayla buzilib,*

4. *Qo'rg'on barpo bo'ldi, yaraldi shahar.*

5. *Turon yulduzlarin silsilasida*

6. *Chaqnadi yana bir qo‘lbola quyosh.*

7. *Ulug‘ shaharlarning bo‘ysirasida*

8. *Abadiy o‘rnini topa olgan Shosh.*

9. *Toshkentim, oftobsan, Sharqda nur sochgan,*

10.*Quyoshdek tutilding necha boralar.*

11.*Tosh mag‘zing chaqolmay tamshanib qochgan*

12.*Necha Qutayba-yu, necha Dorolar...*

13.*O‘zbekka maqtanish odatmas, garchand,*

14.*Bag‘rimni to‘lg‘azar ushbu kun g‘urur:*

15.*Toshkentu Buxoro, Xevoq, Samarqand,*

16.*Har biri jahonning bezagi bo‘lur.*

17.*Qalbing ko‘zi bilan nazar sol, Inson,*

18.*Mana bu Mingo‘rik, manov Ko‘kaldosh.*

19.*Moziyga bitsaydi zabon nogahon,*

20.*Erk deb qo‘zg‘alardi bunda har bir tosh.*

21.*Qadimiy Nasafda topdim tavallud,*

22.*Tanishdir Kushonning biyobonlari.*

23.*Ne baxtkim, dilimga soldi she’riy o‘t*

24.*Toshkentning sehrli xiyobonlari.*

25.*Farzandman, bag‘ringda kezurman men ham,*

26.*Sensan mening uchun maskan mo‘’tabar.*

27.*Toshkentdan boshlanur menga ham olam,*

28.*Dengizlardan nari, qit’alar qadar.*

29.*Ne-ne zilziladan chiqolgan omon.*

30.*Manglayi yarqiroq makonsan buyuk.*
31.*Baynalmilal ma'vo, asl qahramon,*
32.*Jahon tarixida noming bor suyuk.*

33.*Ishchisan, olimsan, arbobsan, me'mor,*
34.*Senga ham muntazir boqar yer yuzi.*
35.*Tinchlik degan joyda Toshkent ruhi bor,*
36.*Toshkent degan joyda osoyish so'zi.*

37.*Ne ulug' tarixlar kechdi boshingdan,*
38.*Xislating ne erur - olam biladi:*
39.*Bugun har burjingdan, har bir toshingdan*
40.*Faqat do'stlik degan sado keladi.*

41.*Yiroq afrikalik sargashta adib,*
42.*Bombay g'azalxoni shoshar sen tomon.*
43.*Ezgu niyatlarning bayroqdori deb,*
44.*Seni sharaflaydi zaminu zamon.*

45.*Sen quyosh shahrisan, faxrimsan azal,*
46.*Omon bo'l hamisha o'zbeki yerim.*
47.*Sensan munis, mushfiq Sharqimga haykal,*
48.*Tuhfa bo'la qolsin senga shu she'rim!*

GÜNEŞ ŞEHRİ (38)

1. En derin çeşme gibi durup, sızıp,
2. Asırlar ka'rından gelir haber:
3. İki bin yıl önce çadır bozulup,
4. Kale inşa edildi, yaratıldı şehir.

5. Turan yıldızları silsilesinde
6. Parladı yine bir ev yapımı güneş.

7. Ulu şehirlerin boy sırasında
8. Ebedî yerini bulabilmiş Şaş.

9. Taşkent'im, afitapsın, Şark'ta ışık saçan,
10.Güneş gibi tutuldun nice defa.
11. Taşın içini ısırmadan çiğneyen
12. Nice Kutayba, nice Daralar…

13.Özbek'lerde övünmek âdet değil, gerçi,
14. Bağrımı doldurur işte bugün gurur:
15. Taşkent, Buhara, Hive ve Semerkant,
16. Her biri cihanın bezeği olur.

17. Kalbinin gözüyle bak, İnsan,
18.İşte bu Mingorik, işte bu Kökeldaş.
19. Maziye yazsaydı dil birden,
20.Hürriyet diye kımıldardı işte burada her bir taş.

21. Kadimî Nesef'te buldum tevellüt,
22. Tanıdıktır Kuşan'ın bozkırları.
23. Ne baht ki, gönlüme saldı şiirsel ateş
24. Taşkent'in sihirli hıyâbânları.

25.Çocuğum, bağrında gezerim ben de,
26. Sensin benim için mesken muteber.
27. Taşkent'ten başlar bana da âlem,
28. Denizlerden öte, kıtalar kadar.

29. Ne zelzeleden çıkabilmiş sağ.
30. Alnı parlak mekânsın büyük.
31. Beynelmilel başkent, esas kahraman,
32. Cihan tarihinde namın var sevgili.

33.İşçisin, âlimsin, erbapsın, mimar,
34. Sana da muntazır bakar yeryüzü.
35. Barış denen yerde Taşkent ruhu var,
36. Taşkent denen yerde asayiş sözü.

37. Ne ulu tarihler geçti başından,
38. Hasletin nedir, âlem bilir:
39. Bugün her burcundan, her bir taşından
40. Yalnız dostluk denen seda gelir.

41. Uzak Afrikalı sergeşte edip,
42. Bombai gazelhanı şaşar sana doğru.
43.İyi niyetlerin bayraktarı diye,
44. Seni şereflendirir zemin u zaman.

45. Sen güneş şehrisin, fahrimsin ezel,
46. Sağ ol daima Özbekî yerim.
47. Sensin munis, müşfik Şark'ıma heykel,
48. Hediye olup kalsın sana şu şiirim! (1983)

BOG'BON (39)

Mashhur bog'bon

Temur aka Mirzayevga bag'ishlayman.

1. *Qashqadaryo degan so'z aytilgan chog',*
2. *Hanuz miyig'ida kulguvchilar bor.*
3. *Emishkim, u yerga noravodir bog',*
4. *To'rt tuyoq yemishin o'ylar chorvador.*

5. *Mana paydo bo'ldi Temur Mirzolar,*

6. *Turfa chechaklarni o‘stirgan inson.*

7. *Ne-ne bog‘bonlar ham undan dars olar,*

8. *Mana, nimalarga qodir tirik jon.*

9. *Qarshi ko‘chasidan o‘tsangiz magar,*

10.*Sizni kuzatadi ming-minglab charog‘,*

11.*Qayoqdan kelmoqda bu hid muattar!*

12.*Bu - Temur Mirzolar barpo etgan bog‘.*

BAHÇIVAN (39)

Meşhur bahçıvan

Timur Mirzayev Abi’ye ithaf ederim.

1. Kaşkaderya denen söz söylendiği an,

2. Henüz bıyıklarında gülüşler var.

3. İmiş ki, o yere uygunsuzdur bağ,

4. Dört toynak yiyeceğini düşünür çiftçi.

5. İşte peyda oldu Timur Mirzalar,

6. İlginç çiçekleri yetiştiren insan.

7. Ne bahçıvanlar da ondan ders alır,

8. İşte, nelere kadir diri can.

9. Karşı sokağından geçseniz meğer,

10. Sizi gözetir binlerce çırağ,

11. Nereden gelmekte bu koku muattar!

12. Bu Timur Mirzalar oluşturmuş bağ. (1983)

JANGDAN QAYTMAGAN SHOIRLARGA (40)

1. *Isming balki Sulton, balki Qodirsan,*

2. *Sen jangdan qaytmagan shahid shoirsan.*

3. *Lekin g‘olibsanki - safda hozirsan,*

4. *Sen saqlab qololgan jahoning menda.*

5. *Urush deganiga bo‘lsin ming la’nat,*

6. *Neki tirik bo‘lsa - aylagay g‘orat.*

7. *Sening qalaming ham sindirmish bevaqt,*

8. *Yetib-yetolmagan armoning menda.*

9. *Beiz ketmadi, yo‘q, shahidlar qoni,*

10.*Kuzg‘undan asradi mas’um dunyoni.*

11.*Agar ko‘kka yetsa tiriklar shoni,*

12.*O‘zing orzu qilgan osmoning menda.*

13.*Har nechuk, shoirman - sen bilan jondosh,*

14.*To‘yingda to‘ydoshman, tirik yelkadosh.*

15.*Degayman, yosh umring o‘ylab, ey, qondosh,*

16.*Bitgum, bitilmagan dostoning menda.*

SAVAŞTAN DÖNMEYEN ŞAİRLERE (40)

1. İsmin belki Sultan, belki Kadir’sin,

2. Sen savaştan dönmemiş şehit şairsin.

3. Lakin galipsin ki safta hazırsın,

4. Sen sakladığın cihanın bende.

5. Savaş dediğine olsun bin lanet,

6. Ne ki canlı olsa, edecek gayret.

7. Senin kalemin de kırılmış vakitsiz,

8. Yetip gelemeyen ukden bende.

9. İzsiz gitmedi, yok, şehitler kanı,

10. Kuzgundan korudu masum dünyayı.

11.Eğer göğe yetse canlılar şanı,

12. Kendin arzu ettiğin asumanın bende.

13. Herhâlde şairim, seninle hemfikir,
14. Toyunda toycuyum, diri yoldaş.
15. Diyeceğim, genç ömrünü düşünüp, ey, kandaş,
16. Yazacağım, yazılmamış destanın bende. (1983)

SO‘NGGI URUSH (41)

... Nahotki insoniyat o‘z kashfi bilan

o‘zini o‘zi vayron etadi.

Javoharla’l Neru

1. *Bir qadam qo‘ysang bas - naryog‘i o‘lim,*
2. *Bir qadam qo‘ysang bas - shaksiz halokat.*
3. *Odamzod boshida turibdi shu zum*
4. *Qazoyi muallaq, mudhish falokat.*

5. *Entikib ketadi nogoh yuragim,*
6. *Mash’um bu so‘zlarni tinglaganim dam.*
7. *Bugun faqat toshlar befarqdir, balkim,*
8. *Bugun, balki, faqat bulutlar beg‘am.*

9. *Asrlar so‘ngida yaralgan inson*
10.*Nahot endi o‘zin aylasa barbod.*
11.*Nahot oxiratga yuz bursa jahon,*
12.*Nahot karomatlar haq chiqsa, nahot.*

13.*Navoiy abasdir, Pushkin ham abas,*
14.*Rim yo‘q, Samarqand yo‘q, dahshat, alhazar!*
15.*Moziydan biror nom qolarmidi, bas,*
16.*Kelajakning o‘zi bo‘lmasa magar.*

17.*O, odam, har nega topinding nechun,*
18.*Ayt, u yaradimi biror-bir korga!*
19.*Falloh manglayidan o‘q yeydi bugun,*
20.*Sig‘inib turgan chog‘ parvardigorga.*

21.*Yo‘q, bu pok dillardan yiroq malomat,*
22.*Bu - bani odamga ko‘rgulik, sho‘rish.*
23.*Bu - sho‘rlik zaminga chang solgan ofat,*
24.*Bu - do‘zax, bu - o‘lim, bu - so‘nggi urush.*

25.*Alhazar, olamda nainki odam,*
26.*Hayotning o‘zi ham kirsa qabrga.*
27.*Koinot qa’rida zamindan u dam*
28.*Nahot eshitilsa so‘nggi qasirg‘a.*

29.*Nahotki, tangri ham, iblis ham ko‘r-kar,*
30.*Osiy banda bilan ketsa jonhalak.*
31.*Ayt-chi, sobit kuching bor bo‘lsa magar,*
32.*Bizni ne murodda yaratding, falak?!*

33.*Bu bari - asrimiz kashf etgan balo,*
34.*Bu - yovuz sarmoya, ko‘ru kar, so‘qir.*
35.*Boshimiz ustida turibdi guyo*
36.*Bir soch tolasiga bog‘langan shamshir.*

37.*Ummon ortidagi mitti qiz Smit*
38.*Jahon taqdiri deb jar solar bu choq.*
39.*Hayhot, o‘shal joyda qaysidir palid*
40.*Uning qismatiga qayraydi pichoq.*

41.*Munis O‘zbegimning osoyish chog‘in,*

42.*Kuylamoq menga ham baxtdir bazavol.*
43.*Kurashlarda o‘tgan farzandlar dog‘in*
44.*Unutmoqni lekin kim qilar xayol.*

45.*Har kim ona deydi mushfiq yerini,*
46.*Oh, ne g‘am, onani kulfatda ko‘rish.*
47.*Mayli, shoir yozsin so‘nggi she’rini,*
48.*Faqat, bo‘lmasa bas, so‘nggi bu urush!*

SON SAVAŞ (41)

İnsanlık mı kendi keşfiyle

kendisini kendi viran eder?

Cevahirlal Nehru

1. Bir adım atsan yeter, diğeri ölüm,
2. Bir adım atsan yeter, şüphesiz yıkım.
3. İnsanlık başında durmuş şu an
4. Kaza-yı muallak, müthiş felaket.

5. Nefesim kesilir birden yüreğim,
6. Meşum bu sözleri dinlediği an.
7. Bugün yalnız taşlar farksızdır, belki,
8. Bugün, belki, yalnız bulutlar gamsız.

9. Asırların sonunda yaratılmış insan
10.Şimdi mi kendini etse berbat?
11. Ahrete mi yüz çevirse cihan,
12. Kerametler mi hak çıksa?

13. Nevâî abestir, Puşkin de abes,
14. Rim yok, Semerkant yok, dehşet, Allah korusun!

15. Maziden bir nam kalır mıydı, yeter,
16. Geleceğin kendisi olmasa meğer.

17. Aaa, insan, her neye tapındın niçin,
18.Söyle, o yaradı mı herhangi bir işe!
19. Fellah alnından ok yer bugün,
20.Sığınıp durduğu an Perverdigâr'a.

21. Yok, bu pak gönüllerden uzak melamet,
22. Bu ben-i âdeme takdir, bahtsızlık.
23. Bu talihsiz zemine toz salan afet,
24. Bu cehennem, bu ölüm, bu savaş.

25. Allah korusun, âlemde sahi mi insan,
26. Hayatın kendisi de girse kabre.
27.Kâinat ka'rında zeminden o dem
28. Duyulsa mı son kasırga?

29. Tanrı da mı, iblis de mi kör sağır,
30. Asi köleyle gitse huzursuz?
31.Söyle, sabit gücün varsa eğer,
32. Bizi ne muratta yarattın, felek?!

33. Bunun hepsi, asrımızın keşfettiği bela,
34. Bu yavuz sermaye, kör ve sağır.
35. Başımızın üstünde durmuş sanki
36. Bir saç zülfüne bağlanmış şimşir.

37. Umman ardındaki küçük kız Smit
38. Cihan takdiri diye haber verir bu an.
39. Heyhat, o yerde hangisidir alçak
40. Onun kısmetine biler bıçak.

41. Munis Özbek'imin asayiş çağını,
42.Övmek bana da bahttır zevalsiz.
43. Savaşlarda geçen çocukların tasasını
44. Unutmayı lakin kim eder hayal.

45. Herkes ana der müşfik toprağına,
46. Ah, ne acı, ananı külfette görmek.
47. Tamam, şair yazsın son şiirini,
48. Yalnız, olmasa yeter, bu son savaş! (1983)

INJU DIYOR UCHUN (42)

1. *Qutlug' davralarda jam bo'lgan mahal,*
2. *Do'stlarga baxt tilash azaliy odat.*
3. *Keladigan bu yil tinch bo'lsin avval,*
4. *Baxsh etsin har kimga oliy saodat.*

5. *Yoshlik - bu karvonning erka noridir,*
6. *Daryoday toshqindir, jilg'a kabi sof.*
7. *Yoshlik - kelajakning xaloskoridir,*
8. *Sira tark etmasin yoshlikni insof.*

9. *Mo''tabar onalar - xonamiz ko'rki,*
10.Otalar hayotdir - *yorug'dir jahon.*
11.Tiriklik nomiga bir o'tinch shulki,
12.O'rtaga tushmasin bemahal hijron.

13.Inju diyorimiz ko'z bo'lsa agar,
14.Mudom omon bo'lsin to'garak zamin.
15.Boshimiz silagan shu xalq mo''tabar,
16.Daf'atan chekmasin farzandlar dog'in.

17.*Yangi yil sha'niga aytmoqdamiz so'z,*

18.*Balki o'tib ketar bir zum bu farah.*

19.*Xalqimning mehnatin aylagin ko'z-ko'z*

20.*Million chanoqlarda ko'pirgan qadah.*

İNCİ DİYAR İÇİN (42)

1. Kutlu meclislerde cem olduğu zaman,

2. Dostlara baht dilemek ezelî âdet.

3. Gelecek bu yıl barış olsun evvel,

4. Bahşetsin herkese ali saadet.

5. Gençlik, bu kervanın gözde devesidir,

6. Derya gibi taşkındır, dere gibi saf.

7. Gençlik geleceğin kurtarıcısıdır,

8. Hiç terk etmesin gençliği insaf.

9. Muteber analar, hanemiz güzelliği,

10. Babalar hayattır, aydındır cihan.

11. Barış namına bir rica şu ki,

12. Ortaya düşmesin zamansız hicran.

13.İnci diyarımız köz olsa eğer,

14. Hep sağ olsun daire zemin.

15. Başımızı okşayan şu halk muteber,

16. Ansızın çekmesin evlatlar gamını.

17. Yeni yıl şanına söylemekteyiz söz,

18. Belki geçip gider bir an bu ferah.

19. Halkımın emeğini göster övünerek

20. Milyonlarca kozalarda köpürmüş kadeh. (Kasım, 1983)

HASADGO‘Y HAQIDA (43)

1. *O‘zi oddiygina,*

2. *Kam yo‘q ishida,*

3. *Tonnalab ko‘mir bor*

4. *Lekin ichida.*

HASETÇİ HAKKINDA (43)

1. Kendisi çok basit,

2. Noksan yok işinde,

3. Tonlarca kömür var

4. Lakin içinde. (1983)

“SAMODA YURIBDI HANUZ YOLG‘IZ OY…” (44)

1. *Samoda yuribdi hanuz yolg‘iz oy,*

2. *Tanholik qiynaydi uni hoynahoy.*

3. *Yo‘qlikdan axtardim sening vaslingni,*

4. *Kim qayga sig‘insa, Ka’ba o‘sha joy.*

“SEMADA YÜRÜMÜŞ HENÜZ YALNIZ AY…” (44)

1. Semada yürümüş henüz yalnız ay,

2. Yalnızlık zulmeder ona belki.

3. Yokluktan aradım senin visalini,

4. Kim nereye sığınsa, kutsal işte o yer. (1983)

“SHUKR AYTAY, KO‘P YAXSHI UMR KO‘RDIM MEN…” (45)

1. *Shukr aytay, ko‘p yaxshi umr ko‘rdim men,*

2. *Goh yaydoq shamolday davron surdim men.*

3. *Lekin seni ko‘rsam bulut oldida*

4. *Chorasiz yo‘lbarsday hayron turdim men.*

“ŞÜKREDEYİM ÇOK İYİ ÖMÜR GÖRDÜM BEN…” (45)

1. Şükredeyim çok iyi ömür gördüm ben,
2. Bazen yay gibi, rüzgâr gibi devran sürdüm ben.
3. Lakin seni görsem bulut önünde
4. Çaresiz kaplan gibi şaşkın durdum ben. (1983)

“AZIZIM, PAYT KELDI, KO‘NGLIM YORAMAN…” (46)

1. *Azizim, payt keldi, ko‘nglim yoraman,*
2. *Insonman, sen horsang, men ham horaman.*
3. *Oting qamchilama o‘zg‘irman deya,*
4. *Sen borgan u joyga men ham boraman.*

“AZİZİM, VAKİT GELDİ, GÖNLÜM YANARIM…” (46)

1. Azizim, vakit geldi, gönlüm yanarım,
2. İnsanım, sen yorulsan, ben de yorulurum.
3. Atını kamçılama akıncıyım diye,
4. Senin gittiğin o yere ben de giderim. (1983)

“TUG‘ILSANG BAXT BILAN KAMOL O‘SHADIR…” (47)

1. *Tug‘ilsang baxt bilan kamol o‘shadir,*
2. *Tark etsang olamni zavol o‘shadir.*
3. *Oxir chog‘ tuprog‘ing ustiga kelib,*
4. *Kimdir yod aylasa, iqbol o‘shadir.*

“DOĞARSAN MUTLULUKLA KEMAL İŞTE ODUR…” (47)

1. Doğarsan mutlulukla kemal işte odur,
2. Terk etsen âlemi zeval işte odur.
3. Ahir küçük toprağın üstüne gelip,
4. Kim yâd etse, ikbal işte odur. (1983)

ETNA VULQONI (48)

1. *Hanuz yonib yotar Etna vulqoni,*
2. *Daf'atan o'xshar u olovrang gulga.*
3. *Oqib tubanlarga lava to'foni,*
4. *Sekin aylanadi qop-qora kulga.*

5. *Men uning qoshida saqladim sukut,*
6. *Ha, bir chog' olovli edi yo'llarim.*
7. *Endi u otashlar bo'ldilar unut,*
8. *Poyingda yotibdi endi... kullarim.*

ETNA VOLKANI (48)

1. Henüz yanar Etna volkanı,
2. Birden benzer o alev rengi güle.
3. Akıp aşağılara lav tufanı,
4. Yavaşça dönüşür kapkara küle.

5. Ben onun karşısında kaldım sessiz,
6. Evet, bir an alevliydi yollarım.
7. Şimdi o ateşler unutuldular,
8. Ayağında yatmış şimdi… küllerim. (Sicilya Adası, İtalya, 1984)

SAVOL (49)

1. *Tanho sahrolarga bosh olib ketsam.*
2. *Yo yiroq g'orlarni oshyon etsam,*
3. *Bedo'stu beyoron tugasam, bitsam,*
4. *Ko'ngling to'ladimi, o'shanda, ayt-chi?*

5. *Qolmasa dunyoda mendan xotirot,*
6. *Nainki xotirot, oddiy, jo'n bir ot.*
7. *Bo'lsa na bir qavmim, na xesh, na avlod,*
8. *Ko'ngling to'ladimi, o'shanda, ayt-chi?*

9. *Olamga o‘t qo‘ysa har aytar so‘zing,*

10.*Yiqsang dunyolarni - tikkan choq ko‘zing,*

11.*So‘ngra mo‘ri kabi qolsang bir o‘zing,*

12.*Ko‘ngling to‘ladimi, o‘shanda, ayt-chi!*

SORU (49)

1. Tenha sahralara başımı alıp gitsem.

2. Yahut uzak mağaraları aşiyan etsem,

3. Dostsuz ve arkadaşsız ölsem, bitsem,

4. Memnun olacak mısın, işte o anda, söyle?

5. Kalmasa dünyada benden hatırat,

6. Sahi mi hatırat, sıradan, zayıf bir at.

7. Olsa ne bir kavmim, ne akraba, ne evlat,

8. Memnun olacak mısın, işte o anda, söyle?

9. Âleme ateş salsa her söylediğin sözün,

10.Yıksan dünyaları diktiğin an gözünü,

11. Sonra boru gibi kalsan bir kendin,

12. Memnun olacak mısın, işte o anda, söyle? (1984)

O‘TINCH (50)

1. *Chindan ham asrimiz bormoqda o‘sib,*

2. *Har qanday kulfatga turmoq kerak shay.*

3. *Ajabmas, bobosin burchakka qisib,*

4. *Nasihat o‘qisa biror bolakay.*

5. *Ajabmas, erta kun bir shoir ukam,*

6. *She’rlar yozib yursa Somon yo‘lida.*

7. *Ajabmas, yo‘qolsa ajab so‘zi ham,*

8. *Tahrir topsa Inson zamon qo‘lida.*

9. *Har kimga o‘z davrin yo‘rig‘idir yor,*

10.*Mayli, tap tortmagin sen ham har ishdan.*

11.*Bolam, faqatgina bir o‘tinchim bor,*

12.*Hazar qilsang basdir harom-harishdan.*

RİCA (50)

1. Gerçekten de gitmekte asrımız gelişip,

2. Her külfete durmak gerekir hazır.

3. Tuhaf değil, dedesini köşeye sıkıştırıp,

4. Nasihat etse bir oğlan.

5. Tuhaf değil, ertesi gün bir şair kardeşim,

6. Şiirler yazsa Samanyolu’nda.

7. Tuhaf değil, kaybolsa tuhaf sözü de,

8. İcat bulsa İnsan zamanın elinde.

9. Herkese kendi devrinin aydınıdır yâr,

10. Olsun, çekinme sen de her işten.

11. Evladım, yalnızca bir ricam var,

12. Kaçınsan kâfidir haramdan. (1984)

MUSTAY KARIMGA (51)

1. *Ajab, bitta yurtning uchta nomi bor,*

2. *Garchi u uch nomlik bitta bo‘stondir.*

3. *Uzoq tarixlardan bir nom barqaror,*

4. *O‘rta Rossiyada Oygulistondir.*

5. *Ajab, bitta yurtning uchta nomi bor,*

6. *Oyguldan tarqalgan bir gulistondir.*

7. *Bu kun nomi uning metin va poydor,*

8. *U - aziz, mo‘tabar Boshqirdistondir.*

9. *Ajab, bitta yurtning uchta nomi bor,*

10.*Uchinchi ushbu nom menga ayondir.*

11.*Bu she'riy qo'rg'ondir, mangulikka yor,*

12.*Bu ulug' she'r yurti - Mustayistondir.*

MUSTAY KERİM'E (51)

1. Tuhaf, bir yurdun üç adı var,

2. Gerçi o üç adlı bir bostandır.

3. Kadim tarihlerden bir ad sabit,

4. Orta Rusya'da Aygülistan'dır.

5. Tuhaf, bir yurdun üç adı var,

6. Aygül'den dağılan bir gülistandır.

7. Bugün adı onun metin ve payidar,

8. O, aziz, muteber Başkurdistan'dır.

9. Tuhaf, bir yurdun üç adı var,

10.Üçüncü işte bu ad bana ayandır.

11. Bu şiirsel kaledir, sonsuzluğa yâr,

12. Bu ulu şiir yurdu Mustayistan'dır. (1984)

OFTOBSHUVOQ (52)

1. *Bahor kunlarida,*

2. *Oftobshuvoqda,*

3. *Hordiq olar edi ko'pincha onam.*

4. *Naykamalak balqsa Qo'ng'irtov yoqda,*

5. *Nechog' yosharardi bu ko'hna olam.*

6. *Xastalik qiynardi onamni biroq,*

7. *U chetga termulib uh tortar edi.*

8. *Bahor yoqsa hamki olamga charoq,*

9. *Mening yuragimda g‘am ortar edi.*

10.*Men onam yonida ivirsib beun,*
11.*Kun bo‘yi yurardim dilgir, betoqat.*
12.*Yiroq-yiroqlardan mungli va uzun,*
13.*Turnalar tovushin tinglardim faqat.*

14.*Shu-shu o‘nglanmadi onam rahmatlik,*
15.*Mening ham yillarim topdilar to‘zim.*
16.*Bugun onam kabi yolg‘iz, toqatlik,*
17.*Bahor quyoshiga boqaman o‘zim.*

18.*Endi meni ezar ming bitta xayol,*
19.*Ular o‘tkinchi do‘st, vafosiz yorlar.*
20.*Endi o‘zim dardkash, o‘zim jim va lol,*
21.*Endi o‘zim uchun tiyra bahorlar.*

22.*Iliq tomchilagan yomg‘ir ham goho*
23.*Tuyular onamning ko‘z yoshi bo‘lib.*
24.*Onam turganiday teppamda go‘yo*
25.*Bahorning mehribon quyoshi bo‘lib...*

BAHAR GÜNEŞİ (52)

1. Bahar günlerinde,
2. Bahar güneşinde,
3. İstirahat ederdi çoğunlukla anam.
4. Gökkuşağı parlasa Kongırtov tarafında,
5. Ne kadar gençleşirdi bu köhne âlem.

6. Hastalık zulmederdi anama fakat,
7. O köşeye gözünü dikip ah çekerdi.
8. Bahar hoşuna gitse de ki âleme çırağ,

9. Benim yüreğimde gam artardı.

10. Ben anamın yanında koşuşturup sessiz,
11.Gün boyu yürürdüm mahzun, takatsiz.
12.Çok uzaklardan sıkıntılı ve uzun,
13. Turnaların sesini dinlerdim yalnız.

14.O andan beri iyileşmedi anam rahmetli,
15. Benim de yıllarım buldular tahammül.
16. Bugün anam gibi yalnız, sabırlı,
17. Bahar güneşine bakarım kendim.

18.Şimdi beni ezer bin bir hayal,
19. Onlar fani dost, vefasız yârlar.
20.Şimdi kendim dertli, kendim sessiz ve lal,
21.Şimdi kendim için kara baharlar.

22. Ilık çiseleyen yağmur da bazen
23. Duyulur anamın gözyaşı olup.
24. Anamın durduğu gibi tepemde sanki
25. Baharın mihriban güneşi olup… (1984)

ODAM BOLALARI (53)

1. *Odam bolalari turfa naqadar,*
2. *Biri mo‘min bo‘lsa, boshqasi asov,*
3. *Biriga quyuqroq salom bersang gar,*
4. *Xushomadgo‘y deydi, nomingni darrov.*

5. *Mayliga, ataylab biror kun sen ham*
6. *Qad kerib, sipoyu o‘ychan bo‘lib yur.*
7. *Malomat yog‘ilar boshingga shu dam,*
8. *Seni aytdilar darhol takabbur.*

9. *Yaxshisi dilingda bo‘lsin muhabbat,*

10.*Oshkor etaverma uni jo‘rttaga.*

11.*Avliyo misoli jim yurgin faqat,*

12.*Ko‘zlardan yiroq bo‘l, chiqma o‘rtaga.*

İNSAN EVLATLARI (53)

1. İnsan evlatları tuhaf ne kadar,

2. Biri mümin olsa, diğeri asi,

3. Birine daha çok selam versen eğer,

4. Yalaka der, adına hemen.

5. Olsun, bilerek bir gün sen de

6. Dimdik, mütevazı ve düşünceli ol.

7. Melamet yağar başına şu dem,

8. Sana derler derhâl kibirli.

9. Doğrusu gönlünde olsun muhabbet,

10.Aşikâr etme onu bile bile.

11. Evliya misali sessiz yürü sadece,

12.Gözlerden uzak ol, çıkma ortaya. (1984)

QARDOSH SHOIRGA (54)

1. *Shahar talashmagin, daryo talashma,*

2. *Iste’dod talashma, daho talashma.*

3. *Tabiat yaratgan yaylovda xurram,*

4. *Bizdek o‘tlab yurgan jonzodsan sen ham.*

5. *Bu ko‘hna tuproqni kovlasang agar,*

6. *Chiqar necha nomsiz daryo va shahar.*

7. *Kechmish daholarning aytgan so‘zlari -*

8. *Ahli diyonatning mulkidir bari.*

9. *Tangrini ilk bora o‘ylab topgan kim?*

10.*Bu savol qoshida barchamiz ham jim...*

11.*Qurbing yetsa magar qo‘rg‘on yaratgin,*

12.*Olamni o‘zingga mayli, qaratgin.*

13.*Qimmat bergin bizga asl, bebaho,*

14.*Nomingni ataylik mayliga, daho!*

15.*Tariqday zamin bir va Inson birdir,*

16.*Bilmagan mardumga bu holni bildir!*

17.*Shunda men qoshingda egarman boshim*

18.*Va seni atarman chindan qardoshim!*

KARDEŞ ŞAİRE (54)

1. Şehir tartışma, derya tartışma,

2. İstidat tartışma, deha tartışma.

3. Tabiat yarattığı yaylada mesut,

4. Biz gibi otlayan canlısın sen de.

5. Bu köhne toprağı kazsan eğer,

6. Çıkar nice adsız derya ve şehir.

7. Geçmiş dehaların söylediği sözleri,

8. Ehl-i vicdanın mülküdür hepsi.

9. Tanrı’yı ilk kez düşünüp bulan kim?

10. Bu soru karşısında hepimiz sessiz…

11.Güç yetse eğer kale inşa et,

12.Âlemi kendine pekâlâ, celbet.

13.Kıymet ver bize asıl, pahasız,

14.İsmine diyelim pekâlâ, deha!

15. Darı gibi zemin bir ve İnsan birdir,

16. Bilmeyen millete bu hâli bildir!

17.İşte orada ben karşında eğerim başımı

18. Ve sana derim gerçekten kardeşim! (1984)

TUNISLIK BOLA (55)

Rimda Tunisdan ish axtarib kelgan

bir o‘spirin ustidan benzin quyib

yoqib yubordilar.

1. *Afsus, razolatga botdi bu ochun,*
2. *Aybni yaratganga to‘nkamoq nechun.*
3. *Senga o‘t qo‘ydilar bir ermak uchun,*
4. *Rimga nega kelding tunislik bola?*

5. *Bilaman, sen uchun parcha non qahat,*
6. *Zamin mozor bo‘lsa, Afrika lahad.*
7. *O‘t qo‘ysa, o‘t qo‘ysin o‘z eling faqat,*
8. *Rimga nega kelding tunislik bola?*

9. *Bu shundoq manzilki, do‘stni yovlaydi,*
10. *Ota o‘z farzandin avrab tovlaydi.*
11. *Bu yurtning sayyodi odam ovlaydi,*
12. *Rimga nega kelding tunislik bola?*

13. *Shundoq holga kelmish qadimiy Lotin,*
14. *Bulg‘alar sharafin, bulg‘alar zotin,*
15. *Chumolicha ko‘rmas odam hayotin,*
16. *Rimga nega kelding tunislik bola?*

17. *Ha, olov ostida butkul yer yuzi,*
18. *Tutunga to‘lmoqda odamzod ko‘zi,*
19. *Yonib ketmasaydi zaminning o‘zi,*
20. *Rimga nega kelding tunislik bola?*

TUNUSLU ÇOCUK (55)

Rim'de Tunus'tan iş arayıp gelen

bir gencin üstüne benzin döküp

yaktılar.

1. Maalesef, rezalete battı bu acun,
2. Ayıbı yaratanı suçlamak niçin.
3. Seni kasten yaktılar bir eğlence için,
4. Rim'e niye geldin Tunuslu çocuk?

5. Anlarım, sen bir parça ekmeğe muhtaçsın,
6. Zemin mezar olsa Afrika kabir.
7. Kasıtlı yakarsa yaksın kendi halkın yalnız,
8. Rim'e niye geldin Tunuslu çocuk?

9. Bu öyle menzil ki, dosta saldırır,
10. Baba öz evladını yoldan çıkarır.
11. Bu yurdun avcısı insan avlar,
12. Rim'e niye geldin Tunuslu çocuk?

13.Öyle hâle gelmiş ki Kadimî Latin,
14. Kirletir şerefini, kirletir zatını,
15. Karınca gibi görmez insan hayatını,
16. Rim'e niye geldin Tunuslu çocuk?

17. Evet, ateş altında büsbütün yeryüzü,
18. Dumanla dolmakta insanlık gözü,
19. Yanıp gitmeseydi zeminin özü,
20. Rim'e niye geldin Tunuslu çocuk? (1984)

“RAVO KO‘R, YUZINGDA BIR XOL BO‘LAYIN…” (56)

1. *Ravo ko‘r, yuzingda bir xol bo‘layin,*

2. *Ko‘rsat ag‘yoringni, zavol bo‘layin.*

3. *Kattakon to‘y qilib nog‘ora chalgin,*

4. *To‘yingda suv tashib hammol bo‘layin.*

“REVA GÖR, YÜZÜNDE BİR BEN OLAYIM…” (56)

1. Reva gör, yüzünde bir ben olayım,

2. Göster hasmını, zeval olayım.

3. Görkemli toy kılıp kudüm çal,

4. Toyunda su taşıyıp hamal olayım. (1984)

“OFTOB BOTIB KETDI, EGILDI BOSHIM…” (57)

1. *Oftob botib ketdi, egildi boshim,*

2. *Yulduzdek sochildi ko‘zimdan yoshim.*

3. *Hajringda bag‘rimni yerga berurman,*

4. *Tun bir lahad bo‘lsa, oy qabr toshim.*

“AFİTAP BATIP GİTTİ, EĞİLDİ BAŞIM…” (57)

1. Afitap batıp gitti, eğildi başım,

2. Yıldız gibi saçıldı gözümden yaşım.

3. Hicrinde bağrımı yere veririm,

4. Gece bir kıtlık olsa, ay kabir taşım. (1984)

“OQAR DARYOGA HAM KIMDIR BAND BERGAN…” (58)

1. *Oqar daryoga ham kimdir band bergan,*

2. *Hayot kimga zahar, kimga qand bergan.*

3. *Ey, g‘ofil, sarkash deb meni kamsitma,*

4. *G‘anim senga emas, menga pand bergan.*

“AKARSUYA KİM BENT VERMİŞ…” (58)

1. Akarsuya kim bent vermiş,
2. Hayat kime zehir, kime şeker vermiş.
3. Ey, gafil, serkeş diye beni küçümseme,
4. Düşman sana değil, bana kazık atmış. (1984)

“BILAMAN, O‘TADI SHODLIK BILAN G‘AM…” (59)

1. *Bilaman, o‘tadi shodlik bilan g‘am,*
2. *Bilaman, g‘animat erur har bir dam.*
3. *Payg‘ambar atadim har zotni, ammo,*
4. *Muridim demadi hech bitta odam.*

“BİLİRİM, GEÇER SEVİNÇLE GAM…” (59)

1. Bilirim, geçer sevinçle gam,
2. Anlarım, ganimettir her bir dem.
3. Peygamber derim her zata, ama,
4. Müridim demedi hiçbir insan. (1984)

“OH, O‘TGAN U KUNLAR QAYTMAGAY ZINHOR…” (60)

1. *Oh, o‘tgan u kunlar qaytmagay zinhor,*
2. *O‘chgan muhabbatning yonmog‘i dushvor.*
3. *Nigohing qadama qarog‘imga sen,*
4. *Unda to‘kilmagan ko‘z yoshlarim bor.*

“AH, GEÇEN O GÜNLER DÖNMEYECEK ZİNHAR…” (60)

1. Ah, geçen o günler dönmeyecek zinhar,
2. Sönen muhabbetin yanması zor.
3. Bakışını dikme göz bebeğime sen,
4. Onda dökülmeyen gözyaşlarım var. (1984)

O‘ZBEKISTON BAYROG‘I (61)

1. *Har qanday lashkarning ham*
2. *O‘z tug‘i, yalovi bor,*
3. *Sen qaysi saltanatdan,*
4. *Sen qaysi davlatdan kam.*
5. *Qo‘rg‘onlar qatorida*
6. *Bir qo‘rg‘onsan ustuvor,*
7. *Vallamat, tug‘dor yurtim,*
8. *Muhtasham Respublikam.*

9. *O‘ylayman, ha, olamda*
10.*Nisbiy erur ko‘p holat,*
11.*Zamona g‘alviridan*
12.*Har narsa o‘taverar.*
13.*Tarix uchun va lekin*
14.*Kim ham bergay kafolat,*
15.*Yakka inson bir yo‘lchi:*
16.*Kelaru ketaberar.*

17.*Qadim-qadim zamonda*
18.*Yunonlik haykaltarosh,*
19.*Bir san’at yaratibdi,*
20.*Maqsadi - bir burda non.*
21.*Haykal esa asrlar*
22.*Sinoviga bermish dosh,*
23.*Bugun uni ko‘klarga*
24.*Ko‘tarar butkul jahon.*

25.*Ko‘zni kattaroq ochib*
26.*Boqsang bu muammoga,*
27.*Alam qilgulik qadar*
28.*Kam yashar inson zoti,*
29.*Faqatgina xalq sohib*

30.*Bardavom bu dunyoga,*
31.*Asragay har kas nomin*
32.*Faqat xalqning hayoti.*

33.*Sanasang hodisot mo‘l*
34.*O‘zbekning tarixida,*
35.*Har biriga bir noma*
36.*Yoki doston bitgulik.*
37.*Ne zotlar oqmagan bu*
38.*Asrlar arig‘ida,*
39.*Har biri bitta xalqning*
40.*G‘ururiga yetgulik.*

41.*Barchaga ayon erur*
42.*Men aytgan ushbu gaplar,*
43.*To hanuz asablarni*
44.*Ezg‘ilar bu shum o‘tmish.*
45.*Moziyga o‘qtin-o‘qtin*
46.*Sochsak hamki g‘azablar,*
47.*Lekin ayting, o‘zbekning*
48.*Qo‘lidan kim ham tutmish?*

49.*Bir kuni yovqur shoir*
50.*Ya’ni Turdi Farg‘oniy,*
51.*Bo‘ltak bo‘lgan bu xalqqa*
52.*Birlash deb qildi xitob.*
53.*Bejavob qolaberdi*
54.*Uning dardli so‘rog‘i,*
55.*O‘sha-o‘sha zamin kar,*
56.*O‘sha-o‘sha gung oftob.*

57.*Bugun zimdan nazar sol*
58.*Sen mana bu bayroqqa,*

59.*Mayliga bir daqiqa*

60.*Unutgin turfa kekni.*

61.*Shu bayroq nomimizni*

62.*Eltdi yiroq-yiroqqa,*

63.*Shu bayroq birlashtirdi*

64.*Parokanda o‘zbekni.*

ÖZBEKİSTAN BAYRAĞI (61)

1. Her askerin de

2. Kendi bayrağı, sancağı var,

3. Sen hangi saltanattan,

4. Sen hangi devletten eksik.

5. Kaleler sırasında

6. Bir kalesin müstahkem,

7. Önder, bayraktar yurdum,

8. Muhteşem Cumhuriyetim.

9. Düşünürüm, evet, âlemde

10. Nispidir çok hâlet,

11. Zamane kalburundan

12. Her şey geçiverir.

13. Tarih için velakin

14. Kim de verecek kefalet,

15. Yalnız insan bir yolcu:

16. Gelir ve gidiverir.

17. Kadim kadim zamanda

18. Yunanlı heykeltıraş,

19. Bir sanat yaratmış,

20. Maksadı bir parça ekmek.

21. Heykel ise asırlar

22.Sınavına etmiş tahammül,

23. Bugün onu göklere

24.Büsbütün kaldırır cihan.

25.Gözü daha büyük açıp
26. Baksan bu muammaya,
27. Elem kılacak kadar
28. Eksik yaşar insan zatı,
29. Yalnızca halk sahip
30. Devamlı bu dünyaya,
31. Koruyacak her insan adını
32. Yalnız halkın hayatı.

33. Saysan hadisat çok
34.Özbek'in tarihinde,
35. Her birine bir mektup
36. Yahut destan yazmalık.
37. Ne zatlar akmayan bu
38. Asırlar arığında,
39. Her biri bir halkın
40. Gururuna yetmelik.

41. Hepsine ayandır
42. Benim söylediğim işte bu sözler,
43. Henüz sinirleri
44. Gerer bu kötü geçmiş.
45. Maziye zaman zaman
46. Saçsak da gazaplar,
47. Lakin söyleyin, Özbek'in
48. Elinden kim de tutmuş?

49. Bir gün cesur şair
50. Yani Turdı Ferganî,
51. Parçalanmış bu halka
52. Birleş, diye etti hitap.

53. Cevapsız kalıverdi
54. Onun dertli sorusu,
55.İşte o zemin sağır,
56.İşte o dilsiz afitap.

57. Bugün sessizce dikkatle bak
58. Sen işte bu bayrağa,
59. Olsun bir dakika
60. Unut tuhaf kini.
61.Şu bayrak namımızı
62.Götürdü uzaklara,
63.Şu bayrak birleştirdi
64. Dağılmış Özbek'i. (1984)

KO'ZGU PARCHALARI (62)

1. *Ko'zgu parchalari yo'lakda yotar,*
2. *Unsiz sharpalari ruhimga botar.*

3. *Yuzlarim aks etar bir parchasida,*
4. *Ko'zlarim aks etar bir parchasida.*

5. *Birida osmon aks etsa agar,*
6. *Birida qushlarning raqsi jilvagar.*

7. *Olamning yaxlit bir suvratin ammo,*
8. *Namoyon etolmas bu ko'zgu aslo.*

9. *Xilqat uning uchun but bo'lmas mangu,*
10.*Axir, parcha-parcha singan ko'zgu bu.*

11.*Meni ma'zur tutgin, muhtaram Inson,*

12.*Suvrating chizolmay turibman hayron.*

13.*Bir kun fazilating olsam qalamga,*
14.*Bir kun qabihliging yoygum olamga.*

15.*Bir kun ko‘z yoshlaring qog‘ozimdadir,*
16.*Bir kun zaharxandang ovozimdadir.*

17.*Bir kun o‘tmishingdan faryod solurman,*
18.*Bir kun iqbolingdan o‘yga tolurman.*

19.*Sening bo‘y-bastingni ko‘rsatmoq uchun,*
20.*Ko‘zgu kerak axir yaxlit va butun.*

21.*Shoir yuragi-chi, olamda yakkash*
22.*O‘sha chil-chil singan ko‘zguga o‘xshash.*

AYNA PARÇALARI (62)

1. Ayna parçaları yolda durur,
2. Sessiz uğultuları ruhuma batar.

3. Yüzüm akseder bir parçasında,
4. Yüzüm akseder bir parçasında.

5. Birinde asuman aksetse eğer,
6. Birinde kuşların raksı cilveli.

7. Âlemin tam bir suretini ama,
8. Aşikâr edemez bu ayna asla.

9. Hilkat onun için tam olmaz sonsuz,
10. Ahir, parça parça kırılmış ayna bu.

11. Beni mazur gör, muhterem İnsan,
12. Suretini çizemeden durmuşum şaşkın.

13. Bir gün faziletini alsam kaleme,
14. Bir gün rezilliğini yayacağım âleme.

15. Bir gün gözyaşların kâğıdımdadır,
16. Bir gün istihzan avazımdadır.

17. Bir gün geçmişinden feryat ederim,
18. Bir gün ikbalinden düşünceye dalarım.

19. Senin boyunu posunu göstermek için,
20. Ayna gerek nihayetinde tam ve bütün.

21.Şairin yüreği âlemde daima
22.İşte o parça parça kırılan aynaya benzer. (1985)

MENGA HAYOTNI BER (63)

1. *Sen mening dardimga qilibsan havas,*
2. *Havasing kelibdi shifoxonamga.*
3. *Demishsan: "Yor unga omad har nafas,*
4. *Ayricha iltifot bor bu odamga..."*

5. *Sen-ku, yovqur Inson, sog' va salomat,*
6. *Tog'larni yiqadi purkkan nafasing.*

7. *Bilmadim, yuz bermish qanday adovat,*
8. *Zaqqum dorularga kelmish havasing.*

9. *Menga odam fe'li ayondir bir oz,*
10. *Oshnoman men uning ginalariga.*
11. *Ajabo, bor ekan sendek ishqiboz,*
12. *Doktorning tig'iyu ninalariga.*

13. *Ruhimda osoyish, dilimda charog',*
14. *Shifokor ahliga o'qurman tahsin.*
15. *Lekin xitob aylay senga ushbu chog':*
16. *Olgin, dardlarimning olgin barchasin!*

17. *Oydin palatalar sengadir tortiq,*
18. *Shiftga boqqaningcha qomating kergil.*
19. *Menga bu hashamlar kerakmas ortiq,*
20. *Menga o'z kulbai xonamni bergil.*

21. *Jarroh nashtari ham sengadir nisor,*
22. *Senga, tabobatning jami malhami.*
23. *Menga-chi, bir umr baxsh etsin mador,*
24. *Munis do'stlarimning mehr olami.*

25. *Darddan arimasin vujuding hech bir,*
26. *Yo'ldosh niyatingga yetishgin shitob.*
27. *Menga mashaqqatli tiriklikni ber,*
28. *Menga bo'la qolsin mangu shu azob.*

29. *Shoir yashamaydi aslo bealam*
30. *Va biron kimsaga istamas balo.*
31. *Lekin o'zgalarning kulfatiga ham,*
32. *Hasad qilganlarga shu tilak ravo...*

BANA HAYATI VER (63)

1. Sen benim derdime etmişsin heves,
2. Hevesin gelmiş şifahaneme.
3. Demişsin: “Yâr ona baht her nefes,
4. Ayrıca iltifat var bu insana…”

5. Sen, cesur İnsan, sağ ve selamet,
6. Dağları yıkar püsküren nefesin.
7. Anlamadım, oluşmuş nasıl adavet,
8. Zakkum darılara gelmiş hevesin.

9. Bana insan mizacı ayandır biraz,
10. Aşinayım ben onun sitemlerine.
11. Acaba, varmış senin gibi âşık,
12. Doktorun neşter ve iğnelerine.

13. Ruhumda asayiş, gönlümde çırağ,
14. Şifacı ehline yağdırırım övgü.
15. Lakin hitap edeyim sana işte bu an:
16. Al, dertlerimi al hepsini!

17. Aydın şifahaneler sanadır hediye,
18. Tavana baktığın sürece dimdik dur.
19. Bana bu kaygılar gerekmez artık,
20. Bana kendi kulübe-i hanemi ver.

21. Cerrah neşteri de sanadır hediye,
22. Sana, tıbbın tüm merhemi.
23. Bana, bir ömür bahşetsin güç,
24. Munis dostlarımın şefkat âlemi.

25. Dertten erimesin vücudun hiç,
26. Yoldaş niyetine yetişsin acele.
27. Bana meşakkatli diriliği ver,
28. Bana olsun sonsuz şu azap.

29.Şair yaşamaz asla elemsiz
30. Ve viran kimseye istemez bela.
31. Lakin başkalarının külfetine de,
32. Haset edenlere şu dilek reva… (1985)

DIALEKTIKA (64)

1. *Men hayotni sobit holda ko‘rmadim aslo,*
2. *Tuzilgan u agarlardan va magarlardan.*
3. *Deylik, biror firibgarga duch kelgan asno,*
4. *Iboratmi deysan hayot firibgarlardan.*

5. *Qattol urush davom etgan elning shoiri*
6. *She’r bitadi hasratga yo g‘azabga to‘lib.*
7. *Kimki agar biror dardning bo‘lsa asiri,*
8. *Tuyuladi butun olam unga dard bo‘lib.*

9. *Sevishganlar uchun esa dunyo bir jannat,*
10.*Oy-chi, nondek tuyuladi qorni ochlarga.*
11.*Butkul hayot diydasi yo‘q tosh erur faqat,*
12.*Kuning qolsa deylik faqat bag‘ritoshlarga.*

13.*Faylasuflar so‘z ochsa gar abadiyatdan,*
14.*O‘ylaysizki, har bir onim mangulikka yor.*
15.*Inson zoti ayri tushmas aslo niyatdan,*
16.*Ne tilasang shuni bergay, degan gap ham bor.*

17.*Modomiki shundoq ekan tabiat asl,*

18.*Sobit narsa qanday o‘zi? Boqiylik qayon?!*
19.*Bo‘larmikan bu dunyoda bir murod hosil,*
20.*Tugallikka yetisharmi biror kun jahon!*

21.*Shoir ahli kuylarmikan bitta qo‘shiqni,*
22.*Bormi ekan bu dunyoda oliy, komron dam.*
23.*Quyosh bir kun chulg‘armikan har to‘rt ufqni,*
24.*Tug‘ilarmi baxti komil, bus-butun odam?*

25.*Bu - bir xayol, chorasi yo‘q armondir xolos,*
26.*Hamishalik qo‘shni erur kunduz bilan tun.*
27.*Yolg‘on dasti gar dunyoda bo‘lolmas daroz,*
28.*Lekin haqning qo‘llari ham emasdir uzun.*

29.*Chora bitta: Niyatingni ezgulikka bur,*
30.*Faqat shunda go‘zal bo‘lib ko‘ringay falak.*
31.*Yo‘qsa hasrat og‘ushida o‘tgaydir umr,*
32.*Bamisoli o‘ra ichra qolgan kapalak…*

DİYALEKTİK (64)

1. Ben hayatı sabit hâlde görmedim asla,
2. Kurulmuş o eğerlerden ve meğerlerden.
3. Diyelim, bir hilekâra rastladığın esnada,
4. İbaret mi dersin hayat hilekârlardan.

5. Zorlu savaşı devam eden halkın şairi
6. Şiir yazar hasretle ve gazapla dolup.
7. Kim ki bir derdinin olsa esiri,
8. Duyulur bütün âlem ona dert olup.

9. Sevenler için ise dünya bir cennet,
10. Ay, ekmek gibi duyulur karnı açlara.

11.Büsbütün hayat gözü olmayan taştır yalnız,
12.Günün kalsa diyelim yalnız bağrı taşlara.

13. Filozoflar söz açsa eğer ebediyetten,
14.Düşünürsünüz ki, her bir anım sonsuzluğa yâr.
15.İnsan zatı ayrı düşmez asla niyetten,
16. Ne dilersen onu verecek, diye söz de var.

17. Mademki öyleymiş tabiat asıl,
18. Sabit şey nasıl kendisi? Bakilik nereye?!
19. Olur mu ki bu dünyada bir murat hasıl,
20. Nihayete yetişir mi bir gün cihan!

21.Şair ehli söyler mi ki bir koşuğu,
22. Var mıymış bu dünyada ali, mesut dem.
23.Güneş bir gün sarar mı ki her dört ufku,
24. Doğar mı baht-ı kâmil, büsbütün insan?

25. Bu, bir hayal, çaresi olmayan ukdedir yalnız,
26. Her daim komşudur gündüzle gece.
27. Yalan desti eğer dünyada olamaz büyük,
28. Lakin hakkın elleri de değildir uzun.

29.Çare tek: Niyetini iyiliğe çevir,
30. Yalnız işte orada güzel olacak felek.
31. Yoksa hasret bağrında geçecektir ömür,
32. Sanki mahzen içinde kalan kelebek… (1985)

HAR QANDAY DAMDA HAM... (65)

1. *Ko‘ngling sovimasin qilar ishingdan,*
2. *Hafsalang so‘nmasin hech qachon.*
3. *Ma’no topolmaysan o‘z turmushingdan,*

4. *Tussiz, zerikarli ko‘rinar jahon.*

5. *Ko‘hna objuvozday aylanar dunyo,*

6. *Ohangi miyangga sassiz quyular.*

7. *Mingga kirgandaysan o‘zing ham go‘yo,*

8. *Kelajak o‘tmishing kabi tuyular.*

9. *Yashaysan nomi yo‘q bir dardga to‘lib,*

10. *Tomirdan qoning ham go‘yo oqmaydi.*

11. *Nainki do‘st so‘zi, nainki mahbub,*

12. *Bolangning sho‘xligi yoqmaydi.*

13. *Sokin kechalari, ayvonda yolg‘iz,*

14. *Olis yulduzlarga boqasan to‘nib.*

15. *Ular ham ko‘zingga ko‘rinar bu kez,*

16. *Juda uzoq borsa, yonar qurt bo‘lib.*

17. *Shundoq, inson dili ajib muammo,*

18. *Koyima bundayin holati uchun.*

19. *Qo‘lingdan kelsa gar madad ber, ammo,*

20. *Har qanday damda ham sen uni tushun.*

HER DEMDE DE… (65)

1. Gönlün soğumasın yaptığın işinden,

2. Hevesin bitmesin hiçbir zaman.

3. Mana bulamazsın kendi hayatından,

4. Renksiz, sıkıcı görünür cihan.

5. Köhne su değirmeni gibi döner dünya,

6. Ahengi beynine sessiz dökülür.

7. Bine girmiş gibisin kendin de sanki,

8. Gelecek geçmişin gibi hissedilir.

9. Yaşarsın adı olmayan bir dertle dolup,

10. Damardan kanın da sanki akmaz.

11. Sahi mi dost sözü, sahi mi mahbup,

12. Evladının yaramazlığı hoşuna gitmez.

13. Sessiz geceleri, eyvanda yalnız,

14. Uzun yıldızlara bakarsın donup.

15. Onlar da gözüne görünür bu kez,

16. Çok uzağa gitse, yanar kurt olup.

17.Öyle, insan gönlü ilginç muamma,
18. Yakınma böyle hâleti için.
19. Elinden gelirse eğer medet ver, ama,
20. Her demde de sen onu düşün. (1985)

BINAFSHA DIYORI (66)

1. *Telefon jiringlar,*
2. *Eshik qoqilar...*
3. *Takror bu hodisa*
4. *Kechmi yo nahor.*
5. *Yashil gulxanlaring*
6. *Qachon yoqilar,*
7. *Qish bo‘yi men seni*
8. *Kutdim-ku, Bahor.*
9. *Endi xush kela qol,*
10.*Dilbar Bahorim,*
11.*Endi xush kela qol,*
12.*Kelgin, marhabo.*
13.*Muhabbatim yodi,*
14.*Gulgun uzorim,*
15.*Bitilmagan she’rim,*
16.*Sehrli sado.*
17.*Sensiz tilak bilan*
18.*Yasharmas olam,*
19.*Sensiz niyat bilan*
20.*O‘zgarmas borliq,*
21.*Gul umri qanchalik*
22.*Qisqa bo‘lsa ham,*
23.*Lekin berib ketar*
24.*Yashashga yorliq.*
25.*Bahorim, kelaver*
26.*Qayta va qayta,*
27.*Dilkash do‘stim kabi*
28.*Eshigimni qoq.*
29.*Sog‘inch qo‘shiqlarin*

30.*Men ayta-ayta,*

31.*Mayli, yo‘llaringda*

32.*Tolayin mushtoq.*

33.*Ulug‘ dashtlar bilan*

34.*Tog‘lar orasi*

35.*Amu bilan Sirga*

36.*Payvastdir jonim,*

37.*Bundadir chamanning*

38.*Asli, sarasi.*

39.*Binafsha yurti bu -*

40.*O‘zbekistonim...*

41.*Telefon jiringlar,*

42.*Eshik qoqilar...*

43.*Takror bu hodisa*

44.*Kechmi yo nahor.*

45.*Yashil gulxanlaring*

46.*Qachon yoqilar,*

47.*Erkaliging tutmay,*

48.*Kelsang-chi, Bahor!*

MENEKŞE DİYARI (66)

1. Telefon çalar,

2. Kapı tıklanır…

3. Tekrar bu hadise

4. Gece mi yahut gündüz mü?

5. Yeşil ateşlerin

6. Ne zaman açılır?

7. Kış boyu ben seni

8. Bekledim, Bahar.

9. Şimdi hoş gel,

10. Dilber Bahar’ım,

11.Şimdi hoş gel,

12. Gel, merhaba.

13. Muhabbetimin yâdı,

14.Güzel ruhsârım,

15. Yazılmamış şiirim,
16. Sihirli seda.
17. Sensiz dilekle
18. Gelişmez âlem,
19. Sensiz niyetle
20. Değişmez varlık,
21.Gülün ömrü ne kadar
22.Kısa olsa da,
23. Lakin verir
24. Yaşamaya yarlık.
25. Baharım, geliver
26. Tekrar ve tekrar,
27. Hoşsohbetli dostum gibi
28. Kapımı çal.
29.Özlem koşuklarını
30. Ben söyleye söyleye,
31. Peki, yollarında
32. Dolayım müştak.
33. Ulu bozkırlarla
34. Dağlar arası
35. Amu'yla Sir'e
36. Peyvesttir canım,
37.İşte buradadır gülistanın
38. Aslında, âlâsı.
39. Menekşe yurdu bu,
40.Özbekistan'ım…
41. Telefon çalar,
42. Kapı tıklanır…
43. Tekrar bu hadise
44. Gece mi yahut gündüz mü?
45. Yeşil ateşlerin
46. Ne zaman yakılır?
47. Naz yapmadan,
48. Gelsen, Bahar! (1985)

JO‘JA (67)

1. *Bir voqea xayolimdan ketmas sira ham,*
2. *Bamisoli bolaligim aks etgan ko‘zgu.*
3. *Bizning engil-boshimizni yuvay deb onam,*
4. *Tong chog‘idan doshqozonda qaynatardi suv.*

5. *Tong chog‘idan yonar edi saksovul chatnab,*
6. *O‘choq ichra taram-taram, laxcha-laxcha cho‘g‘.*
7. *Bir qarasang, chamanzorday turardi chaqnab,*
8. *Bir qarasang, lolazordan zarra farqi yo‘q.*

9. *O‘sha asno daydib yurgan o‘rdak jo‘jasi,*
10.*Qiziqsinib yaqin keldi o‘choqqa tomon.*
11.*Anqaygancha bir soniya turdi chamasi,*
12.*So‘ng daf’atan o‘tga urdi o‘zin beomon.*

13.*Uning sariq vujudchasi “lov” etdi faqat,*
14.*Bilmam, uni maftun etmish qandoq manzara?*
15.*Ne bo‘lsa ham xotiramda qoldi shu holat,*
16.*Mening murg‘ak shuurimda ochildi yara.*

17.*Yillar o‘tdi, ne mardona zotlarni ko‘rdim,*
18.*Otashlarda bunyod bo‘lib, olovlar kechgan.*
19.*Haq yo‘lida ketayotib fidoyi mardum,*
20.*Lazo bo‘lib parovozning o‘tini ichgan.*

21.*Bu dunyoda olovlar ko‘p, otashgohlar mo‘l,*
22.*Adolat deb yonganlarga abadiy sharaf.*
23.*Lekin, ukam, bir gapimdan mening ogoh bo‘l,*
24.*Chopaverma har yilt etgan olovga qarab.*

25.*Ha, dunyoda olovlar ko‘p, birisi - mayoq,*

26.*Biri esa jahannamning o‘zi chinakam.*

27.*Eplasang gar zulmatlarda yoqa ol charog‘,*

28.*Xotiringda tursin lekin o‘sha jo‘ja ham.*

YAVRU ÖRDEK (67)

1. Bir vaka hayalimden gitmez hiç de,

2. Sanki çocukluğumun aksettiği ayna.

3. Bizim üst başımızı yıkayayım diye anam,

4. Şafak vaktinde büyük kazanda kaynatırdı su.

5. Şafak vaktinde yanardı saksavul çatırdayıp,

6. Ocak içinde rengârenk çizgili, yanan köz.

7. Bir baksan, gülşen gibi dururdu parlayıp,

8. Bir baksan, lalezardan zerre farkı yok.

9. İşte o esna başıboş gezen ördek yavrusu,

10. Merak edip yaklaştı ocağa doğru.

11.Şaşırınca bir saniye durdu tahminen,

12. Sonra birden ateşe attı kendini amansız.

13. Onun küçük, sarı vücudu alev aldı yalnız,

14. Bilmem, onu meftun etmiş nasıl manzara?

15. Ne de olsa hatıramda kaldı şu hâlet,

16. Benim nazik şuurumda açıldı yara.

17.Yıllar geçti ne mert zatları gördüm,

18. Ateşlerde bünyâd olup, alevler geçmiş.

19. Hak yolunda giden fedai halk,

20. Lazâ[133] olup buharlı lokomotifin ateşini içmiş.

[133] 1. Ateş, alev. 2. Cehennemin bir adıdır.

21. Bu dünyada alevler çok, ateşgâhlar bol,
22. Adalet diye yananlara ebedî şeref.
23. Lakin, kardeşim, bir sözümden benim agah ol,
24. Koşuverme her parlayan aleve doğru.

25. Evet, dünyada alevler çok, birisi deniz feneri,
26. Birisi ise cehennemin kendisi asıl.
27. Becerirsen eğer zulmetlerde boğ çırağ,
28. Hatıranda dursun lakin o yavru ördek de. (1985)

ZAMON ARAVASI (68)

1. *Shunday bir qavm bor -*
2. *Izg‘ib yuradi,*
3. *Davru davralarning chorrahasida.*
4. *O‘tgan har otliqni poylab turadi,*
5. *Bir nima undirib qolmoq qasdida.*
6. *Zamon aravasi kelganda shitob,*
7. *Ta’magir bu qavm endi netadi?*
8. *Qudratli qutquga berolmasdan tob,*
9. *G‘ildirak ostida qolib ketadi.*

ZAMAN ARABASI (68)

1. Öyle bir kavim var,
2. Başıboş gezer,
3. Devran sürenlerin kavşağında.
4. Geçen her atlıyı gözleyip durur,
5. Bir şey ele geçirmek kastında.
6. Zaman arabası geldiğinde acele,
7. Tamahkâr bu kavim şimdi ne yapar?
8. Kudretli fitneciye veremeden zaman,
9. Tekerlek altında kalıp gider. (1985)

SENI ONA DEDIM... (69)

1. *Seni ona dedim,*
2. *Ko‘zim o‘ngida*
3. *Mushfiq u qiyofang bo‘ldi namoyon.*
4. *Parcha et qoshida bedor bir diyda,*
5. *Sadoqati cheksiz, mehri bepoyon.*

6. *Yo‘lbarsday yigitni o‘stirib, jangga*
7. *Kuzatgan ham o‘zing, kutgan ham o‘zing.*
8. *Qaro sochlaringda oppoq alanga,*
9. *Hijron zaqqumlarin yutgan ham o‘zing.*

10.*Nechog‘li qudratli bo‘lmasin fursat,*
11.*O‘chirib bo‘larmi dildan bu g‘amni.*
12.*Onajon, qolganlar baxtiga faqat,*
13.*Olov chulg‘amasa basdir olamni.*

14.*Seni singlim dedim,*
15.*Qarshimda shu on*
16.*Munis va jafokash chehrang ko‘rindi.*
17.*Sambitday vujuding tonglarda giryon*
18.*Muzqotgan dalalar ichra urindi.*

19.*Qandoq aziz edi bir dona boshoq,*
20.*Topganda rang ingan yonoqlaringga.*
21.*Nasibang ninaday sanchildi u choq,*
22.*Palak tikadigan barmoqlaringga.*

23.*Aslo unutilmas u kunlar yodi,*
24.*Har biri bamisli tosh qotgan marjon*
25.*Qora saharlarning mash’um faryodi,*
26.*Takror bo‘lmasa bas endi, singiljon.*

27.*Seni yorim dedim,*

28.*Turding qoshimda*

29.*Mehru muhabbatning timsoli bo‘lib.*

30.*Gohi ona kabi bedor boshimda,*

31.*Gohida bir singil misoli bo‘lib.*

32.*Ulug‘ tiriklikda sen davom etding,*

33.*Tan olmay umrlar nihoyasini.*

34.*Bolangni bag‘ringga bosib eshitding,*

35.*Qonli janggohlarning hikoyasini.*

36.*Sen desam, ming yillar sajdaga kelib*

37.*Poyingga chechakday to‘shalmog‘i chin.*

38.*Alpomish yonida Oybarchin bo‘lib,*

39.*Sen - Farhod qoshida yashnagan Shirin.*

40.*Sen - Nurxon, sen - Sora, turibsan shoyon,*

41.*Ulug‘ O‘zbekiston sardaftarida.*

42.*Mehnat, shijoating olamga ayon.*

43.*Sen - bahor chaqini zamon qa’rida.*

44.*Hech vaqt unutilmas, o‘sha qirg‘in choq*

45.*Zafarga chorlagan nurli timsoling.*

46.*Reyxstag ustiga qadalgan bayroq*

47.*Asli sen silkitib qolgan ro‘moling.*

48.*Men sharqlik odamman,*

49.*Ayol degan so‘z*

50.*Menga hayot bilan barobar kalom.*

51.*Oh, ayol xo‘rligin ko‘rsatma hargiz,*

52.*Hargiz bad bo‘lmagay ayol degan nom.*

53.*Inson atab bo‘lmas hech bir, hech mahal*
54.*Ayolni tanimas takabbur boshni.*
55.*Undayin yulduzning so‘ngani afzal,*
56.*Agar tan olmasa senday quyoshni.*

57.*Ayol chehrasida ko‘rsang tabassum*
58.*Bilki, zamona tinch, osoyish olam.*
59.*Ayolga tilasang gar tole mas’um,*
60.*Dunyoni olovdan asra, ey, Odam!*

SANA ANA DEDİM… (69)

1. Sana ana dedim,
2. Gözümün önünde
3. Müşfik o görünüşün oldu nümayan.
4. Minik bebek yanında uykusuz bir göz,
5. Sadakati sonsuz, şefkati sonsuz.

6. Kaplan gibi yiğidi yetiştirip, savaşa
7. Gözleyen de kendin, bekleyen de kendin.
8. Kara saçlarında bembeyaz şule,
9. Hicran zakkumlarını yutan da kendin.

10. Ne kadar kudretli olmasın zaman,
11. Bitirir mi gönüldeki bu gamı.
12. Anacan, kalanlar bahtına yalnız,
13. Alev sarmazsa kâfidir âlemi.

14. Sana kız kardeşim dedim,
15. Karşımda o an
16. Munis ve cefakâr çehren göründü.
17. Keçi söğüdü gibi vücudun seherlerde giryân

18. Buz kesilen tarlalar içinde çabaladı.

19. Nasıl azizdi bir tane başak,
20. Bulduğunda renk gelmiş yanaklarına.
21.Rızkın iğne gibi saplandı o an,
22. Kavun diken parmaklarına.

23. Asla unutulmaz o günlerin hatırı,
24. Her biri sanki taş kesilen mercan
25. Kara seherlerin meşum feryadı,
26. Tekrar olmasa yeter şimdi, kız kardeşcan.

27. Sana yârim dedim,
28. Durdun karşımda
29.Şefkat ve muhabbetin timsali olup.
30.Gâh ana gibi uykusuz başımda,
31.Gâh bir kız kardeş misali olup.

32. Ulu hayatta sen devam ettin,
33.Görmeden ömürlerinin nihayesini.
34. Evladını bağrına basıp işittin,
35. Kanlı savaş meydanlarının hikâyesini.

36. Sen desem, binlerce yıl secdeye gelip
37. Payına çiçek gibi sermesi gerçek.
38. Alpamış yanında Aybarçın olup,
39. Sen Ferhat yanında güzelleşmiş Şirin.

40. Sen Nurhan, sen Sâre, durmuşsun şayan,
41. Ulu Özbekistan serdefterinde.
42. Emek, şecaatin âleme ayan.
43. Sen, bahar ateşi zaman ka'rında.

44. Hiçbir zaman unutulmaz, işte o kırım anı
45. Zafere çağıran nurlu timsalin.
46. Reichstag üstüne dikilen bayrak
47. Doğrusu senin silktiğin şalın.

48. Ben şarklı insanım,
49. Kadın denen söz
50. Bana hayatla beraber kelam.
51. Ah, kadın değersizliğini gösterme asla,
52. Asla bed olmayacak kadın denen nam.

53.İnsan demez hiçbir şey, hiçbir zaman
54. Kadını tanımaz tekebbür başı.
55.Öyle yıldızın söneni efdal,
56.Eğer tanımasa senin gibi güneşi.

57. Kadın çehresinde görsen tebessüm,
58. Anla ki, zamane huzur, asayiş âlem.
59. Kadına dilersen eğer talih masum,
60.Dünyayı ateşten koru, ey, İnsan! (1985)

MEKSIKA (70)

1. *Bobongni bunchalar yaxshi ko‘rmasang,*
2. *Momongni bunchalar yaxshi ko‘rmasang.*

3. *Boshingda qandaydir jondorning shoxi,*
4. *Quloqqa osibsan bir uyum zirak.*
5. *Bizning bu asrda bobong arvohi*
6. *Bunchalar azizdir, bunchalar kerak.*

7. *Olis fazolarga fikrin qaratgan,*

8. *Zamon qudrati bor qalbing qo‘rida.*

9. *Lekin qachonlardir bobong yaratgan,*

10.*Tosh haykal turibdi uning to‘rida.*

11.*Inson tarixida ilk madaniyat*

12.*Sening tuprog‘ingda bo‘lganmish barpo.*

13.*Gaplaring nechog‘ rost, bilmadim, faqat*

14.*Senga qulluq qilgum ro‘yintan daho.*

15.*Mudhish bosqinlardan tirilib chiqib,*

16.*O‘zini tanigan elingga, balli.*

17.*Sonsiz ko‘chkilarda yiqilib, yiqib,*

18.*Toshday tarashlangan tilingga, balli.*

19.*Poyingda ming yillik qabrlar to‘pi,*

20.*Bu mening go‘rim, deb yig‘laysan atay.*

21.*O‘tmishga tortilgan kamonning ipi,*

22.*O‘q esa oldinga uchmoq uchun shay.*

MEKSİKA (70)

1. Dedeni bu kadar iyi görmesen,

2. Nineni bu kadar iyi görmesen.

3. Başında bir yaratığın boynuzu,

4. Kulağa takmışsın bir yığın küpe.

5. Bizim bu asırda atanın ervahı

6. Bu kadar azizdir, bu kadar gerektir.

7. Uzak fezalara fikrini göstermiş,

8. Zamanın kudreti var kalbinin korunda.

9. Lakin bir zamanlar ecdat yaratmış,

10. Taş heykel durmuş onun töründe.

11.İnsan tarihinde ilk medeniyet
12. Senin toprağında çıkmışmış ortaya.
13.Sözlerin ne kadar doğru, anlamadım, yalnız
14. Sana teşekkür edeceğim Royinatan deha.

15.Müthiş baskınlardan dirilip çıkıp,
16. Kendini tanıyan halkına, aferin.
17. Sayısız göçüklerde yıkılıp, yıkıp,
18. Taş gibi kesilen diline, aferin.

19. Payında bin yıllık kabirlerin yığını,
20. Bu benim mezarım, diye ağlarsın bile bile.
21. Geçmişe çekilmiş yayın ipi,
22. Ok ise ileri atılmak için amade. (1985)

KALIFORNIYADA CHOYXO‘RLIK (71)

1. *Har bir elning udumlari bordir, albatta,*
2. *Gar ularni hurmat qilsang sen ham izzatda.*

3. *Odamlarning taomi ham turli-tuman, boy,*
4. *Deylik, bizning o‘zbek uchun g‘oyat aziz choy.*

5. *Mayli, turfa odatlarni o‘tirmay so‘ylab,*
6. *Kezar edik, xullas o‘zga mamlakat bo‘ylab.*

7. *Kezar edik gohi jadal, goho olib tin,*
8. *Allanarsa yetishmasdi bizlarga lekin.*

9. *Ya’ni bizni tutgan edi choyning xumori,*
10. *Uning o‘rnin bosa olar na may, na dori.*

11. *Shu murodda to‘planishib sayyohlar bir kun,*
12. *Qahvaxona tomon yurdik choyxo‘rlik uchun.*

13. *Qarshi oldi unda bizni xo‘jayin - janob:*
14. *Tavoze-la tutdi darhol sharbat va sharob.*

15. *Biz-chi, unga choy ber, deya ishora qildik,*
16. *Maqsadimiz anglaguncha ovora qildik.*

17. *Burjuy sohib mehmonlarga ayladi karam,*
18. *Hozir bo‘ldi choy-u choynak va piyola ham.*

19. *Hamrohimiz yurtda mashhur oshpaz Tursunboy,*
20. *Qoidasin keltirgancha damlay ketdi choy.*

21. *Xo‘jayin-chi, yonimizga o‘ltirib shu zum,*
22. *Tursunboyni kuzatardi labda tabassum.*

23. *Chamasi u o‘ylar edi: shu ham tashvishmi?*
24. *Choy damlash ham bu dunyoda qiyin bir ishmi?*

25. *Darhaqiqat, zum o‘tmayin tayyor bo‘ldi choy,*
26. *Piyolani qo‘lga oldi endi Tursunboy.*

27. *Ayon gapki, qaytarmasang choy bo‘lmas shirin,*
28. *Safardoshlar yaxshi bilar bu holning sirin.*

29.*Shundoq qilib choyxo‘rlikning fursati yetdi,*
30.*Ha, Tursunboy choyni endi qaytara ketdi.*

31.*Davramiz soz, maromida edi barcha ish,*
32.*Lekin mezbon avzoyida bo‘ldi o‘zgarish.*

33.*Ko‘zlarini katta-katga ochib u hayron,*
34.*Anqaygancha qarab qodsi Tursunboy tomon.*

35.*Bo‘yin cho‘zib tikildi ham bir-ikki bora,*
36.*Bizga mo‘lt-mo‘lt qarar edi sohib bechora.*

37.*Tursunboy-chi, choyni tinmay shopirar edi,*
38.*Xo‘jayinning hayratini oshirar edi.*

39.*Garchi bizning odatlardan kulmas ekan u,*
40.*Choy qaytarish nimaligini bilmas ekan u.*

41.*U o‘ylabdi, parishonlik bilan, hoynahoy,*
42.*Noma’qul ish qilayotir hozir Tursunboy.*

43.*Piyolani chayib, yuqin to‘kmay poygakka,*
44.*Quygan emish qayta-qayta yana choynakka.*

45.*Odatimiz anglagach, u dildan kulishdik,*
46.*O‘zbekcha choy mazasini birga bo‘lishdik.*

47.*Endi choynak-piyolani olib atayin,*
48.*Choy qaytarib o‘tirardi o‘zi xo‘jayin.*

49.*Yurgan daryo, der xalqimiz, yursang ko‘rgaysan,*

50.*Xo‘p ajoyib suhbatlarning gashtin surgaysan.*

51.*Goho oddiy muloqotdan yashnagay dillar,*

52.*Uchrashganday yiroq ellar, olis manzillar.*

53.*Sayohatda turfa gaplar bo‘ladi, jo‘ra,*

54.*Choyxo‘rlik soz, janjallashib yurgandan ko‘ra.*

KALİFORNİYA'DA ÇAYLI SOHBET (71)

1. Her bir halkın töreleri vardır, elbette,

2. Eğer onlara hürmet edersen sen de izzette.

3. İnsanların yemeği de envaiçeşit, zengin,

4. Diyelim, bizim Özbek için gayet aziz çay.

5. Neyse, garip âdetleri oturmadan söyleyip,

6. Gezerdik, hülasa başka memleket boyunca.

7. Gezerdik gâh aceleyle, gâh yavaş,

8. Bir şey yetişmezdi bizlere lakin.

9. Yani bizi tutmuştu çayın isteği,

10. Onun yerini basabilir ne mey, ne darı.

11.O muratta toplanıp seyyahlar bir gün,

12. Kahvehaneye doğru yürüdük çaylı sohbet için.

13. Karşıladı orada bizi patron cenap:

14.Hürmetle tuttu derhâl şerbet ve şarap.

15. Biz ona çay ver, diye işaret ettik,
16. Maksadımızı anlayınca avare ettik.

17. Burjuvazi misafirlere eyledi kerem,
18. Hazır oldu çay, çaydanlık ve de piyalem.

19. Yoldaşımız yurtta meşhur aşçı Tursunbay,
20. Kaidesi gereğince demledi çay.

21. Patron yanımıza oturup o an,
22. Tursunbay'a eşlik ederdi dudakta tebessüm.

23. Sanki o düşünürdü: O da kaygı mı?
24.Çay demlemek de bu dünyada zor bir iş mi?

25. Hakikaten, çok geçmeden hazır oldu çay,
26.Kâseyi ele aldı şimdi Tursunbay.

27. Gerçek söz şu ki, demlemezsen çay olmaz şirin,
28. Yoldaşlar iyi bilir bu hâlin sırrını.

29.Böylece çaylı sohbetin vakti geldi,
30. Evet, Tursunbay çayı şimdi getirmeye gitti.

31. Grubumuz güzel, ölçülüydü bütün iş,
32. Lakin ev sahibi hâlinde oldu değişiklik.

33.Gözlerini tekrar tekrar açıp o şaşkın,
34. Hayret ederek baktı Tursunbay'a doğru.

35. Boyunu uzatıp gözünü dikti de bir iki kez,
36. Bize mahzun mahzun bakardı ev sahibi biçare.

37. Tursunbay çayı durmadan soğuturdu,
38. Patronun hayretini arttırırdı.

39. Gerçi bizim âdetlere gülmezmiş o,
40.Çay demlemenin ne olduğunu bilmezmiş o.

41.O düşünmüş, perişanlıkla, belki,
42. Abes iş yapıyor şimdi Tursunbay.

43.Kâseyi çalkalayıp, yükünü dökmeden sofaya,
44.Dökmüş imiş tekrar tekrar yine çaydanlığa.

45.Âdetimizi anlayınca o gönülden gülüştük,
46.Özbek'e has çay lezzetini birlikte bölüştük.

47.Şimdi çaydanlık kâseyi alıp bilerek,
48.Çay demleyip otururdu kendisi patron.

49.Yürüdüğün derya, der halkımız, yürürsen göreceksin,
50.Çok hoş sohbetlerin keyfini süreceksin.

51. Bazen sıradan mülakattan açılacak gönüller,
52. Karşılaşmış gibi uzak halklar, ırak menziller.

53. Seyahatte ilginç sözler olur, ahbap,
54.Çaylı sohbet yeğdir, tartışmaktansa. (1985)

YUGUR, BIZNESMEN (72)

1. *Biroving aqchasan, biroving shamshir,*
2. *Biring no‘noqrog‘u biroving abjir.*
3. *Biring mansab uchun izlaysan tadbir,*
4. *Zamoning shul ekan, yugur biznesmen.*

5. *Biz “erkin dunyo”, deb yirtasan og‘iz,*
6. *Biring oddiy galvars, biring yalmog‘iz.*
7. *Biring po‘choq bo‘lsang, biroving mag‘iz,*
8. *Zamoning shul ekan, yugur biznesmen.*

9. *Solsa tog‘oraga chiqmaydi kiring,*
10.*Hazrat shayton erur sig‘ingan piring.*
11.*Xullas, firibgarsan, yo‘q pinhon siring,*
12.*Zamoning shul ekan, yugur biznesmen.*

13.*Hammadan g‘am arir, sendan ketmaydi,*
14.*Doim bezovtasan, ishing bitmaydi.*
15.*Agar imillasang kuning o‘tmaydi,*
16.*Zamoning shul ekan, yugur biznesmen.*

17.*Sen na boy erursan va na kambag‘al,*
18.*Yashaysan bir-biring aldab galma-gal.*
19.*Tinchiysan qabrga kirganing mahal,*
20.*Zamoning shul ekan, yugur biznesmen.*

KOŞTUR, İŞ İNSANI (72)

1. Kiminiz akçe, kiminiz kılıç,
2. Kiminiz âciz ve kiminiz atılgan.
3. Kiminiz kariyer için ararsınız çare,
4. Zamanınız buymuş, koştur iş insanı.

5. Biz “özgür dünya” diye çalarsınız çene,
6. Kiminiz zır cahil, kiminiz cadı.
7. Kiminiz kabuk iseniz, kiminiz çekirdek,
8. Zamanınız buymuş, koştur iş insanı.

9. Dökse leğene çıkmaz kirin,
10. Hazreti şeytandır sığındığın pirin.
11.Hülasa, hilekârsın, yok gizli sırrın,
12. Zamanınız buymuş, koştur iş insanı.

13. Herkesten gam gider, senden gitmez,
14. Daima meşgulsün, işin bitmez.
15.Eğer ağır davransan günün geçmez,
16. Zamanınız buymuş, koştur iş insanı.

17. Sen ne zenginsin ne de yoksul,
18. Yaşarsın birbirini aldatarak sırayla.
19. Sakinleşirsin kabre girdiğin vakit,
20. Zamanınız buymuş, koştur iş insanı. (1985)

SAN-FRANSISKOLIK TALABA BILAN SUHBAT (73)

(Oq she’r)

1. *Mening gapim bilan dunyo o‘zgarmasa,*
2. *Sening gaping bilan dunyo o‘zgarmasa,*
3. *Uning gapi bilan dunyo o‘zgarmasa,*
4. *Ahvol shundoq ekan, deb jim o‘tira bersak -*
5. *Yaxshimi?*

6. *Quyosh bir kishiniki emas, shubhasiz,*

7. *Yulduzlar bir kishiniki emas, shubhasiz,*

8. *Oy va yer bir kishiniki emas, shubhasiz,*

9. *Modomiki, shundoq ekan, nechun bu taloto‘p -*

10.*Nechun bu sho‘rish?*

11.*Stalingradda halok bo‘lganlarning,*

12.*Sonmida halok bo‘lganlarning,*

13.*Sabra-Shatilada halok bo‘lganlarning,*

14.*Yashashga haqlari bormidi, axir?*

15.*Bor edi, shaksiz!*

16.*Bil’aks hayqirmoq kerak - jim*

17. *o‘tirgandan ko‘ra,*

18.*Tiriklikni talab qilmoq kerak - jim*

19. *o‘tirgandan ko‘ra.*

20.*Baqirmoq, ha, baqirmoq kerak - jim*

21. *o‘tirgandan ko‘ra.*

22.*Baqir, ha, baqir, quloqlari batang bo‘lsin*

23. *toki -*

24.*Urushqoq afandilarning...*

SAN FRANSİSKO’LU TALEBEYLE SOHBET (73)

(Ak şiir)

1. Benim sözümle dünya değişmezse,

2. Senin sözünle dünya değişmezse,

3. Onun sözüyle dünya değişmezse,

4. Ahval öyleymiş, diye sessizce oturuversek.

5. İyi mi?

6. Güneş bir kişinin değil, şüphesiz,

7. Yıldızlar bir kişinin değil, şüphesiz,
8. Ay ve yer bir kişinin değil, şüphesiz,
9. Mademki öyleymiş, niçin bu huzursuzluk?
10. Niçin bu şanssızlık?

11. Stalingrad'da helak olanların,
12. Sonmi'de helak olanların,
13. Sabra ve Şatilla'da helak olanların,
14. Yaşamaya hakları yok muydu?

15. Vardı, şüphesiz!

16. Bilakis haykırmak gerek, sessizce,
17. oturmaktansa,
18. Yaşamayı talep etmek gerek, sessizce,
19. oturmaktansa,
20. Bağırmak, evet, bağırmak gerek, sessizce,
21. oturmaktansa,
22. Bağır, evet, bağır, kulakları sağır olsun,
23. ta ki,
24. Savaşçı efendilerin… (1985)

LOS-ANJELOS KO'CHALARIDA (74)

1. *Manfaat ko'rmasa sendan agarda,*
2. *Mushuk ham oftobga chiqmas, deydi xalq.*
3. *Itday o'lib ketsang ushbu shaharda,*
4. *Birov seni tekin ko'mmasligi haq.*

5. *Salom ham manfaat, alik - manfaat,*
6. *Yaxshilik bu joyda g'aroyib bir ish.*
7. *Kimgadir ko'rgazsang agar marhamat,*
8. *Sening noming bo'lar sarqit va o'tmish.*

9. *O, mehru oqibat shu bo‘lsa agar,*

10.*Bolamga bersam gar ta’ma bilan non,*

11.*Mayli men xor bo‘lay elda darbadar,*

12.*O‘tmishga aylanib qolay shu zamon.*

LOS ANGELES SOKAKLARINDA (74)

1. Menfaat görmezse senden eğer,

2. Kedi de afitaba çıkmaz, der halk.

3. İt gibi ölüp gidersen işte bu şehirde,

4. Birinin seni bedava gömmemesi gerçek.

5. Selam vermek menfaat, selam almak menfaat,

6. İyilik burada garip bir iş.

7. Kime gösterirsen eğer merhamet,

8. Senin adın olur eser ve geçmiş.

9. Demek, şefkat ve akıbet bu olursa eğer,

10.Çocuğuma verirsem eğer tamahla ekmek,

11.Öyleyse ben aşağılanayım halkta derbeder,

12. Geçmişe dönüp kalayım o zaman. (1985)

IKKI AMERIKA (75)

1. *Nogahon turtinib yiqilsang, shu dam,*

2. *Hoziru nozirdir ikkalasi ham.*

3. *Biri madad berar insofga kelib,*

4. *Biri cho‘ntagingni ketadi shilib.*

İKİ AMERİKA (75)

1. Birden itilip düşersen, o dem,

2. Hazır ve nazırdır her ikisi de.

3. Biri medet verir insafa gelip,

4. Biri cebini gider soyup. (1985)

TILAK (76)

1. *Sino aytgan ekan,*

2. *Chang bo‘lmasa gar,*

3. *Mingga kirardi, deb,*

4. *Inson bolasi.*

5. *Doriga o‘rgangan*

6. *Qovunday qaysar,*

7. *Changga ham ko‘nikib*

8. *Qoldik chamasi.*

9. *Hakim bo‘lmasam ham,*

10.*Men aytay sizga,*

11.*Uzoq yashamoqqa*

12.*Bor bitta yorliq:*

13.*Mingga bormasak ham,*

14.*Kirardik yuzga,*

15.*Dunyoda bo‘lmasa*

16.*Gar dilozorlik.*

DİLEK (76)

1. Sina söylemiş imiş,

2. Engel olmasa eğer,

3. Bine girerdi, diye,

4. İnsan evladı.

5. İpe asılan

6. Kavun gibi inatçı,

7. Çengele de alışıp

8. Kaldık sanki.

9. Hâkim olmasam da,

10. Ben söyleyeyim size,

11. Uzun yaşamaya

12. Var bir yarlık:

13. Bine varmasak da,
14. Girerdik yüze,
15.Dünyada olmasa
16.Eğer dilâzârlık. (1985)

ONA DEGAN NOM...(77)

1. *Deydilar, qahrli bahodirlar ham*
2. *Janglarda jon berar chog‘i mardona,*
3. *Behad azoblarga chidab so‘nggi dam,*
4. *Bitta so‘z demishlar shivirlab: Ona.*
5. *Ulug‘ bir donishmand olamni sharhlab,*
6. *Axiyri tanibdi tuqqan elini.*
7. *Zabon baxsh etganga ehtirom saqlab,*
8. *Ona, deb atabdi ilk bor tilini.*
9. *Dunyo shoirlari Vatan sha’niga*
10.*Sifat axtarmishlar qator va qator,*
11.*Nihoyat, kelmishlar bitta ma’niga:*
12.*Ona Vatan deya bitmishlar ash’or.*
13.*Bisyor bo‘lsa agar bol ham beqadr,*
14.*Takror aytilganda rangsizdir kalom.*
15.*Bu yorug‘ olamda Vatan bittadir,*
16.*Bittadir dunyoda Ona degan nom!*

ANA DENİLEN NAM… (77)

1. Derler, kahırlı bahadırlar hem,
2. Savaşlarda can verdiği an merdane,
3. Sonsuz azaplara dayanarak son dem,
4. Bir söz demişler fısıldayıp: Ana.
5. Ulu bir danişment âlemi şerh edip,
6. Nihayet tanımış kardeş halkını.
7. Zeban bahşedene hürmeti koruyup,
8. Ana, diye ad vermiş ilk kez diline.
9. Dünya şairleri Vatan şanına
10.Sıfat aramışlar dizi dizi,

11. Nihayet gelmişler bir manaya:
12. Ana Vatan diye yazmışlar eş'âr.
13. Bisyâr olsa eğer bal da değersiz,
14. Tekrar söylendiğinde renksizdir kelam.
15. Bu aydınlık âlemde Vatan birdir,
16. Birdir dünyada Ana denilen nam! (1986)

IMZO YIG'ISH (78)

1. *Elimizda bir naql bor:*
2. *Ko'pning oshi mazali.*
3. *Shundanmikin, keng tarqaldi*
4. *Imzo yig'ish kasali.*

5. *Qorovulni haydash kerak,*
6. *Kamlik qildi bir kalla.*
7. *Unga qarshi xat yozildi,*
8. *Imzo chekdi mahalla.*

9. *Qorovul der: yomon emas*
10.*Shuncha dovruq-shonim bor.*
11.*Men o'zimcha o'ylar edim*
12.*Bir imzolik jonim bor.*

13.*Kelinposhsha og'iroyoq,*
14.*Tashvishdadir xonadon.*
15.- *Joy hozirlab qo'ysak durust*
16.*Yaqin tug'uruqxonadan.*

17.*Kuyov bola qo'lda qalam*
18.*Qishloq bo'ylab kezadi.*
19. *"Kelin tug'sin" degan xatni*
20.*Besh yuz imzo bezadi.*

21.*Choyxonada ko‘krak kerib*
22.*So‘zlar soldat otasi.*
23.*- Xat oluvdim, qo‘l qo‘yibdi*
24.*O‘g‘limizning rotasi.*

25.*Hurmatini qilish kerak,*
26.*Yo‘qsa, ko‘nglim to‘lmaydi.*
27.*Javob xatga mingta imzo*
28.*To‘plamasam bo‘lmaydi.*

29.*Bu gaplarni hazil bilan*
30.*Yozmoqdaman, albatta.*
31.*Ulug‘ baxt-ku agar seni*
32.*Yurt qo‘llasa kulfatda.*

33.*Biroq goho bundayroqmiz,*
34.*Goh sodda, goh ayyormiz.*
35.*Ta’ziyada imzo chiqsa,*
36.*O‘lishga ham tayyormiz.*

37.*Qutulolmay qoldim, do‘stlar,*
38.*Men ham imzo komidan.*
39.*Shu she’rni ham yozdim asli*
40.*Millionlarning nomidan.*

İMZA TOPLAMA (78)

1. Halkımızda bir nakil var:
2. Çoğunun aşı lezzetli.
3. Öyle mi ki, geniş yayıldı
4. İmza toplama hastalığı.

5. Bekçiyi kovmak gerekir,
6. Az geldi bir kelle.
7. Ona karşı mektup yazıldı,
8. İmzaladı mahalle.

9. Bekçi der: Kötü değil
10. Bunca şanım şöhretim var.
11. Ben kendimce düşünürdüm
12. Bir imzalık canım var.

13. Gelin hamile,
14. Kaygıdadır aile.
15.- Yer hazırlasak güzel
16. Yakın doğumhaneden.

17. Damat çocuk elde kalem
18.Köy boyunca gezer.
19."Gelin doğursun" yazan mektubu
20. Beş yüz imza bezer.

21.Çayhanede göğüs gerip
22. Konuşur asker babası.
23.- Mektup alacaktım, imzalamış
24.Oğlumuzun alayı.

25.Hürmet etmek gerekir,
26. Yoksa gönlüm ferahlamaz.
27. Mektuba cevap bin imza
28. Toplamazsam olmaz.

29. Bu sözleri şakayla
30. Yazmaktayım, elbette.

31. Ulu baht eğer seni
32. Yurt kollasa külfette.

33. Fakat gâh daha böyleyiz,
34.Gâh safız, gâh kurnazız.
35. Taziyede imza çıksa,
36.Ölmeye de hazırız.

37. Kurtulamadım, dostlar,
38. Ben de imza maksadından.
39. Bu şiiri de yazdım aslında
40. Milyonların namına. (1986)

TIRIKLIK (79)

1. *Turfa kurashlardan charchadim deysan,*
2. *Xizmat jonga tegdi, yo‘qdir halovat.*
3. *Arzimas narsa deb asabing yeysan,*
4. *Tiriklik nima bu? G‘ammi, farog‘at?*

5. *Kimga aytmoqdasan hasratingni, oh,*
6. *Sen shifo so‘raysan bemordan nechun.*
7. *Qirq besh yil osmonga tikibman nigoh,*
8. *Oddiy haqiqatga yetmoqlik uchun.*

9. *Bir teri ichida ming marta ozib,*
10.*Ming marta to‘lishar jonivorlar ham.*
11.*O‘n besh kun jamolin ko‘kda ko‘rgazib,*
12.*O‘n besh kun falakda oy topar barham.*

13.*Bu yorug‘ olamga boqsang, aslida,*
14.*Oliy baxt sanalur o‘lmayin yurmoq.*
15.*Baxtdir bu - hayotning ko‘hna qasrida,*

16.*Nabirang daf’atan chalsa qo‘ng‘iroq.*

17.*Kimdir choh ichra ham davronin surgay,*
18.*Kimdir cho‘qqida ham o‘tga kelgay duch.*
19.*Ko‘zing ochiq esa har neni ko‘rgay,*
20.*Bir yon do‘st, bir yonda - nafrat bilan o‘ch.*

21.*Yuz yil yashasa ham bechora bir zot,*
22.*To‘ymadim hech, debdi, bu nechuk hikmat.*
23.*Oh, qandoq shirindir shu taxir hayot,*
24.*Oh, qandoq go‘zaldir shu juldir qismat.*

HAYAT (79)

1. Garip mücadelelerden yoruldum dersin,
2. İş canına tak etti, yoktur halavet.
3. Değersiz şey diye asabını bozarsın,
4. Hayat ne bu? Gam mı, feragat?

5. Kime demektesin hasretini, ah,
6. Sen şifa istersin hastadan niçin?
7. Kırk beş yıl asumana dikmişim nigâh,
8. Basit hakikate erişmek için.

9. Bir deri içinde bin kez azıp,
10. Bin kez doluşur canavarlar da.
11. On beş gün cemalini gökte gösterip,
12. On beş gün felekte ay olur yok.

13. Bu aydınlık âleme baksan, aslında,
14.Yüce baht sayılır ölmeden yürümek.
15. Bahttır bu, hayatın köhne kasrında,
16. Torunun birden çalsa zil.

17. Kimi çukur içinde de devran sürecek,

18. Kimi zirvede de ateşe gelecek rast.

19.Gözün açık ise her neyi görecek,

20. Bir yanda dost, bir yanda nefretle öç.

21.Yüz yıl yaşasa da biçare bir zat,

22. Doymadım hiç, demiş, bu nasıl hikmet?

23. Ah, nasıl şirindir şu kekre hayat,

24. Ah, nasıl güzeldir şu paçavra kısmet! (1986)

ARSLON VA INSON (80)

1. *Jami jonzodlardan yolg‘iz bir arslon*

2. *Quyoshga ko‘z yummay qarar emish tik.*

3. *Balki shu sababdan u sohib o‘rmon,*

4. *Jonzodlar ichida yashar behadik.*

5. *Inson! Sening uchun haqiqat - quyosh,*

6. *O‘zingni tiriklik shohi sanaysan.*

7. *Afsuski, boshing xam, ko‘zlaringda yosh,*

8. *Qachon quyoshingga sen tik qaraysan?..*

ASLAN VE İNSAN (80)

1. Bütün yaratıklardan bir tek aslan

2. Güneşe göz yummadan bakarmış dik.

3. Belki şu sebepten o orman sahibi,

4. Yaratıklar içinde yaşar korkusuz.

5. İnsan! Senin için hakikat güneş,

6. Kendini hayat şahı sanırsın.

7. Maalesef, başında, gözlerinde yaş,

8. Ne zaman güneşine sen dik bakarsın? (1986)

“MENI SAYLANG” (81)

1. *Ey, ahli diyonat, hangomatalab,*
2. *Mana bu nidoga quloqni shaylang.*
3. *Hamzaning davridan kelar bitta gap:*
4. *“Meni saylang. Meni saylang.”*

5. *Ularning jismi-ku, yo‘qdir ko‘p zamon,*
6. *Lekin ruhlari bor, e’tibor aylang.*
7. *Idoralar uzra yangraydi hamon:*
8. *“Meni saylang. Meni saylang.”*

“BENİ SEÇİN” (81)

1. Ey, ehli vicdan, hoşsohbeti seven,
2. İşte bu nidaya kulak ver.
3. Hamza’nın devrinden gelir bir söz:
4. “Beni seçin. Beni seçin.”

5. Onların cismi, yoktur çoğu zaman,
6. Lakin ruhları var, dikkat edin.
7. İdarelerin üstünde yankılanır o an:
8. “Beni seçin. Beni seçin.” (1986)

YALANG‘OCH SATRLAR (82)

1. *Siz, mening yalang‘och satrlarim,*
2. *Doroning oldida Shiroq kabi,*
3. *Yoki uzoq borsa,*
4. *Laylining qoshida Majnun yanglig‘,*
5. *Yoxud muz qobig‘idagi Karbishev misol,*
6. *Siz, mening yalang‘och satrlarim...*

7. *Sizni o‘rayolmadim baxmalga,*

8. *Shamollardan sizni asrayolmadim.*

9. *Ochiq yara kabi sizilladingiz,*

10.*Turfa nazarlardan bezilladingiz.*

11.*Mening ko‘z oldimda turdingiz mudom,*

12.*Doyalarga mute chaqaloq kabi.*

13.*Yoki Chig‘atoyda ustozimdek yupun,*

14.*Siz, mening yalang‘och satrlarim...*

15.*Tarix unsiz edi, unsiz bo‘lib qolar,*

16.*Kelajak uzoqdir, tili yo‘q uning.*

17.*Bugunning oldida nechog‘ mas’ulsiz,*

18.*Siz, mening yalang‘och satrlarim...*

19.*Hali kimlarnidir maqtamoq kerak,*

20.*Hali xudochalar yasamoq kerak,*

21.*Hali payg‘ambarlar yasamoq kerak,*

22.*Hali avliyolar yasamoq kerak.*

23.*Siz hali o‘zingizni odam sanaysiz-a,*

24.*Siz, mening yalang‘och satrlarim...*

25.*Torting yuzingizga aldamchi niqob,*

26.*Yolg‘on dabdabadan chechaklar taqing.*

27.*Balki bezanursiz malikalar misol,*

28.*Balki jilmayarsiz xudochalar misol.*

29.*Hozircha dunyoda ma’sumsiz balkim:*

30.*Siz mening yalang‘och satrlarim...*

31.*Boqing, qoraymoqda yer, osmon, oftob,*

32.*Farishtaman, deydi bulutlar tag‘in.*

33.*Yolg‘iz tentiraysiz, xoksor, beniqob,*

34.*Siz, mening yalang‘och satrlarim...*

SADE SATIRLAR (82)

1. Siz, benim sade satırlarım,

2. Dara’nın önünde Şirak gibi,

3. Yahut uzağa gitse,

4. Leyla’nın yanında Mecnun gibi,

5. Yahut buz kabuğundaki Karbişev misali,

6. Siz, benim sade satırlarım…

7. Sizi saramadım kadifeye,

8. Rüzgârlardan sizi koruyamadım.

9. Açık yara gibi sızladınız,

10. Garip nazarlardan korktunuz.

11. Benim gözümün önünde durdunuz hep,

12. Ebelere uysal bebek gibi.

13. Yahut Çağatay’da üstadım gibi fakir,

14. Siz, benim sade satırlarım…

15. Tarih sessizdi, sessiz olup kalır,

16. Gelecek uzaktır, dili yok onun.

17. Bugünün önünde ne kadar mesulsünüz,

18. Siz, benim sade satırlarım…

19. Daha kimleri övmek gerekir,

20. Daha tanrıçalar yapmak gerekir,

21. Daha peygamberler yapmak gerekir,

22. Daha evliyalar yapmak gerekir.

23. Siz daha kendinizi insan sanırsınız,

24. Siz, benim sade satırlarım…
25.Çekin yüzünüze yalancı maske,
26. Yalan debdebeden çiçekler takın.

27. Belki bezenirsiniz melikeler misali,
28. Belki kımıldamazsınız tanrıçalar misali.
29.Şimdi dünyada masumsunuz belki:
30. Siz, benim sade satırlarım…

31. Bakın, kararmakta yer, asuman, afitap,
32. Ferişteyim, der bulutlar yine.
33. Yalnız başıboş gezersiniz, saf, maskesiz,
34. Siz, benim sade satırlarım… (1986)

ISHONCH KO‘PRIKLARI (83)

1. *Yuzdan parda ketsa,*
2. *Dildan diyonat,*
3. *Mehr rishtalari zimdan uzilsa;*
4. *Yuraklarni bossa shubha, xiyonat,*
5. *Ishonch ko‘priklari buzilsa;*

6. *Yetimlar haqidan qo‘rqmasa birov,*
7. *So‘qmoqqa aylanib ketsalar yo‘llar;*
8. *Qiblagohlar osiy, tug‘ishganlar yov,*
9. *G‘aznalarga cho‘zilsa qo‘llar;*

10.*Bolalar ruhiga hayot degan dars*
11.*Manmanlik urug‘in joylasa;*
12.*Oshiqlar ko‘chada ma’shuqasin emas,*
13.*Kimningdir qadamin poylasa;*

14.*Elning shoirlari g‘anim zotlar kabi*

15.*Bir-birlarin g‘ajib-esalar;*
16.*Minbarlarga chiqsa ko‘cha-ko‘yning gapi,*
17.*Andishani qo‘rqoq desalar...*

18.*Bunday yurtda endi qirg‘in shart emas,*
19.*Vabo ham qochadi undan yiroqqa;*
20.*Hatto daryolari qurir basma-bas,*
21.*Hatto tuproqlari tushar titroqqa.*

22.*Xalqim, bundaylarni ko‘rgansan azal,*
23.*Ko‘p chekkansan ular ozorin, dog‘in,*
24.*Sen yengib o‘tgansan, lekin har mahal,*
25.*Xalqim, topinaman o‘zingga tag‘in.*

GÜVEN KÖPRÜLERİ (83)

1. Yüzden perde gitse,
2. Gönülden vicdan,
3. Şefkat damarları gizlice kesilse,
4. Yürekleri bassa şüphe, ihanet,
5. Güven köprüleri yıkılsa;

6. Yetimlerin hakkından korkmasa biri,
7. Hayat yoluna dönüşseler yollar;
8. Kıbleler asi, kardeşler hasım,
9. Hazinelere uzatılsa eller;

10.Çocukların ruhuna hayat denen ders
11. Kibir tohumu yerleşse;
12.Âşıklar sokakta maşukası değil,
13. Birisinin adımını gözlese;

14. Halkın şairleri düşman zatlar gibi

15. Birbirlerini çiğneyip yeseler;
16.Kürsülere çıksa sokağının, caddenin sözü,
17. Endişeye korkak deseler…

18.Böyle yurtta şimdi kıyım şart değil,
19. Veba da kaçar ondan uzağa;
20. Hatta deryaları kurur kıyasıya,
21. Hatta toprakları geçer sarsıntıya.

22. Halkım, böylelerini görmüşsün ezel,
23.Çok çekmişsin onların azarını, acısını,
24. Sen yenip geçmişsin, lakin her zaman,
25. Halkım, tapınırım kendine yine. (1986)

ADI-BADI HAQIDA RIVOYAT (84)

1. *Xotin bir kun eriga;*
2. *- Manov ish qandoq, - dedi.*
3. *Eri esa javoban:*
4. *- Undoqmas, bundoq, - dedi.*
5. *Xotin dedi: - Bolani*
6. *Bundoq qilib boqamiz.*
7. *Eri dedi: - Undoqmas,*
8. *Mundoq qilib boqamiz.*
9. *Xotin dedi: - Mehmonni,*
10.*Kutmoq kerak bunaqa.*
11.*Eri dedi: - Yo‘q, aslo,*
12.*Mening gapim munaqa.*
13.*Xotin axir charchadi,*
14.*Hayotdan to‘ydi hatto.*
15.*Bola-chaqa, molu mulk,*
16.*Bisotdan to‘ydi hatto,*
17.*O‘zimni osaman deb,*
18.*E’lon qildi so‘zini...*

19.*Bunaqa osmaslar deb,*

20.*Eri osdi o‘zini.*

TARTIŞMA HAKKINDAKİ RİVAYET (84)

1. Kadın bir gün eşine:

2. - İşte bu iş nasıl, dedi.

3. Eşi ise cevaben:

4. - Öyle değil, böyle, dedi.

5. Kadın dedi: - Çocuğa

6. Böylece bakarız.

7. Eşi dedi: - Öyle değil,

8. Böylece bakarız.

9. Kadın dedi: - Misafiri

10. Beklemek gerekir böyle.

11.Eşi dedi: - Yok, asla,

12. Benim sözüm böyle.

13. Kadın nihayet yoruldu,

14. Hayattan bıktı hatta.

15.Çoluk çocuk, mal ve mülk,

16. Zenginlikten bıktı hatta,

17. Kendimi asarım diye,

18.İlan etti sözünü…

19.Böyle asmazlar diye,

20.Eşi astı kendini. (1986)

YOLG‘IZ ODAM (85)

1. *Qiyin, senga, qiyin,*

2. *Juda ham qiyin,*

3. *Salomingga birov alik olmasa.*

4. *Vaqt-soating yetib, o‘lganingdan keyin.*

5. *Boshingda bir kimsa faryod solmasa.*

6. *Chindan ham sevmasang yorug‘ olamni,*

7. *Dildagi arzingni kimga ochursan.*

8. *Balki shu sababdan, jami odamni,*

9. *Ozurda qilishga shoshursan...*

YALNIZ İNSAN (85)

1. Zor, sana, zor,
2. Çok da zor,
3. Selamını biri almasa.
4. Vaktin saatin yetip, öldükten sonra.
5. Başında bir kimse feryat etmese.
6. Gerçekten de sevmesen aydınlık âlemi,
7. Gönüldeki derdini kime açarsın.
8. Belki bu sebepten, tüm insanı,
9. İncitmeye uğraşırsın… (1986)

OSIYO MARKAZI (86)

1. *Tuvada,*
2. *Enasoy bo‘yida,*
3. *Yalanglikka ulkan ustun qo‘yilgan.*
4. *Ustunga “Ushbu joy Osiyoning tubi” -*
5. *Degan lavha - yozuv o‘yilgan.*
6. *Darhaqiqat, bu joy noyob manzilgoh,*
7. *U - jahon pochtasin markasi.*
8. *Hazilmi, shu ustun butun bir*
9. *qit‘aning*
10.*Jo‘g‘rofiy markazi.*
11.*Ustun atrofida yig‘ildik bir kun*
12.*Xitoy, hindi, o‘zbek, qirg‘iz, hokazo.*
13.*Osiyoga markaz qay xalq bo‘lishi*
14. *mumkin,*
15.*Daf’atan o‘rtaga chiqdi shu savdo!*
16.*Buddiy kindigiga barmog‘in tirab*
17.*Markaz mana men deb turardi.*
18.*Konfutsiy farzandi o‘tmishini maqtab*
19.*Gapni o‘zi tomon burardi.*
20.*Men ham Koshg‘ariydan. Registongacha*

21.*Ko‘rgan-eshitganim sanadim bir-bir.*

22.*Osiyo markazi biz bo‘lsak kerak -*

23.*Mening ham xulosam shu bo‘ldi axir!*

24.*So‘ngra yapon, tojik, yoqutu qozoq*

25.*Aytib chiqdi taxmin-ta’birlarini.*

26.*Qadim shaharlarin markaz dedi birov,*

27.*Birov markaz dedi qabrlarini.*

28.*Markazlikka har kim da’vo qilardi,*

29.*Tikka keldi bir vaqt Tayga quyoshi.*

30.*Haligi ustunning soyasida endi*

31.*G‘uj bo‘ldik, hammaning qo‘shildi boshi.*

32.*Shunda munozara to‘xtadi birdan,*

33.*G‘olib keldi tilsiz ustunning so‘zi.*

34.*Go‘yoki jangari bolalarin to‘plab*

35.*Mag‘rur turar edi Osiyo o‘zi.*

ASYA MERKEZİ (86)

1. Tuva’da,

2. Enesey boyunda,

3. Düzlüğe büyük direk konulmuş.

4. Direğe “Şu yer Asya’nın dibi”,

5. Diye levhaya yazı kazılmış.

6. Sahiden, bu yer nadide menzilgâh,

7. O, cihan postanesinin merkezi.

8. Şaka mı, şu direk bütün bir

9. Kıtanın

10. Coğrafi merkezi.

11. Direk etrafında toplandık bir gün

12.Çin, Hindu, Özbek, Kırgız ve saire.

13. Asya’ya merkez hangi halkın olması

14. mümkün,

15. Birden ortaya çıktı şu evham!

16. Buda merkezine parmağını dayayıp

17. Merkez işte ben diye dururdu.

18. Konfüçyüs evladı geçmişini övüp

19.Sözü kendine doğru çevirirdi.
20. Ben de Kâşgarî'den Registan'a dek
21.Görüp duyduğum saydım bir bir.
22. Asya'nın merkezi biz olsak gerek,
23. Benim de neticem bu oldu nihayet!
24. Sonra Japon, Tacik, Yakut ve Kazak
25.Söyledi tahmin faraziyelerini.
26. Kadim şehirleri merkez dedi biri,
27. Biri merkez dedi kabirlerini.
28. Merkezliğe herkes iddia ederdi,
29. Dik geldi bir an Tayga güneşi.
30. Deminki direğin gölgesinde şimdi
31. Toplandık, herkesin katıldı başı.
32.İşte orada münazara durdu birden,
33. Galip geldi dilsiz direğin sözü.
34. Sanki cengâver çocuklarını toplayıp
35. Mağrur dururdu Asya'nın kendisi. (Tuva, 1986)

TO'QAY (87)

1. *Men demam aslo seni: sho'rlik To'qay,*
2. *Dardlisan, lekin mudom nurli To'qay,*
3. *Chunki sen ozod zamonni istading,*
4. *Maqsading hurlik edi, hurlik, To'qay.*
5. *O'zbegu totor, qozoq, boshqird bo'lib,*
6. *Ko'rinarsan menga goh turlik To'qay.*
7. *Sen qorong'u kechalar bitding yonib,*
8. *Tiqdi go'rga aslida zo'rlik, To'qay.*
9. *Haq so'zingga millating ko'z tiksa ham,*
10.*Necha zotlar qildilar ko'rlik To'qay.*
11.*Hech ajab ermas Seni yod aylasam,*
12.*Ikkimiz ham bir qiya, o'rlik, To'qay.*

ÇALILIK (87)

1. Ben demem asla sana: biçare Çalılık,

2. Dertlisin, lakin daima ışıklı Çalılık,
3. Çünkü sen azat zamanı istedin,
4. Maksadın hürlüktü, hürlük, Çalılık.
5. Özbek, Tatar, Kazak ve Başkurt olup,
6. Görünürsün bana bazen türlü Çalılık.
7. Sen karanlık geceler bittin yanıp,
8. Dikti mezara aslında güçlü, Çalılık.
9. Hak sözüne milletin göz dikse de,
10. Nice zatlar ettiler körlük Çalılık.
11. Hiç acayip değil seni yâd etsem,
12.İkimiz de bir yamaç, bayır, Çalılık. (Kazan, 1986)

VA'DALAR (88)

1. *Men qo'rqaman Yangi yilga*
2. *She'rlar bitmoqdan,*
3. *O'quvchimga yo'q narsani*
4. *Va'da etmoqdan.*
5. *Aytildimi - bajarilsa*
6. *Va'da va tilak,*
7. *Yo'qsa, bir yil ko'zdan yiroq*
8. *Yurmoqlik kerak.*
9. *Va'da berib aytamiz biz:*
10. *Yo'qolgay nifoq,*
11.*Mehnat qilgan katta-kichik*
12. *Bo'lib ittifoq.*
13.*Qarabsizki, qay birovlar*
14. *Ahdni buzgaylar,*
15.*Zum o'tmayin o'zlaricha*
16. *Reja tuzgaylar.*
17.*Va'damizdan o'rin olar*
18. *Albatta vijdon,*
19.*Yangi yilda, deymiz, har kim*
20. *Bo'lgay pokdomon.*
21.*Lekin riyo bir burchakda*
22. *Poylab turadi.*

23.*U ham endi kimlarnidir*

24. *Yo‘ldan uradi.*

25.*Shuhratparast, lo‘ttibozga*

26. *O‘rin yo‘q sira!*

27.*Har birimiz bo‘lajakmiz*

28. *Sof va bokira!*

29.*Yangi yilda ana shunday*

30. *Yangrar so‘zimiz,*

31.*Ertasi-chi, lo‘ttibozmiz*

32. *Ba’zi birimiz.*

33.*Do‘stu yorga mehrimizni*

34. *Etamiz izhor,*

35.*So‘ng yil bo‘yi begonadir*

36. *Kimlarga diydor.*

37.*Yangi yil-chi, barchasiga*

38. *Qaragay kulib,*

39.*Kela berar, keta berar*

40. *Ishonchga to‘lib.*

41.*Qarimayman, mangu yoshman*

42. *Deganning, biroq,*

43.*Qasamiga bovar qilmas,*

44. *Solmagay quloq,*

45.*Undaylarning ko‘zin jindek*

46. *Yoshlab o‘tar u,*

47.*Sochlariga bir tola oq*

48. *Tashlab o‘tar u.*

VEDALAR (88)

1. Ben korkarım Yeni yıla

2. Şiirler yazmaktan,

3. Öğrencime olmayan şeyi

4. Vaat etmekten.

5. Söylendi mi gerçekleşse,

6. Vaat ve dilek,

7. Yoksa bir yıl gözden uzak

8. Yaşamak gerek.

9. Vaat edip söyleriz biz:

10. Kaybolacak nifak,

11. Emek veren büyük küçük

12. Olup ittifak.

13. Bakmışsınız ki hangi birileri

14. Ahdi bozacaklar,

15. Vakit geçmeden kendilerince

16. Plan hazırlayacaklar.

17.Sözümüzü tutacağız

18. Elbette vicdan,

19. Yeni yılda, deriz, herkes

20. Olacak temiz

21. Lakin riya bir köşede

22. Bekleyip durur.

23.O da şimdi kimleri

24. Yoldan çıkarır.

25.Şöhret düşkünü, düzenbaza

26. Yer yok asla!

27. Her birimiz olacağız

28. Saf ve iffetli!

29. Yeni yılda işte öyle

30. Yankılanır sözümüz,

31. Yarın, düzenbazız

32. Bazımız.

33. Dost ve yâra şefkatimizi

34. Ederiz izhar.

35. Sonra yıl boyu yabancıdır

36. Kimlere didar.

37. Yeni yıl hepsine

38. Bakacak gülüp,

39. Geliverir, gidiverir

40. İnançla dolup.

41. Yaşlanmam, ebediyen gencim

42. Dediğin fakat,

43. Yeminine inanmaz,

44. Asmayacak kulak,

45.Öylelerinin gözünü biraz

46. Yaş içinde bırakır o,

47. Saçlarına bir tel ak

48. Düşürür o. (1996)

G‘ALATI ZOT (89)

1. *Yong‘oqning tagidan o‘tganmi bu zot,*

2. *Na do‘stin, na yorin xushlaydi.*

3. *Boshini silasang, shu zahot,*

4. *Qo‘lingni tishlaydi...*

GARİP ZAT (89)

1. Cevizin dibinden geçmiş mi bu zat,

2. Ne dostunu, ne yârini sever.

3. Başını okşasan, o anda,

4. Elini dişler… (1986)

KEKSA MUHOJIR (90)

1. *- Nega qadding egik, nega boshing xam,*

2. *Nega nigohingni tortadi tuproq?*

3. *- Mening yer ustida tanishlarim kam,*

4. *Mening yer ostida do‘stlarim ko‘proq.*

YAŞLI MUHACİR (90)

1. - Niye boyun eğik, niye başın da,

2. Niye bakışını çeker toprak?

3. - Benim yer üstünde tanıdıklarım az,

4. Benim yer altında dostlarım daha çok. (1986)

AQL HAQIDA (91)

1. *Shunchalar go‘zalsan, go‘zalsan, sanam,*

2. *Ta’rifing bitmoqqa ojizdir qalam,*

3. *Bir yigit umrini obod etarding,*

4. *Aql ham berganda falak bokaram...*

AKIL HAKKINDA (91)

1. Bu kadar güzelsin, güzelsin, sanem,

2. Tarifini yazmaya âcizdir kalem,

3. Bir yiğidin ömrünü abat ederdin,

4. Akıl da verdiğinde felek keremli… (1986)

XUSUMAT (92)

1. *Dunyoning bori shu,*

2. *Har qanday zot ham,*

3. *Aybin olavermas bo‘yniga.*

4. *Balki, shu boisdan, qanchalar odam,*

5. *Tosh solib yuradi qo‘yniga.*

6. *Xusumat, deydilar ushbuning otin,*

7. *Dastidan yig‘inlar, uylar bezovta.*

8. *Bezovtadir hamma oshkor yo botin,*

9. *Azalar bezovta, to‘ylar bezovta.*

10.*Har holda bo‘lmagay qiyomat qoyim,*

11.*Bularning ko‘plari quruq savlatlar.*

12.*Yomondir, yomondir, ko‘yniga doim,*

13.*Tosh solib yursa gar davlatlar.*

14.*Gar ular yursalar kuchin pesh qilib,*

15.*Kim tinglar zaminning dardli na’rasin.*

16.*Mayda toshchalar-ku o‘tar, ishqilib,*

17.*Uning kattasidan xudo asrasin.*

HUSUMET (92)

1. Dünyanın varı şu,
2. Her zat da,
3. Günahını alıvermez boynuna.
4. Belki, o sebepten, nice insanlar,
5. Taş basıp yürür bağrına.

6. Husumet, derler işte bunun adına,
7. Mamafih meclisler, evler huzursuz.
8. Huzursuzdur tüm aşikâr yahut bâtın,
9. Matemler huzursuz, toylar huzursuz.

10. Her hâlde olmayacak kıyamet kaim,
11. Bunların çoğu kuru şatafatlar.
12.Kötüdür, kötüdür, bağrına daim,
13. Taş basıp yürüse eğer devletler.

14.Eğer onlar yürüseler güçleriyle övünüp,
15. Kim dinler zeminin dertli narasın.
16. Ufak taşçıklar geçer, yine de,
17. Onun büyüğünden Hüda esirgesin. (1986)

QALDIRG‘OCH (93)

1. *Deydilar, qaygadir o‘t ketsa, albat,*
2. *Chumchuq xas tashirmish, qaldirg‘och-chi, suv.*
3. *Balki, bu chumchuqning sha’niga tuhmat,*
4. *Yong‘in nimaligin, balki, bilmas u...*

5. *Sen dunyo holiga nazar sol birpas,*

6. *Nazar sol ko‘zlardan oqqan yoshlarga.*

7. *Dunyoda kulbalar yonar har nafas,*

8. *U doim muhtojdir qaldirg‘ochlarga.*

KIRLANGIÇ (93)

1. Derler, bir yere ateş gitse, elbette,

2. Serçe kuru ot taşırmış, kırlangıç su.

3. Belki, bu serçenin şanına töhmet,

4. Yangının ne olduğunu belki, bilmez o…

5. Sen dünyanın hâlini dikkate al biraz,

6. Dikkate al gözlerden akan yaşları.

7. Dünyada kulübeler yanar her an,

8. O daima muhtaçtır kırlangıçlara. (1986)

KO‘NGIL (94)

1. *Mendan ko‘ngil uz, deysan,*

2. *Qandoq qilib uzurman.*

3. *Sendan ko‘ngil uzgan chog‘,*

4. *Xazon kabi to‘zurman.*

5. *Tosh kabi yo ko‘chgayman,*

6. *Tog‘larimni aylab tark,*

7. *Qush kabi yo uchgayman,*

8. *Bog‘larimni aylab tark.*

9. *Yo dengizsiz qayiqday*

10. *Qolib ketgum uzlatda,*

11. *Karvonidan adashgan*

12. *Kimsa kabi kulfatda.*

13. *Yo o‘t tushgan daraxtday*

14. *Ich-ichimdan yongayman,*

15. *Sen bo‘lmasang, muhabbat*

16. *Ka’basidan tongayman.*

17. *Mendan ko‘ngil uz, deysan,*

18. *Qandoq qilib uzurman,*

19.*Qandoq qilib bu ko‘ngil*

20. *Imoratin buzurman.*

21.*O‘zingga ham, azizim,*

22. *Rahm etsang-chi bir qadar,*

23.*Ne bo‘lurin bilmassan,*

24. *Sendan ko‘ngil uzsam gar.*

25.*O‘ylaysanki, bir taraf*

26. *Omon qolur, sog‘ qolur.*

27.*Uzilgan ul joyda ham*

28. *Chandiq qolur, dog‘ qolur...*

GÖNÜL (94)

1. Beni gönlünden çıkar, dersin,

2. Nasıl çıkarırım?

3. Sen gönülden çıktığın an,

4. Hazan gibi dökülürüm.

5. Taş gibi ya göçeceğim,

6. Dağlarımı edip terk,

7. Kuş gibi ya uçacağım,

8. Bağlarımı edip terk,

9. Ya denizsiz kayık gibi

10. Kalıp gideyim uzlette,

11. Kervanını kaybeden

12. Kimse gibi külfette.

13. Ya ateş düşen ağaç gibi

14. İçten içe yanacağım,

15. Sen olmazsan, muhabbet

16. Yerini reddedeceğim.

17. Beni gönlünden çıkar, dersin,

18. Nasıl çıkarırım?

19. Nasıl bu gönül

20. Yuvasını bozarım.

21. Kendine de, azizim,

22. Merhamet etsen biraz,

23. Ne olacağını bilmezsin,
24. Seni gönülden çıkarsam eğer,
25.Düşünürsün ki bir taraf
26. Sağ kalır, salim kalır.
27.Çıkarılan o yerde de
28. İz kalır, acı kalır… (1986)

TO‘LIN OY (95)

1. *Keksaygan hilolim, ey sen, to‘lin oy,*
2. *To hanuz buzursan halovatimni.*
3. *Yodimga solursan endi, hoynahoy,*
4. *Sochlari oqargan muhabbatimni.*

5. *Yillarim kechdilar yeldirim misol,*
6. *G‘unchalar bag‘riga xayolday indim.*
7. *Endi-chi, toliqib, horg‘in va behol,*
8. *G‘orlarga bekingan shamolday tindim.*

9. *Bilmadim, qaydadir yotar sarg‘ayib,*
10.*Otashin hislarim o‘ralgan daftar.*
11.*Qaysidir go‘shada bo‘lmishdir g‘oyib,*
12.*Bir zamon qo‘limdan uchgan u kaptar.*

13.*Endi visol o‘zga, o‘zgadir firoq,*
14.*To‘lin oy, o‘tinchim yodingda tutgin.*
15.*Bizning tomonlarga yo‘ling tushgan chog‘,*
16.*Mening kulbamga ham mo‘ralab o‘tgin...*

DOLUNAY (95)

1. Yaşlanmış hilalim, ey sen, dolunay,
2. Henüz bozarsın huzurumu.
3. Hatırıma getirsin şimdi, belki,

4. Saçları ağarmış muhabbetimi.

5. Yıllarım geçtiler yıldırım misali,
6. Goncaların bağrına hayal gibi indim.,
7. Şimdi, yorulup, yorgun ve hâlsiz,
8. Mağaralara gizlendim rüzgâr gibi dindim.

9. Anlamadım, nerede yatar sararıp,
10. Ateşini hislerimin kuşattığı defter?
11. Hangi köşede olmuştur kayıp,
12. Bir zamanlar elimden uçan o güvercin.

13.Şimdi visal başka, başkadır firak,
14. Dolunay, ricam hatırında tut.
15. Bizim taraflara yolun düştüğü an,
16. Benim kulübeme de gizlice bak… (1986)

OYBEK HAQIDA QO‘SHIQ (96)

1. *Qalbi pok mardona elning,*
2. *Sen aziz farzandisan.*
3. *Ganju mulkka bergisiz el,*
4. *Gavhari, dilbandisan.*
5. *Xar kalimang ma’rifatning*
6. *Ufqida oydek to‘lib,*
7. *El aro topding sharaf sen,*
8. *Ustoz Oybek bo‘lib.*
9. *Shan hayoting odamiylik*
10.*Xayru soflikdan nishon,*
11.*Chaqnadi she’ringda nurli*
12.*E’tiqod birlan imon.*
13.*Goh Navoiy suhbatingda,*
14.*Goh Torobiy, Yo‘lchi goh,*
15.*Sen sevikli davrim o‘g‘li*

16.*Begumon, beishtiboh.*

17.*Xizmatingdan, hikmatingdan*

18.*Elu yurt mangu rizo,*

19.*O‘chmagay, noming asrlar*

20.*So‘ngidan bergay sado.*

AYBEK HAKKINDA KOŞUK (96)

1. Kalbi pak merdane halkın,

2. Sen aziz evladısın.

3. Hazine ve mülke verensiniz halk,

4. Cevherisin, sevgilisisin.

5. Her kelimen marifetin

6. Ufkunda ay gibi dolup,

7. Halk içinde buldun şeref sen,

8. Üstat Aybek olup.

9. Şan hayatın insanilik

10. Hayrından ve saflığından nişan,

11.Çaktı şiirinde nurlu

12.İtikatla iman.

13.Gâh Nevâî sohbetinde,

14.Gâh Târâbî, Yolcu gâh,

15. Sen sevgili devrimin oğlu

16.Şüphesiz, kuşkusuz.

17. Hizmetinden, hikmetinden

18. Halk ve yurt ebedî razı,

19.Ölmeyecek, namın asırların

20. Sonundan verecek seda. (1986)

SIZNI UCHRATGUNCHA (97)

1. *Qay fursat men sizni ko‘rdim banogoh,*

2. *Endi zarra hijron dilimni g‘ashlar.*

3. *Buncha yarashmasa o‘zingizga, oh,*

4. *Munis tabassumu ma’yus qarashlar.*

5. *Hech kimni hayratga solmas hech qachon,*

6. *Mening yoningizda yo‘g‘im yo borim.*

7. *Yo falak, shuncha yil kezibman sarson*

8. *Sizni uchratguncha, erka dilbarim...*

SİZE RASTLAYINCAYA DEK (97)

1. Ne zaman ben sizi gördüm ansızın,

2. Şimdi zerre hicran gönlümü acıtır.

3. Bu kadar yakışmasa kendinize, ah,

4. Munis tebessüm ve meyus bakışlar.

5. Hiç kimseyi hayrete düşürmez hiçbir zaman,

6. Ben yanınızda var veya yokum.

7. Yahut felek, bunca yıl gezmişim sersem

8. Size rastlayıncaya dek, nazlı dilberim… (1986)

INSON HURMATI (98)

1. *Soqoli ko‘ksiga tushsa ham garchand,*

2. *Inson atalmagay masalan, serka.*

3. *Odamlik hurmati shunchalar baland,*

4. *Uni uraberma har nafas yerga.*

5. *Buguncha emaklab yurgan shu jujuq,*

6. *Ertan kashf etadi balki dunyolar.*

7. *Tiriklik sen bilan barham topmas, yo‘q,*

8. *Hamisha oqadi oqqan daryolar.*

9. *Itqit jaholatni, aqlga yuz tut,*

10. *Bunchalar e’tiqod qo‘yma jabrga.*

11. *Bir kuni ko‘z yumsang, seni ham el-yurt,*

12. *Boshida ko‘tarib eltar qabrga.*

İNSAN HÜRMETİ (98)

1. Sakalı göğsüne inse de gerçi,
2. İnsan denilmez mesela, erkeç.
3. İnsanlık hürmeti bu kadar yüksek,
4. Onu vuruverme her dem yere.

5. Bugün emekleyip yürüyen bu çocuk,
6. Yarın keşfeder belki dünyaları.
7. Hayat seninle yok olmaz, yok,
8. Daima akar akan deryalar.

9. At cehaleti, akla yüzünü dön.
10. Bu kadar itikat koyma cebre.
11. Bir gün göz yumarsan, seni de el yurt,
12. Başında taşıyarak götürür kabre. (1986)

TUN MANZARALARI (99)

1. *Oqshom cho‘ka boshlar ko‘hna zaminga,*
2. *Uzoq-yovuqlarda o‘char chiroqlar.*
3. *Borliq asta-sekin yuz burar tunga,*
4. *Qoraya boshlaydi yiroqlar.*

5. *Tungi sukutdir bu, tungi sukunat,*
6. *Orom tun to‘shagin yo‘qlay boshlaydi.*
7. *Kunduzdan charchagan uyg‘oq mashaqqat*
8. *Sokin tomirlarda uxlay boshlaydi.*

9. *Jajji tumshuqlarin patiga tiqib,*
10.*Toliqib, toliqib mudraydi qushlar.*
11.*Tungi tayyoralar uchar entikib,*
12.*Ularning qo‘ynida uxlaydi tushlar.*

13.*Qandoq go‘zal chog‘ bu - samoviy holat,*
14.*Cheksiz koinot ham mudraydi sokin.*
15.*Uzoq majlislar ham tin olar bu vaqt,*
16.*Bo‘m-bo‘sh ko‘chalarda sukunat hokim.*

17.*Bizning yoqlarda ham shundoq manzara,*
18.*Uxlaydi tinmagur yozuvchilar ham.*
19.*Bo‘g‘iq alahsirar soqov sharshara,*
20.*Uxlar kechalarning mehmoni - shabnam.*

21.*Uxlar prem’erlar - ertasi notinch,*
22.*Uxlar kapalaklar, uxlar yo‘lbarslar,*
23.*Oshiqlar dilida uxlaydi sog‘inch,*
24.*Shikoyatlar uxlar, uxlaydi arzlar.*

25.*Uxlar qotillar ham, chaqaloqlar ham,*
26.*Raketalar uxlar - shundoq hol mavjud.*
27.*Yiroq dunyolar ham uxlaydi beg‘am,*
28.*Go‘yo tingan kabi olam behudud.*

29.*Faqat bitta tuyg‘u uxlamas biroq,*
30.*Uning to‘shagida mix bor to abad.*
31.*Uni qiynab yotar omonsiz so‘roq,*
32.*Faqat uxlamaydi birgina hasad.*

GECE MANZARALARI (99)

1. Akşam çökmeye başlar köhne zemine,
2. Uzaklarda, yakınlarda söner çırağlar.
3. Varlık yavaş yavaş yüzünü döner geceye,
4. Kararmaya başlar uzaklar.

5. Geceki sükûttur bu, geceki sükûnet,
6. Huzur gece döşeğini yoklamaya başlar.
7. Gündüzden yorulan uyanık meşakkat
8. Sessizce kardeşlerde uyumaya başlar.

9. Minik gagalarını tüyüne dikip,
10. Yorulup, yorulup uyuklar kuşlar.
11. Geceki tayyareler uçar iç çekip,
12. Onların koynunda uyur düşler.

13. Nasıl güzel an bu, semavi hâlet,
14. Sonsuz kâinat da uyuklar sessiz.
15. Uzun meclisler de ara verir bu vakit,
16. Bomboş sokaklarda sükûnet hâkim.

17. Bizim taraflarda da öyle manzara,
18. Uyur çalışkan yazıcılar da.
19. Boğuk sayıklar dilsiz şelale,
20. Uyur gecelerin misafiri şebnem.

21. Uyur başbakanlar sabah huzursuz,
22. Uyur kelebekler, uyur kaplanlar,
23.Âşıkların gönlünde uyur özlem,
24.Şikâyetler uyur, uyur arzlar.

25. Uyur katiller de, bebekler de,
26. Roketler uyur, öyle hâl mevcut.
27. Uzak dünyalar da uyur gamsız,
28. Sanki durmuş gibi âlem hudutsuz.

29. Yalnız bir duygu uyumaz fakat,
30. Onun döşeğinde mıh var ebediyen.

31. Onu giyip yatar amansız soru,
32. Yalnız uyumaz biricik haset. (1987)

AHMAD ZOIRNI TINGLAB... (100)

Ey, sarbon, ohistaron...

Sa’diy

1. *Shoshmagin, ey karvon, to‘xtagin bir on,*
2. *So‘zlayin ezgulik, shafqat otidan.*
3. *To barpo bo‘libdi - ko‘hna bu jahon,*
4. *Karvonlar oh chekar yovlar zotidan.*

5. *Shoshmagin, ey, karvon, to‘xtagin bir on,*
6. *Ona Sharq sehri bor jihozlaringda.*
7. *Senda yig‘lab borar Sa’diy navjuvon,*
8. *Rudakiy mehri bor bayozlaringda.*

9. *Shoshmagin, ey, karvon, to‘xtagin bir on,*
10.*Chashmi zilol bo‘lib dardingni olay.*
11.*Yo bir yaproq misol bo‘lay soyabon,*
12.*So‘ngra xazon yanglig‘ yo‘lingda qolay.*

13.*Shoshmagin, ey, karvon, to‘xtagin bir on,*
14.*Umidli bu jahon g‘amga bo‘lmas g‘arq.*
15.*Izingdan termulib qolmay to nolon,*
16.*Qumliklar bag‘rida g‘oyib bo‘lma, Sharq!*

AHMET ZAHİR'İ DİNLEYİP… (100)

Ey, sârebân, âheste rân…

Sadî

1. Telaşlanma, ey kervan, dur bir an,
2. Konuşayım iyiliğin, şefkatin adından.
3. Ortaya çıkmış, köhne bu cihan,
4. Kervanlar ah çeker düşmanların zatından.

5. Telaşlanma, ey kervan, dur bir an,
6. Ana Şark sihri var cihazlarında.
7. Sende ağlar Sadî delikanlı,
8. Rudekî şefkati var seçkilerinde.

9. Telaşlanma, ey kervan, dur bir an,
10.Çeşm-i zülal olup derdini alayım.
11. Yahut bir yaprak misali olayım sayeban,
12. Sonra hazan gibi yolunda kalayım:

13. Telaşlanma, ey kervan, dur bir an,
14.Ümitli bu cihan gama olmaz gark.
15.İzine gözünü dikip kalmadan ta nalan,
16. Kumluklar bağrında kaybolma, Şark! (1987)

ISM HAQIDA (101)

1. *Xayolimga kelar goh g'alat bir gap,*
2. *Gar uni el aro so'ylab yurmasman.*
3. *Bilmadim ne bois, bilmam ne sabab,*
4. *Ismimni birovga ravo ko'rmasman.*

5. *Ulug' otdoshlarim maqomi yuksak,*

6. *Men shogird erurman garchand alarga.*

7. *Har nechuk, bir gapni aytmog‘im kerak:*

8. *Oson bo‘lmagan hech Abdullalarga.*

İSİM HAKKINDA (101)

1. Hayalime gelir bazen ilginç bir söz,

2. Onu halk arasında söylemem,

3. Anlamadım ne bais, anlamam ne sebep,

4. İsmini birisine reva görmem.

5. Ulu adaşlarımın makamı yüksek,

6. Ben şakirdim gerçi almaya.

7. Her hâlde bir sözü söylemem gerek:

8. Kolay olmamış hiç Abdullahlara. (1987)

HAZIL (102)

1. *Ellikda odamlar qirol bo‘lishgan,*

2. *Qirol bo‘lmaganlar qarol bo‘lishgan.*

3. *Aravakash bo‘lgan uquvsizlari,*

4. *Shu yoshda boyigan zargarning bari.*

5. *Shoirlar shu yoshda dovrug‘ qozongan,*

6. *Yonsa - so‘nggi muhlat - oshiq ham yongan,*

7. *Oh, do‘stim, bizlar-chi, nimani ko‘rdik,*

8. *Ellikka shunchaki lallayib kirdik.*

ŞAKA (102)

1. Ellide insanlar kral olmuşlar,

2. Kral olmayanlar köle olmuşlar.

3. Nakliyeci olmuş zekâsızları,

4. Bu yaşta zenginleşmiş kuyumcuların hepsi.

5. Şairler bu yaşta ün kazanmış,

6. Yansa, son mühlet, âşık da yanmış,

7. Ah, dostum, bizler, neyi gördük,

8. Elliye böylesine, güçten düşerek girdik. (1987)

UQTIRISH (103)

1. *Unga uqtirdilar,*

2. *Oqni qora, deb,*

3. *Chunki bir qorani,*

4. *Oqlash lozim edi.*

5. *Unga uqtirdilar*

6. *Toqni bu - juft, deb,*

7. *Chunki bitta juftni*

8. *Toqlash lozim edi.*

9. *Unga uqtirdilar*

10. *Qing‘ir to‘g‘ri, deb,*

11. *Chunki bir qing‘irni*

12. *Yoqlash lozim edi.*

ANLATMAK (103)

1. Ona anlattılar,

2. Akı kara, diye,

3. Çünkü bir karayı,

4. Aklamak lazımdı.

5. Ona anlattılar

6. Teki bu, çift, diye,

7. Çünkü bir çifti

8. Tekleştirmek lazımdı.

9. Ona anlattılar

10.Eğriyi doğru, diye,
11.Çünkü bir eğriyi
12. Savunmak lazımdı. (1987)

SIRDARYO (104)

Jurnalist Abdurahim Abdullayev

xotirasiga

1. *Shaharlardan uzoq,*
2. *Kentlardan yiroq,*
3. *Oqasan, o‘zingni ovutib go‘yo.*
4. *Yurishing sokinu turishing ovloq,*
5. *Noming ham shu sabab asli Sirt daryo.*
6. *To‘lqinlaring tinib chashmadek sizding,*
7. *Har dilda uyg‘otib shafqat-rahmni.*
8. *Shunday ahvolingda qandoq oqizding,*
9. *O‘zingdan ham yovvosh Abdurahimni.*

SİRDERYA (104)

Gazeteci Abdurrahim Abdullayev’in

anısına

1. Şehirlerden uzak,
2. Kentlerden ırak,
3. Akarsın, kendini avutup sanki.
4. Yürümen sakin ve duruşun avlak,
5. Namın da şu sebepten zaten Sırt Derya.
6. Dalgaların dinip kaynak gibi sızdın,
7. Her gönülde uyandırıp şefkati, merhameti.
8. Öyle ahvalinde nasıl aktın,
9. Kendinden de uysal Abdurrahim’i. (1987)

OROL UCHUN (105)

1. *Goho miyamizni qoplasa savdo,*
2. *G‘alat tasavvurlar xayolga kelar:*
3. *Registon yo‘qolib qolsa mabodo,*
4. *Ayting-chi, do‘stlarim, ne hol yuz berar?*

5. *Ayting-chi, qandayin kunga tushardik,*
6. *Buxoro bo‘lmasa, bo‘lmasa Xevoq?*
7. *Ular abadiydir deya behadik*
8. *O‘tib borayotir umrimiz mudroq.*

9. *Shaharlar joyida turibdi bu kun,*
10. *Ularning zavoli kelmas xayolga.*
11. *Merosiy xudbinlik borligi uchun*
12. *Qaramay qo‘yibmiz afsus, Orolga.*

13. *Otang ketsa agar, ota bo‘larsan,*
14. *Onaning o‘rnini bosgay qiz, singil.*
15. *Dengizing qurisa ne ham qilursan,*
16. *Qayga bosh urarsan ey, munglug‘ ko‘ngil*.

ARAL İÇİN (105)

1. Bazen beynimizi kaplasa sevda,
2. Garip tasavvurlar hayale gelir:
3. Registan kaybolsa eğer,
4. Söyleyin, dostlarım, ne hâl belirir?

5. Söyleyin, nasıl güne düşerdik,
6. Buhara olmasa, olmasa Hive?
7. Onlar ebedîdir diye kuşkusuz
8. Geçip gidiyor ömrümüz rehavette.

9. Şehirler yerinde durmuş bugün,
10. Onların zevali gelmez hayale.
11. Mirası hodbinlik serveti için
12. Bakmamışız ne yazık ki Aral'a.

13. Baban gitse eğer baba olursun,
14. Ananın yerini alacak kız, kız kardeş.
15. Denizin kurusa ne de yaparsın,
16. Nereye baş eğersin ey, gamlı gönül? (1987)

OTALAR ILGIDA ZAMON BILAN VAQT (106)

1. *Otalar sha'niga loyiq so'z demoq*
2. *Tabarruk bir kitob yozish bilan teng.*
3. *Ularning mehri-ku, bamisli charoq,*
4. *Bag'ri ham yulduzli osmon kabi keng.*

5. *Sharqona tashbehni olsam gar yodga,*
6. *Bir nomi buzurgu bir nomi faqir.*
7. *Zaminni kaftida tutib, avlodga*
8. *Bus-butun yetkazgan otalar, axir.*

9. *Yuksak-yuksaklarda uchgan sor lochin*
10.*Nazar uzmagandek polaponidan.*
11.*Bardavom naslini asramoq uchun*
12.*Axir ota qavmi kechgan jonidan.*

13.*Non, degan farzandning dardli xitobi*
14.*Goh uni tiriklay chohlarga tiqqan.*
15.*Bardoshli umrning zaqqum zardobi*
16.*Sochlari qirovdek ko'pirib chiqqan.*

17.*Taxti Sulaymondan balanddir beshak*

18.*Ota deb atalgan martabayu baxt.*

19.*Farzand bunyod bo‘ldi, o‘lim yo‘q demak,*

20.*Otaning ilgida zamon bilan vaqt.*

21.*Men ko‘kka termulib kutmasman madad,*

22.*Do‘st izlab har yonda kezmasman sarson.*

23.*Do‘stu madadkor ham otadir abad,*

24.*Shoni - shoning erur, armoni - armon.*

BABALARIN YARARINA ZAMAN İLE VAKİT (106)

1. Babaların şanına layık söz demek

2. Teberrük bir kitap yazmakla denk.

3. Onların şefkati, sanki çırağ,

4. Bağrı da yıldızlı asuman gibi geniş.

5. Şarkane teşbihi alsam eğer hatıra,

6. Bir namı şahane bir namı fakir.

7. Zemini avcunda tutup, evlada

8. Büsbütün vermiş atalar, nihayet.

9. Yüksek yükseklerde uçan şahin doğan

10. Bakışını ayırmamış gibi yavrusundan.

11. Devamlı neslini korumak için

12. Nihayet baba kavmi geçmiş canından.

13. Ekmek, diye evladının dertli hitabı

14. Bazen onu diri diri kuyulara sokmuş.

15. Uzun ömrünün zehir derdi

16. Saçları kırağı gibi köpürüp çıkmış.

17. Tahtı Süleyman’dan yüksektir şüphesiz

18. Baba diye denilen mertebe ve baht.

19. Evlat yaratıldı, ölüm yok demek,
20. Babanın yararına zaman ile vakit.

21. Ben göğe gözümü dikip beklemem medet,
22. Dost arayıp her yanda gezmem avare.
23. Dost ve medetkâr da babadır ebet,
24.Şanı şanındır, ukdesi ukden. (1987)

ESKI QUDUQ (107)

1. *Hamma biladigan rivoyat buldir:*
2. *Emish Iskandarning bor ekan shoxi.*
3. *Uni yashirolmay sartarosh qurg‘ur*
4. *Quduqqa aytibdi, shuldir gunohi.*

5. *Yashab kelmoqdaman o‘zimga ko‘ra,*
6. *O‘tgan-ketgan sirdan ko‘nglim erur to‘q.*
7. *Lekin nedir menga yetishmas sira,*
8. *Balki yetishmaydi u eski quduq.*

ESKİ KUYU (107)

1. Herkesin bildiği rivayet budur:
2. Emiş İskender’in varmış boynuzu.
3. Onu gizleyemeyen berber kuru
4. Kuyuya söylemiş, budur günahı.

5. Yaşayıp gitmekteyim kendime göre,
6. Geçip giden sırdan gönlüm toktur.
7. Lakin nedir bana yetişmez asla,
8. Belki yetişmez o eski kuyu. (1987)

BEMAHAL QOR YOQQAN KUNI (108)

1. *Gul chog‘i, bo‘stonga ishtiyoq baland,*
2. *Nechundir bemahal yog‘a ketdi qor.*
3. *Diktorning bir og‘iz e’loni bilan*
4. *Chindan ham qaygadir berkindi bahor.*

5. *Bu fursat chamansiz ko‘ngillar yarim,*
6. *Bulbulni quvlamang dostonimizdan.*
7. *Sizdan nima ketdi, diktor do‘stlarim,*
8. *Qorni kurab qo‘ying bo‘stonimizdan.*

ZAMANSIZ KARIN YAĞDIĞI GÜN (108)

1. Gül zamanı, bostana iştiyak yüksek,
2. Niçin zamansız yağmaya başladı kar?
3. Spikerin kısacık ilanıyla
4. Gerçekten de nereye gizlendi bahar?

5. Bu an çimensiz gönüller ayrım,
6. Bülbülü kovmayın destanımızdan.
7. Sizden ne gitti, spiker dostlarım,
8. Karı küreyin bostanımızdan. (1987)

NOMA (109)

1. *Biz tomonga, ey, nigora, ne balo, bir kelmading,*
2. *Ko‘zlarimga bo‘ldi dunyo tim qaro, bir kelmading.*

3. *Kipriging o‘q, tiyg‘i lashkar, shul sabab sadpora dil,*
4. *Ustiga-ustak yaraldi ming yaro, bir kelmading.*

5. *Menga-ku lutf aylamabsan, o‘zgalar ham noumid,*
6. *Ahli ag‘yor ham bo‘libdir, bas, ado, bir kelmading.*

7. *Subhidamda uchdi ohim kavkabistonga qadar,*

8. *Keldi-yu, tubsiz falaklardan sado, bir kelmading.*

9. *Sen nazar solgan chechaklardan ari bol emsa gar,*

10.*Aylar erdim ko‘zga gardin to‘tiyo, bir kelmading.*

11.*Bog‘larimda sa’va xomush, qumrilar ham gangu lol,*

12.*Guftigo‘ni o‘rgaturga sen - go‘yo, bir kelmading.*

13.*Bag‘ritoshsan, xasta aylab, ham yiroq ketding nechun,*

14.*Tibda derlar gohi dardga tosh da’vo, bir kelmading.*

15.*Senga turfa she’r bitibman, yo‘l qarar Abdullaman,*

16.*Yaxshiyamki, noma bordir ishq aro, bir kelmading.*

NAME (109)

1. Bizim tarafa, ey, sevgili, ne bela, bir gelmedin,

2. Gözlerimde oldu dünya zifiri karanlık, bir gelmedin.

3. Kirpiğin ok, zaptedilen ordu, o sebep paramparça gönül,

4. Üstüne üstlük yaratıldı bin yara, bir gelmedin.

5. Bana lütfetmişsin, başkaları da ümitsiz,

6. Ehli ağyar da olmuştur, yeter, eda, bir gelmedin.

7. Sabahleyin içti ahım yıldızistana kadar,

8. Geldi, dipsiz feleklerden seda, bir gelmedin.

9. Senin dikkatle baktığın çiçeklerden arı bal emse eğer,
10. Ederdim göze tozunu ilaç diye, bir gelmedin.

11. Bağlarımda saka sessiz, kumrular da sağır ve lal,
12. Konuşmayı öğretmeye sen sanki, bir geldin.

13. Taş kalplisin, hasta edip de ırak gittin niçin,
14.Tıpta derler bazen derde bir taş deva, bir gelmedin.

15. Sana acayip şiir yazmışım, yol arayan Abdullah'ım,
16.İyi ki, name vardır aşk içinde, bir gelmedin… (1987)

YOSH SHOIRLARGA (110)

1. *Juda g'alatidir bu ko'hna olam,*
2. *Mening ko'zim bilan gar boqib tursang.*
3. *Qiziq, darhaqiqat, kap-katta odam,*
4. *Yosh bola singari she'r yozib yursang.*

5. *Meni kechirsinlar qarri shoirlar,*
6. *Kechirsin, kimki gar o'z qadrin bilsa.*
7. *Axir nima qilay, chorlasa sirlar,*
8. *Axir nima qilay, she'r yozgim kelsa!..*

GENÇ ŞAİRLERE (110)

1. Çok gariptir bu köhne âlem,
2. Benim gözümle eğer bakarsan.
3. İlginç, gerçekten, koskocaman insan,
4. Genç çocuk gibi şiir yazarsan.

5. Beni affetsinler yaşlı ihtiyar,
6. Affetsin, kim ki eğer kendi kadrini bilirse.

7. Artık ne yapayım, çağırsa sırlar,

8. Artık ne yapayım, şiir yazasım gelirse!... (1987)

AYTISHUV (111)

1. *Ajdodlar:*

2. *- Samarqandu Buxoroni bizlar qurganmiz.*

3. *Avlodlar :*

4. *- Bizlar esa siz qurganni borib ko‘rganmiz.*

5. *Ajdodlar:*

6. *- Shaxmatni biz o‘ylab topdik, shavqlarga to‘ldik.*

7. *Avlodlar:*

8. *- Bizlar esa uni o‘ynab chempion bo‘ldik.*

9. *Ajdodlar:*

10. *- Ipakni ham yetishtirdik qadim zamonlar.*

11.*Avlodlar:*

12. *- Bizlar esa u ipakdan eshdik arqonlar.*

13.*Ajdodlar:*

14. *- Til yaratdik, yozuv tuzdik go‘zal hamda boy.*

15.*Avlodlar:*

16. *- Biz ularga muzeylardan topib ko‘ydik joy,*

17.*Ajdodlar:*

18. *- Bizdan qoldi sho‘x daryolar, ko‘llar musaffo.*

19.*Avlodlar:*

20. *- Ularni ham quritgaymiz bir kun, inshollo...*

21.*Ajdodlar:*

22. *- Biz poroxni xumga tiqdik kashf etgan oni.*

23.*Avlodlar:*

24. *- Xum ustiga o‘tirg‘izdik bizlar dunyoni.*

ATIŞMA (111)

1. Ecdatlar:

2. - Semerkant ve Buhara’yı bizler kurmuşuz.

3. Evlatlar:

4. - Bizlerse sizin kurduğunuzu gidip görmüşüz.

5. Ecdatlar:

6. - Satrancı biz düşünüp bulduk, şevklerle dolduk.

7. Evlatlar:

8. - Bizlerse onu oynayıp şampiyon olduk.

9. Ecdatlar:

10.- İpeği de yetiştirdik kadim zamanlar.

11. Evlatlar:

12.- Bizlerse o ipekten eğirdik ipler.

13. Ecdatlar:

14.- Dil yarattık, yazı oluşturduk güzel ve zengin.

15. Evlatlar:

16.- Biz onlara müzelerden bulduk yer.

17. Ecdatlar:

18.- Bizden kaldı şuh deryalar, kollar berrak.

19. Evlatlar:

20.- Onları da kurutacağız bir gün, inşallah…

21. Ecdatlar:

22.- Biz barutu kaba koyduk keşfetmiş onu.

23. Evlatlar:

24.- Kabın üstüne oturttuk bizler dünyayı. (1987)

SARHADLAR (112)

1. *Kimsaga baho berish ilinjida yurganlar,*

2. *Eng avval o‘z-o‘ziga boqishlari kerakdir.*

3. *Qadimiy bobolar ham ming o‘ylab bir deganlar:*

4. *Har kimning go‘ri boshqa, azroili bo‘lakdir.*

5. *Qanchalik ishing bordir hayotim bilan, ey yov,*

6. *Seni tangri teppamga posbon qilib qo‘yganmi?*

7. *O‘z tushim o‘zimniki, goh otliqman, goh yayov,*

8. *Men yegan burda nondan sening qorning to‘yganmi?*

9. *Muqaddas sarhadlar bor insonning hayotida,*

10.*Ularni bosib o‘tish odamlikka yot erur.*

11.*Qancha-qancha sir yashar har kimning bisotida,*

12.*Shul sabab u INSONDIR, shu sabab u ZOT erur.*

13.*Kimga muhabbat qo‘yib, kimga nafrat bildirmoq,*

14.*Nafas olish singari ixtiyoriy jo‘n bir gap.*

15.*Afsonaviy devlar u - qo‘llarida urto‘qmoq,*

16.*O‘tgan-ketgan bandani o‘zicha yurgan tergab.*

17.*Mana bu buloq menga g‘oyatda yoqib qolmish,*

18.*Mana bu shabboda ham menga g‘oyat alomat.*

19.*Sening esa hushingni, deylik, dengizlar olmish,*

20.*Yo‘lingdan sira qolma, joning bo‘lsin salomat.*

21.*Azizim, dil qasriga beso‘roq kira ko‘rma,*

22.*Unda qo‘sh-qo‘sh ilonlar, ajdaholar yotadi.*

23.*Sen birovni toptay deb behudaga ot surma -*

24.*Har kimning o‘z quyoshi o‘z ufqiga botadi.*

25.*O‘z uying, o‘z to‘shaging o‘z-o‘zingga buyurib,*

26.*O‘z farzanding, o‘z yoring bo‘laversin seniki.*

27.*Xohla tingla xohlama - ketaver qanding urib,*

28.*Ixtiyor senikidir, bu she’r esa meniki.*

SERHATLAR (112)

1. Birine notunu vermek umudunda yürüyenler,

2. En evvel kendi kendilerine bakmaları gerekir.

3. Kadimi dedeler de bin düşünüp bir demişler:

4. Herkesin mezarı ayrı, Azrail’i başkadır.

5. Ne işin vardır hayatımla, ey düşman,

6. Seni Tanrı tepeme polis mi yapmış?

7. Kendi düşüşüm kendime ki, gâh atlıyım, gâh yaya,

8. Benim yediğim parça ekmekten senin karnın doymuş mu?

9. Mukaddes serhatlar var insanın hayatında,

10. Onları basıp geçmek insanlığa yabancıdır.

11. Nice nice sır yaşar herkesin sermayesinde,

12. Bu sebepten o İNSANDIR, bu sebepten o ZATTIR.

13. Kimine muhabbet koyup, kimine nefret bildirmek,

14. Nefes almak gibi ihtiyari basit bir söz.

15. Efsanevi devler o, ellerinde vur tokmak,

16. Geçip giden bendeyi kendince çekmiş sorguya.

17.İşte bu bulak benim gayet hoşuma gitmiş,

18.İşte bu esinti de bana gayet alamet.

19. Seninse aklını, diyelim, denizler almış,
20. Yolundan asla kalma, canından olsun selamet.
21. Azizim, gönül kasrına izinsiz girmeyegörme,
22. Onda çift çift yılanlar, ejderhalar yatar.
23. Sen birisini ezeyim diye beyhude at sürme,
24. Herkesin kendi güneşi kendi ufkuna batar.
25. Kendi evin, kendi döşeğin kendi kendine buyurup,
26. Kendi evladın, kendi yârin oluversin seninki.
27.İste dinle isteme, gidiver tatlılık edip,
28.İhtiyar seninkidir, bu şiirse benimki. (1987)

KOMETA (113)

Chingiz Ahmarovga

1. *Har zamon, har zamon Yer yaqinidan,*
2. *Noyob kometalar o‘tib qoladi.*
3. *Kimlardir ko‘z uzmay nur chaqinidan,*
4. *Ularning suratin oladi.*
5. *Kimlardir payqamas, yo bo‘lmas ogoh,*
6. *Ko‘p borsa ta’birlar ko‘rgan bir tushin.*
7. *Ular qaydan bilsin, kometalar goh,*
8. *Yuz yilda bir marta qaytib o‘tishin.*
9. *Nechog‘lik g‘aroyib manzaradir bu:*
10.Samoviy nur bilan yo‘g‘rilgan san’at.
11.Somon yo‘llarida yugurgan ohu,
12.Zuhro jamolidan uzilgan tal’at!
13.Endi yana qachon kelar u qaytib,
14.Gohi yuz yil o‘tar, ming yillar gohi.
15.Yolg‘iz u o‘tmishdan afsunlar aytib.
16.Olis kelajakning bo‘lgay guvohi.

KUYRUKLU YILDIZ (113)

Cengiz Ahmarov'a

1. Her zaman, her zaman Yer yakınından,
2. Nadiren kuyruklu yıldızlar geçer.
3. Birileri gözünü ayırmadan ışık kıvılcımından,
4. Onların resmini çeker.
5. Birileri sezmez, yahut olmaz agâh,
6. Çok gitse tabir eder gördüğü bir düşünü.
7. Onlar nasıl bilsin, kuyruklu yıldızlar gâh,
8. Yüzyılda bir kez dönüp geçişini.
9. Ne kadar garip manzaradır bu:
10. Semavi ışıkla yoğrulmuş sanat.
11. Samanyollarında koşan ahu,
12. Zühre cemalinden kesilmiş tal'at!
13. Şimdi yine ne zaman gelir o dönüp,
14. Gâh yüzyıl geçer, binlerce yıl geçer gâh.
15. Yalnız o geçmişten efsunlar söyleyip.
16. Uzak geleceğin olacak şahidi. (1987)

"TAQDIR YO'RIG'IDAN ROZIMAN MING BOR…" (114)

1. *Taqdir yo'rig'idan roziman ming bor,*
2. *Menga duch ayladi seni ey, nigor.*
3. *Ko'zingda poyonsiz umrimni ko'rdim,*
4. *Sensiz bir lahzaning o'tmog'i dushvor.*

"TAKDİR IŞIĞINDAN RAZIYIM BİN KEZ…" (114)

1. Takdir ışığından razıyım bin kez,
2. Bana rastladı seni ey, nigâr.
3. Gözünde sonsuz ömrümü gördüm,
4. Sensiz bir lahzanın geçmesi zor. (1987)

BEMOR VA TABIB (115)

1. *- Sochim to‘kilmoqda, ey dono tabib,*
2. *Nima qilmoq kerak, chorasini ayt.*
3. *- Ellik yil yuribsan uni ko‘tarib,*
4. *Yana haqqing bormi? Boq bunga loqayd.*

5. *- Netay, hoziq tabib, topgil imkonni,*
6. *Quloq ham bitmoqda, ilg‘amas taqir.*
7. *- Ellik yil eshitib yaxshi-yomonni,*
8. *Sho‘rlik charchabdi-da, hordiq ber, axir.*

9. *- Lekin yurak sanchar, davo qil, tabib,*
10.*Mayli quloq bitsin, mayli chiqmas mo‘y.*
11.*- Ellik yil mahringga ishlabdi, hadeb*
12.*Uni ham qiynama, o‘z holiga qo‘y...*

13.*Bemor rozi qaytdi shul kun uy yoqqa,*
14.*Demak, a’zolari o‘tabdi burchin.*
15.*Rahmat tushgan sochga, bitgan quloqqa,*
16.*Yurakka ham rahmat xizmati uchun.*

17.*O‘sha tun uxladi u dorilomon,*
18.*Bemorni halovat bag‘riga yutdi.*
19.*A’zolar hordiqqa chiqmish, yo‘q gumon,*
20.*Ularning borligin unutdi.*

21.*Go‘yoki soch unda bo‘lmagan hech ham,*
22.*Go‘yoki quloq ham asli nokerak.*
23.*Ko‘ksiga joylashib allaqaysi dam,*
24.*Uni xo‘b qiynabdi qandaydir yurak.*

25.*Bemor xursand edi, shod edi, xullas,*

26.*Shifo topgan edi malhamsiz, tekin.*

27.*Be’mani tashvishlar ortiq qiynamas,*

28.*Sababi nimadir? Bilmasdi lekin.*

29.*Tabibning qoshiga keldi u xurram.*

30.*Dedi: mo‘’jizangni ayon et menga.*

31.*Tabib javob qildi: o‘zingni bo‘tam,*

32.*Yo‘q deb hisoblasang - kirgaysan mingga!*

BÎMÂR VE TABİP (115)

1. - Saçım dökülmekte, ey bilge tabip,

2. Ne yapmak gerek, çaresini söyle.

3. - Elli yıl yürümüşsün onu kaldırıp,

4. Yine hakikat var mı? Bak buna lakayıt.

5. - Ne çare, mahir tabip, bul imkânı,

6. Kulak da bitmekte, duymaz hiç.

7. - Elli yıl işitip iyiyi, kötüyü,

8. Biçare yorulmuş da, istirahat ver, ahir.

9. - Lakin yürek sancılanır, deva kıl, tabip,

10.Bırak kulak bitsin, bırak çıkmaz tüy.

11.- Elli yıl servetine çalışmış, durmadan

12. Ona da zulmetme, kendi hâline bırak…

13.Bîmâr razı döndü o gün evine,

14. Demek, azalarının bitmiş işi.

15. Teşekkürler düşen saça, biten kulağa,

16.Yüreğe de teşekkürler hizmeti için.

17.İşte bu gece uyudu o şifahanede,

18.Bîmârı halavet bağrına bastı.

19. Azalar rahat etti, yok şüphe,
20. Onların varlığını unuttu.

21. Sanki saç orada olmamış hiç de,
22. Sanki kulak da aslında gereksiz.
23.Göğsüne yerleşip her dem,
24. Onu iyice zulmetti bir yürek.

25.Bîmâr memnundu, mutluydu, hülasa,
26.Şifa bulmuştu merhemsiz, bedava.
27. Manasız kaygılar artık zulmetmez,
28. Sebebi nedir? Bilmezdi lakin.

29. Tabibin yanına geldi o memnun.
30. Dedi: Mucizeyi ayan et bana.
31. Tabip cevap verdi: Kendini derdin,
32. Yok diye sayarsan, gireceksin bine! (1987)

XATOLARING KERAK ULARGA (116)

1. *Shundaylar bor, senga lutf aylab,*
2. *Do‘stman, deya qo‘lin tutarlar.*
3. *Lekin har zum qadaming poylab,*
4. *Xato qilishingni kutarlar.*

5. *Xato qilsang, ularga bayram,*
6. *Yo‘qsa, zahru zaqqum yutarlar.*
7. *Mayli, jindek, zarra bo‘lsa ham,*
8. *Xato qilishingni kutarlar.*

9. *Xatolaring kerak ularga,*
10.*Shox-novdangni darhol butarlar.*
11.*Tag‘in kunni ulab tunlarga,*

12.*Xato qilishingni kutarlar.*

13.*Axtarurlar hamisha illat,*
14.*Yetti pushting go‘rin titarlar.*
15.*Faqat unma, ulg‘ayma faqat,*
16.*Xato qilishingni kutarlar.*

17.*Ular senga bir umr yo‘ldosh,*
18.*Sodiq hamroh kabi o‘tarlar.*
19.*Qabring uzra egsalar ham bosh,*
20.*Xato qilishingni kutarlar.*

HATALARIN GEREK ONLARA (116)

1. Öyleleri var, sana lütfedip,
2. Dostum, diye elini tutarlar.
3. Lakin her an adımını gözleyip,
4. Hata etmeni beklerler.

5. Hata yapsan, onlara bayram,
6. Yoksa zehir ve zıkkım yutarlar.
7. Tamam, azıcık, zerre olsa da,
8. Hata etmeni beklerler.

9. Hataların gerek onlara,
10. Dalını, filizini derhâl budarlar.
11. Yine günü katıp gecelere,
12. Hata etmeni beklerler.

13. Ararlar daima illet,
14. Yedi neslin mezarını ararlar.
15. Yalnız büyüme, yetişme yalnız,
16. Hata etmeni beklerler.

17. Onlar sana bir ömür yoldaş,

18. Sadık yoldaş gibi geçerler.

19. Kabrin üstünde eğseler de baş,

20. Hata etmeni beklerler. (1987)

SOBITLIK (117)

1. *O‘chib borayotir qanchalar kalom,*

2. *Ne-ne bitiklar ham yo‘qdir, vassalom.*

3. *Dunyoda faqat bir sobit suxan bor:*

4. *U o‘z farzandingga o‘zing qo‘ygan nom.*

SABİTLİK (117)

1. Yok olup gider nice kelamlar,

2. Çok eserler de yoktur, vesselam.

3. Dünyada yalnız bir sabit söz var:

4. O kendi evladına kendi koyduğun nam. (1987)

KO‘RDIM (118)

1. *Soddadil odamni juda kam ko‘rdim,*

2. *Borin ham shikasta, ko‘zin nam ko‘rdim.*

3. *Dunyoda firibgar ko‘p ekan, lekin,*

4. *Ularning barchasin shod-xurram ko‘rdim.*

GÖRDÜM (118)

1. Safdil insanı çok az gördüm,

2. Varını da şikeste, gözünü nem gördüm.

3. Dünyada hilekâr çokmuş, lakin,

4. Onların hepsini mutlu mesut gördüm. (1987)

EL QO‘LLASA (119)

1. *El qo‘llasa, azizim, omon bo‘lsak, ajabmas*

2. *Qo‘llamasa - rang-ro‘yi somon bo‘lsak, ajabmas.*

3. *Elni bizdan qizg‘anib so‘z aytguvchi zotlar bor,*

4. *Ular uchun bir umr yomon bo‘lsak, ajabmas.*

HALK KOLLASA (119)

1. Halk kollasa, azizim, esen olsak, garip değil

2. Kollamasa beti benzi saman olsak, garip değil.

3. Halkı bizden kıskanıp söz söyleyen zatlar var,

4. Onlar için bir ömür yaman olsak, garip değil. (1987)

GURUHBOZ (120)

1. *Bitta o‘zi pashshani ham yiqolmaydi,*

2. *U joyga ham bitta o‘zi chiqolmaydi.*

3. *Qayga borsa atrofiga sherik to‘plar,*

4. *Yo‘qolsa ham bitta o‘zi yo‘qolmaydi...*

TARAFGİR (120)

1. Bir kendisi, bir sineği kaybolmaz,

2. Oraya da bir kendisi çıkamaz.

3. Nereye gitse etrafına ortak toplar,

4. Kaybolsa da bir kendisi kaybolmaz… (1987)

ISMALOQ (121)

1. *Sen - bahor ne’mati, oddiy bir ko‘kat,*

2. *Poyang arg‘uvoniy, barging yapaloq.*

3. *Quvondim, men seni ko‘rsam har fursat,*

4. *Har ko‘klam men seni kutdim, ismaloq.*

5. *Sen bir gul emassan, nozlarga to‘lib,*

6. *Ilhom bera olsang injiq ijodga.*

7. *Men uchun sen najot elchisi bo‘lib,*

8. *U og‘ir kunlarni tushirding yodga.*

9. *Esimda, oyog‘i pilikday go‘dak,*

10. *Ochlikdan qoq qurib, bergan edi jon.*

11. *Bir taqa arpa ham ko‘zga surtgudak,*

12. *Janglar jarohati bitmagan hamon.*

13. *Onalar chorasiz, bobolar miskin,*

14. *Diydaga yopishgan yenglar, etaklar.*

15. *O‘shanda el-yurtga darmonu taskin,*

16. *Nasiba bo‘ldingiz, aziz chechaklar.*

17. *Ko‘rganman, qishlog‘im ko‘chalarida,*

18. *Ochlikdan gezarib ketganlarni men.*

19. *Ko‘rganman, uzun qish kechalarida*

20. *Sizni armon bilan kutganlarni men.*

21. *Bugun dasturxonda bezaksiz faqat,*

22. *Kimdir e’zoz etar, bepisand kimdir.*

23. *Sizning qadringizni bilguvchi har vaqt,*

24. *O‘sha yo‘qchilikni ko‘rgan xalqimdir.*

25. *Siz - ravoch, chuchmoma, Siz - quyon to‘piq,*

26. *Yaltirbosh, ko‘k beda, Siz - tuya tovon.*

27. *Sho‘ra o‘t, yer yong‘oq, qoqi zamburug‘,*

28. *Sharbat bera olgan sahroyi tikon.*

29. *Aziz ne’matlarim, Sizga tashakkur,*

30. *Doimo bo‘y cho‘zing zamin komidan.*

31. *Men sizni ko‘zimga surtayin har qur,*

32.*Shukrona aytayin hayot nomidan.*

ISPANAK (121)

1. Sen bahar nimeti, basit bir zerzevat,
2. Sapın erguvani, yaprağın yassı.
3. Sevindim, ben seni görsem her vakit,
4. Her bahar ben seni bekledim, ıspanak.

5. Sen bir gül değilsin, nazlarla dolup,
6. İlham verebilsen kaprisli sanata.
7. Benim için sen necat elçisi olup,
8. O ağır günleri düşürdün yâda.

9. Hatırımda, ayağı pamuk gibi bebek,
10.Açlıktan kuruyup, vermişti can.
11. Bir çift arpa da göze sürmüş gibi,
12. Savaşların cerahati bitmemiş hep.

13. Analar çaresiz, dedeler miskin,
14. Dideye yapışmış kollar, etekler.
15.İşte o anda el yurda derman ve teskin,
16. Nasip oldunuz, aziz çiçekler.

17.Görmüşüm, köyümün sokaklarında,
18.Açlıktan sararıp gidenleri ben.
19.Görmüşüm, uzun kış gecelerinde
20. Sizi ukdeyle bekleyenleri ben.

21. Bugün sofrada sade yalnız,
22. Kim hürmet eder, koşulsuz kim?
23. Sizin kadrinizi bilen her vakit,
24.İşte o yokluğu gören halkımdır.

25. Siz ravent, kasımpatı, Siz tavşan topuğu,
26. Parlakbaş, yeşil yonca, Siz deve tabanı.
27.Çalı ot, yer ceviz, kuru mantar,
28.Şerbet verebilmiş sahra-yı diken.

29. Aziz nimetlerim, Size teşekkür,
30. Daima boy atın zemin üstünden.
31. Ben sizi gözüme süreyim her an,
32.Şükür edin hayat namına. (1987)

FURQAT NIDOSI (122)

1. *Men Vatandan ketmaganman,*
2. *Ayri tushganman xolos.*
3. *Ajragandek suv kecharda*
4. *Bir nafas tandin libos.*
5. *Yurt u yonda, men bu yonda,*
6. *O‘rtada hijron seli,*
7. *Anga kiprik tashlamakka*
8. *Baytlarim bo‘ldi asos.*
9. *O‘ksib-o‘ksib yig‘ladim men,*
10. *Misli til bilmas go‘dak,*
11.*Onaizor ko‘kragidan*
12. *Ayrilib qolgan bexos.*
13.*Men Vatanda Xolmuhammad*
14. *O‘g‘li Zokirjon edim,*
15.*Furqatiy deb nom qozondim,*
16. *Bunga hijron iqtibos.*
17.*So‘nmagan ishq, o‘lmagan qalb,*
18. *Bir uyum tuproq bo‘lib,*
19.*Sarzamindan bosh ko‘tardi,*
20. *Ushbuga qabrim qiyos.*
21.*Kim Vatan deb yona-yona*
22. *Kul bo‘lib bitmish magar,*

23.*O‘t-olovni mendan olsin,*

24. *O‘t-olov mendan meros.*

25.*Shoiringni yod etarda, o‘zbegim,*

26. *Sendan o‘tinch:*

27.*Bir-biringga qil muruvvat,*

28. *Bir-biring bag‘ringa bos!*

FURKAT NİDASI (122)

1. Ben Vatandan gitmemişim,

2. Ayrı düşmüşüm yalnız.

3. Ayrılmış gibi su geçmekte

4. Bir an tenteyi libas.

5. Yurt o yanda, ben bu yanda,

6. Ortada hicran seli,

7. Ona kirpik atmaya

8. Beyitlerim oldu esas.

9. Üzülüp üzülüp ağladım ben,

10. Sanki dil bilmez bebek,

11. Anaya muhtaç göğsünden

12. Ayrılıp kalmış birden.

13. Ben Vatanda Halmuhammed

14. Oğlu Zakircan’dım,

15. Furkatî diye nam kazandım,

16. Buna hicran iktibas.

17.Sönmeyen aşk, bitmeyen kalp,

18. Bir avuç toprak olup,

19. Zeminden baş kaldırdı,

20. İşte buna kabrim kıyas.

21. Kimi Vatan diye yana yana

22. Kul olmuş meğer,

23. Ateşi, alevi benden alsın,

24. Ateş, alev benden miras.

25.Şairini yâd eder, Özbek’im,

26. Senden rica:

27. Birbirine kıl mürüvvet,

28. Birbirini bağrına bas! (1987)

“YIROQ BO‘L HASRATDAN, MUNGDAN, KO‘ZYOSHDAN…” (123)

1. *Yiroq bo‘l hasratdan, mungdan, ko‘zyoshdan,*

2. *Sha’ningga otilgan ta’nadan, toshdan.*

3. *Mag‘rur tursang agar, mag‘rur degaylar,*

4. *Mutelik izlarlar fe’li yovvoshdan.*

5. *Yupanch topoldingmi, dunyoga kelib,*

6. *Ustoz yo shogirddan yoki tengdoshdan.*

7. *Qashqir to‘dasida qolgan bir otsan,*

8. *Tuyog‘ing sinmasa basdir, bardoshdan.*

9. *Faqat muhabbatga topingil, ey qalb,*

10.*Sen mehr ko‘rgaysan o‘shal quyoshdan.*

11.*Axir bobolar ham demishlar qadim:*

12.*Muhabbat yaratgan dunyoni boshdan.*

“UZAK OL HASRETTEN, SIKINTIDAN, GÖZYAŞINDAN…” (123)

1. Uzak ol hasretten, sıkıntıdan, gözyaşından,

2. Şanına atılan sitemden, taştan.

3. Mağrur durursan eğer, mağrur diyecekler,

4. İtaatkârlık ararlar mizacı uysalda.

5. Teselli bulabildin mi, dünyaya gelip,

6. Üstat veya şakirtten yahut akrandan.

7. Kurt sürüsünde kalan bir atsan,
8. Toynağın kırılmasa kâfidir, sabırdan.

9. Yalnız muhabbete sığın, ey kalp,
10. Sen şefkat göreceksin işte o güneşten.

11. Nihayet dedeler de demişler kadim:
12. Muhabbet yaratmış dünyayı baştan. (1987)

"BAHOR KELAYOTIR" (124)

1. *Bahor kelayotir,*
2. *Toza, musaffo.*
3. *Moviy kengliklarda o'ynaydi shamol.*
4. *Daralar qo'ynida zangor bir havo,*
5. *Tumanli shahr ichra yotmoqlik malol.*

6. *Qoyalar ko'ksida shodmon, beqayg'u,*
7. *Oniy umri bilan sollanar chechak.*
8. *Bahor bu - eng toza shabbodadir bu,*
9. *Bahor bu - eng toza shamoldir demak.*

10.*Kengliklar bag'riga uraman o'zni,*
11.*Ko'zimga ko'ringay dilbar diyorim.*
12.*Go'dak nafasidek yupatar yuzni*
13.*Qish bo'yi intizor kutgan bahorim.*

14.*Bahor-ku o'tadi shamoldek shitob,*
15.*Mayli, o'tajak u va o'tar bo'lsin.*
16.*Azizim, umringda havo bo'lsin sof,*

17.*Umring shamollari muattar bo‘lsin.*

“BAHAR GELİYOR” (124)

1. Bahar geliyor,
2. Temiz, saf.
3. Mavi enginlerde hareket eder rüzgâr.
4. Derelerin bağrında mavi bir hava,
5. Sisli şehir içinde yatan melal.

6. Kayaların göğsünde mutlu, kaygısız,
7. Anlık ömrüyle sallanır çiçek.
8. Bahar bu, en temiz esintidir bu,
9. Bahar bu, en temiz rüzgârdır demek.

10. Enginlerin bağrına vururum kendisini,
11.Gözüme görünsün dilber diyarım.
12. Bebek nefesi gibi kapatır yüzünü
13.Kış boyu intizar bekleyen baharım.

14. Bahar geçer rüzgâr gibi hızlı,
15. Tamam, geçeecek o ve geçiyor olsun.
16. Azizim, ömründe hava olsun saf,
17.Ömrün rüzgârları rayihalı olsun… (1966)

“GAR MUHABBATNING…” (125)

1. *Gar muhabbatning hayotda turfa xil bozori bor,*
2. *Oshiq ahlin lek muhabbatga yetishmay zori bor.*
3. *Uzma ko‘ngil garchi hijron xor etar bir zum seni,*
4. *Gul tikonsiz bo‘lmagay, har bir chamanning xori bor.*
5. *Muz kabi tekkay dilingga gar jafo etsa sanam,*
6. *Yashnagay vodiy uza bilki bulutning qori bor.*
7. *Oshiq ahli ichra o‘zni doimo mardona tut,*

8. *Ishqiga vosil bo‘lur qayda yigitning nori bor.*

9. *Ayb emasdir gar muhabbat sha’niga aytsang qo‘shiq,*

10.*Baxtlidir, kimning muhabbatga sazovor yori bor...*

“GER MUHABBETİN…” (125)

1. Ger muhabbetinin hayatta garip tür pazarı var,

2. Âşık ehlinin lakin muhabbete erişmeden ricası var.

3. Kesme gönül gerçi hicran hor eder bir an seni,

4. Gül dikensiz olmayacak, her bir çimenin horu var.

5. Buz gibi değecek gönlüne eğer cefa etse sanem,

6. Yeşerecek vadi üstünde bil ki bulutun karı var.

7. Âşık ehli içinde kendini daima merdane tut,

8. Aşkına vasıl olduğu yerde yiğidin nârı var.

9. Ayıp değildir eğer muhabbet şanına söylesen koşuk,

10. Bahtlıdır, kiminin muhabbete layık yâri var… (1987)

HAR NECHUK... (126)

1. *Dunyoda har kimning bor o‘z matlabi,*

2. *Tuya so‘rab bo‘lmas echkiboqardan.*

3. *Pismiqdan faylasuf chiqmagan kabi,*

4. *Haqgo‘y ham chiqmaydi betgachopardan.*

5. *Kim o‘zar o‘ynasang toshbaqa bilan,*

6. *Bo‘yningga olursan unga tenglikni.*

7. *Dunyoning ishlari shunaqa ekan,*

8. *Har nechuk odat qil fe’li kenglikni.*

HER NASILSA... (126)

1. Dünyada herkesin var kendi gayesi,

2. Deve sorulmaz keçi güdene.

3. Ketumdan filozof çıkmadığı gibi,

4. Dürüst de çıkmaz arsızdan.

5. Kim geçer yarışırsan tosbağayla,
6. Kabul edersin ona denkliği.
7. Dünyanın işleri öyleymiş,
8. Her nasılsa âdet kıl mizacı genişliği. (1987)

TURG‘UNBOY (127)

1. *Ish axtarib Turg‘unboy*
2. *Necha kunki sarsondir.*
3. *Omadining teskari*
4. *Yurishidan hayrondir.*

5. *Yo‘qsa, bajo qilingan*
6. *Barcha tartib-qoida!*
7. *Hujjatlari bir talay,*
8. *Propiska joyida.*

9. *Qayga borsa keling, deb*
10.*Xushnud qarshi olishar.*
11.*Lekin suhbat so‘ngida*
12.*O‘ylanishib qolishar.*

13.*- Afsus, afsus, - deyishar,*
14.*Tag‘in bir oz kutgaysiz,*
15.*Va’da bergan bo‘lsak gar*
16.*Bizni ma’zur tutgaysiz.*

17.*Ish axtarib Turg‘unboy*
18.*Necha kunki sarsondir.*
19.*Omadining teskari*
20.*Yurishidan hayrondir.*

21.*Turg‘unboyga shum taqdir*
22.*Sira shafqat qilmaydi.*
23.*Pora beray, der, ammo*
24.*Usulini bilmaydi.*

25.*Oxir dadil bostirib*
26.*Kirdi bir idoraga.*
27.*Zora endi baxt kulsa*
28.*Turg‘unboy bechoraga.*

29.*Tik turgancha boshliqqa*
30.*Shikoyatin so‘zladi.*
31.*Ko‘rgan-kechirgan barcha*
32.*Hikoyatin so‘zladi.*

33.*Dedi: - Aybim nimadir,*
34.*Bilolmayin hayronman.*
35.*Shu mushkulning chorasin*
36.*Qilolmayin hayronman.*

37.*Boshliq uzoq o‘yladi,*
38.*Hujjatlarni varaqlab.*
39.*So‘ng xazina topganday*
40.*So‘z boshladi charaqlab:*

41.*Hujjatlar-ku joyida,*
42.*Tuppa-tuzuk jismingiz.*
43.*Faqat bir gap: Bizlarga*
44.*To‘g‘ri kelmas ismingiz.*

45.*Afsus, qayta qurishning*
46.*O‘tmabsiz yo‘llarini.*

47.*Turg‘un ismi eslatar*
48.*Turg‘unlik yillarini.*

49.*Turg‘unboyning nogahon*
50.*Yorishdi o‘ksuk dili.*
51.*- Bor-yo‘q aybim shumi, - deb,*
52.*Qalomga keldi tili.*

53.*Dedi: - Nainki ismim,*
54.*Olamdan ham tonurman.*
55.*Irim bilan nom qo‘ygan*
56.*Onamdan ham tonurman.*

57.*Menga faqat ish kerak,*
58.*Kechgum daryo, soy bo‘lsin.*
59.*Ismim Turg‘unboy emas,*
60.*Mayli, Urg‘unboy bo‘lsin.*

61.*Urg‘unboyga munosib*
62.*Vazifani topdilar.*
63.*Turg‘unlikning yana bir*
64.*Sahifasin yopdilar.*

65.*Majlislarda endi u*
66.*Fursat poylab turadi.*
67.*Ur, desa bas, Urg‘unboy*
68.*Duch kelganni uradi.*

DURGUNBAY (127)

1. İş arayıp Durgunbay
2. Nice gün ki avaredir.
3. Bahtının aksine

4. Yürümekten şaşkındır.

5. Yoksa iyi yapılmış
6. Bütün tertip, kaide!
7. Evrakları bir grup,
8. Kayıt yerinde.

9. Nereye gitse gelin, diye
10. Hoşnut karşılarlar.
11. Lakin sohbet sonunda
12.Düşünüp kalırlar.

13.- Maalesef, maalesef, derler,
14. Yine biraz bekleyeceksiniz,
15. Vaat etmiş olsak eğer
16. Bizi mazur göreceksiniz.

17.İş arayıp Durgunbay
18. Nice gün ki avaredir.
19. Bahtının aksine
20.Yürümekten şaşkındır.

21. Durgunbay'a kötü kader
22. Asla şefkat göstermez.
23.Rüşvet vereyim, der, ama
24. Usulünü bilmez.

25. Ahir derhâl bastırıp
26. Girdi bir idareye.
27. Keşke şimdi baht gülse
28. Durgunbay biçareye.

29. Dik durunca müdüre
30.Şikâyetini söyledi.
31.Görüp geçiren herkes
32. Hikâyesini söyledi.

33. Dedi: - Suçum nedir,
34. Anlamadan şaşkınım.
35.Şu müşkülün çaresini
36. Yapamadan şaşkınım.

37.Müdür uzun düşündü,
38. Evrak sayfalarını çevirip.
39. Sonra hazine bulmuş gibi
40.Söze başladı parlayıp:

41. Evraklar yerinde,
42. Dosdoğru cisminiz.
43. Yalnız bir söz: Bizlere
44. Doğru gelmez isminiz.

45. Maalesef, tekrar kurmanın
46. Geçmemişsiniz yollarını.
47. Durgun ismi hatırlatır
48. Durgunluk yıllarını.

49. Durgunbay'ın birden
50. Yarıldı yaslı gönlü.
51.- Bütün suçum bu mu, diye,
52. Kelama geldi dili.

53. Dedi: - Sahi mi ismim,
54.Âlemi de reddederim.

55. Hurafeyle ad koyan
56. Anamı da reddederim.

57. Bana yalnız iş gerek,
58. Geçeceğim derya, dere olsun.
59.İsmim Durgunbay değil,
60. Tamam, Vurgunbay olsun.

61. Vurgunbay'a münasip
62. Vazifeyi buldular.
63. Durgunluğun yine bir
64. Sahifesini kapadılar.

65. Meclislerde şimdi o
66.Fırsat kollayıp durur.
67. Vur, dese kâfi, Vurgunbay
68. Rastladığını vurur. (1987)

"BIR VAQT BOSHOQ EDIM, QIRLARDA O'SDIM…" (128)

1. *Bir vaqt boshoq edim, qirlarda o'sdim,*
2. *So'ng yaxlit don bo'lib qo'lingga tushdim...*
3. *Keyin-chi, tashlading tegirmonga sen,*
4. *Kaftingda un bo'lib turibman, do'stim.*

"BİR ZAMAN BAŞAKTIM, KIRLARDA BÜYÜDÜM…" (128)

1. Bir zaman başaktım, kırlarda büyüdüm,
2. Sonra tam tane olup eline düştüm…
3. Sonra attın değirmene sen,
4. Avcunda un olmuşum, dostum. (1987)

BAXTLI ODAM (129)

1. *Tashvishga chulg‘anib qoldi bu yurak,*

2. *Tashvishlar ko‘paydi haddan ziyoda.*

3. *Beshigida yotgan go‘dakdan bo‘lak,*

4. *Tugal baxtli odam yo‘qdir dunyoda.*

BAHTLI İNSAN (129)

1. Kaygıyla dolup kaldı bu yürek,

2. Kaygılar çoğaldı hadden ziyade.

3. Beşiğinde yatan bebekten başka,

4. Tam bahtlı insan yoktur dünyada. (1987)

MARD BO‘LSANG (130)

1. *Qadimdan bir gapni uqdirar hayot:*

2. *Mard bo‘lsang, o‘z to‘g‘ri yo‘lingdan qolma.*

3. *O‘ladigan bo‘lsang o‘z go‘ringda yot,*

4. *Birovning mozorin egallab olma.*

MERT OLURSAN (130)

1. Kadimden bir sözü anlatır hayat:

2. Mert olursan, kendi doğru yolundan kalma.

3. Ölecek olursan kendi mezarında yat,

4. Birisinin mezarını sahiplenip alma. (1987)

TAASSUROT (131)

1. *Tabiat kimga ko‘p yo oz beribdi,*

2. *Kimgadir xalacho‘p yo soz beribdi,*

3. *Vo ajab, mana bu mashshoq gadoyga*

4. *Tengi yo‘q shohona ovoz beribdi.*

İZLENİM (131)

1. Tabiat kimine çok yahut az vermiş,
2. Kimine değnek yahut saz vermiş,
3. İlginç, işte bu müzisyen köleye
4. Eşi yok şahane avaz vermiş. (1987)

"HAR GAL AYYOMLARNI AYLARMAN TAVOB…" (132)

1. *Har gal ayyomlarni aylarman tavob,*
2. *Garchand biri moddiy, o'zgasi sarob.*
3. *Sho'rlik ona zamin birlikka zor-ku,*
4. *Unga talpinish ham, demak, zo'r savob!*

"HER SÖZ EYYAMLARI EYLERİM TAVAF…" (132)

1. Her söz eyyamları eylerim tavaf,
2. Gerçi biri maddi, başkası serap.
3. Biçare ana zemin birliğe muhtaç,
4. Ona uğraşmak da büyük sevap! (1987)

"OQSHOMDAN BOSHLANGAY ODATDA TONGLAR…" (133)

1. *Oqshomdan boshlangay odatda tonglar,*
2. *Sukutdan uzilgay gulduros, bonglar.*
3. *Boshing egma sira, xoksor banda,*
4. *Erta ruhing topgay oliy ohanglar.*

"AKŞAMDAN BAŞLAYACAK ÂDETTE ŞAFAKLAR…" (133)

1. Akşamdan başlayacak âdette şafaklar,
2. Sükûttan kopacak güçlü haykırışlar.
3. Başını eğme asla, itaatkâr bende,
4. Yarın ruhun bulacak ali ahenkler. (1987)

“MAY ASLI POKDOMON DILGA ARZIRLIK…” (134)

1. *May asli pokdomon dilga arzirlik,*

2. *Zahmatkash, mehnatkash elga arzirlik*

3. *Bayram-ku, har kuni kelavermaydi.*

4. *Lekin zavqi qolar yilga arzirlik!*

“MEY ASIL SAF GÖNLE LAYIK…” (134)

1. Mey asıl saf gönle layık,

2. Zahmet çeken, emektar halka layık

3. Bayram, her gün gelivermez.

4. Lakin zevki kalır yıla layık! (1987)

UMR (135)

1. *Inson tug‘iladi asli belibos,*

2. *Bir parcha et bo‘lib kelar jahonga,*

3. *Libosu hashamdan bo‘lgay u xalos,*

4. *Ketar chog‘ida ham so‘nggi makonga.*

5. *Lekin o‘rtadagi umr-chi, umr...*

6. *O‘chmas tamg‘a bo‘lib qolgay to abad.*

7. *Balki yog‘ar unga rahmat degan nur,*

8. *Balki ko‘mar uni malomat, nafrat.*

ÖMÜR (135)

1. İnsan doğar zaten libassız,

2. Bir parça et olarak gelir cihana,

3. Libas ve süsten olacak o halas,

4. Gittiği zamanda da son mekâna.

5. Lakin ortadaki ömür, ömür…

6. Yitmeyen damga olacak ebediyen.

7. Belki yağar ona rahmet denen nur,

8. Belki gömer onu melamet, nefret. (1988)

UZLAT (136)

1. *Menga uzlat kerakdir,*

2. *Izdihomdan to‘yganman,*

3. *To‘da-to‘da joylarga*

4. *Endi bormay qo‘yganman.*

5. *Iztirobli turmushning*

6. *Savdosi zo‘r bag‘oyat,*

7. *Inja, nozik ruhni u*

8. *Yengib oldi nihoyat.*

9. *Uzlat izlab bormagan*

10. *Joyim balki qolmadi,*

11.*Hech bir go‘sha kelgin deb,*

12. *Og‘ushiga olmadi.*

13.*Uzlat qayda men uchun,*

14. *Balki yiroq ellarda,*

15.*Qadam yetmas tog‘larda,*

16. *It yashamas cho‘llarda.*

17.*U yoqlarga yo‘limni*

18. *Bura olmay hayronman,*

19.*Nechuk o‘ksik bandaman,*

20. *Nechuk baxtsiz insonman.*

21.*Do‘stu yordan yuragim*

22. *Ayrilar nari-nari,*

23.*Uzlatning sog‘inchi bu,*

24. *Yolg‘izlik dardi bari.*

25.*Qay yovuz kuch daf’atan*

26. *Soldi meni bu holga,*

27.*Nechuk uyg‘oq idrokim*

28. *Moyil bo‘ldi malolga.*

29.*Zamon-zamon bahona,*

30. *Do‘stlar yuzin burdilar,*

31.*Endi ular o‘zga yurt,*

32. *O‘zga maskan qurdilar.*

33.*Men ulardan yiroqda -*

34. *Tanho qoldim oqibat,*

35.*Hattoki, jonzotlardan*

36. *Bezgan bir darvish sifat.*

37.*Endi men qayon borib,*

38. *Qay yo‘l bilan ketgayman.*

39.*Qayga eltib oyog‘im,*

40. *Qay uzlatga yetgayman.*

41.*Bildimki men, neki bor*

42. *Bevafodir ushbu kun,*

43.*Kechirganim - ko‘rganim*

44. *Bebaqodir ushbu kun.*

45.*Mening kabi mardud dil*

46. *Topilgaymi, bilmasman,*

47.*Giryondirman, g‘aflatni*

48. *Kiprigimga ilmasman.*

49.*Men uzlatni elimning*

50. *Yuragidan axtargum,*

51.*O‘ksiklarning eng pinhon*

52. *Tilagidan axtargum.*

53.*Darvozangni chertib men*

54. *Kelsam, jonajon ukam,*

55.*Tashrifimni qabul et,*

56. *Mehmonnavoz, ey bekam.*

57.*Yuz o‘girma, bu yo‘lchi*

58. *Na quvonch, na kulfatdir,*

59.*Uning yolg‘iz ilinji*

60. *Uzlat erur, uzlatdir...*

UZLET (136)

1. Bana uzlet gerektir,

2. İzdihamdan bıkmışım,

3. Grup grup yerlere

4. Şimdi gitmemişim.

5. Izdıraplı hayatın

6. Külfeti büyük gayet,

7. İnce, nazik ruhu o

8. Yenip aldı nihayet.

9. Uzlet arayıp gitmeyen

10. Canım belki kalmaz,

11. Hiçbir köşe gel deyip,

12. Bağrına basmadı.

13. Uzlet nerede benim için,

14. Belki ırak ellerde,

15. Adım atılmaz dağlarda,

16. İt yaşamaz çöllerde.

17.O taraflara yolumu

18. Çeviremeden şaşkınım,

19. Nasıl kederli bendeyim,

20. Nasıl bahtsız insanım.

21. Dost ve yârdan yüreğim

22. Ayrılır oraya buraya,

23. Uzletin özlemi bu,

24. Yalnızlık derdi hepsi.

25. Hangi yavuz güç birden

26. Saldı beni bu hâle,

27. Nasıl uyanık idrakim

28. Meyletti melale.

29. Zaman zaman bahane,

30. Dostlar yüzünü çevirdiler,

31.Şimdi onlar başka yurt,

32. Başka mesken kurdular.

33. Ben onlardan uzakta,

34. Tenha kaldım akıbet,

35. Hatta canlılardan

36. Bezmiş bir derviş özelliği,

37.Şimdi ben nereye varıp,

38. Hangi yolla gideceğim?

39. Nereye götürüp ayağım,

40. Hangi uzlete yeteceğim?

41. Anladım ki ben, her şey var,
42. Vefasızdır işte bugün,
43. Geçirdiğim, gördüğüm
44. Kıymetsizdir işte bugün.
45. Benim gibi kimsesiz gönül,
46. Bulunacak mı, bilmem,
47. Giryanımdır, gafleti
48. Kirpiğime bağlamam.
49. Ben uzleti halkımın
50. Yüreğinde arayacağım.
51. Dertlilerin en gizli,
52. Dileğinde arayacağım.
53. Kapını fiskeleyip ben
54. Gelsem, sevgili kardeşim,
55. Teşrifimi kabul et,
56. Misafir dostu, ey eşim.
57.Yüz çevirme, bu yolcu
58. Ne sevinç, ne külfettir,
59. Onun tek umudu
60. Uzlettir, uzlettir… (1988)

O‘G‘LIM ILHOMJONGA (137)

1. *Umr o‘tayotir,*
2. *Hushyor bo‘l, bolam,*
3. *Endi qaqshayotir otang asabi.*
4. *Malol kelayotir hatto baytlar ham*
5. *Omoch tortayotgan qo‘sh ho‘kiz kabi.*
6. *Tashqarida sekin qoraymoqda kuz,*
7. *Barglarni zil havo kelmoqda bosib.*
8. *Tomay-tomay degan tomchiday yulduz*
9. *Mening ruhiyamga g‘oyat munosib.*
10.*Nimani ko‘rdim men yorug‘ dunyoda,*
11.*Nahot shuncha og‘ir tiriklik ishi.*
12.*Dardim yetmaganday, undan ziyoda*
13.*Jajji opalaring cheksiz tashvishi.*

14.*Yolg‘izlik, nadomat, og‘riq, xusumat*

15.*Umr yo‘llarimni burjga tiqdilar.*

16.*Taqirda o‘stirgan edim bir daraxt*

17.*Mevamni terdilar, so‘ngra yiqdilar.*

18.*Charchoq yengayotir, unutma bolam,*

19.*Ehtiyot boq endi o‘ngu hushimga.*

20.*Orom olsam agar, niyat qil har dam,*

21.*Yorug‘ kunlar kirsin mening tushimga.*

OĞLUM İLHAMCAN’A (137)

1. Ömür geçiyor,

2. Uyanık ol, evladım,

3. Şimdi titriyor baban asabi.

4. Melal geliyor hatta beyitler de

5. Pulluk çeken çift öküz gibi.

6. Dışarıda yavaşça kararmakta güz,

7. Yapraklara çok ağır hava gelmekte basıp.

8. Damlayayım diye damla gibi yıldız

9. Benim ruhuma gayet münasip.

10. Neyi gördüm ben aydınlık dünyada,

11. Bunca ağır hayatın işini mi?

12. Derdim yetmemiş gibi ondan ziyade

13. Tatlı ablaların sonsuz kaygısı.

14. Yalnızlık, nedamet, dert, husumet

15.Ömrümün yollarını burca diktiler.

16. Kurakta yetiştirmiştim bir ağaç

17. Meyvemi topladılar, sonra yıktılar.

18. Yorgunluk galip gelir, unutma evladım,

19.İhtiyatlı bak şimdi idrakimin esasına.

20. Dinlenirsem eğer, niyet et her dem,

21. Aydınlık günler girsin benim düşüme. (1988)

MALAK (138)

1. *Nechun o‘g‘irlading o‘yu fikrimni,*

2. *Nechun xayolimni aylading sarson.*

3. *Endi men bilmasman borar yerimni,*

4. *Endi tuyg‘ularim qoldi sargardon.*

5. *Seni ko‘rgandayman tushimda faqat,*

6. *Uchib o‘tgandaysan misoli yulduz.*

7. *Samoviy mo‘’jiza, ilohiy tal’at,*

8. *Tengi yo‘q bir malak, qoshlari qunduz.*

9. *Nasib etarmikan biror kun visol,*

10.*Nasib etarmikan tutmoq qo‘lingni.*

11.*Va yo noshud qolgan munajjim misol,*

12.*Poylab o‘tarmanmi qaytar yo‘lingni...*

MELEK (138)

1. Niçin çaldın düşünce ve fikrimi,

2. Niçin hayalimi eyledin avare.

3. Şimdi ben bilmem gittiğim yeri,

4. Şimdi duygularım kaldı sergerdân.

5. Seni görmüş gibiyim düşümde yalnız,

6. Uçup gitmiş gibisin misal-i yıldız.

7. Semavi mucize, ilahi tal’at,

8. Dengi yok bir melek, kaşları kunduz.

9. Nasip eder miymiş bir gün visal,

10. Nasip eder miymiş tutmaya elini.

11. Yahut âciz kalan müneccim misal,

12. Bekleyip geçer miyim döndüğü yolunu. (1988)

“QUL-QUL” (139)

1. *Men hangoma talabgori,*
2. *Ya’ni o‘sha-o‘shaman.*
3. *Bor gaplarning yoniga goh*
4. *Xayolotni qo‘shaman.*
5. *Yana she’riy yo‘l tanladam,*
6. *Yozolmadim nasrda.*
7. *Axir shitob uslub kerak*
8. *Bizning uchqur asrda.*
9. *Shu deng, zamin olimlari*
10. *Yig‘ildilar bir kuni.*
11. *Va dedilar: - Tokaygacha*
12. *Bo‘lamiz yer tutquni.*
13. *Ilmimizning mevalarin*
14. *Payti keldi - teraylik.*
15. *Keling, yiroq yulduzlarga*
16. *Yozma xabar beraylik.*
17. *Borligimiz bildiraylik,*
18. *Sado chiqsin bizdan sal.*
19. *Xabarimiz yetsa-yetar,*
20. *Yetmasa ham tavakkal!*
21. *Olim xalqi g‘alati xalq,*
22. *Bir kelmasin junbushga.*
23. *Hamma gapni yig‘ishtirib,*
24. *Kirishdilar shu ishga.*
25. *Eng avvalo yozuv uchun*
26. *Magnit taxta topishdi.*
27. *Silliq qilib tarashlashdi,*
28. *Ortiq joyin chopishdi.*
29. *Zamindagi ovozlarning*
30. *Yig‘ish kerak barchasin.*
31. *Tuzish kerak o‘ziga xos*
32. *Shovqin-suron kartasin.*
33. *Atay borib, dengizlarning*
34. *Guvillashin yozdilar.*

35.*Junglidagi hayvonlarning*

36.*Uvillashin yozdilar.*

37.*Qayd etdilar, yaproqlarning*

38.*Shitir-shitir sasini.*

39.*Hansiragan tulporlarning*

40.*Puskurgan nafasini.*

41.*Bahor chog‘i guldurakning*

42.*Sadosini yozdilar.*

43.*Tongda yoniq bulbullarning*

44.*Navosini yozdilar.*

45.*Go‘daklarning kulgusiyu*

46.*Yig‘isi ham bitildi.*

47.*Chigirtkalar chirillashi...*

48.*Bari muhr etildi.*

49.*Hech unutib bo‘larmidi*

50.*Bastakorni, kuychini.*

51.*Qo‘shishdilar Chaykovskiy*

52.*Hamda Mulla To‘ychini.*

53.*Yer yuzida ne suron bor*

54.*Bir-bir sanab o‘tishdi.*

55.*Hatto miltiq ovozin ham,*

56.*Maktubga zarb etishdi.*

57.*Xullas, ishlar bajo bo‘lib,*

58.*Yig‘ildilar so‘nggi bor.*

59.*Xursand edi ahli ilm,*

60.*Nasib etsa - umid yor,*

61.*Kimdir dedi: - Xo‘p horidik,*

62.*Charchoqni sal quvaylik.*

63.*Keling, do‘stlar, qadah olib,*

64.*Shu ishni bir yuvaylik.*

65.*“Qul-qul” qilib mayi nobdan*

66.*Quyishdilar, gap tamom!*

67.*- Salom, yiroq yulduzlar! - deb*

68.*Ichishdilar, vassalom.*

69.*So‘ng magnitli raketaning*

70.*Qopqog‘ini yopishdi.*

71.*Oq yo‘l tilab, shartta uni*

72.*Koinotga otishdi.*

73.*Yillar o‘tdi mung‘ayishib,*

74.*Yillar o‘tdi chopishib.*

75.*Shu orada ne-ne olim*

76.*Yerga ketdi qapishib.*

77.*Manzili yo‘q sayyoh maktub*

78.*Fazoni xo‘b aylandi.*

79.*Oxir borib, allaqanday*

80.*Sayyoraga boylandi.*

81.*Shubha yo‘qki, endi u yon*

82.*Ko‘char mavzu-temamiz.*

83.*Xullas, o‘sha bir yulduzga*

84.*Borib tushdi kemamiz.*

85.*Baxtni qarang, u joyning ham*

86.*Fuqarosi bor ekan.*

87.*Ilmu urfon, ong, tafakkur*

88.*Ularga ham yor ekan.*

89.*Yetuk ekan ular g‘oyat,*

90.*Ne-ne sirlar dastida.*

91.*Ajab, lekin, yashar ekan*

92.*Ular yerning ostida.*

93.*Qay birovi sayxonlikka*

94.*Chiqib qolib bir kuni.*

95.*Nogahonda topib olmish*

96.*Biz yuborgan qutini.*

97.*Vahimani ko‘ring endi,*

98.*Yulduzliklar bo‘lmish jam.*

99.*Axir yiroq samovotdan*

100. *Xabar kelmish chinakam!*

101. *Bu tuhfaning neligini*

102. *Ular darhol tuymishlar.*

103. *Matohimiz olasolib*

104. *Patefonga qo‘ymishlar.*

105. *Biroq hech ne anglashmabdi,*

106. *Ajab, ajab, ajabo!*

107. *Na biror-bir tanish sas bor*
108. *Va na tanish bir sado.*
109. *Ha, olamda ovozlar mo‘l,*
110. *Sanog‘in kim bilarkan.*
111. *Shu sohada ular bizdan*
112. *Tamoman farq qilarkan.*
113. *Guvillashni anglashmabdi -*
114. *Ummonlari yo‘q demak.*
115. *Uvullashni anglashmabdi -*
116. *Hayvonlari yo‘q demak.*
117. *Demak ular miltiq otmas,*
118. *Tulpor minib chopmaydi.*
119. *Musiqaning o‘rnini ham*
120. *Boshqa narsa qoplaydi.*
121. *Go‘daklari yig‘lashmaydi,*
122. *Guldiraklar bermas sas.*
123. *Bulbullarning sayrashi ham,*
124. *Ular uchun yo‘q, abas.*
125. *O‘zimizga qiyos qilib*
126. *Kamsitmaylik barchani.*
127. *Deylik, biz ham bilmaymiz-ku,*
128. *Insof degan narsani.*
129. *Yulduzliklar jim qolishdi,*
130. *Hafsalasi tamom pir.*
131. *Axir qancha kavlashmasin*
132. *Gap chiqmadi, bari bir.*
133. *So‘nggi bora aylanganda*
134. *Patefonning burovi*
135. *“Qul-qul” degan bir tovushni*
136. *Ilg‘ab qoldi birovi.*
137. *To‘xtang! - dedi. - Gap buyoqda!*
138. *Tanish sado topildi.*
139. *Endi birdan tushkunlikning*
140. *Eshiklari yopildi.*
141. *Yulduz bo‘ylab o‘sha zahot,*
142. *Tarqaldi-ku bu xabar;*

143. *- Olamshumul yangilikdan*
144. *Qolmang, do‘stlar, bexabar.*
145. *Ming-ming shukr, yolg‘izmassiz,*
146. *Go‘shadoshlar bor ekan.*
147. *Allaqaysi bir puchmoqda*
148. *Shishadoshlar bor ekan.*
149. *Javob yo‘llash kerak endi,*
150. *Ular ham xo‘b chopishdi.*
151. *O‘zlarining konlaridan*
152. *Magnit taxta topishdi.*
153. *Biroq boshqa ovozlarni,*
154. *Ular chetlab o‘tdilar.*
155. *Faqatgina o‘zlarining*
156. *“Qul-qul”ini bitdilar,*
157. *Shu kunlarda o‘sha maktub*
158. *Yelayotir biz tomon.*
159. *“Qul-qul” degan tanish sado*
160. *Kelayotir biz tomon.*

“KUL KUL” (139)

1. Ben hengâme talepkârı,
2. Yani işte o, işte oyum.
3. Tüm sözlerinin yanına bazen
4. Hayalleri katarım.
5. Yani şairane yol seçtim,
6. Yazamadım nesirde.
7. Nihayet acele üslup gerekir
8. Bizim hızlı asırda.
9. Bunu deyip, zemin âlimleri
10. Toplandılar bir gün.
11. Ve dediler: - Ta ki
12. Oluruz yer tutkunu.
13.İlmimizin meyvelerini
14. Vakti geldi, toplayalım.
15. Gelin, uzak yıldızlara

16. Yazılı haber verelim.
17. Varlığımızı bildirelim,
18. Ses çıksın bizden biraz.
19. Haberimiz ulaşırsa ulaşır,
20. Ulaşmazsa da tevekkül!
21.Âlim halkı, acayip halk,
22. Bir gelmesin cümbüşe.
23. Her sözü düzenleyip,
24. Giriştiler bu işe.
25. En evvela yazmak için
26.Mıknatıslı tahta buldular.
27.Düzeltip talaşladılar,
28. Fazla yerini kestiler.
29. Zemindeki avazların
30. Toplamak gerekir hepsini.
31. Kurmak gerekir kendine has
32.Gürültü patırtı oyununu.
33. Bile bile gidip, denizlerin
34.Uğuldayışını yazdılar.
35. Ormandaki hayvanların
36. Uluyuşunu yazdılar.
37. Kaydettiler, yaprakların
38.Çıtır çıtır sesini.
39. Nefes nefese kalan tulparların
40.Üflediği nefesini.
41. Bahar zamanı gök gürültüsünün
42. Sedasını yazdılar.
43. Seherde yanık bülbüllerin
44. Nevasını yazdılar.
45. Bebeklerin gülüşü ve
46.Ağlayışı da yazıldı.
47.Çekirgelerin cırıldayışı…
48. Hepsi mühür edildi.
49. Hiç unutulur muydu
50. Bestekârı, şarkıcıyı.
51. Katıldılar Çaykovski

52. Hem de Molla Toycu'yu.
53. Yeryüzünde ne gürültü var
54. Bir bir sayıp geçtiler.
55. Hatta güçlü avazını da,
56. Mektuba çoğalttılar.
57.Hülasa, işler iyi olup,
58. Toplandılar son kez.
59. Memnundu ehl-i ilim,
60. Nasip etse ümit yâr,
61. Biri dedi: - Çok yorulduk,
62. Yorgunluğu biraz kovalım.
63. Gelin, dostlar, kadeh alıp,
64. Bu işi bir yıkayalım.
65."Kul kul" edip meyi
66.Döktüler, söz tamam!
67.- Selam, uzak yıldızlar! deyip
68.Uçuştular, vesselam.
69. Son mıknatıslı roketin
70. Kapağını kapattılar.
71. Yol açıklığı dileyip, şartta onu
72.Kâinata attılar.
73.Yıllar geçti üzülüp,
74.Yıllar geçti koşuşturup.
75.O arada çoğu âlim
76. Toprağa gitti gömülüp.
77. Menzili olmayan seyyah mektup
78. Fezayı iyi gezdi.
79. Nihayet gidip bir
80. Seyyareye zenginleşti.
81.Şüphe yok ki şimdi o yan
82.Göçer mevzu temamız.
83.Hülasa, işte o bir yıldıza
84. Gidip indi gemimiz.
85. Bahta bakın, o yerin de
86. Vatandaşı varmış.
87.İlim, irfan, idrak ve tefekkür,

88. Onlara da yârmış.
89. Yitikmiş onlar gayet,
90.Çok sırlar elinde.
91.İlginç, ama yaşarmış
92. Onlar toprağın altında.
93. Hangi biri düzlüğe
94.Çıktı bir gün.
95. Birdenbire bulup almış
96. Bizim gönderdiğimiz kutuyu.
97. Telaşı görün şimdi,
98.Yıldızlılar olmuş cem.
99. Nihayet uzak semâvâttan
100. Haber gelmiş asıl!
101. Bu hediyenin ne olduğunu
102. Onlar derhâl duymuşlar.
103. Metamızı alıp
104. Gramofona koymuşlar.
105. Fakat hiçbir şey anlamamışlar,
106. İlginç, ilginç, ilginç!
107. Ne herhangi bir tanıdık ses var
108. Ve ne tanıdık bir seda.
109. Evet, âlemde avazlar bol,
110. Sayısını kim bilirmiş.
111. Bu sahada onlar bizden
112. Tamamen fark edermiş.
113. Uğuldamayı anlamamışlar,
114. Ummanları yok demek.
115. Uğuldamayı anlamamışlar,
116. Hayvanları yok demek.
117. Demek onlar ateş etmek,
118. Tulpar binip koşturmaz.
119. Müziğin yerini de
120. Başka şey almaz.
121. Bebekleri ağlaşmaz,
122. Gök gürültüleri vermez ses.
123. Bülbüllerin ötüşü de,

124. Onlar için yok, abes.
125. Kendimize kıyas edip
126. Küçümsemeyelim hepsini.
127. Diyelim, biz de bilmeyiz,
128. İnsaf denen şeyi.
129. Yıldızlılar sessiz kaldılar,
130. Arzusu tamam pir.
131. Nihayet çok araştırılmasın
132. Söz çıkmadı, hepsi bir.
133. Son kez döndüğünde
134. Gramofonun iğnesi
135. "Kul kul" diye bir sesi
136. Algıladı birisi.
137. - Durun! dedi. Söz burada!
138. Tanıdık ses bulundu.
139. Şimdi birden düşkünlüğün
140. Kapıları kapandı.
141. Yıldız boyunca o zaman
142. Yayıldı bu haber:
143. - Âlemşümul yenilikten
144. Kalmayın, dostlar, habersiz.
145. Binlerce şükür, yalnız değilsiniz,
146. Yerin taşı varmış.
147. Herhangi bir köşede
148. Şişeler varmış.
149. Cevap yollamak gerekir şimdi,
150. Onlar da iyi koştular.
151. Kendilerinin madenlerinden
152. Mıknatıs tahta buldular.
153. Fakat başka avazları,
154. Onlar atladılar.
155. Yalnız kendilerinin
156. "Kul kul"unu yazdılar,
157. Şu günlerde işte o mektup
158. Eser bize doğru.
159. "Kul kul" diye tanıdık seda

160. Gelir bize doğru. (1988)

“SOCH HAM TO‘KILMOQDA, OMONATDIR TISH” (140)

1. *Soch ham to‘kilmoqda, omonatdir tish,*

2. *Izg‘irin yurakka urayotir nish,*

3. *Bahorim beto‘xtov qish tomon o‘tdi,*

4. *Yoz, kuzni qisqartdi mashaqqat, tashvish.*

“SAÇ DA DÖKÜLMEKTE, EMANETTİR DİŞ” (140)

1. Saç da dökülmekte, emanettir diş,

2. Fırtına yüreğe vurur mızrak,

3. Baharım durmaksızın kışa doğru geçti,

4. Yaz, güzü kısalttı meşakkat, endişe. (1988)

BIZ (141)

1. *Biz avval ham yomon edik, hanuz yomonmiz,*

2. *Rahmon boqmas, iblis yoqmas sho‘rlik insonmiz.*

3. *So‘z so‘zlasak - mahmadona, jim tursak - soqov,*

4. *Shu tariqa, na bug‘doymiz va na somonmiz.*

BİZ (141)

1. Biz evvel de yamandık, henüz yamanız,

2. Rahman bakmaz, iblisin beğenmediği biçare insanız.

3. Söz söylesek geveze, sessiz dursak dilsiz,

4. O hâlde, ne buğdayız ne samanız. (1988)

TARAQQIYOT (142)

1. *Hozir gadolar ham g‘oyat mukammal,*

2. *Ishni diplomatik yo‘ldan boshlaydi.*

3. *Egasidan u-bu so‘rashdan avval*

4. *Itiga, albatta, suyak tashlaydi.*

TERAKKİYAT (142)

1. Şimdi gedalar da gayet mükemmel,
2. İşe diplomatik yoldan başlar.
3. Sahibinden onu bunu istemeden evvel,
4. İtine, elbette, kemik atar. (1988)

GAP BITTA (143)

1. *Parvo qilma, bo‘lmaganni bo‘ldiramiz,*
2. *Paymonasi to‘lmaganni to‘ldiramiz.*
3. *Bir zamonlar otar edik, osar edik,*
4. *Endi esa majlis qilib o‘ldiramiz.*

SÖZ BİR TANE (143)

1. Aldırma, olmayanı oldururuz,
2. Kadehi dolmayanı doldururuz.
3. Bir zamanlar atardık, asardık,
4. Şimdiyse meclis yapıp öldürürüz. (1988)

O‘ZIMIZ (144)

1. *Sen bizni kechirgin, ey Navro‘zimiz,*
2. *G‘aflatda chalg‘idi ul kun ko‘zimiz.*
3. *Yuzingga shapaloq tortib yubordik,*
4. *Sho‘rpaxta bosamiz endi o‘zimiz.*

KENDİMİZ (144)

1. Sen bizi affet, ey Nevruzumuz,
2. Gaflette yanıldı o gün gözümüz.
3. Yüzüne tokat atıp gönderdik,
4. Tuzlu pamuk basarız şimdi kendimiz. (1988)

O‘YLAMAY NETAYIN (145)

1. *Qaysi kun o‘g‘ilcham so‘radi,*
2. *Maylimi, men ham she’r bitayin.*
3. *Miyamni xayollar o‘radi,*
4. *Men uni o‘ylamay netayin.*

5. *Chirqirab kelgan chog‘ dunyoga*
6. *Ko‘zlarim to‘lgandir ziyoga.*
7. *Shundanmi, talpindim samoga,*
8. *Men uni o‘ylamay netayin.*

9. *Harf tanib chiqqanda savodim,*
10.*Nazmga aylandi faryodim,*
11.*She’r bilan bog‘landi yosh yodim,*
12.*Men uni o‘ylamay netayin.*

13.*Kimlardir kutdilar tosh bilan,*
14.*Kimlardir xayrixoh bosh bilan,*
15.*Boqdim men ko‘zimda yosh bilan,*
16.*Men uni o‘ylamay netayin.*

17.*Barchadan yaxshilik kutdim men,*
18.*Turfa xil yo‘llarni o‘tdim men,*
19.*Zo‘r imon yo‘lini tutdim men,*
20.*Men uni o‘ylamay netayin.*

21.*Zamondan jafo ham ko‘rmadim,*
22.*Ayni chog‘ vafo ham ko‘rmadim,*
23.*Besabab safo ham ko‘rmadim,*
24.*Men uni o‘ylamay netayin.*

25.*Ko‘p uzoq ellarda bo‘ldim men,*

26.*Do‘st bilan o‘ynadim-kuldim men,*
27.*Yurtim deb zardobga to‘ldim men,*
28.*Men uni o‘ylamay netayin.*

29.*Axtardim samimiy hamrohni,*
30.*Duch kelsa rad etdim gumrohni,*
31.*Kurash deb bildim goh oh-vohni,*
32.*Men uni o‘ylamay netayin.*

33.*Axir men Mashrabni izlovdim,*
34.*Metinday mazhabni izlovdim.*
35.*Yovlarga g‘azabni izlovdim,*
36.*Men uni o‘ylamay netayin.*

37.*Noshukur bo‘lmoqlik yomondir,*
38.*Eng avval zamoning zamondir.*
39.*Qahr bir, mehr bir tomondir,*
40.*Men uni o‘ylamay netayin.*

41.*So‘zimni tingladi diyorim,*
42.*O‘zbegim - tozayu g‘uborim,*
43.*Kichkintoy qizginam - Ruxsorim,*
44.*Men uni o‘ylamay netayin.*

45.*Yo‘q mening bag‘dodiy xalifam,*
46.*Taxtim shu - bayt to‘la sahifam.*
47.*Sirdoshim, g‘amdoshim Hanifam,*
48.*Men uni o‘ylamay netayin.*

49.*Anglamoq istadim olamni,*
50.*Ajdodni, avlodni, bolamni,*
51.*Tuproqqa qo‘ydim-ku onamni,*

52.*Men uni o‘ylamay netayin.*

53.*Padar ham saksonga kiribdi,*
54.*Kimdir yo‘q, kimlardir yuribdi,*
55.*Ko‘z yummay oftob-ku turibdi,*
56.*Men uni o‘ylamay netayin.*

57.*Gapimni tinglagin, ey, o‘g‘lon,*
58.*Ko‘p ko‘hna jahondir bu jahon,*
59.*Pir ekan Navoiy to hamon,*
60.*Men uni o‘ylamay netayin.*

DÜŞÜNMEDEN NE YAPAYIM? (145)

1. Hangi gün oğlum sordu,
2. Tamam mı ben de şiir yazayım?
3. Beynimi hayaller kuşattı,
4. Ben onu düşünmeden ne yapayım?

5. Ağlayarak geldiği an dünyaya
6. Gözlerim dolmuştur ziyayla.
7. Ondan mı uçtum semaya,
8. Ben onu düşünmeden ne yapayım?

9. Harf seçip yazdığımda okuyup,
10. Nazma döndü feryadım,
11.Şiirle bağlandı genç yâdım,
12. Ben onu düşünmeden ne yapayım?

13. Kimileri beklediler taşla,
14. Kimileri hayırhah başla,
15. Baktım ben gözümde yaşla,
16. Ben onu düşünmeden ne yapayım?

17. Hepsinden iyilik bekledim ben,
18. Garip türlü yolları geçtim ben,
19.Büyük iman yolunu tuttum ben,
20. Ben onu düşünmeden ne yapayım?

21. Zamandan cefa da görmedim,
22. Aynı anda vefa da görmedim,
23. Sebepsiz sefa da görmedim,
24. Ben onu düşünmeden ne yapayım?

25.Çok uzak ülkelerde oldum ben,
26. Dostla oynadım güldüm ben,
27. Yurdum deyip irinle doldum ben,
28. Ben onu düşünmeden ne yapayım?

29. Ararım samimi yoldaşı,
30. Rast gelse reddettim avareyi,
31. Savaş diye bildim bazen ahı, vahı,
32. Ben onu düşünmeden ne yapayım?

33. Nihayet ben Meşrep'i arayacaktım,
34. Metin gibi mezhebi arayacaktım,
35.Düşmanlara gazabı arayacaktım,
36. Ben onu düşünmeden ne yapayım?

37.Şükürsüz olmak yamandır,
38. En evvel zamanın zamandır.
39. Kahır bir, şefkat bir taraftır,
40. Ben onu düşünmeden ne yapayım?

41.Sözümü dinledi diyarım,

42.Özbek'im, saf ve mahzunum,
43.Küçücük kızcağızım, Ruhsar'ım,
44. Ben onu düşünmeden ne yapayım?

45. Yok benim Bağdâdî halifem,
46. Tahtım şu, beyit dolu sahifem.
47.Sırdaşım, gamdaşım Hanîfe'm,
48. Ben onu düşünmeden ne yapayım?

49. Anlamak istedim âlemi,
50. Ecdadı, evladı, yavrumu,
51. Toprağa koydum anamı,
52. Ben onu düşünmeden ne yapayım?

53. Peder de seksene girmiş,
54. Kimi yok, kimileri yaşamış,
55.Göz yummadan afitap yükselmiş,
56. Ben onu düşünmeden ne yapayım?

57.Sözümü dinle, ey, oğlan,
58.Çok köhne cihandır bu cihan,
59. Pirmiş Nevâî hâlâ da,
60. Ben onu düşünmeden ne yapayım? (1988)

DO'RMONDA KUZ (146)

1. *Bog'imda mushuklar qoldirgan edim,*
2. *Daydib ketibdilar bechoralarim.*
3. *Barglarin to'kmoqda daraxtlar qadim,*
4. *U bilan to'kilar ezgu dardlarim.*

5. *Senga salom deyman so'ng bor, behijon,*
6. *Endi yerga yotding, soyabonim barg.*

7. *Nechun o‘ksik qolding, chinor, jonajon,*

8. *Bog‘larga nahotki keldi bodi marg.*

9. *Arg‘uvon gullardi bu yerda abad,*

10. *Bu yerda kuylardi azal bulbullar.*

11. *Qushlarim, siz bizni tark etmang minba’d.*

12. *Tag‘in ochilingiz bizning ey, gullar.*

13. *Sira ko‘z tegmasin qizg‘in ulfatga,*

14. *Qishda ham yashnaylik samoviy oydek.*

15. *Sizni taklif etar she’riy suhbatga*

16. *Mirtemir, Shayxzoda, albatta, Oybek...*

DORMAN’DA GÜZ (146)

1. Bağımda kedileri bırakmıştım,

2. Avare olup gittiler biçarelerim.

3. Yapraklarını dökmekte ağaçlar kadim,

4. Onunla dökülür güzel dertlerim.

5. Sana selam derim son kez,

6. Şimdi yere yattın, güneşliğim yaprak.

7. Niçin üzgün kaldın, çınar, azizim,

8. Bağlara mı geldi bâd-ı ölüm.

9. Erguvan çiçeklenirdi burada ebedî,

10. Burada öterdi ezelî bülbüller.

11. Kuşlarım, siz bizi terk etmeyin artık.

12. Yine açılınız bizim ey, güller.

13. Asla göz değmesin kızgın ülfete,

14. Kışın da parlayalım semavi ay gibi.

15. Sizi teklif eder şairane sohbete

16. Mirtemir, Şeyhzade, elbette, Aybek… (1988)

QUSH TILI (147)

1

1. *Bo‘ron, sen sham uzra guvlayverma, bas,*

2. *Arslondek o‘kirib chekaverma sas.*

3. *Shamni o‘chirmoqlik juda ham oson,*

4. *Unga yetar bitta “puf” degan nafas.*

2

5. *Fe’lini kuzatib sodda bolamning,*

6. *Tashvishin o‘ylayman chigal olamning.*

7. *Soddalik yaxshi-ku, lekin ko‘pincha*

8. *Ishi yurisharkan qitmir odamning.*

3

9. *Qushlarning tilida faqat bir oyat,*

10.U inson uchun ham ibratdir g‘oyat.

11.Qushlar der: - Iloyim, qafasga tushma,

12.Tushgan bo‘lsang gar, chiqqil nihoyat.

4

13.Bir hazil to‘qidim bugun senga deb,

14.Chaqaloq yig‘laydi nega “inga” deb.

15.“Inga-inga” sining ma’nosi shulki,

16.Da’vo qilayotir “menga”, “menga” deb.

5

17.Mayliga, raqibing bo‘lsin har nima,

18.Hech zamon sen uning g‘amini yema.

19.Unga har baloni ravo ko‘rsang ham,

20.Tilingni sug‘irib olaman dema.

6

21.Nazar sol hattoki yetti qat yerga,

22.Qiyos topilgaydir o‘tgan umrga:

23.Oltanga aylangan yaxshilar xoki,

24.Yomonniki esa qora ko‘mirga.

7

25.Bir dono bazmining guvohi bo‘ldim,

26.*Shodumon davrada o‘ynadim, kuldim.*

27.*Bazmining boisin so‘rasam, dedi: .*

28.*- Bugun men nodondan qochib qutuldim.*

8

Abdulla Qodiriyga

29.*Azaliy haq gapni yashirmoq nechun*

30.*Zavol yo‘q eng asl iste’dod uchun.*

31.*Agarda koinot tegirmon bo‘lib,*

32.*Olamni yanchsa ham, qolgay u butun.*

9

33.*Eski alifboni dilga qilsang jo,*

34.*Mana bu hikmatni unutma aslo:*

35.*Egri niyatiyu yuvuqsiz qo‘lni*

36.*Sira yoqtirmaydi o‘sha alifbo.*

10

37.*Xalqim deb yugurar hovuchlab jonin,*

38.*Xalqiga bag‘ishlar shuhratin-shonin.*

39.*Lekin shu chopishda keta-ketguncha,*

40.*Tozalab boradi xalqning hamyonin.*

KUŞ DİLİ (147)

1

1. Boran, sen kandil üstünde uğuldayıverme, yeter,

2. Aslan gibi gürleyip çıkarıverme ses.

3. Kandili söndürmek çok da kolay,

4. Ona yeter bir püf diye nefes.

2

5. Mizacını gözleyip saf evladımın,

6. Kaygısını düşünürüm karmaşık âlemin.

7. Safdillik iyi, lakin genellikle

8. İşi yürürmüş fitneci insanın.

3

9. Kuşların dilinde yalnız bir ayet,

10. O insan için de ibrettir gayet.

11. Kuşlar der: - Ey Allah’ım, kafese düşme,

12. Düşecek olursan eğer, çık nihayet.

4

13. Bir şaka uydurdum bugün sana diye,

14. Bebek ağlar niye ınga diye.

15. Inga ıngasının manası şu ki,

16. İddia eder bana, bana diye.

5

17. Tamam, rakibin olsun her şey,

18. Hiçbir zaman sen ona aldırma.

19. Ona her belayı reva görsen de,

20. Dilini söküp alırım deme.

6

21. Dikkatle bak hatta yedi kat yere,

22. Kıyas bulunacaktır geçen ömre:

23. Altına dönüşen iyilerin tozu,

24. Kötününki ise kara kömüre.

7

25. Bir bilge bezminin şahidi oldum,

26. Şaduman mecliste oynadım, güldüm.

27. Bezminin nedenini sorsam, dedi:

28. - Bugün ben nadandan kaçıp kurtuldum.

8

Abdulla Kadirî'ye

29. Ezelî hak sözü gizlemek niçin

30. Zeval yok en asıl istidat için.

31. Eğer kâinat değirmen olup,

32. Âlemi öğütse de kalacak o bütün.

9

33. Eski alfabeyi gönle koysan,

34. İşte bu hikmeti unutma asla:

35. Eğri iğneyi ve kirli eli

36. Asla beğenmez işte o alfabe.

10

37. Halkım diye koşar can havliyle,

38. Halkına bağışlar şöhretini, şanını.

39. Lakin bu koşmada gitmeye gidince,

40. Temizler halkının cüzdanını. (1988)

ENG QULAY JAVOB (148)

1. *- Bilaman, dunyoning bor baland-pasti,*

2. *Bularsiz yuksalish bo‘lmagay asti.*

3. *Lekin, ey faylasuf, menga javob ber,*

4. *Nechun yaxshilikning qisqadir dasti.*

5. *- Xayoling behuda gap bilan banddir.*

6. *Eng oddiy jumboq ham senga kamandsir.*

7. *Mayli, qulog‘ingga aytay, ey shoir,*

8. *Chunki yomonlikning qo‘li balanddir.*

EN KOLAY CEVAP (148)

1. Bilirim, dünyanın var yokuşu, inişi,

2. Bunlarsız yükselmek olmayacak asla.

3. Lakin ey filozof, bana cevap ver,

4. Niçin iyiliğin kısadır eli?

5. Hayalin beyhude sözle benttir.

6. En basit mesele de sana kementtir.

7. Tamam, kulağına söyleyeyim, ey şair,

8. Çünkü yamanlığın eli uzundur. (1988)

IRIM (149)

(Hazil)

1. *Kim nimani aylasa armon,*

2. *Qo‘msab kelgan o‘shani azal.*

3. *Ataganlar qizni O‘g‘ilxon,*

4. *Bu - o‘g‘ilga ishora, masal.*

5. *Hozir mehr bulog‘i tindi,*
6. *Bu holni ham irimga yo‘ying.*
7. *Qizlaringiz tug‘ilsa endi,*
8. *Nomlarini Mehrixon qo‘ying.*

HURAFE (149)

(Gülmece)

1. Kim neyi etse ukde,
2. Özleyip gelmiş işte onu ezel.
3. Diyenler kıza, Oğulhan,
4. Bu, oğula işret, mesel.

5. Şimdi şefkat bulağı dindi,
6. Bu hâli de hurafeye yorumlayın.
7. Kızlarınız doğsa şimdi,
8. Namlarını Mehrihan koyun. (1988)

TOQAT (150)

1. *Bozordan tutoqib qaytar uyga chol,*
2. *Go‘sht qayda? Yog‘ qani? Va’da so‘zdami?*
3. *Kampiri xo‘rsinib yupatar darhol:*
4. *- O‘kinmang, taqchillik faqat bizdami?!*

5. *Yonboshlab gazeta varaqlaydi chol,*
6. *To‘polon chiqibdi zavod, Vuzdami.*
7. *Kampiri yupatar surgancha xayol:*
8. *- O‘ylamang, janjal ham faqat bizdami?!*

9. *Oqshom televizor ko‘rayotib chol*

10.*Birdan sapchib tushar. Esi o‘zdami?*

11.*- Davlatga tosh otdi kimdir bemalol.*

12.*Kampiri yupatar: faqat bizdami?!*

13.*Toqatim toq bo‘ldi, deydi endi chol,*

14.*Toqat yurakdami? Toqat ko‘zdami?*

15.*Kampiri yer chizib shivirlar behol:*

16.*Chidang-da, toqat ham faqat bizdami?!*

TAKAT (150)

1. Pazardan alevlenip döner eve ihtiyar,

2. Et nerede? Yağ hani? Vaatte sözde mi?

3. Yaşlı karısı iç çekip teskin eder derhâl:

4. - Üzülmeyin, eksiklik yalnız bizde mi?

5. Eğilip gazeteye göz gezdirdi ihtiyar,

6. Kargaşa çıkmış fabrikada mı?

7. Yaşlı karısı teskin eder dalınca hayale:

8. - Düşünmeyin, kavga da yalnız bizde mi?

9. Akşam televizyon görüp ihtiyar,

10. Birden atılıp düşer. Aklı yerinde mi?

11.- Devlete taş attı biri melalsiz.

12. Yaşlı karısı teskin eder: Yalnız bizde mi?!

13. Takatim yok oldu, der şimdi ihtiyar,

14. Takat yürekte mi? Takat gözde mi?

15. Yaşlı karısı toprağı çizip fısıldayıp hâlsiz:

16. Dayan, takat de yalnız bizde mi? (1988)

RENTGENCHI DO‘STIMGA (151)

1. *Sizga talpinadi bor bemor zoti,*
2. *Ayoli, erkagi, keksa, yoshi bor.*
3. *Aytib berolasiz o‘sha zahoti*
4. *Kimning buyragida, deylik, toshi bor.*

5. *Sizning kasbingiz ham aslida ijod,*
6. *Siz hatto zarursiz bizning Soyuzga.*
7. *Qaysi bir shoirda bordir iste’dod? -*
8. *Aniqlab bersangiz qaniydi bizga.*

RÖNTGENCİ DOSTUMA (151)

1. Size atılır tüm hasta zatı,
2. Kadını, erkeği, yaşlısı, genci var.
3. Söyleyebilirsiniz işte o an
4. Kimin böbreğinde, diyelim, taşı var.

5. Sizin mesleğiniz de aslında sanat,
6. Siz hatta zarurisiniz bizim Suyuz’a.
7. Hangi bir şairde vardır istidat?
8. Açıklayıverseniz hani bize. (1988)

GO‘ZALLIKNI YO‘QLASH (152)

1. *Yuzlaringda ajin, sochlaringda oq,*
2. *Yelkangdan yuk bo‘lib bosibdi yillar.*
3. *Quralay ko‘zlarda tubsiz bir charchoq,*
4. *Bekor gap, kim desa: yoshdir ko‘ngillar.*

5. *Bir vaqtlar nomingni eshitgan zahot*
6. *Yonardik o‘t ketgan kabi to‘qayga.*
7. *O, hissiz tabiat, shafqatsiz hayot,*
8. *Shunday go‘zallikni bekitding qayga?*

GÜZELLİĞİ ARAMAK (152)

1. Yüzlerinde kırışıklık, saçlarında ak,
2. Omzunda yük olmuş yıllar.
3. Ceylan gözlerinde dipsiz bir yorgunluk,
4. Boş söz, kim dese: gençtir gönüller.

5. Bir zamanlar adını işittiği an
6. Yanardık ateş sarmış gibi çalılığa.
7. Ey, hissiz tabiat, şefkatsiz hayat,
8. Öyle güzelliği gizledin nereye? (1988)

"BOQAR U ZAMONNING OQISHIGA DEB…" (153)

1. *Boqar u zamonning oqishiga deb,*
2. *Orttirmang boshimga malomatlarni.*
3. *Uning bir ishvali boqishiga deb*
4. *Qurbon qilajakman siyosatlarni.*

5. *O'ylamang, saroylar qoshida mustar -*
6. *Yuribman erta-kech bag'rimni dog'lab.*
7. *Uning qadamiga, kerak bo'lsa, gar,*
8. *Kelturgim shohlarni bir ipga bog'lab.*

"BAKAR O ZAMANIN AKIŞINA DİYE…" (153)

1. Bakar o zamanın akışına diye,
2. Attırmayın başıma melametleri.
3. Onun bir işveli bakışına diye
4. Kurban edeceğim siyasetleri.

5. Düşünmeyin, saraylar önünde,
6. Yürümüşüm sabah akşam bağrımı dağlayıp.

7. Onun adımına, gerek olsa, eğer,
8. Getireceğim padişahları bir ipe bağlayıp. (1988)

TASKIN (154)

1. *Atir hidi bilan borma mozorga,*
2. *Bormagin u tomon kiyinib bashang.*
3. *Alam qilar yotgan har bir xoksorga,*
4. *Ularning xo‘rligi oshadi, bilsang.*

5. *Axir ko‘ngillari ularning yarim,*
6. *Axir, aslo o‘lmas hayot degan o‘y.*
7. *Degil: - Havas qilmang, birodarlarim,*
8. *Bir kun yoningizga kelurman, deb qo‘y.*

TESKİN (154)

1. Güzel kokuyla gitme mezara,
2. Gitme o tarafa giyinip şık.
3. Elem verir yatan her bir mütevazıya,
4. Onların rezilliği artar, bilsen.

5. Nihayet gönülleri onların yarım,
6. Nihayet, asla ölmez hayat denen düşünce.
7. De: - Heves etmeyin, biraderlerim,
8. Bir gün yanınıza gelirim, de. (1988)

BU YO‘LLAR (155)

1. *Bu yo‘llar xayoldek bilmas intiho,*
2. *Shoshilar o‘zining manzilotiga.*
3. *Bu yo‘llar eltadi na Makka, na yo*
4. *Birlashgan Millatlar Tashkilotiga.*

5. *Bu yo‘llar dunyoni tinmay aylanib,*

6. *Intilar sirli bir ko‘ngil qulfiga.*

7. *Axiyri tasmadek qolar boylanib*

8. *Seningdek go‘zalning qora zulfiga.*

BU YOLLAR (155)

1. Bu yollar hayal gibi bilmez intiha,

2. Atılır kendisinin menzilatına.

3. Bu yollar götürür ne Mekke ne de

4. Birleşmiş Milletler Teşkilatına.

5. Bu yollar dünyayı durmadan dönüp,

6. Uğraşır sırlı bir gönül kilidine.

7. Sonunda tasma gibi kalır bağlanıp

8. Senin gibi güzelin kara zülfüne. (1988)

E’TIQOD (156)

(Shu kunning rivoyati)

1. *“Mahshar yaqin qoldi,*

2. *Qiyomat yaqin,*

3. *Ota bilan o‘g‘il bir-biriga yov.*

4. *Samovot boshida chaqsa ham chaqin,*

5. *Hech kimsa hayiqmas, qo‘rqmaydi birov.*

6. *Og‘izda bol kabi turgan bu til ham*

7. *Zaharga aylangan, nishga aylangan.*

8. *Dilbarlar chashmini kuylagan qalam*

9. *Ko‘zlarni o‘yishga endi shaylangan.*

10.*O‘g‘lim libosimni burdalab ketgan,*

11.*Tavba, deb ushlashga qolmagan yoqa.*
12.*Malomat pichog‘i suyakka yetgan,*
13.*Qalqonlar teshilgan, otlar betaqa.”*

14.*O‘t bosgan qabrning tepasida chol*
15.*G‘arq bo‘lib turardi shundoq o‘ylarga.*
16.*Dam-badam o‘tmishga eltardi xayol,*
17.*Eltardi kurashlar, aza, to‘ylarga.*

18.*Qabrdan bir ovoz chiqdi-ku, shu choq,*
19.*Hazin va g‘azabnok, dardli, shiddatkor:*
20.*“Mahshar yaqin emas, qiyomat uzoq,*
21.*Hamma balolarga o‘zingsan aybdor.*

22.*O‘g‘lingga topilgay qilichu qalqon,*
23.*Taqalab bergaysan bir kun otini.*
24.*Lekin ishni buzgan sen o‘zing, nodon,*
25.*Toptading davrlar e’tiqodini.*

26.*Uchib ketayotib hatto qildirg‘och*
27.*Borar manzilini fahm etar beshak.*
28.*Sizlar-chi, bir kun to‘q, bir kun yupun, och,*
29.*Tashvishingiz yo‘qdir vujuddan bo‘lak.”*

30.*Tindi iztirobli qabrning sasi,*
31.*Nima bu? Ro‘yomi? Vasvasmi? Gumon?*
32.*Chol endi, ichiga tushib nafasi*
33.*Ketdi, uyigamas, raykomga tomon.*

İTİKAT (156)

(Bugünün rivayeti)

1. “Mahşer yaklaştı,
2. Kıyamet yakın,
3. Babayla oğul birbirine düşman.
4. Semavat başında sarsa da ateş,
5. Hiç kimse ürkmez, korkmaz biri.

6. Ağızda bal gibi duran bu dil de
7. Zehre dönmüş, dikene dönmüş.
8. Dilberlerin çeşmini metheden kalem
9. Gözleri oymaya şimdi hazırlanmış.

10.Oğlum libasımı parçalamış,
11.Tövbe, diye etmeye kalmamış hayret.
12. Melamet bıçağı kemiğe ulaşmış,
13. Kalkanlar deşilmiş, atlar nalsız.”

14. Ateş basan kabrin tepesinde ihtiyar
15. Gark olup dururdu öyle düşüncelere.
16. Anbean geçmişe götürdü hayal,
17.Götürdü savaşlara, yaslara, toylara.

18. Kabirden bir ses çıktı, o an,
19. Hazin, azaplı, dertli ve şiddetli:
20.“Mahşer yakın değil, kıyamet uzak,
21.Bütün belalara kendinsin suçlu.

22.Oğluna bulunacak kılıç ve kalkan,
23. Nallayıp vereceksin bir gün atını.
24. Lakin işi bozan sen kendin, nadan,

25.Çiğnedin devirlerin itikadını.

26.Uçup giden şahin bile
27. Gider menzilini fehmeder şüphesiz.
28. Sizler bir gün tok, bir gün sefil, aç,
29. Kaygınız yoktur vücuttan başka.

30. Dindi ızdıraplı kabrin sesi,
31. Ne bu? Rüya mı? Vesvese mi? Şüphe mi?
32.İhtiyar şimdi, içine düşüp nefesi
33. Gitti, evine değil, bölge kuruluna doğru. (1988)

MINNATDORLIK (157)

(Shifokor Mahfuza opaga)

1. *Minnatdorlik bildirishim zarur bo‘lib qolsa agar,*
2. *Ta’zim qilar edim avval yeru quyosh, yulduzlarga.*
3. *Nafas olgan har bir jonzot rahmat hissi bilan yashar,*
4. *Tiriklikning qarorgohi - kechalarga, kunduzlarga.*

5. *Garchand ulug‘ bu borliqning har jihati to‘kis emas,*
6. *Yog‘ini bor, sochini bor, bo‘roni bor, suroni bor.*
7. *U muttasil bahor emas, yo qish emas, yo kuz emas,*
8. *Bizni mudom erkalamas; gohi achchiq qirovi bor.*

9. *Minnatdorlik bildirishim zarur bo‘lib qolsa tag‘in,*
10.Hech shubhasiz bosh egardim odamlarning o‘zlariga.
11.Yaxshi kunda, yomon kunda ular senga ochar bag‘rin,
12.Taqdiring goh bog‘liq bo‘lar ularning bir so‘zlariga.

13.Garchand ulug‘ bu bashar ham shu kungacha nomukammal,

14.*Yovuzi bor, loqaydi bor, bor berahm, bag‘ritoshi.*

15.*Inson zoti komil bo‘lib yaralmagan ekan azal,*

16.*Shuning uchun savdolarga mahkum bo‘lgan sho‘rlik boshi.*

17.*Ha, har qalay shukronalik boisi ko‘p bu dunyoda*

18.*Mo‘l-ko‘l mehrin ayamasdan, zamin yashar, quyosh yashar.*

19.*Ha, har qalay odamlarga mehr hissi ko‘p ziyoda,*

20.*Boshimizni o‘qtin-o‘qtin silab turar ona-Bashar.*

MİNNETTARLIK (157)

(Şifakâr Mehfuze Abla’ya)

1. Minnettarlık bildirişim zaruret olsa eğer,

2. Tazim ederdim evvel toprak, güneş ve yıldızlara.

3. Nefes alan her bir canlı rahmet hissiyle yaşar,

4. Hayatın karargâhı gecelere, gündüzlere.

5. Gerçi bu ulu varlığın her ciheti mükemmel değil,

6. Yağışı var, fırtınası var, boranı var, gürültüsü var.

7. O muttasıl bahar değil, veya kış değil, yahut güz değil,

8. Bizi hep sevmez, bazen acı kırağı var.

9. Minnettarlık bildirişim zaruret olsa yine,

10. Hiç şüphesiz baş eğerdim insanların kendilerine.

11.İyi günde, kötü günde onlar sana açar bağrını,

12. Kaderin bazen bağlı olur onların bir sözlerine.

13. Gerçi ulu beşer de şu güne dek mükemmel değil,

14. Yavuzu var, lakaydı var, var insafsızı, taş kalplisi.

15.İnsan zatı kâmil olarak yaratılmamışmış ezel,

16. Bunun için sevdalara mahkûm olmuş zavallı başı.

17. Evet, anlaşılan teşekkür mevzusu çok bu dünyada

18. Gani gani şefkatini esirgemeden, zemin yaşar, güneş yaşar.

19. Evet, anlaşılan insanlara şefkat hissi çok ziyade,

20. Başımızı zaman zaman okşayıp durur Ana Beşer. (1988)

MAYMUNIYAT (158)

1. *Turib-turib maymun bir kun boshin qashladi*

2. *Va maymuniy rejalarni tuza boshladi.*

3. *Dedi: - Shukr, o‘lib ketmish Gulxaniy bobo,*

4. *Demak bizning davrimiz ham kelmish mutlaqo.*

5. *Krilov ham marhum emish allaqachonlar,*

6. *O‘zimizga qolgan demak endi zamonlar.*

7. *Ne qilsak ham qo‘limizda inon-ixtiyor,*

8. *Bizning yo‘lni to‘solguvchi endi kim ham bor?*

9. *Shundoq deya maymun shirin o‘ylarga bordi,*

10.*So‘ng tavakkal... shoirlikni boshlab yubordi.*

11.*Maymunona fikrlardan nazm tizdi u,*

12.*O‘rmon bo‘ylab kecha-kunduz izg‘ib kezdi u.*

13.*Qarasaki ishlar tuzuk, ilhomlar ravon,*

14.*Mushugini “pisht” demaydi, birorta hayvon.*

15.*Madaniyat sohasida kerak bo‘lar der,*

16.*Uni bir kun qabul qildi hatto janob sher.*

17.*Siylandi u, ibrat uchun unvon berildi,*

18.*Maymun esa kerilgandan endi kerildi.*

19.*Hayvon zotin mensimayin qo‘ydi u butkul,*

20.*Biz maymunlar, deb boshlardi nutqini nuqul.*

21.*Lablarida kamtarona bir mamnuniyat,*

22.*Derdi: - Olam gultojimiz biz maymuniyat,*

23.*Oh, insonlar. Qilolmasman ularga toqat.*

24.*Shu borada maymun chora izlardi faqat.*

25.*Oxir o‘ylab maymun topdi shundoq naqlni:*

26.*Insonlarning orasida Darvin, aqlli,*

27.*Toping uni. Ulug‘ olim bizni alqagan,*

28.*Gulxaniy ham, Krilov ham bizdan tarqagan.*

MAYMUNİYET (158)

1. Düşünüp düşünüp maymun bir gün başını kaşıdı
2. Ve maymunca planları düzmeye başladı.
3. Dedi: - Şükür, ölüp gitmiş Gülhanî Dede,
4. Demek bizim devrimiz de gelmiş mutlaka.
5. Krilov da merhummuş bir zamanlar,
6. Kendimize kalmış şimdi zamanlar.
7. Ne yapsak da elimizde istek, ihtiyar,
8. Bizim yolu engelleyebilen şimdi kim de var?
9. Öyle diye maymun şirin düşüncelere daldı,
10. Sonra tevekkül… Şairliğe başlamış.
11. Maymunca fikirlerden nazım dizdi o,
12. Orman boyunca gece gündüz avare gezdi o.
13. Baksa ki işler güzel, ilhamlar revan,
14. Kedisine "pişt" demez, bir hayvan.
15. Medeniyet sahasında gerek olur der,
16. Onu bir gün kabul etti hatta aslan efendi.
17.Hürmet etti o, ibret için unvan verildi,
18. Maymunsa gerinmekten şimdi kibirlendi.
19. Hayvan zatını görmezden geldi o hemen.
20. Biz maymunlar diye başlardı nutkuna hep.
21. Dudaklarında âcizane bir memnuniyet,
22. Derdi: - Âlem baş tacımız bizim memnuniyet,
23. Ah, insanlar. Getirememem onlara takat.
24. Bu kez de maymun çare arardı yalnız.
25. Nihayet düşünüp maymun buldu şöyle naklini:
26.İnsanların arasında Darvin, akıllı,
27. Bulun onu. Ulu âlim bize başarı dilemiş,
28.Gülhanî de, Krilova da bizden yayılmış. (1988)

BOR GAP (159)

1. *Qanchalik iroda, qancha kuch kerak,*

2. *Maysani toptamay o‘tmoqlik uchun.*

3. *Qanchalik iroda, qancha kuch kerak,*

4. *Farzanding gunohin yutmoqlik uchun.*

5. *Qanchalik iroda, qancha kuch kerak,*

6. *Noravo Vatanni sevmoqlik uchun.*

7. *Qanchalik iroda, qancha kuch kerak,*

8. *Noraso elga so‘z demoqlik uchun.*

9. *Bularning baridan bo‘lmoq-chun xalos,*

10.*Ikki gaz arg‘amchi yetgaydir, xolos.*

BÜTÜN SÖZ (159)

1. Nice irade, nice güç gerekir,

2. Yeşilliği çiğnemeden geçmek için.

3. Nice irade, nice güç gerekir,

4. Evladının şahitliğini yok saymak için.

5. Nice irade, nice güç gerekir,

6. Revasız Vatan’ı sevmek için.

7. Nice irade, nice güç gerekir,

8. Noksan halka söz demek için.

9. Bunların tümünden olmak için halas,

10.İki ipek ip yetecektir, yalnız. (1988)

TARAQQIYOT (160)

1. *Ovchilar maqtangan qadim zamonda*

2. *Bo‘za va nosvoyning kayfini surib:*

3. *- Falon yil, falon payt, falon dovonda*

4. *Eng katta olqorni olganman urib.*

5. *Eng yuksak cho‘qqini zabt etgan sayyoh*

6. *G‘urur bilan degan o‘lganga qadar:*

7. *- Aziz nabiralar, siz bilmaysiz, oh,*

8. *Men o‘sha cho‘qqida quchganman zafar.*

9. *Me’morlar ham yashar asrma-asr,*

10.*Ularning faxri ham shundan iborat:*

11.*- Men bunyod etganman eng yuksak qasr,*

12.*Mening ijodimdir eng zo‘r imorat.*

13.*Taraqqiyot ekan, zamonlar kelib,*

14.*Orzu bosib ketdi butun olamni.*

15.*Hozir maqtanishar: - Qo‘yingiz bilib,*

16.*Men badnom qilganman eng zo‘r Odamni.*

TERAKKİYAT (160)

1. Avcılar övünüp kadim zamanda

2. Boza ve enfiyenin keyfini sürüp:

3. - Falan yıl, falan zaman, falan geçitte

4. En büyük keçiyi almışım vurup.

5. En yüksek zirveyi zapt eden seyyah

6. Gururla demiş ölene kadar:

7. - Aziz torunlar, siz bilmezsiniz, ah,

8. Ben işte o zirvede kazanmışım zafer.

9. Mimarlar da yaşar asırlarca,

10. Onların fahri de şundan ibaret:

11.- Ben inşa etmişim en yüksek kaleyi,

12. Benim sanatımdır en büyük imaret.

13. Terakkiyatmış, zaman gelip,
14. Arzu basmış bütün âlemi.
15.Şimdi övünürler: - Anlayınız,
16. Ben kötülemişim en büyük İnsanı. (1989)

BEGONALIK (161)

1. *Yoy o‘qi kamondan qochadi yiroq.*
2. *Tog‘lardan qochadi daryo va buloq.*

3. *Bulutlar bag‘ridan qochadi yomg‘ir,*
4. *Sukunatdan qochib shamollar sang‘ir.*

5. *Nafis chechaklarning xushbo‘y atri ham*
6. *G‘unchalar qo‘ynidan qochar damodam.*

7. *Gar to‘lqin bo‘shliqqa quchog‘in ochar,*
8. *Vahshiy qoyalarga bosh urib qochar.*

9. *Burgut panjasini yerdan uzgan on,*
10.*Tovushqon qochadi butazor tomon.*

11.*Ogoh bo‘lsang agar olam siridan*
12.*Dunyolar ham qochar biri-biridan.*

13.*Shu taxlit yashaydi buyuk koinot,*
14.*Manzilin topolmas idroksiz hayot.*

15.*Biroq yiroq tushsa insondan inson,*
16.*Bu holning sharhiga ne deysan, ey jon!*

17.*Ona farzandiga quchog‘in ochsa,*

18.*Farzand-chi, onadan ming farsah qochsa.*

19.*Qochsa bir-biridan o‘g‘il ham padar,*

20.*Yodini unutgan telbalar qadar.*

21.*Do‘stlar bir-biridan qochsalar zimdan,*

22.*Bosh olib ketgudek shahri azimdan.*

23.*Birlashsa yovuzlik, turfa illatlar,*

24.*Qochsa bir-biridan ellar, millatlar.*

25.*Qovushmasa insof, ezgulik, sabot,*

26.*Men buning sababin bilmasman, hayhot!*

27.*Tafakkur basharga garchi yalovdir,*

28.*Nechuk odam qavmi odamga yovdir.*

29.*Javob berar bunga na yer, na osmon,*

30.*Na Budda, Na Zardo‘sht, na Injil, Qur’on.*

31.*Endi bandalarga o‘zing qil shafqat,*

32.*Ey oliy joziba - Sirli Muhabbat!*

YABANCILIK (161)

1. Yay oku kemandan kaçar uzak.

2. Dağlardan kaçar derya ve bulak.

3. Bulutların bağrından kaçar yağmur,

4. Sükûnetten kaçıp rüzgârlar avare gezer.

5. Nefis çiçeklerinin mis kokusu da
6. Goncalar koynundan kaçar her zaman.

7. Eğer dalga boşluğa kucağını açar,
8. Vahşi kayalara baş eğip kaçar.

9. Kartal pençesini yerden kestiği an,
10. Tavşan kaçar çalılığa doğru.

11. Agâh olsan eğer âlemin sırrından
12.Dünyalar da kaçar birbirinden.

13. Bu şekilde yaşar büyük kâinat,
14. Menzilini bulamaz idraksiz hayat.

15. Fakat ırak düşse insandan insan,
16. Bu hâlin şerhine ne dersin, ey can!

17. Ana evladına kucağını açsa,
18. Evlat, anadan bin fersah kaçsa.

19. Kaçsa birbirinden oğul ve peder,
20.Yâdını unutmuş deliler kadar.

21. Dostlar birbirinden kaçsalar gizlice,
22. Başını alıp gidecek gibi şehr-i azimden.

23. Birleşse yavuzluk, garip illetler,
24. Kaçsa birbirinden halklar, milletler.

25. Kavuşmasa insaf, iyilik, sebat,

26. Ben bunun sebebini bilmem, heyhat!

27. Tefekkür beşere gerçi sancaktır,

28. Nasıl insan kavmi insana düşmandır.

29. Cevap verir buna ne yer, ne asuman,

30. Ne Buda, ne Zerdüşt, ne İncil, ne Kur'an.

31.Şimdi bendelere kendin kıl şefkat,

32. Ey ali cazibe, Sırlı Muhabbet! (1989)

TOVLAMACHI KIMSALARGA (162)

1. *Har bir tashabbusning bor o'z zamoni,*

2. *Yaxshi tomoniyu yomon tomoni.*

3. *Zamondan orqada qolib ketmay, deb*

4. *Shirkat tuzib olmish gala mo'ltoni.*

5. *Ular ostonangda yotib olarlar,*

6. *O'ligin yelkangga ortib olarlar.*

7. *Tilagan narsasin bersang berding-ku,*

8. *Bermasang, ko'plashib, tortib olarlar.*

ÜÇKÂĞITÇI KİMSELERE (162)

1. Her bir teşebbüsün var kendi zamanı,

2. İyi tarafı ve yaman tarafı.

3. Zamandan arkada kalıp gitmeden, diye

4. Şirket kurup almış sürü çingeneyi.

5. Onlar eşiğinde yatarlar,

6. Kimsesizin omzuna yüklerler.

7. Dilediği şeyi verirsen verdin,

8. Vermezsen, toplaşıp, çekip alırlar. (1989)

SHOSHMASLIK HAQIDA BALLADA (163)

1. *Zaminga shoshmasdan qadam qo‘y, bo‘tam,*

2. *Shoshmasdan aylanar yerning o‘zi ham.*

3. *Shoshmasdan nazar sol cheksiz samoga,*

4. *Shoshmay quloq tutgil kuyga, navoga.*

5. *Mozorlar yonidan shoshmasdan o‘tgin,*

6. *Yorni kutar bo‘lsang, shoshmasdan kutgin.*

7. *Gullarni uzishga shoshilma bir oz,*

8. *Ko‘rgil, g‘unchalar ham shoshmay qilar noz.*

9. *Avlod-ajdoding kim? Shoshmay fikr qil,*

10.*Shoshmay so‘z degilu shoshmay zikr qil.*

11.*Shoshqin daryoman deb vaqt-bevaqt toshma,*

12.*Ummon bo‘lmoqlikka ayniqsa shoshma.*

13.*Hukm chiqarmoqqa shoshilmasang bas,*

14.*Shoshganda birdekdir kas bilan nokas.*

15.*Do‘st izlab har qayda shoshilma, qo‘zim,*

16.*Barchani do‘st atab shoshgan men o‘zim...*

17.*Shoshmagin g‘animdan olay deb qasos,*

18.*Shoshmaslikning o‘zi zo‘r tiyg‘i olmos.*

19.*Axir, bobolar ham shoshmay deganlar:*
20.*Humoyun ovlaydi shoshmas merganlar.*

21.*Afsus, umr o‘zi shoshar doimo,*
22.*Shul sabab nomini derlar: bevafo!*

23.*Biroq shunday hol bor, shunday fursat bor,*
24.*U fursat dastingdan ketsin ixtiyor.*

25.*U fursat belingni daf’atan bog‘la,*
26.*O‘zingni tirnoqli sher kabi chog‘la.*

27.*Unut gullarni ham, bulbullarni ham.*
28.*Ulfatu shaydoyi ko‘ngillarni ham.*

29.*Oting egarlangan, chaqmoq singari,*
30.*Shay bo‘lgin u mahal, boqqil ilgari.*

31.*Eling madad so‘rab ingragani on,*
32.*Shoshilgin o‘sha payt, shoshilgin, o‘g‘lon!*

ACELE ETMEZLİK HAKKINDA BALAT (163)

1. Zemine acele etmeden adım at, köşeğim,
2. Acele etmeden döner yerin dünyanın kendisi de.

3. Acele etmeden dikkatle bak sonsuz semaya,
4. Acele etmeden kulak ver türküye, şarkıya.

5. Mezarların yanından acele etmeden geç,
6. Yâri beklersen, acele etmeden bekle.

7. Gülleri koparmaya acele etme biraz,
8. Bak, goncalar da acele etmeden eder naz.

9. Evladın ecdadın kim? Acele etmeden düşün,
10. Acele etmeden söz söyle ve acele etmeden zikret.

11. Aceleci deryayım diye her zaman taşma,
12. Umman olmaya özelikle acele etme.

13.Hüküm vermeye acele etmesen yeter,
14. Acele ettiğinde bir gibidir insanla insafsız.

15. Dost arayıp her yerde acele etme, gözüm,
16. Hepsine dost deyip acele etmiş benim özüm…

17. Acele etme düşmandan alayım diye intikam,
18. Acele etmezliğin kendisi büyük bir elmas.

19. Nihayet dedeler de acele etmeden demişler:
20.Hüma avlar acele etmez nişancılar.

21. Maalesef, ömrün kendisi acele eder daima,
22.Şu sebepten adına derler: Vefasız!

23. Fakat öyle hâl var, öyle zaman var,
24.O zaman elinden gitsin ihtiyar.

25.O zaman belini birden bağla,
26. Kendini tırnaklı aslan gibi varsay.

27. Unut gülleri de, bülbülleri de.
28. Ahbap-ı ve âşık-ı gönüllerin de.

29. Atın eğerlenmiş, yıldırım gibi,
30. Hazır ol o zaman, bak ileri.

31. Halkın medet isteyip sızladığı an,
32. Acele etme işte o an, acele etme, oğlan! (1989)

JAVOB (164)

O‘zbeklarning mehmondo‘stligini

pora deguvchi ba’zi kimsalarga

1. *Muruvvat neligin bilmas mehmonim,*
2. *Ko‘zi och, yeb to‘ymas, beqo‘nim gadoy.*
3. *Pora bo‘libdimi bir burda nonim,*
4. *Pora bo‘libdimi bir piyola choy.*

5. *Haftalik yovg‘onga qanoat qilib,*
6. *G‘ururin saqlagan jo‘jabirday jon.*
7. *Mezbonlik yo‘rig‘in muqaddas bilib,*
8. *Qunishgan yelkangga tashlabdi chopon.*

9. *O‘zbekning yeridan jo‘nagan ne’mat*
10.*Sening ham umringga yetgulik qadar.*
11.*Ayt, kimning mahridir ulug‘ bu davlat,*
12.*Endi himmatimdan qildingmi hazar?*

13.*Egasiz sang‘igan har daydi jonzot*

14.*Boshini silasang qo‘ling tishlaydi.*
15.*Nogahon g‘ingshibsan, insonsan nahot,*
16.*Muzdek yuragingda g‘araz qishlaydi.*

17.*Saxovat so‘zining ma’nosin bilmay*
18.*Mehmondan ming farsah qochguvchi bu - sen.*
19.*Siylagan kimsani nazarga ilmay,*
20.*Tag‘in zahrini ham sochguvchi bu - sen.*

21.*Tosh bersa yutguvchi ey, nafsi yoriq,*
22.*Xayru ehsonimni mayli, unutgin.*
23.*Yelkang to‘n ko‘rmasin, oyog‘ing choriq,*
24.*Do‘stga zor bo‘lginu biri kam o‘tgin.*

25.*O, xalqim, ochiqqo‘l - hotamsan azal,*
26.*Atoyi xudo de, mayli, mehmonni.*
27.*Lekin nonko‘rlarni uchratgan mahal*
28.*Og‘ziga tiq endi tipratikonni.*

CEVAP (164)

Özbeklerin misafirperverliğine

rüşvet diyen bazı kimselere

1. Mürüvvet ne olduğunu bilmez misafirim,
2. Gözü aç, yiyip doymaz, kıpır kıpır geda.
3. Rüşvet olmuş muydu bir parça ekmeğim,
4. Rüşvet olmuş muydu bir kâse çay.

5. Haftalık çorbaya kanaat edip,
6. Gururunu saklamış çok çocuklu insan.
7. Mihmandar yolunu mukaddes bilip,

8. Titreyen omzuna atılmış kaftan.

9. Özbek'in toprağından yola çıkmış nimet
10. Senin de ömrüne yetecek kadar.
11.Söyle, kimin mirasıdır ulu bu devlet,
12.Şimdi himmetimden ettin mi içtinap?

13. Sahipsiz, başıboş gezen her avare canlı
14. Başını okşasan elini dişler.
15. Birden inlemişsin, insan mısın?
16. Buz gibi yüreğinde garez kışlar.

17. Sahavet sözünün manasını bilmeden
18. Misafirden bin fersah kaçan bu, sen.
19.Hürmet eden kimseyi dikkate almadan,
20. Yine zehrini de saçan bu, sen.

21. Taş verse yutan ey, nefsi bozuk,
22. Hayrımı ve ihsanımı tamam, unut.
23. Omzun kaftan görmesin, ayağın çarık,
24. Dosta muhtaç ol ve biri az geç.

25. Ey, halkım, eli açık, alicenapsın ezel,
26. Hediye-yi Hüda de, tamam, misafire.
27. Lakin nankörlerle karşılaştığın an
28.Ağzına tık şimdi kirpiyi. (1989)

SHOIR (165)

(Hazil)

1. *E'lon ossang agar biror shaharda,*

2. *Esi butun odam kerak deb shu on.*

3. *Taloto‘p bo‘lgandek ro‘zi mahsharda,*

4. *Yopirilib kelardi odamlar g‘ujg‘on.*

5. *E’lon ossang agar shaharda shu kun,*

6. *Jununvash, devona kimsaga doir.*

7. *Tarqab ketar edi qolganlar, butun,*

8. *Faqat qolar edi “U men”, - deb, shoir!..*

ŞAİR (165)

(Gülmece)

1. İlan asarsan eğer bir şehirde,

2. Aklı tam insan gerekir diye şu an.

3. Kargaşa olmuş gibi ruz-ı mahşerde,

4. Gelirdi insanlar yığın yığın.

5. İlan asarsan eğer şehirde bugün,

6. Deli divane gibi kimseye dair.

7. Dağılıp giderdi kalanlar, bütün,

8. Yalnız kalırdı “O ben”, diye, şair!.. (1989)

YOLG‘IZ ASKAR (166)

1. *Botir ko‘kragidan o‘q yedi bir kun,*

2. *Vo, orqam! - dediyu tortdi cho‘ng na’ra.*

3. *Yov taraf so‘radi: - Orqam, deb nechun*

4. *Oh chekding, ko‘ksingdan ochdik-ku yara.*

5. *Botir shivirladi: Men - yolg‘iz askar,*

6. *Yo‘qsa, ustimga ot sololmasdingiz.*

7. *Orqamda do‘stlarim bo‘lganda agar*

8. *Ko‘ksimni nishonga ololmasdingiz.*

YALNIZ ASKER (166)

1. Bahadır göğsüne ok yedi bir gün,
2. - Vay, arkam! dedi ve attı büyük nara.
3. Düşman tarafı sordu: - Arkam, diye niçin
4. Ah çektin, göğsünden açtık yara.

5. Bahadır fısıldadı: - Ben yalnız asker,
6. Yoksa üstüme at salamazdınız.
7. Arkamda dostlarım olduğunda eğer
8. Göğsüme nişan alamazsınız. (1989)

ELIM DEB YONGAYDIR SOHIB JUR’ATLAR (167)

1. *To‘yni ortga surdi qay kun xotining,*
2. *Dedi: - Kuyov tomon sabr etib tursin.*
3. *Sababi nimadir - sezar botining,*
4. *Yo‘qchilik yomondir, yo‘qchilik qursin.*

5. *O‘g‘il ulg‘aymoqda, tor kelmish boshmoq,*
6. *Yangisin olishga imkon yo‘q biroq.*
7. *Deysan: Maoshgacha chidagin, o‘rtoq,*
8. *Yo‘qchilik yomondir, yo‘qchilik qursin.*

9. *Gap-gashtak xos qadim qishloq, shaharga,*
10. *Ulfatlar yig‘ilar norin osharga.*
11. *Navbating kelganda qochding safarga,*
12. *Yo‘qchilik yomondir, yo‘qchilik qursin.*

13. *Noming gar olamni qo‘yar gangitib,*
14. *O‘zini bilganni holin tang etib.*

15.*Kabobpaz yo‘lingni o‘tdi changitib,*

16.*Yo‘qchilik yomondir, yo‘qchilik qursin.*

17.*Qo‘shning cho‘ntagida yo‘qdir hech vaqo,*

18.*Uy quraman deydi, sir bermay ammo.*

19.*Suvrati podsho-yu, siyrati gado,*

20.*Yo‘qchilik yomondir, yo‘qchilik qursin.*

21.*Hatto Ka’bada ham ko‘rganman bir bor,*

22.*Boyga choy tashirdi mashhur san’atkor.*

23.*Rabbim, bunday kundan asragin zinhor,*

24.*Yo‘qchilik yomondir, yo‘qchilik qursin.*

25.*Boshiga tushsa gar mushkul fursatlar,*

26.*Elim deb yongaydir sohib jur’atlar.*

27.*Bir-birin qo‘llagay hatto davlatlar,*

28.*Yo‘qchilik yomondir, yo‘qchilik qursin.*

29.*Toleda borini sen ham ko‘rgaysan,*

30.*Bir kun to‘qchilikka yuzni burgaysan.*

31.*O‘shanda she’rimni eslab yurgaysan,*

32.*Yo‘qchilik yomondir, yo‘qchilik qursin.*

HALKIM DİYE YANACAKTIR CÜRET SAHİPLERİ (167)

1. Toyu erteledi hangi gün hanımın,

2. Dedi: - Damat tarafı sabretsin.

3. Sebebi nedir, sezer batını,

4. Fakirlik yamandır, fakirlik kurusun.

5. Oğul büyümekte, dar gelmiş çizme,

6. Yenisini almaya imkân yok fakat.

7. Dersin: - Maaş alana dek dayan, arkadaş,
8. Fakirlik yamandır, fakirlik kurusun.

9. Laf söz has kadim köye, şehre,
10. Meclisler toplanır narin[134] yemeğe.
11.Nöbetin geldiğinde kaçtın sefere,
12. Fakirlik yamandır, fakirlik kurusun.

13. Namın eğer âlemi düşürtür hayrete,
14. Kendini bilenin hâlini dar edip.
15. Kebapçı yolunu geçti tozutup,
16. Fakirlik yamandır, fakirlik kurusun.

17. Komşunun cüzdanında yoktur hiçbir şey,
18. Ev kurarım der, sır vermeden ama.
19. Sureti padişah ve sireti geda,
20. Fakirlik yamandır, fakirlik kurusun.

21. Hatta Kâbe'de de görmüşüm bir kez,
22. Zengine çay taşırdı meşhur sanatkâr.
23. Rabb'im, böyle günden korusun zinhar,
24. Fakirlik yamandır, fakirlik kurusun.

25. Başına gelse eğer müşkül anlar,
26. Halkım diye yanacaktır cesaret sahipleri.
27. Birbirini kollayacak hatta devletler,
28. Fakirlik yamandır, fakirlik kurusun.

29. Talihte varını sen de göreceksin,
30. Bir gün refahlığa yüzünü döneceksin.
31.İşte o anda şiirimi hatırlayıp gideceksin,
32. Fakirlik yamandır, fakirlik kurusun. (1990)

[134] Hamurla atın etinden hazırlanan bir yemektir.

OXIRAT (168)

1. *Nimadandir g‘ashdir ko‘ngillar,*
2. *Tikanakka burkanmish gullar.*
3. *Boqqa nogoh adashib kirsang,*
4. *G‘azab bilan sayrar bulbullar.*

5. *Qonga to‘lmish Mirrixning ko‘zi,*
6. *Ummonlarning sachraydi tuzi.*
7. *Allaqachon bol tommas tildan,*
8. *Shoirlarning zaqqumdir so‘zi.*

9. *Yo‘lga boqsang ko‘ringaydir jar,*
10. *Go‘daklarning tushida ajdar.*
11. *Tuni bo‘yi yigitlar bedor,*
12. *Yostiqlarin tagida xanjar.*

13. *Bilib bo‘lmas - kimda bor imkon,*
14. *Olag‘ovur mahshardir zamon.*
15. *Ne qilarin bilmay hayratda*
16. *Dengiz kabi qalqir olomon.*

17. *Xabar bordir na do‘st, na yordan,*
18. *Na do‘stu yor, balki, diyordan.*
19. *Yolg‘iz Hazrat mehrob qoshida*
20. *Madad tilar parvardigordan.*

AHİRET (168)

1. Neden huzursuzdur gönüller,
2. Dikene sarınmış güller.
3. Bağa ansızın şaşırıp girsen,
4. Gazapla öter bülbüller.

5. Kanla dolmuş Mirrih'in gözü,
6. Ummanların saçar tuzu.
7. Çok önce bal damlamaz dilden,
8. Şairlerin zakkumdur sözü.

9. Yola bakarsan görünecektir çukur,
10. Bebeklerin düşünde ejder.
11. Geceler boyu yiğitler bidar,
12. Yastıklarının dibinde hançer.

13. Bilmez, kimde var imkân,
14. Hengâme mahşerdir zaman.
15. Ne yapacağını bilmeden hayrette
16. Deniz gibi yükselir kalabalık.

17. Haber vardır ne dosttan, ne yârdan,
18. Ne dost-ı yârdan, belki, diyardan.
19. Yalnız Hazreti mihrap önünde
20. Medet diler Perverdigâr'dan. (1990)

BAXTSIZ FARISHTA (169)

1. *Ma'sum farishtalar - go'daklar bari*
2. *Bulutlar ustida uchib yuribdi,*
3. *Jannatning hayotbaxsh shabbodalari*
4. *Parquv qanotlarin yelpib turibdi.*
5. *Kunlari kechardi baxtli va shodon,*
6. *Abadiy rohatga barchasi noil.*
7. *Faqat bir farishta yashardi nolon,*
8. *Faqat bir farishta qayg'uga moyil.*
9. *Sira yozilmasdi ko'ngil chigili,*
10.*Munglig' ko'zlarida dunyoviy alam.*
11.*Taskin berolmasdi behishtning guli,*

12.*Taftin bosolmasdi kavsar suvi ham.*

13.*Bir kun so‘radilar: - Ma’yussan nechun?*

14.*Axir sen - begunoh, sen yaxlit savob!*

15.*Bolakay farishta uh tortdi uzun,*

16.*So‘ng sekin shivirlab, ayladi javob:*

17.*- Meni ota-onam ketgandi tashlab,*

18.*Do‘zaxda yonmoqda ular beomon.*

19.*Shul sabab g‘amginman, ko‘zimni yoshlab,*

20.*Ularga tilayman shafqat va imon.*

BAHTSIZ FERİŞTE (169)

1. Masum feriştelerin, bebeklerin hepsi

2. Bulutların üstünde uçup gitmiş.

3. Cennetin hayat bahşeden esintileri

4. Bulutlar kanatlarını çırpmış.

5. Günleri geçerdi bahtlı ve şâdân,

6. Ebedî rahata hepsi nail.

7. Yalnız bir ferişte yaşardı nalan,

8. Yalnız bir ferişte kaygıya meyil.

9. Asla yazılmasın gönül karışıklığı.

10.Sıkıntılı gözlerinde dünyevi elem.

11. Teskin edemezdi behiştin gülü,

12. Hararetini basamazdı kevser suyu da.

13. Bir gün sordular: - Meyussun niçin?

14. Nihayet sen günahsız, sen tam sevap!

15.Çocuk ferişte ah çekti uzun,

16. Sonra yavaşça fısıldayıp, verdi cevap:

17.- Beni babam, annem gitmişti atıp,

18. Cehennemde yanmakta onlar amansız.

19.O sebepten gamlıyım, gözüm yaşta kalıp,

20. Onlara dilerim şefkat ve iman. (1990)

YULDUZ QAZOSI (170)

1. *Qazo qildi ko‘kda bir yulduz,*

2. *Koinotda aza ochildi.*

3. *Uzoq-yaqin dunyolarning o‘z -*

4. *Ta’ziya toshlari sochildi.*

5. *Qora kiydi bir nafas quyosh,*

6. *Mung‘aygancha Oy qaltiradi.*

7. *Zuhra yulduz berolmay bardosh*

8. *Ko‘zlarida yosh yaltiradi.*

9. *Ular kimga dillarin yorar,*

10. *Cheksiz zulmat o‘ngu so‘lida.*

11. *Tobutni jim ko‘tarib borar*

12. *G‘uj bo‘lgancha Somon yo‘lida...*

YILDIZ KAZASI (170)

1. Kaza yaptı gökte bir yıldız,

2. Kâinatta yas tutuldu.

3. Uzak yakın dünyaların kendi

4. Taziye taşları saçıldı.

5. Kara giydi bir an güneş,

6. Hüzünlenince Ay titredi.

7. Zühre yıldız edemeden sabır

8. Gözlerinde yaş parladı.

9. Onlar kime gönüllerini açar,

10. Sonsuz zulmet sağında ve solunda.

11. Tabutu sessiz kaldırıp gider

12. Toplanınca Samanyolunda. (1990)

IBLIS (171)

1. *Obro‘ kerak bo‘lar iblislarga ham,*

2. *Ularga ham dovruq, shon-shuhrat darkor.*

3. *Bir kuni osmondan Iblisi Olam*

4. *Yerga tushmoqlikni qildi ixtiyor.*

5. *Go‘zal liboslarni tanladi rosa,*

6. *Ko‘rgan-bilganlarin yig‘di ko‘pisin,*

7. *Avval o‘zbeklardan oldi andoza,*

8. *Ya’ni kiyib oldi to‘n va do‘ppisin.*

9. *Boshdan bozorlarga kirdi u atay,*

10. *Turfa jamoaga kelay deb to‘qnash.*

11. *Boqsa - har kallada do‘ppi o‘shanday,*

12. *Kiygan to‘nlari ham bir xilda, o‘xshash,*

13. *Qaytib ketdi Iblis falakka dilgir,*

14. *O‘zin oqlamadi do‘ppiyu chopon.*

15. *E’tibor qilmadi hech kimsa axir,*

16. *Qayrilib boqmadi hech bitta inson.*

17. *Iblis boshqa firib qo‘lladi endi,*

18. *Tanladi Kavkazning popoq bo‘rkini,*

19. *Kelib cho‘ponlarning yoniga qo‘ndi,*

20. *Ko‘z-ko‘z qilganicha qomat, ko‘rkini.*

21. *Cho‘ponlar Iblisni oldi o‘rtaga,*

22. *Dedilar: - Millating nadir, ey qo‘noq.*

23. *Aslingni yashirsang agar jo‘rttaga,*

24. *O‘zingdan ko‘rgaysan, bilib qo‘y biroq.*

25. *Iblis shosha-pisha uchdi osmonga,*

26. *Gangib qolgan edi sho‘rlikning boshi.*

27. *Nazar soldi obdon barcha tomonga,*

28. *Dedi: hindularning bo‘lay yo‘ldoshi!*

29. *Belida lungiyu oyoqda sandal,*

30. *Hindu tuprog‘iga Iblis qo‘ndi jim.*

31. *Kimlardir beparvo, kimlardir tanbal,*

32. *Izzat ko‘rsatmadi xullaski hech kim.*

33. *Iblis qarg‘ay ketdi kasbi-korini,*

34. *Axir bu xo‘rlikka bormi nihoya.*

35. *Kimdir eshitganday ohu zorini,*

36. *Boshiga yarq etib keldi bir g‘oya.*

37. *Bejirim shlyapa kiydi u darhol.*

38. *Serjun gardaniga ildi bo‘yinbog‘,*

39.*Kamzulu shimiga yurgizdi dazmol,*

40.*Zarhal ko‘zoynakdan ko‘ngli edi tog‘.*

41.*Duch kelgan manzilga sho‘ng‘idi endi,*

42.*Vo ajab! Bu ne hol! Bu ne karomat?*

43.*Uni ko‘rgan zahot shovqinlar tindi,*

44.*Yurishib ketdi-ku ishlar alomat.*

45.*Iblisni rahbar deb qarshi oldilar.*

46.*Balki siyladilar undan ham ortiq,*

47.*Poyiga ipaqdan palak soldilar,*

48.*So‘ng yuksak bir taxtni etdilar tortiq.*

49.*Hindiyu o‘zbek, rus, bulg‘oru kavkaz,*

50.*Barchasi salomga keldi daf’atan.*

51.*Iblis jami xalqqa go‘yo beg‘araz,*

52.*Bepoyon zaminni ayladi vatan.*

53.*Hukmu farmonini yurgizar pinhon,*

54.*Qoshu qabog‘iga keksa-yosh qarar.*

55.*Ezgulik g‘aflatda qolgani zamon,*

56.*Odamlar hayotin Iblis boshqarar.*

İBLİS (171)

1. İtibar gerekir iblislere de,

2. Onlara da ün, şan, şöhret gerekir.

3. Bir gün asumandan İblis-i Âlem

4. Yere düşmeyi etti ihtiyar.

5. Güzel libasları seçti hayli,

6. Görüp bildikleriyle yığdı çoğunu,

7. Evvel Özbeklerden aldı endaze,

8. Yani giydi kaftan ve doppısını.

9. Baştan pazarlara girdi o kasten,

10. Garip topluluğa geleyim diye rastlayıp.

11. Baksa her başta doppı işte onun gibi,

12. Giydiği kaftanları da bir türde, benzer,

13.Dönüp gitti İblis feleğe üzgün,

14. Kendisini aklamadı doppı ve kaftan.

15.İtibar etmedi hiç kimse nihayet,

16.Dönüp bakmadı hiçbir insan.
17.İblis başka hile kolladı şimdi,
18. Seçti Kafkaz'ın kalpağını, telpeğini,
19. Gelip kalpakların yanına kondu,
20.Göz göz yapınca kametini, görkünü.
21. Kaftanlar İblis'i aldı ortaya,
22. Dediler: - Milletin nedir, ey konuk.
23. Aslını gizlersen eğer bile bile,
24. Kendinden korkacaksın, bil yalnız.
25.İblis şaşkın şaşkın uçtu asumana,
26. Afallamıştı biçarenin başı.
27. Dikkatle baktı iyice her bir tarafa,
28. Dedi: Hinduların olayım yoldaşı!
29. Belinde önlük, ayağında sandalet,
30. Hindu toprağına İblis kondu sessiz.
31. Bazıları pervasız, bazıları tembel,
32.İzzet göstermedi neyse ki hiç kimse.
33.İblis lanet edip gitti hünerine,
34. Sonunda bu horluğa var mı nihaye.
35. Kim işitmiş gibi ahu-zarını,
36. Başına parlayıp geldi bir gaye.
37. Zarif fötr giydi o derhâl.
38.Yünlü gerdanına bağladı boyun bağı,
39. Yelek ve pantolonuna gezdi ütü,
40. Altın gözlükten gönlüydü rahat.
41. Rastladığı menzile daldı şimdi,
42. Acayip! Bu ne hâl! Bu ne keramet!
43. Onu gördüğü an gürültüler dindi,
44.Yürüyüp gitti işler alamet.
45.İblis'i rehber diye karşıladılar.
46. Belki iyi davrandılar ondan da fazla,
47. Payına ipekten yaprak koydular,
48. Sonra yüksek bir tahtı ettiler hediye.
49. Hindu, Özbek, Rus, Bulgar ve Kafkas,
50. Hepsi selama geldi birden.
51.İblis bütün halka sanki garazsız,

52. Sonsuz zemini etti vatan.
53.Hüküm ve fermanıyla meşgul olur pinhan,
54.Çiçeğine, kabağına genç yaşlı bakar.
55.İyilik gaflette kaldığı zaman,
56.İnsanların hayatını İblis yönetir. (1990)

OYISINING JAMG‘ARMASI (172)

1. *Ishchi yigit maosh poylab*
2. *Turar edi navbatda,*
3. *Bu birinchi moyanasi,*
4. *Zavqi ham zo‘r, albatta.*

5. *Barmoqlarin bukib-bukib,*
6. *Rejalarin tuzardi.*
7. *Ko‘z oldida alvon-alvon*
8. *Orzulari suzardi.*

9. *Oyisiga g‘ijim ro‘mol,*
10.Qaylig‘iga isirg‘a.
11.Peshayvonga bitta ilgich, -
12.Kiyim-piyim osurg‘a.

13.Eh, orzuning cheki bormi,
14.Sanab yetmas bahshiyam.
15.Kassar ayol: Hoy, ovsar”, - deb
16.Chorlab qoldi yaxshiyam.

17.Bo‘ydoqmisan, deya zimdan
18.Kulimsirab turibdi,
19.Tug‘ilmagan bola uchun
20.Maoshidan uribdi.

21.*Mayli, dedi, yigit quvnoq,*
22.*Savobi ko‘p olamning,*
23.*Jo‘jabirday farzandi bor*
24.*Axir katta xolamning.*

25.*Yigit yana oylik haqin*
26.*Sanab ko‘rar bir boshdan,*
27.*Kasabalar uyushmasi*
28.*Chegiribdi maoshdan.*

29.*Xo‘p ajoyib bir hodisa*
30.*Yuz berdi deng o‘sha on,*
31.*Allaqanday to‘da uni*
32.*Qurshab oldi nogahon.*

33.*Jazavaga tushib ular*
34.*Ayamasdi o‘zini.*
35.*Va, nihoyat chechanrog‘i*
36.*Boshlab qoldi so‘zini:*

37.*- Madaniyat fondidanman,*
38.*Uka, bizni bir qo‘lla.*
39.*Viloyatda rahbarimiz*
40.*O‘sha, shoir Abdulla.*

41.*- Ma, ol, deya so‘lkavoyni*
42.*Cho‘zdi yigit shoshmasdan,*
43.*Madaniyat rivojlansin,*
44.*Tushunaman, yoshmasman.*

45.*O‘sha zahot boshqa biri*
46.*Qo‘lga oldi shitobni,*
47.*- Yaxshi yigit, nazarimda,*

48.*Xush ko‘rasan kitobni.*

49.*Ha, kitobdan ko‘chirasan,*
50.*Maktub yozsang qizlarga.*
51.*Modomiki, shundoq ekan,*
52.*Aqchani cho‘z bizlarga.*

53.*Bayon etdi kimdir shu on*
54.*G‘oyat mungli bir holni:*
55.*- Ukajonim, asrash kerak,*
56.*O‘layotgan Orolni.*

57.*Ishchi yigit ko‘zlarida*
58.*Miltiraydi sho‘rtang yosh.*
59.*Dedi: - Madad bo‘la qolsin*
60.*Bitta emas, o‘n maosh.*

61.*Unga cho‘zdi, bunga cho‘zdi,*
62.*Hamyon ozdi ozgancha.*
63.*Yaqin keldi tag‘in biri*
64.*Qulochini yozgancha:*

65.*- Navoiyni bilasan-a,*
66.*Xalqqa ma’lum har ishi,*
67.*Shu kunlarda sal yordamga*
68.*Muhtojdirlar u kishi.*

69.*- Hazratimning qalam haqqin,*
70.*Ayting, kimlar oladi?*
71.*- Ulushlari Davlat degan*
72.*Tog‘asiga qoladi.*

73.*Ixtirochi bolalaru*
74.*Baliqchilar keldilar.*
75.*Yana qancha nomi mavhum*
76.*Soliqchilar keldilar.*

77.*Yigit g‘oyat mamnun edi,*
78.*Ko‘tarinki kayfiyat,*
79.*Cho‘ntagida o‘n besh tiyin*
80.*Ortib qolmish, xayriyat.*

81.*O‘z-o‘zini yupatdi u,*
82.*O‘kinmadi armonda.*
83.*Olay desa, bari bir ham,*
84.*Hech vaqo yo‘q do‘konda.*

85.*Oyisiga kelib dedi:*
86.*- Xoh yuting, xoh yutqazing,*
87.*O‘n besh tiyin maosh oldim,*
88.*Fondingizga o‘tkazing.*

ANASININ BİRİKİMİ (172)

1. İşçi yiğit maaş bekleyip
2. Dururdu nöbette,
3. Bu ilk ödemesi,
4. Zevki de büyük, elbette.

5. Parmaklarını büküp büküp,
6. Planlarını yapardı.
7. Göz önünde türlü türlü
8. Arzularını süzerdi.

9. Anasına buruşuk eşarp,

10. Nişanlısına küpe.
11. Verandaya bir kanca,
12. Giyim miyim asmak için.

13. Eh, arzunun sınırı var mı,
14. Sayıp yetmez bahşı da.
15. Kasiyer kadın: “- Hey, sersem”, diye
16.Çağırdı şükür ki.

17. Bekâr mısın, deyip gizlice
18.Gülümseyip durmuş,
19. Doğmamış çocuk için
20. Maaşını telef etmiş.

21. Tamam, dedi, yiğit keyifli,
22. Sevabı çok âlemin,
23.Çok evladı var
24. Nihayet büyük halamın.

25. Yiğit yine aylık hakkını
26. Sayıp görür bir baştan,
27. Sendika
28. Almıştı maaştan.

29. Tamam acayip bir hadise
30. Denk geldi işte o an,
31. Bir grup onu
32. Kuşatıp aldı birden.

33. Feveran edip onlar
34. Acımazdı kendisine.
35. Ve nihayet daha mahir
36. Başladı sözüne:

37.- Kültür vakfındanım,
38. Kardeşim, bize yardım et.
39. Vilayette rehberimiz
40.İşte o, şair Abdulla.

41.İşte, al, diye solkavoyu[135]
42. Uzattı yiğit şaşırmadan,
43. Medeniyet gelişsin,
44. Anlarım, genç değilim.

45.İşte o an başka biri
46. Ele aldı aceleyle
47.- İyi yiğit, nazarımda,
48. Hoş görürsün kitabı

49. Evet, kitaptan kopyalarsın,
50. Mektup yazarsın kızlara.
51. Mademki, öyleymiş,
52. Akçeni uzat bizlere.

53. Beyan etti biri o an
54. Gayet sıkıntılı bir hâli:
55.- Kardeşçağızım, korumak gerekir,
56.Ölen Aral'ı.

57.İşçi yiğit gözlerinde
58. Parlar biraz tuzlu yaş.
59. Dedi: - Yardım olsun
60. Bir değil, on maaş.

[135] Bir somluk tengedir.

61. Ona uzattı, buna uzattı,
62.Cüzdan azaldı azaldıkça.
63. Yaklaştı yine biri
64. Kulacını açınca:

65.- Nevâî'yi bilirsin,
66. Halka malum her işi,
67. Bugünlerde biraz yardıma
68. Muhtaçtırlar o kişi.

69.- Hazretimin kalem hakkını,
70. Deyin, kimler alır?
71.- Hisseleri Devlet denen
72. Dayısına kalır.

73. Mucit çocuklar ve
74. Balıkçılar geldiler.
75. Yine nice namı muallak
76. Vergiciler geldiler.

77. Yiğit gayet memnundu,
78.İyi keyfiyet,
79. Cebinde on beş sikke
80. Artıp kalmış, hayriyet.

81. Kendi kendini avuttu o,
82. Hayıflanmadı ukdede.
83. Alayım dese, hepsi bir de,
84. Hiçbir zaman yok dükkânda.

85. Anasına gelip dedi:
86.- İster biriktirin, ister harcayın,
87. On beş sikke maaş aldım,

88. Birikiminize geçirin. (1990)

YURAGIMNING TUBIDA BIR NOM (173)

1. *Yuragimning tubida bir nom,*
2. *Takrorlayman ohista:*
3. *Niyatingga yetib yur mudom,*
4. *Ko‘z tegmasin senga, Shohista.*

5. *Men shoirman, forig‘ qil aybdan,*
6. *Bayon etsam ko‘ngil maylini.*
7. *Ajab emas, Alisher g‘aybdan*
8. *Ko‘rgan bo‘lsa senda Laylini.*

9. *Ismin yozsa chaqnasin qalam,*
10.*Bosgan izing gullarga to‘lsin.*
11.*Seningdayin pariro‘y sanam*
12.*Bir Majnunga muborak bo‘lsin.*

13.*Yuragimning tubida bir nom,*
14.*Takrorlayman uni ohista.*
15.*Niyatingga yetib yur mudom,*
16.*Ko‘z tegmasin senga, Shohista.*

YÜREĞİMİN DİBİNDE BİR NAM (173)

1. Yüreğimin dibinde bir nam,
2. Tekrarlarım aheste:
3. Niyetine ulaş daim,
4. Göz değmesin sana Şaheste.

5. Ben şairim, kurtul ayıptan,
6. Beyan etsem gönül meylini.
7. Tuhaf değil, Ali Şîr gaipten

8. Görmüş olsa sende leylini.

9. İsmini yazsa parlasın kalem,
10. Bastığın izin güllerle dolsun.
11. Senin gibi peri yüzlü sanem
12. Bir Mecnun'a mübarek olsun.

13.Yüreğimin dibinde bir nam,
14. Tekrarlarım aheste:
15. Niyetine ulaş daim,
16.Göz değmesin sana Şaheste. (1990)

"TURFA TUYG'ULARNI XUSH KO'RDIM G'OYAT…" (174)

1. *Turfa tuyg'ularni xush ko'rdim g'oyat,*
2. *Dunyoning o'zi ham rangin nihoyat!*
3. *Boqma ajablanib satrlarimga,*
4. *Baxtim rivoyatdir, g'amim hikoyat...*

"İLGİNÇ DUYGULARI HOŞ GÖRDÜM GAYET…" (174)

1. İlginç duyguları hoş gördüm gayet,
2. Dünyanın kendisi de rengini nihayet!
3. Bakma şaşırıp satırlarıma,
4. Bahtım rivayettir, gamım hikâyet… (1990)

SABABLARI QIDIRILMOQDA (175)

1. *Odamlar och,*
2. *Kolbasa lekin*
3. *Kuchuklarga yedirilmoqda.*
4. *Sharh etamiz bu holni sekin:*
5. *Sabablari qidirilmoqda.*
6. *O'ldirmoqda aka-ukani,*
7. *Oilalar yemirilmoqda.*

8. *Sababini kim aytar, qani?*

9. *Sabablari qidirilmoqda.*

10. *Samolyotni opqochdi birov,*

11. *Norozilik bildirilmoqda.*

12. *Javobimiz tayyordir darrov:*

13. *Sabablari qidirilmoqda.*

14. *Yer yuzidan katta bir davlat*

15. *Shitob bilan sidirilmoqda.*

16. *Biz-chi majlis qilamiz faqat:*

17. *Sabablari qidirilmoqda.*

SEBEPLERİ ARAŞTIRILMAKTA (175)

1. İnsanlar aç,

2. Sucuk lakin

3. Köpeklere yedirilmekte.

4. Şerh ederiz bu hâli sessiz:

5. Sebepleri araştırılmakta.

6. Öldürmekte abi kardeşini,

7. Aileler yok olmakta.

8. Sebebini kim söyler, haydi?

9. Sebepleri araştırılmakta.

10. Uçağı alıp kaçtı biri,

11. Hoşnutsuzluk bildirilmekte.

12. Cevabımız hazırdır hemen:

13. Sebepleri araştırılmakta.

14. Yeryüzünden büyük bir devlet

15. Hızla yok edilmekte.

16. Biz meclis yaparız yalnız:

17. Sebepleri araştırılmakta. (1990)

DORILFUNUNIM (176)

1. *Agar daf'atanda o'tlarda yonsam,*

2. *Albatta o'rtanib sen ham yongaysan.*

3. *Ezgulik yo'lida magar quvonsam,*

4. *Shubhasiz eng avval sen quvongaysan.*

5. *Demakki, padarsan menga mehribon,*

6. *Demakki, onamsan, yop-yorug‘ kunim.*

7. *Madadim tegolsa senga biron on,*

8. *Baxtli bo‘lar edi, dorilfununim.*

DARÜLFÜNUNUM (176)

1. Eğer ansızın ateşlerde yansam,

2. Elbette acı çekip sen de yanacaksın.

3. İyilik yolunda meğer sevinsem,

4. Şüphesiz en evvel sen sevineceksin.

5. Demek ki, pedersin bana Mihriban,

6. Demek ki, anamsın, apaydınlık günüm.

7. Yardımım değebilse sana bir an,

8. Bahtlı olurdu, darülfünunum. (1990)

OQAR DARYO (177)

1. *Ming yillar qa’ridan kelar karvoning,*

2. *Chorlar ushalmagan orzu-armoning.*

3. *Jahonda yagona O‘zbekistonsan,*

4. *Ma’rifat, iste’dod bo‘lg‘ay sarboning.*

5. *Oqar daryolaring hayqirib oqsin,*

6. *O‘chgan mash’allarni mardlaring yoqsin.*

7. *Do‘stga do‘st, bag‘ri keng yashnagan diyor,*

8. *Senga ham to abad tangri bo‘lsin yor!*

9. *Uyg‘onish yellari esmoqda takror,*

10. *Tabarruk ajdodlar ruhi senga yor,*

11. *Ulug‘ daholari paydo bo‘lgan chog‘*

12. *Olamni o‘ziga qaratgan diyor!*

13.*Oqar daryolaring hayqirib oqsin,*
14.*O‘chgan mash’allarni mardlaring yoqsin.*
15.*Do‘stga do‘st, bag‘ri keng yashnagan diyor,*
16.*Senga ham to abad tangri bo‘lsin yor!*

17.*Bu zamin kengga keng, torlargadir tor,*
18.*Ko‘klarga uchgudek qanotlaring bor.*
19.*Inon o‘z kuchingga, jon O‘zbekiston!*
20.*Parvozing hur bo‘lg‘ay, erking barqaror.*

21.*Oqar daryolaring hayqirib oqsin,*
22.*O‘chgan mash’allarni mardlaring yoqsin.*
23.*Do‘stga do‘st, bag‘ri keng yashnagan diyor,*
24.*Senga ham to abad tangri bo‘lsin yor!*

AKAR DERYA (177)

1. Binlerce yılın ka’rından gelen kervanın,
2. Çağırır dağılmamış arzuyu, ukdeyi.
3. Cihanda yegâne Özbekistan’sın,
4. Marifet, istidat olacak sarbanında.

5. Akar deryaların haykırıp aksın,
6. Sönen meşalelerini mertlerin yaksın.
7. Dosta dost, cömert yaşayan diyar,
8. Sana da ebediyen Tanrı olsun yâr!

9. Uyanış rüzgârları esmekte tekrar,
10. Teberrük ecdatlar ruhu sana yâr,
11. Ulu dehaları peyda olduğu an
12.Âlemi kendine baktıran diyar!

13. Akar deryaların haykırıp aksın,
14.Sönen meşalelerini mertlerin yaksın.
15. Dosta dost, cömert yaşayan diyar,
16. Sana da ebediyen Tanrı olsun yâr!

17. Bu zemin genişe geniş, darlaradır dar,
18.Göklere açacak gibi kanatların var.
19.İnan kendi gücüne, can Özbekistan!
20.Uçuşun hür olacak, erkin istikrarlı.

21. Akar deryaların haykırıp aksın,
22.Sönen meşalelerini mertlerin yaksın.
23. Dosta dost, cömert yaşayan diyar,
24. Sana da ebediyen Tanrı olsun yâr! (Ocak, 1991-Aralık 1992)

ALISHER VA TALABA (178)

1. *Saroy yo‘lga chiqdi savlati bilan,*
2. *Alisher arkoni davlati bilan.*

3. *Hirot fazosida yangradi takbir,*
4. *Shahar aylanmoqda vaziri kabir.*

5. *Ulusning dardi ne? A’moli nechuk?*
6. *Beva-bechoraning ahvoli nechuk?*

7. *Nechukdir boshlangan inshootlari? -*
8. *Mirni qiziqtirar bularning bari.*

9. *Garchi shoirdir u benazir, tanho,*
10.Lekin saltanat ham dastidadir jo.

11.*Daryolarni burar imo aylasa,*
12.*Mag‘lub muzaffardir himo aylasa.*

13.*Tegrasida bukun shohona jonlar,*
14.*Sergak sarbozlaru sodiq a’yonlar.*

15.*Vazir o‘tib borar guzarlar aro, -*
16.*Ta’zimga chiqmishdir jami fuqaro.*

17.*Dastori haybatli shayxlar egar bosh,*
18.*Bosh egar kosibu shoiru naqqosh.*

19.*Alisher barchaga tarahhum bilan,*
20.*Hurmat ko‘rgazardi tabassum bilan.*

21.*Yuzlab talabalar mamnun, sarafroz,*
22.*Ulug‘ Navoiyga chiqdilar peshvoz.*

23.*Hali lablaridan uchmay biror so‘z,*
24.*Hazrat atrofiga tashladilar ko‘z.*

25.*Nigoh yuritdilar saflarga tomon*
26.*Va bir talabaga boqdi nogahon.*

27.*Mehr ila tikilgach, tushdilar otdan,*
28.*Kim ul aziz kimsa aziz bul zotdan?*

29.*Borib talabani quchdilar hazrat,*
30.*Olomon ruhida yangradi hayrat.*

31.*Sarbozlar, a'yonlar hayratda edi,*
32.*Takabbur boyonlar hayratda edi.*

33.*Tag'in otga mindi Vazir bekalom,*
34.*Karvon o'z safarin etkazdi davom.*

35.*... Oxir bir mulozim sabri tugab, lol,*
36.*Alisherga shundoq tashladi savol.*

37.*- Kimga shu asnoda baxt kuldi ekan,*
38.*Ayting, ul talaba kim bo'ldi ekan?*

39.*O'ychan bir tabassum qildiyu janob,*
40.*Mulozimga sekin ayladi javob:*

41.*- Esimda, yosh chog'im, ko'p yillar nari,*
42.*Menga saboq bergan uning padari...*

ALİŞİR VE TALEBE (178)

1. Saray yola çıktı azametiyle,
2. Ali Şîr erkân-ı devletiyle.

3. Herat fezasında yankılandı tekbir,
4. Şehir dönüşmekte vezir-i kabir.

5. Ulusun derdi ne? Emeli nasıl?
6. Dulun, yetimin ahvali nasıl?

7. Nasıldır başlayan inşaatları?
8. Emîr'i ilgilendirir bunların hepsi.

9. Gerçi şairdir o eşsiz, tek,
10. Lakin saltanat da elindedir muhkem,

11. Deryaları döndürür ima etse,
12. Mağlup ve muzafferdir yardım etse.

13. Etrafında bugün şahane canlar,
14. Uyanık sarbanlar ve sadık a'yanlar,

15. Vezir geçip gider mahalleler arasında,
16. Tazime çıkmıştır cemi fukara.

17. Sarığı heybetli şeyhler eğer baş,
18. Baş eğer zanaatkâr, şair ve nakkaş.

19. Ali Şîr hepsine merhametle,
20.Hürmet gösterirdi tebessümle.

21.Yüzlerce talebe memnun, mutlu,
22. Ulu Nevâî'ye çıktılar pervaz.

23. Henüz dudaklarından uçmadan bir söz,
24. Hazretin etrafına attılar göz.

25.Göz gezdirdiler saflara doğru
26. Ve bir talebeye baktı ansızın.

27.Şefkatle yaklaşınca, indiler attan,
28. Kim o aziz kimse aziz bu zat?

29. Gidip talebeyi kucakladılar hazret,
30. Kalabalık ruhunda yankılandı hayret.

31. Sarbanlar, a'yanlar hayretteydi,
32. Tekebbür beyanlar hayretteydi.

33. Yine ata bindi Vezir kelamsız,
34. Kervan kendi seferini eriştirdi devam.

35.… Nihayet bir mülazım sabrı tükenip, lal,
36. Ali Şîr'e şöyle sordu soru:

37.- Kime o esnada baht gülmüş imiş.
38.Söyleyin, o talebe kim oldu imiş?

39.Düşünceli bir tebessüm etti ve cenap,
40.Mülazıma yavaşça verdi cevap:

41.- Hatrımda, gençlik çağım, uzun yıllar sonra,
42. Bana ders vermiş onun pederi… (1991)

"DUNYONING G'ALATI YO'RIG'IGA BOQ…" (179)

1. *Dunyoning g'alati yo'rig'iga boq,*
2. *Kimga aysh tashnayu kimga dor mushtoq.*
3. *Lekin hammasidan ma'no bittadir:*
4. *Qurbon oldin ketar, jallod keyinroq.*

"DÜNYANIN GARİP YOLLARINA BAK…" (179)

1. Dünyanın garip yollarına bak,

2. Kimi sefaya muhtaç, kimi kariyer müştak.

3. Lakin hepsinde mana birdir:

4. Kurban önce gider, cellat daha sonra. (1991)

“SHUDGORDA QARG‘ALAR TO‘DASIN KO‘RSANG…” (180)

1. *Shudgorda qarg‘alar to‘dasin ko‘rsang,*

2. *Sira ajablanma, bo‘lma hangu mang.*

3. *Sen yerni ag‘darib, shudgor qilgan chog‘*

4. *Yuzaga chiqqandi qurtu chuvalchang.*

“TARLADA KARGALAR SÜRÜSÜNÜ GÖRSEN…” (180)

1. Tarlada kargalar sürüsünü görsen,

2. Asla garipseme, kalma şaşıp.

3. Sen toprağı sürüp, tarla yaptığın an

4. Yüzeye çıkmıştı kurt ve çıyan.

“BAHOR! SENDAN XUSHNUD JAMI KOR AHLI…” (181)

1. *Bahor! Sendan xushnud jami kor ahli,*

2. *Xususan shod erur xoksor ahli.*

3. *Chunki tashrifingdan dil erib, zora,*

4. *Odamga o‘xshasa amaldor ahli.*

“BAHAR! SENDEN HOŞNUT CEMİ İŞ EHLİ…” (181)

1. Bahar! Senden hoşnut cemi iş ehli,

2. Bilhassa şaddır mütevazı ehli.

3. Çünkü teşrifinden gönül eriyip, keşke,

4. İnsana benzese makam ehli. (1991)

“BOLAGA O‘XSHAYDI, DEYDILAR XALQNI” (182)

1. *Bolaga o‘xshaydi, deydilar xalqni,*

2. *Bu gapni aytganlar, ehtimol haqdir.*

3. *Lekin takrorlayman men ham bir haqni,*

4. *Axir, bolalarning o‘zi ham xalqdir.*

“ÇOCUĞA BENZER, DERLER HALKI” (182)

1. Çocuğa benzer, derler halkı,
2. Bu sözü söylemişler, ihtimal haktır.
3. Lakin tekrarlarım ben de bir hakkı,
4. Nihayet, çocukların kendisi de halktır. (1991)

“HAR GAL AYYOMLARNI AYLARMAN TAVOB…” (183)

1. *Har gal ayyomlarni aylarman tavob,*
2. *Garchand biri moddiy, o‘zgasi sarob.*
3. *Sho‘rlik ona zamin birlikka zor-ku,*
4. *Unga talpinish ham, demak, zo‘r savob!*

“HER SÖZ EYYAMLARI EYLERİM TAVAF…” (183)

1. Her söz eyyamları eylerim tavaf,
2. Gerçi biri maddi, diğeri serap.
3. Bahtsız ana zemin birliğe muhtaç,
4. Ona çırpınmak da, demek, büyük sevap! (1991)

“TABIAT KIMGA KO‘P YO OZ BERIBDI” (184)

1. *Tabiat kimga ko‘p yo oz beribdi,*
2. *Kimgadir xala cho‘p yo soz beribdi.*
3. *Vo ajab, mana bu mashshoq gadoyga,*
4. *Tengi yo‘q shohona ovoz beribdi.*

“TABİAT KİMİNE ÇOK YAHUT AZ VERMİŞ” (184)

1. Tabiat kimine çok yahut az vermiş,
2. Kimine sert kuru ot yahut iyi vermiş.
3. Acayip, işte bu sazende gedaya,
4. Dengi yok şahane avaz vermiş. (1991)

“RANJIMA TOLEING KULMASA AGAR” (185)

1. *Ranjima toleing kulmasa agar,*

2. *Inson borin ko‘rar, o‘lmasa agar.*

3. *Shoir ham ijoddan qolmagay aslo,*

4. *Nogoh paymonasi to‘lmasa agar.*

“İNCİNME TALİHİN GÜLMEZSE EĞER” (185)

1. İncinme talihin gülmezse eğer,

2. İnsan varını görür, ölmezse eğer.

3. Şair de sanattan kalmayacak asla,

4. Birden kadehi dolmasa eğer. (1991)

URUMCHI BAHORI (186)

1. *Urumchiga nechun kechikding, bahor,*

2. *Nega chechaklaring kech ochilmoqda.*

3. *Nechun chinorlaring yozmaydi viqor,*

4. *Nechun bog‘lar atri kech sochilmoqda.*

5. *Urumchi bog‘lari aylaydi javob:*

6. *Mehmonim, bir sirga aylang, e’tibor.*

7. *Eng ulug‘ manzilni etgali tavob*

8. *Pastdan yuksaklikka o‘rlaydi bahor.*

URUMÇİ BAHARI (186)

1. Urumçi’ye niçin geciktin, bahar,

2. Niye çiçeklerin geç açılmakta.

3. Niçin çınarların yaymaz azamet,

4. Niçin bağların ıtırı geç saçılmakta.

5. Urumçi bağları verir cevap:

6. Misafirim, bir sırra edin, itibar.

7. En ulu menzili etmeli tavaf

8. Aşağıdan yüksekliğe çıkar bahar. (Urumçi şehri, 1991)

“QAH-QAH URAR BO‘LSAM, VIJDONIMDAN MEN…” (187)

1. *Qah-qah urar bo‘lsam, vijdonimdan men,*

2. *Mehnatim evazin so‘rab olurman.*

3. *Benaf o‘tgan damlar, men sizning uchun,*

4. *Hayhot, qabrimga ham yig‘lab borurman.*

“KAHKAHA ATARSAM, VİCDANIMDAN BEN…” (187)

1. Kahkaha atarsam, vicdanımdan ben,

2. Emeğimin bedelini isteyip alırım.

3. Faydasız geçen demler, ben sizin için,

4. Heyhat, kabrime de ağlayıp giderim. (1991)

TEMUR BOG‘LARI (188)

1. *Mag‘lub bo‘lasanmi va yoki g‘olib,*

2. *Tarihda qolgaydir oyog‘ing gardi.*

3. *Temurning bog‘lari goho yo‘qolib,*

4. *Gohida: - Men bor, deb zimdan ko‘kardi.*

5. *Garchi Samarqand bu - aslida me’mor.*

6. *Ijodi - Registon, Shohizindadir.*

7. *Lekin, ahli jahon, aylang e’tibor:*

8. *Temur bog‘lari ham axir, bundadir!*

9. *U - Bog‘i behishtdir, u - Bog‘i shamol,*

10. *Barchasi yodgordir ulug‘ moziydan.*

11. *Avlodlar betinim ko‘kartdi nihol,*

12. *Bog‘larin asradi yovdan, osiydan.*

13. *Temursiz yashaydi, mana, Samarqand,*

14. *Lekin chamanlari yashnoqdir hanuz -*

15. *Qorasuv bo‘ylari jannatga monand,*

16. *Porlab turgan chashma - ming ko‘zli yulduz.*

17. *Temurdek zotning-ku, qaytmog‘i gumon,*

18. *Lekin ne bo‘lsa ham izi qolibdi.*

19.*Qancha chevrilmasin ko‘hna bu jahon,*

20.*Bog‘i, imorati, so‘zi qolibdi.*

TİMUR BAĞLARI (188)

1. Mağlup olur musun yahut galip,

2. Tarihte kalacaktır ayağın tozu.

3. Timur’un bağları bazen yok olup,

4. Bazen de: - Ben var, diye sessizce yeşerdi.

5. Gerçi Semerkant bu, aslında mimar.

6. Sanatı: Registan, Şahızinde’dir.

7. Lakin ehli cihan, edin itibar:

8. Timur bağları da nihayet, buradadır!

9. O, Bağ-ı cennettir; o, Bağ-ı rüzgâr,

10. Hepsi yadigârdır ulu maziden.

11. Evlatlar durmadan yeşertti nihâl,

12. Bağlarını korudu düşmandan, asiden.

13. Timursuz yaşar, işte, Semerkant,

14. Lakin çimenleri güzeldir henüz,

15. Karasu boyları cennete benzer,

16. Parlayıp duran çeşme, bin gözlü yıldız.

17. Timur gibi zatın, dönmesi şüphe,

18. Lakin ne de olsa izi kalmış.

19. Nice çevrilmesin bu köhne cihan,

20. Bağı, imareti, sözü kalmış. (1991)

UYG‘ONISH ZAMONING (189)

1. *O‘kinma, ona-yurt, o‘kinma xalqim,*

2. *Desalar, dilingda zorlaring bordir.*

3. *Aslida, qo‘yningga sirg‘alib kirib,*

4. *Zaharlar sochguvchi morlaring bordir.*

5. *O‘tgan yo‘llaringga tashlasam nazar,*

6. *Qayrilmas qanotli sorlaring bordir.*

7. *Senga shum g‘animlar qazmasinlar choh,*
8. *Yov kelsa atagan dorlaring bordir.*

9. *Bugun yolg‘izman deb boshingni egma,*
10. *Tegrangda do‘st ila yorlaring bordir.*

11. *Balli, istiqbolga ko‘zni tikibsan,*
12. *Axir haqqa muhtoj xorlaring bordir.*

13. *Oqqan daryolaring qaytadan oqsin,*
14. *Hali erimagan qorlaring bordir.*

15. *Sen san’at o‘lkasi, she’r diyorisan,*
16. *Qancha chertilmagan torlaring bordir.*

17. *Uyg‘onish zamoning muborak bo‘lsin,*
18. *Azaliy shiddating, orlaring bordir.*

19. *Men mitti o‘g‘lingman, lekin yukingni*
20. *Ko‘tarib o‘tguvchi norlaring bordir.*

UYANIŞ ZAMANIN (189)

1. Hayıflanma, ana yurt, hayıflanma halkım,
2. Deseler, gönlünde figanların vardır.

3. Aslında, koynuna kayıp girip,
4. Zehirler saçan yılanların vardır.

5. Geçtiğin yollarına atsam bakış,
6. Eğilmez kanatlı şahinlerin vardır.

7. Sana kötü düşmanlar kazmasınlar kuyu,
8. Düşman gelse bağışlayan darların vardır.

9. Bugün yalnızım diye başını eğme,
10. Etrafında dostla yârların vardır.

11. Aferin, istikbale gözünü dikmişsin,
12. Nihayet hakka muhtaç horların vardır.

13. Akan deryaların yine aksın,
14. Henüz erimemiş karların vardır.

15. Sen sanat ülkesi, şiir diyarısın,
16. Nice fiskelenmemiş tarların vardır.

17. Uyanış zamanın mübarek olsun,
18. Ezelî şiddetin, arların vardır.

19. Ben küçük oğlunum, lakin yükünü
20. Kaldırıp geçen develerin vardır. (1991)

USTOZLARIM (190)

1. *Mening ustozlarim -*
2. *Ahli shuaro,*
3. *Ruhimning ohangi - surudidasiz.*
4. *Biringiz kitoblar bag‘ridasiz jo,*
5. *Biringiz Chig‘atoy hududidasiz.*

6. *Nelarni ko‘rdingiz?*

7. *Oldda nelar bor?*

8. *Menga ochmadingiz dillaringizni.*

9. *Endi men angladim, Siz choru nochor*

10. *O‘tibsiz u shonli yo‘llaringizni...*

11. *Hasadu xusumat*

12. *Ezmasin nechoq,*

13. *Siz she’rdan olibsiz alamni doim.*

14. *Olis kechalarda aylabsiz charoq*

15. *Kuyib ko‘mir bo‘lgan qalamni doim.*

16. *Baxtiyor kunlarni kuyla, degan on,*

17. *Shiorlar bitibsiz qoningiz bilan.*

18. *O‘zi yo‘q qo‘rg‘onga bo‘libsiz qalqon,*

19. *Soddadil fidoyi joningiz bilan.*

20. *Nomard bu dunyoning kirdikorlari*

21. *Yaxshidir, yomondir - ishingizdadir.*

22. *Armonlar, uzrlar ketdilar bari,*

23. *Ketdingiz - dardingiz ichingizdadir.*

24. *Marhum ustozlarim,*

25. *Rahmatli zotlar.*

26. *Endi siz tinch yoting makoningizda.*

27. *O‘kinmang malomat qilsalar agar,*

28. *Abadiy bardosh bor imkoningizda.*

ÜSTATLARIM (190)

1. Benim üstatlarım,

2. Ehl-i şuara,

3. Ruhumun ahengi, şarkıdasınız.

4. Biriniz kitapların bağrındasınız muhkem,

5. Biriniz Çağatay hududundasınız.

6. Neleri gördünüz?
7. İleride neler var?
8. Bana açmadınız gönüllerinizi
9. Şimdi ben anladım, Siz çaresizce
10. Geçmişsiniz o şanlı yollarınızı…

11. Haset ve husumet
12. Ezmesin ne kadar,
13. Siz şiirden almışsınız elemi daima.
14. Uzun gecelerde eylemişsiniz çırağ
15. Yanıp kömür olan kalemi daima.

16. Bahtiyar günleri methet, dediği an,
17.Şiarlar yazmışsınız kanınızla.
18. Kendisi olmayan kaleye olmuşsunuz kalkan,
19. Safdil fedai canınızla.

20. Namert bu dünyanın kötülükleri
21.İyidir, yamandır, işinizdedir.
22. Ukdeler, özürler gittiler hepsi,
23. Gittiniz, derdiniz içinizdedir.

24. Merhum üstatlarım,
25. Rahmetli zatlar.
26.Şimdi siz huzurlu yatın mekânınızda.
27. Hayıflanmayın melamet kılsalar eğer,
28. Ebedî sabır var imkânınızda. (1991)

GINA (191)

1. *Payti keldi, bir gapimni endi aytayin,*

2. *Beti qursin, bu joylarga kela ko‘rma, bolam.*

3. *Avval ichgan qasamimdan endi qaytayin,*

4. *Beti qursin, bu joylarga kela ko‘rma, bolam.*

5. *Qadamingni bosa ko‘rma, yovuz bu tuproq,*

6. *Chumolining taniga ham solgaydir titroq.*

7. *Yuraklari muz bo‘lsa ham muz yegay biroq,*

8. *Beti qursin, bu joylarga kela ko‘rma, bolam.*

9. *Aqcha bersang, oyog‘ingni yalaydi bular,*

10. *Rost gap yoqmas, yolg‘onlarni qalaydi bular.*

11. *Bo‘sh kelganda podshosini talaydi bular,*

12. *Beti qursin, bu joylarga kela ko‘rma, bolam.*

13. *Anqayganda qoqib olar hatto tishingni,*

14. *Buzib berar bitib turgan oson ishingni,*

15. *Paytin poylab o‘z-o‘zingga urar nishingni,*

16. *Beti qursin, bu joylarga kela ko‘rma, bolam.*

17. *Bir zamonlar bu yurtda ham xudo bor bo‘lgan,*

18. *Bibi Maryam, hazrat Iso ruhi yor bo‘lgan,*

19. *Pushkindayin zotni tug‘ib baxtiyor bo‘lgan,*

20. *Beti qursin, bu joylarga kela ko‘rma, bolam.*

21. *Kelibdirman - gunohkorman o‘zim avvalo,*

22. *O‘z yurtidan nari yurish eng katta balo,*

23. *Egasi yo‘q har joyda ham qo‘zg‘algay vabo,*

24. *Beti qursin, bu joylarga kela ko‘rma, bolam.*

25. *Ushbu she’rni yozayotgan oddiy bir jondir,*

26. *Oddiygina bir o‘zbekdir - fikri giryondir,*

27. *Qola bersa, jumhuriyat - O‘zbekistondir,*

28. *Beti qursin, bu joylarga kela ko‘rma, bolam.*

29.*Sabab borkim, gina qilib yozdim Maskovdan,*

30.*Oshkoralik sharofati - qo‘rqmadim g‘ovdan,*

31.*Do‘stni qo‘lla, ehtiyot bo‘l va lekin yovdan,*

32.*Beti qursin, bu joylarga kela ko‘rma, bolam.*

SİTEM (191)

1. Vakti geldi, bir sözümü şimdi söyleyeyim,

2. Yüzü kurusun, buralara gelme, evladım!

3. Evvel içtiğim andımdan şimdi döneyim,

4. Yüzü kurusun, buralara gelme, evladım!

5. Adımını basma, yavuz bu toprak,

6. Karıncanın bedenine de salacaktır titreme.

7. Yürekleri buz olsa da buz yiyecek fakat,

8. Yüzü kurusun, buralara gelme, evladım!

9. Akçe versen, ayağını yalar bunlar,

10. Doğru söz beğenmez, yalanları katlar bunlar.

11.Güçsüz geldiğinde padişahı yağmalar bunlar,

12.Yüzü kurusun, buralara gelme, evladım!

13.Şaşırdığında vurup alır hatta dişini,

14. Bozuverir biten kolay işini,

15. Zamanını gözleyip kendi kendine batırır dikenini,

16.Yüzü kurusun, buralara gelme, evladım!

17. Bir zamanlar bu yurtta da Hüda var olmuş,

18. Nine Meryem, Hazreti İsa ruhu yâr olmuş,

19. Puşkin gibi zatı doğup bahtiyar olmuş,

20.Yüzü kurusun, buralara gelme, evladım!

21. Gelmişimdir, günahkârım kendim evvela,
22.Öz yurdundan öte gitmek en büyük bela,
23. Sahibi olmayan her yerde de tekrarlayacak veba,
24.Yüzü kurusun, buralara gelme, evladım!

25.İşte bu şiiri yazan sıradan bir candır,
26.Sıradanca bir Özbek'tir, fikri giryândır,
27. Ayrıca, cumhuriyet, Özbekistan'dır,
28.Yüzü kurusun, buralara gelme, evladım!

29. Sebep var ki, sitem edip yazdım Maskov'dan,
30.Aşikâr fazileti, korkmadım engelden,
31. Dostu kolla, ihtiyatlı ol velakin düşmandan,
32.Yüzü kurusun, buralara gelme, evladım! (1991)

ADOLAT OFTOBI (192)

1. *Adolatning hayotbaxsh shamollari yeldimi,*
2. *Haq nihoyat xalqimning arzin qabul qildimi,*
3. *Necha yillar orziqib kutgan kunlar keldimi,*
4. *Yelkamizga oftobning tekkanligi rost bo'lsin.*
5. *O'zbekning o'z niholin ekkanligi rost bo'lsin.*

6. *O'tdi qancha taloto'p, o'tdi qancha g'avg'olar,*
7. *O'tdi qancha malomat, g'iybatu kin, ig'volar,*
8. *Oqartirdi sochlarni necha qora savdolar,*
9. *Yelkamizga oftobning tekkanligi rost bo'lsin,*
10.O'zbekning o'z niholin ekkanligi rost bo'lsin.

11.Safga tizil, nabiram, otajonim, tur endi,
12.Mustaqillik nash'asin, haqqing bordir, sur endi,
13.Qo'lni berib qo'llarga, bir tan bo'lib yur endi,
14.Yelkamizga oftobning tekkanligi rost bo'lsin,
15.O'zbekning o'z niholin ekkanligi rost bo'lsin.

16.*Unutmagin va lekin oldda bor hali yotlar,*

17.*Qadamingni poylaydi ochko‘z, yuho ne zotlar,*

18.*Shoh suribsan, injima, g‘ingshisa agar motlar,*

19.*Yelkamizga oftobning tekkanligi rost bo‘lsin,*

20.*O‘zbekning o‘z niholin ekkanligi rost bo‘lsin.*

21.*O‘z qo‘lingga olganing - Yalov senga muborak,*

22.*Yuragingda so‘nmagan - olov senga muborak,*

23.*Yondirolding qorlarni - qalov senga muborak,*

24.*Yelkamizga oftobning tekkanligi rost bo‘lsin,*

25.*O‘zbekning o‘z niholin ekkanligi rost bo‘lsin.*

ADALET AFİTABI (192)

1. Adaletin hayat bahşeden rüzgârları esti mi,

2. Hak nihayet halkımın arzını kabul etti mi,

3. Nice yıllar hayal kurup beklediğin günler geldi mi,

4. Omzumuza afitabın değmişliği gerçek olsun.

5. Özbek’in kendi fidanını ekmişliği gerçek olsun.

6. Geçti nice kargaşa, geçti nice kavgalar,

7. Geçti nice melamet, gıybet ve igvâ’lar,

8. Ağartırdı saçlarını nice kara sevdalar,

9. Omzumuza afitabın değmişliği gerçek olsun.

10.Özbek’in kendi fidanını ekmişliği gerçek olsun.

11. Safa dizil, torunum, babacığım, kalk şimdi,

12. Bağımsızlık sefası, hakkın vardır, sür şimdi,

13. Eli verip ellere, bir takdir et şimdi,

14. Omzumuza afitabın değmişliği gerçek olsun.

15.Özbek’in kendi fidanını ekmişliği gerçek olsun.

16. Unutma velakin ileride var daha yadlar,

17. Adımını gözler açgözlü, tamahkâr ne zatlar,
18.Şah sürmüşsün, incinme, inlese eğer matlar,
19. Omzumuza afitabın değmişliği gerçek olsun.
20.Özbek'in kendi fidanını ekmişliği gerçek olsun.

21. Kendi eline aldığın Bayrak sana mübarek,
22.Yüreğinde sönmeyen alev sena mübarek,
23. Yakamadın karları koymak sana mübarek,
24. Omzumuza afitabın değmişliği gerçek olsun.
25.Özbek'in kendi fidanını ekmişliği gerçek olsun. (1991)

ERK HAQQI (193)

1. *Qadimiy bobo yurtim,*
2. *Qutlug' bo'lsin yaloving,*
3. *O'ylay-o'ylay tashlagan*
4. *Qadam muborak bo'lsin.*
5. *Tag'in gurillab yongay*
6. *O'chmagan qalb oloving,*
7. *Erk haqqiga ichilgan*
8. *Qasam muborak bo'lsin.*
9. *Kimsaga yomonlikni*
10.*Ko'rmagansan hech ravo,*
11.*Lekin shum qutqulardan*
12.*Chiqmadi sho'rlik boshing,*
13.*Endi seni qo'llasin*
14.*Zafar o'zi doimo,*
15.*Safaring bexataru*
16.*Xizr bo'lsin yo'ldoshing.*

ERK HAKKI (193)

1. Kadimî dede yurdum,
2. Kutlu olsun bayrağın,
3. Düşüne düşüne attığın
4. Adım mübarek olsun.

5. Yine gürüldeyip yanacak
6. Sönmeyen kalp ateşin,
7. Erk hakkına içilen
8. And mübarek olsun.
9. Kimseye yamanlığı
10.Görmemişsin hiç reva,
11. Lakin kötü fitnecilerden
12. Kurtulmadı biçare başın,
13.Şimdi seni kollasın
14. Zaferin kendisi daima,
15. Seferin tehlikesiz ve
16.Hızır olsun yoldaşın. (1991)

"BIRIN-KETIN O'TIB…" (194)

1. *Birin-ketin o'tib borar asrlarning karvonlari,*
2. *Oh, nechog'lik xatarlidir uning oshar dovonlari.*
3. *Inson zoti murodiga azal-abad yetar edi,*
4. *Ushalsa gar umidvor zot - Navoiyning armonlari!*
5. *Fursat keldi, do'stu g'anim kimligini bilay bu kun,*
6. *Jami bashar farzandiga saodatlar tilay bu kun,*
7. *Ko'kka boqib sahar chog'i, iltijolar qilay bu kun,*
8. *Nurga to'lsin aziz bobom Alisherning makonlari.*

"ART ARDA GEÇİP…" (194)

1. Art arda geçip gider asırların kervanları,
2. Ah, ne kadar tehlikelidir onun aştığı geçitleri.
3. İnsan zatı muradına ezel ebet yeterdi,
4. Parçalansa eğer ümitvar zat, Nevâî'nin ukdeleri!
5. Vakit geldi, dost ve düşman kimliğini bilecek bugün,
6. Cemi beşer evladına saadetler dileyecek bugün,
7. Göğe bakıp seher vakti, ilticalar edecek bugün,
8. Nurla dolsun aziz Dedem Ali Şîr'in mekânları. (Eylül, 1991)

FOJIA (195)

1. *Baxtlidir, o‘z davrin zavolin ko‘rmay*
2. *Yo‘qlikka ravona bo‘lolgan inson.*
3. *Baxtlidir, yanglishib ekkanin o‘rmay,*
4. *Shudgorin qaytadan boshlagan dehqon.*

5. *Mo‘ysafid jangchiga qarayman g‘amgin,*
6. *Ko‘ksida nishonu ko‘cha-ko‘yda xor.*
7. *Unga na o‘tmishi berolgay taskin,*
8. *Va na kelajakdan zarra umid bor.*

9. *Nahot o‘tgan umr butkul havoyi,*
10. *Nahot ko‘rganlarin barchasi sarob.*
11. *Nahot yetmish to‘rt yil sig‘ingan joyi*
12. *Manfur manzil bo‘lsa, jirkanch va xarob.*

13. *Avliyo degani - yovuz jodugar,*
14. *Dohiy deganlari - kallakesar zot.*
15. *Nabirang o‘zingga tutsa og‘u gar,*
16. *Dardingni kimga ham degaysan, hayhot!*

17. *Shahid ketmasmidi o‘sha jang chog‘i*
18. *Fidoyi bir askar nomini olib.*
19. *Bugun na qalqon bor, na bor yarog‘i,*
20. *Mag‘lubdan sadaqa so‘raydi g‘olib.*

21. *Olamda fojia ko‘p erur, biroq,*
22. *Bunisin alami haddan ziyoda,*
23. *Oh, nechog‘ dahshatdir, tirik turgan choq*
24. *Umring oyoqosti bo‘lsa dunyoda...*

FACİA (195)

1. Bahtlıdır, kendi devrinin zevalini görmeden
2. Yokluğa revan olabilmiş insan.
3. Bahtlıdır, yanılıp ektiğini biçmeden,
4. Tarlasına yeniden başlayan çiftçi.

5. İhtiyar savaşçıya bakarım gamlı,
6. Göğsünde nişan, cadde ve sokakta hor.
7. Ona ne geçmişi verecek teskin,
8. Ve ne gelecekten zerre ümit var.

9. Geçen ömür büsbütün havai mi,
10.Gördüklerinin hepsi serap mı?
11. Yetmiş dört yıl ibadet ettiği yeri
12. Menfur menzil olsa, berbat ve harap mı?

13. Evliya dediği yavuz hilekâr,
14. Dahi dedikleri, cani zat.
15. Torunun kendine tutsa zehir eğer,
16. Derdini kime de diyeceksin, heyhat!

17.Şehit gitmez miydi işte o savaş anı
18. Fedai bir asker namını alıp.
19. Bugün ne kalkan var, ne var silahı,
20. Mağluptan sadaka ister galip.

21.Âlemde facia çoktur, fakat,
22. Bunun elemi hadden ziyade,
23. Ah, ne kadar dehşetlidir, diri durduğun an
24.Ömrün ayaklar altında olsa dünyada… (1991)

HAYOT SABOQLARI (196)

1. *Ikki og‘a-ini yovlashdi bir kun,*
2. *Ikkovlon sig‘madi bitta makonga.*
3. *Nainki bir makon, tor bo‘ldi ochun,*
4. *Ketdi ikkisi ham ikki tomonga.*

5. *Oylar, yillar o‘tdi oradan qancha,*
6. *Oxir bir-birlarin topdilar omon.*
7. *Titroq yelkalarga boshin qo‘ygancha*
8. *Ho‘ng-ho‘ng yig‘lashdilar go‘daklarsimon.*

9. *Xo‘sh, nima bo‘libdi, dersiz, albatta,*
10.*Kammi bu dunyoda ahil, noahil.*
11.*Lekin, nahot deyman, faqat kulfatda*
12.*Namoyon bo‘ladi muhabbat asl.*

13.*Anglamoq istayman bu holning sirin*
14.*Boqib atrofimga men gohi onlar.*
15.*Kunda ko‘rib tursa ular bir-birin*
16.*Balki yeb qo‘yardi allaqachonlar...*

HAYAT DERSLERİ (196)

1. İki abi kardeş kavga etti bir gün,
2. İkisi de sığmadı bir mekâna.
3. Yalnız bir mekân, dar oldu acun,
4. Gitti ikisi de iki tarafa.

5. Aylar, yıllar geçti aradan nice,
6. Nihayet birbirlerini buldular sağ.
7. Titreyen omuzlarına başını koyunca
8. Hüngür hüngür ağladılar bebekler gibi.

9. Sonra, ne olmuş, dersiniz, elbette,
10. Azı bu dünyada ehil, nâ-ehl.
11. Lakin, derim, yalnız külfette
12.Aşikâr olur muhabbet asıl.

13. Anlamak isterim bu hâlin sırrını
14. Bakıp etrafıma ben bazı anlar.
15. Her gün görse onlar birbirini
16. Belki yerdi bir zamanlar… (1991)

OQ KABUTAR (197)

1. *Mehnating, zahmating og‘ir nachog‘lik,*
2. *Men emas, uyqusiz dalalar aytsin.*
3. *G‘o‘zang chanog‘idan uchgan har momiq*
4. *Xalqim, baxt qushidek o‘zingga qaytsin.*

5. *Mayli, shon qaytmasin, to‘ydik u shondan,*
6. *Bir tishlam non bo‘lib qayta qolsin u.*
7. *Hech kim baxt topmadi zarhal nishondan,*
8. *Oddiy “rahmat” so‘zin ayta olsin u.*

9. *Kaftlaringdan uchgan shu oq kabutar*
10.*Sharbat ola kelsin, yog‘ ola kelsin.*
11.*Sho‘rmanglay zaminga solsinu nazar*
12.*Gullagan, yashnagan bog‘ ola kelsin.*

13.*Mayliga, qish oldi uyma-uy yurib,*
14.*Kemtik devorlaring yamab bersin u.*
15.*Bolakay ko‘zida cheksiz mung ko‘rib,*
16.*Ato etsin unga qaytadan yog‘du.*

17.*Mayli kaftlaringdan uchgan o‘sha qush*

18.*Kelin libosiga aylansin harir.*
19.*U toza bir havo yelpisa na xush,*
20.*Jajji tumshug‘ida bir hidlam atir.*

21.*Mayliga, qaydadir uchrasa do‘st, yor,*
22.*Oltin rishta bilan bog‘lay olsin u.*
23.*Sayyod hamlasiga bo‘lmay giriftor*
24.*Hasadgo‘y bag‘rini dog‘lay olsin u.*

25.*Lekin qaylargadir ketmasin daydib,*
26.*Doim quloq tutsin xalqim, so‘zingga.*
27.*Oq paxta - oppoq qush to kelsin qaytib*
28.*Intiq oshyoniga - yurtim, o‘zingga...*

AK GÜVERCİN (197)

1. Emeğin, zahmetin ağır ne kadar,
2. Ben değil, uykusuz tarlalar desin.
3. Pamuğunun çanağından uçan her pamuk
4. Halkımın baht kuşu gibi kendisine dönsün.

5. Tamam, şan dönmesin, doyduk o şandan,
6. Bir ısırık ekmek olsun yine kalsın o.
7. Hiç kimse baht bulmadı bronz nişandan,
8. Basit “teşekkür” sözünü söyleyebilsin o.

9. Avuçlarından uçan şu ak güvercin
10.Şerbet alıp gelsin, yağ alıp gelsin.
11. Bahtsız alnı zemine baksın dikkatle
12.Güllenen, çiçeklenen bağ alıp gelsin.

13. Tamam, kış öncesi evden eve yürüyüp,
14.Çentik duvarlarını yamayıp versin o.

15.Çocuk gözünde sonsuz sıkıntı görüp,
16. Bahşetsin ona yeniden ışık.

17. Tamam avuçlarından uçan işte o kuş
18. Gelin libasına dönüşsün ipek.
19.O temiz bir hava verse ne hoş,
20.Küçük gagasında güzel bir koku.

21. Tamam, nerede rastlarsa dost, yâr,
22. Altın iple bağlayıp alsın o.
23. Avcı hamlesine olmayacak giriftar
24. Hasetçinin bağrını dağlayıp alsın o.

25. Lakin bir yerlere gitmesin avare olup,
26. Daima kulak versin halkım, sözüne.
27. Ak pamuk bembeyaz kuş ta gelsin dönüp
28.İntizar aşiyana yurdum, kendine… (1991)

DIL KO‘ZI (198)

1. *Ko‘zi ochiqlarga rohatdir mehnat,*
2. *Ko‘zi ochiqlarga lazzatdir ne’mat.*

3. *To‘y ham yarashadir ko‘zi ochiqqa,*
4. *Kuy ham yarashadi ko‘zi ochiqqa.*

5. *Mening ko‘z deganim - dil ko‘zi erur,*
6. *U - umid, u - najot yulduzi erur.*

7. *Yuragim tubiga cho‘kkan hasratlar,*
8. *Orzular, armonlar, qayg‘u-kulfatlar.*

9. *Endi ko‘zlarimda qalqmog‘i gumon,*
10.*Bu ko‘zlar bamisli tumanli osmon.*

11.*Lekin udumini takrorlar bashar,*
12.*Har avlod o‘z yukin ortmoqlab yashar.*

13.*Armonli u yillar birma-bir ketdi,*
14.*Endi o‘zga to‘lqin navbati yetdi.*

15.*Bolam, payting kelmish, ko‘zlaringni och,*
16.*Endi sen muhitda yozgin keng quloch.*

17.*Ruhingni kishanlar bog‘lamasa bas,*
18.*Dilingni kin, hasad dog‘lamasa bas.*

19.*Nafasing singari pok bo‘lib dunyo,*
20.*Basdir, ko‘zin ochsa diyonat, hayo.*

21.*Va lekin yo‘llaring bo‘lsa ham ravon,*
22.*Oyog‘ing ostiga boqib yur, o‘g‘lon.*

23.*U yerda nainki rizqing ekilgan,*
24.*Balki buloq bor - ko‘zi bekilgan.*

25.*Nazar sol, zahmatkash bandalar sari,*
26.*Mushuk bolasidek yumuq ko‘zlari.*

27.*Bemanzil cho‘llarda kezar karvonlar,*
28.*Ularni yetaklar so‘qir sarbonlar.*

29.*G‘aflat uyqusida necha-necha jon,*

30.*Al’amon, oxirgi kundan, al’amon.*

31.*Magarki haq bizni tinglab nihoyat,*

32.*Baxsh etmish senga ham nuri hidoyat.*

33.*Sen ham himmatingni socha ol endi,*

34.*Boshqalar ko‘zini ocha ol endi...*

GÖNÜL GÖZÜ (198)

1. Gözü açıklara rahattır çalışma,

2. Gözü açıklara lezzettir nimet.

3. Toy da yaraşırdır gözü açığa,

4. Ahenk de yaraşır gözü açığa.

5. Benim gözümün gördüğü gönül gözüdür,

6. O, ümit; o, necat yıldızıdır.

7. Yüreğimin dibine çökmüş hasretler,

8. Arzular, ukdeler, kaygılar, külfetler.

9. Şimdi gözlerimden kalması şüphe,

10. Bu gözler sanki dumanlı asuman.

11. Lakin örfünü tekrarlayıp beşer,

12. Her evlat kendi yükünü omuzlayıp yaşar.

13. Ukdeli o yıllar peş peşe gitti,

14.Şimdi başka dalga nöbeti erişti.

15. Evladım, vaktin gelmiş, gözlerini aç,
16.Şimdi sen muhitte at geniş kulaç.

17. Ruhunu zincirler bağlamasa kâfi,
18.Gönlünü kin, haset dağlamasa kâfi.

19. Nefesin gibi pak olup dünya,
20.Kâfidir, gözünü açsa vicdan, haya.

21. Velakin yolların olsa da revan,
22. Ayağının altına bakıp yürü, oğlan.

23. Orada mı rızkın ekilmiş,
24. Belki bulak var, gözü kapanmış.

25. Dikkatle bak, zahmetkeş bendelere doğru,
26. Kedi yavrusu gibi yumuk gözleri.

27. Menzilsiz çöllerde gezer kervanlar,
28. Onların başı olur kör sarbanlar.

29. Gaflet uykusunda nice nice can,
30. Elaman, sonraki günden, elaman.

31. Meğerki hak bizi dinleyip nihayet,
32. Bahşetmiş sana da nur-ı hidayet.

33. Sen de himmetini saçabil şimdi,
34. Başkaları gözünü açabil şimdi… (1991)

HAMZA NIDOSI (199)

1. *Hamzadirman, boqmagaysiz*
2. *Siz malomatlar bilan,*
3. *Baytlar aytdim, elu yurtga*
4. *Men ibodatlar bilan.*
5. *Naylayinki, gullaganda*
6. *Ko‘z yumib ketdim abad,*
7. *O‘tdi umrim yuz ko‘rishmay*
8. *Ne farog‘atlar bilan.*
9. *Men Vatanni birlashuvga*
10. *Chorlagan shoir edim,*
11. *Kutgan erdim ushbu kunni*
12. *Sabru toqatlar bilan.*
13. *Men charog‘ni izlagandim*
14. *Nur deya ushlab qalam,*
15. *Menga qarshi chiqdi zulmat*
16. *Cho‘ng falokatlar bilan.*
17. *Vo darig‘o, kimsalarning*
18. *Qahriga bo‘ldim duchor,*
19. *Tosh boshimga tosh yog‘ildi*
20. *Ming kasofatlar bilan.*
21. *Bitta o‘zbek o‘z elimda*
22. *Toshbo‘ron bo‘ldim, netay,*
23. *Balli, yurtim, yod etibsan,*
24. *Vaqtu soatlar bilan.*
25. *She’r yasharkan, kimga do‘stu*
26. *Kimga nodo‘stman hanuz,*
27. *She’r yasharkan, teng kurashgum*
28. *Men jaholatlar bilan.*
29. *Erta uchgan qush misoli*
30. *Sayd bo‘lib ketdim, vale,*
31. *Yurtim, aslo ayri tushma*
32. *Sen saodatlar bilan.*

HAMZA NİDASI (199)

1. Hamza'yımdır, bakmayacaksınız
2. Siz melametlerle,
3. Beyitler okudum, halka ve yurda
4. Ben ibadetlerle.
5. Ne yapayım ki, çiçeklendiğinde
6. Göz kapayıp gittim ebede,
7. Geçti ömrüm yüz görmeden
8. Ne feragatlerle.
9. Ben Vatan'ı birleşmeye
10.Çağıran şairdim,
11. Beklemiştim işte bugünü
12. Sabırlar ve takatlerle.
13. Ben çırağı aramıştım
14.Işık diye tuttum kalem,
15. Bana karşı çıktı zulmet
16.Büyük felaketlerle.
17. Vah eyvah, kimselerin
18. Kahrına oldum düçar,
19. Taş başıma taş yağdı
20. Bin uğursuzluklarla.
21. Bir Özbek kendi halkımda
22. Taş, boran oldum, ne çare,
23. Aferin, yurdum, yâd etmişsin,
24. Vakitler ve saatlerle.
25.Şiir yaşarken, kimine dost ve
26. Kimine düşmanım henüz,
27.Şiir yaşarken, eşit savaşanım
28. Ben cehaletlerle.
29. Erken uçan kuş misail
30. Yem olup gittim, ama,
31. Yurdum, asla ayrı düşme
32. Sen saadetlerle. (1991)

VAFO QILURMISAN, BAHORIM (200)

1. *Ruhimda yo‘qoldi qarorim,*
2. *Tanimda qolmadi madorim.*
3. *Bizlarni bir yo‘qlab kelibsan,*
4. *Vafo qilurmisan, bahorim?!*

5. *Yoz o‘tdi, kuz o‘tdi, qish o‘tdi,*
6. *Boshlardan sinovli ish o‘tdi.*
7. *Yurakka izg‘irin - nish o‘tdi,*
8. *Vafo qilurmisan, bahorim?!*

9. *Yam-yashil qirlarni sog‘indim,*
10. *Chechakzor yerlarni sog‘indim,*
11. *U inja sirlarni sog‘indim,*
12. *Vafo qilurmisan, bahorim?!*

13. *Lolaning lablari xandadir,*
14. *Dog‘i ham tubida - andadir.*
15. *O‘xshashi ruh ila tandadir,*
16. *Vafo qilurmisan, bahorim?!*

17. *Intiqmiz do‘st bilan, yor bilan,*
18. *She’r bilan, soz bilan - tor bilan,*
19. *Diydorlash bizningdek xor bilan,*
20. *Vafo qilurmisan, bahorim?!*

VEFA GÖSTERİR MİSİN, BAHARIM? (200)

1. Ruhumda kayboldu kararım,
2. Bedenimde kalmadı gücüm.
3. Bizleri bir yoklayıp gelmişsin,
4. Vefa gösterir misin, baharım?!

5. Yaz geçti, güz geçti, kış geçti,
6. Başlardan sınavlı iş geçti.
7. Yüreğe ayaz, neşter geçti,
8. Vefa gösterir misin, baharım?!

9. Yemyeşil kırları özledim,
10.Çiçekli yerleri özledim,
11.O nazik sırları özledim,
12. Vefa gösterir misin, baharım?!

13. Lalenin dudakları handedir,
14. Beneği de dibinde, oradadır.
15. Benzeri ruhla bedendedir,
16. Vefa gösterir misin, baharım?!

17. Acele ederiz dostla, yârla,
18.Şiirle, sazla, tarla,
19.Görüş bizim gibi horla,
20. Vefa gösterir misin, baharım?! (1991)

HAJ DAFTARI

(Turkum)

KA'BATULLOH (201)

1. *Hanuz biri ikki bo'lmagan eldan*
2. *Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.*
3. *Bag'ri xun, tolei kulmagan eldan*
4. *Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.*

5. *Bir zamon uning ham bo'lgan qudrati,*
6. *Dunyoni yoritgan zehni, fikrati.*
7. *Hatto qirg'oqlarni buzgan shiddati,*

8. *Keldim, madad bergil, yo Ka’batulloh.*

9. *Tegirmon toshidek aylandi taqdir,*
10.*Karvonlar to‘zg‘idi, sarbonlar so‘qir.*
11.*Bandi bo‘lgan edi ulug‘ yurt, axir,*
12.*Keldim, madad bergil, yo Ka’batulloh.*

13.*Avj oldi ig‘voyu firib, razolat,*
14.*Yig‘ladi bir chetda yetim adolat.*
15.*Bormi saodatga, axir, kafolat,*
16.*Keldim, madad bergil, yo Ka’batulloh.*

17.*Xor bo‘ldi Vatanda kimki ilmi bor,*
18.*Birovlar zar bilan topdi e’tibor.*
19.*Hiylagar ko‘paydi, ko‘paydi makkor,*
20.*Keldim, madad bergil, yo Ka’batulloh.*

21.*Duch kelgan sanamga sig‘indik gohi,*
22.*Bizga keng ochildi Shayton dargohi.*
23.*Axir, nima edi elning gunohi,*
24.*Keldim, madad bergil, yo Ka’batulloh.*

25.*Magar bo‘ri ekan odamga odam,*
26.*Bir-birin boshini yegay damodam,*
27.*Insof, diyonatni unutdik biz ham*
28.*Keldim, madad bergil, yo Ka’batulloh.*

29.*Hargiz aynimasin tomirdagi qon,*
30.*Mudom ta’zim qilgay asli qul Inson.*
31.*Haqiqat yo‘q joyda yashnagay yolg‘on,*
32.*Keldim, madad bergil, yo Ka’batulloh.*

33.*Qay zamon odamlar bad fe’lin sezdim,*
34.*Vafoli do‘st izlab dunyoni kezdim.*
35.*Topmadim, topmadim, baridan bezdim,*
36.*Keldim, madad bergil, yo Ka’batulloh.*

37.*Qoshingda tiz cho‘kib turibman shu dam,*
38.*Dilimda iltijo, qo‘limda qalam.*
39.*Shafqating ayama mendan ham, Egam,*
40.*Keldim, madad bergil, yo Ka’batulloh.*

41.*Shukrona ayturman o‘zingga, yo Rabb,*
42.*Yuz burdik hidoyat yo‘liga qarab.*
43.*Haq degan yurtimning baxtini so‘rab*
44.*Keldim, madad bergil, yo Ka’batulloh.*

HAC DEFTERİ

(Söyleşi)

KÂBETULLAH (201)

1. Henüz biri iki olmamış halktan
2. Geldim, yardım et, ya Kâbetullah.
3. Bağrı kan, talihi gülmeyen halktan
4. Geldim, yardım et, ya Kâbetullah.

5. Bir zaman onun da olan kudreti,
6. Dünyayı yaratmış zihni, fikreti.
7. Hatta kıyıları buzlaşan şiddeti,
8. Geldim, yardım et, ya Kâbetullah.

9. Değirmen taşı gibi döndü takdir,
10. Kervanlar tozuttu, sarbanlar kör,
11. Tutsak olmuştu ulu yurt, nihayet,

12. Geldim, yardım et, ya Kâbetullah.

13.Büyüdü igvâ', hile ve rezalet,
14.Ağladı bir köşede yetim adalet.
15. Var mı saadete, nihayet, kefalet,
16. Geldim, yardım et, ya Kâbetullah.

17.Örselendi Vatanda kimde ki ilim var,
18. Birileri parayla buldu itibar.
19. Hileler çoğaldı, çoğaldı hilekâr,
20. Geldim, yardım et, ya Kâbetullah.

21. Rastlanan saneme sığındık bazen,
22. Bize geniş açıldı Şeytan dergâhı.
23. Nihayet, neydi halkın günahı,
24. Geldim, yardım et, ya Kâbetullah.

25. Meğer kurtmuş insana insan,
26. Birbirinin başını eğecek her zaman,
27.İnsafı, vicdanı unuttuk biz de
28. Geldim, yardım et, ya Kâbetullah.

29. Asla bozulmasın damardaki kan,
30. Hep tazim edecek asıl kul İnsan.
31. Hakikat yoksa büyüyecek yalan,
32. Geldim, yardım et, ya Kâbetullah.

33. Ne zaman insanların kötü mizacını sezdim,
34. Vefalı dost arayıp dünyayı gezdim.
35. Bulmadım, bulmadım, hepsinden bezdim,
36. Geldim, yardım et, ya Kâbetullah.

37. Huzurunda diz çöküp durmuşum şu dem,
38.Gönlümde niyaz, elimde kalem.
39.Şefkatini esirgeme benden de, Hüda'm,
40. Geldim, yardım et, ya Kâbetullah.

41.Şükrederim özüne, Ya Rab,
42.Yüzümüzü döndük hidayet yoluna taraf.
43. Hak denen yurdumun bahtını sorup
44. Geldim, yardım et, ya Kâbetullah.

PAYG'AMBAR (202)

1. *Siz bashar farzandi, Abdulloh o'g'li,*
2. *Arab sahrosidek otashin, cho'g'li,*
3. *Payg'ambar bo'ldingiz, muzaffar tug'li,*
4. *Assalomu alayka, yo Muhammad,*
5. *Assalomu alayka, yo Ahmad.*

6. *Yo, Alloh Rasuli, tengi yo'q Inson,*
7. *Sizning yo'lingizni yoritgay Qur'on,*
8. *Siz - Olam sarvari, Siz - nuri jahon,*
9. *Assalomu alayka, yo Muhammad,*
10.*Assalomu alayka, yo Ahmad.*

11.*Qiyomat ayyomi, Mahshar ayyomi,*
12.*Sizga nasib etsin Mahmud maqomi.*
13.*Mudom tilingizda ummatlar nomi,*
14.*Assalomu alayka, yo Muhammad,*
15.*Assalomu alayka, yo Ahmad.*

16.*Siz bilan olishdi mushriklar avval,*
17.*Bir nafas tinmadi jang ila jadal,*
18.*Rabbano qo'lladi Sizni har mahal,*
19.*Assalomu alayka, yo Muhammad,*

20.*Assalomu alayka, yo Ahmad.*

21.*Sizning murodingiz hidoyat erur,*
22.*Sho‘rlik bandalarga inoyat erur,*
23.*Sizga ummat bo‘lmoq saodat erur,*
24.*Assalomu alayka, yo Muhammad,*
25.*Assalomu alayka, yo Ahmad.*

26.*Sizning ziyoratga kelmishdir jahon,*
27.*Siz bois Madina tun-kun charog‘on,*
28.*Quyosh ketmas bundan, oy boqar shodon,*
29.*Assalomu alayka, yo Muhammad,*
30.*Assalomu alayka, yo Ahmad.*

31.*Qabringiz qoshida turfa ummatlar,*
32.*Suvratlar boshqayu o‘zga Siyratlar,*
33.*Axir, xos Insonga alvon sifatlar,*
34.*Assalomu alayka, yo Muhammad,*
35.*Assalomu alayka, yo Ahmad.*

36.*Bir yonda iymoni butunlar turar,*
37.*Bir yonda takabbur, manmanlar yurar,*
38.*Bari ham Allohdan kushoyish so‘rar,*
39.*Assalomu alayka, yo Muhammad,*
40.*Assalomu alayka, yo Ahmad.*

41.*Rahmdil Insonsiz, bag‘ri keng Rasul,*
42.*Barchaga yaxshilik tilaysiz nuqul,*
43.*Lekin kufr bilan kimlardir mashg‘ul,*
44.*Assalomu alayka, yo Muhammad,*
45.*Assalomu alayka, yo Ahmad.*

46.*Kimdir pok bo‘lgali ichadi qasam,*

47.*Lekin ichi qora, Shaytonga hamdam,*
48.*Ular Sizga faqat orttiradi g‘am,*
49.*Assalomu alayka, yo Muhammad,*
50.*Assalomu alayka, yo Ahmad.*

51.*Hazrat, so‘rang bizning gunohimizni,*
52.*Boshlang to‘g‘ri yo‘lga gumrohimizni.*
53.*Egamga yetkazing oh-vohimizni,*
54.*Assalomu alayka, yo Muhammad,*
55.*Assalomu alayka, yo Ahmad.*

56.*Dunyoda yaxshilar ko‘p hali, shukr,*
57.*Ular bor, yog‘ilar zamin uzra nur.*
58.*Ummatsiz yo‘q sizga halovat, huzur,*
59.*Assalomu alayka, yo Muhammad,*
60.*Assalomu alayka, yo Ahmad.*

61.*Keldim ziyoratga, ozurda jonman,*
62.*Ranju balolardan to‘ygan Insonman.*
63.*Sizning poyingizda gardman, to‘zonman,*
64.*Assalomu alayka, yo Muhammad,*
65.*Assalomu alayka, yo Ahmad.*

66.*Haq deb nina bilan tog‘larni qazdim,*
67.*Bandaman, rost yo‘ldan gohida ozdim.*
68.*Tavbamning izhori, shu she’rni yozdim,*
69.*Assalomu alayka, yo Muhammad,*
70.*Assalomu alayka, yo Ahmad.*

PEYGAMBER (202)

1. Siz beşer evladı, Abdullah oğlu,
2. Arap sahrası gibi ateşin, közlü,
3. Peygamber oldunuz, muzaffer tuğlu,

4. Esselâmü aleyke, Ya Muhammet,
5. Esselâmü aleyke, ya Ahmet.

6. Ya Allah Resulü, dengi yok İnsan,
7. Sizin yolunuzu aydınlatacak Kur'an,
8. Siz, Âlem serveri, Siz, nur-ı cihan,
9. Esselâmü aleyke, Ya Muhammet,
10. Esselâmü aleyke, ya Ahmet.

11. Kıyamet eyyamı, Mahşer eyyamı,
12. Size nasip etsin Mahmut makamı.
13. Hep dilinizde ümmetlerin namı,
14. Esselâmü aleyke, Ya Muhammet,
15. Esselâmü aleyke, ya Ahmet.

16. Sizinle savaştı müşrikler evvel,
17. Bir dem durmadı cenk ile cedel,
18. Rabbena kolladı Sizi her behemehâl,
19. Esselâmü aleyke, Ya Muhammet,
20. Esselâmü aleyke, ya Ahmet.

21. Sizin muradınız hidayettir,
22. Biçare bendelere inayettir,
23. Size ümmet olmak saadettir,
24. Esselâmü aleyke, Ya Muhammet,
25. Esselâmü aleyke, ya Ahmet.

26. Sizin ziyaretinize gelmiştir cihan,
27. Siz esas Medine gece gündüz çırağan,
28. Güneş gitmez buradan, ay bakar şâdân,
29. Esselâmü aleyke, Ya Muhammet,
30. Esselâmü aleyke, ya Ahmet.

31. Kabriniz huzurunda acayip ümmetler,
32. Suretler başka ve farklı Sîretler,
33. Nihayet, has İnsana türlü sıfatlar,
34. Esselâmü aleyke, Ya Muhammet,
35. Esselâmü aleyke, ya Ahmet.

36. Bir yanda imanı bütünler durur,
37. Bir yanda tekebbür, mağrurlar yürür,
38. Hepsi de Allah'tan baht ister,
39. Esselâmü aleyke, Ya Muhammet,
40. Esselâmü aleyke, ya Ahmet.

41.Şefkatli İnsansınız, cömert Resul,
42. Herkese iyilik dilersiniz daima,
43. Lakin küfürle kimler meşgul,
44. Esselâmü aleyke, Ya Muhammet,
45. Esselâmü aleyke, ya Ahmet.

46. Kimi pak olmaya içer ant,
47. Lakin içi kara, Şeytana dost,
48. Onlar Size yalnız arttırır gam,
49. Esselâmü aleyke, Ya Muhammet,
50. Esselâmü aleyke, ya Ahmet.

51. Hazretleri, sorun bizim günahımızı,
52.Döndürün doğru yola sapkınımızı
53. Rabb'imize eriştirin ah vahımızı,
54. Esselâmü aleyke, Ya Muhammet,
55. Esselâmü aleyke, ya Ahmet.

56.Dünyada iyiler çok hâlâ, şükür,
57. Onlar var, yağar zemin üstüne nur.
58.Ümmetsiz yok size asayiş, huzur,

59. Esselâmü aleyke, Ya Muhammet,
60. Esselâmü aleyke, ya Ahmet.

61. Geldim ziyarete, incinen canım,
62. Acı ve belalardan doymuş İnsanım.
63. Sizin ayağınızda tozum, toprağım,
64. Esselâmü aleyke, Ya Muhammet,
65. Esselâmü aleyke, ya Ahmet.

66. Hak diye iğneyle dağları kazdım,
67. Bendeyim, doğru yoldan bazen azdım.
68.Tövbemin izharı, şu şiiri yazdım,
69. Esselâmü aleyke, Ya Muhammet,
70. Esselâmü aleyke, ya Ahmet.

TILANCHI BOLA (203)

1. *Ka’baning muqaddas namozgohida*
2. *Ming-minglab mo‘’minlar yukinmoqqa shay.*
3. *Saflar orasida gohi-gohida*
4. *Ko‘rinib qoladi bitta bolakay.*

5. *Kimdir uzatardi sadaqa - riyol,*
6. *Biroq ehsonga u qilmasdi ruju.*
7. *Qop-qora ko‘zida cheksiz mung, xayol,*
8. *Lablarida esa hazin, nim kulgu.*

9. *Jim boqar, ishlari go‘yo sarishta,*
10.*Faqat nigohida o‘tinch porlardi.*
11.*Mening nazarimda u bir farishta,*
12.*Mehru saxovatga unsiz chorlardi.*

DİLENCİ ÇOCUK (203)

1. Kâbe'nin mukaddes namazgâhında,
2. Binlerce müminler yalvarmaya hazır.
3. Saflar arasında zaman zaman
4. Görünüp durur bir çocuk.

5. Kimi uzatırdı sadaka, riyal,
6. Fakat ihsana o etmezdi meyl.
7. Kapkara gözünde sonsuz sıkıntı, hayal,
8. Dudaklarındaysa hazin, yarım gülüş.

9. Sessiz bakar, işleri sanki rayında,
10. Yalnız bakışında güçlü arzu parlardı.
11. Benim nazarımda o bir ferişte,
12. Şefkat ve sahavete sessiz çağırırdı.

ALLOH DARGOHI (204)

1. *Necha ming musulmon tunu kun bedor,*
2. *Ka'ba atrofini tinmay aylanar,*
3. *Barchasin murodi ilohiy diydor,*
4. *Sajdaga har biri har zum shaylanar.*

5. *Olam ummon bo'lsa - girdobi shu joy,*
6. *Olam osmon bo'lsa - mehvari bunda.*
7. *Milyard martabali jahon, hoynahoy,*
8. *Kemadek qalqadi bitta to'lqinda.*

9. *Yer uzra tariqday sochilgan inson,*
10. *Bir qushning oldiga kelib tizilmish.*
11. *Abasdir bu joyda millat, irq, lison,*
12. *Zamin yo'riqlari bunda buzilmish.*

13.*Bu joyning bor erur na Qorabog‘i,*
14.*Na O‘zgan, na O‘shu Farg‘onasi bor.*
15.*Allohning o‘zidir yolg‘iz charog‘i,*
16.*Charog‘ning hisobsiz parvonasi bor.*

17.*Hatto nafrat mushti bunda tugilgay,*
18.*Axir yagonadir bu yerda maqsad.*
19.*Sig‘insang - gunohing duv-duv to‘kilgay,*
20.*Iymonsiz bandaga yo‘q lekin shafqat.*

21.*Shunchalar mukammal Alloh dargohi,*
22.*Mag‘firat qil, deya dilni tig‘ladim.*
23.*Har yondan taralar mo‘minlar ohi,*
24.*To tongga qadarli yum-yum yig‘ladim.*

ALLAH DERGÂHI (204)

1. Kaç bin Müslüman gece ve gündüz bidar,
2. Kâbe etrafını durmadan döner,
3. Hepsinin muradı ilahi didar,
4. Secdeye her biri her an hazırlanır.

5. Âlem ummansa girdabı burası,
6. Âlem asumansa mihveri burada.
7. Milyar mertebeli cihan, belki,
8. Gemi gibi kalkar bir dalgada.

9. Yer üstünde darı gibi saçılan insan,
10. Bir kuşun önüne gelip dizilmiş.
11. Abestir burada millet, ırk, lisan,
12. Zemin yolları burada bozulmuş.

13. Burasının varmış ne Karabağ’ı,

14. Ne Özgen'i, ne Oş'u ve Fergana'sı var.
15. Allah'ın kendisidir yalnız çırağı,
16.Çırağının hesapsız pervanesi var.

17. Hatta nefret yumruğu burada bitecek,
18. Nihayet yegânedir burada maksat.
19.Sığınsan günahın büsbütün dökülecek,
20.İmansız bendeye yok lakin şefkat.

21. Bu kadar mükemmel Allah dergâhı,
22. Mağfiret et, diye gönlü parçaladım.
23. Her yandan yayılır müminlerin ahı,
24. Ta tan vaktine dek acı acı ağladım.

HASRAT (205)

1. *Qochgan ham, quvgan ham Allohim deydi*
2. *Qochgan ham, quvgan ham emasman, do'stim.*
3. *Mening iztirobim shul Inson edi,*
4. *Insondan o'zgani demasman, do'stim.*

5. *Inson-chi, to hanuz yovuz va g'addor,*
6. *Bir-birin tinimsiz tortadi chohga.*
7. *Bundayin qismatga ko'nikmoq dushvor*
8. *Netay, hasratimni deyman Allohga.*

HASRET (205)

1. Kaçan da, kovalayan da Allah'ım der
2. Kaçan da, kovalayan da değilim, dostum.
3. Benim ızdırabım şu İnsandı,
4. İnsandan başkasına demem, dostum.

5. İnsan, henüz yavuz ve gaddar,

6. Birbirini durmadan çeker dibe.

7. Böyle kısmete alışmak zor

8. Ne çare, hasretimi derim Allah'a.

ONA (206)

1. *Ka'ba qopqasida turgan, ey posbon,*

2. *Avval onalarning ochgin yo'llarin.*

3. *Onalar poyiga tiz cho'k o'shal on,*

4. *Tavof qil, ko'zga surt, o'pgin qo'llarin.*

5. *Hojar onamizning nidosi sabab*

6. *Ka'bada ko'z ochgan Obi Zam-zam ham.*

7. *Bir umr talpinmish onaga qarab,*

8. *Ne-ne payg'ambarlar ko'zlarida nam.*

9. *Qavmimni ranjitib qo'ymayin, ammo*

10. *Tobut yasab kelgan er zoti doim.*

11. *Onalar bag'riga faqat beshik jo,*

12. *Hayotbaxsh allalar aytgan, muloyim.*

13. *Sho'rlik odamzodning tolei uchun*

14. *Eng avval onalar qilsin ibodat.*

15. *Zora, gunohlardan pok bo'lgay ochun,*

16. *Onalar o'tinchi topib ijobat.*

17. *Ka'ba qopqasida turgan, ey posbon,*

18. *Avval onalarning ochgin yo'llarin.*

19. *Onalar poyiga tiz cho'k o'shal on,*

20. *Tavof qil, ko'zga surt, o'pgin qo'llarin.*

ANA (206)

1. Kâbe kapısında duran, ey muhafız,

2. Evvel anaların aç yollarını.
3. Anaların ayağına diz çök işte o an,
4. Tavaf et, göze sür, öp ellerini.

5. Hacer anamızın nidası sebep
6. Kâbede göz açmış Ab-ı zemzem de.
7. Bir ömür çırpınmış anaya doğru,
8. Çok peygamber gözlerinde nem.

9. Kavmimi incitmeyin, ama
10. Tabut yapmış er zatı daima.
11. Analar bağrına tek beşik muhkem,
12. Hayat bahşeden ninniler demiş, mülayim.

13. Biçare insanoğlunun talihi için
14. En evvel analar etsin ibadet.
15. Belki günahlardan pak olacak acun,
16. Anaların yakarışı bulup icabet.

17.Kâbe kapısında duran, ey muhafız,
18. Evvel anaların aç yollarını.
19. Anaların ayağına diz çök işte o an,
20. Tavaf et, göze sür, öp ellerini.

AROFAT (207)

1. *Arofat tog‘ining etaklarida*
2. *Ko‘rdim qiyomatning alomatlarin.*
3. *Hamma bir xil libos - ehrom sarida,*
4. *Qaytadan varaqlar umr daftarin.*

5. *Yo‘qdir birov bilan birovning ishi,*
6. *Ayqash-uyqash bo‘lmish yer bilan osmon.*

7. *Har kimning ichida dardi, tashvishi,*

8. *Shukrona aytmasang osiysan shu on.*

9. *Majruh boladan to munkillagan chol,*

10.*Labbayka, Alloh, deb qilar iltijo.*

11.*Kimdir tashnalikdan ingraydi behol,*

12.*Kimningdir hayoti shul yerda ado.*

13.*Namoz vaqti kelar, tumonat muslim*

14.*Sajdaga egilar, ko‘zda jiqqa yosh.*

15.*Men ham safim bilan tiz cho‘kaman jim,*

16.*Balki men ham qayta ko‘tarmasman bosh...*

17.*Qiyomat nima deb so‘rama endi,*

18.*Uning bir sahnasin ko‘rsatdi Alloh.*

19.*Zo‘r dengiz tonggacha qaynadi, tindi,*

20.*Sinovdan o‘tganim rost bo‘lsin, valloh!*

ARAFAT (207)

1. Arafat Dağı’nın eteklerinde

2. Gördüm kıyametin alametlerini.

3. Bütün bir tür libas, ihram örtüsünde,

4. Tekrar göz atar ömür defterine.

5. Yoktur biriyle birinin işi,

6. Ahenksiz olmuş yerle asuman.

7. Herkesin içinde derdi, kaygısı,

8. Şükretmezsen asisin o zaman.

9. Sakat çocuktan ta çöken ihtiyara,

10. Lebbeyk, Allah, diye eder iltica.

11. Kimi muhtaçlıktan inler hâlsiz,

12. Kiminin hayatı işte şu yerde eda.

13. Namaz vakti gelir, pek çok Müslüman
14. Secdeye gider, gözde büsbütün yaş.
15. Ben de safımla diz çökerim sessiz,
16. Belki ben de yine kaldırmam baş…

17.Kıyamet ne diye sorma şimdi,
18. Onun bir sahnesini gösterdi Allah.
19.Büyük deniz şafağa dek kaynadı, dindi,
20.Sınavdan geçtiğim gerçek olsun, vallah!

HAYOT HAQIQATI (208)

1. *Umrning yarmini o‘tdik amallab,*
2. *Qolgan yarmiga ham podshodir xudo.*
3. *Faqat ayriliqdan asragin, yo Rabb*
4. *Do‘stu yoronlardan qilmagin judo.*

5. *G‘animlar makrini o‘ylasang agar*
6. *Dunyodan yashamay ketgan yaxshiroq.*
7. *Ba’zan dil uyingni aylar munavvar*
8. *Yetti yot begona yoqqan bir chiroq.*

9. *Muhtoj bo‘lganingda silaydi boshing*
10.*O‘zi muhtoj bo‘lgan tanti mardumlar.*
11.*O‘lim tilaganda tirik safdoshing,*
12.*Hayotga qaytarar seni marhumlar.*

HAYAT HAKİKATİ (208)

1. Ömrün yarısını geçtik zor bela,
2. Kalan yarısına da padişahtır Hüda.
3. Yalnız ayrılıktan korusun, Ya Rab,

4. Dostlardan ve yârenlerden etme cüda.

5. Düşmanların hilesini düşünürsen eğer
6. Dünyadan yaşamadan giden daha iyi.
7. Bazen gönül evini eyler münevver
8. Yedi yabancı el yakmış bir çırağ.

9. Muhtaç olduğunda okşar başını
10. Kendisi muhtaç olmuş hayırsever kişiler.
11.Ölüm dilediğinde canlı safdaşın,
12. Hayata döndürür seni merhumlar.

HOJILAR (209)

1. *Halollik Islomda eng oliy matlab,*
2. *To‘g‘rilik Muslimning asl gultoji.*
3. *Bir kuni o‘rtada Shayton oralab,*
4. *Hojining hamyonin urdi-ku hoji.*

5. *Qaysi bir o‘lkadan kelgan keksa chol,*
6. *Bor-yo‘q bisotidan bo‘ldi mosuvo.*
7. *Ne qilsin? Chorasiz tura berdi lol,*
8. *Dilida shukrona, tilida duo.*

9. *O‘g‘ri hoji esa mamnun ishidan,*
10.*Tinmayin sajdaga egilar boshi.*
11.*Nobakor bandaning bu qilmishidan*
12.*Badtarroq qoraydi Ka’baning toshi!*

HACILAR (209)

1. Helallik İslam’da en yüce maksat,
2. Doğruluk Müslümanın asıl baş tacı.
3. Bir gün ortaya Şeytan çıkıp,

4. Hacının cüzdanını çaldı hacı.

5. Herhangi bir ülkeden gelen yaşlı ihtiyar,
6. Varından yoğundan oldu yoksun.
7. Ne yapsın? Çaresiz duruverdi lal,
8. Gönlünde şükür, dilinde dua.

9. Hırsız hacıysa memnun işinden,
10. Durmadan secdeye eğilir başı.
11. Alçak bendenin bu yaptığından
12. Daha beter kararır Kâbe'nin taşı!

EHROM KIYIB OLGAN IKKI MUSULMON (210)

1. *Ehrom kiyib olgan ikki musulmon*
2. *Bir-birin so'kishib choy talashardi.*
3. *Asli bilmasdilar, shu zum ikkovlon*
4. *Do'zaxning tubidan joy talashardi.*

İHRAM GİYEN İKİ MÜSLÜMAN (210)

1. İhram giyen iki müslüman
2. Birbirine sövüp çay yağmalardı.
3. Asıl bilmezlerdi, o an ikisi de
4. Cehennemin dibinden yer yağmalardı.

KEZIB BU SHAHARNI BALKI HORGAYSAN (211)

1. *Kezib bu shaharni balki horgaysan*
2. *Va lekin Allohga diling yorgaysan.*
3. *Adasha-adasha Makkani topding,*
4. *Endi adashsang gar qayga borgaysan.*

GEZİP BU ŞEHRİ BELKİ YORULACAKSIN (211)

1. Gezip bu şehri belki yorulacaksın
2. Velakin Allah'a gönlünü açacaksın.
3. Yanıla yanıla Mekke'yi buldun,
4. Şimdi yanılırsan eğer nereye gideceksin?

HOJI UKALARIM ANVAR VA XURSHIDGA (212)

1. *Do'st bo'lurmi bunchalar hamdam, inoq,*
2. *Bir pilikdan kuch olar ikki chiroq.*
3. *Oh, ahillik bor ekan o'zbekda ham,*
4. *Ulg'aying, turli yomon ko'zdin yiroq.*

HACI KARDEŞLERİM ENVER VE HURŞİDE (212)

1. Dost olur mu bu kadar arkadaş, yakın,
2. Bir fitilden güç alır iki çırağ.
3. Ah, ehillik varmış Özbek'te de,
4. Gelişin, türlü yaman gözden ırak.

ASLIYAT (213)

1. *Bu yerga o'g'ri ham, to'g'ri ham kelar,*
2. *Poklanish har kimning muddaosidir.*
3. *Gunohu savobni har banda bilar,*
4. *Elning u shohidir yo gadosidir.*

5. *Hayotning oqimin to'xtatish qiyin,*
6. *Hech kim ayri tushmas qorgan loyidan.*
7. *Bir karra poklanib olgandan keyin*
8. *Ishlarin boshlaydi kelgan joyidan...*

ASLİYET (213)

1. Buraya hırsız da, doğru da gelir,
2. Paklanmak herkesin temennisidir.

3. Günahı ve sevabı her bende bilir,
4. Halkın o şahıdır yahut gedasıdır.

5. Hayatın akışını durdurmak zor,
6. Hiç kimse ayrı düşmez karıldığı çamurundan.
7. Bir kere paklandıktan sonra
8. İşleri başlardı geldiği yerinden…

HAJ SAVOBI (214)

(Hazil)

1. *Muxbir:*
2. *Haj qildingiz borib Makka taraflarga,*
3. *Ko‘mildingiz nogahoniy sharaflarga.*
4. *Bundayin baxt tushingizga kirganmidi?*
5. *Hoji bobo, nima deysiz bu gaplarga?*

6. *Hoji bobo:*
7. *Inshoolloh, hurlik keldi guldir-guldir,*
8. *Qola bersa, har bir ishning boshi puldir.*
9. *Hovli-joyni sakson mingga sotib ketdim,*
10.*Muxbir bolam, savolingga javob shuldir.*

11.*Muxbir:*
12.*Xalq aytadi chuchvaradan go‘shtdir ma’ni,*
13.*Siz ko‘rdingiz Makka bilan Madinani.*
14.*Ka’batulloh darvozasi qandoq ekan?*
15.*Hoji bobo, o‘shalardan so‘zlang, qani?*

16.*Hoji bobo:*
17.*Ka’batulloh jamoliga yo‘qdir taraf,*
18.*Ammo-lekin bozori ham maqtov talab.*

19.*Xaridorlar, durbin bormi, deb so‘rashar,*

20.*Muxbir bolam, hayron bo‘ldim shunga qarab.*

21.*Muxbir:*

22.*U yoqlarda xayolga ham botdingizmi,*

23.*Arofatning mashaqqatin tortdingizmi?*

24.*Mino degan toqqa chiqib, g‘ayrat qilib,*

25.*Hoji bobo, Shaytonga tosh otdingizmi?*

26.*Hoji bobo:*

27.*Endi bildim, Shayton asli qaydan ekan,*

28.*Bir tomon tog‘, bir tomoni maydon ekan.*

29.*Bozorchisi soddagina arab desam,*

30.*Muxbir bolam, bizlardan ham shayton ekan.*

31.*Muxbir:*

32.*So‘raybersam savollarim hali talay,*

33.*Mayda-chuyda, ikir-chikir, alay-balay.*

34.*Madinada Payg‘ambarning daxmasi bor,*

35.*Hoji bobo, ko‘rdingizmi uni, qalay?*

36.*Hoji bobo:*

37.*Madina ham shahar ekan oliyhimmat,*

38.*Ayollari yurishibdi yuzda chimmat.*

39.*Atlas olib borgan edim, arzon ketdi,*

40.*Muxbir bolam, u joylarda asal qimmat.*

41.*Muxbir:*

42.*Savolimni quloqqa hech ildingizmi,*

43.*Qayga borib kelganingiz bildingizmi?*

44.*Men savobdan gapiraman, siz savdodan,*

45.*Hoji bobo, aslida haj qildingizmi?*

46.*Hoji bobo:*

47.*Tayyoraning pattalari qo‘limdadir,*

48.*Guvohlarim mana o‘ngu so‘limdadir.*

49.*Bunday makruh savollarni kim o‘rgatdi,*

50.*Muxbir bolam, haj savobi dilimdadir.*

HAC SEVABI (214)

(Şaka)

1. Muhabir:

2. Hac yaptınız gidip Mekke taraflarına,

3. Gömüldünüz ansızın şereflere.

4. Böyle baht düşünüze girmiş miydi?

5. Hacı dede, ne dersiniz bu sözlere?

6. Hacı dede:

7. İnşaallah, hürlük geldi güldür güldür,

8. Ayrıca, her işin başı paradır.

9. Avluyu, evi seksen bine sattım,

10. Muhabir evladım, soruna cevabım şudur.

11. Muhabir:

12. Halk söyler çuçvaradan[136] ettir mani,

13. Siz gördünüz Mekke’yle Medine’yi.

14.Kâbetullah kapısı nasılmış?

15. Hacı dede, işte onlardan konuşun, haydi?

16. Hacı dede:

17.Kâbetullah cemaline yoktur taraf,

18. Amma velakin pazarı da övgüye talep.

19.Müşteriler, dürbün var mı, diye sorarlar,

20. Muhabir evladım, şaşırdım şuna bakıp.

[136] Bir çeşit Özbek mantısı.

21. Muhabir:
22. Oralarda hayale de gömüldünüz mü,
23. Arafatın meşakkatini çektiniz mi?
24. Mina denen dağa çıkıp, gayret edip,
25. Hacı dede, Şeytan'a taş attınız mı?

26. Hacı dede:
27.Şimdi anladım, Şeytan'ın aslı nasılmış,
28. Bir tarafı dağ, bir tarafı meydanmış.
29. Pazarcısına sadece Arap desem,
30. Muhabir evladım, bizlerden de şeytanmış.

31. Muhabir:
32. Soruversem sorularım daha çok,
33. Ufak tefek, ıvır zıvır, öteberi.
34. Medine'de Peygamber'in türbesi var,
35. Hacı dede, gördünüz mü onu, nasıl?

36. Hacı dede:
37. Medine de şehirmiş cömert,
38. Kadınları yürürmüş yüzde peçe.
39. Atlas alıp gitmiştim, ucuz gitti,
40. Muhabir evladım, oralarda bal kıymetli.

41. Muhabir:
42. Soruma hiç kulak verdiniz mi?
43. Nereye gidip geldiğinizi bildiniz mi?
44. Ben sevaptan konuşurum, siz ticaretten,
45. Hacı dede, aslında hac yaptınız mı?

46. Hacı dede:
47. Teyyarenin biletleri elimdedir,

48.Şahitlerim işte sağ ve solumdadır.

49.Böyle mekruh soruları kim öğretti,

50. Muhabir evladım, hac sevabı gönlümdedir.

SHAYTON (215)

1. *La’natlab bo‘lsa ham, qarg‘ab bo‘lsa ham,*

2. *Har kun tilovatda aytilar nomi.*

3. *Uning bosh suqmagan joyi kamdan-kam,*

4. *Ichilgan har qadah uning ham jomi...*

5. *Deydilar, norasta go‘dakni hatto*

6. *Uyquda qitiqlab kuldirar emish.*

7. *Salgina g‘aflatda qolsang mabodo,*

8. *Qilmagan ishingni qildirar emish.*

9. *Shaytonning hunari chindan rang-barang,*

10.*Sallani paytava qilib o‘ratgay.*

11.*Agar sidqidildan ko‘rsatsa nayrang,*

12.*Nodonni shoh qilib, yurtni so‘ratgay.*

13.*Minoda Shaytonni qildik toshbo‘ron,*

14.*La’natga ko‘mildi badbaxt u lain.*

15.*Dedik, shuncha yukning ostidan Shayton*

16.*Ming yillar chiqolmay yotmog‘i tayin.*

17.*Shodumon yo‘l oldik Vatanga qarab,*

18.*Shayton qoldi, deya chuqurda-chohda.*

19.*Manzilga qaytgandik, Shayton, vo ajab,*

20.*Bizni kutib oldi tayyoragohda.*

ŞEYTAN (215)

1. Lanetlense de, beddua etse de,

2. Her gün tilavette söylenir namı.
3. Onun baş sokmadığı yeri seyrek,
4. İçilen her kadeh onun da kadehi…

5. Derler, reşit olmayan çocuğu hatta
6. Uykuda gıdıklayıp güldürürmüş.
7. Birazcık gaflette kalırsan eğer,
8. Yapmadığı işini yaptırırmış.

9. Şeytanın hüneri gerçekten rengârenk,
10. Sarığını çorap yapıp dolayacak.
11.Eğer hevesle gösterse dalavere,
12. Nadanı şah yapıp, yurdu isteyecek.

13. Mina'da Şeytana yaptık taş fırtınası,
14. Lanete gömüldü bedbaht o lain.
15. Dedik, bunca yükün altından Şeytan
16. Binlerce yıl çıkamaması kesin.

17.Şaduman yol aldık Vatana doğru,
18.Şeytan kaldı, diye oyukta, çukurda.
19. Menzile dönmüştük, Şeytan, acaba,
20. Bizi bekledi tayyaregâhta. (Mekke, Medine, Taşkent, 25 Mayıs-16 Haziran 1992)

HIKMAT SADOLARI

IBODAT (216)

1. *Dunyodan roziman dema hech qachon,*
2. *Desang ham, so'ylagil sahroga, toqqa.*
3. *Chunki seni tinglab, kimdir o'sha on.*
4. *Nega rozisan, deb tutgay so'roqqa.*

5. *Dunyodan norizo bo‘lsang ham agar,*
6. *So‘z dema, bardosh qil azob, firoqqa.*
7. *Chunki seni tinglab, kimlardir battar,*
8. *Nega, deb albatta, tutgay so‘roqqa.*

9. *Dunyo ishlariga boqma hech hayron,*
10.*Jimgina nazar sol ko‘hna bu korga.*
11.*Olis kechalari yolg‘iz qolgan on,*
12.*Dilingni och faqat Parvardigorga.*

HİKMET SEDALARI

İBADET (216)

1. Dünyadan razıyım deme hiçbir zaman,
2. Dersen de söyle sahraya, dağa.
3. Çünkü seni dinleyip, işte o an,
4. Niye razısın, diye tutacak soruya.

5. Dünyadan razı olmazsan eğer,
6. Söz söyleme, sabret azaba, firaka.
7. Çünkü seni dinleyip, birileri beter,
8. Niye, diye elbette, tutacak soruya.

9. Dünya işlerine bakma hiç şaşkın,
10. Sessizce dikkatle bak köhne bu işe.
11. Uzun gecelerde yalnız kaldığın an,
12.Gönlünü aç yalnız Perverdigâr’a.

JABROIL (217)

1. *Ul kuni Muhammad - xoksor banda,*
2. *Alloh nazariga bo‘lgandi noil.*
3. *Sokin hujrasida o‘ychan turganda*

4. *Tushdi huzuriga Hazrat Jabroil.*

5. *Avval Muhammadning ko‘ksini yorib,*
6. *Shaytoniy hislarni yulib tashladi.*
7. *So‘ng Iymon nuriga hikmatni qorib,*
8. *Muhammad ko‘ksiga joylay boshladi.*

9. *Dedi: - Qalq o‘rningdan endi, Muhammad,*
10.*Rasulsan, yo‘l ko‘rsat jami insonga.*
11.*Noqis aqllarni hikmatga qarat,*
12.*Boshla osiylarni dinga, iymonga.*

CEBRAİL (217)

1. O gün Muhammed, âciz bende,
2. Allah’ın nazarına olmuştu nail.
3. Sessiz hanesinde tefekküre daldığında
4. İndi huzura Hazreti Cebrail.

5. Evvel Muhammet’in göğsünü yarıp,
6. Şeytani hisleri çıkarıp attı.
7. Sonra İman nuruna hikmeti karıp,
8. Muhammed’in göğsüne yerleşmeye başladı.

9. Dedi: - Kalk yerinden şimdi, Muhammed,
10. Resulsün, yol göster cemi insana.
11. Noksan akıllara hikmeti göster,
12. Başla çağrıya asileri dine, imana.

ME’ROJ (218)

1. *Arshning suluv oti - nurqanot Buroq,*
2. *Eltdi Muhammadni oliy dargohga.*
3. *Tasviri joizmas bu holni, biroq*

4. *Visol nasib etdi Rasulullohga.*

5. *Ne-ne payg‘ambarlar jam bo‘lib bir yon*
6. *Rasulni o‘zlarin qavmi deb bildi.*
7. *Minnatdor Muhammad shod bo‘lib chunon*
8. *Allohdan shafqatni iltimos qildi.*

9. *Arshdan javob keldi: - Ayo, Muhammad,*
10.*Avval bir gapimni fahm etib ko‘rgil.*
11.*Do‘stlikda iltimos bo‘lmagay minba’d,*
12.*Men ham buyurgayman, sen ham buyurgil.*

MİRAÇ (218)

1. Arşın görkemli atı, nur kanatlı Burak,
2. Götürdü Muahammed’i yüce dergâha.
3. Tasviri caiz değil bu hâlin, fakat
4. Visal nasip etti Resulullah’a.

5. Çok peygamberler cem olup bir yan
6. Resul’u kendilerinin kavmi diye bildi.
7. Minnettar Muhammed şad olup gayet
8. Allah’tan şefkati iltimas etti.

9. Arştan cevap geldi: - Ey, Muhammet,
10. Evvel bir sözümü fehmet.
11. Dostlukta iltimas olmayacak ebet,
12. Ben de buyuracağım, sen de buyur.

“QUM FA ANZIR!” (219)[137]

1. *Qum fa anzir! - Tur va ogoh et,*
2. *Yota berma misoli tanbal.*

[137] Kalk ve uyar!

3. *Qum fa anzir! - Tur va ogoh et,*

4. *Zimmangga ol kurashni dangal.*

5. *Qum fa anzir! - Tur va ogoh et,*

6. *Oldindadir hali mashaqqat.*

7. *Qum fa anzir! - Tur va ogoh et,*

8. *O‘tda yongay mushriklar albat.*

9. *Qum fa anzir! - Tur va ogoh et,*

10. *Ayt, mo‘minlar bo‘lsinlar qoim.*

11. *Qum fa anzir! - Tur va ogoh et,*

12. *Ulug‘lagin Rabbingni doim.*

“KUM FE ENZİR!” (219)

1. Kum fe enzir! - Kalk ve agâh et,

2. Yatıverme misal-i tembel.

3. Kum fe enzir! - Kalk ve agâh et,

4. Sorumluluğuna al savaşı cesaretle.

5. Kum fe enzir! - Kalk ve agâh et,

6. Önündedir hâlâ meşakkat.

7. Kum fe enzir! - Kalk ve agâh et,

8. Ateşte yanacak müşrikler elbet.

9. Kum fe enzir! - Kalk ve agâh et,

10. Söyle, müminler olsunlar kaim.

11. Kum fe enzir! - Kalk ve agâh et,

12. Yücelt Rabb’ini daim.

VAHIY (220)

1. *Manman kimsalardan ranjidi Rasul,*

2. *Ko‘ngli qolgandayin hatto do‘st-yordan.*

3. *G‘orlarga bekinay deganda butkul,*

4. *Vahiy tusha keldi Parvardigordan:*

5. *- Aytgil, ey Muhammad, manman kimsalar*

6. *Vahmkor bo‘lsa ham nechog‘ siyog‘i.*

7. *Qancha depsinmasin chiranib magar,*

8. *Teshib o‘tdimikan yerni oyog‘i?*

9. *- Aytgil, ey Muhammad, manman kimsalar*

10. *Vahmkor bo‘lsa ham nechog‘ siyog‘i.*

11. *Qancha kerilmasin chiranib magar,*

12. *Tog‘larga yetdimi ekan dimog‘i?*

VAHİY (220)

1. Kibirli kimselerden incindi Resul,

2. Gücenmiş gibi hatta dosttan, yârdan.

3. Mağaralara gizleneyim dediğinde büsbütün,

4. Vahiy inip geldi Perverdigâr’dan:

5. - Söyle, ey Muhammed, kibirli kimseler

6. Dehşetli olsa da ne kadar hâleti.

7. Ne kadar uğraşırsa uğraşsın,

8. Delip geçmiş miydi yeri ayağı?

9. - Söyle, ey Muhammed, kibirli kimseler

10. Dehşetli olsa da nice hâleti.

11. Nasıl gerilmesin kasılıp meğer,

12. Dağlara mı erişmiş kibri?

HORDIQ (221)

1. *Arab sahrosida yo‘l yurib karvon,*

2. *Topdi bir manzilda qo‘nim va qaror.*

3. *Horg‘in Rasulullоh - ozurda ul jon,*

4. *Hordiq chiqarmoqni qildi ixtiyor.*

5. *To‘shaksiz, taqirda yotdi yonboshlab,*

6. *Bamisli ochundan ko‘ngli qolgan qul.*

7. *Keldi sahobalar ko‘zlarin yoshlab:*

8. *- Hech qursa bo‘yrada yotingiz, Rasul.*

9. *Rasulullоh dedi: - O‘ylamang, aslo*

10.*Fanodan men rohat kutayotirman.*

11.*Bu dunyo daraxtning soyasi go‘yo,*

12.*Men undan ot minib o‘tayotirman.*

YORGUNLUK (221)

1. Arap sahrasında yol yürüyüp kervan,

2. Verdi bir menzilde mola ve karar.

3. Yorgun Resulullah, incinen o can,

4. Yorgunluk atmayı kıldı ihtiyar.

5. Döşeksiz, tenha yerde yattı yanına,

6. Sanki acundan gönlü kalmış gül.

7. Geldi sahabeler gözleri yaşta:

8. - Hiç değilse hasırda yatınız, Resul.

9. Resulullah dedi: - Düşünmeyin, asla,

10.Fâniden ben huzur beklemekteyim.

11. Bu dünya ağacın gölgesi güya,

12. Ben ondan ata binip geçmekteyim.

IBRAT (222)

1. *Ruju qilmadilar Hazrat Payg‘ambar*

2. *Yuksak saroyga-yu, oltindan taxtga.*

3. *Qaygadir toliqib etganda safar,*

4. *Suyanib dam oldi bir tup daraxtga.*

5. *Kim aytar, dunyoda kibr ustuvor,*

6. *Kim aytar, umrning ma'nosi shuhrat.*

7. *Rasul kamtarlikni qilib ixtiyor,*

8. *To Mahshar bizlarga qoldirdi ibrat.*

9. *Rasul amr qildi: - Kesing daraxtni,*

10.*O'ylamang, borliqqa yo'qdir himmatim.*

11.*Payg'ambar daraxti bergay deb baxtni,*

12.*Sig'inib yurmasin unga ummatim.*

İBRET (222)

1. Meyletmediler Hazreti Peygamber

2. Yüksek saraya ve altından tahta.

3. Bir yere yorulup ettiğinde sefer,

4. Dayanıp dinlendi bir ağaca.

5. Kimi der, dünyada kibir önemli,

6. Kimi der, ömrün manası şöhret.

7. Resul tevazuyu etmiş tercih,

8. Ta ki Mahşeri bizlere bıraktı ibret.

9. Resul emretti: - Kesin ağacı,

10.Düşünmeyin, varlığa yoktur himmetim.

11. Peygamber ağacı verecek diye bahtı,

12.Sığınıp gitmesin ona ümmetim.

RO'ZA (223)

1. *Ramazon oyida, hayit chog'ida,*

2. *Sumalak pishirdi ahli musulmon.*

3. *Unni qovurdilar zaytun yog‘ida,*

4. *Halim tayyorladi - kimda bor imkon.*

5. *Bahor keldi mana, qishdan chiqoldik,*

6. *Bergan rizq-ro‘ziga, ne’matga sharaf.*

7. *Tog‘dayin zahmatni axir yiqoldik,*

8. *Tabiatga sharaf, himmatga sharaf.*

9. *Ro‘zadan chiqqanlar, sizga ham rahmat*

10.*Farzingiz sinovli saodat erur.*

11.*Rasululloh demish: - Sabr qil, ummat,*

12.*Mo‘minlik belgisi qanoat erur.*

ORUÇ (223)

1. Ramazan ayında, bayram vaktinde,

2. Sümelek pişirdi ehl-i Müslüman.

3. Onu kavurdular zeytinyağında,

4. Halim[138] hazırladı kimde varsa imkân.

5. Bahar geldi işte, kıştan çıkabildik,

6. Verdiği rızka, nimete şeref.

7. Dağ gibi zahmeti nihayet yıkabildik,

8. Tabiata şeref, himmete şeref.

9. Oruçtan çıkanlar, size de teşekkürler.

10. Farzınız sınavlı saadettir.

11. Resulullah demiş: - Sabret, ümmet,

12.Müminlik belirtisi kanaattir.

HAYIT (224)

1. *Hayit kunlarida janglar ham to‘xtab,*

[138] Buğday unundan ve kırmızı etten yapılan bir yemektir.

2. *Qilichlar qiniga qaytib kirguvsi.*

3. *Mo‘minlar egizak jonlarga o‘xshab,*

4. *O‘zgaga boqqan choq o‘zni ko‘rguvsi.*

5. *Umidvor har kimsa topib kushoyish,*

6. *Qorong‘i dillarga yog‘ib turgay nur.*

7. *Uyquda farog‘at, yurtda osoyish,*

8. *Duolar ijobat, niyatlar manzur.*

9. *Adovat, hasadni kasb etgan inson,*

10.*Mayli shoh yo gado, yo sayid bo‘lsin.*

11.*Iloyo bariga baxsh etsin iymon,*

12.*O‘tar har lahzasi bir hayit bo‘lsin.*

BAYRAM (224)

1. Bayram günlerinde savaşlar da durur,

2. Kılıçlar kınına dönüp girsin diye.

3. Müminler ikiz canlara benzer,

4. Başkasına baktığında kendini görsün diye.

5. Ümitvar herkes bulmuş baht,

6. Karanlık gönüllere yağacak nur.

7. Uykuda feragat, yurtta asayiş,

8. Dualar icabet, niyetler manzur.

9. Adaveti, hasetliği iş edinen insan,

10. Diyelim ki, şah veya geda yahut seyit olsun.

11. Ey Rabb’im! Herkese bahşetsin iman,

12. Geçen her lahzası bir bayram olsun.

HAJ (225)

1. *Necha cho‘llar oshib, daryolar oshib,*

2. *Bir kun kirib keldi Makkaga karvon.*

3. *Dengizga yetishgan jilg‘adek shoshib,*

4. *Ummatlar yo‘l oldi Ka’baga tomon.*

5. *Ularning barchasi mo‘ysafid edi,*

6. *Asoga tayangan nuroniy boshlar.*

7. *Kimdir hayrat bilan ularga dedi:*

8. *- Hajga kelmaydimi sizlarning yoshlar?*

9. *Ummatlar deyishdi: - Haq yo‘li mushkul,*

10.*Aziyat chekkan-ku Payg‘ambarimiz.*

11.*Qutlug‘ bu safarga olgan chog‘i yo‘l,*

12.*Yosh-yosh yigit edik bizning barimiz.*

HAC (225)

1. Nice çöller aşıp, deryalar aşıp,

2. Bir gün girdi Mekke’ye kervan.

3. Denize yetişen dere gibi telaşlanıp,

4. Ümmetler yol aldı Kâbe’ye doğru.

5. Onların hepsi ihtiyardı,

6. Asaya dayanmış nurani başlar.

7. Biri hayretle onlara dedi:

8. - Hacca gelmez miydi sizlerin gençleri?

9. Ümmetler derler: - Hak yolu müşkül,

10. Eziyet çekmiş Peygamber’imiz.

11. Kutlu bu sefere aldığı zaman yol,

12. Genç genç yiğittik bizim hepimiz.

OYISHA (226)

1. *Oyisha, Oyisha, Oyisha ona,*

2. *Nechun ko‘zlaringdan oqar marjon yosh.*
3. *Senga Rasulullоh o‘zi parvona,*
4. *Bir muhring Oy bo‘lsa, birisi Quyosh.*

5. *Tonglarni ottirding juftingga qarab,*
6. *Shoni shon keltirdi, hasrati - ado...*
7. *Payg‘ambar zavjasi bo‘lmoq-ku sharaf,*
8. *Insonga yo‘ldoshlik og‘irdir, ammo.*

9. *Oyisha, Oyisha, mangu sabot top,*
10. *Senga termularmiz bizning barimiz.*
11. *Shamollab qolmasin, ustlarini yop,*
12. *Orom olayotir Payg‘ambarimiz.*

ÂİŞE (226)

1. Âişe, Âişe, Âişe Ana,
2. Niçin gözlerinden akar mercan yaş.
3. Sana Resulullah kendisi pervane,
4. Bir mührün Ay olsa, birisi Güneş.

5. Tanları attırdın eşine bakıp,
6. Şanı şan getirdi, hasreti eda…
7. Peygamber zevcesi olmak şeref,
8. İnsana yoldaşlık ağırdır, ama.

9. Âişe, Âişe, sonsuz sebat bul,
10. Sana dikkatle bakarız hepimiz.
11. Rüzgâr almasın, üstlerini ört,
12. İstirahat eder Peygamber’imiz.

HAZRATI ODAM (227)

1. *Joylari osmonda bo‘lsa ham magar*

2. *Hazrati Odamga qiyindir g‘oyat.*
3. *O‘ng yonga boqqanda ruhlari yayrar,*
4. *Chap yonga boqqanda o‘rtanar faqat.*

5. *Bir tomon jannatning fusunkor bog‘i,*
6. *U - rohat go‘shasi, yam-yashil makon.*
7. *Bir tomon do‘zaxdir, yo‘qdir adog‘i.*
8. *U yerda abadiy azob va fig‘on.*

9. *Quvnar, o‘ngga boqib Hazrati Odam,*
10. *Chap yonga boqqanda oshar nolasi.*
11. *Bir nasli jannatga noil bo‘lsa ham,*
12. *Do‘zaxda yonmoqda bitta bolasi.*

HAZRETİ ÂDEM (227)

1. Yerleri asumanda olsa da eğer
2. Hazreti Âdem’e zordur gayet.
3. Sağ yana baktığında ruhları hoşlanır,
4. Sol yana baktığında acı çeker yalnız.

5. Bir taraf cennetin füsunkâr bağı,
6. O, rahat yeri, yemyeşil mekân.
7. Bir taraf cehennemdir, yoktur sonu.
8. Orada ebedî azap ve figan.

9. Sevinir, sağa bakıp Hazreti Âdem,
10. Sol yana baktığında artar nalesi.
11. Bir nesli cennete nail olsa da,
12. Cehennemde yanmakta bir evladı.

BILOL HABASH (228)

1. *Payg‘ambar ummati - qora tan Bilol*

2. *Rasulga hamisha kamarbastadir.*

3. *Sidq ila vafoga bo‘ldi u timsol,*

4. *Qaytmadi rost yo‘ldan, sog‘ yo xastadir.*

5. *Bilol aytar edi azonni yakkash,*

6. *Sazovor bo‘lmishdi ishonchga andoq.*

7. *Rasuldan so‘rashdi: - Bu qora habash*

8. *Jannat chehrasiga yarashgay qandoq?*

9. *Javob shunday bo‘ldi: - So‘ylangiz bilib,*

10. *Uning oq dilida iymon ohangi.*

11. *Jannat hurlariga qora xol qilib,*

12. *Bo‘lib berilgandir Bilolning rangi.*

BİLÂL-İ HABEŞÎ (228)

1. Peygamber ümmeti, kara tenli Bilâl

2. Resul’e daima kemer-bestedir.

3. Sıdkla vefaya oldu o timsal,

4. Dönmedi doğru yoldan, sağ yahut hastadır.

5. Bilâl okurdu ezanı hep,

6. Layık olmuştu inanca öyle.

7. Resul’e sordular: - Bu kara Habeş

8. Cennet çehresine nasıl yakışacak?

9. Cevap şöyle oldu: - Söyleyiniz anlayıp,

10. Onun ak gönlündeki iman ahengi.

11. Cennet hurilerine kara ben kılınıp,

12. Verilmiştir Bilâl’in rengi.

INSON (229)

1. *Oldiga kelganni qaytarmay yemoq*

2. *Aslida, aqli yo‘q hayvonning ishi.*

3. *Og‘izga kelganni qaytarmay demoq*

4. *Noqisu befahm, nodonning ishi.*

5. *Tavajjuh ayladi Tangri taolo,*

6. *Muqaddas sanaldi Inson degan nom.*

7. *Insonni e’tirof etmagan asno*

8. *Iblis ham quvildi Arshdan batamom.*

9. *Ko‘zingning o‘ngida o‘sgandek ekan,*

10.*Rabbim ham ogohdir har zum, har ishdan.*

11.*Ro‘zayu parhezda muddat bor, lekin*

12.*Hamisha hazar qil harom-harishdan.*

İNSAN (229)

1. Önüne geleni çevirmeden yemek

2. Aslında aklı olmayan hayvanların işi.

3. Ağza geleni düşünmeden demek

4. Noksan ve anlayışsız, nadanın işi.

5. Teveccüh etti Allah Teâlâ,

6. Mukaddes sayıldı İnsan denen nam.

7. İnsanı itiraf etmediği esnada

8. İblis de kovuldu Arştan tamamen.

9. Gözünün önünde büyümüş gibiymiş,

10. Rabb’im de agâhtır her andan, her işten.

11. Oruçta ve perhizde müddet var, lakin

12. Daima uzak dur haramdan, yasaktan.

OTA (230)

1. *Otayu onaning qazosi meros,*

2. *Oldin kelgan odam oldinroq ketsin.*

3. *Farzand farzand bo‘lsin farzandlarga xos,*

4. *Avvali tiriklar qadriga yetsin.*

5. *Bir kun so‘radilar Rasulullohdan,*

6. *- Taqdir hukmi ekan, bo‘lgani bo‘ldi.*

7. *Zarra foyda yo‘qdir garchi oh-vohdan,*

8. *Ayting, men netayin, padarim o‘ldi.*

9. *Rasulullоh dedi: - O‘lim muqarrar,*

10. *Endi irodangni bardosh tomon bur.*

11. *Otangning tinchini o‘ylasang agar,*

12. *Uning do‘stlaridan xabar olib tur.*

BABA (230)

1. Baba ve ananın vefatı miras,

2. Evvel gelen insan daha evvel gitsin.

3. Evlat evlat olsun evlatlara has,

4. Evveli canlıların kadrine yetsin.

5. Bir gün sordular Resulullah’a,

6. - Kader hükmüymüş, olan oldu.

7. Zerre fayda yoktur gerçi ahtan, vahtan,

8. Söyleyin, ben ne yapayım, pederim öldü.

9. Resulullah dedi: - Ölüm mükerrer,

10. Şimdi iradeni sabır tarafına çevir.

11. Babanın huzurunu düşünürsen eğer,

12. Onun dostlarından haber al.

ONA (231)

1. *Kimdir savol berdi: - Aytgil, Muhammad,*

2. *Yolg‘iz sen Rasulsan butkul olamga.*
3. *Kimga ko‘p yaxshilik aylay, o‘zing ayt,*
4. *Ota-onamgami yoxud bolamga?*

5. *Rasul javob qildi: - Tingla, birodar,*
6. *Gapimni bir bora quloqqa ilgil.*
7. *Imkon topa olsang dunyoda agar,*
8. *Eng avval onangga yaxshilik qilgil.*

9. *Bu hikmat sharhini o‘yladim uzoq -*
10. *Rostdan ona erur qiblai olam.*
11. *Garchi barchamiz ham padarmiz, biroq*
12. *Onadan tug‘ilgan payg‘ambarlar ham.*

ANA (231)

1. Biri soru sordu: - Söyle, Muhammed,
2. Yalnız sen Resul’sün bütün âleme.
3. Kime çok iyilik edeyim, kendin söyle,
4. Babama, anama yahut evladıma?

5. Resul cevap verdi: - Dinle, birader,
6. Sözüme bir kez kulak ver.
7. İmkân bulabilirsen dünyada eğer,
8. En evvel annene iyilik et.

9. Bu hikmetin şerhini düşündüm uzun,
10. Gerçekten anadır kıble-i âlem.
11. Gerçi hepimiz pederiz, fakat
12. Anadan doğmuş peygamberler de.

FARZAND (232)

1. *Bir kuni ranjitdi otani farzand,*

2. *Ota o‘z uyidan bosh olib ketdi.*
3. *Lekin Alloh mehri bo‘lib sarbaland,*
4. *Ota Makkatulloh vasliga yetdi.*

5. *Ota fig‘on chekdi Ka’ba qoshida,*
6. *Go‘yo unut bo‘lgay alamlar bari.*
7. *Najot charx ursa ham garchand boshida,*
8. *Sira ketolmadi bir gapdan nari.*

9. *Ka’bani sig‘inar ekan keksa chol*
10.*Armonin oshkora aytdi olamga.*
11.*Dedi: - Ibodatim bo‘lsa ham uvol,*
12.*Faqat saodat ber o‘sha bolamga.*

EVLAT (232)

1. Bir gün incitti babayı evlat,
2. Baba kendi evinden başını alıp gitti.
3. Lakin Allah sevgisi olmuş baş tacı,
4. Baba Mekketullah vasline yetti.

5. Baba figan çekti Kâbe huzurunda,
6. Sanki unutacak elemlerinin hepsini.
7. Necat çarkı vursa da gerçi başında,
8. Asla gidemedi bir sözden öteye.

9. Kâbe’ye sığınırmış yaşlı, ihtiyar,
10. Ukdeyi aşikâr söyledi âleme.
11. Dedi: - İbadetim olsa da kusur,
12. Yalnız saadet ver işte o evladıma.

DO‘ZAXIYLAR (233)

1. *Yovlashdi bir kuni ikki musulmon,*

2. *Oradan adolat tamoman ko‘chdi,*

3. *Ular olishdilar uzoq, beomon,*

4. *Oqibat birining kallasi uchdi.*

5. *Kimdir payg‘ambardan so‘radi kelib:*

6. *- Ayo, Rasulullo, aylagil javob.*

7. *Hoynahoy, raqibin qonga g‘arq qilib,*

8. *Ul kas jahannamda tortgaydir azob?*

9. *Rasulullo dedi: - U ham va bu ham*

10. *Mahkum bo‘lg‘uvsidir do‘zax to‘riga.*

11. *Ikkov ham maydonga tushganlari dam*

12. *O‘lim tilaganlar biri biriga.*

CEHENNEMÎLER (233)

1. Düşman oldu bir gün iki Müslüman,

2. Aradan adalet tamamen göçtü,

3. Onlar savaştılar uzun, amansız,

4. Akıbet birinin kellesi uçtu.

5. Biri Peygamber’e sordu gelip:

6. - Ya Resulullah, ver cevap.

7. Herhâlde rakibini kana gark edip,

8. O kişi cehennemde çekecektir azap?

9. Resulullah dedi: - O da ve bu da

10. Mahkum olacaktır cehennem dibine.

11. İkisi de meydana düştükleri an

12. Ölüm dileyecekler birbirine.

BAHS (234)

1. *Bir kun bahsga tushdi Do‘zax va Jannat,*

2. *Tortisha boshladi har ikki tomon.*

3. *Biri azobini uqtirsa faqat,*

4. *Biri rohatini maqtardi chunon.*

5. *Do‘zax gerdayardi: - Jamiki yuzsiz,*

6. *Fosiq bandalarni yig‘ib olgayman.*

7. *Jannat kerilardi: Men esa, so‘zsiz,*

8. *Yaxshilarni to‘plab, dovrug‘ solgayman.*

9. *Arshdan nido keldi lekin o‘shal dam:*

10.*- Bahsni to‘xtatingiz, tinglangiz so‘zim.*

11.*Shuni unutmangki, ikkingizga ham*

12.*Loyiq bandalarni jo‘natgum o‘zim.*

BAHİS (234)

1. Bir gün bahse girdi Cehennem ve Cennet,

2. Tartışmaya başladı her iki taraf.

3. Biri azabını anlatsa yalnız,

4. Biri rahatını methederdi gayet.

5. Cehennem övünürdü: - Bütün yüzsüz,

6. Fasık bendeleri toplayıp alacağım.

7. Cennet gerilirdi: bense, sözsüz,

8. İyileri toplayıp, nam salacağım.

9. Arştan nida geldi lakin işte o an:

10.- Bahsi durdurunuz, dinleyiniz sözümü.

11.Şunu unutmayın ki ikinize de

12. Layık bendeleri göndereceğim kendim.

SAVOB (235)

1. *Dasti qisqalarni kamsitma zinhor,*

2. *Savobning kattayu kichigi bo‘lmas.*

3. *Kimningdir davlati behadu bisyor,*

4. *Va lekin baxildir, tolei kulmas.*

5. *Och qolgan go‘dakka saxovatli zot,*

6. *Yarimta xurmoni dildan ilindi.*

7. *Bilgilki, bu himmat shu zum, shu zahot,*

8. *Bus-butun savob deb qabul qilindi.*

9. *Demishlar, savob ish ofatni to‘sib,*

10. *Ezgulik yo‘liga shaylangusidir.*

11. *Eng kichik himmat ham toychoqdek o‘sib,*

12. *Tulpordek savobga aylangusidir.*

SEVAP (235)

1. Eli kısaları hor görme zinhar,

2. Sevabın büyüğü ve küçüğü olmaz.

3. Kiminin devleti hadsiz ve bisyâr,

4. Velakin cimridir, talihi gülmez.

5. Aç kalan bebeğe sahavetli zat,

6. Yarım hurması gönlünden koptu.

7. Anla, bu himmet o an, o lahza,

8. Büsbütün sevap diye kabul edildi.

9. Demişler, sevap iş afeti önleyip,

10. İyilik yoluna hazırlanacaktır.

11. En küçük himmet de tay gibi büyüyüp,

12. Tulpar gibi sevaba dönüşecektir.

DUO (236)

1. *Rasul bir ummatni alqab doimo,*

2. *Sha’niga duolar aytguvchi erdi.*

3. *Qo‘ling baland bo‘lsin desalar, illo,*

4. *Qo‘ling past tushmasin sira ham, derdi.*

5. *Rasulga u xitob qildi bir safar:*

6. *- Garchi, men Tangrining otgan toshiman,*

7. *Siz menga doimo tilaysiz zafar,*

8. *Go‘yo men qandaydir lashkarboshiman.*

9. *Rasulullоh dedi: - Tingla, ey ummat,*

10. *Yongan chirog‘ingga duo pilikdir.*

11. *Qo‘ling baland bo‘lsa, bilki, bu - ne’mat,*

12. *Qo‘ling past tushmog‘i tilanchilikdir.*

DUA (236)

1. Resul bir ümmete iyilik dileyip daima,

2. Şanına dualar edecektir.

3. Elin yüce olsun deseler, illa,

4. Elin aşağı düşmesin asla da, derdi.

5. Resul’e o hitap etti bir sefer:

6. - Gerçi, ben Allah’ın attığı taşıyım,

7. Siz bana daima dilersiniz zafer,

8. Sanki ben bir komutanım.

9. Resulullah dedi: - Dinle, ey ümmet,

10. Yanan çırağına dua fitildir.

11. Elin yüceyse, bil ki, bu nimet,

12. Elin aşağı düşmesi dilenciliktir.

BANDAGA SIG‘INMA (237)

1. *Hech qachon bandaga sig‘inma, banda,*

2. *Zulm qilsa agar, zolimga la’nat.*

3. *Bitta ruh yashaydi har bitta tanda,*

4. *Insonning avliyo bo‘lmog‘i g‘alat.*

5. *Garchi bu dunyoda bordir nodonlik,*

6. *Tafakkur, Aqlning koshonasi bor,*

7. *Qismatdan hech kimsa topmas omonlik,*

8. *Oldinda ajalning ostonasi bor.*

9. *Sehrga nechog‘lik kaloming burma,*

10.Lazizroq so‘z yo‘qdir So‘zidan ortiq.

11.Dunyoda do‘st izlab qancha yugurma,

12.Azizroq do‘st yo‘qdir O‘zidan ortiq.

BENDEYE SIĞINMA (237)

1. Hiçbir zaman bendeye sığınma, bende,

2. Zulmetse eğer, zalime lanet.

3. Bir ruh yağar her bir bedende,

4. İnsanın evliya olması garip.

5. Gerçi bu dünyada vardır nadanlık,

6. Tefekkür, Aklın sarayı var,

7. Kısmetten hiç kimse bulmaz sağlık,

8. Önünde ecelin eşiği var.

9. Sihre ne kadar kelamını döndürme,

10. Daha leziz söz yoktur Sözünden ziyade.

11.Dünyada dost arayıp nice koşma,

12. Daha aziz dost yoktur Özünden ziyade.

XAZINA (238)

1. *Ulug‘ bir alloma o‘tdi olamdan,*

2. *Elu yurt kuzatdi bag‘rini tig‘lab.*
3. *Shogirdlar bukchayib so‘ngsiz alamdan,*
4. *Olimni tuproqqa qo‘ydilar yig‘lab.*

5. *Dedilar: - U edi nodiri davron,*
6. *Tafakkur qasriga bo‘lolgan zina.*
7. *Dedilar: - Bir keldi bundayin Inson,*
8. *Ketdi uning bilan tengsiz xazina.*

9. *Kimdir oxir dedi: - Dunyoda, yohu,*
10.*Behikmat hodisa yo‘q ekan rosti.*
11.*Nechog‘lik shafqatsiz haqiqatdir bu,*
12.*Xazinaning joyi chindan yer osti.*

HAZİNE (238)

1. Ulu bir âlim geçti âlemden,
2. Halk ve yurt gözledi bağrını dağlayıp.
3. Şakirtler eğilip sonsuz elemden,
4. Âlimi toprağa koydular ağlayıp.

5. Dediler: - O’ydu nadir-i devran,
6. Tefekkür kalesine olamayacak merdiven.
7. Dediler: - Bir geldi böyle İnsan,
8. Gitti onunla eşsiz hazine.

9. Biri nihayet dedi: - Dünyada, yahu,
10. Hikmetsiz hadise yokmuş doğrusu.
11. Ne kadar şefkatsiz hakikattir bu,
12. Hazineni yeri gerçekten yer altı.

MARHUMLAR SHA’NI (239)

1. *Marhumlar sha’niga yomon so‘z demoq*

2. *Makruhlik sanalmish azaldan-azal.*

3. *Ey, Inson, tanangga bir zum o‘ylab boq,*

4. *Kimlarni zabtiga olmabdi ajal.*

5. *Toshqin sel vahmini soy ko‘targaydir,*

6. *Hayotning zarbasin ko‘targay hayot.*

7. *Misli toy tepkisin toy ko‘targaydir,*

8. *Otning tepkisini ko‘targaydir ot.*

9. *Rasulullоh demish: - Kim Haqqa yo‘ldosh,*

10.*Tiriklik qadrini u aziz etdi.*

11.*Marhumning ortidan ota ko‘rmang tosh,*

12.*Marhum ketadigan joyiga ketdi.*

MERHUMLAR ŞANI (239)

1. Merhumlar şanına kötü söz demek

2. Mekruh sayılmış ezelden beri.

3. Ey, İnsan, bedenine bir an düşünüp bak,

4. Kimleri zaptına almamış ecel.

5. Taşkın selin vehmini dere taşıyacaktır,

6. Yaşamın sillesini taşıyacak hayat.

7. Tay misali çiftesini tay kaldıracaktır,

8. At çiftesini kaldıracaktır at.

9. Resulullah demiş: - Kim Hakk’a yoldaş,

10. Hayatın kadrini o aziz etti.

11. Merhumun ardından baba görmeyin taş,

12. Merhum gideceği yere gitti.

QIYOMAT (240)

1. *Bir kun Muhammadga berdilar savol;*

2. *- Ayo, Rasulullоh, aytib ber buni.*
3. *Qachon foniy dunyo topgaydir zavol,*
4. *Qachon sodir bo‘lgay Qiyomat kuni?*

5. *Garchand Biru Borga somedir Inson,*
6. *Iblis qutqusi ham har qayda bordir.*
7. *Kimningdir dilida sobitdir iymon,*
8. *Kimgadir shaytoniy vasvasa yordir.*

9. *Rasulullоh dedi: - Umid qil, banda,*
10.*Ko‘chmasin dunyodan insof, diyonat.*
11.*Nopok odamlarga kuning qolganda,*
12.*Bilgilki, o‘sha kun kelgay Qiyomat!*

KIYAMET (240)

1. Bir gün Muhammed’e sordular soru:
2. - Ya, Resulullah, söyleyiver bunu.
3. Ne zaman fani dünya bulacaktır zeval,
4. Ne zaman sâdır olacak Kıyamet günü?

5. Gerçi yalnız Bir’i işitendir İnsan,
6. İblis’in fitnecisi de her yerde vardır.
7. Kiminin gönlünde sabittir iman,
8. Kimine şeytanın vesvesesi yârdır.

9. Resulullah dedi: - Ümit et, bende,
10.Göçmesin dünyadan insaf, vicdan.
11.Kötü insanlara günün kaldığında,
12. Bil ki, işte o gün gelecek Kıyamet!

HIDOYAT YO‘LI (241)

1. *U senga ko‘rsatdi hidoyat yo‘lin,*

2. *Yurgil yo yurmassan, o‘zing bil, Inson.*
3. *Balki sen tutgaysan Iblisning qo‘lin,*
4. *Yaratgan Xoliqqa barchasi ayon.*

5. *Pishqirgan daryoning sohilida gar*
6. *Tashnayu zor qolsang, aybdorsan o‘zing.*
7. *Boshingga nogahon balolar yog‘ar*
8. *Labingdan uchgan chog‘ jaholat so‘zing.*

9. *G‘oyibdan baxt kutib o‘ltirmoq nechun,*
10. *Dastingga kor berdi qalbingdagi yor.*
11. *Zaminda ko‘rgazgan qilmishing uchun*
12. *Osmonni malomat qilmog‘ing bekor.*

HİDAYET YOLU (241)

1. O sana gösterdi hidayet yolunu,
2. Yürü yahut yürümezsin, kendin bil, İnsan.
3. Belki sen tutacaksın İblis’in elini,
4. Yaratan Halik’a hepsi ayan.

5. Fışkıran deryanın sahilinde eğer
6. Susuz ve muhtaç kalırsan, suçlusun kendin.
7. Başına birden belalar yağar
8. Dudağından uçtuğu an cehalet sözün.

9. Gaipten baht bekleyip öldürmek niçin,
10. Eline iş verdi kalbindeki yâr.
11. Zeminde gösterip yaptığın için
12. Asumana melamet yapman boşuna.

SHAFQAT (242)

1. *Qabriston yonidan o‘targan Rasul,*

2. *Ketganlar yodiga fotiha tortdi.*

3. *Yengillik sezgaydir bunday chog‘ ko‘ngil,*

4. *Biroq payg‘ambarning g‘ussasi ortdi.*

5. *Garchi boqiy emas dunyoda inson,*

6. *Garchi u aylangay bir kun tuproqqa.*

7. *Rasul anglasa ham bu holni obdan,*

8. *Oddiy banda yanglig‘ tushdi titroqqa.*

9. *Sahobalar dedi: - Qandayin zug‘um,*

10. *Qanday g‘am bag‘ringiz tig‘lamoqdadir?*

11. *Rasul javob qildi: - Bir osiy shu zum*

12. *Qabrida qon qaqshab yig‘lamoqdadir.*

ŞEFKAT (242)

1. Kabristanın yanından geçermiş Resul,

2. Gidenlerin hatırına Fatiha okudu.

3. Hafiflik sezecektir böyle memnun gönül,

4. Fakat Peygamber’in sıkıntısı arttı.

5. Gerçi baki değil dünyada insan,

6. Gerçi o dönüşecek bir gün toprağa.

7. Resul bilse de bu hâli iyice,

8. Sıradan bende gibi düştü titremeye.

9. Sahabeler dedi: - Nasıl bir gazap,

10. Nasıl bir gam bağrınızı dağlamaktadır?

11. Resul cevap verdi: - Bir asi o an

12. Kabrinde hüngür hüngür ağlamaktadır.

JON ACHCHIG‘I (243)

1. *Buloqdan suv ichdi hazrati Iso,*

2. *G‘oyat totli edi bu obi hayot.*
3. *Suvni bir ko‘zaga quyganda ammo*
4. *Zaqqumga aylandi u o‘sha zahot.*

5. *Hayratga tushgaydir payg‘ambarlar ham,*
6. *Bu qanday sir erur? Ayon qil, yo Rabb!*
7. *Masiho nafasi yetishgani dam*
8. *Ko‘zadan bir ovoz chiqdi-ku titrab:*

9. *- Ayo, shirin suving bo‘ldimi taxir,*
10.*Dema, bu tuz ta’mi, qon achchig‘idir.*
11.*Men ham Inson edim. Ko‘zaman hozir,*
12.*Suvni achchiq qilgan - jon achchig‘idir!*

CAN ACISI (243)

1. Bulaktan su içti Hazreti İsa,
2. Gayet tatlıydı bu ab-ı hayat.
3. Suyu bir testiye döktüğünde ama
4. Zıkkıma döndü o işte o an.

5. Hayrete düşecektir Peygamberler de,
6. Bu nasıl sırdır? Ayan et, Ya Rabb!
7. Hz. İsa’nın nefesi eriştiği an
8. Testiden bir ses çıktı titreyip:

9. - Ya, şirin suyun oldu mu acı,
10. Deme, bu tuz tadı, kan acısıdır.
11. Ben de İnsandım. Testiyim şimdi,
12. Suyu acı yapan, can acısıdır!

SHAYTON (244)

1. *Shaytonning suratin chizmoqlik dushvor,*

2. *Uning asl yuzin ko‘rmoqlik mushkul.*

3. *U gohi xojadir, gohida dastyor,*

4. *U goho paridur - sochlari sumbul.*

5. *Gohi u do‘stman deb so‘z boshlar sekin,*

6. *Lutfi g‘oyat shirin, totli zaboni.*

7. *Zahmat yetkazolmas Shayton va lekin*

8. *Kimning butun bo‘lsa agar iymoni.*

9. *Tushingda Rasulni ko‘rdingmi - quvon,*

10.*Demak, ibodating yerda qolmaydi.*

11.*Rasulullоh demish: - Shayton hech qachon*

12.*Mening qiyofamga kira olmaydi.*

ŞEYTAN (244)

1. Şeytanın resmini çizmek zor,

2. Onun asıl yüzünü görmek müşkül.

3. O gâh hocadır, gâh yardımcı,

4. O gâh peridir, saçları sümbül.

5. Bazen o dostum diye söze başlar yavaşça,

6. Lütfu gayet şirin, tatlı zebanı.

7. Zahmet veremez Şeytan velakin

8. Kimin bütünse eğer imanı.

9. Düşünde Resul’ü gördün mü, sevin,

10. Demek, ibadetin yerde kalmaz.

11. Resulullah demiş: - Şeytan hiçbir zaman

12. Benim suretime giremez.

JINLAR (245)

1. *Jinlar bazm qilardi ovloqda, tunda,*

2. *Gulxan atrofida xurram, shodumon.*

3. *Bir botir suvoriy o‘tarkan, shunda*

4. *Bazmga nazari tushdi nogahon.*

5. *Botirni qopladi lahzalik titroq,*

6. *So‘ng gulxan ustiga ot soldi birdan,*

7. *Jinlar to‘zg‘ib ketdi, bittasi biroq,*

8. *So‘z qotdi, hayiqmay sira botirdan:*

9. *- Bundoq zug‘um qilma bizga, ey botir,*

10.*Kimsaga bilmasdan bermagil ozor.*

11.*Jinlar ichida ham kofiri bordir,*

12.*Jinlar ichida ham musulmoni bor.*

CİNLER (245)

1. Cinler bezm ederdi avlakta, geceleyin,

2. Ateş etrafında mutlu, şaduman.

3. Bir bahadır süvari geçermiş, işte orada

4. Bezm dikkatini çekmiş nagehan.

5. Bahadırı kapladı anlık titreme,

6. Sonra ateş üstüne atını sürdü birden,

7. Cinler dağılıp gitti, birisi fakat,

8. Söz açtı, korkmadan asla bahadırdan:

9. - Böyle gazap etme bize, ey bahadır,

10. Kimseye bilmeden verme azar.

11. Cinlerin içinde de kâfiri vardır,

12. Cinlerin içinde de Müslümanı vardır.

TAVBA (246)

1. *Sen gunoh qildingmi, bechora banda,*

2. *Sen shayton makriga uchdingmi nogoh.*
3. *Tinching qolmadimi ruh ila tanda,*
4. *Endi nadomatlar bo‘ldimi hamroh.*

5. *Endi chora izlab, axtarib najot*
6. *Kezursan, dastingda na imkon, na erk.*
7. *Gunohkor kimsaning qoshida nahot*
8. *Qopqalar yopilgan, ostonalar berk.*

9. *Yo‘q, hali olamda mavjuddir shafqat,*
10. *Yo‘q, hali tebranar mehr beshigi.*
11. *Tavba qil, tavba qil, tavba qil faqat,*
12. *Senga ochiq faqat tavba eshigi.*

TÖVBE (246)

1. Sen günah işledin mi, biçare bende,
2. Sen şeytanın hilesine kandın mı birden.
3. Huzurun kalmadı mı ruhla bedende,
4. Şimdi nedametler oldu mu yoldaş.

5. Şimdi çare arayıp, araştırıp necat
6. Gezersin, elinde ne imkân, ne erk.
7. Günahkâr kimsenin önünde
8. Kapılar kapatılmış, dergâhlar kilitli.

9. Yok, hâlâ âlemde mevcuttur şefkat,
10. Yok, hâlâ sallanır merhamet beşiği.
11. Tövbe et, tövbe et, tövbe et yalnız,
12. Sana açık sadece tövbe kapısı.

SHOH VA GADO (247)

1. *Nogoh paydo bo‘ldi davrada gado,*

2. *Davra ahli esa shohlar edilar.*

3. *Ular taajjubda qolib shu asno,*

4. *Gadoga boqishib: - Kimsan? - dedilar.*

5. *Bir kun paydo bo'ldi davrada podshoh,*

6. *Davra ahli esa gadolar edi.*

7. *Ular ham taajjub ichra banogoh: -*

8. *Podshoga boqishib: - Sen kimsan? - dedi.*

9. *G'aybdan sado keldi: - Tingla ey, banda,*

10.*Barchangga yaratgum yagona makon.*

11.*Bir-biring kamsitib qilma sharmanda,*

12.*Siylangan joyida azizdir inson.*

ŞAH VE GEDA (247)

1. Birden peyda oldu mecliste geda,

2. Meclis ehliyse şahlardılar.

3. Onlar taaccüpte kalıp o esnada,

4. Gedaya bakışıp: - Kimsin? dediler.

5. Bir gün peyda oldu mecliste padişah,

6. Meclis ehliyse gedalardı.

7. Onlar da taaccüp içinde birden,

8. Padişaha bakışıp: - Sen kimsin? dedi.

9. Gaipten ses geldi: - Dinle ey, bende,

10. Hepsine yaratacağım yegâne mekân.

11. Birbirini küçümseyip etme ayıp,

12.İyi davranıldığı yerde azizdir insan.

XOJA VA SHOIR (248)

1. *Qabila Xojasi Shoirga bir kun*

2. *Oq tuya mingizdi, ko‘rgizib hurmat.*

3. *Xoja o‘z ishidan bo‘ldi ko‘p mamnun,*

4. *Bamisli Rasulga yo‘liqqan ummat.*

5. *Xojadan so‘rashdi: - Aytingiz, janob,*

6. *Ulug‘ bu ehsondan nedur muddao?*

7. *Shoir-ku, bir darvish - faqir va xarob,*

8. *She’riga shu qadar maftunmisiz yo?*

9. *Xoja javob qildi: - Bo‘lmangiz hayron,*

10.*Kim ham ayri tushar axir elidan.*

11.*Shoirning she’ri-ku, yoqar begumon,*

12.*Men ko‘proq qo‘rqaman uning tilidan.*

HOCA VE ŞAİR (248)

1. Kabile Hocası Şaire bir gün

2. Ak deveye bindirdi, gösterip hürmet.

3. Hoca kendi işinden oldu çok memnun,

4. Sanki Resul’e rastlamış ümmet.

5. Hocaya sordular: - Söyleyiniz, efendi,

6. Ulu bu ihsandan nedir istek?

7. Şair, bir derviş, fakir ve harap,

8. Şiirine bu kadar meftun musunuz ya?

9. Hoca cevap verdi: - Etmeyiniz hayret,

10. Kimi de ayrı düşer nihayet halkından.

11.Şairin şiirini beğenir şüphesiz,

12. Ben daha çok korkarım onun dilinden.

PAHLAVON (249)

1. *Bir suhbat chog‘ida Hazrat payg‘ambar*

2. *O‘rtaga tashladi savol nogahon.*

3. *Aytdilar: - Zarurat tug‘ilsa magar*

4. *Kimni atardingiz asl pahlavon?*

5. *Sahobalar dedi: - Har kim doimo*

6. *Chekiga tushganni kelgandir olib.*

7. *Kurash maydoniga chiqqanda ammo,*

8. *Pahlavon sanalgay kim bo‘lsa g‘olib.*

9. *Rasulullоh dedi: - Ko‘hnadir jahon,*

10.*Turfa xil kuch-qudrat bordir odamda.*

11.*Lekin o‘z jahlini yengolgan inson*

12.*Haqiqiy pahlavon erur olamda.*

PEHLİVAN (249)

1. Bir sohbet anında Hazreti Peygamber

2. Ortaya attı sordu birden.

3. Dediler: - Zaruret doğsa eğer

4. Kimi atardınız asıl pehlivan?

5. Sahabeler dedi: - Herkes daima

6. Payına düşeni almıştır.

7. Savaş meydanında çıktığında ama,

8. Pehlivan sayılacak kim olsa galip.

9. Resulullah dedi: - Köhnedir cihan,

10. Acayip türde güç, kudret vardır insanda.

11. Lakin kendi öfkesini yenebilen insan

12. Hakiki pehlivandır âlemde.

RIOYA (250)

1. *Agar sen qiblaga burmasang yuzni,*

2. *Besh mahal sajdayu namozing bekor.*

3. *Jannatga hech qachon tikmagil ko‘zni,*

4. *Agar bir mo‘minga yetkazsang ozor.*

5. *Hijrating shunchaki sayohat erur*

6. *Unutar bo‘lsang gar zarra iymonni.*

7. *Makkaga yetti qat borgancha bo‘lur*

8. *Boshini silasang o‘ksik insonni.*

9. *Allohning nomiga qasaming abas,*

10.*Dilingda bor esa hasad ham riyo.*

11.*Nuqsingni behuda yashirmagil, bas.*

12.*Baridan voqifdir Tangri taolo.*

RİAYET (250)

1. Eğer sen kıbleye dönmezsen yüzünü,

2. Beş vakit secde ve namazın boş.

3. Cennete hiçbir zaman dikme gözünü,

4. Eğer bir mümine verirsen azar.

5. Hicretin böyle seyahattir

6. Eğer unutursan zerre imanı.

7. Mekke’ye yedi kez varmış gibi olur

8. Başını okşarsan öksüz insanın.

9. Allah’ın adına kasemin abes,

10.Gönlünde varsa haset ve riya.

11. Noksanını beyhude gizleme, yeter.

12. Hepsine vâkıftır Allah Teâlâ.

EZGULIK (251)

1. *Bandani xillamoq nokasning ishi,*

2. *Atoyi Haq erur tus bilan zabon.*
3. *Insonni tanitgay faqat qilmishi,*
4. *Nasoron bo‘lsin u va yo musulmon.*

5. *Bir burda non so‘rab yig‘lasa go‘dak,*
6. *Diydangga kelmasa agar qatra yosh.*
7. *Masjidu cherkoving endi ne kerak,*
8. *Yaxshisi, yo‘qlikka olib ketgil bosh.*

9. *Axir Rasulullоh demish-ku ul dam:*
10. *- Hamisha saxovat yo‘lidan yurgil.*
11. *Mayizday qop-qora boshli habash ham*
12. *Yaxshi ish qilganda yonida turgil!*

İYİLİK (251)

1. Bendeyi ayırmak alçağın işi,
2. Hediye-yi Hak’tır suretle zeban.
3. İnsanı tanıtacak yalnız yaptığı,
4. Hristiyan olsun o yahut Müslüman.

5. Bir parça ekmek isteyip ağlasa bebek,
6. Didene gelmezse eğer katre yaş.
7. Mescidin ve kilisen şimdi ne gerek,
8. Doğrusu, rastlamaya alıp git baş.

9. Sonunda Resulullah demiş o an:
10. - Daima sahavet yolundan yürü.
11. Üzüm gibi kapkara başlı Habeş de
12. İyi iş yaptığında yanında dur!

KAMOLOT (252)

1. *G‘oyat g‘arib edi Rasul hujrasi,*

2. *Qamish uy edi u, oddiy va faqir.*

3. *Ummatlar so‘rashdi: - Gapning sirasi,*

4. *Sizga yarashmaydi bu kulba, axir.*

5. *Ular tag‘in dedi: - Siz-ku payg‘ambar,*

6. *Tomingiz ne uchun bu qadar pastdir?*

7. *Rasul javob qildi: - Tinglangiz, magar*

8. *Balandni istagan balandparastdir.*

9. *Siz salom berdingiz - olgayman alik,*

10. *Allohning o‘zidir yuksak begumon.*

11. *Bandaga joizdir faqat kamtarlik,*

12. *Yo‘l pastdan boshlanar kamolot tomon.*

KEMALAT (252)

1. Gayet garipti Resul hücresi,

2. Kamış evdi o, sıradan ve fakir.

3. Ümmetler sordular: - Söz arası,

4. Size yakışmaz bu kulübe, nihayet.

5. Onlar yine dedi: - Siz Peygamber,

6. Damınız niçin bu kadar alçaktır?

7. Resul cevap verdi: - Dinleyiniz, eğer

8. Yükseği isteyen yüksek düşkünüdür.

9. Siz selam verdiniz, alacağım selam,

10. Allah’ın kendisidir yüce şüphesiz.

11. Bendeye caizdir alçakgönüllülük,

12. Yol aşağıdan başlar kemalata doğru.

HASAD (253)

1. *Dunyoga kelganda Inson mukarram,*

2. *Qavmlar shodlikdan chuvvos soldilar.*

3. *Baxtiyor go‘dakka aylashib karam,*

4. *Albatta momiqqa o‘rab oldilar.*

5. *Oylar, yillar o‘tdi, o‘tdi ko‘p sana,*

6. *Go‘dak ham mo‘ysafid yoshiga yetdi.*

7. *Kuni bitganida ul banda yana*

8. *Bir parcha momiqqa o‘ralib ketdi.*

9. *Hasadgo‘y kimsalar - Iblisga hamkor,*

10.*Momiqqa cho‘zdilar faqat qo‘llarin,*

11.*Egasin kafanga ayladilar zor,*

12.*Do‘zaxga burmoqchi bo‘ldi yo‘llarin.*

HASET (253)

1. Dünyaya geldiğinde İnsan mükerrem,

2. Kavimler şadlıktan yaygara kopardılar.

3. Bahtiyar bebeğe edip kerem,

4. Elbette pamuğa sardılar.

5. Aylar, yıllar geçti, geçti çok sene,

6. Bebek de ihtiyar yaşına erişti.

7. Günü bittiğinde o bende yine

8. Bir parça pamuğa sardı.

9. Hasetçi kimseler, İblis’e ortak,

10. Pamuğa serdiler yalnız ellerini,

11. Sahibini kefene ettiler muhtaç,

12. Cehenneme çevirecek oldu yollarını.

G‘IYBAT (254)

1. *Do‘zax yo‘llaridan o‘tarkan Rasul,*

2. *Atrofga ko‘z tashlar edi damodam.*

3. *Kimdir faryod solib yig‘lardi nuqul,*

4. *Otashda yonardi o‘zga bir odam.*

5. *Yo‘lning kanorida - shundoq sarhadda*

6. *O‘limtik yer edi allaqanday zot.*

7. *Nogoh Rasulullоh boqib hayratda,*

8. *Jabroilga dedi: - Bu kimdir, hayhot!*

9. *Jabroil aytdikim: - Bunda har kimsa,*

10. *Jazosin olgaydir qilmishiga xos.*

11. *O‘limtik yeguvchi bul banda esa,*

12. *Umrin g‘iybat bilan o‘tkazgan, xolos.*

GIYBET (254)

1. Cehennem yollarından geçerken Resul,

2. Etrafa göz atardı dembedem.

3. Biri feryat salıp ağlardı hep,

4. Ateşte yanardı başka bir insan.

5. Yolun kenarında, öyle serhatta

6. Ölü topraktı yabancı bir zat.

7. Birden Resulullah bakıp hayrette,

8. Cebrail’e dedi: - Bu kimdir, heyhat!

9. Cebrail dedi ki: - Burada herkes,

10. Cezasını alacaktır yaptığına has.

11. Ölü yiyen bu bende ise,

12. Ömrünü gıybetle geçirmiş, yalnız.

SHAMOL (255)

1. *Shamollar, shamollar, daydi shamollar,*

2. *Qaydan esganingiz bilolmay dog‘man.*

3. *Siz bilan chulg‘anur ne-ne xayollar,*

4. *Sizning qarshingizda sham yo charog‘man.*

5. *Arab sahrosidan esgan, ey samum,*

6. *Sovurding kimlarning tuyg‘ularini.*

7. *Shahidlar uchun goh bo‘lding tayammum,*

8. *Qumlarga dafn etding orzularini.*

9. *Shamol esganida hazrat Payg‘ambar*

10. *Mudom to‘lg‘anardi dilgir, betoqat.*

11. *Der edi: - Har qanday shamol muqarrar,*

12. *Yo hayot keltirgay yoki falokat.*

RÜZGÂR (255)

1. Rüzgârlar, rüzgârlar, avare rüzgârlar,

2. Nasıl estiğinizi bilemeden hasretim.

3. Sizinle dolar çeşit çeşit hayaller,

4. Sizin karşınızda kandil yahut çırağım.

5. Arap sahrasından esen, ey semum[139],

6. Savurdun bazılarının duygularını.

7. Şehitler için bazen oldun teyemmüm,

8. Kumlara defnettin arzularını.

9. Rüzgâr estiğinde Hazreti Peygamber,

10. Hep huzursuzlanırdı mahzun, takatsiz.

11. Derdi: - Her rüzgâr mükerrer,

12. Ya hayat getirecek yahut felaket.

[139] Kumlu çöllerde ve sahralarda kum fırtınası meydana getiren, kuru sıcak rüzgârdır.

TENGLIK (256)

1. *Boshini har qancha tebratgan bilan*

2. *Oqil bo‘lib qolmas uchragan jonzot.*

3. *Yo‘qsa, hind morbozi o‘ynatgan ilon*

4. *Jami donolarni aylar edi mot.*

5. *Menga tariqatni o‘rgatmang, qori,*

6. *Mening ham jismimga jon bergan o‘sha.*

7. *Menga ham dunyoda Sizning qatori*

8. *Rizq-ro‘z bergan o‘sha, shon bergan o‘sha.*

9. *Yonma-yon bitikmiz taqdir toshida,*

10. *Birimiz yoqa-yu, birimiz yengmiz.*

11. *Rasulullоh demish: - Haqning qoshida*

12. *Taroq tishlaridek barchamiz tengmiz.*

EŞİTLİK (256)

1. Başını her sallayanla

2. Akıllı olmaz rastladığın canlı.

3. Yoksa Hint morbozunun oynattığı yılan

4. Cemi bilgeleri ederdi mat.

5. Bana tarikatı öğretmeyin, hafız,

6. Benim de cismime can vermiş işte o.

7. Bana da dünyada Sizin gibi

8. Rızık, nimet vermiş işte o, şan vermiş işte o.

9. Yan yana yazıyız kader taşında,

10. Birimiz yakayız, birimiz koluz.

11. Resulullah demiş: - Hakk’ın huzurunda

12. Tarak dişleri gibi hepimiz denkiz.

MAVHUM ZOT (257)

1. *Yurtga podshoh bo‘ldi bir kun musulmon,*
2. *Bir osiy o‘sha kun musulmon bo‘ldi.*
3. *Yurtga podshoh bo‘ldi bir kun nasoron,*
4. *Ul bavda o‘sha kun nasoron bo‘ldi.*

5. *Toju taxt dunyoda aylanar payvast,*
6. *Shohlar goh darvishu xudparast bo‘ldi.*
7. *Podshoh bo‘lganida yurtda butparast*
8. *Ul banda o‘sha chog‘ butparast bo‘ldi.*

9. *Shundoq yashadi u foniy hayotni,*
10. *U nayrang ko‘rgazdi hatto Xoliqqa.*
11. *Oxirat kunida, mavhum bul zotni*
12. *O‘tqazib qo‘ydilar uchta qoziqqa.*

MEÇHUL ZAT (257)

1. Yurda padişah oldu bir gün Müslüman,
2. Bir asi işte o gün Müslüman oldu.
3. Yurda padişah oldu bir gün Hristiyan,
4. O bende işte o gün Hristiyan oldu.

5. Tâc u taht dünyada döner müttehit,
6. Padişahlar bazen derviş ve hodbin oldu.
7. Padişah olduğunda yurtta putperest
8. O bende işte o an putperest oldu.

9. Öyle yaşadı o fâni hayatını,
10. O hile yaptı hatta Halik’a.
11. Ahiret gününde, meçhul bu zatı
12. Geçirip bıraktılar üç kazığa.

KIBR (258)

1. *G‘alati zotlar bor yorug‘ olamda,*
2. *Deylik, salomingga alik olmaydi.*
3. *Salomin aliksiz qoldirgan damda,*
4. *Bu holni malomat qilmay qolmaydi.*

5. *Ular bu dunyoning go‘yoki naqshi,*
6. *Jim boqar, savlati qo‘rquvga solar.*
7. *Ularning gapirmay yurgani yaxshi,*
8. *Chunki nodonligi bilinib qolar.*

9. *Ular tashlab yurar yelkaga to‘nni,*
10. *Kibr belgisidir bu ham begumon.*
11. *Demishlar: - Hoy banda, kiyib ol uni,*
12. *Yo‘qsa, tuynugidan kirgaydir Shayton.*

KİBİR (258)

1. Acayip zatlar var aydınlık âlemde,
2. Diyelim, verdiğin selamı almaz.
3. Selamını almadığı zamanda,
4. Bu hâli melamet etmeden kalmaz.

5. Onlar bu dünyanın sanki nakşı,
6. Sessiz bakar, azameti korku salar.
7. Onların konuşmadığı iyi,
8. Çünkü nadanlığı bilinir.

9. Onlar atıp yürür omzuna kaftanı,
10. Kibir alametidir bu da şüphesiz.
11. Demişler: - Hey bende, giy onu,
12. Yoksa tüynüğünden girecektir Şeytan.

SEN KABI (259)

1. *Onangni otangga xatlab berganda,*
2. *Guvoh bo‘lmaganman ishongil, axir.*
3. *Boqursan, yuzingda quv zaharxanda,*
4. *Dunyoni go‘yoki men etdim taxir.*

5. *Bosgan qadamimdan chaqnamas olov,*
6. *Da’vo qilmasman hech abadiyatga.*
7. *Na qo‘rg‘on qurdimu na tutdim yalov,*
8. *Doim yo‘ldosh bo‘ldim oddiy niyatga.*

9. *Boshni ko‘p qotirma sen kimsan debon,*
10.*Kimning xesh, kimningdir andasidirman.*
11.*O‘tkinchi dunyoda men ham bir mehmon,*
12.*Xudoning sen kabi bandasidirman.*

SEN GİBİ (259)

1. Anan babana verildiğinde,
2. Şahit olmamışım inan, nihayet.
3. Bakarsın, yüzünde sinsi zehir hande,
4. Dünyayı sanki ben ettim buruk.

5. Bastığın adımından parlamaz alev,
6. Deva etmem hiç ebediyete.
7. Ne kale gördüm ve ne tuttum bayrak,
8. Daima yoldaş oldum sade niyete.

9. Kafanı çok yorma sen kimsin deyip,
10. Kiminin kardeşi, kiminin abisiyimdir.
11.Fâni dünyada ben de bir misafir,
12.Hüda’nın senin gibi bendesiyimdir.

CHORA (260)

(Variant)

1. *G‘anim bo‘lib qoldi kimdir kimgadir,*
2. *Ular ikkisi ham oqsoqol edi.*
3. *O‘rtaga tushgandi gina negadir,*
4. *Ikkisi ham go‘yo bezavol edi.*

5. *Uzoq vaqt olishdi ikkita yigit,*
6. *Men haqman der edi ikkalasi ham.*
7. *Sira kor qilmasdi nasihat, o‘git,*
8. *Chorasin topolmay hakamlar mulzam.*

9. *Oxir so‘radilar Rasulullohdan: -*
10.- *Ayo, o‘zing aytgil eng odil so‘zni.*
11.*Rasulullоh dedi: - “Qo‘rqing gunohdan,*
12.*Siz ular o‘rnida his qiling o‘zni.”*

ÇARE (260)

(Varyant)

1. Düşman oldu kimi kime,
2. Onlar ikisi de aksakaldı.
3. Kavgaya karışmıştı kin niye,
4. İkisi de sanki ebedîydi.

5. Uzun zaman mücadele etti iki yiğit,
6. Ben haklıyım derdi ikisi de.
7. Asla kâr etmezdi nasihat, öğüt,
8. Çaresini bulamadan hakemler mülzem.

9. Nihayet sordular Resulullah'a:

10.- Ey, kendin söyle en adil sözü.

11. Resulullah dedi: - "Korkun günahtan,

12. Siz onların yerinde hissedin kendinizi."

LAYLI VA MAJNUN (261)

1. *Har kimga hamrohdir hamisha qismat,*

2. *Kimdir boshin egar, kim ko'ksin kergay.*

3. *Rasulullоh demish: - Allohdan faqat*

4. *Kim nima so'rasa, o'shani bergay.*

5. *Oyoq-qo'lin bog'lab Laylini bir kun*

6. *Olib kelishdilar Ka'baga tomon.*

7. *Layli xitob qildi: - Tavba ne uchun,*

8. *Majnunim bo'lmasa tiyradir jahon.*

9. *Ibodat Majnunning navbati edi,*

10.*U ham oshkor etdi ko'ngil maylini.*

11.*Ka'baga bosh urib turarkan, dedi:*

12.*Men sendan so'rayman faqat Laylini.*

LEYLA VE MECNUN (261)

1. Herkese yoldaştır daima kısmet,

2. Kimi başını eğer, kimi göğsünü gerecek.

3. Resulullah demiş: - Allah'tan yalnız

4. Kim ne isterse, işte onu verecek.

5. Ayağını ve elini bağlayıp Leyla'yı bir gün

6. Alıp geldiler Kâbe'ye doğru.

7. Leyla hitap etti: - Tövbe niçin,

8. Mecnun'um olmazsa karanlıktır cihan.

9. İbadet Mecnun'un nöbetiydi,
10.O da aşikâr etti gönül meylini,
11.Kâbe'ye baş eğip giderken, dedi:
12. Ben senden isterim yalnız Leyla'yı.

MUHABBAT (262)

1. *Har mo'min dilida bir orzu faqat,*
2. *Har damda o'yida Mahsharning kuni.*
3. *Alloh gunohlarin qilib mag'firat,*
4. *Zora noil etsa jannatga uni.*

5. *Tunlari meni ham chulg'aydi xayol,*
6. *O'zing yorlaqagin meni ham, yo Rabb.*
7. *Sening vasling garchi eng oliy visol,*
8. *Rahm etgil va lekin holimga qarab.*

9. *Mening ham tilagim ol inobatga,*
10.Qovushtir orzular olami bilan.
11.Rasulullоh demish: Kishi jannatga
12.Kirgaydir sevikli odami bilan.

MUHABBET (262)

1. Her müminin gönlünde bir arzu yalnız,
2. Her demde fikrinde Mahşerin günü.
3. Allah günahlarını edip mağfiret,
4. Belki nail ederse cennete onu.

5. Geceleri beni de sarardı hayal,
6. Kendin yarlıga beni de, Ya Rab.
7. Senin vaslın gerçi en ali visal.
8. Merhamet et velakin hâlime bakıp.

9. Benim de dileğimi al dikkate,
10. Kavuştur arzular âlemiyle.
11. Resulullah demiş: Kişi cennete
12. Girecektir sevdiği insanla.

AZROIL (263)

1. *Badaviy shaklida kelib Azroil*
2. *Muhammadga dedi: - Joningni olgum.*
3. *Va lekin hurmatga ekansan noil,*
4. *Tila tilagingni, do‘st bo‘lib qolgum.*

5. *Muhammad to‘lg‘ondi o‘ngga-yu so‘lga,*
6. *Dedi: - Ishing ekan - ola qol jonni.*
7. *Roziman, iltifot aylab Rasulga,*
8. *Baxsh etib turibsan so‘nggi imkonni.*

9. *Yolg‘iz o‘tinchimni qaytarma minba’d,*
10.*Mayli, so‘ng tepamda ko‘ksingni kergil.*
11.*Ummatim jonini oson ol faqat,*
12.*Uning azobin ham o‘zimga bergil.*

AZRAİL (263)

1. Bedevi şeklinde gelip Azrail
2. Muhammed’e dedi: - Canını alacağım.
3. Velakin hürmete imişsin nail,
4. Dile dileğini, dost olacağım.

5. Muhammed sarsıldı sağa ve sola,
6. Dedi: - İşinmiş, al canı.
7. Razıyım, iltifat edip Resul’e,
8. Bahşetmişsin son imkânı.

9. Bir ricamı reddetme bundan sonra,
10. Tamam, sonra tepemde göğsünü ger.
11.Ümmetimin canını kolay al yalnız,
12. Onun azabını da kendime ver.

HADIS (264)

1. *Bu ulug‘ dargohda mehmonman men ham,*
2. *Mening ham dilimda oshiqlar ohi.*
3. *Hadischi bobolar degandek u dam,*
4. *Tavbamni qabul et, o‘zing, Ilohi.*

5. *Ulg‘aydik va lekin oldda ko‘p gap bor,*
6. *Davra shamollari esib o‘tgaydir.*
7. *Inongum, e’tiqod o‘zi bo‘lib yor,*
8. *Bizning ham qo‘limiz bir kun tutgaydir.*

9. *Ibodat bor edi, u etgay davom,*
10.*Qirq bilan yopmasmiz bu uyning tomin.*
11.*Bizni tinglaganga hamisha salom,*
12.*Yana ko‘rishguncha sog‘ bo‘ling! Omin!*

HADİS (264)

1. Bu ulu dergâhta misafirim ben de,
2. Benim de gönlümde âşıkların ahı.
3. Hadisçi dedelerin dediği gibi o dem,
4. Tövbemi kabul et, kendin, ey Rabb’im.

5. Büyüdük velakin ileride çok söz var,
6. Meclis rüzgârları esip geçecektir.
7. İnancım, itikadın kendisi olup yâr,
8. Bizim de elimiz bir gün tutacaktır.

9. İbadet vardı, o edecek devam,

10.Kırkla kapatmayız bu evin damını.

11. Bizi dinleyene daima selam,

12. Yine görüşünceye dek sağ olun! Amin!

QUL VA QUYOSH (265)

1. *Demasman, zulmatda mudom faryod qil,*

2. *Himmat nuri bilan dilni obod qil.*

3. *Rasulullоh demish: - Oshma haddingdan,*

4. *Quyosh tutilganda qulni ozod qil!*

KUL VE GÜNEŞ (265)

1. Demem, zulmette hep feryat et,

2. Himmet nuruyla gönlü abat et.

3. Resulullah demiş: - Aşma haddini,

4. Güneş tutulduğunda kulu azat et!

DILOZOR (266)

1. *Bunchalar dilozor bo‘lmasang, kimsa,*

2. *Maqoming bandai mo‘min-ku axir?!*

3. *Kimdir jigarini tuproqqa ko‘msa*

4. *Holin so‘ramasang, toshmi bu bag‘ir?*

5. *Tepangda porlaydi oftob charog‘on,*

6. *Sen esa atrofni butkul tun deysan.*

7. *Kimningdir diliga cho‘ksa zimiston,*

8. *Sen uning holini yorug‘ kun deysan.*

9. *Bir mahal duch kelib sendek baloga,*

10.*Payg‘ambar oh chekmish, qalbi to‘la zor.*

11.*Rasulullоh demish: hatto Musoga*

12.*Ummati bunchalik bermagan ozor.*

DİLÂZÂR (266)

1. Bu kadar dilâzâr olmazsın, kimse,
2. Makamın bende-i mümin nihayet?!
3. Kimi ciğerini toprağa gömse
4. Hâlini sormazsın, taş mı bu bağır?

5. Tepende parlar afitap ışıltılı,
6. Sense etrafına büsbütün gece dersin.
7. Kiminin gönlüne çökse karanlık,
8. Sen onun hâline aydınlık gün diyeceksin.

9. Bir an karşılaşıp senin gibi belaya,
10. Peygamber ah çekmiş, kalbi dolu intizar.
11. Resulullah demiş: Hatta Musa'ya
12.Ümmeti bu kadar vermemiş azar.

O'ZBEKISTON DAVLATI (267)

1. *O'zbekiston bayrog'i ko'tarildi chinakam,*
2. *Ushbu kunni, ayting-chi, qay birimiz kutmadik.*
3. *Zarur bo'lgan chog'da goh dor tagida turib ham,*
4. *Qay birimiz tarixning sinovidan o'tmadik.*

5. *Dong'il safarga chiqdi endi hur O'zbekiston,*
6. *Kimgadir oyoqosti, kimga u osmon bo'ldi.*
7. *Shukrkim, o'z-o'zini tanidi keksa jahon,*
8. *Ya'ni o'zbek Davlatin jumlai jahon bildi.*

9. *Ne-ne kamsituvlarni ko'rgan shu boshim bilan,*
10.*Ona xalqim, qoshingda tizza bukib turibman.*
11.*O'zbekcha gapirganda, bir chuqum oshim bilan*
12.*Sadaqai baxting deb borim to'kib turibman.*

13.*Garchi doim ungandir gulchechaklar bog‘imda,*
14.*Temur va Navoiyni eslaymiz takror-takror.*
15.*Men-ku uzoq yasharman, lekin ketar chog‘imda*
16.*Tepamda egilajak o‘z tug‘im - bayrog‘im bor!*

17.*Nasib etmish bu kunlar, taralsin yangroq unlar,*
18.*Do‘stlar bilar yonma-yon qutlaylik bu ayyomni.*
19.*Iloyo, boshimizga kelmasin qaro kunlar,*
20.*O‘zbegim, deb ko‘taring, do‘stlarim, oltin jomni.*

ÖZBEKİSTAN DEVLETİ (267)

1. Özbekistan bayrağı çekildi göndere hakikat,
2. İşte bugünü, söyleyin, hangi birimiz beklemedik.
3. Zaruri olduğu anda bazen dar dibinde durup da,
4. Hangi birimiz tarihin sınavından geçmedik.

5. Uzun sefere çıktı şimdi hür Özbekistan,
6. Kimine ayakaltı, kimine o asuman oldu.
7. Şükür ki, kendi kendini tanıdı yaşlı cihan,
8. Yani Özbek Devleti’ni cümle cihan bildi.

9. Çok küçümseyenleri gören şu başımla,
10. Ana halkım, karşında diz çöküp durmuşum.
11.Özbekçe konuştuğunda, bir lokma aşımla
12. Sadakayı bahtın deyip varımı döküp durmuşum.

13. Gerçi daima yetişmiştir gül çiçekler bağımda,
14. Timur ve Nevâî’yi hatırlarız tekrar tekrar.
15. Ben uzun yaşarım, lakin gideceğim zamanda
16. Tepemde eğilecek kendi tuğum, bayrağım var!

17. Nasip etmiş bugünler, yayılsın yankılanan sesler,

18. Dostlar bilir yan yana bekleyelim bu eyyamı.

19. Ey Rabb'im, başımıza gelmesin kara günler,

20.Özbek'im, deyip kaldırın, dostlarım, altın kadehi. (4 Mart 1992)

MUSOFIR (268)

1. *Burunni sassiq deb kesib bo'lmaydi,*

2. *Siz meni tushuning, Abdullo aka.*

3. *O'zbekman, va lekin darbadar daydi,*

4. *Tasalli berolsa qaniydi Makka.*

5. *O'zbek deb ajratar Afg'onga borsam,*

6. *Menga kelgindi deb qaraydi Arab.*

7. *Tinglovchi kimsa yo'q dardimni yorsam,*

8. *Faqat ezilaman onamga qarab.*

9. *Garchi kamim yo'qdir molu dunyodan,*

10.Oshyoni omonat qushman aslida.

11.Yiroqman yurt degan mehrigiyodan,

12.G'aribman umrimning qaynoq faslida.

13.Qo'lda qurol bilan jang qildim men ham,

14.Afg'on tuprog'ini bosganida yov.

15.Hech qursa bir nafas, hech qursa bir dam,

16.Bosqinchi yo'liga bo'la oldim g'ov.

17.Jangda inilarim bo'ldilar shahid,

18.Yolg'iz onam bilan qoldik ikkovlon.

19.Meni atadilar manfur mujohid

20.Shimol galalari makkor, beomon.

21.Jayhunning ortidan kelgan o'zbegim,

22.*Qurol ko‘tarmishdir o‘rtanib joni.*

23.*Bugun men olamga oshkora degum,*

24.*U ham sho‘rolarning bo‘ldi qurboni.*

25.*Menga qo‘li qon deb boqmang, akajon,*

26.*Ozodlik qadrini men ham bilganman.*

27.*Janglarda qay o‘zbek bergan bo‘lsa jon,*

28.*Uning qatorida men ham o‘lganman.*

MİSAFİR (268)

1. Burunu sası deyip kesmek olmaz,

2. Siz beni düşünün Abdulla Abi.

3. Özbek’im, velakin derbeder, avare,

4. Teselli verebilse nerededir Mekke?

5. Özbek diye ayırır Afgan’a gitsem,

6. Bana yabancı diye bakar Arap.

7. Dinleyen kimse yok sırrımı desem,

8. Yalnız ezilirim anama bakıp.

9. Gerçi eksiğim yoktur mal ve dünyadan,

10.Aşiyana emanet kuşum aslında.

11. Uzağım yurt denen şefkatliden,

12. Garibim ömrümün ateşli faslında.

13. Elde silahla cenk ettim ben de,

14. Afgan toprağına bastığında düşman.

15. Ne bir vakit, ne bir dem,

16. Baskıncı yoluna olabildim engel.

17. Cenkte kardeşlerim oldular şehit,

18. Yalnız anamla kaldık ikimiz de.

19. Bana derler menfur mücahit
20. Kuzey toplulukları sinsi, amansız.

21. Ceyhun'un ardından gelen Özbek'im,
22. Silah kaldırmıştır yanıp canı.
23. Bugün ben âleme aşikâr diyeceğim,
24.O da Sovyetlerin oldu kurbanı.

25. Bana eli kan diyerek bakmayın, abiciğim,
26. Azatlık kadrini ben de anlamışım.
27. Cenklerde hangi Özbek vermiş olsa can,
28. Onun safında ben de öleceğim. (1992)

TURKISTON BOLALARIGA (269)

(Mustaqilligimizning bir yilligi munosabati bilan)

1. *Turkistonning bolalari, maqtovimga quloq tutmang,*
2. *Gina qilsam chidang, ammo gaplarimni hech unutmang.*

3. *Eng avvalo, shajarangiz qaydan chiqqan, bilib oling,*
4. *Siz ham bashar farzandisiz, Haqni bayroq qilib oling.*

5. *Men Temurdan so'zlayinmi, so'zlayinmi Navoiydan,*
6. *Barchasini o'qigansiz, eshitgansiz yo roviydan.*

7. *Tarixingiz shundoq uzoq, jangu jadal desa ham bor,*
8. *Bosqin ham bor, toshqin ham bor, kasbu amal desa ham bor.*

9. *Bobur bo'lib so'radingiz qo'ni-qo'shni dunyolarni,*
10.*Mashrab bo'lib kezdingiz goh qashqir yurmas sahrolarni.*

11.*O‘t ketsin u qora kunga - birovlarga qul bo‘ldingiz,*
12.*Sharqu G‘arbning o‘rtasida oyoqosti yo‘l bo‘ldingiz.*

13.*Biroq iymon nuri doim oqib turgan qoningizda,*
14.*O‘zingiz ham sezmagansiz, bir gavhar bor joningizda.*

15.*Ming-ming shukr, zamon kelib istiqbolga erishdingiz,*
16.*Xarob bo‘lgan xonadonni butlamoqqa kirishdingiz.*

17.*Hurlikniyu saodatni muborakbod etgum, lekin*
18.*Aytib qo‘yay, qulog‘ingiz bitgan ekan sekin-sekin.*

19.*Nazaringiz tushar avval zebi-ziynat dasturxonga,*
20.*Hanuz ta’zim qilmoqdasiz mol-dunyosi bor insonga.*

21.*Bo‘y-bastini ko‘rsatguvchi urfoni zo‘r millat qani,*
22.*Sizning uchun obro‘ - oltin, arzongarov shuhrat - ma’ni.*

23.*Yuragida javhari bor kimsalarni ko‘rmagaysiz,*
24.*Karnayi yo‘q bechoraning to‘yiga yo‘l burmagaysiz.*

25.*Har qadamga xushomadni o‘z o‘rniga qo‘yolsaydim,*
26.*Peshvolarning poylariga haftada qo‘y so‘yolsaydim,*

27.*Bo‘lmas edi mendan ulug‘, mendan aziz biror inson,*
28.*Oh, xalqimni ne ko‘ylarga solding zamon, solding zamon.*

29.*Turkistonning bog‘larida bulbullari bor, holbuki,*
30.*Xor bo‘lsa ham tog‘day baland ko‘ngillari bor, holbuki.*

31.*Birov u yon tortar bo‘lsa, birov bu yon tortayotir,*
32.*Qonsiragan jallodlarning shodliklari ortayotir.*

33.*Bilib bo‘lmas rost gap qayda, bilib bo‘lmas qayda yolg‘on,*
34.*Malomatga yo‘liqadi, elga: “Birlash” degan inson.*

35.*Turkistonning bolalari, Turkistonning bolalari,*
36.*“Puf” deganda to‘zg‘igudek mo‘’jazgina lolalari.*

37.*Chinor bo‘lib ildiz oting, qoya bo‘lib tiklangiz qad,*
38.*Ulug‘-ulug‘ ajdodlarning xavotiri Sizdan behad.*

39.*Soyangizda panoh topsin horib tolgan qondoshingiz,*
40.*Unutmangki, bul chamanda har bir yaproq jondoshingiz.*

41.*To‘qayzori bo‘lmasa gar sheru arslon qaydan unar,*
42.*Bir manzili bor ekanki, burgutlar ham kelib qo‘nar.*

43.*Oldindadir hali zahmat, oldindadir imkoningiz,*
44.*Osilmagan ne-ne Mashrab, otilmagan Cho‘lponingiz.*

45.*O‘tinch ila hasratimni nasihat deb yuzga solmang,*
46.*Xudo insof bergan kuni barmog‘ingiz tishlab qolmang.*

47.*Muruvvatu ma’rifatdir buyuklikning nishonasi,*
48.*Qadam qo‘ying, mana sizga dong‘il yo‘lning ostonasi.*

49.*Turkistonning bolalari, Turkistonning bolalari,*
50.*“Puf” deganda to‘zg‘igudek mo‘’jazgina lolalari...*

TÜRKİSTAN ÇOCUKLARINA (269)

(Bağımsızlığımızın birinci yılı münasebetiyle)

1. Türkistan'ın çocukları, övgüme kulak asmayın,
2. Şikâyet etsem sabredin, ama sözlerimi hiç unutmayın.

3. En evvela, şecereniz nasıl çıkmış, bilin,
4. Siz de beşer evladısınız, hakkı bayrak yapın.

5. Ben Timur'dan bahsedeyim mi, bahsedeyim mi Nevâî'den,
6. Hepsini okumuşsunuz, duymuşsunuz yahut rivayetten.

7. Tarihiniz öyle uzun, kızgın cenk dese de var,
8. Baskın da var, taşkın da var, hüner ve iş dese de var.

9. Babür olup sordunuz konu komşu diyarları,
10. Meşreb olup gezdiniz bazen kurdun gezmediği dağları.

11. Ateş gitsin o kara güne, birilerine kul oldunuz,
12. Şark'ın ve Garp'ın ortasında ayakaltı yol oldunuz.

13. Fakat iman nuru daima akıp duran kanınızda,
14. Kendiniz de sezmemişsiniz, bir cevher var canınızda.

15. Binlerce şükür zaman gelip istikbale eriştiniz,
16. Harap olan aileyi tamamlamaya giriştiniz.

17. Hürlüğü ve saadeti mübarek edeceğim, lakin
18. Diyeyim, kulağınız sağırlaşmış yavaş yavaş.

19. Bakışınız düşer evvel süs ve ziynet sofrasına,
20. Henüz tazim etmektesiniz dünya malı olan insana.

21.Cüssesini gösteren irfanı güçlü millet hani,
22. Sizin için itibar, altın, ucuz şöhret mani.

23.Yüreğinde cevheri olan kimseleri görmeyeceksiniz,
24. Karnaysız biçarenin toyuna yolunuzu çevirmeyeceksiniz.

25. Her adıma övgüler düzüp kendi yerine koyabilseydim,
26.Üstatların paylarına haftada koyun kesebilseydim,

27. Olmazdı benden ulu, benden aziz bir insan,
28. Ah, halkımı ne günlere bıraktın zaman, bıraktın zaman.

29.Türkistan'ın bağlarında bülbülleri var, hâlbuki,
30. Horlansa da dağ gibi yüce gönülleri var, hâlbuki.

31. Bir o yana çekerse, bir bu yana çeker,
32. Kana susayan cellatların mutlulukları artar.

33. Bilinmez doğru söz nerede, bilinmez nerede yalan,
34. Melamete rastlar, halka: "Birleş" diyen insan.

35.Türkistan'ın çocukları, Türkistan'ın çocukları,
36."Püf" dediğinde solacak gibi acayip laleleri.

37.Çınar olup kök salın, kaya olup dikeltiniz boyunuzu,
38. Ulu ulu ecdatların endişesi Sizden çok.

39.Gölgenizde himaye bulsun yorgun düşen kandaşınız,
40. Unutmayın ki, bu çayırda her bir yaprak candaşınız.

41.Çalılığı olmasa eğer şîr-i aslan nasıl büyür,
42. Bir menzili varmış ki, kartallar da gelip konar.

43.İleridedir henüz zahmet, ileridedir imkânınız,
44. Asılmamış pek çok Meşreb, atılmamış Çolpan'ınız.

45. Ricamı ve hasretimi nasihat diye yüze vurmayın,
46.Hüda'nın insaf verdiği gün parmağınızı dişleyip kalmayın.

47.Mürüvvet ve marifettir büyüklüğün nişanesi,
48. Adım atın, işte size doğru yolun eşiği.

49.Türkistan'ın çocukları, Türkistan'ın çocukları,
50."Püf" dediğinde solacak gibi acayip laleleri. (1992)

"HAQ SEVGAY O'ZIGA YOR BANDALARNI" (270)

1. *Haq sevgay o'ziga yor bandalarni,*
2. *Dilida iymoni bor bandalarni,*
3. *Takabbur boshlarni pastroqqa egsa,*
4. *Yuksakka ko'targay xor bandalarni.*

"HAK SEVECEK KENDİNE YÂR BENDELERİ" (270)

1. Hak sevecek kendine yâr bendeleri,
2. Gönlünde imanı olan bendeleri,
3. Kibirli başları daha aşağıya eğseler,
4. Yükseğe kaldıracak hor bendeleri. (1992)

“KIMDIR FARZANDIGA DERDI: - EY, QO‘ZIM…” (271)

1. *Kimdir farzandiga derdi: - Ey, qo‘zim,*

2. *Jonu diling bilan eshit bul so‘zim.*

3. *Qachondir salomga alik olmasdim,*

4. *Endi bir alikka zordirman o‘zim.*

“BİRİ EVLADINA DERDİ: - EY, KUZUM…” (271)

1. Biri evladına derdi: - Ey, kuzum,

2. Canınla ve gönlünle işit bu sözüm.

3. Ne zamandır verilen selamı almazdım,

4. Şimdi bir selama muhtacım kendim. (1992)

“SHE’R, FARZAND, YAXSHILIK - MISLI POLAPON…” (272)

1. *She’r, Farzand, Yaxshilik - misli polapon,*

2. *Tarqalib ketdilar Hammasi har yon.*

3. *Olamda qanchaki yomonlik bo‘lsa,*

4. *Yopirilib keldilar bari men tomon.*

“ŞİİR, EVLAT, İYİLİK, SANKİ CİVCİV…” (272)

1. Şiir, Evlat, İyilik, sanki civciv,

2. Dağılıp gittiler hepsi her yana.

3. Âlemde ne kadar ki kötülük olsa,

4. Hücum edip geldiler hepsi bana. (1992)

SHOIR CHORIJON MARSIYASI (273)

1. *Har kim ham dunyodan o‘tadi.*

2. *U yo shoh, yo gado bo‘lmasin.*

3. *Qazoying qalbimni o‘rtadi,*

4. *Hech kimning shogirdi o‘lmasin!..*

5. *Axir u eng avval insondir.*

6. *Qavmiga qadrli bir jondir.*

7. *Ustozi orzumand osmondir,*

8. *Hech kimning shogirdi o‘lmasin.*

9. *Sen o‘ychan yurarding, Chorijon,*

10.*O‘ylardim - ilhomga yori jon,*

11.*Aytmovding, yengibdi dard pinhon,*

12.*Hech kimning shogirdi o‘lmasin.*

13.*G‘uzorning dashtida olamdek,*

14.*Armoning sochdi oq tolamdek,*

15.*Beg‘ubor eding bir bolamdek,*

16.*Hech kimning shogirdi o‘lmasin...*

17.*She’riyat, hamrohsan biz ila,*

18.*Uyingda yuz berdi zilzila,*

19.*Bu ne hol, bahorda zilzila,*

20.*Hech kimning shogirdi o‘lmasin.*

21.*Shoir xoh yoshdir, xoh qaridir,*

22.*Ijodi ajaldan naridir.*

23.*Alamdir, bari bir alamdir,*

24.*Hech kimning shogirdi o‘lmasin!*

ŞAİR ÇARİCAN MERSİYESİ (273)

1. Herkes de dünyadan göçer.

2. O ya şah, ya geda olmasın.

3. Vefatın yüreğimi yaktı,

4. Hiç kimsenin şakirdi ölmesin!..

5. Nihayet o en evvel insandır.

6. Kavmine kıymetli bir candır.

7. Üstadı intizar asumandır,

8. Hiç kimsenin şakirdi ölmesin.

9. Sen düşünceli yürürdün, Çarican,

10.Düşünürdüm, ilhama yâri can,

11.Söylemeyecektin, yenmiş dert pinhan,

12. Hiç kimsenin şakirdi ölmesin.

13.Güzar’ın deştinde âlem gibi,

14. Ukden saçtı ak zülfüm gibi,

15. Tertemizdin bir evladım gibi,

16. Hiç kimsenin şakirdi ölmesin…

17.Şiir, yoldaşsın bizimle,
18. Evinde yüz verdi zelzele,
19. Bu ne hâl, baharda zelzele,
20. Hiç kimsenin şakirdi ölmesin.
21.Şair ya gençtir, ya yaşlıdır,
22. Sanatı ecelden uzaktır.
23. Elemdir, hepsi bir elemdir,
24. Hiç kimsenin şakirdi ölmesin! (1992)

SHAROF RASHIDOV XOTIRASIGA (274)

1. *Marhumlar hayotdan erurlar yiroq,*
2. *Demakki, yiroqlar xushomaddan ham.*
3. *Makru nayranglarin qo‘ymaydi biroq,*
4. *Toki hayot ekan Nobakor Odam.*

5. *Ularning turfa xil odatlari bor,*
6. *Avval ganjlarini ko‘mgay tuproqqa.*
7. *So‘ng birdan o‘zlarin his etib nochor,*
8. *Gavharim qayda deb tushgay titroqqa.*

9. *Dunyoda har kimga qismat yor emish,*
10.Kimdir toj kiygaydir, kimlardir kuloh.
11.Go‘yoki Alisher sizga ham dermish:
12.“Siyrating darveshu suvratingdir shoh.”

13.Ezgulik niqobin yuziga tortgan
14.Manfur bir maydonda surgandingiz ot.
15.Kimdir o‘z padarin bir pulga sotgan,
16.Qo‘l-oyoq kishanda, talangan bisot.

17.O‘ychan ko‘zingizda ne g‘am bor edi,
18.Kelajakmidi yo moziyning shoni?
19.O‘zbek-ku, bir erkka intizor edi,

20.*Sizni ado qildi ming bir armoni.*

21.*Erksevar ellarning orzusin yoqlab,*
22.*Xayol dengizida tunlar suzgansiz.*
23.*Istiqlol so‘zini yurakda saqlab,*
24.*Siz qafas ichida gullar tuzgansiz.*

25.*Shoirman, bo‘ynimda she’rning gunohi,*
26.*Sohibin asraydi Saltanat makkor.*
27.*Ochko‘z, amalparast kimsalar gohi*
28.*Adolat menman deb topgay e’tibor.*

29.*Ularning dastidan notinch el, zamon,*
30.*Tanimay qolursan oq-qorani ham.*
31.*Chalg‘itib kelganlar topganda imkon,*
32.*Hattoki Temuru Boyqaroni ham.*

33.*Odildir - kim elni boshlagan baxtga,*
34.*O‘zi o‘tda yonib, yo‘lni ochganlar.*
35.*Lekin intilarkan toj ila taxtga,*
36.*Vo ajab, ko‘pincha dordan qochganlar.*

37.*Qulluq, Sharof ota, ming bora qulluq,*
38.*Boqiy O‘zbekiston sizga ham yodgor.*
39.*Bugun u istiqlol shavqiga to‘liq,*
40.*Xizmatingiz eslar takror va takror.*

41.*Ilohi, har kimga bersinu to‘zim,*
42.*But bo‘lsin Vatanning metin qo‘rg‘oni.*
43.*Sizni qo‘llab turar O‘zbegim - o‘zim,*
44.*Va, yurtning posboni - jasur o‘g‘loni!*

45.*Sulton bo‘lmasangiz, Sharof ota, gar,*

46.*Yashardingiz qalam qo‘ldoshi bo‘lib.*

47.*Poklikka, vafoga timsol muqarrar,*

48.*Xursanoy ayaning yo‘ldoshi bo‘lib.*

ŞEREF REŞİDOV’UN ANISINA (274)

1. Merhumlar hayattan uzaktırlar,

2. Demek ki, uzaklar övgüden de.

3. Hileleri ve oyunları bırakmaz fakat,

4. Ta ki hayatmış Kötü İnsan.

5. Onların garip türde âdetleri var,

6. Evvel hazinelerini gömecek toprağa.

7. Sonra birden kendilerini hissedip naçar,

8. Cevherim nerede diye başlayacak titremeye.

9. Dünyada herkese kısmet yârmış,

10. Kimi taç giyecektir, kimileri külah.

11. Sanki Ali Şîr size de dermiş:

12.“Sîretin derviş ve suretindir şah.”

13.İyilik nikabını yüzüne çekmiş

14. Menfur bir meydanda sürmüştünüz at.

15. Kimi pederini bir pula satmış,

16. El ayak zincirde, soyulmuş varlığın.

17.Düşünceli gözünüzde ne gam vardı,

18. Gelecek miydi ya mazinin şanı?

19.Özbek, bir istiklale intizardı,

20. Size eda etti binbir ukdeyi.

21.Özgürlük seven halkların arzusunu beğenip,

22. Hayal denizinde geceler süzmüşsünüz.
23.İstiklal sözünü yürekte saklayıp,
24. Siz kafes içinde güller düzmüşsünüz.

25.Şairim, boynumda şiirin günahı,
26. Sahibini korur Saltanat hilekâr.
27.Açgözlü, emelperest kimseler bazen
28. Adalet benim diye bulacak itibar.

29. Onların elinden huzursuz halk, zaman,
30. Tanımadan kalırsın akı karayı da.
31. Aklını karıştırmışlar bulduğunda imkân,
32. Hatta Timur'un ve Baykara'nın da.

33. Adildir ki halkı öncü olmuş mutluluğa,
34. Kendisi ateşte yanıp yolu açmışlar.
35. Lakin atılırmış taç ile tahta,
36.İlginç, çoğunlukla dardan kaçmışlar!

37. Kulluk, Şeref Baba, bin kez kulluk,
38. Baki Özbekistan size de yadigâr.
39. Bugün o istiklal şevkiyle dolu,
40. Hizmetinizi hatırlar tekrar tekrar.

41.İlahî, herkese versin tahammül,
42. Tam olsun Vatan'ın metin kalesi.
43. Sizi kollayıp durur Özbek'im, kendim,
44. Ve yurdun muhafızı, cesur oğlanı!

45. Sultan olmazsanız, Şeref Baba, eğer,
46. Yaşardınız kalem hizmetçisi olup.
47. Paklığa, vefaya timsal mükerrer,
48. Hursanay Ana'nın yoldaşı olup. (2 Kasım 1992)

XALQ NAQLI (275)

1. *Xalq naqlni to‘qimaydi atayin,*
2. *Naqllarning umri fuzun bo‘ladi.*
3. *Mana, sizga bittasini aytayin:*
4. *Yaxshilik qil - tiling uzun bo‘ladi.*

5. *O‘yga solar biroq boshqa bir jihat,*
6. *Yaxshilikni hunar qilgan elimiz.*
7. *Boshimizga yog‘ar tinmay malomat,*
8. *Ayting, qachon uzun bo‘lar tilimiz.*

HALK NAKLİ (275)

1. Halk naklini yaratmaz bilerek,
2. Nakillerin ömrü füzûn olur.
3. İşte, size birisini söyleyeyim:
4. İyilik yap, dilin uzun olur.

5. Düşünceye salar ama başka bir cihet,
6. İyiliği hüner yapmış halkımız.
7. Başımıza yağar durmadan melamet,
8. Söyleyin, ne zaman uzun olur dilimiz? (1992)

IKKI G‘ANIM (276)

1. *Qizlarning dushmani husni bo‘lsa gar,*
2. *Shoirning dushmani - iste’dodidir.*
3. *Ularning hayotin etguvchi zahar*
4. *Suq bilan hasadning istibdodidir.*

5. *Qizlarga suq bilan boqqan har kimsa,*
6. *Porloq yulduzlarga mengzab maqtaydi.*
7. *Shoir iste’dodin dushmani esa,*

8. *Uni oyoqosti qilib toptaydi.*

İKİ DÜŞMAN (276)

1. Kızların düşmanı hüsnü olsa eğer,
2. Şairin düşmanı, istidadıdır.
3. Onların hayatını eden zehir,
4. Kıskançla hasedin istibdadıdır.

5. Kızlara kıskançlıkla bakan herkes,
6. Parlak yıldızlara benzeyip över.
7. Şairin istidadının düşmanı ise,
8. Onu ayakaltı yapıp çiğner. (1992)

MEN KIMGA SUYANGUM (277)

1. *Bir kun savol berdi yoshgina o‘g‘lon:*
2. *- Nechun Allohim deb yig‘laysiz nolon.*
3. *Dedim, javobimdan bo‘lmagin hayron,*
4. *Men kimga suyangum Allohdan boshqa?*

5. *Tinimsiz aldasa muhit, makoning,*
6. *Tortsa oyog‘ingdan do‘stu yoroning.*
7. *Shunday o‘tar bo‘lsa har zum, har oning,*
8. *Men kimga suyangum Allohdan boshqa?*

9. *Noshukur emasman dunyoda garchand,*
10. *Qaydadir menga ham bor balki dilband*
11. *Va lekin tiriklay kuydirsa farzand,*
12. *Men kimga suyangum Allohdan boshqa?*

13. *Insofu ishonch ham shirin so‘z bari,*
14. *Tiriklik toshqindir yoki ko‘pkari.*
15. *To hayot ekansan qochgaydir nari,*

16.*Men kimga suyangum Allohdan boshqa?*

17.*Shunchalar kaj erur dunyoi gardun,*
18.*Undan diyonatni axtarmoq nechun,*
19.*Padar shod o‘z o‘g‘lin bag‘rin etsa xun,*
20.*Men kimga suyangum Allohdan boshqa?*

21.*Mingta ko‘z poylaydi bitta joningni,*
22.*Joningmas, martabang, balki shoningni,*
23.*O‘t qo‘ymay yoqarlar xonumoningni,*
24.*Men kimga suyangum Allohdan boshqa?*

25.*Bu ko‘hna dunyoda yashadim nega,*
26.*Yaydoq ot misoli bo‘ldim beega.*
27.*Malomat qilurman, olomon, senga:*
28.*Men kimga suyangum Allohdan boshqa.*

29.*Mendan ranjimasin bo‘lsa do‘st agar,*
30.*Balki ularning ham dilida kadar,*
31.*Hoynahoy mendaylar degay muqarrar:*
32.*Men kimga suyangum Allohdan boshqa?*

33.*Umr ham oxirlab bormoqda sekin,*
34.*Endi sarg‘aymoqda men ekkan ekin.*
35.*Mayli, sen o‘zingga suyangil, lekin,*
36.*Men kimga suyangum Allohdan boshqa?*

BEN KİME DAYANACAĞIM? (277)

1. Bir gün soru sordu gencecik oğlan:
2. - Niçin Allah’ım diye ağlarsınız nalan.
3. Dedim, cevabımdan olma şaşkın,
4. Ben kime dayanacağım Allah’tan başka?

5. Durmadan aldatsa muhitin, mekânın,
6. Çekse ayağından dostun ve yârenin.
7. Öyle geçerse her zaman, her anın,
8. Ben kime dayanacağım Allah'tan başka?

9. Şükürsüz değilim dünyada gerçi,
10. Bir yerde bana da var belki dilbend
11. Velakin diri diri yakarsa evlat,
12. Ben kime dayanacağım Allah'tan başka?

13.İnsaf ve inanç da şirin söz hepsi,
14. Hayat taşkındır yahut ulak.
15. Ta hayatmışsın kaçacaktır uzağa,
16. Ben kime dayanacağım Allah'tan başka?

17. Bu kadar zıttır dünya ve gök kubbe,
18. Onda vicdanı aramak niçin?
19. Peder şad öz oğlunun bağrını etse hun,
20. Ben kime dayanacağım Allah'tan başka?

21. Bin göz beklerdi bir canını,
22. Canını değil, mertebeni, belki şanını,
23. Ateş koymadan yakarlar varlığını,
24. Ben kime dayanacağım Allah'tan başka?

25. Bu köhne dünyada yaşadım niye,
26. Kimsesiz at misali oldum sahipsiz.
27. Melamet ederim, topluluk, sana:
28. Ben kime dayanacağım Allah'tan başka?

29. Benden incinmesin olsa dost eğer,

30. Belki onların da gönlünde keder,
31. Herhâlde ben gibiler diyecek mükerrer:
32. Ben kime dayanacağım Allah'tan başka?

33.Ömür de sonlanıp gitmekte yavaşça,
34.Şimdi sararmakta benim ektiğim ekin.
35. Tamam, sen kendine dayan, lakin,
36. Ben kime dayanacağım Allah'tan başka? (1992)

MULOQOT (278)

1. *- Baxtsizman, toleim kulmaydi,*
2. *Onajon, qoshingga ketayin.*
3. *- Ketganlar hech qaytib kelmaydi,*
4. *Bardosh qil deyman, oh, netayin.*

5. *- Ne uchun dunyoda tug'ildim,*
6. *Bu qadar omadsiz, bechora.*
7. *- O'zim ham bir umr bo'g'ildim,*
8. *Bolajon, noiloj, nachora.*

9. *- Ne uchun yovuzdir odamlar,*
10.*Birovi toptaydi birini?*
11.*- Meni ham yedi-ku shu g'amlar,*
12.*Bilmadim bu holning sirini.*

13.*- Insonga ishondim - xor bo'ldim,*
14.*Sen deding - bir ishonch sabrdir.*
15.*- O'zim ham ishonchga zor bo'ldim,*
16.*Oqibat topganim qabrdir.*

17.*- Bosh urib borarga yo'qdir joy,*
18.*Onajon, qoshingga ketayin.*

19. *- Bolajon, horibsan hoynahoy,*

20. *Bardosh qil deyman, oh, netayin.*

21. *- Chorlasang, madadkor bo‘lolsang,*

22. *Visoling ruhimi shod etar.*

23. *- Sen ham gar yo‘qlikka yo‘l olsang,*

24. *Borliqda kim meni yod etar?!*

MÜLAKAT (278)

1. - Bahtsızım, talihim gülmez,

2. Anacığım, yanına gideyim.

3. - Gidenler hiç dönüp gelmez,

4. Sabret, derim, ah, ne yapayım?

5. - Niçin dünyada doğdum,

6. Bu kadar bahtsız, biçare.

7. - Kendim de bir ömür boğdum,

8. Yavrucuğum, devasız, çaresiz.

9. - Niçin yavuzdur insanlar,

10. Birisi ezer birini?

11. - Beni de yedi bu gamlar,

12. Anlamadım bu hâlin sırrını.

13. - İnsana inandım, hor oldum,

14. Sen dedin, bir inanç sabırdır.

15. - Kendimde inanca muhtaç oldum.

16. Akıbet bulduğum kabirdir,

17. - Baş eğip gitmeye yoktur yer,

18. Anacığım, yanına gideyim.

19. - Yavrucuğum, yorulmuşsun belki,

20. Sabret, derim, ah, ne yapayım?

21.- Çağırsan, yardımcı olabilsen,
22. Visalin ruhumu şad eder.
23.- Sen de eğer yokluğa yol alsan,
24. Varlıkta kim beni yâd eder?! (1992)

O‘ZBEK QOMUSI (279)

1. *Men bechora bir odamman,*
2. *Ertangi kunim,*
3. *Ne bo‘lishin bilmaydigan ojiz bandaman.*
4. *Yeru osmon o‘rtasida topmagan qo‘nim,*
5. *Botinimda botmon toshu zohir xandaman.*

6. *Yolg‘izlikning rutubatli ko‘chalarida,*
7. *Ne-ne oltin fasllarim o‘tdi junjikib.*
8. *She’riyatning tund qorong‘u ko‘chalarida*
9. *Yiroq-yiroq yulduzlarga boqdim entikib.*

10.*Ig‘vo, hasad, fitna bilan to‘lgan bu hayot,*
11.*Har onimda mingta etdi bir hasratimni.*
12.*Xira tuman orasida butkul koinot,*
13.*G‘ira-shira ilg‘ar edim mamlakatimni.*

14.*Eslar edim Buxoriyni, Yassaviyni ham,*
15.*Ha, ha, ayri tushmagandi xotirotimdan,*
16.*Faqat ular chalinardi ko‘zimga mubham,*
17.*Lekin sira ketmas edi xayolotimdan.*

18.*Ham Temurbek, ham Ulug‘bek, Alisher, Bobur,*
19.*Sizlar tuzgan ul saltanat - Saltanat bo‘ldi.*
20.*Ulug‘ tarix Turkistonga cho‘ng guvoh erur,*

21.*Davlat edik, davlat edik, u davlat bo‘ldi!*

22.*Emukdoshim, ay, qardoshim, quloq tut menga,*
23.*Ushbu ko‘hna kahkashonda mag‘rur tutgin bosh.*
24.*Sen zaminga loyiqdirsan, zamin ham senga,*
25.*Senikidir endi bu yer, seniki quyosh.*

26.*Qo‘lingda erk, boshda yalov, tilingda surud,*
27.*Vataning bor, bola-bog‘chang, or-nomusing bor.*
28.*O‘zbekiston deb atalgan muqaddas hudud,*
29.*O‘z Davlating, Mamlakating, o‘z Qomusing bor.*

ÖZBEK KAMUSU (279)

1. Ben biçare bir insanım,
2. Yarınımın,
3. Ne olacağı bilmeyen âciz bendeyim.
4. Yer ve asuman arasında olmamışım sabit,
5. Batınımda batman taş ve zehir handeyim.

6. Yalnızlığın rutubetli sokaklarında,
7. Pek çok altın fasıllarım geçti ürperip.
8. Şiiriyetin nahoş, karanlık sokaklarında
9. Uzun uzun yıldızlara baktım iç çekip.

10. Haset, fesat, fitneyle dolan bu hayat,
11. Her anımda bin etti bir hasretimi.
12. Bulanık duman arasında büsbütün kâinat,
13. Sisli sezerdim memleketimi.

14. Hatırlardım, Buhari’yi, Yesevi’yi de,
15. Evet, evet, ayrı düşmemişti anılarımdan,
16. Yalnız onlar çalınırdı gözüme müphem,

17. Lakin asla gitmezdi hayallerimden.

18. Hem Timurbey, hem Uluğbey, Ali Şîr, Babür,
19. Sizlerin kurduğu o saltanat, saltanat oldu.
20. Ulu tarih Türkistan'a büyük şahittir,
21. Devlettik, devlettik, o devlet oldu!

22. Emekdaşım, ey, kardeşim, kulak ver bana,
23.İşte bu köhne Kehkeşan'da mağrur tut baş.
24. Sen zemine layıksındır, zemin de sana,
25. Senindir şimdi bu yer, senin güneş.

26. Elinde erk, başında bayrak, dilinde türkü,
27. Vatanın var, evladın bahçen, arın, namusun var.
28.Özbekistan denilen mukaddes hudut,
29.Öz Devletin, Memleketin, Öz kamusun var. (1992)

XALQNI ASRASANG (280)

1. *Hech kimsa devor bilan ajralganmas olamdan,*
2. *Vujudingga tutashdir tegrangdagi shu xilqat.*
3. *Yaxshilik qil hammaga, qaytajak o'zingga ham,*
4. *Sen o'zingni asraysan xalqni asrasang faqat.*

HALKI KORURSAN (280)

1. Hiç kimse duvarla ayrılmış değil âlemden,
2. Vücuduna tutuşmuştur etrafındaki bu hilkat.
3. İyilik yap herkese, dönecek kendine de,
4. Sen kendini koruyacaksın halkı korursan yalnız. (1992)

ODAMIYLIK (281)

1. *Bir kun to'kin bo'lar yupqa dasturxon,*
2. *Zarbof bo'lmasa ham kiygansan chopon,*

3. *Lekin odamlikni unutar bo‘lsang,*

4. *Ularning barchasi hayf senga, inson!*

ÂDEMİYET (281)

1. Bir gün bol olur fakir sofra,

2. Yaldızlı olmasa da giymişsin kaftan,

3. Lakin insanlığı unutacak olursan,

4. Onların hepsini yazık sana, insan! (1992)

ECHKI (282)

1. *Hammaga ma’lumdir echkining fe’li,*

2. *Qozonga tushguncha tinch tura olmas.*

3. *Doim egri bo‘lgay tanlagan yo‘li,*

4. *Hunar ko‘rsatmasa jim yura olmas.*

5. *Goho nihollarni g‘ajiydi obdon,*

6. *Cho‘pon tayog‘iga teginar goho.*

7. *Suruvni jarlikka boshlar nogahon,*

8. *O‘zi chetlab o‘tar xatarni ammo.*

9. *Bir kuni echkining g‘ayrati qo‘zib,*

10. *Baland bir qoyaning uchiga chiqdi.*

11. *Boqdi bulutlarga ko‘zini suzib,*

12. *Yuksaklik zavqini surdi, miriqdi.*

13. *Tog‘larga to‘shaldi qorayib oqshom,*

14. *Endi qaytib tushmoq kerak-ku axir.*

15. *Izg‘irin boshlandi, yo‘qoldi orom,*

16. *Na giyoh, na suv bor, qoya tap-taqir.*

17. *Qandoq chiqdi u yon, o‘zi ham bilmas,*

18. *Qaytib tushmoqlikka topmadi chora.*

19.*Eng yuksak qoyaning ustida xullas,*
20.*Mung‘ayib bir o‘zi qoldi bechora.*

21.*Endi madad so‘rab ma’ray boshladi,*
22.*Osmonu falakni ko‘tarib boshga.*
23.*Bizning tilda aytsak, ko‘zin yoshladi,*
24.*Omad boshqa dedi, falokat boshqa.*

25.*Tongda nazar soldi qoyaga cho‘pon,*
26.*Echki haykal yanglig‘ qotgancha turar.*
27.*Yurakni ezgudek ma’raydi nolon,*
28.*O‘ziga beto‘xtov himoya so‘rar.*

29.*Cho‘pon ham chiqolmas bundoq qoyaga,*
30.*U ham noilojdan boshin qashladi.*
31.*Fursatni ketkazmay deya zoega,*
32.*Qutqazish yo‘lini izlay boshladi.*

33.*Bir bora qaynaydi har holda qozon,*
34.*Suruv ro‘yxatidan uni o‘chirdi,*
35.*Darhol o‘qladi-yu miltig‘in cho‘pon,*
36.*Echkini qoyadan urib tushirdi.*

KEÇİ (282)

1. Herkese malumdur keçinin huyu,
2. Kazana düşünce rahat duramaz.
3. Daima eğri olacak seçtiği yolu,
4. Hüner göstermezse sessiz yürüyemez.

5. Gâh nihalleri yok eder iyice,
6. Çoban değneğine değer gâh.
7. Sürüyü felakete uğratır birden,

8. Kendisi kaçar tehlikeden ama.

9. Bir gün keçi gayrete gelip,
10.Yüksek bir kayanın ucuna çıktı.
11. Baktı bulutlara göz süzüp,
12.Yükseklik zevkini sürdü, doydu.

13. Dağları kapladı karanlık akşam,
14.Şimdi dönüp inmek gerekir nihayet.
15. Ayaz başladı, yok oldu huzur,
16. Ne yeşillik, ne su var, kaya tamtakır.

17. Nasıl çıktı o yana, kendisi de bilmez,
18.Dönüp inmeye bulamadı çare.
19. En yüksek kayanın üstünde hülasa,
20.Üzülüp bir kendisi kaldı biçare.

21.Şimdi yardım isteyip melemeye başladı,
22. Asumanı ve feleği kaldırıp başa.
23. Bizim dilden desek, gözleri yaşardı,
24. Baht başka dedi, felaket başka.

25. Tanda dikkatle baktı kayaya çoban,
26. Keçi heykel gibi katılaşana dek durur.
27.Yüreği ezecek gibi meler nalan,
28. Kendisine durmaksızın himaye ister.

29.Çoban da çıkamaz böyle kayaya,
30.O da çaresizlikten başını kaşıdı.
31. Vakit kaybetmeyeyim diye,
32. Kurtarış yolunu aramaya başladı.

33. Bir kez kaynar herhâlde kazan,
34.Sürü listesinden onu sildi,
35. Derhâl mermi sürdü tüfeğine çoban,
36. Keçiyi kayadan vurup düşürdü. (1993)

QORAQALPOG‘IM (283)

1. *Men o‘zbek, sen esa qoraqalpoqsan,*
2. *Turklar dunyosida sen ham urvoqsan,*
3. *Gar men tuproq bo‘lsam, sen ham tuproqsan,*
4. *O‘zbekka azaliy qarindosh, inim.*

5. *Orol bo‘ylarida topganding orom,*
6. *Sholi, baliq edi senga rizqu kom,*
7. *Nahot endi yo‘qdir to‘lg‘izilgan jom,*
8. *Nahot qolding yolg‘iz, ko‘zda yosh, inim.*

9. *Mana - bu Ibroyim, Tulebbergan bu,*
10.Qoraqalpoq baxtin tilab yurgan bu,
11.Yaratgandan haqqin so‘rab turgan bu,
12.Iloyo boshginang bo‘lsin tosh, inim.

13.Seni qo‘llab turar ulug‘ mamlakat,
14.Yurtboshi yaxshilik tilaydi faqat,
15.Niyating hamisha bo‘lsin ijobat,
16.Ham yo‘ldosh, ham qo‘ldosh, ham sirdosh inim.

17.Umidvor yashaymiz doril zamonda,
18.Birimiz Nukusda yoki Qo‘qonda,
19.Umuman aytganda O‘zbekistonda,
20.Senga bo‘lajakmiz ko‘zu qosh, inim.

KARAKALPAK'IM (283)

1. Ben Özbek, sense Karakalpak'sın,
2. Türkler dünyasında sen de zerresin,
3. Eğer ben toprak olsam, sen de topraksın,
4. Özbek'e ezelî karındaşım, kardeşim.

5. Aral boylarında bulmuştum huzur,
6. Pirinç, balıktı sana rızık ve mutluluk,
7. Şimdi yok mudur doldurulan kadeh,
8. Kaldın mı yalnız, gözde yaş, kardeşim?

9. İşte bu, İbrahim, Tulepbergen bu,
10. Karakalpak bahtını dileyen bu,
11. Yaradan'dan hakkını isteyen bu,
12. Rabb'im, seni korusun kardeşim.

13. Seni kollayıp durur ulu memleket,
14. Yurtbaşı iyilik diler yalnız,
15. Niyetin daima olsun icabet,
16. Hem yoldaş, hem koldaş, hem sırdaş kardeşim.

17.Ümitvar yaşarız darül-zamanda,
18. Birimiz Nukus'ta yahut Hokand'da,
19. Umumiyetle söylediğinde Özbekistan'da,
20. Sana olacağız göz ve kaş, kardeşim. (1993)

O'ZBEKISTONIM, SENGA (284)

1. *Aylayin qalbimni tortiq nurli bo'stonim, senga,*
2. *Sen vatandirsan, fidodir tanda bu jonim senga.*

3. *Bebahosan, asragayman gavharim, deb men seni,*
4. *Sen qarog' bo'lsang agarda, sadqa mujgonim senga.*

5. *Sendan ayru dam uzundir, lahzalar ham yilga teng,*

6. *Bir umrga lek barobardir kerak onim senga.*

7. *Har bir ahling bitta yulduz, kavkabistonim o‘zing,*

8. *To hayotdirman, charog‘im, shu’layi shonim senga.*

9. *Yoru do‘stlar jam bo‘libdir, to‘y qilur o‘zbek elim,*

10.Men degayman xush kelibsan, do‘stu mehmonim, senga.

11.Xizmatingga shay erurman, mehnatingda ham o‘zim,

12.Baxtiyorman, sarf etolsam borki imkonim senga.

13.Dilda borim sen uchundir, qo‘lda torim sen uchun,

14.Qayda bo‘lsam talpinurman, O‘zbekistonim, senga.

ÖZBEKİSTAN’IM, SANA (284)

1. Edeyim kalbimi hediye parlak bostanım, sana,

2. Sen vatansındır, fedadır tende bu canım sana.

3. Kıymetlisin, koruyacağım cevherim, diye ben seni,

4. Sen göz olsan eğer, sadaka müjgânım sana.

5. Senden ayrı zaman uzundur, lahzalar da yıla denk,

6. Bir ömre lakin beraberdir gerek anım sana.

7. Her bir ehlin bir yıldız, kevkebistanım kendin,

8. Ta hayatımdır, çırağım, şule-i şanım sana.

9. Yâr ve dostlar cem olmuştur, toy kılar Özbek halkım,

10. Ben diyeceğim hoş gelmişsin, dostum ve misafirim, sana.

11. Hizmetine amadeyim, emeğinde de kendim,
12. Bahtiyarım, sarf edebilsem var ki imkânım sana.

13.Gönülde varım senin içindir, elde tarım senin için,
14. Nerede olsam uzanırım, Özbekistan'ım, sana. (1993)

LO'TTIBOZ (285)

1. *Ne-ne balolarga goho tutildim,*
2. *Ko'pidan, inshoolloh, endi qutuldim.*

3. *Boshimga tushdi goh muhtojlik, kulfat,*
4. *Bariga ko'nikib ketdim oqibat.*

5. *Tutqin eta oldi na shuhrat, na g'am,*
6. *Qutuldim behuda orzulardan ham.*

7. *Bir zamon qolganda chorasiz, yakka,*
8. *Dard xuruj qilgandi o'ksik yurakka.*

9. *Necha oy yo'l qarab, to'shakband bo'ldim,*
10.*Shukrkim, darddan ham oxir qutuldim.*

11.*Toki, g'olib ekan bosqinchi zoti,*
12.*Qafasda o'tgaydir xalqning hayoti.*

13.*Vatan ozod bo'ldi, nash'aga to'ldim,*
14.*Demak, kishanlardan men ham qutuldim.*

15.*Ammo bir kasofat qiynaydi hamon,*
16.*Unga bas kelolur na vaqt, na zamon.*

17.*Uni daf’atan-da tutib ham bo‘lmas,*
18.*Va lekin aylanib, o‘tib ham bo‘lmas.*

19.*Qutuldim necha qish, necha yozlardan,*
20.*Faqat qutulmadim lo‘ttibozlardan.*

21.*Dargohing buncha keng, oh, Parvardigor,*
22.*Sening marhamating bisyordan-bisyor.*

23.*Mushrik bandalaring nahot oz senga,*
24.*Nechun zarur bo‘ldi lo‘ttiboz senga.*

25.*Uning ham odamdek bor yuzi, ko‘zi,*
26.*Lekin aldab ketar kuppa-kunduzi.*

27.*Manfaat bo‘lsa bas, qaytmas balodan,*
28.*Quruq chiqa berar cho‘ksa, daryodan.*

29.*Uning do‘ppisini bunga kiygizar,*
30.*Qisir sigirni ham hatto iygizar.*

31.*Uning jinsi yo‘qdir, yo‘qdir millati,*
32.*Umumbashariydir, ya’ni illati.*

33.*Qaraysan, bir go‘zal turar, aylab noz,*
34.*Botiniga boqsang, afsus, lo‘ttiboz.*

35.*Mana bu janob-chi, jilmayar mamnun,*
36.*Aslida libosga o‘ralgan maymun.*

37.*Rizqing but bo‘lsin deb chekkandim nola,*
38.*Qay kun aldab ketdi bir cho‘loq bola.*

39.*Lo‘ttiboz oshnodir ishi bitguncha,*
40.*Eshagi kechuvdan toki o‘tguncha.*

41.*Iloho, olamda o‘zingsan eng sof,*
42.*Bergil ularga ham diyonat, insof.*

43.*Qancha sinoving bor, solgin boshimga,*
44.*Ularni yuborma hargiz qoshimga.*

45.*Mayli, do‘zaxingda qiyna, o‘tda yoq,*
46.*Meni lo‘ttibozga duch qilma biroq.*

HİLEKÂR (285)

1. Türlü türlü belalara bazen tutuldum,
2. Çoğundan, inşallah, şimdi kurtuldum.

3. Başıma düştü bazen muhtaçlık, külfet,
4. Hepsine kanıp güvendim akıbet.

5. Tutkun edebildi ne şöhret, ne gam,
6. Kurtuldum beyhude arzulardan da.

7. Bir zaman kaldığında çaresiz, yalnız,
8. Dert huruç etmişti hazin yüreğe.

9. Nice ay yol gözleyip, döşeğe bağlı oldum,
10.Şükür ki, dertten de nihayet kurtuldum.

11. Ta ki galipmiş baskıncı zatı,
12. Kafeste geçecektir halkın hayatı.

13. Vatan azat oldu, neşeyle doldum,
14. Demek, zincirlerden ben de kurtuldum.

15. Ama bir kötülük zulmeder daima,
16. Ona kâfi gelebilir ne vakit, ne zaman.

17. Onu birdenbire tutmak da olmaz,
18. Velakin dönüp, geçmek de olmaz.

19. Kurtuldum nice kışlardan, nice yazlardan,
20. Yalnız kurtulamadım hilekârlardan.

21. Dergâhın bu kadar geniş, ah, Perverdigâr,
22. Senin merhametin ziyadesiyle çok.

23.Müşrik bendelerin az mı sana,
24. Niçin zaruri oldu hilekâr sana?

25. Onun da insan gibi var yüzü, gözü,
26. Lakin aldatır güpegündüzü.

27. Menfaatse kâfi, dönmez beladan,
28. Kuru çıkıverir dalsa, deryadan.

29. Onun doppisini buna giydirir,
30.Kısır sığırını da hatta sağdırır.

31. Onun cinsi yoktur, yoktur milleti,
32. Beşerîdir, yani illeti.

33. Bakarsın, bir güzel durur, edip naz,
34. Batınına bakarsın, maalesef, hilekâr.

35.İşte bu cenap, gülümser memnun,
36. Aslında libasa bürünmüş maymun.

37.Rızkın tam olsun diye çekmiştim nale,
38. Hangi gün aldatıp gitti bir çolak çocuk.

39. Hilekâr aşinadır işi bitene dek,
40.Eşeği geçeni ta ki geçene dek.

41. Ey Rabb'im, âlemde kendinsin en saf,
42. Ver onlara da vicdan, insaf.

43. Ne kadar sınavın var, sal başıma,
44. Onları gönderme asla karşıma.

45. Peki, cehenneminde zulmet, ateşte yak,
46. Beni hilekârla karşılaştırma ancak. (1993)

MEHRU OQIBAT HAQIDA BALLADA (286)

1. *Dema ko'tarildi mehru oqibat,*

2. *Birgina chora bor bunday chog‘ faqat.*

3. *Toki tanangda jon, og‘zingda so‘zing,*
4. *Endi xabar olgin o‘zingdan o‘zing.*

5. *Xotin nonushtaga olib kirsa choy,*
6. *O‘zingni taklif qil: - Ich, falonchiboy!*

7. *Tongda ishxonangga qo‘ysang gar qadam,*
8. *Jumladan, salom ber o‘z-o‘zingga ham.*

9. *Ilgakka paltongni hurmat bilan os,*
10. *Ko‘rsat o‘zingga ham sadoqat, ixlos.*

11. *Odatda bir kimsa ishga bo‘lar g‘ov,*
12. *Hayfsan e’lon qilgin o‘zingga darrov.*

13. *Balki yo‘l olarsan uzoq safarga,*
14. *Yiroq qishloqqami, olis shaharga,*

15. *Hol so‘rab dadangdan, tuqqan onangdan,*
16. *O‘zingga maktub yoz borgan joyingdan.*

17. *Dema, ko‘tarildi mehru oqibat,*
18. *Buning chorasi bor, izla, top faqat.*

19. *Tug‘ilgan kuningni balki bilarsan,*
20. *O‘zingga nimadir sovg‘a qilarsan.*

21. *Nogoh tushib qolsang kasalxonaga,*

22.*Ko‘z tikkil na do‘stu na begonaga.*

23.*Yaxshisi, o‘g‘lingga tezlikda sim qoq,*
24.*Degil: Kelmasang gar, oq qilaman, oq!*

25.*Magar shoir bo‘lsang g‘azal yoz, yoz fard,*
26.*Lekin topilmaydi o‘qiydigan mard.*

27.*Ijro et she’ringni o‘zing baralla,*
28.*Degil: qotiribman, uh, barakalla!*

29.*Nabirang ko‘ngliga izlasang kalit,*
30.*Bir juft chaqich beru o‘zingni tanit.*

31.*Ulfat izlamagin ko‘cha yuzidan,*
32.*Hozir hamma ketgan pulning izidan.*

33.*Nihoyat qartayib, horib tolgaysan,*
34.*Barcha tashabbusni qo‘lga olgaysan.*

35.*Bir kun tramvayga chiqsang hoynahoy,*
36.*Senga biror kimsa bo‘shatmagay joy.*

37.*Xoli o‘rindiqqa tushsa gar ko‘zing,*
38.*O‘tiring, domla! - de o‘zingga o‘zing.*

39.*Kimlardir tortmasin, tashvish, jabringni,*
40.*Albatta, qazdirib qo‘ygin qabringni.*

41.*Bir juft so‘z o‘ydirgin marmar toshga ham:*

42. *“Bu yerda yotibdi Eng Yaxshi Odam!”*

43. *Axir tirigingda yo‘qlashmadi, bas,*
44. *O‘lganingdan so‘ng ham hech kim eslamas.*

45. *Xullas, yo‘qolmagay mehru oqibat,*
46. *Buning chorasini izla, top faqat.*

ŞEFKAT VE AKIBET HAKKINDA BALLAT (286)

1. Deme kaldırıldı şefkat ve akıbet,
2. Biricik çare var böyle zaman yalnız.

3. Ta ki bedeninde can, ağzında sözün,
4. Şimdi haber al kendinden kendin.

5. Kadın kahvaltıya alsa çay,
6. Kendine teklif et: - İç, falanca bey!

7. Şafakta iş yerine eğer atarsan adım,
8. Cümleten, selam ver kendi kendine de.

9. Kancaya paltonu hürmetle as,
10. Göster kendine de sadakat, ihlas.

11. Âdette bir kimse işe olur engel,
12. İkaz ilan et kendine hemen.

13. Belki yol alırsın uzun sefere,
14. Irak köye mi, uzak şehre mi?

15.Hâl sorup babana, doğuran anana,
16. Kendine mektup yaz gittiğin yerden.

17. Deme kaldırıldı şefkat ve akıbet,
18. Biricik çare var, ara, bul yalnız.

19. Doğduğun günü belki bilirsin,
20. Kendine ne hediye edersin.

21. Birden düşüp kalırsan hastaneye,
22.Gözünü dik ne dosta ve ne ele.

23.İyisi mi, oğluna hızla telefon et,
24. De: Gelmezsen eğer, lanet ederim, lanet!

25.Eğer şair olursan gazel yaz, yaz fard[140],
26. Lakin bulunmaz okuyacak mert.

27.İcra et şiirini kendin açıkça,
28. De: Yapmışım, oh, çok iyi!

29. Torununun gönlüne ararsan anahtar,
30. Bir çift sakız ver ve kendini tanıt.

31. Arkadaş arama sokaktan,
32.Şimdi herkes gitmiş paranın izinden.

33. Nihayet yaşlanıp, yorulup, bitap düşeceksin,
34.Bütün inisiyatifi ele geçireceksin.

[140] Şark mümtaz şiirinde sadece bir beyit (iki mısradan) ibaret olan iki müstakil şiirdir.

35. Bir gün tramvaya binersen herhâlde,
36. Sana bir kimse vermeyecek yer.

37. Boş koltuğa düşerse eğer gözün,
38.- Oturun, hoca! de kendine kendin.

39. Kimler çekmesin, kaygısını, cebrini,
40. Elbette, kazdır kabrini.

41. Bir çift söz uydurup mermer taşa da:
42."Burada yatmış En İyi İnsan!"

43. Nihayet dirinde ziyaret etmedi, öyleyse,
44.Öldükten sonra da hiç kimse hatırlamaz.

45.Hülasa, yok olmayacak şefkat ve akıbet,
46. Bunun çaresini ara, bul yalnız. (1994)

TELEFON DAFTARI (287)

1. *Sira ajab emas,*
2. *Shomdan to sahar*
3. *O'nlab daftarlarga ko'milib qolsam.*
4. *Telefon daftari -*
5. *Lekin, bu daftar...*
6. *Yuragim bezillar, qo'limga olsam.*

7. *Unda qancha-qancha do'stu qadrdon,*
8. *Tanish-notanishning nomlari bordir.*
9. *Biri Inson edi, to hanuz Inson,*
10.*Boshqasi, afsuski iblisga yordir.*

11.Biri boyib ketgan, quv, izzattalab,
12.Balki o‘zgartirgan eski raqamin.
13.Birovi, ko‘zimning yog‘ini yalab,
14.Mendan allaqachon uzgan qadamin.

15.Biroviga esa yoqmabdi mansab,
16.Atrofin yaltoqi zotlar o‘rabdi.
17.Qay kuni qirq yillik do‘stiga qarab,
18.Isming nima edi, - deya so‘rabdi.

19.Manovi kamtarin, yo‘qsil tanishim,
20.Ko‘ngli o‘smasmidi bitta so‘zimdan.
21.Men ham o‘zgardimmi? Mo‘lmi yo ishim?
22.Bir bor yo‘qlamabman. Gina o‘zimdan...

23.Fojia emasdir bu gaplar zinhor,
24.Balki qay birini tuzatsa bo‘lar.
25.Lekin daftar ichra qator va qator,
26.Marhum do‘stlarimning nomlari turar.

27.O, mening qalbi pok birodarlarim,
28.Qoningiz ne uchun bemahal tindi.
29.Siz yo‘qsiz - men uchun davralar yarim,
30.Kunim kimlargadir qolmishdir endi.

31.Ha, nomard bo‘lsa ham shirin shu hayot,
32.Ha, zaqqum bo‘lsa ham g‘animat zumlar.
33.Bilaman, ortiga qaytmas koinot,
34.Bilaman, tirilib kelmas marhumlar.

35.Balki o‘chirsammi nomlarin? Aslo!

36. *Cho‘chiyman, o‘zimdan dakki yeganday.*

37. *Ular, raqamlarin tersam mabodo,*

38. *Yulduzlar ortidan “Labbay” deganday.*

TELEFON DEFTERİ (287)

1. Asla garip değil,

2. Akşamdan ta sehere

3. Onlarca deftere gömülüp kalırsam.

4. Telefon defteri,

5. Lakin bu defter…

6. Yüreğim sızlar, elime alırsam.

7. Onda nice nice dost ve sevgili,

8. Tanıdığın, yabancının isimleri vardır.

9. Biri İnsandı, henüz İnsan,

10. Diğeri, ne yazık ki iblise yârdır.

11. Biri zenginleşmiş, sinsi, kibirli,

12. Belki değiştirmiş eski rakamı.

13. Birisi, gözümün yağını yalayıp,

14. Benden vaktiyle kesmiş adımını.

15. Birininse hoşuna gitmez makam,

16. Etrafını yalaka zatlar sarmış.

17. Hangi gün kırk yıllık dostuna bakıp,

18. İsmin neydi, diye sormuş.

19. İşte bu mütevazı, yoksul tanıdığım,

20. Gönlümü açmaz mıydı bir sözüme?

21. Ben de değişir miydim, varlığımı yahut işi mi?

22. Bir kez ziyaret etmemişim. Kırılma kendime…

23. Facia değildir bu sözler zinhar,
24. Belki herhangi birini düzeltse olur.
25. Lakin defter içinde sıra sıra,
26. Merhum dostlarımın isimleri durur.

27. Aaa, benim kalbi pak biraderlerim,
28. Kanınız niçin zamansız durdu.
29. Siz yoksunuz, benim için meclisler yarım,
30.Günüm kimlere kalmıştır şimdi.

31. Evet, namert olsa da şirin bu hayat,
32. Evet, zıkkım olsa da ganimet anlar.
33. Bilirim, ardına dönmez kâinat,
34. Bilirim, dirilip gelmez merhumlar.

35. Belki silsem mi isimlerini? Asla!
36. Korkarım, kendimden azar yemiş gibi.
37. Onların rakamlarını toplasam ihtimal,
38.Yıldızların ardından "Evet" demiş gibi. (1994)

SHARQ HIKMATI (288)

1. *Taxtga talpinasan g'azabga to'lib,*
2. *Chiqarmoq bo'lasan olamshumul chang.*
3. *Har oyna ko'targan Iskandar bo'lib,*
4. *Temur sanalmagay har qandayin lang.*

5. *O'zbekning davlati qaror topgan chog',*
6. *Maymunjon terardi qaysi bir nasling.*
7. *O'z yurting sha'niga tushirmagin dog',*
8. *Axir odam erur sening ham asling.*

9. *Har kim shoh bo'lay der ilojin topsa,*

10.*Uringay, tarixga kelsa ham malol.*
11.*Falak chappa ketib, omading chopsa,*
12.*Sharqning bir hikmatin yaxshi anglab ol:*

13.*Podshoh deganlari kunu tun bedor,*
14.*Xalqining mehribon doyasi bo‘lur.*
15.*Bejiz aytmaganlar, asl hukmdor,*
16.*Xudoning yerdagi soyasi bo‘lur.*

ŞARK HİKMETİ (288)

1. Taht için uğraşırsın gazapla dolup,
2. Çıkarırsın âlemşümul toz.
3. Her ayna kaldıran İskender olup,
4. Timur sayılmayacak her topal.

5. Özbek’in devletin karar bulduğu zaman,
6. Maymuncuk toplardı hangi bir neslini?
7. Kendi yurdunun şanına düşürme leke,
8. Nihayet insandır senin de aslın.

9. Herkes şah olayım der çaresini bulsa,
10.Dövünecek, tarihe gelse de melal.
11. Felek ters gidip, talihini bulsa,
12.Şarkın bir hikmetini iyi anla:

13. Padişah dedikleri gündüz ve gece bidar,
14. Halkının şefkatli ebesi olur.
15. Boşuna söylememişler, asıl hükümdar,
16.Hüda’nın yerdeki sayesi olur. (1994)

MAYNA (289)

1. *Bog‘ning qiy-chuviga quloq tutaman,*

2. *Bu yerda turfa xil qushlar aylanar.*
3. *Sa'va-yu qaldirg'och - o'zi bir jahon,*
4. *Va lekin ko'payib ketmish maynalar.*

5. *Bunday olg'ir qushni ko'rmaganman hech,*
6. *Bir cho'qib o'n qarar - tegar joningga.*
7. *Unga farqi yo'qdir: kunduzmi yo kech,*
8. *Dangal sherik bo'lar dasturxoningga.*

9. *Yurishini ko'rsang, olifta, satang,*
10. *Balki sepib olgan farang atrini.*
11. *Musicha o'zini eplaydi arang,*
12. *U-chi, yerga urmas sira qadrini.*

13. *Ayni pishgan chog'i bog'ingda kishmish,*
14. *Egalik qiladi ekkanday o'zi.*
15. *Yaxshiyam yo'q unda o'ttiz ikki tish,*
16. *Yaxshiyam hamyonni poylamas ko'zi.*

17. *Ulgursa yer yuzin aylardi taqir,*
18. *So'ngra bir-birin yeb, topardi barham.*
19. *Dunyoda insofli qushlar ko'p axir,*
20. *Ular soyasida yashar mayna ham.*

ÇİĞDECİ (289)

1. Bağın şamatasına kulak asmam,
2. Burada acayip türde kuşlar dolaşır.
3. Saka ve kırlangıç, kendisi bir cihan,
4. Velakin çoğalmış çiğdeciler.

5. Böyle avcı kuşu görmemişim hiç,
6. Bir gagalayıp on bakar, sıkar canını.

7. Ona fark etmez: gündüz mü yahut gece mi,
8. Doğru ortak olur sofrana.

9. Yürüyüşünü görsen, züppe, şık,
10. Belki yaymış Avrupai kokusunu.
11.Üveyik kendisi başa çıkar zorlukla,
12.O, yere vurmaz asla kadrini.

13. Aynı olgunlaştığı an bağında kişmiş,
14. Sahip olur ekmiş gibi kendisi.
15.İyi ki yok onda otuz iki diş,
16.İyi ki cüzdanını gözlemez gözü.

17. Vakit bulursa yeryüzünü ederdi kurak,
18. Sonra birbirini yiyip, olurdu yok.
19.Dünyada insaflı kuşlar çok nihayet,
20. Onlar sayesinde yaşar çiğdeci de. (1994)

YAXSHILIK VA YOMONLIK (290)

1. *El aro yuradi bir naql,*
2. *Xalq uni takrorlab aytadi.*
3. *Kimsaga yomonlik qilmagil,*
4. *Bir kuni o‘zingga qaytadi.*

5. *Darvoqe, pand bersang bir jonga,*
6. *U ham tinch turarmi hech zamon.*
7. *Deydilar, tuflasang osmonga*
8. *Yuzingga tushgaydir begumon.*

9. *Yaxshilik qilsang-chi, sen, biroq,*
10.*Qaytarmi u senga? Bu mubham...*
11.*Boshini silasang gohi choq*

12.*Qo‘lingni tishlaydi iting ham.*

İYİLİK VE KÖTÜLÜK (290)

1. Halk arasında gezer bir nakil,
2. Halk onu tekrarlayıp söyler.
3. Kimseye kötülük etme,
4. Bir gün kendine döner.

5. Gerçekten, aldatsan bir canı,
6. O da sakin durur mu hiçbir zaman?
7. Derler, tükürsen asumana
8. Yüzüne düşecektir şüphesiz.

9. İyilik edersen, sen, fakat
10.Döner mi o sana? Bu müphem…
11. Başını sıvazlarsan bazı zaman
12. Elini dişler itin de. (1994)

DUNYO (291)

1. *Bir kimsa umrining so‘ngiga qadar,*
2. *Yig‘di molu dunyo, yig‘di siymu zar.*

3. *Uni qiziqtirdi na do‘stning holi,*
4. *Va na qo‘shnisining o‘ksik ahvoli.*

5. *U chindan mol-mulkning jilovin tutdi,*
6. *Faqat nafs ortidan ot surib o‘tdi.*

7. *Bir kuni ba hukmi taqdiri azal,*
8. *Shamshirin ko‘tarib keldi-ku ajal.*

9. *Endi na siymu zar qutqara olur,*

10.*Na billur, na gavhar qutqara olur.*

11.*Rozi yo norizo - farqi yo‘q mutloq,*

12.*Bunday choq chorasiz hatto do‘st-o‘rtoq.*

13.*Beshafqat ajalga berar ekan tan,*

14.*U dedi: “Shu ekan, dunyo shu ekan.”*

15.*Marhumga marhumlik ko‘rilgay loyiq,*

16.*Uni qabristonga eltdi xaloyiq.*

17.*Uyum tuproq bo‘ldi quvonchi-g‘ami,*

18.*Kimdir boqib dedi: “Shunga shunchami...”*

DÜNYA (291)

1. Bir kimse ömrünün sonuna kadar,

2. Yığdı mal ve dünya, yığdı gümüş ve zer.

3. Onu ilgilendirdi ne dostun hâli,

4. Ve ne komşusunun hazin ahvali.

5. O gerçekten malının, mülkünün dizginini tuttu,

6. Yalnız nefis ardından at sürüp geçti.

7. Bir gün hükm-i takdir-i ezel,

8. Kılıcını kaldırıp geldi ecel.

9. Şimdi ne gümüş ve zer kurtarabilir,

10. Ne billur, ne cevher kurtarabilir.

11. Razı yahut rızasız, farkı yok mutlaka,
12.Böyle zaman çaresiz hatta dost ahbap.

13.Şefkatsiz eceli edermiş takdir,
14.O dedi: “Buymuş, dünya buymuş.”

15. Merhuma merhumluk görülecek layık,
16. Onu kabristana götürdü halk.

17.Yığın toprak oldu sevinci, gamı,
18. Biri bakıp dedi: “ Bu kadar, bu kadar mı?” (1994)

“PAYDO BO‘LGANIDA ZAMIN BIR ZAMON…” (292)

1. *Paydo bo‘lganida zamin bir zamon,*
2. *Avval yaralgandir daraxt va hayvon.*
3. *Bul ikki soddani aldamoq uchun*
4. *Aqlini pesh qilib chiqqan so‘ng Inson.*

“PEYDA OLDUĞUNDA ZEMİN BİR ZAMAN…” (292)

1. Peyda olduğunda zemin bir zaman,
2. Evvel yaratılmıştır ecel ve hayvan.
3. Bu iki safı aldatmak için
4. Aklıyla kibirlenip çıkmış sonra İnsan. (1994)

“ODATDA ULFATLAR BO‘LISHGANDA JAM…” (293)

1. *Odatda ulfatlar bo‘lishganda jam,*
2. *Qizishib deydilar: dunyo - biri kam.*
3. *Ajib bir ziddiyat: oxirgi qadah,*
4. *Ortiq bo‘lganini o‘ylamas hech ham.*

“ÂDETTE AHBAPLAR OLDUKLARINDA CEM…” (293)

1. Âdette ahbaplar olduklarında cem,
2. Kızışıp dediler: - Dünya, biri az.
3. Garip bir zıddiyet: Son kadeh,
4. Fazla olduğunu düşünmez hiç de. (1994)

“BIR YO‘L CHEKKASIDA YOTIBMAN NOLON…” (294)

1. *Bir yo‘l chekkasida yotibman nolon,*
2. *Chorasiz bo‘lsam-da, men ham tirik jon.*
3. *Ustimga otingning soyasi tushdi,*
4. *Jilovini nari tortsang-chi, nodon.*

“BİR YOL KENARINDA YATMIŞ NALAN…” (294)

1. Bir yol kenarında yatmış nalan,
2. Çaresiz olsam da, ben de diri can.
3. Üstüme atının gölgesi düştü,
4. Dizginini öteye çeksen ya, nadan! (1994)

“BALKI CHAMAN BO‘LAR DASHTI KARBALO” (295)

1. *Balki chaman bo‘lar dashti Karbalo,*
2. *Balki, behisht mavjud yulduzlar aro.*
3. *Mening O‘zbekiston - Vatanim bordir,*
4. *Ularning baridan a’loroq, a’lo!*

“BELKİ GÜLİSTAN OLUR DEŞT-İ KERBELA” (295)

1. Belki gülistan olur deşt-i Kerbela,
2. Belki, behişt mevcut yıldızlar arasında.
3. Benim Özbekistan Vatan’ım vardır,
4. Onların hepsinden daha pekâlâ, âlâ! (1994)

VATAN (296)

1. *Agar do‘stlar erur sodiq bir-birin qiyratib bo‘lmas,*
2. *Agar qilg‘il necha fitna alarni ayratib bo‘lmas.*
3. *Demishlar: moru qushni bir qafasda asratib bo‘lmas,*
4. *Vatandan ayri ko‘ngilni bilingki, yayratib bo‘lmas.*
5. *Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo‘lmas.*

6. *Vatan deb men bayon qildim, ayo do‘stlar, muxammasni,*
7. *Vatanni kim ulug‘ bildi, aziz bildim men ul kasni.*
8. *Vatan deb jo‘sh urar ersa ko‘targum boshima xasni,*
9. *Vatandan ayri ko‘ngilni bilingki, yayratib bo‘lmas.*
10. *Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo‘lmas.*

11. *Nadomat birla boqg‘ayman vatansizlarga har doim,*
12. *Egib boshini zor yig‘lar, agarchi davlati qoyim,*
13. *Faqir bo‘lsam-da bor yurtim - toju taxtim, borar joyim.*
14. *Vatandan ayri ko‘ngilni bilingki, yayratib bo‘lmas.*
15. *Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo‘lmas.*

16. *Bobolar kechmishin hargiz faromush aylamang, do‘stlar,*
17. *Haqiqat tongi otganda ani tush aylamang, do‘stlar,*
18. *Agar kim e’tiqodsizdur, ani xush aylamang, do‘stlar, ,*
19. *Vatandan ayri ko‘ngilni bilingki, yayratib bo‘lmas.*
20. *Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo‘lmas.*

21. *Diyorim O‘zbekistondur, ki andin iftixorim bor,*
22. *Demakkim, hur adolatlig‘, davlati barqarorim bor,*
23. *Onamdek mehribon, munis Vatan bor, g‘amguzorim bor,*
24. *Vatandan ayri ko‘ngilni bilingki, yayratib bo‘lmas.*
25. *Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo‘lmas.*

26. *Vatan, sen hur, yo‘ling shonli, qadamni tashlagin shaxdam,*
27. *Faxr-la boqg‘ay Abdullo, ko‘zida shodligidan nam*

28.*Panohingni tilab Haqdin dilida iltijo har dam,*

29.*Vatandan ayri ko‘ngilni bilingki, yayratib bo‘lmas.*

30.*Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo‘lmas.*

VATAN (296)

1. Eğer dostlardır sadık birbirini kırmaz,

2. Eğer çıkarılsa nice fitne onları ayırmaz.

3. Demişler: Yılan ve kuşu bir kafeste beslenmez,

4. Vatandan ayrı gönlü bilin ki, mutlu olmaz.

5. Tıpkı tutsak bülbül dek gülsüz ötmez.

6. Vatan diye ben beyan ettim, ey dostlar, muhammesi,

7. Vatanı kim ulu bildi, aziz bildim ben o kişiyi.

8. Vatan diye coşarsa kaldıracağım başıma kuru otu,

9. Vatandan ayrı gönlü bilin ki, mutlu olmaz.

10.Tıpkı tutsak bülbül dek gülsüz ötmez.

11. Nedametle bakacağım vatansızlara her daim,

12.Eğip başını figan ağlar, eğer devlet-i kaim,

13. Fakir olsam tüm yurdum, tâc u tahtım, gittiğim yerim.

14. Vatandan ayrı gönlü bilin ki, mutlu olmaz.

15.Tıpkı tutsak bülbül dek gülsüz ötmez.

16. Dedelerin geçmişini asla unutmayın, dostlar,

17. Hakikat tanı attığında onu öğle etmeyin, dostlar,

18.Eğer ki itikatsızdır, onu hoş eylemeyin, dostlar,

19. Vatandan ayrı gönlü bilin ki, mutlu olmaz.

20.Tıpkı tutsak bülbül dek gülsüz ötmez.

21. Diyarım Özbekistan’dır, ki ona iftiharım var,

22. Demek ki, hür adaletin, istikrarlı devletim var,

23. Anam gibi müşfik, munis Vatan var, gamlım var,

24. Vatandan ayrı gönlü bilin ki, mutlu olmaz.

25.Tıpkı tutsak bülbül dek gülsüz ötmez.

26. Vatan, sen hür, yolun şanlı, adımını at emin,
27.İftiharla bakacak Abdulla, gözünde mutluluktan nem
28. Himayeni dileyip Hak'tan gönlünde iltica her dem,
29. Vatandan ayrı gönlü bilin ki, mutlu olmaz.
30.Tıpkı tutsak bülbül dek gülsüz ötmez. (1994)

BUYUKLIK (297)

1. *Osmonu falakda mo‘’jaz yulduz - tosh*
2. *Mindi o‘z tabiiy tayyorasiga.*
3. *Rosa bo‘shliqlarda daydigach bebosh,*
4. *Urildi Mushtariy sayyorasiga.*

5. *Mushtariy degani oftob misoli*
6. *Fazo karvonida muhtasham nordir.*
7. *Ne kechdi u sho‘rlik yulduzning holi,*
8. *Vazni tog‘ qoshida zig‘ircha bordir.*

9. *Buyuklik qudratin sezmay yo sezib,*
10.*O‘zi izlab topmish so‘nggi marrani.*
11.*Mushtariy samoda milyard yil kezib,*
12.*Axir axtarmagan o‘sha zarrani.*

13.*Taajjub qilaman, buyuklik asli,*
14.*Tanlagan yo‘lidan burilmas ekan.*
15.*Zarra buyuklikka urilgay, ammo,*
16.*Buyuklik zarraga urilmas ekan.*

BÜYÜKLÜK (297)

1. Asumanda ve felekte mucizevi yıldız, taş,
2. Bindi kendi tabii tayyaresine.

3. Hayli boşluklarda avare olunca başsız,
4. Vuruldu Jüpiter seyyaresine.

5. Jüpiter dediği afitap misali
6. Feza kervanında muhteşem devedir.
7. Ne oldu o cilveli yıldızın hâli,
8. Ağırlığı dağ yanında küçücüktür.

9. Büyüklük kudretini sezmeden yahut sezip,
10. Kendisi arayıp bulmuş son sınırı.
11.Jüpiter semada milyarlarca yıl gezip,
12. Nihayet aramamış işte o zerreyi.

13. Hayret ederim, büyüklük asıl,
14. Seçtiği yolundan dönmezmiş.
15. Zerre büyüklüğe vurulacak, ama,
16.Büyüklük zerreye vurulmazmış. (1994)

DIL OG‘RIG‘I (298)

1. *Qo‘l og‘rig‘i bosilsa*
2. *Dil og‘rig‘i boshlanar.*
3. *Olis xotiralardan*
4. *Ko‘ngil tag‘in g‘ashlanar.*

5. *Sokin o‘tgan bir damni,*
6. *Eslolmayman, yo Rabbim.*
7. *Taqdir qo‘lida yoydek*
8. *Egilib borar qaddim.*

9. *Yaxshi bilan yomonni*
10.*Yetolmayin farqiga,*
11.*Faqat yo‘l izlab o‘tdim,*

12.*Muhabbatning arkiga.*

13.*Bir qarasam, paykondek*
14.*Umr uchib ketmishdir.*
15.*Bilmadim, u chaqin - o‘q*
16.*Qay manzilga yetmishdir.*

17.*Qaydadir intilganim -*
18.*Muhabbatim qayonda,*
19.*Balki men bu yonda-yu,*
20.*Qalbim esa u yonda.*

21.*Inson umri shul ekan -*
22.*Yo‘li to‘la nadomat.*
23.*Gar vaslingga yetkazsa*
24.*Kela qolgil, qiyomat.*

25.*Hayotimning ma’nosin*
26.*Bir nafasga qaytib ber.*
27.*Mayli, so‘ngra barchasin*
28.*Doston qilib aytib ber.*

29.*Mushkul ekan bu qadar*
30.*Ezgulikka yetishmoq.*
31.*Hayot-ku, bir chistondir,*
32.*Muhabbat ham topishmoq.*

33.*Qo‘l og‘rig‘i bosilsa*
34.*Dil og‘rig‘i boshlanar.*
35.*Olis xotiralardan*
36.*Ko‘ngil tag‘in g‘ashlanar.*

GÖNÜL ACISI (298)

1. El ağrısı dindirilse
2. Gönül acısı başlar.
3. Uzun hatıralardan
4. Gönül yine sıkılır.

5. Rahat geçen bir anı,
6. Hatırlayamam, ya Rabb'im!
7. Kader elinde yay gibi
8. Bükülür boyum.

9. İyiyle kötünün
10. Varamadan farkına,
11. Sadece yol aradım,
12. Muhabbetin arığına.

13. Bir baksam, ok gibi
14.Ömür uçup gitmiştir.
15. Anlamadım, o ateş ok
16. Hangi menzile yetmiştir.

17. Nerede arzuladığım,
18. Muhabbetim nerede?
19. Belki ben burada
20. Kalbim ise orada.

21.İnsan ömrü şuymuş,
22. Yolu dolu nedamet.
23.Eğer vasılına eriştirse
24. Gel, kıyamet.

25. Hayatımın manasını

26. Bir nefese döndürüver.
27. Tamam, sonra hepsini
28. Destan yapıp söyleyiver.

29.Müşkülmüş bu kadar
30.İyiliğe yetişmek.
31. Hayat, bir muammadır,
32. Muhabbet de bilmece.

33. El ağrısı dindirilse
34.Gönül acısı başlar.
35. Uzun hatıralardan
36.Gönül yine sıkılır. (1994)

VIJDON (299)

1. *Jahon shoirlari vijdon haqida*
2. *Azaldan ming-minglab baytlar yozmishlar.*
3. *Vijdon-ku, aslida sobit aqida,*
4. *Kimlardir bu yo‘ldan goho ozmishlar.*

5. *Balki vijdon deya tinmay chekib oh,*
6. *Hayqirib yurmaydi har qanday odam.*
7. *Topilgay bobolar hikmatlarin goh,*
8. *Shunchaki nasihat deguvchilar ham.*

9. *Qay bitta narsaga muhtoj bo‘lsa rap,*
10.*Eng avval o‘shanga topingay inson.*
11.*Mayli, ummon qadar yo zarra qadar,*
12.*Har nechuk qalblarda bor bo‘lsin vijdon.*

13.*Magar ketar bo‘lsa vijdon bosh olib,*
14.*Iymon ham u bilan birga ko‘chgaydir.*

15. *Butkul mardu nomard tayanchsiz qolib,*
16. *Choh uzra chirpirak bo‘lib uchgaydir.*

17. *Devlar qutulgandek Sulaymon o‘lib,*
18. *Betizgin tuyg‘ular har yon yugurgay.*
19. *Qalb degan istehkom posbonsiz bo‘lib,*
20. *Eng avval nafs unga o‘zini urgay.*

21. *Haqiqat atalmish ravshan quyoshni,*
22. *Ochiq diydalarki, ilg‘amas ko‘rib.*
23. *Avliyo degaylar so‘qir avboshni,*
24. *Adolat o‘rnini egallar firib.*

25. *Ilojin topsalar har qanday onda*
26. *El-yurtni chalg‘itib qo‘yarlar oson.*
27. *Gar hakam bo‘lsalar biror maydonda,*
28. *Mag‘lubni g‘olib deb etarlar e’lon.*

29. *Kuppa-kunduz kuni kiprik qoqmasdan*
30. *Yolg‘on so‘zlay boshlar daholar hatto.*
31. *Kimlardir umrida bir sham yoqmasdan,*
32. *Mash’al bo‘lmoqlikni qilgaylar da’vo.*

33. *Vijdon ketgan joyda albatta bir kun,*
34. *Ilondek qo‘zg‘olur bo‘hton va tuhmat.*
35. *Bu yorug‘ olamda odamzod uchun*
36. *Bormikan ulardan ortiqroq kulfat.*

37. *Vijdonsiz kimsaga duch kelgan nafas*
38. *Kofir ham dod solgay: Asragil, yo Rabb!*
39. *Oddiy bismilloni bilmaydigan kas*
40. *Iltijo qilgaydir qiblaga qarab.*

41.*Vijdondan ayrilib qolgan fursatda*
42.*Boshlanar toj-taxtga ruju daf'atan.*
43.*Ne-ne zukko xalqlar qolib g'aflatda,*
44.*To'zg'ib ketajakdir butun bir Vatan.*

45.*Ha, o'zing yorlaqa, yaratgan egam,*
46.*Iblis yuraklarga qutqu solmasin.*
47.*Vijdondan mosuvo etmagin hech ham,*
48.*Toki u xotirot bo'lib qolmasin.*

VİCDAN (299)

1. Cihan şairleri vicdan hakkında,
2. Ezelden binlerce beyitler yazmışlar.
3. Vicdan, aslında sabit akide,
4. Kimileri bu yoldan bazen çıkmışlar.

5. Belki vicdan diye durmadan çekip ah,
6. Haykırıp yürümez her bir insan.
7. Bulunacak dedelerin hikmetleri bazen,
8. Bu kadar ki nasihat edenlerin de.

9. Hangi bir şeye muhtaç olsa eğer,
10. En evvel işte o bulunacak insan.
11. Tamam umman kadar yahut zerre kadar,
12. Herhâlde kalplerde var olsun vicdan.

13.Eğer giderse vicdan başını alıp,
14.İman da onunla beraber göçecektir.
15.Büsbütün mert ve namert desteksiz kalıp,
16.Çukur üstünde hızla dönüp uçacaktır.

17. Devler kurtulmuş gibi Süleyman ölüp,
18. Dizginsiz duygular her yana koşacak.
19. Kalp denen istihkâm hamisiz olup,
20. En evvel nefis ona kendini vuracak.

21. Hakikat denilmiş parlak güneşe,
22.Açık gözler ki, algılamaz görüp.
23. Evliya diyecekler kör akılsıza,
24. Adalet makamını ele geçirir hile.

25.Çaresini bulsalar her anda
26. Halkı, yurdu oyalarlar kolay.
27.Eğer hakem olsalar bir meydanda,
28. Mağlubu galip diye ederler ilan.

29.Güpegündüz vakti uyumadan
30. Yalan söylemeye başlar dehalar hatta.
31. Kimileri ömründe bir mum yakmadan,
32. Meşale olmayı edecekler dava.

33. Vicdan gittiği yerde elbette bir gün,
34.Yılan gibi ortaya çıkar bühtan ve töhmet.
35. Bu aydın âlemde insanlık için
36. Var mıymış onlardan daha fazla külfet?

37. Vicdansız kimseye rastladığı an,
38.Kâfir de haykıracak: Koru, ya Rabb!
39. Basit bismillahı bilmeyen kişi
40.İltica edecektir kıbleye doğru.

41. Vicdandan ayrıldığı zamanda
42. Başlar tâc u tahta rücu birden.
43.Çok akıllı halklar kalıp gaflette,

44. Yok olup gidecektir bütün bir Vatan.

45. Evet, kendin bağışla, Yaradan sahibim,
46.İblis yüreklere fitnelemesin.
47. Vicdandan ayırmasın hiç de,
48. Ta ki o hatırat olup kalmasın. (1994)

ERKINLIK (300)

1. *Egasi yo‘q tulporman,*
2. *Dala-dashtda kezguvchi.*
3. *Uchib yurgan shunqorman,*
4. *Har sharpani sezguvchi.*

5. *Qo‘lga tushsam tulpor deb*
6. *Ko‘pkariga solurlar,*
7. *Yo, bos, qani, shunqor deb*
8. *O‘ljasini olurlar.*

ÖZGÜRLÜK (300)

1. Sahibi olmayan tulparım,
2. Tarlada, bozkırda gezen.
3. Uçup giden şahinim,
4. Her gölgeyi sezen.

5. Ele geçsem tulpar diye
6. Ulağa salarlar,
7. Yahut yeter, hadi, şahin diye
8. Ganimetini alırlar. (1994)

SHUKUR BURHON (301)

1. *Azamat bir chinor,*
2. *Ayqirgan daryo.*

3. *Undan nariroqda salobatli tog‘.*

4. *Tepada poyonsiz haybatli samo,*

5. *Atrofda ufqqa tutash dala, bog‘.*

6. *Chinor soyasida ulug‘ mo‘ysafid*

7. *Sokin kuzatadi yeru osmonni.*

8. *U Shukur Burhondir, goho shu taxlit*

9. *Tasavvur qilaman O‘zbekistonni.*

ŞÜKÜR BURHAN (301)

1. Büyük bir çınar,

2. Çağlayan derya.

3. Ondan daha uzakta azametli dağ.

4. Tepede sonsuz heybetli sema,

5. Etrafta ufukla bitişen tarla, bağ.

6. Çınar gölgesinde ulu ihtiyar,

7. Sessiz gözetler yer ve asumanı.

8. Şükür Burhan’dır, bazen o şekilde

9. Tasavvur ederim Özbekistan’ı. (1994)

BOSHPANA (302)

1. *To hayot ekansan bu olam aro*

2. *Boshingga savdolar tushgay rang-barang.*

3. *Gohida shukr aylab sevinsang, goho*

4. *Juda ko‘p narsadan sovir hafsalang.*

5. *Yuragingni siqar ming bitta savol,*

6. *Do‘st deb bilganingning adovatlari.*

7. *Qiynar unutilish, mavhum istiqbol,*

8. *O‘tgan yo‘llaringning nadomatlari.*

9. *Deysan nahot g‘olib dunyoda iblis,*

10.*Nahot yaxshilikning boshi doim xam.*

11.*Chulg‘ab olganida shundayin bir his,*

12.*Qayga qochar eding, bechora odam.*

13.*Faqat tabiat bor - ilohiy maskan,*

14.*Faqat o‘shanga sen bepisand boqma.*

15.*Loaqal uni sen tanigin, Inson,*

16.*Yolg‘iz boshpanangni o‘t qo‘yib yoqma.*

EV (302)

1. Ta hayatmışsın bu âlem içinde

2. Başına sevdalar düşecek rengârenk.

3. Gâh şükredip sevinsen, gâh

4. Çok fazla şeye kalmaz hevesin.

5. Yüreğini sıkar binbir soru,

6. Dost diye bildiğinin adavetleri,

7. Zulmeder unutuluş, mevhum istikbal,

8. Geçtiğin yollarının nedametleri.

9. Der misin galip dünyada iblis,

10.İyiliğin başı mı daima eğik?

11. Sardığında öyle bir his,

12. Nereye kaçardın, biçare insan?

13. Sadece tabiat var, ilahi mesken,

14. Sadece işte ona sen koşulsuz bakma.

15. Hiç olmazsa onu sen tanı, İnsan,

16. Yalnız evini ateşe verip yakma. (1994)

QAYSAR BOLA (303)

(Qiziqchilar bisotidan)

1. *Bor ekanu yo‘q ekan,*
2. *Bir bola bo‘lgan ekan.*
3. *Hammani sensirashni*
4. *U odat qilgan ekan.*
5. *Otani ham sen dermish,*
6. *Onani ham sen dermish.*
7. *Bir kun muallim unga*
8. *Shunday deb tanbeh bermish:*
9. *Sensiraysan hammani,*
10. *Shu jumladan meni ham.*
11. *Bunday xunuk odatni*
12. *Tashlagin endi, ukam.*
13. *Mening bir maslahatim*
14. *Natija berar balkim.*
15. *Siz deyman deb barchani*
16. *Yuz marta yozib kelgin.*
17. *Ertasiga bolakay*
18. *Vazifani bajarmish.*
19. *Aytganini yuz emas,*
20. *Ikki yuz bor qaytarmish.*
21. *Muallim shod: “Men senga,*
22. *Ha, ishongan edim-da.”*
23. *Bola dermish: “Seni bir*
24. *Xursand qilay dedim-da.”*

İNATÇI ÇOCUK (303)

(Latifecilerin zenginliğinden)

1. Bir var iken bir yok iken,
2. Bir çocuk var imiş.
3. Herkese saygısızlığı

4. O âdet edinmişmiş.
5. Babaya da sen dermiş,
6. Anaya da sen dermiş.
7. Bir gün muallim ona
8. Şöylece tembih etmiş:
9. Saygısızsın herkese,
10. Bana da olduğu gibi.
11.Böyle kötü âdeti
12.Bırak şimdi, kardeşim.
13. Benim bir nasihatim
14. Netice verir belki.
15. Siz diyeceğim diye herkese
16.Yüz kez yazıp gel.
17. Ertesi güne yavrucak
18. Vazifeyi yerine getirmiş.
19.Söylediğini yüz değil,
20.İki yüz kez tekrarlamış.
21. Muallim şad: "Ben sana,
22. Evet, inanmıştım."
23.Çocuk demiş: "Seni bir
24. Memnun edeyim dedim de." (1994)

"OLAMDA HECH NARSA EMAS YAGONA…" (304)

1. *Olamda hech narsa emas yagona,*
2. *Besh panjang misoli turfa zamona.*
3. *Agar bir oqilni uchratsang, bilki,*
4. *Unga to'g'ri kelgay yuzta devona.*

"ÂLEMDE HİÇBİR ŞEY DEĞİL YEGÂNE…" (304)

1. Âlemde hiçbir şey değil yegâne,
2. Beş parmak misali acayip zamane.
3. Eğer bir akıllıya rastlasan, bil ki,
4. Ona doğru gelecek yüz divane. (1994)

“PAYMONALAR O‘Z-O‘ZIDAN TO‘LGAN EMAS…” (305)

1. *Paymonalar o‘z-o‘zidan to‘lgan emas,*

2. *Mangulik ham bir lahzada bo‘lgan emas.*

3. *Hoy raqibim, alay-balay dema menga,*

4. *Men o‘lmayman, chunki bobom o‘lgan emas.*

“KADEHLER KENDİ KENDİNE DOLMUŞ DEĞİL…” (305)

1. Kadehler kendi kendine dolmuş değil,

2. Sonsuzluk da bir anda olmuş değil.

3. Hey rakibim, olur olmaz söz söyleme bana,

4. Ben ölmem, çünkü dedem ölmüş değil. (1994)

“ISHLARI IG‘VO-YU TUHMAT VA RIYO” (306)

1. *Ishlari ig‘vo-yu tuhmat va riyo,*

2. *Aldamchi, haromxo‘r, iymonsiz balo.*

3. *Agar ularni ham yaratgan bo‘lsang*

4. *Kimdan gina qilay endi, ey xudo.*

“İŞLERİ FESATLIK, TÖHMET VE RİYA” (306)

1. İşleri fesatlık, töhmet ve riya,

2. Aldatıcı, haram yiyen, imansız bela.

3. Eğer onları da yaratmış olsan

4. Kime yakınayım şimdi, ey Hüda. (1994)

“SHE’RIM, AYTGAN SO‘ZIM, BA HUKMI ZAMON” (307)

1. *She’rim, aytgan so‘zim, ba hukmi zamon,*

2. *Tarqalib ketdilar hammasi har yon.*

3. *Qalblarda tinch-totuv yasharmi ular,*

4. *Bozor iqtisodi bilan yonma-yon.*

“ŞİİRİM, SÖYLEDİĞİM SÖZÜM, HÜKM-Ü ZAMAN” (307)

1. Şiirim, söylediğim sözüm, hükmü zaman,
2. Dağılıp gittiler hepsi her yana.
3. Kalplerde huzurlu, dostane yaşar mı onlar,
4. Pazar iktisadıyla yan yana. (1994)

BAYRAM (308)

1. *Toki tirik ekan dunyoda odam,*
2. *Unga hamroh erur goh shodlik, goh g‘am.*
3. *Ertang ne bo‘lishin bilmasman ammo,*
4. *Tinch o‘tgan har kuning, albatta, bayram.*

5. *Yordan ayri kechsa - har lahza abas,*
6. *Vafosiz do‘stni ham do‘stim dema, bas.*
7. *Keng jahon sen uchun bo‘lmasdan qafas,*
8. *Tinch o‘tgan har kuning, albatta, bayram.*

9. *Demagil, chopqirdir omadim manim,*
10. *Hech qachon belanmas loylarga sha’nim.*
11. *Ustingdan yozmasdan bir nomard g‘anim,*
12. *Tinch o‘tgan har kuning, albatta, bayram.*

13. *Oddiy narsalarni ko‘zga ilmay goh,*
14. *Olis yulduzlar deb chekamiz oh-voh.*
15. *Boshingni qotirmay yoningdagi moh,*
16. *Tinch o‘tgan har kuning, albatta, bayram.*

17. *Olamda bazmu aysh uchrar alomat,*
18. *Bemorga bormikan undan halovat.*
19. *Mayliga yovg‘on ich, lekin salomat,*
20. *Tinch o‘tgan har kuning, albatta, bayram.*

21.*Eng avval tinch bo‘lsin ko‘ksingda vijdon,*
22.*Tinch bo‘lsin elu yurt, Vatan jonajon.*
23.*G‘uborga chulg‘anmay shu yeru osmon,*
24.*Tinch o‘tgan har kuning, albatta, bayram.*

25.*Yashashning shavqin sur sira tolmasdan,*
26.*She’ring yoz, paysalga endi solmasdan.*
27.*Faqat qartayganda sevib qolmasdan,*
28.*Tinch o‘tgan har kuning, albatta, bayram.*

BAYRAM (308)

1. Ta ki canlıymış dünyada insan,
2. Ona yoldaştır gâh şadlık, gâh gam.
3. Yarının ne olacağını bilmem ama,
4. Huzurlu geçen her günün, elbette, bayram.

5. Yârdan ayrı geçse, her lahza abes,
6. Vefasız dosta da dostum deme, yeter.
7. Geniş cihan senin için olmadan kafes,
8. Huzurlu geçen her günün, elbette, bayram.

9. Deme, hızlıdır talihim benim,
10. Hiçbir zaman bulaşmaz çamurlara şanım.
11.Üstüne sermeden bir namert düşman,
12. Huzurlu geçen her günün, elbette, bayram.

13. Basit şeyleri gözden kaçırıp bazen,
14. Uzak yıldızlara çekeriz ah vah.
15. Kafasını yormadan yanındaki ay,
16. Huzurlu geçen her günün, elbette, bayram.

17.Âlemde eğlence bezmine rastlar alamet,

18. Hastaya var mıymış ondan halavet,
19. Tamam çorba iç, lakin selamet,
20. Huzurlu geçen her günün, elbette, bayram.

21. Evvela dinç olsun göğsünde vicdan,
22. Dinç olsun halk ve yurt, Vatan cancağızım.
23. Toza bulanmadan şu yer ve asuman,
24. Huzurlu geçen her günün, elbette, bayram.

25. Yaşamanın şevkini sür asla dolmadan,
26.Şiirin yaz, şimdi geciktirmeden.
27. Yalnız yaşlandığında sevmeden,
28. Huzurlu geçen her günün, elbette, bayram. (1994)

XOTIRA (309)

1. *Mag‘ribda yovuzlik ko‘targanda bosh,*
2. *Siz sodiq qoldingiz ezgu niyatga.*
3. *Yomg‘ir yopinchig‘u yostig‘ingiz tosh,*
4. *Qalqon bo‘loldingiz insoniyatga.*

5. *Ona yurt bag‘ridan juda ham yiroq,*
6. *O‘zga manzillarda topshirdingiz jon.*
7. *Hanuz ko‘ksimizni tirnaydi firoq,*
8. *Garchi siz muzaffar, g‘olib, qahramon.*

9. *Garchi Vatan sizni hamisha yodlar,*
10.*Lekin armoningiz sig‘mas qabrga.*
11.*Hali tug‘ilmagan ne-ne zuryodlar,*
12.*Barchasi ketdilar siz bilan birga.*

13.*Zaminda charx urar ruhingiz bedor,*
14.*Qolgan tiriklarning tinchini o‘ylab.*

15.*Charx urar, Chotqolga termulgancha zor,*
16.*Qarshining bepoyon dashtlari bo‘ylab.*

17.*Ozod O‘zbekiston bosh egib bu kun,*
18.*Shahid farzandlarin nomini yo‘qlar.*
19.*Qay biri bedarak, qay biri beun,*
20.*Uzoq sarhadlarda jimgina uxlar.*

21.*Manguga tinmishdir qalb tug‘yonlari,*
22.*Endi xotirangiz yo‘ldoshdir bizga.*
23.*Xalqimning fidoyi mard o‘g‘lonlari,*
24.*Allohning rahmati yog‘ilsin sizga.*

HATIRA (309)

1. Mağrip’te yavuzluk kaldırdığında baş,
2. Siz sadık kaldınız iyi niyete.
3. Yağmur örtü ve yastığınız taş,
4. Kalkan olabildiniz insaniyete.

5. Anayurt bağrından çok da uzak,
6. Başka menzillerde verdiniz can.
7. Henüz göğsümüzü tırmalar firak,
8. Gerçi siz muzaffer, galip, kahraman.

9. Gerçi Vatan sizi daima yâd eder,
10. Lakin ukdeniz sığmaz kabre.
11. Henüz doğmamış nice evlatlar,
12. Hepsi gittiler sizinle birlikte.

13. Zeminde dolaşır ruhunuz bidar,
14. Kalan dirilerin huzurunu düşünüp.
15. Dolaşır, Çatkal’a gözünü dikince intizar,

16. Karşi'nin sonsuz çölleri boyunca.

17. Azat Özbekistan baş eğip bugün,
18.Şehit evlatlarının namını yoklar.
19. Hangi biri habersiz, hangi biri sessiz,
20. Uzak serhatlarda sessizce uyur.

21. Sonsuza dek dinmiştir kalp heyecanları,
22.Şimdi hatıranız yoldaştır bize.
23. Halkımın fedai mert oğlanları,
24. Allah'ın rahmeti yağsın size. (1994)

ADOLAT (310)

1. *Yo'qsilga dedilar: Da'voyingdan kech,*
2. *Mana ol, siymu zar senga kafolat.*
3. *Yo'qsil ular gapin tinglamadi hech,*
4. *Adolat, dedi u faqat, adolat!*

5. *Badavlat kimsaga berdilar savol,*
6. *Dedilar: Nima bor kuchliroq puldan?*
7. *U javob qaytardi: - Qo'rqaman alhol,*
8. *Adolat axtargan o'sha yo'qsildan.*

ADALET (310)

1. Yoksula dediler: Davandan vazgeç,
2. İşte al, gümüş ve zer sana kefalet.
3. Yoksul onların sözünü dinlemedi hiç,
4. Adalet, dedi o yalnız, adalet!

5. Zengin kimseye sordular soru,
6. Dediler: Ne var daha güçlü paradan?
7. O cevap verdi: - Korkarım şimdi,

8. Adalet arayan işte o yoksuldan. (1994)

XALQ (311)

1. *Hamma narsa o‘tadi, mansab, shonu shavkat ham,*
2. *Shirindan shirin qolur, talhdan esa qolur talx.*
3. *Bir kuni tuproq bo‘lur, tengsiz shamsi tal’at ham,*
4. *Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.*

5. *Gohida ko‘zda yoshu gohida xandon bo‘ldik,*
6. *Gohida bolg‘a bo‘lsak, gohida sandon bo‘ldik,*
7. *Axiyri kulib tole, sohibi davron bo‘ldik,*
8. *Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.*

9. *Nomingni qaro degan - paxtaginam, senmisan,*
10. *Lo‘ppi deya yutganim - laxtaginam, senmisan,*
11. *Avaxtada bosh urgan taxtaginam, senmisan?!*
12. *Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.*

13. *O‘zbekning peshonasin po‘latdan yaratmishdir,*
14. *Yumushini malomat, zahmatdan yaratmishdir,*
15. *Bir so‘z bilan aytganda - mehnatdan yaratmishdir,*
16. *Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.*

17. *Tinglasang tuganmaslik afsonasi bor bu el,*
18. *Sarkardasi, shoiri, taronasi bor bu el,*
19. *Ming oqilga arzirlik devonasi bor bu el,*
20. *Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.*

21. *Farishta emasdirmiz, ushbu gapim sir emas,*
22. *Har uchragan eshonu, har sallalik pir emas,*
23. *Lekin dasturxon haqqi, ko‘nglimiz hech kir emas,*
24. *Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.*

25.*Janggohlarda jon bergan bobolarni unutmang,*

26.*Moshoq terib non bergan momolarni unutmang.*

27.*E’tiqod, iymon bergan duolarni unutmang,*

28.*Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.*

29.*Amalparast, lo‘ttiboz bo‘lmagan qachon axir,*

30.*Sak bir nima yemasa og‘zi bo‘larmish taxir,*

31.*Bizning barchamiz shohmiz, bizning barchamiz faqir!*

32.*Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.*

33.*O‘tganlarni yod etmoq qolgandir shariatdan,*

34.*Inson sharafi yuksak millatu tariqatdan,*

35.*O‘zbekka bul fazilat yuqmishdir tabiatdan.*

36.*Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.*

37.*Olimmi yo paxtakor, kim bo‘lmasin - odamdir,*

38.*Ya’ni Alloh bandasi - har biri bir olamdir,*

39.*O‘zbegim o‘z volidam, o‘zbegim o‘z otamdir,*

40.*Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.*

41.*Ayon gapki, adolat elning ko‘z, qoshi bo‘lur.*

42.*Urgani un oshi-yu, so‘ksa so‘k oshi bo‘lur,*

43.*Yurt og‘irin tortolgan asli yurt boshi bo‘lur,*

44.*Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.*

45.*Kattakon yo‘lga chiqding, yo‘ldoshing bo‘lay, xalqim,*

46.*Farzandingman, qo‘llaysan, qo‘ldoshing bo‘lay, xalqim,*

47.*Hasrating ko‘p dilingda, dildoshing bo‘lay, xalqim,*

48.*Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.*

HALK (311)

1. Her şey geçer, makam, şan ve şevket de,
2. Tatlıdan tatlı kalır, acıdansa kalır acı.
3. Bir gün toprak olur, eşsiz şems-i tal'at da,
4. Yalnızca halk yaşar, yalnızca kalır halk.

5. Gâh gözde yaş ve gâh handan olduk,
6. Gâh çekiç olsak, gâh örs olduk,
7. Sonunda gülüp talih, sâhib-i devran olduk,
8. Yalnızca halk yaşar, yalnızca kalır halk.

9. Namına kara diyen, pamukçuğum, sen misin,
10. Tombul diye yuttuğum, topağım, sen misin,
11. Hapishanede baş eğdiğim tahtacığım, sen misin?!
12. Yalnızca halk yaşar, yalnızca kalır halk.

13.Özbek'in alnını çelikten yaratmıştır,
14.İşini melamet, zahmetten yaratmıştır,
15. Bir sözle söylediğinde, emekten yaratmıştır,
16. Yalnızca halk yaşar, yalnızca kalır halk.

17. Dinlersen bitmeyen efsanesi olan bu halk,
18.Önderi, şairi, teranesi olan bu halk,
19. Bin akla değer divanesi olan bu halk,
20. Yalnızca halk yaşar, yalnızca kalır halk.

21. Ferişte değildir, işte bu sözüm sır değil,
22. Her rastladığın molla ve her sarıklı pir değil,
23. Lakin sofra hakkı, gölümüz hiç kir değil,
24. Yalnızca halk yaşar, yalnızca kalır halk.

25. Savaş meydanlarında can veren dedeleri unutmayın,

26. Başak toplayıp ekmek veren nineleri unutmayın,
27.İtikat, iman veren duaları unutmayın,
28. Yalnızca halk yaşar, yalnızca kalır halk.

29. Makam düşkünü, hilekâr olmamış ne zaman nihayet,
30.İt bir şey yemese ağzı olurmuş buruk.
31. Bizim hepimiz şahız, bizim hepimiz fakir!
32. Yalnızca halk yaşar, yalnızca kalır halk.

33. Geçmişleri yâd etmek kalmıştır şeriattan,
34.İnsan şerefi yüksek millet ve tarikattan,
35.Özbek'e bu fazilet yükmüştür tabiattan,
36. Yalnızca halk yaşar, yalnızca kalır halk.

37.Âlim mi yahut pamukçu mu, kim olsa, insandır,
38. Yani Allah bendesi, her biri bir âlemdir,
39.Özbek'im öz validem, Özbek'im öz babamdır,
40. Yalnızca halk yaşar, yalnızca kalır halk.

41. Ayan söz ki adalet halkın gözü, kaşı olur,
42. Hazırladığı un, öğüttüğü darı aşı olur,
43. Yurdun zorluğunu çekebilen asıl devlet başkanı olur,
44. Yalnızca halk yaşar, yalnızca kalır halk.

45. Heybetli yola çıktın, yoldaşın olayım, halkım,
46. Evladınım, kollarsın, yardımcın olayım, halkım,
47. Hasretin çok gönlünde, gönüldaşın olayım, halkım,
48. Yalnızca halk yaşar, yalnızca kalır halk. (1994)

BURGUT QISMATI (312)

1. *Quloqqa chalinar gohi-gohida*
2. *Shunday bir rivoyat, shunday bir o'git:*

3. *Nochoru noiloj qolgan chog‘ida*
4. *O‘zini toshlarga urarmish burgut.*

5. *Men senga iltijo qilurman, egam,*
6. *Agar-chi tilimda shukronang bisyor.*
7. *Mehringdan mosuvo etma meni ham,*
8. *Do‘stlarga zor etma, dushmanlarga xor.*

9. *Oqil bo‘lsa hamki, bo‘lsa-da nodon,*
10. *Roziman, beribsan farzand yaratib.*
11. *Qartaygan chog‘imda, tilanchisimon*
12. *Sen ular qo‘liga qo‘yma qaratib.*

13. *Kulbai vayronam yetar menga, bas,*
14. *Yashayman sabrning koshonasida.*
15. *Iloyo, bosh egib yurmayin besas*
16. *Takabbur zotlarning ostonasida.*

17. *Qarayman sarg‘aygan tund quyoshimga,*
18. *Sekin og‘ib borar umrning tuni.*
19. *Magar rahm etmasang, tushsin boshimga,*
20. *Mayli, o‘sha nochor burgutning kuni.*

KARTAL KISMETİ (312)

1. Kulağa çalınır zaman zaman
2. Öyle bir rivayet, öyle bir öğüt:
3. Çaresiz ve âciz kaldığı an
4. Kendini taşlara vururmuş kartal.

5. Ben sana iltica ederim, sahibim,
6. Eğer dilimde şükrün bisyâr.
7. Şefkatinden mahrum etme beni de,

8. Dostlara intizar etme, düşmanlara horlama.

9. Bilgili olsa da, olsa da nadan,
10. Razıyım, vermişsin evlat yaratıp.
11. Yaşlandığım anda, dilenci gibi
12. Sen onların eline bırakma baktırıp.

13. Kulübe-i viranem yeter bana, kâfi,
14. Yaşarım sabrın sarayında.
15. Ey Rabb'im, baş eğip yürümeyeyim sessiz
16. Tekebbür zatların eşiğinde.

17. Bakarım sararan nahoş güneşime,
18. Yavaşça dönüp gider ömrün gecesi.
19.Eğer merhamet etmezsen, düşsün başıma,
20. Tamam, işte o naçar kartalın gündüzü. (1994)

ABDULLA QODIRIYNING SO'NGGI SABOG'I (313)

1. *Biringiz Otabek, biringiz Kumush,*
2. *Doim yashnab tursin sevgingiz bog'i.*
3. *Haqiqiy muhabbat bilmasin so'lish,*
4. *Ustoz Qodiriyning bu ilk sabog'i.*

5. *Adib yuragida alamlar qat-qat,*
6. *Lekin bittasi bor, o'chmasdir dog'i:*
7. *Jonni tik ozodlik yo'lida faqat,*
8. *Bu esa ustozning so'nggi sabog'i.*

ABDULLA KADİRÎ'NİN SON DERSİ (313)

1. Biriniz Atabey, biriniz Gümüş,
2. Daima yeşerip dursun seviniz bağı.
3. Hakiki muhabbet bilmesin solmak,

4. Üstat Kadirî'nin bu ilk dersi.

5. Edip yüreğinde elemler kat kat,
6. Lakin birisi var, dinmez acısı:
7. Can ver azatlık yolunda yalnız,
8. Bu ise üstadın son dersi. (1994)

"DUNYODA AJIB BIR HIKMAT MAVJUDDIR…" (314)

1. *Dunyoda ajib bir hikmat mavjuddir:*
2. *Agar bo'lmay desang baxtingdan judo,*
3. *Agar yashay desang rozi bir umr,*
4. *Vataning tinch bo'lsin, Vatan avvalo.*

5. *Dunyoda ajib bir hikmat mavjuddir:*
6. *Agar bo'lmay desang Vatandan judo,*
7. *Munosib bo'la bil unga bir umr,*
8. *Vatanga joningni qilolgin fido.*

"DÜNYADA ACAYİP BİR HİKMET MEVCUTTUR…" (314)

1. Dünyada acayip bir hikmet mevcuttur,
2. Eğer olmayayım dersen bahtından cüda,
3. Eğer yaşayayım dersen razı bir ömür,
4. Vatanın rahat olsun, Vatan evvela,

5. Dünyada acayip bir hikmet mevcuttur
6. Eğer olmayayım dersen Vatan'ından cüda,
7. Münasip olabil ona bir ömür,
8. Vatana canını edebil feda. (1994)

"ACHINMA, SHOIRGA XORLIGI UCHUN" (315)

1. *Achinma, shoirga xorligi uchun,*
2. *Yoki parcha nonga zorligi uchun.*

3. *Bilib qo‘y, aslida yashaydi shoir,*

4. *Dunyoda muhabbat borligi uchun.*

“ÜZÜLME, ŞAİRE ZAHMETİ İÇİN” (315)

1. Üzülme, şaire zahmeti için,

2. Yahut bir parça ekmeğe muhtaçlığı için.

3. Anla, aslında yaşar şair,

4. Dünyada muhabbetin varlığı için. (1994)

“CHINOR SOYASIDAN BAHRAMAND BO‘LIB” (316)

1. *Chinor soyasidan bahramand bo‘lib,*

2. *Turfa xil ertaklar to‘qimoq oson.*

3. *O‘zing ham ertaning tashvishin qilib,*

4. *Qaydadir bir nihol ekdingmi, Inson.*

“ÇINAR GÖLGESİNDE DİNLENİP” (316)

1. Çınar gölgesinden faydalanıp,

2. Türlü türlü masallar anlatmak kolay.

3. Kendin de masalın kaygısını taşıyıp,

4. Bir yere bir fidan ektin mi, İnsan? (1994)

ARMON EMASMI? (317)

1. *Lolazor qirlarda chopa bilmasman,*

2. *Axir u men uchun armon emasmi?*

3. *Bolalik yillarim topa bilmasman,*

4. *Axir u men uchun armon emasmi?*

5. *Xayol gulshanida tersam chechaklar,*

6. *Jajji nabiramga bo‘ldim ermaklar,*

7. *Endi onam aytmas menga ertaklar,*

8. *Axir u men uchun armon emasmi?*

9. *Qorong‘u tunlarda olovlar yoqib,*
10.*Ilk she’rim yozgandim yulduzga boqib,*
11.*Endi axtaraman ko‘zoynak taqib,*
12.*Axir u men uchun armon emasmi?*

13.*Qancha zot dunyoga keldiyu ketdi,*
14.*Birin dushman etsa, birin do‘st etdi,*
15.*Birining boshiga shon-shuhrat yetdi,*
16.*Axir u men uchun armon emasmi?*

17.*Meni aldab ketdi lo‘ttiboz olchoq,*
18.*Ishongan kishim ham ko‘rsatdi yaroq,*
19.*Ularni xudoga topshirdim biroq,*
20.*Axir u men uchun armon emasmi?*

21.*Shukrona aytaman, do‘stlarim bordir,*
22.*Biri balki qo‘rqoq, birisi botir,*
23.*Yaxshilik qildimmi ularga axir,*
24.*Axir u men uchun armon emasmi?*

25.*Goho esh bo‘lsam-da siyosatlarga,*
26.*Qalbimni baxsh etdim malohatlarga,*
27.*Ular deb qoldim men malomatlarga,*
28.*Axir u men uchun armon emasmi?*

29.*Ogohman ishq degan ko‘hna shevadan,*
30.*Muhabbat atalmish tansiq mevadan,*
31.*Ortga qaray-qaray qaytdim Xivadan,*
32.*Axir u men uchun armon emasmi?*

UKDE DEĞİL Mİ? (317)

1. Lalezar kırlara koşamam,

2. Nihayet o benim için ukde değil mi?
3. Çocukluk yıllarımı bulamam,
4. Nihayet o benim için ukde değil mi?

5. Hayal gülşeninde toplasam çiçekler,
6. Minik torunuma oldum eğlenceler,
7. Şimdi anam söylemez bana masallar,
8. Nihayet o benim için ukde değil mi?

9. Karanlık gecelerde ateşler yakıp,
10.İlk şiirimi yazmıştım yıldıza bakıp,
11.Şimdi ararım gözlük takıp,
12. Nihayet o benim için ukde değil mi?

13. Nice zat dünyaya geldi ve gitti,
14. Birini düşman etse, birini dost etti,
15. Birinin başına şan, şöhret yetti,
16. Nihayet o benim için ukde değil mi?

17. Beni aldatıp gitti hilekâr, alçak,
18.İnanan kişiyim diye gösterdi layık,
19. Onları Hüda'ya havale ettim yalnız,
20. Nihayet o benim için ukde değil mi?

21.Şükrederim, dostlarım vardır,
22. Birisi belki korkak, birisi bahadır,
23.İyilik ettim mi onlara sonunda,
24. Nihayet o benim için ukde değil mi?

25. Bazen eş olsam da siyasetlere,
26. Kalbimi bahşettim Melahatlara,
27. Onlar deyip kaldım ben melametlere,
28. Nihayet o benim için ukde değil mi?

29. Agâhım aşk denen köhne cilveden,

30. Muhabbet denilmiş nadide meyveden,

31. Arda baka baka döndüm Hive'den,

32. Nihayet o benim için ukde değil mi? (1995)

AMUDARYOGA (318)

1. *Kimligimni bilar edim ozroq,*

2. *Bilar edim suyukligimni.*

3. *Amudaryoni ko'rganda biroq*

4. *Bilib qoldim buyukligimni.*

AMUDERYA'YA (318)

1. Kimliğimi bilirdim daha az,

2. Bilirdim sevgilimi.

3. Amuderya'yı gördüğümde yalnız

4. Anladım büyüklüğümü. (1995)

SHOIRA ZULFIYA OPAMIZGA (319)

1. *O'tgan yillar uchun chekmang xijolat,*

2. *Uzr so'raybermang yuragingizdan.*

3. *Xijolatin tortsin o'zi tabiat,*

4. *Tabiat uzrini so'rasin sizdan.*

5. *Zahmatkash, mehnatkash shu qalam bilan,*

6. *Buyuk asrimizning siz ham naqlisiz.*

7. *Davrga goh quvonch, goh alam bilan,*

8. *Baho bermoqlikka siz ham haqlisiz.*

9. *Tabarruk bir yoshga yetibsiz omon,*

10.*Allohim kun bersa adog'i bo'lmas.*

11.*Agar yuraklarni zabt etsa inson,*

12.*Undayin umrning sanog‘i bo‘lmas.*

13.*Qorong‘u tunlarda olovli so‘zni,*
14.*Kimki mash’al qilsa tole unga yor.*
15.*Baxtli ayolman deb atabsiz o‘zni,*
16.*Sizday shoiri bor xalq ham baxtiyor.*

ŞAİRE ZÜLFİYE ABLAMIZA (319)

1. Geçmiş yıllar için duymayın utanç,
2. Özür dileyivermeyin yüreğinize.
3. Utancını duysun kendisi tabiat,
4. Tabiat özrünü dilesin size.

5. Emektar, çalışkan şu kalemle,
6. Büyük asrımızın siz de naklisiniz.
7. Devre gâh sevinç, gâh elemle,
8. Bedel vermeye siz de haklısınız.

9. Teberrük bir yaşa erişmişsiniz esen,
10. Allah’ım gün verse son olmaz.
11.Eğer yürekleri zapt etse insan,
12.Öyle ömrün hesabı olmaz.

13. Karanlık gecelerde ateşli sözünü,
14. Kim ki meşale etse talih ona yâr.
15. Bahtlı kadınım diye demişsiniz kendinize,
16. Sizin gibi şairi olan halk da bahtiyar. (1995)

SHOIRNING O‘G‘LI (320)

1. *Deysan, molu mulk yo‘q sizda ziyoda,*
2. *Holbuki, shoirsiz, Vatanda nomdor.*
3. *Oh, o‘g‘lim, bu ko‘hna, bir kam dunyoda,*

4. *Kimdir kamtarroq ham yashashi darkor.*

5. *Nomimiz eshitsa kimdir uchungay,*
6. *Arziydi badavlat, tug‘liman desang.*
7. *Balki, do‘stlaring ham to‘g‘ri tushungay,*
8. *Abdulla Orifning o‘g‘liman desang.*

ŞAİRİN OĞLU (320)

1. Dersin, mal ve mülk yok sizde ziyade,
2. Hâlbuki, şairsiz, Vatan’da namlı.
3. Ah, oğlum, bu köhne, kıt bir dünyada,
4. Kiminin daha mütevazı yaşaması gerekir

5. Namımızı işitse kimi kaçacak,
6. Değer gönençli, tuğluyum dersen.
7. Belki dostlarında doğru anlayacak,
8. Abdulla Arif’in oğluyum dersen. (1995)

BARAKAGA TO‘LSIN UYINGIZ (321)

1. *Onalar, opalar, singillar,*
2. *Muborak bo‘lsin bu to‘yingiz.*
3. *O‘zbekcha aytganda, har doim*
4. *Barakaga to‘lsin uyingiz.*

5. *Onalar, opalar, singillar,*
6. *Shodlikka jo‘r bo‘lsin kuyingiz.*
7. *Faqat bolalarning baxtini o‘ylab,*
8. *Kechar bo‘lsin ezgu o‘yingiz.*

9. *Onalar, opalar, singillar,*
10. *Hayotning shavqini tuyingiz.*
11. *Vatanni jondan ham ortiqroq,*

12.*Allohim qadarli suyingiz.*

13.*Onalar, opalar, singillar,*
14.*She'rimni faxrga yo'yingiz.*
15.*Bir do'stim degandi so'nggi dam,*
16.*Onamning yoniga qo'yingiz..*

BEREKETLE DOLSUN EVİNİZ (321)

1. Analar, ablalar, kız kardeşler,
2. Mübarek olsun bu toyunuz.
3. Özbekçe dediğinde, her daim
4. Bereketle dolsun eviniz.

5. Analar, ablalar, kız kardeşler,
6. Mutluluğa eş olsun nağmeniz.
7. Yalnız çocukların bahtını düşünüp,
8. Geçer olsun iyi düşünceniz.

9. Analar, ablalar, kız kardeşler,
10. Hayatın şevkini duyunuz.
11. Vatanı candan da daha fazla,
12. Allah'ı severcesine seviniz.

13. Analar, ablalar, kız kardeşler,
14.Şiirimi övgüye yorunuz.
15. Bir dostum demişti son demde,
16. Anamın yanına koyunuz… (1996)

"KO'ZMUNCHOQ…" (322)

1. *Men ellik beshdaman,*
2. *Otam besh yoshda.*
3. *Bu ajib holatni chiston etgulik.*

4. *Mening umrim kechar tuproqda, toshda.*
5. *Otamning dovrug‘i ko‘kka yetgulik.*

6. *Istiqlol beshigi, o, Ota makon,*
7. *Har bir qadamingga sadaqa jonlar.*
8. *Lahzada kuch yig‘ding Alpomishsimon,*
9. *Yaloving bo‘loldi moviy osmonlar.*

10. *Yerparchin yotganda tilim - zabonim,*
11. *Yuksal, deding menga, sayragin, deding.*
12. *Oyoqqa qalqqanda Sohibqironim,*
13. *Yov bossa, tig‘ingni qayragin, deding.*

14. *Ko‘zingga surt deding, faromush bo‘lgan*
15. *Tabarruk, muqaddas mozorlarimni.*
16. *Bir zotga aylandim - tolei kulgan,*
17. *Ketkazding dildagi ozorlarimni.*

18. *Hasad bilan to‘lgan bu ko‘hna ochun*
19. *Senga ham suq bilan tikilar, bilsang.*
20. *Seni balolardan asramoq uchun*
21. *Beray ko‘zlarimni, ko‘zmunchoq qilsang.*

22. *Endi erk abadiy yo‘ldoshing bo‘lgay,*
23. *Noming bor jahonda - do‘stparvar, hotam.*
24. *Iymonli har bir kas yo‘ldoshing bo‘lgay,*
25. *Ey, mening besh yoshli Pahlavon otam!*

“NAZAR BONCUĞU…” (322)

1. Ben elli beşimdeyim,
2. Babam beş yaşında.
3. Bu acayip hâlet bilmece etmelik.

4. Benim ömrüm geçer toprakta, taşta.
5. Babamın şanı göğe yetmelik.

6. İstiklal beşiği, ey, ata mekân,
7. Her bir adımına sadaka canlar.
8. Lahzada güç topladın Alpamış gibi,
9. Bayrağın olabildi mavi asumanlar.

10. Yere perçinlendiğinde dilim, zebanım,
11.Yüksel, dedin bana, öt, dedin.
12. Ayağa kalktığımda Sâhipkıran'ım,
13.Düşman bassa, kılıcını bile, dedin.

14.Gözüne sürt dedin, unutulmuş
15. Teberrük, mukaddes mezarlarımı.
16. Bir zata dönüştüm, talihi gülen,
17. Giderdin gönüldeki azarlarımı.

18. Hasetle dolan bu köhne acun
19. Sana da kem gözle bakar, bilsen.
20. Seni belalardan korumak için
21. Vereyim gözlerimi, nazar boncuğu edersen.

22.Şimdi erk ebedî yoldaşın olacak,
23. Namın tüm cihanda, dostperver, alicenap.
24.İmanlı her bir kişi yoldaşın olacak,
25. Ey, benim beş yaşında Pehlivan babam! (1996)

XAYOL (323)

1. *Xayolga berilma, birodar,*
2. *Qush kabi nazar sol olamga.*
3. *O'ylamay mehr qo'y odamga,*

4. *Xayolga berilma, birodar.*

5. *Xayolga berilsang mabodo,*
6. *Ko‘p noxush narsalar ko‘ringay.*
7. *Ilohlar iblisdek suringay,*
8. *Xayolga berilsang mabodo.*

9. *Xayolga berilsang nogahon*
10.*Ko‘ringay Furqatdek to‘g‘ri ham.*
11.*Ko‘ringay shu nomlik o‘g‘ri ham*
12.*Xayolga berilsang nogahon.*

13.*Xayolga berilsang, ochilgay*
14.*Qarshingda bir go‘zal surati.*
15.*Ayni choq alvasti siyrati*
16.*Xayolga berilsang, ochilgay.*

17.*Xayoling aldaydi ehtimol,*
18.*Dunyoda diyonat bor deya,*
19.*Daydi bir kuchukni nor deya*
20.*Xayoling aldaydi, ehtimol.*

21.*Xayoling puch bo‘lmas, inshoolloh,*
22.*Sen faqat fanoni o‘ylasang.*
23.*Sen faqat baqoni o‘ylasang,*
24.*Xayoling puch bo‘lmas, inshoolloh.*

HAYAL (323)

1. Hayale dalma, birader,
2. Kuş gibi dikkatle bak âleme.
3. Düşünmeden şefkat göster in san,
4. Hayale dalma, birader,

5. Hayale dalarsan eğer,
6. Çok nahoş şeyler görünecek.
7. İlahlar iblis gibi sürünecek,
8. Hayale dalarsan eğer,

9. Hayale dalarsan ansızın
10.Görünecek Furkat gibi doğru da.
11.Görünecek şu namlı hırsız da
12. Hayale dalarsan ansızın.

13. Hayal edersen, açılacak
14. Karşında bir güzel sureti.
15. Aynı anda albastı sireti
16. Hayal edersen, açılacak.

17. Hayalin aldatır belki,
18.Dünyada vicdan var diye,
19. Bir sokak köpeğini deve diye
20. Hayalin aldatır belki.

21. Hayalin suya düşmez, inşallah,
22. Sen yalnız ölümü düşünürsen.
23. Sen yalnız bekanı düşünürsen,
24. Hayalin suya düşmez, inşallah. (1996)

TAFSIR (324)

1. *Tuzumlar o‘zgarsa ham,*
2. *Inson o‘zgarmas ekan.*
3. *Tizimlar o‘zgarsa ham*
4. *Inson o‘zgarmas ekan.*
5. *Jaholat davrida ham*
6. *Avliyo - avliyodir.*

7. *Kaforat davrida ham*

8. *Anbiyo - anbiyodir.*

9. *Balki davron yo‘rug‘i*

10.*Aslan to‘g‘ri bo‘lgaydir.*

11.*Lekin ming bor dod dema,*

12.*O‘g‘ri - o‘g‘ri bo‘lgaydir.*

13.*Har qadamda bir masjid*

14.*Qurganing bilan, inson,*

15.*Insof bermasa, hech kim*

16.*Muslim bo‘lmas hech qachon.*

17.*Ko‘pkariga kirganning*

18.*Halollik erur dardi.*

19.*Lekin ular safida*

20.*Ot surar bir nomardi.*

21.*Gohida sadoqatli*

22.*Do‘stlaring qolib bir yon,*

23.*Yo‘lin topib, qo‘yningga*

24.*Kirib olgaydir ilon.*

25.*Mo‘min deb atar o‘zin*

26.*Goh yaxshi ham, yomon ham.*

27.*Qaysi biri haq erur?*

28.*O‘zi bilgaydir Egam.*

29.*Tuzumlar o‘zgarsa ham*

30.*Inson o‘zgarmas ekan.*

31.*Tizimlar o‘zgarsa ham*

32.*Inson o‘zgarmas ekan.*

33.*Shul boisdan Payg‘ambar*

34.*Ummat g‘amin yeganlar.*

35.*Allohdan boshqasiga*

36.*Sig‘inmagin, deganlar.*

TEFSİR (324)

1. Düzenler değişse de,

2. İnsan değişmezmiş.

3. Dizimler değişse de

4. İnsan değişmezmiş.
5. Cehalet devrinde de
6. Evliya, evliyadır.
7. Kefaret devrinde de
8. Enbiya, enbiyadır.
9. Belki devran yolu
10. Aslında doğru olacaktır.
11. Lakin bin kez eyvah deme,
12.Hırsız, hırsız olacaktır.
13. Her adımda bir mescit
14.İnşa ettiğinle, insan,
15.İnsaf vermese, hiç kimse
16.Müslüman olmaz hiçbir zaman.
17. Ulağa girenin
18. Helalliktir derdi.
19. Lakin onların safında
20. At sürer bir namerdi.
21. Bazen sadakatli
22. Dostların kalıp bir yanda,
23. Yolunu bulup, koynuna
24. Girip alacaktır yılan.
25.Mümin diye der kendine
26. Bazen iyi de, kötü de.
27. Hangi biri haktır?
28. Kendisi bilecektir Sahibim.
29.Düzenler değişse de,
30.İnsan değişmezmiş.
31. Dizimler değişse de
32.İnsan değişmezmiş.
33. Bu sebepten Peygamber
34.Ümmetini öngörmüş.
35. Allah'tan başkasına
36.Sığınma, demiş. (1996)

ESKI CHORIQ (325)

1. *Oldingda turibdi to‘kin dasturxon,*
2. *Endi unut bo‘lgan go‘jang-garig‘ing.*
3. *Balki eslamassan, qayda bu zamon,*
4. *O‘sha, sudrab yurgan eski chorig‘ing.*

5. *Tasmadan bog‘langan oddiy poyafzal*
6. *Garchi yo‘qsillikning misoli erur.*
7. *Bilsang, u men uchun ming darsdan afzal,*
8. *Dunyo hikmatlarin timsoli erur.*

9. *Bir kuni qutulib zulmat-soyadan*
10. *Omad narvonida ko‘targaysan qad.*
11. *Lekin bu omonat pillapoyadan*
12. *Balki yiqitgaydir seni ham hasad.*

13. *Shunda tashlab qochar ne-ne do‘st, yoron,*
14. *Axir ular uchun so‘ngan yorug‘ing.*
15. *Og‘zi qulog‘iga yetgancha shodon,*
16. *Seni kutib olar o‘shal chorig‘ing.*

ESKİ ÇARIK (325)

1. Önünde durmuş bereketli sofra,
2. Şimdi unutulmuş gocan[141], darın.
3. Belki hatırlamazsın, nerede bu zaman,
4. İşte o, sürükleyip yürüdüğün eski çarığın.

5. Şeritle bağlanan basit ayakkabı
6. Gerçi yoksulluğun misalidir.
7. Bilsen, o benim için bin dersten efdal,
8. Dünya hikmetlerinin timsalidir.

[141] Buğdaydan hazırlanan sulu bir yemek türüdür.

9. Bir gün kurtulup zulmetten, sayeden,
10. Talih merdiveninde büyüyeceksin.
11. Lakin bu emanet merdivenden
12. Belki düşürecektir seni de haset.

13. Burada atıp kaçar çok dost, yâren,
14. Nihayet onlar için sönmüş ışığın.
15.Ağzı kulağına varınca şâdân,
16. Seni bekler işte o çarığın. (1996)

MAQTANCHOQLAR (326)

1. *Bir kuni yig‘ildi uchta maqtanchoq,*
2. *Har kim o‘z yutug‘in so‘ylay boshladi.*
3. *Eng yuksak marrani zabt etgan qay choq?*
4. *Boshlarin qashlashib o‘ylay boshladi.*

5. *Birinchisi dedi: - Men aytsam agar,*
6. *Omad degan narsa dunyoda bor-da!*
7. *Hali aholisi bundan bexabar,*
8. *Ulkan bir shaharni yutdim qimorda.*

9. *Ikkinchisi dedi: - Murodga yetdim,*
10.*Ne-ne zukkolarning oldim aqlini.*
11.*Kuppa-kunduz kuni o‘marib ketdim*
12.*Mashhur bir shoirning qalam haqini.*

13.*Uchinchisi dedi: - Asli men g‘olib,*
14.*Jasorat barq urar qilgan ishimda.*
15.*Qaysi kun ko‘rpaga burkanib olib,*
16.*Boshlig‘imni so‘kdim boplab... ichimda!*

KİBİRLİLER (326)

1. Bir gün toplandı üç züppe,
2. Herkes kendi başarısını söylemeye başladı.
3. En yüksek zaferi elde etmiş ne zaman?
4. Başlarını kaşıyıp düşünmeye başladı.

5. Birincisi de: - Ben söylersem eğer,
6. Talih denen şey dünyada var!
7. Henüz ahalisi bundan bihaber,
8. Büyük bir şehri yuttum kumarda.

9. İkincisi dedi: - Murada eriştim,
10.Çok zekilerin aldım aklını.
11.Güpegündüz gizlice alıp gittim
12. Meşhur bir şairin kalem hakkını.

13.Üçüncüsü dedi: - Asıl ben galip,
14. Cesaret parlar yaptığım işimde.
15. Hangi gün battaniyeye sarınıp,
16. Başlığımı takıp çözdüm… İçimde! (1996)

IKKI KALAMUSH (327)

1. *Kalamushlar, kalamushlik ishi qolib,*
2. *Talashardi uyasidan chiqib olib.*

3. *Men adirning bu yog‘idan, derdi biri,*
4. *Men adirning u yog‘idan, derdi biri.*

5. *Ikkisi ham qo‘ymadi hech kerilarin,*
6. *Bir kun ovchi shilib ketdi terilarin.*

7. *Aytganlarim hikmat emas, masal emas,*

8. *Har kimga ham yoqadigan asal emas.*

9. *Ochiq gap shul: ajratmangiz yeringizni,*

10.*Toki shilib ketmasinlar teringizni.*

İKİ FARE (327)

1. Fareler, fareler işi kalıp,

2. Dalaşırdı yuvasından çıkıp.

3. Ben tepenin bu yakasından, derdi biri,

4. Ben tepenin o yakasından, derdi biri.

5. İkisi de bırakmadı hiç gerilerini,

6. Bir gün avcı yüzdü derilerini.

7. Söylediklerim hikmet değil, mesel değil,

8. Herkesin de hoşuna giden bal değil.

9. Açık söz şu: Ayırmayınız yerinizi,

10. Ta ki yüzmesinler derinizi. (1996)

OQ TULPOR (328)

(Hazil)

1. *Bir og‘aynim ot beruvdi, chopolmadim,*

2. *Ko‘pkarining yo‘rig‘in hech topolmadim.*

3. *Bu tulpordan menga qanday naf bo‘ladi?*

4. *Qazi qilsam olam-jahon gap bo‘ladi.*

5. *Uyat bo‘lar endi uni qaytib bersam,*

6. *Otga yemish yo‘qligini aytib bersam.*

7. *Men yaxshisi oq tulporni minib olay,*

8. *Yo‘rg‘alatib, xayol surib, tinib olay.*

9. *She’r yozayin egariga qog‘oz qo‘yib,*

10.*So‘ng elimga o‘qib beray to‘yib-to‘yib.*

11.*Kechirgaysiz, hazil erur gapning bari,*

12.*Otimga ham yetar she’rning gonorari.*

AK TULPAR (328)

(Gülmece)

1. Bir arkadaşım at vermişti, koşamadım,

2. Ulağın çaresini hiç bulamadım.

3. Bu tulpardan bana ne kadar fayda olur?

4. Kazı[142] yapsam çok fazla söz olur.

5. Ayıp olur şimdi onu dönüp versem,

6. Ata yemiş yokluğunu söyleyiversem.

7. Ben doğrusu ak tulpara bineyim,

8. Rahvan koşturup, düşünceye dalıp, durayım.

9. Şiir yazayım eyerine kâğıt koyup,

10. Sonra halkıma okuyayım doyup doyup.

11. Affedersiniz, şakadır sözlerin hepsi.

12. Atıma da yeter şiirin ücreti. (1996)

JENEVA DAFTARI

(Turkum)

XALQARO ANJUMAN (329)

1. *Mana, o‘tsa hamki necha zamonlar,*

2. *Bu yerda yig‘ilar siyosatdonlar.*

3. *Afriqolik habash, bolqonlik bulg‘or,*

[142] At etinden yapılan sucuk.

4. *O‘risu Rumo Chin - bunda bari bor.*

5. *Biri muslim bo‘lsa, biri butparast,*
6. *Biri nasoron-u, biri o‘tparast.*

7. *Biri tund, birovin nazari issiq,*
8. *Biri menga o‘xshar - ko‘zlari qisiq.*

9. *Sariyga o‘ralgan birin sumbati,*
10. *Birovin boshida tustovuq pati.*

11. *Turfa tillar bunda boshlasa bozor,*
12. *Xudodan boshqaning farqlashi dushvor.*

13. *Bu yerda o‘tgaydir na pul, na savlat,*
14. *Bu yerda o‘z so‘zin aytar har davlat.*

15. *Notiqlar va’zlarin toki boshlaydi,*
16. *Muhtasham gaplarni qalab tashlaydi.*

17. *Goho qay birovi qizishgani dam,*
18. *Sipqoraman deydi ummonlarni ham.*

19. *Tunu kun bahs qilib bo‘ylashar ular,*
20. *Dunyoning taqdirin o‘ylashar ular.*

21. *Turfa mamlakatlar, tug‘lar qatori*
22. *“T” harfidan keyin, “f” dan yuqori -*

23. *O‘zbekiston nomli bir minbar ham bor,*

24.*Unda kaminaning joyidir poydor.*

25.*Qo‘shni fin so‘raydi sekin, aylab noz:*

26.*- Janob, Siz kim uchun bergaysiz ovoz?*

27.*Men ham esnayman-u, ko‘krak keraman:*

28.*O‘zbekiston uchun ovoz beraman!*

CENEVRE DEFTERİ

(Seçki)

ULUSLARARASI KURUL (329)

1. İşte, geçse de nice zamanlar,

2. Burada toplanır politikacılar.

3. Afrikalı Habeş, Balkanlı Bulgar,

4. Rus, Rum ve Çin, burada hepsi var.

5. Biri Müslümansa, biri putperest,

6. Biri Hristiyan ve biri ateşperest.

7. Biri soğuk, birisi sıcakkanlı,

8. Biri bana benzer gözleri kısık.

9. Sari giyinmiş birisinin görünümü,

10. Birisinin başında sülün tüyü.

11. Garip diller burada başlasa Pazar,

12.Hüda’dan başkasının ayırt etmesi zor.

13. Burada geçecektir ne para, ne heybet,
14. Burada kendi sözünü söyler her devlet.

15. Hatipler ne zaman ki konuşmalara başlar,
16. Muhteşem sözlerini söyleyiverir.

17. Bazen herhangi biri öfkelendiği an,
18. Soğururum der ummanları da.

19. Gece ve gündüz bahsedip gezerler onlar,
20.Dünyanın kaderini düşünürler onlar.

21. Acayip memleketler, tuğlar dizisi
22.“T” harfinden sonra, “f”den yukarı.

23.Özbekistan adlı bir minber de var,
24. Orada bendenin yeridir payidar.

25. Komşu Fin sorar yavaşça, edip naz:
26.- Cenap, siz kimin için vereceksiniz avaz?

27. Ben de esnerim, göğüs gererim:
28.Özbekistan için avaz veririm! (1996)

JENEVA (330)

1. *Jeneva,*
2. *Jeneva,*
3. *Necha kunlarim*
4. *Sening iliqqina bag‘ringda o‘tdi.*
5. *Tashvishli damlarni yurak unutdi,*
6. *Moviy bo‘shliqlarga singdi unlarim.*

7. *Zangori ko‘l uzra chayqalar oqqush,*

8. *Mayin patlariga to‘lqin yuqmaydi.*

9. *Yiroqda Monblan tog‘i uxlaydi,*

10. *Oppoq qor choyshabin tagida behush.*

11. *Yashil maysazorning ipak qatiga*

12. *Ninachi shabnamdan qadaydi durlar.*

13. *Quyuq daralarda potrar qarqurlar,*

14. *Jar solib tevarak, mamlakatiga.*

15. *Cho‘qqilar ortidan o‘rmalar bulut,*

16. *Birdan tinib qolar o‘tloqdagi toy.*

17. *Shivalab o‘tadi yomg‘ir, hoynahoy,*

18. *Borliqqa cho‘kadi novvotrang sukut.*

19. *Jeneva tin olar ma’sum va yovvosh,*

20. *Billur tomchilarda nozik yaltirar.*

21. *Zum o‘tmay yana sho‘x barglar qaltirar,*

22. *Yana ko‘rinadi jilmaygan quyosh.*

23. *Jeneva,*

24. *Jeneva*

25. *Ilhom yulduzi,*

26. *Seni tushlarimda balki ko‘rgayman.*

27. *Balki uzoq yillar eslab yurgayman,*

28. *Seni - Yevropaning dilovar qizi...*

CENEVRE (330)

1. Cenevre,

2. Cenevre,

3. Nice günlerim

4. Senin samimi bağrında geçti.

5. Kaygılı anları yürek unuttu,

6. Mavi boşluklara sindi seslerim.

7. Yeşil göl üstünde salınır kuğu,

8. Nahif tüylerine dalga tesir etmez.

9. Uzakta Mont Blanc Dağı uyur,

10. Bembeyaz kar çarşafın dibinde şuursuz.

11. Yeşil çayırın ipek tabakasına

12. Yusufçuk şebnemden takar inciler.
13.Sığ derelerde Potrar kuzgunları,
14. Haber verip etrafa, memleketine.
15. Tepelerin ardından gelir bulut,
16. Birden durup kalır otlaktaki tay.
17.Çiseleyip geçer yağmur, herhâlde,
18. Varlığa çöker ak renkli sükût.
19. Cenevre soluk alır masum ve uysal,
20. Billur damlalarda nazik ışıldar.
21. Vakit geçmeden yine cilveli yapraklar sallanır,
22. Yine belirir yüzünü gösteren güneş.
23. Cenevre,
24. Cenevre
25.İlham yıldızı,
26. Seni düşlerimde belki göreceğim.
27. Belki uzun yıllar hatırlayacağım,
28. Seni, Avrupa'nın dilaver kızı… (1996)

MUXBIRLAR (331)

1. *Odam ko'kka uchdi,*
2. *Quchdi ummonni.*
3. *Yetdi poyoniga kurash, ur-surlar.*
4. *Gij-gijlatib qo'yib telba jahonni,*
5. *Bu kun minbarlarga chiqdi muxbirlar.*

6. *Aziz kasbdoshlarim,*
7. *G'alat qavm bu,*
8. *Jonining qadrini bilmaydigan kas.*
9. *Qaydadir ko'rinsa yilt etgan mavzu,*
10.*Och-nahor, piyoda keta berar, bas.*

11.*To'plar gumburlaydi,*
12.*O'rlaydi olov.*
13.*Yuksak qasrlar ham qulaydi bir-bir.*

14.*Butkul mamlakatlar yonadi lov-lov,*

15.*U esa tirikdir, o‘q o‘tmas, dovdir.*

16.*Garchi ko‘rinishdan yuvvosh va g‘arib,*

17.*Lekin tahlikaga solar har so‘zi.*

18.*Shahardan hammani quvlab chiqarib,*

19.*Bo‘m-bo‘sh ko‘chalarda kezar bir o‘zi.*

20.*Yagona quroli qog‘oz va qalam,*

21.*O‘ylar u na bugun, na ertasini.*

22.*Haqiqat yo‘lida so‘nggi damda ham*

23.*O‘lar, esga olib gazetasini.*

MUHABİRLER (331)

1. İnsan göğe uçtu,

2. Kucakladı ummanı.

3. Ulaştı sonuna savaş, kavga dövüşler.

4. Kışkırtıp divane cihanı,

5. Bugün minberlere çıktı muhbirler.

6. Aziz meslektaşlarım,

7. İlginç kavim bu,

8. Canının kıymetini bilmeyen kişi.

9. Bir yerde görünse parlayan mevzu,

10.Aç karnına, piyade gidiverir, demek.

11. Toplar gümbürder,

12.Yükselir alev.

13.Yüksek kaleler de yıkılır bir bir.

14.Bütün memleketler yanar alev alev,

15.O ise diridir, ok geçmez, devdir.

16. Gerçi görünüşünden uysal ve garip,
17. Lakin tehlikeye salar her sözü.
18.Şehirden herkesi kovup çıkarıp,
19. Bomboş sokaklarda gezer bir kendisi.

20. Yegâne silahı kâğıt ve kalem,
21.Düşünür o ne bugününü, ne yarınını.
22. Hakikat yolunda son anda da
23. Onlar, hatırlayıp gazetesini. (1996)

SOG‘INISH (332)

1. *U uzoq joylarga qilmasdi safar,*
2. *To‘kmang derdi ko‘zdan jolalarimni.*
3. *Derdi: Bir kungina ko‘rmasam agar*
4. *Sog‘inib qolaman bolalarimni.*

5. *Bedavo bir dardga chalindi sho‘rlik,*
6. *Dedi: Endi qaytib turmasam kerak.*
7. *Bo‘g‘ziga tiqilib kelsa ham xo‘rlik,*
8. *Bariga chidadi, bosiq va tiyrik.*

9. *Ketar chog‘ida ham yo‘qlikka tomon,*
10.*U taqdir hukmiga mardona ko‘ndi.*
11.*Faqatgina dedi: - Qiynar bir armon,*
12.*Meni bolalarim sog‘inar endi...*

ÖZLEYİŞ (332)

1. O uzak yerlere etmezdi sefer,
2. Dökmeyin derdi gözümden yaşlarımı.
3. Derdi: Bir güncük görmesem eğer
4. Özleyip dururum evlatlarımı.

5. Devasız bir derde düştü biçare,
6. Dedi: Şimdi dönüp durmamam gerekir.
7. Boğazına tıkılıp aşağılansa da,
8. Hepsine dayandı, ezik ve kuvvetli.

9. Gittiği zamanda da yokluğa doğru,
10.O kaderin hükmüne mertçe razı oldu.
11. Sadece dedi: - Zulmeder bir ukde,
12. Beni evlatlarım özler şimdi… (1996)

OQ YO‘L (333)

Do‘stim Maralga

1. *Sayroqi qushlarning tindi navosi,*
2. *Anvoyi gullar ham so‘ldi bog‘imda.*
3. *Bu g‘urbat kunlarning bormi adosi,*
4. *Allohim, oq yo‘l ber, ketar chog‘imda.*

5. *Olis adirlarda tumanmi, tutun,*
6. *Tegramni zulumot qoplamish butun.*
7. *Meni halok etar bu savdo bir kun,*
8. *Allohim, oq yo‘l ber, ketar chog‘imda.*

9. *Hech kim hasratimga quloq solmadi,*
10.*Ruhimni biror zot anglay olmadi.*
11.*Bunda qiladigan ishim qolmadi,*
12.*Allohim, oq yo‘l ber, ketar chog‘imda.*

13.*Qog‘ozim qoraydi dildagi zordan,*
14.*Bugun ayri tushdim do‘st ila yordan.*
15.*Faqat bir ilinjim sen - Biru Bordan,*
16.*Allohim, oq yo‘l ber, ketar chog‘imda.*

17.*Mayli, samolarga meni elta qol,*
18.*Yumushing bajaray qaddim egib dol.*
19.*Sening huzuringda yo‘q axir zavol,*
20.*Allohim, oq yo‘l ber, ketar chog‘imda.*

21.*Mana, oqshom cho‘qdi. Bo‘zarmoqda oy,*
22.*Boshlanur yulduzlar bazmi hoynahoy.*
23.*Menga ham baxsh etgil tumorchalik joy,*
24.*Allohim, oq yo‘l ber, ketar chog‘imda.*

YOL AÇIKLIĞI (333)

Dostum Maral'a

1. Ötücü kuşların durdu şarkısı,
2. Envaiçeşit güller de soldu bağımda.
3. Bu gurbet günlerinin var mı edası,
4. Allah'ım, yolumu aç, gittiğim anda.

5. Uzak tepelerde sis mi duman mı,
6. Etrafımı zulmet kaplamış bütün?
7. Beni helak edecek bu sevda bir gün,
8. Allah'ım, yolumu aç, gittiğim anda.

9. Hiç kimse hasretime kulak vermedi,
10. Ruhumu bir zat anlayamadı.
11. Burada yapacak işim kalmadı,
12. Allah'ım, yolumu aç, gittiğim anda.

13.Kâğıdım kararır gönüldeki figandan,
14. Bugün ayrı düştüm dosta yârdan.
15. Yalnız bir tutunduğum sen, Bir ve Var'dan

16. Allah’ım, yolumu aç, gittiğim anda.

17.Öyleyse, semalara beni götür,
18.İşimi yapayım başımı eğip tam.
19. Senin huzurunda yok nihayet zeval,
20. Allah’ım, yolumu aç, gittiğim anda.

21.İşte akşam çöktü. Belirmekte ay,
22. Başlar yıldızlar bezmi, herhâlde.
23. Bana da bahşet bezekli bir yer,
24. Allah’ım, yolumu aç, gittiğim anda. (1996)

SUHBAT (334)

1. *Odam odam bilan uchrashgan asno*
2. *Dunyoda eng yaxshi vosita - suhbat.*
3. *Ba’zi birov bilan so‘zlashsang, ammo*
4. *Aralashib qolar oraga g‘iybat.*

5. *Sizdan o‘tinaman, ey, do‘sti yoron,*
6. *Diydorning g‘animat gashtin suraylik.*
7. *Mayli, har qanchalik bo‘lsa ham yolg‘on,*
8. *Faqat ezgulikdan suhbat quraylik.*

SOHBET (334)

1. İnsan insanla karşılaştığı esnada
2. Dünyada en iyi vasıta sohbet.
3. Bazılarıyla konuşursan, ama
4. Karışır araya gıybet.

5. Sizden rica ederim, ey, dost ve yâren,
6. Didarın ganimet sefasını sürelim.
7. Tamam, her ne kadar olsa da yalan,

8. Yalnız iyilikten bahsedelim. (1996)

KULMANG... (335)

1. *Och odamning ustidan kulmang,*
2. *Yetishmasa ishga qurbati.*
3. *Xunukkina qizlarni siylang,*
4. *Go‘zal bo‘lar ular siyrati.*

5. *Birovlarning haqqin yeganni*
6. *Dasturxonga yo‘lata ko‘rmang.*
7. *Rostni ko‘rib, yolg‘on deganning*
8. *Kosasini to‘lata ko‘rmang.*

GÜLMEYİN… (335)

1. Aç insana gülmeyin,
2. Bulmazsa işe imkân.
3. Çirkin kızlara iyi davranın,
4. Güzel olur onların da sîreti.

5. Birilerinin hakkını yediği
6. Sofrayı bir vakit de görmeyin.
7. Gerçeği görüp, yalan diyenin
8. Kâsesini dolu da görmeyin. (1996)

BULUTLI BIR KUNI (336)

1. *Jenevada bu kun bulutli havo,*
2. *Kechagi charog‘on, xush onlar qani?*
3. *Go‘yo jannat emas bu go‘zal ma’vo,*
4. *Bugun yotog‘im ham g‘urbat maskani.*

5. *Soat necha hozir O‘zbekistonda,*
6. *Balki uxlagandir nabiralarim.*

7. *Horg‘inlik sezaman vujudda, jonda,*

8. *Ruhimda siniqlik, ko‘ngil ham yarim.*

9. *Boshqalarning esa labida kulgu,*

10. *Bulut parvoyiga kelmaydi taqir.*

11. *Axir men bir holni unutibman-ku,*

12. *Ular vatanida yuribdi, axir.*

BULUTLU BİR GÜN (336)

1. Cenevre’de bugün bulutlu hava,

2. Geceki ışıltılı, hoş anlar hani?

3. Sanki cennet değil bu güzel barınak,

4. Bugün yatağım da gurbet meskeni.

5. Saat kaç şimdi Özbekistan’da,

6. Belki uyumuştur torunlarım.

7. Yorgunluk sezerim vücutta, canda,

8. Ruhumda kırıklık, gönül de yarım.

9. Başkalarının ise dudağında gülüş,

10. Bulut dikkatle bakmaz asla.

11. Nihayet ben bir hâli unutmuşum,

12. Onlar vatanında gitmiş, nihayet. (1996)

OQLAR VA QORALAR (337)

1. *Hozir rang ajratish zamoni emas,*

2. *Har qanday ishora qalbni yaralar.*

3. *Va lekin bir-birin har zum, har nafas*

4. *Qo‘llab-qo‘ltiqlarkan zangi - qoralar.*

5. *Odamzod xolimas kindan, aldovdan,*

6. *Bilmaysan, kim-kimni goho saralar.*

7. *Oqlar g‘ijillashib turganda, g‘ovdan*
8. *Sakrab o‘tib ketar birdan qoralar.*

9. *Birodar, gapni sen ko‘rgandan so‘ra,*
10.*Demagil, she’ringda sharpa oralar.*
11.*Bir-birin yeb yotgan oqlardan ko‘ra,*
12.*Afzal-ku hamjihat o‘sha qoralar.*

AKLAR VE KARALAR (337)

1. Şimdi renk ayırmak zamanı değil,
2. Her bir işaret kalbi yaralar.
3. Velakin birbirini her zaman, her an
4. Kollarlarmış zenciler, karalar.

5. İnsanlık alakasız değil kinden, hilecilikten,
6. Bilmem, kimi kimini bazen ayırır.
7. Aklar tartışıp durduğunda, beyhude
8. Atlayıp geçip gider birden karalar.

9. Birader, lafı sen gördükten sonra,
10. Deme, şiirinde müphemlik oluşur.
11. Birbirini yiyen aklara göre,
12. Efdal uyumlu işte o karalar. (1996)

“JAMAYKA” (338)

1. *Bir vaqt Robertina ismlik bola*
2. *“Jamayka, Jamayka” deya kuylardi.*
3. *Yurakning tubiga yetib bu nola,*
4. *Olis Jamaykani har kim o‘ylardi.*

5. *O‘sha gul diyorni ko‘rganmisan sen,*
6. *Ilojin topolsang qanot bog‘lab uch.*

7. *Axir o‘ylabmidim, Jenevada men*
8. *Ayni Jamaykaga kelurman, deb duch.*

9. *Yoyib kokillarin, turibdi sanam,*
10. *Qop-qora tun bilan o‘ralgandek oy.*
11. *“Ming bir kecha”dagi ertaklarda ham*
12. *Tavsif etilmabdir bundayin chiroy.*

13. *Kimning peshonasin bezaydi bu la’l,*
14. *Kimlarga hadya bu oppoq tabassum.*
15. *Jamayka go‘zali, o, tengsiz go‘zal,*
16. *Bir nafas shoshmay tur, qilg‘il tarahhum.*

17. *Boqib jamolingga, yuragimda mung,*
18. *Olis yoshligimni esga olayin.*
19. *Ortingdan “Jamayka, Jamayka”, deb so‘ng,*
20. *U sirli qo‘shiqni kuylab qolayin.*

“JAMAİKA” (338)

1. Bir vakit Robertina isimli çocuk
2. “Jamaika, Jamaika” diye türkü söylerdi.
3. Yüreğin dibinde erişip bu nale,
4. Uzak Jamaika’yı herkes düşünürdü.

5. İşte o gül diyarı görmüş müsün sen,
6. Çaresini bulabilirsen kanat bağlayıp uç.
7. Nihayet düşünmüş müydüm, Cenevre’de ben
8. Aynı Jamaika’ya gelirim, diye tesadüf.

9. Yayıp kâküllerini, durmuş sanem,
10. Kapkara geceyle kuşatılmış gibi ay.
11. “Binbir gece”deki masallarda da

12. Tasvir edilmemiştir böyle güzel.

13. Kiminin alnını bezer bu lal,
14. Kimlere hediye bu bembeyaz tebessüm.
15. Jamaika güzeli, aaa, eşsiz güzel,
16. Bir an şaşmadan kalk, et merhamet.

17. Bakıp cemaline, yüreğimde tasa,
18. Uzak gençliğimi hatırlayayım.
19. Ardından "Jamaika, Jamaika", diye sonra,
20.O sırlı koşuğu söyleyeyim. (1996)

ARMON (339)

1. *Kajrav falakning charxi*
2. *Bir zum o'ngga aylanib,*
3. *Sog'intirgan onamning*
4. *Diydorin ko'rolsaydim.*
5. *Onajonim qoshida*
6. *Erkalanib, shaylanib,*
7. *Goh quvonib, gohida*
8. *Xo'rsinib turolsaydim.*

9. *Aytolsaydim men unga*
10.*Ko'hna dunyoga kelib,*
11.*Menga qancha shodligu*
12.*Qancha g'am tekkanligin.*
13.*Ezgulikni jahonda*
14.*Axtarma qancha yelib,*
15.*Faqat ona mehrining*
16.*Betakror ekanligin.*

17.*Aylansa tag'in falak,*
18.*Qo'lin tutsam yoshlikning.*

19.*Oh, qandayin g‘avg‘o-yu*
20.*Ne kunlarga qolardim.*
21.*O‘sha qalam qoshlikning*
22.*Hajrida tag‘in yonib,*
23.*Tag‘in uning yoniga*
24.*Jadallab yo‘l olardim.*

25.*Ko‘ngildagi ishq o‘tin*
26.*Sel kelsa ham so‘ndirmay,*
27.*Faqatgina uni men*
28.*Hayotim, deb o‘ylardim.*
29.*Qalamimning uchiga*
30.*Zarra g‘ubor qo‘ndirmay*
31.*Faqatgina muhabbat*
32.*Nashidasin kuylardim.*

33.*Falak yana charx urib,*
34.*Rahm etsa-yu bir qadar.*
35.*Armonim ushalmog‘in*
36.*Chorasin ko‘rsatsaydi.*
37.*Shu sho‘rlik bandani ham*
38.*Tark etsin, deb g‘am-kadar,*
39.*Tashvishlardan qutulmoq*
40.*Yo‘lini o‘rgatsaydi.*

41.*Men ko‘kka yetib boshim,*
42.*Chulg‘ar edim olamni.*
43.*Yovuzlik, razillikni*
44.*Olovdek eritardim.*
45.*Umrim bo‘yi qaqshatib*
46.*Kuydirgan bir bolamni*
47.*Qayta boshdan ma’sum, pok*
48.*Go‘dakka evriltardim.*

49.*Afsus, bunga chora yo‘q,*

50.*Yo‘qdir aslo imkoni.*

51.*Ortga qaytganmi axir,*

52.*Falak biror zamonda.*

53.*Insonni qabrigacha*

54.*Kuzatgaydir armoni,*

55.*Ilojing - ilojsizlik,*

56.*Iloj esa osmonda.*

57.*Shul sabab, har o‘tgan kun*

58.*Ko‘zimga o‘tday issiq.*

59.*Shul sabab, har ertani*

60.*Kutib olgum dovdirab.*

61.*Bugungi ko‘rganlarim*

62.*Bo‘lsa ham ancha tansiq,*

63.*Faqat o‘shal armonga*

64.*Termulaman jovdirab.*

65.*Yaratganning ishin ko‘r,*

66.*Umr yo‘lin qayirgach.*

67.*Keng dunyoni ko‘zingga*

68.*Tor qilib qo‘yar ekan.*

69.*Avvali, berib-berib,*

70.*So‘ng birma-bir ayirgach,*

71.*Faqatgina o‘ziga*

72.*Zor qilib qo‘yar ekan.*

UKDE (339)

1. Kararsız feleğin çarkı

2. Bir an sağa dönüp,

3. Özlettiren anamın

4. Didarını görebilseydim.

5. Anacığımın yanında

6. Nazlanıp, hazırlanıp,

7. Gâh sevinip, gâh
8. İç çekip durabilseydim.

9. Diyebilseydim ben ona
10.Köhne dünyaya gelip,
11. Bana nice mutluluk ve
12. Nice gam değdiğini.
13.İyiliği cihanda
14. Arama nice koşup,
15. Yalnız ana şefkatinin
16. Tekrarsız olduğunu.

17.Dönse yine felek,
18. Elini tutsam gençliğin.
19. Ah, nasıl şamata ve
20. Ne günlere kalırdım.
21.İşte o kalem kaşlının
22. Hicrinde yine yanıp,
23. Yine onun yanına
24.Hızlanıp yol alırdım.

25.Gönüldeki aşk ateşini
26. Sel gelse de söndürmeden,
27. Yalnız onu ben
28. Hayatım, diye düşünürdüm.
29. Kalemimin ucuna
30. Zerre toz kondurmadan
31. Yalnız muhabbet
32. Neşidesini söylerdim.

33. Felek yine dönüp,
34. Merhamet etse bir kez.
35. Umudum sönmeden
36.Çaresinin gösterseydi.

37. Bu biçare bendeyi de
38. Terk etsin, diye gam, keder,
39. Kaygılardan kurtulma
40. Yolunu öğretseydi.

41. Ben göğe yetip başım,
42. Kuşatırdım âlemi.
43. Yavuzluğu, rezilliği
44. Ateş gibi eritirdim.
45.Ömrüm boyu acı çekip
46.Üzülen bir evladımı
47. Yine baştan masum, temiz
48. Bebeğe döndürürdüm.

49. Ne yazık ki, buna çare yok,
50. Yoktur asla imkânı.
51. Geriye dönmüş mü nihayet,
52. Felek bir zamanda.
53.İnsanı kabrine dek
54.Gözetleyecektir ukdesi,
55.Çaren, çaresizlik,
56.Çare ise asumanda.

57. Bu sebepten, her geçen gün
58.Gözüme ateş gibi sıcak.
59. Bu sebepten, her sabahı
60. Bekleyeceğim şaşırıp.
61. Bugünkü gördüklerim
62. Olsa da o kadar seyrek,
63. Yalnız işte o ukdeye
64. Bakarım ümitle.

65. Yaradan'ın işini gör,
66.Ömür yolunu döndürünce.

67. Geniş dünyayı gözüne
68. Dar edip bırakırmış.
69. Evveli, verip verip,
70. Sonra bir bir ayırınca,
71. Sadece kendisine
72. Muhtaç edip bırakırmış. (1996)

HABASH QIZ (340)

1. *Nari ketolmayman bir habash qizdan,*
2. *Juda o‘xshar ekan Senga ko‘z-qoshi.*
3. *Bilmadim, o‘sha payt, qay biringizdan*
4. *Nusxa olgan ekan falak naqqoshi.*

5. *Loyingiz barobar qorgandir Xalloq,*
6. *Ayni ilhom chog‘i ijod etgandir.*
7. *Anavi habashning nusxasi biroq*
8. *Xumdonda uzoqroq qolib ketgandir.*

HABEŞLİ KIZ (340)

1. Uzağa gidemem bir Habeşli kızdan,
2. Çok benzermiş sana gözü, kaşı.
3. Anlamadım, işte o zaman, hangi birinizden
4. Model almışmış felek nakkaşı.

5. Çamurunuzu beraber karmıştır Halik,
6. Aynı ilham çağı yaratmıştır.
7. İşte bu Habeş’in modeli yalnız
8. Ocakta daha uzun kalmıştır. (1996)

HIMOYAT (341)

1. *Dilimni ezadi gohida xayol,*
2. *Gumonlar, shubhalar zabtiga olgay.*

3. *Vaqt yetib, tiriklik topganda zavol,*

4. *Nahotki baytlarim egasiz qolgay.*

5. *Axir vayron bo‘lur qarovsiz uy ham,*

6. *Bog‘bonsiz gulshan ham so‘lgay bir kuni.*

7. *Asriy imoratlar yemrilgay kam-kam,*

8. *Kimdir himoyatga olmasa uni.*

9. *Lahzada ming bora turlanadi rang,*

10.*Sobit bir suratni topmog‘ing qiyin.*

11.*Bugun salom bersa agar nabirang,*

12.*Yaxshisi, alik ol yuz yildan keyin.*

HİMAYE (341)

1. Gönlümü ezer bazen hayal,

2. Kuruntular, şüpheler zaptına alacak.

3. Vakit yetip, hayat bulduğunda zeval,

4. Beyitlerim sahipsiz mi kalacak?

5. Nihayet viran olur bakımsız ev de,

6. Bahçıvansız gülşen de solacak bir gün.

7. Geleneksel imaretler yok olacak yavaş yavaş,

8. Biri himayesine almazsa onu.

9. Lahzada bin kez çeşitlenir renk,

10. Sabit bir sureti bulması zor.

11. Bugün selam verse eğer torunun,

12. Doğrusu, selam al yüz yıldan sonra. (1996)

SO‘NGGI CHORA (342)

1. *Odamlar yo‘lida xarsangtoshday zil,*

2. *Erta-kech ko‘ndalang yotishdan saqlan.*

3. *Fursating o‘tdimi - maqomingni bil,*

4. *Bekatda o‘tirgich bo‘lgil, masalan.*

5. *Agar o‘qimasa she’ringni birov,*

6. *Malomat qilmog‘ing, albatta, g‘alat.*

7. *Yaxshisi, do‘konni yopgin-da darrov,*

8. *Zehningni o‘zga bir yumushga qarat.*

9. *Boshqa fojiadan asrasin ammo,*

10. *Hech kim duch kelmasin unga daf’atan.*

11. *Sendan elu yurting tonmasin aslo,*

12. *Sendan o‘girmasin yuzini Vatan.*

13. *Unday choq, buzsang ham dodlab jahonni,*

14. *Hech kim hayron bo‘lmas, hech kim qolmas lol.*

15. *Agar topa olsang bir gaz arqonni,*

16. *O‘zingni osa ber endi bemalol.*

SON ÇARE (342)

1. İnsanların yolunda kaya gibi hayli ağır,

2. Gece gündüz çapraz yatmaktan korun.

3. Zamanın geçti mi, makamını bil,

4. Durakta koltuk ol, mesela.

5. Eğer okumazsa şiirini biri,

6. Melamet etmeyin, elbette, tuhaf.

7. Doğrusu, dükkânını kapat hemen,

8. Zihnini başka bir işe yönelt.

9. Başka facidan korusun ama,

10. Hiç kimse rastlamasın ona ansızın.

11. Seni halkın ve yurdun reddetmesin asla,

12. Senden çevirmesin halkın yüzünü Vatan.

13.Öyle iyi, bozsan da bağırıp cihanı,
14. Hiç kimse şaşırmaz, hiç kimse kalmaz lal.
15.Eğer bulabilsen bir gaz[143] ipi,
16. Kendini asıver şimdi melalsiz. (1996)

SOVG‘A (343)

Nabiram Shohruxga

1. *Nima opkeldingiz, deydi nabiram,*
2. *Men ham boy bermayman sirimni lekin.*
3. *Deyman: Sovg‘alarim ajibdir biram,*
4. *She’rlar olib keldim. O‘qiysan. Tekin.*

HEDİYE (343)

Torunum Şahruh’a

1. Ne getirdiniz, der torunum,
2. Ben de saklamam sırrımı lakin.
3. Derim: Hediyelerim acayiptir çok,
4. Şiirler getirdim. Okursun. Bedava. (1996)

O‘GIT (344)

1. *Bolangni o‘g‘rilar tunabdi yo‘lda,*
2. *Sekin uh tortasan, ichingda nolang.*
3. *Deysan, o‘g‘lim, sen ham dadilroq bo‘l-da,*
4. *Biroq, tanbehingni eshitmas bolang.*

5. *U deydi: - Bormi hech dunyoda insof,*

[143] 0,71 metreye tekabül eden uzunluk ölçüsü.

6. *Yo‘limni to‘sdilar, kuppa-kunduzi.*
7. *Bolam, sen hozircha shabnam kabi sof,*
8. *Ayni farishtaning o‘zisan, o‘zi.*

9. *Nega? - deb atrofga boqasan hayron,*
10. *Ilk bor duch kelibsan bunday baloga.*
11. *Mening gaplarimni tinglagin obdon,*
12. *O‘g‘lim, ishonma hech noqis dunyoga.*

13. *Duch kelgan kimsani pokdomon bilib,*
14. *Hargiz diling ochma, bo‘lmagil yo‘ldosh.*
15. *Insonlar uchraydi, bir ko‘zi kulib,*
16. *Ikkinchi ko‘zida tayyor turgay yosh.*

17. *Insonlar uchraydi, taomingni yeb,*
18. *Toptab keta berar dasturxoningni.*
19. *Chumoli qadarli manfaatin deb,*
20. *Chumolicha ko‘rmas sening joningni.*

21. *Insonlar uchraydi, ko‘kda oyni ham*
22. *O‘zining mulki deb bilgaydir faqat.*
23. *Sening quvonchlaring ularga alam,*
24. *Sening zarra baxting ularga kulfat.*

25. *Hasad va yovuzlik to‘la dunyoni*
26. *Vo ajab, erinmay qirq yil kuylabman.*
27. *Bor gap deb bilibman yolg‘on, ro‘yoni,*
28. *Ko‘ringan har kasni do‘st deb o‘ylabman.*

29. *U payt qulog‘ingga aytguncha azon*
30. *Ogoh etmasmidim buning baridan.*
31. *Ishonch degan bir so‘z o‘chdi nogahon.*
32. *O‘spirin umringning sardaftaridan.*

33.*O‘g‘lim, odamiylik azizdir garchand,*

34.*Yostig‘ing ostida tursin yarog‘ing.*

35.*Dunyo har qadamda bergay senga pand,*

36.*Aslo mudramagay ikki qarog‘ing.*

37.*Ezgulik yo‘lida ko‘pdir muammo,*

38.*Undan qutulmoqning yo‘li bul ekan:*

39.*Insonga yo‘liqsang inson bo‘l, ammo*

40.*Hayvon yo‘liqqanda Hayvon bo‘l ekan.*

ÖĞÜT (344)

1. Evladına hırsızlar çalmış yolda,

2. Sessizce oh çekersin, içinde nalen.

3. Dersin, oğlum, sen de daha güçlü ol da,

4. Fakat tembihini duymaz evladın.

5. O der: - Var mı hiç dünyada insaf,

6. Yolumu kestiler, güpegündüz.

7. Evladım, sen şimdiye dek şebnem gibi saf,

8. Tıpkı feriştenin kendisisin, kendisi.

9. Niye? diye etrafa bakarsın şaşkın,

10.İlk kez rastlamışsın böyle belaya.

11. Benim sözlerimi dinle iyice,

12.Oğlum, inanma hiç bozuk dünyaya.

13. Karşılaştığın kimseyi saf bilip,

14. Asla gönlünü açma, olma yoldaş.

15.İnsanlar rastlar, bir gözü gülüp,

16.İkinci gözünde hazır duracak yaş.

17.İnsanlar rastlar, yemeğini yiyip,
18.Aşağılayıp gidiverir sofranı.
19. Karınca kederli menfaatini deyip,
20. Karınca kadar görmez senin canını.

21.İnsanlar rastlar, gökte aya da
22. Kendisinin mülkü diye bilecektir yalnız.
23. Senin sevinçlerin onlara elem,
24. Senin zerre bahtın onlara külfet.

25. Hasetlik ve yavuzluk dolu dünyayı
26. Acaba, erinmeden kırk yıl övmüşüm.
27. Gerçek söz diye bilmişim yalanı, düşü,
28.Gördüğüm her kişiyi dost diye düşünmüşüm.

29.O vakit kulağına okuyunca ezan
30. Agâh etmez miydim bunun hepsini.
31.İnanç diye bir söz kayboldu birden.
32. Genç ömrünün defterinden.

33.Oğlum, insanlık azizdir gerçi,
34. Yastığının altında dursun silahın.
35.Dünya her adımda edecek sana ihanet,
36. Asla uyumayacak iki gözün.

37.İyilik yolunda çoktur muamma,
38. Ondan kurtulmanın yolu buymuş:
39.İnsana rastlarsan insan ol, ama
40. Hayvana rastladığında Hayvan ol imiş. (1996)

BOSHMANBULOQQA (345)

1. *Boshmanbuloq, Boshmanbuloq,*

2. *Senga ko‘zu qoshman, buloq.*

3. *Suvingdan bir qonib ichdim,*

4. *Endi mangu yoshman, buloq.*

BAŞMANBULAĞA (345)

1. Başmanbulak, Başmanbulak,

2. Sana göz ve kaşım, bulak.

3. Suyundan bir kanıp içtim,

4. Şimdi ebediyen gencim, bulak. (1996)

UMMON ORTIDAGI MAKONIM (346)

(Vashingtonda O‘zbekiston elchixonasining yangi binosi ochilishi munosabati bilan yozilgan she’r)

1. *Keng jahon bir qadam bo‘ldi men uchun,*

2. *Menga ham ochildi olam darchasi.*

3. *Yiroq Amriqoda taft sochar bu kun.*

4. *O‘zbek quyoshining olov parchasi.*

5. *Ochildi men uchun tor osmon bekam,*

6. *Sezdim yuksaklikning cho‘ng darg‘asini.*

7. *O‘zbekning lochini ozod va ko‘rkam,*

8. *Qurdi bu yerda ham qo‘nalg‘asini.*

9. *Nechun xushnud bo‘lmay, dilimni yormay,*

10. *Ummon ortida ham bordir makonim.*

11. *Dunyoning qaysi bir burchiga bormay,*

12. *O‘zing boshpana bo‘l, O‘zbekistonim!*

UMMAN ARDINDAKİ MEKÂNIM (346)

(Vaşington'da Özbekistan Büyükelçiliği'nin yeni binası açılışı

münasebetiyle yazılmış şiir)

1. Geniş cihan bir adım oldu benim için,
2. Bana da açıldı âlemin penceresi.
3. Uzak Amerika'da hararet saçar bugün.
4. Özbek güneşinin alev parçası.

5. Açıldı benim için dar asuman mükemmel,
6. Sezdim yüksekliğin büyük rehberini.
7. Özbek'in şahini azat ve görkemli,
8. Kurdu burada da mekânını.

9. Niçin hoşnut olmayayım, gönlümü parçalamayayım,
10. Umman ardında da vardır mekânım.
11.Dünyanın hangi bir köşesine gitmeden,
12. Kendin barınak ol, Özbekistan'ım! (Vaşington şehri, 25 Haziran 1996)

ISTIQLOL QO'SHIG'I (347)

(Qo'shiq nusxasi)

1. *Muruvvatu ma'rifatdir buyuklikning nishonasi,*
2. *Qadam qo'ying, mana sizga asl yo'lning ostonasi.*

3. *Jahon ichra buyuk yurtni ulug' doston etaylik biz,*
4. *Zamon keldi Vatan bag'rin go'zal bo'ston etaylik biz.*

5. *Ming-ming shukr, kelib davron istiqlolga erishdik biz.*
6. *Xarob bo'lgan xonadonni butlamoqqa kirishdik biz.*

7. *Jahon ichra buyuk yurtni ulug‘ doston etaylik biz,*
8. *Zamon keldi Vatan bag‘rin go‘zal bo‘ston etaylik biz.*

9. *Iymon nuri oqib turar bir gavhar bor qonimizda,*
10.*Ne-ne buyuk bobolarning bardoshi bor jonimizda.*

11.*Jahon ichra buyuk yurtni ulug‘ doston etaylik biz,*
12.*Zamon keldi, Vatan bag‘rin go‘zal bo‘ston etaylik biz.*

13.*Oldindadir hali zahmat, oldindadir imkonimiz,*
14.*Yetishgaymiz kelajakka, pokizadir vijdonimiz.*

15.*Jahon ichra buyuk yurtni ulug‘ doston etaylik biz,*
16.*Zamon keldi Vatan bag‘rin go‘zal bo‘ston etaylik biz.*

İSTİKLAL KOŞUĞU (347)

(Koşuk nüshası)

1. Mürüvvet ve marifettir büyüklüğün nişanesi,
2. Adım atın, işte bu size asıl yolun başlangıcı.

3. Cihan içinde büyük yurdu ulu destan edelim biz,
4. Zaman geldi Vatan bağrını güzel bostan edelim biz.

5. Binlerce şükür, gelip devran istiklale eriştik biz.
6. Harap olan evi tamamlamaya giriştik biz.

7. Cihan içinde büyük yurdu ulu destan edelim biz,
8. Zaman geldi Vatan bağrını güzel bostan edelim biz.

9. İman nuru akıp durur bir cevher var kanımızda,
10.Çok büyük dedelerin sabrı var canımızda.

11. Cihan içinde büyük yurdu ulu destan edelim biz,
12. Zaman geldi Vatan bağrını güzel bostan edelim biz.

13.Önündedir henüz zahmet, önündedir imkânımız,
14. Yetişeceğiz geleceğe, temizdir vicdanımız.

15. Cihan içinde büyük yurdu ulu destan edelim biz,
16. Zaman geldi Vatan bağrını güzel bostan edelim biz. (Ağustos, 1996)

AYRILMAS (348)

1. *"Yo haq!" - deb yo'l olsa manzilga karvon,*
2. *Yo'l boshlagan cho'ng noridan ayrilmas.*
3. *Oshiqlar ko'nglidan kechar ming armon,*
4. *Bir armoni - dildoridan ayrilmas.*

5. *Nelarni ko'rmagay insonning boshi,*
6. *Bejiz aytmaganlar: "U soyning toshi."*
7. *Donolar, bir joyga yetsa ham yoshi,*
8. *Piri bergan tumoridan ayrilmas.*

9. *Qachon dong chiqarmish, axir, yolg'iz ot,*
10.*Farzand oqil bo'lsa - padarga qanot.*
11.*Yigitga duch kelsa Hayot yo Mamot,*
12.*Do'stlarining diydoridan ayrilmas.*

13.*Demishlar: "So'qir ham ko'rgay yorqin tush."*
14.*Ozod davron surmoq har narsadan xush.*
15.*Qafasga gar tushsa uchib yurgan qush,*
16.*Erkinlikning xumoridan ayrilmas.*

17.*Xor bo‘lmas, ajdodin kimki yod etgan,*
18.*O‘tgan azizlarning ruhin shod etgan.*
19.*Avlodlar taqdirin o‘ylab dod etgan,*
20.*Ota-bobo mozoridan ayrilmas.*

21.*Har kim bilganicha chertgay sozini,*
22.*Moli toza odam qilgay nozini.*
23.*Mard kishi ko‘p degay hatto ozini,*
24.*Rizqin topgan bozoridan ayrilmas.*

25.*Bog‘u chamanzori ko‘pdir olamning,*
26.*Dilda orzusi ham mo‘ldir odamning.*
27.*Agar din-imoni bo‘lsa bolamning,*
28.*Turon otlig‘ diyoridan ayrilmas.*

29.*Peshvosi bor yurtning butundir baxti,*
30.*Aslo xazon bo‘lmas ekkan daraxti.*
31.*Har kimga buyursin o‘z toju taxti,*
32.*Nomusli el shunqoridan ayrilmas.*

33.*Bir yonda turkmanim, qirg‘iz, qozog‘im,*
34.*Orolga termulgan qoraqalpog‘im,*
35.*O‘zbegim, tojigim - ko‘zim-qarog‘im*
36.*Jam bo‘lganda qatoridan ayrilmas.*

37.*Ayrilsa ayrilgay tog‘lar qoridan,*
38.*Ayrilgay behimmat boy ham boridan,*
39.*Vafosiz ayrilgay do‘stu yoridan,*
40.*Shoir xalqi ash’oridan ayrilmas.*

41.*Qo‘lga qalam oldim qutlug‘ bir kuni,*

42.*Mahtumquli she’rin bo‘lib maftuni.*

43.*Agar kuylar bo‘lsa Abdullo uni,*

44.*Bir umrga sho‘x toridan ayrilmas.*

AYRILMAZ (348)

1. “Ya Hak!” deyip yol alsa menzile kervan,

2. Yola çıkan büyük deveden ayrılmaz.

3. Âşıkların gönlünden geçer bin ukde,

4. Bir ukdesi maşukundan ayrılmaz.

5. Neleri görmeyecek insanın başı,

6. Boşuna dememişler: “O derenin taşı.”

7. Bilgeler, bir yere ulaşsa da yaşı,

8. Pirin verdiği muskadan ayrılmaz.

9. Nice nam salmış, nihayet, yalnız at,

10. Evlat akil olursa, pedere kanat.

11. Yiğide rastlasa Hayat yahut Memat,

12. Dostların didarından ayrılmaz.

13. Demişler: “Kör de görecek parlak düş.”

14. Azat devran sürmek her şeyden hoş.

15. Kafese eğer düşse uçan kuş,

16.Özgürlük arzusundan ayrılmaz.

17. Hor görülmez, ecdadı kim ki yâd etmiş,

18. Geçmiş azizlerin ruhunu şad etmiş.

19. Evlatlar kaderini düşünüp feryat etmiş,

20. Baba, dede mezarından ayrılmaz.

21. Herkes bildiğince fiske vuracak sazına.

22. Malı temiz insan edecek nazını.

23. Mert kişi çok diyecek hatta azına,
24.Rızkını bulduğu pazarından ayrılmaz.

25. Bağı ve çimenliği çoktur âlemin,
26.Gönülde arzusu da çoktur insanın.
27.Eğer dini, imanı olursa evladımın,
28. Turan adlı diyarından ayrılmaz.

29. Rehberi var yurdun bütündür bahtı,
30. Asla hazan olmaz ektiği ağacı.
31. Herkese buyursun kendi tâc u tahtı,
32. Namuslu halk şahininden ayrılmaz.

33. Bir yanda Türkmen'im, Kırgız'ım, Kazak'ım,
34. Aral'a gözünü dikmiş Karakalpak'ım,
35.Özbek'im, Tacik'im, gözüm, göz bebeğim
36. Cem olduğunda safından ayrılmaz.

37. Ayrılsa ayrılacak dağların karından,
38. Ayrılacak himmetsiz zengin de varından,
39. Vefasız ayrılacak dostundan ve yârinden,
40.Şair halkı eşarından ayrılmaz.

41. Ele kalem aldım kutlu bir gün,
42. Mahtumkulu şiirinin olup meftunu.
43.Eğer methederse Abdulla onu,
44. Bir ömür nağmeli tarından ayrılmaz. (1996)

QO'LLANMA (349)

(Hazil)

1. *Bir kun hasrat qildi amaldor ukam,*

2. *Dedi: Ne qilarim bilolmay qoldim.*

3. *Agar tanbeh bersang - kimgadir alam,*

4. *Taltayib ketadi maqtalgan xodim.*

5. *Men dedim: O‘ylab ayt har bir so‘zingni,*

6. *Turfa andishani bir chetga tashla.*

7. *Koyisang - eng avval koyi o‘zingni,*

8. *Maqtovni ham avval o‘zingdan boshla.*

KILAVUZ (349)

(Gülmece)

1. Bir gün hasret çekti memur kardeşim,

2. Dedi: Ne yapacağımı bilemeden kaldım.

3. Eğer sitem edersen birine elem,

4. Kibirlenir övünen memur.

5. Ben dedim: Düşünüp söyle her bir sözünü,

6. Garip endişeni bir kenara bırak.

7. Ayıplarsan en evvel ayıpla kendini,

8. Övgüye de evvela kendinden başla. (1996)

“DO‘STIM, HAQ DEGANNI QO‘LLAGIN FAQAT…” (350)

1. *Do‘stim, Haq deganni qo‘llagin faqat,*

2. *Parvoz qilar bo‘lsa - osmoni bo‘lgil.*

3. *Yovuzlikka qarshi qudrating ko‘rsat,*

4. *Mudom ezgulikning posboni bo‘lgil.*

“DOSTUM, HAK DİYENİ KOLLA YALNIZ…” (350)

1. Dostum, Hak diyeni kolla yalnız

2. Pervaz ederse asumanı ol.

3. Yavuzluğa karşı kudretini göster,

4. Daima iyiliğin muhafızı ol. (1996)

“TOKI TONG OTGUNCHALIK INTIQ QILAR QUYOSHNI…” (351)

1. *Toki tong otgunchalik intiq qilar Quyoshni,*
2. *Qishning beli yoy kabi bukilgaydir bu yurtda.*
3. *Bolg‘a bilan bir ursang uchragan har bir toshni,*
4. *Oltin qumi shovullab to‘kilgaydir bu yurtda.*

“TA Kİ TAN ATINCAYA DEK İNTİZAR EDER GÜNEŞE…” (351)

1. Ta ki tan atıncaya dek intizar eder Güneşe,
2. Kışın beli yay gibi bükülecektir bu yurtta.
3. Çekiçle bir vursan rastladığın her bir taşa,
4. Altın kumu gürüldeyip dökülecektir bu yurtta. (1996)

ALISHER NAVOIY G‘AZALIGA MUXAMMAS (352)

1. *Huzuri ishq Sizga-yu, tavqini kimga ilasiz,*
2. *Malomat xanjari birla doim yurakni tilasiz.*
3. *Nechuk g‘am ustiga g‘amdur, ahli g‘animim ila Siz*
4. *Jamoateki, junun man’ini manga qilasiz,*
5. *Tosh otibon ne uchun telbalarga qotilasiz.*

6. *G‘aribman, vasl uchun dilni gadoingiz qildim,*
7. *Yigitlik umrimi ishqqa fidoingiz qildim,*
8. *Agarchi ko‘rmadim mehre, duoingiz qildim,*
9. *Kecking, ko‘ngil bila jonkim, vido’ingiz qildim,*
10. *Firoq agar budurur, erta kunni kech qilasiz.*

11. *Buyuk dard yetdi Majnung‘a, olomon, yig‘lang,*
12. *Ketur armonda ko‘ngul, man notavon, yig‘lang,*
13. *To‘kulsin ashk kabi yulduz, osmon, yig‘lang,*
14. *Firoq kunidir, ey ko‘zlar, emdi qon yig‘lang,*
15. *Bilurmi sizki, bu kun ne kishidin ayrilasiz.*

16.*Tanimni buyla zax aylag‘on qon biri, biri ashk,*
17.*Ne erdi bilmam, ayo jononki, g‘alat siri ashk,*
18.*Meni qilurkim g‘ariqi daryo, netay, oxiri ashk,*
19.*Ko‘zum haqini bihil qildim, ey javohiri ashk,*
20.*Ki bori ham onging-o‘q maqdamiga sochilasiz.*

21.*Bag‘irg‘a nayzamu dog‘i yana zaxm bitmay,*
22.*Ko‘ngul, dard ustina dard, avvalg‘i dard ketmay,*
23.*Yiqilg‘um oxiri bu yo‘lda emdi sabr yetmay,*
24.*Firoq neshlari, vahki yana rahm etmay,*
25.*Nafas-nafas nega majruh ichimga sanchilasiz.*

26.*Necha ishq kufrini qildim, Alloh, netub yashuray,*
27.*Junun hayronlari, dardni, oh, netub yashuray,*
28.*G‘alat devonalig‘im tutsa goh, netub yashuray,*
29.*Ko‘ngul fasonalari, Sizni, voh, netub yashuray,*
30.*Bu nav’ikim, yuz uza qon yosh ila yozilasiz.*

31.*Kelibdur og‘zima jonim, qilurman ishqim zikr,*
32.*Netaykim, vasl erdi orzu, vale dildordin makr,*
33.*Netsin, Abdulla hayrondir, ayo pir, aylang fikr,*
34.*Navoiy hajrg‘a qoldi, qiling visolda shukr,*
35.*Jamoateki, sevar yoringiz bila bilasiz.*

ALİŞİR NEVÂÎ GAZELİNE MUHAMMES (352)

1. Huzur-ı aşk Size, zinciri kime bağlarsınız,
2. Melamet hançeriyle yüreği daima dilersiniz.
3. Niçin gam üstüne gamdır, ehli düşmanın ile Siz,
4. Cemaatteki, cünun man’ini bana yaparsınız,
5. Taş atan delilere niçin katılırsınız?

6. Garibim, vasıl için gönlü gedayîniz ettim,

7. Gençlik zamanımı aşka fedainiz ettim,
8. Eğer görmedim şefkate, duanız ettim,
9. Affedin, gönül ile can ki, vedanız ettim,
10. Firak eğer budur, yarını gece yaparsınız.

11.Büyük dert etti Mecnun'a, halk, ağlayın,
12. Gider ukdede gönül, ben çaresiz, ağlayın,
13.Dökülsün aşk gibi yıldız, asuman, ağlayın,
14. Firak günüdür, ey gözler, şimdi kan ağlayın,
15. Bilir mi siz ki, bugün hangi kişiden ayrılırsınız.

16. Bedenimi bunla nemli eyleyen kan biri, biri aşk,
17. Neydi bilmem, ey canan ki, acayip sırr-ı aşk,
18. Beni eder ki garîk-i derya, ne çare, ahir-i aşk,
19.Gözümün hakkını bihil ettim, ey cevahir-i aşk,
20. Ki varı da avın ok maqdamiga saçılırsınız.

21. Bağıra mızrak izi yine yara iyileşmeden,
22.Gönül, dert üstüne dert, evvelki dert gitmeden,
23.Yıkılacağım sonunda bu yolda şimdi sabretmeden,
24. Firak neshleri, vah ki yine merhamet etmeden,
25. Anbean niye yaralı içime saplanırsınız.

26. Nice aşk küfrünü ettim, Allah, ne çare saklayayım,
27.Cünun şaşkınları, derdini, ah, ne çare saklayayım,
28. Garip divaneliğim tutsa bazen, ne çare saklayayım,
29.Gönül beyanları, Sizi, vah, ne çare saklayayım,
30. Bu nevi ki, yüz üstüne kan yaş ile yazılırsınız.

31. Gelmiştir ağzıma canım, ederim aşkım zikir,
32. Ne edeyim ki, vasıldı arzu, ama yârdan hile,
33. Ne etsin, Abdulla şaşkındır, ey pir, edin fikir,
34. Nevâî hicrana kaldı, edin visalde şükür,

35. Cemaatteki, seven yârinizi bile bilirsiniz. (1997)

OSH VA TOSH (353)

1. *Dunyoda ko‘p ishdan erurmiz ogoh,*
2. *Deylik yil o‘tdimi - o‘tdi demak yosh.*
3. *Lekin qay ahvolga tusharding nogoh*
4. *Yeb turgan oshingdan chiqib qolsa tosh.*

5. *Qars etib tishingga tekkani zamon,*
6. *Miyang chatnab ketar, o‘t purkar ko‘zing.*
7. *Tamshanib qo‘yasan bildirmay - pinhon,*
8. *O‘zingdan o‘tganin bilarsan o‘zing.*

9. *Taom-ku, nasiba, ne’matdir azal,*
10.Buyursin har kimga o‘zin oshlari.
11.Biroq o‘ylab deyman men gohi mahal,
12.Nega oshimizning ko‘pdir toshlari...

13.O‘tkinchi dunyoga kelibsan magar,
14.Arzigay tish bilan boshni o‘ylasang.
15.Axir alam qilar har shomu sahar,
16.Oshingda chiqajak toshni o‘ylasang.

AŞ VE TAŞ (353)

1. Dünyada çok işten oluruz agâh,
2. Diyelim yıl geçti mi, geçti demek yaş.
3. Lakin hangi ahvale düşerdin birden
4. Yediğin aşından çıksa taş.

5. Çatırdayıp dişine değdiği zaman,
6. Beynin çatlayıp gider, püskürtür gözün.
7. Çiğnersin bildirmeden pinhan,

8. Kendinden geçtiğini bilirsin kendin.

9. Yemek, nasiptir, nimettir ezel,
10. Buyursun herkese kendisinin aşları.
11. Fakat düşünüp derim ben bazı zaman,
12. Niye aşımızın çoktur taşları…

13. Fani dünyaya gelmişsin meğer,
14. Değecek dişinle başını düşünürsen.
15. Nihayet elem verir her akşam ve seher,
16.Aşında çıkacak taşı düşünürsen. (1997)

TISH OG‘RIG‘I (354)

1. *Jenevada nogoh tishim og‘ridi,*
2. *Davo izlab kezdim o‘ngu so‘lini.*
3. *Oxir do‘xtirini topib, uchrasam:*
4. *Pulini cho‘z, dedi, pulini.*

5. *Pulini-ku, cho‘zdim. Ketar chog‘imda*
6. *Maslahat so‘radim, siqib qo‘lini.*
7. *Hech narsa demadi. Faqat jilmayib,*
8. *Pulini cho‘z, dedi, pulini.*

9. *Mening ham bir nima degim keldi-ku,*
10.*Boshqa yoqqa burdim gapning yo‘lini,*
11.*O‘zingni bir boplab so‘ksam ne deysan?*
12.*Pulini cho‘z, dedi, pulini.*

DİŞ AĞRISI (354)

1. Cenevre’de birden dişim ağrıdı,
2. Deva arayıp gezdim sağını ve solunu.
3. Nihayet doktorunu bulup, rastlarsam:

4. Parasını uzat, dedi, parasını.

5. Parasını, uzattım. Gideceğim anda
6. Nasihat istedim, sıkıp elini.
7. Hiçbir şey demedi. Yalnız gülümseyip,
8. Parasını uzat, dedi, parasını.

9. Benim de bir şey diyesim geldi,
10. Başka tarafa çevirdim sözün yolunu,
11. Kendini bir şaşırtıp sövsem ne dersin?
12. Parasını uzat, dedi, parasını. (1997)

"EY AZIZ YURT, HURRIYAT - DAVRON MUBORAKDIR SENGA…" (355)

1. *Ey aziz yurt, Hurriyat - davron muborakdir senga,*
2. *O'zbekiston - beg'ubor osmon muborakdir senga.*
3. *Necha yuz yil sen kurashding Mustaqillik oni deb,*
4. *Sen ani topding, ulug' imkon muborakdir senga.*
5. *Endi hur davlat bo'lib qo'yding qadam; mardona bo'l,*
6. *Boshlagan iqbol sari Sarbon muborakdir senga.*

"EY AZİZ YURT, HÜRRİYET, DEVRAN MÜBAREKTİR SANA…" (355)

1. Ey aziz yurt, Hürriyet, devran mübarektir sana,
2. Özbekistan, tertemiz asuman mübarektir sana.
3. Nice yüzyıl sen savaştın Bağımsızlık anı deyip,
4. Sen onu buldun, ulu imkân mübarektir sana.
5. Şimdi hür devlet olup attın adım, merdane ol,
6. Başladığın ikbale doğru Sarban mübarektir sana. (1997)

MASLAHAT (356)

1. *Eshmat nomli ko'chada*
2. *Toshmat nomli do'kon bor.*
3. *Xizmat qilar u joyda*

4. *Nurmat degan do‘kondor.*

5. *Xarid qilgin sen undan*
6. *Furqat nomli saqichni.*
7. *Unutma, Pirmat degan*
8. *Ko‘chaga ham boqishni.*

9. *U yerdagi hammomning*
10.*Qulmat nomin o‘yib ol.*
11.*Boy bermasdan fursatni*
12.*O‘z ismingni qo‘yib ol.*

NASİHAT (356)

1. Eşmat adlı sokakta
2. Toşmat adlı dükkân var.
3. Hizmet eder orada
4. Hürmet diyen dükkâncılar.

5. Alışveriş yap sen ondan
6. Furkat adlı sakızı
7. Unutma, Pirmet denen
8. Sokağa da bakmayı.

9. Oradaki hamamın
10. Kulmet adını düşün.
11. Zengin vermeden fırsatı
12. Kendi ismini koy. (1997)

NADOMAT (357)

1. *Menga afsonalar so‘ylama, uka,*
2. *Rosa charchaganman yolg‘onni yozib.*
3. *Qirq yil ko‘taribman Insonni ko‘kka,*

4. *Ishonib, hazrat deb, yo‘limdan ozib.*

5. *O‘zingiz kim deya so‘rarsan axir,*
6. *O‘sha nokomilning men ham biriman.*
7. *Tangrining yaratgan bandasi - faqir,*
8. *Boshqalar osmonu, men-chi, yeriman.*

9. *Balki koinotning biror burjida,*
10. *Bizdek nochorlarga bordir mos makon.*
11. *Lekin unga yetish qiyindir juda,*
12. *Buni tark etmoq ham emasdir oson.*

13. *Nachora, Insonni ko‘tarib ko‘kka,*
14. *U kabi yashashni bila bilmadim.*
15. *Yovuzlik qo‘limdan kelmadi, uka,*
16. *Birovga yomonlik qila bilmadim.*

NEDAMET (357)

1. Bana efsaneler söyleme, kardeşim,
2. Hayli yorulmuşum yalanını uydurup.
3. Kırk yıl kaldırmışım insanı göğe,
4. İnanıp, hazret deyip, yolumdan çıkıp.

5. Kendiniz kim diye sorarsın nihayet,
6. İşte o kâmilsizin ben de biriyim.
7. Tanrı’nın yarattığı bendesi, fakir,
8. Başkaları asuman ve ben yeriyim.

9. Belki kâinatın bir burcunda,
10. Bizim gibi naçarlara vardır uygun mekân.
11. Lakin ona yetmek zordur çok,

12. Bunu terk etmek de değildir kolay.

13. Ne çare, insanı kaldırıp göğe,
14. Onun gibi yaşamayı bile bilmedim.
15. Yavuzluk elimden gelmedi, kardeşim,
16. Birine yamanlık edemedim. (1997)

VERSAL XOTIRALARI (358)

1. *Bir kuni G‘afur G‘ulom jasoratin aylab jam,*
2. *O‘zbekning g‘ururiga bo‘ldi go‘yo ko‘zu qosh.*
3. *Dedi: qadim Toshkentning nomin qilib mukarram*
4. *- Parij, Rumo, Londonga alishmayman seni, Shosh!*

5. *Ha, shubhasiz, o‘z yurti, o‘z Vatan tuprog‘ini*
6. *Hattoki jannatga ham almashmagan zot haqdir.*
7. *Biroq bashar daraxtin har bitta yaprog‘ini*
8. *O‘z bog‘imning bargi deb ayta bilmoq ham baxtdir.*

9. *Jamiki odamzodni yaratgan qodir Xalloq,*
10.*Makonni taqsim etmish bizga G‘arbu Sharq deya.*
11.*Barchamizga barobar nur sochar oftob porloq,*
12.*Yozsang arzir ularning har biriga madhiya.*

13.*Maqtanma, lekin Parij, maqtanma sen ham, London,*
14.*Nazar solgin Samarqand, Xivayu Buxoroga.*
15.*Men ham endi lof urib, yurmayin kibor, xandon,*
16.*Nazar tashlay muazzam Versal kabi ma’voga.*

17.*Yam-yashil o‘rmon ichra qad ko‘tarmish qasrlar,*
18.*Bu - farang dahosining bus-butun, jamul jami.*
19.*San’atga aylanmishdir bunda ne-ne asrlar,*
20.*Aks etmish barchasida Insonning shodlik, g‘ami.*

21.*Boqsang, gumbazlar ichra maloyiklar charx urar,*
22.*Samoviy manazaradan darak bergay har bir rang.*
23.*Go‘yo kiprik qurshagan ko‘zdek daxlsiz ular,*
24.*Gavharingni asrabsan, balli, senga, ey farang.*

25.*Afsus, mening Vatanim asoratda qul edi,*
26.*Vayrona bo‘lmish edi qancha qutlug‘ imorat.*
27.*Kitoblarim g‘orat-u, saroylarim kul edi,*
28.*Erksiz elning qismati mudom shundan iborat.*

29.*Buyuk bobolarimning mozor toshlarin hatto*
30.*O‘marib ketgan edi sur, qaroqchi karvonlar.*
31.*Bugun g‘urbatda ular mung‘ayib turar tanho,*
32.*Boqaman, bo‘g‘zimda tosh, dilim to‘la armonlar.*

33.*O‘tgan-ketgan tarixni qalamga olar bo‘lsam,*
34.*Qo‘shilib yig‘larmidi ko‘hna Yevropa o‘zi.*
35.*Azaliy malomatni yuziga solar bo‘lsam,*
36.*Bir karra qorayardi uning ham shon yulduzi.*

37.*Mayli, Versalni ko‘rib, tasanno aytay bu on,*
38.*Bul kabi mo‘’jizalar mangu tursin jahonda.*
39.*Istiqlol keldi, shukr, do‘stim Alisher, ishon,*
40.*Ming bir Versal yaralgay ozod O‘zbekistonda.*

VERSAY HATIRALARI (358)

1. Bir gün Gafur Gulam cesaretini edip cem,
2. Özbek’in gururuna oldu sanki göz ve kaş.
3. Dedi: Kadim Taşkent’in namını edip mükerrem
4. - Paris, Roma, Londra’ya değişmeyeyim seni, Şaş!

5. Evet, şüphesiz, öz yurdu, öz Vatan toprağını
6. Hatta cennete de değişmeyen zat haktır.
7. Fakat beşer ağacının her bir yaprağını
8. Kendi bağımın yaprağı diye söyleyebilmek de bahttır.

9. Tüm insanlığı yaratan Kadir Halik,
10. Mekân taksim etmiş bize Garp ve Şark diye.
11. Hepimize beraber ışık saçar afitap parlak,
12. Yazsan değer onların her birine methiye.

13.Övünme, lakin Paris, övünme sen de, Londra,
14. Dikkatle bak Semerkant'a, Hive'ye ve Buhara'ya.
15. Ben de şimdi abartıp, yürümeyeyim kibar, handan,
16.Göz atayım muazzam Versay gibi menzile.

17. Yemyeşil orman içinde boy göstermiş kaleler,
18. Bu, Fransız dehasının büsbütün, cem-ül cemi.
19. Sanata dönüşmüştür burada nice eserler,
20. Aksetmiş hepsinde İnsanın bahtiyarlığı, gamı.

21. Baksan, kubbelerin içinde melayikler dolaşır,
22. Semavi manzaradan haber verecek her bir renk.
23. Sanki kirpiğin kuşattığı göz gibi ayrılmaz onlar,
24. Cevherini korumuşsun, aferin, sana ey Fransız!

25. Maalesef, benim Vatanım esarette köleydi,
26. Virane olmuştu nice kutlu imaret.
27. Kitaplarım yağmalandı ve saraylarım kül oldu,
28. Başsız halkın kısmeti daima bundan ibaret.

29.Büyük dedelerimin mezar taşlarını hatta
30.Çalmıştı arsız, haydut kervanlar.
31. Bugün gurbette onlar hüzünlenir tenhada,

32. Bakarım, boğazımda düğüm, gönlüm dolu ukdelerle.

33. Geçip giden tarihi kaleme alırsam,
34. Katılıp ağlar mıydı köhne Avrupa kendisi.
35. Ezelî melameti yüzüne vururs*a*m,
36. Bir kere kararırdı onun da şan yıldızı.

37. Neyse, Versay'ı görüp, methedeyim bu anda,
38. Bunun gibi mucizeler ebedî dursun cihanda.
39.İstiklal geldi, şükür, dostum Ali Şîr, inan,
40. Binbir Versay yaratılacak azat Özbekistan'da.

(Versay Sarayı, Paris, 20 Haziran 1997)

FAZOGIR SOLIJON (359)

N'yu-York. Amerikaning "Indevor"

kosmik kemasi Floridadagi

"Mise kanaveral " kosmodromidan

osmonga muvaffaqiyatli ko'tarildi...

Ushbu kema ekipaji a'zolari

orasida Qirg'izistonda tug'ilgan

o'zbek millatiga mansub Solijon

Sharipov ham bor.

(O'zA xabaridan)

1. *Osmonda bir o'zbek uchib yuribdi,*
2. *Fazogir Solijon, gapning sirasi.*
3. *Yulduzlar vasliga boqib turibdi*
4. *Mirzo Ulug'bekning chin nabirasi.*

5. *Turkiy dunyomizga yana bitta zeb,*

6. *Solijon samoni ko‘rgali ketdi.*

7. *Bobom yulduzlari joyidami, deb*

8. *Ularning holini so‘rgali ketdi.*

ASTORONOT SALİCAN (359)

New York: Amerika’nın “İndevor”

kozmik gemisi Florida’daki

“Mise kanaveral” uzay üssünden

asumana muvaffakiyetli kaldırıldı…

İşte bu gemi ekipman parçaları

arasında Kırgızistan’da doğan

Özbek milletine mensup Salican

Şeripov da var.

(O’zA haberinden)

1. Asumanda bir Özbek uçmuştu,

2. Astronot Salican, sözün doğrusu.

3. Yıldızların vasılına bakıp durmuştu

4. Mirza Uluğ Bey’in gerçek torunu.

5. Türkî dünyamıza yine bir güzellik,

6. Salican semayı görmeye gitti.

7. Dedem yıldızları yerinde mi, diye

8. Onların hâlini sormaya gitti. (Ocak, 1998)

TOYCHOQ (360)

1. *Jeneva ko‘lining sohilida shan,*

2. *Toyning haykalchasi tovlanar har choq.*

3. *Do‘rmon bog‘larining etaklaridan,*

4. *Qanday kelib qolding bu yerga, toychoq?!*

5. *Hordiqqami desam, hali yoshsan-ku,*

6. *Hali charchamagan asablaring ham.*

7. *Toshkent o‘tloqlari emasmi inju,*

8. *Senga Jenevada nima bor, oshnam?!*

9. *Toychoq kishnab deydi: - Mana shu ko‘l deb*

10. *Sig‘may qoldingizmi siz ham u yoqqa.*

11. *Akangning holidan xabardor bo‘l, deb,*

12. *Jo‘natib yubordi yangam bu yoqqa...*

TAY (360)

1. Cenevre gölünün sahilinde şen,

2. Tayın küçük heykeli parlar her an.

3. Dorman bağlarının eteklerinden,

4. Nasıl geldin buraya, tay?!

5. Dinlenmeye mi desem, hâlâ gençsin,

6. Henüz tükenmemiş asapların da.

7. Taşkent otlakları değil mi inci,

8. Sana Cenevre’de ne var, arkadaşım?!

9. Tay kişneyip der: - İşte şu göl diye

10. Yerleşmediniz mi siz de oraya?

11. Abinin hâlinden haberdar ol, deyip,

12. Gönderdi yengem buraya… (1998)

JAHONGASHTA (361)

1. *Bir kun so‘radilar jahongashtadan:*

2. *- Aytgil, bir yurakka olam siqqaymi?*

3. *Yoki yo‘qmi senda turar joy, vatan,*

4. *Sang‘ib yurmoqlikdan shoxing chiqqaymi?*

5. *U dedi: toqatim yo‘qdir firoqqa,*

6. *Men asli muhabbat uchun yarayman.*

7. *Faqat gohi-gohi ketib yiroqqa*

8. *Yurtni dast ko‘tarib, to‘yib qarayman.*

SEYYAH (361)

1. Bir gün sordular seyyaha:

2. - Söyle, bir yüreğe âlem sığacak mı?

3. Yahut yok mu sende duracak yer, vatan,

4. Avare dolaşmaktan fayda görecek misin?

5. O dedi: - Takatim yoktur firaka,

6. Ben asıl muhabbete yararım.

7. Yalnız zaman zaman gidip uzağa

8. Yurda el kaldırıp, doyarak bakarım. (1998)

FIDOYI (362)

1. *Sochilib yotadi oltin va gavhar*

2. *Tog‘larning qa’rida yo qumloq soyda.*

3. *Kimdir zahmat chekib yig‘masa agar,*

4. *U pinhon boylikdan, ayting, ne foyda.*

5. *Bedov ot kezadi cho‘llarda yaydoq,*

6. *Falakka yetgudek shaxdi, shiddati.*

7. *Yovqur bir chavandoz bo‘lmasa biroq*

8. *Ayting, chiqarmidi dong‘i, shuhrati.*

9. *Asriy jumboqni ham bir fozil yechgay,*

10. *Darg‘asiz kemaning suzmog‘i gumon.*

11. *Kimdir halovatu uyqudan kechgay.*

12. *Shundan Vatani tinch, xalqi ham omon.*

13.*Fidoyi Insonlar: balki rahnamo,*

14.*Balki oddiy zotdir - har qayda bordir.*

15.*Ular unutgaylar o‘zin doimo,*

16.*Chunki qo‘llovchisi Parvardigordir.*

17.*Bor bo‘l, ezgulikka baxshida hayot,*

18.*Zahmating tufayli yetding niyatga.*

19.*Shohmisan, fuqaro - endi umrbod*

20.*Daxdor bo‘lding sen abadiyatga.*

FEDAKÂR (362)

1. Saçılır altın ve cevher

2. Dağların ka’rında yahut kumlu derede.

3. Biri zahmet çekip yığmasa eğer,

4. O pinhan zenginlikten, söyleyin, ne fayda.

5. Hızlı at gezer çöllerde eyersiz,

6. Feleğe erişecek gibi sertliği, şiddeti.

7. Cesur bir atlı olmasa fakat

8. Söyleyin, çıkar mıydı şanı, şöhreti.

9. Asırların sorununu da bir âlim çözecek,

10.Kılavuzsuz geminin yüzmesi şüpheli.

11. Kimi halavet ve uykudan geçecek.

12. Bundan Vatanı dinç, halkı da esen.

13. Fedakâr İnsanlar: belki rehber,

14. Belki sıradan zattır, her yerde vardır.

15. Onlar unutacaklar kendini daima,

16.Çünkü kollayıcısı Perverdigâdır.

17. Var ol, iyiliğe sunmakta hayat,
18. Zahmetin yüzünden erdin niyete.
19.Şah mısın, vatandaş, şimdi ömrünce
20. Yararlı oldun sen ebediyete. (Ocak, 1998)

FAXR (363)

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati kengashi

sessiyasida o‘qilgan she’r

1. *Kimdir maqtanadi san’ati bilan,*
2. *Birov ilmu fanga rag‘bati bilan.*
3. *Kimdir she’ri bilan maqtansa, kimdir*
4. *Maqtanar mol-dunyo, davlati bilan.*

5. *Kimdir o‘rmonlarin ko‘kka ko‘tarsa,*
6. *Kimdir gerdayadi shaxmati bilan.*
7. *Ularning bari-ku insonga xosdir,*
8. *Birma-bir kelgaydir navbati bilan.*

9. *Toshkentda haykal bor bir oilaga,*
10.*Shon topmish yetimga shafqati bilan.*
11.*Ahli Kesh maqtansa arziydi - Temur*
12.*Jahonni zabt etdi sarvati bilan.*

13.*O‘zbekning boshidan zar sochsin dunyo,*
14.*Topdi u rizqini zahmati bilan.*
15.*Uning asosidir - buyuk bobolar*
16.*Bizga ibrat bo‘ldi mehnati bilan.*

17.*Bizdek nochorlar-ku yerga qaraymiz,*
18.*Kimdir osmon bo‘ldi savlati bilan.*
19.*Qashqadaryo xalqi faxr etar doim*

20.*Islomi yaratgan shavkati bilan.*

İFTİHAR (363)

Halk milletvekilleri Kaşkaderya vilayeti kurulu

oturumunda okunan şiir

1. Kimi övünür sanatıyla,
2. Biri ilme ve fenne rağbetiyle.
3. Kimi şiiriyle övünse, kimi
4. Övünür mal mülk, devletiyle.

5. Kimi ormanlarını göğe kaldırsa,
6. Kimi övünürdü satrancıyla.
7. Onların hepsi insana hastır,
8. Art arda gelecektir sırayla.

9. Taşkent'te heykel var bir aileye,
10.Şan bulmuş bir yetime şefkatiyle.
11. Ehl-i Keş övünse değer Timur
12. Cihanı zapt etti servetiyle.

13.Özbek'in başından altın saçsın dünya,
14. Buldu o rızkını zahmetiyle.
15. Onun esasıdır, büyük dedeler
16. Bize ibret oldu emeğiyle.

17. Bizim gibi naçarlar yere bakarız,
18. Kimi asuman oldu azametiyle.
19. Kaşkaderya halkı iftihar eder daima
20.İslam'ı yaratmış şefkatiyle. (Haziran 1998)

HISOBOT (364)

1. *Hayotda uchraydi turli hodisot,*
2. *Balki biri yaxshi, boshqasi yomon.*
3. *Lekin har biriga bordir hisobot,*
4. *Qayda u yuz berdi? Kim bilan? Qachon?*

5. *Kecha buyuk zotlar o‘tdi hasratda,*
6. *Bog‘larda quzg‘unlar oshiyon qurdi.*
7. *Mana shu asrda, shu mamlakatda,*
8. *Kelgindi kimsalar davrini surdi.*

9. *Men-ku, o‘ylamasman o‘zimni bukun,*
10. *Har qalay, el bilan o‘lmagan jonman.*
11. *Qattol asr hali topmasdan yakun*
12. *Ozod bo‘la olgan O‘zbekistonman!*

13. *Sharaflab taqdirning iltifotini*
14. *Mujdalar kelmoqda ovuldan, kentdan.*
15. *Qarangki, Istiqlol mukofotini*
16. *Olibmiz Birinchi Prezidentdan!*

HESAPLAR (364)

1. Hayatta rastlar türlü hadiseler,
2. Belki biri iyi, diğeri kötü.
3. Lakin birine vardır hesaplar,
4. Nerede o meydana geldi? Kiminle? Ne zaman?

5. Gece büyük zatlar geçti hasrette,
6. Bağlarda kuzgunlar aşiyan kurdu.
7. İşte şu asırda, şu memlekette,
8. Ecnebi kimseler devranını sürdü.

9. Ben düşünmem kendimi bugün,
10. Herhâlde halkla ölmemiş canım.
11. Katil asır henüz bulmadan son
12. Azat olabilmiş Özbekistan'ım!

13. Onurlandırıp kaderin iltifatını
14.Müjdeler gelmekte köyden, kentten.
15. Bakın ki, İstiklal mükâfatını
16. Almışız Birinci Cumhurbaşkanından! (1998)

TUSHMASIN (365)

1. *U yiroq tog'larga qor tushsa tushsin,*
2. *Sening bog'laringga zinhor tushmasin.*
3. *O'rtaga ayriliq, zor tushsa tushsin,*
4. *Va lekin hech qachon ag'yor tushmasin.*

5. *Men sekin kuzatdim shitob dunyoni,*
6. *Nechog' omonatdir odamzot joni.*
7. *Qo'ling endi oshga yetgani oni,*
8. *Boshingga nogahon cho'qmor tushmasin.*

9. *Birov tinglamasa suxan ne kerak,*
10.*Har kimga buyursin sirdosh bir yurak.*
11.*Agarda bor bo'lsa sodiq do'st-tirgak,*
12.*Oraga to'g'anoq - devor tushmasin.*

13.*Uchragay dunyoda turfa xil armon,*
14.*Gohi g'olibdirsan, goh mag'lub, nolon.*
15.*Ko'nikkay bariga hayotda inson,*
16.*Lekin g'am ustma-ust, takror tushmasin.*

17.*Tepangda bor ekan Parvardigoring,*

18.*Magarki elu yurt nomus va oring.*

19.*Vatanni kuylamak bo‘lsa shioring.*

20.*Dilingga boshqa hech qaror tushmasin.*

DÜŞMESİN (365)

1. O ırak dağlara kar düşerse düşsün,

2. Senin bağlarına zinhar düşmesin.

3. Ortaya ayrılık, intizar düşerse düşsün,

4. Velakin hiçbir zaman ağyar düşmesin.

5. Ben sessizce gözetledim aceleci dünyayı,

6. Ne kadar emanettir insanoğlunun canı.

7. Elinin şimdi aşa eriştiği anı,

8. Başına ansızın topuz düşmesin.

9. Biri dinlemezse kelam ne gerek,

10. Herkese buyursun sırdaş bir yürek.

11.Eğer varsa sadık dost, dayanak,

12. Araya engel, duvar girmesin.

13. Rastlayacak dünyada garip tür ukde,

14.Gâh galipsindir, gâh mağlup, nalan.

15. Alışacak hepsine hayatta insan,

16. Lakin gam üst üste, tekrar düşmesin.

17. Tepende varmış Perverdigâr’ın,

18. Meğer ki halkın ve yurdun, namusun ve arın.

19. Vatanı terennüm etmekse şiarın.

20.Gönlüne başka hiç karar düşmesin. (1998)

O‘ZBEK BOYINING BAYONOTI (366)

1. *Gaping to‘g‘ri, kulba emas, saroydirman,*

2. *Boylar ko‘pdir, ular ichra eng boydirman.*

3. *Son-sanoqsiz molu dunyo, qo‘ylarim bor,*
4. *Shahar to‘la, qishloq to‘la uylarim bor.*

5. *Konlarim bor, adog‘ini bilolmassan.*
6. *Don-dunimning hisobini qilolmassan.*

7. *Tog‘larimning bordir yashil archalari,*
8. *Kaminaning mulki erur barchalari.*

9. *O‘z hovlimda tayyora ham yasaydirman,*
10. *Ulovim ko‘p, xo‘p shohona yashaydirman.*

11. *Guzarlar ham, bozorlar ham menikidir,*
12. *Sen yotajak mozorlar ham menikidir.*

13. *Sohibqiron Temur mening bobom erur,*
14. *Bobur tog‘am, Mohlaroyim momom erur.*

15. *Boysunimda tulporlarim kishnashadi,*
16. *Zominimda zarg‘aldoqlar qishlashadi.*

17. *O‘lponchi-yu soliqchilar, bilib qo‘ying,*
18. *Gaplarimni Siz quloqqa ilib qo‘ying.*

19. *Boyligimga chegara yo‘q, ha, chindan ham,*
20. *Buni yaxshi bilgaydirsiz Siz mendan ham.*

21. *Boyligimdir qirlar to‘la gul-lolalar.*

22.*Sahar chog‘i naydan uchgan kuy, nolalar.*

23.*Bir odamga ko‘p emasmi buncha boylik,*
24.*Boz ustiga qalam haqqi hamda oylik?!*

25.*Axir buning barchasini netar edim,*
26.*U dunyoga olibmi men ketar edim.*

27.*Bilib qo‘ying, boylarda ham bordir matlab,*
28.*Boyligimni qoldirgayman aniq, xatlab.*

29.*Vorisim bor, ko‘zimning u oq-qorasi,*
30.*U shu tuproq farzandidir, yurt bolasi.*

31.*Inshoolloh, undan ko‘nglim to‘lajakdir,*
32.*Vorisimning ismi esa - Kelajakdir!*

ÖZBEK ZENGİNİNİN BEYANATI (366)

1. Sözün doğru, kulübe değil, sarayımdır,
2. Zenginler çoktur, onlar içinde en zenginimdir.

3. Sayısız mal, mülk ve koyunlarım var,
4. Şehirler, köyler dolusu evlerim var.

5. Feyizlerim var, nihayetini bilemezsin.
6. Tahıllarımın hesabımın hesabını edemezsin.

7. Dağlarımın vardır yeşil çamları,
8. Bendenin mülküdür tamamı.

9. Kendi avlumda tayyare de yaparımdır,
10. Bineğim çok, gayet şahane yaşarımdır.

11. Sokaklar da, pazarlar da benimdir,
12. Senin yatacağın mezar da benimdir.

13.Sâhipkıran Timur benim dedemdir,
14. Babür dayım, Mahlerayım ninemdir.

15. Emrimdeki tulparlarım kişnerler,
16. Zeminimde sarıasmalar kışlarlar.

17. Vergi toplayan maliyeciler, anlayın,
18.Sözlerime Siz kulak verin.

19. Zenginliğime sınır yok, evet, gerçekten de,
20. Bunu iyi bileceksinizdir Siz benden de.

21. Zenginliğimdir kırlar dolusu güller, laleler,
22. Seher vakti neyden uçan nağme, naleler.

23. Bir insana çok değil mi bunca zenginlik,
24.Üstüne üstlük kalem hakkı da aylık?!

25. Nihayet bunun hepsini ne ederdim,
26.O dünyaya almış mı ben giderdim.

27. Anlayıverin, zenginlerde de vardır maksat,
28. Zenginliğimi bırakacağım şüphesiz, edip vasiyet.

29. Varisim var, gözümün o akı, karası,
30.O şu toprak evladıdır, yurt balası.

31.İnşallah, ona gönlüm akacaktır,
32. Varisimin ismi ise, Gelecektir! (1998)

KOMILLIK (367)

1. *Xohlaysan, barchaga barobar yoqsang,*
2. *Holbuki, bu ishga chora yo‘q hech ham.*
3. *Har qanday odamga sinchiklab boqsang,*
4. *Ayon bo‘ladiki, ozroq joyi kam.*

5. *Ozroqqina kamlar ko‘pdir olamda,*
6. *Hangoma bu bilan bitmaydi biroq.*
7. *Hatto eng mukammal degan odamda,*
8. *Ayon bo‘ladiki, bir oz ortiqroq.*

9. *Xudoyim, ne uchun qilmading karam,*
10.*Nechun komil emas aqlim, yuragim.*
11.- *Agar sen mukammal bo‘lsayding, bandam,*
12.*Unda qolmas edi mening keragim.*

KÂMİLLİK (367)

1. İstersin, hepsi birlikte beğensin,
2. Hâlbuki bu işe çare yok hiç de.
3. Her insana dikkatle bakarsan,
4. Ayan olur ki, daha az yeri noksan.

5. Daha az noksanlar çoktur âlemde,
6. Tuhaflık bununla bitmez ama.
7. Hatta en mükemmel denen insanda,
8. Ayan olur ki, biraz daha fazla.

9. Hüda'm, niçin kılmadın kerem,

10. Niçin kâmil değil aklım, yüreğim.

11.- Eğer sen mükemmel olsaydın, bendem,

12. Onda kalmazdı benim gereğim. (1998)

BIR QARASAM... (368)

1. *Bir qarasam, do'stu yordan ko'nglim to'qday,*

2. *Bir qarasam, atrofimda hech kim yo'qday.*

3. *Bir qarasam, suyanchiqday bolalarim,*

4. *Bir qarasam, ular siniq lolalarim.*

5. *Bir qarasam, bu dunyoda baxtim borday,*

6. *Bir qarasam, butkul olam menga torday.*

7. *Bir qarasam, murodimga yetgandayman,*

8. *Bir qarasam, ko'zim ochiq ketgandayman.*

9. *Bir qarasam, shon-shuhratga yo'g'rilganman,*

10.*Bir qarasam, endigina tug'ilganman.*

BİR BAKSAM… (368)

1. Bir baksam, dosttan ve yârdan gönlüm tok gibi,

2. Bir baksam, etrafımda hiç kimse yok gibi.

3. Bir baksam, destekçi gibi evlatlarım,

4. Bir baksam, onlar kırık lalelerim.

5. Bir baksam, bu dünyada bahtım var gibi,

6. Bir baksam, büsbütün âlem bana dar gibi.

7. Bir baksam, muradıma ermiş gibiyim,
8. Bir baksam, gözüm açık gitmiş gibiyim.

9. Bir baksam, şanla, şöhretle yoğrulmuşum,
10. Bir baksam, henüz doğmuşum. (Ağustos, 1998)

O‘ZBEKISTON UCHUN DENGIZ O‘ZINGIZ (369)

1

1. *Allohim qayda deb bermagil so‘roq,*
2. *Yaxshisi, mana bu manzaraga boq:*
3. *Qozonning ichida otashin taft bor,*
4. *Olovning o‘zini ko‘rmaysan biroq.*

2

5. *Bilmasdan birovni ranjitma, bolam,*
6. *Bilmasdan birovni maqtamagin ham.*
7. *G‘unchani bag‘ri qon deydi shoirlar,*
8. *Biroq ochilganda ne chog‘liq ko‘rkam.*

3

9. *Ey inson, nazar sol o‘ngu so‘lingga,*
10.Munosib baho ber ushbu yo‘lingga:
11.Molni bo‘kirtirib so‘yasan, ammo
12.O‘kraysan, zirapcha kirsa qo‘lingga!

4

13.Jannat der: - Xush kelding, ey karam ahli.
14.A’rof der: - Sabr qil, ey alam ahli.
15.Bu yerda hech banda javobsiz qolmas.
16.Do‘zax der: - Yon endi, muttaham ahli.

5

17.His etib dunyoning shodligin, g‘amin,
18.Ulug‘ bir hikmatga bo‘lganman amin:
19.Yaxshi-yu yomonni ko‘tararkan teng.
20.Shu bois, ona deb nom olmish zamin.

6

21.*O‘zbegim, munosib posbonlaring bor,*

22.*Sarhadlarda po‘lat qalqonlaring bor.*

23.*Sen ulug‘ Temurning zuryodidirsan,*

24.*Manguberdi kabi o‘g‘lonlaring bor.*

7

25.*Xalqimning istiqlol ahdi mangudir,*

26.*Buyuk davlatimning taxti mangudir.*

27.*Kelajak ko‘zimiz qarog‘i bo‘lsa,*

28.*Jajji farzandlarning baxti mangudir.*

8

29.*Ey, Ajal, men sendan qo‘rqmasman hech ham,*

30.*Ro‘baro‘ kelmoqqa tayyorman har dam.*

31.*Sababi bittadir, sababi bitta:*

32.*Senga duch keldilar Otam ham Onam!*

9

33.*Tiklanish bir yonda, nurash bir yonda,*

34.*Javob bir yonda-yu so‘rash bir yonda.*

35.*Bu ko‘hna dunyoni tinch ko‘rmadim hech,*

36.*Ahillik bir yonda, kurash bir yonda!*

10

37.- *Afsus, jahonaro dengizimiz yo‘q...*

38.*Goho o‘kinch bilan yangrar so‘zingiz.*

39.*Lekin, Islom aka, mening ko‘nglim to‘q:*

40.*O‘zbekiston uchun dengiz o‘zingiz!*

ÖZBEKİSTAN İÇİN DENİZ KENDİNİZ (369)

1

1. Allah’ım nerede diye sorma soru,

2. Doğrusu, işte bu manzaraya bak:

3. Kazanın içinde ateşin harareti var,

4. Alevin kendisini görmezsin ancak.

2

5. Bilmeden birini incitme, evladım,

6. Bilmeden birini övme de.

7. Goncaya bağrı yanık der şairler,

8. Fakat açıldığında ne kadar görkemli.

3

9. Ey insan, dikkatle bak sağına ve soluna,

10.Münasip değer ver işte şu yoluna:

11. Malı bağırttırıp boğazlarsın, ama

12.Hıçkırırsın, kıymık girse eline!

4

13. Cennet der: - Hoş geldin, ey kerem ehli.

14. Araf der: - Sabret, ey elem ehli.

15. Burada hiçbir bende cevapsız kalmaz.

16. Cehennem der: - Yan şimdi, hilekâr ehli.

5

17. Hissedip dünyanın sevincini, gamını,

18. Ulu bir hikmete olmuşum emin:

19.İyiyi ve kötüyü kaldırırmış denk.

20. Bu yüzden, ana diye nam almış zemin.

6

21.Özbek'im, münasip muhafızların var,

22. Serhatlarda çelik kalkanların var.

23. Sen Ulu Timur'un zürriyetisindir,

24. Bengüverdi gibi oğlanların var.

7

25. Halkımın istiklal ahdi ebedîdir,

26.Büyük devletimin tahtı ebedîdir.

27. Gelecek gözümüzün bebeğiyse,

28. Minik evlatlarının bahtı ebedîdir.

8

29. Ey, Ecel, ben senden korkmam hiç de,

30.Yüz yüze gelmeye hazırım her dem.

31. Sebebi birdir, sebebi bir:

32. Sana rastladılar Babam ve Anam!

9

33. Dikilmek bir yanda, yıkılmak bir yanda,

34. Cevap bir yanda ve soru bir yanda.

35. Bu köhne dünyayı dinç görmedim hiç,

36. Dostluk bir yanda, savaş bir yanda!

10

37.- Ne yazık ki, cihan içinde denizimiz yok…

38. Bazen pişmanlıkla yankılanır sözümüz.

39. Lakin, İslam Abi, benim gönlüm tok:

40.Özbekistan için deniz kendiniz! (1998)

ZARDO‘SHT SO‘ZI (370)

1. *Qadim Xorazmning zar tuprog‘ida,*

2. *Ko‘hna Buxoroning hur quchog‘ida.*

3. *Yashagan Zardo‘shtman, donishmand zotman,*

4. *O‘lmas g‘oyam bilan mangu hayotman.*

5. *Yaxshi va yomonni ayladim hisob,*

6. *Va bitdim “Avesto” nomli bir kitob.*

7. *Unda yozuvlikni yerga urganman,*

8. *Ezgulik maqomin yuksak ko‘rganman.*

9. *Ishonchim shul bo‘ldi: toju taxt, davlat,*

10.But bo‘lsa mamlakat yashnagay albat.

11.Uch ming yil muqaddam qadim tuproqda,

12.Ko‘hna Buxoroyu Xorazm yoqda.

13.Qo‘rg‘onlar yaraldi, qal’alar o‘sdi,

14.Ular yovuzlikning yo‘lini to‘sdi.

15.Hurmuzd g‘olib bo‘lgay, Axraman mag‘lub,

16.Yovuzlik chekingay, ezgulik marg‘ub.

17.*Ko‘hna saltanatdan yodgor bo‘lsin to,*

18.*Sizga qoldirganim ushbu “Avesto.”*

ZERDÜŞT SÖZÜ (370)

1. Kadim Harezm’in altın toprağında,

2. Köhne Buhara’nın hür kucağında.

3. Yaşayan Zerdüşt’üm, danişment zatım,

4. Ölmez gayemle bengü hayatım.

5. İyiyi ve kötüyü eyledim hesap,

6. Ve yazdım “Avesta” namlı bir kitap.

7. Orada yazılanı yere vurmuşum,

8. İyilik makamını yüksek görmüşüm.

9. İnancım şu oldu: tâc u taht, devlet,

10. Tam olsa memleket gelişecek elbet.

11.Üç bin yıl mukaddem kadim toprakta,

12.Köhne Buhara ve Harezm tarafında.

13.Sığınaklar inşa edildi, kaleler geliştirildi,

14. Onlar kötülüğün yolunu kesti.

15. Hurmuzd galip olacak, Ahraman mağlup,

16.Kötülük bitecek, iyilik galip.

17.Köhne saltanattan yadigâr olsun ta,

18. Size bıraktığım işte şu “Avesta.” (1998)

LUVR MUZEYIDA (371)

(Farangiston xotiralaridan)

1. *Luvrda - muzeyning bag‘rida sokin*
2. *Ming yillik ashyolar turibdi qator.*
3. *Bunda shohlar taxti hashamdor, yorqin,*
4. *Bunda gadolarning sopoli ham bor.*

5. *Boqib, o‘yga cho‘mdim Luvr uyida,*
6. *Tarixni bus-butun ko‘rarmikanman?*
7. *Payt kelib, O‘zbekning bir muzeyida,*
8. *Singan sopolchalik turarmikanman?!*

LOUVRE MÜZESİ’NDE (371)

(Fransa anılarından)

1. Louvre’de, müzenin bağrında sessiz
2. Bin yıllık eşyalar durmuş sırayla.
3. Burada şahların tahtı haşmetli, ışıltılı,
4. Burada gedaların çömleği de var.

5. Bakıp, düşünceye daldım Louvre evinde,
6. Tarihi büsbütün görür müymüşüm?
7. Vakit gelip, Özbek’in bir müzesinde,
8. Kırılan çömlek parçası gibi durur muymuşum?! (1998)

SAFARDOSHLAR (372)

(Hazil)

1. *Aslo boylar bilan chiqma safarga,*
2. *Agar ziqna bo‘lsa, sharmanda qilar.*
3. *O‘rta hol zot bilan kezsang agarda,*
4. *U o‘lik-tirigin bo‘yningga ilar.*

5. *Kambag‘al hamroh-chi, bilmaydi firib,*
6. *Sezdirmas bormi yo yo‘qligini u.*
7. *Yiqilsa yiqilar sillasi qurib,*
8. *Aytmaydi ochmi yo to‘qligini u.*

YOLDAŞLAR (372)

(Gülmece)

1. Asla zenginlerle çıkma sefere,
2. Eğer tamahkârsa, rezil eder.
3. Orta hâlli zatla gezersen eğer,
4. O ölüsünü, dirisini boynuna asar.

5. Fakir yoldaş, bilmez hile,
6. Hissettirmez var mı yahut yok mu o?
7. Yıkılsa yıkılır güçten düşüp,
8. Söylemez aç mı yahut tok mu o? (1998)

SHOIR QALBI (373)

1. *Yurtda ne muborak ishlar bo‘lg‘uvsi,*
2. *Undan shoir qalbi shavqqa to‘lg‘uvsi.*

3. *Chinor o‘tqazildi, tug‘ildi farzand,*

4. *Avval shoir qalbi bo‘lgay bahramand.*

5. *Sababi ma’lumdir buning, albatta,*
6. *Tug‘ildik shu Vatan, shu mamlakatda.*

7. *Uning har go‘shasi jahondir menga,*
8. *Toshloq yo‘llari ham ravondir menga.*

9. *Taralsa elimdan xushnud bir xabar,*
10. *Tabrik aylamog‘im, demak, muqarrar.*

11. *Mavjiga nogahon kimdir tosh otgay,*
12. *Zarbi yuragimning tubiga botgay.*

13. *Elim, qadamingni har dam kuzatdim,*
14. *Goh o‘ychan, gohida xurram kuzatdim.*

15. *Gar sen daryo bo‘lsang - irmog‘ingdirman,*
16. *Lat yesang, og‘riqli barmog‘ingdirman.*

17. *Menda fazilatdan bo‘lsa bir nishon,*
18. *Sening olovingdan uchqun bu, ishon!*

19. *Savobing qosh ila ko‘zimnikidir,*
20. *Faqat gunohlarim o‘zimnikidir.*

ŞAİR KALBİ (373)

1. Yurtta ne mübarek işler olacak.
2. Ondan şair kalbi şevkle dolacak.

3. Çınar dikildi, doğdu evlat,
4. Evvel şair kalbi olacak hissedar.

5. Sebebi malumdur bunun, elbette,
6. Doğduk şu Vatan, şu memlekette.

7. Onun her köşesi cihandır bana,
8. Taşlı yolları da revanedir bana.

9. Yayılsa halkıma hoşnut bir haber,
10. Tebrik ederim, bu yüzden, mükerrer.

11. Dalgasına ansızın biri taş atacak,
12. Darbesi yüreğimin dibine batacak.

13. Halkım, adımına her dem eşlik ettim,
14.Gâh düşünceli, gâh mutlu eşlik ettim.

15.Eğer sen derya olursan ırmağınımdır,
16. Zarar görürsen, ağrılı parmağınımdır.

17. Bende faziletten olursa bir nişan,
18. Senin ateşinden kıvılcım bu, inan!

19. Sevabın kaşımla gözümünkidir,
20. Yalnız şahitlerim özümünkidir. (1998)

AYTGIN SHUKRLAR (374)

1. *Dumaloq shu boshdan bo‘lmasang judo,*
2. *Ikki oyoq bilan yiroq ketgaysan.*

3. *O‘lmagan qulim, deb siylasa xudo,*

4. *Jambulning yoshiga balkim yetgaysan.*

5. *Tap-taqir kallangda qozondek dastor,*

6. *Avliyo misoli ayri soqoling.*

7. *Nabira, abira tegrangda qator,*

8. *Sandiqda bisoting, qo‘rangda moling.*

9. *O‘tgan hayotingdan mutloq bexabar,*

10.*Piyri badavlat deb yozar muxbirlar.*

11.*Shundayin dovonga yetolsang magar,*

12.*Aytaber Allohga cheksiz shukrlar.*

ET ŞÜKÜRLER (374)

1. Yuvarlak şu baştan olmazsan cüda,

2. İki ayakla uzun gideceksin.

3. Ölmemiş kulum, diye şefkat gösterse Hüda,

4. Geyik otunun yaşına belki erişeceksin.

5. Çorak başında kazan gibi sarık,

6. Evliya misali ayrı sakalın.

7. Çoluk çocuk etrafında sıra sıra,

8. Sandıkta varlığın, ahırında malın.

9. Geçmiş hayatından mutlaka, bihaber,

10. Pir-i zengin diye yazar muhabir.

11.Böyle davana erişebilirsen eğer,

12. Ediver Allah’a sonsuz şükürler. (1998)

OTA DUOSI (375)

1. *O‘g‘lim so‘ramasman sendan mol-dunyo,*

2. *Uy ham qurib berma, mayli, alomat.*

3. *Mayli, ko‘zlarimga bo‘lmagil ziyo,*

4. *Yonimda yursang bas sog‘u salomat.*

5. *Mayli, ko‘tarmagil meni yelkangda,*

6. *Qalqon ham bo‘lmagil yog‘sa malomat.*

7. *Bir kuni yostiqqa boshim tekkanda,*

8. *Tepamda tursang bas sog‘u salomat.*

BABA DUASI (375)

1. Oğlum istemem senden mal mülk,

2. Ev de kuruverme, peki, alicenap.

3. Tamam, gözlerime olma ziya,

4. Yanımda yürüsen yeter sağ ve selamet.

5. Tamam, kaldırma beni omzunda

6. Kalkan da olma yağsa melamet.

7. Bir gün yastığa başım değdiğinde,

8. Tepemde dursan yeter sağ ve selamet. (1998)

UCHAR QUSHLAR (376)

1. *Uchar qushlar uchdi-ketdi,*

2. *Qo‘llarimda pati qoldi.*

3. *Yoshlik ketdi, umrning ham*

4. *Sharti ketib, parti qoldi.*

5. *Dema, bukun sevgining ham*

6. *O‘zi ketib, oti qoldi.*

7. *Lablarimda u bo‘saning*

8. *Hech aynimas toti qoldi...*

UÇAR KUŞLAR (376)

1. Uçar kuşlar uçtu gitti,

2. Ellerimde tüyü kaldı.
3. Gençlik gitti, ömrün de
4. Ahı gitti, vahı kaldı.

5. Deme, bugün sevginin de
6. Kendisi gidip, adı kaldı.
7. Dudaklarımda o busenin
8. Hiç değişmeyen tadı kaldı. (1998)

"URINMA BOLAKAY, URINMA HARCHAND…" (377)

1. *Urinma bolakay, urinma harchand*
2. *Bag'ringni men kabi tig'lay olmassan.*
3. *Men kabi quvonib, kularsan garchand,*
4. *Lekin men singari yig'lay olmassan.*

"UĞRAŞMA OĞULCUĞUM, UĞRAŞMA HİÇ…" (377)

1. Uğraşma oğulcuğum, uğraşma hiç
2. Yüreğini benim gibi dağlayamazsın.
3. Benim gibi sevinip, gülersin gerçi,
4. Lakin benim gibi ağlayamazsın. (1998)

"BUGUN XOLI QO'YDIM YANA DAFTARIMNI…" (378)

1. *Bugun xoli qo'ydim yana daftarimni,*
2. *Buni balki kimdir yalqovlikka yo'ydi.*
3. *Asli senga aytar hamma gaplarimni,*
4. *Bulbul aytib qo'ydi.*

"BUGÜN BOŞ BIRAKTIM YİNE DEFTERİMİ…" (378)

1. Bugün boş bıraktım yine defterimi,
2. Bunu belki biri tembelliğe yordu.
3. Aslında sana söylerim bütün sözlerimi,
4. Bülbül söyledi durdu. (1998)

QALQON (379)

Osoyishtalik posbonlariga

1. *Kimdir el tinchini buzsa nogahon*
2. *Yoki qo‘l ko‘tarsa qahrga to‘lib,*
3. *Siz - ozor chekkanga eng avval qalqon,*
4. *Himoya qilgaysiz Birinchi bo‘lib.*

5. *Hayotda fojia uchrab turar goh,*
6. *Goh umr g‘unchasi qolgaydir so‘lib,*
7. *Bunga ham eng avval Sizdirsiz guvoh,*
8. *Siz ko‘z yosh to‘kkaysiz Birinchi bo‘lib.*

KALKAN (379)

Asayiş polislerine

1. Biri halkın huzurunu bozsa aniden
2. Yahut el kaldırsa kahırla dolup,
3. Siz eziyet çekene en evvel kalkan,
4. Himaye edeceksiniz Birinci olup.

5. Hayatta facia rastlayıp durur gâh,
6. Gâh ömür goncası kalacaktır solup,
7. Buna da en evvel Sizsinizdir şahit,
8. Siz gözyaşı dökeceksiniz Birinci olup. (14 Ocak 1999)

“DEYDILAR…” (380)

1. *Deydilar: - Chaqnagan qaysi yurt erur,*
2. *Buyuk sohibqiron sochgan ziyodan.*
3. *Javob berdilarki, - Hech so‘nmas bu nur,*

4. *Taralgan eng avval Qashqadaryodan.*

5. *Dedilar: - Qaysi el bedor doimo,*

6. *Zavq olar mehnatdan, suluv dunyodan.*

7. *Javob berdilarki, - Shoir, ulamo,*

8. *San'atkorlar chiqqan Qashqadaryodan.*

9. *Dedilar: - Jahonga buyuk yurtboshi,*

10. *Parvoz aylagandi qaysi ma'vodan.*

11. *Javob berdilarki, - Hurlik quyoshi,*

12. *Balqqandi dastavval Qashqadaryodan.*

13. *Dastavval, dastavval Qashqadaryodan!*

"DERLER…" (380)

1. Derler: - Parlayan hangi yurttur,

2. Büyük Sâhipkıran'ın saçtığı ziyadan.

3. Cevap verdiler ki, - Hiç sönmez bu ışık,

4. Yayılmış en evvel Kaşkaderya'dan.

5. Dediler: - Hangi halk bidar daima,

6. Zevk alır çalışmaktan, güzel dünyadan.

7. Cevap verdiler ki, - Şair, ulema,

8. Sanatkârlar çıkmış Kaşkaderya'dan.

9. Dediler: - Cihana büyük yurtbaşı,

10. Pervaz eylemişti hangi meyveden.

11. Cevap verdiler ki, - Hürlük güneşi,

12. Parlamıştı evvela Kaşkaderye'dan.

13. Evvela, evvela Kaşkaderya'dan! (1999)

"YURTIMDA BESO'ROV KEZGANING YETAR" (381)

1. *Yurtimda beso'rov kezganing yetar,*

2. *O'zingni xoqondek sezganing yetar.*

3. *Bir yuz o'ttiz yil qul bo'ldim senga,*

4. *O'zbekni shuncha yil ezganing yetar.*

"YURDUMDA İZİNSİZ GEZDİĞİN YETER" (381)

1. Yurdumda izinsiz gezdiğin yeter,

2. Kendini hakan gibi sezdiğin yeter.
3. Yüz otuz yıl kul oldum sana,
4. Özbek'i bunca yıl ezdiğin yeter. (18 Nisan 1999)

BEDORLIK (382)

1. *Der edim: Istiqlol shukuhi bilan*
2. *Ro'zg'orni butlamoq fursati yetdi.*
3. *Shunday payt, qo'ynimga kirdi bir ilon,*
4. *Kimdir ostonamga o't qo'yib ketdi.*

5. *Der edim: Hur zamon kelib nihoyat,*
6. *Asriy g'alvalardan xoli bo'ldi bosh.*
7. *Shunday payt, qo'zg'alib qaydin qabohat*
8. *Yurtboshim ko'ksiga otmoq bo'ldi tosh.*

9. *Der edim: bosqinlar, vahshat, ur-surlar,*
10.Qoldilar moziyning kechalarida.
11.Shunday payt, daf'atan jonlandi ular,
12.Qon oqdi Toshkentning ko'chalarida.

13.Nogoh ayon bo'ldi, g'animlar bisyor,
14.Bisyor oramizda olamizgacha.
15.Endi ogoh bo'lsin, bo'lsinlar hushyor,
16.Hatto beshikdagi bolamizgacha.

17.Istiqlol, sadag'ang ketay, Istiqlol!
18.Buncha og'ir ekan qutlug' yo'llaring.
19.Ishonay, duch kelsa, agar yov qattol,
20.Burda-burda qilsin uni qo'llaring.

21.Men esa, Istiqlol, yaloving tutib,
22.Metin saflaringda sobit keturman.

23.*O‘tgan shahidlarning nomin yod etib,*

24.*Yurtboshim yonida bedor o‘turman.*

BİDARLIK (382)

1. Derdim: İstiklal yüceliğiyle

2. Aileyi olma fırsatı erişti.

3. Öyle vakit, koynuma girdi bir yılan,

4. Biri evime ateş koyup gitti.

5. Derdim: Hür zaman gelip nihayet,

6. Asırlardır kavgalardan kimsesiz kaldı baş.

7. Öyle vakit, oluşturup listesini kabahat

8. Yurtbaşımın göğsüne atmak oldu taş.

9. Derdim: baskınlar, vahşet, kavgalar,

10. Kaldılar mazinin gecelerinde.

11.Öyle vakit, birden canlandı onlar,

12. Kan aktı Taşkent’in sokaklarında.

13. Ansızın ayan oldu, düşmanlar bir hayli,

14. Bir hayli aramızda alacamıza dek.

15.Şimdi agâh olsun, olsunlar uyanık,

16. Hatta beşikteki yavrumuza dek.

17.İstiklal, kurbanın olayım, İstiklal!

18. Bu kadar ağırmış kutlu yolların.

19.İnanayım, karşılaşsa, eğer düşman katil,

20. Parça parça etsin onu kolların.

21. Ben ise, İstiklal, bayrağını tutup,

22. Metin saflarında sabit giderim.

23. Geçmiş şehitlerin adını yâd edip,

24. Yurtbaşımın yanında bidar otururum. (2 Mart 1999)

O‘ZBEK ONASI (383)

1. *Mushtipar ham o‘zing, buyuk ham o‘zing,*
2. *Kuyinchak ham o‘zing, kuyuk ham o‘zing,*
3. *Olamga tatirlik suyuk ham o‘zing,*
4. *Payt keldi aytmoqqa, gapning xonasi,*
5. *Ey, o‘zbek onasi, o‘zbek onasi.*

6. *Seni To‘maris deb, maqtaganim bor,*
7. *Sen Temur beshigin tebratgan bedor,*
8. *Sensan Bibixonim, Nodirai zor,*
9. *Payt keldi aytmoqqa, gapning xonasi,*
10. *Ey, o‘zbek onasi, o‘zbek onasi.*

11. *Vatanni Ona deb bekor aytilmas,*
12. *Ona buyurganda yo‘ldan qaytilmas,*
13. *Sen o‘zing Ka’bamsan, Baytul muqaddas,*
14. *Payt keldi aytmoqqa, gapning xonasi,*
15. *Ey, o‘zbek onasi, o‘zbek onasi.*

16. *Boshingdan nimalar o‘tmadi axir,*
17. *Vatandek taqdiring bo‘ldi goh taxir,*
18. *Bobur shoh bo‘lsa-da, qoshingda faqir,*
19. *Payt keldi aytmoqqa, gapning xonasi,*
20. *Ey, o‘zbek onasi, o‘zbek onasi.*

21. *Gohida balqiding Barchindek to‘lib,*
22. *G‘o‘zadek quriding Tursunoy bo‘lib,*
23. *Timsoling Yalovda yulduzdek kulib,*
24. *Payt keldi aytmoqqa, gapning xonasi,*
25. *Ey, o‘zbek onasi, o‘zbek onasi.*

26.*Farzanding quvonsa - sen ham quvonding,*
27.*Faqat bolam deding, yashading, yonding,*
28.*Nokasi uchrasa, o‘rtanding, tonding,*
29.*Payt keldi aytmoqqa, gapning xonasi,*
30.*Ey, o‘zbek onasi, o‘zbek onasi.*

31.*Kelajak toychog‘u toyingizdadir,*
32.*Jannat ham, albatta poyingizdadir,*
33.*Vatan-ku, Siz turgan joyingizdadir,*
34.*Payt keldi aytmoqqa, gapning xonasi,*
35.*Ey, o‘zbek onasi, o‘zbek onasi.*

36.*Sizga ta’zim qilib turibman bu payt,*
37.*Sizga baxshidadir eng shohona bayt,*
38.*Aziz Yurtboshingga duolaring ayt,*
39.*Payt keldi aytmoqqa, gapning xonasi,*
40.*Ey, o‘zbek onasi, o‘zbek onasi.*

ÖZBEK ANASI (383)

1. Biçare de kendin, büyük de kendin,
2. Şefkatli de kendin, dertli de kendin,
3. Âleme tatlı, sevgili de kendin,
4. Vakit geldi söylemeye, sözün hanesi,
5. Ey, Özbek anası, Özbek anası.

6. Seni Tomaris diye, övmüşlüğüm var,
7. Sen Timur beşiğini sallayan bidar,
8. Sensin Bibihanım, Nadire-i intizar,
9. Vakit geldi söylemeye, sözün hanesi,
10. Ey, Özbek anası, Özbek anası.

11. Vatana Ana diye beyhude söylenmez,
12. Ana buyurduğunda yoldan dönülmez,

13. Sen kendin Kâbe'msin, Beyt'ül mukaddes,
14. Vakit geldi söylemeye, sözün hanesi,
15. Ey, Özbek anası, Özbek anası.

16. Başından neler geçmedi nihayet,
17. Vatan gibi kaderin oldu bazen buruk,
18. Babür şah olsa da, huzurunda fakir,
19. Vakit geldi söylemeye, sözün hanesi,
20. Ey, Özbek anası, Özbek anası.

21. Bazen parladın Barçın gibi dolup,
22. Koza gibi kurudun Dursunay olup,
23. Timsalin Bayrakta yıldız gibi gülüp,
24. Vakit geldi söylemeye, sözün hanesi,
25. Ey, Özbek anası, Özbek anası.

26. Evladın sevinse sen de sevindin,
27. Yalnız evladım dedin, yaşadın, yandın,
28. Alçağı rastlasa, acı çektin, reddettin,
29. Vakit geldi söylemeye, sözün hanesi,
30. Ey, Özbek anası, Özbek anası.

31. Gelecek toyunuzdadır,
32. Cennet de elbette payınızdadır,
33. Vatan, Sizin durduğunuz yerdedir,
34. Vakit geldi söylemeye, sözün hanesi,
35. Ey, Özbek anası, Özbek anası.

36. Size tazim edip durmuşum bu vakit,
37. Size bahşıdadır en şahane beyit,
38. Aziz Yurtbaşı'na dualarını et,
39. Vakit geldi söylemeye, sözün hanesi,
40. Ey, Özbek anası, Özbek anası. (6 Mart 1999)

HASRAT (384)

1. *Qarshimda turibsan hasratga to‘lib,*
2. *Sababin yashirib mendan, netasan.*
3. *Bir nodon bolani tug‘dirib qo‘yib,*
4. *O‘shaning dastidan o‘lib ketasan.*

5. *Balki faqatgina umr yo‘ldoshing*
6. *So‘nggi lahzada ham g‘amingni yegay.*
7. *Anovi nodon-chi, yeb bo‘lgach boshing,*
8. *Na afsus chekadi, na rahmat degay.*

HASRET (384)

1. Karşımda durmuşsun hasretle dolup,
2. Sebebini gizleyip benden, ne yapacaksın?
3. Bir nadan evladını doğurup,
4. İşte onun elinden ölüp gideceksin.

5. Belki sadece ömür yoldaşın,
6. Son lahzada da gamını çekecek.
7. İşte o nadan, yiyince başını,
8. Ne pişman olacak, ne rahmet diyecek. (1999)

TUSH (385)

1. *Agarda tush bilan o‘zgarsa dunyo,*
2. *Tush bilan aylansa vaqtu zamonlar,*
3. *Yomon tush ko‘rganlar ko‘karmay aslo,*
4. *Qirilib ketardi allaqachonlar.*

5. *Yaxshi tushlar ko‘rsin har kim ham, biroq*
6. *Bu bilan ham bitmas dunyo ishlari.*
7. *Yaxshi tush ko‘rganlar g‘am bilmay mutloq,*

8. *Baxtli yashar edi ehtimol bari.*

DÜŞ (385)

1. Eğer düşle değişse dünya,
2. Düşle dönse vakit ve zamanlar,
3. Yaman düş görenler çoğalmadan asla,
4. Kırılıp giderdi bir zamanlar.

5. İyi düşler görsün herkes de, fakat
6. Bununla da bitmez dünya işleri.
7. İyi düş görenler gam bilmeden mutlaka,
8. Bahtlı yaşardı ihtimal hepsi. (1999)

GULLIVER (386)

1. *Mittilarga ulkan ko‘rinar olam,*
2. *Ulkanlar nazdida mittidir dunyo.*
3. *Deydilar, Gulliver degan bir odam*
4. *Ayon ko‘rgan emish ularni go‘yo.*

5. *Atrofin ulkanlar qurshagani choq,*
6. *Gulliver zarradir, u - yo‘q, u - o‘lgan.*
7. *Mitti odamchalar qoshida biroq*
8. *Gulliver buyukdir, Gulliver - ulkan!*

GULLİVER (386)

1. Miniciklere muazzam görünür âlem,
2. Devasalar nezdinde miniciktir dünya.
3. Derler, Gulliver denen bir insan,
4. Ayan görmüşmüş onları sanki.

5. Etrafını devasalar kuşattığı an,
6. Gulliver zerredir, ama yok, o devasa.

7. Minicik insancıkların karşısında fakat
8. Gulliver büyüktür, Gulliver devasa! (1999)

YO‘LTO‘SAR (387)

1. *Oqar suvga o‘xshar Inson umri ham,*
2. *U ham o‘tgan joyin aylagay jannat.*
3. *Ammo o‘zanidan zaqqum oqqan dam*
4. *Do‘zax zahri qolur o‘rnida faqat.*

5. *Balki sen bilmassan, nimadir savob,*
6. *Balki yaxshilikka bormagan qo‘ling?*
7. *Senga kim amr etdi, aylagil javob,*
8. *Nechun yovuzlikka burildi yo‘ling?*

9. *Bobolar demishlar, hatto pashshaga*
10. *Bu yorug‘ olamda bermagil ozor.*
11. *Nahot zulm bilan to‘lsang nash’aga,*
12. *Nahotki sening ham Inson noming bor?*

13. *Hatto o‘limtiklar egasi quzg‘un*
14. *Mehr bilan boqqay oshiyoniga.*
15. *O‘sha tog‘u toshlar yurt uning uchun,*
16. *O‘zi panoh bo‘lgay o‘z makoniga.*

17. *O‘rmonlar botiri na’ravor fil ham*
18. *Shaylangay atrofi xatarga to‘lsa,*
19. *Filchasin qo‘riqlab butkul uyur jam,*
20. *Aza ochar emish bir qavmi o‘lsa.*

21. *Egasiz kimsa yo‘q, har bir jonzotning*
22. *Bordir teppasida Parvardigori.*
23. *Azaliy qonuni shuldir hayotning:*

24.*Buzsa imoratni - buzgay me’mori!*

25.*Sening qabohating, sening dastingdan*
26.*Yurtingda ko‘cha-yu ko‘ylar bezovta.*
27.*Tuqqan Vataningga qilgan qasdingdan*
28.*Mozorlar bezovta, to‘ylar bezovta.*

29.*O‘zbekcha so‘zlaysan, dahshat naqadar,*
30.*Kalomim, sen bugun zahar nechog‘li.*
31.*Otang o‘rtanmoqda quyoshdan battar,*
32.*Onangning yuzlari oydan-da dog‘li.*

HAYDUT (387)

1. Akarsuya benzer İnsan ömrü de,
2. O da geçtiği yeri edecek cennet.
3. Ama arığından zakkum aktığı an
4. Cehennem zehri kalır yerinde sadece.

5. Belki sen bilmezsin, nedir sevap,
6. Belki iyiliğe varmamış elin?
7. Sana kim emretti, ver cevap,
8. Niçin yavuzluğa çevrildi yolun?

9. Dedeler demişler, hatta sineğe
10. Bu aydın âlemde etme tekdir.
11. Zulümle dolarsan neşeye,
12. Senin de İnsan adın mı var?

13. Hatta leşler sahibi kuzgun
14.Şefkatle bakacak aşiyanına.
15.İşte o dağ ve taşlar yurt onun için,
16. Kendisi hami olacak kendi mekânına.

17. Ormanlar bahadırı naralı fil de
18. Hazırlanacak etrafı tehlikeyle dolarsa,
19.Küçük filini koruyup büsbütün şişer hepsi,
20. Matem tutarmış bir kavmi ölürse.

21. Sahipsiz kimse yok, her bir canlının
22. Vardır tepesinde Perverdigâr'ı.
23. Ezelî kanunu şudur hayatın:
24. Bozarsa imareti, bozacak mimarı.

25. Senin kabahatin, senin elinden
26. Yurdunda sokak ve yollar huzursuz.
27. Doğduğun Vatanına yaptığın kastından
28. Mezarlar huzursuz, toylar huzursuz.

29.Özbekçe söylersin, dehşet ne kadar,
30. Kelamım, sen bugün zehir ne kadar.
31. Baban yanmakta güneşten beter,
32. Ananın yüzleri aydan da kederli. (1999)

OLIY NE'MAT (388)

1. *Bir Xoja yo'liqdi nogahon dardga,*
2. *Holi tang, rangi ham aylangan zardga.*

3. *Qilmagan doriyu darmon qolmadi,*
4. *Yelib-yugurishdan armon qolmadi.*

5. *Dunyodan umidin uzar bo'ldi u,*
6. *Oxirat kengashin tuzar bo'ldi u.*

7. *Xullas, paymonasi to‘lganda butkul,*
8. *Kirdi eshigida ishlab yurgan qul.*

9. *Qulning tabiblikka daxli bor edi,*
10. *Unga shu asnoda omad yor edi.*

11. *Quldan bo‘ldimikan, Xalloqdanmi yo,*
12. *Xoja shifo topdi, ba haqqi xudo:*

13. *- Ayo, qul, sen bo‘lding dardim davosi,*
14. *Qilgan xizmatingning yo‘qdir bahosi.*

15. *Sochayin boshingdan oltin va kumush,*
16. *Olgin xazinamdan eng katta ulush.*

17. *Istasang, mulkimning teng yarmin beray,*
18. *Toki men qulimni shod, xurram ko‘ray.*

19. *Qul dedi: - Hozirman xizmatingizga,*
20. *Rahmat ham ayturman himmatingizga.*

21. *Biroq hozirgina dedingiz, Xojam,*
22. *Ya’ni xizmatimga baho yo‘q hech ham.*

23. *Lekin oltinning ham bahosi bor-ku,*
24. *Oltinning bahosin bergan bozor-ku.*

25. *Hattoki xunning ham narxi bor, Xojam,*
26. *Bebahoning bundan farqi bor, Xojam.*

27.*Xoja o‘ylab dedi: - Nima ekan u?*
28.*Qandayin ne’mat u? Qandayin inju?*

29.*Aytgin armoningni, bajargum shu zum,*
30.*Axir, sen tufayli ochiqdir ko‘zim.*

31.*Qul dedi: - Bir ne’mat bordir - bebaho,*
32.*Unga sadqa bo‘lsin molu mulk, dunyo.*

33.*Falaklar bekordir uning qoshida,*
34.*Malaklar bekordir uning qoshida.*

35.*Unga nisbat bersa - qafasdir jannat,*
36.*U shundoq tansiq his, tengi yo‘q ne’mat.*

37.*- Uning nomi ne deb, qistardi Xoja,*
38.*Sirni bilmoqlikni istardi Xoja.*

39.*Qul dedi: - Bu ne’mat jondan-da totlik,*
40.*Nomi Ozodlikdir, nomi Ozodlik!*

ALİ NİMET (388)

1. Bir hoca rastladı ansızın derde,
2. Hâli naçar, rengi de sarıca.

3. Yapmadığı ilaç ve derman kalmadı,
4. Koşup koşuşturmaktan ukde kalmadı.

5. Dünyadan ümidini keser oldu o,
6. Ahiret meclisini düzer oldu o.

7. Hülasa, kadehi dolduğunda tamamen,
8. Girdi kapısında çalışan köle.

9. Kölenin tabipliğe ilgisi vardı,
10. Ona şu esnada talih yârdı.

11.Köleden mi oldu ki, yahut Halik'ten mi,
12. Hoca şifa buldu, hakkıyla Hüda:

13.- Ey, köle, sen oldun derdimin devası,
14. Ettiğin hizmetinin yoktur pahası.

15. Saçayım başından altın ve gümüş,
16. Al hazinemden en büyük pay.

17.İstersen, mülkümün yarısına denk vereyim,
18. Ta ki brn kölemi mutlu, mesut göreyim.

19.Köle dedi: - Hazırım hizmetinize,
20. Teşekkür de ederim himmetinize.

21. Fakat şimdi dediniz, Hocam,
22. Yani hizmetime paha yok hiç de.

23. Lakin altının da değeri var,
24. Altının değerini vermiş pazar.

25. Hatta diyetin de bedeli var, Hocam,
26. Paha biçilemezin bundan farkı var, Hocam,

27. Hoca düşünüp dedi: - Neymiş o?
28. Nasıl nimet o? Nasıl inci?

29.Söyle ukdeni, yapacağım şu an,
30. Nihayet, senden dolayı açıktır gözüm.

31.Köle dedi: - Bir nimet vardır, paha biçilemez,
32. Ona sadaka olsun mal, mülk, dünya.

33. Felekler beyhudedir onun karşısında,
34. Melekler beyhudedir onun karşısında.

35. Ona nispet verse, kafestir cennet,
36.O, bu kadar nadide his, eşsiz nimet.

37.- Onun adı ne, diye ısrar etti Hoca,
38.Sırrı bilmeyi isterdi Hoca.

39.Köle dedi: - Bu nimet candan da tatlı,
40. Adı Azatlıktır, adı Azatlık! (Ağustos, 1999)

O‘ZBEKISTON ASRI (389)

1. *Yetarmizmi yuz yillikning oxiriga ham,*
2. *Qo‘yarmizmi Yangi asr poyiga qadam.*

3. *U kunlarni ko‘rish bizga nasib etgaymi,*
4. *Iltijomiz Yaratganga borib yetgaymi.*

5. *Kechagina yashardik shu xayollar bilan,*

6. *Ishtibohu o‘ylar bilan, savollar bilan.*

7. *Afsus, bunga yetolmadi qancha insonlar,*

8. *Qancha-qancha aziz zotlar, jannati jonlar.*

9. *Rahmat qilsin barchasini Allohning o‘zi,*

10. *Chaqnadimi, bir kun so‘ngay umr yulduzi.*

11. *Yozgan ekan tiriklarning peshonasiga,*

12. *Bizlar yetdik Yangi asr ostonasiga.*

13. *Shukronalar aytsak ozdir, bu in’om uchun,*

14. *Sharaflaylik omad degan dahoning kuchin.*

15. *Lekin ushbu ostonaga kim keldi qandoq?*

16. *O‘tgan yo‘ling nechuk bo‘lsa, a’mol ham andoq.*

17. *Kimdir keldi bu marraga urushlar bilan,*

18. *Taloto‘plar, bir-birini surishlar bilan.*

19. *Ko‘zda yoshi daryo-daryo xalqlar keldilar.*

20. *Yetim-yesir, nasibasi talxlar keldilar.*

21. *Shohlar keldi, boylar keldi, gadolar keldi,*

22. *Sevishganlar - ishq yo‘lida adolar keldi.*

23. *Keldi asr og‘ushiga ertasi porloq,*

24. *Beshigida qiqir-qiqir kulgan chaqaloq.*

25. *Lekin mening toleimga havas qil, olam,*

26.*Men benazir bir his bilan g‘olib chindan ham.*

27.*Necha asriy zanjirlarni tashladim uzib,*
28.*Haqqim yegan yovuz kuchlar ketdilar to‘zib.*

29.*Bosh ustimdan o‘tdi qancha to‘fon, qasirg‘a,*
30.*Ming shukrki, ozod yetdim Yangi asrga.*

31.*O‘zbekiston - ona yurtim, ota makonim,*
32.*Shu bepoyon jahon ichra tengsiz jahonim.*

33.*Yangi davron koshonasi o‘zing bo‘lgaysan,*
34.*Inshoolloh, endi abad nurga to‘lgaysan.*

35.*Ishonchimning boisi bor baridan ortiq,*
36.*Alloh senga buyuk xislat aylamish tortiq:*

37.*Mehnat ham bor, shavkat ham bor, karvon ham bordir,*
38.*Dunyo havas aylagulik Sarbon ham bordir.*

39.*Fotihaga qo‘l och endi, but bo‘lsin qasr,*
40.*O‘zbekiston asri bo‘lgay shaksiz bu asr!*

ÖZBEKİSTAN ASRI (389)

1. Erişir miyiz yüz yılın sonuna da,
2. Atar mıyız Yeni asrın ayağına adım?

3. O günleri görmeyi bize nasip edecek mi,
4. Niyazımız Yaradan’a varıp erişecek mi?

5. Dün yaşardık bu hayallerle,
6. Kuşkularla, düşüncelerle ve sorularla,

7. Maalesef, buna erişemedi nice insanlar,
8. Nice nice aziz zatlar, cennet-i canlar.

9. Rahmet etsin hepsine Allah'ın zatı,
10. Parladı mı, bir gün sönecek ömür yıldızı.

11. Yazmışmış canlıların alnına,
12. Bizler ulaştık Yeni asrın eşiğine.

13.Şükürler etsek azdır, bu ihsan için,
14.Şereflendirelim talih denen dehanın gücünü.

15. Lakin işte bu eşiğe kim geldi nasıl?
16. Geçtiğin yol nasıl olsa, amel de öyle.

17. Kimi geldi bu yere savaşlarla,
18. Yağmalar, birbirini sürüşleriyle.

19.Gözde yaşı derya derya halklar geldiler.
20. Yetimler, dullar, nasibi kötüler geldiler.

21.Şahlar geldi, zenginler geldi, gedalar geldi,
22. Sevenler, aşk yolunda edalar geldi.

23. Geldi asrın kucağına yarını parlak,
24. Beşiğinde kıkır kıkır gülen bebek.

25. Lakin benim talihime heves et, âlem,
26. Ben eşsiz bir hisle galip gerçekten de.

27. Nice asrın zincirini attım kesip,
28. Hakkımı yiyen yavuz güçler gittiler dağılıp.

29. Başımın üstünden geçti nice tufan, kasırga,
30. Bin şükür ki, azat ettim Yeni asra.

31.Özbekistan, ana yurdum, ata mekânım,
32.Şu sonsuz cihan içinde eşsiz cihanım.

33. Yeni devran sarayı kendin olacaksın,
34.İnşallah, şimdi ebedî nurla dolacaksın.

35.İnancımın sebebi var hepsinden fazla,
36. Allah sana büyük haslet eylemiş takdir:

37. Emek de var, şefkat de var, kervan da vardır,
38.Dünyanın heves edeceği Sarban da vardır.

39. Fatiha'ya el aç şimdi, tam olsun hisar,
40.Özbekistan asrı olacak şüphesiz bu asır! (Ocak, 2000)

BUYUK KITOB (390)

1. *Tabiatning charxi mangu,*
2. *Bahoru yoz qishlayotir,*
3. *Barchasidan inson ezgu,*
4. *Buyuk kitob ishlayotir.*
5. *Armon bormi, orzu bormi,*
6. *Xalqim dilga eshlayotir,*
7. *Bizga ayon do'stmi-yormi,*
8. *Buyuk kitob ishlayotir.*

9. *Saylov bo'ldi, siylov bo'ldi,*
10. *Kimdir labin tishlayotir,*
11.*Lekin elning ko'ngli to'ldi,*

12. *Buyuk kitob ishlayotir.*

13. *Vatan seni qancha ellar*

14. *Orzu etib tushlayotir,*

15. *Illo baxtli bo‘lsin ular,*

16. *Buyuk kitob ishlayotir.*

17. *Ha, bu kitob ishlar mangu,*

18. *Chunki haqni peshlayotir,*

19. *Misli Temur “tuzugi” bu,*

20. *Buyuk kitob ishlayotir.*

21. *Ko‘ksin kerib yaylovlarda,*

22. *Arg‘umoqlar kishnayotir,*

23. *Uch jilolik yalovlarda,*

24. *Buyuk kitob ishlayotir.*

25. *Islom og‘a, qo‘lingizni*

26. *Xalqim yana ushlayotir,*

27. *Alloh bersin yo‘lingizni,*

28. *Buyuk kitob ishlayotir.*

29. *Ozod yurtning metin safin*

30. *Jumla jahon xushlayotir,*

31. *Alqab sizdek muallifin,*

32. *Buyuk kitob ishlayotir.*

BÜYÜK KİTAP (390)

1. Tabiatın çarkı sonsuz,

2. Bahar ve yaz kışlıyor,

3. Hepsinden insan iyi,

4. Büyük Kitap işliyor.

5. Ukde var mı, arzu var mı,

6. Halkım gönle eşiyor,

7. Bize ayan dost mu, yâr mı,

8. Büyük Kitap işliyor.

9. Seçim oldu, mükâfat oldu,

10. Kimi dudağını dişliyor,

11. Lakin halkın gönlü doldu,

12. Büyük Kitap işliyor.

13. Vatan seni nice halklar

14. Arzu edip düşlüyor,

15.İlla bahtlı olsun onlar,

16. Büyük Kitap işliyor.

17. Evet, bu Kitap işler sonsuz,

18. Çünkü hakka bağlıyor,

19. Sanki Timur "tüzüğü" bu,

20. Büyük Kitap işliyor.

21.Göğsünü gerip yaylalarda,

22. Argumaklar[144] kişniyor,

23.Üç parlak bayrakta,

24. Büyük Kitap işliyor.

25.İslam Abi, elinizi

26. Halkım yine tutuyor,

27. Allah versin yolunuzu,

28. Büyük Kitap işliyor.

29. Azat yurdun metin safını

30. Cümle cihan seviyor,

31.İyilik dileyip sizin gibi müellifi,

32. Büyük Kitap işliyor. (2000)

[144] Orta Asya'daki koşu atlarına verilen addır.

AKTYOR (391)

1. *Bir kun tomoshaga tushib lahzada*
2. *Turfa aktyorlarni ko‘rib qaytibsan.*
3. *Lekin sen ularni faqat sahnada*
4. *Mavjud deb o‘ylasang, bekor aytibsan.*

5. *Chin aktyor san’at deb, bag‘rini tig‘lab,*
6. *Amallab kunini ko‘rib yuradi.*
7. *Shunday insonlar bor, bir ko‘zi yig‘lab,*
8. *Bitta ko‘zi esa kulib turadi.*

9. *Shunday insonlar bor, voy otam, deya,*
10. *Bir zumda o‘zgarar turqi, siyog‘i.*
11. *Lekin o‘sha mahal, o‘sha soniya*
12. *Onasin ko‘ksida turar oyog‘i.*

13. *Shunday insonlar bor, go‘yo yurtparvar,*
14. *Yurtini ulug‘lar go‘yo har so‘zi.*
15. *Lekin razm solib qarasang agar,*
16. *Amal poyasida ikkala ko‘zi.*

17. *Shunday insonlar bor, xalqim der har choq,*
18. *So‘zlaydi hamisha olib xalq yonin.*
19. *Bir qo‘li ko‘ksida, bir qo‘li biroq,*
20. *Tozalab turadi xalqning hamyonin.*

21. *San’atga umrini kim etmish fido,*
22. *Sharafi yuksalsin, olamni tutsin.*

23.*Hayotni o‘yin deb bilganning ammo*

24.*Tolei kulmasin, biri kam o‘tsin.*

AKTÖR (391)

1. Bir gün izlediğim anda

2. Acayip aktörleri görmüşüm.

3. Lakin sen onları sadece sahnede

4. Mevcut diye düşündüysen, beyhude demişsin.

5. Gerçek aktör sanat diye, yüreğini dağlayıp,

6. Çare bulup geçimini sağladı.

7. Öyle insanlar var, bir gözü ağlayıp,

8. Bir gözü ise gülüp durur.

9. Öyle insanlar var, vay babam, diye,

10. Bir anda değişir kılığı, kıyafeti.

11. Lakin işte o an, işte o saniye

12. Anasının göğsünde durur ayağı.

13.Öyle insanlar var, sanki vatanperver,

14. Yurdunu yüceltir sanki her sözü.

15. Lakin bakıp görürsen eğer,

16. Makam rütbesinde her iki gözü.

17.Öyle insanlar var, halkım der her an,

18. Konuşur daima alıp halkın yanını.

19. Bir eli göğsünde, bir eli yalnız,

20. Temizleyip durur halkın cüzdanını.

21. Sanata ömrümü kim etmiş feda,
22.Şerefi yükselsin, âlemi tutsun.
23. Hayatı oyun diye bilenin ama
24. Talihi gülmesin, biri eksik geçmesin. (2000)

YO‘QLOV (392)

O‘lmas Umarbekov xotirasiga

1. *Chehrangda tabassum balqirdi doim,*
2. *Ko‘ngil bog‘ing edi chechakli, gulli.*
3. *Arshi-a’loga ham sendek muloyim,*
4. *Xushsurat bandalar darkor shekilli.*

5. *Har zumda o‘limni kutib yashamoq*
6. *Uning o‘zidan ham dahshatliroq his.*
7. *Senga shunday yurak bermishdi Xalloq,*
8. *Boqding ajalning ham ko‘ziga munis.*

9. *Dunyoning tagiga o‘t ketsin, agar*
10.Bag‘ridan yaxshini sitib chiqarsa.
11.Tole bo‘lolmagay qazoyi qadar,
12.Baxt asli tiriklik degan bir narsa.

13.O‘lmas deb qo‘ymishlar ismingni, biroq
14.O‘lim to‘lg‘izdi-ku umr jomingni.
15.Falakning bu ajib o‘yiniga boq:
16.O‘lmas deb turibman endi nomingni!

17.Inson bolasiga sharafdir g‘oyat

18.*Xalqi rozi bo‘lib, xotirga olsa.*

19.*Mening ushbu she’rim sen uchun shoyad*

20.*Do‘stlaring nomidan yo‘qlov bo‘lolsa.*

YOKLAMA (392)

Ölmez Ömerbekov’un anısına

1. Çehrende tebessüm belirdi daima,

2. Gönül bağındı çiçekli, güllü.

3. Arşı âlâya da senin gibi mülayim,

4. Güzel bendeler lazım galiba.

5. Her anda ölümü bekleyip yaşamak

6. Onun kendisinden de daha dehşetli his.

7. Sana öyle yürek vermişti Halik,

8. Baktın ecelin de gözüne dost.

9. Dünyanın dibine ateş gitsin, eğer

10. Bağrından iyiyi çıkarıp atarsa.

11. Talihi olamayacak kader,

12. Baht aslında hayat denen bir şey.

13.Ölmez diye koymuşlar ismini, fakat

14.Ölüm salladı ömür kadehini.

15. Feleğin bu acayip oyununa bak:

16.Ölmez deyip durmuşum şimdi adına!

17.İnsan evladına şereftir gayet

18. Halkı razı olup, hatıra alırsa.

19. Benim işte bu şiirim senin için şayet

20. Dostların adına yoklama olabilse. (2000)

AJRIM (393)

1. *Dunyoning yarmini sayr etdi o‘g‘lon,*

2. *Kelib otasidan so‘radi ajrim:*

3. *- Chin do‘st topolmadim nega, otajon?!*

4. *Ota esa jim.*

5. *Yana dunyo kezdi charchamay o‘g‘lon,*

6. *Yana otasidan so‘radi ajrim:*

7. *- Vafo topolmadim nega, otajon?!*

8. *Ota hamon jim.*

9. *- Nega savolimga bermaysiz javob?!*

10.*O‘g‘lon turar edi nolakor, haqir.*

11.*Ota javob qildi uh tortib shu tob:*

12.*- Sen ham bor narsani axtar-da axir!..*

MUTABAKAT (393)

1. Dünyanın yarısını seyretti oğlan,

2. Gelip babasına sordu mutabakat:

3. - Gerçek dost bulamadım niye, babacığım?!

4. Baba ise sessiz.

5. Yine dünyayı gezdi yorulmadan oğlan,

6. Yine babasına sordu mutabakat:

7. - Vefa bulamadım niye, babacığım?

8. Baba daima sessiz.

9. - Niye soruma vermezsiniz cevap?

10.Oğlan dururdu nalekâr, hakir.

11. Baba cevap verdi ah çekip şu an:

12.- Sen de olan şeyi ara nihayet! (2000)

IKKI SHOIR (394)

(Hazil)

1. *Bir shoir arz etdi ikkinchisiga:*

2. *- Do‘stim, shoirlikdan endi voz kechgum!*

3. *Qancha intilmayin xalqning ichiga,*

4. *She’rimni o‘qimas, o‘qimas hech kim.*

5. *Ikkinchisi uni yupatib dedi:*

6. *- Oldinroq ketibman men sendan ko‘ra.*

7. *Xalq-ku o‘qimasdi meni ham, endi*

8. *O‘zim ham o‘qimay qo‘yganman, jo‘ra.*

İKİ ŞAİR (394)

(Gülmece)

1. Bir şair arz etti ikincisine:

2. - Dostum, şairlikten şimdi vazgeçeceğim!

3. Ne kadar teveccüh etmeyeyim halkın içine,

4. Şiirimi okumaz, okumaz hiç kimse.

5. İkincisi onu avutup dedi:

6. - Daha önce gitmişim ben sana göre.

7. Halk okumazdı beni de şimdi

8. Kendim de okumamışım, ahbap. (2000)

SHOIR YURAGI (395)

1. *O‘tar bu ko‘prikdan jamiki jonzot,*

2. *Chumolidan tortib fillar ham o‘tar.*

3. *Sultonlar o‘tadi goh shod, goh noshod,*

4. *Zanjirlarin sudrab qullar ham o‘tar.*

5. *Elchilarga o‘xshab turfa zamondan,*

6. *Shaloq aravalar ‘‘mers’’lar o‘tadi.*

7. *Ro‘baro‘ kelishib ikki tomondan,*

8. *Bir-biriga tamom terslar o‘tadi.*

9. *Suyishganlar o‘tar, suyab bir-birin,*

10. *Buzuvchilar o‘tar, o‘tar ustalar.*

11. *Hushyorlar o‘tadi tejab ko‘z qirin,*

12. *O‘tadi emaklab piyonistalar.*

13. *O‘tib borayotir ana juft guruh,*

14. *Biri sho‘x, birovin ko‘zlarida nam.*

15. *Yetaklab bormoqda birini shukuh,*

16. *Boshqa birovini yetaklagan g‘am.*

17. *Oliftalar o‘tar - g‘arib siyrati,*

18. *Botirlar o‘tadi qalbida o‘tlar.*

19. *Beshiklar o‘tadi,- dunyo ziynati,*

20. *O‘tadi lapanglab, vazmin tobutlar.*

21.*Muttasil bu yo‘lda keladi to‘qnash,*

22.*Nur bilan zulumot, o‘lim va hayot.*

23.*Bu ko‘prik olamning o‘ziga o‘xshash,*

24.*Bir farqi - sohibi ixtiyorsiz zot.*

25.*Ko‘prik ostidagi jo‘sh urgan daryo,*

26.*Suv emas - o‘tganlar taxir ko‘z yoshi.*

27.*Har neni ko‘targan bir o‘zi tanho,*

28.*Bor na ta’mirchisi, na bir yukdoshi.*

29.*Bu ko‘prik, bu ko‘prik qulasa agar,*

30.*Ne hislar qolardi sarson-sargardon.*

31.*Garchi qismatida bor qancha xatar,*

32.*Har nechuk bariga u balogardon...*

ŞAİR YÜREĞİ (395)

1. Geçer bu köprüden bütün varlık,

2. Karıncadan tutun filler de geçer.

3. Sultanlar geçer gâh mutlu, gâh mutsuz,

4. Zincirlerini sürükleyip köleler de geçer.

5. Elçilere benzeyip garip zamandan,

6. Bozuk arabalar “mers”ler de geçer.

7. Karşı karşıya gelip iki taraftan,

8. Birbirine nihayet ters geçer.

9. Sevenler geçer, dayanıp birbirine,

10. Bozanlar geçer, geçer ustalar.

11. Zekiler geçer korunup kaşla göz arasında,
12. Geçer emekleyerek ayyaşlar.

13. Geçip gider işte çift güruh,
14. Biri şuh, birinin gözlerinde nem.
15.Öncü olup gitmekte biri azametle,
16. Başka birine öncü olmuş gam.

17.Züppeler geçer, garip sureti,
18. Bahadırlar geçer kalbinde ateşler.
19. Beşikler geçer, dünya ziyneti,
20. Geçer sallanıp, ağır tabutlar.

21. Muttasıl bu yolda gelir karşılaşma,
22. Aydınlık ve karanlık, ölüm ve hayat.
23. Bu köprü âlemin kendisine benzer,
24. Bir farkı, sahibi ihtiyarsız zat.

25.Köprü altındaki coşan derya,
26. Su değil, geçenler buruk gözyaşı.
27. Her neyi kaldırmış bir kendisi tenha,
28. Var ne tamircisi, ne bir yüktaşı.

29. Bu köprü, bu köprü yıkılırsa eğer,
30. Ne hisler kalırdı avare, sergerdan.
31. Gerçi kısmetinde var nice tehlike,
32. Herhâlde hepsine o kurtarıcı… (Ağustos, 2000)

JAZO TOPQUSIDIR... (396)

1. *Birovga yomon so‘z aytsam men agar,*
2. *Tushunardim uning javobi qaytsa.*
3. *Chidardim o‘zimga sochishsa zahar,*
4. *Ginasi bo‘lsa gar yuzimga aytsa.*

5. *Kimdir Vataningga tosh otsa biroq,*
6. *Begunoh bandalar bag‘rin qilsa qon,*
7. *Sharhlab berolmayman bu holni mutloq,*
8. *Buni tushunmayman aslo, hech qachon.*

9. *Senga she’rim yoqmas, kimimdir yoqmas,*
10.*Ayt, ne gunohi bor butun bir xalqning?*
11.*Bilib qo‘y, bu daryo teskari oqmas,*
12.*Senga jazosi bor yaratgan Haqning!*

CEZA BULACAKTIR… (396)

1. Birine yaman söz söylersem ben eğer,
2. Anlardım onun cevabı geri dönerse.
3. Dayanırdım kendime saçsalar zehir,
4. Kini olursa eğer yüzüme söylerse.

5. Biri Vatan’ına taş atarsa fakat,
6. Günahsız bendeler bağrını kılsa kan,
7. İzah edemem bu hâli mutlaka,
8. Bunu anlamam asla, hiçbir zaman.

9. Sana şiirim hoş gelmez, kimim hoşuna gitmez,
10.Söyle, ne günahı var bütün bir halkın?

11. Anla, bu derya ters akmaz,

12. Sana cezası var yaratan Hakk'ın! (Ağustos, 2000)

MEN FAQAT... (397)

1. *Men faqat Sen uchun yashadim desam,*

2. *Bir oz lof bo'lardi va bir oz yolg'on.*

3. *Gohi bosganida to'fon kabi g'am,*

4. *Ko'zimga ko'ringay o'zimdagi jon.*

5. *Sensiz ham yashadim desam men agar,*

6. *Desamki, sensiz ham tanamda bor jon.*

7. *Ishongil, bu gapim baridan batgar,*

8. *Yolg'on bo'lar edi, tamoman yolg'on.*

BEN YALNIZ… (397)

1. Ben yalnız Senin için yaşadım desem,

2. Biraz laf olurdu ve biraz yalan.

3. Bazen bastığında tufan gibi gam,

4. Gözüme görünecek özümdeki can.

5. Sensiz de yaşadım desem ben eğer,

6. Desem ki, sensiz de bedenimde var can.

7. İnan, bu sözüm hepsinden beter,

8. Yalan olurdu, tamamen yalan. (Ağustos, 2000)

"ME'MOR UMR BO'YI HAFSALA ILA…" (398)

1. *Me'mor umr bo'yi hafsala ila*

2. *Go'zal bir imorat ayladi bunyod.*

3. *Biroq nogahonda mash'um zilzila*

4. *Vayron qildi uni, qildi-ku barbod.*

5. *Xuddi shu singari, qurgaymiz biz ham*
6. *Umr deb atalmish go‘zal binoni.*
7. *Biroq yetib kelar mash’um so‘nggi dam,*
8. *Vayron etar uni ajal to‘foni.*

“MİMAR ÖMÜR BOYU HEVESLE…” (398)

1. Mimar ömür boyu hevesle,
2. Güzel bir imaret eyledi bünyât.
3. Fakat birdenbire meşum bir zelzele
4. Viran etti onu, etti berbat.

5. Tıpkı bunun gibi, göreceğiz biz de
6. Ömür diye adlandırılmış güzel binayı.
7. Fakat yetip gelir meşum son dem,
8. Viran eder onu ecel tufanı. (Ağustos, 2000)

“STADION GUVLAYDI…” (399)

1. *Stadion guvlaydi,*
2. *Odam liq to‘la.*
3. *Bu yerda xam bo‘lmish turfa til, ovoz.*
4. *Ularning barchasin quchib bir yo‘la,*
5. *Do‘stim deb atamoq g‘alati bir oz.*

6. *Stadion guvlaydi,*
7. *Odam liq to‘la.*
8. *Faqat Haqqa ayon ular siyrati.*
9. *Ularning barchasin so‘kib bir yo‘la,*

10. *G‘anim demoqlik ham ancha g‘alati.*

“STADYUM UĞULDAR…” (399)

1. Stadyum uğuldar,
2. İnsan tıka basa dolu.
3. Burada da olmuş ilginç dil, avaz.
4. Onların hepsini kucaklayıp birden,
5. Dostum diye söylemek garip biraz

6. Stadyum uğuldar,
7. İnsan tıka basa dolu.
8. Burada da olmuş garip dil, avaz.
9. Onların hepsini kucaklayıp bir kere,
10. Düşman demek de o kadar garip. (Ağustos, 2000)

QADAH (400)

1. *Turibman qo‘limda qadah shu palla,*
2. *Demak, jom so‘zimni aytmasam bo‘lmas.*
3. *Sizga baxt tilashim mumkin baralla,*
4. *Lekin baxtli qilish qo‘limdan kelmas.*

5. *Tilayman albatta sog‘liq va umr,*
6. *Tuhfa qilolmasman lekin ularni.*
7. *Tilayman hech so‘nmas ilhom va surur,*
8. *Garchand berolmasman bu tuyg‘ularni.*

9. *Men faqat siz uchun orttirib alam,*
10. *Yo‘lingiz to‘smasman devorga o‘xshab.*
11. *G‘alvali dunyoda shuning o‘zi ham,*

12.*Mening nazarimda juda katta gap.*

KADEH (400)

1. Durmuşum elimde kadeh o anda,
2. Bu yüzden, kadeh sözümü söylemezsem olmaz.
3. Size baht dilemem mümkün, açıkça,
4. Lakin bahtlı yapmak elimden gelmez.

5. Dilerim elbette sağlık ve ömür,
6. Hediye edemem lakin onları.
7. Dilerim hiç bitmeyen ilham ve sürur,
8. Gerçi verememem bu duyguları.

9. Ben yalnız sizin için arttırıp elem,
10. Yolunuzu kesmem duvara benzeyip.
11. Kargaşalı dünyada bunun kendisi de,
12. Benim nazarımda çok büyük söz. (Ağustos, 2000)

SIRLI OLAM (401)

Yozuvchi va muharrir ukam

Hojiakbar Shayxovga

1. *Hojiakbar, sen ajoyib adibsan, ko‘rkam,*
2. *Maftun etding bizni nurli qalaming bilan.*
3. *Biroq nega qo‘rqitasan, muharrir ukam,*
4. *“Qalb ko‘zi”yu, ajib “Sirli olam”ing bilan.*

5. *Har sahifa orasidan devlar quturib,*

6. *Insu jinslar g‘uj-g‘uj chiqib kelaveradi.*
7. *Xotin emas, alvastilar uyni supurib,*
8. *Nabiralar “likopcha”dek yelaveradi.*

9. *Darpardalar silkinadi sirli ravishda,*
10. *Gaz o‘choqdan cho‘ziladi ajdaho tili.*
11. *Kelining ham odam emas, yovuz farishta,*
12. *Salom bergan “qor odam”ning jun bosgan qo‘li.*

13. *Jiringlaydi yarim tunda telefon nogoh,-*
14. *U narigi dunyolardan xabar bo‘lsa-ya!*
15. *Simyog‘ochda qunishgan u qush emas, arvoh,*
16. *Balki o‘zga sayyoradan anov hamsoya?!*

17. *Ular bizni ta’qid etar sira tinmasdan,*
18. *Bekorchiday, boshqa qilar ishlari yo‘qday.*
19. *Biz ham uchib yurgandaymiz yerga qo‘nmasdan,*
20. *Latif olma yemishidan qornimiz to‘qday.*

21. *Hojiakbar, aytganlarim kelmasin malol,*
22. *O‘shalaring balki do‘stdir, yoinki raqib,*
23. *Nima deysan bu gapimga, balki, ehtimol,*
24. *Ular emas, biz ularni etarmiz ta’qib?!*

25. *Balki ular qochib yurar bizdan har lahza,*
26. *Yer yuziga har qalay biz ko‘proq burchlimiz.*
27. *Bizlar moddiy dunyo, axir, bizlar bor narsa,*
28. *Bilib qo‘ygin, biz ulardan ancha kuchlimiz.*

29.*Mana, bitta tanishim bor, shunchalar makkor,*
30.*Ming ajinang qilolmaydi uning ishini.*
31.*Suqbatdoshi sal anqaysa bermay hech ozor,*
32.*Qoqib olar og‘zidagi bor-yo‘q tishini.*

33.*Boshqasi-chi, qitiqlamas shayton singari,*
34.*Lekin gapga biram chechan, kuldiraverar,*
35.*Qo‘yib bersang, oqizadi suvni teskari,*
36.*Foydasiga bo‘lmaganni bo‘ldiraverar.*

37.*Yana birin bilib bo‘lmas yoshmi yo keksa,*
38.*Bilib bo‘lmas, sig‘ingani rahmonmi, shayton.*
39.*Bitta ko‘zi nimadandir duv-duv yosh to‘ksa,*
40.*Boshqa ko‘zi nimadandir charaqlar shodon.*

41.*Tag‘in biri qo‘llaringni o‘pishga tayyor,*
42.*Noming sotib bitkazadi har qanday ishni.*
43.*Loydan o‘tgach, unutadi barchasin, ayyor,*
44.*Hatto talab qila boshlar poyin yuvishni.*

45.*Bular ta’ma qullaridir, lo‘ttiboz va suq,*
46.*Xayolida na Alloh bor, na yurtning g‘ami.*
47.*Bundaylarda nainki ko‘z, qalbning o‘zi yo‘q,*
48.*Lekin sirga to‘lib ketgan butkul olami.*

49.*Hojiakbar, jinlaringni eplab, aslida*
50.*Murosaga keltirish ham mumkindir hatto.*
51.*Lekin shundoq yoningdagi inson shaklida*
52.*Yashab yurgan iblislardan asrasin Xudo!*

SIRLI ÂLEM (401)

Yazar ve muharrir kardeşim

Hacıekber Şeyhov'a

1. Hacıekber, sen acayip edipsin, görkemli,
2. Meftun ettin bizi nurlu kaleminle.
3. Fakat niye korkutursun, muharrir kardeşim,
4. "Kalp gözü" ve acayip "Sırlı Âlem"inle.

5. Her sayfa arasından devler kudurup,
6. İns-ü cinler yığın yığın geliverir.
7. Kadın değil, albastılar evi süpürüp,
8. Torunlar "tabak" gibi uçuverir.

9. Perdeler sallanır sırlı şekilde,
10. Gaz ocaktan uzanır ejderha dili.
11. Gelinin de insan değil, kötü ferişte,
12. Selam vermiş "kar insan"ın tüy kaplı kolu.

13. Çalar gece yarısında telefon birden,
14. O öteki dünyalardan haber olursa!
15. Elektrik direğinde konan o kuş değil, ervah,
16. Belki başka seyyareden işte o komşu!

17. Onlar bizi tekit eder asla durmadan,
18. Uyduruk gibi, başka yapar işleri yok gibi.
19. Biz de uçmuş gibiyiz yere konmadan,
20. Latif elma yemekten karnımız doymuş gibi.

21. Hacıekber, söylediklerim gelmesin melal,
22.İşte onlar belki dostlar yahut rakip,
23. Ne dersin bu sözüme, belki, ihtimal,
24. Onlar değil, biz onları ederiz takip!

25. Belki onlar kaçar bizden her an,
26. Yeryüzüne herhâlde biz daha çok borçluyuz.
27. Bizler maddi dünya, nihayet, bizler her şey,
28. Anla, biz onlardan o kadar güçlüyüz.

29.İşte, bir tanıdığım var, o kadar kurnaz,
30. Bin cinin edemez onun işini.
31. Muhatabı biraz şaşırsa etmeden hiç tekdir,
32. Vurup alır ağzındaki olan olmayan dişini.

33. Başkası gıdıklamaz şeytan gibi,
34. Lakin söze o kadar mahir, güldürüverir,
35.Bırakıversen, akacak suyu ters,
36. Faydasına olmayanı olduruverir.

37. Yine birini bilmez genç mi yahut yaşlı mı,
38. Bilmez, sığındığı rahman mı, şeytan mı?
39. Bir gözü bir şeyden çokça yaş dökse,
40. Diğer gözü bir şeyden parlar şâdân.

41. Yine biri ellerini öpmeye hazır,
42. Başkasının adına bitirir her işi.
43. Topraktan geçince unutur hepsini, kurnaz,
44. Hatta talep etmeye başlar ayağını yıkamayı.

45. Bunlar tamah kullarıdır, hilekâr ve kıskanç,
46. Hayalinde ne Allah var, ne de yurdun gamı.
47.Böylelerinde sahi mi göz, kalbinin kendisi yok,
48. Lakin sırla dolmuş bütün âlemi.

49. Hacıekber, cinleriyle başa çıkıp, aslında
50. Anlaşmaya getirmesi de mümkündür hatta.
51. Lakin şöyle yanındaki insan şeklinde
52. Yaşayıp giden iblislerden korusun Hüda! (Ekim, 2000)

"MANA BU HIKMATGA…" (402)

1. *Mana bu hikmatga, do'stim, sol quloq,*
2. *Balki senu menga bo'lgay bir saboq.*
3. *Posbonning qovog'i uyilgan bo'lsa,*
4. *Hatto jannatga ham tortmaydi oyoq.*

"İŞTE BU HİKMETE…" (402)

1. İşte bu hikmete, dostum, ver kulak,
2. Belki sana ve bana olacak bir ders.
3. Bekçinin yüzü asılırsa,
4. Hatta cennete de gitmez ayak. (4 Aralık 2000)

XAROBAZOR (403)

1. *Dunyoda ming yillik xarobalar ko'p,*
2. *Urushlardan yodgor, sellardan yodgor.*
3. *Mozorlar qalashib yotibdi to'p-to'p,*
4. *Aslida ular ham cho'ng xarobazor.*

5. *Vujudimni teshar yillar shamoli,*

6. *Yurak tilka-tilka turfa ozordan.*

7. *Bolam, xabar olgin, tutmay zavoli,*

8. *Shoir deb atalgan xarobazordan.*

HARABELİK (403)

1. Dünyada bin yıllık harabeler çok,

2. Savaşlardan yadigâr, sellerden yadigâr.

3. Mezarlar bir hayli yatar yığın yığın,

4. Aslında onlar da büyük harabeler.

5. Vücudumu deşer yılların rüzgârı,

6. Yürek parça parça garip azardan.

7. Evladım, haber al, tutmadan zevali,

8. Şair diye adlandırılmış harabelikten. (4 Aralık 2000)

O‘ZBEKMAN (404)

1. *Yangi bir asrning ostonasi bu,*

2. *Yetishdim umrimning qutlug‘ yoshiga.*

3. *Tilimda shukrona, dilimda g‘ulu,*

4. *Tarix sarkotibin keldim qoshiga:*

5. *- Mana, men - O‘zbekman, qo‘limda tug‘im*

6. *Va barcha a’molim bitilgan kitob.*

7. *Shuning ichidadir borim va yo‘g‘im,*

8. *Shuning ichidadir men uchun oftob.*

9. *O‘zbekman, inshoolloh, iymonim butun,*

10. *Tilim qisiq emas bashariyatdan.*

11. *Kimgadir tengdirman, kimdandir ustun,*

12.*Zuvalam qorilgan samimiyatdan.*

13.*O‘zbekman, gohida iqbolim kulib,*
14.*Gohida o‘zimdan chiqqan ofatim.*
15.*Dunyoni olsam-da jahongir bo‘lib,*
16.*Go‘dak yig‘isiga yo‘qdir toqatim.*

17.*O‘zbekman, qanchalik jafo chekmayin,*
18.*O‘zimga haq bo‘ldim, o‘zimga haqman.*
19.*Yashadim yovlarga bo‘yin egmayin,*
20.*Bu kun o‘z erkiga erishgan xalqman.*

21.*Istiqlol, ketma yurt peshonasidan,*
22.*Tole, tark etmagin bizni ilohim.*
23.*Mana, yangi asr ostonasidan*
24.*O‘tdim. Bismillohir rahmonir rohiym.*

ÖZBEK’İM (404)

1. Yeni bir asrın eşiği bu,
2. Yetiştim ömrümün kutlu yaşına.
3. Dilimde şükür, gönlümde kavga,
4. Tarihin başkâtibiyle geldim huzuruna:

5. - İşte, ben, Özbek’im, elimde bayrağım
6. Ve bütün amellerimin yazıldığı kitap.
7. Bunun içindedir varım ve yokum,
8. Bunun içindedir benim için âf-tâb.

9. Özbek’im, inşallah, imanım bütün,

10.Ağzım dilim bağlı değil beşeriyetten.
11. Kimine dengimdir, kiminden üstün,
12. Hamurum samimiyetten karılmış.

13.Özbek'im, gâh ikbalim gülüp,
14.Gâh kendimden çıkmış afetim.
15.Dünyayı alsam cihangir olup,
16. Bebek ağlamasına yoktur takatim.

17.Özbek'im, nice cefa çekmeden,
18. Kendime hak oldum, kendime hakkım.
19. Yaşadım düşmanlara boyun eğmeden,
20. Bugün kendi erkine erişmiş halkım.

21.İstiklal, gitme yurdun alnından,
22. Talih, terk etmesin bizi Allah'ım!
23.İşte, yeni asrın eşiğinden
24. Geçtim. Bismillahirrahmanirrahim. (2000)

NAVRO'Z (405)

1. *Avval yuragingga mo'ralaydi u,*
2. *So'ngra kurtaklarga o'rgatadi so'z.*
3. *Zaminning ko'zidan qochadi uyqu,*
4. *Demak, Bahor keldi,*
5. *Kelmoqda Navro'z.*

6. *Qishning ahvoliga boqib hoynahoy,*
7. *Yum-yum yosh to'kmoqda eriyotgan muz.*
8. *Jilva qilayotir tengsiz bir chiroy,*
9. *Demak, Bahor keldi,*

10.*Kelmoqda Navro‘z.*

11.*Ona bag‘ri kabi iliqdir olam,*
12.*Harir hovur ichra yayrar dala-tuz.*
13.*Qoldi puchmoqlarda xazon yanglig‘ g‘am,*
14.*Demak, Bahor keldi,*
15.*Kelmoqda Navro‘z.*

16.*Yana ko‘ngillardan rutubat ketdi,*
17.*Yana shu’lalardan qamashmoqda ko‘z.*
18.*Yana dildorlikning fursati yetdi,*
19.*Demak, Bahor keldi,*
20.*Kelmoqda Navro‘z.*

NEVRUZ (405)

1. Önce yüreğine gizlice bakar o,
2. Sonra tomurcuklara öğretir söz.
3. Zeminin gözünden kaçar uyku,
4. Yani bahar geldi,
5. Gelmekte nevruz.

6. Kışın ahvaline bakıp herhâlde,
7. Oluk oluk yaş dökmekte eriyen buz.
8. Cilve yapar eşsiz bir güzel,
9. Yani bahar geldi,
10. Gelmekte nevruz.

11. Ana bağrı gibi ılıktır âlem,
12.İpeğin buharı içinde yayılır tarla, bozkır.
13. Kaldı kenarlarda hazan gibi gam,

14. Yani bahar geldi,

15. Gelmekte nevruz.

16. Yine gönüllerden rutubet gitti,

17. Yine şulelerden kamaşmakta göz.

18. Yine dil-dârlığın fırsatı erişti,

19. Yani bahar geldi,

20. Gelmekte nevruz. (2001)

ADOLAT KO‘ZGUSI (UCHINCHI JILD)

QO‘SHIQLAR (1)

1. *Qo‘shiqlar...*

2. *Nur bo‘lib oqsangiz deyman,*

3. *Jo‘shqin ilhom bo‘lib singsangiz*

4. *qalbga.*

5. *Qo‘shiqlar...*

6. *Tong bo‘lib boqsangiz deyman,*

7. *Umr chamanining latif husniga.*

8. *Yurak taronasin nozli pardasi -*

9. *Qo‘shiqlar, naqadar haroratga boy,*

10.*Ajib ohangida bahor nafasi,*

11.*Bu - nurli joziba, bu - gul, bu - chiroy.*

12.*Dilrabo qo‘shiqlar, maftunman,*

13. *sizga,*

14.*Siz - qalbda shodligim, hamdam,*

15. *hamnafas,*

16.*Nozik his, cho‘ng qudrat, latofat*

17. *sizda,*

18.*Dildan arimassiz har dam, har nafas.*

19.*Yoshlik jilvalari - sho‘xligi sizda,*

20.*Sizda go‘zallikning noz-karashmasi.*

21.*Qo‘shiqlar, olamcha mazmun ham*

22. *sizda, -*

23.*Jo‘shqin hissiyot-u, ilhom chashmasi.*

24.*Qo‘shiqlar...*

25.*Nur bo‘lib oqsangiz deyman,*

26.*Jo‘shqin ilhom bo‘lib singsangiz qalbga.*

27.*Qo‘shiqlar...*

28.*Tong bo‘lib boqsangiz deyman,*

29.*Umr chamanining latif husniga.*

ADALET AYNASI (ÜÇÜNCÜ CİLT)

KOŞUKLAR (1)

1. Koşuklar…

2. Işık olup aksanız derim,

3. Coşkun ilham olup sinseniz

4. kalbe.

5. Koşuklar…

6. Şafak olup baksanız derim,

7. Ömür bahçesinin latif hüsnüne.

8. Yürek ezgisinin nazlı perdesi

9. Koşuklar, ne kadar hararetle zengin,

10.İlginç ahenginde bahar nefesi,

11. Bu, ışıklı cazibe, bu, gül, bu, güzel.

12. Dilber koşuklar, meftunum,

13. size,

14. Siz, kalpte mutluluğum, dost,

15. hemfikir,

16. Nazik his, büyük kudret, letafet,

17. sizde,

18.Gönülde bitmezsiniz her an, her nefes.
19. Gençlik cilveleri, yaramazlığı sizde,
20. Sizde güzelliğin naz ve işvesi.
21. Koşuklar, âlemce mana da
22. sizde,
23. Coşkun hissiyat, ilham çeşmesi.
24. Koşuklar…
25.Işık olup aksanız derim,
26. Coşkun ilham olup sinseniz kalbe.
27. Koşuklar…
28.Şafak olup baksanız derim,
29.Ömür bahçesinin latif hüsnüne. (30 Ağustos 1959)

XAYOLLAR (2)

1. *Xayollarim, o siz xayollar*
2. *Kechmishlarni esga solasiz,*
3. *Goh fikrimni osuda damlar,*
4. *Uzoqlarga olib qochasiz.*
5. *Kelajakka oshiqib, ba'zan*
6. *Qarshingizga chiqaman peshvoz.*
7. *Istiqboldan nur olib jadal,*
8. *Ilhom bo'lib etasiz parvoz.*
9. *Siz xayollar, uchqur xayollar,*
10.Behudamas, jonlisiz o'ktam!
11.Yaratuvchan, o'tli qalblarning
12.Alangasin uchquni ko'rkam.

HAYALLER (2)

1. Hayallerim, o siz hayaller
2. Geçmişleri hatıra getirirsiniz,
3. Bazen fikirlerimi durgun zamanlar,

4. Uzaklara alıp kaçarsınız.
5. Geleceğe telaşlanıp, bazen
6. Karşınıza gelirim rast.
7. İstikbalden ışık alıp hızla,
8. İlham olup edersiniz pervaz.
9. Siz hayaller, hızlı hayaller,
10. Yanlış değil, canlısınız etkili!
11. Yaratıcı, alevli kalplerin
12. Ateşsin kıvılcımı görkemli. (30 Ağustos 1959)

NOZ (3)

1. *Tong yelida noz etgan gulni,*
2. *Uzib deding: - Sernoz ekansan.*
3. *- Ha, seni ham gul deyishimning*
4. *Boisi shul: gulnoz ekansan.*

NAZ (3)

1. Şafak yelinde naz eden gülü,
2. Koparıp dedin: - Çok nazlıymışsın.
3. - Evet, sana da gül deyişimin
4. Sebebi şu: Gülnaz imişsin. (30 Ağustos 1959)

SHAFAQ (4)

1. *Tongning go‘zalligini ko‘rmoq bo‘lsangiz,*
2. *Bilmoqchi bo‘lsangiz saharning sirin,*
3. *Shomda sayr etingiz, chunki odatda*
4. *Shafaq tahrir etar tongning tasvirin.*

ŞAFAK (4)

1. Şafağın güzelliğin görseniz,
2. Bilecek olsanız seherin sırrını,
3. Akşamda seyrediniz, çünkü âdette
4. Şafak düzeltir tanın tasvirini. (17 Ocak 1960)

MAJNUNTOL (5)

1. *Negadir u egmish boshini,*
2. *Nega muncha g‘amgin majnuntol?*
3. *Ishq o‘tida yongan Laylimi,*
4. *Yoziq sochi suv uzra xol-xol.*

5. *Yellarga ham keldingmi, demas,*
6. *Parvo qilmas, g‘amgin ekkan bosh.*
7. *Ayt, zilol suv, nega u g‘amgin,*
8. *Agar bilsang, javob ber quyosh.*

9. *Javob bermas, faqat guvlar uv,*
10. *Quyosh tortmish yuziga parda.*
11. *Ingragandek to‘lg‘onadi suv*
12. *G‘alayonmi, qo‘shni darada!..*

13. *Oshiq bo‘lsang, sening ishqingni*
14. *Kim ekan u toptagan yurak?*
15. *O, tabiat! Balki qalbingni*
16. *O‘g‘irlagan huv mag‘rur terak.*

17. *Ishq obro‘ga hayf deb balki u*
18. *Ko‘kka tomon bo‘y cho‘zmish mag‘rur.*

19.*Seni Majnun demishlar, balki*
20.*G‘amginliging boisi shuldir?*

21.*Bo‘ron misol o‘kirar girdob,*
22.*Bu zo‘r qudrat ishqmikin, nekin.*
23.*Toshni toshga urib kelaru*
24.*Majnuntolni erkalar lekin.*

25.*Shivirlaydi allanimani,*
26.*Qani yellar! Qani, quloq sol!*
27.*To‘lqin ketar, hayqirib yana,*
28.*Ko‘z yosh to‘kib qolar majnuntol.*

29.*Daryo bo‘lib yupatarmikan*
30.*Majnuntolni yoki muhabbat.*
31.*Uradi-yu toshlarni toshga,*
32.*Faqat unga roz so‘ylar, faqat...*

33.*Daryo uvlar: “Hey, kar yuraklar,*
34.*Ko‘zlarimga ko‘rinma, yo‘qol.”*
35.*Hayqir daryo va lekin ishqning*
36.*Sodig‘iga oshno bo‘lib qol.*

SALKIM SÖĞÜT (5)

1. Niye o eğmiş başını,
2. Niye bu kadar gamlı salkım söğüt?
3. Aşk ateşinde yanan Leyla mı,
4. Dağılmış saçı su üstünde benek benek.

5. Yellere de geldin mi, demez,
6. Perva etmez, gamlı eğmiş baş.
7. Söyle, temiz su, niye o gamlı,
8. Eğer bilirsen, cevap ver güneş.

9. Cevap vermez, sadece uğuldar uuu
10.Güneş çekmiş yüzüne perde.
11.İnlemiş gibi sarsıldı su
12. Galeyan mı, komşu derede!..

13.Âşık olsan, senin aşkını
14. Kimmiş o kırılan yürek?
15. Aaa, tabiat! Belki kalbini
16.Çalan ey mağrur kavak.

17.Aşk onura yazık deyip belki o
18.Göğe doğru boy uzatmış mağrur.
19. Sana Mecnun demişler, belki
20. Gamlılığın sebebi budur.

21.Fırtına misali gürleyip girdap,
22. Bu büyük kudret aşk mı ki, ne ki.
23. Taşı taşa vurup gelir ve
24. Salkım söğüdü şımartır ama.

25.Fısıldar bir şeyi,
26. Hani yeller! Hani, kulak ver!
27. Dalga gider, haykırıp yine,
28.Gözyaşı döküp kalır salkım söğüt.

29. Derya avutur muymuş

30. Salkım söğüdü ya da muhabbet.

31. Vurur taşları taşa,

32. Yalnız ona sır söyler, yalnız…

33. Derya inler: “Hey, sağır yürekler,

34.Gözlerime görünme, kaybol.”

35. Haykır derya velakin aşkının

36. Sadakatine aşina ol. (1960)

KINDIK QONI TO‘KILGAN JOY (6)

1. *Tashqariga chiqdim, shamollay deb biroz*

2. *Terlab ketib uyning taftidan.*

3. *Yonimdagi skameykada o‘tirar bir chol*

4. *Va bola - nevarasi ekan aftidan.*

5. *Hassa bilan yer chizib bobo*

6. *Allanima derdi nevarasiga.*

7. *Dam quloq solar bola, dam tuproq solar*

8. *Qo‘ng‘izcha tang‘ilgan aravasiga.*

9. *Qiziqsindim, bordim yaqinroq.*

10.*(Demang, bola aravasiga)*

11.*Gaplarini eshitdim elas*

12.*Bobo derdi nevarasiga:*

13.*- Siniq kulba edi, sen bilmaysan*

14.*Shu binoning o‘rni - men tug‘ilgan joy,*

15.*Ko‘zimga ko‘p issiq ko‘rinar,*

16.*Kindik qonim tomgan, hoynahoy.*

17.*- Uyimizda suv yo‘qmi? Qanday qon bobo?*

18.*Bola taajjubda, chol cho‘mgan o‘yga.*

19.*Biroz o‘tirishgach bola qimtindi:*

20.*- Ko‘p o‘tirdik, bobo, ketaylik uyga.*

21.*O, sen Vatan, kindik qoni tomgan joy*

22.*Seni so‘rmay, ko‘rmay bo‘lurmi?*

23.*Ko‘z ko‘rgani yoshu qarining-*

24.*Ona bag‘rin sevmay bo‘lurmi?*

25.*O, sen Vatan, kindik qoni tomgan joy*

26.*Tuprog‘ingni o‘pmay bo‘lurmi?*

27.*Bobo tuprog‘idan bino bo‘lgan joy -*

28.*Nevarasi uchun hech yot bo‘lurmi?*

GÖBEK BAĞI KANI DÖKÜLEN YER (6)

1. Dışarıya çıktım, soğuk alayım diye biraz

2. Terleyip evin sıcaklığından.

3. Yanımdaki bankta oturur bir ihtiyar

4. Ve çocuk, torunuymuş anlaşılan.

5. Bastonla yer çizip dede

6. Bir şey derdi torununa.

7. Bazen kulak verir çocuk, bazen toprak verir

8. Küçük böcek bağlamış arabasına.

9. Meraklandım, gittim daha yakına.

10.(Demeyin, çocuk arabasına)

11.Sözlerini işittim az çok

12. Dede derdi torununa:

13.- Kırık kulübe idi, sen bilmezsin

14. Bu binanın yeri, - benim doğduğum yer,

15.Gözüme çok sıcak görünür,

16.Göbek bağı kanım damlamış, ihtimal.

17.- Evimizde su yok mu? Nasıl kan dede?

18.Çocuk hayrette, ihtiyar dalmış düşünceye.

19. Biraz oturunca çocuk kımıldadı:

20.- Çok oturduk, dede, gidelim eve.

21. Ey, sen Vatan, göbek bağı kanı damlayan yer
22. Seni sorumadan, görmeden olur mu?
23.Göz gördüğü genç ve yaşlının,
24. Ana bağrını sevmeden olur mu?

25. Ey, sen Vatan, göbek bağı kanı damlayan yer
26. Toprağını öpmeden olur mu?
27. Dede toprağından bina olan yer,
28. Torunu için hiç yad olur mu? (11 Şubat 1960)

IKKI DARAXT (7)

1. *Zilol hovuz bo‘yi, tuproqda*
2. *Ikki daraxt o‘sar yonma-yon.*
3. *Bir urug‘dan ko‘kargan, shaksiz, -*
4. *Ildizlari tutash begumon.*

5. *Biri chapga tomon anqaygan,*
6. *Beso‘naqay, nimta va kesik.*
7. *Biri esa sersoya, mag‘rur*
8. *Salobatli, to‘g‘ri, tippa-tik.*

9. *Biz tutashmiz shu daraxtlar kabi,*
10.Bir onani emgan talashib...
11.Achinaman, to‘g‘rilash mushkul
12.Huv daraxtni kesib, tarashlab...

İKİ AĞAÇ (7)

1. Temiz havuz boyu, toprakta
2. İki ağaç büyür yan yana.

3. Bir tohumdan yeşermiş, kuşkusuz,
4. Kökleri tutmuş şüphesiz.

5. Biri sola doğru şaşırmış,
6. Hantal, parçalanmış ve kesik.
7. Biri ise gölgeli, mağrur
8. Görkemli, doğru, dimdik.

9. Biz bağlanmışız bu ağaçlar gibi,
10. Bir anayı emmiş atışıp…
11. Acırım, doğrultmak müşkül
12. Ey ağacı kesip, talaş yapmak… (19 Şubat 1960)

"SHIRIN SO'ZU KAMON QOSH…" (8)

1. *Shirin so'zu kamon qosh,*
2. *shahlo ko'zingni sog'indim.*
3. *Tishu, labu, qaro qoshing,*
4. *xullas, o'zingni sog'indim.*

"ŞİRİN SÖZ VE KEMAN KAŞ…" (8)

1. Şirin söz ve keman kaş,
2. şehla gözünü özledim.
3. Dişini, dudağını, kara kaşını,
4. velhasıl, özünü özledim. (Şubat, 1960)

"SOAT YANGLIG'…" (9)

1. *Soat yanglig' lekin tinmasdan,*
2. *Kecha-kunduz urar yuragim.*
3. *Baxtli edim do'stlarim uchun*

4. *Soatchalik bo‘lsa keragim.*

“SAAT GİBİ…” (9)

1. Saat gibi ama durmadan,
2. Gece gündüz vurur yüreğim.
3. Bahtlı idim dostlarım için
4. Küçük saatli olsa gereğim. (Şubat, 1960)

KO‘KLAM (10)

1. *Olcha bog‘laridan esgan sho‘x shamol,*
2. *Ko‘zlarimni birdam yoshlab ketadi.*
3. *So‘ngra ijod guli ko‘rsatib jamol -*
4. *Sirli suhbatlarga boshlab ketadi.*
5. *Sevgan va sevilgan dillar kuyining*
6. *Musiqasin topar bundan g‘azalxon.*
7. *Kulgudan sachragan barglarda shudring,*
8. *Qizlar qahqahasi - chashmalar xandon.*
9. *Meni izlab yana keldingmi, go‘zal,*
10. *Mehnat va ijodni sevding - sevilding.*
11. *Sevganim, ey o‘lkam, bahorsan azal,*
12. *Qalbimga she’rdek tuyulding...*
13. *Kumush tong sahnidan nurlar taratgin,*
14. *Seni kutar oldda mehnat, ijod, ish.*
15. *Yana ham dilbarroq kuylar yaratgin,*
16. *Nozik sezgi kabi bilmasdan tinim.*
17. *Maysazor shovullar, qushlar chiyillar.*
18. *Kashtakor quyoshning ko‘rkam ziyosi...*
19. *Fasllar kitobin asl bobisan*
20. *O‘lkamning ey ko‘klam poeziyasi!*

İLKBAHAR (10)

1. Vişne bahçelerinden esen neşeli rüzgâr,
2. Gözlerimi bir an yaşlayıp gider.
3. Sonra sanat gülü gösterip cemal
4. Sırlı sohbetlere başlayıp gider.
5. Seven ve sevilen gönüller nağmesinin
6. Müziğini bulur bundan gazelhan.
7. Gülüşten sıçrayan yapraklarda çiy,
8. Kızlar kahkahası, pınarlar handan.
9. Beni arayıp yine geldin mi, güzel,
10. Emek ve sanatı sevdin, sevildin.
11. Sevdiğim, ey ülkem, baharsın ezel,
12. Kalbime şiir gibi duyuldun…
13. Gümüş şafak meydanından nurlar yarat,
14. Seni bekler önünde emek, sanat, iş.
15. Yine de daha dilber ezgiler yarat,
16. Nazik sezgi gibi dinmeden durmak.
17. Çayır gürler, kuşlar cırıldar.
18. Nakışçı güneşin görkemli ziyası…
19. Fasıllar kitabının asıl babısın
20. Ülkemin ey ilkbahar şiirleri! (Mart, 1960)

DO‘STIMGA (11)

1. *Bilasanmi, do‘stim, bu nima!*
2. *Bu g‘am emas, alam ham emas.*
3. *Fig‘oningda ijod bor dema*
4. *She’rni sevgan she’rdan g‘am yemas.*

5. *Bu - yonmoqda tunlarim mening*
6. *Bu - tunlarga sig‘mas haqiqat.*
7. *Bu - dard tortgan kuylarim mening*

8. *Yuragimda joy olgan qat-qat.*

9. *Kuylarimni quchar keng fazo,*
10.*Qo‘ysalar ham unga chegara.*
11.*Dil so‘zimni sen tingla faqat,*
12.*Sen, men, borliq! O‘zga na chora?!*

13.*Bilasanmi, men ham qush kabi*
14.*Keng fazoni quchgim keladi.*
15.*Tog‘u toshga solib gulduros,*
16.*Lochin kabi uchgim keladi.*

17.*Kel, qadahlar jarangosi soz,*
18.**……..**
19.**……..**
20.**……..**

21.*Qo‘shig‘im-la do‘stlar qalbiga,*
22.*Dunyoga zavq sololsam, deyman.*
23.*Do‘stlarimning shodlik zavqida*
24.*Bir umrga qololsam, deyman.*

DOSTUMA (11)

1. Bilir misin, dostum, bu ne!
2. Bu gam değil, elem de değil.
3. Figanında sanat var deme
4. Şiiri seven şiirden üzülmez.

5. Bu, yanmakta gecelerim benim

6. Bu, gecelere sığmaz hakikat.
7. Bu, dert çeken nağmelerim benim
8. Yüreğimde yer almış kat kat.

9. Ezgilerimi kucaklar geniş feza,
10. Koysalar da ona sınır.
11.Gönül sözümü sen dinle sadece,
12. Sen, ben, âlem! Başka ne çare?!

13. Bilir misin, benim de kuş gibi
14. Geniş fezayı kucaklayasım gelir.
15. Dağ ve taşa çarpıp şiddetli,
16.Şahin gibi uçasım gelir.

17. Gel, kadehler şıngırtısı iyi,
18.…….
19.…….
20.…….

21.Şarkımla dostlar kalbine,
22.Dünyaya zevk verebilsem, derim.
23. Dostlarımın neşe sevincinde
24. Bir ömür kalabilsem, derim. (Mart, 1960)

GEYNE (12)

1. *Nemis shoiriman.*
2. *Nemis tuprog‘ida qozondim shuhrat.*
3. *Eslanganda sofdil, to‘g‘ri insonlar,*
4. *Eslasharlar meni ham albat.*

5. *Menda neki bo‘lsa, shaksiz, azizim,*

6. *Xos erur ko‘pchilik nemislarga ham.*

7. *Qayerda eslansa yomonu badbin,*

8. *Eslasharlar unda meni ham.*

HEİNE (12)

1. Alman şairiyim.

2. Alman toprağında kazandım şöhret.

3. Hatırladığında samimi, dürüst insanlar,

4. Hatırlarlar beni de elbet.

5. Bende ne varsa, kuşkusuz, azizim,

6. Hastır çoğunluk Almanlara da.

7. Nerede hatırlansa kötü ve bedbin,

8. Hatırlarlar orada beni de. (Mart, 1960)

“ESHITAMAN…” (13)

1. *Eshitaman tonglar ba’zi-ba’zida*

2. *Tushlarimda Pushkin alvidosini.*

3. *So‘ngra xayolparast! Bilsam yig‘imda*

4. *Tinglayman dilimning qalb vidosini.*

5. *Avlodlar keladi, avlodlar ketar,*

6. *Almashishar ular xayoldek tez-tez.*

7. *Ammo ming yillarning so‘zi-zikrida*

8. *Qolishin bilmagan o‘sha cherkas qiz.*

“DUYARIM…” (13)

1. Duyarım şafaklar zaman zaman

2. Düşlerimde Puşkin elvedasını.
3. Sonra hayalperest! Bilsem hasatta
4. Dinlerim gönlümün kalp vedasını.
5. Evlatlar gelir, evlatlar gider,
6. Değişirler onlar hayal gibi tez tez.
7. Ama bin yılın sözü zikrinde
8. Kalmasını anlamamış o Çerkez kız. (Mart, 1960)

ERIGAN BULUT (14)

(Hazil she'r)

1. *Ulkan cho'qqidaman, yonimda dildor,*
2. *Qaynoq lablariga bosdim labimni.*
3. *Nozik his to'lqini gurlar ulug'vor,*
4. *Sho'x nigoh elitar, tirnar qalbimni.*
5. *Shu payt yetib keldi, huv pag'a bulut,*
6. *Boshimizda hech ham solmay gulduros.*
7. *Viqorla to'xtadi, sokin va jim-jit,*
8. *So'ngra to'lg'ondida suv quydi sharros.*

9. *Qizargan lablaring titradi bexos:*
10. *- Nahot boshimizga yomg'ir to'kilsa?*
11. *- Ajablanma, dildor, bu zo'r ehtiros,*
12. *Ajabmas, bulut ham erigan bo'lsa.*

ERİYEN BULUT (14)

(Gülmece şiir)

1. Büyük tepedeyim, yanımda sevgili,

2. Kızgın dudaklarına bastım dudağımı.
3. Nazik his dalgası gürülder görkemli,
4. Neşeli bakış bitkinleştirir, tırmalar kalbimi.
5. O vakit yetip geldi, ey pamuk bulut,
6. Başımızda hiç de salmadan gürültü.
7. Azametle durur, sakin ve sessiz,
8. Sonra kımıldadı su bıraktı sağanak.

9. Kızaran dudakların titredi aniden:
10.- Başımıza yağmur mu dökülse?
11.- Şaşırma, sevgili, bu büyük ihtiras,
12. Tuhaf değil, bulut da erise. (Mart, 1960)

O‘ZBEKLAR (15)

1. *Xoliq samovotdan sochardi ziyo,*
2. *Tunlar yulduzlardan fonus yoqardi.*
3. *O‘zin ijodiga O‘zi mahliyo,*
4. *Zaminga yuksakdan xushnud boqardi.*

5. *Ko‘rinar bulutga chulg‘ashib boshin*
6. *Chashmasi qaynagan qirrador tog‘lar.*
7. *Ummonlar ufqqa yozgan qulochin,*
8. *Sahrolar beadad, cheksiz o‘tloqlar.*

9. *Yuz rangda tovlangan kamalak uzra*
10.*Jayron uyurlari ko‘rinardi goh.*
11.*Tengsiz bu holatga to‘ymasdan sira*
12.*Yaratganning o‘zi tashlardi nigoh.*

13.*Nechun quvonmasin Buyuk iroda -*

14.*Bunyod eta oldi oliy uyg‘unlik.*
15.*O‘zini har qayda etdi ifoda,*
16.*Daryoda shiddatu tog‘da turg‘unlik.*

17.*U g‘oyat shod edi: hammayoq sokin,*
18.*Osoyish yayrardi bandalar xurram.*
19.*Bo‘liq zamin uzra kun ko‘rib, lokin*
20.*Unutmas edilar samovotni ham.*

21.*Shundoq totuv edi Inson farzandi,*
22.*Iblis qutqusidan hozircha yiroq.*
23.*Xoliqni shu narsa mamnun etgandi,*
24.*Uni tinchlantirgan shu edi ko‘proq.*

25.*Harir bulutlarning ortidan bir kun*
26.*Xoliq tag‘in pastga tashladi nazar.*
27.*Tubanda qo‘sh daryo oqardi durkun,*
28.*Tog‘larning boshida yaltirardi zar.*

29.*Ko‘rkam vodiy edi - jannatdan parcha,*
30.*Qaysi bir xush soat yaralgan Vatan.*
31.*Chinorlar falakka bo‘yin cho‘zgancha*
32.*Abadiy bir umr so‘rardi Haqdan.*

33.*Tiriklik sha’niga aytib qasida*
34.*Bezavol kechgandek bu yerda zamon.*
35.*Va lekin vodiyning qoq o‘rtasida*
36.*G‘ujg‘on qaynar edi uch to‘p olomon.*

37.*Ikki to‘p kelardi ikkala yoqdan,*
38.*Nogoh bir-biriga tashlanar edi.*
39.*Uchinchisi esa boqib uzoqdan*
40.*Gijlardi, taloto‘p boshlanar edi.*

41.*Sal o‘tmay qay biri g‘oyatda yuzsiz*
42.*Avlod-ajdodlarni etardi badnom.*
43.*Oxir chidayolmay uch taraf tig‘iz*
44.*Mushtlashib ketardi beso‘z, bekalom.*

45.*Tamom hayrat ichra qoldi Biru Bor,*
46.*Qayta-qayta boqdi bulutni serpab.*
47.*Bu qanday sinoat? Bu qanday asror?*
48.*Uning panohida bu qandayin gap?*

49.*Sokin va osoyish bu go‘zal ma’vo*
50.*Nahot torlik qilib qolmish daf’atan?*
51.*Qutqu boshladimi unda Iblis yo?*
52.*Qandayin yurtdir bu? Qay el? Qay Vatan?*

53.*Qay bir armon bois - notinch u bukun,*
54.*Qandayin muhtojlik etmish uni xor?*
55.*Xoliq g‘oyat dilgir, g‘oyatda zabun,*
56.*Shahodat daftarin ochdi boyakbor.*

57.*Unda bitilgandi: “Ahli dunyoga*
58.*Berdim iqtidoru nasibayu kom.*
59.*Qo‘sh daryo orasi - ushbu ma’voga*
60.*Ato etdim yaxlit O‘zbek degan nom.*

61. *Ummon bermadimu, ko‘ngli to‘lsin deb*
62. *Berdim ushbu elga ummonday yurak.*
63. *To abad zaminda baxtli bo‘lsin deb*
64. *Idrok berdim unga va tolmas bilak.”*

65. *Xoliq daftarini yopdi ko‘p dilgir,*
66. *Koinot jo bo‘lgan ko‘ksida yara.*
67. *Tubanga bo‘yladi tag‘in besabr,*
68. *Hanuz o‘sha holat, o‘sha manzara.*

69. *Chuvvos solar edi uch taraf, uch yoq,*
70. *Har to‘pning boshida bitta sardori.*
71. *Shundoq hukm qildi axiyri Xalloq:*
72. *Bu - arshdan quvilgan Iblisning kori!*

73. *G‘uborday to‘zmasin bu ajib maskan,*
74. *Tuproqqa qormasin ellar bir-birin.*
75. *Chora axtarardi endi Yaratgan*
76. *Tinchlantirmoq uchun o‘zbeklar yerin.*

77. *Oxir Xoliq keldi shundoq qarorga:*
78. *“Iblis qudratimni, mayliga, bilsin.*
79. *Bir zot jo‘natayki men bul diyorga,*
80. *To u O‘zbek elin bus-butun qilsin.”*

ÖZBEKLER (15)

1. Halik semavattan saçardı ziya,
2. Geceler yıldızlardan fanus yakardı,
3. Kendi sanatına Kendisi büyülenmiş,
4. Zemine yüksekten hoşnut bakardı.

5. Görünür buluta sarıp başını
6. Pınarı kaynayan çok yönlü dağlar.
7. Ummanlar ufka açmış kulacını,
8. Sahralar sayısız, sonsuz otlaklar.

9. Yüz renkte parlayan kelebek üstünde
10. Ahu sürüleri görünürdü bazen.
11.Eşsiz bu hâlete doymadan asla
12. Yaradan'ın kendisi ederdi nazar.

13. Niçin sevinmesin Büyük irade
14. Meydana geldi yüce uygunluk.
15. Kendini her yerde etti ifade,
16. Deryada şiddet ve dağda durgunluk.

17.O gayet mutlu idi: her taraf sakin,
18. Huzurdan hoşlanırdı esirler mutlu.
19.Büyük zemin üstünde gün görüp, lakin
20. Unutmaz idiler semavatı da.

21.Böyle samimi idi İnsan evladı,
22.İblis fitnesinden şimdiye dek uzak.
23. Halik'i bu şey memnun etmişti,
24. Onu rahatlatan bu idi dahaçok.

25.İpek bulutların ardından bir gün
26. Halik yine aşağıya etti nazar.
27. Dibinde çifte derya akardı durgun,
28. Dağların başında parlardı altın.

29.Görkemli vadi idi, cennetten parça,
30. Hangi bir hoş saat yaratılmış Vatan.
31.Çınarlar feleğe boyunu uzatıncaya dek
32. Ebedî bir ömür sorardı Hak'tan.

33. Hayat şanına söyleyip kaside
34. Sonsuz geçmiş gibi bu yerde zaman.
35. Velakin vadinin tam ortasında
36. Hareket ederdi düzensiz üç dört grup.

37.İki grup gelirdi her iki yandan,
38. Aniden birbirine atılırdı.
39.Üçüncüsü ise bakıp uzaktan
40.Kışkırtırdı, huzursuzluk başlardı.

41.Çok geçmeden hangi biri gayette yüzsüz
42. Evlat ecdatlara ederdi iftira.
43. Artık dayanamadan üç taraf sık
44. Yumruk atardı lafsız, sözsüz.

45. Tamam hayret içinde kaldı Yegâne,
46. Tekrar tekrar baktı bulutu salıp.
47. Bu nasıl hadise? Bu nasıl esrar?
48. Onun himayesinde bu nasıl söz?

49. Sakin ve sükûnette bu güzel barınak
50. Dar mı gelmiş birdenbire?
51. Fitne başladı mı onda İblis yahut?
52. Nasıl yurttur bu? Hangi halk? Hangi Vatan?

53. Hangi bir ukde sebep, huzursuzdur o bugün,
54. Nasıl muhtaç etmiş onu mazlum?
55. Halik gayet üzgün, gayet kederli,
56.Şehadet defterini açtı Bayekbar,

57. Onda yazılmıştı: “Ehl-i dünyaya
58. Verdim iktidar ve hak ve hoşnut.
59.İki derya arası, bu barınağa
60. Bahşettim bütün Özbek diye ad.

61. Deniz vermedim, gönül dolsun diye
62. Verdim bu halka deniz gibi yürek.
63. Sonsuza dek zeminde bahtlı olsun diye
64.İdrak verdim ona ve yorulmaz bilek.”

65. Halik defterini kapadı çok üzgün,
66.Kâinat koymuş göğsünde yara.
67. Dibine boyladı yine sabırsız,
68. Henüz o hâlet, o manzara.

69.Gürültü salar idi üç taraf, üç yan,
70. Her grubun başında bir lideri.
71.Böyle hükmetti artık Halik:
72. Bu, arştan kovulan İblis’in görevi!

73. Toz gibi dağılmasın bu ilginç mesken,
74. Toprağa karıştırmasın halklar birbirini.
75.Çare arardı şimdi Yaradan
76. Sakinleştirmek için Özbeklerin toprağını.

77. Artık Halik vardı böyle karara:
78.“İblis kudretimi, tamam, anlasın.
79. Bir zat göndereyim ki ben bu diyara,
80. Ta o Özbek halkını büsbütün etsin.” (1985)

MURABBIY (16)

1. *Qullug‘ ayta bilish mumkinmi Sizga,*
2. *Toyilgan chog‘imda tutgan, ey Odam!*
3. *Balki, Akamdirsiz, balki Siz O‘zga,*
4. *Balki, Siz xayrixoh butun bir olam.*

5. *Balki, mo‘’jazgina menim hayotim*
6. *Tushdi boshingizga oq tola bo‘lib.*
7. *Rozi bo‘lur edim bir umr tokim*
8. *Shu oydin shu’laga ketsam yo‘g‘rilib.*

9. *Men ham anglaydurman - Hayot bu nima,*
10.Yaxshilik, razolat, o‘kinch ham savob.
11.Hayhot, bu olamda kamdir birgina
12.Yaxshilik atalgan tuyg‘u bir noyob.

13.Sokin ko‘chalarda kezaman shodon,
14.Xushbaxtmen, bilmayman kimdan? Va nega?
15.Oh, nechog‘ farahli ekan bu osmon!
16.Insonmen, rahmatim ayturman Senga...

MÜREBBİ (16)

1. Teşekkür edebilmek mümkün mü Size,

2. Yanıldığım anda tutmuş, ey İnsan!
3. Belki, Abimsinizdir, belki Siz Başka,
4. Belki, Siz hayırhah bütün bir âlem.

5. Belki, küçücük benim hayatım
6. Düştü başınıza ak iplik olup.
7. Razı olur idim bir ömür elektriğim
8. Bu aydınlık şuleye gitsem yoğrulup.

9. Ben de anlatırım, Hayat bu ne,
10.İyilik, rezalet, sevinç de sevap.
11. Heyhat, bu âlemde azdır biricik
12.İyilik denen nadir bir duygu.

13. Sessiz sokaklarda gezerim şâdân,
14. Mutluyum, bilmem kimden? Ve niye?
15. Ah, ne kadar iç açıcı bu asuman!
16.İnsanım, rahmetimi söylerim Sana… (1990)

OZOD RESPUBLIKAM (17)

1. *Ayni chog‘, yetti yil bundan muqaddam,*
2. *Ijobat topgandi asriy niyatim.*
3. *O‘zingsan intilib yetishgan Ka’bam,*
4. *Ozod Respublikam - Jumhuriyatim!*

5. *Qadim bobolarim yodimga kelgay,*
6. *Sen o‘zing g‘ururim, sen - hamiyatim.*
7. *Sening qanotingda avlodlar yelgay,*
8. *Ozod Respublikam - Jumhuriyatim!*

9. *Uch ming yillar avval Zardushtiy bo‘lib*
10.*Dunyoga kelganding sen - jamiyatim.*
11.*Qutlayman men seni faxrga to‘lib,*
12.*Ozod Respublikam - Jumhuriyatim!*

13.*Yetti Haj savobin topgum begumon,*
14.*Seni bir kuylasam, ey Hurriyatim!*
15.*O‘zbekiston - yurtim, Vatan jonajon,*
16.*Ozod Respublikam - Jumhuriyatim!*

AZAT CUMHURİYETİM (17)

1. Aynı çağ, bundan yedi yıl evvel,
2. Kabul olmuştu ananevi niyetim.
3. Kendinsin atılıp yetişen Kâbem,
4. Azat Cumhuriyetim, Cumhuriyetim!

5. Kadim dedelerim yâdıma gelsin,
6. Sen bizzat gururum, sen hamiyetim.
7. Senin kanadında evlatlar essin,
8. Azat Cumhuriyetim, Cumhuriyetim!

9. Üç bin yıl evvel Zerdüşt olup
10.Dünyaya gelmiştin sen, cemiyetim.
11. Kutlarım ben seni gururla dolup,
12. Azat Cumhuriyetim, Cumhuriyetim!

13. Yedi Hac sevabını bulacağım şüphesiz,
14. Seni bir övsem, ey Hürriyetim!

15.Özbekistan, yurdum, aziz Vatanım,

16. Azat Cumhuriyetim, Cumhuriyetim! (Ağustos, 1998)

NAVOIY (18)

1. *Abadiyat bilan qay so‘z egizak,*

2. *Balki yaxshi orzu, yaxshi niyatdir?*

3. *Mangulik anglanar Navoiy desak,*

4. *Navoiyning o‘zi Abadiyatdir.*

NEVÂÎ (18)

1. Ebediyetle hangi söz denk,

2. Belki iyi arzu, iyi niyettir?

3. Sonsuzluk anlaşılır Nevâî desek,

4. Nevâî’nin kendisi Ebediyettir. (6 Şubat 2001)

BAXT (19)

1. *Mening mavjudligim o‘zimga kerak,*

2. *Taxtim - oilamning balki taxtidir.*

3. *Islom aka, Siz bor, biz g‘olib beshak,*

4. *Sizning borligingiz xalqning baxtidir!*

BAHT (19)

1. Benim varlığım kendime gerek,

2. Tahtım, ailemin belki tahtıdır.

3. İslam abi, Siz var, biz galip şüphesiz,

4. Sizin varlığınız halkın bahtıdır! (22 Mart 2001)

HAMMA GAP SHUNDA... (20)

1. *Yoshing oltidami yoki oltmishda,*
2. *Mayli, qay ish bilan mashg‘ulsan, bandsan.*
3. *Qaysi kenglikdasan, qay muyulishda,*
4. *Baribir Vatanga farzandsan.*

5. *Barchaga bag‘rini ochar shu Vatan,*
6. *Munavvar kunduzu qorong‘u tunda.*
7. *U seni farzand deb olgaymikan tan?!*
8. *Hamma gap shunda.*

BÜTÜN SÖZ ŞUNDA… (20)

1. Yaşın altıda mı yoksa altmışta,
2. Olsun, hangi işle meşgulsün, dolusun.
3. Hangi genişliktesin, hangi köşede,
4. Aynı Vatan’a evlatsın.

5. Hepsine bağrını açar bu Vatan,
6. Münevver gündüz ve karanlık gecede.
7. O seni evlat diye edecek miymiş takdir?!
8. Bütün söz bunda. (23 Mart 2001)

VATAN UCHUN YASHAYLIK (21)

1. *O‘n gulingdan bir guling ochilmagan derdilar,*
2. *Yo‘llaringga sochqilar sochilmagan derdilar.*
3. *O‘n guling ham charaklab ochildi-ku, oh, yurtim,*
4. *Yo‘llaringga zar-kumush sochildi-ku, oh, yurtim.*

5. *O‘zbekiston - yagona Vatan uchun yashaylik,*

6. *Vatan ichra bu go‘zal chaman uchun yashaylik.*

7. *Aytmasinlar g‘animlar, kimlargadir zor bu yurt,*
8. *Buyuk Sohibqironi, Alisheri bor bu yurt.*
9. *Alloh o‘zi yetkazgan in’omini asragay,*
10.*To‘g‘rosini, taxtini, Islomini asragay.*

11.*O‘zbekiston - yagona Vatan uchun yashaylik,*
12.*Vatan ichra bu go‘zal chaman uchun yashaylik.*

13.*Kel, azizim, yonimga, yulduzmisan, oymisan,*
14.*O‘zbegimsan hamisha, yupunmisan, boymisan.*
15.*Vatandoshim, shu tengsiz Vatanni kuylashaylik,*
16.*Zamon keldi, bizlar ham dunyoga bo‘ylashaylik.*

17.*O‘zbekiston - yagona Vatan uchun yashaylik,*
18.*Vatan ichra bu go‘zal chaman uchun yashaylik.*

VATAN İÇİN YAŞAYALIM (21)

1. On gülünden bir gülün açılmamış derdiler,
2. Yollarına şekerler saçılmamış derdiler.
3. On gülün de parlayıp açıldı, ah, yurdum,
4. Yollarına altın gümüş saçıldı, ah, yurdum.

5. Özbekistan, yegâne Vatan için yaşayalım,
6. Vatan içinde bu güzel çayır için yaşayalım.

7. Söylemesinler düşmanlar, kimlere muhtaç bu yurt,

8. Büyük Sâhipkıran'ı, Ali Şîr'i var bu yurt.

9. Allah kendisi yetişen ihsanını korusun,
10. Hakkını, tahtını, İslam'ını korusun.

11.Özbekistan, yegâne Vatan için yaşayalım,
12. Vatan içinde bu güzel çayır için yaşayalım.

13. Gel, azizim, yanıma, yıldız mısın, ay mısın,
14.Özbek'imsin daima, fakir misin, zengin misin.
15. Vatandaşım, bu eşsiz Vatan'ı övelim,
16. Zaman geldi, bizler de dünyayla boy ölçüşelim.

17.Özbekistan, yegâne Vatan için yaşayalım,
18. Vatan içinde bu güzel çayır için yaşayalım. (Ağustos, 2001)

SAHARLIK (22)

1. *Ro'za kunlarida bizning uyda ham*
2. *O'chmasdi tonggacha toat chirog'i.*
3. *Ibodat qilardi otam va onam,*
4. *Men ham uyg'onardim saharlik chog'i.*

5. *Mo''jaz dasturxonda shukrona taom:*
6. *Bitta chalpak nonu mayiz yo o'rik.*
7. *Saharlik jimgina etardi davom,*
8. *Bularning bariga men ham bir sherik.*

9. *Yillar o'tib ketdi, endi men uchun*

10.*Armon u kunlarning har bir fursati.*

11.*O‘sha azizlarim... ular yo‘q bugun,*

12.*Bitgan ular uchun ro‘za muddati.*

SAHUR (22)

1. Oruç günlerinde bizim evde de

2. Sönmezdi şafağa kadar taat lambası.

3. İbadet ederdi babam ve anam,

4. Ben de uyanırdım sahur vakti.

5. Küçücük sofrada şükür yemeği:

6. Bir çalpak[145] ekmek ve kuru üzüm yahut kayısı.

7. Sahur sesizce ederdi devam,

8. Bunların tümüne ben de bir ortak.

9. Yıllar geçip gitti, şimdi benim için

10. Ukde o günlerin her bir vakti.

11.O azizlerim… onlar yok bugün,

12. Bitmiş onlar için oruç müddeti. (20 Kasım 2001)

OGOHLIK (23)

1. *Kimdir boshqalarga tilar omonlik,*

2. *Kimdir sog‘inadi faqat yomonlik.*

3. *Bir qarasang o‘xshash rangu ro‘ylari,*

4. *Biroq tamom boshqa fikru o‘ylari.*

[145] İnce hamurun yağda pişirilmesiyle hazırlanan yiyecektir.

5. *Sirtdagisin ko‘rib turibsan har on,*

6. *Ichdagi olangdan ogoh bo‘l, inson!*

UYANIKLIK (23)

1. Kimi başkalarına diler sağlık,

2. Kimi ister sadece kötülük.

3. Bir baksan benzer renk ve yüzleri,

4. Fakat son başka fikir ve düşünceleri.

5. Dışını görüp durmuşsun her an,

6. İçteki alandan dikkatli ol, insan! (Aralık, 2001)

OTA VA BOLA (24)

1. *Ota der: - Aldama sen meni, bolam,*

2. *Bari qilmishingni sezib yuraman.*

3. *Agar quyilmasang mendan keyin ham,*

4. *Bilib qo‘y, go‘rimda tikka turaman.*

5. *Bola der: - Otajon, meni bilasiz,*

6. *Birga davru davron sura bering-da.*

7. *O‘sha qora go‘rda nima qilasiz,*

8. *Mana, uyda tikka turabering-da.*

BABA VE ÇOCUK (24)

1. Baba der: - Aldatma sen beni, çocuğum,

2. Tüm yaptıklarını hissederim.

3. Eğer dağıtmazsan benden sonra da,

4. Biledur, mezarımda dimdik dururum.

5. Çocuk der: - Babacığım, beni bilirsiniz,
6. Birlikte mutluluk sürüverin.
7. O kara mezarda ne edersiniz,
8. İşte, evde dimdik duruverin. (Aralık, 2001)

QO‘MIQ BILAN SUHBAT (25)

1. *Yiroq Yevropaga qilib sayoqat,*
2. *Bitta qo‘miq bilan bo‘ldim hamsuhbat.*

3. *U dedi, men kichik qo‘miq erurman,*
4. *Balki olam aro men yo‘q erurman.*

5. *Aslo qiziqmasman siyosat bilan,*
6. *Bu yurtda yuribman tijorat bilan.*

7. *Go‘zal Yevropaga aslo yo‘q taraf,*
8. *Lekin bir so‘z aytgum ularga qarab:*

9. *Yamoqni yamoqqa ulaydi ular,*
10. *Odamgarchilikni bilmaydi bular.*

KUMUK’LA SOHBET (25)

1. Uzak Avrupa’ya edip seyahat,
2. Bir Kumuk’la oldum sohbettaş.

3. O dedi, ben küçük Kumuk idim,
4. Belki âlem içinde ben yok idim.

5. Asla ilgilenmem siyasetle,
6. Bu yurtta yürümüşüm ticaretle.

7. Güzel Avrupa'ya asla yok taraf,
8. Ama bir söz edeceğim onlara bakıp:

9. Yamayı yamaya bağlardı onlar,
10.İnsaniyeti bilmezdi bunlar. (Aralık, 2001)

SAYYOHLAR (26)

1. *Balki sayyohlarga tuyular shundoq:*
2. *Nafas olish oson bu manzillarda.*
3. *Bir zum yayrar inson bu manzillarda,*
4. *Tashvishlardan uzoq, g'amlardan uzoq.*

5. *Balki sayyohlarga tuyular shundoq:*
6. *Horg'indek bu yerning odamlari ham.*
7. *Ular ham qaygadir ketsam der har dam,*
8. *Tashvishlardan uzoq, g'amlardan uzoq.*

SEYYAHLAR (26)

1. Belki seyyahlara duyulur böyle:
2. Nefes alış kolay bu menzillerde.
3. Bir an sevinir insan bu menzilllerde,
4. Kaygılardan uzak, gamlardan uzak.

5. Belki seyyahlara duyulur böyle:
6. Yorgun gibi bu toprağın insanları da.
7. Onlar da bir yere gitsem der her an,
8. Kaygılardan uzak, gamlardan uzak. (Aralık, 2001)

SEVISHGANLAR (27)

1. *Xiyobonda kezar ikki yosh habash,*
2. *Yigit pachoq burun, lablari do‘rdoq.*
3. *Yonida nozlanar ma’shuqa - mahvash,*
4. *Oyoqlari qiyshiq, tishlari so‘yloq.*
5. *Dunyoda xunukni izlasang agar*
6. *Bulardan ortig‘in topmag‘ing gumon.*
7. *Yigit sevgilisin quchib avaylar,*
8. *Qiz ham oshig‘iga boqar nigoron.*
9. *Ushbu manzaraga boqdimu, go‘yo*
10. *Birdan qulab tushdi arshidan azal.*
11. *Qani u laylivash - sarvinoz barno,*
12. *Qani u er yigit - yetuk, mukammal.*
13. *Demishlar, nisbiydir har qandayin hol,*
14. *Har kim o‘z sevgisi uchun suringay.*
15. *Anov ikkovlonga, balki, ehtimol,*
16. *Qolganlar beo‘xshov bo‘lib ko‘ringay.*

SEVENLER (27)

1. Bahçede gezer iki genç Habeşistanlı,
2. Yiğit kırık burunlu, dudakları büyük.
3. Yanında nazlanır maşuk, ay yüzlü,
4. Ayakları çarpık, dişleri büyük.
5. Dünyada çirkini arasan eğer
6. Bunlardan fazlasına etmeyin şüphe.

7. Yiğit sevgilisini kucaklayıp korur,
8. Kız da âşığına bakar arzulu.
9. Bu manzaraya baktım ve sanki
10. Birden düşüp indi arşından ezel.
11. Hani o leyliveş, selvinaz güzel,
12. Hani o er yiğit, olgun, mükemmel.
13. Demişler, görecelidir her nasılsa hâl,
14. Herkes kendi sevgisi için sürünecek.
15.O ikisine de, belki, ihtimal,
16. Kalanlar çirkin olarak görünecek. (Aralık, 2001)

JONIBEK (28)

Nabiramga

1. *Shu yaqin kunlarda dunyoga kelgan*
2. *Nabiram bor mening, Jonibek degan.*

3. *Unga sovg‘a izlab, kezib har yoqni,*
4. *Ola ketay dedim bitta toychoqni.*

5. *Jeneva ko‘lining bo‘yida yashnab,*
6. *Onasi bilan u turardi kishnab.*

7. *- Yur, toychoq, men bilan, Toshkentga ketdik,*
8. *O‘rtog‘ing bor sening, ismi Jonibek.*

9. *Toychoq irg‘ishlardi, ketdik, der edi,*
10.*Bir chopsak Toshkentga yetdik, der edi.*

11.*Onasi-chi, boqar go‘yo holi tang:*

12.*- Mehmonim, bekorga xomtama bo‘lmang.*

13.*Dunyoda eng xushnud, boy chog‘imdir bu,*

14.*Bu toychoq o‘zimning toychog‘imdir bu!*

15.*Yaxshisi, men sizga beray maslahat,*

16.*Eshiting, u sizga yoqqaydir albat.*

17.*Mitti Jonibekka bizdan ehtirom,*

18.*Toychoq deb atangiz uni. Vassalom!*

CANIBEK (28)

Torunuma

1. Bu yakın günlerde dünyaya gelmiş

2. Torunum var benim, Canıbek denen.

3. Ona hediye arayıp, gezip her yanı,

4. Alıp gideyim dedim bir taycağızı.

5. Cenevre elinin boyunda yeşerip,

6. Anasıyla o dururdu kişneyip.

7. - Yürü, taycağız, benimle, Taşkent’e gittik,

8. Ortağın var senin ismi Canıbek.

9. Taycağız atlayıp zıplardı, gittik, der idi,
10. Bir koşsak Taşkent'e ulaştık, der idi.

11. Anası, bakar sanki durumu zor:
12.- Misafirim, boş umutlar beslemeyin.

13.Dünyada en hoşnut, varlıklı çağımdır bu,
14. Bu taycağız öz taycağızımdır bu!

15.İyisi, ben size vereyim nasihat,
16. Duyun, o sizin hoşunuza gidecektir elbet.

17. Minik Canıbek'e bizden ihtiram,
18. Taycağız diye adlandırınız onu. Vesselam! (Aralık, 2001)

SO'Z (29)

1. *So'z asli payg'ambar,*
2. *U bois balki*
3. *Odamzot tanigan o'z Xudoyini.*
4. *Erigan temirning tomchisi kabi*
5. *O'rtab yuborar u tekkan joyini.*

SÖZ (29)

1. Sözün aslı peygamber,
2. O sebepten belki
3. İnsanoğlu tanımış kendi Hüdasını.
4. Eriyen demirin damlası gibi
5. Yakıp gider o değen yerini. (Aralık, 2001)

VATANDOSH (30)

1. *Magar bir lagandan osh yegan bilan,*

2. *Yoki bitta tilda so‘z degan bilan,*

3. *Ular hali butkul yelkadosh emas.*

4. *To‘g‘ri kelsa agar dili diliga,*

5. *Sadoqati bo‘lsa tuqqan eliga,*

6. *Ular vatandoshdir har zum, har nafas.*

VATANDAŞ (30)

1. Meğer bir leğenden aş yiyenle,

2. Yahut bir dilde söz diyenle,

3. Onlar henüz tam olarak arkadaş değil.

4. Doğru gelse eğer gönlü gönlüne,

5. Sadakati olsa kardeş halkına,

6. Onlar vatandaştır her an, her nefes. (2 Ocak 2002)

E’TIROF (31)

1. *Har kim o‘z umrini qilsa sarhisob,*

2. *Turfa hodisalar tushgay yodiga.*

3. *Kimdir ariq qazgan yo chalgan rubob,*

4. *Har kim baho bergay o‘z hayotiga.*

5. *Turfadir dunyoning hatto ozori,*

6. *Shodligi ham turfa qadimdan-qadim,*

7. *Men ham she’rlar yozdim ko‘plar qatori*

8. *Lekin boshqalardan ko‘proq... aldandim.*

R.Bobojonga

9. *Muhabbat hissini asramoq uchun*
10.*Imorat shart emas, makon shart emas.*
11.*Sinamoq bo‘lsang gar muhabbat kuchin*
12.*Vaqt-soat shart emas, zamon shart emas.*

13.*O‘tli muhabbatni kuylabsiz to‘lib,*
14.*Bir Layli yodining Majnuni bo‘lib.*
15.*Uni hech bitta kuch ololmas yulib,*
16.*Hatto, ta’riflashga zabon shart emas.*

İTİRAF (31)

1. Herkes kendi ömrünü etse sayılı,
2. İlginç hadiseler düşecek yâdına.
3. Kim arık kazan yahut çalan rubab,
4. Herkes değer vermiş kendi hayatına.
5. İlginçtir dünyanın hatta zulmü,
6. Mutluluğu da ilginç kadimden kadim,
7. Ben de şiirler yazdım çoklar dizisi
8. Ama başkalarından daha çok… aldandım. (2 Ocak 2002)

R. Babacan’a

9. Muhabbet hissini korumak için
10. Bina şart değil, mekân şart değil.
11. Denersen eğer muhabbet gücünü
12. Vakit saat şart değil, zaman şart değil.

13. Ateşli muhabbeti översiniz dolup,

14. Bir Leyla yâdının Mecnun'u olup.

15. Onu hiçbir güç alamaz koparıp,

16. Hatta, tanımlamaya lisan şart değil. (11 Ocak 2001)

DO'STLIK (32)

1. *Biz bitta daraxtning shoxchalarimiz,*

2. *Bir bog'ning tutashgan bog'chalarimiz.*

3. *Zamin koinotda bir tog' bo'lsa, biz -*

4. *Bir-birin suyagan tog'chalarimiz.*

DOSTLUK (32)

1. Biz bir ağacın küçük dallarlıyız,

2. Bir bağın bağlı olan bahçeleriyiz.

3. Zemin kâinatta bir dağ olsa, biz,

4. Birbirine yaslanan küçük dağlarıyız. (13 Ocak 2002)

BU YURTNING (33)

1. *Tulporlari, toylari bor bu yurtning,*

2. *Botmaydigan oylari bor bu yurtning.*

3. *Kechani ham kunduz kabi yoritgan,*

4. *Sho'rtandayin joylari bor bu yurtning.*

5. *Dinorasi, Baxtiyori, G'uzori,*

6. *Nuriddindek hech kimga yo'q ozori.*

7. *Ertayu kech qizib turgan bozori,*

8. *Oriyatli boylari bor bu yurtning.*

9. *Bu diyorning Keshi bor, Nasafi bor,*

10.*Temurbekning o‘chmagan nafasi bor.*

11.*Tarixiga dunyoning havasi bor,*

12.*Hech qurimas soylari bor bu yurtning...*

BU YURDUN (33)

1. Tulparları, tayları var bu yurdun,

2. Batmayan ayları var bu yurdun.

3. Geceyi de gündüz gibi aydınlatan,

4. Şortan[146] gibi yerleri var bu yurdun.

5. Dinarası, Bahtiyarı, Güzarı,

6. Nurettin gibi hiç kimseye yok zulmü.

7. Sabahtan akşama öfkelenip duran pazarı,

8. Namuslu zenginleri var bu yurdun.

9. Bu diyarın Keş’i var, Nesef’i var,

10. Timurbek’in bitmeyen sözü var.

11. Tarihine dünyanın hevesi var,

12. Hiç kurumayan dereleri var bu yurdun… (Ocak, 2002)

YOZGIN, DEDILAR (34)

1. *Shoir bir she’rida kuyladi gulni,*

2. *Uni o‘qiganlar: - Takror! - dedilar.*

3. *Yana bir she’rida yozdi bulbulni,*

4. *Uni ham: Bu - eski ash’or, - dedilar.*

5. *Shoir kunlarini uladi tunga,*

6. *Borliqni vasf etib, ayladi xonish.*

[146] Kaşkaderya vilayeti’nin Güzar ilçesinde yer alan Şortan Kasabası’dır.

7. *Parvo qilmadilar baribir unga,*
8. *Dedilar: - Bu gaplar barchasi tanish.*

9. *Shoir she’r to‘qidi sevgiga doir,*
10. *Go‘yo muhabbatning o‘tli baxshisi.*
11. *Dedilar: - Buni ham, ey oshiq shoir,*
12. *Yoringning o‘ziga o‘qi yaxshisi.*

13. *Nahot odamlarda so‘ngan aqida,*
14. *Nahot she’r yo‘lidan ozgin, dedilar?*
15. *Shoir she’r yozgandi Ona haqida,*
16. *Yozaber, dedilar, yozgin! - dedilar!*

YAZ, DEDİLER (34)

1. Şair bir şiirinde övdü gülü,
2. Onu okuyanlar: - Tekrar! Dediler.
3. Yine bir şiirinde yazdı bülbülü,
4. Onu da: Bu, eski şiirler, dediler.

5. Şair günlerini bağladı geceye,
6. Zenginliği tanımlayıp, söyledi şarkı.
7. Perva etmediler hiçbiri ona,
8. Dediler: - Bu sözlerin hepsi aşina.

9. Şair şiir yazdı sevgiye dair,
10. Sanki muhabbetin ateşli ozanı.
11. Dediler: - Bunu da, ey âşık şair,
12. Yârinin kendisine oku iyisi.

13.İnsanlarda mı sönen akide,

14.Şiir yolundan mı çık, dediler?

15.Şair şiir yazmıştı Ana hakkında,

16. Yazıver, dediler, yaz! Dediler! (Mart, 2002)

TERMIZIM (35)

1. *Sen quyosh shahrisan, nurli bo‘stonim,*

2. *Vatan sarhadida qadim qo‘rg‘onim,*

3. *Ajdodlar ziyosi - ilmu urfonim,*

4. *Sen shonli tarixim, hech o‘lmas so‘zim,*

5. *Ona diyorimnig faxri - Termizim.*

6. *Ming yillik karvonlar izi senda bor,*

7. *Bobolar kalomi moziydan yodgor,*

8. *Alpomish qudrati bo‘lsin mangu yor,*

9. *Sen shonli tarixim, hech o‘lmas so‘zim,*

10.Ona diyorimning faxri - Termizim.

11.Baxshilar sozida yangrar istiqlol,

12.Polvonlar hamisha kurashda halol,

13.Hur Vatan bag‘rida topding sen kamol,

14.Sen shonli tarixim, hech o‘lmas so‘zim,

15.Ona diyorimning faxri - Termizim.

TERMİZ’İM (35)

1. Sen güneş şehrisin, ışıklı bahçem,

2. Vatan sınırında, kadim kalem,

3. Ecdatlar ziyası, ilim ve irfanım,

4. Sen şanlı tarihim, hiç ölmez sözüm,

5. Ana diyarımın iftiharı, Tirmizim.

6. Bin yıllık kervanların izi sende var,
7. Dedeler kelamı maziden yadigâr,
8. Alpamış kudreti olsun sonsuz yâr,
9. Sen şanlı tarihim, hiç ölmez sözüm,
10. Ana diyarımın iftiharı, Tirmizim.

11. Ozanlar sazında çınlar istiklal,
12. Pehlivanlar daima güreşte helal,
13.Hür Vatan bağrında buldun sen kemal,
14. Sen şanlı tarihim, hiç ölmez sözüm,
15. Ana diyarımın iftiharı, Tirmizim. (Mart, 2002)

UNIVERSIADA (36)

1. *Muhtasham maydonni to‘lg‘izib turgan*
2. *Vatanning ko‘z nuri, dilbandlaridir.*
3. *Kelajak bog‘idan chechaklar tergan*
4. *Ona O‘zbekiston farzandlaridir.*

5. *Bu saflar kamolot shiddatiga mos,*
6. *Go‘yo yaralgandir chaqindan, nurdan.*
7. *Mardlik va jasorat ularga meros*
8. *Mahmud Torobiydan, Amir Temurdan.*

9. *Avlodi yetuk yurt g‘olib hamisha,*
10.*Avlodi sog‘lom el ko‘rmagay zavol.*
11.*Yurtboshi bor ekan zafarga pesha -*
12.*Farzandlar ulg‘ayar, demak, barkamol!*

13.*Universiada, bu - ko‘rik va sinov,*

14.*Osoyish kunlarga yarashiq damlar.*

15.*Sizning yurakdagi alanga, olov*

16.*Minglab tengdoshlarning qalb qo‘rin jamlar.*

17.*Har bir qadamingiz shaxdam va o‘ktam,*

18.*Mahorat ko‘rgazib, shavqqa to‘lgaysiz.*

19.*Omad hamroh erur barchangizga ham,*

20.*Siz O‘zbek diyorin faxri bo‘lgaysiz!*

UNİVERSİADE (36)

1. Muhteşem meydanı doldurup duran

2. Vatanın göz nuru, âşıklarıdır.

3. Gelecek bağından çiçekler toplayan

4. Ana Özbekistan evlatlarıdır.

5. Bu saflar kemalat şiddetine uygun,

6. Sanki yaratılmıştır ateşten, nurdan.

7. Mertlik ve cesaret onlara miras

8. Mahmut Târâbî’den, Emir Timur’dan.

9. Evladı kâmil yurt galip daima,

10. Evladı sağlam halk görmemiş zeval.

11. Yurt başı varmış zaferle meşgul,

12. Evlatlar yetişir, demek, berkemal!

13. Universiade, bu, inceleme ve sınav,

14. Huzurlu günlere yaraşır anlar.

15. Sizin yürekteki ateş, alev

16. Binlerce akranın kalp yangınını toplar.

17. Her bir adımınız emin ve alicenap,

18. Maharet gösterip, şevkle dolacaksınız.

19. Talih dosttur hepinize de,

20. Siz Özbek diyarının iftiharı olacaksınız! (Mayıs, 2002)

SAN'ATIM (37)

Bastakor Mutal Burhonov

xotirasiga

1. *O'lmagay jismimdagi jon, san'atim,*

2. *Toabad qalbimda iymon, san'atim.*

3. *Ikki dunyo mulki birla teng o'zing,*

4. *Menga ham bo'lding sharaf-shon, san'atim.*

5. *Goh Navoiy, goh Xayyom, goh Hofiz*

6. *Jo'r bo'lishdi senga giryon, san'atim.*

7. *G'unchaga xor hech tarahhum qilmadi,*

8. *Har tabassumingda isyon, san'atim.*

9. *O'tdi umrim, yor dedim, yolg'iz seni,*

10.Zurriyodim - dilda armon, *san'atim.*

11.Sen ulug' yurt madhi bo'lding, ming shukr,

12.To'ldi shavqqa yeru osmon, san'atim.

13.*Rozi bo‘lgil, men Mutal Burhon edim,*

14.*Yodga ol, jon O‘zbekiston, san’atim.*

SANATIM (37)

Bestekâr Mutal Burhanov’un

anısına

1. Ölmesin cismimdeki can, sanatım,

2. Ebediyen kalbimde iman, sanatım.

3. İki derya mülküyle eşit kendin,

4. Bana da oldun şeref şan, sanatım.

5. Gâh Nevâî, gâh Hayyam, gâh Hafız

6. Eşlik ettiler sana gözü yaşlı, sanatım.

7. Goncaya mazlum hiç merhamet etmedi,

8. Her tebessümünde isyan, sanatım.

9. Geçti ömrüm, yâr dedim, yalnız sana,

10.Zürriyetim, gönülde ukde, sanatım.

11. Sen ulu yurt methi oldun, bin şükür,

12. Doldu şevkle yer ve asuman, sanatım.

13. Razı ol, ben Mutal Burhan idim,

14.Yâda al, can Özbekistan, sanatım. (Temmuz, 2002)

O‘N BIRINCHI DUR (38)

1. *Har yilga men o‘zni mas’ul sezgayman,*
2. *Yillar shodasiga bir dur tizgayman.*

3. *Farahbaxsh kunlardan to ko‘nglim to‘ldi,*
4. *Shodada durlarim o‘n bitta bo‘ldi.*

5. *Har bitta durimning nomi bor, alhol,*
6. *Har biri betakror, yulduzlar misol.*

7. *Ozod Vatanimdan nishon har biri,*
8. *Jam unda xalqimning faxri, g‘ururi.*

9. *Umr tugar balki, tuganmas shoda,*
10. *U inson umridan fuzun, ziyoda.*

11. *Bu Hurlik marjoni qolmagay yarim,*
12. *Uni to‘ldiradi nabiralarim.*

ON BİRİNCİ İNCİ (38)

1. Her yıl ben kendini mesul hissedeceğim,
2. Yılların dikişine bir inci dizeceğim.

3. Mutlu günlerden ta gönlüm doldu,
4. Dikişte incilerim on bir tane oldu.

5. Her bir incimin adı var, şimdi,
6. Her biri tekrarsız, yıldızlar misali.

7. Azat Vatan'ımdan nişan her biri,
8. Hepsi onda halkımın iftiharı, gururu.

9. Ömür biter belki, tükenmez dikme,
10.O insan ömründen çok, ziyade.

11. Bu Hürlük mercanı kalmayacak yarım,
12. Onu doldurur torunlarım. (Ağustos, 2002)

YAXSHI ODAM (39)

1. *Bir kun donishmandga berdilar savol:*
2. *Ayting-chi, dunyoda yaxshi odam kim?*
3. *Sevib ardoqlasa elu yurt xushhol,*
4. *Chindan yaxshi odam o'shadir balkim?*
5. *Donishmand dediki: - Mayli, har kim ham*
6. *Yaxshi bo'lgum deya har zum urinsin.*
7. *Mayli, yaxshilarga yoqsin u odam,*
8. *Lekin yomonlarga yomon ko'rinsin!*

İYİ İNSAN (39)

1. Bir gün bilgeye sordular soru:
2. Söyleyin, dünyada iyi insan kim?
3. Sevip hürmet etse halk ve yurt hoşnut,
4. Gerçekten iyi insan odur, belki?
5. Bilge dedi ki: - Peki, herkes de

6. İyi olacağım diye her an çabalasın.
7. Peki, iyilerin hoşuna gitsin o insan,
8. Ama kötülere kötü görünsün! (Ağustos, 2002)

CHALA IMORAT (40)

1. *Og‘zin ochib yotar chala imorat,*
2. *Atrofi o‘rayu toshdan iborat.*

3. *Har yon chakalakzor, burgan va yantoq,*
4. *Ostona o‘yilgan, uzilgan ravoq.*

5. *Xotirami deysan u qattol jangdan,*
6. *Yo yodgor asrlar qoldirgan changdan.*

7. *Qora tuynuklarda uvillar shamol,*
8. *Qamish tom g‘ijirlar mahzun, bemajol.*

9. *Bahor, yoz o‘tadi, hanuz u chala,*
10. *Kalamushlar g‘uj-g‘uj, qushlar ham gala.*

11. *Tashlandiq bu uyning sohibi kimdir?*
12. *Yo falak! Bu holning sababin bildir!*

13. *Bir qush yarim tunda beradi sado,*
14. *Savolimga javob qilganday go‘yo:*

15. *- Ne kerak gapingning nega, negasi,*
16. *Yo shoir, yo marhum buning egasi.*

YARIM BİNA (40)

1. Ağzını açıp yatar yarım bina,
2. Etrafı mahzen ve taştan ibaret.

3. Her yan ormanlık, Peygamber süpürgesi ve diken,
4. Eşik kazılmış, kesilmiş revak.

5. Hatıra mı dersin o şiddetli savaştan,
6. Yahut yadigâr asırlar kaldırmış toz.

7. Kara deliklerde uğuldar rüzgâr,
8. Kamış dam gıcırdar mahzun, mecalsiz.

9. Bahar, yaz geçer, henüz o yarım,
10. Fareler yığın yığın, kuşlar da kalabalık.

11. Atıldık bu evin sahibi kimdir?
12. Yahut felek! Bu hâlin sebebini bildir!

13. Bir kuş gece yarısında verir ses,
14. Soruma cevap vermiş gibi sanki:

15.- Ne gerek sözünün niye, niyesi,
16. Veya şair, yahut merhum bunun sahibi. (Ağustos, 2002)

ZIYORAT (41)

1. *Bobo nabirasin yetaklab bir kun,*

2. *Qabristonga bordi ziyorat uchun.*

3. *Marhumlarga tilab ajru halovat,*

4. *Bobo tiz cho‘kkancha qildi tilovat.*

5. *Nabira so‘radi: - Bobo, bular kim?*

6. *Bobo javob qildi: - Yaxshilar, o‘g‘lim.*

7. *Nabira daf’atan so‘z qotdi shu on:*

8. *- Yomonlarning qabri qayda, bobojon?..*

ZİYARET (41)

1. Dede torununun elinden tutup bir gün,

2. Kabristana gitti ziyaret için.

3. Merhumlara dileyip ecir ve huzur,

4. Dede diz çökünce etti tilavet.

5. Torun sordu: - Dede bunlar kim?

6. Dede cevap verdi: - İyiler, oğlum.

7. Torun aniden söz ekledi o an:

8. - Kötülerin kabri nerede, dedeciğim?.. (Ağustos, 2002)

USTOZ (42)

1. *Dedilar, dunyoda asli kim aziz,*

2. *Aytdilar, ustozdir, ustoz begumon.*

3. *Tag‘in aytdilarki, aziz shubhasiz*

4. *Ustozin qadriga yetolgan Inson.*

ÜSTAT (42)

1. Dediler, dünyada asıl kim aziz,

2. Söylediler, üstattır, üstat şüphesiz.

3. Yine dediler ki, aziz şüphesiz

4. Üstadın kadrine yetebilen İnsan. (Ağustos, 2002)

JANNAT QUSHI (43)

Y. Usmonovaga

1. *Jannatga yetishgan banda yayrabdi,*

2. *Ohang eshitilmish dastavval unga.*

3. *Bugun bog‘imizda bulbul sayrabdi,*

4. *Tegmangiz loaqal siz shunga...*

5. *Mayli, u to‘ygancha taratsin ohang,*

6. *Tegmangiz, muxlislar, tegmang, darg‘alar!*

7. *Axir quloqlarni qilgandi batang*

8. *Qag‘illayverishib qarg‘alar...*

CENNET KUŞU (43)

Y. Osmanova’ya

1. Cennete erişen köle hoşlandı,

2. Ezgi dinletilmiş öncelikle ona.

3. Bugün bağımızda bülbül ötmüş,
4. Dokunmayınız en azından siz şuna…
5. Peki, o bıkıncaya kadar yayılsın nağme,
6. Dokunmayınız, sevenler, dokunmayın, kılavuzlar!
7. Artık kulakları etmişti sağır
8. Gaklayıverip kargalar… (Ağustos, 2002)

ILTIJO (44)

1. *G‘oyatda charchadim,*
2. *Toliqdim g‘oyat,*
3. *Hisob qilaverib g‘animni, yovni.*
4. *Tirnoqcha yaxshilik tilasang, faqat,*
5. *Uka, yomonlama menga birovni.*

6. *Inson yashar axir ezgulikka zor,*
7. *Sanab yetarmi u yo‘llarda g‘ovni.*
8. *Men ham orom olay hech qursa bir bor,*
9. *Uka, yomonlama menga birovni.*

İLTİCA (44)

1. Gayet de yoruldum,
2. Tükendim gayet,
3. Hesap ediverip düşmanımı, hasmımı.
4. Tırnak kadar iyilik dilesen, sadece,
5. Kardeşim, kötüleme bana birisini.

6. İnsan yaşar artık iyiliğe muhtaç,
7. Sayıp yeter mi o yollarda engeli.
8. Ben de huzur alayım hiç yapmasa bir kez,
9. Kardeşim, kötüleme bana birisini. (Ağustos, 2002)

OSON EMAS (45)

1. *Yashash oson emas yaxshi odamga,*
2. *Aldov nimaligin bilmaydi chunki.*
3. *Go‘dak ko‘zi bilan boqar olamga,*
4. *Mudom boshqalarga bo‘ladi kulgi.*
5. *Yashash oson emas yaxshi odamga,*
6. *Chunki yomonlikdan qilar u hazar.*
7. *Yaxshining keragi kamdir olamga -*
8. *Yomonlarning dasti uzun bo‘lsa gar...*

KOLAY DEĞİL (45)

1. Yaşamak kolay değil iyi insana,
2. Sahtekârlığın ne olduğunu bilmez çünkü.
3. Bebek gözüyle bakar âleme,
4. Sürekli başkalarına olur gülüş.
5. Yaşamak kolay değil iyi insana,
6. Çünkü kötülükten durur o uzak.
7. İyinin gereği azdır âleme,
8. Kötülerin eli uzun olsa eğer… (Ağustos, 2002)

RIVOYAT (46)

1. *Bir kun xaloyiqning oldida oshkor*
2. *Muttaham o‘g‘rining qo‘lin chopdilar.*
3. *Nihoyat jazosin oldi-ku makkor!*
4. *Yig‘ilgan odamlar taskin topdilar.*
5. *O‘g‘ri-chi, atrofga boqib har nafas,*
6. *Sizning go‘lligingiz bilgandim, derdi.*
7. *O‘sha o‘g‘irlikni u qo‘lim emas,*
8. *Bunisi bilan men qilgandim, derdi.*

RİVAYET (46)

1. Bir gün halkın önünde aşikâr
2. Alçak hırsızın elini kestiler.
3. Nihayet cezasını aldı düzenbaz!
4. Toplanan insanlar teskin oldular.
5. Hırsız, etrafa bakıp her an,
6. Sizin saflığınızı anlamıştım, derdi.
7. O hırsızlığı o elimle değil,
8. Bununla ben yapmıştım, derdi. (Ağustos, 2002)

QO‘MSASH (47)

1. *Oh, yaxshi kunlarim,*
2. *Sizni qo‘msayman.*
3. *Siz endi bolamning o‘yisiz.*
4. *Oh, yaxshi kunlarim,*
5. *Sizni qo‘msayman.*
6. *Siz endi nabiram to‘yisiz.*
7. *Oh, yaxshi kunlarim,*
8. *Sizni qo‘msayman.*
9. *Siz endi ertaga salomim.*
10. *Oh, yaxshi kunlarim,*
11. *Sizni qo‘msayman.*
12. *Siz balki qolajak kalomim...*

ÖZLEMEK (47)

1. Ah, iyi günlerim,
2. Sizi özlerim.
3. Siz şimdi çocuğumun düşüncesisiniz.
4. Ah, iyi günlerim,

5. Sizi özlerim.

6. Siz şimdi torunumun toyusunuz.

7. Ah, iyi günlerim,

8. Sizi özlerim.

9. Siz şimdi yarına selamım.

10. Ah, iyi günlerim,

11. Sizi özlerim.

12. Siz belki kalacak kelamım… (Ağustos, 2002)

TOSHKENTIM (48)

1. *Istiqlol shavqida jo‘shgan Toshkentim,*

2. *Yurtboshim nazari tushgan Toshkentim.*

3. *Tongda salom bilan balqadi quyosh,*

4. *Unga peshvoz chiqar avval ko‘hna Shosh.*

5. *Buyuk koshonalar, keng, ravon yo‘llar,*

6. *Chamanzor bog‘larim, favvora, ko‘llar.*

7. *Mangu charaqlagay jamoling sening,*

8. *Yurtim kamolidir kamoling sening.*

9. *Istiqlol shavqida jo‘shgan Toshkentim,*

10.*Yurtboshim nazari tushgan Toshkentim.*

TAŞKENT’İM (48)

1. İstiklal şevkinde coşan Taşkent’im,

2. Yurtbaşımın bakışı düşen Taşkent’im.

3. Şafakta selamla parladı güneş,

4. Onu karşılar evvel köhne Şaş.

5. Büyük saraylar, geniş, düz yollar,

6. Çimenlik bağlarım, çeşmeler, göller.

7. Ebedî ışık saçsın cemalin senin,

8. Yurdum kemalidir kemalin senin.

9. İstiklal şevkinde coşan Taşkent'im,

10. Yurtbaşımın bakışı düşen Taşkent'im. (Ağustos, 2002)

"TOSHKENTIM, TOSHKENTIM, ONAJON…" (49)

1. *Toshkentim, Toshkentim, Onajon,*

2. *Ellarga mehribon, jonajon.*

3. *O'zbegim faxrisan, Poytaxtim,*

4. *Ma'rifat, ziyoga boy taxtim.*

5. *Naqorat:*

6. *Qadimiy Shosh shahrim,*

7. *Yurtimda bosh shahrim.*

8. *Istiqlol yo'lida*

9. *Dovonlar osh, shahrim.*

10. *Sen ulug' ajdodlar makoni,*

11. *Ozod, tinch avlodlar oshyoni,*

12. *Mehmondo'st xalqimning shonisan,*

13. *Tabarruk Toshkentim nonisan.*

14. *Naqorat:*

15.*Daryodek jo‘sh urgan ko‘chalar,*

16.*Charog‘on yulduzli kechalar.*

17.*San’atim, nurafshon peshonam,*

18.*Sen o‘zing eng oliy koshonam.*

“TAŞKENT’İM, TAŞKENT’İM, ANACIĞIM…” (49)

1. Taşkent’im, Taşkent’im, Anacığım,

2. Halklara şefkatli, sevgili.

3. Özbek’imin onurusun, Başkentim,

4. Marifet, ziyaya zengin tahtım.

5. Nakarat:

6. Kadimî Şaş şehrim,

7. Yurdumda baş şehrim.

8. İstiklal yolunda

9. Geçitler aş, şehrim.

10. Sen ulu ecdatlar mekânı,

11.Özgür, sessiz evlatlar aşiyanı,

12. Misafirperver halkımın şanısın,

13.Mübarek Taşkent’imin ekmeğisin.

14. Nakarat:

15. Derya gibi dolup taşan sokaklar,

16.Işıltılı yıldızlı geceler.

17. Sanatım, parlak alnım,

18. Sen kendin en yüce sarayım. (Ağustos, 2002)

BU YO‘LLAR (50)

1. *Boshi, oxiri bor har qanday yo‘lning,*

2. *Bu yo‘llarning esa adog‘i bo‘lmas.*

3. *Ezgu niyatlarga oshno har dilning*

4. *Yo‘lini Allohim o‘zi bergay, bas!*

5. *Bu yo‘llar taratgay O‘zbekning shonin,*
6. *Necha manzillarda mash’al yoqqaydir.*
7. *Bu yo‘llar... Aylanib hali, dunyoning*
8. *Chakkasiga gullar taqqaydir!*

BU YOLLAR (50)

1. Başı, sonu var her nasılsa yolun,
2. Bu yolların ise sonu olmaz.
3. İyi niyetlere aşina her gönlün
4. Yolunu Allah’ım kendisi versin, yeter!

5. Bu yollar yaysın Özbek’in şanını,
6. Nice menzillerde meşale yakacaktır.
7. Bu yolar… Dönüp hâlâ, dünyanın
8. Şakağına güller takacaktır! (23 Ağustos 2002)

BO‘LDILO (51)

1. *Dedim: Yoshligimni qaytib ber, zamon,*
2. *Dedi: U gullaring payhon bo‘ldilo.*
3. *Dedim: Tik qilsang-chi qaddimni, davron,*
4. *Dedi: U tog‘laring sayhon bo‘ldilo.*

5. *Falakka yetmadi chekkan unlarim,*
6. *Tiyra kunduzlarim, qora tunlarim,*
7. *Baxtiyor, bearmon kechgan kunlarim*
8. *Endi tutqich bermas jayron bo‘ldilo.*

9. *Yillar jarohatin bormi davosi,*
10.*Bormikan Luqmoni, bormi Sinosi.*
11.*Muhabbat mulkining nozik binosi*
12.*Hijron seli ila vayron bo‘ldilo.*

13.*Baxtga zor bo‘lsam-da kuyladim baxtni,*
14.*Sarobga termulib, boy berdim naqdni.*
15.*Gohida somondek sovurdim vaqtni,*
16.*Ko‘rganlar tamomi hayron bo‘ldilo.*

17.*Suv izlab, qumlarga duch keldim ba’zan,*
18.*Madad berolmadim do‘stga daf’atan.*
19.*Yovlarim qurshadi misoli tikan,*
20.*Ne-ne orzularim armon bo‘ldilo.*

21.*Bu foniy dunyoda men ham bir sayyoh,*
22.*Gohida shoshildim, shoshiltirdim goh,*
23.*Asl manzil ekan u Oliy dargoh,*
24.*Qolgani shunchaki sayron bo‘ldilo.*

OLDU YA (51)

1. Dedim: gençliğimi dönüp ver, zaman,
2. Dedi: O güllerin çiğnendi ya.
3. Dedim: Dik atsan adımını, devran,
4. Dedi: O dağların kayran oldu ya.

5. Feleğe erişmedi ettiğim feryatlarım,
6. Kara gündüzlerim, kara gecelerim,
7. Bahtiyar, ukdesiz geçen günlerim
8. Şimdi el vermez ceylan oldu ya.

9. Yıllar yarasının var mı devası,
10. Var mıymış Lokman'ı, var mı Sinası.
11. Muhabbet mülkünün nazik binası
12. Hicran seli ile viran oldu ya.

13. Bahta muhtaç olsam överim bahtımı,
14. Seraba gözümü dikip, kaybettim nakdimi,
15. Bazen saman gibi savurdum vaktimi,
16.Görmüşler tamamı hayret etti ya.

17. Su arayıp, kumlara rastladım bazen,
18. Yardım edemedim dosta ansızın.
19.Düşmanlarım kuşattı misali diken,
20. Pek çok arzum ukde kaldı ya.

21. Bu fani dünyada ben de bir seyyah,
22.Gâh acele ettim, acele ettirdim Gâh,
23. Asıl menzil imiş o Yüce dergâh,
24. Kaldığı öylesine seyran oldu ya. (Eylül, 2002)

ADOLAT KO'ZGUSI (52)

1. *O'ltirgan joyingda sakrayverma, bas,*
2. *Jimgina orom ol topgan arshingda.*
3. *Qancha buyuklikni qilmagil havas*
4. *Adolat ko'zgusi turar qarshingda.*

5. *Garchi barchamizga taqdir hukmron,*
6. *Garchi teng qoshida chinordir, xasdir,*

7. *Pushkin atalmagay har bitta qurbon,*

8. *Har bir qamalgan ham Cho‘lpon emasdir...*

ADALET AYNASI (52)

1. Öldürdüğün yerinde atlayıverme, yeter,

2. Sessizce huzur bulmuş arşında.

3. Nice büyüklüğü etme hevese

4. Adalet aynası durur karşında.

5. Gerçi hepimize takdir hükümran,

6. Gerçi eşit önünde çınardır, kuru ottur,

7. Puşkin diye ad almayacak her bir kurban,

8. Her bir tutuklanan da Çolpan değildir… (Eylül, 2002)

YUPANCH (53)

1. *Bechoraman, deya o‘kinma, inim,*

2. *Senga o‘xshaganlar dunyoda bisyor.*

3. *Bir parcha non uchun, o‘tsin deb kunim,*

4. *Tomirdan qonini berguvchilar bor.*

5. *Baxtiyor zotlar ham mavjuddir, biroq,*

6. *Ular ham tiriklik ovorasidir.*

7. *Zimdan nazar solsang, shu yer - dumaloq-*

8. *Asli bechoralar sayyorasidir.*

TESELLİ (53)

1. Biçareyim, diye üzülme, kardeşim,

2. Sana benzeyenler dünyada çok.

3. Bir parça ekmek için, geçsin diye günüm,

4. Damardan kanını vericiler var.

5. Bahtiyar zatlar da mevcuttur, fakat,
6. Onlar da hayat avaresidir.
7. Gizlice bakış atsan, bu yer, yuvarlak,
8. Aslında biçareler seyyaresidir. (Eylül, 2002)

MUTOYIBA (54)

1. *Dunyo keng, shataloq otish mumkindir,*
2. *Yoki xarsangtoshday yotish mumkindir.*
3. *Esirgap aytgandek, haqiqiy do‘stni*
4. *Sotib olib bo‘lmas, sotish mumkindir.*

ŞAKALAŞMA (54)

1. Dünya geniş, tepinmek mümkündür,
2. Yahut taş gibi yatmak mümkündür.
3. Esirgep’in dediği gibi, hakiki dostunu
4. Satın almak olmaz, satmak mümkündür. (Eylül, 2002)

SHE’R (55)

1. *To‘y qil, oshingga ham she’r yozilgaydir,*
2. *To‘lgan yoshingga ham she’r yozilgaydir.*
3. *Sen she’rga bepisand boqma, ey nodon,*
4. *O‘lsang toshingga ham she’r yozilgaydir.*

ŞİİR (55)

1. Toy kıl, aşına da şiir yazılacaktır,
2. Dolan gözyaşına da şiir yazılacaktır.
3. Sen şiire şartsız bakma, ey cahil,

4. Ölsen taşına da şiir yazılacaktır. (Eylül, 2002)

MUALLIM (56)

1. *Shoirga dedilar:*

2. *- Siz baxtli inson,*

3. *Xalqingiz ardoqlar, hamma taniydi.*

4. *Shoir javob qildi:*

5. *- Menda bir armon:*

6. *Muallim desalar meni qaniydi!*

MUALLİM (56)

1. Şaire dediler:

2. - Siz bahtlı insan,

3. Halkınız hürmet eder, hepsi tanır.

4. Şair cevap verdi:

5. - Bende bir ukde:

6. Muallim deseler bana nerededir! (30 Eylül 2002)

O‘GIT (57)

1. *Mana, o‘tib olding asal oyidan,*

2. *Endi suv ichgaysan turmush soyidan.*

3. *Yetti o‘lchab bir kes, yetmish o‘lchab kes,*

4. *Lekin kes, Yoshulli aytgan joyidan.*

ÖĞÜT (57)

1. İşte, geçip aldın balayından,

2. Şimdi su içeceksin, hayat deresinden.

3. Yedi ölçüp bir kes, yetmiş ölçüp kes,

4. Lakin kes, Yoshulli’nin dediği yerinden. (1 Ekim 2002)

OMAD (58)

1. *Shogird xitob qildi ustozga harab:*

2. *- Omadim kelmaydi sira, vo ajab!*

3. *Ustoz javob qildi: - Siz ko‘p, omad oz,*

4. *Hammaga yetmaydi omad. Shu sabab.*

ŞANS (58)

1. Şakirt hitap etti üstada harap:

2. - İşim rast gitmez asla, garip!

3. Üstat cevap verdi: - Siz çok, şans az,

4. Herkese yetmez şans. Bu sebep. (1 Ekim 2002)

SAVOB (59)

1. *Savobdir, jilg‘aga soysan, deb aytsang,*

2. *Yo xunuk ayolga oysan, deb aytsang.*

3. *Boyni kambag‘al de, xursand bo‘ladi,*

4. *Kambag‘alga esa boysan, deb aytsang.*

SEVAP (59)

1. Sevaptır, dereye deresin, diye desen,

2. Yahut çirkin kadına aysın, diye desen.

3. Zengine fakir de, memnun olur,

4. Fakire ise zenginsin, diye desen. (10 Ekim 2002)

JANNAT (60)

1. *Ko‘zlaring tubidan topdim men makon,*

2. *Kipriklaring bo‘ldi panjarasimon.*

3. *Bul ajib jannatga noil bo‘lganning*

4. *Haqqiga lablaring o‘qirdi Qur’on.*

CENNET (60)

1. Gözlerinin dibinden buldum ben mekân,

2. Kirpiklerin oldu pencere gibi.

3. Bu muhteşem cennete nail olanın

4. Hakkına dudakların okurdu Kur’an. (12 Ekim 2002)

ARMON (61)

1. *Bir do‘stim der edi: - Garchi qornim to‘q,*

2. *Bir inson umrini yashadim to‘liq.*

3. *Ko‘rdim boylikni ham, martabani ham,*

4. *Lekin o‘z uyimda kun ko‘rganim yo‘q.*

UKDE (61)

1. Bir dostum der idi: - Gerçi karnım tok,

2. Bir insan ömrünü yaşadım dolu.

3. Gördüm zenginliği de, mertebeyi de,

4. Lakin kendi evimde gün gördüğüm yok. (12 Ekim 2002)

INSON (62)

1. *Biring yulduzlarni ko‘zlaysan Inson,*

2. *Biring mangulikka bitasan doston.*

3. *Biring tor ko‘chaga nomim qo‘yay deb,*

4. *Yelib-yugurasan, erta-kech sarson.*

İNSAN (62)

1. Birinin yıldızlarını gözlersen İnsan,
2. Birinin ebedîliğine yazarsın destan.
3. Birinin dar sokağına ismim koyayım diye,
4. Esip koşarsın, gece ve gündüz avare. (14 Ekim 2002)

XALQ (63)

1. *Dunyoda mantiqsiz hech ish bo‘lmaydi,*
2. *Tomchi yig‘ilmasa jom ham to‘lmaydi.*
3. *Biz tomchi erurmiz, xalq esa ummon,*
4. *Xalq o‘lmas, tomchi ham demak, o‘lmaydi!*

HALK (63)

1. Dünyada mantıksız hiç iş olmaz,
2. Damla birikmese tas da dolmaz.
3. Biz damlayız, halk ise umman,
4. Halk ölmez, damla da demek, ölmez! (16 Ekim 2002)

QADR (64)

1. *Yaxshilarni o‘tqaz uyning to‘riga,*
2. *Tan ber, insonlarning asl - zo‘riga.*
3. *Va lekin hech qachon topshira ko‘rma,*
4. *Dononi nodonga, qo‘yni bo‘riga.*

KADİR (64)

1. İyileri geçir evinin ağına,
2. Takdir et, insanların asıl gücüne.
3. Velakin hiçbir zaman vermeye görme,
4. Bilgeyi cahile, koyunu kurda. (21 Ekim 2002)

XUSUMAT (65)

1. *Ko‘rolmasang birovni suviga band bergaysan,*

2. *Zahar solib oshiga yoviga qand bergaysan.*

3. *Ko‘rolmasang podshohni kamsitgaysan yurtin ham,*

4. *Chavandozni ko‘rolmay otiga pand bergaysan!*

HUSUMET (65)

1. Göremesem birini suyuna el ver,
2. Zehir koyup aşına hasmına şeker vereceksin.
3. Göremesen padişahı küçümseyeceksin yurdunu da,
4. Atlıyı göremeden atına öğüt ver! (21 Ekim 2002)

QIYOFA (66)

1. *Ko‘ringay dunyo bor qiyofasida:*
2. *Goh sichqon, gohi mor qiyofasida.*
3. *Lekin taajjubki, Azroyil gohi,*
4. *Ko‘ringay shifokor qiyofasida.*

KILIK (66)

1. Görünsün dünya tüm kılığında:
2. Gâh fare, gâh yılan kılığında.
3. Lakin hayret ki; Azrail bazen,
4. Görünsün şifakâr kılığında. (27 Ekim 2002)

XATOLIK (67)

1. *Odam quchdi bir kun Shayton - jononni,*
2. *Bu hol xursand qildi har ikkovlonni.*

3. *Shayton der: Odamni yo‘ldan urdim-ku,*

4. *Odam der: Ko‘rmovdim faqat shaytonni.*

YANILGI (67)

1. İnsanı kandırdı bir gün Şeytan, güzelce,

2. Bu hâl memnun etti her ikisini de.

3. Şeytan der: İnsanı yoldan çıkardım,

4. İnsan der: Gördüm sadece şeytanı. (28 Ekim 2002)

SHAYTON (68)

1. *Shayton - shayton edi, tekkandi jonga,*

2. *Odam Ato tutib tiqdi qozonga.*

3. *So‘ng rosa qovurdi, yeb ham tugatdi,*

4. *Shayton shod, kirgandi u endi qonga!*

ŞEYTAN (68)

1. Şeytan, şeytan idi, değmişti cana,

2. Âdem Baba tutup tıktı kazana.

3. Sonra epey kavurdu, yiyip de bitirdi,

4. Şeytan mutlu, girmişti o şimdi kana! (30 Ekim 2002)

VAQT (69)

1. *Suv kelayotir, dedi bitta nabiram,*

2. *Suv ketayotir, dedi boshqasi shu dam.*

3. *Men ular fikriga bir so‘z demadim,*

4. *Chunki, haq edi-da, ikkalasi ham.*

VAKİT (69)

1. Su geliyor, dedi bir torunum,
2. Su gidiyor, dedi diğeri o an.
3. Ben onların fikrine bir söz etmedim,
4. Çünkü hak idi, her ikisi de. (31 Ekim 2002)

OQSAROY (70)

1. *Qancha jahongirlar izsiz yo‘qoldi,*
2. *Moziy barchasini bag‘riga oldi.*
3. *Niyati oq ekan Sohibqironning,*
4. *Undan mangu yodgor - Oqsaroy qoldi.*

AKSARAY (70)

1. Nice cihangirler izsiz kayboldu,
2. Mazi hepsini bağrına bastı.
3. Niyeti ak imiş Sâhipkıran'ın,
4. Ondan ebedî yadigâr, Aksaray kaldı. (1 Kasım 2002)

EPIGRAMMA (71)

1. *U hamma-hammaning tekkan joniga,*
2. *Zaqqum singib ketgan butkul qoniga.*
3. *Undan hazar qilar hatto ajal ham,*
4. *Chaqirsa kuchuk ham kelmas yoniga.*

EPİGRAM (71)

1. O her birinin değdiği canına,
2. Zakkum sinmiş büsbütün kanına.
3. Ondan uzak durur hatta ecel de,
4. Çağırsa köpek de gelmez yanına. (12 Kasım 2002)

YOLG‘ON (72)

1. *Avval hilol bo‘lib ko‘rindi Yolg‘on,*

2. *So‘ngra quloch yozdi ulkan yoysimon.*

3. *Rosa kuchga kirib to‘lin oy bo‘lgach,*

4. *Dunyoni Yolg‘on deb ayladi e’lon.*

YALAN (72)

1. Evvel hilal olup göründü Yalan,

2. Sonra kulaç açtı kocaman yay gibi.

3. Hayli büyüyüp dolunay olunca,

4. Dünyayı Yalan diye etti ilan. (14 Kasım 2002)

SO‘QMOQ (73)

1. *So‘qmoqqa bepisand boqma, ey o‘g‘lon,*

2. *Ajina yo‘li deb qilmagil gumon.*

3. *Nainki shoqollar o‘tgaydir bundan,*

4. *Arslon ham o‘tgaydir gohi-gohi on.*

HAYAT YOLU (73)

1. Hayat yoluna şartsız bakma, ey oğlan,

2. Cin yolu diye etme şüphe.

3. Bundan başka çakallar geçecektir buradan,

4. Aslan da geçecektir bazı bazı an. (16 Kasım 2002)

LAYLATUL-QADR (74)

1. *Qadr kechasida jami musulmon,*

2. *Alloh mujdasiga ko‘z tikar giryon.*

3. *Har yili bir bora yuz bersa hamki,*

4. *Men uni kutgayman har tun nigoron.*

KADİR GECESİ (74)

1. Kadir gecesinde tüm Müslümanlar,
2. Allah'ın müjdesine bakar gözü yaşlı.
3. Her yıl bir kez gerçekleşse de,
4. Ben onu bekleyeceğim her gece arzulu. (2 Aralık 2002)

JUMBOQ (75)

1. *Qadim donishmandlar demishlar bundoq:*
2. *- Uch odamning biri Xizr erur, boq.*
3. *Men-ku ishonaman, Xizrdir biri,*
4. *Qolgan ikkovi kim? Bunisi jumboq!*

BİLMECE (75)

1. Eski bilgeler demişler böyle:
2. - Üç adamdan biri Hızır'dır, bak.
3. Ben inanırım ya, Hızır'dır biri,
4. Kalan ikisi kim? Burası bilmece! (2 Aralık 2002)

SOVG'A (76)

1. *Shamol esar edi to'xtamay qirdan,*
2. *Odam ham uchardi ildamroq nurdan.*
3. *Sizga bir sovg'am bor degandim, ajab,*
4. *Ular ikkisi ham to'xtadi birdan!*

HEDİYE (76)

1. Rüzgâr eser idi durmadan kırdan,

2. İnsan da uçardı daha hızlı ışıktan.
3. Size bir hediyem var demiştim, muhteşem,
4. Onlar ikisi de durdu birden! (Aralık, 2002)

AFANDI (77)

1. *- Qo‘y yetaklab o‘tdi-ku birov,*
2. *- Menga nima, dedi Afandi.*
3. *- Siznikiga qarab ketdiyov,*
4. *- Senga nima, dedi Afandi.*

NASREDDİN HOCA (77)

1. - Koyun tutup gitti birisi,
2. - Bana ne, dedi Nasreddin hoca.
3. - Sizinkine doğru gitti ya,
4. - Sana ne, dedi Nasreddin hoca. (16 Aralık 2002)

ILTIJO (78)

1. *Dunyodan o‘tarkan ulug‘ bir daho,*
2. *Xudoga so‘nggi bor qildi iltijo:*
3. *- Mendan so‘ng nomimni biror zuryodim*
4. *Pesh qilib yurmasa bo‘ldi, Iloho!*

İLTİCA (78)

1. Dünyadan geçerken ulu bir deha,
2. Hüda’ya son kez etti niyaz:
3. - Benden sonra adımı bir evladım
4. Kibirlenip yürümese oldu, Allah’a! (20 Aralık 2002)

TILAK (79)

1. *Tangrim, har bandangga o‘zing qil shafqat,*

2. *Jismiga quvvat ber, ruhiga rag‘bat.*

3. *Axir nimalarni orzu qilmas u,*

4. *Faqat ezgulikka yo‘l bergin, faqat.*

DİLEK (79)

1. Tanrı’m, her kuluna kendin et şefkat,

2. Cismine kuvvet ver, ruhuna rağbet.

3. Artık neleri arzu etmez o,

4. Sadece iyiliğe yol ver, sadece. (31 Aralık 2002)

G‘ALATI MANTIQ (80)

1. *Ajal kelsa ne diydalar*

2. *Yoshlanadi.*

3. *Xonadonda g‘am-tashvishlar*

4. *Boshlanadi.*

5. *Qabristonning g‘alvasin-ku*

6. *Qo‘yaturing.*

7. *Zudlik bilan ko‘chasini*

8. *Qayta quring.*

9. *Anov eski simyog‘ochni*

10. *Bo‘yash kerak.*

11. *Kesing darrov, ko‘rinmasin*

12. *Manov terak.*

13. *O‘ydim-chuqur yo‘llarni tez*

14. *Asfal’t qiling.*

15. *Janozaga axir kimlar*

16. *Kelar, biling!..*

17. *Bunday chog‘da hamma totuv,*

18. *Esh bo‘ladi.*

19. *Bir kechada hamma ishlar*

20. *Besh bo‘ladi.*

21. *Voqealar birdaniga*

22. *Evrilsaydi.*

23. *Sho‘rlik marhum bir fursatga*

24. *Tirilsaydi.*

25. *Ko‘rar edi, mahallasi*

26. *Nechog‘ to‘kis.*

27. *Ko‘chasi ham binoyidek,*

28. *Ravon, tekis.*

29. *Holbuki, u shu yo‘llardan*

30. *O‘tgandi-ku.*

31. *Qish-qirovda avtobus ham*

32. *Kutgandi-ku.*

33. *Bosim oshib, ko‘zlari ham*

34. *Tingan edi.*

35. *Yaxda toyib, oyog‘i ham*

36. *Singan edi.*

37. *Yo‘l tuzaldi, biroq marhum*

38. *Yurmay ketdi.*

39. *Tirigida bu hurmatni*

40. *Ko‘rmay ketdi.*

41. *Gaplarimdan boshqa ma’no*

42. *Axtarmangiz.*

43. *Yo‘qni boru, borni yo‘q ham*

44. *Demang hargiz.*

45. *Bunday holga na yig‘lab, na*

46. *Kulish kerak.*

47. *Nahot bir ish bitish uchun*

48. *O‘lish kerak.*

İLGİNÇ MANTIK (80)

1. Ecel gelse ne gözler
2. Yaşlanır.
3. Ailede kaygı tasalar
4. Başlar.
5. Kabristanın kargaşasını
6. Bırakadurun.
7. Alelacele sokağını
8. Tekrar kurun.
9. O eski tel ağacı
10. Boyamak gerek.
11. Kesin hemen, görünmesin
12. Şu kavak.
13. Engebeli yolları hemen
14. Asfalt yapın.
15. Cenazeye artık kimler
16. Gelir, bilin!
17. Böyle anda bütün dostane,
18. Eş olur.
19. Bir gecede bütün işler
20. Çok olur.
21. Vakalar bir kerede
22. Evrilseydi.
23. Bahtsız merhum bir vakte
24. Dirilseydi.
25. Görür idi, mahallesi
26. Ne kadar mükemmel.
27. Sokağı da bina gibi,
28. Pürüzsüz, düz.
29. Hâlbuki o bu yollardan
30. Geçmişti.
31. Kış kırağıda otobüs de
32. Beklemişti.

33. Devamlı aşıp, gözleri de
34. Durgunlaşmıştı.
35. Buzda kayıp, ayağı da
36.Kırılmıştı.
37. Yol düzeldi, fakat merhum
38.Yürümeden gitti.
39. Dirisinde bu hürmeti
40.Görmeden gitti.
41.Sözlerimde başka mana
42. Aramayınız.
43. Yoğa var, vara yok da
44. Demeyin asla.
45.Böyle hâle ne ağlayıp, ne
46.Gülmek gerek.
47. Bir iş bitmesi için mi
48.Ölmek gerek. (Aralık, 2002)

DA'VO (81)

1. *Bir shapaloq urdi gadoni gado,*
2. *- Ismim Xudo, - dedi, - qilaber da'vo.*
3. *Da'vogar qoziga dod solib bordi:*
4. *- Meni Xudo urdi, urdi-ku xudo!*

DAVA (81)

1. Bir tokat attı, fakire fakir,
2. - İsmim Hüda, dedi, ediver dava.
3. Davacı kadıya feryat edip gitti:
4. - Beni Hüda çarptı, çarptı Hüda! (6 Ocak 2003)

MEHR (82)

1. *Mayli, go‘zallikka bitaylik doston,*

2. *Mayli, muhabbatga fido bo‘lsin jon.*

3. *Lekin jindek mehr ko‘rgazsa yoring,*

4. *Ularning baridan afzaldir, ishon!*

ŞEFKAT (82)

1. Olsun, güzelliğe yazalım destan,

2. Olsun, muhabbete feda olsun can.

3. Ama cin gibi şefkat gösterse yârin,

4. Onların hepsinden efdaldir, inan! (6 Ocak 2003)

DUNYO (83)

1. *Uchrashdi jahonning ikki zo‘r piri,*

2. *Ularni qiynardi dunyoning siri.*

3. *Biri yig‘lab derdi: - Uni tushundim,*

4. *- Tushunmadim, - deya yig‘lardi biri.*

DÜNYA (83)

1. Karşılaştı cihanın iki güçlü piri,

2. Onlara eziyet ederdi dünyanın sırrı.

3. Biri ağlayıp derdi: - Onu anladım,

4. - Anlamadım, diye ağlardı biri. (10 Ocak 2003)

POSBON (84)

1. *O‘g‘lim, haq deganni qo‘llagil faqat,*

2. *Parvoz qilar bo‘lsa - osmoni bo‘lgil.*

3. *Yovuzlikka qarshi qudrating ko‘rsat,*

4. *Mudom ezgulikning posboni bo‘lgil.*

MUHAFIZ (84)

1. Oğlum, hak dediğini gözet sadece,
2. Pervaz ederse, asumanı ol.
3. Kötülüğe karşı kudretini göster,
4. Sürekli iyiliğin muhafızı ol. (13 Ocak 2003)

DIALEKTIKA (85)

1. *Har ish bir-biriga bog‘liq tuyulgay,*
2. *Agar yerni o‘ysang - tuproq uyulgay.*
3. *Sening qovog‘ingdan qor yog‘sa agar,*
4. *Mening ko‘zlarimdan yomg‘ir quyulgay.*

DİYALEKTİK (85)

1. Her iş birbirine bağlı gibi görünsün,
2. Eğer toprağı düşünsen, toprak yığılsın.
3. Senin saçının teline zarar gelirse eğer,
4. Benim gözlerimden yağmur dökülsün. (20 Ocak 2003)

HIKMAT (86)

1. *Shundoq hikmat bilan go‘zaldir hayot:*
2. *Har kimga niyati bo‘lgaydir qanot.*
3. *Mehru muhabbatga loyiqdir asli -*
4. *Mehru muhabbatni qadrlagan zot!*

HİKMET (86)

1. Böyle hikmetle güzeldir hayat:
2. Herkese niyeti olacaktır kanat.
3. Şefkat ve muhabbete layıktır aslı,

4. Şefkat ve muhabbete değer veren zat! (20 Ocak 2003)

QARZ (87)

1. *Dilingga joylab ol ushbu kalomni:*
2. *Vaqtida uzib qo‘y qarzu salomni,*
3. *Toki, ajring so‘rab bolang bir umr -*
4. *Yetaklab yurmasin domla Imomni.*

BORÇ (87)

1. Gönlüne yerleşip al bu kelamı:
2. Vaktinde kesip bırak borç ve selamı,
3. Ta, ecrini sorup evladın bir ömür
4. Başı olup yürümesin hoca İmam’ı. (23 Ocak 2003)

KAROMAT (88)

1. *Quduqda suv aziz, tandirdachi - non,*
2. *Tog‘larning bisoti necha-necha kon.*
3. *Bel bog‘lab maydonga chiqdingmi, endi*
4. *Sen ham bir karomat ko‘rsat, ey o‘g‘lon!*

KERAMET (88)

1. Kuyuda su aziz, tandırda ekmek,
2. Dağların serveti birçok maden.
3. İşe koyulup meydana çıktın mı, şimdi
4. Sen de bir keramet göster, ey oğlan! (6 Ocak 2003)

BUYUKLIK (89)

1. *Tavob qil, mayliga, yaxshilar izin,*

2. *Lekin, yet qadriga buyuklik so‘zin.*

3. *Kimnidir elu yurt boshga ko‘targay,*

4. *Buyuklar ko‘targay el-yurtning o‘zin!*

BÜYÜKLÜK (89)

1. Tavaf et, iyiler izini,

2. Ama et kadrine büyüklük sözünü.

3. Kimi halk ve yurt başa kaldırsın,

4. Büyükler kaldırsın halk yurdun özünü! (29 Ocak 2003)

NUSXA (90)

1. *Qaysi joyda ko‘rsatmasin qorasini,*

2. *Buzadi u odamlarning orasini.*

3. *Qochgandanku bir nimani yulib olar,*

4. *Quvgandan ham talab qilar porasini.*

NÜSHA (90)

1. Hangi yerde göstermesin kendisini,

2. Bozar o insanların arasını.

3. Kaçandan bir şeyi koparıp alır,

4. Kovalayandan da talep eder rüşvetini. (9 Mart 2003)

JUMBOQ (91)

1. *Tiklanish bir yonda, nurash bir yonda,*

2. *Javob bir yonda-yu so‘rash bir yonda.*

3. *Bu ko‘hna dunyoni tinch ko‘rmadim hech,*

4. *Ahillik bir yonda, kurash bir yonda.*

BİLMECE (91)

1. Kurulmak bir yanda, ayrılmak bir yanda,
2. Cevap bir yanda ve sormak bir yanda.
3. Bu köhne dünyayı dinç görmedim hiç,
4. Anlaşma bir yanda, savaş bir yanda. (29 Şubat 2003)

ISM (92)

1. *Ismda nima ayb, bir aravakash,*
2. *Bolalarin to‘plab, koyirdi yakkash:*
3. *Odam bo‘lmadinga, Shohjahon o‘g‘lim,*
4. *Komron, bekorchisan, Humoyun sarkash.*

İSİM (92)

1. İsminde ne suç, bir taşıyıcı,
2. Çocuklarını toplayıp, tembihlerdi daima:
3. Adam olmadın, Şahcihan oğlum,
4. Mutlu, tembelsin, Humoyun inatçı. (15 Şubat 2003)

OLLOHNING ISHLARI (93)

1. *Ollohim gohida bolaga o‘xshash,*
2. *Sho‘xlikni yoqtirar, o‘yinqaroqdir.*
3. *Tog‘larga qarasang - kelguday to‘qnash,*
4. *Aslida yiroqdir, juda yiroqdir.*

5. *Gohida tomosha qilay deb Xalloq,*
6. *Birovning yumushin boshqaga bergay.*
7. *Chunonchi, bir erkak bo‘yasa tirnoq,*
8. *Xotini hovlida guvala tergay.*

9. *Hazili og‘ir ham bo‘lar gohi dam,*
10.*Shodlikka esh qilib yuborar kulfat.*
11.*Agar bir shahd qilsa Yaratgan Egam,*
12.*Arslonga shoqolni aylagay ulfat.*

13.*Kimning o‘z ufqida iqboli kulsa,*
14.*Masxara bo‘lmaydi o‘sha yagona.*
15.*Menga amaldorlik qancha yot bo‘lsa,*
16.*Senga shoirlik ham shuncha begona.*

ALLAH’IN İŞLERİ (93)

1. Allah’ım bazen çocuğa benzer,
2. Yaramazlığı sevdirir, şakacıdır.
3. Dağlara baksan, gelecek gibi çarpışıp,
4. Aslında uzaktır, çok uzaktır.

5. Bazen seyredeyim diye Halik,
6. Birisinin görevini başkasına versin.
7. Mesela bir erkek boyasa tırnak,
8. Hanımı avluda balçık toplasın.

9. Şakası ağır da olur bazı an,
10. Mutluluğa eş kılıp gönderir külfet.
11.Eğer bir bal yapsa yaratan Allah’ım,
12. Aslana shoqolni etsin arkadaş.

13. Kiminin kendi ufkunda ikbali gülse,
14. Alay olmaz o yegâne.
15. Bana mevki ne kadar yabancıysa,
16. Sana şairlik de o kadar yabancı. (16 Şubat 2003)

YAXSHILIK (94)

1. *Bu yorug‘ dunyoda davrini surib,*
2. *Birovga yaxshilik qilmaganlar bor.*
3. *Va lekin bir umr yaxshilik ko‘rib,*
4. *Uning nimaligin bilmaganlar bor.*

5. *Og‘ir dard chekkandim men ham bir zamon,*
6. *Begona ellarda, do‘stlardan yiroq.*
7. *Madad bergan edi ulug‘ bir inson,*
8. *Men uning siymosin unutay qandoq.*

9. *Yarqirab turibdi ko‘ksingda yulduz,*
10. *Osmondan tushmagan u ham, hoynahoy.*
11. *Kimdir sen haqingda aytdi yaxshi so‘z,*
12. *Shundan ko‘kragingda yulduz topdi joy.*

13. *Deydilar, dunyoning doim biri kam,*
14. *Yaxshilik qilish ham osonmas biroq.*
15. *Mening nazarimda, yaxshiliqdan ham,*
16. *Uning qadrin bilmoq ming bor yaxshiroq.*

İYİLİK (94)

1. Bu aydınlık dünyada devrini sürüp,
2. Birisine iyilik etmeyenler var.
3. Velakin bir ömür iyilik görüp,
4. Onun ne olduğunu bilmeyenler var.

5. Ağır dert çekmiştim ben de bir zaman,

6. Yabancı memleketlerde, dostlardan uzak.
7. Yardım etmişti yüce bir insan,
8. Ben onun simasını unutayım nasıl?

9. Parlayıp durmuştu göğsünde yıldız,
10. Asumandan inmemiş o da, belki.
11. Kim senin hakkında etti iyi söz,
12. Bundan göğsünde yıldız buldu yer.

13. Derler, dünyanın daima biri eksik,
14.İyilik etmek de kolay değil fakat.
15. Benim nazarımda, iyilikten de,
16. Onun kadrini bilmek bin kez daha iyi. (16 Şubat 2003)

BIZ (95)

1. *Matlab bir bo‘lmasa - jam bo‘lmagaymiz,*
2. *Jam bo‘lsak - boshimiz xam bo‘lmagaymiz.*
3. *Jam qilsak insofu diyonatni ham,*
4. *Dunyoda hech kimdan kam bo‘lmagaymiz.*

BİZ (95)

1. Amaç bir olmasa, toplanmayacağız,
2. Toplansak başımız da olmayacağız.
3. Toplasak insaf ve dürüstlüğü de,
4. Dünyada hiç kimseden eslik olmayacağız. (17 Şubat 2003)

SHIKOYAT (96)

1. *Bitta so‘zing bilan dunyolar bunyod,*
2. *Bitta ishorangdan hammasi barbod.*

3. *E’tibor qilmading faqat O‘zingga,*

4. *Senga bog‘liq dil ham bo‘lmadi obod.*

ŞİKÂYET (96)

1. Bir sözünle dünyalar bünyât,

2. Bir işaretinden hepsi berbat.

3. İtibar etmedin sadece Kendisine,

4. Sana bağlı gönülde olmadı abat. (2 Mart 2003)

PASTNAZAR (97)

1. *Baland bo‘lsa hamki martabang magar,*

2. *Sen elning nazdida tuban, pastnazar.*

3. *Ko‘rsang bir tangani, jondan ham kechib,*

4. *Piyoda ketgaysan Hirotga qadar.*

PARAGÖZ (97)

1. Yüksek olsa da merteben eğer,

2. Sen halkının nezdinde alçak, paragöz.

3. Görsen bir tengeyi, candan da geçip,

4. Yayan gideceksin Herat’a kadar. (2 Mart 2003)

AYOL (98)

1. *Kimdir bir yumushdan yuzini burdi,*

2. *Kimdir va’da berdi, kimdir o‘y surdi.*

3. *Ayolga ehtirom navbati yetgach,*

4. *Hamma birdaniga oyoqqa turdi.*

KADIN (98)

1. Kim bir işten yüzünü çevirdi,
2. Kimi söz verdi, kimi kafa yordu.
3. Kadına hürmet sırası gelince,
4. Herkes derhâl ayağa kalktı. (6 Mart 2003)

ONA (99)

1. *Bir umr axtardim samimiyatni*
2. *Va uni onalar ko‘zida ko‘rdim.*
3. *Zaminda kimgadir topinmoqchiydim,*
4. *Uni ham onaning o‘zida ko‘rdim.*

ANA (99)

1. Bir ömür aradım samimiyeti
2. Ve onu anaların gözünde gördüm.
3. Zeminde kime ibadet edecektim,
4. Onu da ananın özünde gördüm. (8 Mart 2003)

SHUKR (100)

1. *Jannat seni ilhaq kutib turganmas,*
2. *Do‘zax ham sen bilan, albatta, to‘lmas.*
3. *Bitta seni yutib yer ham to‘ymagay,*
4. *Endi shukr qilu yashayvergin, bas.*

ŞÜKÜR (100)

1. Cennet seni sabırla bekleyip durmuş değil,
2. Cehennem de seninle, elbette, dolmaz.
3. Bir seni yutup toprak da doymayacak,
4. Şimdi şükür ederek yaşayıver, yeter. (11 Mart 2003)

NAVRO‘Z (101)

1. *Yashadim qish faslin uzun tunida,*

2. *Ko‘rdim yorug‘likni tun yakunida.*

3. *- Jonim, Sen ham endi tarahhum ayla,*

4. *Sen ham tabassum qil Navro‘z kunida.*

NEVRUZ (101)

1. Niye kötülere dert vermez Hüda,

2. Hatta topuğuna diken girmez?

3. - Herkesin canına değen o bela,

4. Hüda derdini de reva görmez. (19 Mart 2003)

DARD (102)

1. *Nega yomonlarga dard bermas Xudo,*

2. *Hatto tovoniga tikon kirmaydi?*

3. *Hammaning joniga tekkan u balo,*

4. *Xudo dardini ham ravo ko‘rmaydi.*

DERT (102)

1. Niye kötülere dert vermez Hüda,

2. Hatta topuğuna diken girmez?

3. Herkesin başına gelen o bela,

4. Hüda derdini de reva görmez.

SABOQ (103)

1. *Dunyoning ishlari g‘alatdir, bilsang,*

2. *Seni ko‘zga ilmas - sen ko‘zga ilsang.*

3. *Yomonlik shu zahot qaytadi, ammo*

4. *Kutma javobini, yaxshilik qilsang.*

DERS (103)

1. Dünyanın işleri gariptir, bilsen,

2. Seni göze almaz, sen göze alsan.

3. Kötülük bu derhâl döner, ama

4. Bekleme cevabını, iyilik etsen. (31 Mart 2003)

OMONAT (104)

1. *Qalbingda quvonchmi yo bormi alam,*

2. *Jimgina yuraber, bildirma hech ham.*

3. *Hatto xo‘rsinsang ham to‘kilib ketar,*

4. *Omonat dunyoga tegmagin, bolam.*

EMANET (104)

1. Kalbinde sevinç yahut var mı elem,

2. Sessizce yürüyüver, bildirme hiç de.

3. Hatta iç çeksen de dökülüp gider,

4. Emanet dünyaya dokunma, evladım. (1 Nisan 2003)

ORIYAT (105)

1. *Vakillar yig‘ildi turli tomondan,*

2. *Turli irq, turli din, turli zabondan.*

3. *Yaxshini har biri meniki dedi,*

4. *Va lekin hammasi tondi yomondan.*

NAMUS (105)

1. Vekiller toplandı türlü taraftan,

2. Türlü ırk, türlü din, türlü dilden.

3. İyiye her biri benimki dedi,

4. Velakin hepsi reddetti kötüyü. (17 Nisan 2003)

TUSH (106)

1. *Gunohkor bir o‘g‘il mahzun, holi tang,*

2. *Uyqudan ko‘z ochib ingrardi arang:*

3. *- Meni o‘ylabsiz-da u dunyoda ham,*

4. *Ota, arzimasman, tushimga kirmang.*

DÜŞ (106)

1. Günahkâr bir oğul mahzun, hâli müşkül,

2. Uykudan göz açıp inlerdi güçlükle:

3. - Beni düşünmüşsünüz o dünyada da,

4. Baba, layık değilim, düşüme girmeyin. (21 Nisan 2003)

HAYOT (107)

1. *Yomon ko‘rsang hamki yo sevsang jondan,*

2. *Baribir, malomat yog‘ar har yondan.*

3. *Magar shundoq ekan, shirin so‘zingni*

4. *Ayama hech kimdan, hech bir insondan.*

HAYAT (107)

1. Kötü görsen de yahut sevsen candan,

2. Aynı, sitem yağar her yandan.

3. Meğer böyle imiş, şirin sözünü

4. Esirgeme hiç kimseden, hiçbir insandan. (5 Mayıs 2003)

XOTIRA (108)

1. *Xotira dunyoda aziz, mo‘’tabar,*

2. *U - ona, u - ustoz, u - suyuk padar.*

3. *Va lekin qimmati qolmasdi uning,*

4. *Eslaydigan zuryod bo‘lmasa agar.*

Xotira maydoni

HATIRA (108)

1. Hatıra dünyada aziz, muteber,

2. O, ana, o, üstat, o, sevgili peder.

3. Velakin kıymeti kalmazdı onun,

4. Hatırlayan çocuk olmasa eğer. (9 Mayıs 2003)

Hatıra Meydanı

BUTUNLIK (109)

Noshir Rustam akaga

1. *O‘choqdagi o‘tin - o‘sha o‘tindir,*

2. *O‘sha-o‘sha olov, o‘sha tutundir.*

3. *Izlama dunyoda bag‘ri butunni,*

4. *Tug‘ilmaganlarning bag‘ri butundir.*

BÜTÜNLÜK (109)

Naşir Rüstem Abi’ye

1. Ocaktaki odun, o odundur,

2. Hep aynı ateş, o dumandır.

3. Arama dünyada bağrı bütünü,

4. Doğmayanların bağrı bütündür. (15 Mayıs 2003)

MEHMON (110)

1. *Afandi bir kuni bordi mehmonga,*

2. *Ajoyib uy ekan, xush yoqdi jonga.*

3. *So‘ngra to‘rga o‘tib, yotib oldiyu:*

4. *- Endi men ketmayman! - dedi mezbonga.*

MİSAFİR (110)

1. Efendi bir gün gitti misafirliğe,

2. İlginç ev imiş, hoşuna gitti canının.

3. Sonra başköşeye geçip, yattı ve:

4. - Şimdi ben gitmeyeceğim! dedi ev sahibine. (20 Mayıs 2003)

HASSA (111)

1. *Osmon ulkanlashdi, kichraydi jussam,*

2. *Shodlik - bir daqiqa, uzundir g‘ussam.*

3. *Umr so‘qmog‘ida toshlarga tegib,*

4. *Kunba-kun qisqarib bormoqda hassam.*

BASTON (111)

1. Asuman yükseldi, küçüldü cüssem,

2. Mutluluk, bir dakika, uzundur kederdim.

3. Ömür yolunda taşlara değip,

4. Günbegün kısalıp gitmekte bastonum. (2 Haziran 2003)

YAPON OHANGLARI

YAPON (112)

1. *Boshimda do‘ppiyu, egnimda chopon,*

2. *Mehmon bo‘lib keldim, men senga yapon.*

3. *Sake sharobingdan bir qultum yutdim,*

4. *Oroldan orolga sakradim, o‘tdim.*

5. *Yaponcha salom bu - qaddim - toki yo*

6. *Senga ehtiromim bo‘lsin, Tokio.*

7. *Sayr etdim Kioto ko‘chalarida,*

8. *O‘y surdim yomg‘irli kechalarida.*

9. *Qadrdon ko‘rinding menga chindan ham,*

10.*Kamtarin tog‘amday yo mushfiq xolam.*

11.*Ixcham qadamlaring, qisiq ko‘zlaring.*

12.*Buncha dilga yaqin o‘g‘il-qizlaring.*

13.*Sira parvo qilmay o‘tar umrga,*

14.*Jon berib turibsan toshga, temirga.*

15.*Rulsiz mashinada asra omonda,*

16.*(Haydovchi o‘ltirar boshqa tomonda.)*

17.*So‘rayman o‘rtaga qo‘yib vijdonni:*

18.*Sen qanday zabt etding butkul jahonni?*

19.*She’r yozib, gap sotib turibman shu on,*

20.*Yapon-chi, ish bilan mashg‘uldir yapon!*

JAPON AHENKLERİ

JAPON (112)

1. Başımda döppi ve omzumda kaftan,

2. Misafir olup geldim, ben sana Japon.

3. Sake[147] şarabından bir yudum içtim,

4. Adadan adaya atladım, geçtim.

5. Japonca selam bu, boyum, ta yahut

6. Sana ihtiramım olsun, Tokyo.

7. Seyrettim Kioto sokaklarında,

8. Kafa yordum yağmurlu gecelerinde.

9. Yakın göründün bana gerçekten de,

10.Mütevazı dayım gibi yahut şefkatli halam.

11. Zarif adımların, kısık gözlerin,

12. Bu kadar gönle yakın oğul, kızların.

[147] Sake: Şarabın adı.

13. Asla perva etmeden geçer ömre,
14. Can verip durmuşsun taşa, demire.

15. Parasız arabada yetiştir sağlıkta,
16.(Şoför öldürür başka tarafta.)

17. Sorarım ortaya koyup vicdanı:
18. Sen nasıl zapt ettin büsbütün cihanı?

19.Şiir yazıp, söz satıp durmuşum o an,
20. Japon, işle meşguldür Japon! (Haziran, 2003)

BUDDA (113)

1. *Tosh haykal. U - Budda, buyuk payg‘ambar,*
2. *Maftun eta olgan yarim dunyoni.*
3. *Ummatin jismida misli jon qadar,*
4. *Tosh kabi mustahkam Budda iymoni.*
5. *Baxtlidir kim bo‘lsa unga munosib,*
6. *Yapon kulbasida tutmish u vatan.*
7. *Qandoq keldi ekan, shuncha yo‘l bosib,*
8. *U olis Surxondan - Qoratepadan...*

BUDDA (113)

1. Taş heykel. O, Budda, büyük peygamber,
2. Meftun edip almış dünyanın yarısını.
3. Ümmetini cisminde sanki can kadar,
4. Taş gibi sağlam Budda imanı.
5. Bahtlıdır kim olsa ona münasip,

6. Japon kulübesinde tutmuş o vatan.

7. Nasıl geldi imiş, bunca yol tepip,

8. O uzak Surhan'dan, Karatepe'den… (Haziran, 2003)

RUHIYAT (114)

1. *Qaydadir toliqib, tin olar dengiz,*

2. *Yam-yashil qirlarga cho'ka boshlar tun.*

3. *Sokin havo uzra taralar unsiz -*

4. *Yapon ohanglari mahzun va uzun.*

5. *Yomg'ir yog'a boshlar - nomsiz bir armon,*

6. *Ruhimga mo'ralar o'zga bir dunyo.*

7. *Ular bari tanish... Balki bir zamon*

8. *Men ham Yapon bo'lib yashadimmi yo.*

RUHİYET (114)

1. Bir yerde yorulup, soluk alır deniz,

2. Yemyeşil kırlara çökmeye başlar gece.

3. Sakin hava üstünde yayılır sessiz,

4. Japon ahenkleri mahzun ve uzun.

5. Yağmur yağmaya başlar, adsız bir ukde.

6. Ruhumu gözetler üstünde bir dünya.

7. Onlar hepsi tanıdık… Belki bir zaman

8. Ben de Japon olup yaşadım mı veya. (Haziran, 2003)

IBRAT (115)

1. *Mendan Yapon kim deb so'rama, ukam,*

2. *O'zingcha bejama o'z palagingni,*

3. *Agarchi yumaloq erur bu olam,*

4. *Dunyo deb o‘ylama handalagingni.*

5. *Taqdirdan o‘zgasi ko‘pincha yolg‘on,*

6. *Hech kim bo‘la olmas baxtning o‘g‘risi.*

7. *O‘rgatgani kelmas dunyoga inson,*

8. *O‘rgangani kelar, to‘g‘risi...*

İBRET (115)

1. Bana Japon kim diye sorma, kardeşim,

2. Kendince süsleme kendi nakşını,

3. Eğer yuvarlaktır bu âlem,

4. Dünya diye düşünme hendeleğini[148].

5. Takdirden başkası çoğu kez yalan,

6. Hiç kimse olamaz bahtının hırsızı.

7. Öğrettiği gelmez dünyaya insan,

8. Öğrendiği gelir, doğrusu… (Haziran, 2003)

OSAKODA O‘ZBEK CHOYXONASI (116)

(Tadbirkor o‘zbek yigitiga)

1. *Osako shahrining qoq o‘rtasida*

2. *O‘zbek choyxonasi bunyod bo‘lmishdir.*

3. *Betakror maza bor osh, xo‘rdasida,*

4. *Tanovul qilganlar kuchga to‘lmishdir.*

5. *Tandir gurillasa, o‘t yoqqan oni,*

6. *Axir qo‘zg‘atmaydi kimning havasin.*

7. *Kichkina quyoshdek o‘zbekning noni*

8. *Qizdirib turibdi yapon havosin.*

[148] Özbekistan’da yetişen bir kavun türüdür.

OSAKA'DA ÖZBEK ÇAYHANESİ (116)

(Tedbirli Özbek yiğidine)

1. Osaka şehrinin tam ortasında
2. Özbek çayhanesi inşa olmuştur.
3. Eşsiz lezzet var pirinçli yemeğinde,
4. Yiyenler güçle dolmuştur.
5. Tandır gürüldese, ateş yaktığı anı,
6. Artık getirmez kimsenin hevesini.
7. Küçücük güneş gibi Özbek'in ekmeği
8. Isıtıp durmuş Japon havasını. (Haziran, 2003)

KARVON (117)

1. *Dunyoda tugamas ekan armonlar,*
2. *O'tdi qancha zamon, qancha sarbonlar.*
3. *O'tiraberibman buyukman deya,*
4. *Manzilga yetibdi boshqa karvonlar.*

KERVAN (117)

1. Dünyada bitmez imiş ukdeler,
2. Geçti nice zaman, nice sarbanlar.
3. Oturuvermişim büyüğüm diye,
4. Menzile yerleşmiş diğer kervanlar. (13 Haziran 2003, Tokyo)

YAPON (118)

1. *Sening amalingga qoyildir jahon,*
2. *Burgani taqalab qo'ygaysan oson.*
3. *Nozik san'atingga tikilaverib,*
4. *Ko'zlarim qisilib ketdi-ku, yapon.*

JAPON (118)

1. Senin emeline hoşnuttur cihan,
2. Pireyi bitireceksin kolay.
3. Nazik sanatına dikkatlice bakıp,
4. Göz kırptım, Japon. (18 Haziran 2003)

MARTABA (119)

1. *Garchand komil emas ko‘hna bu jahon,*
2. *Garchand har qadamda yaxshi va yomon.*
3. *Masxara qilasan o‘z shoiringni,*
4. *Shu senga martaba bo‘ldimi, inson.*

MERTEBE (119)

1. Gerçi kâmil değil köhne bu cihan,
2. Gerçi her adımda iyi ve kötü.
3. Alay edersin kendi şiirinle,
4. Bu sana mertebe oldu mu, insan. (1 Temmuz 2003)

GUMON (120)

1. *Zinhor yaqinlaring bo‘lmasin nodon,*
2. *Bo‘lmasin fahmsiz, ta’magir shayton.*
3. *Sen biror mansabda o‘tirgan bo‘lsang,*
4. *Ular seni boy deb qilgaylar gumon.*

ŞÜPHE (120)

1. Asla yakınların olmasın cahil,
2. Olmasın anlayışsız, tamahkâr şeytan.
3. Sen bir mevkide bulunmuş olsan,

4. Onlar sana zengin diye edecekler şüphe. (3 Temmuz 2003)

“JENEVA DAFTARI”DAN

SOG‘INCH (121)

1. *Uchqur uchoqlar ham dunyoni kezib,*

2. *Oxir bir manzilga borib qo‘narlar.*

3. *Yonilg‘isin olib, rejasin tuzib,*

4. *So‘ng boshqa ellarga tomon jo‘narlar.*

5. *Masofasin bilar aqcha ham, til ham,*

6. *O‘zgalar ularni ko‘ziga ilmas.*

7. *Faqatgina bir his topmas hech barham,*

8. *Faqatgina sog‘inch masofa bilmas.*

“CENEVRE DEFTERİ”NDEN

ÖZLEM (121)

1. Hızlı uçaklar da dünyayı gezip,

2. Son bir menzile gidip konarlar.

3. Yakıtını alıp, planını düzenleyip,

4. Sonra başka memleketlere doğru yola çıkarlar.

5. Mesafesini bilir para da, dil de,

6. Başkaları onları dikkate almaz.

7. Sadece bir his kalkmaz hiç ortadan,

8. Sadece özlem mesafe bilmez. (7 Temmuz 2003)

MAKTUB (122)

1. *Ona O‘zbekiston! Farzanding bu kun*
2. *Senga yiroqlardan maktub yo‘llaydi.*
3. *Jahon karvonida maqoming butun,*
4. *Inshoolloh, Yaratgan o‘zi qo‘llaydi!*

5. *Men ham noming aytib duoda turdim,*
6. *Sen omon o‘tgaysan jaru o‘rlardan.*
7. *Men faqat qo‘rqaman, qo‘rqaman, yurtim,*
8. *Ichingdagi turli baloxo‘rlardan.*

MEKTUP (122)

1. Ana Özbekistan! Çocuğun bugün
2. Sana uzaklardan mektup yollar.
3. Cihan kervanında makamın bütün,
4. İnşaallah, Yaradan kendisi gözetir!

5. Ben de adını söyleyip duada bulundum,
6. Sen sağlam geçeceksin kanyon ve yarlardan.
7. Ben yalnız korkarım, korkarım, yurdum,
8. İçindeki türlü haram yiyicilerden. (8 Temmuz 2003)

TOYCHOQ (123)

1. *Jenevada bordir ajib bir toychoq,*
2. *Ko‘rsam, unut bo‘lgan hislarim qaytar*
3. *Mening nazarimda kishnab u har choq,*
4. *Jajji nabiramga salomlar aytar.*

5. *U deydi: - Men haykal shaklida beg‘am,*

6. *Yuz yillar o‘zgarmay bir xil turgayman*

7. *Hali Jonibekning nabirasin ham*

8. *Balki uchratgayman, kelsa - ko‘rgayman.*

9. *Siz-chi, shoir bobo, yil sayin battar*

10.*Ma’yus tortmoqdasiz. Nimaga? Nechun?*

11.*Hushingiz bo‘lmasa odamlarga gar,*

12.*Keling, bizlar bilan so‘ylashmoq uchun.*

TAYCIK (123)

1. Cenevre’de vardır ilginç bir taycık,

2. Görsem, unuttuğum hislerim geri gelir

3. Benim nazarımda kişneyip o her an,

4. Minik torunuma selamlar söyler.

5. O der: - Ben heykel şeklinde pervasız,

6. Yüz yıllarca değişmeden bir çeşit duracağım.

7. Henüz Canıbek’in torunu da

8. Belki rastlayacağım, gelse göreceğim.

9. Siz, şair dede, yıllar geçtikçe beter

10.Üzüntü çekmekteyiz. Niye? Niçin?

11. Anlayışınız olmasa insanlara eğer,

12. Gelin, bizlerle konuşmak için. (8 Temmuz 2003)

QORA YURAK (124)

1. *Sayyod ta’qibidan qochdi bir ohu,*

2. *Bir odam bu holning guvohi edi.*

3. *Sayyod har qanchalik solmasin qutqu,*

4. *U odam: - Ohuni ko‘rmadim! - dedi.*

5. *Horg‘in bir yo‘lovchi avji issiq dam*
6. *O‘lar holga keldi, g‘oyatda tashna.*
7. *Duch kelgan bir Inson dedi: - Bo‘l bardam,*
8. *Yana o‘n qadam yur, buloq bor, oshna!*

9. *Sen-chi, u ohuga rahm etmay, hatto*
10. *O‘zing sayd etarding, ko‘zin yoshlarding.*
11. *Tashna yo‘lovchilar ichmasin deb to,*
12. *O‘sha buloqni ham ko‘mib tashlarding.*

KARA YÜREK (124)

1. Avcı takibinden kaçtı bir ahu,
2. Bir insan bu hâlinin şahidi idi.
3. Avcı her ne kadar sokmasın fitne,
4. O insan: - Ahuyu görmedim! dedi.

5. Yorgun bir yolcu tam sıcak an
6. Onlar bitkinleşti, gayette susuz.
7. Rast gelen bir İnsan dedi: - Ol zinde,
8. Yine on adım yürü, kaynak var, arkadaş!

9. Sen, o ahuya şefkat etmeden, hatta
10. Kendin avlardın, gözünü yaşlardın.
11. Susuz yolcular içmesin diye ta,
12. O kaynağı da gömüp bırakırdın. (8 Temmuz 2003)

YOLG‘IZLIK (125)

1. *Yolg‘izmisiz deding,*
2. *Yolg‘izman dedim.*
3. *So‘ngra qo‘shib qo‘yding:*
4. *Yolg‘izman men ham.*
5. *Men-ku xor, benavo*
6. *Bir inson edim,*
7. *Mendan ham bechora*
8. *Ekansan, jo‘ram.*
9. *Bas, ma’lum bo‘ldiki,*
10. *Ikkita xordan*
11. *Jamoa yaralmas,*
12. *Yaralmaydi zo‘r.*
13. *Yaxshisi, men sendan*
14. *So‘ramay yordam.*
15. *Sen ham boravergil,*
16. *O‘z kuningni ko‘r!*

YALNIZLIK (125)

1. Yalnız mısınız dedin,
2. Yalnızım dedim.
3. Sonra ilave ettin:
4. Yalnızım ben de.
5. Ben hor, perişan
6. Bir insan idim,
7. Benden de biçare
8. İmişsin, dostum.
9. Yani, malum oldu ki,
10. İki hordan
11. Toplum oluşturulmaz,
12. Oluşturulmaz güçlü.
13. En iyisi, ben senden

14.İstemeden yardım.

15. Sen de gidiver,

16. Kendi gününü gör! (8 Temmuz 2003)

HADYA (126)

1. *Kimdir hadya qilar senga arog‘in,*

2. *Kimdir tamakisin, kimdir yarog‘in.*

3. *Men o‘zbek do‘ppisin tarqatdim faqat,*

4. *Tarqatdim o‘zbekning to‘nin, belbog‘in.*

HEDİYE (126)

1. Kimi hediye eder sana votkasını,

2. Kimi tütününü, kimi silahını.

3. Ben Özbek döppisini dağıttım sadece,

4. Dağıttım Özbek’in kaftanını, kuşağını. (8 Temmuz 2003, Cenevre)

MUSOFIR (127)

1. *Musofir o‘zi kim? To mavjud jahon*

2. *Bu lashkar hech qachon kamaymas, to‘lmas.*

3. *Demishlar uni goh misli imtihon:*

4. *“Musofir bo‘lmasdan musulmon bo‘lmas.”*

5. *Sayri sayohat-ku musofirga baxt,*

6. *Izzatu hurmat ham kelgay qoshiga.*

7. *Va lekin musofir yashamoq hech vaqt*

8. *Tushmasin hech bitta Inson boshiga.*

9. *Kimdir Vatan deya jo‘shsa, hoynahoy,*

10.*Bir hovuch tuproqni o‘psa qaltirab,*

11. *U o‘zin qo‘yarga topa olmas joy -*
12. *Musofir osmonga boqqay mo‘ltirab.*

13. *Qabriston yonidan o‘tarkan sekin,*
14. *Ko‘ksidan uzilar unsiz faryodi.*
15. *Hech qursa bu joyda yupanch bormikin?*
16. *Bormikan birovi? Biror ajdodi?*

17. *Ular yo‘q! Yo‘q demak uning o‘zi ham,*
18. *Hech kim uni kutmas, kuzatmas birov.*
19. *Qaddi tik bo‘lsa-da mudom boshi xam,*
20. *Uning na do‘sti bor, unga bor na yov.*

21. *U-ku o‘tkazadi umrin amallab,*
22. *Bundan ham ayanchli kulfat bor ammo.*
23. *O‘z tuqqan yurtingda kun ko‘rib, yashab,*
24. *Musofir bo‘lishdan asrasin xudo!*

25. *Loqaydlik tegrangni olsa gar qurshab,*
26. *Na muslim atalsang, na osiy kofir.*
27. *Boqsa do‘stlaring ham yotlarga o‘xshab,*
28. *Bilgilki, o‘sha kun sen ham musofir.*

29. *Sen ham musofirsan, misli yolg‘iz ot,*
30. *Uyurga kirmasang - tashlandiq bo‘lsang.*
31. *Bir qultum suvni ham ko‘p ko‘rsa hayot,*
32. *Go‘rni ham qizg‘ansa, payt kelib o‘lsang.*

33. *Sendan yiroq bo‘lsa Vatanning ko‘zi,*

34.*Ajrab ketgan bo‘lsa et bilan tirnoq.*

35.*Kim deb atash kerak nomingni o‘zi?*

36.*Musofir desalar to‘g‘ridir ko‘proq.*

37.*Behad ulug‘ erur zamon matlabi,*

38.*Zaminda musofir emasdir bashar.*

39.*Har kim vataniga yarashgan kabi,*

40.*Har kimga dunyoda Vatan yarashar.*

MİSAFİR (127)

1. Misafir kendisi kim? Ta mevcut cihan

2. Bu ordu hiçbir zaman azalmaz, dolmaz.

3. Demişler ona bazen sanki imtihan:

4. “Misafir olmadan Müslüman olmaz.”

5. Gezi ve seyahat misafire baht,

6. İzzet ve hürmet de gelsin önüne.

7. Velakin misafir yaşamak hiçbir zaman

8. Gelmesin hiçbir İnsan başına.

9. Kim Vatan diye coşsa, belki,

10. Bir avuç toprağı öpse titreyip,

11.O kendisini koymaya bulamaz yer,

12. Misafir asumana baksın ümitlenip.

13. Kabristan yanından geçerken sessizce,

14.Göğsünden kopar sessiz feryadı.

15. Hiç yapsa bu yerde teselli var mı ki?

16. Var mıymış birisi? Bir ecdadı?

17. Onlar yok! Yok demek onun kendisi de,
18. Hiç kimse onu beklemez, gözetmez biri.
19. Boyu dik olsa daima başı da,
20. Onun ne dostu var, ona var ne düşman.

21.O geçirir ömrünü çaresini bulup,
22. Bundan da hazin külfet var ama.
23. Kendi doğduğun yurdunda gün görüp, yaşayıp,
24. Misafir olmaktan korusun Hüda!

25. Lakayıtlık etrafını sarsa eğer kuşatıp,
26. Ne Müslüman denirsin, ne asi kâfir.
27. Baksa dostların da ellere benzeyip,
28. Bil ki, o gün sen de misafir.

29. Sen de misafirsin, sanki yalnız at,
30. Uyurga girmesen, atılsan.
31. Bir yudum su da çok görse hayat,
32. Mezarı da kıskansa, vakit gelip ölsen.

33. Senden uzak olsa Vatan'ın gözü,
34. Ayıran olsa etle tırnak.
35. Kim diye demek gerek adını kendisi?
36. Misafir deseler doğrudur daha çok.

37.Çok yücedir zaman gayesi,
38. Zeminde misafir değildir beşer.
39. Herkesin vatanına yakıştığı gibi,
40. Herkese dünyada Vatan yakışır. (9 Temmuz 2003)

DIPLOMAT (128)

1. *Diplomat hayotin buldir mazmuni:*

2. *Ikki kunki hech kim topolmas uni.*

3. *Podshoh chaqirgandi birinchi kunda,*

4. *U kir yuvmoqdaydi ikkinchi kuni.*

Jeneva

DİPLOMAT (128)

1. Diplomat hayatının budur özü:

2. İki gün ki hiç kimse bulamaz onu.

3. Padişah çağırmıştı birinci günde,

4. O kir yıkamaktaydı ikinci günü. (14 Temmuz 2003)

Cenevre

OROM (129)

1. *Faqat orom edi ko‘ngil matlabi,*

2. *Shabada ham o‘tdi yupqa po‘stimdan.*

3. *Shaharning shovqini yetmagan kabi,*

4. *Ulkan samolyotlar uchdi ustimdan.*

5. *So‘ngra yer ostida qurdim men vatan,*

6. *Kelarmikin deya oromning dami.*

7. *Eshitilar edi endi teppamdan*

8. *Chumolichalarning gurs-gurs qadami.*

HUZUR (129)

1. Sadece huzur idi gönül gayesi,

2. Rüzgâr da geçti ince derimden.
3. Şehrin gürültüsü yetmemiş gibi,
4. Büyük uçaklar uçtu üstümden.

5. Sonra yer altında kurdum ben vatan,
6. Gelir mi ki diye huzurun vakti.
7. Duyulur idi şimdi tepemden
8. Küçük karıncaların tık tık adımı. (14 Temmuz 2003)

O‘ZBEK NONI (130)

1. *Qaysi bir zamonda, qaysi bir Sulton*
2. *Topibdi aqchani, topibdi shonni.*
3. *Va lekin duch kelib taqdir beomon,*
4. *U orzu qilibdi bir burda nonni.*

5. *Bir ulug‘ alloma fikrin aylab jam,*
6. *So‘zimni matalga yo‘ymanglar, debdi.*
7. *Tokchaga bo‘y cho‘zsang, Qur’on tursa ham,*
8. *Nonga sira oyoq qo‘ymanglar, debdi.*

9. *Non va O‘zbekiston uyqashdir azal,*
10. *Bu yurtga ne ellar non deb kelganlar.*
11. *Sargashta qushlar ham doim, galma-gal*
12. *Bu yurtdan rizqini terib yeganlar.*

13. *Yurtim, buyukliging bildi keng jahon,*
14. *To‘ldi omborlaring o‘z doning bilan.*
15. *Siylaysan olamni yozib dasturxon,*
16. *Mehnatdan yaralgan shu noning bilan.*

17.*Seni ushbu kunda qutlayman, yurtim,*

18.*Rizqingni but qildi oltin xirmonim.*

19.*Har issiq noningni quyoshday ko‘rdim,*

20.*Dunyoga non bergan O‘zbekistonim!*

ÖZBEK EKMEĞİ (130)

1. Hangi bir zamanda, hangi bir Sultan

2. Bulmuş parayı, bulmuş şanı.

3. Velakin karşılaştığı kısmet amansız,

4. O arzu etmiş bir parça ekmeği.

5. Bir ulu âlim fikrini getirip bir araya,

6. Sözümü vecizeye çevirmeyiniz, demiş.

7. Oyuktan yüksek olsan, Kur’an dursa da,

8. Ekmeğe asla ayak basmayınız, demiş.

9. Ekmek ve Özbekistan yakındır ezel,

10. Bu yurda ne halklar ekmek diye gelmişler.

11. Avare kuşlar da daima, arka arkaya

12. Bu yurttan rızkını toplayıp yemişler.

13. Yurdum, büyüklüğünü bildi geniş cihan,

14. Doldu ambarların kendi tahılınla.

15. Misafir edersin âlemi serip sofrayı,

16. Emekten yaratılan şu ekmeğinle.

17. Seni bugünde beklerim, yurdum,

18.Rızkını tam kıldı altın harmanım.

19. Her sıcak ekmeğini güneş gibi gördüm,

20.Dünyaya ekmek veren Özbekistan'ım! (Ağustos, 2003)

TO'LIN OY (131)

1. *Deydilar, oy ayni to'lishgan mahal,*

2. *Qo'zib qolar emish turfa xil kasal.*

3. *Bu-ku bor gap, shekilli, yuzingga boqsam*

4. *Gapimdan adashib qolaman har gal.*

DOLUNAY (131)

1. Derler, ay aynı dolduğu an,

2. Yineler imiş ilginç tür hastalık.

3. Bu bütün söz, anlaşılan, yüzüne baksam

4. Sözümden şaşırıp kalırım her sefer. (Ağustos, 2003)

ELLIKQAL'A (132)

Ne'matullaga

1. *Guldan gulga qo'nib sahar palladan,*

2. *Bolari bol yig'ar qirdan, daladan.*

3. *Shoir ham bolari bo'lsaydi agar,*

4. *Ishin boshlar edi Ellikqal'adan.*

ELLİKALE (132)

Nimetullah'a

1. Gülden güle konup seher vaktinde,

2. Bal arısı bal yapar kırdan, tarladan.

3. Şair de bal arısı olsaydı eğer,

4. İşine başlar idi Ellikale'den. (14 Ağustos 2003)

VIJDON (133)

1. *- Bugun sindirdingmi ko'ngilda nayni,*

2. *Mulzamsan, gunohkor zotsan baayni?*

3. *Oh, vijdon uyg'ondi!*

4. *So'ng yig'lab dedi:*

5. *- Kecha sotgan edim seni, og'ayni...*

VİCDAN (133)

1. Bugün kırdın mı gönülde neyi,

2. Pısırıksın, günahkâr zatsın tam?

3. Ah, vicdan uyandı!

4. Sonra ağlayıp dedi:

5. Gece satmış idim seni, arkadaş… (19 Eylül 2003)

ONA YURT (134)

1. *Siz, sohibdavlatlar, zotlar muhtaram,*

2. *O'zingizga siylov uyalaringiz.*

3. *Meni eshitmassiz ehtimol hech ham,*

4. *Biroq, yetkazadi xufyalaringiz.*

5. *Yetkazadi, go'yo O'rta Osiyoda*

6. *Allaqanday shoir bir gap aytipti.*

7. *Saylovchilar tirgak sizga dunyoda,*

8. *Bu to'lqin bir kun bor, bir kun - qaytipti.*

9. *E'tibor aylangiz, aziz to'ralar,*

10.*O‘ylang siz ham axir o‘z taningizni.*
11.*Tutab yonmoqdadir o‘rmon, qo‘ralar,*
12.*Nega o‘ylamaysiz Vataningizni?*

13.*Sira o‘ylamaysiz ostonangizda*
14.*Imdod so‘rab yotgan gadolarni siz.*
15.*Har kuni kutgaysiz koshonangizda*
16.*O‘zingizga o‘xshash podsholarni siz.*

17.*Ammo mening uchun juda g‘alat hol:*
18.*Bir chekkaga qo‘ying sharaf ham shonni,*
19.*Nega g‘alvangizdan yuz burib darhol,*
20.*Siz o‘ylay boshlaysiz O‘zbekistonni?!*

21.*O‘zbek der: o‘zingga yeng bo‘lolmasang,*
22.*Aslo bo‘lolmassan boshqaga etak.*
23.*Kimligim haqida olam chalgan zang,*
24.*Azal buyukligim bo‘lgan-ku ertak.*

25.*Mening tog‘larim bor - balanddir, pastdir,*
26.*Nima bo‘lganda ham ular meniki!*
27.*Baxshi ovozimi, maqommi, sasdir -*
28.*Nima bo‘lganda ham ular meniki!*

29.*Meniki sanalur Jayxun, Sayxun ham,*
30.*Mushtipar musicha ku-kusigacha.*
31.*Meniki atalur Istiqbol - bolam,*
32.*Jajji nabiramning kulgusigacha.*

33.*Meniki shu Vatan, meniki shu yurt,*

34.*Bozorim, mozorim, shahru kentim ham.*

35.*Huquqim meniki, aylamang unut,*

36.*Meniki saylagan Prezidentim ham!*

37.*Sizga shoirona bitta so‘z aytay:*

38.*Fahm eting yumaloq-yapalog‘ini.*

39.*Unutmay turibsiz balki, har qalay,*

40.*Bobom Amir Temur shapalog‘ini.*

ANA YURT (134)

1. Siz, devlet erkânları, zatlar muhterem,

2. Kendinize hürmet ettiğiniz yuvalarınız.

3. Beni duymuşsunuz belki hiç de,

4. Fakat verdi sırlarınız.

5. Verdi, sanki Orta Asya’da

6. Bir şair bir söz söylemiş.

7. Seçmenler destek size dünyada,

8. Bu dalga bir gün var, bir gün dönmüş.

9. İtibar ediniz, aziz asilzadeler,

10.Düşünün siz de artık kendi bedeninizi.

11. Tutuşup yanmaktadır orman, ahırlar,

12. Niye düşünmezsiniz Vatan’ınızı?

13. Asla düşünmezsiniz eşiğinizde

14. Yardım isteyip yatan yoksulları siz.

15. Her gün bekleyeceksiniz sarayınızda

16. Kendinize benzer padişahları siz.

17. Ama benim için çok yanlış durum:
18. Bir köşeye bırakın şeref ve şanı,
19. Niye kavganızdan yüz çevirip derhâl,
20. Siz düşünmeye başlarsınız Özbekistan'ı?

21.Özbek der: kendine yen bulamazsan,
22. Asla bulamazsın başkasına etek.
23. Kimliğin hakkında âlem çalmış zil,
24. Ezel büyüklüğüm olmuş masal.

25. Benim dağlarım var, yüksektir, alçaktır,
26. Ne de olsa onlar benimki!
27. Ozan sesi mi, nağme mi sestir,
28. Ne de olsa onlar benimki!

29. Benimki sanılır Ceyhun, Seyhun da,
30. Zavallı üveyiğin cıvıldaması gibi.
31. Benimki adlandırılır İstikbal, evladım,
32. Minik torunumun gülüşü gibi.

33. Benimki bu Vatan, benimki bu yurt,
34. Pazarım, mezarım, şehir ve kentim de.
35. Hukukum benimki, unutmayın,
36. Benimki seçmiş Cumhurbaşkanım da!

37. Size şairane bir söz söyleyeyim:
38. Anlayın yuvarlak düzünü.
39. Unutmamışsınız belki, her nasılsa,
40. Dedem Emir Timur tokadını. (19 Ekim 2003)

IQROR (135)

1. *Sen yaxshi ko‘rasanmi*

2. *yo yomon ko‘rasanmi -*

3. *Shu daryo meniki.*

4. *Sen yaxshi ko‘rasanmi*

5. *yo yomon ko‘rasanmi -*

6. *Shu tog‘lar meniki.*

7. *Sen yaxshi ko‘rasanmi*

8. *yo yomon ko‘rasanmi -*

9. *Shu sahro meniki.*

10. *Sen yaxshi ko‘rasanmi*

11. *yo yomon ko‘rasanmi -*

12. *Shu bozor meniki.*

13. *Sen yaxshi ko‘rasanmi*

14. *yo yomon ko‘rasanmi -*

15. *Shu mozor meniki.*

16. *Yaxshidir, yomondir-*

17. *shu Vatan meniki.*

İKRAR (135)

1. Sen sever misin

2. yahut sevmez misin,

3. Bu derya benimki.

4. Sen sever misin
5. yahut sevmez misin,
6. Bu dağlar benimki.

7. Sen sever misin
8. yahut sevmez misin,
9. Bu sahra benimki.

10. Sen sever misin
11. yahut sevmez misin,
12. Bu pazar benimki.

13. Sen sever misin
14. yahut sevmez misin,
15. Bu mezar benimki.

16.İyidir, kötüdür,
17. bu Vatan benimki. (Ekim, 2003)

KO‘ZTUMOR (136)

1. *Demishlar, dunyoda qiz bola uchun*
2. *Dushman bo‘lar emish husni avvalo.*
3. *Yurtim, axir seni o‘ylamay nechun,*
4. *Tengsiz chiroy bermish Tangri taolo.*

5. *Demishlar, dunyoda shunday zotlar bor,*

6. *Borni ko‘rolmaydi, yo‘qqa berolmas.*

7. *Yurtim, ne’mating ham bisyordan-bisyor,*

8. *Bir yonda suq bo‘lsa, bir yonda havas.*

9. *Demishlar, dunyoda hasad ham illat,*

10. *Uning yo‘lin bog‘lab, qilgaylar irim.*

11. *Yurtim, darvozangda mayli bir fursat,*

12. *Qaniydi, ko‘ztumor bo‘lolsa she’rim.*

GÖZ SÜSÜ (136)

1. Demişler, dünyada kız çocuk için

2. Düşman olur imiş güzelliği evvela.

3. Yurdum, artık seni düşünmeden niçin,

4. Eşsiz güzel vermiş Allah Teâlâ.

5. Demişler, dünyada böyle zatlar var,

6. Varı göremez, yoğu veremez.

7. Yurdum, nimetin de pek çok,

8. Bir yanda açgözlü olsa, bir yanda heves.

9. Demişler, dünyada haset de illet,

10. Onun yolunu bağlayıp, kılsınlar hurafe.

11. Yurdum, kapında olsun bir vakit,

12. Haydi, göz süsü olabilse şiirim. (Kasım, 2003)

MENING HASRATLARIM (137)

1. *Mening hasratlarim,*

2. *Sizlar buncha ko‘p,*

3. *Inon-ixtiyorim qo‘lga olgansiz.*

4. *Gohi yolg‘iz-yolg‘iz, gohida to‘p-to‘p,*
5. *Go‘yo tug‘ishganim bo‘lib qolgansiz.*

6. *Biringiz - bolamdan yaralgan hasrat,*
7. *Og‘riysiz, ezasiz yurak-bag‘rimni.*
8. *Biringiz - hasaddan qolgan jarohat,*
9. *Ichimga yutganman zahrimni.*

10. *Biringiz - og‘amdek iltifot etib,*
11. *Lekin begonasan, degan so‘zdansiz.*
12. *Biringiz - erta-kech zavolim kutib,*
13. *Yovuz niyat bilan boqqan ko‘zdansiz.*

14. *Biringiz - tunu kun tarqatib mish-mish,*
15. *Do‘stlarim orasin buzganlardan dog‘.*
16. *Biringiz - qo‘limdan yeb turib yemish,*
17. *Ishonch rishtalarin uzganlardan dog‘.*

18. *Qochgan ham, quvgan ham Xudoyim dermish,*
19. *Har kimning orzusi - egarlangan ot.*
20. *Dunyoda ko‘rganing - ko‘rgulik emish,*
21. *Balki but emasdir hasratsiz hayot.*

22. *Mayli, sinovlarga duch kelay har on,*
23. *Roziman, baxsh etding hayot nusratin.*
24. *Lekin ko‘rsatmagin, Tangrim, hech qachon*
25. *Farzand hasratiyu Vatan hasratin.*

BENİM HASRETLERİM (137)

1. Benim hasretlerim,
2. Sizler bu kadar çok,
3. Arzumu ele alsanız.
4. Gâh tek tek, gâh grup grup,
5. Sanki akrabam olmuşsunuz.

6. Biriniz, çocuğumdan oluşan hasret,
7. Ağrırsınız, ezasiz yürek, bağrımı.
8. Biriniz, hasetten kalan cerahat,
9. İçime yutmuşum zehrimi.

10. Biriniz, abim gibi iltifat edip,
11. Ama elsin, denen sözdensiniz.
12. Biriniz gece gündüz zevalim bekleyip,
13.Kötü niyetle bakan gözdensiniz.

14. Biriniz, gece gündüz yayıp dedikodu,
15. Dostlarım arasını bozanlardan acı.
16. Biriniz, elimden yiyip yiyecek,
17.İnanç bağlarını kesenlerden acı.

18. Kaçan da, kovalayan da Allah'ım dermiş,
19. Herkesin arzusu, eyerlenmiş at.
20.Dünyada gördüğün, kısmet imiş,
21. Belki tam değildir hasretsiz hayat.

22. Olsun, sınavlara rastlayayım her an,
23. Razıyım, bahşettin hayat yardımını.
24. Ama gösterme, Allah'ım, hiçbir an

25.Çocuk hasreti ve Vatan hasretini. (Kasım, 2003)

NOKASLAR (138)

1. *Ular don edilar - somonlashdilar,*

2. *Bir Inson edilar - tomonlashdilar.*

3. *Avval yomonlashdi podshohni rosa,*

4. *So‘ngra bir-birlarin yomonlashdilar.*

ALÇAKLAR (138)

1. Onlar tahıl idiler, samanlaştılar,

2. Bir İnsan idiler, taraflaştılar.

3. Önce kötüleşti padişahı çok,

4. Sonra birbirinden kötüleştiler. (19 Kasım 2003)

BOZOR (139)

1. *Bu ne bozor erur, hamma jim va jam,*

2. *Oladigan ham yo‘q, sotadigan ham?*

3. *Bu - mozor, u yerda hamma jam va jim,*

4. *Olmaydi, sotmaydi birorta odam!*

PAZAR (139)

1. Bu ne pazardır, hep sessiz ve hepsi,

2. Alan da yok, satan da?

3. Bu mezar, o toprakta bütün hepsi ve sessiz,

4. Almaz, satmaz herhangi bir insan! (26 Kasım 2003)

KOSHKI (140)

1. *O‘zingcha bir odim otsang, koshkiydi,*

2. *Yoki shon-shuhratga botsang, koshkiydi.*

3. *Bugun-ku to‘nimni kiyib yuribsan,*

4. *Kirib go‘rimga ham yotsang, koshkiydi.*

KEŞKE (140)

1. Kendince bir adım atsan, keşke,

2. Yahut şan şöhrete batsan, keşke.

3. Bugün kaftanını giyip yürümüşsün,

4. Girip mezarıma da yatsan, keşke. (10 Aralık 2003)

MEHR (141)

1. *Bir bola chinqirib yig‘lardi chunon,*

2. *Uni yupatolmay ko‘pchilik giryon.*

3. *U qaysar hech kimga quloq solmadi,*

4. *Boshin silashgandi - tinchidi shu on.*

ŞEFKAT (141)

1. Bir çocuk feryat edip ağlardı gayet,

2. Onu avutamadan çoğunluk giryan.

3. O inatçı hiç kimseye kulak asmadı,

4. Başını okşamışlardı, sakinleşti o an. (10 Aralık 2003)

SAVOL (142)

1. *Deysan, har narsaga sababdir zamon,*

2. *Ammo, mavjud yana vijdon va imon.*

3. *Men bitta savolni yecholmadim hech:*

4. *Qaysiga mansubdir Yaxshi va Yomon!*

SORU (142)

1. Dersin, her şeye sebeptir zaman,
2. Ama mevcut yine vicdan ve iman.
3. Ben bir soruyu çözemedim hiç:
4. Hangisine mensuptur İyi ve Kötü! (18 Aralık 2003)

YANA ANDIJON... (143)

1. *Yurtda g‘oliblikning qutlug‘ yalovin*
2. *Hamisha yuksakka ilar Andijon.*
3. *Mudom gurkiratib qalbda olovin,*
4. *Jahon yo‘llarida yelar Andijon.*
5. *Ilmu ma’rifatga u doim oshno,*
6. *Gul ekar uyining tomigacha to.*
7. *Yovvoshdir, yoviga duch kelsa, ammo*
8. *Nima qilishini bilar, Andijon.*
9. *Bu shunday ma’vodir - mehnatkash, halol,*
10.Peshona teridan topolgan kamol,
11.Omading yurmasa, kelib o‘rnak ol,
12.Senga ham omadlar tilar Andijon.
13.Qo‘lida kaftgiri, miyig‘da kulib,
14.U mehmon kutadi g‘ururga to‘lib.
15.Ne-ne poygalarda birinchi bo‘lib
16.Kelgan, kelayotir, kelar Andijon.

YİNE ANDİCAN… (143)

1. Yurtta galipliğin kutlu bayrağını
2. Daima yükseğe bağlar Andican.
3. Devamlı büyütür kalpteki alevini,
4. Cihan yollarında eser Andican.
5. İlim ve marifete o daima aşina,
6. Gül eker evinin damına dek ta.

7. Sakindir, düşmanına rastlasa, ama
8. Ne yapacağını bilir, Andican.
9. Bu böyle barınaktır, emekçi, helal,
10. Alın terinden bulabilen kemal,
11. Şansı yaver gitmese, gelip örnek al,
12. Sana da şanslar diler Andican.
13. Elinde kaftgiri, bıyık altından gülüp,
14. O misafir bekler gururla dolup.
15. Türlü türlü yarışlarda birinci olup
16. Gelmiş, gelir, gelecek Andican. (Aralık, 2003)

SADOQAT (144)

1. *Kimdir she'r yozadi yo kirar jangga,*
2. *Xizmat qilsam deydi har kim Vatanga.*
3. *Bundan manfaat ne, nedir muddao?*
4. *Qush ham o'z oshyonin asrar doimo.*
5. *Shu Vatan qo'ynida topdik to kamol,*
6. *Unga chin sadoqat - eng ezgu a'mol.*
7. *Aslida mehr ham, muruvvat ham shu,*
8. *Demak, shoning mangu, shavkating mangu.*
9. *Onadan oq sutning haqqi so'ralmas,*
10. *Vatan roziman deb javob qilsa, bas!*

SADAKAT (144)

1. Kim şiir yazar yahut girer savaşa,
2. Hizmet etsem der herkes Vatan'a.
3. Bundan menfaat ne, nedir istek?
4. Kuş da kendi aşiyanını korur daima.
5. Bu Vatan bağrında bulduk ta kemal,
6. Ona gerçek sadakat, en iyi iş.
7. Aslında şefkat de, insanlık da bu,

8. Demek şanın sonsuz, şefkatin sonsuz.

9. Anadan ak sütünün hakkı sorulmaz,

10. Vatan razıyım diye cevap verse, yeter! (Ocak, 2004)

ZUVALA (145)

1. *Birodar, tushmadim men ham osmondan,*

2. *Sen ham kelmagansan biror tomondan.*

3. *Bir yurtning farzandi ikkalamiz ham,*

4. *Zuvalamiz bitta, mehr bir jondan.*

HAMUR (145)

1. Birader, düşmedim ben de asumandan,

2. Sen de gelmemişsin bir taraftan.

3. Bir yurdun çocuğu her ikimiz de,

4. Hamurumuz bir, şefkat bir candan. (17 Şubat 2004)

KOMILLIK (146)

1. *Mayli shoirlikni qilmagil havas,*

2. *Balki olimlik ham senga shart emas.*

3. *Anglasang dunyoning o'tkinchiligin,*

4. *Komil bo'lmoqlikka shuning o'zi bas!*

KÂMİLLİK (146)

1. Neyse şairliğe etme heves,

2. Belki âlimlik de sana şart değil.

3. Anlasan dünyanın faniliğini,

4. Kâmil olmaya bunun kendisi yeter! (1 Mart 2004)

KELINOYI (147)

1. *Boshliq ishga kelar tongda tund va jim,*

2. *Bo‘yinbog‘i qiyshiq, shimi ham g‘ijim.*

3. *U yoqdan bu yoqqa tinmay odimlar,*

4. *Bu holdan tashvishga tushar xodimlar.*

5. *Deyishar, ishlar-ku jadal, joyida,*

6. *Demak, hamma sabab kelinoyida.*

7. *Boshliq ishga kelar ertasi, biroq,*

8. *Uning ko‘rinishi boshqadir mutloq.*

9. *Bo‘yinbog‘ ham silliq, shimi ham silliq,*

10.*Muomala esa iliqdan iliq.*

11.*Uchragan har kimga tabassum qilar,*

12.*Barchaga, barchaga omadlar tilar.*

13.*Endi boshliq emas, balki xodimlar*

14.*Bir-birin qutlashib, tinmay odimlar.*

15.*Deyishar, bor bo‘lsin xizmat joyimiz,*

16.*Bor bo‘lsin mehribon kelinoyimiz!*

YENGE (147)

1. Patron işe gelir şafakta suskun ve sessiz,

2. Kravatı yamuk, pantolonu da kırışık.

3. O yandan bu yana durmadan adımlar,
4. Bu hâlden kaygıya düşer işçiler.

5. Derler, işler hızlı, yolunda,
6. Demek, bütün sebep yengede.

7. Patron işe gelir sabah, fakat,
8. Onun görünüşü başkadır mutlak.

9. Kravatı da düzgün, pantolonu da düzgün,
10. Muamele ise candan öte.

11. Karşılaştığı herkese tebessüm eder,
12. Herkese, herkese şanslar diler.

13.Şimdi patron değil, belki işçiler
14. Birbirini bekleşip, durmadan adımlar.

15. Derler, var olsun hizmet yerimiz,
16. Var olsun şefkatli yengemiz! (Mart, 2004)

TILSIM (148)

1. *Garchand Inson qavmin bittadir ismi,*
2. *Garchand mushtarakdir qiyofa, jismi.*
3. *Lekin qilmishlari uning turfadir,*
4. *Bir qismi aldanar, aldar bir qismi.*

TILSIM (148)

1. Gerçi İnsan kavminin birdir ismi,
2. Gerçi müşterektir görünüşü, cismi.
3. Ama yaptıkları onun gariptir,
4. Bir kısmı aldanır, aldatır bir kısmı. (12 Mart 2004)

HAQIQAT (149)

1. *Dedilar: - Ayo, pir, aylagil shafqat,*
2. *Haqiqat bormikin, rostin ayt faqat.*
3. *Pir dedi: - Tiriksan, haqiqat shuldir,*
4. *Bir kuni o‘lgaysan, bul ham haqiqat.*

HAKİKAT (149)

1. Dediler: - Ey, pir, et şefkat,
2. Hakikat var mı ki, doğrusunu söyle sadece.
3. Pir dedi: - Dirisin, hakikat budur,
4. Bir gün öleceksin, bu da hakikat. (16 Mart 2004)

NASIHAT (150)

1. *Yoshlik ortda qoldi, turding oyoqqa,*
2. *Azmu shijoatni unutma, bolam.*
3. *Nasihat yoqmaydi endi quloqqa,*
4. *Aqlu farosatni unutma, bolam.*

5. *Bu dunyo aslida aldamchi bozor,*
6. *Unda lo‘ttibozu nokaslar bisyor.*
7. *Sen mardlar qoshida mard bo‘lgil, zinhor*
8. *Xayru saxovatni unutma, bolam.*

9. *Balki dasturxoning doim mo‘l bo‘lmas,*
10. *Omad ham hamisha charaqlab kulmas.*
11. *Kim aytar, suyangan padaring o‘lmas,*
12. *Sabru qanoatni unutma, bolam.*

13. *Yovuz kimsalardan aylagil hazar,*
14. *Ularning qalbi puch, tillari zahar.*
15. *Axtara-axtara do‘st topsang agar,*
16. *Mehru sadoqatni unutma, bolam.*

17. *Og‘am deb kimlardir silar boshingni,*
18. *Ukam deb yeb ketar birov oshingni.*
19. *Ming bir taroziga solar toshingni,*
20. *Makru xiyonatni unutma, bolam.*

21. *Kaslar bor, qadringni goho bilmaslar,*
22. *Goho bilsalar ham ko‘zga ilmaslar.*
23. *Garchand ular senga parvo qilmaslar,*
24. *Fazlu diyonatni unutma, bolam.*

25. *Turfa sinovlarga duch kelgay inson,*
26. *Gohida shodondir, gohida nolon.*
27. *Chorasiz qolsang ham, lekin hech qachon*
28. *Adlu adolatni unutma, bolam.*

29. *Qadamda uchragay azizlar xoki,*
30. *Yo‘lingni yoritgay aqlu idroki.*
31. *Iloyo, ruhlari shod bo‘lsin, toki*
32. *Zikru ziyoratni unutma, bolam.*

33.*Nodonlik belgisi - havoyi g‘urur,*

34.*Olloh dushmanidir kimki takabbur.*

35.*Mag‘zi to‘q boshoqning egilishin ko‘r,*

36.*Sirru sinoatni unutma, bolam.*

37.*Ayturman men senga ushbu gapni ham:*

38. *“Bilib qo‘y, g‘oyatda go‘zaldir olam.*

39.*Biroq payti kelsa, tepamda bir dam*

40.*Sidqu tilovatni unutma, bolam!”*

NASİHAT (150)

1. Gençlik geride kaldı, kalktın ayağa,

2. İstikrar ve cesareti unutma, evladım.

3. Nasihat hoş gelmez şimdi kulağa,

4. Akıl ve feraseti unutma, evladım.

5. Bu dünya aslında aldatıcı Pazar,

6. Onda hilekâr ve alçaklar çok.

7. Sen mertler önünde mert ol, zinhar

8. Hayır ve cömertliği unutma, evladım.

9. Belki sofran daima bol olmaz,

10.Şans da daima parlayıp gülmez.

11. Kim der, yardım aldığın pederin ölmez,

12. Sabır ve kanaati unutma, evladım.

13.Kötü kimselerden dur uzak,

14. Onların kalbi boş, dilleri zehir.

15. Araya araya dost bulursan eğer,
16.Şefkat ve sadakati unutma, evladım.

17. Abim diye kimler okşar başını,
18. Kardeşim diye yer birisi aşını.
19. Bin bir teraziye koyar taşını,
20. Hile ve hıyaneti unutma, evladım.

21.İnsanlar var, kadrini bazen bilmezler,
22. Bazen bilseler de dikkate almazlar.
23. Gerçi onlar sana perva etmezler,
24. Erdem ve dürüstlüğü unutma, evladım.

25.İlginç sınavlara uğrayacak insan,
26.Gâh şâdândır, gâh nalan.
27.Çaresiz kalsan da, lakin hiçbir zaman
28. Doğruluk ve adaleti unutma, evladım.

29. Adımda rastlayacak azizler toprağı,
30. Yolunu aydınlatacak akıl ve idraki.
31. Ey Rabb'im! Ruhları şad olsun, ta
32. Zikir ve ziyareti unutma, evladım.

33. Cahillik alameti boş gurur,
34. Allah düşmanıdır kim ki mağrur.
35.İçi dolu başağın eğilişini gör.
36.Sır ve gizemi unutma, evladım.

37.Söylerim ben sana bu sözü de:

38. Anla, gayette güzeldir âlem.

39. Fakat zamanı gelse tepemde bir an

40. Sadakat ve tilaveti unutma, evladım! (Mart, 2004)

YASHIL NOVDA (151)

1. *Rasul qabristondan borarkan o‘tib,*

2. *Shafqat va inoyat hissin tuydilar.*

3. *Bir qabr qoshida tilovat etib,*

4. *So‘ng yashil novdani qadab qo‘ydilar.*

5. *Sahobalar dedi: - Yo Rasulullоh,*

6. *Bu novda jismida yashirin qay sir?*

7. *Rasul javob qildi: - U endi, valloh,*

8. *Go‘rning azobini yengillatgaydir.*

9. *Chindan sehr bilan to‘liqdir olam,*

10.Chindan har qadamda ilohiy asror.

11.Zo‘r qudrat emasmi hayot o‘zi ham,

12.Yashil novdada ham uning kuchi bor!

YEŞİL FİDAN (151)

1. Resul kabristandan giderken geçip,

2. Şefkat ve inayet hissini duydular.

3. Bir kabir önünde tilavet edip,

4. Sonra yeşil fidanı dikip bıraktılar.

5. Sahabeler dedi: - Ya Resulullah,

6. Bu fidan cisminde saklı hangi sır?

7. Resul cevap verdi: - O şimdi, vallah,

8. Kabrin azabını hafifletecektir.

9. Gerçekten sihirle doludur âlem,
10. Gerçekten her adımda ilahi esrar.
11.Büyük kudret değil mi hayat kendisi de,
12. Yeşil fidanda da onun gücü var! (Mart, 2004)

OLLOH MARHAMATI (152)

1. *Ollohim kimgadir berdi boylik, zar,*
2. *Balki rahm ayladi yo‘qsil joniga.*
3. *Valekin to‘ymasin deya u battar*
4. *Nafsni qo‘shib qo‘ydi yoniga.*

5. *Ollohim kimgadir mansabni berdi,*
6. *Amal poyalarin qildi mustahkam.*
7. *Valekin narigi tomonda qurdi*
8. *Qaytib tushadigan zinalarni ham.*

9. *Ollohim kimgadir berdi iste’dod,*
10.*Mayli, taratsin deb go‘zal kuylarni.*
11.*Valekin bir umr cheksin deb faryod,*
12.*Unga hamroh qildi hasadgo‘ylarni.*

ALLAH MERHAMETİ (152)

1. Allah’ım kime verdi zenginlik, para,
2. Belki merhamet etti yoksul canına.
3. Velakin doymasın diye o beter
4. Nefsini katıp koydu yanına.

5. Allah'ım kime vazifeyi verdi,
6. Görev aşamalarını kıldı müstahkem.
7. Velakin öbür tarafa götürdü
8. İnkâr edip girdiği zinaları da.

9. Allah'ım kime verdi istidat,
10. Peki, saçsın diye güzel günleri.
11. Velakin bir ömür çeksin diye feryat,
12. Ona yoldaş kıldı hasetçileri. (Mart, 2004)

EVRILISH (153)

1. *Bolalik yillarning sho'xliklari bor,*
2. *O'yin janjalga ham oxir yetardi.*
3. *Yengilgan jo'ramiz to'ng'illab nochor:*
4. *- Otamga aytaman! - deya ketardi.*

5. *So'ngra maktab bordik, ulg'aydik go'yo,*
6. *Kimdir "oddiy" bo'ldi, kimdir "ataman."*
7. *Alam chekkanimiz der edi goho:*
8. *- Seni direktorga aytaman!*

9. *Bir kun katta bo'ldik bizlar rostdan ham,*
10.*O'ylab gapirmoq shart endi har kimga.*
11.*Seni qo'rqitardi bundayroq odam:*
12.*- Partkomga aytaman, partkomga!*

13.*Zamonlar o'zgardi, o'zgardi do'st-yov,*
14.*Davr ham o'zga bir libosni kiydi.*
15.*Bugun xafa qilsa birovni birov,*
16.*Darhol "Bi-Bi-Si"ga aytaman!" deydi.*

EVRİLMEK (153)

1. Çocukluk yıllarının yaramazlıkları var,
2. Oyun çekişmeye de kümes (ahır) yeterdi.
3. Yenilen arkadaşımız homurdanıp çaresiz:
4. - Babama söylerim! diye giderdi.

5. Sonra mektebe gittik, büyüdük sanki,
6. Kimi "sıradan" oldu, kimi "başkan."
7. Acı çekenimiz der idi bazen:
8. - Seni müdüre söylerim!

9. Bir gün büyüdük bizler gerçekten de,
10.Düşünüp konuşmak şart şimdi herkese.
11. Seni korkuturdu böyle insan:
12.- Parti komitesine söylerim, parti komitesine!

13. Zamanlar değişti, değişti dost düşman,
14. Devir de başka bir giysisini giydi.
15. Bugün üzse birisini biri,
16. Derhâl "Bi-Bi-Si"ye söylerim!" der. (Mart, 2004)

TAVBA (154)

1. *Balki bo'lolmadim Sizga munosib,*
2. *Buni kech bilganim uchun ham tavba.*
3. *Sizga she'rlar bitib, maktublar yozib,*
4. *Bezovta qilganim uchun ham tavba.*

5. *Dunyoda bormikan Sizdek jafokor,*

6. *Sizdek mehri tansiq, parvosiz dildor.*

7. *Vafo degan so‘zni bekordan-bekor*

8. *Quloqqa ilganim uchun ham tavba.*

9. *Axir yurmasmidim men ham sho‘x, shodon,*

10.*Sizning borligingiz bilmasdan, xandon.*

11.*Sizni deb shuncha yil sargashta-sarson*

12.*Bag‘rimni tilganim uchun ham tavba.*

TÖVBE (154)

1. Belki olamadım Size münasip,

2. Bunu geç anladığım için de tövbe.

3. Size şiirler düzüp, mektuplar yazıp,

4. Rahatsız ettiğim için de tövbe.

5. Dünyada var mıymış Sizin gibi cefakâr,

6. Sizin gibi sevgisi ender, pervasız yâr.

7. Vefa denen söz nafile.

8. Kulak astığım için de tövbe.

9. Artık yürümez miydim ben de şen, şâdân,

10. Sizin varlığınızı bilmeden, handan.

11. Sizi diye bunca yıl başıboş, avare

12. Bağrımı dinlediğim için de tövbe. (Mart, 2004)

NODON (155)

1. *Dunyoga yashay deb keladi Inson,*

2. *Yashamoqlik uchun axtarar imkon.*

3. *Sen-ku bu dunyodan to‘ygan ekansan,*

4. *Boshqalarni nega qiynaysan, nodon?!*

CAHİL (155)

1. Dünyaya yaşayayım diye gelir İnsan,
2. Yaşamak için arar imkân.
3. Sen bu dünyadan doymuş imişsin,
4. Başkalarına niye zulmedersin, cahil?! (29 Mart 2004)

SHAMBALA (156)

1. *Olis Himoloyda, Tibet tomonda*
2. *Bor emish Shambala nomli mamlakat.*
3. *Bizdek davron surmish qay bir zamonda,*
4. *Hozir yer ostida yasharmish faqat.*

5. *Lemur, Atlant emish ularning nasli,*
6. *Hatto koinotga sololgan titroq.*
7. *Ular odomzotning pushtidir asli,*
8. *Tanlari muz qotgan, ruhlari uyg‘oq.*

9. *Magar yer yuzini chulg‘asa balo,*
10.Inson xudo desa aqchani, zarni,
11.Iymonni himoya aylab Shambala
12.Jo‘natib turarmish bir payg‘ambarni.

13.Ular orasida bormikan o‘zbek -
14.Bunisi, albatta, menga noayon.
15.Biroq yer ustida aybimiz birdek,
16.Buzilib ketdi-ku tag‘in bu jahon.

17.*Odamzot charog‘i o‘chmasin toki,*

18.*Shambala, qavmingga yana parvo et.*

19.*Biror vakilingni jo‘natgin, yoki*

20.*O‘sha diyoringga bizni olib ket.*

ŞAMBALA (156)

1. Uzak Himalaya’da, Tibet tarafında

2. Var imiş Şambala adlı memleket.

3. Bizim gibi refah sürmüş hangi bir zamanda,

4. Şimdi yer altında yaşarmış sadece.

5. Lemur, Atlant imiş onların nesli,

6. Hatta kâinata salabilmiş titreyiş.

7. Onlar insanoğlunun neslidir aslı,

8. Bedenleri buz gibi katılaşmış, ruhları uyanık.

9. Meğer yeryüzünü sarsa bela,

10.İnsan Hüda dese parayı, altını,

11.İmanı himaye edip Şambala

12.Gönderip dururmuş bir peygamberi.

13. Onlar arasında var mıymış Özbek,

14. Burası, elbette, bana değil ayan.

15. Fakat yer üstünde ayıbımız bir gibi,

16. Bozulup gitti yine bu cihan.

17.İnsanlık çırağı sönmesin ta,

18.Şambala, kavmine yine perva et.

19. Bir vekilini yolla yahut

20.O diyarına bizi alıp git. (Nisan, 2004)

SAFAR (157)

1. *Kelsangu demasa birov marhabo,*

2. *Ketsang hech bir kimsa aytmasa vido.*

3. *Bundayin safardan murod ne bo‘ldi,*

4. *Nega keltirdingu ketkizding, Xudo?!*

SEFER (157)

1. Gelsen ve demese biri merhaba,

2. Gitsen hiçbir kimse etmese veda.

3. Böyle seferden murat ne oldu,

4. Niye getirdin ve gönderdin, Hüda?! (18 Mayıs 2004)

TAYANCH (158)

1. *Mulku mansab bo‘lsa, azizsan har on.*

2. *Do‘stu yor ham bisyor, olam charog‘on.*

3. *Shu ikki tayanchdan ayrilgan chog‘ing,*

4. *Sen ham ojiz banda, dunyo ham zindon.*

DAYANAK (158)

1. Mülkü akarsu ağzı olsa, azizsin her an.

2. Dost ve yâr da çok, âlem ışıltılı.

3. Bu iki dayanaktan ayrılan çağın,

4. Sen de âciz köle, dünya da zindan. (21 Mayıs 2004)

XAVOTIR (159)

1. *Bir kuni dedilar: - Aytgil, ayo Pir,*

2. *Shartmikan har kimga bittadan qabr.*

3. *Pir dedi: - Hammani bir joyga ko‘msang,*

4. *Nizo chiqib ketsa yomonku axir.*

ENDİŞE (159)

1. Bir gün dediler: - Söyle, ey Pir,

2. Şart mıymış herkese bir kabir.

3. Pir dedi: - Hepsini bir yere gömsen,

4. Niza çıksa kötü ahir. (22 Mayıs 2004)

DIYDOR (160)

1. *Onam erta ketdi dunyodan nolon,*

2. *Yoshidan o‘tganman men allaqachon.*

3. *Qartaygan o‘g‘lingni oxirat kuni*

4. *Taniy olurmisan, bilmam, onajon!*

YÂR (160)

1. Anam sabah gitti dünyadan nalan,

2. Ağlamaktan geçmişim ben vaktiyle.

3. Yaşlanan oğlunu ahret günü

4. Tanıyabilir misin, bilmem, anacığım! (25 Mayıs 2004)

HAQIQAT (161)

1. *Darvesh umr bo‘yi chekib g‘am, zahmat,*

2. *Dunyoda haqiqat axtardi faqat.*

3. *Bir kun o‘rab dedi uni olomon:*

4. *Haqiqat o‘zing-ku, o‘zing haqiqat!*

HAKİKAT (161)

1. Derviş ömür boyu çekip gam, zahmet,

2. Dünyada hakikat aradı sadece.

3. Bir gün sarıp dedi ona âlim:

4. Hakikat kendin, kendin hakikat! (16 Ağustos 2004)

BIRDAMLIK (162)

Shaxmat bo‘yicha jahon chempioni

Rustam Qosimjonovga

1. *Poytaxt aeroporti.*

2. *Gavjum chunon ham.*

3. *Yerga tushmas edi sochsang tangani,*

4. *Go‘yo chiqqan edi mamlakat shu dam*

5. *Chempion Rustamni qarshi olgani.*

6. *“Balli”, “Barakalla” der har bir yurtdosh,*

7. *Hamma qutlar edi bir-birin shodon.*

8. *Mening ko‘zlarimdan tirqiradi yosh,*

9. *Bizni birlashtirding, rahmat, Rustamjon!*

BİRLİK (162)

Satranç alanında dünya şampiyonu

Rüstem Kasımcanov’a

1. Başkent havalimanı.

2. Kalabalık gayet de.

3. Yere düşmez idi saçsan tengeni ,

4. Sanki çıkmış idi memleket o an

5. Şampiyon Rüstem’i karşılamaya.

6. “Aferin”, Bravo” der her bir yurttaş,

7. Herkes kutlar idi birbirini şâdân.

8. Benim gözlerimden boşanırdı yaş,

9. Bizi birleştirdin, teşekkürler, Rüstemcan! (16 Temmuz 2004)

ANGLASH (163)

1. *Tonglarim tiyradir, oqshomlar purg‘am,*

2. *Bir-bir ketayotir jo‘ralarim ham.*

3. *Birovin yo‘lini kasallik to‘ssa,*

4. *Birovin yiqitdi g‘am bilan g‘ussa.*

5. *Boshiga tushsa ham qanchalik savdo,*

6. *Noshukur bo‘lmadi ular, ajabo!*

7. *Bildimki, nolishni nainki zamon,*

8. *Alloh ham yoqtirmas ekan hech qachon.*

ANLAMAK (163)

1. Şafaklarım koyudur, akşamlar pür-gam,

2. Birer birer gider dostlarım da.

3. Birisinin yolunu hastalık kesse,

4. Birisini çökertti gamla gussa.

5. Başına gelse de nice sevda,

6. Şükürsüz olmadı onlar, aslında!

7. Anladım ki, şikâyeti mümkün mü zaman,

8. Allah da sevmez imiş hiçbir zaman. (25 Eylül 2004)

E'TIROF (164)

1. *Avval shogirdlarga berildi navbat,*
2. *Ular sharh ayladi o'z ilmlarin.*
3. *So'ngra jo'r bo'lishib maqtashdi faqat,*
4. *Ta'lim bergan ustoz - muallimlarin.*

5. *Esladilar go'yo berganday hisob,*
6. *Beruniydan tortib Oqil boboni.*
7. *Tushunarli edi bundayin odob,*
8. *Hamma anglar edi bundan ma'noni.*

9. *Keksa bir murabbiy so'z olib shu tob,*
10. *Minbarga chiqdi-ku shoshilmay, asta.*
11. *Va bir shogirdini etdi e'tirof,*
12. *Olqishlar yog'ildi unga bir pasda!*

İTİRAF (164)

1. Evvel şakirtlere verildi sıra,
2. Onlar şerh etti kendi ilimlerini.
3. Sonra eşit bölüşüp övdü sadece,
4. Talim veren üstat, muallimlerini.

5. Hatırladılar sanki vermiş gibi hesap,
6. Bîrûnî cezbedip Akıllı dedeyi.
7. Anlaşılır idi böyle edep,
8. Herkes anlar idi böyle manayı.

9. Yaşlı bir mürebbi söz alıp o an,

10.Kürsüye çıktı acele etmeden, yavaşça.

11. Ve bir şakirdini etti itiraf,

12. Alkışlar yağdı ona bir anda! (28 Eylül 2004)

IKKI QARIYA (165)

1. *Qariyalar uyi.*

2. *Ikki mo‘ysafid*

3. *Dardlashar edilar sokin, jimgina.*

4. *Biri der: yashadim, garchi egnim but,*

5. *Farzand ko‘rmadim men, oqibat - mana...*

6. *Ikkinchisi esa oh chekdi shu on,*

7. *Dedi: armoningiz cheksizdir, bildim.*

8. *Men esa dardimni etolmam bayon,*

9. *Farzandlar dastidan bul yerga keldim.*

İKİ İHTİYAR (165)

1. İhtiyarlar evi.

2. İki ihtıyar

3. Dertleşir idiler sakince, sessizce.

4. Biri der: yaşadım, gerçi üstüm başım tam,

5. Çocuk görmedim ben, akıbet, işte…

6. İkincisi ise ah çekti o an,

7. Dedi: ukdeniz sonsuzdur, anladım.

8. Ben ise derdimi edemem beyan,

9. Çocuklar elinden bu yere geldim. (15 Kasım 2004)

QANOAT (166)

1. *Menga shabnamchalik ko‘z yoshing yetar,*
2. *Menga zig‘irchalik bardoshing yetar.*
3. *Mayli, tansiq ne’mat bermagil menga -*
4. *Beminnat bir qoshiq so‘k oshing yetar.*

KANAAT (166)

1. Bana küçük şebnemli gözyaşın yeter,
2. Bana küçücük sabrın yeter.
3. Pekâlâ, nadir nimet verme bana
4. Minnetsiz bir kaşık koy aşın yeter. (16 Kasım 2004)

IMOM (167)

1. *Hazratim, aslida Sizga ham qiyin,*
2. *Somelar ko‘pincha qilishar o‘yin.*
3. *Avval ortingizda namoz o‘qishar,*
4. *Qatiqqa suv qo‘shib sotishar keyin.*

İMAM (167)

1. Hazretim, aslında Siz’e de çetin,
2. Hafızlar çoğu kez ederler oyun (şaka).
3. Evvel ardınızda namaz kılarlar,
4. Yoğurda su katıp satarlar sonra. (16 Kasım 2004)

DA’VO (168)

1. *XX asr zotlari aro*
2. *Mening ham o‘rnim bor shaksiz mutlaqo.*
3. *Men asli shoirman, janob muharrir,*
4. *Shuni unutmang deb Ergash fuqaro.*

DAVA (168)

1. 20. asır zatları arasında
2. Benim de yerim var şüphesiz mutlaka.
3. Ben aslında şairim, efendi muharrir,
4. Bunu unutmayın diye İzleyen vatandaş. (23 Kasım 2004)

NAPOLEON (169)

1. *Do‘xtir davoladi bemorni uzoq,*
2. *Tuzatgach maslahat berdi u shundoq:*
3. *- Napoleon menman, deb yurmagil endi,*
4. *Napoleon men o‘zim, bilib qo‘y, o‘rtoq!*

NAPOLYON (169)

1. Doktor iyileştirir hastayı sürekli,
2. Düzeltince öğüt verdi o şöyle:
3. - Napolyon misafir, diye yürüme şimdi,
4. Napolyon ben kendim, anla, arkadaş! (25 Kasım 2004)

HAMMUALLIF (170)

1. *Yo‘lning chekkasida turgay u faqat,*
2. *Piyoda yurishga unda yo‘q toqat.*
3. *Otliq o‘tadimi, eshaklimi yo,*
4. *Mingashib oladi unga shu fursat.*

MÜELLİF (170)

1. Yolun kenarında dursun o sadece,
2. Yayan yürümeye onda yok takat.
3. Atlı geçer mi, eşekli mi yahut

4. Biner ona bu vakit. (26 Kasım 2004)

“O‘ZBEKISTON XAVO YO‘LLARI” MADHIYASI (171)

1. *Oshyoningga iloyo*
2. *omon-eson qayt,*
3. *Yoru do‘stga O‘zbekning*
4. *salomini ayt.*

Naqarot

5. *Kabutardek uchirdi*
6. *Vatan qo‘llari,*
7. *O‘zbekiston havo yo‘llari,*
8. *havo yo‘llari.*

9. *So‘ylashasan quyoshli*
10. *kunduzlar bilan,*
11. *Bo‘ylashasan tunlari*
12. *yulduzlar bilan.*

Naqarot

13. *Kabutardek uchirdi*
14. *Vatan qo‘llari,*
15. *O‘zbekiston havo yo‘llari,*
16. *havo yo‘llari.*

17. *Yaxshi niyat hamisha*

18. *yo‘ldoshing bo‘lsin,*

19. *Qayga borsang ezgulik*

20. *qo‘ldoshing bo‘lsin.*

Naqarot

21. *Kabutardek uchirdi*

22. *Vatan qo‘llari,*

23. *O‘zbekiston havo yo‘llari,*

24. *havo yo‘llari.*

“ÖZBEKİSTAN HAVA YOLLARI” METHİYESİ (171)

1. Aşiyanına ey Rabb’im!

2. sağ salim dön,

3. Yâr ve dosta Özbek’in

4. selamını söyle.

Nakarat

5. Güvercin gibi uçardı

6. Vatan elleri,

7. Özbekistan hava yolları,

8. hava yolları.

9. Söylersin güneşli,

10. gündüzlerle,

11. Boyunca gidersin geceleri

12. yıldızlarla.

Nakarat

13.Güvercin gibi uçardı
14. Vatan elleri,
15.Özbekistan hava yolları,
16. hava yolları.

17.İyi niyet daima
18. yoldaşın olsun,
19. Nereye gitsen iyilik
20. yardımcın olsun.

Nakarat

21.Güvercin gibi uçardı
22. Vatan elleri,
23.Özbekistan hava yolları,
24. hava yolları. (3 Aralık 2004)

SHOIRLAR VA YULDUZLAR (172)

1. *Balki koinotning qay puchmog‘ida,*
2. *Qaysidir yulduzda yashar bir shoir.*
3. *U ham bizga o‘xshab jo‘shgan chog‘ida,*
4. *Balki she’rlar yozar samoga doir.*

5. *U ham balki bedor olamni kezib,*
6. *Yiroq-yiroqlarga uchmoq istaydi.*
7. *O‘zining g‘alvali burjidan bezib,*

8. *Boshqa dunyolarni quchmoq istaydi.*

9. *Balki u tunlari entikib boqqan*
10.*Yulduz bizning yerdir, bizning Sayyora.*
11.*Balki yuragida olovlar yoqqan,*
12.*Shimol yog‘dulari - moviy sharora.*

13.*Balki Farg‘onaning so‘lim bog‘lari,*
14.*Uni chorlab turar ko‘m-ko‘k nur bo‘lib.*
15.*Sirli sevgi hissin tuygan chog‘lari,*
16.*Termular, she’r yozar shavqlarga to‘lib.*

17.*Oh, u sodda shoir, bilsin qayoqdan,*
18.*Go‘zal bu sayyora sinoatlarin.*
19.*Maftunkor ko‘ringay toqi ravoqdan,*
20.*Yashirib hisobsiz jarohatlarin.*

21.*Uning bag‘ri butkul zaqqumga to‘liq,*
22.*Inson degan jonzot yetgan boshiga.*
23.*Ko‘ksidan taralar mungli bir qo‘shiq,*
24.*Tavallo qilar u o‘z Quyoshiga.*

25.*Yiroq yulduzdagi shoirim-jo‘ram,*
26.*Sen ham o‘z she’ringni yozavergin, bas.*
27.*Menga havas bilan boqmagil ko‘p ham,*
28.*Mayli men ham senga qilmayin havas.*

ŞAİRLER VE YILDIZLAR (172)

1. Belki kâinatın hangi köşesinde,

2. Hangi yıldızda yaşar bir şair.
3. O da bize benzeyip coştuğu anında,
4. Belki şiirler yazar semaya dair.

5. O da belki uyanık âlemi gezip,
6. Çok uzaklara uçmak ister.
7. Kendisinin sıkıntılı burcundan bezip,
8. Başka dünyaları kucaklamak ister.

9. Belki o geceleri iç çekip bakan
10. Yıldız bizim yerdir, bizim Seyyare.
11. Belki yüreğinde alevler yakan,
12. Kuzey ışıkları, mavi kıvılcım.

13. Belki Fergana'nın güzel bağları,
14. Onu çağırıp durur masmavi ışık olup.
15. Sırlı sevgi hissini duyduğu zamanları,
16. Gözünü diker, şiir yazar şevklerle dolup.

17. Ah, o saf şair, bilsin nereden,
18. Güzel bu seyyare hadiselerini.
19. Meftunkâr görünsün ta revaktan,
20. Gizlenip sayısız cerahatlerini.

21. Onun bağrı büsbütün zakkumla dolu,
22. İnsan denen varlık ulaşmış başına.
23. Göğsünden yayılır sıkıntılı bir koşuk,
24. Rica eder o kendi Güneşine.

25. Uzak yıldızdaki şairim, dostum,

26. Sen de kendi şiirini yazıver, yeter.

27. Bana hevesle bakma çok da,

28. Peki ben de sana etmeyeyim heves. (24 Aralık 2004)

ER YIGIT (173)

1. *O‘g‘lim, bul hikmatni qilgil boshga toj:*

2. *Hech kimsa bo‘lmasin nomardga muhtoj.*

3. *Er yigit qalqondir yurtiga doim,*

4. *Mangudir Vatanda mardga ehtiyoj.*

ER YİĞİT (173)

1. Oğlum, bu hikmeti et başa taç:

2. Hiç kimse olmasın namerde muhtaç.

3. Er yiğit kalkandır yurduna daima,

4. Sonsuzdur Vatan’da merde ihtiyaç. (13 Ocak 2005)

QUYOSH BEKATI (TO‘RTINCHI JILD)

SEN ILOHIY (1)

1. *Sen ilohiy farishta misol,*

2. *Paydo bo‘lsang ko‘zim o‘ngida.*

3. *Unutaman o‘tmishni darhol,*

4. *Unutaman kelajakni-da.*

5. *Butun fikrim, butun xayolim*

6. *Ixtiyoring bo‘lib qoladi.*

7. *Telbadurman. Vujudimni bir*

8. *Ilohiy ruh qoplab oladi.*

9. *Ammo sen ketasan va birdan*
10.*Buziladi simobiy bu hol.*
11.*Yana mening to‘rt tarafimdan*
12.*Qurshab kelar og‘ir bir xayol.*

13.*Yana o‘tmish, afsus va kadar*
14.*Og‘ushiga tortarlar mani.*
15.*Ammo ular menga bu safar*
16.*Ko‘rinadi g‘oyat be’mani.*

GÜNEŞ DURAĞI (DÖRDÜNCÜ CİLT)

SEN İLAHİ (1)

1. Sen ilahi melek misali,
2. Peyda olsan gözümün önünde.
3. Unuturum geçmişi derhâl,
4. Unuturum geleceği.

5. Bütün fikrim, bütün hayalim
6. İsteğin olup kalır.
7. Divaneyimdir. Vücudumu bir
8. İlahi ruh kaplayıp alır.

9. Ama sen gidersin ve birden
10. Bozulur cıvalı bu hâl.
11. Yine benim dört tarafımdan
12. Kuşatıp gelir ağır bir hayal.

13. Yine geçmiş, pişmanlık ve keder
14. Bağrına çekerler beni.
15. Ama onlar bana bu sefer
16.Görünür gayet anlamsız. (1960)

AQIDA (2)

1. *Qadim bir aqida she'rimga mavzu.*
2. *Shunday haqiqatni bayon etar u:*

3. *- Kimniki ollohi joniday sevar,*
4. *Bilki, o'sha inson ko'p erta ketar.*

5. *Tunlar yosh umrimni o'ylab ketaman*
6. *Va yon daftarimga shuni bitaman:*

7. *- Davom eta qolsin, umrimiz doim,*
8. *Mayli, sevmay tursin ozroq Xudoyim.*

AKİDE (2)

1. Kadim bir akide şiirime mevzu.
2. Böyle hakikati beyan eder o:

3. - Kimi ki Allah'ı canı gibi sever,
4. Bil ki, o insan çok erken gider.

5. Geceler genç ömrümü düşünürüm
6. Ve cep defterime şunu yazarım:

7. - Devam edekalsın, ömrümüz daima,

8. Peki, sevmesin daha az Allah'ım. (1960)

AJDODLAR (3)

1. *Turlik toifalar bordir dunyoda,*

2. *Izhor qiladilar turlik niyatni.*

3. *Goho bir-biridan bo'lib ziyoda,*

4. *O'rnatmoq bo'larlar haqqoniyatni.*

5. *Haqqoniyat qayda? Qaysi odamda?*

6. *Yoxud kelgusiga bog'liqmi bu gap.*

7. *Ketgan sira qaytmas ushbu olamda,*

8. *Endi kelgusini qo'llagin, yo rabb.*

9. *Shu taxlit yashaymiz, goh hud, goh behud,*

10. *Goh totib, goh totmay hayot nafasin.*

11. *Kimki ajdodini etmagan unut,*

12. *Zamon unikidir, oshin oshasin.*

ECDATLAR (3)

1. Çeşitli mezhepler vardır dünyada,

2. İzhar ederler çeşitli niyeti.

3. Bazen birbirinden olup ziyade,

4. Yerleştirirler hakkaniyeti.

5. Hakkaniyet nerede? Hangi insanda?

6. Yahut geleceğe bağlı mı bu söz.

7. Giden asla dönmez bu âlemde,

8. Şimdi geleceği çoğalt, ya Rab.

9. Bu şekil yaşarız, gâh iyi, gâh kötü,

10.Gâh tadıp, gâh tatmadan hayat nefesini.

11. Kim ki ecdadını unutmamış,

12. Zaman onunkidir, uzunca yaşasın. (1960)

“YANA BORLIQ YASHARDI…” (4)

1. *Yana borliq yashardi,*

2. *Uyg‘ondi bog‘lar.*

3. *Kiydi yashil liboslar*

4. *Yaqin-yiroqlar.*

5. *Bul beparvo tabiat*

6. *Gurkirar, tinmas...*

7. *Yashnamaysan faqat sen*

8. *Ey bechora xas...*

9. *Yashnamaysan faqat sen,*

10.*Sho‘rliksan, esiz.*

11.*Nam taningda shudring ham*

12.*Rangsiz va tussiz.*

13.*Shivirlashar xoru xas*

14.*Uyquda mudroq:*

15.*«Ko‘k maysalar teppamda*

16.*Yashnamoqda, boq.*

17.*Ko‘k maysalar teppamda*

18.*Yashnamasa gar,*

19.*Uyg‘onardim men o‘zim*

20.*Shul kun, birodar...».*

21.*Yana borliq yashardi,*

22.*Uyg‘ondi bog‘lar...*

“YİNE VARLIK YAŞARDI…” (4)

1. Yine varlık yaşardı,
2. Uyandı bağlar.
3. Giydi yeşil giysiler
4. Yakın uzaklar.
5. Bu pervasız tabiat
6. Filizlenir, durmaz…
7. Çiçeklenmezsin sadece sen
8. Ey biçare kuru ot…
9. Büyümezsin sadece sen,
10. Zavallısın, yazık.
11. Nemli gövdende şebnem de
12. Renksiz ve farksız.
13.Fısıldaşır eşek ve kuru ot
14. Uykuda uykulu:
15.“Yeşil otlar tepemde
16.Güzelleşmekte, bak.
17. Yeşil otlar tepemde
18.Çiçeklenmese eğer,
19. Uyanırdım ben kendim
20. Bugün, birader…”
21. Yine varlık yaşardı,
22. Uyandı bağlar… (1960)

BAHOR AYYOMI (5)

1. *G‘uncha lab yoradi bahor ayyomi,*
2. *Kapalaklar uchar sharbatga xummor.*
3. *Ochilmay tur g‘uncha bu rashk ayyomi,*
4. *Qaylarda yuribsan, kel sevikli yor.*

5. *G‘uncha xandon otdi, kutmadi seni,*

6. *Tengsizman deydi gul, bahor ayyomi.*

7. *Gullarni taslim et, tezroq kel dildor,*

8. *Mazah etar meni bahor ayyomi.*

BAHAR EYYAMI (5)

1. Gonca dudak yarılır bahar eyyamı,

2. Kelebekler uçar şerbete arzu.

3. Açılmadan dur gonca bu imrenme eyyamı,

4. Bir yerlerde yaşamışsın, gel sevgili yâr.

5. Gonca kahkaha attı, beklemedi seni,

6. Eşsizim der gül, bahar günü.

7. Güllerini teslim et, daha çabuk gel yâr,

8. Alay eder bana bahar günü. (Mayıs, 1962)

DO‘STIM HAQIDA (6)

1. *Aqlimni tanib ilk bor dala-dashtda yurganda,*

2. *Bir to‘ngakka qoqilib, shilingan edi po‘stim.*

3. *Sen hech bir ajablanma, shu to‘nkani ko‘rganda,*

4. *Seni eslasam agar, oyoqdan chalgan do‘stim.*

5. *Daryo uzra zor, hayron suvga tashna turganda,*

6. *O‘tgandim bir ko‘prikdan, bitgan edi kam-ko‘stim.*

7. *Sen hech bir ajablanma, shu ko‘prikni ko‘rganda,*

8. *Seni eslasam agar, madadkor bo‘lgan do‘stim.*

DOSTUM HAKKINDA (6)

1. Aklımı tanıyıp ilk kez tarla, bozkırda gezdiğinde,

2. Bir kütüğe çakılıp, yüzülmüş idi derim.

3. Sen hiç şaşırma, şu deriyi gördüğünde,
4. Seni hatırlasam eğer, ayağı çelen dostum.

5. Derya üstünde muhtaç, şaşkın suya susamış durduğunda,
6. Geçmiştim bir köprüden, bitmiş idi kusurum.
7. Sen hiç şaşırma, şu köprüyü gördüğünde,
8. Seni hatırlasam eğer, yardımcı olan dostum. (1970)

SINOV (7)

1. *Zanjirband etgandi meni kasallik,*
2. *Yo‘limni to‘sgandi daf’atan bir g‘ov.*
3. *Sen deding: «Shoirim qayg‘urma ortiq,*
4. *Sog‘ayib ketarsan, bu ham bir sinov».*
5. *Sen taskin berdingmi, azizim, rahmat,*
6. *Bor bo‘lsin samimiy orzu tilovlar.*
7. *Ammo sinov dema sen buni faqat,*
8. *Qurib ketmaydimi bunday sinovlar.*
9. *Sovuq va qorong‘u g‘aflatga asir,*
10. *Sezmayin hayotning otash nafasin.*
11. *Oltin bir yilimni yo‘qotdim, axir,*
12. *Yo‘qotdim umrimning olmos parchasin.*
13. *Kimga kerak, axir bundayin sinov,*
14. *Mehnatga, yashashga qolmas ekan tob.*
15. *Nimang sinalardi? Bardoshingmi, yo‘q,*
16. *Bardoshga o‘rgatmas behuda azob!*
17. *Sinovlar kaydadir? Derlar, hayotda,*
18. *Mehnat va kurashga shimarganda yeng,*
19. *Yoshliging, idroking, aqling bir marta*
20. *Sinovdan o‘tajak derlar, ammo men,*
21. *Men deyman, ishonchla yashasang har dam*
22. *Qudratli jangchilar boqqanday yovga.*

23.*Shunday yashasangki, yetuk va bardam,*

24.*Hojat qoldirmasang hech bir sinovga!*

SINAV (7)

1. Kelepçeli etmişti beni hastalık,

2. Yolumu kesmişti aniden bir engel.

3. Sen dedin: "Şairim gamlanma artık,

4. İyileşip gidersini bu da bir sınav."

5. Sen teskin ettin mi, azizim, teşekkürler,

6. Var olsun samimi arzular, dilekler.

7. Ama sınav deme sen buna sadece,

8. Kuruyup gitmez miydi böyle sınavlar.

9. Soğuk ve karanlık gaflete esir,

10. Sezmeyin hayatın ateşli nefesini.

11. Altın bir yılımı kaybettim, artık,

12. Kaybettim ömrümün elmas parçasını.

13. Kime gerek, artık böyle sınav,

14. Emeğe, yaşamaya kalmaz imiş istek.

15. Neyin sınanırdı? Sabrın mı, yok,

16. Sabra öğretmez beyhude azap!

17.Sınavlar nerededir? Derler, hayatta,

18. Emek ve mücadeleye sıvadığında yen,

19. Gençliğin, idrakin, aklın bir kez

20.Sınavdan geçecek derler, ama ben,

21. Ben derim, inançla yaşasan her an

22. Kudretli savaşçılar baktığı gibi düşmana.

23.Böyle yaşasan ki, olgun ve sabırlı,

24. Hacet bırakmasan hiçbir sınava! (1962)

"OSHIQ UCHUN BUNDAN SOZ…" (8)

1. *Oshiq uchun bundan soz*

2. *Baxt yo‘q dedim, jahonda.*

3. *Latif oyoqlaringni*

4. *Yashirgan xiyobonda -*

5. *Huzuringga chorlading:*

6. *“Oshiq, bunda kel”, deding.*

7. *“Gullar hajringda yondi,*

8. *Ma’shuq bunda, kel”, deding.*

9. *Gulmi, dedim sog‘ingan,*

10. *Borsam, ajib hol ekan.*

11. *Jambil kokillaringga*

12. *Parvona, behol ekan.*

13. *Dedim: “Mendan o‘zga ham*

14. *Hajringizda zor ekan?!”*

15. *Dedi: “Yetar, senga ham*

16. *Bitta visol bor ekan!”*

17. *Oshiq uchun bundan soz*

18. *Baxt yo‘q dedim, jahonda,*

19. *Latif oyoqlaringni*

20. *Yashirgan xiyobonda....*

“ÂŞIK İÇİN BUNDAN GÜZEL…” (8)

1. Âşık için bundan güzel

2. Baht yok dedim, cihanda.

3. Latif ayaklarını

4. Gizlemiş bahçede

5. Huzuruna çağırdın:

6. “Âşık, bunda gel”, dedin.

7. “Güller hicranında yandı,

8. Maşuk burada, gel” dedin.

9. Gül mü, dedim özlenen,

10. Gitsem, acayip hâl imiş.

11. Kekik örgülerine

12. Pervane, hâlsiz imiş.
13. Dedim: “Benden başka da
14. Hicranınızda figan imiş?!
15. Dedi: “Yeter, sana da
16. Bir visal var imiş!”
17.Âşık için bundan güzel
18. Baht yok dedim, cihanda,
19. Latif ayaklarını
20. Gizlediğin bahçede… (1963)

CHAQMOQ (9)

1. *Tabiatning turfa makomi bordir,*
2. *Bir yonda shu’la-yu bir yonda zulmat.*
3. *Bir yonda oq bilan qora qatordir,*
4. *Bir yon kasirg‘ayu bir yon sukunat.*

5. *Bezgak tutgan misol qaltiradi ko‘k,*
6. *Og‘zin ochib yumdi ajdarho siyoq.*
7. *Nogoh sukunatda otilganday to‘p,*
8. *Nog‘orasin qoqdi momaqaldiroq.*

9. *Oqni toptagin deb oq tulporini*
10.*Zaminga yo‘lladi shu fursat samo.*
11.*Yashin chulg‘ab oldi fazo qa’rini,*
12.*O, xilqat, bu ishing menga noravo.*

YILDIRIM (9)

1. Tabiatın ilginç nağmesi vardır,
2. Bir yanda şule ve bir yanda zulmet.
3. Bir yanda ak ile kara sıradır,

4. Bir yan kasırga ve bir yan sükûnet.

5. Sıtma tutmuş misali titrer gök,
6. Ağzını açıp kapattı ejderha surat.
7. Ansızın sükûnette atılmış gibi top,
8. Kudümünü çaldı gök gürültüsü.

9. Akını küçümse diye ak tulparını
10. Zemine yolladı o vakit sema.
11.Yıldırım sardı feza ka'rını,
12. Aaa, hilkat, bu işin bana nahoş. (1970)

XIVA BOZORIDA (10)

1. *Yig'lab turar edi bir qizcha,*
2. *To'zib ketgan sochlari paxmoq.*
3. *Nima bo'ldi senga, yulduzcha,*
4. *Nima bo'ldi senga, qizaloq.*

5. *Qizcha panoh istagan misol,*
6. *Ketmay turar edi qoshimdan.*
7. *Bir yigitni ko'rsatdi behol,*
8. *Dedi: "O'sha... tortdi sochimdan."*

9. *Yigit esa xurram, shodumon,*
10.*Yurar edi parvo qilmasdan.*
11.*Shundagina keltirdim imon:*
12.*- Xonlar davri tugabdi rostdan.*

HİVE PAZARINDA (10)

1. Ağlayıp durur idi bir küçük kız,
2. Dağılıp gitmiş saçları kabarık.
3. Ne oldu sana, küçük yıldız,
4. Ne oldu sana, küçük kız.

5. Küçük kız himaye istemiş misali,
6. Gitmeden durur idi karşımdan.
7. Bir yiğidi gösterdi hâlsiz,
8. Dedi: "O… çekti saçımdan."

9. Yiğit ise mutlu, şaduman,
10.Yürür idi perva etmeden.
11. Burada ettim iman:
12.- Hanlar devri bitmiş gerçekten. (1970)

Bag'ishlovlar

KULOLGA (11)

1. *Xayyomni xayolga cho'mdirgan sapol,*
2. *Asli bu hunarning o'zi bezavol.*
3. *Minglab asrlarning bobo san'ati,*
4. *Sizning qo'lingizda ko'rsatdi jamol.*

ÇÖMLEKÇİYE (11)

İthaflar

1. Hayyam'ı hayale daldıran çömlekçilik,
2. Asıl bu hünerin kendisi sonsuz.
3. Binlerce asırların dede sanatı,
4. Sizin elinizde gösterdi güzellik.

HAYKALTAROSHGA (12)

1. *Mehnat va iste'dod bo'lsa agar jo,*
2. *San'at paydo bo'lar to'nkada hatto.*

HEYKELTIRAŞA (12)

1. Emek ve istidat yerleşse eğer,
2. Sanat peyda olur kütükte hatta.

ASKIYACHIGA (13)

1. *Demangiz bu oniy qahqaha faqat,*
2. *Bunda nuktadonlik, zako va hikmat.*

NÜKTECİ (13)

1. Demeyiniz bu ani kahkaha sadece,
2. Bunda nüktedanlık, zekâ ve hikmet.

DORBOZGA (14)

1. *Nozik arqon uzra chaqqon kezursan,*

2. *Amali ming yillik dorboz erursan.*

İP CAMBAZI (14)

1. Nazik ip üstünde çevik gezersin,

2. Görevi bin yıllık ip cambazı imişsin.

“YALLA” ANSAMBLIGA (15)

1. *Yoshlik hamisha ham ajib bir davron,*

2. *Mayli sayr aylayver surur bog‘ida.*

3. *Hali bu chog‘larni qilursan armon,*

4. *Soqoling ko‘ksingga tushgan chog‘ida.*

“ŞARKI” GRUBUNA (15)

1. Gençlik daima da ilginç bir devre,

2. Olsun seyrediver sürur bağında.

3. Hâlâ bu anları edersin ukde,

4. Sakalın göğsüne indiği anda. (1971)

YIRTIQ BOTINKA (16)

1. *Doim ust-boshingga qarab yur bolam,*

2. *O‘xshama egasiz daydi, sayoqqa.*

3. *Bejiz demaganlar bobolaring ham*

4. *- Do‘st boshga qaraydi, dushman oyoqqa.*

5. *Do‘stning oyog‘iga egilsin boshing,*

6. *Do‘stni sherik qilg‘il yovg‘on oshingga.*

7. *Yirtiq botinkaga yetsa bardoshing,*

8. *Xumoy kelajakdir albat qoshingga.*

YIRTIK ÇİZME (16)

1. Daima üst başına bakıp yürü evladım,
2. Benzeme sahipsiz serseri, derbedere.
3. Boşuna dememişler dedelerin de
4. - Dost başa bakar, düşman ayağa.

5. Dostunun ayağına eğilsin başın,
6. Dostunu ortak et etsiz aşına.
7. Yırtık çizmeye etse sabrın,
8. Hümay gelecektir elbet karşına. (1975)

O‘ZBEK PAXTAKORIGA (17)

1. *Olganing oltin bo‘lsin desam senga mabodo,*
2. *Yig‘ib-terib turganing o‘zi oltindan afzal.*
3. *Ona xalqim, men uchun sen jondan ham ziyoda,*
4. *Ta’rifingga so‘z yetmas, yozmoq bo‘lsam mufassal.*
5. *Garchi dunyoning ishi madhiya emas butkul,*
6. *Lekin har dil yurtim deb ezgu bir niyat tutsin.*
7. *Azizim, ostonangdan oshib qayon tutsang yo‘l,*
8. *Manglayingdan hamisha quyoshning o‘zi o‘psin.*

ÖZBEK PAMUKÇUYA (17)

1. Aldığın altın olsun desem sana eğer,
2. Toplayıp biriktirdiğinin kendisi altından efdal.
3. Ana halkım, benim için sen candan da ziyade,
4. Tarifine söz yetmez, yazsam mufassal.
5. Gerçi dünyanın işi mehdiye değil büsbütün,
6. Lakin her gönül yurdum diye iyi bir niyet tutsun.
7. Azizim, eşiğinden aşıp nereye tutsan yol,

8. Alnından daima güneşin kendisi öpsün. (1979)

KARLOVA VARI XOTIRALARIDAN (18)

1. *Yuribman suv ichib gohi-gohida,*

2. *Chex yurti, Karlning qarorgohida.*

3. *Ajib suhbatdoshlar bo‘ldi bunda jam,*

4. *Ahmadjon Toymetov va Qodir Hotam.*

5. *G‘oyat go‘zal ekan bu suv maskani,*

6. *Tomosha aylasang sog‘ bo‘lib qani.*

7. *Atrofni o‘ragan yashil o‘rmonzor,*

8. *Baland tepaliklar qator va qator.*

9. *U tomon chiqmoqqa yetmas madorim,*

10.*Shuni ham ko‘p ko‘rdi parvardigorim.*

11.*Sino to‘g‘risida boshlovdim doston,*

12.*Ajab, qochib qoldi tobim nogahon.*

13.*Rangim za’farondir, boshda og‘riqdir,*

14.*Ko‘chaga chiqishni man etgan do‘xtir.*

15.*Men kabi xastalar bu tomon beshak*

16.*Minib kelsa yaxshi ot yoki eshak.*

17.*O‘shanda bemalol yursa bo‘lardi*

18.*Yana ancha joyni ko‘rsa bo‘lardi...*

KARLOVA VARİ ANILARINDAN (18)

1. Yürümüşsün su için zaman zaman,

2. Çek yurdu, Karl’ın karargâhında.

3. İlginç sohbettaşlar oldu burada cem,

4. Ahmetcan Toymetov ve Kadir Hatem[149].

5. Gayet güzel imiş bu su meskeni,

6. Seyretsen sağ olup hani.

7. Etrafını saran yeşil ormanlık,

[149] Özbekistan’dan giden seferdaşlardır.

8. Yüksek tepeliklere sıra sıra.

9. O taraf çıkmaya yetmez gücüm,

10. Bunu da çok gördü Perverdigar'ım.

11. Sina hakkında başladım destan,

12.İlginç, kaçtı sağlığım aniden.

13. Rengim safrandır, başım ağrılıdır,

14. Sokağa çıkmayı men eden doktor.

15. Ben gibi hastalar bu taraf bîşek

16. Binip gelse iyi at yahut eşek.

17.Şöyle rahat yürüse olurdu

18. Yine pek çok yeri görse olurdu… (Haziran, 1980)

UNUTMA (19)

1. *Bolam, osmonlarda quyun charx urar,*

2. *Zamin tublarida izg'ir zilzila.*

3. *O'rtada otang va onang kun ko'rar,*

4. *Qalblarida esa hadik, g'ulg'ula.*

5. *Unutma sen aslo ularning g'amin,*

6. *Beega qolmasin toki ikkovlon.*

7. *Kurashgil, hamisha tinch bo'lsin zamin,*

8. *Kurashgil, doimo sof bo'lsin osmon.*

UNUTMA (19)

1. Evladım, asumanlarda hortum çark çevirir,

2. Zemin diplerinde eser zelzele.

3. Ortada baban ve anan gün görür,

4. Kalplerinde ise evham, şüphe.

5. Unutma sen asla onların gamını,

6. Sahipsiz kalmasın ta ikisi de.

7. Mücadele et, hep sakin olsun zemin,

8. Mücadele et, daima temiz olsun asuman. (1980)

ARZIR (20)

1. *Ta’zim qilsang arzir Qo‘konga, chunki*

2. *Muqimiy va Furqat kabilari bor*

3. *O‘zbekning san’atin dunyoga yoygan,*

4. *Betakror Raximov Nabilari bor.*

DEĞER (20)

1. Tazim etsen değer Hokand’a, çünkü

2. Mukimî ve Furkat gibileri var.

3. Özbek’in sanatını dünyaya yayan,

4. Eşsiz Rahimov Nabileri var. (1985)

TOLIBGA (21)

1. *Komil bo‘l har jihat, tomoning bilan,*

2. *Tariqat, ma’rifat, zaboning bilan.*

3. *Til bilgan el bilur, jahon seniki,*

4. *Til bilu sirlashgin zamoning bilan.*

TALİBE (21)

1. Kâmil ol her cihet, tarafınla,

2. Tarikat, marifet, lisanınla.

3. Dil bilen halk bilir, cihan seninki,

4. Dil bil ve güzelleştir zamanınla. (1986)

TOMOSHAXONA (22)

1. *Sira kun ko‘rmagan gadosan biring,*

2. *Oddiy aqcha erur azaliy piring.*

3. *Xullas, olchoqdirsan, yo‘q pinhon siring.*

4. *Fursating kelibdi, ye, bir-biringni.*

5. *Bu shundoq qavmki, barchasi so‘qir,*

6. *O‘zi ko‘rmaganni ko‘rganday to‘qir.*

7. *Bir kun janozangni xalq o‘zi o‘qir,*

8. *Fursating kelibdi, ye, bir-biringni.*

TİYATRO (22)

1. Asla gün görmemiş kölesin birin,

2. Basit paradır ezelî pirin.

3. Velhasıl, alçaksındır, yok gizli sırrın.

4. Zamanın gelmiş, ye, birbirini.

5. Bu öyle kavim ki, hepsi kör,

6. Özü görmediğini görmüş gibi uydurur.

7. Bir gün cenazeni halk kendisi kıldırır,

8. Zamanın gelmiş, ye, birbirini. (1989)

XITOB (23)

1. *Axir biz azamat O‘zbekistonmiz,*

2. *Paxta, gaz, hokazo boylikka konmiz,*

3. *Nega biz muhtojmiz, yuragi qonmiz,*

4. *Xalqning orasidan chiqqan odamlar.*

HİTABE (23)

1. Artık biz cesur Özbekistan’ız,

2. Pamuk, gaz vesaire kaynağız,

3. Niye biz muhtacız, bağrı yanığız,

4. Halkın arasından çıkmış insanlar. (30 Mayıs 1989)

NASAF MADHIYASI (24)

1. *Osiyo bag‘rida kamtarin makon,*
2. *Sen oftob o‘lkasi, sen yulduziston.*
3. *Sen uchun hamisha fido bo‘lsin jon,*
4. *Sen borsan o‘zbekning g‘ururi shoyon.*
5. *Ey qadim ota yurt - Nasaf-Qarshimsan,*
6. *Ona zaminimsan, a’lo arshimsan!*
7. *Sen ulug‘ Temurga alla aytgan el,*
8. *Do‘stlarga vafodor, bukilmagan bel,*
9. *Mehru muhabbating misli otash-sel,*
10. *Dovon osh bexatar, sen saxiy karvon.*
11. *Ey qadim ota yurt - Nasaf-Qarshimsan,*
12. *Ona zaminimsan, a’lo arshimsan!*

NESEF MEDHİYESİ (24)

1. Asya bağrında mütevazı mekân,
2. Sen güneş ülkesi, sen yıldızistan.
3. Senin için daima feda olsun can,
4. Sen varsın Özbek’in gururu şayan.
5. Ey kadim ata yurt, Nesef, Karşı’msın,
6. Ana zeminimsin, âlâ arşımsın!
7. Sen yüce Timur’a ninni söyleyen el,
8. Dostlara vefalı, bükülmemiş bel,
9. Şefkat ve muhabbetin sanki ateş, sel,
10. Geçit aş tehlikesiz, sen cömert kervan.
11. Ey kadim ata yurt, Nesef, Karşı’msın,
12. Ana zeminimsin, âlâ arşımsın! (1995)

NAVRO‘Z QUTLOVI (25)

I

1. *Janubning otashin, porloq quyoshi,*

2. *Olamga taralar ush bu ma’vodan,*

3. *Aslida bu yurtdir bahorning boshi,*

4. *Navro‘z boshlanadi Qashqadaryodan.*

5. *Asl insonlarning Vatanidir bu,*

6. *Ahli doim tanti, mehnatkash, halol,*

7. *Baxtiyor yoshlarning labida kulgu,*

8. *Onalari uchun beshikdir hilol.*

9. *Dilida shukrona, boshda tug‘lingdan,*

10. *Senga salom bo‘lsin shoir o‘glingdan.*

II

11. *Bu kun teng kelmishdir yer bilan samo,*

12. *Bir-birini qo‘llab, o‘ylab, g‘amin yeb,*

13. *Bobolar qadimda qilishar duo:*

14. *Iloho, har kuning Navro‘z bo‘lsin deb.*

15. *O‘zbek diyorimning azamat o‘g‘li -*

16. *Yurtboshim nazari tushgan ma’vosan!*

17. *Yashnayver hamisha, ey, qalbi cho‘g‘li,*

18. *Istiqlol beshigi Qashqadaryosan.*

19. *O‘n yillik abadiy iqboldan darak,*

20. *Senga ona xalqim, Navro‘z muborak.*

NEVRUZ KUTLAMASI (25)

I

1. Güneyin ateşini, parlak güneşi,

2. Âleme yayılır bu barınaktan,

3. Aslında bu yurttur baharın başı,

4. Nevruz başlar Kaşkaderya'dan.

5. Asıl insanların Vatan'ıdır bu,
6. Halkı daima nazik, çalışkan, dürüst,
7. Bahtiyar gençlerin dudağında gülüş,

8. Anaları için beşiktir hilal.
9. Gönlünde şükrane, başta bayrağından,
10. Sana selam olsun şair oğlundan.

II

11. Bugün denk gelmiştir yer ile sema,
12. Birbirini destekleyip, düşünüp, ilgilenip,
13. Dedeler kadimde ederler dua:
14. Allah'a, her günün Nevruz olsun diye.

15. Özbek diyarımın cesur oğlu,
16. Yurt liderim bakışı düşmüş sığınaksın!
17. Çiçekleniver daima, ey, kalbi ateşli,
18. İstiklal beşiği Kaşkaderya'sın.

19. On yıllık ebedî ikbalden haber,
20. Sana ana halkım, Nevruz mübarek. (Mart, 2001)

BU YURTDA (26)

Buyuk geolog

Ibrohim Hamroboyevga

1. *Toki tong otkunchalik intiq qilar quyoshni*
2. *Qishning beli yoy kabi bukilgaydir bu yurtda.*

3. *Bolg‘a bilan bir ursang uchragan har bir toshni,*

4. *Oltin qumi shovullab, to‘kilgaydir bu yurtda.*

BU YURTTA (26)

Büyük Jeolog

İbrahim Hamroboyev’a

1. Ta şafak sökünce intizar eder güneşi

2. Kışın beli yay gibi bükülecektir bu yurtta.

3. Çekiçle bir vursan rastladığın her bir taşa,

4. Altın kumu hışırdatıp, dökülecektir bu yurtta. (5 Mayıs 2002)

UKAJONLARIMGA (27)

1. *Erkin bo‘ladilar samoda qushlar,*

2. *Erkin bo‘ladilar uyquda tushlar.*

3. *Sahrolar qo‘ynida shamollar erkin,*

4. *Hur inson izmida xayollar erkin.*

5. *Erkin bo‘lmasa gar inson farzandi,*

6. *Uning oti quldir, unvoni - bandi.*

7. *Ozod bo‘la oldi endi o‘zbegim,*

8. *Navoiy, Boburim, ya’ni o‘zligim.*

9. *Ozodlik ajdodlar armoni edi,*

10. *Ukam, bu armonlar ushaldi endi.*

11.*Bizlar sal qartaydik, umid sizlarda,*

12.*Yorug‘ kunga boqqan qora ko‘zlarda.*

13.*Ko‘p yillar siz uchun she’rlar bitganman,*

14.*Men ham shu kunlarni orzu etganman.*

15.*Vatan ona bo‘lsa, siz - g‘uncha, bo‘ston,*

16.*Sizga ko‘zin tikkan jon O‘zbekiston.*

KARDEŞÇİKLERİME (27)

1. Özgür olurlar semada kuşlar,

2. Özgür olurlar uykuda düşler.

3. Sahralar bağrında rüzgârlar özgür,

4. Hür insan emrinde hayaller özgür.

5. Özgür olmasa eğer insan evladı,

6. Onun adı kuldur, unvanı köle.

7. Azat olsa önünde şimdi Özbek’im,

8. Nevâî, Babür’üm, yani benliğim.

9. Azatlık ecdatlar ukdesi idi,

10. Kardeşim, bu ukdeler parçaladı şimdi.

11. Bizler biraz yaşlandık, ümit sizlerde,

12. Aydınlık güne bakan kara gözlerde.

13.Çok yıllar sizin için şiir yazmışım,
14. Ben de bu günleri arzu etmişim.

15. Vatan ana olsa, siz gonca, bostan,
16. Size gözünü dikmiş can Özbekistan. (2002)

IQBOLI BUYUKSAN (28)

1. *Avvalo rahmatdir Onaga,*
2. *So‘ng esa albatta Otaga.*
3. *Bizlarga eslatmish hayotni,*
4. *Unutmang hech qachon ustodni...*
5. *Sen o‘zbek elining farzandi,*
6. *Istiqlol yurtining dilbandi...*
7. *Vataning g‘oyatda keng erur,*
8. *Barchaga barobar teng erur,*
9. *Mehnatda qotsa ham suyaging,*
10.*Hech yerga tegmasin kuraging.*
11.*Chiniqtir mayliga sen tanni,*
12.*Unutma va lekin Vatanni.*
13.*Bolajon, sen doim suyuksan,*
14.*Bilib qo‘y, iqboli buyuksan!*

İKBALİ BÜYÜKSÜN (28)

1. Evvela rahmettir Anaya,
2. Sonra ise elbette Babaya.
3. Bizlere hatırlatmış hayatı,
4. Unutmayın hiçbir zaman üstadı…
5. Sen Özbek halkının evladı,

6. İstiklal yurdunun âşığı…
7. Vatanın gayette geniştir,
8. Tümüne beraber denktir,
9. Emekten sertleşse de kemiğin,
10. Hiçbir yere gelmesin sırtın.
11. Alıştır olsun sen bedeni,
12. Unutma velakin Vatan'ı.
13.Çocuğum, sen daima sevilensin,
14. Anla, ikbali büyüksün! (2002)

TOJIDDIN HOFIZ (29)

1. *Bir bulbul chiqqandi Qashqadaryodan,*
2. *Kuylay-kuylay o'tdi foniy dunyodan.*
3. *Tojiddin hofizdan o'chmas nom qoldi,*
4. *Navo undan rozi, u ham navodan...*

TACEDDİN HAFIZ (29)

1. Bir bülbül çıkmıştı Kaşkaderya'dan,
2. Terennüm ede ede geçti fani dünyadan.
3. Taceddin Hafız'dan unutulmaz nam kaldı,
4. Nağme ondan razı, o da nağmeden… (2003)

YANGI SHE'RLAR

ASQAD MUXTOR (30)

1. *Do'rmon bog'lariga cho'kadi oqshom,*
2. *Namxush shamollar ham yela boshlaydi.*
3. *Na'matak ortidan horg'in, beorom*
4. *Asqad Muxtor kela boshlaydi.*

5. *O‘sha-o‘sha siyka hassalar qo‘lda,*

6. *Sekin odimlaymiz xiyobon bo‘ylab.*

7. *Asqad aka deydi: «Hamon men yo‘lda,*

8. *Hamon yetolmadim o‘yimga o‘ylab...*

9. *Dunyoda nima gap, tinch bormi Do‘rmon?»*

10. *Gapi adog‘iga yetmaydi biroq,*

11. *Ko‘zdan g‘oyib bo‘lar shoir nogahon,*

12. *Tanish ovozida hadik va titroq.*

13. *To‘xtang, Asqad aka! - deyman men to‘lib,*

14. *Shamollar uchirar mubham izlarni.*

15. *Balki o‘tganlar ham bezovta bo‘lib,*

16. *Kuzatib yuribdi bugun bizlarni...*

YENİ ŞİİRLER

ASKAD MUHTAR (30)

1. Dorman bağlarına çöker akşam,

2. Nemli rüzgârlar da esmeye başlar.

3. Kuşburnunun ardından yorgun, huzursuz

4. Askad Muhtar gelmeye başlar.

5. Eskiden beri yıpranmış bastonlar elde,

6. Yavaş adımlarız cadde boyunca.

7. Askad abi der: “Hâlâ ben yolda,

8. Hâlâ ulaşamadım fikrime düşünüp…

9. Dünyada ne söz, huzur var mı Dorman?”

10.Sözün sonuna gelmez fakat,

11.Gözden kaybolur şair ansızın,

12. Tanıdık sesinde kaygı ve titrek.

13. Durun, Askad abi! derim ben dolup,

14.Rüzgârlar uçurur müphem izleri.

15. Belki geçenler de kaygılı olup,

16.Gözetip yürümüş bugün bizleri…

(Şiir 29 Mart 2004 tarihinde Taşkent’te patlama meydana geldiği gün yazılmış).

MANTIQ (31)

1. *Yomg‘ir yog‘ilmagay yiroq osmondan,*

2. *U bulut bag‘ridan oqqay shashqator.*

3. *Dunyoda yomonlik ko‘rgan insondan*

4. *Mehru muhabbatni kutmoqlik bekor.*

5. *Ezgulik farzandi ezgulik asl,*

6. *Yovuzdan yovuzlik yaralgay har dam.*

7. *Agar urabersang uni muttasil*

8. *Qopag‘on bo‘lgaydir eng yovvosh it ham.*

9. *Almashib turadi dinlar, dunyolar,*

10.*O‘zining samandar, humosi bilan.*

11.*Gohida o‘zanin topgay daryolar*

12.*Bir zotning daf’atan imosi bilan.*

MANTIK (31)

1. Yağmur yağmayacak uzun asumandan,

2. O bulut bağrından akayım sıra sıra.
3. Dünyada kötülük gören insandan
4. Şefkat ve muhabbeti beklemek boş.

5. İyilik evladı iyilik asıl,
6. Kötülükten kötülük yaratılsın her an.
7. Eğer vuruversen onu muttasıl
8. Huysuz olacaktır en uysal it de.

9. Değişip duracak dinler, dünyalar,
10.Özünün Semender[150], Hüması'yla.[151]
11. Bazen derelerin bulacak deryalar
12. Bir zatın ansızın imasıyla. (18 Nisan 2005)

DAYDI IT (32)

1. *Biror xonadonni qo'riqlamas u,*
2. *Yo cho'pon suruvin qilmas himoya.*
3. *Bir kunda ming kasga kelgay ro'baro',*
4. *Iskanib tentirash unga kifoya.*

5. *Odamlarda insof qolmagan hech bir,*
6. *Axir avliyolar itni suyubdi,*
7. *Uning-chi, alhazar, qorniga kimdir*
8. *"Demokrat" so'zin yozib qo'yibdi.*

SOKAK KÖPEĞİ (32)

1. Bir evi korumaz o,

[150] Ateşte yanmadığına hatta ateşi söndürdüğüne inanılan efsanevi hayvandır.
[151] Kişinin başına konsa veya gölgesi düşse, o kişi en bahtlı olur, diye inanılan efsanevi kuş, "devlet kuşu"dur.

2. Yahut çoban sürüsünü etmez himaye.
3. Bir günde bin insana gelsin karşısına,
4. Koku alıp boş boş gezmek ona kâfi.

5. İnsanlarda insaf kalmamış hiçbir,
6. Artık evliyalar iti sevmiş,
7. Onun, Allah korusun, karnına kim
8. "Demokrat" sözünü yazmış. (19 Nisan 2005)

ETIKDO‘Z (33)

1. *Bu hol yuz beribdi qadim zamonda,*
2. *Bir ayol jazoga mustahiq ermish.*
3. *Uni qopga solib, gavjum maydonda*
4. *Qozi bigizlashga farmoyish bermish.*

5. *Quturgan olomon, qo‘lida bigiz*
6. *Darhol tashlanibdi sho‘rlik ayolga.*
7. *O‘sha muyulishda keksa etikdo‘z*
8. *Tun-kun o‘ltirarkan, cho‘mib xayolga.*

9. *G‘oyat mo‘min ekan qariya, biroq*
10. *U ham olomonga qo‘shilib qolmish.*
11. *Izdihom ichida turtinib uzoq*
12. *U ham bigizini bir sanchib olmish.*

13. *Qaytib do‘koniga kelgach, shu asno*
14. *Qo‘shnisi so‘rabdi: - Nima gap otam?*
15. *Chol javob qilibdi sekin, beparvo:*
16. *- Hamma sanchaverdi, sanchdim-da men ham.*

KUNDURACI (33)

1. Bu hâl yüz vermiş kadim zamanda,
2. Bir kadın cezaya layık imiş.
3. Onu çuvala koyup, kalabalık meydanda
4. Kadı bizlemeye emir vermiş.

5. Öfkelenen kalabalık, elinde biz
6. Derhâl atılmış zavallı kadına.
7. O köşebaşında yaşlı kunduracı
8. Gece gündüz öldürürmüş, dalıp hayale.

9. Gayet mülayim imiş ihtiyar, ama
10.O da kalabalığa katılıp kalmış.
11.İzdiham içinde itip uzun
12.O da bizi[152] bir batırıp almış.

13.Dönüp dükkânına gelince o esna
14. Komşusu sormuş: - Nasıl söz babam?
15. İhtiyar cevap vermiş sakince, pervasız:
16. - Hepsi batırıverdi, batırdım ben de. (20 Nisan 2005)

SAYR (34)

1. *Podsho o‘zi rulda, sayr etdi xolos,*
2. *Uni ko‘rib kimdir qichqirdi bexos:*
3. *Mashina egasi kimdir bilmadim,*
4. *Haydovchining esa podshologi rost.*

[152] Katı bir şeyi dikerken iğne geçirecek yeri delmek için kullanılan, çelikten yapılmış, sivri uçlu ve ağaç saplı araç, tığ.

GEZİ (34)

1. Padişah kendisi dümende, dolaştı sadece,
2. Onu görüp kim bağırdı aniden:
3. Araba sahibi kimdir anlamadım,
4. Şoförün ise padişahlığı doğru. (22 Nisan 2005)

BO AJAB! (35)

1. *Quturgan kuchukni ko‘rgani zamon,*
2. *Urib haydaydilar uni begumon.*
3. *Odam qutursa-chi, voajab, qarang,*
4. *Xushomad qilgaylar e’zozlab chunon.*

İLGİNÇ! (35)

1. Kuduran eniği gördüğü zaman,
2. Vurup kovarlar onu şüphesiz.
3. İnsan kudursa, ilginç, bakın,
4. İltifat edecekler saygı gösterip gayet. (4 Mayıs 2005)

JENEVADA O‘ZBEK KALOMI (36)

1. *Allohim yaratgan osmon tagida,*
2. *Bordir Asqar tog‘im, bor Eram bog‘im.*
3. *Olis Yevropaning qoq yuragida*
4. *Bor mening Jeneva nomli qishlog‘im.*

5. *Bunda Alisheru Nodirbek ukam,*
6. *Shoshni yodga solar Badriddin nomi.*
7. *Mayli mehmon bo‘lib kelaver sen ham,*
8. *Seni qarshi olar o‘zbek kalomi.*

9. *Favvorasi toshib Jeneva ko‘li,*

10.*Suvini Sayhundek shopirmoqdadir.*

11.*Nozlanib turibdi Yevropa guli,*

12.*Jeneva o‘zbekcha gapirmoqdadir.*

CENEVRE’DE ÖZBEK KELAMI (36)

1. Allah’ım yarattığın asumanın altında,

2. Vardır Askar dağım, var Eram bağım.

3. Uzak Avrupa’nın tam bağrında

4. Var benim Cenevre adlı köyüm.

5. Burada Ali Şîr ve Nadirbek kardeşim,

6. Şaş’ı hatıra getirir Bedrettin ismi.

7. Olsun misafir olup geliver sen de,

8. Seni karşılar Özbek kelamı.

9. Çeşmesi taşıp Cenevre gölü,

10. Suyunu Seyhun gibi savurmaktadır.

11. Nazlanıp durmuş Avrupa gülü,

12. Cenevre Özbekçe konuşmaktadır.

(2 Haziran 2005, Cenevre’deki Özbekistan Baş temsilciliği)

AFSONA (37)

1. *Mushtdekkina boshingda dunyolarning savdosi*

2. *Sarson etmish seni ham bu olamning g‘avg‘osi,*

3. *Gulsiz qolmish bog‘imning bir bulbuli go‘yosi,*

4. *Suyukligim nabiram, qizginam Afsonajon,*

5. *Qurbon bo‘lay joningga o‘zginam, Afsonajon.*

6. *Nega ham Afsona deb qo‘ydim sening ismingni,*
7. *Afsona qildi dunyo murg‘akkina jismingni,*
8. *Ilg‘ayman goh Talasdan, Istanbuldan isingni,*
9. *Suyukligim nabiram, qizginam Afsonajon,*
10.*Qurbon bo‘lay joningga o‘zginam, Afsonajon.*

11.*Onaginang Mavluda, otaginang Ahmadjon,*
12.*Ular-ku sargashtadir, sen ham bo‘lding sargardon,*
13.*Ko‘z yoshing qatrasiga arzirmikin bu jahon*
14.*Suyukligim nabiram, qizginam Afsonajon,*
15.*Qurbon bo‘lay joningga o‘zginam Afsonajon.*

16.*Aslida bul Yer yuzi barchamizga makondir,*
17.*Tiriklikning o‘zi ham sinovdir, imtihondir,*
18.*Lekin senga Afsonam, yuragim oshiyondir,*
19.*Suyukligim nabiram, qizginam Afsonajon,*
20.*Qurbon bo‘lay joningga o‘zginam, Afsonajon.*

21.*Allohga yetar bir kun, bobongning ham nidosi,*
22.*Bag‘rimga kelsin degan buvingning iltijosi,*
23.*Palaxmon toshining ham bordir-ku intihosi,*
24.*Suyukligim nabiram, qizginam Afsonajon,*
25.*Qurbon bo‘lay joningga o‘zginam Afsonajon.*

EFSANE (37)

1. Yumruk gibi başında dünyaların sevdası
2. Avare etmiş seni de bu âlemin kavgası,

3. Gülsüz kalmış bağımın bir bülbüli güyası[153],
4. Sevgili torunum, kızcağızım Efsanecan,
5. Kurban olayım canına benliğim, Efsanecan.

6. Neden de Efsane diye koydum senin ismini,
7. Efsane etti dünya incecik cismini,
8. Hissederim bazen Talas'tan, İstanbul'dan izini,
9. Sevgili torunum, kızcağızım Efsanecan,
10. Kurban olayım canına benliğim, Efsanecan.

11. Anacığın Mevlüde, babacığın Ahmetcan,
12. Onlar sergeştedir, sen de oldun sergerdan,
13.Gözyaşın katresine değer mi ki bu cihan
14. Sevgili torunum, kızcağızım Efsanecan,
15. Kurban olayım canına benliğim, Efsanecan.

16. Aslında bu yeryüzü hepimize mekândır,
17. Hayatın kendisi de sınavdır, imtihandır,
18. Lakin sen Efsane'm, yüreğim aşiyandır,
19. Sevgili torunum, kızcağızım Efsanecan,
20. Kurban olayım canına benliğim, Efsanecan.

21. Allah'a erişir bir gün, dedenin de nidası,
22. Bağrıma gelsin diyen ninenin niyazı,
23. Sapan taşının da vardır intihası,
24. Sevgili torunum, kızcağızım Efsanecan,
25. Kurban olayım canına benliğim, Efsanecan. (8 Temmuz 2005)

[153] Bülbüli güya: Masallarda anlatılan, çok iyi öten ve insan gibi konuşabilen bülbüldür.

QADR (38)

1. *Tagingda arg‘umoq, qo‘lingda jilov,*

2. *Kechgan har daqiqang zarga barobar.*

3. *Yo‘lingni daf’atan to‘solmas birov,*

4. *Bugunning qadriga yetgin, birodar.*

5. *Yillar o‘tib ketar, qolarsan kuchdan,*

6. *Qarri arslondayin bemador, beun.*

7. *Shoqollar to‘dasi kabi to‘sh-to‘shdan*

8. *Seni guruhbozlar talaydi u kun.*

9. *Tasalli topmassan na do‘st, na maydan,*

10. *Sekin ostonangdan o‘tlar cho‘zar bo‘y.*

11. *Nomingni o‘chirar endi har qaydan*

12. *To‘rtta ichiqora yoki hasadgo‘y.*

13. *Tarix deb atalmish parishon ustoz*

14. *Daftarin tuzguncha o‘tgay asrlar.*

15. *Boqiylik yaxshi-ku, bugun undan soz,*

16. *Fayzsizdir egasiz qolgan qasrlar.*

17. *Oftob charaqlaydi, yulduzlar porlar,*

18. *Boshingda shamsiya kabi to‘lin oy.*

19. *Imkoning qo‘lingda, umiding chorlar,*

20. *Bugunning qadri ham shuldir, hoynahoy.*

KADİR (38)

1. Altında argumak, elinde dizgin,

2. Geçen her dakikan altınla beraber.

3. Yolunu aniden kesemez biri,
4. Bugünün kadrine eriş, birader.

5. Yıllar geçip gider, kalırsın güçten,
6. Yaşlı aslan gibi hâlsiz, sessiz.
7. Çakallar çetesi gibi yürek yüreğe
8. Seni yandaşlar seçer o gün.

9. Teselli bulmazsın ne dost, ne meyden,
10. Sessiz eşiğinden otlar uzatır boy.
11. Namını siler şimdi her nasılsa
12.Dört kötü niyetli yahut hasetçi.

13. Tarih diye adlandırılmış perişan üstat
14. Defterini düzenleyinceye dek geçecek asırlar.
15. Bakilik iyi, bugün ondan güzel,
16. Feyizsizdir sahipsiz kalan hisarlar.

17.Güneş ışık saçar, yıldızlar parlar,
18. Başında şemsiye gibi dolunay.
19.İmkânın elinde, ümidin çağırır,
20. Bugünün kadri de budur, belki. (9 Ağustos 2005)

XORIJ RADIOSI (39)

1. *Yo‘qchilikni ko‘rsa, nega yo‘q deydi,*
2. *To‘qchilikni ko‘rsa, nega to‘q deydi.*
3. *Qo‘rqoq deb ataydi indamay tursang,*
4. *Haq gapni gapirsang, qilma do‘q deydi.*

YABANCI RADYOSU (39)

1. Yokluk görse, niye yok der,
2. Tokluk görse, niye tok der.
3. Korkak diye adlandırılır söylemesen,
4. Hak sözü söylesen, etme tehdit der. (30 Ağustos 2005)

SOAT (40)

1. *Soat millariga boqqaning zamon,*
2. *Kechmasmi ko‘ngildan bir gap nogahon:*
3. *- Kimdir shu daqiqa dunyoga kedsi,*
4. *Ketdi ury daqiqa qaysi bir inson.*

SAAT (40)

1. Saat akrebine baktığın zaman,
2. Geçmez mi gönülden bir söz ansızın:
3. - Kim şu dakika dünyaya geldi,
4. Gitti şu dakika hangi bir insan. (25 Ekim 2005)

INSOF (41)

1. *Dunyodan to‘ygan bir bag‘riqon odam,*
2. *Dashtu sahrolarga olib ketdi bosh.*
3. *Vaqteki, rahm etib Alloh serkaram,*
4. *Hazrati Xizrga bo‘ldi u yo‘ldosh.*

5. *Qo‘lin tutqizarkan mehribon siymo*
6. *Dedi: - Ne tilaysan, murodingni ayt?*
7. *Farzand so‘raysanmi yoki mol-dunyo,*
8. *Toki ko‘ngling to‘lsin, makoningga qayt.*

9. *U-chi, javob qildi: - Boqdingiz magar,*
10.*Allohning mendayin bir xarobiga.*
11.*Chorasiz qolsa gar naylasin padar,*
12.*Farzand ham sherikdir iztirobiga.*

13.*Mol-dunyo degani dilni yupatmas,*
14.*Suq, hasad doimo ko‘zin tikkaydir.*
15.*Bug‘doy non bersang ham oxir bir nokas,*
16.*Go‘ringni tekislab arpa ekkaydir.*

17.*Hazrat xitob etdi: - So‘ylagil, oyo,*
18.*Alloh sendaylarni qo‘llagay doim.*
19.*U dedi: - Hazratim, qilingiz duo,*
20.*Yomonga insofin bersin Xudoyim.*

İNSAF (41)

1. Dünyadan bıkan bir ümitsiz âdem,
2. Bozkır ve sahralara alıp gitti baş.
3. O zaman, merhamet edip Allah serkerem,
4. Hazreti Hızır’a oldu o yoldaş.

5. Elini tutarken müşfik sima
6. Dedi: - Ne dilersin, muradını söyle?
7. Evlat ister misin yahut mal, dünya,
8. Ta gönlün dolsun, mekânına dön.

9. O, cevap verdi: - Baktınız meğer,
10. Allah’ın benim gibi bir harabına.
11.Çaresiz kalsa eğer neylesin peder,
12. Evlat da ortaktır ızdırabına.

13. Mal, dünya dediği gönlü avutmaz,

14.Kıskanç, haset daima gözünü dikecektir.

15. Buğday, ekmek versen de artık bir ahlaksız,

16. Mezarını düzleştirip arpa ekecektir.

17. Hazret hitap etti: - Söyle, ya,

18. Allah senin gibileri kollayacak daima.

19.O dedi: - Hazretim, ediniz dua,

20.Kötüye insafını versin Allah'ım. (Aralık, 2005)

TASKIN (42)

1. *Bemor shiftga qarab yotadi hamon,*

2. *Hilol ham qartayar, oy ham to'ladi.*

3. *Sen unga taskin ber, degilki: - Inon,*

4. *Yaxshi bo'lar bari, yaxshi bo'ladi.*

5. *Oy ham botib ketar, olam zimiston,*

6. *Bemor ko'z yumadi, umri so'ladi.*

7. *Shunda ham shivirlab sen degil: - Inon,*

8. *Yaxshi bo'lar bari, yaxshi bo'ladi...*

TESKİN (42)

1. Hasta tavana bakıp yatar daima,

2. Hilal de solar, ay da dolar.

3. Sen onu teselli et, de ki: - İnan,

4. İyi olur hepsi, iyi olacak.

5. Ay da batıp gider âlem karanlık,

6. Hasta göz yumar, ömrü solar.

7. Burada da fısıldayıp sen de: - İnan,

8. İyi olur hepsi, iyi olacak… (Aralık, 2005)

SHAJARA (43)

1. *- Shajara tuzganlar zotin basma-bas,*

2. *Payg‘ambarga bog‘lar, Temurga emas.*

3. *- Mehr tortib ketar Payg‘ambar sari,*

4. *Temurning qahridan qo‘rqadi bari.*

ŞECERE (43)

1. - Şecere düzmüşler zatını yarışırcasına,

2. Peygamber’e bağlar, Timur’a değil.

3. Şefkat çekip gider Peygamber’e doğru,

4. Timur’un kahrından korkar hepsi. (Aralık, 2005)

MAYDON (44)

1. *Maydon maftun etdi ko‘plarni g‘oyat,*

2. *Bu joyda aytildi qancha rivoyat.*

3. *Bir kun ona-bola kirib keldiyu,*

4. *Maydon egasini topdi nihoyat!*

Mustaqillik maydoni

MEYDAN (44)

1. Meydan meftun etti çoğunu gayet,

2. Bu yerde anlatıldı nice rivayet.

3. Bir gün ana, evlat girip geldi ve,

4. Meydan sahibini buldu nihayet! (29 Aralık 2005)

Özgürlük meydanı

BUYUK SODDALIK (45)

1. *Kimlardir shajara tuzgani zamon,*

2. *Zotini valiy deb qiladi e'lon.*

3. *Aslida hech kimdan kam emas nasli,*

4. *Bobosi hazrati Temurdek inson.*

BÜYÜK SAFDİLLİK (45)

1. Kimileri şecere düzdüğü zaman,

2. Zatını, veli diye eder ilan.

3. Aslında hiç kimseden az değil nesli,

4. Dedesi Hazreti Timur gibi insan. (9 Şubat 2006)

ODAM VA SHAYTON QISSASI (46)

1. *Juda-juda qadim zamon*

2. *Yuz berib bir xatomiz,*

3. *Arshdan ketgan Momo Havo*

4. *Hamda Odam Atomiz.*

5. *Bizlar turgan shu zaminni*

6. *Ular makon etganlar,*

7. *Ov qilganlar, yer chopganlar,*

8. *Ekin-tikin ekkanlar.*

9. *Tong otmasdan Odam Ato*

10. *Shoshib ovga ketardi,*

11. *Momo esa chaylasida*

12. *Otamizni kutardi.*

13. *Faqatgina o‘zin sizlab,*
14. *Boshqalarni sensirab,*
15. *Yashar edi quv Shayton ham*
16. *Shu atrofda tentirab.*

17. *Garchi uning qavmi yo‘qdir,*
18. *Yo‘qdir amma-xolasi,*
19. *Bor edi bir arzandasi,*
20. *Yolg‘izgina bolasi.*

21. *Odam Ato tongda yana*
22. *Yumushiga yo‘l oldi,*
23. *Omad tilab Momo Havo*
24. *Chaylada yolg‘iz qoldi.*

25. *O‘ltirdi, hech kimsa yo‘q*
26. *Na o‘ngi, na so‘lida,*
27. *Paydo bo‘ldi Shayton birdan*
28. *Bolachasi qo‘lida.*

29. *Salom berdi quyuq-quyuq*
30. *Ta’zim qildi jilpanglab,*
31. *Va oxiri maqsadini*
32. *Bayon etdi qilpanglab:*

33. *- Sadag‘angiz ketay, Momo,*
34. *Siz chiroysiz olamga.*
35. *Bir soatlik ishim chiqdi,*
36. *Qarab turing bolamga.*

37. *Momo Havo hayotida*

38. *Bo‘lmagan hech bunday hol,*

39. *O‘ylay-o‘ylay javob qildi:*

40. *- Mayliga, qoldira qol.*

41. *Odam Ato qaytdi bir vaqt*

42. *Ko‘nglini xushlagancha,*

43. *Kattakon bir toshbaqaning*

44. *Bo‘ynidan ushlagancha.*

45. *Qarasaki, turar Shayton,*

46. *Bor shoxi-yu tuyog‘i,*

47. *Qanday holga tushdi sho‘rlik,*

48. *Tushunarli buyog‘i.*

49. *Osmon qolib, zaminda ham*

50. *Yo‘liqdi shul baloga,*

51. *Tilidagi bor zahrini*

52. *Sochdi Momo Havoga:*

53. *- Bu o‘sha-ku, fitna bilan*

54. *Arshda bizni xor qilgan,*

55. *- Bu o‘sha-ku, ikkimizni*

56. *Toshbaqaga zor qilgan.*

57. *Odam Ato shaytonchani*

58. *La’nat bilan bo‘ktirdi,*

59. *Oyoq-qo‘lin bog‘lab so‘ngra*

60. *Cho‘ng dengizga cho‘ktirdi.*

61. *Chidash berdi Momo Havo*

62. *Uning barcha doviga,*

63. *Tongda turib Odam Ato*

64. *Ketdi yana oviga.*

65. *Yosh quyoshning o‘tli ko‘zi*

66. *Yosh zaminga boqqan chog‘,*

67. *Gullar yal-yal yashnagan payt,*

68. *Ya’ni peshin oqqan chog‘.*

69. *Liboslari taram-taram,*

70. *Guldan chambar boshida,*

71. *Paydo bo‘ldi Shayton yana*

72. *Momo Havo qoshida.*

73. *Bir qo‘lida bolasi bor,*

74. *Bir qo‘lida qog‘ozi,*

75. *Shayton endi she’r o‘qirdi,*

76. *G‘oyat shirin ovozi:*

77.- *Go‘zallarning go‘zali*

78. *Momo Havo,*

79. *Asallarning asali*

80. *Momo Havo.*

81. *Barchamizga mehribon*

82. *Momo Havo,*

83. *Hammamizga jonajon*

84. *Momo Havo.*

85.*Kazolardan kazosiz,*

86. *Momo Havo,*

87.*Hokazo, hokazosiz,*

88. *Momo Havo...*

89.*Sher o‘qirdi Shayton jo‘shib,*

90. *Goh beliga qo‘l tirab.*

91.*Qushlar to‘xtab boqar edi*

92. *Osmonlardan mo‘ltirab.*

93.*Shayton oxir tin oldi-yu*

94. *Dedi Momo Havoga:*

95.*- Dengizlardan dur keltirdim,*

96. *Boqing men benavoga.*

97. *Tezda qaytib keladirman,*

98. *Ishim bitgan aytarli,*

99. *Siz bolamga qarab turing,*

100. *Yarim soat yetarli.*

101. *Shayton shu zum g‘oyib bo‘ldi,*

102. *Labin burib, tanqayib,*

103. *Momo Havo qolaberdi*

104. *O‘ltirgancha, anqayib.*

105. *Xayoliga keltirmasdan*

106. *Na hiyla, na tuzoqni,*

107. *Odam Ato ovdan qaytdi,*

108. *Yetaklab bir buzoqni.*

109. *Boqsa, ahvol yana o‘sha,*

110. *Yana g‘alva boshlandi,*

111. *Momo Havo ko‘p o‘ksindi,*

112. *Ko‘zlari xam yoshlandi.*

113. *Odam Ato shahd qildi-yu*

114. *Gulxan yoqdi maydonda,*

115. *Bunaqasin hali hech kim*

116. *Ko‘rmagandi jahonda.*

117. *Iblislarga o‘lim, - dedi,*

118. *Tangriga xo‘b yolbordi,*

119. *Shaytonchani tiriklayin*

120. *O‘tda yoqib yubordi.*

121. *Ana endi qutuldik deb*

122. *Tinchlandilar, ko‘ngil to‘q,*

123. *Shayton hargiz qadam bosmas,*

124. *Shaytonchasi endi yo‘q!*

125. *Hali sahar qushchalari*

126. *Uyg‘onmasdan pitirlab,*

127. *Birdan chayla qamishlari*

128. *Qoldi shitir-shitirlab.*

129. *Odam Ato sekin boqdi*

130. *Shubha yonib qonida,*

131. *Vo darig‘o, shaytonvachcha*

132. *Turar chayla yonida.*

133. *Bu jahoniy o‘yin endi*

134. *Cho‘qqisiga yetgandi,*

135. *Tong otmasdan bolasini*

136. *Shayton tashlab ketgandi.*

137. *Odam Ato tund va xomush*

138. *Chiqib ketdi tog‘ tomon,*

139. *Cho‘kich bilan xarsanglarni*

140. *Maydaladi bearmon.*

141. *Yolg‘iz o‘zi bilar edi*

142. *Nedir murod-maqsadi,*

143. *Nihoyat u ma’dan topib,*

144. *Mo‘’jaz qozon yasadi.*

145. *O‘rmonlardan yong‘oq terdi,*

146. *Ezdi, yanchdi, yog‘ qildi,*

147. *Yerni o‘yib o‘choq qildi,*

148. *O‘tinni ham tog‘ qildi.*

149. *Bu safar u na cho‘ktirdi,*

150. *Na kulini sovurdi,*

151. *Shaytonchani to‘g‘rab-to‘g‘rab*

152. *Qozonida qovurdi.*

153. *Endi qaytib kelmasin, deb*

154. *Qarg‘ab, so‘kib beayov,*

155. *Nonushtaga shayton go‘shtin*

156. *Paqqos tushirdi ikkov.*

157. *Quyosh hali yiroqlarda*
158. *Ko‘z uqalab turgan on,*
159. *Kelib chayla qarshisiga*
160. *So‘z boshlab qoldi Shayton:*

161. *- Qovurdog‘ing hazm bo‘lg‘ay,*
162. *Men hammasin bilgandim,*
163. *Shaytonchamni yeb bitirding,*
164. *Shuni orzu qilgandim.*

165. *O‘ylardingki u yo‘q bo‘lsa*
166. *Men chorasiz qolgayman,*
167. *Men-chi, uning kulidan ham*
168. *Shayton yasay olgayman.*

169. *Alloh mendan yuz o‘girdi,*
170. *Na osmon, na yermasman.*
171. *Bilgil, Inson, bilgil, Odam,*
172. *Senga salom bermasman!*

173. *Yo‘ldan urdim seni mudom,*
174. *Azob berdim joningga,*
175. *Men g‘alaba qildim oxir,*
176. *Kirdim endi qoningga!*

177. *Koinotga sukut cho‘kdi,*
178. *Parpiradi yulduzlar,*
179. *Shundan buyon o‘tdi qancha*
180. *Yillar, kecha-kunduzlar.*

181. *Ko'rdik qancha shaytonlikni,*

182. *Qancha Shayton Insonni,*

183. *Chiqarolmay ovoramiz*

184. *Qonimizdan Shaytonni.*

ÂDEM VE ŞEYTAN KISSASI (46)

1. Çok çok eski zaman

2. Ortaya çıkmış bir hatamız,

3. Arştan gitmiş Havva Nine

4. Âdem Babamız da.

5. Bizler duran bu yerküreyi

6. Onlar mekân etmişler,

7. Av yapanlar, yeri kazanlar,

8. Her çeşit ekin ekmişler.

9. Şafak sökmeden Âdem Baba

10. Koşup ava giderdi,

11. Nine ise kulübesinde

12. Babamızı beklerdi.

13. Yalnız kendisine saygı gösterip,

14. Diğerlerine saygısızlık edip,

15. Yaşar idi sinsi Şeytan da

16. Şu etrafta başıboş gezip.

17. Gerçi onun kavmi yoktur,

18. Yoktur hala teyzesi,

19. Var idi bir değerlisi,

20. Sadece çocuğu.

21. Âdem Baba şafakta yine
22. İşine yol aldı,
23. Ümit dileyip Havva Nine
24. Kulübede yalnız kaldı.

25. Oturdu, hiç kimse yok
26. Ne sağı, ne solunda,
27. Ortaya çıktı şeytan birden
28. Çocukcağızı elinde.

29. Selam verdi yoğun yoğun
30. Tazim etti kımıldayıp,
31. Ve son maksadını
32. Beyan etti kıpırdayıp:

33. Bağışlayınız gideyim, Nine,
34. Siz güzelliksiniz âleme,
35. Bir saatlik işim çıktı,
36. Bakın çocuğuma.

37. Havva Nine hayatında
38. Olmamış hiç böyle hâl,
39. Düşüne düşüne cevap verdi:
40. - Peki, bırak.

41. Âdem Baba döndü bir zaman
42. Gönlünü sevinceye kadar,
43. Kocaman bir tosbağanın
44. Boynundan tutuncaya kadar.

45. Baksa ki, durur Şeytan,
46. Var boynuzu ve toynağı,
47. Nasıl hâle düştü zavallı,
48. Aşikâr burası.

49. Asuman kalıp, yerde de
50. Rastladı bu belaya,
51. Dilindeki tüm zehrini
52. Saçtı Havva Nine'ye:

53. Bu o, fitneyle
54. Gökte bizi itibarsız etmiş,
55. Bu o, ikimizi
56. Tosbağaya muhtaç etmiş.

57.Âdem Baba küçük şeytana
58. Lanetle baktı,
59. Ayağını, elini bağlayıp sonra
60. Büyük denize batırdı.

61. Elem verdi Havva Nine
62. Onun bütün cüssesine,
63.Şafakta kalkıp Âdem Baba
64. Gitti yine avına.

65. Genç güneşin ateşli gözü
66. Yaş toprağa baktığı an,
67.Güller parlayıp çiçeklendiği vakit,
68. Yani öğlen aktığı zaman.

69.Süsleri rengârenk,
70. Gülden çember başında,
71. Peyda oldu Şeytan yine
72. Havva Nine karşısında.

73. Bir elinde çocuğu var,
74. Bir elinde kâğıdı,
75.Şeytan şimdi şiir okurdu,
76. Gayet şirin sesi:

77.- Güzellerin güzeli
78. Havva Nine,
79. Balların balı
80. Havva Nine.

81. Hepimize şefkatli
82. Havva Nine,
83. Hepimize kıymetli
84. Havva Nine.

85. Bilgelerden bilgesiniz,
86. Havva Nine,
87. Hakeza, hakezasınız,
88. Havva Nine …

89.Şiir okurdu Şeytan coşup,
90. Bazen beline el dayayıp.
91. Kuşlar durup bakardı
92. Asumanlardan hüzünlü bakıp.

93.Şeytan son kez nefes aldı ve
94. Dedi Havva Nine'ye:
95. Denizlerden inci getirdim,
96. Bakın ben zavallıya.

97. Hemen dönüp gelirim,
98. İşim bitmesi yeterli,
99. Siz çocuğuma bakın,
100. Yarım saat yeterli.

101. Şeytan o an kayboldu,
102. Dudağını kıvırıp, sıkıp,
103. Havva Nine kalıverdi
104. Oturuncaya kadar, şaşıp.

105. Hayaline getirmeden
106. Ne hile, ne tuzağı,
107. Âdem Baba avdan döndü,
108. Tutup bir buzağı.

109. Baksa, durum yine aynı,
110. Yine kavga başladı,
111. Havva Nine çok üzüldü,
112. Gözleri de yaşlandı.

113. Âdem Baba bal yaptı
114. Ateş yaktı meydanda,
115. Böylesini daha hiç kimse
116. Görmemişti cihanda.

117. İblislere ölüm, dedi,
118. Tanrı'ya iyice yalvardı,
119. Küçük şeytanı diri diri
120. Ateşte yaktı.

121. İşte şimdi kurtulduk diye
122. Rahatladılar, gönül huzurlu,
123. Şeytan asla adım atmaz,
124. Küçük şeytanı şimdi yok!

125. Daha seher kuşları
126. Uyanmadan atılıp,
127. Birden kulübe kamışları
128. Kaldı hışırdayıp.

129. Âdem Baba yavaşça baktı
130. Şüphe uyanıp kanında,
131. Yazık, küçücük şeytan
132. Durur kulübe yanında.

133. Bu dünyevi oyun şimdi
134. Zirvesine ulaşmıştı,
135. Şafak sökmeden çocuğunu
136. Şeytan bırakıp gitmişti.

137. Âdem Baba sessiz ve üzgün
138. Çıkıp gitti dağa doğru,
139. Çekiçle kayaları
140. Parçaladı ukdesiz.

141. Sadece kendisi bilirdi
142. Nedir murat maksadı,
143. Nihayet o maden bulup,
144. Harika kazan yaptı.

145. Ormanlardan ceviz topladı,
146. Ezdi, çiğnedi, yağ yaptı,
147. Toprağı oyup ocak yaptı,
148. Odunu da dağ yaptı.

149. Bu sefer o ne çöktü,
150. Ne külünü savurdu,
151. Küçük şeytanı doğrayıp doğrayıp
152. Kazanında kavurdu.

153. Şimdi dönüp gelmesin, diye
154. Beddua edip, sövüp amansız,
155. Kahvaltıya şeytan etini
156. Büsbütün düşürdü ikisi.

157. Güneş daha uzaklarda
158. Göz ovuşturduğu an,
159. Gelip kulübe karşısına
160. Söze başladı Şeytan:

161. - Kavurman hazmolacak,
162. Ben hepsini anlamıştım,
163. Küçük şeytanımı yiyip bitirdin;
164. Bunu arzu etmiştim.

165. Düşünürdün ki o yoksa
166. Ben çaresiz kalacağım,
167. Ben, onun külünden de
168. Şeytan yapabileceğim.

169. Allah benden yüz çevirdi.
170. Ne asuman, ne yerim.
171. Bil, İnsan, bil, Âdem,
172. Sana selam vermem!

173. Yoldan çıkardım seni sürekli,
174. Azap verdim canına,
175. Ben zafer kazandım son,
176. Girdim şimdi kanına!

177. Kâinata sükût çöktü,
178. Işık saçtı yıldızlar,
179. Ondan beri geçti nice
180. Yıllar, gece gündüzler.

181. Gördük nice şeytanlığı,
182. Nice Şeytan İnsan'ı,
183. Çıkaramadan avareyiz
184. Kanımızdan Şeytan'ı. (14 Mart 2006)

MEZBON YO'Q (47)

1. *Ehson ehsonga borur,*
2. *Iymon iymonga borur.*

3. *Bu dunyoda mezbon yo‘q,*

4. *Mehmon mehmonga borur.*

MİHMANDAR YOK (47)

1. İhsan ihsana varır,

2. İman imana varır.

3. Bu dünyada mihmandar yok,

4. Misafir misafire varır. (27 Mart 2006)

DO‘ST (48)

1. *Deysanki, yolg‘izlik ayladi odosh,*

2. *Bilmam, qayoqlarga olib ketsam bosh.*

3. *Do‘sting kamligidan nolima inim,*

4. *Bitta bo‘lsa ham U quyoshdir, Quyosh!*

DOST (48)

1. Dersin ki, yalnızlık eyledi adaş,

2. Bilmem, nerelere alıp gitsem baş?

3. Dostun eksikliğinden yakınma kardeşim,

4. Bir tane olsa da O güneştir, Güneş! (5 Nisan 2006)

TANQIDCHILARGA HAZIL (49)

1. *Antiteza yo‘li bilan*

2. *Absurdlarni yaratdik.*

3. *Real hamda virtualni*

4. *Modernga qaratdik.*

5. *Konseptual eklistika*

6. *Aralashdi har gapga.*

7. *Tushimizga kirib chiqar*

8. *Ekzyuperi va Kafka.*

TENKİTÇİLERE ŞAKA (49)

1. Antitez yoluyla
2. Absürtleri yarattık.
3. Reel de virtüeli
4. Moderne baktırdık.
5. Konseptüal ekliptik
6. Karıştı her söze.
7. Düşümüze girip çıkar
8. Ekzyuperi ve Kafka. (25 Mayıs 2006)

TUYG‘ULAR (50)

1. *Dunyo ishlariga boqib hayron, lol,*
2. *Shogird ustoziga berdi-ku savol:*

3. *- Mudom o‘tganlarni yod aylagaymiz,*
4. *Yod aylab, ruhlarin shod aylagaymiz.*

5. *Devorlarga osib cho‘girmasini,*
6. *O‘tkazamiz yetti, yigirmasini.*

7. *So‘ngra qirqi bo‘lar, yili bo‘ladi,*
8. *Ketgandan qolganning ko‘ngli to‘ladi.*

9. *Chorlab mamlakatni ehson oshiga,*
10. *Baytlar ham bitamiz qabr toshiga.*

11.*Bularning barchasi savob, albatta,*
12.*Tirik bandalarga ibratdir katta.*

13.*Insonlik rutbasi nechog‘ muhtasham,*
14.*Yelkada eltamiz hammasini ham.*

15.*Biroq yecholmadim men bir savolni,*
16.*Sharhlay ololmadim sira bu holni.*

17.*Insonda jam bo‘lmish ne-ne tuyg‘ular,*
18.*Ular ham tug‘ilar, yashar va o‘lar.*

19.*Nechun tuyg‘u o‘lsa ochilmas aza,*
20.*Nechun o‘qilmaydi unga janoza?*

21.*Marhum bo‘lib ketdi chunonchi vijdon,*
22.*Ko‘z yoshi to‘kmadi bironta inson.*

23.*Kimdir o‘q uzibdi turib panada,*
24.*Mehr halok bo‘ldi Qo‘riqxonada.*

25.*Mehrsiz qolsa ham katta-kichik jim,*
26.*Guyo eshitmagan bu gapni hech kim.*

27.*Bir hakam Insofdan so‘rabdi pora,*
28.*Ko‘ksiga tig‘ urmish Insof bechora.*

29.*Hayo ham osibdi dorga o‘zini,*
30.*Birov aytgani yo‘q taskin so‘zini.*

31.*Hech kim parvo qilmas bunday zavolga,*
32.*Ustoz, javob bering ushbu savolga.*

33.*Ko‘zlarini yumib valilar kabi*
34.*Ustoz javob qildi qimtinib labi:*

35. *- Aza ochilmaydi hech kimga agar*
36.*Tiriklikdan bo‘lsa zarracha asar.*

37.*Sen buncha vahima qilma, bolajon*
38.*Ularning ko‘plari hali chalajon.*

39.*Agarda butunlay topsalar barham,*
40.*Bo‘lmasdi ularni so‘rovchilar ham.*

DUYGULAR (50)

1. Dünya işlerine bakıp şaşkın, lal,
2. Şakirt üstadına sordu soru:

3. - Sürekli geçmişleri yâd eyleyeceğiz,
4. Yâd eyleyip, ruhlarını şad eyleyeceğiz.

5. Duvarlara asıp çugirmasını,[154]

[154] Harezm ve Karakalpakistan’da gelenekselleşen büyük kürk kalpaktır.

6. Geçiririz yedi, yirmisini.

7. Sonra kırkı olur, yılı olur,
8. Gidenden kalanın gönlü dolar.

9. Çağırıp memleketi ihsan aşına,
10. Beyitler de yazarız mezar taşına.

11. Bunların hepsi sevap, elbette,
12. Canlı kölelere ibrettir büyük.

13.İnsanlık rütbesi ne kadar muhteşem,
14. Omuzda taşırız hepsini de.

15. Fakat çözemedim ben bir soruyu,
16.Açıklayamadım asla bu hâli.

17.İnsanda toplanmış çeşit çeşit duygular,
18. Onlar da doğar, yaşar ve ölür.

19. Niçin duygu ölse olmaz matem,
20. Niçin kılınmaz ona cenaze?

21. Merhum olup gitti mesela vicdan,
22.Gözyaşı dökmedi bir insan.

23. Kim ok kesmiş durup sığınakta,

24.Şefkat kayboldu Koruma Alanı'nda.

25.Şefkatsiz kalsa da büyük küçük sessiz,
26. Sanki işitmemiş bu sözü hiç kimse.

27. Bir hakem İnsaftan istemiş pare,
28.Göğsüne hançer vurmuş İnsaf biçare.

29. Hayâ da asmış dara kendisini,
30. Birinin söylediği yok teskin sözünü.

31. Hiç kimse perva etmez böyle zevale,
32.Üstat, cevap verin böyle soruya.

33.Gözlerini yumup valiler gibi
34.Üstat cevap verdi kımıldatıp dudağı:

35.- Matem olmaz hiç kimseye eğer
36. Canlılardan olsa ufacık eser.

37. Sen bu kadar endişe etme, çocuğum
38. Onların çoğu hâlâ ölü gibi.

39.Eğer büsbütün olsalar yok,
40. Olmazdı onları soranlar da. (25 Mayıs 2006)

HIMMAT (51)

1. *Himmatni hamisha savob deb biling,*

2. *Eng avval muhtojga achinsin diling.*

3. *Bir boy aytar edi ikkinchi boyga:*

4. *- Taqsir, bizga ham bir homiylik qiling.*

HİMMET (51)

1. Himmeti daima sevap diye bilin,

2. En önce muhtaca acısın gönlün.

3. Bir zengin söylerdi ikinci zengine:

4. - Efendi, bize de bir hamilik edin. (5 Haziran 2006)

TUSHUNCHA (52)

1. *Oqil der: - Ko‘p menga o‘qimang takbir,*

2. *Mendan ham oqillar bordir dunyoda.*

3. *Nodon der: - Bir meni koyimang axir,*

4. *Bordir nodonlar ham mendan ziyoda.*

DÜŞÜNCE (52)

1. Akıl der: - Çok bana getirmeyin tekbir,

2. Benden de akıllılar vardır dünyada.

3. Cahil der: - Bir beni ayıplamayın artık,

4. Vardır cahiller de benden ziyade. (14 Haziran 2006)

ASRAGIL (53)

1. *Yoz bo‘yi dalada ter to‘kib otam*

2. *Hosilni bozorga bir kun eltgandi.*

3. *Biega qand-qurs olib qaytayotgan dam*

4. *Uni qaroqchilar talab ketgandi.*

5. *Istiqlol, bozorga ketgan otajon,*

6. *Tayangin hamsafar yaroqchilarga.*

7. *Ko‘z tikib turibmiz senga nigoran,*

8. *Talanmasang basdir qaroqchilarga.*

KORU (53)

1. Yaz boyu tarlada ter döküp babam

2. Ürünü pazara bir gün götürmüştü.

3. Bize kesme şeker alıp döndüğü an

4. Onu eşkıyalar çalıp gitmişti.

5. İstiklal, pazara gitmiş babacığım,

6. İtimat et yol arkadaşlarına.

7. Ümit bağlamışız sana özlemle,

8. Soyulmasan yeterdir eşkıyalara. (21 Haziran 2006)

TURG‘UN VA TERAK (54)

Turg‘un ismli fermer katta yo‘l yoqasidagi

teraklarni kesib sota boshladi.

1. *Turg‘un ukam, davring keldi yashab qolgin,*

2. *Hech yemagan oshlaringni oshab qolgin.*

3. *Davlat senga yerlarini bo‘lib berdi,*

4. *Qancha orzu, ishonchlarga to‘lib berdi.*

5. *Agar uni oqlasang-ku katta gapdir,*

6. *O‘zingga ham, elingga ham foyda, nafdir*

7. *Biroq, ukam ko‘zlaringni yog‘ bosmasin,*
8. *Nafsing bir kun oyog‘ingdan naq osmasin.*

9. *Meniki deb yo‘qotmagin gulzorlarni,*
10. *Meniki deb buzib yurma mozorlarni.*

11. *Yo‘l chetida teraklarni yiqding nechun,*
12. *Maydagina nafsing uchun, nafsing uchun.*

13. *Bu ishingdan kim farovon, to‘kis bo‘lar,*
14. *Jannatday yer tap-taqiru tekis bo‘lar.*

15. *Ko‘karganni kesabersang sayoq kabi,*
16. *Bitta o‘zing qolajaksan tayoq kabi.*

DURGUN VE KAVAK (54)

Turgun isimli çiftçi büyük bir yol tarafındaki kavakları kesip satmaya başladı.

1. Sabit kardeşim, devrin geldi yaşa,
2. Hiç yemediğin yemeklerini ye.

3. Devlet sana topraklarını bölüp verdi,
4. Nice arzu, inançlarla dolup verdi.

5. Eğer onu aklasan büyük laftır,
6. Kendine de, halkına da fayda, yarardır.

7. Fakat kardeşim gözlerini yağ basmasın,
8. Nefsin bir gün ayağından tam asmasın.

9. Benimki diye tüketme gülzârları,
10. Benimki diye bozup yürüme mezarları.

11. Yol kenarında kavakları yıktın niçin,
12.Küçücük nefsin için, nefsin için.

13. Bu işinden kim çok, bol olur,
14. Cennet gibi toprak tamtakır ve çorak olur.

15. Yeşereni kesiversen başıboş gibi,
16. Bir tane kendin kalacaksın sopa gibi. (30 Haziran 2006)

OLTMISH NAVBAHOR (55)

1. *Dunyoda uchraydi turfa san'atkor,*
2. *Ular orasida bittadir Yodgor.*
3. *Bugun qutlar uni oltmish farishta,*
4. *Yo'lida poyondoz oltmish navbahor.*

ALTMIŞ İLKBAHAR (55)

1. Dünyada rastlar ilginç sanatkâr,
2. Onlar arasında bir tanedir Yadigâr.
3. Bugün kutlar onu altmış melek,

4. Yolunda mesafe altmış ilkbahar. (Haziran, 2006)

TA'MAGIR (56)

1. *Ta'magirning ishi ta'madir bilsang,*

2. *Ta'ma qoni chiqqay tomirin tilsang.*

3. *- Qancha olding deya so'rar sendan ham,*

4. *Agarda birovga yaxshilik qilsang!*

TAMAHKÂR (56)

1. Tamahkârın işi tamahtır bilsen,

2. Tamah kanı çıkacak damarını kessen.

3. - Ne kadar aldın diye sorar sana da,

4. Eğer birine iyilik etsen! (31 Temmuz 2006)

INTERNET (57)

1. *Insoniyat isbotlab o'z dahosini,*

2. *Qurgan edi Tojmahalu Rumosini.*

3. *Internetni barpo etdik bugun, ammo*

4. *Kimdir undan tarqatmoqda o'z ig'vosini.*

İNTERNET (57)

1. İnsanoğlu ispatlayıp kendi dehasını,

2. Kurmuştu Tac Mahal ve Roma'sını.

3. İnterneti keşfettik bugün, ama

4. Kimi ondan yaymakta kendi fesatlığını. (8 Ağustos 2006)

OJIZ BANDA (58)

1. *Menga ravo ko'rmang ulug'lik otin,*

2. *Men na donishmandman va na botirman.*

3. *Yorug‘ bu olamning sir-sinoatin,*

4. *Hanuz bilolmasdan ketayotirman.*

5. *Falakda shubhasiz dunyolar bisyor,*

6. *Balki bizdan yetuk, bizlardan yoniq.*

7. *Lekin u yoqda ham men kabi nochor*

8. *Ojiz bandalarning borligi aniq.*

ACİZ KÖLE (58)

1. Bana reva görmeyin ululuk atını,

2. Ben ne bilgeyim ve ne yiğidim.

3. Işık bu âlemin sır hadisesini,

4. Henüz anlayamadan giderim.

5. Felekte şüphesiz dünyalar çok,

6. Belki bizden olgun, bizlerden coşkun.

7. Ama o tarafta da ben gibi güçsüz

8. Âciz kölelerin varlığı şüphesiz. (31 Ağustos 2006)

TALPINISH (59)

1. *Bulutlar talpinar tog‘larga,*

2. *Qushlar ham chamanzor bog‘larga.*

3. *Jilg‘alar daryoga talpinar,*

4. *Quyunlar sahroga talpinar.*

5. *Mehrga talpinsa gar inson -*

6. *Savob shu, tavob shu, shu iymon.*

UZANIŞ (59)

1. Bulutlar uzanır dağlara,
2. Kuşlar da çimenlik bağlara.
3. Dereler deryaya uzanır,
4. Hortumlar sahraya uzanır.
5. Şefkate uzansa eğer insan,
6. Sevap bu, tavaf bu, bu iman. (25 Eylül 2006)

XIZR (60)

1. *Samo peshtoqidan Xizr payg‘ambar,*
2. *Zaminga quvonib tashladi nazar.*
3. *Buning sababini so‘rashsa dedi:*
4. *Meni qabul qildi yerda bir rahbar.*

HIZIR (60)

1. Sema kapısından Hızır peygamber,
2. Emine neşelenip attı bakış.
3. Bunun sebebini sorsalar dedi:
4. Beni kabul etti yerde bir rehber. (25 Eylül 2006)

HAQ QAHRI (61)

1. *Hech kimsa o‘zicha dunyoga kelmas,*
2. *Hech kim ayirolmas rizqu ro‘zidan.*
3. *Sen menga qasd qilma, ey takabbur kas,*
4. *Yo‘qotaman, dema, yerning yuzidan.*

5. *Haqqim bor, zaminda bir jon siyog‘i*
6. *O‘zimga munosib, yashab o‘tgayman.*
7. *Va lekin, unutma, Oxirat chog‘i*

8. *Yoqangdan Haq qahri bo‘lib tutgayman!*

HAK KAHRI (61)

1. Hiç kimse kendince dünyaya gelmez,
2. Hiç kimse ayıramaz günün rızkından.
3. Sen bana kastetme, ey kibirli insan,
4. Bitiririm, deme, yerin yüzünden.

5. Hakkım var, zeminde bir can sureti
6. Kendime uygun, yaşayacağım.
7. Velakin, unutma, Ahiret zamanı
8. Yakandan Hak kahrı olup tutacağım! (8 Ekim 2006)

TALOSH PALLASI (62)

1. *Quyosh botib borar,*
2. *Ufq qirmiz rang,*
3. *Qurshab olayotir yer yuzini tun.*
4. *So‘nggi daqiqada qilayotir jang*
5. *Tun va kun, tun va kun, tun va kun.*

6. *Talosh payti derlar ushbu lahzani,*
7. *Olishar oshkora nur bilan zulmat.*
8. *Borliq jim kuzatar qonli sahnani,*
9. *Har yonda vahmkor, sirli sukunat.*

10. *Shamol ham qaygadir berkingan bu on,*
11. *G‘ujg‘on qushlarning ham tingan nafasi.*
12. *Safarga chiqilmas, o‘qilmas Qur’on,*
13. *Talosh pallasi bu, talosh pallasi.*

14. *Tongda qayturman deb, umidga to‘lib,*

15. *Falak puchmog‘iga chekinar Quyosh.*

16. *Endi marjon-marjon yulduzlar bo‘lib,*

17. *Samo yanog‘ida yaltiraydi yosh.*

GURUP VAKTİ (62)

1. Güneş batar,

2. Ufuk kırmızı renk,

3. Kuşatır yeryüzünü gece.

4. Son dakikada yapar cenk

5. Gece ve gün, gece ve gün, gece ve gün.

6. Gurup vakti derler bu ana,

7. Savaşır besbelli ışık ve zulmet.

8. Varlık sessizce izler kanlı sahneyi,

9. Her yanda endişe, sırlı sükûnet.

10. Rüzgâr da bir yere saklanmış bu an,

11. Kuş sürülerinin de kesilmiş nefesi.

12. Sefere çıkılmaz, okunmaz Kur’an,

13. Gurup vakti bu, gurup vakti.

14. Şafakta döndürmem diye, ümitle dolup,

15. Feleğin köşesine çekilir Güneş.

16. Şimdi mercan mercan yıldızlar olup,

17. Sema kenarında parlar gözyaşı. (9 Ekim 2006)

“AYBDOR” (63)

1. *Hech kimsa demagay: “Gunohkor o‘zim”,*
2. *Aybdor zamonadir, aybdordir tuzum!*
3. *O‘g‘ri qo‘lga tushib qamalgan bir chog‘,*
4. *Aybdori, albatta, Stalin olchoq.*

5. *Ustingdan yozadi bir quloch tuhmat,*
6. *Deydi: «Chora ko‘rmas, aybdor hukumat!»*
7. *Sigiri sut bermas, oh chekar nochor,*
8. *O‘ylab topolmas hech, bunga kim aybdor?*

“GÜNAHKÂR” (63)

1. Hiç kimse demeyecek: “Günahkâr özüm”,
2. Günahkâr zamanedir, günahkârdır düzen!
3. Hırsız ele düşüp hapsedildiği zaman,
4. Günahkârı, elbette, Stalin alçak.

5. Üstünden yazar bir kulaç töhmet,
6. Der: “Çare görmez, günahkâr hükûmet!”
7. Sığırı süt vermez, ah çeker fakir,
8. Düşünüp bulamaz hiç, bunda kim günahkâr? (10 Ekim 2006)

EPIGRAMMA (64)

1. *Tilingdan tushmasin uch-to‘rtta maqol,*
2. *Rangining farqi yo‘q - qo‘yib ol soqol.*
3. *Endi davralarning to‘ri seniki,*
4. *Hurmating yuksalar bo‘lsang-da shoqol.*

EPİGRAM (64)

1. Dilinden düşmesin üç, dört tane makal,
2. Renginin farkı yok, bırak sakal.
3. Şimdi devrelerin ağı seninki,
4. Hürmetin yükselir olsan çakal. (10 Ekim 2006)

YUPANCH (65)

1. *Bormisan, qaylardasan?*
2. *Bozormi, mozormisan?*
3. *Kulgimisan, visolmi?*
4. *Quvonchmi, ozormisan?*
5. *Yupanch degan nomingni,*
6. *Kim o‘ylab topdi ekan.*
7. *Bu eshikni kim o‘zi,*
8. *Ochmasdan yopdi ekan.*
9. *Chorasizlik tufayli,*
10. *Topilgan taskinmisan?*
11. *Yoki bir yaxshilikka*
12. *Aytilgan tahsinmisan?*
13. *Nimasan, yolg‘onmisan?*
14. *Rost gapmi yoki aldov?*
15. *Yoki kulfat selining*
16. *Oldiga qo‘yilgan g‘ov.*
17. *O‘zini tuta olmay*
18. *Yig‘lab turar bir go‘dak.*
19. *Unga na boylik darkor,*
20. *Va na martaba kerak.*
21. *Ne chog‘lik sehrlisan*
22. *Sen o‘zing yupanch so‘zi.*
23. *Sen go‘yo shirin tushsan*
24. *Yoki umid yulduzi.*
25. *Bilurman bu dunyoda*

26.*Omonat jonu tanim.*

27.*O‘tar bo‘lsam to abad*

28.*Yupanch bo‘lgin Vatanim.*

TESELLİ (65)

1. Var mısın, nerelerdesin?

2. Pazar mı, mezar mısın?

3. Gülüş müsün, visal mi?

4. Sevinç mi, azar mısın?

5. Teselli denen ismini,

6. Kim düşünüp bulmuş iken.

7. Bu kapı mı kim kendisi,

8. Açmadan kapamış iken.

9. Çaresizlik yüzünden,

10. Bulunan teskin misin?

11. Yahut bir iyiliğe

12.Söylenen methiye misin?

13. Nesin, yalan mısın?

14. Gerçek söz mü yahut yalan?

15. Ya da külfet selinin

16.Önüne bırakılan engel.

17. Kendini tutamadan

18.Ağlayıp durur bir bebek.

19. Ona ne zenginlik lazım,

20. Ve ne mertebe gerek.

21. Ne kadar sihirlisin

22. Sen kendin teselli sözü.

23. Sen sanki tatlı düşsün

24. Ya da ümit yıldızı.

25. Bilirim bu dünyada

26. Emanet can ve bedenim.

27. Geçersem sonsuza dek

28. Teselli ol Vatan'ım. (23 Ekim 2006, Karşı)

FAQAT O'ZING ANGLA... (66)

1. *Bas, yetar,*
2. *Shoirlik senga o'yinmas.*
3. *G'am bilan o'ynashma*
4. *Ey shodmon inson.*
5. *Bu olov yoqadi*
6. *O'zin har nafas.*
7. *Senga jondosh bo'lmas*
8. *Yoningdagi jon.*
9. *Yengil qila bilmas*
10.*Bir azobingni*
11.*Falakda ming-minglab*
12.*Farishtalar ham.*
13.*Faqat o'zing angla...*
14.*Iztirobimni,*
15.*Faqat o'zing kechir,*
16.*Yaratgan Egam.*

YALNIZ KENDİN ANLA… (66)

1. Yeter, yeter,
2. Şairlik sana oyun değil.
3. Gamla oynama
4. Ey mutlu insan.
5. Bu alev yakar
6. Özünü her nefes.
7. Sana candaş olmaz
8. Yanındaki can.
9. Hafifletemez
10. Bir azabını

11. Felekte binlerce

12. Melekler de.

13. Yalnız kendin anla…

14. Izdırabımı,

15. Yalnız kendin bağışla,

16. Yaratan Sahip'im. (23 Ekim 2006, Karşı)

"KELDIM..." (67)

1. *Keldim...*

2. *Ketmoqdaman.*

3. *Sariq yaproqlarda*

4. *G'arib, xazin kuy.*

5. *Seni uzoq yillar*

6. *Sog'ingan edim.*

7. *Keldim...*

8. *Ketmoqdaman.*

9. *Kechir, Ona uy.*

10.*Meni eslatguchi*

11.*Biror narsa yo'q.*

12.*Otam yo'q. Onam yo'q.*

13.*Na shodlik, na g'am.*

14.*Faqat hammasini*

15.*Yodimga solib*

16.*Ko'rinding ko'zimga-*

17.*O'zing Hanifam...*

"GELDİM…" (67)

1. Geldim…

2. Gitmekteyim.

3. Sarı yapraklarda

4. Yoksul, hazin bırak.

5. Seni uzun yılar
6. Özlemiş idim.
7. Geldim…
8. Gitmekteyim.
9. Bağışla, Ana ev.
10. Beni hatırlatıcı
11. Bir şey yok.
12. Babam yok. Anam yok.
13. Ne mutluluk, ne gam.
14. Yalnız hepsini
15. Hatırıma getirip
16.Göründün gözüme,
17. Kendin Hanife'm… (23 Ekim 2006, Nekoz köyü)

ODINA MASJIDI (68)

1. *Yovuzlik keldiyu, yomonlar birdan*
2. *O'zlarin zulmga shaylantirdilar.*
3. *Marhumlar badarg'a qilindi go'rdan,*
4. *Masjidni zindonga aylantirdilar.*

5. *Zulmat nur eshigini daf'atan yopib,*
6. *Falakda mo'ltirab qoldi yolg'iz oy.*
7. *Zindonning eng ovloq burchagin topib,*
8. *Menga ham tayyorlab qo'ydilar bir joy.*

9. *Ezgulik keldi-yu odamlar nogoh,*
10.*O'zlarin savobga shaylantirdilar.*
11.*O'tganlar ruhidan bo'ldilar ogoh,*
12.*Zindonni maktabga aylantirdilar.*

13.*Qaytdi to‘lin oy ham uning yoniga,*

14.*Taqdir o‘yiniga buni yo‘ydilar.*

15.*Maktabning eng baland bir javoniga*

16.*Endi kitoblarim taxlab qo‘ydilar.*

ODİNA MESCİDİ (68)

1. Kötülük geldi ve kötüler birden

2. Kendilerini zulme hazırladılar.

3. Merhumlar sürüldü mezardan,

4. Mescidi zindana dönüştürdüler.

5. Zulmet ışık kapısını ansızın kapayıp,

6. Felekte hüzünlü baktı sadece ay.

7. Zindanın en uzak köşesini bulup,

8. Bana da hazırladılar bir yer.

9. İyilik geldi ve insanlar ansızın,

10. Kendilerini sevaba hazırladılar.

11. Geçmişler ruhundan ettiler tecrübe,

12. Zindanı mektebe dönüştürdüler.

13.Döndü dolunay da onun yanına,

14. Kader oyununa bunu serdiler.

15. Mektebin en yüksek bir dolabına

16.Şimdi kitaplarımı toplayıp koydular. (27 Ekim 2006, Karşı)

YURT RAMZI (69)

1. *Otamsan, onamsan, o‘g‘lim, qizimsan,*

2. *Ko‘rar ko‘zimsanu aytar so‘zimsan.*

3. *Yurtboshim mehrini mujassam etgan*

4. *Qashqadaryo ramzi - yorug‘ yuzimsan.*

YURT REMZİ (69)

1. Babamsın, anamsın, oğlum, kızımsın,

2. Gören gözümsün ve söylediğim sözümsün.

3. Yurtbaşım şefkatini mücessem ettiği

4. Kaşkaderya remzi, parlak yüzümsün. (27 Ekim 2006)

MA’MUN AKADEMIYASI (70)

1. *Bilimli bo‘l dedi Beruniy bobo,*

2. *Sog‘lom bo‘lgin dedi Sino doimo.*

3. *Kimlardir ilmda tog‘ ham bo‘ldilar,*

4. *Sino aytganidek sog‘ ham bo‘ldilar.*

5. *Lekin bu maqomga yetganlari dam*

6. *Birdan unutdilar ikkalasin ham.*

7. *Ularchi ketdilar musofir bo‘lib,*

8. *Jon taslim qildilar muhojir bo‘lib.*

9. *Yana Beruniy deb bo‘zladik chanqoq,*

10.*Yana har xonadon Sinoga mushtoq.*

11.*Hurlik shamollari toki yeldilar,*

12.*Ular ona yurtga qaytib keldilar.*

13.*Ma’mun maktabining qo‘sh darvozasi*

14.*Bul ikki siymoning xush ovozasi.*

15.*Ilmu fan qadriga yetganga ta’zim,*

16.*Quvonsang arziydi, qadim Xorazm.*

MAMUN AKADEMİSİ (70)

1. Bilgili ol dedi Bîrûnî dede,

2. Sağlam ol dedi Sina daima.

3. Kimleri ilimde dağ da oldular,

4. Sina’nın dediği gibi sağ da oldular.

5. Ama bu makam ulaşanları da

6. Birden unuttular ikisi de.

7. Onlar gittiler misafir olup,

8. Can teslim ettiler muhacir olup.

9. Yine Bîrûnî diye yakındık istekli,

10. Yine her hanedan Sina’ya hevesli.

11. Ta ki özgürlük rüzgârları estiler,

12. Onlar ana yurda dönüp geldiler.

13. Mamun mektebinin çift kapısı.

14. Bu iki simanın hoş sesi.

15.İlim ve fen kadrine ulaşana tazim,
16. Sevinsen değer, kadim Harezm. (2 Kasım 2006, Hive)

UMR HISOBI (71)

(Hazil)

1. *Yillar shafqatsizdir, qartaydi ota.*
2. *Kuzak shamollari yela boshladi.*
3. *Endi oilada u emas katta,*
4. *Farzandi nasihat qila boshladi.*

5. *Ota endi hayron: "- Nahot chindan ham*
6. *Umr hisobiga yetolmay qoldim.*
7. *Qaysimiz oldinroq tug'ildik, bilmam,*
8. *Ul mendan oldinmi, men undan oldin?"*

ÖMÜR HESABI (71)

(Gülmece)

1. Yıllar şefkatsizdir, yaşlanır baba.
2. Güz rüzgârları esmeye başladı.
3. Şimdi ailede o değil büyük,
4. Çocuğu nasihat etmeye başladı.

5. Baba şimdi şaşkın: "- Gerçekten de mi
6. Ömür hesabına ulaşamadan kaldım.
7. Hangimiz daha önce doğduk, bilmem,

8. O benden önce mi, ben ondan önce?" (20 Kasım 2006)

MEHMON (72)

1. *Ko‘rdim, go‘zal ekan dunyo chorbog‘i,*

2. *G‘oyat ko‘rkam ekan daryosi, tog‘i.*

3. *Mehmonman, kuzatgil katta yo‘lgacha,*

4. *Mayli, bir gap bo‘lar undan naryog‘i.*

MİSAFİR (72)

1. Gördüm, güzel imiş dünya bahçesi,

2. Gayet görkemli imiş deryası, dağı.

3. Misafir, eşlik et büyük yola dek,

4. Tamam, çaresi bulunur ondan başka. (20 Kasım 2006)

YAXSHILIK YO‘LLARI (73)

1. *Yaxshilik qilishning yo‘li ko‘p, ukam,*

2. *Yomonlik qilmasang yaxshilik bu ham.*

3. *Tan bergil botirning jasoratiga,*

4. *Ko‘maklash yo‘qsilning imoratiga.*

5. *Yo bir gunohsizni himoya qilding,*

6. *Demak, yaxshilikni sen g‘oya qilding.*

7. *Yaxshi amallarning adog‘i yo‘qdir.*

8. *Ming yil sanasang ham sanog‘i yo‘qdir.*

9. *Biroq har chiroqning bor o‘z piligi,*

10.*Ya’ni, har bandaning o‘z yaxshiligi.*

11.*Senga bir yaxshilik qilayin, ukam,*
12.*Mazmunini anglab o‘kinma hech ham.*

13.*Mendan uzoqroq bo‘l, salom ham berma,*
14.*Ismimni har joyda takrorlab yurma.*

15.*Donolik qilginu chekma aziyat,*
16.*Mayli yomonlayver kelsa vaziyat.*

17.*Mayli, bir so‘z dema, ko‘zlaringda nam,*
18.*Yiroqdan kuzatgin karvonimni ham.*

19.*G‘animlar qutqusin boshlamasinlar,*
20.*Sening ham dilingni g‘ashlamasinlar.*

21.*Meni deb malomat qilmasinlar, to*
22.*Sening ham boshingga yog‘masin balo.*

23.*Dunyoning ishlari shunaqa, ukam,*
24.*Yo‘llari ko‘p erur yaxshilikning ham.*

İYİLİK YOLLARI (73)

1. İyilik yapmanın yolu çok, kardeşim,
2. Kötülük yapmasan iyilik bu da.

3. Takdir et yiğidin cesaretini,
4. Yardım et yoksulun binasına.

5. Yahut bir günahsızı himaye ettin,
6. Demek, iyiliği sen gaye ettin.

7. İyi emellerin adağı yoktur.
8. Bin yıl saysan da sayısı yoktur.

9. Fakat her lambanın var kendi fitili,
10. Yani, her kölenin kendi iyiliği.

11. Sana bir iyilik yapayım, kardeşim,
12. Manasını anlayıp üzülme hiç de.

13. Benden daha uzak ol, selam da verme,
14. İsmimi her yerde tekrarlama.

15. Bilgelik et ve çekme eziyet,
16. Peki kötüleyiver gelse vaziyet.

17. Peki, bir söz deme, gözlerinde nem
18. Uzaktan izle kervanımı da.

19. Düşmanlar fitnesine başlamasınlar,
20. Senin de gönlünü sıkmasınlar.

21. Beni diye ayıplamasınlar, ta

22. Senin de başına yağmasın bela.

23.Dünyanın işleri öyle, kardeşim,

24. Yolları çoktur iyiliğin de. (24 Kasım 2006)

MANZARA (74)

1. *Chavandoz charchagan,*

2. *Ot xorib-tolgan.*

3. *Atrofin qashqirlar*

4. *O‘rashib olgan.*

5. *Mudhish manzaradan*

6. *Quyosh ko‘z yumib,*

7. *Oy esa hayratdan*

8. *Tosh qotib qolgan.*

MANZARA (74)

1. Atlı yorulmuş,

2. At yorulmuş.

3. Etrafını kurtlar

4. Sarmış.

5. Müthiş manzaradan

6. Güneş göz yumup,

7. Ay ise hayretten

8. Taş kesilip kalmış. (2 Aralık 2006)

GUVALAKNING SPORTCHI QIZLARIGA (75)

1. *Momolarim maskanisan Guvalak,*

2. *Tuprog‘ingda qolgan edi izlarim.*

3. *Tovlanasiz bamisoli kamalak,*

4. *Siz momomdan qolgan momo qizlarim.*

BALÇIĞIN SPORCU KIZLARINA (75)

1. Ninelerimin meskenisin Balçık,
2. Toprağında kalmıştı izlerim.
3. Parlarsınız gökkuşağı gibi,
4. Siz ninemden kalan nine kızlarım. (4 Aralık 2006)

ETIKCHA (76)

(Hazil)

1. *Xarid qildim etikcha bugun,*
2. *Biram ko‘hlik, chiroyli biram.*
3. *Nimasidir yokmadi lekin*
4. *Uvvos tortib yig‘lar nabiram.*

5. *Olib beray boshqasin senga,*
6. *Aytgil topay yana qanday gap.*
7. *Masalan, may yoqmaydi menga,*
8. *Yuribman-ku axir men chidab.*

ÇİZMECİK (76)

(Gülmece)

1. Alışveriş yaptım çizmecik bugün,
2. Çok hoş, güzel öyle.
3. Nesi hoşuna gitmedi ama
4. Feryat edip ağlar torunum.

5. Alıp vereyim başkasını sana,

6. Söyle bulayım yine nasıl söz.

7. Mesela, mey hoşuma gitmez benim,

8. Gitttim ya artık ben dayanmayıp. (6 Aralık 2006)

MAQTOV (77)

1. *Dunyoda har ishning bor o‘z rejasi,*

2. *Dehqon ham bekorga donin ekmaydi.*

3. *Bozorda ho‘kizin maqtar egasi: -*

4. *Ichmaydi, chekmaydi...*

METHİYE (77)

1. Dünyada her işin var kendi ricası,

2. Çiftçi de boşa tohumunu ekmez.

3. Pazarda öküzün övgüye değer sahibi:

4. İçmez, çekmez… (6 Aralık 2006)

EMISH (78)

(Ukam Erdonga)

1. *Kunduz quyosh emish, tunda moh emish,*

2. *Neki sodir bo‘lsa, inson guvoh emish.*

3. *Yoningda donishmand yashasa-yu, gar*

4. *Suhbatin olmasang bu ham gunoh emish.*

İMİŞ (78)

(Kardeşim Erban'a)

1. Gündüz güneş imiş, gecede ay imiş,
2. Ne ortaya çıksa, insan şahit imiş.
3. Yanında bilge yaşasa, eğer
4. Sohbetini almasan bu da şahit imiş. (1 Şubat 2007)

QADRIYAT (79)

1. *Bozor bu dunyoni zabtiga olgan,*
2. *Kimdir siymu zarin o'rtaga solgan.*
3. *Men-chi qani deyman u sopol kosam,*
4. *Sopol kosam qani, otamdan qolgan?..*

KADİR (79)

1. Pazar bu dünyayı zaptına almış,
2. Kim gümüş ve altını ortaya bıraksın.
3. Ben hani derim o toprak kâsem,
4. Toprak kâsem hani, babamdan kalan?.. (26 Şubat 2007)

AJABO (80)

(Ukam Anvar Jabborga)

1. *Deysan, mayda gapga qilmagil parvo,*
2. *Ulardan balandda yurgil doimo.*
3. *Baland bo'laverib buning baridan,*
4. *Aylanib ketdi-ku boshim ajabo!*

ACABA (80)

(Kardeşim Enver Cabbar'a)

1. Dersin, küçücük söze etme perva,
2. Onlardan yüksekte yürü daima.
3. Yüksek oluverip bunun hepsinden,
4. Döndü başım acaba! (28 Şubat 2007)

SHUKR (81)

1. *Shukr butun bo'ldi yana iymonim,*
2. *Meni xursand qildi o'g'lim - Ilhomim.*
3. *Kelinim Zarina, senga ming rahmat,*
4. *Safimga qo'shildi jajji Islomim.*

ŞÜKÜR (81)

1. Şükür, bütün oldu yine imanım,
2. Beni memnun etti oğlum, İlham'ım.
3. Gelinim Zarina, sana bin teşekkür,
4. Safıma katıldı minik İslam'ım. (4 Mart 2007)

QUTLOV (82)

1. *Vatan quchog'ida tabarruk bir joy,*
2. *Kunduz quyosh maftun, kechalari oy.*
3. *O'ttizga kiribdi Ellikqal'amiz,*
4. *O'ttiz bor qutlaymiz uni, hoynahoy.*

KUTLAMA (82)

1. Vatan kucağında mübarek bir yer,

2. Gündüz güneş meftun, geceleri ay.
3. Otuza girmiş Ellikale'miz,
4. Otuz kez kutlarız onu, ihtimal. (6 Mart 2007)

MEHRI ORTIQ ERUR... (83)

1. *Otaning qarg'ishi bamisoli o'q,*
2. *Tegadi, bir fursat kutmaydi derlar.*
3. *Garchi padar kabi bo'lsa-da ulug',*
4. *Onaning qarg'ishi o'tmaydi derlar.*

5. *Asli yomonlikdan asrasin Xudo*
6. *Va yana asrasin javob-zahridan.*
7. *Ona shundayin bir qalbi keng siymo,*
8. *Mehri ortiq erur doim qahridan.*

ŞEFKATİ FAZLADIR… (83)

1. Babanın bedduası sanki ok,
2. Gelir, bir fırsat beklemez derler.
3. Gerçi peder gibi olsa ulu,
4. Ananı bedduası geçmez derler.

5. Asıl kötülükten korusun Hüda
6. Ve yine korusun cevap zehrinden.
7. Ana öyle kalbi geniş sima,
8. Şefkati fazladır daima öfkesinden. (7 Mart 2007)

JANJALKASH (84)

1. *Janjalkash bir zotning qazosi yetdi,*
2. *Qo'shnisi bu holning sharhini bitdi:*

3. *Kecha Azroildan yengilib, bugun*

4. *Munkarnakr bilan kurashga ketdi.*

KAVGACI (84)

1. Kavgacı bir zatın eceli geldi,

2. Komşusu bu hâlinin şerhini yazdı:

3. Gece Azrail'e yenilip, bugün

4. Münker Nekir'le kavgaya gitti. (28 Mart 2007)

IFTIXOR (85)

1. *Kun kecha Rustamga she'r bitgan edim,*

2. *Bugun bag'ishladim Ruslanga ash'or.*

3. *Ona O'zbekiston, o, yurtim, qadim,*

4. *Yana yuragimga solding iftixor.*

5. *Birovga bepisand boqmoqlik nechun,*

6. *Har kim sodiq bo'lsin lafzi, so'ziga.*

7. *Kimlardir yer chizib turibdi bu kun,*

8. *Ruslan zarbasidan kelmay o'ziga!*

İFTİHAR (85)

1. Gece gündüz Rüstem'e şiir yazmıştım,

2. Bugün ithaf ettim Ruslan'a şiirler.

3. Ana Özbekistan, ey, yurdum, kadim,

4. Yine yüreğime saldın iftihar.

5. Birine koşulsuz bakmak niçin,

6. Herkes sadık olsun lafı, sözüne.

7. Kimler yerin dibine girmiş bugün,

8. Ruslan darbesinden gelmeden kendine! (15 Nisan 2007)

G‘URUR (86)

1. *Ruslanga jahoniy zafar yor bo‘ldi,*

2. *O‘zbekning g‘ururi barqaror bo‘ldi.*

3. *Duo bergan edi o‘zi Yurtboshim,*

4. *El-yurt mehri unga madadkor bo‘ldi.*

GURUR (86)

1. Ruslan’a dünyevi zafer yâr oldu,

2. Özbek’in gururu sürekli oldu.

3. Dua etmişti kendisi Başkanım,

4. El yurt sevgisi ona yardımcı oldu. (19 Nisan 2007)

QURILISH (87)

1. *Qay zamon bir cholga bermishlar savol:*

2. *- Chayla ham qurmabsiz, bu qandayin hol?*

3. *- Bor-yo‘g‘i uch yuz yil umr ko‘rsamu,*

4. *Shunga ham qurilish shartmi? - dermish chol.*

BİNA (87)

1. Ne zaman bir ihtiyara sormuşlar soru:

2. - Kulübe de yapmamışınız, bu nasıl hâl?

3. - Altı üstü üç yüz yıl ömür sürsem,

4. Ona da bina yapmak şart mı? dermiş ihtiyar. (3 Mayıs 2007)

UMR (88)

1. *Bobo va nabira uxlar uzun kun,*

2. *Bu holdan hayratga tushmoqlik nechun.*

3. *Kuchi yo‘qligidan uxlaydi biri,*

4. *Birovi uxlaydi kuch yig‘moq uchun.*

ÖMÜR (88)

1. Dede ve torun uyur uzun zaman,

2. Bu hâle hayrete düşmek niçin.

3. Güç yokluğundan uyur biri,

4. Biri uyur güç toplamak için. (6 Mayıs 2007)

NAKURT (89)

1. *Shoir Azim Suyunning qishlog‘isan, sen Nakurt,*

2. *Tog‘lar saltanatining ajib, suluv makoni.*

3. *Qoyalarda olqoru cho‘qqilarda sor burgut,*

4. *Qiyoq o‘tlar shiviri uning sirli zaboni.*

5. *Yam-yashil daralarda aylanib shamol uchar,*

6. *Tillaqo‘ng‘iz qanotin yelpiydi parvozga shay.*

7. *Shu on buta tagidan yo‘rg‘alab kaklik o‘tar,*

8. *Osmonda tomoshabin - muallaq so‘fito‘rg‘ay.*

9. *O‘zicha balog‘atning betakror zavqin surib,*

10. *Toshdan toshga sakraydi o‘spirin uloqchalar.*

11. *Qaysidir serkachaning noshud ahvolin ko‘rib,*

12. *Uzala tushganicha qiqirlar buloqchalar.*

13. *Nozanin bir malakning billur ko‘zgusidir bu –*

14. *Bulutlar orasidan quyosh nazar tashlaydi.*

15. *Bor ekan-ku dunyoda bundayin sokin tuyg‘u,*

16.*Dolg‘ali umrim yo‘li yodga tusha boshlaydi...*

NAKURT (89)

1. Şair Azim Suyun’un köyüsün, sen Nakurt,
2. Dağlar saltanatının ilginç, güzel mekânı.
3. Kayalarda koyun ve tepelerde şahin kartal,
4. Kareks otlarının hışırtısı onu sırlı lisanı.

5. Yemyeşil derelerde dönüp rüzgâr uçar,
6. Mayıs böceği kanadını çırpar uçmaya hazır.
7. O an çalı dibinden rahvan koşup keklik öter,
8. Asumanda seyirci, asılı toygar.

9. Kendince olgunluğun eşsiz zevkini sürüp,
10. Taştan taşa sıçrar yetişkin oğlakçıklar.
11. Hangisi kesilen keçinin devasız hâlini görüp,
12. Uzanıncaya kadar kıkırdar kaynakçıklar.

13. Nazenin bir meleğin billur aynasıdır bu
14. Bulutlar arasından güneş bakış atar.
15. Var imiş dünyada böyle sakin duygu,
16. Dalgalı ömrümün yolu hatıra düşmeye başlar… (17 Mayıs 2007)

DAKKI (90)

1. *Ish qizg‘in paytida bitta mardikor*
2. *Sherigin koyirdi g‘oyat g‘azabkor:*
3. *Qo‘yni so‘ysa bo‘lar, tuxum yeyilgay,*
4. *Sendan nima foyda, qandayin naf bor?*

SİTEM (90)

1. İş yoğun zamanda bir tane işçi
2. Ortağın azarlardı gayet öfkeli:
3. Koyunu kesse olur, yumurta yenecek,
4. Senden ne fayda, nasıl yarar var? (23 Mayıs 2007)

HIMOYA (91)

1. *Bizga uqtirardi hamisha otam,*
2. *Ikki xil insonga boqing deb har dam:*
3. *Biri - yosh bolayu birisi - keksa,*
4. *Himoyaga muhtoj ikkalasi ham.*

KORUMA (91)

1. Bize anlatırdı daima babam,
2. İki çeşit insana bakın diye her an:
3. Biri genç çocuk ve birisi yaşlı,
4. Korumaya muhtaç ikisi de. (1 Haziran 2007)

RIZOLIK (92)

1. *Uni qiziqtirdi dunyoning zari*
2. *Orzuli hayotning ibtidosida.*
3. *Kerak bo‘lmay qoldi bularning bari*
4. *G‘alvali umrning intihosida.*

5. *Keskir qilichini sermab beshafqat,*
6. *Ot surib keldi-ku bir kun judolik.*
7. *Unga kerak bo‘ldi so‘nggi dam faqat*
8. *Bir og‘iz shirin so‘z hamda rizolik.*

RIZALI (92)

1. Onu ilgilendirdi dünyanın zenginliği
2. Arzulu hayatının başlangıcında.
3. Gerek olmadı bunların hepsi
4. Sıkıntılı ömrünün intihasında.

5. Keskin kılıcını sallayıp şefkatsiz,
6. At sürüp geldi bir gün hicran.
7. Ona gerekti son an yalnız
8. Bir çift tatlı söz de rızalı. (11 Haziran 2007)

QUYOSH BEKATI (93)

1. *Sayr etib yurarkan olis Yaponda,*
2. *Ajib faxr hisi jo‘shardi qonda:*
3. *Quyosh bu diyordan chiqsa ham garchand,*
4. *Bir kun to‘xtab o‘tar O‘zbekistonda!*

GÜNEŞ DURAĞI (93)

1. Seyredip yürürmüş uzak Japonya’da,
2. İlginç övgü hissi coşardı kanda:
3. Güneş bu diyardan çıksa da gerçi,
4. Bir gün durup geçer Özbekistan’da! (22 Haziran 2007, Tokyo)

UMID (94)

1. *Bolam, quvonchlaring oldinda hali,*
2. *Bo‘tana daryoning loyqasi tinar.*
3. *Sayroq qushlaring ham bog‘ingga qo‘nar,*
4. *Bolam, quvonchlaring oldinda hali.*

5. *Vataning bundan ham bo‘lar charog‘on,*
6. *Yana chappor urgay anvoyi gullar.*
7. *Tengsiz mehr bilan balqar ko‘ngillar,*
8. *Vataning bundan ham bo‘lar charog‘on.*

9. *Mashaqqatlar o‘tar, sinovlar o‘tar,*
10.Xandon kulgularing taralgay hali.
11.Tegrangda bir olam yaralgay hali,
12.Mashaqqatlar o‘tar, sinovlar o‘tar.

13.Umid qil, boshingni tik tutgin, bolam,
14.Shu munis Vatanning tuprog‘ini o‘p.
15.Bobo chinorlarning yaprog‘ini o‘p,
16.Umid qil, boshingni tik tutgin, bolam.

ÜMİT (94)

1. Evladım, sevinçlerin önünde hâlâ,
2. Bulanık deryanın çamuru diner.
3. Şakıyan kuşların da bağına konar,
4. Evladım, sevinçlerin önünde hâlâ,

5. Vatanın bundan da olur ışıklı,
6. Yine bitecek envaiçeşit güller.
7. Eşsiz şefkatle parlar gönüller,
8. Vatanın bundan da olur ışıklı.

9. Meşakkatler geçer, sınavlar geçer,
10. Neşeli gülüşlerin yayılacak daha.
11. Etrafında bir âlem yaratılacak daha,
12. Meşakkatler geçer, sınavlar geçer,

13.Ümit et, başını dik tut, evladım,

14. Bu dost Vatan'ın toprağını öp.

15. Dede çınarların yaprağını öp,

16.Ümit et, başını dik tut, evladım. (1 Temmuz 2007)

ULUG'BEK FARYODI (95)

1. *Ming la'nat sen nihol o'tqazgan vaqtga,*

2. *Ossalar gar o'zing ekkan daraxtga.*

3. *Taqdirning yuzlari qoraysin battar,*

4. *Qazgan qudug'ingga cho'ktirsalar gar.*

5. *Falak gumbazini yorsin faryoding,*

6. *Agar o'z farzanding bo'lsa jalloding.*

7. *O'rlasin arshgacha bu qora tutun,*

8. *Beshiging tobutga aylansa bir kun.*

ULUĞBEK FERYADI (95)

1. Bin lanet sen fidan geçirdiğin vakte,

2. Assalar eğer kendin ektiğin ağaca.

3. Kaderin yüzleri kararsın beter,

4. Kazdığın kuyuna çöktürseler eğer.

5. Gök kubbesini yarsın feryadın,

6. Eğer kendi evladın olsa celladın.

7. Çıksın arşa kadar bu kara duman,

8. Beşiğin tabuta dönse bir gün. (1 Temmuz 2007)

NASIBA (96)

1. *Dunyoda hech kimsa yurmaydi bekor,*

2. *Har kimning har qaydan nasibasi bor.*

3. *Kimdir oilasin gap sotib boqsa,*

4. *Kimdir gap o‘g‘irlab tebratar ro‘zg‘or.*

HİSSE (96)

1. Dünyada hiç kimse yürümez boş,

2. Herkesin her nasılsa hissesi var.

3. Kimi ailesini laf ebeliği yapıp baksa,

4. Kimi laf kaçırıp geçindirir aile. (11 Temmuz 2007)

SODDALIK (97)

1. *Inson bolalari baribir sodda,*

2. *Men sizga keltiray uch-to‘rtta misol.*

3. *Balki siz ularni saqlarsiz yodda,*

4. *Yoki boyitarsiz, ehtimol.*

5. *Mana bu holatni aylang tasavvur,*

6. *Bu ham soddalikdan emasdir yiroq:*

7. *- Kimdir zarracha ham qilmay tafakkur,*

8. *Uysizdan joy so‘rar, so‘qirdan chiroq.*

9. *Hamyonin oldirgan nuroniy bir chol*

10.*Insof! - deb boshini qilardi sarak.*

11.*Oh, go‘l otajonim, sodda oqsoqol,*
12.*Insofni bor gap deb o‘ylasa kerak.*

13.*O‘zim uchratganman, bir nokas, nodon*
14.*Masxara qilardi sodda siymoni.*
15.*Der edi: - Bilmaydi bu latta inson*
16.*Hozir kalla emas, aqcha zamoni!*

17.*Inson bolalari sodda baribir,*
18.*Mana qabulxona. Odamlar turlik.*
19.*Navbati kelganda quvondi kimdir,*
20.*Ishim bitadi, deb o‘yladi sho‘rlik.*

21.*Inson bolalari baribir sodda,*
22.*Garchand dunyo mushkul - buni biladi.*
23.*Yashagisi kelmas yig‘lab faryodda,*
24.*Sho‘x-sho‘x qo‘shiqlarni talab qiladi.*

SAFDİLLİK (97)

1. İnsan evlatları aynı basit,
2. Ben size getireyim üç dört tane misal.
3. Belki siz onları saklarsınız hatırda,
4. Yahut zenginleştirirsiniz, ihtimal.

5. İşte bu hâleti edin tasavvur,
6. Bu da basitlikten değildir uzak:
7. Kim zerrecik de etmeden tefekkür,
8. Evsizden yer sorar, körden lamba.

9. Cüzdanını aldıran nurani bir ihtiyar
10.İnsaf! deyip başını ederdi âlâ.
11. Ah, saf babacığım, safdil aksakal,
12.İnsafı var söz diye düşünse gerek.

13. Kendim karşılaşmışım, bir rezil, cahil
14. Alay ederdi masum simanla.
15. Der idi: - Anlamaz bu korkak insan
16.Şimdi akıl değil, akçe zamanı!

17.İnsan evlatları saf hepsi,
18.İşte kabul odası. İnsanlar türlü.
19.Nöbeti geldiğinde sevindi biri,
20.İşim biter, diye düşünür biçare.

21.İnsan evlatları hepsi saf,
22. Gerçi dünya zor, bunu bilir.
23. Yaşayası gelmez ağlayıp feryatta,
24.Şuh şuh koşukları seçer. (1 Temmuz 2007)

QASSOB (98)

1. *Kimlardir qassobni xunxor deydilar,*
2. *Berar tirik jonga ozor deydilar.*
3. *Biroq, qassob so‘ygan ko‘yning go‘shtini*
4. *Maqtashib, takroru takror yeydilar.*

KASAP (98)

1. Kimler kasaba katil derler,
2. Birer canlıyı azarlarlar.

3. Fakat, kasabın soyduğu koyunun etini
4. Övüp, tekrar tekrar yerler. (Temmuz, 2007)

LOF (99)

1. *Lofchining uslubi shundoqdir azal,*
2. *Mahliyo qiladi sizni yolg‘onga.*
3. *Qay kuni bir lofchi der edi dangal:*
4. *- Shapaloq tortganman Napoleonga.*

5. *Gapni ilib ketdi ikkinchi lofchi,*
6. *Dedi: - Eshit endi, og‘ayni, bizni,*
7. *O‘lik dengiz derlar, sababin top-chi,*
8. *O‘zim o‘ldirganman o‘sha dengizni.*

9. *Lofning zamoni ham o‘tdi-ku mutloq,*
10. *Unga muhtoj emas birorta odam.*
11. *Rostdan duch kelganga tortib shalaloq,*
12. *Rostdan quritgaydir dengizlarni ham.*

LAF (99)

1. Laf cambazının üslubu böyledir ezel,
2. Şaşırtır sizi yalanla.
3. Hangi gün bir laf cambazı der idi açık:
4. - Şamar indirmişim Napolyon’a.

5. Lafı bağladı ikinci lafçı,
6. Dedi: - Dinle şimdi, ahbap, bizi,
7. Ölü deniz derler, sebebini bul,
8. Kendim öldürmüşüm o denizi.

9. Lafın zamanı da geçti mutlaka,

10. Ona muhtaç değil bir insan.

11. Gerçekten rastladığına indirip şamar,

12. Gerçekten kurutacaktır denizleri de. (11 Temmuz 2007)

MECHKAY (100)

1. *Bir mechkay bo‘lardi, battar yuhodan,*

2. *To‘ymasdi na oshdan va na sho‘rvodan.*

3. *Bir kun haqsizlikka duch kelib dedi:*

4. *- To‘ydim barisidan, hatto dunyodan.*

AÇGÖZLÜ (100)

1. Bir açgözlü olurdu, beter ejderhadan,

2. Doymazdı ne yemekten ve ne çorbadan.

3. Bir gün haksızlığa uğrayıp dedi:

4. - Doydum hepsine, hatta dünyaya. (11 Temmuz 2007)

JIN (101)

1. *Mana bu gap esa haqiqatdir chin,*

2. *Bugun ko‘zasidan chiqib ketgan jin.*

3. *Endi u hech kimni pisand qilmaydi,*

4. *Hatto egasiga ko‘tarar qamchin.*

RUH (101)

1. İşte bu söz ise hakikattir gerçek,

2. Bugün kozasından çıkıp gitmiş ruh.

3. Şimdi o hiç kimseye aldırmaz,

4. Hatta sahibine kaldırır kamçı. (12 Temmuz 2007)

VATAN (102)

1. *Vatan nimadir deb yurgandan ko‘ra,*

2. *Esingni bir joyga yig‘ib ol, jo‘ra.*

3. *Dunyoda ibratli darsxonalar ko‘p,*

4. *Vatanni sen vatangadodan so‘ra.*

VATAN (102)

1. Vatan nedir diye yürüdüğüne göre,

2. Aklını başına topla, arkadaş.

3. Dünyada ibretli dershaneler çok,

4. Vatanı sen vatansıza sor. (14 Temmuz 2007)

IG‘VOGAR (103)

1. *Qalin charm tortib qalin betiga,*

2. *O‘tirib olgan u yo‘lning chetiga.*

3. *Bir gap chiqarmi deb tinmay qaraydi*

4. *Kimning og‘zigayu kimning ketiga.*

FESAT (103)

1. Kalın deri çekip kalın yüzüne,

2. Oturmuş o yolun kenarına.

3. Bir söz çıkar mı diye durmadan bakar

4. Kiminin ağzına ve kiminin arkasına. (14 Temmuz 2007)

QACHON ESLARKAN... (104)

1. *Qolganlar eslaydi o‘tgan insonni,*

2. *Qo‘msar tushlarida ul aziz jonni.*

3. *Bilmadim, kim qayda, qachon eslarkan*

4. *Marhum bo‘lib ketgan sho‘rlik vijdonni.*

NE ZAMAN HATIRLARMIŞ… (104)

1. Kalanlar hatırlar geçmiş insanı,

2. Özler düşlerinde o aziz canı.

3. Anlamadım, kim nerede, ne zaman hatırlarmış

4. Merhum olup giden biçare vicdanını. (14 Temmuz 2007)

YANA O‘ZING QO‘LLA (105)

1. *Kimdir oy sanaydi,*

2. *kimdir kun sanar.*

3. *Men esa sanayman*

4. *soatni hatto.*

5. *Osonmi qadamda*

6. *poylasa xatar.*

7. *Osonmi yashamoq*

8. *tahlika aro.*

9. *Hasad va g‘arazning*

10.*qamchisi tegib,*

11.*Ko‘zimdan qonli yosh*

12.*oqmoqda balkim.*

13.*Turibman sho‘rishli*

14.*boshimni egib,*

15.*Yana o‘zing qo‘lla,*

16.*onajon, xalqim!*

YİNE KENDİN KOLLA (105)

1. Kimi ay sayar,

2. kimi gün sayar.

3. Ben ise sayarım

4. saatini hatta.

5. Kolay mı adımda

6. beklese tehlike.

7. Kolay mı yaşamak

8. tehlike arasında.

9. Haset ve garezin

10.kamçısı değip,

11.Gözümden kanlı yaş

12.akmakta belki.

13. Durmuşum kavgacı

14.başımı eğip,

15. Yine kendin kolla,

16.anacığım, halkım! (12 Temmuz 2007)

YOLG‘IZ (106)

1. *Yolg‘izning g‘amini yemaydi hech kim,*

2. *Himoyasi uchun yelmaydi hech kim.*

3. *Eslashsa, dunyodan o‘tdi u derlar,*

4. *Dunyodan o‘tkazdik demaydi hech kim.*

YALNIZ (106)

1. Yalnızla ilgilenmez hiç kimse,

2. Korumak için koşmaz hiç kimse.

3. Hatırlasalar, dünyadan geçti o derler,

4. Dünyadan göçtürdük demez hiç kimse. (15 Temmuz 2007)

TINCHLIK (107)

1. *Dunyoda bitta so‘z bor*

2. *tengdir katta-kichikka.*

3. *U hatto koinotni*

4. *harir kabi o‘raydi.*

5. *Kimdir kimni yo‘qlasa*

6. *ko‘z tikib yaxshilikka,*

7. *Dastavval bir-biridan*

8. *tinchlikmi? - deb so‘raydi.*

HUZUR (107)

1. Dünyada bir tane söz var

2. aynıdır büyük küçüğe.

3. O hatta kâinatı

4. ipek gibi örer.

5. Kim kime uğrasa

6. bakıp iyiliğe,

7. İlkin birbirine

8. iyi misiniz? diye sorar. (6 Ağustos 2007)

YURTDOSHLARIM (108)

1. *Qalbimni chulg‘aydi ajib bir qo‘shiq*

2. *Yurt kezsam, u baland tog‘lardan oshsam.*

3. *Dalalar qo‘ynida mehnatkash, mushfiq*

4. *Aziz yurtdoshlarim bilan uchrashsam.*

5. *Tekis dazmol izi bo‘lmas ehtimol,*

6. *Ularning usti-bosh, engillarida.*

7. *Boqishar hamisha boladay xushhol,*

8. *Zarra egrilik yo‘q ko‘ngillarida.*

YURTTAŞLARIM (108)

1. Kalbimi sardı ilginç bir koşuk

2. Yurt gezsem, o yüksek dağlardan aşsam.

3. Tarlalar bağrında emekçi, şefkatli
4. Aziz yurttaşlarımla karşılaşsam.

5. Düz ütü izi olmaz ihtimal,
6. Onların üstü başı, giysilerinde.
7. Bakışır daima çocuk gibi hoşnut,
8. Zerre eğrilik yok gönüllerinde. (8 Ekim 2007)

SHOIR (109)

1. *Duch kelgan kimsani dust bilma, shoir,*
2. *Pand yegach bag‘ringni so‘ng tilma, shoir.*
3. *Nomingdan ulug‘roq martabang yo‘qdir,*
4. *Davralar to‘riga intilma, shoir.*

ŞAİR (109)

1. Rastladığın kimseyi dost bilme, şair,
2. Aldatıncaya kadar bağrını son kesme, şair.
3. Adından daha ulu merteben yoktur,
4. Gruplar ağına atılma, şair. (9 Eylül 2007)

NAZARMAT OTA (110)

Shoirning 90 yilligiga

1. *G‘alvali dunyoning ko‘ziga qarab,*
2. *Janggoxlarda goho qonlarga bota,*
3. *To‘qson yil tiriklik doviga chidab,*
4. *Qanday yashagansiz, Nazarmat ota?!*

5. *Hayot majburiyat bo‘lishi mumkin,*

6. *Irsiyat umrga tayanch ihota.*

7. *Turfa odamlarga mehrni lekin*

8. *Qanday saqlagansiz, Nazarmat ota?!*

9. *Aslida savolni bermoq qiyinmas,*

10.*Savollar goh vzvod, goh rota-rota.*

11.*Bariga qo‘l siltab qo‘yasiz, shu bas,*

12.*Bilganingiz to‘g‘ri, Nazarmat ota...*

NAZARMAT BABA (110)

Şairin 90 yıllığına

1. Tasalı dünyanın gözüne bakıp,

2. Harp meydanlarında bazen kanlara bata,

3. Doksan yıl hayat davasına katlanıp,

4. Nasıl yaşamışsınız, Nazarmat Baba?!

5. Hayat mecburiyet olması mümkün,

6. İrsiyet ömre destek ihata.

7. İlginç insanlara şefkati lakin

8. Nasıl saklamışsınız, Nazarmat Baba?!

9. Aslında soru sormak zor değil,

10. Sorular gâh bölüm, gâh birlik.

11. Hepsine omuz silkersiniz, o yeter,

12. Anladığınız doğru, Nazarmat Baba… (7 Kasım 2007)

INSON (111)

1. *Senga bo‘lsin ezgu hislarim,*
2. *Nafratlarim boshqa yoqlarga.*
3. *O‘zni tanib, Seni izladim,*
4. *Duch kelsam ham shum siyoqlarga.*

5. *Birov seni avliyo dedi,*
6. *Bnrov dedi mehnatkash siymo.*
7. *Gar siyrating yodimda edi,*
8. *Suvratingni ko‘rmadim ammo.*

9. *Yo‘liqasan go‘dak bo‘lib goh,*
10. *Goh mo‘ysafid, goh shod, goh nolon.*
11. *Kimligingdan bo‘lmadim ogoh*
12. *Va atadim nomingni - Inson.*

İNSAN (111)

1. Sana olsun iyi hislerim,
2. Nefretlerim başka taraflara.
3. Kendini tanıyıp, Sen’i ararım
4. Rastlasam da kötü suretlilere.

5. Biri sana evliya dedi,
6. Biri dedi emekçi sima.
7. Eğer siyretin yâdımda idi,
8. Suretini görmedim ama.

9. Rastlarsın bebek olup Gâh,
10. Gâh ihtiyar, gâh mutlu, gâh nalan.

11. Kimliğinden olmadım agâh

12. Ve adlandırdım ismini, İnsan. (20 Kasım 2007)

QARG‘ISH (112)

1. *Ossalar - daqiqa umringga yakun,*

2. *Otsalar - daqiqa umringga yakun.*

3. *El-yurt qarg‘ishidan asrasin Xudo,*

4. *Avlod-ajdodingga yetgay u butun.*

BEDDUA (112)

1. Assalar, dakika ömrüne yekûn,

2. Atsalar, dakika ömrüne yekûn.

3. Vatan millet bedduasından korusun Hüda,

4. Evlat ecdadına yetişecek o bütün. (21 Kasım 2007)

VATAN FARZANDI (113)

1. *Goho yosh bolaga o‘xshaydi Vatan,*

2. *Sodda, norasida, pok va beg‘ubor.*

3. *To ozor yetmasin unga daf’atan,*

4. *Begona ko‘zlardan asramoq darkor.*

5. *Vatan ulug‘ pirga o‘xshaydi gohi,*

6. *Qo‘llagay, aritgay ko‘zdan yoshlarni.*

7. *Yursa tovoniga botmasin toki,*

8. *Yo‘ldan olib qo‘ying har xil toshlarni.*

9. *Kim uning xizmatin etolsa ado,*

10.*Ikki dunyoda ham bo‘lmagaydir kam.*

11.*O‘zini ta’masiz qildimi fido,*

12.*O‘sha zot Vatanga farzand chinakam.*

VATAN EVLADI (113)

1. Bazen genç çocuğa benzer Vatan,
2. Saf, genç, pak ve tertemiz.
3. Azar ulaşmasın ona dek ansızın,
4. Yabancı gözlerden korumak gerek.

5. Vatan ulu pire benzer bazen,
6. Kollayacak, arıtacak gözden yaşları.
7. Yürüse topuğuna dek batmasın,
8. Yoldan alın her tür taşları.

9. Kim onun hizmetini edebilse eda,
10.İki dünyada da olmayacaktır değersiz.
11. Kendini tamahsız etti mi feda,
12.O zat Vatan’a evlat asıl. (3 Aralık 2007)

KAMTARLIK (114)

1. *Har kimga buyursin o‘zining dardi,*
2. *Ba’zan kulsang kamdir, yig‘lasang ham oz.*
3. *Bir kuni xilvatda suhbat qilardi*
4. *Sodda shogird bilan mehribon ustoz.*

5. *Ustoz der ediki: - Topshiriq shuldir:*
6. *Yo‘qot falonchini, qurisin zoti.*
7. *So‘ng esa albatta o‘zingni o‘ldir,*
8. *Jannatga tushasan o‘sha zahoti.*

9. *Shogirdi der edi g‘oyatda kamtar:*

10.*Ustoz, maqbul erur aytgan so‘zingiz.*

11.*Jannat shu qadarli naqd bo‘lsa agar,*

12.*Ishni boshlab bering avval o‘zingiz.*

ALÇAK GÖNÜLLÜLÜK (114)

1. Herkese buyursun kendi derdini,

2. Bazen gülsen azdır, ağlasan da az.

3. Bir gün yalnız sohbet ederdi

4. Saf şakirtle şefkatli üstat.

5. Üstat der idi ki: - Buyruk şudur:

6. Yok et falancayı, kurusun zatı.

7. Sonra da mutlaka kendini öldür,

8. Cennete düşersin derhâl.

9. Şakirdi der idi gayet de mütevazı:

10.- Üstat, makbuldür söylediğiniz sözünüz.

11. Cennet bu kadar peşin olsa eğer,

12.İşe başlayın öne kendiniz. (20 Aralık 2007)

BOZORCHILAR (115)

1. *Hech kimsaga aytmaymiz bu sirimizni,*

2. *Mehmonlardan uzmaymiz ko‘z qirimizni.*

3. *Tushga qadar biz ularni aldagaymiz,*

4. *Tushdan keyin aldaymiz bir-birimizni.*

PAZARCILAR (115)

1. Hiç kimseye söylemeyiz bu sırrımızı,

2. Misafirlerden kesmeyiz göz atışımızı.
3. Düşe kadar biz onları aldatacağız,
4. Düşten sonra kandıracağız birbirimizi. (20 Kasım 2007)

QUM SOCHISH (116)

1. *Kichkintoy nabiram labi pirpirab,*
2. *Kichkina hasratin ochdi bir kuni:*
3. *O‘rtog‘im qum sochdi ko‘zimga qarab,*
4. *Xafa qilmagandim axir men uni...*

5. *O, bolam, betoqat bo‘lma buncha ham,*
6. *Bobongning joniga bersin-da tuzim.*
7. *Men ham undaylarni agar sanasam,*
8. *Yo‘qotsam bo‘lardi o‘zimni o‘zim.*

KUM SAÇMAK (116)

1. Minicik torunum dudağı titreyip,
2. Küçücük hasretin açtı bir günü:
3. Arkadaşım kum saçtı gözüme bakıp,
4. Üzülmemiştim artık ben ona…

5. Ey, evladım, sabırsız olma bu kadar da,
6. Dedenin canına versin yemek.
7. Ben de onun gibileri eğer sayarsam,
8. Yok etsem olurdu kendimi kendim. (20 Kasım 2007)

TABIATNING ISHI (117)

1. *Tabiatning ishi g‘oyat rang-barang,*
2. *Haddan ziyodlikni sevar u bir oz.*

3. *Ikki boshli buzoq bor emish, qarang,*

4. *Bor emish qaydadir to‘rt oyoqli g‘oz.*

5. *Turfa hodisotga uchrar odam ham*

6. *Gohida otliq u, gohi piyoda.*

7. *Gohi bosib kelsa haddan ziyod g‘am,*

8. *Gohi shodlik kelgay haddan ziyoda.*

9. *Lekin hech bir kimsa bilmas shu asno,*

10.*Taqdir ipi qanday to‘qilganini.*

11.*Haddan ziyod oqil tug‘ildimi yo,*

12.*Haddan ziyod nodon tug‘ilganini.*

TABİATIN İŞİ (117)

1. Tabiatın işi gayet rengârenk,

2. Hadden fazlasını sever o biraz.

3. İki başlı buzağı var imiş, bakın,

4. Var imiş bir yerde dört ayaklı kaz.

5. İlginç hadiselere rastlar insan da

6. Bazen atlı o, bazen piyade.

7. Bazen bassa hadden fazla gam,

8. Bazen mutluluk gelecek hadden ziyade.

9. Lakin hiçbir kimse bilmez o esna,

10. Kader ipinin nasıl döküldüğünü.

11. Hadden fazla akıllı doğdu mu yahut,

12. Hadden fazla cahil doğduğunu. (24 Kasım 2007)

OSH (118)

1. *Kimdir kimga tashlanib,*
2. *Muttasil zahrin sochar.*
3. *Xashagini titkilab*
4. *Ming yillik aybin ochar.*
5. *Ehtiyot bo‘l birodar,*
6. *Go‘lahlarga ishonma,*
7. *Osh pishganda qozonni*
8. *Bildirmay olib qochar.*

AŞ (118)

1. Kim kime atılıp,
2. Sürekli zehrini saçar.
3. Kuru otunu karıştırıp
4. Bin yıllık ayıbını açar.
5. İhtiyatlı ol birader,
6. Ateş yakanlara inanma,
7. Aş piştiğinde kazanı
8. Bildirmeden alıp kaçar. (25 Kasım 2007)

PAXTA (119)

1. *Tug‘ilib ilk bora beshikka kirsam,*
2. *Boshimda bolishim bo‘lgan o‘zingsan.*
3. *Dunyoning qaysi bir burchida yursam,*
4. *G‘ururim, nolishim bo‘lgan o‘zingsan.*

5. *Kezdim qasrlarni - shuhrating sabab,*
6. *Gohi zindonlarga aylandi joyim.*
7. *Loyimni qorganda momiqqa o‘rab,*
8. *Yo‘rgaklab olgandir balkim Xudoyim.*

9. *Paxtam deb kuylasam seni qay zamon,*
10. *Yog‘ildi sha’nimga hatto malomat.*
11. *Emishki, yo‘q, senda ilhomdan nishon,*
12. *Yo‘qdir go‘zallikdan senda alomat.*

13. *Seni rizqim dedi mushtipar onam,*
14. *Demakki, rizqimsan azaldan-azal.*
15. *Toki shu tuproqda ekan nasibam,*
16. *Hatto yantog‘iga yozurman g‘azal.*

PAMUK (119)

1. Doğup ilk kez beşiğe girsem,
2. Başımda yastığım olan sensin.
3. Dünyanın hangi bir köşesinde yürüsem,
4. Gururum, serzenişim olan sensin.

5. Gezdim kalelerini, şöhretin sebep,
6. Bazen zindanlara döndü yerim.
7. Toprağı karıp pamuğa sarıp,
8. Kundaklayıp almıştır belki Allah’ım.

9. Pamuğum diye övsem seni hangi zaman,
10. Düştü şanıma hatta melamet.
11. İmiş ki, yok, sende ilhamdan nişan,
12. Yoktur güzellikten sende alamet.

13. Seni rızkım dedi biçare anam,
14. Demek ki, rızkımsın eskiden beri.

15. Ta şu toprakta imiş nasibim,

16. Hatta dikenine yazarım gazel. (27 Kasım 2007)

DO‘ST (120)

1. *Taqchil buyumlar bor, taqchil dori bor,*

2. *Ularga ayricha bo‘lgay e’tibor.*

3. *Do‘st ham taqchillarning ro‘yxatidadir,*

4. *Shukrkim, do‘st menda bisyordir, bisyor.*

DOST (120)

1. Eksik şeyler var, eksik ipi var,

2. Onlara ayrıca olacak itibar.

3. Dost da eksiklerinin listesindedir,

4. Şükür ki, dost bende çoktur, çok. (2 Aralık 2007)

HIDOYAT YO‘LI (121)

1. *Islomning muqaddas arkonlari bor,*

2. *Haj ro‘za, namozu zakot va jihod.*

3. *Ular bog‘liq erur iymonga poydor,*

4. *Bajargan har mo‘min topgaydir najot.*

5. *Ro‘za va namoz-ku hamrohdir doim,*

6. *Zakot ham topilgay ba qadri imkon.*

7. *Imoning to mahshar bo‘lsin but, qoim,*

8. *Lekin jihod nedur? Nahot jang va qon!*

9. *Qay mo‘min hidoyat yo‘lini bilsa,*

10.*Hirsu nafs hujumin etolsin barbod.*

11.*Rasulullоh demish: - Kimki haj qilsa,*

12.*O‘shadir dunyoda eng yaxshi jihod.*

HİDAYET YOLU (121)

1. İslam’ın mukaddes ipleri var,
2. Hac, oruç, namaz ve cihat.
3. Onlar bağlıdır imana sağlam,
4. Beceren her mümin bulmuştur necat.

5. Oruç ve namaz yoldaştır daim,
6. Zekât da bulunacak kadr-i imkânla.
7. İmanın mahşere dek olsun tam, sağlam,
8. Lakin cihat nedir? Savaş ve kan mı!

9. Hangi mümin hidayet yolunu bilse,
10.Hırs ve nefis hücumunu edebilsin berbat.
11. Resullullah demiş: - Kim ki hac yapsa,
12. Odur dünyada en iyi cihat. (19 Aralık 2007)

IJROCHILAR (122)

1. *Maqsadimiz aniq,*
2. *G‘oyamiz porloq.*
3. *Zorligimiz yo‘qdir himochilarga,*
4. *Va lekin ishimiz tushadi ko‘proq*
5. *Pastdagi og‘ayni - ijrochilarga.*

6. *Sekin o‘sib borib, uch yilmi, to‘rt yil*
7. *Mazkur o‘rindiqda o‘ltirar ular.*
8. *Juda ham ziyrakdir, juda ham qobil,*
9. *Bo‘lmagan ishni ham bo‘ldirar ular.*

10. *Unutib qo‘yishi mumkindir ba’zan*
11. *Biror tanishi yo yorning ismini.*
12. *Lekin unutmaydi, yozilmay qolgan*
13. *Muhim hisobotning so‘nggi qismini.*

14. *Uyiga qaytadi horib va tolib,*
15. *Ba’zan yarim tunda yo undan nari.*
16. *Tushlariga kirar - kurortlar qolib,*
17. *Mansabning keyingi pog‘onalari.*

18. *Asli o‘shalardir arkoni davlat,*
19. *Ular bor, qo‘rg‘onga yo‘lamas yotlar.*
20. *Aniq tavsiflari bittadir faqat:*
21. *Ijrochi zot ular, ijrochi zotlar.*

22. *Biroq ko‘ngli jo‘shib onda-yu sonda*
23. *Baland maqomlarda so‘zlaydilar ham.*
24. *Sigara tutatib yuksak balkonda*
25. *Olis-olislarni ko‘zlaydilar qam.*

26. *Ne ajab, tobiga kelganda tandir*
27. *Novvoy ochiq joyga kulcha ham yopgay.*
28. *Nima bo‘lganda ham, ular baribir,*
29. *Qutlug‘ dargohlarda tarbiya topgay.*

30. *She’rimni tugatdim,*
31. *G‘oya va turoq*
32. *Tahlili olimu imlochilarga.*
33. *Oliy minbarlarga chiqquncha biroq*

34.*Men uni o‘qiyman ijrochilarga.*

SANATÇILAR (122)

1. Maksadımız net,
2. Gayemiz parlak.
3. Muhtaçlığımız yoktur imacılara,
4. Velakin işimiz düşer daha çok
5. Aşağıdaki ahbap, sanatçılara.

6. Yavaş büyüyüp, üç yıl mı, dört yıl
7. Mezkûr oturakta oturur onlar.
8. Çok da zekidir, çok da uysal,
9. Olmayan işi de oldurur onlar.

10. Unutup bırakması mümkündür bazen
11. Bir tanıdığı yahut yârinin ismini.
12. Lakin unutmaz, yazılmadan kalan
13.Mühim hesabın son kısmını.

14. Evine döner yorulup ve tükenip,
15. Bazen gece yarısında yahut ondan sonra.
16.Düşlerine girer kaplıcalar kalıp,
17. Makamın sonraki evreleri.

18. Asıl onlardır ipi devlet,
19. Onlar var, kaleye yaklaşamaz yabancılar.
20. Net tasvirleri bir tanedir sadece:
21. Sanatçı zat onlar, sanatçı zatlar.

22. Fakat gönlü coşup sağda ve solda
23.Yüksek makamlarda konuşurlar da.
24. Sigara tutuşup yüksek balkonda
25.Çok uzakları gözlerler de.

26. Ne garip, hazırlandığında tandır
27.Fırıncı açık yerde çörek de pişirecek.
28. Ne olduğunda da, onlar aynı,
29. Kutlu dergâhlarda eğitim bulacak.

30.Şiirimi bitirdim,
31. Gaye ve durak
32. Tahlili âlim ve imlacılara.
33.Yüksek minberlere çıkınca fakat
34. Ben onu okurum sanatçılara. (23 Aralık 2007)

JANNAT (123)

1. *Umrim shamollari hanuz yeladi,*
2. *Hanuz nurli chehrang turar qoshimda.*
3. *Onajon, men seni ko‘rgim keladi*
4. *Yetmishni qoralab qolgan yoshimda.*

5. *Mayliga, menga ham orom tilagin,*
6. *Onajon, sog‘inchim sen o‘zing rosti.*
7. *Mo‘ysafid o‘g‘lingning boshin silagin,*
8. *Menga jannat erur oyog‘ing osti.*

CENNET (123)

1. Ömrümün rüzgârları henüz eser,

2. Henüz nurlu çehren durur karşımda.
3. Anacığım, benim seni göresim gelir
4. Yetmişi karalayıp kalan yaşımda.

5. Peki, bana da esenlik dile,
6. Anacığım, özlemim sensin doğrusu.
7. İhtiyar oğlunun başını okşa,
8. Bana cennettir ayağının altı. (25 Kasım 2007)

INSON OMILI (124)

1. *Samolyotlar qular,*
2. *Kemalar cho‘kar,*
3. *Poyezdlar izidan chiqib ketadi.*
4. *Bu holning sababin qancha izquvar,*
5. *Qancha idoralar tahlil etadi.*

6. *Kichik murvatgacha axtarib topib,*
7. *Tekshirar ilmning necha komili.*
8. *Oxiri besamar daftarin yopib,*
9. *Deydilar: sababchi inson omili.*

10.*O, inson omili, so‘nggi sababkor,*
11.*Tangri qoshidagi yolg‘iz dalolat.*
12.*O‘zingning dardingga o‘zingsan aybdor,*
13.*O‘zingga yuklaysan o‘zing malomat.*

14.*Hatto nadomating o‘zingga tortiq,*
15.*Cho‘kkan kema bilan cho‘kkaymi zoring.*
16.*Baridan ortiqdir, barkdan ortiq*
17.*Sening bir-biringga bergan ozoring.*

18.*G‘alva chiqarmoqqa sen doim shaysan,*

19.*Buraysan tinch turgan boshning murvatin.*

20.*Umring o‘tib borar, sen-chi yashaysan*

21.*Bir shumlik qilishning poylab fursatin.*

22.*Ne-ne zakiy zotlar sening dastingdan*

23.*Shaytonga koranda bo‘lgani ham rost.*

24.*Sening makringdanu sening qasdingdan*

25.*Kimlardir beajal o‘lgani ham rost.*

26.*Ulug‘ kashfiyotlar seniki garchand,*

27.*O‘zingsan falakning tengsiz olimi.*

28.*Bir kun mehvarida zamin yesa pand*

29.*Sabab bo‘lmasmisan, inson omili.*

İNSAN AMİLİ (124)

1. Uçaklar düşer,

2. Gemiler batar,

3. Trenler izinden çıkıp gider.

4. Bu hâlin sebebini nice dedektif,

5. Nice idareler tahlil eder.

6. Küçük vidaya dek arayıp bulup,

7. Denetler ilminin nice kâmili.

8. Ahiri beyhude defterini kapatıp,

9. Derler: müsebbip insan amili.

10. Ey, insan amili, son müsebbip,

11. Allah huzurundaki tek delalet.
12. Kendinin derdine kendinsin suçlu,
13. Kendine yüklersin kendin melamet.

14. Hatta pişmanlığın kendine hediye,
15. Batan gemiyle batmam mı rican?
16. Hepsinden fazladır, hepsinden fazla
17. Senin birbirine verdiğin azarın.

18. Kavga çıkarmaya sen daima hazırsın,
19.Çevirirsin dinç duran başının vidasını.
20.Ömrün geçip gider, sen yaşarsın
21. Bir kötülük etmenin kollayıp fırsatını.

22.Çok zeki zatlar senin elinden
23.Şeytana ortak olduğu da doğru.
24. Senin hilenden ve senin isteğinden
25. Kimlerin ecelsiz öldüğü de doğru.

26. Ulu keşifler seninki gerçi,
27. Sensin feleğin eşsiz âlimi.
28. Bir gün ekseninde zemin yese kazık
29. Sebep olmaz mısın, insan amili. (23 Aralık 2007)

YOSHLIGIM (125)

1. *Olis qishlog‘imning ko‘chalarida,*
2. *Tuproqni changitib yurgan yoshligim.*
3. *Janubning yulduzli kechalarida,*
4. *Uxlamay xayollar surgan yoshligim.*

5. *Orzular qaygadir chorladi bir choq,*
6. *Ortda qolib ketdi u aziz tuproq.*
7. *Kimgadir shogirdu kimgadir o‘rtoq,*
8. *She’r bilan suhbatlar qurgan yoshligim.*

9. *Tanidim yurtimni, qadim elimni,*
10. *Alisher so‘zlagan suluv tilimni.*
11. *Va lekin yovlarim to‘sib yo‘limni*
12. *Ne zabun kunlarni ko‘rgan yoshligim.*

13. *Dunyoda birovni kamsitmoq yomon,*
14. *Yomondir seniki bo‘lmasa zamon.*
15. *Topolmay bir chora, topolmay imkon*
16. *Yo‘lin yolg‘izlikka burgan yoshligim.*

17. *Shukur, to‘zonlarda qolmadim so‘lib,*
18. *Keldi xush davron ham shavqlarga to‘lib.*
19. *Endi ro‘paramda nabiram bo‘lib,*
20. *Mardona qad kerib turgan yoshligim.*

GENÇLİĞİM (125)

1. Uzak köyümün sokaklarında,
2. Toprağı tozutup yürümüş gençliğim.
3. Güneyin yıldızlı gecelerinde,
4. Uyumadan hayaller kurmuş gençliğim.

5. Arzular bir şeye çağırır bir an,
6. Geride kaldı o aziz toprak.

7. Birine şakirt birine ortak,
8. Şiirle sohbetler kurmuş gençliğim.

9. Tanıdım yurdumu, kadim halkımı,
10. Ali Şîr konuşmuş güzel dilimi.
11. Velakin düşmanlarım kesip yolumu
12. Ne sefil günleri görmüş gençliğim.

13.Dünyada birini eksiltmek yaman,
14. Yamandır seninki olmasa zaman.
15. Bulunmadan bir çare, bulunmadan imkân
16. Yolunu yalnızlığa çevirmiş gençliğim.

17.Şükür, tozlarda kalmadım solup,
18. Geldi hoş devran da hevesle dolup.
19.Şimdi karşımda torunum olup,
20. Mertçe arz-ı endam eden gençliğim. (25 Aralık 2007)

YANGI DAVRA (126)

1. *Bir davrada men o‘zimni begona sezdim,*
2. *Go‘yo boshqa sayyoraga kelganday sayyoh.*
3. *Turfa nozik buyumlardan qamashib ko‘zim,*
4. *Qo‘rqar edim, tegib ketmay deya banogoh.*

5. *Axdi davra g‘oyat po‘rim, g‘oyat maftunkor,*
6. *Har birining imosida nazokat ayon.*
7. *Ular ta’zim qilishardi takror va takror,*
8. *Taqib olgan uzuklari yaltirar chunon.*

9. *Men-chi, yolg‘iz o‘ltirardim ko‘rgan kabi tush,*
10. *Bo‘yinboqqa mos kelganmi men kiygan ko‘ylak?*
11. *Talay sanchqi, qoshiqlarga boqardim xomush,*
12. *Qaysi birin qaysi qo‘lga olmog‘im kerak?*

13. *Shu on qo‘shiq yangrab qoldi yorug‘ sahnada,*
14. *G‘amginmidi, shodmonmidi - bilmasdim, valloh!*
15. *May ichmasdan mastday edim o‘sha lahzada,*
16. *Mening uchun qadah so‘zi aytilmishdir, voh!*

17. *Yangi zamon g‘unchalari, sizlarga salom,*
18. *Bitta ko‘hna mo‘miyoni siylamishsiz, bas.*
19. *Nabiralar ko‘rsatibdi menga ehtirom,*
20. *Demak, ushbu davrada men begona emas.*

YENİ GRUP (126)

1. Bir grupta ben kendimi yabancı hissettim,
2. Güya başka gezegene gelmiş gibi gezgin.
3. Acayip nazik kumaşlardan kamaşıp gözüm,
4. Korkar idim, erişip gitmeden diye ansızın.

5. Ehl-i grup gayet havalı, gayet meftunkâr,
6. Her birinin imasında nezaket ayan.
7. Onlar tazim ederdiler tekrar tekrar,
8. Taktığı yüzükleri parlar gayet.

9. Ben, yalnız otururdum gördüğün gibi düş,
10. Kravata denk gelmiş mi giydiğim gömlek?
11. Hayli çatal, kaşıklara bakardım üzgün,
12. Hangi birini hangi ele almam gerek?

13.O an koşuk çaldı aydınlık sahnede,
14. Gamlı mıydı, mutlu muydu, bilmezdim, vallah!
15. Mey içmeden mest gibi idim o anda,
16. Benim için kadeh sözü söylenmiştir, vah!

17. Yeni zaman goncaları, sizlere selam,
18. Bir tane köhne mumyayı ağırlamışsınız, yeter.
19. Torunlar göstermiş bana ihtiram,
20. Demek, bu gruptan ben yabancı değilim. (31 Aralık 2007)

YO‘RIQ (127)

1. *Dunyoning ibratli yo‘riqlari bor,*
2. *O‘sha boshqaradi umr kemasin.*
3. *Do‘stiga mehrini etganda izhor,*
4. *Hech kim ko‘kragidan tepki yemasin.*

5. *Qancha kamolotga yetmasin odam,*
6. *Aslo unutmasin Xalloq - egasin.*
7. *O‘zini gunohkor sanasin har dam,*
8. *Savob ishni esa qildim demasin.*

YOL (127)

1. Dünyanın ibretli yolları var,
2. O yürütür ömür gemisini.
3. Dostuna şefkatini ettiğinde izhar,
4. Hiç kimse göğsünden tepki yemesin.

5. Nice olgunluğa ulaşmasın insan,

6. Asla unutmasın Halik, sahibini.
7. Kendini günahkâr saysın her an,
8. Sevap işini ise işledim demesin. (10 Ocak 2008)

MULK (128)

1. *Sen meni kechirgin gaplarim uchun,*
2. *O‘rinsiz so‘zlarim uchun kechirgin.*
3. *Sening yuzlaringga boqib tunu kun*
4. *To‘ymagan ko‘zlarim uchun kechirgin.*

5. *Fikring menikidir, zikring meniki,*
6. *Menga taalluqli go‘zalliging ham.*
7. *Qolgan barcha mulking, mayli, seniki,*
8. *Ayt-chi, nima qoldi o‘zingga, erkam.*

MÜLK (128)

1. Sen beni affet sözlerim için,
2. Yersiz sözlerim için affet.
3. Senin yüzlerine bakıp gece gündüz
4. Doymayan gözlerim için affet.

5. Fikrin benimkidir, zikrin benimki,
6. Bana ait güzelliğin hem.
7. Kalan tüm mülkün, peki, seninki,
8. Söyle, ne kaldı kendine, kıymetlim. (10 Ocak 2008)

O‘ZBEK GENERALLARI (129)

1. *Ikki generalim turar yonma-yon,*
2. *O‘tli ko‘zlarida jasorat zohir.*

3. *Ular Temurbekning naslidir shoyon,*

4. *Biri Alisheru biri Bahodir.*

5. *Yovqur sarkardalar - qurquv bilmagan,*

6. *Tinchlikka mas'uldir o'lkalarida.*

7. *Ikki amakimga nasib qilmagan*

8. *Yulduzlar chaqnaydi yelkalarida.*

9. *Olis o'rmonlarda qaysi bir zamon*

10.*Daraxt kesar edi o'zbek askari.*

11.*Jalolni e'tirof etmagan davron*

12.*Uning avlodin ham surgandi nari.*

13.*Sadag'asi ketay hurlik so'zining,*

14.*O'zbegim sochilgan gardlarin topdi.*

15.*Bobolarin eslab, yana o'zining*

16.*Qo'mondonin topdi, mardlarin topdi.*

17.*Hech kim orzu qilmas shamshirni, biroq*

18.*Uningsiz dunyoni asrash ham qiyin.*

19.*Men nechun quvonib she'r aytmay bu choq*

20.*O'zbegim general bo'lgandan keyin.*

ÖZBEK GENERALLERİ (129)

1. İki generalim durur yan yana,

2. Ateşli gözlerinde cesaret zahir.

3. Onlar Timur Bey'in neslidir şayan,

4. Biri Ali Şîr ve biri Bahadır.

5. Cesur komutanlar, korku bilmeyen,

6. Barışa mesuldür ülkelerinde.

7. İki amcama[155] nasip etmemiş

8. Yıldızlar parlar omuzlarında.

9. Uzak ormanlarda hangi bir zaman

10.Ağaç keser idi Özbek askeri.

11. Celal'i[156] itiraf etmeyen devran

12. Onun evladını da sürmüştü sonra.

13. Bağışlayınız gideyim hürlük sözünün,

14.Özbek'im saçılan tozlarını buldu.

15. Dedelerini hatırlayıp, yine kendisinin

16. Kumandanını buldu, mertlerini buldu.

17. Hiç kimse arzu etmez kılıcı, fakat

18. Onsuz dünyayı korumak da zor.

19. Ben niçin sevinip şiir söylemeden bu an

20.Özbek'im general olduktan sonra. (14 Ocak 2008)

AZIZ MUALLIM (130)

1. *Ilmu adab, iymon ezgu murodi,*

2. *Muallim avlodning asl ustodi.*

3. *Shogirdlar kamolga yetgani zamon,*

4. *Sen baxtli insonsan, sen baxtli inson.*

Naqorat:

5. *Ey, aziz muallim, aziz muallim,*

[155] Şairin iki amcası II. Dünya Savaşı'ndan dönmemiş (editörün notu).
[156] Celaleddin Bengüverdi.

6. *Sen ulug‘ zotlarga bergansan ta’lim.*

7. *Ey, aziz muallim, aziz muallim,*

8. *Senga biz abadiy etgaymiz ta’zim.*

9. *Sen uchun tengi yo‘q koshona maktab,*

10.*Mangulik umrdan nishona maktab.*

11.*Yurt ishqi mehribon ko‘zlaringdadir,*

12.*Istiqlol shukuhi so‘zlaringdadir.*

Naqorat:

13.*Ey, aziz muallim, aziz muallim,*

14.*Sen ulug‘ zotlarga bergansan ta’lim.*

15.*Ey, aziz muallim, aziz muallim,*

16.*Senga biz abadiy etgaymiz ta’zim.*

17.*Donishmand avlodlar yulduz, quyoshim,*

18.*Rahnamo hamisha aziz Yurtboshim.*

19.*Maktabim, maktabim shuhratu shonim,*

20.*Ilmu fan diyori O‘zbekistonim.*

Naqorat:

21.*Ey, aziz muallim, aziz muallim,*

22.*Sen ulug‘ zotlarga bergansan ta’lim.*

23.*Ey, aziz muallim, aziz muallim,*

24.*Senga biz abadiy etgaymiz ta’zim.*

AZİZ MUALLİM (130)

1. İlim ve edep, iman hayırlı muradı,

2. Muallim evladın asıl üstadı.

3. Şakirtler kemale eriştiği zaman,

4. Sen bahtlı insansın, sen bahtlı insan.

Nakarat:

5. Ey, aziz muallim, aziz muallim,

6. Sen ulu zatlara vermişsin talim.

7. Ey, aziz muallim, aziz muallim,

8. Sana biz ebedî edeceğiz tazim.

9. Senin için dengi yok saray mektep,

10. Bengülük ömürden nişane mektep.

11. Yurt aşkı şefkat gözlerindedir,

12. İstiklal şerefi sözlerindedir.

Nakarat:

13. Ey, aziz muallim, aziz muallim,

14. Sen ulu zatlara vermişsin talim.

15. Ey, aziz muallim, aziz muallim,

16. Sana biz ebedî edeceğiz tazim.

17. Bilge evlatlar yıldız, güneşim,

18. Rehber daima aziz Başkan'ım.

19. Mektebim, mektebim şöhret ve şanım,

20. İlim ve fen diyarı Özbekistan'ım.

Nakarat:

21. Ey, aziz muallim, aziz muallim,

22. Sen ulu zatlara vermişsin talim.

23. Ey, aziz muallim, aziz muallim,

24. Sana biz ebedî edeceğiz tazim. (21 Mart 2008)

“NASAF” FUTBOL JAMOASI UCHUN BAG‘ISHLOV (131)

1. *Sportda millionlar o‘yini futbol,*

2. *G‘alaba bayrog‘in doim qo‘lga ol.*

3. *Maydonga yigitlar chiqadi saf-saf,*

4. *Temur bobomizning shiddati “Nasaf”*

Naqorat:

5. *Maydonga yigitlar chiqadi saf-saf,*

6. *Temur bobomizning shiddati “Nasaf”.*

7. *Muxlislar qalbini hayajonga sol,*

8. *Hujum qil, dadil bo‘l, uravergin gol.*

9. *El-yurt ishonchini oqla, bor bo‘lgin,*

10. *Ulug‘ xalqing uchun iftixor bo‘lgin.*

Naqorat:

11. *Maydonga yigitlar chiqadi saf-saf,*

12. *Temur bobomizning shiddati “Nasaf”.*

“NESEF” FUTBOL CAMİASI İÇİN İTHAF (131)

1. Sporda milyonlar oyunu futbol,

2. Zafer bayrağını daima ele al.

3. Meydana yiğitler çıkar saf saf,

4. Timur Dede’mizin şiddeti “Nesef”.

Nakarat:

5. Meydana yiğitler çıkar saf saf,

6. Timur Dede’mizin şiddeti “Nesef”.

7. Taraftarlar kalbini heyecana sal,

8. Hücum et, yürekli ol, vuruver gol.

9. Vatan millet inancını akla, var ol,

10. Ulu halkın için iftihar ol.

Nakarat:

11. Meydana yiğitler çıkar saf saf,

12. Timur Dede'mizin şiddeti "Nesef". (Mart, 2008)

SO'Z (132)

1. *Mavridi kelmasa chopma bedovni,*

2. *Javobini bilsang, berma savolni.*

3. *Dunyoda sukutdan yaxshirog'i yo'q,*

4. *So'z aytishga majbur qilma birovni.*

SÖZ (132)

1. Vakti gelmese bulma atı,

2. Cevabını bilsen, sorma soruyu.

3. Dünyada sükûttan daha iyisi yok,

4. Söz söylemeye mecbur etme birini. (29 Nisan 2008)

HAYOT UMMONI (133)

1. *O'z-o'zicha qaynab yotar hayot ummoni,*

2. *Unga hech kim mas'ul emas, javobgar emas.*

3. *Chorasizlik bois jo'shar insonning qoni,*

4. *Harakatga solar uni kurash har nafas.*

5. *Nodonlikdir faqat baxtni kuylamaklik ham,*

6. *Bir baxtsizlik evaziga bir baxt kulajak.*

7. *Yomonlikni ko‘raverib charchagan odam,*

8. *Oxirida dindan chiqib, osiy bo‘lajak.*

9. *Odamzotdan bo‘lak barcha mavjudotki bor,*

10. *O‘zligini qilolmaydi aslo tasavvur.*

11. *Inson zotin qo‘lida yo‘q zarra ixtiyor,*

12. *Qutqaradi uni faqat Iymon, Tafakkur*.

HAYAT UMMANI (133)

1. Kendi kendine kaynar hayat ummanı,

2. Ona hiç kimse mesul değil, sorumlu değil.

3. Çaresizlik yüzünden coşar insanın kanı,

4. Harekete salar onu güreş her nefes.

5. Cahilliktir sadece bahtı övmek de,

6. Bir bahtsızlık karşılığında bir baht gülecek.

7. Kötülüğü görüverip yorulan insan,

8. Sonunda dinden çıkıp, asi olacak.

9. İnsanlıktan başka tüm mevcudat ki var,

10. Özlüğünü edemez asla tasavvur.

11. İnsan zatının kolunda yok zerre ihtiyar,

12. Kurtarır onu sadece İman, Tefekkür. (20 Mayıs 2008)

AJDAHO (134)

1. *Qadimiy ertaklarda*

2. *Ta’riflashib dunyoni,*

3. *Tilga ko‘p olishadi*

4. *Uch boshli ajdahoni.*

5. *Aslida ajdahoga*

6. *Uchta bosh nega kerak?*

7. *O‘ljani yutsa biri,*

8. *Ikkovi poylar sergak.*

9. *Inson ajdaho emas,*

10.*Bittagina boshi bor.*

11.*Barcha savdoni unga*

12.*Sig‘dirmoqligi darkor...*

EJDERHA (134)

1. Kadim masallarda

2. Tarif edip dünyayı,

3. Dile çok getirirler

4. Üç başlı ejderhayı.

5. Aslında ejderhaya

6. Üç tane baş niye gerek?

7. Kurbanı yutsa biri,

8. İkisi bekler uyanık.

9. İnsan ejderha değil,

10. Bir tanecik başı var.

11.Bütün işi ona

12.Sığdırmak gerek… (25 Mayıs 2008)

JAYHUN HANGOMASI (135)

Ibroyim Yusupovga

1. *Jayhunning ul yog‘ida*
2. *Xorazmlik sholikor,*
3. *Jayhunning bul yog‘ida*
4. *Qoraqalpoq chorvador.*

5. *Ikkisi ham tunu kun*
6. *Yumush bilan band edi.*
7. *Fe’llari ham o‘xshashdir,*
8. *Egizakmonand edi.*

9. *Biroq o‘rtada daryo,*
10. *Ko‘rishib bo‘lmas doim.*
11. *Yaxshiyam odamzotga*
12. *Ovoz bergan xudoyim.*

13. *Ular goho bir-birin*
14. *Yo‘qlashib chaqirardi.*
15. *Ovozlarin boricha*
16. *Qirg‘oqdan baqirardi.*

17. *Kayf degan ham bor narsa,*
18. *U ham ko‘ngil bozori.*
19. *Bir payt qoraqalpoqni*
20. *Tutdi nosning xumori.*

21. *Nosqovog‘in oldiyu*

22.*Kaftiga qoqdi, ammo*
23.*Bir chimdim ham chiqmadi,*
24.*Tugab qolmish nos, obbo!*

25.*Endi netib bo‘lsa ham*
26.*Bosmoq kerak xumorni.*
27.*Daryoning naryog‘idan*
28.*Chorladi sholikorni:*

29.*- Hoy, yoshulli, yo‘q dema,*
30.*Savobimga botaqol.*
31.*Men uchun ham bir otim*
32.*Nosvoyingdan otaqol.*

33. *Ovoz keldi u yoqdan:*
34. *- Mana, nosni otdim, - deb.*
35. *Sen ham kayfin suraver,*
36. *Savobingga botdim, deb.*

37.*Alqadilar bir-birin,*
38.*Ko‘ngillari buzilib.*
39.*Tuyqusdan qoraqalpoq*
40.*Yotib oldi cho‘zilib.*

41.*Ne ham derdik, bu ajab*
42.*Hangoma ham bas bo‘ldi.*
43.*Xorazmlik nos otib,*
44.*Qoraqalpoq mast bo‘ldi.*

CEYHUN OLAYI (135)

İbrahim Yusufov'a

1. Ceyhun'un o ışığında
2. Harezmli pirinççi,
3. Ceyhun'un bu ışığında
4. Karakalpaklı çiftçi.

5. İkisi de gece gündüz
6. İşle meşguldü.
7. Huyları da benzerdir,
8. İkize benzer idi.

9. Fakat ortada derya,
10. Buluşmaz daima.
11.İyi ki insanlığa
12. Ses vermiş Allah'ım.

13. Onlar bazen birbirini
14. Arayıp çağırırdı.
15. Seslerinin var gücüyle
16. Sahilden bağırırdı.

17. Keyif denen de bütün şey,
18.O da gönül pazarı.
19. Bir vakit Karakalpak'ı
20. Tuttu enfiyenin arzusu.

21. Enfiye kabağını aldı ve

22. Avucuna kaktı, ama
23. Bir çimdik de çıkmadı,
24. Bitmiş enfiye, vay!

25.Şimdi ne çare olsa da
26. Basmak gerek arzusunu.
27. Deryanın öbür tarafından
28.Çağırdı pirinççiyi:

29.- Hey, yaşını almış, yok deme,
30. Sevabıma batakal.
31. Benim için de bir adım
32. Enfiyenden atakal.

33. Ses geldi o taraftan:
34. - İşte, enfiyeyi attım, diye.
35. Sen de keyfini sürüver,
36. Sevabına battım, diye.

37.İyilik dilerler birbirine,
38.Gönülleri bozulup.
39. Ansızın Karakalpak
40. Yattı uzanıp.

41. Ne de derdik, bu ilginç
42. Olay da tartışma oldu.
43. Harezmli enfiye atıp,
44. Karakalpak mest oldu. (1 Haziran 2008)

FIRIBGAR QISSASI (136)

1. *Necha yuz yillar burun,*
2. *Amir Temur zamoni.*
3. *Bepoyon mamlakatning*
4. *Tinch edi to‘rt tomoni.*

5. *Bog‘lar gullab, chamanda*
6. *Bulbullar chah-chahlardi.*
7. *Tirikchilikdan bo‘lak*
8. *Yo‘q edi elning dardi.*

9. *Daryolar tinsa tinar,*
10. *Shamol ham to‘xtar, biroq*
11. *Ezgulikning yonida*
12. *Yovuzlik doim uyg‘oq.*

13. *Bu hududda yashardi*
14. *G‘oyat quv bir firibgar.*
15. *Tegirmonga tashlasang,*
16. *Toblanib chiqar battar.*

17. *Uning qutqu, domiga*
18. *Tushmaganlar kam edi.*
19. *Hattoki shahzodalar*
20. *U bilan hamdam edi.*

21. *U goho saltanatning*
22. *Nomidan ham so‘zlardi.*
23. *Qayga borsa, dastavval*
24. *G‘aznasini ko‘zlardi.*

25.*Qushlar ham qo‘nib-qo‘nib*
26.*Qilgandek ko‘kda parvoz,*
27.*Bir kun ko‘zasi sinib,*
28.*Qo‘lga tushdi nayrangboz.*

29.*Adolatdan bu dunyo*
30.*Hamisha emas xoli.*
31.*Firibgar osilsin, deb*
32.*Chiqdi farmoni oliy.*

33.*Baland dorning ostiga*
34.*Keltirdilar mahkumni.*
35.*Jallod sirtmoq solay deb*
36.*Paypasladi halqumni.*

37.*Ajabo, yelkayu bosh*
38.*Tutashib ketgan tamom:*
39.*Uning bo‘yni yo‘q edi,*
40.*Bo‘yni yo‘qdir, vassalom!*

41.*Bu holni Yaratganning*
42.*Hukmi deb bilishdilar.*
43.*Firibgarni hududdan*
44.*Badarg‘a qilishdilar.*

45.*Oradan yillar kechib,*
46.*Asrlar o‘rtasida,*
47.*Firibgar paydo bo‘ldi*
48.*Boburshoh o‘rdasida.*

49.*Hinduni laqillatdi,*

50.*Musulmonni taladi.*

51.*Oshni u yeb, boshqalar*

52.*Tovog‘ini yaladi.*

53.*Shov-shuvi borib yetdi*

54. *Hazratning qulog‘iga.*

55. *- Tashlang, - dedi, - badbaxtni*

56. *Cho‘ng filning oyog‘iga.*

57.*Mana endi, bachchag‘ar,*

58.*Uddalasang qil firib.*

59.*Uni filning oldiga*

60.*Tashladilar keltirib.*

61.*Tog‘dayin fil shu zahot*

62.*Toptayman deb xezlandi.*

63.*Lekin birdan guvranib*

64.*Orqasiga tislandi.*

65.*Filning ushbu qilig‘i*

66.*Odatiga edi zid.*

67.*Firibgarning og‘zidan*

68.*Anqir edi badbo‘y hid.*

69.*Bu holni ham Yaratgan*

70.*Hukmi deb bilishdilar.*

71.*Firibgarni Ogradan*

72.*Badarg‘a qilishdilar.*

73.*Asrlar o‘taberdi*
74.*Ko‘rib baxtu kulfatni.*
75.*Firibgar ham fath etdi*
76.*Turfa xil mamlakatni.*

77.*Bu dunyoda aslida*
78.*Hech kimga emas oson.*
79.*Buxoroga kelganda*
80.*Tutdi uni Olimxon.*

81.*- Ko‘ring, odil siyosat*
82.*Yuritaman, - dedi u.*
83.*Firibgarni zindonda*
84.*Chiritaman, - dedi u.*

85.*Avval rosa kaltaklab,*
86.*Tashna qildi qoniga.*
87.*So‘ngra zindonga tiqdi,*
88.*Sherik qo‘yib yoniga.*

89.*Oradan kunlar o‘tdi,*
90.*O‘tib ketdi oylar ham.*
91.*Qalblarga shafqat solib*
92.*Hayit keldi mukarram.*

93.*Farmon chiqardi Amir,*
94.*Unda jo shunday so‘zlar:*
95.*- Afv qilinsin eng mo‘min,*
96.*Eng batartib mahbuslar.*

97.*Firibgarning sherigi*
98.*Afvga ilinmish, ammo*
99.*Zindonning ichida ham*
100.*Boshlandi yangi g‘avg‘o.*

101.*Boqsalar, sherik yotar*
102.*Oyoq-qo‘li chalmashib.*
103.*Firibgar chiqib ketmish*
104.*Kulohini almashib.*

105.*Oradan yillar o‘tdi,*
106.*Yolg‘on yashnab, chin kuydi.*
107.*Kecha ishton kiyganlar*
108.*Ulgurishib shim kiydi.*

109.*Qaysi kuni bozorda*
110.*Bir tomosha ko‘rdim zab.*
111.*Allaqanday kimsani*
112.*Sudrab ketardi mirshab.*

113.*Men so‘radim: - Ayt, buning*
114.*Gunohi nima edi?*
115.*Mirshab-chi, parvo qilmay:*
116.*- Bumi? Firibgar! - dedi.*

117.*Shu tariqa zaminda*
118.*Davom etadi hayot.*
119.*Ammo, mirshab birodar,*
120.*O‘zingga bo‘l ehtiyot!*

HİLEKÂR KISSASI (136)

1. Nice yüz yıllar önce,
2. Emir Timur zamanı.
3. Engin memleketin
4. Sessiz idi dört tarafı.

5. Bağlar çiçeklenip, çayırda
6. Bülbüller tik tiklerdi.
7. Geçimden başka
8. Yok idi halkının derdi.

9. Deryalar durulsa durulur,
10.Rüzgâr da diner, fakat
11.İyiliğin yanında
12.Kötülük daima uyanık.

13. Bu sınırda yaşardı
14. Gayet kurnaz bir hilekâr.
15. Değirmene atsan,
16. Isınıp çıkar beter.

17. Onun kışkırtıcı, tuzağına
18.Düşmeyenler az idi.
19. Hatta şehzadeler
20. Onunla ahbap idi.

21.O bazen saltanatının
22. Adından da konuşurdu.

23. Nereye gitse, ilkin
24. Hazinesini gözlerdi.

25. Kuşlar da konup konup
26. Etmiş gibi gökte pervaz,
27. Bir gün testisi kırılıp,
28. Mahkûm oldu hilekâr.

29. Adaletten bu dünya
30.Sürekli değil hâli.
31. Hilekâr asılsın, diye
32.Çıktı fermanı yüce.

33.Yüksek darın altına
34. Getirdiler mahkûmu.
35. Cellat kement salayım diye
36. Eller boğazını.

37.İlginç, omuz ve baş
38. Tutuşup gitmiş son:
39. Onun boynu yok idi,
40. Boynu yoktur, vesselam!

41. Bu hâli Yaradan'ın
42.Hükmü diye bildiler.
43. Hilekârı huduttan
44.Sürgüne gönderdiler.

45. Aradan yıllar geçip,

46. Asırların ortasında,
47. Hilekâr peyda oldu
48. Babürşah karargâhında.

49. Hindu'yu kandırdı,
50.Müslüman'ı yağmalar,
51.Aşı o yiyip, başkaları
52. Tabağını yalar.

53.Şamatası gitti
54. Hazretin kulağına.
55.- Atın, dedi, bahtsızı
56. Koca filin ayağına.

57.İşte şimdi, öfkelenene,
58. Becerirsen yap hile.
59. Onu filin önüne
60. Attılar getirip.

61. Dağ gibi fil şu an
62. Ezerim diye atıldı.
63. Lakin birden mırıldanıp
64. Geriye koştu.

65. Filin bu tavrı
66. Huyuna idi zıt.
67. Hilekârın ağzında
68. Kokar idi kötü.

69. Bu hâli de Yaradan
70.Hükmü diye bildiler.
71. Hilekâr hırsızı da
72.Sürgüne gönderdiler.

73. Asırlar geçiverdi
74.Görüp baht ve külfeti.
75. Hilekârda fethetti
76. Garip tür memleketi.

77. Bu dünyada aslında
78. Hiç kimseye değil âsân.
79. Buhara'ya geldiğinde
80. Tuttu onu Âlimhan.

81.- Görün, adil siyaset
82.Yürütürüm, dedi o.
83. Hilekârı zindanda
84.Çürütürüm, dedi o.

85.Önce hayli dövüp,
86. Muhtaç etti kanına.
87. Sonra zindana dikti,
88. Ortak koyup yanına.

89. Aradan günler geçti,
90. Geçip gitti aylar da.
91. Kalplere şefkat koyup
92. Bayram geldi mükerrem.

93. Ferman çıkardı Emir,
94.O hâlde yerleşmiş böyle sözler:
95.- Affedilsin en mümin,
96. En düzgün mahpuslar.

97. Hilekârın ortağı
98. Affa sığınmış, ama
99. Zindanın içinde de
100. Başladı yeni kavga.

101. Baksalar, ortak yatar
102. Ayak eli karışıp.
103. Hilekâr çıkıp gitmiş
104. Başlığını değişip.

105. Aradan yıllar geçti,
106. Yalan büyüyüp, gerçek yandı.
107. Gece şalvar giyenler,
108. Hazırlanıp pantolon giydi.

109. Hangi gün pazarda
110. Bir oyun gördüm mükemmel.
111. Bir kimseyi
112.Çekip getirdi polis.

113. Ben sordum: - Söyle, bunun
114.Günahı ne idi?
115. Polis, perva etmeden:
116.- Bu mu? Hilekâr! dedi.

117. Bu tarz bir yerde
118. Devam etti hayat.
119. Ama polis birader,
120.Özüne ol ihtiyat! (4 Haziran 2008)

MENGA XUSH XABAR AYT... (137)

1. *Menga xush xabar ayt, yolg‘on bo‘lsa ham...*
2. *Dardu mashaqqatlar o‘tgaydir bari,*
3. *O‘ksima, oyoqqa turgaysan, deb ayt.*
4. *Umringning farahbaxsh, totli onlari*
5. *Hali oldindadir, ko‘rgaysan deb ayt.*

6. *Menga xush xabar ayt, yolg‘on bo‘lsa ham...*
7. *Do‘stlaring bordir-ku hali dunyoda,*
8. *Seni kulfatlarda qoldirmas deb ayt.*
9. *Yovuzlik bo‘lsa ham haddin ziyoda*
10.*Seni changaliga oldirmas, deb ayt.*

11.*Menga xush xabar ayt, yolg‘on bo‘lsa ham...*
12.*Olis muhabbating so‘nmagan hamon,*
13.*To hanuz unutmay yuribdi degil.*
14.*Sarg‘aygan daftarin varaqlab pinhon,*
15.*U seni tushida ko‘ribdi degil.*
16.*Menga xush xabar ayt, yolg‘on bo‘lsa ham...*

BANA HOŞ HABER VER… (137)

1. Bana hoş haber ver, yalan olsa da…
2. Dert ve meşakkatler geçecektir hep,
3. Gamlanma, ayağa kalkacaksın, diye söyle.
4. Ömrünün mutlu, tatlı anları

5. Daha önündedir, göreceksin diye söyle.

6. Bana hoş haber ver, yalan olsa da…
7. Dostların vardır daha dünyada,
8. Seni külfette bırakmaz diye söyle.
9. Kötülük olsa da haddinden fazla
10. Seni pençesine aldırmaz, diye söyle.

11. Bana hoş haber ver, yalan olsa da…
12. Uzun muhabbetin bitmemiş hâlâ,
13. Henüz unutmadan yürümüş de.
14. Sararan defterini kırıştırıp gizli,
15.O seni düşünde görmüş de.
16. Bana hoş haber ver, yalan olsa da… (7 Haziran 2008)

ZIYOFAT (138)

1. *Bir kuni yigitning mardligi tutdi,*
2. *Dasturxonin yozib, do‘stlarin kutdi.*
3. *Ziyofat sababin so‘rashsa, dedi:*
4. *- Bugun uyda kunim bejanjal o‘tdi.*

ZİYAFET (138)

1. Bir gün yiğidin mertliği tuttu,
2. Sofrasını serip, dostlarını bekledi.
3. Ziyafet sebebini sorduklarında dedi:
4. - Bugün evde günüm tartışmasız geçti. (8 Haziran 2008)

YANGI AQIDA (139)

1. *U dedi: - Urf hozir shunday aqida:*

2. *Men ham kitob tuzdim bobom haqida.*

3. *Xotira yozib ber, og‘ayni, sen ham,*

4. *Kitob tayyor bo‘lgan, suratlari jam.*

5. *Bu dedi: - Bobongni ko‘rmaganman-ku,*

6. *Demak, hech suhbat ham qurmaganman-ku?!*

7. *U dedi: - O do‘stim, kamtarsan-da zab,*

8. *Yaxshilab eslab ko‘r, esla yaxshilab.*

YENİ AKİDE (139)

1. O dedi: - Örf şimdi şöyle akide:

2. Ben de kitap düzdüm dedem hakkında.

3. Hatıra yaz, arkadaş, sen hem,

4. Kitap hazır olmuş, resimleri cem.

5. Bu dedi: - Dedeni görmemişim,

6. Demek, hiç sohbet de etmemişim?!

7. O dedi: - Ey dostum, mütevazısın tam,

8. İyice hatırla, hatırla iyice. (12 Haziran 2008)

CHINGIZ AYTMATOV (140)

1. *O‘tdi Chingiz og‘a,*

2. *Tengsiz bir daho,*

3. *Ulug‘ bir qissago‘y, tug‘ma donishmand.*

4. *Mayda tuyg‘ularni suymasdi aslo,*

5. *Mahobati esa Manasga monand.*

6. *U inson dardini kuyladi to‘lib,*

7. *So‘zni aziz bildi non bilan tuzdek.*

8. *Mehru sadoqati mustajob bo‘lib,*

9. *Adibni boshiga ko‘tardi o‘zbek.*

10.*Ota yurti uchun kurashlarga shay,*

11.*Ne buyuk zotlarga bo‘ldi hamnafas.*

12.*Qirg‘iz ekanligin zarra unutmay,*

13.*Tulporin boshqacha kishnatmadi, bas.*

CENGİZ AYTMATOV (140)

1. Geçti Cengiz Abi,

2. Eşsiz bir deha,

3. Ulu bir kıssahan, doğuştan bilge.

4. Ufak tefek duyguları sevmezdi asla,

5. Muhabbeti ise Manas’a benzer.

6. O insan derdini terennüm eder dolup,

7. Sözü aziz bildi ekmekle tuz dek.

8. Şefkat ve sadakati icabet olup,

9. Edibi baş üstüne koydu Özbek.

10. Ata yurdu için savaşlara hazır,

11. Ne büyük zatlara oldu hemfikir.

12.Kırgız olduğunu zerre unutmadan,

13. Tulparını başka türlü kişnetmedi, demek. (12 Haziran 2008)

BOLAKAY (141)

1. *Bolakay o‘yinchog‘in*

2. *Goh tuzatar, buzar goh.*

3. *Bolakayning qilig‘i*

4. *Yaratganga o‘xshar, oh!..*

OĞLAN (141)

1. Oğlan oyuncağını

2. Gâh düzeltir, bozar gâh.

3. Oğlanın tavrı

4. Yaradan’a benzer, ah!.. (15 Haziran 2008)

QISMAT (142)

1. *Qismatni nariroq surib bo‘lmaydi,*

2. *Bilmaysan, yo‘lingni qay vaqt to‘sishin.*

3. *Ko‘z bilan hech qachon ko‘rib bo‘lmaydi*

4. *Daraxt va tirnoqning qanday o‘sishin.*

5. *Nafrat ham ulg‘ayar, sekin qatma-qat,*

6. *Ezgu hislaringga bermay qo‘yar erk.*

7. *Bolam, sen uni ham etgin nazorat,*

8. *Daraxt va tirnoqni qaychilagandek.*

KISMET (142)

1. Kısmetini daha öteye sürmezdi,

2. Bilmezsin, yolunu hangi vakit kesişini.

3. Gözle hiçbir zaman görmezdi

4. Ağaç ve tırnağının nasıl büyüdüğünü.

5. Nefret de büyür, yavaşça kat be kat,
6. İyi hislerine vermez özgürlük.
7. Evladım, sen onu da et nezaret,
8. Ağaç ve tırnağı makaslamış gibi. (16 Haziran 2008)

SAYYOH (143)

1. *Olis safarlarga sayyoh yo‘l olar,*
2. *Uni olib uchar poezd shiddati.*
3. *Shahar chiroqlari ko‘rinmay qolar,*
4. *Yo‘qlikka singadi tog‘lar kelbati.*

5. *Daf’atan bo‘shliqni his etadi u,*
6. *Ortiqcha matohday joy topolmas tan.*
7. *...Garchand yuragimda siyrating bor-ku,*
8. *Suvrating yiroqda qolmoqda, Vatan.*

SEYYAH (143)

1. Uzun seferlere seyyah yol alır,
2. Onu alıp uçar tren şiddeti.
3. Şehir ışıkları görünmeden kalır,
4. Yokluğa siner dağlar şekli.

5. Ansızın boşluğu hisseder o,
6. Gereksiz eşya gibi yer bulamaz ucuz.
7. …Gerçi yüreğimde siretin var,
8. Suretin uzakta kalmakta, Vatan. (15 Temmuz 2008)

TO‘G‘RILIK (144)

1. *Sovchi der: - Otaxon, beringiz duo,*

2. *Juda to‘g‘ri yigit bo‘lg‘usi kuyov.*

3. *Ota der: - To‘g‘rilik yaxshi-yu, ammo*

4. *Bundaylar ro‘zg‘orin boqolmaydi-yov.*

DOĞRULUK (144)

1. Görücü der: - Babacığım, ediniz dua,

2. Çok doğru yiğit olsun güveyi.

3. Baba der: - Doğruluk iyi, ama

4. Öyleleri ailesini geçindiremez. (22 Temmuz 2008)

DUO (145)

1. *Bir kun eshigingdan kirar bo‘lsam gar,*

2. *Menga ta’ma bilan boqma, mezbonim.*

3. *Yo‘qdir menda mansab, mol-mulk, oltin-zar,*

4. *Borim shuldir faqat: tandagi jonim.*

5. *Afsuski, hakim ham emasman, demak,*

6. *Seni etolmasman dardlardan xalos.*

7. *Balki senga chin do‘st, chin hamdam kerak,*

8. *Ular o‘zimga ham kerakligi rost.*

9. *She’riy sovg‘alarim mo‘l erur, ammo,*

10.*Xursand bo‘lgum uni tinglagan oning.*

11.*Ketar chog‘i esa qilurman duo,*

12.*Agarda qimmati bo‘lsa duoning...*

DUA (145)

1. Bir gün kapından girersem eğer,
2. Bana tamahla bakma, mihmandarım.
3. Yoktur ben de makam, mal mülk, altın zer,
4. Varım budur sadece: tendeki canım.

5. Ne yazık ki, hekim değilim, demek,
6. Seni edemem dertlerden halas.
7. Belki sana gerçek dost, gerçek ahbap gerek,
8. Onların kendime de gerektiği doğru.

9. Şiirsel hediyelerim çoktur, ama,
10. Memnun olacağım onu dinlediğim an.
11. Gideceği vakit ise ederim dua,
12. Eğer kıymeti olsa duanın… (3 Ağustos 2008)

KO‘NIKISH (146)

1. *Dunyo bola uchun ulkan, albatta,*
2. *Mitti jussa bilan polvon, sher edik.*
3. *Biron qariyani ko‘rsak, hayratda*
4. *Falon yoshda emish, nahot, der edik.*

5. *Bolalik, yigitlik shamolday yeldi,*
6. *Nishoniga yetdi, bamisoli o‘q.*
7. *Mana, oltmish o‘tdi, yetmish ham keldi,*
8. *Hech qanday hodisa yuz bergani yo‘q.*

9. *Ko‘nikish xos ekan insonga doim,*
10. *Hayrat ham nisbiy hol bo‘lib qolarkan.*

11.*Arslonni o‘rgatgan kabi Xudoyim,*

12.*Oxir qafasiga qamab olarkan.*

ALIŞMAK (146)

1. Dünya çocuk için büyük, elbette,

2. Ufak cüsseyle pehlivan, cesur idik.

3. Bir ihtiyarı görsek, hayrette

4. Falan yaşta imiş, mi, der idik.

5. Çocukluk, gençlik rüzgâr gibi esti,

6. Nişanına ulaştı, sanki ok.

7. İşte, altmış geçti, yetmiş de geldi,

8. Hiçbir hadise olduğu da yok.

9. Alışmak has imiş insana daim,

10. Hayret de nisbi hâl olurmuş.

11. Arslana öğrettiği gibi Allah’ım,

12. Artık kafesine kapatırmış. (3 Ağustos 2008)

YO‘RTIB O‘TAR (147)

1. *El ichida bo‘rtib o‘tar to‘rt-besh kishi,*

2. *Duch kelganni turtib o‘tar to‘rt-besh kishi.*

3. *O‘lja izlab bu dunyoning sahrosida,*

4. *Qashqir kabi yo‘rtib o‘tar to‘rt-besh kishi.*

HIZLI YÜRÜR (147)

1. Halk içinde böbürlenir dört beş kişi,

2. Rastladığını iter dört beş kişi.

3. Yem arayıp bu dünyanın sahrasında,

4. Kurt gibi hızlı yürür dört beş kişi. (3 Ağustos 2008)

OZODLIK (148)

1. *Quyosh tutilganda qadim ajdodlar,*
2. *O‘zlarin y o‘qotmish qo‘rquv, titroqda.*
3. *Samoga termilib qilmish faryodlar:*
4. *- Quyosh bandi bo‘ldi! Quyosh sirtmoqda!*

5. *Balki bu qiyomat kunidan xabar,*
6. *Balki kufrimiz ko‘p, gunohimiz zil.*
7. *Shundoq xitob etmish hazrat Payg‘ambar:*
8. *- Quyosh tutilganda qulni ozod qil!*

9. *Nechog‘li tansiqsan ozodlik so‘zi,*
10.Seni falaklar ham ko‘targay boshga.
11.Koinot mash’ali bo‘lsa ham o‘zi,
12.Ozodlik kerakdir hatto quyoshga!

AZATLIK (148)

1. Güneş tutulduğunda kadim ecdatlar,
2. Kendilerini kaybetmiş korku, ürpertide.
3. Semaya gözünü dikip etmiş feryatlar:
4. - Güneş esir oldu! Güneş kementte!

5. Belki bu kıyamet gününden haber,
6. Belki küfrümüz çok, günahımız ağır.
7. Böyle hitap etmiş Hazreti Peygamber:
8. - Güneş tutulduğunda köleni azat et!

9. Ne kadar nadidesin azatlık sözü,
10. Seni felekler de yüceltir başa.
11.Kâinat meşalesi olsa da özü,
12. Azatlık gerektir hatta güneşe! (4 Ağustos 2008)

FASLLAR (149)

1. *Har bitta faslning o‘z tarovati,*
2. *Har bir umrning ham yozi, kuzi bor.*
3. *Nomiga yarashiq fayzi, rohati,*
4. *Aslo takrorlanmas aytar so‘zi bor.*

5. *Xilvatda uchrashdi yigit bilan qiz,*
6. *Atrofga taraldi bahorning isi.*
7. *Birovi “Jonginam” desa tinimsiz,*
8. *Javoban “Asalim” derdi birisi.*

9. *Garchi zavqi bordir bunday hollarning,*
10.*Unutmang, qay fasl ekanligini.*
11.*Hali eshitmadim kampir-chollarning*
12.*«Jonginam», «asalim» deganligini...*

FASILLAR (149)

1. Her bir faslın kendi güzelliği,
2. Her bir ömrün de yazı, güzü var.
3. Namına yaraşır feyzi, rahatı,
4. Asla tekrarlanmaz önemli sözü var.

5. Tenhada karşılaştı yiğitle kız,
6. Etrafa dağıldı baharın kokusu.

7. Biri “Canım” dese durmadan,
8. Cevaben “Balım” derdi birisi.

9. Gerçi zevki vardır böyle hâllerin,
10. Unutmayın, hangi fasıl olduğunu.
11. Henüz işitmedim ihtiyarların
12.“Canım”, “balım” dediğini… (8 Ağustos 2008)

TUSH (150)

1. *Tushlarimga kirar Dehli safari,*
2. *Sarbaland saroylar, minorlar yuksak.*
3. *Izdihom ichida yurganing sari*
4. *Seni qurshab olar gadoylar lak-lak.*

5. *Biri shol, birovin teskari boshi,*
6. *Sadaqa so‘rashdan iyagi tolmas.*
7. *Ayovsiz qizdirar Hindning quyoshi,*
8. *Lekin ko‘zyoshlarni qurita olmas.*

9. *Gadoyni to‘yg‘izmas men bergan chaqa,*
10.*Xalos eta olmas bu ohu zordan.*
11. *“Har qayda bandangni o‘zing yorlaqa”,*
12.*Shafqat so‘rar edim Pavardigordan.*

DÜŞ (150)

1. Düşlerime girer Delhi seferi,
2. Büyük saraylar, minareler yüksek.
3. İzdiham içinde yürüdüğün taraf
4. Seni kuşatır fakir sayısız.

5. Biri felç, birisinin ters başı,
6. Sadaka istemekten çenesi yorulmaz.
7. Amansız kızdırır Hint'in güneşi,
8. Lakin gözyaşlarını kurutamaz.

9. Yoksul doymaz benim verdiğim bahşişle,
10.Bırakamaz bu âh u zârdan.
11."Her yerde köleni kendin bağışla",
12.Şefkat ister idim Perverdigâr'dan. (18 Ağustos 2008)

SUHBATDOSH (151)

1. *Qaniydi uchrasa shunday bir odam:*
2. *Sen yoqa bo'lganda u ham yeng bo'lsa.*
3. *Yoshi, martabasi teng bo'lmasa ham,*
4. *Albatta sen bilan ko'ngli teng bo'lsa.*

5. *Qaniydi uchrasa shundayin bir zot,*
6. *Gaplashsak jaydari yoronlarga xos.*
7. *Deylik: yulduzlarda bormikin hayot,*
8. *Qaysi darmondori qaysimizga mos.*

9. *Qaniydi uchrasa shunday suhbatdosh,*
10.*Bir-birin asabin arralashmasa.*
11.*Biri ko'z bo'lganda, biri bo'lsa qosh,*
12.*Suhbatga g'iybat hech aralashmasa.*

SOHBETTAŞ (151)

1. Bir yerde rastlasa öyle bir insan:

2. Sen yaka olduğunda o da yen olsa.
3. Yaşı, mertebesi denk olmasa da,
4. Elbette seninle gönlü denk olsa.

5. Bir yerde rastlasa öyle bir zat,
6. Konuşsak yerli ahbaplara has.
7. Diyelim: yıldızlarda var mı ki hayat,
8. Hangi devacı hangimize uygun.

9. Bir yerde karşılaşırsa öyle sohbettaş,
10. Birbirinin asabını bozmasa.
11. Bir göz olduğunda, biri olsa kaş,
12. Sohbete gıybet hiç karışmasa. (19 Ağustos 2008)

SHOIRNING YARATILISHI (152)

(Hazil)

1. *Shoir kerak bo‘ldi Adabiyotga,*
2. *Dedik: «Uni tezda topmog‘imiz shart».*
3. *Tayanib tajriba hamda sabotga,*
4. *Shoir yaratamiz talantli va mard!*

5. *Olimlar yumushga kirishdi hushyor,*
6. *Bo‘lsin yangi shoir bundog‘, dedilar.*
7. *Faollar yig‘ini chiqardi qaror,*
8. *Matbuot ham qo‘llab, shundog‘, dedilar.*

9. *Bittasin yaratdik, ikkinchisin ham...*
10.*Dizayni joyida, ko‘zni olardi.*

11.*Lekin she’r yozdirsak, nimasidir kam,*
12.*Oddiy bir taqlidchi bo‘lib qolardi.*

13.*Harakatga tushmas, puflamasang gar,*
14.*Muqom qila boshlar ko‘rsa ustasin.*
15.*Bir juft askiyaga kelmas barobar,*
16.*Yasab qo‘ygan bilan buning yuztasin.*

17.*Bilingiz, haqiqiy iste’dod nasli*
18.*Bir oz samovotga tegishli xilqat.*
19.*Davron tuprog‘iga shoirni asli*
20.*Yaratganning o‘zi ekkaydir faqat.*

ŞAİRİN YARATILIŞI (152)

(Gülmece)

1. Şair gerekti Edebiyata,
2. Dedik: “Onu tez bulmamız şart.”
3. Dayanıp tecrübe ve sebata,
4. Şair yaratırız yetenekli ve mert!

5. Âlimler işe girişti dikkatli,
6. Olsun yeni şair böyle, dediler.
7. Çalışkanlar kurulu çıkardı karar,
8. Basın da destekleyip, öyle, dediler.

9. Bir tanesini yarattık, ikincisini de…
10. Dizaynı yerinde, gözünü alırdı.
11. Lakin şiir yazdırsak, nesidir eksik,

12. Basit bir taklitçi olup kalırdı.

13. Harekete geçmez, püflemesen eğer,
14. Makam icra eder görse ustasını.
15. Bir çift askiyeye[157] gelmez beraber,
16. Yapanla bunun yüz tanesini.

17. Biliniz, hakiki istidatlı nesli
18. Biraz semavata ait hilkat.
19. Devran toprağına şairi aslı
20. Yaradan'ın kendisi ekecektir sadece. (20 Ağustos 2008)

ISTIQLOL – 17 (153)

1. *Menga bu qutlug‘ kun*
2. *Iftixor edi,*
3. *Bir yaxshi irimga*
4. *uni yo‘ydim men:*
5. *Qizimda o‘n olti*
6. *marjon bor edi,*
7. *O‘n yettinchi durni*
8. *qo‘shib qo‘ydim men.*

İSTİKLAL-17 (153)

1. Bana bu kutlu gün
2. İftihar idi,
3. Bir iyi hurafeye
4. onu yorumladım ben:
5. Kızımda on altı

[157] Özbeklere has düğün, bayram, ziyafet gibi meclislerdeki nükteli şakalaşma ve atışma.

6. mercan var idi,
7. On yedinci inciyi
8. ekledim ben. (21 Ağustos 2008)

RIVOYAT (154)

1. *Hurmat qilish yaxshi yoshi kattani,*
2. *Aylantirish mumkin chipta-lattani.*
3. *Qirq o‘g‘il shu taxlit navbat oshirib,*
4. *Boqisha olmadi bitta otani.*

RİVAYET (154)

1. İyi hürmet et yaşı büyüğe,
2. Dönüştürmek mümkün nöbetini.
3. Kırk oğul bu tarz nöbet arttırıp,
4. Bakamadı bir tane atasına. (21 Ağustos 2008)

OLTIN NISHON (155)

1. *Intiqib kutgandik bu kun, bu onni,*
2. *Taymazov keltirgan oltin nishonni.*
3. *Nechun quvonmayin Pekinda dunyo*
4. *Olqishlab turganda O‘zbekistonni.*

ALTIN NİŞAN (155)

1. Telaşlanıp beklemiştik bugün, bu anı,
2. Taymazov getirmişti altın nişanını.
3. Niçin sevinmeyeyim Pekin’de dünya
4. Alkışladığında Özbekistan’ı. (21 Ağustos 2008)

AMNISTIYA (156)

1. *Kimningdir boshiga ish tushdi nogoh,*
2. *Shayton avradimi - topmadi to‘zim,*
3. *Bolalarin yig‘ib chekdi ohu voh,*
4. *Kechirmayman dedi, o‘zimni o‘zim.*

5. *Jazo ham muhaqqaq bo‘ldi, albatta,*
6. *Qismat eshigiga bosh egib bordi.*
7. *Seni kechirdilar, deyilgan paytda,*
8. *Qayta tug‘ildim, deb dodlab yubordi!*

AF (156)

1. Kimin başına iş düştü ansızın,
2. Şeytan kandırdı mı, bulmadı sabır,
3. Çocuklarını toplayıp çekti ah-u vah,
4. Affetmem dedi, kendimi kendim.

5. Ceza da muhakkak oldu, elbette,
6. Kısmet kapısına baş eğip vardı.
7. Seni affettiler, denildiği anda,
8. Tekrar doğdum, diye haykırdı! (28 Ağustos 2008)

KARVON (157)

Ukam Qambaraliga

1. *Biz bitta karvonda ketayotirmiz,*
2. *Safimizda nor ham, bo‘taloq ham bor.*
3. *Biz bitta bisotni eltayotirmiz,*
4. *Yo‘limizda qor ham, qatqaloq ham bor.*

5. *Kimdadir bir mesh suv, kimdadir elak,*

6. *Kimdadir yombi bor - arzir jahonga.*

7. *Ortiqcha narsa yo‘q, bari ham kerak,*

8. *Bari ham mansubdir bitta karvonga.*

9. *Manzildan uzmasmiz ko‘z qirimizni,*

10.*U bizni chorlaydi, bizni yupatar.*

11.*Bezovta qiladi har birimizni*

12.*Nogoh ovloqlarda ko‘ringan xatar...*

KERVAN (157)

Kardeşim Kamberali’ye

1. Biz bir kervanda gideriz,

2. Safımızda hecin devesi de, köşek de var.

3. Biz bir malı taşırız,

4. Yolumuzda kar da, kırağı da var.

5. Kiminde bir tulum su, kiminde elek,

6. Kiminde külçe var, değer cihana.

7. Lüzumsuz şey yok, hepsi de gerek,

8. Hepsi de mensuptur bir kervana.

9. Menzilden ayırmayız gözümüzü,

10.O bizi çağırır, bizi teselli eder.

11. Huzursuz eder her birimizi

12. Ansızın avlaklarda görünen tehlike… (30 Ağustos 2008)

SOHIBDIL (158)

1. *Bir kimsa yo‘lidan adashib giryon*
2. *Cho‘kib bormoqdaydi qora botqoqqa.*
3. *Nogoh uchradiyu sohibdil inson*
4. *Kimsani qutqazdi, o‘radi oqqa.*

5. *Mahsharning g‘urbatli pallasi edi,*
6. *Sahroda ikkovlon uchrashdi bexos.*
7. *Kimsa: - Tanimayman men seni, - dedi.*
8. *Sohibdil: - Ming afsus, - deyoldi xolos.*

9. *Shunda sado keldi: - Oyo, jim turgil,*
10. *Bu-ku oddiy maxluq, yuzsiz, sharmanda.*
11. *Malomat tig‘ini o‘zingga urgil,*
12. *Yaxshilikni o‘zing qilding-ku, banda.*

GÖNÜL SAHİBİ (158)

1. Bir kimse yolunu kaybedip giryan
2. Çöküp gitmekteydi kara batağa.
3. Aniden karşılaştı gönül sahibi insan
4. Bir kimseyi kurtardı, sardı beyaza.

5. Mahşerin gurbetli evresiydi,
6. Sahrada iki kişi karşılaştı ansızın.
7. Bir kimse: - Tanımam ben seni, dedi.
8. Gönül sahibi: - Bin esef, diyebildi sadece.

9. Ondan ses geldi: - Hey, sessiz ol,
10. Bu basit mahluk, yüzsüz, rezil.

11. Suçlama silahını kendine vur,
12.İyiliği kendin yap, köle. (1 Eylül 2008)

UMR (159)

1. *O‘tdi qancha avlod,*
2. *Qanchalar odam,*
3. *Biz esa xotira g‘amini yeymiz.*
4. *Xudo rahmat qilsin hammasini ham,*
5. *Ular qalbimizda abadiy deymiz.*

6. *Holbuki, o‘tganlar endi bir ro‘yo,*
7. *Ular bamisoli izsiz ketgan o‘q.*
8. *Qanchalik mahobat qilmaylik, ammo*
9. *Ular endi yo‘qdir, ular endi yo‘q.*

10.*O‘ylasam, yuragim ketar entikib,*
11.*Yo‘qlik qarshisida turibman hayron.*
12.*Nahotki, shuncha yil umrimni tikib,*
13.*Yo‘q odamlar bilan suribman davron...*

ÖMÜR (159)

1. Geçti nice evlat,
2. Nice insanlar,
3. Biz ise hatıra gamını yeriz.
4. Hüda rahmet etsin hepsine de,
5. Onlar kalbimizde ebedî deriz.

6. Hâlbuki geçmişler şimdi bir rüya,
7. Onlar sanki izsiz giden ok.

8. Çok korku salmayalım, ama

9. Onlar şimdi yoktur, onlar şimdi yok.

10.Düşünsem, yüreğim gider iç çekip,

11. Yokluk karşısında durmuşum şaşkın.

12. Ne gariptir ki, bunca yıl ömrümü harcayıp,

13. Olmaz insanlarla sürmüşüm mutluluk. (1 Eylül 2008)

IZZAT (160)

1. *"Uyqu joy tanlamas, muhabbat chiroy",*

2. *Xalqning bu maqoli rostdir hoynahoy.*

3. *O'zliging pesh qilib, izzat izlama,*

4. *Quduq tubidan ham ko'rinadi oy.*

İZZET (160)

1. "Uyku yer seçmez, muhabbet güzel",

2. Halkın bu atasözü gerçektir belki.

3. Özün kibirlenip, izzet arama,

4. Kuyu dibinden de görünür ay. (2 Eylül 2008)

JOHIL (161)

1. *Osmonlardan kelar aytgan so'zginasi,*

2. *Donolarday boqar gohi ko'zginasi.*

3. *Menga bu gap yoqmadi, deb qo'yadilar,*

4. *Johilgina erur asli o'zginasi.*

CAHİL (161)

1. Asumanlardan gelir söylediği sözcüğü,

2. Bilgeler dek bakar bazen gözcüğü.

3. Bana bu söz hoş değil, diye söylediler,

4. Cahilce imiş aslı özcüğü. (3 Eylül 2008)

ITALIYA (162)

1. *Go‘zal Italiya, maftunkor diyor,*

2. *Xudoyim yaratgan betimsol ma’vo.*

3. *Buyuk she’riyating bo‘lib sababkor,*

4. *Ardoqlab yashadim seni doimo*

5. *Yillar o‘tib, mana, sog‘inchim toshib,*

6. *Sening tuprog‘ingga keldim men qayta.*

7. *Yashil o‘rmonlaring, tog‘laring oshib,*

8. *Moviy dengizingga salomlar ayta.*

9. *Do‘zax har qayda bor va lekin jannat*

10.*Ipakka o‘ralgan durdek nixondir.*

11.*Gar uni zaminda axtarsang albat*

12.*Biri sen, birisi O‘zbekistondir.*

13.*O‘tgan daholarning nomin etib yod,*

14.*Kezdim ko‘hna Rimni qadam-baqadam.*

15.*Yurib Avitsenna ko‘chasida shod*

16.*Ichdim Ibn Sino sharbatidan ham.*

İTALYA (162)

1. Güzel İtalya, büyüleyici diyar,

2. Hüda’m yaratmış emsalsiz meyve.

3. Büyük şiirin olup sebep,

4. Koruyup yaşadım seni daima.

5. Yıllar geçip, işte, hasretim taşıp,
6. Senin toprağına geldim ben yine.
7. Yeşil ormanlarını, dağlarını aşıp,
8. Mavi denizine selamlar söyle.

9. Cehennem her yerde var velakin cennet
10.İpeğe sarılan inci gibi saklıdır.
11.Eğer onu yerde arasan elbet
12. Biri sen, biri Özbekistan'dır.

13. Geçmiş dehaların adını edip yâd,
14. Gezdim köhne Rim'i adım adım.
15.Yürüyüp Avitsenna[158] sokağında şad
16.İçtim İbn-i Sînâ şerbetinden de. (8 Eylül 2008, Rim)

HO'KIZ SHOXI (163)

1. *Italyan bolasin gapiga ko'ra*
2. *Xo'kiz shoxlarida turar yer* - kurra.

3. *Men dedim: - Bu gaping cho'pchak, albatta,*
4. *Lekin zamirida ma'no bor katta.*

5. *Asli uning yarmi senga atalgan,*
6. *Ho'kizning bir shoxi Rimga qadalgan.*

7. *Ikkinchi shoxi ham zaminga banddir,*

[158] Batılıların İbn-i Sînâ için kullandığı isimdir.

8. *Tegib turgan joyi, bil, Samarqanddir!*

ÖKÜZ BOYNUZU (163)

1. İtalyan çocuğunun sözüne göre
2. Öküz boynuzlarında durur yerküre.

3. Ben dedim: - Bu sözün hikâye, elbette,
4. Lakin özünde mana var büyük.

5. Aslı onun yarısı sana ayrılmış,
6. Öküzün bir boynuzu Rim'e takılmış.

7. İkinci boynuzu da yere bağlıdır,
8. Değdiği yeri, bil, Semerkant'tır! (8 Eylül 2008, Rim.)

MANZARALAR (164)

I

1. *Qalandar, mana bu dengizga qara,*
2. *Qaynab yotgan his bu, ilohiy tug'yon.*
3. *Jazavaga tushar bunda har zarra*
4. *Abduhoshim g'ijjak chalganisimon.*

5. *Gohida jim qolar, tiniqib, to'lib,*
6. *Xayolga nimalar kelmas shu onda.*
7. *Dengizni choy to'la piyola qilib*
8. *Yelpinib o'tirsang Shohimardonda.*

II

9. *Qalandar, mana bu o'rmonlarga boq,*
10. *Insonning xayoli kabi chigaldir.*

11.*Bir boqsang go‘yoki zangori bayroq,*

12.*Bir boqsang so‘zana yanglig‘ tugaldir.*

13.*Chodir qilish mumkin, ilojin topsang,*

14.*Xohlasang choyshab ham bo‘lmasin nechun.*

15.*Ustiga Muyunqum sahrosin yopsang,*

16.*Yashil chiroq bo‘lgay sayyora uchun.*

III

17.*Qalandar, mana bu qirlarga yuz bur,*

18.*Maktab bolasiday saf-saf g‘aramlar.*

19.*Siyohi yaltiroq jo‘yaklarni ko‘r,*

20.*Daftar chizig‘iday taram-taramlar.*

21.*Sibizg‘ada chalib notanish kuyni,*

22.*Gohida yonboshlab yayrasang erka.*

23.*Va qo‘yib yuborsang bir suruv qo‘yni,*

24.*Uni boshlab yursa, albatta, serka.*

IV

25.*Qalandar, tog‘larga nazar sol-chi tik,*

26.*Qator tuyalarga o‘xshaydi go‘yo*

27.*Biri o‘rkachiga sochibdi ko‘pik,*

28.*Birining chotidan oqmoqda daryo.*

29.*Atrof tevarakka g‘ulg‘ula solib,*

30.*Cherkov qo‘ng‘irog‘i taratar suron.*

31.*Sharqning hikmatlarin ortmoqlab olib,*

32.*Go‘yo kelayotir G‘arb sari karvon.*

MANZARALAR (164)

I

1. Kalender[159], işte bu denize bak,

2. Coşan his bu, ilahi tuğyan.

3. Cezbeye düşer bunda her zerre

4. Abduhaşim gıccak[160] çalmışa benzer.

5. Bazen sessiz kalır, arınıp, dolup,

6. Hayale neler gelmez o anda.

7. Denizi çay dolu kâse yapıp

8. Dalgalandırsan Şahimerdan'da.

II

9. Kalender, işte bu denize bak,

10. İnsanın hayali gibi karmaşıktır.

11. Bir baksan güya mavi bayrak,

12. Bir baksan nakış gibi tamamdır.

13. Çadır yapmak mümkün, çaresini bulsan,

14. İstesen çarşaf da olmasın niçin.

15. Üstüne Muyunkum sahrasını örtsen,

16. Yeşil lamba olacak seyyare için.

III

17. Kalender, işte bu kırlara yüz çevir,

18. Mektep çocuğu gibi saf saf dizer.

19. Siyahı parlak arıkları gör,

20. Defter çiziği gibi çizgi çizgiler.

21. Sıbızgıda çalıp yabancı nağmeyi,

22. Bazen yatıp hoşlansan sevgili.

---

[159] Yol arkadaşı dostum Kalender Abdurahmanov (yazarın notu).
[160] Keman benzeri bir çalgı.

23. Ve bıraksan bir sürü koyunu,

24. Ona gitse, elbette, kısır keçi.

IV

25. Kalender, dağlara bak dikkatle,

26.Sıra sıra develere benzer güya

27. Biri kamburuna saçmış köpük,

28. Birinin ayakları arasından akmakta derya.

29. Etraf civara keder salıp,

30. Kilise çanı yayar gürültü.

31.Şarkın hikmetlerini arttırıp,

32. Sanki gelir Batı'ya doğru kervan. (8 Eylül 2008, Rimini)

XARITA (165)

1. *Xaritaga boqsang,*

2. *Ko'zing oldidan*

3. *Turfa mamlakatlar o'tar birma-bir.*

4. *Qay biri kimgadir boshpana, Vatan,*

5. *Qay biri sajdagoh bo'lgan kimgadir.*

6. *Mana Italiya, Dante diyori,*

7. *Tagor shuhratiga noil Hindiston.*

8. *Farzandlar o'z yurtin nomusi, ori,*

9. *Bulbulim bor deydi har qanday bo'ston.*

10.*Garchi zaminda ko'p har xil xoru xas,*

11.*Tog'larga mengzashar dunyo tomini.*

12.*Ayonki, to'rt-beshta yomonlar emas,*

13.*Yaxshilar tanitar yurtning nomini.*

HARİTA (165)

1. Haritaya baksan,
2. Gözün önünden
3. İlginç memleketler geçer peş peşe.
4. Hangi biri kime barınak, Vatan,
5. Hangi biri secdegâh olmuş kime.

6. İşte İtalya, Dante diyarı,
7. Tagore[161]şöhretine nail Hindistan.
8. Çocuklar öz yurdun namusu, arı,
9. Bülbülüm var der her bostan.

10. Gerçi toprakta çok her türlü kuru ot,
11. Dağlara benzeşir dünya damı.
12.Aşikâr ki, dört beş kötü değil,
13.İyiler tanıtır yurdunun namını. (9 Eylül 2008, Rim)

ARBOB (166)

1. *... Go‘yoki vaqt seni kuta boshlaydi,*
2. *Xayolga botasan o‘tirgan ko‘ying.*
3. *Ko‘z oldingdan sekin o‘ta boshlaydi,*
4. *Ishxonang, do‘stlaring hamda o‘z uying.*

5. *Ikir-chikirgacha bo‘lasan ogoh,*
6. *Bozor-o‘charning ham g‘amini yeysan.*
7. *Nabirang zinada qoqildi nogoh,*
8. *O‘zingcha shivirlab: - Sekinroq, - deysan.*

[161] Hint yazardır.

9. *Ayvondagi sariq kursining nuqul*

10.*Tushib ketaverar bitta oyog‘i.*

11.*Lampochkalar esa yaroqsiz butkul,*

12.*Balki yana kuygan tomning chirog‘i.*

13.*Noxos jiringlaydi telefon zir-zir,*

14.*Pir qilib odamning hafsalasini.*

15.*- “Janob, keling, deydi, - Ko‘rgaymiz hozir,*

16.*Yer yuzida tinchlik masalasini”...*

ERBAP (166)

1. … Güya zaman seni beklemeye başlar,

2. Hayale dalarsın oturduğun sokağın.

3. Göz önünden yavaşça geçmeye başlar,

4. İş yerin, dostların ve kendi evin.

5. Ivır zıvıra dek olursun dikkatli,

6. Çarşı pazar için hazırlanırsın.

7. Torunun merdivende tökezledi ansızın,

8. Kendince fısıldayıp: - Daha yavaş, dersin.

9. Eyvandaki sarı sandalyenin yalnız

10.Düşüverir bir ayağı.

11. Ampuller ise kötü büsbütün,

12. Belki yine yanmış damın lambası.

13. Aniden çalar telefon zır zır,

14. Yok edip insanın hevesini.

15.- “Beyefendi, gelin, der, - Göreceğiz şimdi,

16. Yeryüzünde barış meselesini”… (9 Eylül 2008, San-Marino.)

DO‘XTIR (167)

1. *Tishim og‘rib qoldi, u yoqqa bordim,*

2. *U yoq qolib ketib, bu yoqqa bordim.*

3. *Qabul qildi oxir meni bir do‘xtir,*

4. *Baraka topsin-a, qiyosi yo‘qdir.*

5. *So‘rab o‘tirmadi millatimni u,*

6. *Tekshirib, qandaydir illatimni u.*

7. *Oraga solmadi siyosatni ham,*

8. *Mamlakat, din bilan diyonatni ham.*

9. *Darddan xalos etdi u meni zumda,*

10.*Ajib bir qoniqish sezdim o‘zimda.*

11.*Inson bolalarin sevguvchi beshak*

12.*Xudoning bandasi shu bo‘lsa kerak.*

DOKTOR (167)

1. Dişim ağrıdı, o yana gittim,

2. O yanı bırakıp, bu yana gittim.

3. Kabul etti artık beni bir doktor,

4. Bereket olsun, kıyası yoktur.

5. Sormadı milletimi o,
6. Araştırıp, nasıl illetimi o.

7. Araya sokmadı siyaseti de,
8. Memleket, dinle diyaneti de.

9. Dertten kurtardı beni o anda,
10.Mükemmel bir memnuniyet sezdim kendimde.

11.İnsan evlatlarını seven şüphesiz
12.Hüda'nın kulu o olsa gerek. (9 Eylül 2008, Rimini)

RIM (168)

1. *Yerni ho'kiz haydar terlarga botib,*
2. *Hosilini esa chigirtka yeydi.*
3. *Muhtasham Rimni ham, poyida yotib,*
4. *Mayda odamchalar: - Meniki, -deydi.*

5. *O'zlari yararmi chayla qurishga,*
6. *Gapni-chi, palaxmon qilib otadi.*
7. *Qullar bunyod etgan Rimni ko'rishga*
8. *Bugun boyvachchalar chipta sotadi.*

RİM (168)

1. Toprağı öküz sürer tere batıp,
2. Mahsulünü ise çekirge yer.
3. Muhteşem Rim'e de, hüküm sürüp,
4. Küçücük insancıklar: - Benimki, der.

5. Kendileri yarar mı çadır kurmaya,
6. Sözü, sapan yapıp atar.
7. Kölelerin oluşturduğu Rim'i görmeye
8. Bugün zenginler bilet satar. (10 Eylül 2008, Rim.)

NIDO (169)

1. *Hech kimsaga zor qilma, falak,*
2. *Na farzandu na do'stu yorga.*
3. *Axir fursat yetganda beshak*
4. *Bitta kalla osilur dorga.*

5. *Ravo ko'rma hech qachon, taqdir,*
6. *Birov yoqqan olovni, o'tni.*
7. *Payti kelsa tuproq ham axir*
8. *Qabul qilar bitta vujudni.*

NİDA (169)

1. Hiç kimseye zor kılma, felek,
2. Ne evlat, ne dost ve yâre.
3. Artık vakit geldiğinde şüphesiz
4. Bir kelle asılır dara.

5. Reva görme hiçbir zaman, kader,
6. Biri yakmış ateşi, odu.
7. Vakti gelse toprak da artık
8. Kabul eder bir vücudu. (10 Eylül 2008, San-Marino.)

NABIRAMGA (170)

1. *Garchi xosiyat yo‘q har xil irimda,*

2. *Men seni o‘yladim muqaddas Rimda.*

3. *Mitti bir insonsan, juda kichiksan,*

4. *Mening hayotimga lekin sheriksan.*

5. *O‘g‘limning o‘g‘lisan, zo‘rriyodimsan,*

6. *Sen mening bir zarram, mangu yodimsan.*

7. *Bobo leganingda bobong yoshardi,*

8. *Momo deganingda momong yoshardi.*

9. *Bugun Rimda turib bir gap ayturman,*

10. *Ismingning sharhiga tag‘in qayturman.*

11. *Yaxshi niyat bilan atadim: Islom,*

12. *Yo‘lingni yoritgay shu nom, vassalom!*

TORUNUMA (170)

1. Gerçi iyilik yok her tür hurafede,

2. Ben seni düşündüm mukaddes Rim’de.

3. Küçük bir insansın, çok küçüksün,

4. Benim hayatıma lakin ortaksın.

5. Oğlumun oğlusun, zürriyetimsin,

6. Sen benim bir zerrem, ebedî yâdımsın.

7. Dede dediğinde deden gençleşirdi,
8. Nine dediğinde ninen gençleşirdi.

9. Bugün Rim'de durup bir söz söylerim,
10.İsmin şerhine yine dönerim.

11.İyi niyetle adlanrırım: İslam,
12. Yolunu aydınlatacak o ad, vesselam! (15 Eylül 2008, Rim.)

KAMILLA (171)

1. *Muhabbat hech qachon topmagay zavol,*
2. *Mehr ham tutashdir vujudga, qonga.*
3. *Kamilla ismli italyan ayol*
4. *Talpinib yashaydi O'zbekistonga.*

5. *Garchi turmushida zarra kami yo'q,*
6. *Dengiz sohilida qasri bor ko'rkam.*
7. *Lekin yuragida o'chmas bitta cho'g' -*
8. *U o'zbek tuprog'in qo'msaydi har dam.*

9. *Der: - Yetimxonada o'sdim bir zamon,*
10.*O'tdi o'sha yerda mas'um chog'larim.*
11.*Meni onasiday chorlaydi hamon*
12.*Karavotda qolgan qo'g'irchoqlarim.*

KAMİLLA (171)

1. Muhabbet hiçbir zaman bulmayacak zeval,
2. Şefkat de daimdir vücuda, kana.
3. Kamilla adlı İtalyan kadın
4. Heveslenip yaşar Özbekistan'a.

5. Gerçi hayatında zerre eksiği yok,
6. Deniz sahilinde kalesi var görkemli.
7. Lakin yüreğinde sönmez bir kor
8. O Özbek toprağını özler her dem.

9. Der: - Yetimhanede büyüdüm bir zaman,
10. Geçti o yerde masum çağlarım.
11. Beni anası gibi çağırır daima
12. Yatakta kalan oyuncaklarım. (16 Eylül 2008)

To'rtliklar

"INSONLIK SHARAFI…" (172)

1. *Insonlik sharafi pul emas faqat,*
2. *Qilgan mehnating ham topgaydir rag'bat.*
3. *Dante sabab bo'lib, italyan yurti*
4. *Ko'rgizib turibdi menga ham hurmat.*

Dörtlükler

"İNSANLIK ŞEREFİ…" (172)

1. İnsanlık şerefi para değil sadece,

2. Verdiğin emek de bulacaktır rağbet.
3. Dante'nin sebep olduğu, İtalyan yurdu
4. Gösterip durmuş bana da hürmet.

"JAHON SHOIRLARI…" (173)

1. *Jahon shoirlari nechun galma-gal*
2. *Yolg'izlik haqida yozar she'r, g'azal.*
3. *Olam havosiga ko'nikolmasang*
4. *Yolg'izlik afzaldir, yolg'izlik afzal.*

"CİHAN ŞAİRLERİ…" (173)

1. Cihan şairleri niçin art arda
2. Yalnızlık hakkında yazar şiir, gazel.
3. Dünya hâline alışamazsan
4. Yalnızlık efdaldir, yalnızlık efdal.

"HAR KIM ADO ETAR O'Z REJASINI…" (174)

1. *Har kim ado etar o'z rejasini,*
2. *Adiblar do'ndirar so'z rejasini.*
3. *Quloqqa ortiqcha yuk ortsa birov,*
4. *Birov tuza boshlar ko'z rejasini.*

"HERKES EDA EDER KENDİ PLANINI…" (174)

1. Herkes eda eder kendi planını,
2. Edipler döndürür söz planını.
3. Kulağa fazla yük yüklese biri,
4. Biri yapmaya başlar göz planını.

“MAKRU HIYLALARING, ZAMON, KO‘RSATMA…” (175)

1. *Makru hiylalaring, zamon, ko‘rsatma,*

2. *Mening bug‘doyimni somon ko‘rsatma.*

3. *Elimning nomidan har xil so‘z aytib,*

4. *Menga millatimni yomon ko‘rsatma.*

“HİLE VE KURNAZLIKLARIN, ZAMAN, GÖSTERME…” (175)

1. Hile ve kurnazlıkların, zaman, gösterme,

2. Benim buğdayımı saman gösterme,

3. Halkımın adına her tür söz söyleyip,

4. Bana milletimi kötü gösterme.

“KO‘RDIM HAYOT BOG‘IN…” (176)

1. *Ko‘rdim hayot bog‘in ko‘p in’omini,*

2. *Ko‘rdim pishganin ham, ko‘rdim xomini.*

3. *Mayli, safarga chiq, har qayga borgil,*

4. *Va lekin pok tutgin yurtning nomini.*

“GÖRDÜM HAYAT BAĞINI…” (176)

1. Gördüm hayat bağını çok inamını,

2. Gördüm pişenini de, gördüm hamını.

3. Peki, sefere çık, her yere git,

4. Velakin pak tut yurdunun namını.

“HOZIR XAYOT TARZI SHUNDAN IBORAT…” (177)

1. *Hozir hayot tarzi shundan iborat:*

2. *Tongda tijoratdir, shomda tijorat.*

3. *Mening ular bilan zarra ishim yo‘q,*

4. *Men shoir qabrini qildim ziyorat.*

“ŞİMDİ HAYAT TARZI ŞUNDAN İBARET…” (177)

1. Şimdi hayat tarzı şundan ibaret:
2. Tanda ticarettir, akşamda ticaret.
3. Benim onlarla zerre işim yok,
4. Ben şair kabrini ettim ziyaret. (9-10 Eylül 2008, Rim-Ravenna.)

QODIRIY (178)

1. *Sizga yuz ming jannat bo‘lgaydir ravo,*
2. *Balki bundan ko‘pin bergaydir Xudo.*
3. *Shuncha yil do‘zaxi kimsalar bilan*
4. *Chidab yashadingiz, Qodiriy bobo!*

KADİRÎ (178)

1. Size yüz bin cennet olacaktır reva,
2. Belki bundan çoğunu verecektir Hüda.
3. Bunca yıl cehennemi kimselerle
4. Dayanıp yaşadınız Kadirî dede! (24 Eylül 2008)

BOMDOD (179)

1. *Derazam ortida ulkan koinot,*
2. *Mubham xotiralar qalbni tiladi,*
3. *O‘g‘lim, degan ovoz keladi bot-bot,*
4. *Bolam, degan shivir eshitiladi.*

5. *Xonamni chulg‘aydi sovuq hayajon,*
6. *Boshim og‘irlashar, junjikar etim.*
7. *Axir men o‘g‘lingiz edim, otajon,*
8. *Onajon, axir men bolangiz edim.*

9. *Sahar ocha boshlar ohista ko‘zin,*

10.*Tong uyqusi sassiz kela boshlaydi.*

11.*Taralar azonning tovushi uzun,*

12.*Rafiqam ibodat qila boshlaydi.*

ŞAFAK VAKTİ (179)

1. Pencerem ardında büyük kâinat,

2. Müphem hatıralar kalbini keser.

3. Oğlum, diye ses gelir hızlı hızlı,

4. Evladım, diye fısıltı duyulur.

5. Odamı sarar soğuk heyecan,

6. Başım ağırlaşır, titrer idim.

7. Yayılır ezanın sesi uzun,

8. Refikam ibadet etmeye başlar.

9. Seher açmaya başlar aheste gözünü,

10. Tan uykusu sessiz gelmeye başlar.

11. Yankılanır ezanın sesi uzun,

12. Refikam ibadet etmeye başlar. (27 Eylül 2008)

IYMON (180)

1. *Qanday ko‘kararding, aytgin, birodar,*

2. *Agar, Vatan degan bo‘ston bo‘lmasa.*

3. *Yuksalarmiding yo tog‘larga qadar,*

4. *Tepangda cheki yo‘q osmon bo‘lmasa.*

5. *Zaminda mavjuddir turfa xil jonzot,*

6. *Biri o‘rmalaydi, birida qanot.*
7. *Mukarram atalmas inson degan zot,*
8. *Qalbida zarracha iymon bo‘lmasa.*

9. *Baribir g‘alati qavmdir bashar,*
10. *Bir umr nafsiga qul bo‘lib yashar.*
11. *Haqqa yetishardi, yo‘lida agar,*
12. *Hamrohi hazrati Shayton bo‘lmasa.*

13. *Ezgu niyatlarni ko‘zladim faqat,*
14. *Garchi yuragimda armonlar qat-qat.*
15. *Kuyishlar, yonishlar lekin na hojat -*
16. *Seni anglaydigan Inson bo‘lmasa.*

İMAN (180)

1. Nasıl yeşerirdin, söyle, birader,
2. Eğer Vatan diye bostan olmasa.
3. Yükselir miydin ya dağlara kadar,
4. Tepende sınırsız asuman olmasa.

5. Zeminde mevcuttur türlü garip mevcudat,
6. Biri sürünür, birinde kanat.
7. Mükerrem değil insan denen zat,
8. Kalbinde zerrece iman olmasa.

9. Aynı ilginç kavimdir beşer,
10. Bir ömür nefsine kul olup yaşar.
11. Hakk’a yetişirdi, yolunda eğer,
12. Yoldaşı hazreti Şeytan olmasa.

13.İyi niyetlerini gözledim sadece,
14. Gerçi yüreğimde ukdeler kat kat.
15. Yanmalar, tutuşmalar lakin ne hacet,
16. Seni anlayan İnsan olmasa. (29 Eylül 2008)

YOVOSH-YOVOSH (181)

1. *Ozar do‘stim nag‘ma chalar ko‘zida yosh,*
2. *Holing nechuk desam deydi: yovosh-yovosh.*

3. *Sevikliging noz qilsa ham chimirib qosh,*
4. *Moyil bo‘lar asta-asta, yovosh-yovosh.*

5. *Goh u yonga, goh bu yonga urmagil bosh,*
6. *Omad kelar birin-sirin, yovosh-yovosh.*

7. *Jayronga ayt, tuyog‘ini yormasin tosh,*
8. *Sayron etsin sekin-sekin, yovosh-yovosh.*

YAVAŞ YAVAŞ (181)

1. Azer dostum nağme çalar gözünde yaş,
2. Hâlin nasıl desem der: yavaş yavaş.

3. Sevgilin naz etse de çatıp kaş,
4. İstekli olur aheste aheste, yavaş yavaş.

5. Gâh o yana, gâh bu yana vurma baş,
6. Baht gelir birer birer, yavaş yavaş.

7. Ahuya söyle, toynağını yarmasın taş,

8. Seyretsin sakin sakin, yavaş yavaş. (6 Ekim 2008)

MANZARA (182)

1. *Tunning tasvirini aytayin sizga:*

2. *Yulduzlar birma-bir sho‘ng‘ir dengizga.*

3. *Oy ham qip-yalang‘och, shuning uchun u*

4. *Orqa tomonini ko‘rsatmas bizga.*

MANZARA (182)

1. Gecenin tasvirini söyleyeyim size:

2. Yıldızlar art arda dalar denize.

3. Ay da çırılçıplak, onun için o

4. Arka tarafını göstermez bize. (7 Ekim 2008)

TASKIN (183)

1. *Menga madad ber deb qistamagin, bas,*

2. *Mening aytganimni bolam ham qilmas.*

3. *Meni kurashlarga chorlama, ukam,*

4. *Mening po‘pisamdan qo‘rqmas chumchuq ham.*

5. *Va lekin urmasman yerga qadrimni,*

6. *Kimdir bilar balki biror satrimni.*

7. *Tunlar o‘zim bilan o‘zim qolaman,*

8. *Munis yurtimni deb o‘yga tolaman.*

9. *Yiroq kelajakka tashlayman nazar,*

10.*Dilimni daf'atan quvonchlar bezar.*

11.*Hozir-chi, xohlasang salomingni ber,*

12.*Agar xohlamasang... mayli, o'taber.*

TESKİN (183)

1. Bana yardım et diye üsteleme, yeter,

2. Benim dediğimi evladım da yapmaz.

3. Beni savaşlara çağırma, kardeşim,

4. Benim tehdidimden de korkmaz serçe de.

5. Velakin vurmam yere değerimi,

6. Kim bilir belki bir satırımı.

7. Geceler kendimle kendim kalırım,

8. Dost yurdum diye düşünceye dalarım.

9. Uzak geleceğe atarım nazar,

10.Gönlümü birden sevinçler bezer.

11.Şimdi, istersen selamını ver,

12.Eğer istemezsen… Pekâlâ, geçiver. (24 Ekim 2008)

HIMOYA (184)

1. *Bu bir tushdir:*

2. *She’r o‘qirmishman*

3. *Ilhomimning jo‘shgan pallasi.*

4. *Tashlanibdi menga daf’atan*

5. *Allaqanday itlar galasi.*

6. *Quturishib, uvvos solishib,*

7. *Qilmoqchilar baxtimni yarim.*

8. *Atrofimni o‘rab olishib*

9. *Chirqirardi nabiralarim.*

10.*Bu bir tushdir:*

11.*Cho‘chitmas meni,*

12.*Axtarmasman hech undan g‘oya.*

13.*Lekin, aniq: payt kelsa seni*

14.*Avlodlar ham qilgay himoya.*

HİMAYE (184)

1. Bu bir düştür:

2. Şiir okurmuşum

3. İlhamımın coşmuş evresi.

4. Atılmış bana birden

5. Bazı it sürüleri.

6. Kudurup, hüngür hüngür ağlayıp,

7. Edecekler bahtımı yarım.

8. Etrafımı sarıp,

9. Cıvıldardı torunlarım.

10. Bu bir düştür:
11. Korkutmaz beni,
12. Aramam hiç ondan gaye.
13. Lakin açık: vakit gelse seni
14. Evlatlar da edecek himaye. (14 Kasım 2008)

HUJJATSIZ ODAM (185)

1. *Har qanday tarix ham ibratli emas,*
2. *Ibratsiz ham kechmas hayot batamom.*
3. *Qay yurtda qaysi bir kimsani, xullas,*
4. *Qamab qo‘yishdilar qay kun, vassalom.*

5. *Balki to‘dasidan adashgan sayyoh,*
6. *Balki qismatidan qochib yurgan qul.*
7. *Unda na hujjat bor va na bor guvoh,*
8. *Kim va qaydanligi mubhamdir butkul.*

9. *Tushunib bo‘lmasdi tilini mutloq,*
10.*Aqli butundayin, hushi joyida.*
11.*Yechilmog‘i kerak lekin bu jumboq,*
12.*Shuni talab qilar qonun, qoida.*

13.*Mirshablar tinmayin izlashdi chora,*
14.*Tayin etmoq zarur uning hujjatin.*
15.*Oxir o‘qidilar erinmay sira*
16.*Dunyo davlatlarin uzun ro‘yxatin.*

17.*Qanchalar rang-barang olam va odam,*
18.*Ellar, mamlakatlar, shaharlar turlik.*
19.*Tug‘ilgan yurtining nomi chiqqan dam*

20.*Qiyqirib yubordi haligi sho‘rlik.*

21.*Har qanday tarix ham ibratli emas,*
22.*Ibratsiz ham kechmas hayot batamom.*
23.*Hatto chumolining Vatani bor, bas,*
24.*Insonning hujjati Vatan, vassalom!*

KİMLİKSİZ İNSAN (185)

1. Her tarih de ibretli değil,
2. İbretsiz de geçmez hayat tamamen.
3. Hangi yurtta hangi bir kimseyi, hülasa,
4. Tutukladılar hangi gün, vesselam.

5. Belki grubunu kaybetmiş seyyah,
6. Belki kısmetinden kaçmış kul.
7. Onda ne kimlik var ve ne var şahit,
8. Kim ve nereli olduğu müphemdir büsbütün.

9. Düşünmezdi dilini mutlaka,
10. Aklı tam gibi, bilinci yerinde.
11.Açılması gerek lakin bu sorun,
12. Bunu talep eder kanun, kaide.

13. Polisler durmadan aradılar çare,
14. Tayin etmek gerek onun kimliğini.
15. Artık okudular erinmeden asla
16.Dünya devletlerinin uzun listesini.

17. Nice rengârenk âlem ve âdem,

18. Halklar, memleketler, şehirler çeşitli.
19. Doğduğun yurdunun adı çıktığı dem
20. Bağırdı bahsedilen zavallı.

21. Her tarih de ibretli değil,
22.İbretsiz de geçmez hayat tamamen.
23. Hatta karıncanın Vatan'ı var, kâfi,
24.İnsanın kimliği Vatan, vesselam! (10 Aralık 2008)

BAHS (186)

1. *Ikki qavm yovlashardi azaldan-azal,*
2. *Har narsadan qiyiq izlab, yasardi tuzoq.*
3. *Hech bahona topolmagach, deyishdi bir gal:*
4. *Bizning eshak unikidan hangraydi zo'rroq.*

5. *Eshaklarning o'zlari ham turishmadi jim,*
6. *Sal boshqacha kechar edi bahslari biroq.*
7. *Ular derdi: teng kelolmas bizlarga hech kim,*
8. *Bizning qavm u qavmdan ko'ra eshakroq.*

BAHİS (186)

1. İki kavim kavga ederdi ezelden ezel,
2. Her şeyde eğri arayıp, kurardı tuzak.
3. Hiç bahane bulamayınca, derler bir kez:
4. Bizim eşek onunkinden anırtgan.

5. Eşeklerin kendileri de durmadı sessiz,
6. Biraz başkaca geçer idi bahisleri fakat.
7. Onlar derdi: Denk gelemez bizlere hiç kimse,

8. Bizim kavim o kavme göre daha eşek. (18 Aralık 2008)

IKKI HOLAT (187)

1. *- Seni oshiqtirdi qandayin sabab,*

2. *Shoshib kelmoqdasan nimaga, nechun?*

3. *- Axir men talpindim mehringga qarab,*

4. *Sen bilan ro‘para bo‘lmoqlik uchun.*

5. *- Anavi kimsa-chi, ketmoqda chopib,*

6. *Buncha ham bezovta - nimaga, nechun?*

7. *- Bilsang, u g‘animdir - bormoqda qochib,*

8. *Sen bilan ro‘para bo‘lmaslik uchun.*

İKİ DURUM (187)

1. - Seni telaşlandırdı hangi sebep,

2. Acele edip gelmektesin niye, niçin?

3. - Artık ben uğraştım şefkatine bakıp,

4. Seninle yüz yüze olmak için.

5. - Şu kimse, gitmekte koşup,

6. Bunca da telaş niye, niçin?

7. - Bilsen, o düşmandır, gitmekte kaçıp,

8. Seninle yüz yüze olmak için. (25 Aralık 2008)

AVLIYOLAR (188)

1. *Deydilar, qaydadir, Shambala yoqda*

2. *Aziz avliyolar ruhi yasharmish.*

3. *Ular qo‘llar emish bizni yiroqda,*

4. *Tibet tog‘laridan gohi osharmish.*

5. *Gohida Yassaviy, Naqshband gohi*
6. *Namoyon bo‘larmish biror makonda.*
7. *Nechog‘lik keng erur Alloh dargohi,*
8. *Siru sinoat ko‘p vaqtu zamonda.*

9. *Deysan, ular ruhi kezarkan beshak,*
10. *Bilmasmi, to hanuz kutmoqda xalqi.*
11. *Oh, buyuk tilsimga keltirmagil shak,*
12. *Ular yonginangda yuribdi balki.*

EVLİYALAR (188)

1. Derler, bir yerde, Şambala tarafında
2. Aziz evliyalar ruhu yaşarmış.
3. Onlar kollar imiş bizi uzakta,
4. Tibet dağlarından bazen aşarmış.

5. Bazen Yesevî, Nakşibendi bazen
6. Muayyen olurmuş bir mekânda.
7. Ne kadar geniştir Allah dergâhı,
8. Sırr-u hakikat çok vaktizamanında.

9. Dersin, onların ruhu gezermiş bîşek,
10. Bilmez mi, henüz beklemekte halkı.
11. Ah, büyük tılsıma getirme şek,
12. Onlar yanında yürümüş belki. (4 Ocak 2009)

SHARQ NAVOSI (189)

Turg‘un Alimatov xotirasiga

1. *Sho‘x va shan davraga bir kun nogahon,*
2. *Kirib keldi mashhur mug‘anniy ustoz.*
3. *Bunda xush kayfiyat edi hukmron,*
4. *Bari go‘zal edi, bari g‘oyat soz.*

5. *Ayvon peshtoqidan yulduzli falak*
6. *Bazmga sehrli nurin sochardi.*
7. *Bu Sharqning oqshomi, bu nozli malak*
8. *Har qanday dilning ham qulfin ochardi.*

9. *Mug‘anniy cholg‘usin olib daf’atan*
10. *Ajib bir nag‘mani yubordi boshlab.*
11. *Go‘yoki yuz ochdi ilohiy chaman,*
12. *Go‘yo Majnun keldi ko‘zlarin yoshlab.*

13. *Go‘yo sarxush bo‘lib tebrandi dunyo,*
14. *Boshqacha tog‘lari, boshqa daryosi.*
15. *Yastanib yotardi qarshingda go‘yo*
16. *Buyuk Osiyoning dashtu sahrosi.*

17. *Avjiga chiqardi ulug‘ kuy, maqom,*
18. *To‘lishib borgandek ko‘kning hiloli.*
19. *Davra-chi, beparvo edi batamom,*
20. *O‘zga nag‘malarda edi xayoli.*

ŞARK NEVASI (189)

Turgun Alimatov'un anısına

1. Neşeli ve şen meclise bir gün nagehan,
2. Girip geldi meşhur muganni üstat.
3. Bunda hoş keyfiyet idi hükümran,
4. Hepsi güzel idi, hepsi gayet iyi.

5. Eyvan kapısından yıldızlı felek
6. Meclise sihirli ışığını saçardı.
7. Bu Şark'ın akşamı, bu nazlı melek
8. Her gönlün de kilidini açardı.

9. Muganni çalgısını alıp birden
10.İlginç bir nağmeyi çaldı başlayıp.
11. Sanki yüz açtı ilahi gülşen,
12. Sanki Mecnun geldi gözleri yaşarıp.

13. Sanki sarhoş olup sallandı dünya,
14. Başka türlü dağları, başka deryası.
15. Uzanıp yatardı karşında sanki
16.Büyük Asya'nın deşt-i sahrası.

17. Doruğa çıkardı ulu nağme, makam,
18. Dolmuş gibi gökyüzünün hilali.
19. Meclis, pervasız idi tamamen,
20. Başka nağmelerde idi hayali. (16 Ocak 2009)

ODAT (190)

1. *Nimanidir izlar tinmag‘ur Odam,*
2. *Zulmatda axtargan kabi ziyoni.*
3. *Gohi falaklarga termilsa mubham,*
4. *Gohi hasratlarga ko‘mar dunyoni.*

5. *Olis manzillarga karvonin yo‘llab,*
6. *Gohida umidbaxsh duolar aytar.*
7. *Bizni umr bo‘yi tursin deb qo‘llab,*
8. *Har xil qabrlarga sig‘inib qaytar.*

9. *Bir kun el ichidan chiqib yovqur zot*
10.*- O, qavmim, zaminga yaragin, dedi.*
11.*Sen aql sohibi, Sen zo‘r mavjudot,*
12.*Oyog‘ing ostiga qaragin, dedi.*

13.*Garchi qancha tashvish, qancha iztirob,*
14.*Qancha xavfu xatar yo‘llaringdadir.*
15.*Turfa sinovlardan chekasan azob,*
16.*Holbuki, barchasi qo‘llaringdadir.*

17.*Tangri ato etmish senga Tafakkur,*
18.*Insholloh, dardlaring topgaydir barham.*
19.*Sen davron surgaysan zamin uzra hur,*
20.*Qadaming qo‘ygaysan yulduzlarga ham.*

21.*Odamlar chuvlashib dedilar: - Rahmat!*
22.*Sen bizga eslatding bardosh, sabrni.*
23.*Biroq tarqalishdi o‘tmayin fursat*
24.*Axtarib ketdilar yangi qabrni.*

ÂDET (190)

1. Neyi araştırır durmayan İnsan,
2. Karanlıkta aradığı gibi ziyayı.
3. Bazen feleklere baksa müphem,
4. Bazen hasretlere gömer dünyayı.

5. Uzak menzillere kervanını yollayıp,
6. Bazen ümitvar dualar eder.
7. Bizi ömür boyu dursun diye kollayıp,
8. Her tür kabirlere sığınıp döner.

9. Bir gün halk içinden çıkıp cesur zat
10.- Ey, kavmim, zemine yara, dedi.
11. Sen akıl sahibi, Sen büyük mevcudat,
12. Ayağının altına bak, dedi.

13. Gerçi nice kaygı, nice ızdırap,
14. Nice tehdit, tehlike yollarındadır.
15.İlginç sınavlardan çekersin azap,
16.Hâlbuki hepsi ellerindedir.

17. Tanrı bahşetmiş sana Tefekkür,
18.İnşallah, dertlerin bulacaktır son.
19. Sen refah süreceksin zemin üstünde hür,
20. Adımını atacaksın yıldızlara da.

21.İnsanlar uğultuyla dediler: - Teşekkürler!
22. Sen bize hatırlattın tahammül, sabrı.

23. Fakat yayıldılar geçmeden zaman

24. Arayıp gittiler yeni kabri. (24 Ocak 2009)

FIL VA CHUMOLI (191)

1. *Filga aylanibsan, chumoli, nechun?*

2. *Ro‘zg‘orimdan ko‘nglim to‘qligi uchun.*

3. *Chumoli bo‘libsan, so‘yla, fil, nechun?*

4. *Ro‘zg‘orimda tinchim yo‘qligi uchun.*

FİL VE KARINCA (191)

1. File dönmüşsün, karınca, niçin?

2. Tasarrufumdan gönlümün tokluğu için.

3. Karınca olmuşsun, söyle, fil, niçin?

4. Tasarrufumda huzurumun yokluğu için. (28 Ocak 2009)

SOG‘INCH (192)

1. *O‘tgan yoshligingni qo‘msaysan hamon,*

2. *Ketdi deb bamisli qalamqoshligim.*

3. *Qanchalik g‘alvali bo‘lmasin davron,*

4. *Go‘zal edi deysan o‘sha yoshligim.*

5. *Qop-qora sochlarim yaltirasin deb,*

6. *Surkab ham yurarding turli-tuman moy.*

7. *Dazmolsiz shimingga bermoq uchun zeb,*

8. *Ko‘rpacha tagidan taxlar eding joy.*

9. *Doston yozar eding, qo‘shni qiz agar,*

10.*Boqsa bir jilmayib, boqsa bir kulib.*

11.*Ko‘ksingda hislaring lovullab badtar,*

12.*O‘rlardi tamaki tutuni bo‘lib.*

13.*Chopding tramvayga chiqmoqlik uchun,*
14.*Lekin yetolmading, kimlardir yetdi.*
15.*Yoshlik ham bekatda to‘xtamay bir kun,*
16.*O‘sha tramvaydek o‘tdiyu ketdi.*

17.*Gohida o‘rtanib, goh yo‘ldan ozib,*
18.*Yonmoq qani endi yorning hajrida.*
19.*Bugun Aql senga dasturxon yozib,*
20.*Choy uzatib turar sokin Tajriba.*

HASRET (192)

1. Geçen gençliğini özlersin hâlâ,
2. Gitti diye kalem kaşlım.
3. Ne kadar sıkıntılı olmasın dünya,
4. Güzel idi dersin o gençliğim.

5. Kapkara saçlarım parlasın diye,
6. Sürüp de yürürdün türlü türlü yağ.
7. Ütüsüz pantolonuna vermek için süs,
8. Döşek dibinden hazırlar idin yer.

9. Destan yazar idin, komşu kız eğer,
10. Baksa bir gülümseyip, baksa bir gülüp.
11.Göğsünde hislerin yanıp beter,
12.Çıkardı tütün dumanı olup.

13. Koşup tramvaya çıkmak için,

14. Lakin yetişemedin, kimler yetişti.
15. Gençlik de durakta durmadan bir gün,
16.O tramvay gibi geçti de gitti.

17.Gâh acı çekip, gâh yoldan çıkıp,
18. Yanmak hani şimdi yârin hicranında.
19. Bugün Akıl sana sofra kurup,
20.Çay uzatıp durur sessiz Tecrübe. (2 Şubat 2009)

GULZOR (193)

1. *Sening qo‘ling guldir,*
2. *Shul sababdan ham*
3. *Hovliyu xonangda o‘stirasan gul.*
4. *Sendaylar bisyorroq bo‘lsaydi, olam*
5. *Gulzorga aylanib ketardi butkul.*

6. *O‘stirgan gullaring ajib, muattar,*
7. *Rangorang, xilma-xil, chiroyli bari.*
8. *Nomlarin bilmayman, aytsam muxtasar,*
9. *Bor bunda yur yuzin turfa gullari.*

10.*Gullaring anjuman tuzibdi go‘yo,*
11.*Inja go‘zallikning mashg‘uloti bu.*
12.*Shu kichik gulzorda jam bo‘lmish dunyo,*
13.*Birlashgan Gullarning Tashkiloti bu.*

GÜLZÂR (193)

1. Senin elin güldür,
2. O sebepten de

3. Avlu ve odanda büyütürsün gül.
4. Sen gibiler daha çok olsaydı, âlem
5. Gülzâra dönerdi büsbütün.

6. Büyüttüğün güllerin ilginç, muattar,
7. Rengârenk, çeşit çeşit, güzel hepsi.
8. Adlarını bilmem, söylesem muhtasar,
9. Var bunda yürü yüzünün ilginç gülleri.

10.Güllerin toplantı düzenlemiş güya,
11.İnce güzelliğinin meşguliyeti bu.
12. Bu küçük gülzârda cem olmuş dünya,
13. Birleşmiş Güllerin Teşkilatı bu. (4 Şubat 2009)

O‘ZBEK TO‘NI (194)

1. *O‘zbekning tarixi qadim va uzoq*
2. *Bunga guvoh erur hattoki to‘ni.*
3. *To‘yu marakada saflarga bir boq,*
4. *Egnida dastavval ko‘rgaysan uni.*

5. *Jahon elchilari hoziru nozir,*
6. *Barchasi Amirdan shafoat tilar.*
7. *Ularga boqadi mag‘rur Jahongir,*
8. *Ustida zarrin to‘n, belida kamar.*

9. *Hayo otashida yongan kelinchak*
10.*Qutlug‘ ostonaga qo‘ydimi qadam*
11.*Baxtiyor juftiga egilib andak*
12.*Bosadi to‘nining etagini ham.*

13.*Beshikdan turdiyu jajji bolakay*

14.*To‘n kiydi, bobosin qatorida shod.*

15.*Go‘yo ne istasang qilmoq uchun shay*

16.*Safga kirib keldi yana bir Farhod.*

17.*Maqsadi olamga nur sochish bo‘lgach,*

18.*Quyoshning maqomi falaklar qadar.*

19.*To‘n yopib, bo‘yniga nishon ham ilgach,*

20.*Ne ajab, mehmoning ta’zim etsa gar.*

21.*Ellar bir-birlarin boshlarin silab,*

22.*Mehrin in’om etar non bilan tuzdek.*

23.*Jam’i odamzodga ezgulik tilab,*

24.*Dunyo yelkasiga to‘n yopar O‘zbek!*

ÖZBEK KAFTANI[162] (194)

1. Özbek’in tarihi kadim ve uzun

2. Buna şahittir hatta kaftanı.

3. Düğün ve merasimde saflara bir bak,

4. Omzunda ilkin göreceksin onu.

5. Cihan elçileri hazır ve nazır,

6. Hepsi Emir’den şefaat diler.

7. Onlara bakar mağrur Cihangir,

8. Üstünde yaldızlı kaftan, belinde kemer.

[162] Andican seferi zamanında dostum Ahmetcan Meliboyev benden Özbek kaftanı hakkında bir şiir yazmamı istedi (yazarın notu).

9. Hayâ ateşinde yanmış gelin
10. Kutlu eşiğe attı mı adım
11. Bahtiyar çiftine eğilip biraz
12. Basar kaftanın eteğine de.

13. Beşikten kalktı minik oğlan
14. Kaftan giydi, dedesinin safında şad.
15.Güya ne istesen yapmak için hazır
16.Sıraya girip geldi yine bir Ferhat.

17. Maksadı âleme ışık saçmak olunca,
18.Güneşin makamı felekler kadar.
19. Kaftan örtüp, boynuna madalya da takınca,
20. Ne garip, misafirin tazim etse eğer.

21. Halklar birbirlerinin başlarını okşayıp,
22.Şefkatini bağışlar ekmekle tuz gibi.
23. Hepsi insanlığa iyilik dileyip,
24.Dünya omzuna kaftan örter Özbek! (14 Şubat 2009)

SINOV (195)

1. *Ipak qurtining ham bor axir joni,*
2. *Lekin qurbon bo‘lib ketgay u g‘arib.*
3. *Xazon sipohiga bo‘lolmay mone’,*
4. *Qancha bahorlarim o‘tdi sarg‘arib.*

5. *Vafolar qilsam ham dildan, yurakdan,*
6. *Jafo bo‘lib qaytdi afsuski ular.*
7. *O‘q yegan turnadek osmon-falakdan*
8. *Yerga qulab tushdi ne-ne tuyg‘ular.*

9. *Ezgulik kimningdir mulki emasdir,*

10.*Quyosh ham barchaga barobar biroq.*

11.*Meni yolg‘izlatdi negadir taqdir,*

12.*Menga sinovlarin yubordi ko‘proq.*

13.*Bir zamon dunyoni sevardim to‘lib,*

14.*Hatto yaprog‘iga egar edim bosh.*

15.*Endi hammasidan pushaymon bo‘lib,*

16.*O‘tgan sevgim uchun to‘kaman ko‘zyosh.*

SINAV (195)

1. İpek böceğinin de var artık canı,

2. Lakin kurban olup gidecek o garip.

3. Hazan askerine olamadan mani,

4. Nice baharlarım geçti sararıp.

5. Vefalar etsem de gönülden, yürekten,

6. Cefa olup döndü ne yazık ki onlar.

7. Ok yiyen turna gibi asumandan, felekten,

8. Toprağa düşüp bitti türlü duygular.

9. İyilik kimin mülkü değildir,

10.Güneş de hepsine eşit fakat.

11. Beni yalnızlaştırdı niye takdir,

12. Bana sınavlarını gönderdi daha çok.

13. Bir zaman dünyayı severdim dolup,

14. Hatta yaprağına eğer idim başı.

15.Şimdi hepsinden pişman olup,
16. Geçmiş sevgim için dökerim gözyaşı. (23 Şubat 2009)

ZAMIN DARDI (196)

1. *Donolik cheksizdir bamisli olam,*
2. *Chegarasi yo‘qdir nodonlikning ham.*

3. *Gohi quvonch hissi toshar dunyoda,*
4. *Gohi kulfat yuki haddan ziyoda.*

5. *Bir yonda qulf urib yashnasa bo‘ston,*
6. *Bir yonda gulshanni aylashar yakson.*

7. *Sen buning baridan yumib ko‘zingni,*
8. *Tunu kun o‘ylaysan tanho o‘zingni.*

9. *Falaqda kezadi qancha daydi tosh,*
10.*Bizning sayyoraga go‘yoki yo‘ldosh.*

11.*Qulab tushmasmikan daf’atan biri,*
12.*Qiynar bandalarni bu holning siri.*

13.*Sen-chi, beparvosan buning bariga,*
14.*Deysan, tushsa tushar mendan nariga.*

15.*Olis qit’adami, allaqaylarda,*
16.*Ajal mudrab yotar qir, to‘qaylarda.*

17.*Zaminni cho‘lg‘asa nogahon illat,*
18.*Menga yo‘lamaydi deysan sen albat.*

19.*Qo‘shnining boshiga tushsa gar savdo,*
20.*Sen bunga zarracha qilmaysan parvo.*

21.*O‘zganing tashvishi sen uchun abas,*
22.*O‘zing chiqqan tepa omon bo‘lsa bas.*

23.*Yeru ko‘k, tog‘u tosh, ummonu daryo*
24.*Birovning mahriga tushmagan aslo.*

25.*Fozillar olamga bedor oshiqdir,*
26.*Bir ko‘zi uxlasa, biri ochiqdir.*

27.*Shoir yuragini yoqar armonlar,*
28.*Hargiz tinim bilmas siyosatdonlar.*

29.*Alloh irodasi barchamizga bir,*
30.*Ko‘rgaymiz - nimaga duch qilsa taqdir.*

31.*Hech kim xoli emas kufru xatodan,*
32.*Axir tarqaganmiz Odam Atodan.*

33.*Bilmasmiz, erta kun yuz bergay ne hol,*
34.*Nima kutar bizni - kamolmi, zavol.*

35.*Har nechuk ishonchu tasalli bordir,*
36.*Odam bolasiga tafakkur yordir.*

37.*Lekin sen bu gapni yodda tut faqat,*
38.*Hammaga ayondir ushbu haqiqat:*

39.*Zaminni bir ari chaqqani chog‘i*
40.*Qabarib chiqadi ikkinchi yog‘i.*

ZEMİN DERDİ (196)

1. Bilgelik sonsuzdur sanki âlem,
2. Sınırı yoktur cahilliğin de.

3. Gâh sevinç hissi taşar dünyada,
4. Gâh külfet yükü hadden fazla.

5. Bir yanda kilit vurup çiçeklense bahçe,
6. Bir yanda gülşeni eder harap.

7. Sen bütün bunlara yumup gözünü,
8. Gece gündüz düşünürsün yalnız kendini.

9. Felekte gezer nice avare taş,
10. Bizim seyyareye sanki yoldaş.

11.Yıkılıp düşmez miymiş birden biri,

12. Azap verir kölelere bu hâlinin sırrı.

13. Sen, pervasızsın bunun hepsine,
14. Dersin, düşerse düşer benden öteye.

15. Uzak kıtada mı, bir yerlerde,
16. Ecel uyuklayıp yatar, çalılıklarda.

17. Zemini kaplasa birden illet,
18. Bana rastlamaz dersin sen elbet.

19. Komşunun başı düşse eğer tasaya,
20. Sen buna zerrece etmezsin perva.

21. Başkasının kaygısı senin için abes,
22. Kendi çıktığın tepe sağlam olsa pes.

23. Yer ve gök, dağ ve taş, deniz ve derya
24. Birinin şefkatine düşmemiş asla.

25.Âlimler âleme uyanık âşıktır,
26. Bir gözü uyusa, biri açıktır.

27.Şair yüreğini yakar ukdeler,
28. Hiç durmak bilmez siyasetçiler.

29. Allah iradesi hepimize bir,

30.Göreceğiz, neye rastlasa takdir.

31. Hiç kimse yoksun değil küfür ve hatadan,
32. Ahir yayılmışız Âdem babadan.

33. Bilmeyiz, yarın olacak ne hâl,
34. Ne bekler bizi, kemal mi, zeval.

35. Her niçin inanç ve teselli vardır,
36.İnsan evladına tefekkür yârdır.

37. Lakin sen bu sözü yâdda tut yalnız,
38. Hepsine ayandır şu hakikat:

39. Zemini bir arı soktuğu anda,
40. Kabarıp çıkar diğer tarafı. (1 Mart 2009)

SHIRIN SO‘Z (197)

1. *Yetim har joylarda sang‘irdi sarson,*
2. *Usti-boshi juldur, mador yo‘q tanda.*
3. *Shoir unga atab she’r yozdi nolon:*
4. *- Bir og‘iz shirin so‘z nondek arzanda.*

5. *Qay kun qo‘lga tushdi nomdor bir odam,*
6. *Asli o‘gri ekan, kazzob, sharmanda.*
7. *Men deyman, vo ajab, endi unga ham*
8. *- Bir ogiz shirin so‘z nondek arzanda.*

ŞİRİN SÖZ (197)

1. Yetim her yerde dolaşır avare,
2. Üstü başı çuldur, güç yok bedende.
3. Şair ona diye şiir yazdı nalan:
4. - Biraz tatlı söz ekmek gibi değerli[163].

5. Hangi gün ele düştü ünlü bir insan,
6. Aslı hırsız imiş, yalancı, rezil.
7. Ben derim, garip, şimdi ona da
8. Biraz tatlı söz ekmek gibi değerli. (2 Mart 2009)

TASAVVUR (198)

1. *Bu ko‘hna qo‘shiqdir,*
2. *Bu eski nola,*
3. *Unuta olmasman men uni butkul.*
4. *Bozor eshigida yoshgina bola*
5. *Keksa tilanchiga uzatardi pul.*

6. *Har kim o‘z bahosin bergay bu ishga,*
7. *Har kim o‘z hukmini o‘zi bilajak.*
8. *Horib munkillagan qari o‘tmishga*
9. *Muruvvat qilardi go‘yo kelajak.*

10.*Ko‘p uzoq yillarga eltadi xayol,*
11.*Tasavvurni ezar tag‘in shu nola:*
12.*Bozor eshigida turar keksa chol,*
13.*Bu o‘sha bola-ku, bu - o‘sha bola.*

[163] Gafur Gulam satrı.

TASAVVUR (198)

1. Bu köhne koşuktur,
2. Bu eski nale,
3. Unutamam ben onu büsbütün.
4. Pazar kapısında gencecik çocuk
5. Yaşlı dilenciye uzatırdı para.

6. Herkes kendi değerini verecek bu işe,
7. Herkes kendi hükmünü kendisi bilecek.
8. Yorulup kamburlaşan ihtiyar geçmişe
9. Mürüvvet ederdi sanki gelecek.

10.Çok uzun yıllara götürür hayal,
11. Tasavvuru ezer yine şu nale:
12. Pazar kapısında durur yaşlı adam,
13. Bu o çocuk, bu o çocuk. (8 Mart 2009)

YOZAMIZ... (199)

1. *"Havo sovib ketdi!"* -
2. *Yozamiz!*
3. *"Yomg'ir yog'ib o'tdi!"* -
4. *Yozamiz!*
5. *"Ko'cha halqob bo'ldi!"* -
6. *Yozamiz!*
7. *"Echki harom o'ldi!"* -
8. *Yozamiz!*
9. *"Sigir ko'zin suzdi!"* -
10.*Yozamiz!*
11.*"Buqa ipin uzdi!"* -
12.*Yozamiz!*

13.*"Toshmat moshin oldi!"* -

14.*Yozamiz!*

15.*"Eshmat ayvon soldi!"* -

16.*Yozamiz!*

17.*Yoza-yoza asta o'zimiz*

18.*Yo'ldan*

19.*Ozamiz!*

YAZARIZ… (199)

1. "Hava soğuyup gitti!"

2. Yazarız!

3. "Yağmur yağıp geçti!"

4. Yazarız!

5. "Sokak halka oldu!"

6. Yazarız!

7. Keçi haram öldü!"

8. Yazarız!

9. Sığır gözünü süzdü!"

10. Yazarız!

11."Boğa ipini kesti!"

12. Yazarız!

13."Toşmat araba aldı!"

14. Yazarız!

15."Eşmat eyvan yaptı!"

16. Yazarız!

17. Yaza yaza yavaşça kendimiz

18. Yoldan

19.Çıkarız! (9 Mart 2009)

SHOIRLAR (200)

(Esdaliklardan)

1. *Uch-to‘rt shoir to‘planib olib,*
2. *Bir-birlarin maqtashar biyron;*
3. *- Men Pushkinman, sen - Mirzo G‘olib,*
4. *U - Navoiy, bu esa - Bayron.*

5. *Alahlashar bitta niyatda:*
6. *Uni yo‘qot, bunisin yemir.*
7. *To tonggacha Adabiyotda*
8. *Ter to‘kadi yolg‘iz Mirtemir.*

ŞAİRLER (200)

(Anılardan)

1. Üç dört şair toplanıp,
2. Birbirlerini överler bayağı:
3. - Ben Puşkin’im, sen Mirza Galip,
4. O, Nevâî, bu ise Byron.

5. Boş konuşurlar bir amaçta:
6. Onu yok et, bunu yık.
7. Ta sehere dek Edebiyatta
8. Ter döker yalnız Mirtemir. (9 Mart 2009)

UMR ZINALARI (201)

1. *Yigitlikda eslaysan bolalikni,*

2. *Bog‘lari gul, tog‘lari lolalikni.*

3. *O‘rta yoshda yigitlik yodga tushar,*
4. *Tomiringda qonlaring qaynab, jo‘shar.*

5. *Yetgaydirsan oltmishu yetmishga ham,*
6. *O‘rta yoshing o‘ylarsan sen ushbu dam.*

7. *Aslo ruxsat so‘ramay umr yelar,*
8. *Tomorqangga to‘qson ham kirib kelar.*

9. *Qilolmaysan hech kimdan o‘pka-gina,*
10. *Axir tugab bormoqda ko‘hna zina.*

11. *Keksalikni eslashga kelmas navbat,*
12. *Endi bitta tasalli qolgay faqat:*

13. *Nabiralar nima deb o‘ylar ekan?*
14. *Fe’li qandoq chol eding? Gulmi, tikan?*

15. *Ne bo‘lsa ham yashayver ko‘rmay zavol,*
16. *Lekin so‘nggi sinovga shay turgin, chol.*

ÖMÜR MERDİVENLERİ (201)

1. Gençlikte hatırlarsın çocukluğu,
2. Bahçeleri gül, dağları laleliği.

3. Orta yaşta gençlik hatıra düşer,
4. Damarında kanın kaynayıp, coşar.

5. Yeteceksindir altmış ve yetmişe de,
6. Orta yaşını düşünürsün sen o an.

7. Asla izin istemeden ömür eser,
8. Bahçene doksan da girer.

9. Besleyemezsin hiç kimseye öfke, kin,
10. Artık tükenip gitmekte köhne merdiven.

11. Yaşlılığı hatırlamaya gelmez sıra,
12.Şimdi bir teselli kalacak sadece:

13. Torunlar ne diye düşünür imiş?
14. Ruhu nasıl ihtiyar idin? Gül mü, diken?

15. Ne olursa yaşayıver görmeden zeval,
16. Lakin son sınava hazır dur, ihtiyar. (19 Mart 2009)

YOLG‘ONCHI (202)

1. *Sen shu qadar o‘rganibsan yolg‘on gapga,*
2. *Otangni ham boshlagaysan o‘ngdan chapga.*
3. *Rost gapirsang, osh tovog‘ing yaloq bo‘lar,*
4. *Uying kuyib, xotining ham taloq bo‘lar.*

YALANCI (202)

1. Sen o kadar öğrenmişsin yalan sözü,
2. Babana da başlayacaksın sağdan sola.
3. Doğru konuşursan, aş tabağın yalak olur,
4. Evin yanıp, hanımın da talak olur. (20 Mart 2009)

BOR GAP (203)

1. *Hozircha keraksan yorug‘ olamga,*
2. *Hozircha noming bor, yo‘lingda yo‘q g‘ov.*
3. *Ziyrak bo‘l, duch kelgan har bir odamga -*
4. *Salom ber darrov.*

5. *Ehtimol, aqchang ham mo‘ldir qo‘lingda,*
6. *Tagingda tulporing kishnar, ehtimol.*
7. *Kimki salom bersa uchrab yo‘lingda,*
8. *Alik ol darhol.*

9. *Payt kelar, bir chetda kezursan tanho,*
10.*Tulporing kishnamas, aqchang ham qolmas.*
11.*Sening borligingni bilishmas hatto,*
12.*Hech kim salom bermas,*
13.*Alik ham olmas....*

TÜM SÖZ (203)

1. Şimdi gereksin aydınlık âleme,
2. Şimdi adın var, yolunda yok engel.
3. Uyanık ol, rastladığın her bir insana
4. Selam ver derhâl.

5. Belki, paran da çoktur elinde,
6. Altında küheylanın kişner, belki.
7. Kim selam verse rastlayıp yolunda,
8. Selam al hemen.

9. Vakit gelir, bir kenarda gezersin tenha,
10.Küheylanın kişnemez, paran da kalmaz.
11. Senin varlığını bilmezler hatta,
12. Hiç kimse selam vermez,
13. Selam da almaz… (30 Mart 2009)

HAYOT KO‘ZGUSI (204)

1. *Mana bu ko‘prikdan o‘tasan har kun,*
2. *Manziling yaqindir, tashvishing yiroq.*
3. *Kimdir bu ko‘prikni qurgani uchun*
4. *Bir og‘iz rahmating aytmaysan, biroq.*

5. *Chinorning soyasi seni etdi rom,*
6. *Charchog‘ing chiqarib, mizg‘iding sekin.*
7. *Uning panohida topdingu orom,*
8. *Bir zum eslamading egasin, lekin.*

9. *Odam bolasiga xosdir bu odat,*
10.*Har qanday holda ham o‘ylar o‘zini.*
11.*Axir o‘z aksini ko‘rgaydir faqat,*
12.*Ko‘zguga tashlagan chog‘i ko‘zini.*

13.*Bu gap bamisoli Xizr yo‘liqib,*
14.*Boshqa qiyofada turgan kabidir.*
15.*Shoirning she’rini miriqib o‘qib,*

16.*O‘zini tanimay yurgan kabidir.*

HAYAT AYNASI (204)

1. İşte bu köprüden geçersin her gün,
2. Adresin yakındır, kaygın uzak.
3. Biri bu köprüyü kurduğu için
4. Birazcık teşekkür etmezsin, ancak.

5. Çınarın gölgesi seni bıraktı hayran,
6. Yorgunluğunu çıkarıp, uyukladın yavaşça.
7. Onun himayesinde buldun huzur,
8. Bir an hatırlamadın sahibini, ama.

9. İnsan evladına hastır bu âdet,
10. Her hâlde de düşünür kendini.
11. Artık kendi aksini görecektir yalnız,
12. Aynaya çevirdiği zaman gözünü.

13. Bu söz sanki Hızır’a rastlayıp,
14. Başka kılıkta durmuş gibidir.
15.Şairin şiirine doyup okuyup,
16. Kendini tanımadan yürümüş gibidir. (7 Nisan 2009)

OTA (205)

1. *Ushbu hikmat bilan oboddir dunyo,*
2. *Otani bilmishlar pir deb doimo.*
3. *Ota rizoligin olib yur mudom,*
4. *Ota qarg‘ishidan asrasin, Xudo.*

BABA (205)

1. Şu hikmetle abattır dünya,
2. Babanı bilmişler pir diye daima.
3. Baba rızasını al müdama,
4. Baba bedduasından korusun, Hüda. (10 Nisan 2009)

POLVON (206)

Abdulla Tangriyevga

1. *Merosiy polvonsan, Alpomish otang,*
2. *Ko‘zingda chaqnaydi oftob shu’lasi.*
3. *Raqibingni siltab osmonga otsang*
4. *Oyni ko‘rib qaytar bira-to‘lasi.*

PEHLİVAN (206)

Abdulla Tanrıyev’e

1. Mirasî pehlivansın, Alpamış atan,
2. Gözünde parlar güneş ışığı.
3. Rakibini çekiverip asumana atsan
4. Ayı görüp döner aynı anda. (11 Nisan 2009, Tirmiz)

OTA MAQOMI (207)

1. *Otang to‘qson yoshda o‘tdi olamdan,*
2. *Yig‘la, voy otam deb, yig‘la, bag‘ring til.*
3. *Otaning maqomi Hazrat Odamdan,*
4. *Uning yosh-qarisi yo‘qdir, shuni bil!*

5. *Tug‘ilgan paytingda, rostakam boyib,*
6. *Ko‘ngli orzularga to‘lgan ham o‘sha.*
7. *Ariqqa yiqilsang, oyog‘ing toyib,*
8. *Daryoga cho‘kkandek bo‘lgan ham o‘sha.*

9. *Xazon kezganida kuzgi bog‘ingda,*
10. *Sening kamolingga ko‘z tikkan otang.*
11. *Devorni ot qilib mingan chog‘ingda,*
12. *Tog‘ni zabt etgandek entikkan otang.*

13. *Olisdan bir enlik xatingni kutib,*
14. *Tong sahar yo‘l qarab yurgan ham Udir.*
15. *Qiynalsang, boshingga savdolar tushib,*
16. *Senga qalqon bo‘lib turgan ham Udir.*

17. *Allohning ishidan bo‘lmagay nolib,*
18. *Otangning qadrini, rahmat, bilibsan.*
19. *Tobutin oldiga tushib, dod solib,*
20. *Ogangni sharaflab to‘g‘ri qilibsan.*

21. *Otang to‘qson yoshda o‘tdi olamdan,*
22. *Yig‘la, voy otam deb, yig‘la, bag‘ring til.*
23. *Otaning maqomi Hazrat Odamdan,*
24. *Uning yosh-qarisi yo‘qdir, shuni bil!*

BABA MAKAMI (207)

1. Baban doksan yaşında göçtü âlemden,
2. Ağla, vay babam diye, ağla, bağrını dil,
3. Babanın makamı Hazreti Âdem’den,
4. Onun genci yaşlısı yoktur, bunu bil!

5. Doğduğun anda, hakiki zenginlik,
6. Gönlü arzularla dolan da o.
7. Arığa düşsen, ayağın kayıp,
8. Deryaya çökmüş gibi olan da o.

9. Sonbahar gezdiğinde güzki bağında,
10. Senin kemaline göz dikmiş baban.
11. Duvarı at yapıp bindiğin çağında,
12. Dağı zapt etmiş gibi nefesi kesilmiş baban.

13. Uzaktan bir enlik mektubunu bekleyip,
14. Tan seher yol bakan da O'dur.
15. Acı çeksen, başına zorluklar gelip,
16. Sana kalkan olan da O'dur.

17. Allah'ın işinden etmeyecek şikâyet,
18. Babanın kadrini, şükür, anlamışsın.
19. Tabutun önüne düşüp, haykırıp,
20. Babanı şereflendirip doğru yapmışsın.

21. Baban doksan yaşında göçtü âlemden,
22.Ağla, vay babam diye, ağla, bağrını dil,
23. Babanın makamı Hazreti Âdem'den,
24. Onun genci yaşlısı yoktur, bunu bil! (29 Nisan 2009)

TORTISHUV (208)

1. *Tinmay tortishadi ikki suhbatdosh,*
2. *Go'yo musobaqa o'ynab dam-badam.*

3. *U derdi: - Bir ilon ko‘rdim, ikki bosh,*

4. *Bu derdi: - Ko‘rganman to‘rt boshlisin ham.*

5. *U derdi: - Qorinda yotgan mahali*

6. *Bola ulg‘ayarmish dunyoni sezib.*

7. *Bu derdi: - Bir o‘g‘lim tug‘ilmay hali*

8. *Ovoz chiqargandi nedandir bezib.*

9. *Uchinchi odam-chi, eshita turib,*

10.*Dedi: - Bu sho‘rvani shopirgan menman.*

11.*O‘sha sizlar aytgan ilonni ko‘rib,*

12.*Onamning qornida gapirgan menman.*

TARTIŞMA (208)

1. Durmadan tartışır iki sohbettaş,

2. Güya müsabaka yapıp sıkça.

3. O derdi: - Bir yılan gördüm, iki baş,

4. Bu derdi: - Görmüşüm dört başlısını da.

5. O derdi: - Karında yattığın zaman

6. Bebek büyürmüş dünyayı sezip.

7. Bu derdi: - Bir oğlum doğmadan henüz

8. Ses çıkarmıştı neden bezip.

9. Üçüncü insan, işitip,

10. Dedi: - Bu çorbayı soğutan benim.

11.O, sizlerin söylediği yılanı görüp,

12. Anamın karnında konuşan benim. (28 Nisan 2009)

XOTIRA (209)

1. *Yulduzlar misoli bedorsan,*
2. *Tog‘larning qoridek bokira.*
3. *Sen aziz zotlardan yodgorsan,*
4. *Xotira, xotira, xotira.*

5. *Dunyoda botirlar ko‘p o‘tgan,*
6. *So‘nmagan yashashga havasi.*
7. *Kimgadir hayot ham baxsh etgan*
8. *Ularning eng so‘nggi nafasi.*

9. *To o‘zing madadkor ekansan,*
10. *O‘chmagay qalbimda hayajon.*
11. *Niholni asli sen ekkansan,*
12. *Onajon, otajon, bobojon.*

13. *Bu Vatan jannatdir, jannatdir,*
14. *Hayotdir sehrli, sohira.*
15. *Sha’ningga avlodlar rahmat der,*
16. *Xotira, xotira, xotira.*

HATIRA (209)

1. Yıldızlar misali uyanıksın,
2. Dağların karı gibi bakire.
3. Sen aziz zatlardan yadigârsın,
4. Hatıra, hatıra, hatıra.

5. Dünyadan bahadırlar çok geçmiş,

6. Bitmemiş yaşama hevesi.
7. Kimine hayat da bahşetmiş
8. Onların en son nefesi.

9. Ta kendin yardımcı imişsin,
10. Bitmeyecek kalbimde heyecan.
11. Nihalin aslı sen imişsin.
12. Anacığım, babacığım, dedeciğim.

13. Bu Vatan cennettir, cennettir,
14. Hayattır sihirli, sahire.
15.Şanına evlatlar teşekkür eder,
16. Hatıra, hatıra, hatıra. (7 Mayıs 2009)

NABIRAM SHOHRUHGA (210)

1. *Nabira o‘n sakkiz yoshga kiribdi,*
2. *Horma Abdullajon, horma Mamatkul.*
3. *Qarshingda kelajak ro‘y-rost turibdi,*
4. *Bundayin tolening sadag‘asi bo‘l.*

5. *Iltifot qilar u momolariga,*
6. *Ota-onasiga suyanchiq, qo‘rgon.*
7. *O‘zi ichmasa ham, bobolariga*
8. *May qo‘yib beradi bugun Shohruxjon.*

TORUNUM ŞAHRUH’A (210)

1. Torun on sekiz yaşına girmiş,
2. Yorma Abdullacan, yorma Memetkul.
3. Karşında gelecek dosdoğru durmuş,

4. Böyle talihin sadakası ol.

5. İltifat eder o ninelerine,
6. Baba anasına dayanak, kale.
7. Kendisi içmese de, ninelerine
8. Mey koyup verir bugün Şahruhcan. (18 Mayıs 2009)

OV (211)

1. *Bolasini yalar yarador ohu,*
2. *Bir chetda ovchining ko‘zlari lo‘qdir.*
3. *O‘sha payt men uchun Zamin yo‘q, yohu,*
4. *O‘sha payt men uchun Osmon ham yo‘qdir.*

AV (211)

1. Çocuğunu yalar yaralı ahu,
2. Bir köşede avcının gözleri keskindir.
3. O an benim için Zemin yok, yahu,
4. O an benim için Asuman da yoktur. (2 Haziran 2009)

QALB (212)

1. *Daryosi qurisa, chashmasi tinsa,*
2. *Hayotsiz qovjirab qolsa gar zamin.*
3. *Gavjum dalasiga sukunat insa,*
4. *Dehqon cheksa faqat tiriklik g‘amin.*
5. *Osmonga termulsa, tomchi suvga zor,*
6. *Sening qalbing bilan qanday ishi bor.*

7. *Dunyoda muhtojlik yomondan-yomon,*
8. *Magar xonadonni ko‘rgulik bossa.*

9. *Ota boshi egik, ona lol, hayron,*
10.*Eshikka yo‘qchilik to‘rvasin ossa.*
11.*Bolalar qozonga boqsa och-nahor,*
12.*Sening qalbing bilan qanday ishi bor.*

13.*Omad ham dunyoda ot chopib yurar,*
14.*Kimningdir oshig‘i olchi jahonda.*
15.*Kimdir shamol kabi davronin surar,*
16.*Cho‘michi moyda-yu, boshi osmonda.*
17.*Axir davri kelmish, davlati bisyor,*
18.*Sening qalbing bilan qanday ishi bor.*

19.*Goho olis tunlar zirqirar yurak,*
20.*Qadim bu dunyoning savdolaridan.*
21.*Kim bilsin, u pinhon yig‘lasa kerak,*
22.*Olamning tuganmas g‘avg‘olaridan.*
23.*Yolg‘iz bu qalbingga yolg‘iz o‘zing yor,*
24.*Faqat qalbing bilan sening ishing bor.*

KALP (212)

1. Deryası kurusa, çeşmesi dinse,
2. Hayatsız kuruyup kalsa eğer zemin.
3. Kalabalık tarlasına sükûnet çökse,
4. Çiftçi çekse sadece hayat gamını.
5. Asumana gözünü dikse, damla suya muhtaç,
6. Senin kalbinle nasıl işi var?

7. Dünyada muhtaçlık yamandan yaman,
8. Meğer hanedanın talihi gülmese.
9. Baba başı eğik, ana lal, şaşkın,

10. Kapıya yoksul torbasını assa.
11.Çocuklar kazana baksa aç sefil,
12. Senin kalbinle nasıl işi var?

13. Baht da dünyada at koşar,
14. Kiminin talihi gülse cihanda.
15. Kim rüzgâr gibi devran sürer,
16. Kepçesi yağda, başı asumanda.
17. Artık devri gelmiş, devleti bisyar,
18. Senin kalbinle nasıl işi var?

19. Bazen uzun geceler sızlar yürek,
20. Kadim bu dünyanın zorluklarından.
21. Kim bilsin, o gizli ağlasa gerek,
22.Âlemin bitmez kavgalarından.
23. Yalnız bu kalbine yalnız kendin yâr,
24. Sadece kalbinle senin işin var. (2 Haziran 2009)

SHIKOYAT (213)

1. *Garchi to‘rt muchasi butun bo‘lsa ham,*
2. *Do‘xtirga shikoyat qildi bir odam:*
3. *Nega qop-qorong‘u bo‘lar hamma yoq,*
4. *Kuppa-kunduz kuni ko‘zimni yumsam.*

ŞİKÂYET (213)

1. Gerçi sağlığı yerinde olsa da,
2. Doktora şikâyet etti bir insan:
3. Niye kapkaranlık olur her taraf,
4. Güpegündüz gözümü yumsam. (8 Haziran 2009)

RUH (214)

1. *Ketding - fano bo‘lding,*

2. *Endi sen uchun*

3. *Lahad go‘sha bo‘lsa, tanholik hamdam.*

4. *Qaydadir bir do‘sting oh cheksa uzun,*

5. *Qaydadir topilgay qarindoshing ham.*

6. *Kimdir oromidan chindan ham kechgan,*

7. *Bir tush deb o‘ylaydi bularning barin.*

8. *Kimdir tirigingda qoningni ichgan,*

9. *Endi so‘ylay boshlar xotiralarin.*

10. *Ketding, bari bitdi, endi qarshingda*

11. *Balki ochilgaydir poyonsiz hudud.*

12. *Balki bulut bo‘lib turar arshingda*

13. *Hovling o‘chog‘idan o‘rlayotgan dud.*

14. *Ruhing samolarda yursa ham kezib,*

15. *Unutmas zaminda qolgan izlarni.*

16. *Ofat, balolarning sharpasin sezib,*

17. *Ogoh ham qilgaydir balki bizlarni.*

RUH (214)

1. Gittin, fena oldun,

2. Şimdi senin için

3. Kabir yeri olsa, yalnızlık ahbap.

4. Nerede bir dostun ah çekse uzun,

5. Nerede bulunacak kardeşin de?

6. Kimi rahatından gerçekten de geçmiş,
7. Bir düş diye düşünür bunların hepsini.
8. Kimi diriyken kanını içmiş,
9. Şimdi anlatmaya başlar hatıralarını.

10. Gittin, her şey bitti, şimdi karşında
11. Belki açılacaktır payansız hudut.
12. Belki bulut olup durur arşında
13. Avlunun ocağından yükselen duman.

14. Ruhun semalarda yürüse de gezip,
15. Unutmaz zeminde kalan izlerini.
16. Afet, belaların alametini sezip,
17. Agâh da edecektir belki bizleri. (12 Haziran 2009)

TAVALLO (215)

1. *O‘qing Anvar qori, o‘qing, birodar,*
2. *Muqaddas Qur’onning oyatlaridan.*
3. *Ruhimga tinimsiz yog‘dular yog‘ar,*
4. *Cheksiz samovotning qavatlaridan.*

5. *O‘qing «Fotiha»ni, o‘qing «Yosin»ni,*
6. *Tavba eshiklari ochilsinlar lang.*
7. *Tazarru deb biling ko‘zda yoshimni,*
8. *O‘qing, barchamizga shafoat tilang.*

9. *O‘qing, bor gunohlar butkul to‘kilsin,*
10.*Arshgacha yuksalsin savobning haddi.*
11.*O‘qing yovuzlikning beli bukilsin,*
12.*Toki ezgulikning rost bo‘lsin qaddi.*

13.*Insonni ming yillar jaholatidan*

14.*Asliga qaytargan iymon-ku, axir.*

15.*O‘qing, ilohiy so‘z haroratidan*

16.*Erisin hattoki tosh qotgan bag‘ir.*

17.*O‘qing, zarra g‘ubor qolmasin dilda,*

18.*Kunduz quyosh guvoh, tunda guvoh oy.*

19.*Mo‘minlar qatori o‘sha manzilda*

20.*Bormikan menga ham tangachalik joy..?*

TEVELLÂ (215)

1. Okuyun Enver kurrâ’, okuyun, birader,

2. Mukaddes Kur’an’ın ayetlerinden.

3. Ruhuma durmadan nurlar yağar,

4. Sonsuz semavatın katlarından.

5. Okuyun “Fatiha”yı, okuyun “Yasin”i,

6. Tövbe kapıları açılsın ardına kadar.

7. Tazarru diye bilin gözde yaşımı,

8. Okuyun, hepimize şefaat dileyin.

9. Okuyun, bütün günahlar tamamen dökülsün,

10. Arşa dek yükselsin sevabın haddi.

11. Okuyun yavuzluğun beli bükülsün,

12. Ta iyiliğin doğru olsun kaddi.

13. İnsanı binlerce yıl cehaletinden

14. Aslına döndürmüş iman, ahir.

15. Okuyun, ilahi söz hararetinden.

16. Erisin hatta taş kesilmiş bağır.

17. Okuyun, zerre kir kalmasın gönülde,

18.Gündüz güneş şahit, gecede şahit ay.

19.Müminler safı o menzilde

20. Var mıymış bana da kuruşçuk yer? (16 Haziran 2009)

HURRIYAT (216)

1. *Hurriyat, muqaddas bayrog‘im o‘zing,*

2. *Garchi g‘animlar bor ichu toshingda.*

3. *Men uchun faxrdir har aytar so‘zing,*

4. *Bir umr parvona bo‘lgum qoshingda.*

5. *Hurriyat, dadil boq, yovlar ig‘vosi*

6. *Tutsa, etagingdan tutaversinlar.*

7. *Hasadga to‘ladir ular da’vosi,*

8. *Oldingdan bari ham o‘taversinlar.*

9. *Hurriyat neligin mash’um zamonda*

10.*Poymol bo‘lgan huquq, haqqimdan so‘rang.*

11.*Qadrin topolmayin yashab armonda,*

12.*Tili zabun bo‘lgan xalqimdan so‘rang.*

13.*Hurriyat neligin xoki xor bo‘lgan*

14.*Imom Buxoriydek insondan so‘rang.*

15.*Vatani o‘ziga tangu tor bo‘lgan*

16.*Qodiriydan so‘rang, Cho‘lpondan so‘rang.*

17.*Odamzot bor ekan ko‘kka tikib ko‘z,*
18.*Orzu qilganini kutgay betoqat.*
19.*Tarix guhfa bersa, olgay u so‘zsiz,*
20.*Hurriyat atalmish gavharni faqat.*

21.*Shoirlar yozgaydir qasidasin ham,*
22.*Kuylab hurriyatning xushsafosini.*
23.*Rizqin terib yursin, mayli, har odam,*
24.*Har el aziz tutsin Rahnamosini.*

25.*Bolam, sen yo‘ldasan, yet niyatingga,*
26.*Ozod kechgan umr - jannatlardan soz.*
27.*Bilib qo‘y, shu qutlug‘ Hurriyatingga*
28.*O‘n sakkiz ming olam fido bo‘lsa oz!*

HÜRRİYET (216)

1. Hürriyet, mukaddes bayrağım özün,
2. Gerçi düşmanlar var iç ve dışında.
3. Benim için övgüdür her söylediğin sözün,
4. Bir ömür pervane olayım karşında.

5. Hürriyet, cesur bak, düşmanların nifakı
6. Tutsa, eteğinden tutuversinler.
7. Hasetle doludur onların devası,
8. Önünde hepsi de oturuversinler.

9. Hürriyet ne olduğun meşum zamanda
10.Pâymâl olmuş hukuk, hakkıma sorun.
11. Kadrini bulamadan yaşayıp ukdede,
12. Dili zebun olmuş halkıma sorun.

13.Hürriyetin ne olduğunu toprağı hor görülen
14.İmam Buhârî gibi insana sorun.
15. Vatanı kendisine dar edilen
16. Kadirî'ye sorun, Çolpan'a sorun.

17.Âdemoğlu var imiş göğe dikmiş göz,
18. Arzu ettiğini bekleyecek takatsiz.
19. Tarih hediye verse, alacak o sözsüz,
20.Hürriyet denilmiş cevheri sadece.

21.Şairler yazacaktır kasidesini de,
22. Methedip hürriyetin hoş sefasını.
23.Rızkını toplasın, peki, her insan,
24. Her halk aziz tutsun Rehberini.

25. Evladım, sen yoldasın, eriş niyetine,
26. Azat geçmiş ömür, cennetlerden iyi.
27. Bil, şu kutlu Hürriyetine
28. On sekiz bin âlem feda olsa az! (20 Temmuz 2009)

SURXON MO''JIZALARI (217)

1. *Mo''jiza axtarsang, yurmagil gangib,*
2. *Yaxshisi, Surxonning tog'lariga bor.*
3. *Simobiy pech bilan boshini tang'ib,*
4. *Seni qarshi olar sehrli Hisor.*

5. *Qora bodomining bitta donasi*
6. *Yashartar, barg kabi tursang ham so'lib.*

7. *Suviga dam urgach, Omonxonasi*
8. *Ko‘ksingga purkaydi Sangardak bo‘lib.*

9. *Uchqizil tarafga aylagil safar,*
10. *Bir yog‘i cho‘l uning, bir yog‘idir ko‘l.*
11. *Yo Haq, deb qumiga kirsang sen agar*
12. *Qirq yillik dardingni aritgay butkul.*

13. *Gapida tuzi yo‘q kaslar oz emas,*
14. *Bir umr namaksiz ichgan oshini.*
15. *Behazil aytganda, kim kelsa ham, bas,*
16. *Yalaydi Xo‘jamning tuzlik toshini.*

17. *Bir boqsang, qizlari pariga o‘xshar,*
18. *Zaraut naqshidan tushgandek go‘yo.*
19. *Seni ham majnunlar safiga qo‘shar,*
20. *Lo‘livash nigohu turkona yag‘mo.*

21. *Iforu sunbullar tanigga darmon,*
22. *Qayta tug‘ilgandek bo‘lursan shu payt.*
23. *Qolgan bo‘lsa agar dilingda armon,*
24. *Termiziy otaning o‘zlariga ayt.*

SURHAN MUCİZELERİ (217)

1. Mucize ararsan, yürüme şaşırıp,
2. İyisi, Surhan’ın dağlarına var.
3. Gümüş rengi sarıkla başını sarıp,
4. Seni karşılar sihirli Hisar.

5. Kara bademin bir tanesi
6. Yeşerir, yaprak gibi dursan da solup.
7. Suyuna sıcak vurunca, Amanhanesi
8. Göğsüne çağlar Sangardak olup.

9. Üçkızıl tarafına yap sefer,
10. Bir yanı ihtiyar onun, bir yanıdır göl.
11. Ya Hak, deyip kumuna girsen sen eğer
12.Kırk yıllık derdini bitirecek tamamen.

13.Sözünde tuzu yok insanlar az değil,
14. Bir ömür tuzsuz yemiş aşını.
15.Şakasız dediğinde, kim gelse de, denk,
16. Yalar Hoca'mın tuzluk taşını.

17. Bir baksan, kızları periye benzer,
18. Zarautz nakşından düşmüş gibi güya.
19. Seni de mecnunlar safına katar,
20. Leylî-veş nigâh u Türkane yağma.

21. Kokulu sümbüller tene derman,
22. Yeniden doğmuş gibi olursun o an.
23. Kalmış olsa eğer gönlünde ukde,
24. Tirmizî Baba'nın kendilerine söyle. (20 Ağustos 2009, Tirmiz)

TAAJJUB (218)

1. *Qorni to'ygan kuni qashshoq bir odam,*
2. *Nogoh, ko'zlab qoldi yulduz va oyni.*
3. *Dedi: - Eng badavlat insonman shu dam,*
4. *Ko'rsatingiz menga Hotami Toyni.*

5. *Nodonga, o‘qi, deb berdilar kitob,*

6. *Donoga aylandi u ham o‘sha kez.*

7. *U ham qolganlarga ayladi xitob:*

8. *- Ko‘rsatingiz menga Aflotunni tez.*

9. *Odamlar bu holni hazil deb bilib,*

10.*Shunchaki lof kabi qabul etdilar.*

11.*Dedilar: - U zotlar xijolat bo‘lib,*

12.*Sizga ko‘rinmayin qaytib ketdilar.*

TAACCÜP (218)

1. Karnı doyduğu gün yoksul bir insan,

2. Birden gözetledi yıldız ve ayı.

3. Dedi: - En zengin insanım o an,

4. Gösteriniz bana Hatemi Tayı.

7. Nadana, oku, deyip verdiler kitap,

8. Dânâya dönüştü o da o kez.

7. O da kalanlara etti hitap:

8. - Gösteriniz bana Eflatun’u tez.

9. İnsanlar bu hâli şaka diye anlayıp,

10.Öylesine söz gibi kabul ettiler.

11. Dediler: - O zatlar hacâlet olup,

12. Size görünmeden dönüp gittiler. (23 Ağustos 2009)

UZANGI (219)

1. *Kimlardir har ishning paytini poylar,*

2. *Beta’ma birovga bermas oshini.*

3. *Egarda ekansan - iltifot aylar,*

4. *Oltin uzangingga urib boshini.*

5. *Oyog‘ing tayanchdan uzilsa bir bor,*

6. *Barchasi daf’atan aylanur yovga.*

7. *Ularga sen emas, kerakdir tulpor,*

8. *Qo‘llarin cho‘zarlar endi jilovga.*

ÜZENGİ (219)

1. Kimileri her işin zamanını bekler,

2. Tamahsız birine vermez aşını.

3. Eyerde imişsin iltifat eder,

4. Altın üzengine vurup başını.

5. Ayağın dayanaktan çekilse bir kez,

6. Hepsi birden dönüşür düşmana.

7. Onlara sen değil, gerektir tulpar,

8. Ellerini uzatırlar şimdi dizgine. (24 Ağustos 2009)

HAYIT (220)

Nabiram Alisherga

1. *Hayit kelsa chalinadi*

2. *Nog‘oralar.*

3. *Somsa bilan to‘lib ketar*

4. *Tog‘oralar.*

5. *Bayram bo‘lar har bir uyda,*

6. *Xonadonda.*

7. *Xursandchilik otajonu*

8. *Onajonda.*

9. *Momolar shod, ammalar shod,*

10.*Xolalar shod.*

11.*Hammadan ham o‘yinqaroq*

12.*Bolalar shod.*

13.*Sho‘x nabira savol berar*

14.*Tinmay birpas:*

15.*- Bobo, ayting, nega har kun*

16.*Hayit emas?*

17.*Bobo so‘ylar avval turli*

18.*Maqolini.*

19.*Javob berar so‘ngra silab*

20.*Soqolini:*

21.*- Hayit kuni qachon kelar,*

22.*Belgili-ku.*

23.*Meni har kun tabriklasang,*

24.*Kulgili-ku.*

BAYRAM (220)

Torunum Ali Şîr’e

1. Bayram gelse çalınır

2. Kudümler.

3. Samsayla dolup gider

4. Tabaklar.

5. Bayram olur her bir evde,

6. Hanedanda.

7. Memnuniyet babacığım ve

8. Anacığımda.

9. Nineler şad, halalar şad,

10. Teyzeler şad.

11. Hepsinden de sevinçli

12.Çocuklar şad.

13. Neşeli torun soru sorar

14. Durmadan biraz:

15.- Dede, söyleyin, niye her gün

16. Bayram değil?

17. Dede söyler evvel muhtelif

18. Atasözünü.

19. Cevap verir sonra sıvazlayıp

20. Sakalını:

21.- Bayram günü ne zaman gelir,

22. Belli.

23. Beni her gün tebriklersen,

24.Gülmeli. (25 Ağustos 2009)

ESKI DO‘ST (221)

1. *Kimdandir qo‘l uzish mumkindir, biroq*

2. *Ko‘ngil uzib bo‘lmas eski do‘stlardan.*

3. *Ular baland turgan, balanddir har choq*

4. *Turfa hashamlardan, kamu ko‘stlardan.*

5. *Ular qatorida o‘ynagil, kulgil,*

6. *Bir xil nafas olgay yo‘qsil ham, boy ham.*

7. *Eski do‘stlaringdan uzmagil ko‘ngil,*

8. *Eski do‘stlaringdir quyosh ham, oy ham.*

ESKİ DOST (221)

1. Birinden el çekmek mümkündür, fakat

2. Gönül koymak olmaz eski dostlara.

3. Onlar yüksek durur, yüksektir her zaman
4. Acayip süslerden, noksan ve kusurlardan.

5. Onların safında oyna, gül,
6. İyi bir nefes alacak yoksul da, zengin de.
7. Eski dostlarına koyma gönül,
8. Eski dostlarındır güneş de, ay da. (14 Eylül 2009)

O‘KINCH (222)

Rafiqamga

1. *O‘tgan fursatlarni bo‘lmaydi tutib,*
2. *O‘tgan o‘tdi endi - buni bilgayman.*
3. *Va lekin gohida dardimni yutib,*
4. *Tazarru qilgayman, tavba qilgayman.*

5. *Bilmasmiz yaxshilik kelgaydir qachon,*
6. *Bilmasmiz muddatin yomonlikning ham,*
7. *Kimningdir omadi chopsa nogahon,*
8. *Kimnidir poylaydi tashvish bilan ham.*

9. *Qay zamon bir to‘da zotlar beshafqat,*
10.Gunohsiz Insonning sug‘irdi jonin.
11.Imkonim bo‘lsa-da, etmadim jur’at,
12.Men o‘sha sho‘rlikning olmadim yonin.

13.Mudom xush ko‘rgaymiz lutfu xandani,
14.Biroq, bir holatga guvoh bo‘lganman:
15.Masxara qilishsa ojiz bandani,

16.*Davraga qo‘shilib, men ham kulganman.*

17.*Kimningdir dardidan bo‘lmadim ogoh,*
18.*Komil etolmadi birorta maktab.*
19.*Bir shoir do‘stimning oldida nogoh*
20.*Boshqa bir shoirni qo‘yganman maqtab.*

21.*O‘tgan kunlarimga tashlayman nazar,*
22.*Har nechuk, biz uni yashab o‘tganmiz.*
23.*Taqdir boshimizdan sochmasa ham zar,*
24.*Jonim, shu kunlarni intiq kutganmiz.*

25.*Uzoq safarlarga sensiz yo‘l olsam,*
26.*Meni koyimading, ko‘nglim to‘q edi.*
27.*Qaydadir tentirab, agar kech qolsam,*
28.*Men o‘ylab topmagan sabab yo‘q edi.*

29.*Kechalar termilib oyga, yulduzga,*
30.*Qop-qop va’dalarning toshini terdim.*
31.*Yo‘qchilik azobin ilmadim ko‘zga,*
32.*Baxtliman dedim-u ko‘ksimni kerdim.*

33.*Bu kun she’r biturman shukrona aytib,*
34.*Dardkash qalamimni qo‘limdan qo‘ymay.*
35.*Bilurman, yoshligim kelmaydi qaytib,*
36.*Hanuz diydoringga boqurman to‘ymay.*

37.*Alloh to‘zim bersin bardosh, sabringga,*
38.*Ba’zan o‘kinch bilan bag‘rim tilgayman.*

39.*Aytgil, yetoldimmi Sening qadringga,*

40.*Tazarru qilgayman, tavba qilgayman.*

PİŞMANLIK (222)

Refikama

1. Geçmiş fırsatları olmaz tutmak,
2. Geçmiş geçti şimdi, bunu bileceğim.
3. Velakin bazen derdimi yutup,
4. Tazarru edeceğim, tövbe edeceğim.

5. Bilmeyiz iyilik gelecektir ne zaman,
6. Bilmeyiz müddetini kötülüğün de.
7. Kimin talihi koşsa nâgâhân,
8. Kimi bekler endişeyle de.

9. Ne zaman bir grup zat şefkatsiz,
10.Günahsız İnsanın aldı canını.
11.İmkânım olsa da, etmedim cüret,
12. Ben o biçareyi etmedim himaye.

13. Her zaman hoş göreceğiz lütuf ve handanı,
14. Fakat bir duruma tanık olmuşum:
15. Alay etseler âciz bendeyi,
16. Gruba katılıp, ben de gülmüşüm.

17. Kimsenin derdinden olmadım agâh,
18.Kâmil edemedi bir merkep.
19. Bir şair dostumun yanında nâgâh,

20. Başka bir şairi koymuşum mektep.

21. Geçen günlerime atarım nazar,
22. Her nasıl biz onu yaşayıp geçmişiz.
23. Takdir başımızdan saçmasa da zar,
24. Canım, o günleri intizar beklemişiz.

25. Uzun seferlere sensiz yol alsam,
26. Beni ayıplamadın, gönlüm rahat idi.
27. Bir yerde avare gezip, eğer geç kalsam,
28. Benim düşünüp bulmadığım sebep yok idi.

29. Geceler dik dik bakıp aya, yıldıza,
30.Çuval çuval vaatlerinin taşını derdim.
31. Yokluk azabını almadım göze,
32. Bahtlıyım dedim, göğsümü gerdim.

33. Bugün şiir yazarım şükür deyip,
34. Dertkeş kalemimi elimden bırakmadan.
35. Bilirim, gençliğim gelmez dönüp,
36. Henüz didarına bakarım doymadan.

37. Allah direnç versin tahammül, sabrına,
38. Bazen pişmanlıkla bağrımı deleceğim.
39.Söyle, ulaşamadım Senin kadrine,
40. Tazarru edeceğim, tövbe edeceğim. (22 Eylül 2009)

GLOBALLASHUV (223)

1. *Olimlar bir kuni tarqatdi e'lon:*

2. *- Tinchgina uxlayver uyingda, Inson.*

3. *Hali Oy uzilib Yerga tushmagan,*

4. *Ummonlar toshmagan, tog‘lar ko‘chmagan.*

5. *Nimani istasang bajo bo‘lajak,*

6. *Seni kutayotir oydin kelajak.*

7. *Lekin bilishmasdi, ahvol dabdala,*

8. *Uyqu bermas edi oddiy qandala.*

KÜRESELLEŞME (223)

1. Âlimler bir gün etti ilan:

2. - Sessizce uyuyuver evinde, İnsan.

3. Henüz Ay kopup Yere düşmemiş,

4. Ummanlar taşmamış, dağlar göçmemiş.

5. Neyi istersen tamam olacak,

6. Seni bekler aydınlık gelecek.

7. Lakin bilmezlerdi, ahval fena,

8. Uyku vermez idi basit kene. (1 Ekim 2009)

ODDIY HAQIQAT (224)

1. *Bobolar uqdirmish necha zamonlar,*

2. *Ajalning oldida jonimiz bir deb.*

3. *Nogoh duch kelishsa hatto hayvonlar,*

4. *Bir-birin tanirmish, qonimiz bir deb.*

5. *Inson fazolarga chiqsa xam garchand,*

6. *Zaminga bog‘liqdir umri, hayoti.*

7. *Odam degan so‘zga jon ipi payvand,*

8. *Har xil bo‘lsa hamki rutbasi, oti.*

9. *Birimiz oqdirmiz, birimiz qora,*

10.*Birimiz bug‘doyrang, shundoqmiz, xullas.*

11.*Tarok tishlaridek tengmiz va sara,*

12. *Bir xildir hamisha orzu va havas.*

13.*Bitta deb sipqordim, taqdir, jomingni,*

14.*Bitta olov bo‘lib taralgay ohim.*

15.*Yagona bo‘lsang-da, turfa nomingni*

16.Barchaga tarqatib berding, Allohim.

17.*Baxt bir xil quvnatar, bir xil ezar g‘am,*

18.*Bir xil tug‘ilgaymiz, bir xil o‘lgaymiz.*

19.*Yig‘lasak bir xildir ko‘z yoshimiz ham,*

20.*Kulsak ustimizdan asli kulgaymiz.*

SADE HAKİKAT (224)

1. Dedeler anlatmış nice zaman,

2. Ecelin karşısında canımız bir diye.

3. Nâgâh rastlasa hatta hayvanlar,
4. Birbirini tanırmış, kanımız bir diye.

5. İnsan fezalara da çıksa gerçi,
6. Zemine bağlıdır ömrü, hayatı.
7. İnsan denen söze can ipi peyvend,
8. Her tür olsa da rütbesi, atı.

9. Birimiz akızdır, birimiz kara,
10. Birimiz buğday rengi, böyleyiz, hülasa.
11. Tarak dişleri gibi denkiz ve âlâ,
12. Bir türdür daima arzu ve heves.

13. Bir yudum diye içtim, kader, kadehini,
14. Bir alev olup yayılacak ahım.
15. Yegâne olsan da, ilginç namını
16. Hepsine dağıtıp verdin, Allah'ım!

17. Baht aynı mutlu eder, aynı ezer gam,
18. Aynı doğacağız, aynı öleceğiz.
19. Toplasak aynıdır gözyaşımız da,
20.Gülsek aslında kendimize güleceğiz. (4 Ekim 2009)

QISHLOQ OQSHOMLARI (225)

(Esdaliklardan)

1. *Namozgar ham tushdi,*
2. *Shom kirmoqda zil,*
3. *O'chmoqda qontalash shafaqning rangi.*

4. *Salqin havolarda harirday yengil,*

5. *Muallaq ko‘rinar yo‘llarning changi.*

6. *Poda qaytayotir tog‘ etagidan,*

7. *Qishloqqa yetmasdan tarqalar, chopar.*

8. *Govmish yo‘lin burdi ko‘prik tagidan,*

9. *Qadrdon hovlisin adashmay topar.*

10.*Terak uchlarida oftobning yuqi,*

11.*So‘nggi cho‘g‘larini tashlar o‘choqqa.*

12.*Qaydandir keladi kafgir taq-tuqi,*

13.*Urilar piyozdog‘ hidi dimoqqa.*

14.*Kechki taomning ham fursati yetgan,*

15.*Dasturxon atrofi asta to‘ladi.*

16.*Ko‘chadan “Oshalol”, “Oshalol” degan,*

17.*Podachining sasi eshitiladi.*

18.*Kimdir olib chiqar go‘ja yo patir,*

19.*Kimdir shavlasini solgan tovoqqa.*

20.*Harna yegulikni to‘kishar bir-bir,*

21.*Podachi ko‘tarib olgan qovoqqa.*

22.*Boshlanadi olis, mahzun pallalar,*

23.*Na bir taskin bordir, na bordir ermak.*

24.*Bir-birin pinjiga kirsa bolalar,*

25.*Kattalarni chulg‘ar charchoq va pinak.*

26.*Sayhondan bir ovoz taralar nogoh,*

27.*Bolakay “Kel, ho-o-o” deb chorlar atayin.*

28.*Tovushi tun qushin tovushiday, goh*

29.*Oyning shu’lasidek yoyilar mayin:*

30.*Tomda tovuq yotarmi,*

31.*Oyoqlari qotarmi.*

32.*Endigining bolasi*

33.*Namozshomdan qotarmi.*

34.*Kel, ho-o-o...*

35.*Oq kuchukvachcha,*

36.*Qora kuchukvachcha.*

37.*Uyidan chiqmagan*

38.*Ola kuchukvachcha.*

39.*Kel, ho-o-o...*

40.*Chiqar bolakaylar uylardan gurros,*

41.*Shamolda dovuchcha to‘kilgandek duv.*

42.*Sayhon to‘lib ketar, solishar chuvvos,*

43.*Bir zumda boshlanar o‘yin va qiy-chuv.*

44.*Yumush bilan o‘tdi axir uzun kun,*

45.*Lekin mitti qalbda uxlamas havas.*

46.*Yaxshidir, ayniqsa, oydin bo‘lsa tun,*

47.*Onang koyisa-da, yayraysan birpas.*

48.*Tun ham og‘ib borar, bolalar tarqar,*

49.*Uy-uyiga deydi, tepa to‘yiga.*

50.*To‘shakka o‘zlarin tashlaru uxlar,*

51.*Dong qotar, hech narsa kelmay o‘yiga.*

52.*Tushlariga kirar ertangi yumush,*

53.*Lablari gezargan tungi uchuqdan.*

54.*Dalada moliga o‘t o‘rar emish,*

55.*Suv tashib kelarmish olis quduqdan.*

KÖY AKŞAMLARI (225)

(Anılardan)

1. İkindi de oldu,

2. Akşam da girmekte ağır,

3. Kaybolmakta kızaran şafağın rengi.

4. Serin havalarda ipek gibi hafif,

5. Muallak görünür yolların tozu.

6. Sürü döner dağ eteğinden,

7. Köye ulaşmadan yayılır, koşar.

8. Süt sığırı yolunu çevirdi köprü dibinden,

9. Değerli avlusunu kaybetmeden bulur.

10. Kavak uçlarında afitabın yükü,

11. Son anlarını bırakır ocağa.

12. Nereden gelir kevgir tak tuku,

13. Vurur kavrulmuş soğan kokusu dimağa.

14. Akşamki yemeğin de zamanı gelmiş,

15. Sofra etrafı yavaşça dolar.

16. Sokaktan “Aşelal”, “Aşelal” diyen,

17.Çobanın sesi işitilir.

18. Kimi alıp çıkar goca yahut ekmek,
19. Kimi şevlesini[164] koymuş tabağa.
20. Ne olsa da yiyeceği dökerler bir bir,
21.Çoban kaldırıp almış tabağa.

22. Başlar uzak, mahzun anlar,
23. Ne bir teskin vardır, ne vardır teselli.
24. Birbirinin himayesine girse çocuklar,
25.Büyüklerini sarar yorgunluk ve uyuklayış.

26. Kayrandan bir ses yayılır nâgâh,
27.Oğlan "Gel, hey-ey-ey" diye çağırır mahsus.
28. Sesi gece kuşu sesi gibi, bazen
29. Ayın şulesi gibi yayılır hoş:

30. Damda tavuk yatar mı,
31. Ayakları katılaşır mı
32. Zamane çocuğu
33. Akşam namazından yorulur mu.
34. Gel, hey-ey-ey…

35. Ak enik,
36. Kara enik.
37. Evinden çıkmayan
38. Ala enik.
39. Gel, hey-ey-ey…

[164] Et, havuç, soğan ve pirinçle pişirilen bir yulaf lapası yemeğidir.

40.Çıkar oğlanlar evlerden hurra,
41.Rüzgârda yeşil kayısı dökülmüş gibi birden.
42. Kayran dolup gider, çıkarırlar gürültü,
43. Bir anda başlar oyun ve şamata.

44.İşle geçti artık uzun gün,
45. Lakin küçük kalpte uyumaz heves.
46.Güzeldir, bilhassa, aydınlık olsa gece,
47. Anan azarlasa da, keyif alırsın biraz.

48. Gece de dönüp gider, çocuklar dağılır,
49. Evli evine der, köylü köyüne.
50.Döşeğe kendilerini atar ve uyur,
51. Nam salar, hiçbir şey gelmeden fikrine.

52.Düşlerine girer yarınki iş,
53. Dudakları sararmış gece uçuktan.
54. Tarlada malını ateş satar imiş,
55. Su taşıyıp gelirmiş uzak kuyudan. (12 Ekim 2009)

BOLAJON (226)

1. *Boboning bosimi chiqar dam-badam,*
2. *Garchi ro‘zg‘ori but, sog‘lomday tani.*
3. *Davolaning desa, qo‘l siltar beg‘am,*
4. *Hatto parhezni ham ushlasa qani.*

5. *Ortiq takallufga qilmas hech toqat,*
6. *Deydi: - Qon bor ekan, chiqar miyaga.*
7. *Bunchalik e’tibor, deydi na hojat,*
8. *Yoshi o‘tib qolgan bir qariyaga.*

9. *Nonushta paytida hamma bo‘lar jam,*

10.*Otaga o‘g‘il ham choy tutmoqqa shay.*

11.*Kelin sekingina pichirlar shu dam:*

12.*- Kichkinaning ozroq issig‘i borday...*

11.*O‘g‘liga yuzlanar birdan otaxon,*

14.*O‘g‘il duch kelgandi go‘yo baloga:*

15.*- Gerdayib yurishni yig‘ishtir, nodon,*

16.*Bolaga qara-da, bolaga...*

ÇOCUK (226)

1. Dedenin tansiyonu çıkar dembedem,

2. Gerçi ailesi tam, sağlam gibi bedeni.

3. Tedavi olun dense, elinin tersiyle iter bî-gam,

4. Hatta perhiz de yapsa hani.

5. Artık iltifata etmez hiç takat,

6. Der: - Kan var imiş, çıkar beyne.

7. Bu kadar itibaar, der ne hacet,

8. Yaşı geçmiş bir ihtiyara.

9. Kahvaltı anında her şey olur cem,

10. Babaya oğul da çay tutmaya hazır.

11. Gelin yavaşça fısıldar o an:

12.- Küçüğün azıcık ateşi var gibi…

13.Oğluna yüzünü çevirir birden baba,

14.Oğul rastlamıştı sanki belaya:

15.- Kibirlenip yürümeyi bırak, nadan,

16.Çocuğa bak, çocuğa… (14 Ekim 2009)

KIBR (227)

1. *Aqlning bulog‘i qurimasa bas,*

2. *So‘nib qolmasa bas ruhning yulduzi.*

3. *Bularsiz aslida tiriklik abas,*

4. *Tunga aylanadi hatto kunduzi.*

5. *Bunday chog‘ yuksalib nafs degan balo,*

6. *Ezgu hislaringdan kelgaydir ustun.*

7. *Hadya kutajaksan bolangdan hatto,*

8. *Bitta g‘isht qo‘ymassan o‘z otang uchun.*

9. *Hasad degan olov gurlab daf’atan,*

10. *Butkul chulg‘ab olgay fikru dilingni.*

11.*Kibr borlig‘ingda qurgaydir maskan,*

12.*Qora dud qoplagay umr yo‘lingni.*

13. *O‘zidan mosuvo bo‘lgan Insonning*

14. *Mudom qilgan ishi yomonga do‘ngan.*

15. *Bunday payt deydilar: - Afsus, falonning,*

16. *Bulog‘i qurigan, yulduzi so‘ngan.*

KİBİR (227)

1. Aklının bulağı kurumasa yeter,

2. Sönmese yeter ruhunun yıldızı.

3. Bunlarsız aslında hayat abes,

4. Geceye döner hatta gündüzü.

5. Böyle an yükselip nefis denen bela,
6. İyi hislerinden gelecektir üstün.
7. Hediye bekleyeceksin evladından hatta,
8. Bir tuğla koymazsın kendi baban için.

9. Haset denen alev gürleyip birden,
10.Büsbütün sarıp alacak fikir ve gönlünü.
11. Kibir varlığında kuracaktır mesken,
12. Kara duman kaplayacak ömür yolunu.

13.Özünden masiva olan İnsanın
14.Sürekli yaptığı işi kötüye dönmüş.
15.Böyle bir an derler: - Maalesef, falanın,
16. Bulağı kurumuş, yıldızı sönmüş. (22 Ekim 2009)

SAYROB CHINORI (228)

1. *Ming yillik chinorning tagida xushhol*
2. *Davra qurgan edi uch-to‘rtta ulfat.*
3. *Tilab bir-biriga zafar va iqbol,*
4. *Qadah aytishardi navbatma-navbat.*

5. *Qay biri azamat chinorga boqib,*
6. *Shundoq umr ko‘rsin dedi har inson.*
7. *Yaxshi gap hammaga birdayin yoqib,*
8. *Qadah ko‘tarishdi shomgacha xandon.*

9. *Buning qiziq joyi yo‘qdir aslida,*

10.*Balki shart emasdir sha’niga ash’or.*
11.*Lekin men umrimning sokin faslida*
12.*Cho‘msam xayollarga nima aybi bor.*

13.*Uning soyasida balki Iskandar*
14.*Eslab o‘z yurtini sharob ichgandir.*
15.*Bunda orom olib Temur muzaffar*
16.*Kimningdir qonidan balki kechgandir.*

17.*Mashrabdek qalandar dunyoni kezib,*
18.*Izlagan bir hamdam, izlagan yorni.*
19.*Manfur kimsalarning makridan bezib,*
20.*Balki panoh tutgan shu bir chinorni.*

21.*Qochgan ham, quvgan ham o‘z g‘amin yeydi,*
22.*Mag‘lub bo‘lmasa bas, omad kelsa bas.*
23.*Yuz yoshlik keksa ham o‘lmasam deydi,*
24.*Chinorning umriga aylagay havas.*

25.*Boqiy narsa yo‘qdir axir dunyoda,*
26.*Sobit tog‘larning ham yiqilmog‘i bor.*
27.*Garchi ezgulikning qadri ziyoda,*
28.*Nechun yovuzlik ham yashaydi poydor?!*

29.*Bir chetda oh cheksa ezgulik yakka,*
30.*Tinmas yovuzlikning qutqusi, sasi.*
31.*Vo ajab, oldinroq yetgay falakka*
32.*Ikkinchi tarafning sovuq nafasi.*

33.*Savol berguvchi ko‘p ushbu olamda,*
34.*Javob izlagan ham bas degancha bor.*
35.*Hayrat uyg‘otadi lekin odamda,*
36.*Yaxlit bir hikmatning ramzidek Chinor.*

37.*Qadah urishtirar ulfatlar shodon,*
38.*So‘ylashib orzu va tilaklarini.*
39.*Chinor-chi, jim tinglar ming yildan buyon*
40.*Ularning adoqsiz cho‘pchaklarini.*

SAYROB ÇINARI (228)

1. Bin yıllık çınarın dibinde hoşnut
2. Meclis kurmuş idi üç dört ahbap.
3. Dileyip birbirine zafer ve ikbal,
4. Kadeh tokuştururdu sırayla.

5. İçlerinden bir delikanlı çınara bakıp,
6. Şöyle ömür görsün dedi her insan.
7. Güzel söz hepsinin birden hoşuna gidip,
8. Kadeh kaldırdılar akşama dek handan.

9. Bunun ilginç yanı yoktur aslında,
10. Belki şart değildir şanına eş’âr.
11. Lakin ben ömrümün sakin faslında
12. Dalsam hayallere ne ayıbı var?

13. Onun gölgesinde belki İskender
14. Hatırlayıp kendi yurdunu şarap içmiştir.
15. Burada dinlenip Timur muzaffer
16. Birinin kanından belki geçmiştir.

17. Meşreb gibi kalender dünyayı gezip,
18. Aramış bir dost, aramış bir yâri.
19. Menfur kimselerin mekrinden bezip,
20. Belki penâh tutmuş şu bir çınarı.

21. Kaçan da, kovalayan da kendi gamını yer,
22. Mağlup olmasa yeter, talih gelse yeter.
23.Yüz yaşındaki ihtiyar da ölmesem der,
24.Çınarın ömrüne edecek heves.

25. Baki bir şey yoktur artık dünyada,
26. Sabit dağların da yıkılması var.
27. Gerçi iyiliğin kadri ziyade,
28. Niçin yavuzluk da yaşar payidar?!

29. Bir kenarda ah çekse iyilik yalnız,
30. Bitmez yavuzluğun fitnesi, sesi.
31. Garip, daha önce yetişecek feleğe
32.İkinci tarafın soğuk nefesi.

33. Soru soran çok bu âlemde,
34. Cevap arayan da yeteri kadar var.
35. Hayret uyandırır lakin insanda,
36. Tam bir hikmetin remzi gibi Çınar.

37. Kadeh tokuşturur ahbaplar şâdân,
38.Söyleşip arzu ve dileklerini.
39.Çınar, sessiz dinler bin yıldan bu yan
40. Onların bitmeyen hikâyelerini. (1 Kasım 2009)

DARYO (229)

1. *Sen deysan, she’rlaring negadir mahzun,*
2. *Axir dunyo go‘zal, ajibdir olam.*
3. *Satringda yonma-yon mudom kun va tun,*
4. *Dard bilan qorishiq quvonchlaring ham.*

5. *Sening aytganlaring rostdir, birodar,*
6. *Har kimni har ko‘yga boshlagay hayot.*
7. *Kimnidir ko‘tarsa samolar qadar,*
8. *Kimnidir chohlarga tashlagay hayot.*

9. *Yo‘qdir bu olamda sobit rang va tus,*
10. *O‘zgarib borgaydir o‘chib ketguncha...*
11. *Sen ichgan u toza buloqlar, afsus,*
12. *Bo‘tana bo‘lgaydir pastga yetguncha.*

13. *Chechaklar unsa-da tog‘lar toshida,*
14. *Cho‘qqining ildizi yer tagidadir.*
15. *Sening uying axir daryo boshida,*
16. *Mening uyim esa etagidadir...*

DERYA (229)

1. Sen dersin, şiirlerin niye mahzun,
2. Artık dünya güzel, ilginçtir âlem.
3. Satırında yan yana daima gündüz ve gece,
4. Dertle karışık sevinçlerin de.

5. Senin dediklerin gerçektir, birader,

6. Herkesi her duruma sevk edecek hayat.
7. Kimini kaldırsa semalar kadar,
8. Kimini çukurlara atacak hayat.

9. Yoktur bu âlemde sabit renk ve şekil,
10. Değişecektir unutulup gidinceye dek…
11. Senin içtiğin o temiz bulaklar, maalesef,
12. Pis olacaktır alta erişinceye dek.

13.Çiçekler bitse de dağların taşında,
14. Zirvenin yıldızı yerin dibindedir.
15. Senin evin artık derya başında,
16. Benim evim ise eteğindedir… (3 Kasım 2009)

EZGULIK (230)

1. *Bu ko‘hna zaminda necha zamonlar*
2. *Yashab o‘tdi qancha botir insonlar.*
3. *Ulardan so‘rashdi: - Sizda ne maqsad?*
4. *Dedilar: - Ezgulik, ezgulik faqat!*

5. *Kimlarni ko‘rmadi bu qadim dunyo,*
6. *O‘tdi necha olim, necha avliyo.*
7. *Ulardan so‘rashdi: - Sizda ne maqsad?*
8. *Javob bitta bo‘ldi: - Ezgulik faqat!*

9. *Tarix maydonida surishib otlar,*
10.*Bir-birin qulatdi necha bir zotlar.*

11.*Ulardan so‘rashdi: - Sizda ne maqsad?*

12.*Ular ham dedilar: - Ezgulik faqat!*

İYİLİK (230)

1. Bu köhne dünyada nice zamanlar
2. Gelip geçti pek çok bahadır insanlar.
3. Onlara sordular: - Maksadınız ne?
4. Dediler: - İyilik, iyilik sadece!

5. Kimleri görmedi bu kadim dünya,
6. Geçti nice âlim, nice evliya.
7. Onlara sordular: - Maksadınız ne?
8. Cevap tek oldu: - İyilik sadece!

9. Tarih meydanında sürüp atlar,
10. Birbirini düşürdü nice zatlar.
11. Onlara sordular: - Maksadınız ne?
12. Onlar da dediler: - İyilik sadece! (14 Aralık 2009)

SOVUQNI KAMSITMA (231)

1. *Yorishmas ichingga yoqsa ham chiroq,*
2. *Fe’li sovuqlardan bo‘l, deysan yiroq.*
3. *Sovuqni kamsitma, asli, birodar,*
4. *Ulardan sovuqning o‘zi yaxshiroq.*

SOĞUĞU KÜÇÜKSEME (231)

1. Aydınlanmaz içini yaksa da çırağ,
2. Karakteri soğuklardan ol, dersin uzak.

3. Soğuğu küçümseme, asıl, birader,

4. Onlardan soğuğun kendisi daha iyi. (14 Kasım 2009)

DARD (232)

1. *Qand degan bir dardga uchrabsan ukam,*

2. *Qoningda shirinlik ortib ketibdi.*

3. *Qoni shirin bo‘lgan bobolarning ham,*

4. *Senga ham shu qismat nasib etibdi.*

5. *Yaratganning o‘zi marhamat aylab,*

6. *Keng qilib qo‘yibdi imkonimizni.*

7. *Birovlar qoniga yo‘q bizda talab*

8. *Biz ichib yurgaymiz o‘z qonimizni.*

DERT (232)

1. Küp şeker diye bir derde rastlamışsın kardeşim,

2. Kanında şirinlik artıp gitmiş.

3. Kanı şirin olan dedelerinin de,

4. Sana da bu kısmeti nasip etmiş.

5. Yaradan’ın kendisi merhamet edip,

6. Geniş yapmış imkânımızı.

7. Birilerinin kanına bizde yok talep

8. Biz içeceğiz kendi kanımızı. (17 Aralık 2009)

KIYIM DO‘KONIDA (233)

1. *Aslida she’r qilish shart emas buni,*

2. *Kiyim do‘koniga kirdim bir kuni.*

3. *Atrofda rang-barang bejirim libos,*

4. *Barisi ajoyib, sarpolikka mos.*

5. *Ularga mahliyo boqdimu bir dam,*

6. *Xarid qilmoqlikka chog‘landim men ham.*

7. *Garchi turfa kiyim bunda bor edi,*

8. *Men uchun biri keng, biri tor edi.*

9. *Yonimda kuzatib turgan bitta chol,*

10.*Sekin jilmaydi-yu, so‘z qotdi xushhol:*

11.*- Kiyim mos kelmasa o‘kinmang aslo,*

12.*To‘g‘ri kelsa basdir ko‘ngilga dunyo.*

GİYİM DÜKKÂNINDA (233)

1. Aslında şiir yazmak şart değil buna,

2. Giyim dükkânına girdim bir gün.

3. Etrafta rengârenk hoş kıyafet,

4. Hepsi ilginç, takım için uygun.

5. Onlara büyülenmiş baktım bir dem,

6. Satın almaya hazırlandım ben de.

7. Gerçi muhteşem kıyafet burada var idi,

8. Benim için biri geniş, biri dar idi.

9. Yanımda bakınıp duran bir ihtiyar,

10. Yavaşça gülümsedi, söz ekledi hoşnut:

11.- Kıyafet uymasa da hayıflanmam asla,

12. Makul gelse kâfidir gönlüne dünya. (29 Aralık 2009)

BARKAMOL AVLOD (234)

1. *Komillik yo‘lida chekib ranj, alam,*

2. *Bir umr tinmadi qo‘limda qalam.*

3. *Senga ham “komil bo‘l”, dedi Yurtboshim,*

4. *Axir komilikka ne yetsin, bolam.*

BERKEMAL EVLAT (234)

1. Kâmillik yolunda çekip keder, elem,

2. Bir ömür durmadı elimde kalem.

3. Sana da “kâmil ol”, dedi yurt başım,

4. Artık kâmilliğe ne yetsin, evladım. (5 Ocak 2010)

XABAR (235)

1. *Turfa xabarlarni tinglaymiz har kun,*

2. *Qaydadir toshqinu, qaydadir bo‘ron.*

3. *Xabarlarga to‘la bu olam butun,*

4. *Xabarlarga to‘la har lahza, har on.*

5. *Daydi shamolning ham mujdasi bordir,*

6. *Kabutarlar berar poklikdan xabar.*

7. *Telefonlar esa doim bedordir,*

8. *Xabar tarqatadi to tongga qadar.*

9. *Olis qit’alardan xabarlar kelar,*

10.*Kelar sog‘inch sasi, g‘azab yo alam.*

11.*Uchqur raketalar fazoda yelar,*

12.*Keladi ularning xabarlari ham.*

13.*Xabar kutib o‘tar kunlarim sekin,*

14.*Xabarlar to‘xtamas, bundan ko‘nglim to‘q.*

15.*Biz bitta shaharda yashaymiz, lekin,*

16. *Sendan xabar yo‘qdir, sendan xabar yo‘q...*

HABER (235)

1. İlginç haberleri dinleriz her gün,

2. Nerededir taşkın ve nerededir fırtına?

3. Haberlerle dolu bu âlem bütün,

4. Haberlerle dolu her lahza, her an.

5. Der rüzgârın da müjdesi vardır,

6. Kebûterler verir paklıktan haber.

7. Telefonlar ise daim bîdârdır,

8. Haber dağıtır ta tana kadar.

9. Uzak kıtalardan haberler gelir,

10. Gelir sevinç sesi, gazap yahut elem.

11.Hızlı roketler fezada eser,

12. Gelir onların haberleri de.

13. Haber bekleyip geçer günlerim sessiz,

14. Haberler bitmez, bundan gönlüm tok.

15. Biz bir şehirde yaşarız, lakin,

